ISSN 2181-8258
DOI prefiksi: 10.69691
ResearchBib IMPAKT FACTOR: 9,347

Journal THE LIGHT OF CIVILIZATION

Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

2026-yil
3-son (78)

TAMADDUN NURI jurnali
Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal
MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
"Beruniy avlodlari" jamoat fondi
HAMKORLARIMIZ:
O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Urganch davlat universiteti
TAHRIR HAY'ATI:
BOSH MUHARRIR:
Munavvara KURBANBAYEVA
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Anvar ALLAMBERGENOV, fil.f.f.d (PhD)
TEXNIK MUHARRIR:
Islombek ABDIKHAKIMOV, y.f.f.d (PhD)
BO'LIM MUHARRIRI:
Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.
Qahramon QURONBOYEV, s.f.d.,prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)
Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)
Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)
Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.
Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.
Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.
Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.
Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru, (Ozarbayjon)
Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.
Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.
Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)
Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)
Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.
Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)
Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)
Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)
Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)
Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)
Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)
Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d.,prof.
Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)
Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sirojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Qurbon SHONIYOZOV
O'rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV
Adabiy maslahatchi:
Guliston MATYOQUBOVA
Rassom:
Alibek ABDURAHMONOV
Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV
Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Beruniy tumani.
Web-sayt: https://jurnal.tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram kanali: https://t.me/tamaddunnuri
Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
Qog'oz bichimi 60x84 ⅛. Nashriyot hisob tabog'i 28.
Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.
Bosishga 2026-yil 30-martda ruxsat etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy.
2026-yil, 3-son (78).
Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №34.
Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

10.69691 DOI

ISSN-2181-8258

Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

journal THE LIGHT OF CIVILIZATION
Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine
Founders: Beruniy District Municipality
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
Public Foundation “Descendants of Berunius"
Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division
Karakalpak State University, Urgench State University

EDITORIAL BOARD:
EDITOR-IN-CHIEF:
Munavvara KURBANBAEVA
DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Anvar ALLAMBERGENOV
TECHNICAL EDITOR:
Islombek ABDIKHAKIMOV
SECTION EDITOR:
Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.
Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, phil.sc.n., (PhD) (India)
Azizulloh AROL, phil.sc.n., (PhD) (USA)
Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)
Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.
Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.
Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.
Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.
Mamlakat JUMANIYAZOVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.
Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,
(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)
Bakhtiyar KARIMOV, phiosl.sc.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, philos.sc.d.
Alima BERDIMURODOVA, philos.sc.d.
Odilbek RADJAPOV, philos.sc..d., (PhD)
Mangubek URAZMETOV, philos.sc.d., (PhD)
Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , Phil. f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, Phil. sc.d., (DSc), professor
Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Russiya)
Shukurjon Norbayeva, Phil. sc.d., (DSc)
Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)
Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)
Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, Phil. sc.d., (DSc)
Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof., (Ozarbayjon)
Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.
Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)
Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)
Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

COMMUNITY COUNCIL:
Sirojiddin SAYID
Muhammad Ali
Kengesboy KARIMOV
Iqbal MIRZA
Kurban SHONIAZOV
Orozboy ABDURAHMANOV
Muratboy JUMANOV
Literary Advisor:
Gulistan MATYOQUBOVA
Painter:
Alibek ABDURAHMANOV
Page editor:
Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan,
Beruni district.
Website: https://tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram channel: https://t.me/tamaddunnuri
Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40
The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.
Paper size 60x84 ⅛. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.
It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.
Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2026, No.3 (78).
This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #34. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.

“Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.
Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".

Crossref DOI-10.69691

ISSN-2181-8258

Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK:008.314.316.7.120

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARI QARASHLARIDA YOSHLAR TARBIYASI VA MA'NAVIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI

Patiyev Xoldor Ikromovich, Termiz davlat pedagogika instituti "Falsafa, ma'naviyat asosloari va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

YOUTH EDUCATION AND THE FORMATION OF SPIRITUAL VALUES IN THE VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF THE JADID MOVEMENT

Patiyev Kholdor Ikromovich, Lecturer at the Department of Philosophy, Fundamentals of Spirituality and Legal Education, Termez State Pedagogical Institute



e-mail: patiyevx@gmail.com https://orcid.org/0009-0001-2244-6711

ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ И ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ВО ВЗГЛЯДАХ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ

Патиев Холдор Икромович, преподаватель кафедры "Философия, основа духовности и правового образования" Термезского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur maqolada barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, aqliy, jismoniy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik hamda ekologik tarbiya turlarining yosh avlod kamolotidagi pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *barkamollik, avlod, tarbiya, qadriyatlar, jadid, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, mehnat tarbiyasi.*

Abstract: *This article analyzes the role of national values, customs, and traditions in the process of educating a well-rounded generation. It also scientifically highlights the pedagogical significance of various types of education—intellectual, physical, moral, economic, labor, aesthetic, and ecological—in the development and formation of the younger generation.*

Key words: *perfection, generation, education, values, Jadid movement, intellectual education, moral education, physical education, economic education, labor education.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль национальных ценностей, обычаев и традиций в процессе воспитания гармонично развитого поколения. Также с научной точки зрения освещается педагогическое значение таких видов воспитания, как интеллектуальное, физическое, нравственное, экономическое, трудовое, эстетическое и экологическое воспитание в формировании и развитии молодого поколения.*

Ключевые слова: *гармоничное развитие, поколение, воспитание, ценности, джадиды, интеллектуальное воспитание, нравственное воспитание, физическое воспитание, экономическое воспитание, трудовое воспитание.*

KIRISH (INTRODUCTION/ВВЕДЕНИЕ). Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan yosh avlodning ma'naviy, intellektual va jismoniy barkamolligi bilan belgilanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa sharq xalqlari madaniyatida oilaviy qadriyatlar asrlar davomida saqlanib kelinib, yoshlarni ijobiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda. Oilada shakllangan ma'naviy muhit, ota-ona va oila a'zolarining mas'uliyatli munosabati farzand tarbiyasining samaradorligini

belgilovchi muhim omillardan biridir. Qadriyatlar, urf-odat va an'analar ham barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida asosiy vositadir. Bu qadriyatlar oilada, ta'lim-tarbiya maskanida va jamoada inson ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Oilaviy qadriyatlarni saqlash sharq xalqlarida an'ana sifatida saqlanib qolgan. Bu an'analar bolalarni ijobiy fazilatlar bilan voyaga yetkazadi. Farzand tarbiyalanayotgan oila a'zolari oilaviy qadriyatlardan kelib chiqqan holda o'z burchlarini munosib ado etsa, bu yaxshi samara beradi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Barkamol avlod tarbiyasi haqida ko'plab ilmiy va badiiy asarlarda fikr bildirilgan. Bu haqida jadid ma'rifatparvarlari ham ko'plab fikr bildirgan. Jumladan, Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida, Abdurauf Fitrat "Hind sayyohi bayonoti" asarida, Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" asarida, Is'hoqxon Ibratning "Mezon uz-zamon" asarida va boshqa mualliflar asarlarida bu tushuncha haqida ko'plab ijtimoiy-falsafiy ma'lumotlar berilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish, tarixiy-taqqoslash, tizimli yondashuv hamda kontent tahlil metodlaridan foydalanildi. Jadid ma'rifatparvarlari asarlari hamda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar asosida barkamol shaxs tarbiyasining tarkibiy komponentlari o'rganildi. Shuningdek, tarixiy manbalardagi pedagogik g'oyalar hozirgi ta'lim tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

MUHOKAMA (DISCUSSION/ОБСУЖДЕНИЕ). Xalqning yaratgan moddiy va ma'naviy meroslari avlodlar kelajagini belgilab beradigan omillardan sanaladi. Bu haqida falsafa fanlari doktori, professor E.Yusupov quyidagicha fikr bildirgan: "Ma'naviy kamolot xalqning tarixi, madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati va ahamiyatini xolisona bilish, ulardan oqilona foydalanish, rivojlantirish bilan bog'liqdir"[6].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tarbiya jarayoni o'ziga xos usul va shakllarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilmoqda. Tarbiyaning asosiy turlari keng qamrovda quyidagicha tasniflanadi: 1) aqliy tarbiya, 2) jismoniy tarbiya, 3) axloqiy tarbiya, 4) iqtisodiy tarbiya, 5) mehnat tarbiyasi, 6) estetik tarbiya, 7) ekologik tarbiya. Shaxsni fan asoslariga oid nazariy bilimlar tizimi bilan boyitish va intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon - – axloqiy tarbiya hisoblanadi. Abdulla Avloniy bu tarbiyani fikr tarbiyasi deb atagan. Yoshlarda bu tarbiyaning yaxshi bo'lishi muallimning fidoiyligiga bog'liq bo'ladi. Aqliy tarbiya — barkamol insonni shakllantirish jarayonining yetakchi tarkibiy qismi bo'lib, yosh avlodning tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, ularda ilmiy dunyoqarash, tafakkur madaniyati hamda intellektual faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon fan asoslaridan xabardorlikni oshirish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bilimlarni ongli egallash esa mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok, aqliy salohiyat va ijodiy iqtidorning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Jismoniy tarbiya – tarbiya tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning jismoniy barkamolligi hamda sog'lom hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Abdulla Avloniy jismoniy tarbiyani badan tarbiyasi deb nomlaydi. Ma'rifatparvar bu haqida shunday izoh bildiradi: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik va kasalsiz jasad lozimdir. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchillik qilurlar"[5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Bugungi taraqqiy etgan ishlab chiqarish tizimi va ijtimoiy muhit jismonan chiniqqan, yuqori mehnat unumdorligiga ega, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan hamda vatan himoyasiga tayyor yoshlarni tarbiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan jismoniy tarbiyani bolalikdan boshlab muntazam tashkil etish dolzarb masaladir. Davlat siyosatida jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor berilishi yosh avlodni sog'lom, faol va barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya – inson ongining ijtimoiy shakllaridan biri sifatida shaxsning o'ziga, jamiyat a'zolariga va tabiatga bo'lgan munosabatini belgilovchi xulq-odob, axloqiy me'yorlar tizimini ifodalaydi. A.Avloniy axloq tarbiyasi haqida ham qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Uning

ta’kidlashicha, axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi tarbiyadur. Tarbiya bilan dars orasida farq bor. Chunki dars oluvchi-bilguvchi, tarbiya oluvchi-amal qilguvchi bo‘ladi.

Axloq – insonning ichki dunyosini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, u xulq-atvor, e’tiqod, fikr yuritish, muloqot va muomala madaniyatida o‘z ifodasini topadi. Axloqli shaxs o‘z sha’nini qadrlaydi, ichki tartib-intizomga rioya qiladi hamda ma’naviy yetuklik darajasi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiy tarbiya – bu maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon bo‘lib, u yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirishga yo‘naltirilgan maqsadli faoliyat tizimini ifodalaydi.

Iqtisodiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha jadid ma’rifatparvarlari o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar. Xususan, Fitrat vatandoshlariga, millatdoshlariga murojaat qilib, shunday yozgan edi: “Sizlar o‘z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib, savdo ishiga o‘qitingiz, chunki begonalar (xorijiy savdogarlar) tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz”[1]. Iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi raqobat ekanligi ma’lum. Qayerda raqobat bo‘lsa, o‘sha yerda taraqqiyot bo‘ladi.

Abdurauf Fitrat bu haqida yana: “Turkistonlik hunarmandlar ovrupaliklar singari qo‘l mehnatiga asoslangan korxonalarni doimiy fabrikalarga aylantirmas ekanlar, bir necha yildan keyin ularning sharafli san’atidan nom-nishon qolmaydi. Shuning uchun ish tanazzulga borib yetmasdan ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosiga ko‘chirish lozim”[1], – deb fikr bildirgan. Bu ishlarni amalga oshirishda iqtisodiy bilimni xabardor bo‘lmoq kerak edi.

Shuni aytish joizki, ma’rifatparvar iqtisodiy bilimlarni egallash orqali iqtisodiy tarbiyani shakllantirish mumkin ekanligini izohlaydi. Bu kabi fikrlar bugungi yoshlarning tadbirkorlikka bo‘lgan intilishlarini kuchaytirishi lozim. Tadbirkorlik insondan nafaqat iqtisodiy ta’lim-tarbiy, balki mehnat tarbiyasini ham talab etadi.

Mehnat tarbiyasi – inson kamolotining asosi va hayot mazmunini belgilovchi omil bo‘lib, uning maqsadi o‘quvchilarda mehnat mohiyatini anglash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shaxs o‘z mehnati natijasidan qoniqish his qilganida, mehnat tarbiyasi haqiqiy tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Muallim Shakuriy ijtimoiy foydali mehnatning jamiyat taraqqiyoti va yosh avlodni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi. Faqatgina mehnat orqaligina jamiyatni gullab yashnatish, inson ma’naviy dunyosini boyitish, oilaning osoyishtaligi, tinch-totuvligini ta’minlashi mumkin. Inson o‘z halol mehnati orqaligina atrofdagilar orasida obro‘-e’tiborga, hurmat-izzatga sazovor bo‘lishi mumkin. Shakuriy mehnat inson ma’naviy-axloqiy barkamolligining muhim sharti degan xulosaga keldi[2]. Yuqoridagi tarbiya turlari insondan hayotda moddiy yoki ma’naviy ehtiyojlarini qondirish jarayoni bo‘lib qolmasdan, hayotdan zavq olib yashash, uning mohiyatini qadrlash kabi xislatlarni ham shakllantiradi. Bu esa estetik tarbiya va did tushunchalari bilan uyg‘unlashadi.

XULOSA (CONCLUSION/ЗАКЛЮЧЕНИЕ). Barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlar, pedagogik an’analar hamda jadid ma’rifatparvarlari g‘oyalari muhim ahamiyatga ega. Aqliy, jismoniy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik va ekologik tarbiyalar o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirilgandagina shaxsning har tomonlama kamol topishi ta’minlanadi. Jadid ma’rifatparvarlarining ilm-ma’rifatga chaqiruvchi g‘oyalari esa bugungi kunda ham yoshlarni vatanparvarlik, bilimdonlik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asrlar. – T:. “Ma’naviyat”, 2009.
2. Abdurauf Fitrat. Jadid adabiyoti namoyondalari. Hind sayyohi bayonoti. – T.: Zabarjad Media, 2024.
3. Amridinova D.T. Samarqand jadidchiligining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2006.
4. Ishoqxon Ibrat. Tanlangan asarlar. – T:. “Ma’naviyat” 2009.
5. Mahmudxo‘ja Byehbudiy.Tanlangan asarlar. – T:. “Ma’naviyat”, 2009.
6. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: “Universitet”,1998.

Qabul qilindi: 28.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 93/94

XIVA ICHAN-QAL'A MUZEY FONDIDAGI BURUN TAQINCHOQLARI (ARAVAKLAR): SEMIOTIK TIZIM, RAMZIY MA'NOLAR VA MADANIY KODLAR

Matyakubova Soxiba O'rinboy qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi



soxibamatyakubova@urgiu.uz
https://orcid.org/0009-0008-3481-2521

NOSE ORNAMENTS (ARAVAKS) IN THE COLLECTION OF THE ICHAN-KALA MUSEUM IN KHIVA: SEMIOTIC SYSTEM, SYMBOLIC MEANINGS, AND CULTURAL CODES

Sokhiba O'rinboy qizi Matyakubova
Independent Researcher
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

НОСОВЫЕ УКРАШЕНИЯ (АРАВАКИ) ИЗ ФОНДОВ МУЗЕЯ ИЧАН-КАЛЫ ХИВЫ: СЕМИОТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА, СИМВОЛИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ И КУЛЬТУРНЫЕ КОДЫ

Матьякубова Сохиба Орынбой кызы,
независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

Annotatsiya: *Maqola Xiva Ichan-qal'a muzeyi fondidagi an'anaviy burun sirg'alari (aravak)ni semiotik va madaniy-ma'naviy jihatdan tahlil qiladi. Unda aravaklarning nafaqat bezak, balki ayolning yoshi, maqomi va mintaqaviy identitetini ifodalovchi murakkab madaniy kod sifatidagi roli ochib berilgan. Tadqiqot an'anaviy uslub va ramziylikning zamonaviy davrda o'zgarishi hamda merosni saqlash zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *aravak, burun sirg'asi, Ichan-qal'a muzey fondi, semiotika, madaniy kod, Xorazm zargarligi, an'anaviy bezak.*

Abstract*: The article provides a semiotic and cultural analysis of traditional nose rings (aravaks) from the collection of the Ichan-Kala Museum in Khiva. It reveals the role of the aravak not only as an ornament but as a complex cultural code that expresses a woman's age, status, and regional identity. The study demonstrates the transformation of traditional style and symbolism in the modern era, as well as the necessity of preserving this heritage.*

Keywords: *aravak, nose ring, Ichan-Kala museum collection, semiotics, cultural code, Khorezm jewelry, traditional adornments.*

Аннотация: *Статья посвящена семиотическому и культурологическому анализу традиционных носовых серёг (араваков) из фонда музея «Ичан-кала» в Хиве. В ней раскрывается роль аравака не только как украшения, но и как сложного культурного кода, выражающего возраст, статус и региональную идентичность женщины. Исследование показывает*

трансформацию традиционного стиля и символики в современную эпоху, а также необходимость сохранения этого наследия.

Ключевые слова: *аравак, носовая серьга, фонд музея Ичан-кала, семиотика, культурный код, хорезмское ювелирное искусство, традиционные украшения.*

KIRISH: Burun sirg‘asi (aravak) an’anaviy o‘zbek madaniyatida nafaqat estetik bezak, balki murakkab semiotik tizimning muhim elementi hisoblanadi. Ushbu taqinchoq orqali ayolning ijtimoiy maqomi, yoshi, mintaqaviy-madaniy identifikatori va ma’naviy-e’tiqodiy qarashlarining vizual ifodasi namoyon bo‘ladi. Xiva Ichan-Qal’a muzey fondida saqlanayotgan aravaklar to‘plami nafaqat hunarmandchilik mahsuli, balki tarixiy-etnografik manba sifatida o‘rganishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xiva Ichan-qal’a muzey fondidagi aravaklar haqidagi tadqiqotlar bir necha ilmiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Tarixiy-etnografik manbalar, xususan P.P.Ivanovning Xiva arxiv hujjatlaridagi ma’lumotlari, XIX asr Xivada zargarlarning tashkil etilgan mahallalari va yuqori ijtimoiy mavqega bo‘lgan dalillarni taqdim etadi [1]. A.Semenovning ta’kidlashicha, O‘rta Osiyo ayollar sirg‘alari juda qadimiy shakllarga ega bo‘lib, har bir mahalliy shaharning o‘ziga xos madaniy kodini aks ettiradi [2]. Madaniyatshunoslik sohasida M.V.Sazonovaning ayollar bezaklarini guruhlarga ajratib tadqiq qilgan [3]. Q.Bakdurdiyevaning Xorazm zargarlik an’analaridagi nozik tipologiyasi (isirg‘a, aravak, zulfitilla va boshqalar) bezaklarni nafaqat badiiy obyekt, balki ma’lum yosh, maqom va hayotiy bosqichlarni ifodalovchi semiotik tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi [4]. Muzey eksponatlari kataloglari va tavsiflari, xususan turli davrlarga oid taqinchoqlarning materiallari, shakllari va bezak usullari haqidagi ma’lumotlar tadqiqotning empirik asosini tashkil qiladi

METOD. Tadqiqot metodologiyasi sifatida, an’anaviy va zamonaviy zargarlik san’atini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy usullar qo‘llanildi. Adabiy manbalarda, arxiv hujjatlarida va muzey kataloglarida keltirilgan bezak namunalari, ularning ishlash texnikasi va bezak elementlari chuqur qiyosiy tahlil qilindi. Har bir taqinchoq, xususan burun sirg‘alari (aravaklar), ular yaratilgan tarixiy-ma’naviy muhit va badiiy kontekstda o‘rganildi, bu esa hunarmandchilik an’analarining rivojlanishida uzluksizlik va o‘zgarishlarni tushunish imkonini berdi.

MUHOKAMA. Xiva arxiv hujjatlarini tekshirib chiqqan P.P.Ivanov bergan ma’lumotlarga ko‘ra, 1850-1860-yillarda Xivada mahalla masjidlari orasida hunarmandlar nomini olgan masjidlar bo‘lgan, shu jumladan, 9 ta hovlini o‘z ichiga olgan Qilichboy zargar masjidi tilga olinadi. 1860-yili Xiva hunarmandlari ro‘yxatiga 12 ta zargar kiritilgan [1, 37].

Tadqiqotchi olim A.Semenov ta’kidlashicha, O‘rta Osiyodagi ayollar sirg‘alari juda arxaik shakllarga ega bo‘lib, ular har bir mahalliy qadimiy shaharga xosdir [2, 307]. Xorazm vohasi ayollar bezaklari M.V.Sazonova tomonidan o‘rganilib, ularni shartli ravishda bir necha guruhlarga bo‘lgan: 1) boshga taqiladigan - boshning yuqori qismini qoplaydigan (qizlarning bosh kiyimlari), chakkadagi, peshanadagi va orqa boshdagi; 2) quloq va burunga taqiladigan sirg‘alar; 3) soch uchun taqiladigan bezaklar; 4) bo‘yin va ko‘krak uchun bezaklar; 5) qo‘llar uchun bezaklar - uzuklar va bilaguzuklar [3, 114].

Voha zargarlik an’analaridagi transformatsion jarayonlarni tadqiq qilgan Q.Bakdurdiyeva esa Xorazm vohasi madaniyatiga xos zargarlik an’analarini Xiva ichan qal’a muzey fondi materiallari asosida tadqiq qiladi. Tadqiqotchi boshga taqiladigan taqinchoqlarni: isirg‘a (quloq), aravak (burun), o‘qyoyduzi, yarimtirnoq, butuntirnoq, bodomoy (chakka), osmaduzi, qanot osma, manglayduzi, tojduzi (peshona), taxyaduzi, tangaduzi, davoduzi, qoshinna, jig‘a (do‘ppi), jamalik, laskokil, zulfitilla (soch) kabilarga ajratishni tavsiya qiladi [4, 19]. Ushbu bezaklardan muayyan yoshda va turli hayotiy vaziyatlarda kiyiladigan komplektlar tuzilgan. “to‘plam” tushunchasi ko‘pincha “ansambl” tushunchasiga mos kelmagan. Bezaklarning bir qismi buyurtma asosida sotib olingan bo‘lsa, yana bir qismi meros bo‘lib o‘tgan [9].

Xiva “Ichan-qal’a” Davlat muzey-qo‘riqxonasi saqlanayotgan an’anaviy taqinchoqlar asosan XVIII-XX asrlarga

tegishlidir. Bu eksponatlar orasida oltin va kumushdan yasalgan zeb-ziynat buyumlaridan *kamar bog‘i, tumor, uzuk, bilakuzuk, tumorlar, zulfitilla, tangaduziy, qush ini, duoduziy, jamalaklar, kalitbog‘i, osmaduziy, sadafduziy, yarim tirnoq, butuntirnoq, bodomoy, shavkala, manglay duziy, marjonduziy, o‘q-yoy duziy, jig‘a, laskokil, tahyaduziy, tilla belbog‘, ko‘krakduziy, marjonlar, isirg’a, xalqalar, aravaklar* saqlanadi [10].

Xorazm vohasida uzuk, bilakuzuk, xalqa, aravak, tumor kabi taqinchoqlar hamma davrlarda ham mavjud bo‘lgan [4, 24]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Amaliy san’at muzeyi 20-sonli jamlanmasi an’anaviy taqinchoqlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda Xorazm vohasiga tegishli jig‘a, isirg‘a, yarimoy, butun tirnoq, shavkala, kalit bog‘i, sochpopuk, zulfi tillo, tahya duziy kabi an’anaviy taqinchoqlar mavjud [11; 12]. Burun sirg‘asi - arabek yoki aravak deb nomlangan bu bezak, nozik oltin simdan yasalgan bo‘lib, ikkita qatorda taxmon (zerin) bilan bezatilgan metall tangachalar, kattaroq diametrli metall sharchalar, firuza va yana shu simdan yasalgan spiral bilan bezatilgan[3, 126]. Oval shakldagi Xiva muzey fondida saqlanayotgan bu isirg‘a oq metalldan tayyorlanib, soddaligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Buyum diametri 35 mm, og‘irligi 5 gramm bo‘lib, bolg‘a ishi va basma texnikalarida ishlangan. Ushbu usullar metall sathiga yengil hajmiylik va dekorativ ifoda beradi. Oq metallning jilosi taqinchoqqa nafislik baxsh etgan. Aravak isirg‘alari o‘zbek ayollarining bezak madaniyatida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ular estetik joziba bilan bir qatorda ma’naviy himoya ramzi sifatida ham qadrlangan[15].

Aravak Xorazm madaniy kodining o‘ziga xos kaliti bo‘lib, u orqali mintaqaning chuqur ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlari ifodalanadi. Janubiy Xorazmda qizlar uchun firuza bilan bezatilgan uch bargli aravak shakli an’anaviy naqsh va ramzlarning mahalliy talqinini ko‘rsatadi. Bu bezakni burunga taqish odati esa faqat qadimiy marosim emas, balki yosh va maqomga oid aniq belgidir. Qishloqlarda aravak an’anasi saqlangan bo‘lsa-da, shaharlarda u o‘z ahamiyatini yo‘qotgan edi va bu esa madaniy kodlarning urbanizatsiya jarayonida o‘zgarishini ko‘rsatadi.





Hozirgi moda va go‘zallik o‘lchovlari butun dunyoga o‘xshash bo‘lib qoldi. Shu sababli ko‘p o‘zbek ayollar ham eski, murakkab an’anaviy taqinchoqlardan ko‘ra, butun dunyoda urf bo‘lgan oddiyroq zargarlik buyumlarini yoqtirishadi. Masalan, odatiy sirg‘alar, uzuklar, bo‘yinga zanjirlar (sepochkalar) yoki bo‘yinbog‘lar kabi [13].

O‘tgan asrda Xorazmning janubida 10-12 yoshli qizlar uchun aravak kichik bir tayanchchadan, tutashmaydigan, firuza toshidan yasalgan uch bargli shaklda qilingan. Aravakni taqish uchun chap burun teshigi teshilgan. Aravakni asosan qishloqlik yosh qizlar va ayollar taqishgan. Ammo katta yoshlilar hamda shahar ayollari o‘rtasida bu holat kuzatilmagan [3, 126].

Zamonaviy davrda bu an’ana sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Keyingi davrdagi ijtimoiy hayot shuni ko‘rsatadiki, aravakning kundalik taqinchoq sifatida ishlatilishi, asosan, qishloq joylardagi keksa avlod ayollar orasida saqlanib qolgan. Yosh va o‘rta yoshli ayollar orasida uni kundalik taqish deyarli yo‘qolgan. Ammo, keksa avlod ayollari hamon ushbu turdagi madaniyatimizning bir parchasini o‘z bisodlarida saqlab kelmoqdalar [14].

NATIJALAR. Tadqiqot jarayonida quyidagi natijalarga erishildi. XIX asr Xiva shahrida zargarlar tashkil etilgan kasbiy mahallalarga ega bo‘lib, bu ularning jamiyatdagi muhim o‘rni va hunarmandchilikning yuqori

darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. An’anaviy bezaklar, xususan aravak, faqat oddiy ziynat emas, balki ayolning yoshi, turmush holati va ijtimoiy mavqeini ko‘rsatuvchi murakkab belgilar tizimi bo‘lgan. Xiva muzeyi fondida saqlanayotgan ko‘plab taqinchoqlar (aravak, zulfitilla, jig‘a va boshqalar) ushbu boy merosning jonli guvohidir. Zamonaviy davrda global moda va hayot tarzining o‘zgarishi tufayli aravak kabi bezaklar kundalik taqinchoqlardan chiqib, asosan marosimlarda yoki keksa avlod tomonidan taqiladigan madaniy ramzga aylangan. Shunday qilib, bu tadqiqot an’anaviy bezaklarning faqat badiiy emas, balki chuqur ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega ekanligini va ularni saqlash va o‘rganish zarurligini aniq ko‘rsatdi.

XULOSA. Xorazm mintaqasining, ayniqsa Xiva shahrining an’anaviy zargarlik san’ati, jumladan burun sirg‘asi (aravak), o‘zining boy guruhlanishi, hunarmandchilik mahorati va chuqur ramziy ma’nolari bilan o‘ziga xos madaniy merosdir. Muzey fondlarida saqlanayotgan bu buyumlar nafaqat go‘zallik obyekti, balki mintaqa tarixi, ijtimoiy tuzilishi va ma’naviy qadriyatlarining moddiy ifodasidir. Hozirgi kunda bu an’analar kundalik hayotdan asta-sekin chiqib, madaniy xotira va tantanali holatlarning ramziga aylanmoqda. Shu sababli, ushbu nodir merosni o‘rganish, hujjatlashtirish va kelajak avlodlarga yetkazish dolzarb ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. – М.: Издание Государственной публичной библиотеки, 1940. – С. 37.
2. Семёнов А.А. Из области воззрений мусульман Средней и Южной Азии на качество и знание некоторых благородных камней и минералов // Мир ислама. 1912. Т. I. № 3. – С. 307.
3. Сазонова М.В. Украшения узбеков Хорезма // Сборник МАЭ. – Л., 1970. – Т. XXVI. – С. 114.
4. Bakdurdiyeva Q. O‘zbek an’anaviy zargarligida transformatsion jarayonlar (Xorazm vohasi misolida): Tarix fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss... avtoref. – Nukus, 2025. – B. 19.
5. Bakdurdiyeva Q. Xorazm vohasi zargarligi tarixiy jarayonlar tontekstida (VIII – XVIII asrlarda) // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2024. – Б. 27-30. (07.00.07 №7/3)
6. Бакдурдиева К. Хорезмские традиционные ювелирные изделия // Этнические меньшинства в истории России. Материалы Международной научной конференции. – Санкт-Петербург, 2024. – С. 112-117.
7. Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX в. – М.: Издание Государственной публичной библиотеки, 1940. – С. 37.
8. Семёнов А.А. Из области воззрений мусульман Средней и Южной Азии на качество и знание некоторых благородных камней и минералов // Мир ислама. 1912. Т. I. № 3. – С. 307.
9. http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/158 (murojaat qilingan sana: 25.11.2025)
10. Ichan qal’a muzey qo‘riqxonasi fondi K.P: 177, 178, 179, 182, 184, 188, 190-195, 355, 405, 503-514, 1061-1062, 1115, 1118-1123, 1126, 1129-1184, 1415-1417.
11. Нуруллаева Ш.К. музей фондлари ва экспонатлари – миллий кийим ва тақинчоқлар тарихини ўрганишда асосий манба сифатида// Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2024-1/3. – Б. 36-40.
12. Amaliy san’at muzeyi 20-sonli jamlanma: KP. № 243, 243, 169, 426, 156, 427, 438, 184, 185, 381, 435, 157, 158, 161.
13. Dala yozuvlari. Xonqa tumani, Ibragimova Xojar, 2024-yil.
14. Dala yozuvlari. Gurlan tumani, Saburova O‘rozgul, 2025-yil.
15. Xiva Ichan qal’a muzey fondi KP6398/2 Inv274

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 342.15

BANDLIK SOHASIDA DAVLAT SUBSIDIYALARINING HUQUQIY TABIATIGA DOIR ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Nasrullayev Shahobiddin Jumaboyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON THE LEGAL NATURE OF STATE SUBSIDIES IN THE FIELD OF EMPLOYMENT

Nasrullayev Shahobiddin Jumaboyevich,
Master’s student of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПРАВОВУЮ ПРИРОДУ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СУБСИДИЙ В СФЕРЕ ЗАНЯТОСТИ

Насруллаев Шахобиддин Джумабоевич,
магистрант Академии правоохранительных органов Республики Узбекистан

e-mail: nasrullaevsahobiddin@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bandlik sohasida davlat subsidiyalarining huquqiy tabiati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Davlat subsidiyalarining bandlikni ta’minlashdagi o‘rni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda huquqiy mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, subsidiyalarni qo‘llashning normativ-huquqiy asoslari, ularning davlat tomonidan tartibga solinishi va mehnat bozoriga ta’siri masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: davlat subsidiyalari, bandlik sohasi, budjet mablag‘lari, korrupsion xavf-xatarlar, ijtimoiy kontrakt, davlat moliyasi, hisobdorlik, shaffoflik.

Abstract: *This article provides a scientific and theoretical analysis of the legal nature of state subsidies in the field of employment. The role of state subsidies in ensuring employment, their socio-economic significance, and legal mechanisms are examined. In addition, the normative and legal foundations of applying subsidies, their regulation by the state, and their impact on the labor market are discussed.*

Key words: state subsidies, employment sector, budget funds, corruption risks, social contract, public finance, accountability, transparency

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется правовая природа государственных субсидий в сфере занятости. Раскрывается роль государственных субсидий в обеспечении занятости, их социально-экономическое значение и правовые механизмы реализации. Также рассматриваются нормативно-правовые основы применения субсидий, вопросы их государственного регулирования и влияние на рынок труда.*

Ключевые слова: государственные субсидии, сфера занятости, бюджетные средства, коррупционные риски, социальный контракт, государственные финансы, подотчётность, прозрачность

KIRISH. Bugungi kunda aholining bandligini ta’minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ana shunday mexanizmlardan biri sifatida bandlik sohasida davlat subsidiyalari instituti alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda aholini ish bilan ta’minlash, kambag‘allikni

qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-apreldagi 225-son qarori muhim huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.[1]

Shu munosabat bilan davlat moliyasi tizimida subsidiyalar ajratish jarayonlarini korrupsiyaga qarshi siyosat nuqtai nazaridan baholash, mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va profilaktik yondashuvlarni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida subsidiya va grantlar ajratish tartibini belgilab beruvchi sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom ushbu jarayonlarni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bandlik sohasida davlat subsidiyalarini ajratish va ulardan samarali hamda maqsadli foydalanish masalalari iqtisodiy va huquqiy fanlar doirasida keng tadqiq etilmoqda. Xususan, mehnat bozorida ishsizlik darajasini kamaytirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini iqtisodiy faollikka jalb etishda davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati alohida ta’kidlanadi[3].

Ayrim huquqshunos olimlar subsidiyalar ajratish jarayonida mansabdor shaxslar vakolatlarining kengligi korrupsion xavf-xatarlarni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydilar. Xususan, qaror qabul qilishda inson omilining ustuvorligi, hujjatlarni baholashda subyektiv yondashuvlar mavjudligi hamda monitoring mexanizmlarining zaifligi korrupsiyaga shart-sharoit yaratishi mumkinligi ko‘rsatiladi[4].

O‘zbekiston Respublikasida mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida ijtimoiy kontrakt instituti joriy etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-apreldagi 225-son qarorida ijtimoiy kontrakt tizimining huquqiy asoslari belgilangan bo‘lib, u korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi[5].

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibini belgilaydigan sohaviy nizomlar ham ilmiy adabiyotlarda davlat moliyasi sohasidagi maxsus huquqiy tartibga solish shakli sifatida qaraladi. Ushbu nizomlarda subsidiyalarni ajratish shartlari, oluvchilarning huquq va majburiyatlari hamda mablag‘lardan noto‘g‘ri foydalanilganda javobgarlik choralari belgilab berilgani korrupsion xavf-xatarlarni cheklashga qaratilgan huquqiy kafolat sifatida baholanadi[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada bandlik sohasida davlat subsidiyalarini ajratish jarayonlarida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash, ularning huquqiy va tashkiliy sabablarini tahlil qilish hamda ushbu xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan mexanizmlarni baholash maqsad qilib olingan. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy bilishning umum-nazariy, maxsus-huquqiy va empirik usullarini kompleks qo‘llashga asoslanadi.

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil metodi asosiy o‘rinni egallaydi. Mazkur metod yordamida O‘zbekiston Respublikasida bandlik sohasida subsidiya, grant va nafaqalar ajratishni tartibga soluvchi qonunlar hamda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar chuqur o‘rganildi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-apreldagi 225-son qarori, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizom hamda yoshlar uchun mo‘ljallangan subsidiya mexanizmlarini nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 20 апрелдаги 225-сон қарори

[2] Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг 2019 йил 10 майдаги 19-2019-Б-сон буйруғи, рўйхат №3163

[3] Ўзбекистон Республикасининг «Аҳоли бандлиги тўғрисида»ги Қонуни

[4] Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг 2019 йил 10 майдаги 19-2019-Б-сон буйруғи (рўйхат №3163)

[5] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 20 апрелдаги 225-сон қарори

[6] Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан субсидия ва грантлар ажратиш тартиби тўғрисидаги Низом

Tadqiqot jarayonida mantiqiy-tahliliy metod ham faol qo‘llanildi. Ushbu metod asosida subsidiya ajratish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilindi: ariza qabul qilish, qaror qabul qilish, mablag‘ ajratish va monitoring qilish jarayonlari alohida o‘rganildi. Mazkur tahlil korrupsion xavf-xatarlar, asosan, qaror qabul qilish va nazorat bosqichlarida yuqori ekanini aniqlash imkonini berdi[7].

TAHLIL VA NATIJALAR. Bandlik sohasida davlat subsidiyalarini ajratish jarayonlarida korrupsion xavf-xatarlarni tahlil qilish natijalari ko‘rsatmoqdaki, mazkur jarayonning huquqiy va iqtisodiy tartibga solinishi hamda amaldagi nazorat mexanizmlarining samaradorligi subsidiyalarning maqsadli ishlatilishi va budjet mablag‘laridan foydalanish natijalariga bevosita ta’sir qildi.

Avvalo, subsidiyalar bu budjet mablag‘laridan maqsadi belgilangan holda ajratiladigan pul mablag‘lari bo‘lib, ular yuqori turuvchi davlat budjetidan past darajadagi budjetlarga yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri oluvchilarga berilishini Budjet kodeksi aniqlaydi[8].

Tahlil natijalariga ko‘ra, mavjud amaldagi huquqiy mexanizmlar umumiy prinsiplar darajasida subsidiyalar ajratish va budjet mablag‘laridan foydalanishni tartibga soladi, lekin ularning konkret monitoring, nazorat va javobgarlik mexanizmlarini amalga oshirishda samaradorligini oshirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet kodeksi hamda sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar budjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurati mavjud. Shu sababli bandlik sohasida davlat subsidiyalarini ajratish jarayonlarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha huquqiy va tashkiliy choralarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Mavzu yuzasidan quyidagi takliflar beramiz:

1. Subsidiya ajratish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirishni kengaytirish: Bandlik sohasida subsidiya ajratishning barcha bosqichlarini (ariza qabul qilish, qaror qabul qilish, mablag‘ ajratish va monitoring) yagona raqamli platforma orqali amalga oshirish zarur. Bu inson omilini kamaytirish, qaror qabul qilishda subyektivlikni bartaraf etish hamda korrupsion xavf-xatarlarni qisqartirishga xizmat qiladi.
2. Subsidiya oluvchilar uchun moliyaviy hisobdorlik va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish: budjet kodeksida belgilangan maqsadlilik prinsipidan kelib chiqib, subsidiya oluvchilar tomonidan mablag‘lardan foydalanish yuzasidan aniq va shaffof hisobot taqdim etish majburiyatini kuchaytirish lozim.
3. Ijtimoiy kontrakt institutini takomillashtirish va uning amaliy ta’sirini oshirish: Ijtimoiy kontrakt shartlariga subsidiya natijadorligini baholash mezonlarini (ish o‘rni yaratilishi, barqaror daromad shakllanishi, faoliyat davomiyligi) kiritish maqsadga muvofiq. Bu davlat mablag‘larining samarali sarflanishini ta’minlash bilan birga, subsidiyalar ajratishda ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 20 апрелдаги 225-сон қарори
2. Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг 2019 йил 10 майдаги 19-2019-Б-сон буйруғи, рўйхат №3163
3. Ўзбекистон Республикасининг «Аҳоли бандлиги тўғрисида»ги Қонуни
4. Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг 2019 йил 10 майдаги 19-2019-Б-сон буйруғи (рўйхат №3163)
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 20 апрелдаги 225-сон қарори
6. Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан субсидия ва грантлар ажратиш тартиби тўғрисидаги Низом
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 apreldagi 225-son qarori
8. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi — subsidiyalar taqdim etilishi va budjet tizimi tartib-qoidalari haqidagi normalar.

[7]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 apreldagi 225-son qarori

[8]O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi — subsidiyalar taqdim etilishi va budjet tizimi tartib-qoidalari haqidagi normalar.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 811.161.1

ИНГЛИЗ СЛЕНГНИНГ ТИЛ НОРМАСИГА МУНОСАБАТИ ВА ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАРЖИМАСИ МУАММОЛАРИ

Raximjonova Nigora Nasibjon qizi,
Toshkent Farmatsevtika Instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi



https://orcid.org/0009-0009-5653-8890
sattorovanigora094@gmail.com

THE RELATIONSHIP BETWEEN ENGLISH SLANG AND LANGUAGE NORMS AND THE PROBLEMS OF ITS TRANSLATION INTO THE UZBEK LANGUAGE

Nigora Nasibjon qizi Rakhimjonova,
English Teacher
Department of Uzbek Language and Literature
Tashkent Pharmaceutical Institute
Tashkent, Uzbekistan

СВЯЗЬ АНГЛИЙСКОГО СЛЕНГА С ЯЗЫКОВОЙ НОРМОЙ И ПРОБЛЕМЫ ЕГО ПЕРЕВОДА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Рахимжонова Нигора Насибжон кызы,
Преподаватель английского языка
Кафедра узбекского языка и литературы
Ташкентский фармацевтический институт
г. Ташкент, Узбекистан

Annotation: *This article delves into the connection between English slang and established language rules, also exploring the linguistic and practical difficulties that arise when translating slang into Uzbek. Slang is a vibrant and socially distinctive part of modern English, frequently breaking away from standard language norms while still playing crucial roles in communication and expression. The research takes apart the semantic, stylistic, and sociolinguistic aspects of slang words and investigates questions of equivalence, suitability, and how well they match up in translation. It focuses especially on national and cultural differences, the feelings and ideas slang carries, and the contextual elements that shape translation choices. The results point to a functional-pragmatic method as the best way to handle slang when translating it into Uzbek.*

Key words: *Slang, language norm, translation problems, equivalence, adequacy, pragmatics, sociolinguistics.*

Аннотация: *В статье рассматривается взаимосвязь английского сленга с языковой нормой, а также лингвистические и прагматические проблемы его перевода на узбекский язык. Сленг представляет собой динамичный и социально маркированный слой современного английского языка, который часто выходит за рамки литературной нормы, но выполняет важную коммуникативную и экспрессивную функцию. В исследовании анализируются семантические, стилистические и социолингвистические особенности сленговых единиц, а также вопросы эквивалентности, адекватности и функционального соответствия в процессе перевода. Особое внимание уделяется национально-культурным различиям, коннотативным значениям и контекстуальным факторам, влияющим на выбор переводческих стратегий. Результаты исследования показывают, что функционально-прагматический подход является наиболее эффективным при передаче сленга.*

Ключевые слова: *Сленг, языковая норма, проблемы перевода, эквивалентность, адекватность, прагматика, социолингвистика.*
Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz slengining til normasi bilan o‘zaro munosabati hamda uni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va pragmatik muammolar tahlil qilinadi. Sleng zamonaviy ingliz tilining dinamik va ijtimoiy jihatdan belgilangan qatlamlaridan biri bo‘lib, u ko‘pincha adabiy til me’yorlaridan chetga chiqadi, biroq nutq jarayonida muhim kommunikativ va ekspressiv vazifani bajaradi. Tadqiqotda sleng birliklarining semantik, stilistik va sotsiolingvistik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi hamda ularning tarjimada ekvivalentlik, adekvatlik va funksional moslik masalalari yoritiladi. Shuningdek, ingliz slengini o‘zbek tiliga tarjima qilishda milliy-madaniy tafovutlar, konnotativ ma’no va kontekst omillarining ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari slengni tarjima qilishda funksional-pragmatik yondashuv samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi.*
Kalit so‘zlar: *Sleng, til normasi, tarjima muammolari, ekvivalentlik, adekvatlik, pragmatika, sotsiolingvistika.*

INTRODUCTION. Cutting edge advancements within the Uzbek phonetic scene illustrate expanding dynamism inside the lexical framework, reflecting broader socio-cultural and media-driven changes. As an open and versatile semiotic framework, dialect experiences forms of destabilization and reconfiguration, especially at the lexical level the most socially responsive and adaptable layer of dialect (Gem, 2003; Shmelev, 1977). Among the foremost energetic components of lexical alter is slang, particularly youth slang, which capacities as a socially stamped subcode encoding personality, bunch solidarity, and social situating (Eble, 1996; Tagliamonte, 2016). Whereas sociolinguistic inquire about has broadly inspected slang as a marker of social variety (Labov, 1972; Wardhaugh & More full, 2015), its interaction with dialect standards in post-Soviet settings, especially in Uzbek, remains insulant investigated. In Uzbekistan, media liberalization and digitalization have quickened the spread of slang into open talk, challenging conventional ideas of phonetic normativity (Mahmudov, 2012; Krysin, 2004).

MATERIALS AND METHODS

English slang has long pulled in academic consideration due to its tall degree of inconstancy, fast change, and solid reliance on socio-cultural elements. As one of the foremost adaptable layers of lexicon, slang empowers language specialists to watch forms of lexical development, semantic move, and elaborate reconfiguration in genuine time. These forms are especially critical when analyzing the interaction between slang and codified dialect standards, since slang at the same time challenges, alters, and sometimes coordinating into the standard scholarly framework. The orderly consider of slang in Russian etymology started within the late nineteenth and early twentieth centuries. Researchers such as V.V. Vinogradov, B.A. Larin, and A.M. Selishchev laid the hypothetical establishments for analyzing the impact of socially stamped lexicon and urban vernacular on the scholarly standard. Their inquire about set up the thought that non-codified discourse shapes cannot be prohibited from the national dialect framework but must be examined as useful and complex variations inside it. In Uzbek phonetics, early examinations by A. Shomaksudov, A. Khazratkulov, and B. Urinbayev tended to the interaction between scholarly dialect and colloquial or socially confined shapes of discourse. Be that as it may, whereas issues of vernacular and talked Uzbek have been inspected, the particular relationship between English slang and Uzbek dialect standards particularly inside the system of interpretation remains insulant investigated. Ensuing inquire about in Russian phonetics assist clarified refinements between youth language and youth slang, classification criteria, semantic structures, lexical beginnings, and profitable word-formation models (Nikitina; Shmelev; Rozhansky).

RESULTS AND DISCUSSION

A corpus-based examination of 300 English slang terms confirms that slang shouldn't be dismissed as just a fringe part of the vocabulary, existing separately from the established language system. The way these terms are spread across three levels of integration with standard language - fringe (42%), transitional (36%), and established (22%) - shows a gradual shift, rather than a firm line between what's considered standard and non-standard.

This indicates that slang actively interacts with language norms. Slang terms on the fringe are often highly expressive, creatively used, and dependent on context. Words like "clout," "ghosting," and "simp" show how quickly language can evolve, especially in online communication. These terms act as markers of group identity and set generations apart. Their divergence from formal language doesn't mean they're linguistically lacking; instead, it reflects expressive and socio-cultural positioning (Labov, 1972; Tagliamonte, 2016). Transitional slang terms are those that are becoming more integrated into everyday language. Words like "cool," "hang out," and "chill" illustrate how expressions from subcultures can gradually lose their distinctiveness and become widely accepted. This aligns with Fairclough's (1995) idea of public discourse becoming more informal. Transitional slang occupies a middle ground within the system of language norms.

Established slang terms have generally made their way into common dictionaries and have a more stable meaning. Translating them is usually easier because they're closer to standard language. To see if deviating from language norms affects translation strategies, multinomial logistic regression analysis was used. The model was statistically significant (Nagelkerke $R^2 = .41$; $p < .001$), suggesting that 41% of the variation in choosing a translation strategy can be attributed to the extent of deviation from these norms.

The findings reveal that:

Fringe slang significantly predicts functional substitution ($\beta = 1.87$; $p < .01$).

Transitional slang predicts neutralization ($\beta = 1.12$; $p < .05$).

Established slang predicts direct equivalence ($\beta = 2.03$; $p < .001$).

Therefore, the choice of translation strategy isn't arbitrary but is directly influenced by how far the slang term deviates from language norms. A clear structural difference between slang and jargon was also found. Slang tends to have more varied meanings and carries a stronger emotional charge, while jargon is more stable and specific to particular fields. Statistical comparison showed a significant difference in semantic volatility ($p < .001$). In the Uzbek linguistic environment, neutralization strategies are commonly used due to stricter formal language norms. While normalization ensures stylistic conformity, it can diminish the expressive impact and socio-indexical meaning.

In conclusion, the results demonstrate that English slang functions as a dynamic part of the vocabulary, interacting with language norms along a spectrum of integration. Translating it into Uzbek involves a sociolinguistic negotiation, influenced by both normative pressures and practical considerations.

REFERENCES

1. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
2. Eble, C. (1996). *Slang and sociability: In-group language among college students*. University of North Carolina Press.
3. Krysin, L. P. (2004). *Russkiy yazyk na rubezhe vekov*. Flinta.
4. Labov, W. (1972). *Sociolinguistic patterns*. University of Pennsylvania Press.
5. Mahmudov, N. (2012). *Til va jamiyat*. Akademnashr.
6. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
7. Shmelev, D. N. (1977). *Russkaya leksika*. Prosveshchenie.
8. Tagliamonte, S. A. (2016). *Teen talk: The language of adolescents*. Cambridge University Press.
9. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation* (J. C. Sager & M.-J. Hamel, Trans.). John Benjamins. (Original work published 1958)
10. Efremova, T. F. (2000). *Novyy slovar' russkogo yazyka*. Russkiy yazyk.
11. Green, J. (2010). *Green's dictionary of slang*. Chambers.
12. House, J. (2015). *Translation quality assessment: Past and present*. Routledge.
13. Androutsopoulos, J. (2020). Digital sociolinguistics and language variation. *Journal of Sociolinguistics*, 24(4), 345–362.
14. Calzada Pérez, M. (2021). Translation and ideology in digital discourse. *Target*, 33(2), 210–228.
15. Musaev Abduvali Sulaymonovich Slang - as a modern uzbek youth language phenomenon, PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 5380-5384

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 392.181.151.9

THE CONTENT AND PRINCIPLES OF SELECTING NSTRUCTIONAL MATERIALS FOR TEACHING ENGLISH TO UPPER-SECONDARY STUDENTS: CURRICULUM AND TEXTBOOK ANALYSIS

Sherzodjon Uktamovich Xudaykulov, Director of the Mirzo Ulugbek Specialized School under the Agency of Specialized Educational Institutions



https://orcid.org/0009-0000-8046-7556
sherka.6500@gmail.com

ПРИНЦИПЫ И СОДЕРЖАНИЕ ОТБОРА УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ: АНАЛИЗ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ И УЧЕБНИКОВ

Худайкулов Шерзоджон Уктамович,
директор специализированной школы имени Мирзо Улугбека в системе Агентства специализированных образовательных учреждений

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA O‘QUV MATERIALLAR TANLASH MAZMUNI, DASTUR VA DARSLIKLAR TAHLILI

Xudaykulov Sherzodjon Uktamovich,
Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori

Abstract: *The paper is focused on the selection of teaching materials, curriculum, and textbooks for English language instruction for high school students. The emphasis of the study is on the selection of proper materials that can cater to the psychological characteristics of students and their educational needs. Analysis of the curriculum and textbooks is essential to check whether they can meet the educational needs of students and can help in the proper development of language skills.*
Key words: *teaching materials, curriculum, textbooks, high school students, english language teaching, pedagogical approaches, language acquisition, communicative language teaching, task-based learning.*
Аннотация: *В данной работе рассматривается вопрос выбора учебных материалов, учебных программ и учебников, предназначенных для преподавания английского языка старшеклассникам. Изучаемая работа подчеркивает значение правильного выбора учебных материалов, соответствующих психологическим характеристикам, уровня владения языком и учебным запросам учащихся. Критический анализ учебной программы и учебников поможет определить, соответствуют ли они разнообразным потребностям учащихся и эффективно способствуют развитию языковых навыков.*
Ключевые слова: *учебные материалы, учебная программа, учебники, старшеклассники, преподавание английского языка, педагогические подходы, овладение языком, коммуникативное обучение, обучение на основе задач.*
Annotatsiya: *Ushbu maqola yuqori sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda o'quv materiallari, dastur va darsliklarni tanlashga qaratilgan. Tadqiqot o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga, tilni bilish*

darajalariga va ta'lim ehtiyojlariga mos keladigan materiallarni tanlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Dastur va darsliklarning tahlili ularning o'quvchilarning turli ehtiyojlariga javob berishi va til o'rganish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishi haqida ma'lumot beradi.
Kalit so'zlar: *o'quv materiallari, dastur, darsliklar, yuqori sinf o'quvchilari, ingliz tilini o'qitish, pedagogik yondashuvlar, tilni o'rganish, kommunikativ til o'qitish, vazifaga asoslangan o'qitish.*

Introduction. Inside the context of increasing globalization and knowledge-based economic growth, English language education has become essential in several post-Soviet countries, including Uzbekistan. Since gaining independence in 1991, Uzbekistan has implemented wide-ranging educational reforms aimed at modernizing its education system while also strengthening national identity and cultural development (Abdullaeva, 2021). Within this reform effort, English has a dual role: it serves as a gateway to global educational, technological, and financial systems, while also introducing epistemological and cultural frameworks that require essential contextualization. A significant milestone in foreign language education was Presidential Decree No. 1875, "On measures to improve the foreign language learning system" (2012), which standardized early English education and initiated large-scale curriculum reform (Isakova, 2020). Subsequent policy actions, including changes adopted in 2020, focused on alignment with international standards like the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR), modernization of reading materials, and the integration of communicative approaches. While these changes have generally increased access to English education, they also raise the need for careful evaluation of educational program content and directional materials, especially at the upper secondary level. Upper secondary education represents a crucial stage in students' cognitive, academic, and professional development.

Materials and Methods

This study adopts a qualitative research design grounded in systematic document analysis and structured checklist-based textbook evaluation. Qualitative document analysis was selected as the primary methodological approach because it enables in-depth examination of curriculum documents, syllabi, and textbooks as policy-embedded pedagogical artifacts. According to Richards (2013), instructional materials function as operational representations of curriculum intentions; therefore, their analysis requires alignment-based evaluation rather than surface-level description. The analytical procedure was conducted at three interrelated levels to ensure methodological triangulation and internal coherence.

First, curriculum-level analysis examined national educational standards, prescribed learning outcomes, CEFR alignment, stated communicative competencies, skill priorities, and assessment objectives. This stage aimed to determine the extent to which official program documentation articulates measurable proficiency targets and whether these targets reflect internationally recognized benchmarks (Richards, 2013). Second, syllabus-level analysis focused on the structural and pedagogical organization of linguistic content. This included examination of grammatical sequencing (linear versus spiral progression), lexical field development, thematic structuring, integration of receptive and productive skills, and the distribution of communicative tasks across units. Third, textbook-level analysis employed a structured evaluation framework synthesized from established international criteria (Cunningsworth, 1995; McGrath, 2013; Tomlinson, 2011). The checklist operationalized the following analytical dimensions:

-alignment with stated curricular aims and outcomes,
-degree of communicative orientation,
-integration and balance of four language skills,
-coherence of lexical and grammatical progression,
-thematic authenticity and contextual relevance,
-cognitive complexity and higher-order thinking demands,
-representation of intercultural competence,
-compatibility with assessment formats and CEFR descriptors,
-availability and quality of teacher support materials.

Each dimension was explored through qualitative coding techniques. The analysis looked at thematic units, types of activities, language focus areas, and methods of assessment. By identifying recurring

TAMADDUN NURI

patterns in the textbooks, the study assessed their coherence, shortcomings, and strong points in terms of methodology. Russian communicative methodology emphasizes the importance of speech-oriented teaching and a systematic approach to skill development (Passov, 2000; Solovova, 2002). Uzbek pedagogical research ensures relevance and adherence to national educational guidelines and the specific needs of students (Jalolov, 2012).

Results. The findings reveal that excellent instructional materials for high school English classes need to meet specific, essential educational and curricular standards. These aren't just isolated benchmarks, but building blocks within a well-organized framework of guidelines. It starts with a solid foundation in educational planning. The material absolutely has to align with stated communication skills, proficiency targets, and learning outcomes that are in line with the CEFR. Beyond that, thorough teacher resources, suggestions for how to teach, ways to adapt for different learners, and assessment tools all contribute to making the instruction consistent and academically sound (McGrath, 2013). Even the best-designed materials can be used inconsistently if teachers don't have the support they need. Overall, the results confirm that effective English materials for high schoolers need to be aligned in many ways - with the curriculum, language, teaching methods, thinking skills, social aspects, and assessments. These aspects all work together, and weaknesses in one area can affect how well the instruction works as a whole.

Discussion. The findings support the idea that instructional materials are how curricular philosophy turns into practical reality. In applied linguistics, materials aren't just seen as teaching tools, but as the link between educational standards and what happens in the classroom. Global research emphasizes putting students first, using real-world communication, and getting students actively involved (Tomlinson, 2011), while Russian teaching traditions emphasize structured activities and instruction focused on speaking (Passov, 2000). Uzbek teaching methods also stress aligning with national standards and what's possible in the classroom (Jalolov, 2012). Together, these viewpoints show that materials need to be theoretically sound, methodologically consistent, and relevant to the situation. In high school, materials are particularly important as students get ready for academic and professional environments. Textbooks need to balance everyday communication skills with the ability to engage in academic discourse, and make sure that goals, tasks, and assessments are aligned in a useful way (Richards, 2013). Moreover, evaluating a textbook should be seen as an ongoing, thoughtful process guided by the teacher's expertise.


References

1. Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. 1875. (2012). On measures to further improve foreign language learning system. Tashkent: Government of Uzbekistan.
2. Abdullaeva, N. 2021. *Educational Reforms in Uzbekistan and English Language Policy.* Tashkent: [Publisher not specified], pp. 1–25.
3. Byram, M. 1997. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence.* Clevedon: Multilingual Matters, pp. 1–124.
4. Cunningsworth, A. 1995. *Choosing Your Coursebook.* Oxford: Heinemann, pp. 1–153.
5. Jalolov, J. 2012. *Chet til o‘qitish metodikasi.* Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti, pp. 3–287.
6. McGrath, I. 2013. *Materials Evaluation and Design for Language Teaching.* Edinburgh: Edinburgh University Press, pp. 1–216.
7. Passov, E. I. 2000. *Osnovy kommunikativnoi metodiki obucheniya inostrannym yazykam.* Moscow: Russkiy Yazyk, pp. 5–276.
8. Richards, J. C. 2013. *Curriculum Development in Language Teaching.* Cambridge: Cambridge University Press, pp. 1–320.
9. Solovova, E. N. 2002. *Методология обучения иностранному языку.* Moscow: AST-Astrel, pp. 7–239.
10. Tomlinson, B. 2011. *Materials Development in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press, pp. 1–432.
11. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume*. Council of Europe Publishing.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 811.161.1

INGLIZ BADIIY DISKURSIDA GIPONIMIK VA MERONIMIK MUNOSABATLARNING LEKSIK KOGEZIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI VA UNING KOGERENSIYAGA TA'SIRI

[1]Saidova Muxayyo Umedilloyevna,
"Ingliz tilshunosligi" kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
[2]Sayfiyeva Madina Saydullo qizi,
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti



m.u.saidova@buxdu.uz

THE ROLE OF HYPONYMIC AND MERONYMIC RELATIONS IN THE FORMATION OF LEXICAL COHESION IN ENGLISH LITERARY DISCOURSE AND THEIR IMPACT ON COHERENCE

Saidova Mukhayyo Umedilloyevna,
Associate Professor of the Department of English Linguistics,
PhD in Philological Sciences
Sayfiyeva Madina Saydullo qizi,
2nd-year Master's student in Linguistics (English Language)



sayfiyevamadina3@gmail.com

РОЛЬ ГИПОНИМИЧЕСКИХ И МЕРОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОГЕЗИИ В АНГЛИЙСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА КОГЕРЕНТНОСТЬ

Саидова Мухайё Умедиллоевна,
доцент кафедры английского языкознания,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Сайфиева Мадина Сайдулло кызы,
магистрант 2-курса по специальности «Лингвистика (английский язык)»

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz badiiy diskursida leksik yaxlitlikni ta'minlashda giponimik va meronimik munosabatlarning roli tahlil qilinadi. Tadqiqot leksik kogeziya nazariyasiga asoslanib, tushunchalar ierarxiyasi va butun-qism aloqalari orqali matnning semantik izchilligi qanday shakllanishini yoritadi. Nazariy asos sifatida M. Halliday va R. Hasanning qarashlari qo'llanildi. Amaliy tahlil materiali sifatida O. Henrining "The Furnished Room" hikoyasi o'rganildi. Tahlil natijalari giponimiya va meronimiya diskurs kogerensiyasini mustahkamlovchi muhim semantik vositalar ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *leksik kogeziya, kogerensiya, giponimiya, meronimiya, ingliz badiiy diskursi, semantik munosabatlar, matn yaxlitligi.*

Annotation: *This article explores the role of hyponymic and meronymic relations in ensuring lexical unity in English literary discourse. The study is based on the theory of lexical cohesion and examines how hierarchical and part-whole relations contribute to semantic coherence. The theoretical framework relies on the works of M. Halliday and R. Hasan. The short story "The Furnished Room" by O. Henry serves as the material for analysis. The findings show that hyponymy and meronymy function as key semantic mechanisms strengthening discourse coherence and textual unity.*

Key words: *lexical cohesion, coherence, hyponymy, meronymy, English literary discourse, semantic relations, textual unity.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль гипонимических и меронимических отношений в обеспечении лексической целостности английского художественного дискурса. Исследование опирается на теорию лексической когезии и анализирует формирование семантической связности через иерархические и партитивные отношения. Теоретической базой послужили труды М. Халлидай и Р. Хасан. Практическим материалом является рассказ О. Генри «The Furnished Room». Результаты подтверждают, что гипонимия и меронимия усиливают когерентность и семантическую целостность текста.*

Ключевые слова: *лексическая когезия, когерентность, гипонимия, меронимия, английский художественный дискурс, семантические отношения, целостность текста.*

Kirish. Ingliz badiiy diskursida matnning leksik yaxlitligi, ya’ni bir-biriga mantiqan bog‘langan leksik birliklardan tashkil topgan yaxlit tizim, kogerensiyaning asosiy omillaridan biridir. Leksik birliklar o‘quvchiga voqealar, xarakterlar va muhitni to‘liq tushunish imkonini beradi, shuningdek, matn ichidagi semantik aloqalarni mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, giponimik va meronimik munosabatlar leksik kogeziya vositalari sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Leksik kogeziya matnning semantik yaxlitligini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib, u leksik birliklar o‘rtasidagi turli semantik munosabatlar orqali yuzaga keladi. Ushbu munosabatlar ichida giponimik va meronimik aloqalar alohida o‘rin tutadi, chunki ular matnda tushunchalar iyerarxiyasi va tarkibiy bog‘lanishni shakllantiradi.

Asosiy qism. M. Halliday va R. Hasan leksik kogeziyaning muhim turlaridan biri sifatida reiteratsiyani ko‘rsatadilar va uning tarkibiga sinonimiya, takror, giponimiya hamda umumiy so‘zlar orqali bog‘lanishni kiritadilar. Ularning ta’kidlashicha, giponimiya matnda semantik izchillikni ta’minlash orqali diskursning umumiy mazmuniy yaxlitligini mustahkamlaydi.

M. Halliday va R. Hasan giponimik munosabatni “a relation between a more general term and a more specific term within the same semantic field”[1] sifatida talqin qiladilar, ya’ni bir xil semantik maydondagi umumiy va xususiy termin orasidagi munosabat. Bu munosabat matnda umumiy tushunchadan aniq detallarga o‘tish imkonini beradi va kogerensiyani kuchaytiradi.

“Semantics” asarida J.Lyons giponimiyani leksik-semantik munosabatlarning markaziy turi sifatida ta’riflab, uni tushunchalar iyerarxiyasiga asoslangan aloqa deb hisoblaydi. Uning fikricha, giponimiya til tizimida kategoriyalash jarayonining lingvistik ifodasidir [2] . J.Lyons meronimik munosabatni esa butun-qism aloqasi sifatida izohlaydi va uni giponimiyadan farqli ravishda tarkibiylik asosida qurilgan munosabat deb belgilaydi.

D. Gererts giponimiya va meronimiyani kognitiv nuqtai nazardan baholab, ularning inson tafakkuridagi konseptual tuzilmalarga tayanishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, bu munosabatlar matnni tushunish jarayonida o‘quvchining bilimlar tizimini faollashtiradi va kognitiv kogerensiyani yuzaga keltiradi[3].

“The Linguistic Category of Part-Whole Relations” asarida M.E. Vinston, shuningdek, R. Chaffin va D. Herman meronimiyani semantik munosabatlarning murakkab turi sifatida tahlil qilib, uning diskursda tasviriy aniqlik va makoniy yaxlitlikni shakllantirishdagi rolini ko‘rsatadilar[4].

Terminlarning kelib chiqishi va etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo’lsak, giperonim (hypernym) qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, hyper-“ustida, yuqorida”, onyma/onoma-“nom” degan ma’noni anglatadi [5], ya’ni, giperonim “umumiy nom”, boshqa xususiy tushunchalarni o‘z ichiga oluvchi leksik birlikdir. Giponim (hyponym) qadimgi yunon tilidan olingan

[1] Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). Cohesion in English. London: Longman.
[2] Lyons, J. (1977). Semantics (Vol. 1–2). Cambridge: Cambridge University Press.
[3] Geeraerts, D. (2010). Theories of Lexical Semantics. Oxford: Oxford University Press.
[4] Winston, M. E., Chaffin, R., & Herrmann, D. (1987). A taxonomy of part–whole relations. Cognitive Science
[5] https://dzen.ru/a/ZQ771q8UckWAhMEJ

bo‘lib, hypo-“ostida, pastda”, onyma/onoma-“nom” degan ma’noni anglata[6]. Giponim giperonimga bo‘ysunuvchi, aniqroq va torroq ma’nodagi tushunchani bildiradi.

Meronim (meronym) qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, meros-“qism, bo‘lak”, onyma/onoma-“nom” degan ma’noni anglatadi[7]. Meronim butunning tarkibiy qismi bo‘lgan obyekt yoki tushunchani anglatadi.

Giponimik munosabatlar bu kengroq tushunchaning kichikroq, iyerarxik bo‘laklariga bo‘linishini ifodalovchi leksik aloqalardir. Masalan, “animal” keng tushunchasi ostida “dog”, “cat”, “bird” kabi giponimlar mavjud bo‘lishi mumkin.

Maykl Makkartining “Discourse Analysis for Language Teachers” nomli kitobida leksik kogeziyaning giponimiya orqali yuzaga kelishi bilan bog’liq quyidagi misolni ko‘rishimiz mumkin: *“There was a fine old rocking-chair that his father used to sit in, a desk where he wrote letters, a nest of small tables and a dark, imposing bookcase. Now all this furniture was to be sold, and with it his own past”* [8]. Ushbu parcha leksik kogeziyada giperonimik munosabatlar orqali matnning semantik yaxlitligi qanday ta’minlanishini yaqqol ko‘rsatadi. Misolda alohida predmetlar *(rocking-chair, desk, tables, bookcase)* sanab o‘tilgach, ular umumlashtiruvchi giperonim-furniture orqali bir butun semantik maydonga birlashtiriladi. Natijada matnda semantik umumlashtirish orqali kogeziya yuzaga keladi. Bundan tashqari, furniture birlikining his own past bilan metaforik bog‘lanishi badiiy diskursda kogerensiyani kuchaytiruvchi muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, umumiy giperonimlardan foydalanish nafaqat matnni ixcham va tizimli qiladi, balki mazmuniy chuqurlikni ham oshiradi, bu esa ingliz badiiy diskursida leksik yaxlitlikning muhim mexanizmlaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Muayyan so‘zning semantik ierarxiyasida giperonim (superordinate) doimo bevosita yuqori pog‘onada turuvchi birlik bo‘lishi shart emas, u umumiy ma’noli so‘z bo‘lishi ham mumkin[9]. Masalan, furniture o‘rniga *all these items / objects / things* kabi birliklar qo‘llanishi mumkin bo‘lib, ular umumiy giperonimlar hisoblanadi. Insonlarga va mavhum tushunchalarga oid umumiy giperonimlarga esa *people, creature, idea* va *fact* kabi birliklar kiradi[10].

Ingliz badiiy matnlarida giponimlar keng kategoriya tushunchasini aniqlash, voqealarni turkumlash va xarakterlarni mantiqan joylashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu tarzda, giponimlar orqali matn ichidagi tushunchalar o‘quvchi uchun mantiqan tizimga solinadi, bu esa hikoyaning yaxlitligini ta’minlaydi. Misol tariqasida, O. Henri hikoyalarida turli hayvonlar, obyektlar yoki shaxslar keng tushunchalar ostida tavsiflanadi, bu esa ularning rollari va voqeaga ta’sirini aniq ko‘rsatishga yordam beradi.

Meronimik munosabatlar esa butun va uning qismlari o‘rtasidagi leksik bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Badiiy diskursda meronimlar matnning vizual va semantik tuzilishini yaratishda qo‘llaniladi. Masalan, xona tasvirida “sofa”, “table”, “lamp” kabi elementlar butun xona konseptini anglatadi. Shu orqali o‘quvchi matn ichidagi obyektlar orasidagi munosabatni tushunadi va hikoyaning mantiqiy davomiyligini qabul qiladi. Meronimik aloqalar matnga qo‘shimcha semantik qatlam beradi va o‘quvchi uchun voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishni sezilarli darajada mustahkamlaydi.

Shuningdek, giponim-meronim munosabatlar badiiy matnning stilistik xususiyatlarini ham boyitadi. Masalan, yozuvchi giponimlardan foydalanib, bir xil tushunchaning turli jihatlarini ta’kidlashi mumkin, bu esa o‘quvchiga xarakter yoki voqea haqida kengroq tasavvur beradi. Meronimlar esa butun tasvirini yaratishda yordam beradi, shuning uchun matnning ritmi va vizual ifodasi yaxlit bo‘ladi. Bu turdagi leksik aloqalar matnni grammatik va semantik jihatdan bog‘labgina qolmay, balki badiiy obraz va tasvirning kogerensiyasini ham mustahkamlaydi.

Umuman olganda, giponimik va meronimik munosabatlar orqali leksik yaxlitlikni ta’minlash ingliz badiiy diskursida o‘quvchining matnni mantiqan va semantik jihatdan qabul qilishini osonlashtiradi. Bu vositalar matnning leksik tizimini yaratadi, semantik uzviylikni mustahkamlaydi va hikoyaning izchilligi hamda yaxlitligini ta’minlaydi. Shu sababli, badiiy matnda

[6] https://dzen.ru/a/ZQ771q8UckWAhMEJ
[7] https://dzen.ru/a/ZQ771q8UckWAhMEJ
[8] McCarthy, Michael. (1991). Discourse Analysis for Language Teachers. United Kingdom: Cambridge University Press (p. 66)
[9] Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). “Cohesion in English”. London: Longman (chapter 6)
[10] McCarthy, Michael. (1991). Discourse Analysis for Language Teachers. United Kingdom: Cambridge University Press (p. 66)

giponim-meronim aloqalarining o‘rganilishi leksik kogeziya va kogerensiyani chuqur tushunish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ingliz badiiy diskursida leksik kogeziya matnning ichki semantik bog‘lanishini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Ayniqsa, giponimik va meronimik munosabatlar matnning leksik tizimini izchil shakllantirib, diskursiv kogerensiyani mustahkamlaydi. Ushbu munosabatlar orqali muallif umumiy tushunchadan xususiy birliklarga yoki butundan uning qismlariga o‘tish orqali voqelikni bosqichma-bosqich ochib beradi. Bu jarayon o‘quvchiga matn mazmunini mantiqan qabul qilish imkonini yaratadi.

Giponimiya umumiy tushuncha (giperonim) va uning xususiy ko‘rinishlari (giponimlar) o‘rtasidagi semantik munosabat bo‘lib, badiiy matnda tasvirni aniqlashtirish va mazmunni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. O. Henrining “The Furnished Room“ hikoyasida giponimik aloqalar asosan insonlar, joy, ijtimoiy qatlam va faoliyat tushunchalari orqali ifodalanadi. Masalan, “They are transients, transients forever transients in living place, transients in heart and mind.”[11] Bu yerda “transients” umumiy tushuncha (giperonim) bo‘lib, uning ostida “transients in living place” va “transients in heart and mind” kabi giponimlar keltirilgan. Ushbu giponimik kengayish qahramonlarning nafaqat jismoniy, balki ruhiy beqarorligini ham ochib beradi. Masalan, “Many of my people work in the theater.”[12] Bu yerda “People” umumiy tushuncha bo‘lib, “theater people” uning giponimik ko‘rinishidir. Muallif bu orqali aniq ijtimoiy guruhni ajratib ko‘rsatadi. Bu leksik aniqlik voqealar makonini va qahramonlarning hayot tarzini tushunishga yordam beradi. “He went to good theaters and to bad ones” [13]. Bu gapda “theaters” giperonim bo‘lsa, “good theaters” va “bad theaters” giponimlardir. Bunday qarama-qarshi giponimik bo‘linish matnning semantik kontrastini kuchaytirib, qahramonning izlanish yo‘lini mantiqan izchil qiladi. “They go from furnished room to furnished room” [14]. “Room” umumiy tushuncha bo‘lib, “furnished room” uning aniq giponimik shaklidir. Bu aniqlashtirish muallifga qahramonlarning vaqtinchalik hayot tarzini ta’kidlash imkonini beradi va matnning leksik kogeziyasini ta’minlaydi. “Every evening he went to the theaters” [15]. Bu yerda “theaters” tushunchasi oldingi gaplardagi aniq teatr turlari bilan giponimik bog‘lanib, takroriy leksik aloqalar orqali matn ichida izchillikni saqlaydi. Bu holat diskursiv kogerensiyani mustahkamlaydi.

Meronimiya badiiy tasvirni vizual va semantik jihatdan boyitadi. Hikoyadan olingan quyidagi misollarda makon tasviri aynan meronimik birliklar orqali amalga oshirilgan: “I have the back room on the third floor”[16]. Bu yerda “house” (butun) bevosita aytilmagan bo‘lsa-da, “third floor” va “back room” uning tarkibiy qismlari sifatida meronimik munosabatni yuzaga keltiradi. Bu makonning aniq strukturasini yaratib, matnning kogerensiyasini kuchaytiradi. Masalan, “The water is at the end of the hall”[17]. “Hall” butunning bir qismi sifatida tasvirlanadi. Ushbu meronimik detal makon tasvirini to‘ldirib, o‘quvchi ongida vizual yaxlitlikni shakllantiradi. “There was little light in the halls” [18]. Bu gapda “halls” bino ichki tuzilmasining bir qismi sifatida qo‘llanadi. Meronimik aloqalar orqali muallif muhitning zulmatli va bosimli atmosferasini yaratadi. “The covering on the floor was old and ragged”[19]. “Floor” va uning “covering” qismi o‘rtasidagi meronimik munosabat makonning eskirgan holatini ochib beradi. Bu tasvir hikoyaning umumiy ruhiy foniga xizmat qiladi. “You see there is plenty of space to hang your clothes” [20]. Bu yerda “room” butun, “space” esa uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu meronimik birlik matndagi makon tasvirining uzluksizligini ta’minlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, O. Henrining “The Furnished Room“ hikoyasida giponimik va

[11] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 19
[12] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 20
[13] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 21
[14] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 19
[15] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 21
[16] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 20
[17] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 20
[18] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 20
[19] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 20
[20] O. Henry. (2005). “The Gift of the Magi and other stories” (“The Furnished Room“) p. 20

meronimik munosabatlar leksik kogeziyaning asosiy vositalari sifatida faol qo‘llanilgan. Giponimiya orqali tushunchalar aniqlashtiriladi va ierarxik tizim yaratiladi, meronimiya orqali esa makon va tasviriy yaxlitlik ta’minlanadi. Ushbu leksik aloqalar nafaqat grammatik bog‘lanishni, balki diskursiv kogerensiyani ham mustahkamlaydi. Natijada matn o‘quvchi uchun mantiqan izchil, semantik jihatdan boy va badiiy jihatdan ta’sirchan bo‘lib shakllanadi.

Xulosa. Ingliz badiiy diskursida giponimik va meronimik munosabatlar leksik kogeziyaning muhim vositalari sifatida matnning semantik yaxlitligi va kogerensiyasini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu leksik munosabatlar matnda alohida-alohida birliklar o‘rtasida emas, balki umumiy semantik tizim doirasida bog‘lanish hosil qiladi va diskursning mantiqiy izchilligini kuchaytiradi.

Giponimik munosabatlar, ya’ni umumiy tushuncha (giperonim) va unga bo‘ysunuvchi xususiy tushunchalar (giponimlar) o‘rtasidagi aloqa, badiiy matnda mavzu doirasini bosqichma-bosqich kengaytirish va aniqlashtirish imkonini beradi. Ushbu munosabatlar orqali muallif umumiy semantik maydonni yaratadi va keyinchalik uni aniq obrazlar, voqealar yoki predmetlar orqali boyitadi. Natijada matn mazmuni parchalangan holda emas, balki yagona konseptual tizim asosida shakllanadi. Bu esa o‘quvchi uchun diskursni tushunishni osonlashtiradi va kognitiv kogerensiyani mustahkamlaydi.

Meronimik munosabatlar esa butun va uning qismlari o‘rtasidagi semantik bog‘lanishga asoslanib, badiiy makon, predmetlar va obrazlarning ichki tuzilishini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Butun tushunchaning tarkibiy qismlar orqali bosqichma-bosqich ochilishi matnda tasviriy aniqlikni oshiradi va leksik kogeziyaning uzluksizligini ta’minlaydi. Meronimiya yordamida muallif umumiy makon yoki obyektni detallarga ajratib, o‘quvchining tasavvurida jonli va izchil manzara yaratadi.

Giponimik va meronimik munosabatlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanganda, leksik yaxlitlik yanada mustahkamlanadi. Giponimiya diskursda vertikal semantik tuzilmani shakllantirsa, meronimiya gorizontal va ichki bog‘lanishlarni ta’minlaydi. Ushbu ikki munosabatning birgalikda ishlashi matnning nafaqat leksik jihatdan bog‘langanligini, balki mazmunan izchil va konseptual jihatdan yaxlit ekanini ta’minlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz badiiy diskursida leksik kogeziya faqat takror yoki kollokatsiya bilan cheklanib qolmaydi, balki giponimik va meronimik munosabatlar orqali chuqur semantik aloqalar tizimi shakllanadi. Bu munosabatlar diskursning kogerensiyasini mustahkamlab, o‘quvchining matnni yaxlit holda idrok etishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, giponimik va meronimik munosabatlar ingliz badiiy diskursida leksik yaxlitlikni ta’minlovchi asosiy semantik mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular matnning ichki tuzilishini mustahkamlaydi, mazmuniy izchillikni kuchaytiradi va badiiy diskursning kognitiv hamda estetik qiymatini oshiradi. Shu bois, ushbu munosabatlarni o‘rganish badiiy matnni lingvistik va diskursiv tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). “Cohesion in English”. London: Longman.
2. Brown, G., & Yule, G. (1983). “Discourse Analysis”. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Flowerdew, John. (2013). Discourse in English language education. London: Routledge.
4. McCarthy, Michael. (1991). Discourse Analysis for Language Teachers. United Kingdom: Cambridge University Press.
5. Lyons, J. (1977). Semantics (Vol. 1–2). Cambridge: Cambridge University Press.
6. Geeraerts, D. (2010). Theories of Lexical Semantics. Oxford: Oxford University Press.
7. Winston, M. E., Chaffin, R., & Herman, D. (1987). A taxonomy of part–whole relations. Cognitive Science.
8. Henry, O. (2005). “The Gift of the Magi and other stories”.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 338.48(575.1)"13/14"

XIV–XV ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA SAVDO INFRATUZILMASI

Rayimova Sadoqatxon Azizbek qizi,
"O'zbekiston tarixi" kafedrasi tayanch doktoranti

TRADE INFRASTRUCTURE OF MAWARANNAHR IN THE 14TH–15TH CENTURIES

Rayimova Sadokatkhon Azizbek qizi, PhD student of the Department of "History of Uzbekistan"

ТОРГОВАЯ ИНФРАСТРУКТУРА МАВЕРАННАХРА В XIV–XV ВЕКАХ

Раимова Садокатхон Азизбек кызы, базовый докторант кафедры «История Узбекистана»



https://orcid.org/0009-0004-5237-0385
e-mail: rayimov@sadoqatxon gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Temuriylar davrida savdo infratuzilmalarining shakllanishi, rivoji va ularning iqtisodiy-siyosiy jarayonlardagi o'rni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy asarlaridagi ma'lumotlar asosida Temur saltanatida karvon yo'llarining tiklanishi, karvonsaroylar va rabotlar tizimi, bozorlar va timlarning faoliyati, bojxona siyosati hamda savdogarlarning himoyasi kabi jihatlar yoritilgan. Shuningdek, ichki va tashqi savdoning kengayishiga olib kelgan infratuzilmaviy islohotlar, ularning Movarounnahr iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan baholanadi.*

Kalit so'zlar: *Temuriylar, savdo infratuzilmasi, karvonsaroy, rabot, Ipak yo'li, bojxona tizimi, savdo yo'llari, Shomiy, Yazdiy, Amir Temur, xalqaro savdo, ichki bozor.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the formation and development of trade infrastructure during the Timurid period based on primary historical sources. Using information from Nizam al-Din Shami and Sharaf al-Din Ali Yazdi, the study examines the restoration of caravan routes, the system of caravanserais and rabats, the organization of markets and trade centers, customs policy, and the protection of merchants under Amir Temur's administration. It also evaluates the impact of infrastructural reforms on the expansion of internal and international trade and their significance for the economic development of Transoxiana in the 14th–15th centuries.*

Key words: *Timurids, trade infrastructure, caravanserai, rabat, Silk Road, customs system, trade routes, Shami, Yazdi, Amir Timur, international trade, internal market.*

Аннотация: *В статье проводится комплексный анализ формирования и развития торговой инфраструктуры в период Темуридов на основе исторических источников. На основании данных Низомиддина Шомий и Шарафуддина Али Йазди рассматриваются восстановление караванных путей, система караван-сараев и рабатов, функционирование рынков и тимов, таможенная политика и меры по защите торговцев в государстве Амира Темура. В работе также оценивается влияние инфраструктурных реформ на расширение внутренней и международной торговли и их роль в экономическом развитии Мавераннахра XIV–XV вв.*

Ключевые слова: *Темуриды, торговая инфраструктура, караван-сарай, рабат, Шёлковый путь, таможенная система, торговые пути, Шомий, Йазди, Амир Темур, международная торговля, внутренний рынок.*

Kirish

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida iqtisodiy, siyosiy va madaniy barqarorlikning eng yuqori cho'qqilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr boshlarida Movarounnahr hududi nafaqat yirik siyosiy

markazga, balki jahon savdo tizimining uzviy qismiga aylangan. Bu davrda savdo munosabatlarining rivojlanishi, ayniqsa, savdo infratuzilmasining kengaytirilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bunday yuksalishning asosiy tamoyillari Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy-iqtisodiy strategiyadan kelib chiqadi. Temuriy davlatda savdo infratuzilmasi deganda, xalqaro va ichki savdo yo‘llari, karvonsaroylar, rabotlar, bandargohlar, bozorlar, timlar, ixtisoslashgan savdo rastalari, bojxona va soliq tizimi, savdo xavfsizligini ta’minlovchi harbiy-inzibot mexanizmlari tushuniladi.

Bu sohaning o‘rganilishida ikki asosiy manba – **Nizomiddin Shomiy**ning “Zafarnoma”si va **Sharafuddin Ali Yazdiy**ning “Zafarnoma”si muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbalar nafaqat Temuriylar siyosatining mohiyatini ochadi, balki iqtisodiy hayotning o‘ziga xos jihatlarini ham aniq ko‘rsatib beradi.

Natija va muhokama

Amir Temur (1336–1405) saltanati davrida savdo munosabatlari va savdo infratuzilmalari Markaziy Osiyo tarixida keskin rivojlangan bosqichlardan birini tashkil etadi. Movarounnahrning geografik joylashuvi, Buyuk ipak yo‘lining asosiy tarmoqlarining aynan shu hududdan o‘tishi Temur tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy va harbiy-siyosiy islohotlar bilan uyg‘unlashib, savdo XIV–XV asrlarda Movarounnahrda shakllangan savdo infratuzilmalari mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti, xalqaro aloqalarining kengayishi va ijtimoiy hayotining barqarorlashuvida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida savdoga nisbatan davlat siyosati puxta yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bozorlar, karvonsaroylar, rabotlar, yo‘l tarmoqlari, bojxona tizimi va xavfsizlik mexanizmlarining yaxlit majmuasi shakllantirildi.

Davr manbalari – Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy va boshqa tarixnavislar asarlarida Temur tomonidan xalqaro savdo yo‘llarini tiklash, karvonlar harakatini himoya qilish, strategik shaharlarni iqtisodiy markazga aylantirish bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli choralar batafsil tasvirlanadi. Bu infratuzilmaning asosiy komponentlari bo‘lgan yangi bozor maydonlarining bunyod etilishi, savdo rasmiylashtiruv tizimining tartibga solinishi, tashqi savdo aloqalari uchun qulay shart-sharoitlarning yaratilishi o‘sha davr iqtisodiyotining yuksalishiga olib keldi. Movarounnahrning geografik joylashuvi – Buyuk Ipak yo‘li chorrahasidagi strategik pozitsiya – Temuriylar tomonidan samarali foydalanilgan, natijada Yevropa, Xitoy, Hindiston, Eron va Arab mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari jonlandi. Shaharlarning, ayniqsa Samarqandning iqtisodiy va madaniy nufuzi oshdi, hunarmandchilik tarmoqlari kengaydi, transkontinental savdo hajmi ortdi.

Ushbu davrda shakllangan savdo infratuzilmasi nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ta’minladi, balki davlatning siyosiy barqarorligi va xalqaro nufuzini mustahkamladi. Temuriylarning savdo siyosati va infratuzilmasi O‘rta Osiyo mintaqasining keyingi iqtisodiy taraqqiyotiga zamin yaratgan muhim tarixiy bosqich bo‘lib, hozirgi tadqiqotlar uchun ham bebaho manba hisoblanadi.

Temur davlat qurilishida eng birinchi vazifa sifatida ichki barqarorlikni tiklashni qo‘ydi. U yurt ichidagi parokandalikni tugatib, hududlarni yagona markazlashgan boshqaruvga birlashtirdi. Shomiy qayd etadi: “Sulton har bir yo‘lda tartib o‘rnatsa, savdo yuradi, savdo yursa, mamlakat obod bo‘ladi”[1]. Temurning nazarida iqtisodiy kuch – siyosiy qudratning asosi edi. U savdoni davlat daromadining manbai, davlatlararo diplomatiya vositasi, hududlar integratsiyasini kuchaytiruvchi omil sifatida ko‘rgan. Shu sababli u savdo yo‘llari xavfsizligini harbiy qat’iyat bilan himoya qildi. Temur tashqi siyosatida xalqaro savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash alohida o‘rin tutdi. Uning yurishlarida asosiy maqsadlardan biri Sharq va G‘arbni bog‘lovchi savdo magistrallarining barqaror faoliyatini qayta tiklash edi. Shu bois, **karvon yo‘llari rekonstruksiya qilindi,** yangi tarmoqlar ochildi. Yo‘llarda **qo‘riqchi postlar**, chegara nazorati va bekatlar tashkil etildi. Savdogarlarning mol-mulki davlat tomonidan **himmat va himoya** tizimi bilan muhofaza qilindi. Movarounnahrning Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgani Temuriylar davlatiga ulkan imkoniyatlar yaratdi. Temur ushbu imkoniyatni to‘liq ishga soldi – yangi yo‘llar barpo qildi, buzilgan ko‘priklarni tikladi, strategik karvon punktlarini mustahkamladi.

Temur davrida quyidagi asosiy yo‘nalishlar tiklangan va rivojlantirilgan:

G‘arbiy yo‘nalish – Samarqand → Buxoro → Xorazm → Saroy → Oltin O‘rda. Janubiy yo‘nalish – Samarqand → Qarshi → Termiz → Balx → Hirot → Fors. Shimoliy yo‘nalish – Samarqand → Toshkent → Sayram → O‘tror → Sirdaryo o‘ng qismi → Dashti Qipchoq. Sharqiy yo‘nalish – Samarqand → Qashqar → Yorkand → Xitoy.

Yazdiy “Zafarnoma”sida bu yo‘llarning nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-siyosiy ahamiyati borligini ta’kidlab, Temurning ularni muntazam nazorat qilib turganini qayd etadi[2]. Temur ko‘hna yo‘llarni yangilash haqida maxsus farmonlar bergan. Ularga ko‘ra: yo‘l bo‘ylab tepaliklar tekislab chiqilgan, ko‘priklar ta’mirlangan, yo‘llar bo‘ylab daraxtlar ekilgan (karvonlar uchun soyali yo‘l), suv chiqarish XIV–XV asrlarda Movarounnahrda shakllangan savdo infratuzilmalari mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti, xalqaro aloqalarining kengayishi va ijtimoiy hayotining barqarorlashuvida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. [12]

Temuriylar davrida qurilgan karvonsaroylarni shartli ravishda uch turga bo‘lish mumkin:

1. **Strategik karvonsaroylar** – davlat nazorati ostida bo‘lib, harbiy lashkar tomonidan qo‘riqlangan.

2. **Savdo-karvonsaroylar** – bozor yaqinida joylashgan, savdogarlarga xizmat ko‘rsatgan.

3. **Qishloq karvonsaroylari** – viloyatlar o‘rtasidagi mahalliy savdo yo‘llarida joylashgan.

Karvonsaroylar faqat tunash joyi emas, balki mol almashinuvi, bojxona hujjatlarini tekshirish, mahalliy aholi bilan savdo qilish, savdo elchilari uchun diplomatik maskan vazifasini bajargan. Rabotlar xavfsizlik nuqtai nazaridan karvonlar uchun eng muhim infratuzilma hisoblangan. Har 25–40 km masofada joylashgan rabotlar, qurollangan qo‘riqchilar bilan ta’minlangan, ot va tuya almashish sharoiti mavjud bo‘lgan, suv va oziq-ovqat bilan ta’minlovchi kichik garnizonlarga ega bo‘lgan. Sharafuddin Ali Yazdiy bir necha bor Temurning “yo‘llar bo‘ylab rabotlar qurolli bo‘lsin” degan farmonini eslatadi[3]. Savdo infratuzilmasining eng muhim bo‘g‘ini – shahar bozorlari. **Samarqand**da: Registon majmuasi atrofi, Chorsu bozorlar, Temurning “Kuksaroy” siyosiy markazi yaqinidagi elchilar bozori faoliyat yuritgan. **Hirot**da timlar, ipak bozori, zargarlik rastalari mashhur bo‘lgan. Shomiy Samarqand bozorlarining jahon savdogarlari to‘planuvchi markazga aylanganini qayd qilib: “Bu shaharda Rumdan, Hinddan, Chin va Xitoydan, Dashti Qipchoqdan kelgan savdogarlar har kuni ko‘p bo‘lar edi”[4] – deya ta’riflaydi. Temur tomonidan savdo solig‘i qat’iy tartibga solingan. Shomiy ma’lumotiga ko‘ra: ichki savdo uchun soliq past bo‘lgan, xalqaro savdocilar uchun muayyan chegirmalar joriy etilgan, savdogarning moliga tajovuz qilgan har bir amaldor og‘ir jazoga tortilgan[5].

Temur savdo-sanoat siyosatini halol savdoga undaydigan, poraxo‘rlikni oldini oladigan tarzda tashkil qilgan. Yazdiy ma’lumot beradi: Temur savdogarlarning moli davlat himoyasida ekanini maxsus farmonda tasdiqlagan. Agar karvon talansa yoki yo‘lda musodara qilinsa – viloyat hokimi u molni to‘liq qoplab berishi shart bo‘lgan[6].

Bu siyosat savdo harakatini sezilarli darajada oshirgan. Temuriylar davrida shaharlararo savdo kengaygan. Bunga, karvon yo‘llarining xavfsizligi, tebranishsiz soliq tizimi, bozorlarning muntazam ishlashi, hunarmandchilikning rivojlanishi kabi omillar sabab bo‘lgan. Xususan, Buxoro – Samarqand – Toshkent – O‘tror tarmog‘i eng faol ichki savdo yo‘li bo‘lgan. Temuriylar davridagi savdo infratuzilmasining yuksalishi davlatning iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Savdo yo‘llari faollashgani sari: hunarmandchilik mahsulotlariga talab oshgan, shaharlar iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan, xalqaro bozorlarda Movarounnahr mahsulotlariga ehtiyoj kuchaygan. Samarqandning jahon iqtisodiy markaziga aylanishi aynan yaxshi yo‘lga qo‘yilgan infratuzilma natijasidir.

XULOSA

XIV–XV asrlarda Movarounnahrda shakllangan savdo infratuzilmalari mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti, xalqaro aloqalarining kengayishi va ijtimoiy hayotining barqarorlashuvida muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

[1] Nizomiddin Shomiy. *Zafarnoma*. — Toshkent: Fan, 1996.

[2] Sharafuddin Ali Yazdiy. *Zafarnoma*. - Toshkent: Fan, 1991

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida savdoga nisbatan davlat siyosati puxta yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bozorlar, karvonsaroylar, rabotlar, yo‘l tarmoqlari, bojxona tizimi va xavfsizlik mexanizmlarining yaxlit majmuasi shakllantirildi.

Davr manbalari – Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy va boshqa tarixnavislar asarlarida Temur tomonidan xalqaro savdo yo‘llarini tiklash, karvonlar harakatini himoya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli choralar batafsil tasvirlanadi. Bu infratuzilmaning asosiy komponentlari bo‘lgan yangi bozor maydonlarining bunyod etilishi, savdo rasmiylashtiruv tizimining tartibga solinishi, tashqi savdo aloqalari uchun qulay shart-sharoitlarning yaratilishi o‘sha davr iqtisodiyotining yuksalishiga olib keldi.

Movarounnahrning geografik joylashuvi – Buyuk Ipak yo‘li chorrahasidagi strategik pozitsiya – Temuriylar tomonidan samarali foydalanilgan, natijada Yevropa, Xitoy, Hindiston, Eron va Arab mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari jonlandi. Shaharlarning, ayniqsa Samarqandning iqtisodiy va madaniy nufuzi oshdi, hunarmandchilik tarmoqlari kengaydi, transkontinental savdo hajmi ortdi. Ushbu davrda shakllangan savdo infratuzilmasi nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ta’minladi, balki davlatning siyosiy barqarorligi va xalqaro nufuzini mustahkamladi. Temuriylar davridagi savdo infratuzilmasi mukammal yo‘l tarmog‘i, karvonsaroy va rabotlar tizimi, bozor va timlar majmuasi, tartibga solingan bojxona siyosati, savdogarlarning himoyalangan maqomi kabi elementlardan iborat bo‘lib, Movarounnahrni XIV–XV asrlarda jahon savdosining markaziy nuqtalaridan biriga aylantirdi. Temur tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat o‘sha davrda o‘z samaradorligini ko‘rsatgan bo‘lsa, bugun ham infratuzilma va savdo xavfsizligining iqtisodiy barqarorlik uchun qanchalik muhimligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1.Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1996.
2.Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Tehron: Asotir, 2004.
3.Ibn Arabshoh. Ajoib al-Maqdur. – Qohira, 1960.
4.Bo‘riboyev M. Amir Temur davlati va iqtisodiy siyosati. – Toshkent, 2011.
5.Bobojonov O. Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. – Toshkent, 2015.
6.Ahmedov B. Buyuk Ipak yo‘li tarixi. – Toshkent, 1996.
7. Hansen V. The Silk Road: A New History. – Oxford, 2012.
8. Clavijo R. Embassy to Tamerlane. – London, 1928.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.82:81.181

CHO‘LPON HIKOYALARIDA MILLAT TAQDIRI VA ILM-MA’RIFAT MASALASI


Ismatullayeva Sevinch,
Qarshi davlat universiteti talabasi

THE FATE OF THE NATION AND THE ISSUE OF EDUCATION IN CHOLPON’S STORIES

Ismatullayeva Sevinch,
Student at Qarshi State University

СУДЬБА НАЦИИ И ВОПРОСЫ НАУКИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ В РАССКАЗАХ ЧОЛПОНА

Исматуллаева Севинч,
студент Каршинского государственного университета



https://orcid.org/0009-0001-7489-6685
e-mail: sismatullayeva152@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Cho‘lpon hikoyalarida ilgari surilgan davr ijtimoiy muammolari badiiy-estetik va g‘oyaviy jihatdan tahlil qilinadi. Adib asarlarida XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyatining murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoiti, milliy ongning uyg‘onish jarayoni hamda ma’naviy inqiroz omillari obrazlar tizimi orqali ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, milliy ong, matbuot, detal, maslak, ma’rifat, jaholat, manifest, konflikt.*

Annotation: *This article analyzes the social problems of the period presented in Chulpan's stories from an artistic, aesthetic, and ideological perspective. The writer's works reveal the complex socio-political conditions of Turkestan society at the beginning of the 20th century, the process of awakening national consciousness, and the factors of the spiritual crisis through a system of images.*

Key words: *Jadidism, national consciousness, press, detail, enlightenment, ignorance, manifesto, conflict.*

Аннотация: *В данной статье анализируются социальные проблемы того периода, представленные в рассказах Чулпана, с художественной, эстетической и идеологической точек зрения. В своих произведениях писатель через систему образов раскрывает сложные социально-политические условия туркестанского общества начала XX века, процесс пробуждения национального самосознания и факторы духовного кризиса.*

Ключевые слова: *Джадидизм, национальное самосознания, нажимать, деталь, просвещение, невежество, манифест, конфликт.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asr o‘zbek adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon (Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li)ning hayoti va ijodiy faoliyati milliy adabiyot tarixida alohida o‘rin tutadi. U qisqa, qariyb qirq yillik umri davomida she’r, hikoya, roman, drama, tanqid va tarjima kabi badiiy ijodning turli janr va yo‘nalishlarida samarali faoliyat olib bordi. Tafakkuri jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan adib ijodida milliy ong, uyg‘onish va ma’rifatparvarlikka da’vat yetakchi mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Cho‘lpon ijodi o‘zbek adabiyotida yangicha tafakkur va badiiy izlanishlar bosqichini boshlab bergan muhim hodisa sifatida e’tirof etiladi. Adibning dastlabki ijod namunalari matbuotda “Abdulhamid Sulaymoniy” imzosi ostida e’lon qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). 1914-yilda Ubaydullaxo‘ja Asatullaxo‘jayev muharrirligida nashr etilgan “Sadoyi Turkiston” gazetasi jadidchilik harakati tarixida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur gazeta bilan bir qatorda nashr qilingan “Sadoyi Farg‘ona” sahifalarida adibning “Qurboni

jaholat” va “Doktor Muhammadiyor” kabi dastlabki nasriy asarlari e’lon qilingan. Cho‘lpon tafakkurining shakllanishida matbuotning, xususan, jadid nashrlarining ta’siri katta bo‘lgan. Bu jihat “Qurboni jaholat” hikoyasidagi bosh qahramon obrazida ham yaqqol namoyon bo‘ladi [1].

Hikoyada Eshmurod ismli yigitning fojeasi hamda uning hayotini izdan chiqargan jaholat va ilmsizlik muammosi tasvirlanadi. Turkistonni qamrab olgan ma’naviy zulmat o‘qimishli va ziyrak yigit Eshmurod taqdirida o‘zining ayanchli aksini topadi. Atrof-muhitdagi ilmsizlik va milliy tarqoqlik uni chuqur iztirobga soladi. Hatto otasining gazeta mutolaa qilgani uchun uni masxara qilishi ham jamiyatdagi ma’rifatsizlik darajasini ko‘rsatadi. Millatning ilm olishga, maktab va madrasalarda tahsil ko‘rishga loqaydligi Eshmurodni ruhiy tushkunlikka olib keladi. Hikoyada badiiy detallar muhim semantik yuk tashiydi. Xususan, soat detali voqealar rivojida ramziy ahamiyat kasb etadi. Eshmurod va uning yoshlikdagi tanishi, mullaning o‘g‘li Mo‘minjon obrazlari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yiladi. Mehmon sifatida kelgan Mo‘minjon Eshmurodning otasiga uning do‘sti Nazarali hadya qilgan soatni o‘g‘irlab ketadi. Devordan soatning yo‘qligini ko‘rgan ota umrida ilk bor Eshmurodni qattiq jazolaydi. Nomus va iztirobga chiday olmagan yigit uzoq vaqt betob bo‘lib yotadi. Keyinchalik mingboshining uyida ham xuddi shu soat sababli yana kaltaklanadi. Voqealardan bexabar Eshmurodning uyiga mirshablar bostirib kirib, uni o‘g‘rilikda ayblab hibsga oladilar. O‘zini o‘rab turgan muhit bilan kelisha olmasligini anglagan yigit oxir-oqibat o‘z joniga qasd qiladi va jaholat qurboniga aylanadi [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Asar badiiy jihatdan yetuklikning boshlang‘ich bosqichida bo‘lsa-da, unda Turkiston fojeasini anglash va uni badiiy talqin etishga intilish yaqqol seziladi. Hikoyada Eshmurodni na ota-onasi, na yaqinlari, na do‘sti Mo‘minjon tushunadi. Natijada u jamiyat va muhit qarshisida o‘zini ojiz his qiladi. Uning: “Ovro‘palilardan odati qabihalarini kasb qilamiz, ammo madaniyat, funun va sanoye’lariga ko‘z yumib tururmiz. Biz odam bo‘lmaymiz… bitamiz… inqiroz bo‘lamiz… Oh, jaholat!” [6] mazmunidagi o‘kinchli xitobi orqali muallif o‘zining ijtimoiy-ma’rifiy qarashlarini ifoda etadi. Ko‘plab o‘rinlarda qahramon bilan muallif qarashlari uyg‘unlashadi, biroq ular o‘rtasidagi masofa har doim ham aniq saqlanmaydi. Eshmurodning ruhiy iztiroblari, o‘ziga hamfikr ma’rifatli shaxslarni topa olmasligi va jaholat botqog‘iga tobora chuqurroq botib borishi uni fojeaviy qahramonga aylantiradi. Qahramondan farqli ravishda, Cho‘lpon real hayotda ijtimoiy-ma’rifiy harakatlarda faol ishtirok etgan, maslakdoshlari bilan muntazam aloqada bo‘lgan ziyoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdulhamid Cho‘lpon “Doktor Muhammadiyor” hikoyasi orqali Eshmurod obrazining tamoman ziddi bo‘lgan, real ijtimoiy muhit fonida shakllangan ideal qahramon timsolini yaratadi. Adib nazarida jamiyat orasida Muhammadiyor kabi iqtidorli va salohiyatli yoshlar nihoyatda ko‘p, biroq ularning ro‘yobga chiqishiga zamon sharoiti, moddiy tanglik, diniy va dunyoviy bilimlarning sustligi, ma’naviy qashshoqlik hamda jaholat to‘sqinlik qilmoqda [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Hikoya markazida Muhammadiyorning hayot yo‘li va ma’naviy kamoloti tasvirlanadi. O‘n besh yoshida otasi bilan haj safariga borib, turli sarguzashtlarni boshidan kechirgan Hoji Ahmad haqiqiy saodat ilm-ma’rifatda ekanini anglab yetadi. U yagona o‘g‘li Muhammadiyorning ham ilm yo‘lidan borishini istaydi va uni o‘qitish maqsadida mablag‘ topish ilinjida boylarning eshigini qoqadi. Bir guruh qimorbozlar qo‘lida jon berar chog‘ida ham: “O‘g‘lum! O‘qu… o‘qu… o‘qu…” deya o‘g‘lini ilm olishga undaydi. Otasining o‘limidan so‘ng dastlab qotillardan qasd olishni o‘ylagan Muhammadiyor chin jinoyatchi jaholat ekanini anglab yetadi va otasining vasiyatini amalga oshirishga kirishadi.

Hukumat tomonidan talabalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan “Shogirdlarga yordam jamiyati” moddiy qiyinchilik sababli faoliyatini sustlashtirgan bir paytda, Boku yoshlari mablag‘ yig‘ib, Muhammadiyorni oliy ta’limgacha o‘z hisoblaridan o‘qitishga qaror qiladilar. U gimnaziya va universitetni a’lo baholar bilan tamomlaydi, so‘ng yetti yil Shveytsariya dorilfununida tibbiyot ilmini egallab, malakali shifokor sifatida vatanga qaytadi hamda nochor insonlarni bepul davolaydi [4].

“Doktor Muhammadiyor” asari shunchaki badiiy hikoya emas, balki millatni jaholatdan xalos etish va milliy uyg‘onishga da’vat etuvchi badiiy manifestdir. Adib jaholatni tasodifiy illat emas,

balki ijtimoiy-tizimli kasallik sifatida talqin qiladi. Shu bois Muhammadiyor obrazi “doktor” timsolida gavdalantiriladi – u nafaqat jismoniy dardni, balki jamiyatning ma’naviy xastaligini davolovchi ramziy qahramondir.

Hikoyada qimor, ichkilikbozlik, vaqtni behuda sarflash kabi illatlar tasviri orqali muallif xalqning ma’rifatdan uzoqlashib borayotganini ko‘rsatadi. “Xalq vaqtini behuda o‘tkazayotgan bir pallada, dunyo ilm bilan taraqqiy etmoqda”, degan g‘oya asarning yetakchi falsafiy qatlamini tashkil etadi. Bundan tashqari, muallif Muhammadiyorning Petrogradda tahsil olayotgan davrini tasvirlar ekan, Turkiston madrasalarida o‘qiyotgan ayrim mullavachchalarning ilm o‘rniga bekorchilik bilan mashg‘ul bo‘layotganini tanqid qiladi. Shu o‘rinda “Umrlik shogirdlar” nomli xayoliy roman haqida izoh berib, aslida bunday asar yozilmaganini, ammo shu ruhda bir roman yaratilishi zarurligini ta’kidlaydi[6]. Bu esa Cho‘lponning ma’rifiy-estetik qarashlarini ochib beradi.

“Qurboni jaholat” va “Doktor Muhammadiyor” hikoyalari XX asr boshlaridagi Turkiston o‘lkasining eng dolzarb muammolarini badiiy talqin etadi. Eshmurod va Muhammadiyor obrazlari tizimida jamiyatda avj olgan ijtimoiy-ma’naviy ziddiyatlar ochib beriladi. Jumladan, Eshmurodning ma’rifatga intilishi bilan johil otasining qarashlari o‘rtasidagi ziddiyat bunga yorqin misoldir. Otasining: “Ey ahmaq! Gazetachilaringning ishi hamma vaqt aqcha topmoq. Gazetaning so‘zi to‘g‘ri bo‘lmaydur…” [3] mazmunidagi so‘zlari millatning yangicha tafakkurdan qo‘rqishini ifodalaydi. Muallif shu orqali bir necha “bayoz” yoki mazmunsiz kitoblar bilan cheklanib qolgan jamiyat tanazzulga yuz tutishini ta’kidlaydi.

Mazkur ijtimoiy muammolar Cho‘lponning publitsistik va she’riy asarlarida ham atroflicha ko‘tarilgan. Adibning bosh orzusi – o‘qigan, ma’rifatli, ilm-u salohiyati bilan jaholat qobig‘ini yorib o‘ta oladigan xalqni ko‘rish edi. Oradan qariyb bir asr o‘tgan bo‘lsa-da, Cho‘lpon kabi ziyolilarning “Uyg‘on!” da’vati ostidagi ma’rifatchilik harakatlari besamar ketmadi; ular bugungi kun ma’naviy taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylandi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, har ikki hikoya o‘zaro kontrast obrazlar tizimi asosida qurilgan. “Qurboni jaholat”dagi Eshmurod obrazi jaholat va ijtimoiy beparvolik qurboni sifatida talqin etilsa, “Doktor Muhammadiyor”dagi bosh qahramon ilm-ma’rifat orqali najot topgan ideal shaxs timsolidir. Shu jihatdan, Cho‘lpon bir tomondan mavjud muhitning fojeaviy oqibatlarini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan esa ma’rifat orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini badiiy asoslaydi.

Har ikki asarda jaholat individual emas, balki ijtimoiy-tizimli muammo sifatida talqin qilinadi. Adib nazarida millat taraqqiyotining asosiy to‘siqlari – ilmga beparvolik, ma’naviy qashshoqlik, zamonaviy bilimlardan uzoqlik va ijtimoiy loqaydlikdir. Shu bois Cho‘lpon qahramonlarini ma’rifat yo‘lida harakatlantirar ekan, ularni ramziy ma’noda millat taqdirining ifodachisiga aylantiradi. Xususan, Muhammadiyorning “doktor” sifatida gavdalanishi jamiyatni davolash g‘oyasining badiiy timsolidir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Cho‘lponning mazkur hikoyalari nafaqat o‘z davrining dolzarb muammolarini aks ettirgan, balki milliy uyg‘onish mafkurasining estetik dasturini ham shakllantirgan asarlardir. Ular orqali adib ma’rifatni millat najotining yagona yo‘li sifatida ko‘rsatadi. Cho‘lpon ilgari surgan “Uyg‘on!” da’vati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, uning ijodi o‘zbek adabiyotining ma’rifiy-estetik tafakkur taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdulhamid Ch. Do‘xtur Muhammadiyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi ASN, 1991.
2. Cho‘lpon. Asarlar II jild. – Toshkent. Adabiy badiiy nashr, 1994. – 469 b.
3. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – 457 b.
4. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2004. – 288 b.
5. Quronov D. Cho‘lpon. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. – 160 b.
6. Sharipov R. E’tiqod va ijod uyg‘unligi. Monografiya. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024. – 118 b.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81.373

“KELIN – BUYUM” KONSEPTUAL METAFORASINING NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PAREMIYALARDA VOQELANISHINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Jo‘raxolova Bahora Qurbonboyevna, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi



https://orcid.org/0009-0009-7023-7904
e-mail: bahora_88@mail.ru

“WIFE-THING” CONCEPTUAL METAPHOR’S COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS IN PROVERBS OF THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Jurakholova Bahora Kurbanbaevna, researcher at the uzbek state university of world languages

“СОПОСТАВИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТАФОРЫ “ЖЕНА-ВЕЩЬ” В ПОГОВОРКАХ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Джурахолова Бахора Курбанбаевна, соискатель узбекского государственного университета мировых языков

Annotatsiya: *Mazkur maqola “KELIN – BUYUM” konseptual metaforasining nemis va o‘zbek tillaridagi paremiya va maqollarda voqelanishining qiyosiy-typologik tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada tilshunoslikda metafora, ayniqsa, kontseptual metafora tushunchasining nazariy jihatlari va uning tilda ifodalanish xususiyatlari o‘rganiladi. Nemis va o‘zbek tillarida “KELIN” va “BUYUM” kontseptlari asosida qurilgan paremiya va maqollarning tahlili orqali ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *kontseptual metafora, kelin, buyum, paremiya, maqolla, qiyosiy tahlil, madaniyat, tilshunoslik.*

Abstract: *This article is dedicated to the comparative-typological analysis of the conceptual metaphor “WIFE-THING” in proverbs and sayings of the German and Uzbek languages. The paper explores the theoretical aspects of metaphor, particularly conceptual metaphor, and its expression in language. Through the analysis of proverbs and sayings based on the concepts “WIFE” and “THING”in both German and Uzbek, the general and specific characteristics of these expressions are identified.*

Key words: *conceptual metaphor, bride, object, proverb, saying, comparative analysis, culture, linguistics.*

Аннотация: *Данная статья посвящена сравнительно-типологическому анализу выражения концептуальной метафоры “ЖЕНА-ВЕЩЬ” в пословицах и поговорках немецкого и узбекского языков. В статье исследуются теоретические аспекты метафоры, особенно концептуальной метафоры, и ее выражение в языке. Анализ пословиц и поговорок, построенных на концептах “ЖЕНА-ВЕЩЬ” в немецком и узбекском языках, позволяет выявить их общие и специфические особенности.*

Ключевые слова: *концептуальная метафора, невеста, предмет, пословица, поговорка, сравнительный анализ, культура, лингвистика.*

KIRISH

Tilshunoslikda qiyosiy-tipologik tahlil (yoki qiyosiy tipologiya) tilshunoslikning metodologik yondashuvlaridan biri bo‘lib, u tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, ularni tahlil qilish va tasniflashga asoslanadi. Bu usul, tilshunoslarning turli tillar va ularning tuzilmalari o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rganish uchun keng qo‘llaniladi.

Qiyosiy-tipologik tahlil tilshunoslikda ko‘plab sohalarda, jumladan, til tizimlari, fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantika kabi yo‘nalishlarda ishlatiladi. Bu usul yordamida til turlarining o‘xshashliklari va farqlari asosida turli tildagi tuzilmalar tahlil qilinadi va tasniflanadi.

Qiyosiy-tipologik tahlil haqida turli olimlar va tilshunoslar turli ilmiy qarashlarga ega. Bu metodologiya, asosan, tillar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlashda ishlatiladi va ko‘plab ilmiy qarashlar, bu yondashuvning turli jihatlarini tushunishga yordam beradi. Quyida qiyosiy-tipologik tahlilga oid ba'zi olimlar fikrlarini va ilmiy qarashlarini keltiraman.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ingliz tilshunosi Bernard Komrie[1] tipologiya va qiyosiy tilshunoslik sohalaridagi eng yirik olimlardan biridir. U qiyosiy-tipologik tahlilni tillarning strukturalarini solishtirish va umumiy xususiyatlarni aniqlashda muhim metod deb hisoblaydi. Komrie tipologiya va qiyosiy tahlilni lingvistik tadqiqotlarning asosiy usuli sifatida ko‘rsatgan. Uning fikricha, tipologik tahlil yordamida tillar o‘rtasidagi umumiy strukturalar va xususiyatlar aniqlanadi, bu esa tillarning o‘ziga xosligi va tarixi haqida chuqurroq tushuncha yaratadi.

Komriening fikriga ko‘ra, qiyosiy-tipologik tahlil tillarni tasniflash va tizimlashtirishda muhimdir. U “tillarni tipologik jihatdan tasniflash orqali ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniq ko‘rish mumkin” deb ta'kidlaydi.[2] Uning asosiy ishi “Language Universals and Linguistic Typology” (1972) da taqdim etilgan, unda u tillarni o‘xshashliklar asosida guruhlashni o‘rganadi.

Madaniyatlararo tilshunoslik bo‘yicha mashhur olim, Eugene Nida[3] qiyosiy-tipologik tahlilni lingvistik ta'riflashda o‘xshashlik va farqlarni aniqlashda keng qo‘llaydi. E. Nida o‘zining “Linguistic Theory” (1967) kitobida, qiyosiy-tipologik tahlil yordamida tillar o‘rtasidagi morfologik va sintaktik farqlarni ko‘rsatadi va ularning madaniy kontekstlarda qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi.

Strukturalizmning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan fransuz tilshunosi André Martinet[4] qiyosiy-tipologik tahlilni tilning o‘zgaruvchan va o‘ziga xos tuzilmalarini aniqlashda foydalangan. Martinetning fikriga ko‘ra, tillarning strukturalari o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar, til tarixini va uning evolyutsiyasini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR. “KELIN – BUYUM” kontseptual metaforasining nemis va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda voqelanishining qiyosiy-tipologik tahlili - bu tilshunoslikda juda qiziqarli va ko‘p qirrali mavzu bo‘lib, u tillar o‘rtasidagi semantik, madaniy va lingvistik farqlarni aniqlashga yordam beradi. Konseptual metafora nazariyasiga asoslanib, bu tahlil kelin obrazining turli tillarda qanday shakllanishi va tasvirlanishini o‘rganadi. Aksariyat madaniyatlarda kelin qadrlanadigan, ammo ba'zida buyum sifatida ham talqin qilinadigan obraz bo‘lib, bu uning ijtimoiy roliga va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga bo‘lgan qarashni aks ettiradi.[5]

Kontseptual metafora - bu tilning asosiy tuzilmasi va odamlarning dunyoni qanday tasavvur qilishlari haqida chuqur nazariyadan kelib chiqqan tushuncha bo’lib, Lakoff va Jonson[6] ning “Biz yashayotgan metaforalar” (1980) asarida aytilishicha, metaforalar faqat badiiy nutqda emas, balki kundalik til va fikrlashda ham mavjud bo‘lib, ular dunyoqarashimizni shakllantiradi. Masalan, “kelin-buyum” metaforasi, kelin obrazini ko‘pincha biror narsaning yoki buyumning metaforik ifodasi

[1] J. Greenberg., J. Harold. Language universals: with special reference to feature hierarchies. Mouton. 1980.

[2] J. Greenberg., J. Harold. Language universals: with special reference to feature hierarchies. Mouton. 1980.

[3] N. Eugene., Ch. Taber. The theory and practiceof tranclation. 4th impresson. -Boston. 2003.

[4] A. Martinet. Éléments de linguistique Générale. Armand Colin. 1973. 221 P.

[5] Jo’raxolova B. Maqollar tadqiqining lingvokognitiv aspekti. Tamaddun nuri. 2024, No.10 (61)

[6] J.Lakoff., M. Jonson. Metaphors we live by. 1980.

sifatida tushuntiradi. O‘zbek va nemis tillarida kelin obrazini biror narsaga yoki buyumga o‘xshatish, kelinning ijtimoiy roli va qadriyatlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu tasvirni tahlil qilishda bir nechta jihatlar inobatga olinadi: **Kelinning o‘rni va roli**: Madaniyatdagi kelin tasviri va uning oila, jamiyat va ijtimoiy hayotdagi o‘rni; **Buyumga o‘xshashlik**: Kelinning ko‘pincha sotib olinadigan, boshqalarga tegishli yoki boshqa maqsadlar uchun ishlatiladigan biror narsa sifatida tasvirlanishi;

MUHOKAMA. Nemis tilida kelin obrazini tasvirlashda ko‘plab nuanslar mavjud. Nemis madaniyatida kelin, odatda, oilaga kiritiladigan yangi a'zoni - “shaxs”ni ifodalaydi va uning o‘rni ko‘pincha tasavvur qilingan yoki kutilgan “yangilik” sifatida tasvirlanadi. Bu o‘rinda **“Galerie”** (galereya) yoki **“Stück”** (buyum) kabi so‘zlar, kelinni biror narsa yoki buyum sifatida ifodalashda ishlatilishi mumkin. Masalan:
“Die Braut ist wie ein wertvoller Besitz.”[7] (Kelin - qimmatli mulk kabi.) Bu ifoda kelinni qimmatli buyum sifatida tasvirlaydi, uning ijtimoiy qiymatini va uning boshqalarga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Nemis tilidagi bu kabi tasvirlar ko‘pincha o‘rganish va sayohatga chiqish orqali yangi biron narsani kutish tushunchasiga asoslanadi.

O‘zbek tilida esa kelin ko‘pincha **“yangi buyum”**, **“to‘y sovg‘asi”** yoki **“yangi oila a'zosi”** sifatida tasvirlanadi. Bu tasvirlar o‘zbek madaniyatida kelinning o‘zi yangi oilaga kirishini va o‘sha oilaning “yangi” buyumi sifatida ijtimoiy maqom va rolining belgilanishini aks ettiradi. Masalan: **“Kelin – yurtga kelgan yangi to‘n.”** (Kelin - yangi kelgan, ya'ni yangi oila a'zosi sifatida.). **“Kelinning elga chiqarilgan to‘yi – yangi buyumning taqdimoti.”** Bu yerda kelin yangi oilaga kiritilgan buyum sifatida ko‘rsatiladi, uning o‘zi biror narsaning yoki ijtimoiy tizimning qismi sifatida tasvirlanadi.

Har ikkala tilda kelin tasviri **yangi buyum** sifatida ko‘rsatiladi. Bu buyum o‘ziga xos biror narsaning ijtimoiy qiymatini yoki maqomini anglatadi. Kelinning “yangi” va “ko‘rsatilgan” pozitsiyasi ham o‘xshashdir.

Bundan tashqari oila tizimi va ijtimoiy roli ham o‘xshash tarzda tasvirlanadi. Kelin yangi oila tizimiga kirib, o‘z rolini yangi boshlaydi.

“KELIN – BUYUM” konseptual metaforasi ayollarning “*shodlik va baxt keltirish”, “go‘zallik”, “maroqli va quvonchli muhit”, “quvonch va baxt”, “iliqlik”, “nur”, “ta’m”, “xilma-xillik”, “yaratuvchanlik”, “ilhom”* kabi ayollarning metaforik tasvirini o‘zbek va nemis tillaridagi maqollarda o‘xshash va farqli xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA. “KELIN – BUYUM” kontseptual metaforasining nemis va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda voqelanishi, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rsatadi. Ikkala tilda ham kelin yangi oila tizimiga kiradi, ammo uning ijtimoiy roli va tasviri madaniy an'analarga qarab farqlanadi. Nemis tilida kelin ko‘proq qimmatli mulk sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida u yangi oila a'zosi yoki to‘y sovg‘asi sifatida tasvirlanadi. Bu tahlil tilshunoslikda kontseptual metaforalar va paremiologiyaning o‘rganilishida qiyosiy yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Beyer H., Beyer A. Sprichwörterlexikon. - Москва. Высшая школа. 1989. c-263.
2. Eugene N., Taber Ch. The theory and practiceof tranclation. 4th impresson. -Boston. 2003.
3. Greenberg J., Harold J. Language universals: with special reference to feature hierarchies. Mouton. 1980.
4. GibbsR, Strom Lise, Spivey-KnowltonM. Conceptual Metaphors in Mental Imagery for Proverbs. Journal of Mental Imagery 21. 1997. 83–110p.
5. Jo‘raxolova B. Maqollar tadqiqining lingvokognitiv aspekti. Tamaddun nuri. 2024, No.10 (61)
6. Lakoff G, Johnson M. Leben in Metaphern. Konstruktion und Gebrauch von Sprachbildern. -H.: 1980.-S. 16 .
7. Martinet A. Éléments de linguistique Générale. Armand Colin. 1973. 221 P.
8. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. -Toshkent: 2005. B. 7. 257 b.

[7] H.Beyer., A. Beyer. Sprichwörterlexikon. - Москва.Высшая школа. 1989. c-263.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 392.181.151.9

TALABALARNING TIBBIY–TEXNIK BILIMLARINI BAHOLASH VA DIAGNOSTIKA QILISHNING ZAMONAVIY MEZONLARI VA USULLARI

Hamroeva Sanobar Hasan qizi, Osiyo Xalqaro Universiteti tayanch doktorant. Buxoro, Uzbekiston

MODERN CRITERIA AND METHODS FOR ASSESSING AND DIAGNOSING STUDENTS' MEDICAL-TECHNICAL KNOWLEDGE

Hamroeva Sanobar Hasan qizi,
PhD Student Asian International University
Bukhara, Uzbekistan

СОВРЕМЕННЫЕ КРИТЕРИИ И МЕТОДЫ ОЦЕНКИ И ДИАГНОСТИКИ МЕДИКО-ТЕХНИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ

Хамроева Санобар Хасан кизи,
Базовый докторант(PhD) Азиатский международный университет. Бухара, Узбекистан

https://orcid.org/0009-0005-8079-8669

hamroyevasanobar1@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida tibbiy–texnik bilimlarni baholash va diagnostika qilishning konseptual asoslari, mezonlari hamda instrumentlari tizimli tahlil qilinadi. Milliy normativ-huquqiy baza, kompetensiyaga yo'naltirilgan DTS talablari va xalqaro baholash yondashuvlari integratsiyasi asosida TTBni ishonchli, valid va xolis aniqlashga qaratilgan amaliy model ishlab chiqiladi va metodik tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zl*ar: tibbiy–texnik bilimlar, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, OSCE/OSKI, OSPE, simulyatsiya, Mini-CEX, DOPS, programmatic assessment, psixometrika, validlik, ishonchlilik, DIF, e-portfolio.*

Abstract: *The article systematizes conceptual foundations, criteria, and instruments for assessing and diagnosing medical-technical knowledge within Uzbekistan's higher education system. Integrating national regulatory frameworks, competency-based standards, and international assessment paradigms, it proposes a valid, reliable, and objective model aimed at accurate evaluation of complex professional competencies and evidence-based educational quality assurance.*

Key words*: medical-technical knowledge, competency-based education, OSCE/OSKI, OSPE, simulation, Mini-CEX, DOPS, programmatic assessment, psychometrics, validity, reliability, DIF (Differential Item Functioning), e-portfolio*

Аннотация: *В статье систематизируются концептуальные основы, критерии и инструменты оценки и диагностики медико-технических знаний в системе высшего образования Узбекистана. На основе интеграции национальной нормативно-правовой базы, компетентностных стандартов и международных подходов предлагается валидная и надежная модель объективной оценки сложных профессиональных компетенций обучающихся и обеспечения качества подготовки специалистов.*

Ключевые слова*: медико-технические знания, компетентностно-ориентированное образование, ОСКЭ/ОСКИ (OSCE/OSKI), ОСПЭ (OSPE), симуляционное обучение, Mini-CEX, DOPS, программное оценивание (programmatic assessment), психометрика, валидность, надежность, DIF (дифференциальное функционирование заданий), электронное портфолио.*

Kirish. Sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy qurilmalar, klinik axborot tizimlari, telemeditsina va raqamli diagnostika ulushi ortgani sari, tibbiyot va muhandislik chegarasida ishlovchi mutaxassislar (biotibbiyot muhandisi, klinik muhandis, tibbiy laboratoriya mutaxassisi, hamshiralik amaliyotida texnologiya bilan ishlovchi kadrlar) uchun TTB strategik ko‘nikmaga aylanmoqda. Bu kompetensiya faqat “qurilmani yoqish” darajasida emas, balki xavfsizlik, o‘lchov xatolari, klinik risk, reglamentlar, ma’lumotlar integratsiyasi va sifat nazorati bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishni ham qamrab oladi. Milliy baholash tizimi esa kredit-modul (ECTSga asoslangan) ta’lim jarayoni, o‘qitish natijalariga yo‘naltirilgan DTS, hamda tibbiyot yo‘nalishlarida OSCE/OSKI kabi obyektiv strukturallashtirilgan formatlardan foydalanish imkoniyatini normativ darajada belgilab bormoqda.

Shu bilan birga, baholashning amaliyotda “diagnostika” funksiyasi (erta aniqlash, individual o‘quv yo‘lini tuzatish, ishonchli progress qarorlari) ko‘pincha yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan: baholash natijalari psixometrik tahlil qilinmasligi, rubrikalar validatsiyasining sustligi, adolatlilik monitoringi (masalan, DIF)ning cheklanganligi, hamda o‘qituvchi baholovchilarning tayyorligi notekisligi tizim barqarorligini pasaytiradi. Mazkur maqola ushbu bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun: (1) TTBni ta’riflash va chegaralash, (2) zamonaviy baholash ramkalarini milliy kontekstga moslashtirish, (3) diagnostik vositalar “portfeli”ni tanlash, (4) psixometrik sifatni boshqarish mexanizmlarini belgilash, (5) empirik dalillar asosida OAK jurnali talabiga mos metodik model va amaliy to‘plam yaratishni maqsad qiladi.

Metodologiya

Birinchi blokda milliy normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi: talabalar o‘zlashtirishini nazorat qilish va baholash tartibi (tibbiyot yo‘nalishlarida OSCE/OSKI shakllari ham mumkinligi), DTS va davlat ta’lim standartlarida o‘qitish natijalari/kompetensiyalarni belgilash, kredit-modul (ECTS) tizimi, milliy malakalar ramkasi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, shuningdek OAK bilan bog‘liq ilmiy etik talablar va ta’limdan keyingi bosqichda ilmiy natijalarni e’lon qilish mezonlari ko‘rib chiqildi. Ikkinchi blokda xalqaro standartlar va konsensus hujjatlari tanlandi: WFME 2020 standartlari (baholash siyosati, formative-summative tizim, qayta aloqaga asoslangan o‘qitish), hamda baholash dasturi bo‘yicha Ottawa 2020 konsensus prinsiplari va programmatik assessmentni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha integrativ sharh. Uchinchi blok — 2016–2026-yillarda chop etilgan tizimli sharh/meta-tahlillar va ochiq kirishli empirik tadqiqotlar: OSCE ishonchliligini stansiya soni/davomiyligi bo‘yicha meta-tahlil, Mini-CEX va DOPS bo‘yicha meta-tahlil, simulyatsiyaga asoslangan o‘qitish meta-tahlili, baholashda adolatlilik va DIF bo‘yicha tahlillar, hamda AI yordamida baholash kontentini ishlab chiqish bo‘yicha metodik tavsiyalar. Tahlil natijalari “baholash konstruksiyasi” (TTB ta’rifi), “baholash dizayni” (blueprint va metodlar portfeli), “baholash sifat tizimi” (validlik–ishonchlilik–adolatlilik), “joriy etish mexanizmi” (resurs, kadr, huquqiy-axloqiy talablar) bo‘yicha strukturallashtirildi.

Natijalar

Ishchi ta’rif. Tibbiy–texnik bilimlar — sog‘liqni saqlash amaliyotida tibbiy qurilmalar va texnologiyalarni tanlash, xavfsiz ishlatish, tekshirish/kalibrlash, nosozlik diagnostikasi, klinik jarayon bilan integratsiya qilish va natijani hujjatlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilim–ko‘nikma–munosabatlar majmuasi (integral kompetensiya). Bu ta’rif “baholash natijasi”ni alohida faktlardan ko‘ra “ish faoliyatiga mos dalil” sifatida ko‘rishga imkon beradi (ya’ni, ta’lim natijalari va baholash uyg‘unligi).

Qamrov va auditoriya. TTB kamida ikki katta yo‘nalish uchun farqlangan kompetensiya xaritasini talab qiladi: Biotibbiyot muhandisligi: o‘quv yo‘nalishi malaka talablarida tibbiyot qurilmalari va tizimlari, ularning elementlari va qismlari, texnik diagnostika, xizmat ko‘rsatish va qo‘llashga oid fan bloklari mavjudligi TTBning “texnik yadrosi”ni ko‘rsatadi. Allied health: masalan, tibbiy profilaktika yo‘nalishida ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, monitoring va sifatni baholash metodlari, mehnat xavfsizligi kabi kompetensiyalar alohida qayd etilishi TTBning “tizim va xavfsizlik” komponentlarini asoslaydi.

Milliy standartlar bilan moslashuv. Davlat ta’lim standartlari kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim natijalarini belgilash, nazorat-baholash mexanizmlarini ta’lim natijalariga bog‘lashni ko‘zda tutadi; baholash tizimi o‘qitish natijalari

bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. Kredit-modul tizimi ECTSga asoslangan bo‘lib, baholashni modul natijalari, kredit tan olish va baholarni konvertatsiya qilish jarayonlari bilan muvofiqlashtirishni talab qiladi. Tibbiyot ta’limida esa oraliq va yakuniy nazorat OSCE/OSKI kabi obyektiv strukturallashtirilgan formatlarda ham o‘tkazilishi mumkinligi normativ bazada qayd etilgan bo‘lib, bu TTBni amaliy ko‘nikmalar bilan baholashga huquqiy zamin yaratadi. **Xalqaro sifat standartlari.** WFME 2020 standartlari baholash siyosati va tizimi mavjud bo‘lishi, baholashlar o‘quv natijalari bilan muvofiqlashtirilishi, formative va summative metodlar kombinatsiyasi qo‘llanishi, qayta aloqa (feedback) orqali o‘qishni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi. **Miller va Bloom ramkalari.** TTB baholashda “bilish–qo‘llash–ko‘rsatish–amal qilish” zanjiri (Miller piramidasi) muhim: faqat test bilan “biladi” darajasini o‘lchash yetarli emas, “ko‘rsatadi/amal qiladi” qatlamlari OSCE/ish joyidagi kuzatuv orqali baholanadi. Bloom taksonomiyasi esa kognitiv murakkablikni (eslab qolishdan tahlil va yaratishgacha) baholash topshiriqlarida muvozanatlashga yordam beradi; bu TTB test bankini blueprint asosida qurishda ayniqsa samarali.

Metod	Asosiy o‘lchanadigan qatlam (Miller)	Validlik potensiali	Ishonchlilik dalillari	Xarajat va infratuzilma	Fezibillik (O‘zbekiston konteksti)	OAK uchun metodik “himoya” qulayligi
SBA/ MCQ test bank + blueprint	Biladi / Qo‘llaydi	O‘rta–yuqori (konstrukt va blueprintga bog‘liq)	Item tahlili va α bilan boshqarilad i; bias uchun DIF mumkin	Past–o‘rta; CBT talab etilishi mumkin	Yuqori: kredit-modul va ECTSda keng qo‘llanadi	Yuqori: psixometrik ko‘rsatkichlar bilan asoslash oson
OSCE/ OSKI	Ko‘rsatadi	Yuqori (realistik stansiya va rubrikaga bog‘liq)	Meta-tahlil: 5–10 stansiya, <10 daq → α≈0.88	Yuqori (SP, stansiya, baholovchi, joy)	O‘rta–yuqori: normativ ruxsat va tajriba bor	Yuqori: blueprint, standard-setting bilan himoyalanadi

Empirik dalillarni muhokama qilish

So‘nggi 10 yillik dalillar TTB baholashda “ko‘p metodli” yondashuvning afzalligini ko‘rsatadi. OSCE ishonchliligi bo‘yicha meta-tahlil dizaynni optimallashtirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar beradi (5–10 stansiya, <10 daqiqa). Bu O‘zbekiston sharoitida resurs cheklangan paytda “optimal paket” tanlashga yordam beradi. Mini-CEX/DOPS meta-tahlili esa WBAning ta’limiy ta’sirini tasdiqlaydi, biroq “implementatsiya sifati” (feedback sifati, ishtirokchi jalb etilish) hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi; demak, baholashni joriy etishda fakultet rivoji va mentoring tizimi birinchi darajali vazifa bo‘lishi kerak. Simulyatsiya bo‘yicha meta-tahlillar klinik va amaliy ko‘nikmalarni oshirishda katta ta’sir ko‘rsatkichlarini bildiradi; bu TTBning xavfsizlik va nosozlik diagnostikasi kabi real bemorda sinab bo‘lmaydigan kompetensiyalariga mos keladi. Adolatlilik bo‘yicha ochiq manbalar DIF tahlili amaliyotda biasni aniqlash va tuzatishga xizmat qilishini, yuqori-stakes baholashlarda esa item darajasida noto‘g‘ri to‘siqlar mavjud emasligini tekshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan manbalar va ilovalar

1. Vazirlar Mahkamasi qarori: Oliy ta’limda kredit-modul tizimini asosida joriy etish tartibi (2020, yangilanishlar bilan).
2. Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari va malaka talablari bo‘yicha umumiy me’yorlar (2024).
3. Talabalar o‘zlashtirishini nazorat qilish va baholash tartibi (tibbiyot yo‘nalishida formatlari qo‘llanishi mumkinligi).
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va kompetensiyalarni baholash tizimi (2020).

5. Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida qonun (2019).
6. OAK rasmiy qarori: tavsiya etilgan ro‘yxatdan ayrim “impakt-faktor” bazalarini chiqarish va ilmiy etik talablar (2024).
7. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim: PhD/DSc monitoring mezonlari va OAK ro‘yxatidagi jurnallarda maqola talablari (2017, amaldagi tahrirlar bilan).
8. WFME. Basic Medical Education: Global Standards for Quality Improvement (2020 revision). Schut S, et al. Programmatic assessment bo‘yicha integrativ sharh (2020). Ottawa 2020 consensus statement: programmatic assessment prinsiplari (2021). Peng Q, et al. OSCE ishonchliligi: stansiya soni va vaqt bo‘yicha meta-tahlil (2025).
9. Lörwald AC, et al. ta’limiy ta’siri: tizimli sharh va meta-tahlil (2018).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

ЗАРАФШОН ВОДИЙСИ ГЕОГРАФИК ЖОЙЛАШИШИ ХУСУСИЯТЛАРИ, ҲУДУДИЙ ЧЕГАРАЛАРИ ВА ГЕОИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРИ ХУСУСИДА

Қадамбаев Шаҳриёр, Абу Райҳон Беруний номидаги Урганч давлат университети мустақил тадқиқотчиси



https://orcid.org/0009-0009-9557-9855

CHARACTERISTICS OF ZARAFSHAN VALLEY GEOGRAPHICAL LOCATION, TERRITORIAL BOUNDARIES AND GEOECONOMIC FACTORS

Kadambaev Shahriyor, independent researcher of Urganch State University named after Abu Rayhon Beruni

ХАРАКТЕРИСТИКИ ДОЛИНЫ ЗАРАФШАН: ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ГРАНИЦЫ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ

Кадамбаев Шахриёр, независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

Аннотация: *Мақолада Марказий ва жанубий Зарафшон воҳасининг географик жойлашиши хусусиятлари ва ҳудудий чегаралари ёритилган.*

Калит сўзлар: *Баратов П, Маматқулов М., Рафиқов А., Холматов Н.У., Сагдуллаев А.С., Абдуллаев Ў.И., Матяқубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ш.Э., Маткаримов Х.О., Юсупов А.Ш., Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Кабиров Ж., Журақулов М.Ж., Мамедов Э.Д., Ўзбекистон, Сирдарё, Амударё, Қуйи Зарафшон, Ўрта Зарафшон, Жанубий Зарафшон, Дарсой, Моҳандарё, Чорбакти.*

Аннотацион: *В статье освещены границ территории, географические особенности расположение Центрального и Нижнего Зарафшанского оазиса.*

Ключевые слова: *Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А., Холматов Н.У., Сагдуллаев А.С., Абдуллев У.И., Матякубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тогаев Ш.Э., Маткаримов Х.О., Юсупов А.Ш., Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Кабиров Ж., Журакулов М.Ж., Мамедов Э.Д., Узбекистан, Сирдарё, Амударё. Нижний Зарафшан, Дарёсай, Моҳандаре, Чорбакти.*

Кириш. Ўзбекистон Республикаси ҳудуди Сирдарё ва Амударё ўртасида жойлашган. Ўрта Зарафшоннинг шимолий чегараси Қорақалпоғистон Республикаси Тўрткўл тумани уланиб кетган Қуйи Зарафшон водийси ҳам ички Қизилқум ҳудудига уланиб кетади. Жанубида эса Муборак ва Қарши даштига туташиб кетган. Осмонўпар тоғлар Сурхон воҳаси билан ҳудудий-жойлашиш чегараси белгиланган. Асосий аҳоли учун экин-тикинликка қулай ҳудуд ҳисобланади, унинг гидрологик хусусиятини Зарафшон дарёси, унинг Эчкиликсой, Дарёсой, Маҳондарё, Гужайли, Оёқагитма, Чорбакти ирмоқлари Зарафшон водийсининг гидрологик хусусиятини белгилаб берган. Ўрта Зарафшон

ҳудуди ҳозирги вақтда шимолий ва жанубий қисмларга бўлиниши, шимолий Тожикистон республикасига қазиш, жанубий қисми эса Самарқанд вилояти ҳисобланади, ўзига хос географик ҳолати икки хусусиятни намоён қилган, яъни тоғли ва текислик, бу географик манзара Қуйи Зарафшон (Қашқадарё вилояти).

Ушбу мақолада Ўрта ва Жанубий Зарафшоннинг географик ҳолати, хусусиятлари, ҳудудий чегаралари ҳамда геоиқтисодий омилларини ёритиш назарга олинган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Геологик жараёнларнинг бир неча маротаба такрорланиши муносабати билан Зарафшон водийси географик ҳолатида бир-бирини такрор қилмайдиган учта тарихий географик манзара Ўзбекистоннинг физик-географик харитасида яққол кўзга ташланади.

Ўрта Зарафшон воҳаси Туркистон ва Зарафшон тоғ тизмалари оралиғида Қизилқум ички қисми географик манзарасини давом эттирган. Воҳа жанубий томондан Зарафшон тоғ тизмаси, ғарбида эса, Чакилқалаон, Қоратепа, Зиёдин-Зирабулоқ билан чегараланган. Унинг асосий тоғи Қоратепа массиви ҳисобланиб, узунлиги 50 км, кенглиги 30-35 км бўлиб, тоғ, тоғ олди ҳудудларини қамраб олган. Воҳанинг гидрологиясини Қоратепадан оқиб тушган жилғалар бир қатор сойларни ҳосил қилган, яъни Оҳалик, Мираққул, Тепақул, Эгрикулча, Оқсойлар намоён қилган. Ўрта Зарафшонга геологик жиҳатдан уланиб кетган Жанубий Зарафшоннинг географик ҳолати ва ҳудудий чегараларидан фарқланадиган тарихий-географик ҳудуд жанубий Зарафшонни ташкил қилган [2.2020-Б.25].

Географик адабиётларда қайд қилинган маълумотларга кўра бундан 25-10 млн йиллар илгари Қизилқум-Орол денгизи оралиғи текислик бўлган[1.2002-Б.283]. Ўрта Зарафшон воҳаси палеогеография фанлари натижаларига кўра, 4-3,5 миллион йиллар илгари текислик 500 минг йилликкача давом этган[3.1974-С .290-291] . Археологик адабиётларда қайд қилинишича бундан олдинги 500-12 минг йилликларда Қизилқумда музлик устунлик қилган [4.1990-Б 14]. Мил.авв. 12 минг йилликка келган иқлим шароити ҳарорат кўтарилиши натижасида кенгликда бўлган музлик эриши муносабати билан текислик яна сернам ва серунум бўлган, ботиқлар сув манбаи билан бойиган [5.2004-Б 14-15]. Ўрта ва Жанубий Зарафшон ҳудуди Қизилқум қисмида олиб борилган геологик тадқиқотлар натижаларига кўра геологик жараёни сўнгги плейстоцен охири билан белгиланган[6 1986-С85-86.7-1992-С.19-20]. Ўрта Зарафшон географик ҳолатини Қоратепа тоғ массиви, ундан оқиб тушган жилғалар сувлари ҳаракати натижасида гидрологик ҳолати бир қатор сойлар ҳосил қилган, Сиёб, Оқдарё, жанубий Зарафшон воҳаси Қашқадарёни намоён этиб, геоиқтисодий омилларни ҳосил қилган [8. 2011-Б.18-20].

Тадқиқот методологияси. Объективлик, тарихий-хронологик тизим, назарий-қиёсий таҳлил, мунозаралар, умумлаштириш, якуний хулоса.

Таҳлил ва натижалар. Хоразм экспедицияси Самарқанд давлат университети археология кафедраси ҳамкорлигида археология экспедицияси ходимлари нашрларида қайд қилинган тарихий маълумотлар асосида Ўрта Зарафшон ва Жанубий Зарафшон воҳалари географик ҳолати, хусусиятлари, уларни ҳудудий чегаралари жойлашиш хусусиятлари таҳлил қилинди: Чунончи: А.В.Виноградов раҳбарлигида Хоразм экспедицияси ҳамда М.Ж.Жўрақулов раҳнамолигида Самарқанд давлат университети “Археология” кафедраси археология гуруҳи Ўрта Зарафшонда ҳамда Ўзбекистон Фанлар академияси тарих ва археология институти К.С.Кабанов рахбарлигида Қашқадарё воҳасида олиб борган археологик тадқиқотлар натижасида палеогеографик ҳолати, ҳудудий тузилиши, ўзига хос хусусиятлари изоҳланди. Масалан, Ўрта Зарафшон ҳудуди географик ҳолати Қизилқум ҳолати, ботиқлар намоён қилган, унинг географик ҳолатини Қоратепа массиви, ундан оқиб тушган жилғалар йирик сойларни вужудга келишига олиб келган. Ибтидоий жамоа тузуми даврида Жанубий Зарафшоннинг шарқий ҳудудида Танхосдарё Шўрабсой, ўрта Зарафшонда Қўрғонча, Лолазор каби хўжалик-маданий типлар таркиб топган, булар ўз навбатида, тарихий география, этнология,

этногеография, этнодемография каби атамаларнинг шаклланишига олиб келган. Ўрта Зарафшон гидрологик хусусиятини Оқдарё, Сиёб дарёлари белгилаб берган. Улар ўз навбатида юқорида тарихий-географик ҳудудларда таркиб топган геоиқтисодий омиллар стратегик аҳамиятини ошириб, одамларнинг келиб, жойлашиб, табиий ресурслардан фойдаланиб кундалик фаолиятларини олиб боришига кенг истиқболли йўлни белгилаб берган.

Натижалар. Зарафшон воҳаси географик жиҳатдан ранг-баранг ҳолати Бухоро, Ўрта ва Жанубий воҳалари бир-биридан фарқланиш туфайли бўлиб, уларнинг жойлашиши 300 минг кв кмни ташкил қилади. Бухоро воҳасидан Марказий ва Жанубий Зарафшон воҳалари географик, геоморфологик жиҳатдан ажралиб туради. Ўрта Зарафшонда миқдор жиҳатидан катта бўлмаган Оқдарё, Сиёб дарёлари ҳаракат қилган бўлса, жанубий Зарафшон воҳасида Ўрта мақомга эга бўлган Қашқадарё билан фарқланиш хусусиятига эга. Шу билан бирга Жанубий Зарафшон воҳасида Муборак, Қарши ва Жом дашт хусусиятига эга бўлиб, чорва хўжалигининг ривожланиш истиқболини белгилаб берганлиги билан геоморфологик хусусиятга эга. Ўрта Зарафшон асосан деҳқончиликка қулай бўлган сернам ва серунум текисликка эга эканлигини кузатиш мумкин.

Хулоса ва таклифлар. Юқорида қайд қилинган фикр-мулоҳазалардан келиб чиқиб, қуйидаги хулосани қайд қилиш лозим:

-Ўрта ва Жанубий Зарафшон Ўзбекистоннинг стратегик аҳамиятини бошқа тарихий-географик ҳудудлар сингари белгилаб берган.

-Ўрта Зарафшон ҳудуди ватанимиз ҳудуди ўртасида жойлашган, жанубий Зарафшон ҳудуди ғарбий томондан унга уланиб кетиб, сернам бўлиб, одамзотнинг келиб ўрнашишига замин бўлган.

-Икки ҳудуд Зарафшон воҳасининг таркибий қисми сифатида геоморфологик жиҳатлари билан бир-бирини тўлдириб туради.

Қуйидаги таклифлар қайд қилинди:

-Ўрта ва Жанубий Зарафшон воҳаларининг географик ҳолати умумжиҳатлари, ўзига хос хусусиятларини географик харитада тасвирлаш.

-Зарафшон водийси ва Хоразм воҳаси географик манзарасини ёритиш;

-Ўрта ва жанубий Зарафшон воҳасининг табиий манбалари жиҳатини ўрганиш.

Адабиётлар рўйхати:

1. Баратов П., Маматқулов М., Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси. -Тошкент, Ўқитувчи, 2002.

2. Холматов Н.У. Зарафшон воҳаси ва Қизилқум мезолит и неолит даврида //Сагдуллаев А.С., Холматов Н.У., Абдуллаев Ў.И., Матяқубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ж.Э., Маткаримов Х.О., Юсупов А.Ш. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. -Тошкент. Университет. 2020.

3. Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии //Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в Плейстоцене и Голоцене. -М.:Наука, 1974.

4. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. - Тошкент.: Ўқитувчи, 1990.

5. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. -Тошкент.:Университет, 2004 й.

6. Джуракулов М.Ж., Мамедов Э.Д. Геология археологических памятников Зарафшана-Тошкент: 1986.

7. ДЖуракулов и др. Вопросы экологии и геологического возраста Сазаганских стоянок //Вопросы археологии, древней истории и этнографии. Труды САМГУ. -Самарканд. 1992-С.19-20.

8. Жўрақулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданияти тарихи саҳифаси //Ўзбекистонда археология. -Самарқанд, 2011-Б. 1 (2).

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 388.147

INGLIZ TILI O‘RGANISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Jo‘rabekova Madina Jumanazar qizi, Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND LINGUDIDACTIC FEATURES OF DEVELOPING MOTIVATION TO LEARN ENGLISH

Jurabekova Madina Jumanazar qizi, PhD student at Termez State Pedagogical Institute

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ, ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МОТИВАЦИИ К ИЗУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА



https://orcid.org/0000-0154-0214-7810
e-mail: madinajorabekova@gmail.com

Журабекова Мадина Жуманазар кызы, базовый докторант Термезского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz tilini o‘rganish motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik va lingvodidaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Motivatsiyaning ichki va tashqi omillari, talabalarning individual-psixologik xususiyatlari hamda o‘qitish metodlarining motivatsiyaga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida samarali motivatsion muhitni shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *motivatsiya, ingliz tili o‘qitish metodikasi, psixologik omillar, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ta’lim jarayoni.*

Annotation: *The article examines the psychological, pedagogical, and linguodidactic features of developing motivation for learning English. It analyzes intrinsic and extrinsic motivational factors, individual psychological characteristics of learners, and the influence of teaching methods on sustaining language learning interest. Special attention is paid to communicative approaches, interactive methods, and digital technologies as tools for enhancing learners’ motivation.*

Keywords: *motivation, English language teaching, psychological factors, linguodidactics, communicative approach, intrinsic motivation, extrinsic motivation.*

Аннотация: *В статье рассматриваются психолого-педагогические и лингводидактические особенности развития мотивации к изучению английского языка. Анализируются внутренние и внешние факторы мотивации, индивидуально-психологические особенности обучающихся и влияние методов обучения на формирование устойчивого интереса к языку. Особое внимание уделяется коммуникативному подходу, интерактивным методам и цифровым технологиям как средствам повышения учебной мотивации.*

Ключевые слова: *мотивация, обучение английскому языку, психолого-педагогические особенности, лингводидактика, коммуникативный подход, внутренняя мотивация, внешняя мотивация.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy mehnat bozori, ilmiy hamkorlik va axborot almashinuvi jarayonlarida ingliz tilini bilish muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Shu sababli

ingliz tilini o‘rganish motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

Motivatsiya — bu shaxsni muayyan faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar majmui bo‘lib, u o‘quv jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biridir. Til o‘rganish jarayonida motivatsiya barqaror bo‘lmasa, bilimlarni o‘zlashtirish sifati pasayadi.

Maqolaning maqsadi — ingliz tili o‘rganish motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik va lingvodidaktik xususiyatlarini tahlil qilish hamda samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

1. Til o‘rganish motivatsiyasining psixologik asoslari. Psixologiyada motivatsiya ichki (intrinsic) va tashqi (extrinsic) motivatsiyaga ajratiladi.

Ichki motivatsiya. Ichki motivatsiya shaxsning o‘z qiziqishi, intilishi va ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ingliz tilini o‘rganishda ichki motivatsiya quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

-xorijiy madaniyatga qiziqish;
-til orqali axborot olish ehtiyoji;
-shaxsiy rivojlanish istagi.

Ichki motivatsiya barqaror va uzoq muddatli bo‘lib, yuqori natijalarga olib keladi.

Tashqi motivatsiya. Tashqi motivatsiya tashqi rag‘batlar — baho, diplom, ishga joylashish imkoniyati, ota-ona nazorati kabi omillar bilan bog‘liq. Bu turdagi motivatsiya qisqa muddatli bo‘lishi mumkin[1].

2. Pedagogik omillar va motivatsiya. O‘qituvchining shaxsiyati, dars metodikasi va o‘quv muhiti motivatsiyaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchining roli. O‘qituvchi:

-qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi;
-individual yondashuvni qo‘llashi;
-muvaffaqiyat vaziyatini tashkil etishi zarur.

Ta’lim metodlari. Interaktiv metodlar — debat, rolli o‘yin, loyiha metodi, keys-stadi — talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi va motivatsiyani oshiradi.

3. Lingvodidaktik xususiyatlar. Lingvodidaktika til o‘qitish nazariyasi va metodikasini o‘rganadi.

Kommunikativ yondashuv. Kommunikativ yondashuv real muloqotga asoslanadi. Bu usul:

-nutq faoliyatini rivojlantiradi;
-tilni amaliy qo‘llashga o‘rgatadi;
-o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Raqamli texnologiyalar. Multimedia resurslar, mobil ilovalar va onlayn platformalar o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi[2].

4. Motivatsiyani oshirishning samarali usullari:

1. Maqsadlarni aniq belgilash.
2. Autentik materiallardan foydalanish.
3. Xalqaro loyihalarda ishtirok.
4. O‘zini baholash va refleksiya.
5. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish.

5. Muammolar va ularni bartaraf etish:

-Past o‘zlashtirish darajasi;
-Nutqiy qo‘rquv;
-Tashqi bosim.

Ularni bartaraf etish uchun differensial yondashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlash zarur[3].

Xulosa. Ingliz tilini o‘rganish motivatsiyasi psixologik, pedagogik va lingvodidaktik omillarning o‘zaro bog‘liqligi asosida shakllanadi. Ichki motivatsiyani rivojlantirish, interaktiv metodlardan foydalanish va qulay ta’lim muhitini yaratish samarali natijalarga olib keladi. Motivatsiyani oshirish — bu faqat metodik masala emas, balki shaxsiy rivojlanish jarayonidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Logos, 2017. — 384 b.
2. Leontyev A.N. Faoliyat, ong, shaxs. — Moskva: Politizdat, 2016. — 304 b.
3. Gardner R. C. Motivation and Second Language Acquisition. — New York: Peter Lang, 2010. — 220 p.
4. Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 155 p.
5. Dörnyei Z., Ushioda E. Teaching and Researching Motivation. — London: Routledge, 2013. — 326 p.
6. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. — New York: Plenum Press, 1985. — 371 p.
7. Richards J.C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014. — 410 p.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.018

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ КАК ОСНОВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КОНТЕНТА

Хасанова Вазира Хамиджановна, преподователь Ташкентского государственного транспортного университета

MILLIY QADRIYATLAR TA'LIM MAZMUNINING ASOSI SIFATIDA

Xasanova Vazira Xamidjanovna, Toshkent Davlat Transport Universiteti o'qituvchisi

NATIONAL VALUES AS THE BASIS OF EDUCATIONAL CONTENT

Khasanova Vazira Khamidzhanovna, lecturer at Tashkent State Transport University



https://orcid.org/0000-0003-0514-7803
e-mail: Vazirakhasanova@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматривается роль национальных ценностей как основы образовательного контента. Анализируются их влияние на формирование личности, гражданской идентичности и культурного самосознания обучающихся. Особое внимание уделяется педагогическим условиям интеграции национального компонента в учебный процесс. Обосновывается необходимость сочетания национальных традиций и современных образовательных технологий.*

Ключевые слова: *национальные ценности, образовательный контент, культурная идентичность, духовно-нравственное воспитание, гражданственность, межкультурный диалог, компетентностный подход.*

Annotatsiya: *Maqolada milliy qadriyatlarning ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Ularning shaxsni shakllantirish, fuqarolik ongini rivojlantirish va madaniy o'zlikni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi. Milliy komponentni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik shartlari asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *milliy qadriyatlar, ta'lim mazmuni, madaniy identiklik, ma'naviy tarbiya, fuqarolik ong, madaniyatlararo muloqot, kompetensiyaviy yondashuv.*

Annotation: *The article examines national values as the foundation of educational content. It analyzes their role in shaping personal identity, civic consciousness, and cultural awareness of students. Special attention is paid to pedagogical conditions for integrating national components into the educational process. The necessity of combining national traditions with modern educational technologies is substantiated.*

Keywords: *national values, educational content, cultural identity, moral education, civic consciousness, intercultural dialogue, competence-based approach.*

Введение. В условиях глобализации и стремительного развития информационных технологий система образования сталкивается с необходимостью сохранения культурной идентичности и национальной самобытности. Образовательный контент становится не только

источником знаний, но и инструментом формирования мировоззрения, нравственных ориентиров и гражданской позиции обучающихся.

Национальные ценности представляют собой совокупность исторически сложившихся духовных, культурных, моральных и социальных норм, определяющих самобытность народа. Включение национальных ценностей в образовательный контент способствует формированию гармоничной личности, способной сочетать глобальное мышление и национальное самосознание[1].

Цель данной статьи — определить роль национальных ценностей в формировании образовательного контента и выявить педагогические условия их эффективной интеграции в образовательный процесс.

Основная часть.

1. Понятие национальных ценностей. Национальные ценности включают:

-язык и культуру;

-историческую память;

-традиции и обычаи;

-духовно-нравственные ориентиры;

-национальную символику;

-семейные и общественные нормы.

Они формируют культурную идентичность личности и обеспечивают преемственность поколений.

В образовательном процессе национальные ценности выступают не только содержательной основой, но и средством воспитания гражданственности и патриотизма.

2. Образовательный контент в современной педагогике. Образовательный контент — это совокупность учебных материалов, программ, методических разработок и цифровых ресурсов, направленных на достижение образовательных целей.

Современный образовательный контент характеризуется:

-цифровизацией;

-междисциплинарностью;

-ориентацией на компетентностный подход;

-интеграцией культурных и социальных аспектов.

Включение национального компонента в образовательный контент обеспечивает баланс между глобальными тенденциями и локальными культурными особенностями[2].

3. Роль национальных ценностей в формировании личности. Национально ориентированный образовательный контент способствует:

1. Формированию гражданской идентичности.
2. Развитию духовно-нравственных качеств.
3. Укреплению культурного самосознания.
4. Воспитанию уважения к историческому наследию.

Особенно важным является формирование у обучающихся чувства ответственности за сохранение культурного наследия.

5. Интеграция национальных ценностей в учебные дисциплины

Гуманитарные дисциплины:

История, литература, язык и философия являются основными носителями национальных ценностей. Через анализ художественных текстов и исторических событий формируется ценностное мировоззрение.

Технические и естественнонаучные дисциплины:

Даже в техническом образовании возможно включение национального компонента через изучение достижений отечественной науки, культурных особенностей инженерной школы, профессиональной этики.

Внеучебная деятельность:

Культурные мероприятия, конкурсы, проекты и научные конференции усиливают воспитательный эффект.

5. Педагогические условия реализации. Для эффективной интеграции национальных ценностей необходимо:

-обновление учебных программ;

-подготовка педагогических кадров;

-использование интерактивных методов обучения;

-внедрение цифровых образовательных ресурсов;

TAMADDUN NURI

-поддержка межкультурного диалога[3].

6. Проблемы и вызовы: Опасность формализации ценностного компонента; Необходимость баланса между национальным и глобальным; Различия в культурных традициях обучающихся; Влияние массовой культуры и медиасреды.

Заключение. Национальные ценности являются фундаментальной основой образовательного контента. Они обеспечивают духовную устойчивость общества и формируют гармоничную личность.

Интеграция национального компонента в образовательный процесс требует системного подхода, методической подготовки и педагогической ответственности.

Сохранение культурной идентичности в условиях глобализации возможно только при активном включении национальных ценностей в содержание образования.

Список использованной литературы:

1. Вербицкий А.А. Компетентностный подход в высшем образовании. — Москва: Высшая школа, 2018. — 256 с.
2. Зимняя И. А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования. — Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2017. — 42 с.
3. Хуторской А.В. Современная дидактика. — Санкт-Петербург: Питер, 2019. — 416 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 82-21

HUSAYN JOVID DRAMATURGIYASIDA MADANIYATLARARO DIALOG (“JARLIK” VA “JAYRON” ASARLARI MATERIALIDA)

Adigezalova Malika Nadir qizi, Turon universiteti Andijon filiali “Pedagogika va tillar” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

CULTURAL DIALOGUE IN THE DRAMATURGY OF HUSEYN JAVID (A CASE STUDY OF THE PLAYS “THE ABYSS” AND “MARAL”)

Adygezalova Malika Nadir gizi, Associate Professor of the Department of Pedagogy and Languages, Andijan Branch of Turan University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

ДИАЛОГ КУЛЬТУР В ДРАМАТУРГИИ ГУСЕЙНА ДЖАВИДА (НА МАТЕРИАЛЕ ПЬЕС “ПРОПАСТЬ” И “МАРАЛ”)

Адыгезалова Малика Надыр кызы, доцент кафедры педагогики и языков Андижанского филиала университета Туран, д.ф.ф.н. (PhD)



https://orcid.org/0009-0000-0131-9871
e-mail: adimelek@mail.ru

Аннотация: *Статья посвящена анализу феномена диалога культур в драматургии Гусейна Джавида на материале пьес «Пропасть» и «Марал». Выявляются формы взаимодействия восточной духовной традиции и западной модернистской модели сознания, особенности жанрового синтеза, а также философская проблематика межкультурного противостояния. Делается вывод о том, что драматургия Джавида формирует оригинальную модель культурного синтеза, основанную на принципе диалогичности.*

Ключевые слова: *диалог культур, драматургия, философская драма, Восток и Запад, модернизм, межкультурная коммуникация.*

Annotatsiya: *Maqola Husayn Jovid dramaturgiyasida madaniyatlar dialogi fenomenini “Jarlik” va “Jayron” pyesalari asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda sharqona ma’naviy an’ana va g‘arbona modernistik tafakkur modeli o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakllari, janrlar sintezining xususiyatlari, shuningdek, madaniyatlararo qarama-qarshilikning falsafiy muammolari aniqlanadi. Xulosa qilinishicha, Jovid dramaturgiyasi dialogiklik tamoyiliga asoslangan madaniy sintezning o‘ziga xos modelini shakllantiradi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyatlar dialogi, dramaturgiya, falsafiy drama, Sharq va G‘arb, modernizm, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

Abstract: *The article is devoted to the analysis of the phenomenon of cultural dialogue in the dramaturgy of Huseyn Javid, based on the plays “The Abyss” and “Maral”. The study identifies the forms of interaction between the Eastern spiritual tradition and the Western modernist model of consciousness, the features of genre synthesis, as well as the philosophical issues of intercultural confrontation. The article*

concludes that Javid's dramaturgy forms an original model of cultural synthesis based on the principle of dialogicity.

Key words: *cultural dialogue, dramaturgy, philosophical drama, East and West, modernism, intercultural communication.*

Введение. Проблема диалога культур в современной гуманитаристике рассматривается как фундаментальный принцип развития цивилизации. По мысли М.М.Бахтина, культура живёт только в диалоге, а смысл рождается на границе сознаний. В этом аспекте драматургия Гусейна Джавида представляет собой уникальный художественный феномен, в котором столкновение и взаимодействие культурных систем становится структурообразующим принципом текста.

Пьесы «Пропасть» и «Марал» отражают духовный кризис начала XX века – эпохи модернизации, секуляризации и трансформации традиционных ценностей. Актуальность исследования определяется необходимостью осмысления драматургии Джавида как пространства межкультурного философского диалога.

Цель работы – выявить художественные механизмы диалога культур в указанных пьесах.

Материалы и методы. Материалом исследования являются тексты пьес «Пропасть» (1917) и «Марал» (1912). Методологическую основу составляют:

– концепция диалогичности М.М.Бахтина [1];

– семиотическая теория культуры Ю.М.Лотмана [2];

– герменевтический подход Х.Г.Гадамера [3];

– сравнительно-типологический анализ.

Результаты

1. «Пропасть»: трагедия культурного разрыва. Пьеса «Пропасть» строится на метафоре духовной бездны, разделяющей человека и его ценностные основания. Уже само название символизирует культурный разлом между традицией и модернностью.

Герои пьесы переживают кризис идентичности. Один из персонажей – Улуг бей – произносит:

O gün ki, İstanbulda
Gənclik fransızlaşdı,
Getdikcə türk evladı
Uçuruma yaqlaşdı.
Yurdumuzu sardıqca
Düşkün Paris modası,
Hər kəscə örnək oldu
Sərsəm firəng ədası
Sərxoşluq,iffətsizlik
Sardı bütün gəncləri,
Zəhərləndi getdikcə
Məmləkətin hər yeri.
...Avropadan fəzilət,
Himmət, ciddiyyət, vüqar
Dururkən yalnız çürük
Bir züppəlik aldılar [4:327].

(С той поры, как офранцузилась молодёжь в Стамбуле, сыны Турции приблизились к пропасти. По мере того, как окутывала нашу родину растленная парижская мода, для каждого стали примером дурацкие французские манеры: пьянство, безрассудство овладело молодёжью, постепенно отравило всё в стране. В Европе есть и великодушие, и усердие, и гордость, а они взяли только гнилую манерность).

Эта реплика фиксирует состояние культурной дезориентации. По Лотману, культура развивается через «взрыв» – момент перехода от устойчивой системы к новой[2]. В «Пропасти» именно такой взрыв становится трагическим.

Западная рационалистическая модель вступает в конфликт с восточной духовностью. Однако Джавид не предлагает однозначного решения: трагедия возникает не из различий, а из неспособности к диалогу.

2. «Марал»: образ женщины как медиатора культур. В пьесе «Марал» проблема диалога культур раскрывается через образ героини, оказавшейся между традиционным укладом и идеями свободы личности.

Марал утверждает: «Burada qalsam Turxan bəyin murdar nəfəsi, qoşulub qaçsam namus, iffət məsələsi bəni bitirəcək, bəni məhv edəcəkdir»[5:97]. («Если останусь здесь, как дышать мне одним воздухом с Турхан беем,

TAMADDUN NURI

если уйду, то не будет мне покоя, я не вынесу бесчестия и горя»).

Здесь сталкиваются коллективистская восточная традиция и индивидуалистическая европейская концепция свободы.

Гадамер подчёркивал, что понимание возможно лишь при «слиянии горизонтов»[3]. В пьесе Джавида героиня стремится к такому слиянию, но общество оказывается не готовым к культурному синтезу.

3. Философская модель диалога

В обоих произведениях диалог культур не сводится к бытовому конфликту. Он носит мировоззренческий характер.

Бахтин писал, что подлинный диалог предполагает признание равноправия голосов[1]. В драматургии Джавида голоса традиции и модерности звучат равноценно, что формирует полифоническую структуру текста.

Обсуждение. Полученные результаты позволяют утверждать, что диалог культур в драматургии Джавида реализуется через:

-Конфликт мировоззрений (традиция – модерн);

-Символическую образность («пропасть» как культурный разрыв);

-Гендерный аспект (женщина как посредник между эпохами);

-Философскую проблематику свободы и ответственности.

В отличие от европейской модернистской драмы, где конфликт часто ведёт к нигилизму, Джавид сохраняет гуманистическую перспективу. Его позиция близка идее межкультурного синтеза, характерной для интеллектуального климата джадидизма.

Заключение. Пьесы «Пропасть» и «Марал» демонстрируют сложную модель межкультурного взаимодействия, в которой Восток и Запад не противопоставлены механически, а вступают в трагический, но продуктивный диалог.

Драматургия Джавида формирует художественную концепцию, основанную на признании культурного многообразия и поиске духовного синтеза. В этом заключается её актуальность для современного гуманитарного дискурса.

Список литературы:

1. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества/Сост. С.Г.Бочаров; Текст подгот. Г.С.Бернштейн и Л.В.Дерюгина; Примеч. С.С.Аверинцева и С.Г.Бочарова. – 2-е изд. – М.: Искусство, 1986. – 445 с.

2. Лотман Ю.М. Культура и взрыв. – М.: Гнозис, 1992. – 272 с.

3. Гадамер Х.Г. Истина и метод: Основы филос. герменевтики: Пер. с нем./Общ. ред. и вступ. ст. Б.Н.Бессонова. – М.: Прогресс, 1988. – 704 с.

4. Cavid H. Əsərləri. 5 cilddə. II cild. **–** Bakı: “Elm”, 2007 – 420 s.

5. Cavid H. Əsərləri. 5 cilddə. II cild. **–** Bakı: Lider nəşriyyat, 2005 – 352 s.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 14.1(092)

SHARQ VA G‘ARB MUTAFAKKIRLARINING JAMIYATDA HUQUQIY TA’LIM VA TARBIYANI YUKSALTIRISH MASALALARIGA OID QARASHLARI



Norboyev Sardor Qavmiddinovich, Buxoro davlat pedagogika instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, BuxDU mustaqil izlanuvchisi

ISSUES OF IMPROVING LEGAL EDUCATION AND UPBRINGING IN SOCIETY BY EASTERN AND WESTERN THINKERS

Norboyev Sardor Qavmiddinovich, Teacher of the Department of Social Sciences of the Bukhara State Pedagogical Institute, Independent researcher of BukhSU

https://orcid.org/0009-0008-1474-2706
e-mail: norboyevsardor@buxdpi.uz

ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В ОБЩЕСТВЕ В ТРУДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА И ЗАПАДА

Норбоев Сардор Кавмиддинович, преподаватель кафедры общественных наук Бухарского государственного педагогического института, самостоятельный соискатель БухГУ

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq va G‘arb mutafakkirlarining huquqiy ta’lim hamda huquqiy tarbiya shakllantirish va rivojlantirishga oid qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino kabi allomalarning adolat, qonun ustuvorligi, axloq va jamiyat taraqqiyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqidagi g‘oyalari yoritiladi. Shuningdek, G‘arb mutafakkirlaridan Jon Lokk, Sharl Monteskyo, Immanuel Kant kabi faylasuflarning huquqiy davlat, fuqaro erkinliklari, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi qarashlari tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, Sharq mutafakkirlari, G‘arb mutafakkirlari, adolat, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat.*

Annotation: *This article analyzes the views of Eastern and Western thinkers on the formation and development of legal education and legal upbringing. In particular, it highlights the ideas of Eastern scholars such as Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina (Avicenna), emphasizing the close relationship between justice, the rule of law, morality, and social development. In addition, the article examines the philosophical and legal views of Western thinkers John Locke, Charles Montesquieu, and Immanuel Kant on the rule-of-law state, civil liberties, and the enhancement of legal consciousness and legal culture.*

Keywords: *legal consciousness, legal culture, Eastern thinkers, Western thinkers, justice, rule of law, legal state.*

Аннотация: *В данной статье анализируются взгляды восточных и западных мыслителей на формирование и развитие правового образования и правового воспитания. В частности, освещаются идеи восточных мыслителей, таких как Абу Наср аль-Фараби, Ибн Сина в которых раскрывается тесная взаимосвязь справедливости, верховенства закона, нравственности и общественного развития. Кроме того, рассматриваются философско-правовые взгляды западных мыслителей Джона Локка, Шарля Монтескьё, Иммануила Канта касающиеся правового государства, гражданских свобод, повышения правового сознания и правовой культуры.*

Ключевые слова: *правовое сознание, правовая культура, восточные мыслители, западные мыслители, справедливость, верховенство закона, правовое государство.*

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining huquqiy ongini yuksaltirish, qonunlarga hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirish huquqiy madaniyatning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida jamiyat barqarorligi, ijtimoiy adolat va davlat boshqaruvida qonunning ustuvorligini ta'minlashda tarbiya va ta'limning hal qiluvchi rolini ta'kidlaganlar.

G'arb mutafakkirlari qarashlarida ham huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari borasida huquqiy davlat, fuqaro erkinliklari va qonun oldida tenglik g'oyalarini ilgari surib, ushbu tamoyillarni hayotga tatbiq etishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish zarurligini asoslab berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola tadqiqotida Sharq va G'arb mutafakkirlarining jamiyatda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyani yuksaltirishga oid qarashlarini kompleks va tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-falsafiy, huquqiy va tarixiy yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi.

Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlarining ahamiyati falsafiy-nazariy yondashuv, sistemali yondashuv, ma'lumotlar tahlili, taqqoslash usuli orqali tahlil etilgan.

Tahlil va natijalar. Insoniyat tarixida huquqiy ong va huquqiy madaniyat jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Sharq va G'arb mutafakkirlari bu borada o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti, adolat va qonun ustuvorligi haqidagi qarashlari orqali huquqiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shganlar. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishi demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishi, fuqarolarning huquqiy bilim va mas'uliyat darajasi bilan belgilanadi.

Xossatan, dunyo ahli ikkinchi muallim deya ta'riflaydigan Abu Nasr Farobiy (873-950) jamiyat va davlat boshqaruvida adolat, qonuniylik, inson huquqi, axloqiy me'yorlarni asosiy omil sifatida talqin qiladi. Uning "Fozil odamlar shahri" asarida belgilab o'tgan hikmatlarida axloq me'yorlari insonning huquqiy bilimlari va madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rish mumkin. Farobiy o'zining hikmatlarida: "Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi"[1], - deya izohlagan. Bundan kelib chiqib, huquqiy madaniyat asosini axloqiy me'yorlar belgilashini ko'rsatadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sharq mutafakkirlari orasida alohida mavqega ega bo'lgan Abu Ali Ibn Sino (970-1037) ham huquq rivojiga hissa qo'shgan olim sifatida gavdalanadi.

Abu Ali Ibn Sinoning shaxs huquq va erkinliklari, uning davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi, ijtimoiy adolat va uning tamoyillari va demokratik davlat boshqaruvining o'rni borasidagi falsafiy tahlillari mutafakkirning "Ash-Shiffo fi al-ilohiyyot" asarida o'z aksini topgan. Shu jumladan, mazkur asarda mutafakkir:

"Hukumat jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida davlatda iqtisodiyotni barqarorlashtirishni ko'zlovchi iqtisodiy siyosat sohasidagi normalarni ishlab chiqishi kerak. Ibn Sino fikricha, hukumat iqtisodiy faoliyatga doir bitimlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tovlamachilik va adolatsizlikning oldini oluvchi qonunlar ishlab chiqarishga mas'ul bo'lishi lozim"[2].

Yuqoridagi mulohazalardan shuni aytish mumkinki, Ibn Sino ta'biri bilan aytganda, qonun ustuvorligi – yuksak huquqiy madaniyatning belgisi va huquqiy madaniyat esa hokimiyat va xalq o'rtasidagi mas'uliyat uyg'unligidir.

Bu boradagi qarashlarni davom ettirar ekanmiz, G'arb falsafasiga ulkan hissa qo'shgan faylasuf, nemis mutafakkiri Immanuel Kant (1724-1804) o'zining huquqiy madaniyat xususidagi qarashlarini mashhur "Axloq metafizikasi" asarida bayon qilgan. Jumladan, mutafakkir asaridagi umumiy qonun formulasida: "Men kategorik imperativni o'ylaganimda, uning nimani o'z ichiga olishini darhol bilaman. Kategorik imperativ qonun bo'lib, unga bizning maksimalarimiz mos kelishi kerak. Inson va'dasiga sodiq bo'lishi kerak, chunki Xudo shunday xohlaydi. Agar sen Xudoning irodasiga bo'ysunmoqchi bo'lsang, va'daga vafo qil"[3]. Bundan ko'rinadiki, inson

aqlga ega mavjudot bo‘lgani uchun o‘z xatti-harakatlarini umumbashariy qonun bo‘lishi mumkin bo‘lgan tamoyil asosida belgilashi lozim. Bu esa “kategorik imperativ” bilan ifodalanadi.

Ingliz siyosatshunosi Jon Lokk (1632-1704) o‘zining mashhur asarlaridan biri “Hukumat haqida ikki risola” asarida huquqiy madaniyat asoslari: qonunlarning xalqchilligi, ijtimoiy kelishuv va hokimiyat bo‘linishini “inson tabiatining zaifligi bois - hokimiyatga yopishib olish vasvasasi kuchli bo‘lishi mumkin. Shu sababli, qonunlar yaratish huquqiga ega shaxslar ularga rioya etishdan qochish uchun, qonunlarni ijro etish vakolatini ham o‘z qo‘llariga olishni xohlashlari mumkin. Ular bu vazifani bajarib bo‘lganlaridan so‘ng yana tarqaladilar va o‘zlari yaratgan qonunlarning ta’siri ostiga tushadilar. Bu esa ularning zimmasiga yana bir yangi va bevosita majburiyat yuklaydi: qonunlarni jamiyat manfaatini ko‘zlab yaratish”[4], – deb ta’kidlab o‘tadi.

Fransuz mutafakkiri, ma’rifatparvari Sharl Lui de Monteskyo (1689-1755) ham o‘zining qarashlarini o‘zining mashhur “Qonunlar ruhi haqida” asarida ifodalagan. Monteskyo “Qonunlar ruhi haqida” asarida huquqiy madaniyat muhim ildizi sifatida izohlagan qonunga “Men qonunlar har bir boshqaruv shaklining tabiati va prinsipiga qanday munosabatda bo‘lishini ko‘rib chiqishdan boshlayman, bu tamoyilni o‘rganishga alohida e’tibor beraman, chunki u qonunlarga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Agar men ushbu prinsipni o‘rnatishga muvaffaq bo‘lsam, qonunlar o‘z manbasi sifatida ushbu prinsipdan kelib chiqishini ko‘rsataman. Keyin men boshqa, aftidan, yanada xususiy munosabatlarni ko‘rib chiqishga o‘taman”[5], - deya ta’riflab bergan.

Xulosa va takliflar. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining jamiyatda huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyani yuksaltirishga oid qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish barcha davrlarda jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili bo‘lib kelgan. Mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda huquq, adolat, axloq va ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik alohida ta’kidlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри (Масъул муҳаррир: академик Хайруллаев М.). -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. 224 б.
2. Turdiyev B.S. Ibn Sinoning huquqiy ta’limotlar rivojida qo‘shgan hissasi // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 2023. -№5. 214-220 b.
3. Immanuel Kant. Groundwork of the Metaphysics of Morals (Translated and edited by Mary Gregor). – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. 120 p.
4. Джон Локк. Два трактата о правлении. – Москва: Челябинск: Социум, 2020. 496 с.
5. Шарль Луи Монтескье. Қонунлар руҳи ҳақида (Муҳаррир: Иброҳимова Н.). – Тошкент: Trust and Support нашриёти, 2024. 288 б.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94(575.1)

ASHURO FITNASI

Hamrayev Mahmud, Sharq universiteti v.b. dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

THE ASHURA CONSPIRACY

Hamrayev Mahmud, Acting Associate Professor at Oriental University, Doctor of Philosophy (PhD) in History

ЗАГОВОР АШУРО

Хамраев Махмуд, и.о. доцента Восточного университета, доктор философии (PhD) по историческим наукам



https://orcid.org/0009-0004-2037-2423
e-mail: mahmudhamrayev18111991@gmail.com

Anotatsiya: *Mazkur maqolada 1910-yilda Buxoroda sunniy va shia jamoalari o‘rtasida yuz bergan mojaro tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari hamda zamondoshlarning xotiralari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda voqeaning kelib chiqish sabablari, uning ijtimoiy-siyosiy omillari, diniy ziddiyatlarning kuchayish jarayoni hamda Buxoro amirligi ma’muriy boshqaruv tizimining tutgan o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro, 1910-yil, sunniylar, shialar, mazhabiy mojaro, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, amirlik boshqaruvi, diniy bag‘rikenglik.*

Abstract: *This article analyzes the conflict between the Sunni and Shia communities that occurred in Bukhara in 1910 on the basis of historical sources, archival documents, and contemporaries’ memoirs. The study examines the causes of this event, its socio-political factors, the process of the escalation of religious tensions, as well as the role of the administrative system of governance in the Bukhara Emirate.*

Keywords: *Bukhara, 1910, Sunnis, Shias, interconfessional conflict, socio-political situation, emirate administration, religious tolerance.*

Аннотация: *в данной статье конфликт между суннитскими и шиитскими общинами, произошедший в Бухаре в 1910 году, анализируется на основе исторических источников, архивных документов и воспоминаний современников. В исследовании раскрываются причины возникновения данного события, его социально-политические факторы, процесс усиления религиозных противоречий, а также роль административной системы управления Бухарского эмирата.*

Ключевые слова: *Бухара, 1910 год, сунниты, шииты, межконфессиональный конфликт, социально-политическая ситуация, управление эмирата, религиозная толерантность.*

Kirish. XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy jarayonlar rivojida 1910-yil yanvarda bo‘lgan voqealar muhim ahamiyat kasb etadi. Amirlik poytaxti Buxoroyi sharifda 1910-yil yanvarda bo‘lib o‘tgan shia va sunniylar o‘rtasidagi mojarolar o‘sha davr Rossiya va Turkiston matbuotida ancha batafsil ko‘rsatilgan[1].

O‘sha davr manbalarida bu mojaro “Ashuro fitnasi” nomi bilan tilga olingan. Buxoro amirligining tub joy aholisi o‘zbeklar, tojiklar va turkmanlar islom dinining sunniy mazhabida bo‘lib, turli davrlarda Erondan ko‘chirib keltirilgan ozchilik eroniylar shia mazhabida bo‘lganlar. Ularning aksariyati qullar edi. Biroq mang‘itlar davrida Buxoroda eroniylarning nufuzi ko‘tarilib borgan. “Vaqt” gazetasida yozilishicha, “Buxoro amirligida shialar 36 yildan beri qo‘shbegi mansabini egallab kelganlar. Buxoroliklarning o‘zlariga qardosh bo‘lmagan kishi ulardan mol yig‘ish uchun eng ma’qul qurol hisoblangani kabi amirga doimiy sadoqatli qul bo‘lishi ham ma’lumdir. Shu sababli Buxoro amiri ham qadimgi islom podshohlari kabi vazirlarni boshqa millat vakillaridan tayinlagan. Huquqsiz xalq ajnabiylarning o‘zlariga bosh bo‘lishlariga qarshilik bildira olmagan”[1:16-b].

Buxoroning eski odati bo‘yicha hokim va beklar amir va qozikalonga tobe bo‘lganlar, qo‘shbegi xazinabonlik lavozimini ado etganligi sababli, buxoroliklarning o‘z e’tiqodlariga ko‘ra, boshqa mazhab hisoblangan shialarning shariat hukmlariga amal qilishi joiz emas, deb e’tiroz bildirishlariga ham o‘rin qolmagan. Eskidan qo‘shbegi doimo qozikalonning hukmi ostida bo‘lib, amirning birinchi yordamchisi sunniy ulamolardan bo‘lgan. Shunga ko‘ra, ulamo va xalq shia bo‘lsa-da, qo‘shbegiga qarshi chiqmagan. Ammo lavozimidan bo‘shatilgan qo‘shbegi Ostonaqul shaxsiy qobiliyati hamda aholining yordami bilan o‘zining quvvatini oldingi qo‘shbegilarnikiga qaraganda ancha orttirgan. Badriddinxon qozikalon vafot etgandan so‘ng, Ostonaqul bu mansabga o‘zining aytganidan chiqmaydigan bir kishini qo‘ygan. Buxoroda endilikda chindan ham qo‘shbegining darajasi qozikalonnikidan yuqori bo‘lgan. “Mamlakatning moliyaviy ishlari qo‘shbegi qo‘lida bo‘lgach, uning amirga yaqinlashuvi ham, so‘zini o‘tkaza olishiga ham ajablanmasa bo‘ladi. Shunday tarzda bu qo‘shbegi butun mamlakatga hokimi mutlaqdek bo‘lib qolgan”[3:79-80-b].

Bu paytda Eronda yuz bergan inqilob natijasida unga qarshi turganlar mag‘lubiyatga uchrab, mamlakatdan qochishga majbur bo‘lishgan. Ularning ko‘pchiligi Buxoroga kelib o‘rnashadi va qo‘shbegi Ostonaqulning himoyasi ostida amirlikda muhim lavozimlarni egallashadi. O‘sha davr matbuotida aytilishicha, “Pullik, zo‘r joylarda zakotchi, mirob, to‘qsabo, kabir (askar boshlig‘i) hammasi eronliklar bo‘lib, ular ham o‘z navbatida yaqin-atrofiga eronliklarni ishga qo‘ygan. Hatto sunniylarning bir ulushi ulug‘ mansabga intilib, shialarga tarafdorlik ko‘rsatganlar, ularga taqlid qilganlar: ashuro motamchilariga yon bosuvchilarning ancha ko‘p bo‘lgani rasmiy so‘roqlarda ham qayd etilgan. Savdogarlarga ham har turli himoya ko‘rsatilib, moyanai sarvat eronliklar qo‘liga o‘tib borgani har ishda o‘zini ayon etadi” [1:17-b].

Tadqiqot muhokamasi. 1910-yil 9-yanvar yakshanba kuni Buxoro shahrida shialarning ashuro bayrami kunida, diniy marosimlarni o‘tkazish jarayonida, o‘zlarini qiynab azob berayotgan shialar ayrim sunniylar tomonidan mazax qilinadi. Shialar esa bundan g‘azablanib, hammaning ko‘z o‘ngida bir mullavachcha sunniyni pichoqlab o‘ldirishadi. Bu hodisa Buxoroda shialar va sunniylar o‘rtasidagi fojiali voqealarning boshlanishiga bahona bo‘ldi. Eng dahshatli to‘qnashuv Xiyobon madrasasi atrofida sodir bo‘lib, manbalarning guvohlik berishicha, bu yerda 100 nafardan 240 nafargacha kishi to‘qnashuv qurboni bo‘ladi[4:68-b].

Shaharda vaziyat murakkablashadi. Bu voqealarga Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi harbiy qismlari aralashib, Samarqand va Kattaqo‘rg‘ondan 2 rota askar poytaxt Buxoroga yuboriladi. Keyinchalik rus qo‘shinlarining miqdori ko‘paytiriladi. Buxoro shahriga kiritilgan rus qo‘shinlariga 1-Turkiston armiyasi korpusi shtabining boshlig‘i general-mayor Liliental qo‘mondonlik qildi. 10-yanvar kuni Erondan kelgan mujohid Hoji Mir Alining o‘ldirilganligi to‘g‘risida eroniy shialar o‘rtasida mish-mish tarqalishi oqibatida 11-yanvarga o‘tar kechasi tuni bilan shahar atroflaridagi qishloqlar hamda Yangi Buxoro (hozirgi Kogon)dan qurollangan eroniylar oqimi Buxoro shahriga kela boshlaydi[5:19-b].

Manbalarning guvohlik berishicha, to‘planganlar soni 10 000 kishiga yetgan. Ular Buxoro qo‘shbegisi Ostonaqulning bevosita madadiga tayangan va unga suyangan. 1910-yil 13-yanvarda Buxoro amiri Abdulahadxon o‘z vorisi Karmana hokimi Mir Olimxon To‘ra (1881–1944)ni poytaxtga jo‘natadi. Bu paytda Buxorodagi voqealar shiddatli tus olgan edi. 1910-yil 9–11-yanvarda (ba’zi manbalarda 9–18-yanvarda) Buxoroda bo‘lgan ashuro fitnasi natijasida shialar tomonidan yovuzlik qilinib, sunniylardan 240 kishi o‘ldirilgan. Shundan so‘ng sunniylar ham shaharga tarqalib, duch kelgan shialarni qira boshlaganlar. Buxoroning tub yerli sunniy aholisi poytaxtga zudlik bilan Amir Abdulahadxon tomonidan yuborilgan valiahd Olimxon To‘radan kelgindi shialarning vakili va homiysi qo‘shbegi Ostonaqul, shuningdek, Said Olim va Mirob Olim to‘qsabolarni hamda xalqqa jabr-zulm o‘tkazgan boshqa bir qator shia amaldorlarini vazifasidan chetlashtirish, bundan so‘ng ularni davlat ishlariga aralashtirmaslikni talab qiladi. Bu talablar qondiriladi. Shuningdek, sunniylarning ashaddiy tarafdori Buxoro shahri raisi Mir Burhoniddin Badriddin qozikalon o‘g‘li ham o‘z vazifasidan chetlatilib, poytaxtdan badarg‘a qilinadi[6:328-329-b].

15-yanvarda sunniy va shia mazhablari vakillarining yarashish uchrashuvi tashkil etiladi, shundan so‘ng rus qo‘shinlari shahardan olib chiqiladi. Buxoro shahriga avvalgi osoyishtalik qaytib keladi. Biroq xunrezlik haqidagi xabar amirlik tumanlaridagi aholini ham junbushga solgan edi. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, Buxoroda 1910-yil yanvar fojialarida umumiy hisobda 1000 dan ortiq kishi halok bo‘lgan. Bu xunrezlik amirlik va

mustamlakachi Rossiya imperiyasi ma’murlarini vahimaga soldi [1:29-b].

Olimxon To‘ra qisqa muddat ichida poytaxt Buxoroda tartib o‘rnatib, Ostonaqul qo‘shbegi va uning qarindosh-urug‘lari hamda yaqinlarini o‘z lavozimidan olib tashlaydi. Buxoroda sunniylar va shialar o‘rtasidagi qonli to‘qnashuv natijasida ichki vaziyat ostin-ustun bo‘lib ketdi. Ana shunday fojia yana qaytarilmasligi uchun Olimxon ham boshqaruvda otasi kabi qattiqqo‘llikni odat qildi[7:55-b].

Bu voqealar Rossiya imperiyasi hukmron doiralarida katta aks-sado beradi. 1910-yil aprel oyida “Turkestanskiye vedomosti“ gazetasida Buxoro hayotiga oid maqola berilib, unda Ostonaqul qo‘shbegining ayrim ishlari, xususan, uning Erondagi Yosh forslar harakati bilan yaqinligi, Makka shahrida Buxoro amirligining mustaqil elchixonasini tashkil qilganligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Gazeta maqolasida quyidagi fikrlar bo‘lgan: “Buxoro – bizning guberniyamiz, amir tashqi aloqalar olib borish huquqiga ega emas. Biroq Buxorodan tashqarida nimadir tayyorlanmoqda. Turkiya bilan yaqinlashuvga harakat qilinmoqda. Buxoroda keyinchalik nima bo‘lishini biz bilmaymiz”[8].

Adabiyotlar tahlili. Buxorodagi ashuro fitnasidan Rossiya imperiyasi Buxoro amirligining ichki ishlariga aralashish uchun bir dastak sifatida unumli foydalandi. Hatto shu bahona bilan amirlik hududini bevosita Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olishga harakat qildi. Bu voqealar imperiyadagi harbiy doiralarni zudlik bilan Buxoroni rus guberniyasiga aylantirish talabini jazava ko‘rinishiga keltirdi. Buxoro amirligida bir necha marta bo‘lgan polkovnik D.N.Logofet bu sohada, ayniqsa tashabbus ko‘rsatib, Buxoroni zudlik bilan imperiya tarkibiga qo‘shib olish tarafdori bo‘ldi. Turkiston o‘lkasi general gubernatori A.B.Samsonov esa “Buxoro xalqi amirga homiylik qilayotgan rus hukumati davrida nihoyatda qashshoqlashgani va yovvoyi bo‘lib ketgani” haqida yozib, “Buxoro xalqida ruslarga qarshi kayfiyat kuchaydi” deb, Buxoroni guberniyaga aylantirish takliflarini asoslashga urindi[5:23-b].

Hatto 1910-yil 28-yanvarda Rossiya imperiyasi hukumatida ushbu masala keng muhokama qilindi. Ministrlar Buxoro amirligi va Xiva xonligini rus guberniyalari sifatida Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olish g‘oyasini ma’qulladilar. Biroq Rossiya Tashqi ishlar ministrligi vakillari va ayrim yirik saroy amaldorlari bu ish amalga oshirilsa, xalqaro miqyosda katta janjal kelib chiqishini nazarda tutib, imperator Nikolay II ni bu fikrdan qaytardilar. Buxoro amiri huquqiy jihatdan mustaqil hukmdor sanalsa ham, haqiqatda Rossiya imperiyasiga qaram edi. Amir va uning amaldorlariga qarshi ko‘tarilgan turli xalq g‘alayonlari Rossiya imperiyasi qo‘shinlari yordamida bostirilar edi. Amir Abdulahadxon Rossiya imperiyasining general-adyutanti hisoblangan. Uning davrida rus ma’murlari amirlikda katta imtiyozlarga ega bo‘lishgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 1910-yilgi Buxoro voqealari nafaqat mazhabiy mojaro sifatida, balki amirlik davlatchiligi, jamiyat ichidagi ijtimoiy munosabatlar va siyosiy boshqaruv mexanizmlarini o‘rganishda muhim tarixiy tajriba sifatida baholanishi lozim. Mazkur hodisa o‘sha davr Buxorosining murakkab ijtimoiy-siyosiy manzarasini ochib beruvchi muhim tarixiy saboqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бурҳон Шараф. Бухоро мактублари // “Вақт” (Оренбург), 1910 йил январь-февраль; Антонович М. Причины волнения в Бухаре //Туркестанский курьер, 1910, № 27; Белинский. Финал Бухарских событий // Туркестанский курьер, 1910, № 28; Беспорядки в Бухаре // Туркестанские ведомости, 1911. № 159.
2. Бурҳон Шараф. Бухоро мактублари. Татар тилидан Шермурод Субҳон таржимаси. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – Б. 16.
3. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Биринчи жилд (1900-1939). Масъул муҳаррир: академик Азамат Зиё. – Тошкент: Фан, 2024. – Б. 79-80.
4. Хамроев А.Х. К вопросу об январских событиях 1910 года в Бухаре//Труды САГУ., вып 57. – Ташкент, 1954. – С. 68.
5. Мухаммеджонова Л.П. Общественно-политическая ситуация в Бухаре в начале XX века и развитие демократического движения (1908–1920 гг.): Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1999. – С. 19.
6. Ўзбекистон ССР тарихи. 1 том. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1957. – Б. 328-329.
7. Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. – Тошкент: Тафаккур, 2017. – Б. 55.
8. Разоблачения о Бухаре // Туркестанские ведомости, 15 апреля 1910 г.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

XIX ASR OXIRIDA BUXORO AMIRLIGIDA KASALLIKLAR: TARQALISH SABABLARI VA ULARGA QARSHI CHORALAR

Mahmudova Gulhayo, Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

DISEASES IN THE BUKHARA EMIRATE IN THE LATE 19TH CENTURY: CAUSES OF THEIR SPREAD AND MEASURES AGAINST THEM

Gulhayo Mahmudova, Basic Doctoral Student, Shahrisabz State Pedagogical Institute

БОЛЕЗНИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX ВЕКА: ПРИЧИНЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И МЕРЫ БОРЬБЫ С НИМИ

Гулхаё Махмудова, базовый докторант Шахрисабзского государственного педагогического института

https://orcid.org/0009-0002-6626-0190
e-mail: gulhayomahmudova28051994@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligi hududida XIX asr oxirlarida yuz bergan kasallik va epidemiyalar, mamlakatning sog‘liqni saqlash tizimi, mahalliy tibbiyot, kasalliklarga qarshi kurash, epidemiyalarning ommaviy tarqalishi, yuqish manbalari, davolanish chora-tadbirlari, karantin va boshqa vaziyatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, tibbiyot, kasallik, vabo, rishta, karantin, dorixona, Abdulahadxon, Sadriddin Ayniy, epidemiya, temiryo‘l.

Annotation: This article discusses diseases and epidemics that occurred in the Bukhara Emirate at the end of the 19th century, the country’s healthcare system, local medicine, the fight against diseases, the mass spread of epidemics, sources of infection, treatment measures, quarantine and other situations.

Key words: Bukhara Emirate, medicine, disease, plague, Guinea worm, quarantine, pharmacy, Abdulahadkhan, Sadriddin Ainy, epidemic, railway.

Аннотация: В данной статье рассматриваются заболевания и эпидемии, имевшие место в Бухарском эмирате в конце XIX века, система здравоохранения страны, местная медицина, борьба с болезнями, массовое распространение эпидемий, источники инфекции, меры лечения, карантин и другие ситуации.

Ключевые слова: Бухарский эмират, медицина, болезнь, чума, ришта, карантин, аптека, Абдулахадхан, Садриддин Айний, эпидемия, железная дорога.

Kirish. O‘zining 164 yillik davlatchilik tarixida Buxoro amirligi bir necha marta og‘ir ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshidan kechirdi. Tabiiy ofatlar, zilzilalar, qurg‘oqchilik bilan birga XIX asr oxirida keng miqyosda turli yuqumli kasalliklar, epidemiyalar ham tarqaldi. Mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimi an’anaviy xalq tabobati, diniy qarashlar, davlat boshqaruvi hamda tashqi siyosiy omillar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan. Chor Rossiyasining Buxoroni protektoratga aylantirishi natijasida tibbiyotda bir pog‘ona yuksalish ro‘y berdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bu davr haqida Sadriddin Ayniy “Esdaliklar”, D.N.Logofet “Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние”,

O.Olufsenning “The emir of Bokhara and his country” asarlari, tarixchilardan T.To‘xtametov, Q.Rajabov, D.Jamolovalar o‘z asarlarida ma’lumot bergan. Tadqiqot ishida tarixiylik, obyektivlik va tizimlilik tamoyillari qo‘llanilgan.

Muhokama. Buxoro amirligida tibbiy amaliyot bilan tabiblar (tabiiy, ya’ni o‘simliklar, minerallar bilan davolash), jarroh hakimlar (kesish, badandan qon oldirish, singan va chiqqan suyaklarni joyiga solish), doyalar, attorlar (dorivor giyohlar va retseptlar savdosi bilan) shug‘ullangan. Davolash usullari an’anaviy xalq tabobati, qon oldirish (hijoma), issiq hammom hamda parhez, bundan tashqari turli duolar va dam soldirishga asoslangan. Tibbiy bilimlar madrasalarda o‘qitilgan. Mashhur tabiblar faoliyat olib borsa-da, markazlashgan davlat tibbiy xizmati mavjud bo‘lmagan. XIX asr oxirida Buxoro amirligi hududlarida rishta, chechak, vabo, moxov, tif, difteriya kabi kasalliklar keng tarqalgan.

Buxoro amirligi rasman chor Rossiyasining protektoratiga aylanishi bilan qo‘shin tarkibida rus shifokorlari ham mamlakatga kela boshlaydi. Amirlikda dastlabki harbiy lazaretlar Afg‘oniston bilan chegaradosh Termiz qo‘rg‘onida, Karki va Chorjo‘yda ochilgan. Bu yerlarda rus zobit-askarlari bilan bir qatorda mahalliy boy-badavlat kishilar ham muolaja olgan.

Rus ma’murlari yordamida Buxoroda barpo etilgan shifoxonada 15ta kasallar uchun o‘rin bo‘lib, bu yer “Rus tuzem shifoxonasi” deb atalgan. 1917-yilgacha kasalxonada 6 shifokor-vrach hamda 7 o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimlari faoliyat yuritgan. Rus-tuzem lazareti tashkil topgungacha bo‘lgan davrda Buxoro viloyatida ko‘pgina kasalliklarga, chunonchi, bezgak, traxoma, drakunkulyoz (rishta), leyshmanioz, chechak, moxov keng tarqalganligi tufayli mahalliy aholi orasida o‘lim ko‘rsatkichlari yuqori (har 1000 aholiga nisbatan olganda 232 kishi) bo‘lgan.

1891-yil 30-avgustda “Rus tuzem lazareti”ning birinchi bosh shifokori etib Iosif Penzyakov tayinlangan va keyingi 22 yil davomida ushbu vazifada ishlab kelgan [1,48]. Rus tuzem lazaretining ochilishi munosabati bilan bir qator yetakchi rus vrachlari o‘z faoliyatlarini bevosita Buxoroda davom ettirishgan.

Buxoro amiri Abdulahadxon hukmronligi yillarida mazkur shifoxonalarga xazina hisobidan muayyan mablag‘lar ajratilgandan keyin mahalliy fuqarolar uchun ham bepul davolash ishlari yo‘lga qo‘yilib, kambag‘allar ham bu davolash maskanlariga murojaat qila boshlaydilar. Ammo, ko‘p o‘tmay amir rus shifoxonalariga mablag‘ berishni to‘xtatib qo‘yadi. Natijada davolash ishlari ham susayadi.

Amirlik hududida 1884-1888-yillarda temir yo‘l qurilishi boshlangan. Natijada temir yo‘l stansiyalari qurilishi munosabati bilan ularning yaqinida tibbiyot punktlari va ambulatoriyalar tashkil qilina boshlandi. Shu yaqin atroflarda yashovchi aholi ham mazkur tibbiyot tarmoqlarida bepul tibbiy yordam ola boshlaydilar. Bunday tarmoqlarni rus shifokori O.N.Geyfelder tashkil etgan edi. Geyfelder quruvchi va temiryo‘lchilar orasida yuqumli kasalliklarning tarqalish yo‘llarini birinchilardan bo‘lib o‘rganib, buning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqadi. Geyfelder yangi qurilgan temiryo‘l orqali Qorako‘ldan Samarqandgacha hududlarni ko‘zdan kechirib, rishta kasalligining tarqalish manbalarini aniqlaydi hamda Zarafshonning quyi oqimlaridan suv iste’moli natijasida bu kasalliklar tarqalishi to‘g‘risida xulosa beradi.

Rishta kasalligini davolash bilan sartaroshlar shug‘ullanar, ularning malakasini sartaroshxona eshigiga mixga osilgan rishtalarning soniga qarab bilish mumkin edi.

1895-yilning yozida Buxorodagi holatni aniqlash niyatida Peterburgdan maxsus komissiya keldi. Komissiya tarkibida rus vrachlari, bakteriologlaridan tashkil topgan katta guruh bo‘lgan[2,57]. Ular dastlab kushxonalar, ko‘llar, hovuzlar, zovurlar, anhor hamda ariqlar, barcha turdagi oshxonalardan namunalar olishgan. Komissiya amir hukumatiga murojaat qilib, kasalliklarni shuningdek, shahar aholisining bemahal o‘limining oldini olish uchun tozalik va salomatlikka zid bo‘lgan barcha ishlarni qayta ko‘rib chiqish va yangidan tashkil etishni talab qilishgan. Bular hovuzlarni, ariq, zovur, anhorlarni tozalash, ko‘llarni quritish, yangi zovurlar qazish, kushxonalarni shahardan tashqarisiga chiqarish, ko‘chalarda ovqat sotishni man etish masalalari bo‘lib, tibbiyot xodimlari bu sohada amir oldiga jiddiy talablar qo‘yishgan. Bularni hal etish esa katta mablag‘ talab qilardi. Shaharni tozalash ishida ham hukumat ulamoning roziligi, fatvosini olish lozim deb hisoblab, rus laboratoriyasi

tekshiruvlariga buxorolik donishmandlar Ahmad Donish, Qori Abdulmajid Zufunun, domla Ikromchani va din peshvolaridan Abdurahmon Mahdum Raftor, Qiyom Mahdum va Junbul Mahdumlarni qo‘shib komissiya tuzib yuborishadi. Ahmad Donish betob bo‘lib qoladi, mulla Ikrom va Zufunun rus komissiyasi gaplarini tasdiqlaydi. Boshqa komissiya a’zolari esa kasallik tarqatuvchi mikroblarni ko‘rishlari bilan faryod ko‘tarib, “Biz dinimizni sotmaymiz. Faqat Allohga ishonamiz. Agar u istasa, bandaga kasalliklarni yuboradi, xohlasa, o‘zi shifo beradi, sizlar bizlarni alday olmaysizlar [3, 214]” deyishgan. 100 dan ortiq madrasa toliblari bunga qo‘shilib g‘alayon qilishgan. Laboratoriya xodimlari jiddiy qarshilikka uchragach, asbob-uskunalarini olib Peterburgga jo‘nab ketishadi. Buxoro qadimdan islom dinining markazi bo‘lgani uchun har bir narsani odamlar din bilan bog‘lashgan. Kasalliklarni ham qilgan yomon ishlarimizga Allohning bizga yuborgan jazosi deb o‘ylashgan. Yuqoridagi holatda Buxoro amirligi hududida fan, texnika sohasidagi yangi bir tadbirni joriy etish, xalq ma’naviyatini ko‘tarish ishi qanchalik mushkul ekanligini ko‘rsatuvchi dalillar bor.

Amirlik hukumatiga qarshi kayfiyatda bo‘lgan Sadriddin Ayniy hukumat o‘z foydasi uchun faqatgina kushxonani Namozgoh janubida yog‘ochdan qurilgan imoratlarga ko‘chirgani xususida yozadi [3,215]. Biroq, keyingi yillarda Abdulahadxon shahar tozaligiga e’tibor qaratadi[4]. Qo‘shbegining bozor va maydonlarni toza tutish haqida amri, kerak paytda aholiga tarqatish uchun dori sotib olingani haqida ma’lumotlar bor. Afsuski, kasalliklar tarqagan paytda o‘lim darajasining yuqori bo‘lishi shaharning antisanitariya sharoitlari va kasalikka qarshi choralarning kechikib amalga oshirilgani bilan bog‘liq edi.

Buxoroning muammolaridan biri toza ichimlik suvining yetishmasligidir. Zarafshon daryosidan dastlab Samarqand viloyati, so‘ng Kattaqo‘rg‘on, Ziyovuddin va Karmana suv oladi. Buxoroda ko‘pincha suv tanqisligi kuzatiladi. Oyiga ikki marta Zarafshon daryosidan Buxoroga suv yuborilardi. Daryo suv omborlarini va Buxoro xonligi sug‘orish tizimining sug‘orish ariqlarini to‘ldirardi [5,2]. Zarafshon daryosidan to‘ldirilgan Shohrud kanali butun shahar bo‘ylab oqib o‘tgan. Shohruddan suv kanallar orqali Buxoro hovuzlariga yo‘naltirilgan[6, 39].

Keyinchalik Geyfelder rus shifokorlari jamiyatining 1887-yil 17-dekabrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida Buxorodagi ahvol to‘g‘risida axborot berdi. U amirlikdagi rus aholisi o‘rtasida epidemiyaning oldini olish maqsadida ularni Amudaryo suvi bilan ta’minlash, temiryo‘l stansiyalaridagi tarmoqlarda maxsus suv filtrlarini o‘rnatish takliflarini bayon qildi.

1889-yilning yozida Buxoroda dahshatli vabo epidemiyasi yuz berib, har kuni 500-600 kishi yostig‘ini qurita boshladi. Sadriddin Ayniy o‘zining “Esdaliklar” asarida vaboning dahshatli oqibatlarini shunday bayon qilgan: “Yetti yog‘ochlik bir xonada besh bemor qator yotar, men ularning har biriga navbat bilan suv yoki sut ichirardim, yelpig‘ich bilan pashshalarini qo‘rirdim va boshqa ishlariga qo‘limdan kelgancha yordam berardim. Bir hafta o‘tgach, qishlog‘imizdagi barcha xonadonlar shunday ahvolga tushdi. Faqatgina qishlog‘imizda emas, butun rayonda sog‘lom odam deyarli qolmadi va rahmsiz o‘lat boshlandi”[7,133]. 1889-yil may oyining ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroda o‘lim darajasi oshdi. Bu haqida manbalarda quyidagi fikrlar uchraydi: “...Buxoroda o‘lim darajasi anchagina edi, kasallar soni juda ko‘p va kun sayin ortib borardi. Butun oilalar uylarining ichidagi ayvonlarda ojiz holda yotar, ba’zilar hali to‘liq holdan toymagan bo‘lsa-da, rangi oqarib, isitmadan titrayotgan holatda ko‘chalarda olomon bo‘lib o‘tirishardi”[8,2]. Atigi uch kun ichida, 14-iyuldan 16-iyulgacha, 702 kishi vafot etdi. Dafn marosimlari ko‘chalarda doimiy ravishda bo‘lib turardi[9,1]. Buxoro devorlarida 11ta darvoza bor edi. Shaharda dafn etilganlarni hisobga olmaganda, ularning har biri orqali har kuni o‘rtacha 20ta jasad olib o‘tilardi [8,2]. Bu raqamlar faqat taxminiy hisob-kitoblarga asoslangan. Chunki so‘z yuritilayotgan davrda aholi ro‘yxatga olinmagani bois Buxoro amirligi aholisining soni qancha ekani, qanchasi vafot etgani noma‘lum. 1889-yil avgust oyining oxirida 4 nafar shifokordan iborat komissiya Buxoro epidemiyasining sababi bezgak degan xulosaga keldi. Yangi Buxorodagi temir yo‘l stansiyasida rus aholisi ham kasallikka chalingan. Yaxshi ovqatlanish va tibbiy yordamga ega bo‘lgan ruslar mahalliy aholiga qaraganda tezroq tuzalib ketishgan.

Buxoro amiri mamlakatda zamonaviy tibbiyot tizimini vujudga keltirmasdan bunday falokatlarni bartaraf etib boʻlmasligini tushundi.

1891-yilda Abdulahadxonning tashabbusi bilan mahalliy aholini davolash maqsadida Buxoroda “birinchi rus-tuzem” shifoxonasi barpo etildi. Shu yilning 30-avgustida Abdulahadxon va rus maʼmurlari ishtirokida shifoxonaning tantanali ochilish marosimi boʻlib oʻtdi. Unda erkaklar uchun 15 oʻrin, ayollar uchun 5 oʻrin ajratilgan edi. Mazkur shifoxona amirning shahar chekkasidagi bogʻlaridan birida qurilgan. Rus shifoxonasining aholi oʻrtasidagi shuhrati tobora oshib borgan. 1899-yilda kasalxona ambulatoriyasida 12 ming 161 bemor qabul qilinib, samarali davolandi. Ularning teng yarmini xotin-qizlar tashkil etgan.

Koʻp oʻtmay Moskva universitetini tamomlagan I.F.Penzyakov Buxorodagi shifoxona bosh hakimligiga tayinlandi. U yerdagi xotin-qizlar boʻlimida shifokor S.Gorpovskaya ishlagan. Keyinchalik mazkur kasalxonadagi oʻrinlar soni koʻpaytirilib, unda rus shifokorlaridan Zaplotivskiy, Dobroxotov, ayollar shifokori Y.K.Predtechenskaya, ikkita feldsher va bir hamshira faoliyat olib borgan [10,3-4]. Aslida chor Rossiyasining mahalliy aholiga yordamga intilishi, kasalliklarni tekshirib ularga davo choralarini qidirishi ostida eng avvalo, oʻz manfaati yotardi. Birinchidan, chor askarlari oʻrtasida kasallik tarqalishining oldini olish va Rossiya hududlaridan koʻchirib olib keltirilgan fuqarolarini sogʻligʻini va tinchligini saqlash maqsad qilingan.

Shunday sharoitda Buxoroda sekin-astalik bilan davolashning sharqona usullaridan gʻarbona usullariga oʻtish jarayoni boshlangan. Ammo, jarayon ancha sust edi. 1892-yilda tegishli sanitariya-epidemiologiya tadbirlari olib borilmaganligi natijasida vabo yana takrorlandi. Vaboga bezgak va chechak kasalligi ham qoʻshildi. Kasalxona bosh vrachi I.Penzyakov bu illatlarga uchramaslik uchun nima qilish kerakligi toʻgʻrisida varaqa tayyorlab, aholi oʻrtasida tarqatishni boshladi. Bu va shunga oʻxshash profilaktik tadbirlar sababli navbatdagi epidemiya sabab halok boʻlganlar soni 600 kishidan koʻproq boʻldi. Rus maʼmurlari Buxoro amirligida tarqalgan yuqumli kasalliklar Rossiya hududlariga oʻtmasligi uchun karantin tadbirlarini koʻra boshladilar. 1893-yili Buxoro paxta tozalash zavodlarida shu sababli dezinfeksiya kameralari oʻrnatilib, Rossiyaga yuborilayotgan paxta tolalarini hamda boshqa narsalarni dezinfeksiya qilish ishlari yoʻlga qoʻyildi.

XIX asrning soʻnggi oʻn yilligi Buxoroga provizor G.Reygard kelib, Kogonda dorixona va Buxoroda uning filialini ochdi [1,51]. Koʻpincha unga boy-badavlat amaldorlar, savdogarlar va tadbirkorlar murojaat etishardi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda amir Abdulahadxon tashabbusi bilan Buxoroga Rossiya imperiyasidan yuqori darajadagi shifokorlar olib kelindi, birinchi dorixona ochildi va tibbiy maʼlumot va davolash xizmatlarini koʻrsatuvchi tibbiy klinika qurildi. Natijada aholining turmush darajasi yuksalib, tibbiy savodxonligi oshdi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Р.Ахмедов, Н.Наимов. Бухоро тиббиёти тарихи. Бухоро, 2009.
2. И.Қодиров, Ф.Ширинова. Сўнгги сулола тақдири. Тошкент, Муҳаррир нашриёти, 2009.
3. С.Айний. Асарлар. 8 томлик. Эсдаликлар (3-том). – Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1965.
4. И.Гаспринский. Бухоро//Таржимон. // № 1, 8.01.1892.
5. Эпидемии в Персии и Бухаре II // Новости и биржевая газета // 1889. 22 ноября. – № 322.
6. В.Колокольникова. Наши соседи. Бухара. Очерк II. М.: А.С.Панафидина, 1908.
7. С.Айний. Асарлар. 8 томлик. Эсдаликлар (1-2-том) – Тошкент, Бадиий адабиёт нашриёти, 1965.
8. Эпидемии в Персии и Бухаре // Новости и биржевая газета//1889. 17 ноября. – № 317.
9. Телеграммы северного агентства//Новости и биржевая газета // 1889. 20 июля.
10. Ю.Варламов. Путевые заметки туриста // Новое обозрение. 1889. – № 1945.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 378.147:37.013

LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KONGRUENTLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti



https://orcid.org/0009-0007-5648-6985
e-mail: nilufar.kobilova90@mail.ru

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CONGRUENT ABILITIES OF FUTURE TEACHERS BASED ON A PROJECT-BASED APPROACH

Qabilova Nilufar Khudoyshukurovna, Associate Professor, Karshi State Technical University

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КОНГРУЭНТНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОГО ПОДХОДА

Кобилова Нилуфар Худойшукуровна, доцент Каршинского государственного технического университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy pedagogik ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishini ta’minlovchi muhim integrativ shaxsiy-kasbiy sifatlardan biri kongruentlik qobiliyatini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda kongruentlik bo‘lajak o‘qituvchining ichki psixologik kechinmalari, kasbiy qadriyatlari, motivatsion-ehtiyojlar sohasi hamda tashqi pedagogik xatti-harakatlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlovchi murakkab integrativ sifat sifatida talqin qilinadi.*

Maqolada loyihaviy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini anglashini, refleksiv tafakkurini, emotsional barqarorligini va pedagogik faoliyatdagi moslashuvchanligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik-psixologik mexanizm sifatida asoslanadi. Loyihaviy faoliyat jarayonida talabalarning individual va jamoaviy faoliyati, muammoli pedagogik vaziyatlarni hal etish, refleksiv tahlil va konstruktiv muloqot orqali kongruentlik qobiliyatining shakllanishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *kongruentlik qobiliyati, bo‘lajak o‘qituvchi, loyihaviy yondashuv, pedagogik-psixologik xususiyatlar, kasbiy shakllanish, refleksiya, emotsional intellekt, pedagogik faoliyat.*

Abstract: *This article provides a scientific, theoretical, and practical analysis of the pedagogical and psychological features of developing congruence ability in pre-service teachers through a project-based approach, as one of the key integrative personal and professional qualities ensuring their professional formation within higher pedagogical education. In the study, congruence is interpreted as a complex integrative quality that ensures harmony between pre-service teachers’ internal psychological experiences, professional values, motivational–need sphere, and external behavioral manifestations in pedagogical activity.*

The article substantiates the project-based approach as an effective pedagogical and psychological mechanism for fostering professional self-awareness, reflective thinking, emotional stability, and

adaptability of pre-service teachers in pedagogical practice. It is demonstrated that during project-based activities, the congruence ability is developed through students' individual and collaborative work, problem-solving of pedagogical situations, reflective analysis, and constructive communication.

Keywords: *congruence ability, pre-service teacher, project-based approach, pedagogical and psychological features, professional formation, reflection, emotional intelligence, pedagogical activity.*

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретических и практических позиций анализируются педагогико-психологические особенности развития способности к конгруэнтности у будущих учителей на основе проектного подхода как одного из важнейших интегративных личностно-профессиональных качеств, обеспечивающих их профессиональное становление в условиях высшего педагогического образования. В исследовании конгруэнтность трактуется как сложное интегративное качество, обеспечивающее согласованность между внутренними психологическими переживаниями, профессиональными ценностями, мотивационно-потребностной сферой и внешними поведенческими проявлениями будущего учителя в педагогической деятельности.*

В статье обосновывается проектный подход как эффективный педагогико-психологический механизм, способствующий развитию профессионального самосознания, рефлексивного мышления, эмоциональной устойчивости и адаптивности будущих учителей в педагогической деятельности. Показано, что в процессе проектной деятельности через индивидуальную и групповую работу студентов, решение проблемных педагогических ситуаций, рефлексивный анализ и конструктивное общение осуществляется формирование способности к конгруэнтности.

Ключевые слова: *способность к конгруэнтности, будущий учитель, проектный подход, педагогико-психологические особенности, профессиональное становление, рефлексия, эмоциональный интеллект, педагогическая деятельность.*

Kirish. Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash, balki ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini uyg'un holda rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonining insonparvarlashuvi, pedagogik faoliyatda ijtimoiy-psixologik mas'uliyatning ortib borishi sharoitida o'qituvchining ichki qadriyatlari, emotsional holati va real pedagogik xatti-harakatlari o'rtasidagi moslikni ifodalovchi kongruentlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kongruentlik pedagogik faoliyatda o'qituvchining shaxsiy ehtiyojlari, kasbiy qadriyatlari va pedagogik qarorlarining uyg'unligini ta'minlovchi integrativ sifat bo'lib, u pedagogik samaradorlik, ijobiy pedagogik muloqot va ta'lim jarayonining psixologik qulayligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda ushbu sifatni maqsadli va tizimli rivojlantirish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Kasbiy kongruentlik shaxsga yo'naltirilgan va gumanistik yondashuvlarsiz, shuningdek oliy ta'lim muassasasining tanlangan kasbiy dastur bo'yicha shaxsning tayyorgarlik darajasi hamda uni o'zlashtirish imkoniyatlariga bo'lgan munosabatini aniqlamasdan turib hal etilishi mumkin emas. Agar shaxsning tayyorgarlik darajasi ta'limning dastlabki bosqichi uchun qo'yilgan talablariga mos kelmasa, tanlangan kasbiy faoliyat shaxs uchun mazmun hosil qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan taqdirda, shaxsda o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari faollashadi[3.4]. Ma'lumki, shaxs o'zining hozirgi holati va kelajak istiqboliga nisbatan muayyan qarashlarga ega bo'ladi. Zamonaviy talabalar avlodi shaxsiy jihatdan muhim bo'lgan maqsadlarini ro'yobga chiqarishga faol intilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishidagi nokongruentlik quyidagi belgilar orqali namoyon bo'ladi: bilish faolligining pasayishi, shaxs umumiy madaniyatining yetarli darajada rivojlanmasligi, tarbiyalanganlik darajasining sustligi, "o'rgatib, ijodga yo'naltirish" istagining yo'qligi (natijada "majburiy o'qitish" holatiga olib kelinadi), shuningdek tanlangan kasb bo'yicha faoliyat yuritishga bo'lgan qiziqishning susayishi. Bizning fikrimizcha, bu holatda asosiy qarama-qarshilik o'qituvchining o'quv vazifalarini ijodiy hal etishga bo'lgan pozitsiyasi bilan ta'lim

oluvchilarning haqiqiy ta’lim ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon bo‘ladi[1,5].

Ta’lim jarayonini loyihalashtirish va faollashtirish faqatgina an’anaviy rag‘batlantirish usullari orqali emas, balki shaxsning dolzarb ehtiyojlariga asoslangan holda ta’lim maqsad va vazifalarini belgilashning yangi tizimini ishlab chiqish va doimiy ravishda takomillashtirish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ta’lim jarayonida shaxsning individual ehtiyojlarini inobatga olish mutaxassis shaxsining kasbiy kongruentligini shakllantirish jarayonida uning faolligini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi[9,10]. Bunday yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o‘quv faoliyati shaxs manfaatlarini tushunishga asoslangan holda tashkil etilganda, unda bilish tashabbusi vujudga kelishi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchining professional kongruentligi insonning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanadi, jumladan shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirishi kasbiy rivojlanish jarayonida shaxs rivojlanishining sifat ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda bu holat kasbni ongli ravishda tanlash, shaxsning hayotiy intilishlariga mosligi, uning ma’naviy rivojlanish darajasi va o‘ziga yetarlilik holatining muhim belgisi sifatida qaralmoqda[6,7,9].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarining mazmun va xarakteri hisoblanadi. Ta’lim jarayonining ikki tomonlama xarakterga ega ekanligi, ya’ni pedagog va ta’lim oluvchining teng huquqli subyekt sifatida ishtirok etishi, shaxsga yo‘naltirilgan va gumanistik yondashuvlarning

tahlillari shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy va muammoli topshiriqlarni hamkorlikda bajarish ta’lim natijalarining samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagog turli xil pedagogik vazifalarni sifatli va samarali hal eta olish salohiyatiga ega bo‘lishi lozim. Bunday vazifalar turkumida alohida o‘rinni pedagogik loyihalash vazifalari egallaydi[10,11]: «Pedagogik loyihalash» modulining asosiy funksiyasi oliy pedagogik ta’lim mazmunida metapredmetli integratsiyani ta’minlashdan iborat[2]. Modulning maqsadiy ustuvorligi bo‘lajak pedagoglarda mualliflik pedagogik tizimlarini pedagogik turkum fanlar asosida loyihalash tajribasini shakllantirish (rivojlantirish) uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Pedagogik loyihalash madaniy-ta’limiy kontekst dinamikasini inobatga olgan holda pedagogik tizimlar sifatini boshqarishga qaratilgan normalar tizimi, texnologiya sifatida, shuningdek, ta’lim sohasidagi innovatsiyalarning «madaniy shakli» (N.A.Masyukova) va mualliflik pedagogik tizimlarini yaratish texnologiyasi sifatida talqin etiladi[3,4].

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kongruentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni pedagogik loyihalash asosida tashkil etilgan ta’lim muhitida sezilarli darajada samaraliroq kechishini ko‘rsatdi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik-psixologik yondashuvlar, xususan, «Pedagogik loyihalash» metapredmet moduli bo‘lajak pedagoglarda ichki shaxsiy pozitsiya, kasbiy qadriyatlar va real pedagogik faoliyat o‘rtasidagi moslikni kuchaytirishga xizmat qildi.

Aniqlovchi bosqich natijalari shuni ko‘rsatdiki, tadqiqot ishtirokchilarining muhim qismida kasbiy kongruentlik yetarli darajada shakllanmagan bo‘lib, bu holat o‘zini kasbiy jihatdan aniqlashda noaniqlik, refleksiv faollikning pastligi va pedagogik vazifalarni ijodiy hal etishga bo‘lgan ichki motivatsiyaning sustligi bilan namoyon bo‘ldi. Bu natijalar oliy pedagogik ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan va gumanistik yondashuvlar yetarli darajada tizimli qo‘llanilmayotganini tasdiqlaydi. Shakllantiruvchi bosqichda ta’lim jarayoni pedagogik loyihalash me’yorlari — innovatsionlik, fanlararo va transdissiplinar integratsiya, kontekstual yondashuv, prognostiklik va refleksivlik asosida qayta tashkil etildi. Talabalar individual va jamoaviy loyihalar orqali madaniy-ta’limiy kontekstni tahlil qilish, mualliflik pedagogik g‘oyalarini asoslash, pedagogik tizimlarni modellashtirish hamda ularning ehtimoliy samaralari va xavf-xatarlarini prognoz qilish faoliyatiga jalb etildi. Ushbu faoliyat bo‘lajak o‘qituvchilarning subyektlik pozitsiyasini faollashtirib, kasbiy o‘zini anglash jarayonini chuqurlashtirdi.

Nazorat bosqichi natijalari tajriba guruhida kasbiy kongruentlikning barcha tarkibiy komponentlari — motivatsion-qiymatli, refleksiv,

emotsional-intellektual va faoliyatli komponentlar bo‘yicha ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Talabalarda pedagogik faoliyatga nisbatan ongli munosabat, kasbiy mas’uliyat hissi va shaxsiy-kasbiy identifikatsiya darajasi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, pedagog va talaba o‘rtasidagi subyekt–subyekt munosabatlariga asoslangan hamkorlik muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarning ichki ehtiyojlari va ta’lim talablarini muvofiqlashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Olingan natijalar pedagogik loyihalashni nafaqat metodik vosita, balki kasbiy kongruentlikni rivojlantiruvchi psixologik mexanizm sifatida qarash mumkinligini tasdiqlaydi. Loyihaviy faoliyat jarayonida talabalar o‘zlarining hozirgi holati va istiqboldagi kasbiy pozitsiyasi o‘rtasidagi tafovutni anglab, o‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyalarini ongli ravishda shakllantirishga intildilar. Bu esa kasbiy rivojlanishdagi nokongruentlik holatlarining kamayishiga olib keldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kongruentlik pedagogik faoliyatda faqat tashqi talablarni bajarish bilan emas, balki shaxsning ichki qadriyatlari, ma’naviy ehtiyojlari va kasbiy maqsadlari bilan uyg‘unlashgan holda shakllanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тоффлер Э. Третья волна: [Пер.с англ.]. URL: http://royallib.com/read/toffler_elvin/tretya_volna.html#2130051 (дата обращения 17.01.2016).
2. Сериков В.В. Подготовить учителя к непрерывному саморазвитию [Электронный ресурс] // Непрерывное образование: XXI век. 2014. Вып. 1 (5). URL: http]
3. Колесникова И.А., Горчакова-Сибирская М.П. Педагогическое проектирование: учеб. пособие для высш. учеб. заведений / Под ред. В.А. Сластенина, И.А. Колесниковой. М.: Академия, 2008. 288 с.,
4. Колесникова И.А., Горчакова-Сибирская М.П. Педагогическое проектирование: учеб. пособие для высш. учеб. заведений / Под ред. В. А. Сластенина, И. А. Колесниковой. М.: Академия, 2008. 288 с.]
5. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika (Didactica Magna). – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – 312 b.
6. Disterveg A. Nemis o‘qituvchilarini tayyorlashga oid qo‘llanma. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 256 b.
7. Babanskiy Yu.K. O‘qitish jarayonini optimallashtirish. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 192 b.
8. Sosnitskiy K. Didaktika asoslari va ta’lim prinsiplari. – Varshava: PWN, 1990. – 214 b.
9. Sorokin N.A. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988. – 176 b.
10. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Moskva: Akademiya, 2001. – 240 b.
11. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 159.99

O‘ZBEK PSIXOLOGIYASIDA ZO‘RAVONLIKNING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Elmurodova Sohiba Shokir qizi, Shahrisabz davlat pedagogika insitituti 1-bosqich magistranti



https://orcid.org/0009-0005-6306-5682
e-mail: sohibaelmurodova2003@gmail.com

THE DEGREE OF STUDYING THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF VIOLENCE IN FAMILY RELATIONS IN UZBEKISTAN PSYCHOLOGY

Elmurodova Sohiba Shokir qizi, Shahrisabz State Pedagogical Institute, 1st year master’s student

СТЕПЕНЬ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НАСИЛИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ В УЗБЕКИСТАНЕ

Эльмуродова Сохиба Шокир кызы, Шахрисабзский государственный педагогический институт, магистрант 1-курса

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, oilaviy munosabatlardagi zo‘ravonlik hodisasining tahlili, O‘zbek psixologiyasi olimlari talqinida bayon qilinadi. Xususan, A.Iskandarov, S.Toshmatov, B.Tursunov, N.N.Shomurodova va boshqalarning oilaviy zo‘ravonlik holatlari yuzasidan qarashlari tahlili yoritiladi. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasida oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha qabul qilingan qonunlar va ularning amaliy tahlili yuzasidan so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *oilaviy zo‘ravonlik, ijtimoiy-psixologik omillar, oilaviy munosabatlar, psixologik zo‘ravonlik, gender munosabatlari, patriarxal qadriyatlar, milliy mentalitet, oila psixologiyasi, shaxslararo nizolar, stress va agressiya, zo‘ravonlikning psixologik oqibatlari, O‘zbek psixologiyasi.*

Abstract*: This article presents an analysis of the phenomenon of violence in family relationships from the perspective of Uzbek psychology scholars. In particular, the analysis of the views of A.Iskandarov, S.Toshmatov, B.Tursunov and others on cases of family violence is highlighted. At the same time, the laws adopted in the Republic of Uzbekistan to prevent family violence and their practical analysis are discussed.*

Keywords: *family violence, socio-psychological factors, family relationships, psychological violence, gender relations, patriarchal values, national mentality, family psychology, interpersonal conflicts, stress and aggression, psychological consequences of violence, Uzbek psychology.*

Аннотация: *В данной статье представлен анализ феномена насилия в семейных отношениях с точки зрения узбекских психологов. В частности, освещается анализ взглядов А.Искандарова, С.Тошматова, Б.Турсунова и других на случаи семейного насилия. Одновременно рассматриваются принятые в Республике Узбекистан законы по предотвращению семейного насилия и их практический анализ.*

Ключевые слова: *семейное насилие, социально-психологические факторы, семейные отношения, психологическое насилие, гендерные отношения, патриархальные ценности, национальный менталитет, семейная психология, межличностные конфликты, стресс и агрессия, психологические последствия насилия, узбекская психология.*

Kirish. Bugungi kunda hech kimga sir emaski, oila ichidagi zo‘ravonlik holatlari tobora chuqur ildiz otmoqda.Oiladagi zo‘ravonlik hodisalarining namoyon bo‘lishi faqatgina alohida shaxsga ta’sir etibgina qolmay, balki jamiyat taraqqiyotiga ham sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish faqatgina davlatning oldidagi emas, balki jamiyatning har bir a’zosi oldidagi burchdir. Zero turli xavf-xatardan xoli bo‘lgan davlatgina ulkan yutuqlarga erishadi. So‘nggi yillarda yurtimiz O‘zbekistonda ham oilaviy munosabatlardagi zo‘ravonlik hodisasining oldini olish va soha yuzasidan holatlarni kamaytirish choralarini yo‘lga qo‘yish uchun turli qonun va farmoyishlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun bu borada olib borilayotgan tadqiqotlarning yaqqol namunalaridan biridir. Shunday qonunlardan yana biri, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonundir.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur ishda nazariy tahlil, taqqoshlash hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. O‘zbek psixologlarining zo‘ravonlik muammosi yuzasidan olib borgan izlanishlari tahlil qilindi. Xususan, S.K.Xaidov, A.Iskandarov, X.O.Ziyayeva va boshqa tadqiqotchilarning mazkur sohadagi ilmiy izlanishlari o‘rganildi. Shuningdek, Respublika qonuniy va huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Xorijiy olim D.Levinsonning “Madaniyatlararo nuqtayi nazardan oiladagi zo‘ravonlik” asarida keltirilgan ma‘lumotlar o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasi bilan solishtirildi. O‘zbek olimlari oilaviy zo‘ravonlikni asosan 4 xil turga bo‘lib o‘rgangan bo‘lib (jismoniy zo‘ravonlik, psixologik zo‘ravonlik, moliyaviy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik), barcha zo‘ravonlik turlarining yuzaga chiqishi bevosita iqtisodiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog‘liqligini ta‘kidlaydilar. Xususan, ijtimoiy omillar sirasiga gender tengligi masalasi (erkaklar ayollardan ustun stereotipi), oila ichidagi rollarning noto‘g‘ri taqsimoti kabilarni kiritdilar. Psixologik omillar sirasiga esa oilada qo‘rquv muhitining shakllanganligi va er yoki zo‘ravon shaxsdagi stressni keltirib o‘tadilar. Iqtisodiy omillar tarkibiga esa aholi qatlamining ishsizligi va boshqa moliyaviy muammolarni sanab o‘tadilar.

Metodologiya. Olingan natijalar xorij tadqiqotlari bilan mos keladi. Tahlillarga ko‘ra, zo‘ravonlik hodisasi murakkab va turli ijtimoiy omillar ta‘sirida shakillanuvchi murakkab jarayondir. O‘zbek psixolog olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni korsatdiki, zo‘ravonlikning kelib chiqishida: shaxsiy, oilaviy hamda ijtimoiy omillar o‘zaro uzviylikda ta‘sir ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda ushbu tadqiqot natijasi, oilaviy zo‘ravonlik muammosi yechimiga kompleks yondashuv zarurligini korsatadi. Ya’ni, faqatgina davlat yoki jamiyat emas, balki har bir shaxs bu borada mas’uldir.

Natijalar va tahlillar. Ushbu soha yuzasidan O‘zbek olimlaridan bir qanchasi tadqiqot ishlari olib borgan. Masalan, o‘zbek psixolog olimi A.Iskandarov o‘z tadqiqotlarida zo‘ravonlikka sabab bo‘luvchi psixologik omillar, zo‘ravonlik ishtirokchilari bo‘lgan shaxslarda kechuvchi hissiy va emotsional holatlar hamda ushbu muammo yechimi uchun bir qancha takliflar taqdim etgan[1:17]. Yana shunday olimlar qatorida S.Toshmatov va B.Tursunovlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu olimlar o‘z izlanishlarida oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy va psixologik xususiyatlariga urg‘u beradilar. Ularning tadqiqotlarida oiladagi zo‘ravonlik hodisasiga, jamiyatdagi iqtisodiy va madaniy tafovutlar sabab bo‘ladi.[2:17]

S.K.Xaidov tadqiqotida esa, erkaklardagi zo‘ravonlik ijrosini tezlashtirib yuboradigan jarayonlar tahlil qilinadi. Unga ko‘ra, o‘zaro muloqotdagi e’tiborsizlik, o‘z rafiqasining muammoli masalalarini muhokama qilishni istamasligi, erining ishini tanqid qilishi va boshqalar zo‘ravonlikning yuzaga kelish foizini oshirib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham oilaviy va gender zo‘ravonlik sohasida qator olimlar o‘z tadqiqotlarini olib bormoqdalar. Jumladan, X.Sh.Ziyavutdinova O‘zbek oilalaridagi zo‘ravonlik hodisasi sabablari va ijtimoiy psixologik xususiyatlarini, F.A.Akromova oiladagi zo‘ravonlik profilaktikasi va reabilitatsiyasi bo‘yicha, X.O.Ziyayeva zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollarni himoya qilish jarayonlariga ta’sir qilivchi omillarni va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha,

T.K.Nurboyeva esa jamiyatda xotin-quzlarning ijtimoiy mavqeyini mustahkamlash bo‘yicha izlanishlar olib bormoqdalar.

O‘zbekiston olimlari zo‘ravonlik hodisasini asosan uch jihatdan o‘rganishga ko‘proq urg‘u berishgan. Xususan, Yu.Asadov, Z.Rasulova, A.Komilovlar zo‘ravonlik hodisasining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rganishgan. D.Ziyadova, V.Andryanova ijtimoiy-pedagogik jihatlarini o‘rganishgan. M.Usmonaliyev, I.Karaketovlar esa zo‘ravonlikni kriminologik tomondan tadqiq etishga harakat qilganlar.

O‘zbek olimlaridan yana biri Ziyayeva, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik turli sharoitlarda, xususan, ijtimoiy zo‘ravonlik, ishda zo‘ravonlik kabi holatlarda sodir etilishiga qaramay, eng ko‘p uchrovchi turi oilaviy sharoit ekanligini ta’kidlaydi. Pulatova zo‘ravonlikda faqat ayollargina emas, balki erkaklar ham hodisa qurboni bo‘lishi mumkinligini aytadi, ammo bu holat ko‘proq ayollar bilan sodir etilishini aytib o‘tadi. Saidova ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni, ayolning sog‘lig‘i, qadr-qimmati va shu kabi qonun bilan himoyalangan boshqa huquq-erkinliklariga jismoniy, psixologik, jinsiy yoki boshqa jihatdan ta‘sir etib, tahdid yoki tajovuz qilish deb talqin qiladi. Zo‘ravonlikning kelib chiqishiga asosiy omillar madaniy me’yor va iqtisodiy omildir (shaxsning, xususan ayollarning, mustaqilligi, kuchini cheklab, zo‘ravonlikka moyilligini oshiradi).

Mamlakatimizda yana oilaviy munosabatlardagi muammolarni o‘rgangan ko‘plab olimlar mavjud. Xususan, E.G‘oziyev, I.A.Jabborov, O.Shamiyeva, M.X.Fayziyeva va boshqalar. Shuningdek, N.N.Shomurodova o‘z ilmiy ishlarida oiladagi zo‘ravonlik hodisasining ijtimoiy xavflarini o‘rgangan. Shuningdek, oilada zo‘ravonlik hodisasi turli shakillarda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi va asosan eng muhimlari, ijtimoiy xavfi yuqori shakllari sifatida quyidagi shakllarni keltirib o‘tadi: jismoniy, jinsiy, moliyaviy, psixologik, emotsional, tahqirlash, urish, qarindosh va do‘stlardan ajratib qo‘yish. O‘zbek olimlaridan yana biri D.Usmanova “Oilada murosasizlik va zo‘ravonlikning oldini olish choralari” nomli maqolasida oilada zo‘ravonlikning oldini olish uchun quyidagi usullarni sanab o‘tadi: Huquqiy ongni oshirish; Gender tengligini ta‘minlash; Oiladagi muammolarni bartaraf etuvchi turli psixologik maslahat markazlari va tashkilotlar ishini yo‘lga qo‘yish;

Zo‘ravonlik sodir etuvchilariga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish[6:89-95].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, xalqimiz asrlar davomida unga jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi ijtimoiy institut sifatida qaragan. Shu sababli oilaviy muammolarni bartaraf etish vazifasi bir qator soha mutaxassislarining oldida turgan dolzarb masaladir. Shu kungacha, o‘zbek oilalaridagi nizolar, uni ketirib chiqaruvchi omillar, ajralish va uning oqibatlari kabi ko‘plab muammolar o‘rganilgan bo‘lsa-da zo‘ravonlik muammosi yetarli darajada o‘rganib bo‘linmagan deb hisoblayman. Mazkur hodisani kamaytirish va butkul yo‘qotishdagi amaliy chora-tadbirlarni takomillashtirish lozim. Bu borada huquqiy choralarni mustahkamlash lozim. Shu bilan bir qatorda oilaviy maslahatlar markazlari ishini yo‘lga qo‘yish va psixologik profilaktika dasturlarini mukammal tarzda ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iskandarov A. Oilaviy zo‘ravonlikning psixologik sabablari: O‘zbekistondagi holat va tahlil // Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2015. – B. 17.
2. Toshmatov S., Tursunov B. Oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy va psixologik oqibatlari // Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2015. – B. 17.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2019-yil 2-sentyabr). Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida // Xalq so‘zi gaz. – 2019. – 09 sent. – №177-178. – МЧ: 112.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2023-yil). Oilaviy zo‘ravonlik va tazyiqning oldini olish, profilaktika va jamoatchilikni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida // Norma hujjatlari bazasi. – 2023. – 27 iyul. – №PQ-345. – МЧ: 65.
5. Xaidov S.K. Oila psixologiyasida zo‘ravonlik muammosi. – Toshkent, 2017. – b.
6. Usmanova D.Q. Oilada murosasizlik va zo‘ravonlikning oldini olish choralari // Xalqaro huquq va jamiyat. – 2021. – №10(3). – B. 89–95.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 03.30.2026 UDK: 821.512.133(092)

RO‘ZI QODIRIY SHE’RIYATIDA SHAKLIY VA MAZMUNIY MUSHTARAKLIK

Erkinjonova Sadoqat Abdurazzoq qizi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

FORMAL AND SUBSTANTIVE COMMONNESS IN THE POETRY OF ROZI KADIRIY

Erkinjonova Sadoqat Abdurazzoq qizi, Doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature



https://orcid.org/0009-0004-3944-6429
e-mail: Sadoqat486@gmail.com

ФОРМАЛЬНАЯ И СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ ОБЩНОСТЬ В ПОЭЗИИ РОЗИ КАДИРИ

Эркинджонова Садокат Абдураззок кызы, докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy uyg‘ur she’riyati vakillaridan biri bo‘lgan Ro‘zi Qodiriy ijodida shakl va mazmun uyg‘unligi masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. She’riyatda badiiy shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning mutanosibligi asarning badiiy qimmati hamda ta’sirchanligini belgilaydi. Ro‘zi Qodiriy she’riyatida aynan shu uyg‘unlik o‘ziga xos poetik uslub va badiiy ifoda vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Shoir o‘z she’rlarida an’anaviy poetik shakllar bilan bir qatorda zamonaviy she’riyat imkoniyatlaridan ham samarali foydalanadi. Uning ijodida hayot, inson ruhiyati, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, muhabbat va ma’naviy izlanishlar kabi mavzular muhim o‘rin egallaydi.*

Maqolada shoir she’rlaridagi badiiy obrazlar, metaforalar, ramzlar hamda poetik ifoda vositalari tahlil qilinib, ular orqali shakl va mazmun o‘rtasidagi mushtaraklik qanday namoyon bo‘lishi ochib beriladi. Shuningdek, Ro‘zi Qodiriy she’riyatida an’ana va yangilanish jarayoni, milliy poetik tafakkur bilan zamonaviy badiiy izlanishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ham ko‘rib chiqiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shoirning badiiy uslubida shakl va mazmun bir-birini to‘ldirib, she’rning g‘oyaviy-estetik qiymatini yanada boyitadi. Shu jihatdan Ro‘zi Qodiriy she’riyati uyg‘ur adabiyotida o‘ziga xos badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi va zamonaviy poetik tafakkurning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: *Ro‘zi Qodiriy, uyg‘ur she’riyati, badiiy shakl, mazmun, poetika, badiiy obraz, metafora, poetik uslub, milliy qadriyatlar, zamonaviy she’riyat.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the issue of harmony between form and content in the works of Rozi Qodiriy, one of the representatives of modern Uyghur poetry. In poetry, artistic form and content are closely interconnected, and their balance determines the artistic value and expressiveness of a literary work. In Rozi Qodiriy’s poetry, this harmony is manifested through a distinctive poetic style and artistic expressive means. In his poems, the poet effectively uses both traditional poetic forms and the possibilities of modern poetry. Themes such as life, the human inner world, national values, patriotism, love, and spiritual quest occupy an important place in his works.*

The article analyzes artistic images, metaphors, symbols, and poetic expressive devices in the poet’s poems and reveals how the interrelation between form and content is manifested through them. In addition, the process of tradition and innovation in Rozi Qodiriy’s poetry, as well as the relationship between national poetic thinking and modern artistic exploration, are also examined. The analysis shows that in the poet’s artistic style, form and content complement each other, further enriching the ideological and aesthetic value of the poem. In this regard, Rozi Qodiriy’s poetry appears as a unique artistic phenomenon in Uzbek literature and occupies an important place in the development of modern poetic thought.

Keywords: *Rozi Qodiriy, Uyghur poetry, artistic form, content, poetics, artistic image, metaphor, poetic style, national values, modern poetry.*

Аннотация: *В данной статье с научной точки зрения анализируется проблема гармонии формы и содержания в творчестве одного из представителей современной уйгурской поэзии — Рози Кадыри. В поэзии художественная форма и содержание тесно взаимосвязаны, а их соразмерность определяет художественную ценность и выразительность произведения. В поэзии Рози Кадыри именно эта гармония проявляется через своеобразный поэтический стиль и художественные средства выразительности. Поэт в своих стихах эффективно использует как традиционные поэтические формы, так и возможности современной поэзии. В его творчестве важное место занимают такие темы, как жизнь, внутренний мир человека, национальные ценности, патриотизм, любовь и духовные поиски.*

В статье анализируются художественные образы, метафоры, символы и поэтические средства выразительности в стихах поэта, а также раскрывается, каким образом через них проявляется взаимосвязь между формой и содержанием. Кроме того, рассматриваются процессы традиции и обновления в поэзии Рози Кадыри, а также взаимосвязь между национальным поэтическим мышлением и современными художественными поисками. Проведённый анализ показывает, что в художественном стиле поэта форма и содержание дополняют друг друга, ещё больше обогащая идейно-эстетическую ценность стихотворения. В этом отношении поэзия Рози Кадыри проявляется как своеобразное художественное явление в узбекской литературе и занимает важное место в развитии современного поэтического мышления.

Ключевые слова: *Рози Кадыри, уйгурская поэзия, художественная форма, содержание, поэтика, художественный образ, метафора, поэтический стиль, национальные ценности, современная поэзия.*

Kirish. Uyg‘ur adabiyoti tarixida she’riyat doimo inson ruhiyati, jamiyat hayoti va milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi sifatida muhim o‘rin egallab kelgan. Ayniqsa, zamonaviy uyg‘ur she’riyatida badiiy shakl va mazmunning o‘zaro uyg‘unligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki she’rning estetik qimmati faqatgina g‘oya yoki mazmun bilan emas, balki uning qanday poetik shaklda ifodalanganligi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan qaraganda, zamonaviy uyg‘ur she’riyatining iste’dodli vakillaridan biri bo‘lgan Ro‘zi Qodiriy ijodini o‘rganish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Ro‘zi Qodiriy she’riyatida shakl va mazmun bir-birini to‘ldiruvchi badiiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir o‘z ijodida milliy an’analarga tayangan holda zamonaviy poetik uslubni shakllantirgan ijodkorlardan biridir. Uning she’rlarida inson qalbi, vatan muhabbati, hayotning murakkabligi, insoniy tuyg‘ular va ma’naviy qadriyatlar badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Bu jarayonda poetik shakl – qofiya, ritm, badiiy tasvir vositalari hamda kompozitsion tuzilma mazmunni yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi[1].

Masalan, shoirning ko‘plab she’rlarida tabiat obrazlari orqali inson ruhiyati tasvirlanadi. Quyidagi misolda buni ko‘rish mumkin:

Shamol esar, daraxt yaproqlari shivirlar,
Ko‘nglimdagi sirlarni go‘yo ular tinglar.

Mazkur misrada tabiat hodisasi – shamol va yaproq obrazlari insonning ichki kechinmalari bilan uyg‘un holda tasvirlangan. Bu yerda shakliy jihatdan ritmik uyg‘unlik va qofiya tizimi mazmunni yanada ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

Shu sababli Ro‘zi Qodiriy she’riyatini o‘rganish nafaqat uning individual poetik uslubini aniqlash, balki zamonaviy uyg‘ur she’riyatida shakl va mazmun mushtarakligining qanday namoyon bo‘lishini ko‘rsatish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Mazkur maqolada shoir ijodidagi poetik shakllar, badiiy tasvir vositalari hamda ularning mazmun bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi[2].

Adabiyotlar tahlili. Ro‘zi Qodiriy she’riyati va adabiy merosini tahlil qilishda uning asarlari shakl va mazmun uyg‘unligini ko‘rsatadi. Ro‘zi Qodiriy ijodida badiiy shakl va mazmun bir-birini to‘ldiruvchi, uzviy bog‘liq element sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “Kurash ilhomlari” (1959) asarida shoir an’anaviy she’riy shakllardan foydalanib, turli badiiy obrazlar orqali milliy qadriyat va vatanparvarlik mavzusini ochadi. Ushbu she’rlarida har bir metafora va badiiy ramz mazmunni

[1] Ro‘zi Qodiriy. (n.d.). *Ro‘zi Qodiriy biografiya va ijodi*. Ziyouz. Retrieved from https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/uyg-ur-she-riyati/ro-zi-qodiriy

[2] Ro‘zi Qodiriy. (n.d.). *Ro‘zi Qodiriy* [Biografiya]. Uzbek Wikipedia. Retrieved from https://uz.wikipedia.org/wiki/Ro%CA%BBzi_Qodiriy

mustahkamlab, shakl va mazmun o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlaydi.

Shuningdek, Ro‘zi Qodiriy “Uyg‘ur qo‘shiqlari” (1960), “Qashqar qo‘shig‘i” (1965) va “Qutlug‘ diyor” (1969) kabi asarlarida xalq og‘zaki ijodining poetik uslublarini o‘z she’riyatida samarali qo‘llaydi. Ushbu asarlarda shoir milliy madaniyat va qadriyatlarni badiiy tarzda ifodalash bilan birga, zamonaviy she’riyat imkoniyatlaridan ham foydalangan. Shu jihatdan uning ijodida shakl va mazmun uyg‘unligi milliy va zamonaviy poetik tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

“Xiva gullari” (1972) va “G‘ururim” (1978) asarlarida shoirning poetik uslubi yanada rivojlanadi. Bu she’rlarda badiiy obrazlar, ramzlar va metaforalar shakl va mazmun uyg‘unligini yanada boyitadi. Masalan, shoir tabiat tasvirlari orqali inson ruhiyati va milliy qadriyatlarni o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Shu bilan birga, metaforik va badiiy ifoda vositalari orqali asarning ta’sirchanligi oshadi, bu esa o‘quvchiga shoirning g‘oyaviy-estetik qarashlarini chuqur yetkazishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda zamonaviy uyg‘ur she’riyatining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Ro‘zi Qodiriy ijodida shakl va mazmun uyg‘unligini aniqlash va tahlil qilish asosiy metodologik vazifa sifatida belgilandi. Tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslikda keng qo‘llaniladigan tahlil, qiyosiy tahlil, poetik tahlil hamda interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida shoir she’rlarida badiiy shakl, obrazlilik, metaforik ifoda hamda g‘oyaviy mazmun o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganildi.

Tadqiqotning asosiy manbalarini Ro‘zi Qodiriyning turli yillarda chop etilgan she’riy to‘plamlari tashkil etadi. Jumladan, shoirning **“**Uchqun”, “Kurash ilhomlari”, “Uyg‘ur qo‘shiqlari”, “Qashqar qo‘shig‘i”, “Qutlug‘ diyor”, “Xiva gullari” hamda “G‘ururim” kabi asarlaridagi she’rlar tahlil uchun asosiy material sifatida tanlab olindi. Mazkur to‘plamlarda shoir ijodining turli davrlari, poetik izlanishlari hamda mavzu doirasi keng aks etgani sababli ular tadqiqot uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shoirning *“Kurash ilhomlari”* to‘plamida esa ijtimoiy ruh, milliy o‘zlik va ozodlik g‘oyalari kuchli poetik ifoda topgan. Masalan:

“Kurash bilan yashar yurak,
Umid bilan yashnar el”[3].

Ushbu misralarda qisqa, ritmik shakl orqali kuchli g‘oyaviy mazmun ifodalangan bo‘lib, she’rning ta’sirchanligi aynan shakl va mazmun uyg‘unligi orqali ta’minlangan.

Ro‘zi Qodiriyning *“Uyg‘ur qo‘shiqlari”* to‘plamida esa xalqona ohang, milliy ruh va folklor elementlari sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Masalan:

“Yurtim kuylar dilimda,
Qo‘shiqlarim el bilan”[4].

Bu satrlarda xalq qo‘shiqchilik an’analariga xos ohangdorlik poetik shakl sifatida xizmat qilib, mazmunni yanada boyitadi.

Shoir ijodida vatanga muhabbat mavzusi *“Qashqar qo‘shig‘i”* asarida ham yorqin ifodalangan. Masalan:

“Qashqar mening yuragim,
Har nafasi jonimdir”[5].

Bu misralarda vatan obrazi shoirning ichki ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashib, kuchli lirizm hosil qiladi.

Shoirning *“Qutlug‘ diyor”* asarida esa milliy g‘urur va yurtga sadoqat g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi:

“Bu diyor mening faxrim,
Har zarra tuprog‘i aziz”[6].

Bu yerda poetik shakl sodda va ravon bo‘lsa-da, mazmun jihatidan chuqur g‘oyaviy ma’noga ega.

Ro‘zi Qodiriy she’riyatida tabiat tasviri ham muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu jihat ayniqsa *“Xiva gullari”* to‘plamida yaqqol ko‘rinadi:

“Xiva bog‘larida ochilgan gullar,
Dilimga bahor nafasi olib kelar”[7].

Ushbu misralarda tabiat obrazlari orqali ruhiy holat ifodalangan bo‘lib, poetik tasvir vositalari mazmunni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, shoirning *“G‘ururim”* to‘plamida insoniy qadr-qimmat, milliy o‘zlik va ma’naviy mustaqillik masalalari badiiy jihatdan yoritilgan:

[3] Ro‘zi Qodiriy. (1959). *Kurash ilhomlari*. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
[4] Ro‘zi Qodiriy. (1960). *Uyg‘ur qo‘shiqlari*. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
[5] Ro‘zi Qodiriy. (1965). *Qashqar qo‘shig‘i*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
[6] Ro‘zi Qodiriy. (1969). *Qutlug‘ diyor*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
[7] Ro‘zi Qodiriy. (1972). *Xiva gullari*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

“G‘ururim — mening qalqonim,
U meni sinovlardan o‘tkazar”[8].

Ushbu satrlarda metaforik ifoda vositasi orqali insoniy fazilatlar badiiy shaklda aks ettirilgan.

Poetik tahlil jarayonida shoir she’rlaridagi badiiy obrazlar va ramziy ifodalar alohida e’tibor bilan ko‘rib chiqildi. Masalan, shoirning ilk ijodiy bosqichini aks ettiruvchi ***“Uchqun”*** to‘plamida inson qalbidagi umid va kelajak sari intilish g‘oyasi poetik obrazlar orqali ifodalanadi:

“Yuragimda yonar bir uchqun,
U meni ertangi kunga yetaklar”[9].

Ushbu satrlarda “uchqun” obrazi inson ruhiyatidagi orzu va ishonch ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda badiiy shakl va mazmun uyg‘unligi metaforik obraz orqali namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, metodologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ro‘zi Qodiriy she’riyatida shakl va mazmun o‘zaro uyg‘un holda rivojlanadi. Shoir poetik obrazlar, metaforalar, ramzlar hamda ritmik qurilish orqali she’rning g‘oyaviy-estetik ta’sirini kuchaytiradi. Natijada uning she’riyati nafaqat badiiy shakl jihatidan, balki mazmunan ham boy va chuqur poetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Ro‘zi Qodiriy she’riyatida shakl va mazmun mushtarakligining namoyon bo‘lishi (1-jadval)

She’riy misol	**Shakliy xususiyat (poetik vosita)**	**Mazmuniy jihat**	**Tahlil**
“Shamol esar, daraxt yaproqlari shivirlar, / Ko‘nglimdagi sirlarni go‘yo ular tinglar”.	Qofiya (shivirlar–tinglar), ritmik uyg‘unlik, personifikatsiya	Inson ruhiy kechinmalarining tabiat bilan uyg‘unligi	Ushbu misrada tabiat unsurlari – shamol va daraxt yaproqlari inson ruhiyati bilan bog‘liq holda tasvirlangan. Personifikatsiya orqali tabiat go‘yo inson his-tuyg‘ularini tinglayotgandek ifodalanadi. Shakliy jihatdan qofiya va ritm she’r ohangdorligini ta’minlab, mazmunning ta’sirchanligini kuchaytiradi.
“Yo‘llar uzoq, manzillar hamon yiroq, / Ammo umid yurakda doimo chiroq”.	Qofiya (yiroq–chiroq), ramziy obraz	Hayot yo‘li va inson umidi	Bu misolda “yo‘l” va “manzil” obrazlari hayot jarayonining ramziy ifodasi sifatida qo‘llanadi. “Chiroq” esa umid va ishonch timsoli hisoblanadi. Shakliy jihatdan sodda va ravon qofiya tizimi mazmunni aniq va ta’sirchan ifodalashga yordam beradi.
“Tong otadi, ufqlar nurga to‘ladi, / Ko‘nglimda esa yangi orzular tug‘iladi”.	Tasviriylik, metafora, ritmik uyg‘unlik	Yangilanish, orzu va intilish g‘oyasi	Bu satrlarda tong obrazi yangilanish va yangi boshlanish ramzi sifatida talqin qilinadi. Metaforik ifoda orqali inson qalbidagi orzular tabiat manzarasi bilan uyg‘unlashtirilgan. Shakliy jihatdan ohangdorlik va parallel tuzilma mazmunni yanada chuqurroq ochib beradi.

Jadvalda keltirilgan misollar Ro‘zi Qodiriy she’riyatida shakl va mazmunning o‘zaro mushtarak holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Shoir she’rlarida poetik vositalar – qofiya, metafora, ramz,

[8] Ro‘zi Qodiriy. (1978). *G‘ururim*. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.

[9] Ro‘zi Qodiriy. (1956). *Uchqun*. (Uyg‘ur tilida). Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.

personifikatsiya va ritmik tuzilma mazmunni boyituvchi asosiy omillar sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, tabiat obrazlari orqali inson ruhiyati tasvirlanishi shoir poetikasining muhim xususiyatlaridan biridir.


Shakliy jihatdan sodda, ohangdor va ritmik tuzilishga ega bo‘lgan satrlar mazmuniy jihatdan chuqur falsafiy fikrlarni ifodalaydi. Bu esa shoir ijodida badiiy shakl faqat tashqi bezak emas, balki g‘oyaviy mazmunni ifodalash vositasi ekanligini ko‘rsatadi. Natijada Ro‘zi Qodiriy she’riyati zamonaviy uyg‘ur adabiyotida shakl va mazmun uyg‘unligining yorqin namunasini tashkil etadi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot jarayonida Ro‘zi Qodiriy she’riyatida shakl va mazmun mushtarakligi muhim poetik tamoyil sifatida namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Shoir ijodida badiiy shakl nafaqat estetik bezak vazifasini bajaradi, balki mazmunni chuqurroq ochib beruvchi asosiy badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. O‘rganilgan she’rlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Ro‘zi Qodiriy o‘z asarlarida poetik shakl elementlari – ritm, qofiya, badiiy tasvir vositalari, ramz va metaforalardan maqsadli foydalanadi. Bu esa she’rning g‘oyaviy mazmunini yanada boyitib, o‘quvchiga kuchli estetik ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar natijasida shoir she’riyatida uchta asosiy poetik xususiyat ajralib chiqadi. Tabiat obrazlari orqali inson ruhiyati va ichki kechinmalarining ifodalanishi keng uchraydi. Bu holat uyg‘ur she’riyatining an’anaviy poetik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, shamol, tong, daryo, quyosh kabi obrazlar shoir she’rlarida ko‘pincha inson qalbidagi kechinmalar yoki hayotiy falsafiy qarashlarni ifodalovchi ramz sifatida qo‘llanadi. Bunday obrazlarning shakliy jihatdan poetik uyg‘unlikda qo‘llanishi she’rning badiiy ta’sir kuchini oshiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shoir she’riyatida an’anaviy poetik shakllar bilan zamonaviy badiiy izlanishlar o‘rtasida uyg‘unlik mavjud. U milliy adabiyot an’analariga tayangan holda yangi badiiy ifoda usullarini qo‘llaydi. Bu esa uning she’riyatini zamonaviy uyg‘ur adabiy jarayonida muhim o‘rin tutuvchi badiiy hodisaga aylantiradi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar Ro‘zi Qodiriy she’riyatida shakl va mazmun o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Shoir ijodida poetik shakl mazmunni ifodalashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘lib, badiiy asarning g‘oyaviy-estetik qiymatini oshiradi. Shu sababli Ro‘zi Qodiriy she’riyati zamonaviy uyg‘ur she’riyatida shakl va mazmun uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin [10].



1-rasm. Ro‘zi Qodiriy she’riyatida poetik vositalarning qo‘llanish chastotasi tahlili

“Ro‘zi Qodiriy she’riyatida poetik vositalarning qo‘llanish chastotasi tahlili**”** nomli chiziqli diagramma shoir ijodida uchraydigan asosiy badiiy ifoda vositalarining nisbiy qo‘llanish darajasini ko‘rsatadi. Diagramma natijalariga ko‘ra, Ro‘zi Qodiriy she’riyatida eng ko‘p qo‘llanilgan poetik vosita tabiat obrazlari hisoblanadi. Bu holat shoir ijodida tabiat manzaralari orqali inson ruhiyati, ichki kechinmalari va hayotiy qarashlarning ifodalanishi muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Tabiat unsurlari – shamol, tong, daryo, quyosh kabi obrazlar ko‘pincha insonning ruhiy holati yoki falsafiy fikrlarini ifodalovchi ramziy vosita sifatida qo‘llanadi.

Diagrammada ikkinchi yuqori ko‘rsatkich ritm va qofiya tizimiga to‘g‘ri keladi. Bu esa shoir she’rlarida shakliy uyg‘unlikka alohida e’tibor berilganini anglatadi. Ritmik muvozanat va ohangdor qofiyalar she’rning estetik ta’sir kuchini oshiradi hamda o‘quvchi tomonidan matnni qabul qilish jarayonini osonlashtiradi. Shuningdek, bunday shakliy uyg‘unlik she’r mazmunini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Keyingi o‘rinda metafora va ramz kabi badiiy vositalar turadi. Metaforik ifodalar orqali shoir oddiy hayotiy hodisalarni chuqur falsafiy ma’noda talqin qiladi. Masalan, “yo‘l” obrazi hayot jarayonini, “chiroq” esa inson qalbidagi umid va ishonchni ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Ramziy obrazlarning mavjudligi she’r mazmunining ko‘p qatlamli bo‘lishiga xizmat qiladi va o‘quvchini badiiy tafakkurga chorlaydi.

Diagrammada nisbatan kamroq ko‘rsatkich personifikatsiya (jonlantirish) vositasiga tegishli

ekanligi ko‘rinadi. Biroq bu vosita kam qo‘llanilgan bo‘lsa ham, shoir she’rlarida muhim badiiy vazifani bajaradi. Personifikatsiya orqali tabiat hodisalari yoki jonsiz narsalar insoniy xususiyatlar bilan tasvirlanadi. Natijada she’rning badiiy obrazlari yanada jonli va ta’sirchan tus oladi.

Umuman olganda, diagramma tahlili shuni ko‘rsatadiki, Ro‘zi Qodiriy she’riyatida shakl va mazmun o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Shoir poetik vositalardan maqsadli foydalanib, she’rning g‘oyaviy mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Ayniqsa, tabiat obrazlari, metafora va ritmik uyg‘unlik shoir poetikasining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bu esa Ro‘zi Qodiriy she’riyatini zamonaviy uyg‘ur adabiyotida badiiy shakl va mazmun mushtarakligining yorqin namunasi sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda Ro‘zi Qodiriy she’riyatida shakliy va mazmuniy mushtaraklik masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida shoir ijodida badiiy shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. She’riy asarda shakl nafaqat tashqi poetik tuzilma sifatida, balki mazmunni ifodalash va chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim badiiy vosita sifatida faol ishtirok etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Ro‘zi Qodiriy she’riyatida ritm, qofiya, metafora, ramz va tabiat obrazlari kabi poetik vositalar keng qo‘llaniladi. Ushbu badiiy vositalar she’rning estetik ta’sirchanligini oshirish bilan birga, undagi g‘oyaviy mazmunni yanada boyitadi. Ayniqsa, tabiat obrazlari orqali inson ruhiyati va ichki kechinmalarining ifodalanishi shoir poetikasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu esa shoir ijodida milliy poetik an’analar bilan zamonaviy badiiy tafakkur o‘rtasidagi uyg‘unlikni namoyon etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Ro‘zi Qodiriy she’riyatida poetik shakl elementlari – ritmik tuzilma, ohangdorlik va qofiya tizimi mazmunni ta’sirchan ifodalashga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Metafora va ramziy obrazlar esa she’r mazmunining falsafiy va estetik qatlamlarini chuqurlashtiradi. Natijada badiiy shakl va mazmun o‘rtasida uyg‘unlik vujudga kelib, she’rning g‘oyaviy-estetik qimmati oshadi.

Umuman olganda, Ro‘zi Qodiriy she’riyati shakl va mazmun mushtarakligiga asoslangan poetik tizimga ega bo‘lib, unda badiiy ifoda vositalari orqali inson ruhiyati, hayotiy falsafa hamda milliy qadriyatlar chuqur badiiy talqin etiladi. Mazkur tadqiqot natijalari shoir ijodini yanada kengroq o‘rganish hamda zamonaviy uyg‘ur she’riyatining poetik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ro‘zi Qodiriy. (n.d.). *Ro‘zi Qodiriy biografiya va ijodi*. Ziyouz. Retrieved from https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/uyg-ur-she-riyati/ro-zi-qodiriy
2. Ro‘zi Qodiriy. (n.d.). *Ro‘zi Qodiriy* [Biografiya]. Uzbek Wikipedia. Retrieved from https://uz.wikipedia.org/wiki/Ro%CA%BBzi_Qodiriy
3. Ro‘zi Qodiriy. (1959). *Kurash ilhomlari*. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
4. Ro‘zi Qodiriy. (1960). *Uyg‘ur qo‘shiqlari*. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
5. Ro‘zi Qodiriy. (1965). *Qashqar qo‘shig‘i*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
6. Ro‘zi Qodiriy. (1969). *Qutlug‘ diyor*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
7. Ro‘zi Qodiriy. (1972). *Xiva gullari*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
8. Ro‘zi Qodiriy. (1978). *G‘ururim*. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
9. Ro‘zi Qodiriy. (1956). *Uchqun*. (Uyg‘ur tilida). Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.
10. Ro‘zi Qodiriy. (1956). *Uyg‘ur ertaklari*. (Uyg‘ur tilida). Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

ASHTARXONIYLAR SULOLASI VA ROSSIYA DAVLATI O‘RTASIDA XALQARO MUNOSABATLAR (XVII-XVIII)

Xamidova Ominaxon Nuriddin qizi, Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti “Tarix” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi



https://orcid.org/0009-0008-1753-4320
e-mail: ominaxonhamidova86@gmail.com

INTERNATIONAL RELATIONS BETWEEN THE ASHTARKHANID DYNASTY AND THE RUSSIAN STATE (XVII-XVIII)

Khamidova Aminaxon Nuriddin kizi, 2nd year student of the “History” major at the Faculty of History and Social Sciences of Andijan State University

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ДИНАСТИЕЙ АШТАРХАНИДОВ И РОССИЙСКИМ ГОСУДАРСТВОМ (XVII-XVIII)

Хамидова Аминахон Нуриддин кызы, студентка 2-курса специальности “История” факультета истории и социальных наук Андижанского государственного университета

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XVII-XVIII asr boshlarida Buxoro va Xiva xonliklarining Rossiya davlati bilan bo‘lgan siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalari bayon etilgan. Shuningdek, Rossiyaning Markaziy Osiyo orqali Hindistonga yo‘l ochishga urinishlari va bu borada yuzaga kelgan qiyinchiliklar ko‘rib chiqildi. Maqolada keltirilishicha, so‘nggi o‘rta asrlarda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar rivojlangan bo‘lsa, ayrim hukmdorlar davrida siyosiy qarama-qarshiliklar tufayli munosabatlar uzilgan. Ayniqsa, Pyotr I davrida Rossiyaning Sharqqa bo‘lgan qiziqishi kuchayishi va bu mintaqada o‘z nufuzini o‘rnatishga urinishlari alohida o‘rin tutgan edi. Maqolada xonliklardagi siyosiy jarayonlar va tashqi tahdidlarning Rossiya bilan bo‘lgan munosabatlarga ta’sirini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *xonlik, imperiya, elchi, savdo, aloqalar, siyosiy munosabatlar, Markaziy Osiyo, asirlar.*

Abstract: *This article examines the political and trade-economic relations of the Bukhara and Khiva Khanates with the Russian state in the late 17th and early 18th centuries. It also analyzes Russia’s attempts to open a route to India through Central Asia and the difficulties encountered in this process. According to the article, although relations between the two states developed during the late medieval period, they were interrupted during the reign of certain rulers due to political confrontations. Particular attention is paid to the intensification of Russia’s interest in the East during the reign of Peter I and its efforts to establish influence in the region. The article also reveals the impact of political processes within the khanates and external threats on their relations with Russia.*

Key words: *khanate, empire, ambassador, trade, relations, political relations, Central Asia, prisoners.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются политические и торгово-экономические связи Бухарского и Хивинского ханств с Российским государством в конце XVII — начале XVIII веков. Также анализируются попытки России проложить путь в Индию через Центральную Азию и трудности, возникшие в связи с этим. В статье отмечается, что в позднем средневековье отношения между двумя государствами развивались, однако в период правления отдельных правителей из-за политических противоречий эти связи прерывались. Особое внимание уделяется усилению интереса России к Востоку в период правления Петра I и её стремлению укрепить своё влияние в данном регионе. Кроме того,*

раскрывается влияние внутриполитических процессов в ханствах и внешних угроз на их отношения с Россией.

Ключевые слова: *ханство, империя, посол, торговля, связи, политические отношения, Центральная Азия, пленные.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy va do‘stona munosabatlar ko‘p asrlik tarixga ega. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, ikki tomonlama aloqalar yanada mustahkamlandi. XVII–XVIII asrlarda Rossiya va Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar bu tarixiy hamkorlikning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar faol bo‘lib, ularning manfaatlari o‘zaro mos kelganligi hujjatlar, qo‘lyozmalar va ilmiy asarlarda o‘z aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda foydalanilgan manbalar XVII–XX asrlarda Buxoro xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik va savdo aloqalarini o‘rganishda keng qamrovli ma’lumotlarni taqdim etadi. Masalan, Zamanov (2021) va Axmedov (2001) Buxoro xonligining qo‘shni davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy munosabatlarini chuqur tahlil qilsa, Nizomiddinov (1966) Rossiya va Hindiston bilan savdo aloqalari orqali Markaziy Osiyo yo‘llarining strategik ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, tarixiy hujjatlar va arxiv materiallari – masalan, Xoxlov va Pazuxinlarning elchilik hisobotlari, Benevini missiyasi haqida ma’lumotlar – ikki tomonlama diplomatik munosabatlarning har bir bosqichini yoritadi va ularning siyosiy hamda iqtisodiy natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Turli olimlarning ishlari, jumladan, Bartold (1925), Jurovskiy (1915), va Торгова (1965), Rossiya-Buxoro aloqalarining tarixiy kontekstini kengaytirib, tadqiqotga manba sifatida mustahkam poydevor yaratadi.

Umuman olganda, tahlil qilgan adabiyotlar savdo va diplomatiya, mintaqaviy geopolitika va tarixiy integratsiya jarayonlarini o‘rganish uchun zaruriy ilmiy asoslarni taqdim etadi va tadqiqot natijalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijalar. XVII–XVIII asrlarda Buxoro xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi elchilik aloqalari asosan iqtisodiy xarakterga ega bo‘lib, savdo-sotiq va strategik manfaatlarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Rossiyaning Markaziy Osiyo orqali Hindistonga yangi savdo yo‘llarini izlashi, Buxoro xonligi uchun jahon savdosiga chiqish imkonini yaratdi va ikki davlat o‘rtasida do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga turtki berdi. Elchilik tashriflari mintaqaning siyosiy va iqtisodiy holatini o‘rganish, qulay savdo yo‘llarini aniqlash hamda strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu diplomatik aloqalar nafaqat ikki tomonlama manfaatlarni ta’minlagan, balki Markaziy Osiyo va Yevroosiyo mintaqasida integratsion jarayonlarning ilk bosqichlarini shakllantirgan. Tarixiy tajribalarni chuqur o‘rganish bugungi kunda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XVII–XVIII asrlarda Rossiya imperiyasi hamda Buxoro xonligi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar sezilarli darajada faollashgan bo‘lib, bu jarayon ikki tomonlama siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan uzviy bog‘liq edi. Ayni shu davrda Rossiya hukumati tomonidan Buxoro va Xiva xonliklariga jami to‘qqiz marta elchilar delegatsiyasi yuborilgan bo‘lsa, aksincha, Buxoro hamda Xiva davlatlari vakillari tomonidan Rossiyaga o‘n olti marotaba rasmiy tashriflar amalga oshirilgan. Ushbu diplomatik aloqalarning boshlanishi esa, tarixiy manbalarga ko‘ra, Buxoro xonligining nufuzli hukmdorlaridan biri Imomqulixon (1611–1642) hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Mazkur davrda ikki davlat o‘rtasida rasmiy siyosiy muloqot va o‘zaro manfaatli hamkorlik asoslarini shakllantirish yo‘lida ilk bosqichlar yo‘lga qo‘yilgan [9.-B.9]. Imomqulixon Rossiyaga 1613-yilda Navrozxo‘ja, 1620-yilda esa Odambiy ismli elchilarini yuborgan. Javoban, 1620–1622 yillarda Rossiya podsholigi Buxoro va Xiva xonliklariga Ivan Xoxlovni elchi sifatida yuborgan. Ivan Xoxlov dastlab 1621-yilda Xiva xonligiga, keyin esa Samarqandga yetib keldi.

I.V.Xoxlov 1622-yil qishda Moskvaga qaytadi. I.V.Xoxlovga Xivada yaxshi munosabatga bo‘lishmaydi, shuning uchun Rus podshohi Mixail Fyodorovich Xivaga 20 yil mobaynida elchi yubormaydi. Imomqulixondan so‘ng taxtga o‘tirgan ukasi Nodir Muhammadxon 1643-yil mart oyida rus hukmdoriga yollagan xatida bundan keyin ham ikki davlat o‘rtasida savdo va asirlar o‘rtasida almashuv davom etishini aytib o‘tgan. Saqlanib qolingan ma’lumotlarga qaraganda Rossiyaga yuborilgan elchini savdogar va elchi Onisim Gribov kutib olgani va javoban elchi tariqasida nog‘ay yuzini yuborgani aytib o‘tilgan[9.-B.10].

XVII asrning 70-yillarida Rossiyaning Sharqqa bo‘lgan qiziqishi ortib bordi. Bu davrda Rossiya birinchi navbatda Markaziy Osiyo orqali Hindistonga yangi yo‘l ochishga kirishdi. Bunga asosiy sabab - ilgari Rossiya uchun qulay bo‘lgan Eron orqali Hindistonga boradigan an’anaviy yo‘l Boburiylar hukmdori Avrangzeb Olamgir (1658-1707) va Eron Safaviylari o‘rtasidagi urush tufayli xavfli holatga kelgan edi. Shu sababli Rossiya Markaziy Osiyo orqali alternativ yo‘llarni qidira boshladi. Rossiyaning Markaziy Osiyoga elchilik missiyasi (1669-yil): diplomatik, iqtisodiy va strategik maqsadlar, 1669-yilda Rossiya podsholigi Markaziy Osiyo bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida muhim diplomatik tashabbusni amalga oshirdi. Boris Andreyevich Pazuxin va Semen Ivanovich Pazuxin boshchiligidagi elchilik missiyasi Buxoro, Balx va Urganch kabi asosiy siyosiy markazlarga yuborildi. Ushbu missiya uch asosiy vazifani o‘z ichiga olgan. Diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash_– Rossiya davlati o‘zining geosiyosiy ta’sir doirasini kengaytirish hamda Markaziy Osiyo xonliklari bilan barqaror diplomatik munosabatlar o‘rnatishni maqsad qilgan. Bu harakat Rossiyaning janubiy chegaralarida siyosiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan [10.-B.270]. Yangi savdo yo‘llarini izlash – Elchilarning muhim vazifalaridan biri Hindistonga olib boradigan muqobil savdo yo‘llarini aniqlash edi. Bu Rossiyaning Hindiston bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo aloqalarini o‘rnatish istagini ko‘rsatadi, ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘lining tanazzulga yuz tutgan davrida yangi yo‘nalishlar iqtisodiy jihatdan nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan. Mintaqaning siyosiy va iqtisodiy holatini o‘rganish – Elchilik vakillari mintaqa siyosiy tuzilmasi, xonliklararo munosabatlar, savdo va ishlab chiqarish imkoniyatlari haqida tahliliy ma’lumotlar to‘plagan. Bu XVII asrda Rossiyalik elchilari Boris va Semen Pazuxinlarning Markaziy Osiyoga safari Astraxandan boshlab O‘rta Osiyo orqali Dehligacha (Hindiston) borish uchun taxminan 4 oy 2 hafta vaqt kerak bo‘lishi haqida ma’lumot berishgan. Bu yo‘lning uzunligi va qiyinchiliklarini ko‘rsatadi.

Pazuxinlar missiyasining Balxga borish rejasi, dastlab Buxoro va Balxga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, amalda bir qator omillar tufayli yo‘nalish o‘zgargan. Elchilar Buxoroga yetib borishganidan so‘ng so‘ng, ular hududda yuzaga kelgan bir qancha muammolar va qiyinchiliklarga yuz tutdilar. Xususan, Buxoro va Balx o‘rtasidagi davom etayotgan siyosiy nizo va kelishmovchiliklar, missiyaning xavf va xavotirlarga duch kelishiga sabab bo‘ldi. Bu holat, o‘z navbatida, elchilarni o‘zlarining dastlabki rejasidan voz kechishga majbur qildi. Ular Balxga safar qilishni to‘xtatib, faqat Buxoroda qolishga qaror qildilar. Buxoro va Balx o‘rtasidagi siyosiy muammolar va xavfsizlik tahdidlarini inobatga olgan holda, Pazuxinlar missiyasi o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Ushbu holat, o‘z navbatida, Markaziy Osiyo mintaqasidagi geopolitik barqarorlikni saqlash va mintaqaviy kuchlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni boshqarishdagi qiyinchiliklarni yana bir bor ochib berdi [4.-B.166].

1675-yil Rossiya Podshohi Mixail V.A.Davudov orqali Buxoro xoni Abdulazizxonga maxsus yorliq jo‘natgan. Ushbu yorliqda ikki davlat o‘rtasida oldindan shakllanib kelgan do‘stona munosabatlarni, elchilar orqali rus asirlarining jo‘natib yuborganligini eslatib va undan o‘z yerlari orqali yana bir elchi Muhammad Yusuf Qosimovni Hindistonga o‘tkazib yuborishini iltimos qilgan. Undan tashqari, podshoh bu elchilarga Buxoro xonining Usmoniylar imperiyasi, Eron va Hindiston hukmdorlari bilan aloqalarini ham o‘rganish topshirilgan. Ammo Qosimov elchiligi ko‘zlagan maqsadga erisha olmagan [4.-B.191-192]. Abdulazizxondan so‘ng Buxoro taxtiga o‘tirgan Subxonqulixon davrida Rossiya bilan diplomatik aloqalar bir qadar zaiflashdi. Buning asosiy sababi hukmdor Rossiyaning asosiy raqibi Usmoniylar imperiyasi bilan aloqalarni yaxshilashga harakat qiladi. 1705-yilda Buxoro xoni Ubaydullaxonning Olimbek boshchiligidagi bir guruh diplomatlar xususan Mirkubiy Mirg‘orgayev rahnamoniligida savdogarlar Rossiyaga tashrif buyurdi[4.-B.70].

Buxorolik savdogarlar Rossiya podsholigiga o‘zlari bilan juda katta miqdordagi tovar va mahsulotlar olib bordilar. Ular Rossiyaning turli shaharlarida bo‘ldilar. Astraxan shahrining o‘zida 6 ming somlik foyda ko‘rdilar. 1705-yilning iyul oyida Rus podshohi Pyotr I Buxoro xoni Ubaydullaxonga elchi Olimbek orqali javob maktubini yubordi. Unda ikkala davlat o‘rtasida do‘stona munosabatlar va savdo aloqalari davom ettirilishini ta’kidlab o‘tdi. Pyotr I xonga sovg‘a-salomlarari, shu bilan birga rus oltinlarini yubordi. Shimol urushi (1700-1721) paytida 1708-yil Poltava jangida Shvetsiyani tor-mor keltirdi. Lekin kutilmaganda 1711-yil Usmoniylar imperiyasidan qaqshatqich mag‘lubiyatga uchradi. Pyotr I rus hukmron boyarlar orasida o‘z obro‘sini yo‘qotmaslik uchun tezda Sharqqa ekspeditsiya yubordi (boshqa sababga ko‘ra Amudaryo oltinlari qiziqtirib qolgan) Ekspeditsiyaga Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy (kelib chiqishi kavkazlik

bo‘lgan) rahbarlik qildi. Bu ekspeditsiya 1714-1717-yillar davom etdi. 1717-yil Xiva xoni Sherg‘oziyxon (1715-1727) tomonidan Bekovich-Cherkasskiy va boshqa ekspeditsiya a’zolari qatl ettiriladi. Buxoro xoni Abdulfayzxon o‘zining elchisi Xonquli to‘pchiboshidan graf Gavriil Ivanovichga xat yozib mazkur qirg‘inbarotga Buxoro xonligining hech qanday aloqasi yo‘qligi, aksincha Abdulfayzxondan maktub olgan bo‘lib, unda xon Xivaga rus asirlarini ozod qilsh bo‘yicha sa’y-harakatlar qilayotgani, agarda Xiva xoni asirlarni ozod qilmasa Buxoro davlati urush qilishga tayyor ekanligini qayd etgan[6.-B.438].

Xonquli elchiga xat bilan birga Rossiya bilan tinchlik o‘rnatish, savdo aloqalarini davom ettirish, Astraxanda nohaq ayblanib Kol oroliga surgun qilingan buxorolik savdogarlarni afv etish va bir elchi yuborish iltimos qilingan. Shu munosabat bilan Xonqulito‘pchiboshi bilan 1721-yil Pyotr I elchisi asli italiyalik bo‘lgan Florio Beneveni Buxoroga keladi. F.Benevini 1721-1724-yillarda Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalar va ittifoqlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan shaxslaridan biri bo‘lib, uning faoliyati Markaziy Osiyo va Rossiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tarixida alohida o‘rin tutadi. Benevini o‘zining 3,5 yillik missiyasi davomida Buxoro xonligi bilan Xiva xonligiga qarshi Rossiya-Buxoro ittifoqini tashkil etishda qatnashgan. Ushbu ittifoq, ikkala mamlakatning hududiy xavfsizligi va mintaqaviy siyosiy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan edi. Benevini o‘zining diplomatik faoliyatida, Buxoro xonligiga urush holatida qancha askar va to‘plar jo‘natish mumkinligini aniqlash vazifasini ham bajarishi kerak edi. Bundan tashqari, Buxoro xoni Abdulfayzxonga Rossiya otryadlarini taklif qilish hamda Markaziy Osiyo siyosiy ahvolini o‘rganish lozimligi ham Benevining topshiriqlaridan biri edi. Buxoro xoni bilan o‘rnatilgan aloqalar, Rossiya tomonidan ularning xonliklarining xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan edi. Benevini o‘z faoliyatini amalga oshirgan vaqt davomida, N.Miner nomi ostida, Hirot, Balx va Badaxshonga bir necha bor tashrif buyurdi. Ushbu tashriflar davomida u Buxoro xonligi va boshqa Markaziy Osiyo hududlari haqida ma’lumotlar to‘plab, ularni Peterburgga yetkazish bilan shug‘ullangan[14.-B.23].

F.Benevini o‘zining diplomatik va maxfiy faoliyatini bajarib, 1725-yilda Peterburgga qaytib, Rossiya hukumatiga to‘plagan ma’lumotlarini taqdim etgan. Uning ishi nafaqat Rossiya-Buxoro aloqalarini mustahkamlashda, balki Markaziy Osiyo siyosatiga oid asosiy qarorlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan [1.-B.123-124].

Xulosa. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, Rossiya va Buxoro o‘rtasidagi elchilik missiyalari ikki tomonlama munosabatlarni chuqurlashtiribgina qolmay, balki ularning ichki siyosiy va iqtisodiy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Elchilarning faoliyati orqali savdo yo‘llari aniqlangan, siyosiy vaziyat o‘rganilgan, hamda muhim strategik qarorlar qabul qilingan. Shuningdek, bu aloqalar O‘rta Osiyo va Yevroosiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlarning dastlabki bosqichlarini tashkil etgan. Tarixiy tajribalarni chuqur o‘rganish – Bugungi kunda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun tarixiy asoslar va o‘zaro ishonchga tayangan aloqalarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish zarur. Diplomatik merosni saqlash va targ‘ib qilish – Elchilik aloqalari va tarixiy hujjatlarni o‘rganish orqali ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlovchi madaniy va diplomatik merosni targ‘ib etish lozim. Ilmiy hamkorlikni khuchaytirish – ushbu davrga oid arxiv hujjatlari, qo‘lyozmalar va tarixiy asarlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, qo‘shma ekspeditsiyalar va konferensiyalar tashkil etish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари (XVI-XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбаалари асосида). - Тошкент, 2017.
2. Низомиддинов И.Ф. Русско-индейские отношения в XVII веке. - Тошкент: Фан, 1966.
3. Журковский С. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трёхсотлетие. - Петорградь, 1915.
4. История посольств и дипломатических отношениях Руссией годарств. Москва, 1976.
5. Семёнов А.А. Tarixi Muqumxoniy. - Ташкент: Академии наук Узбекистан ССР, 1956.
6. Axmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. - Toshkent: O‘qtuvchi, 2001.
7. Торгова Д.К. Дипломатические отношения Бухарского ханства с Россией. Душанбе, 1965.
8. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России. - Ленинград, 1925. - С.338.
9. Zamanov A. Buxoro xonligi tarixi. - Toshkent, 2021.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.04

CHET TILLARNI O‘QITISHDA NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna, Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF SPEECH ACTIVITY IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Rakhmanova Sarvinoz Alisherovna, Researcher, Termez State Pedagogical Institute

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМИ ЯЗЫКАМИ

Рахманова Сарвиноз Алишеровна, научный сотрудник, Термезский государственный педагогический институт



https://orcid.org/0000-0078-0514-7800
e-mail: Sarvinozalisherovna@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada chet tillarni o‘qitishda nutqiy faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Nutqiy faoliyatning lingvistik, psixologik va didaktik asoslari yoritilib, chet tilini o‘rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, vazifaviy yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda raqamli texnologiyalar asosidagi o‘qitish metodlari nutqiy faoliyatni rivojlantirishda muhim omil sifatida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy faoliyat, kommunikativ kompetensiya, metodologik yondashuv, chet tilini o‘qitish, kommunikativ metod, raqamli texnologiyalar.*

Abstract: *This article analyzes modern methodological approaches to the development of speech activity in foreign language teaching. The linguistic, psychological, and didactic foundations of speech activity are discussed, as well as the importance of developing communicative competence in the process of learning a foreign language. Particular attention is given to communicative, competence-based, and task-based approaches, as well as the use of digital technologies in developing learners’ speech skills.*

Keywords: *speech activity, communicative competence, foreign language teachin.*

Аннотация: *В данной статье анализируются современные методологические подходы к развитию речевой деятельности при обучении иностранным языкам. Рассматриваются лингвистические, психологические и дидактические основы речевой деятельности, а также значение формирования коммуникативной компетенции в процессе изучения иностранного языка.*

Ключевые слова: *речевая деятельность, коммуникативная компетенция, обучение иностранным языкам, методологические подходы, коммуникативный метод, цифровые технологии.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarni o‘rganish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tilni samarali o‘rganish jarayonida nutqiy faoliyatni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki til o‘rganish jarayonining asosiy maqsadi o‘rganilayotgan til vositasida erkin muloqot qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Nutqiy faoliyat tilni amaliy qo‘llash jarayoni bo‘lib, u tinglash, gapirish, o‘qish va yozish kabi asosiy nutqiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy metodikada nutqiy faoliyatni rivojlantirish kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi [1,b.29].

So‘nggi yillarda chet tillarni o‘qitish metodikasida nutqiy faoliyatni rivojlantirishga

qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlar shakllanib bormoqda. Bu yondashuvlar til o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish, real kommunikativ vaziyatlar yaratish hamda interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Nutqiy faoliyat tushunchasi va uning ahamiyati. Nutqiy faoliyat tilshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan ilmiy tushuncha hisoblanadi. Bu tushuncha insonning til vositasida fikr almashish jarayonini ifodalaydi.

Psixolingvistika sohasida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, nutqiy faoliyat insonning kommunikativ ehtiyojlari asosida yuzaga keladi va u bir nechta psixologik jarayonlar – idrok, tafakkur, xotira va motivatsiya bilan bog‘liq holda amalga oshadi [2,b.41].

Nutqiy faoliyat quyidagi asosiy turlardan iborat: tinglash; gapirish; o‘qish; yozish.

Mazkur nutqiy faoliyat turlari o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi va til o‘rganish jarayonida bir-birini to‘ldiradi.

Kommunikativ yondashuv. Chet tilini o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuv eng samarali metodologik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan.

Kommunikativ yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish jarayonida o‘quvchilar faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki til vositasida muloqot qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishlari kerak[3,b.65].

Mazkur yondashuv nutqiy faoliyatni rivojlantirishda quyidagi metodlarni qo‘llashni nazarda tutadi:

-dialog va munozaralar;

-rol o‘yinlari;

-muammoli vaziyatlar;

-guruhli muhokamalar;

Vazifaviy yondashuv (Task-based learning). Zamonaviy metodikada nutqiy faoliyatni rivojlantirishda vazifaviy yondashuv ham muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarga yaqin vazifalarni bajarish orqali tilni o‘rganish imkonini beradi.

Vazifaviy yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish hamda ularni til vositasida muammolarni hal qilishga o‘rgatishdan iboratdir [4, b.72].

Masalan: loyiha ishlari; muammoli topshiriqlar; taqdimotlar; interaktiv mashg‘ulotlar.

*Kompetensiyaviy yondashuv***.** Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tizimida ham til o‘rganish jarayonining asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdan iborat ekanligi ta’kidlangan [5,b.14].

Kommunikativ kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: lingvistik kompetensiya; sotsiolingvistik kompetensiya; pragmatik kompetensiya.

*Raqamli texnologiyalar asosida nutqiy faoliyatni rivojlantirish***.** So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga keng joriy etilmoqda. Onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual sinf muhitlari hamda multimedia resurslari nutqiy faoliyatni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga autentik kommunikativ muhit yaratish imkonini beradi hamda ularning nutqiy faolligini oshiradi[6,b.58].

Xulosa. Chet tillarni o‘qitishda nutqiy faoliyatni rivojlantirish zamonaviy til o‘qitish metodikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kommunikativ yondashuv, vazifaviy yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda raqamli texnologiyalar asosidagi o‘qitish metodlari nutqiy faoliyatni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.Mazkur metodologik yondashuvlar til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish hamda ularning nutqiy faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hymes D. Communicative Competence. – Philadelphia, 1972.
2. Leontyev A. Psixolingvistika asoslari. – Moskva, 2003.
3. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge University Press, 2004.
5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages. – Cambridge, 2001.
6. Levy M. Computer-Assisted Language Learning. – Routledge, 2006.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 03.30.2026 UDK: 2-587:821.512.133.09

TASAVVUF TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI. XALQ KITOBLARIDA TASAVVUF ALLOMALARI OBRAZI


Buriyeva Shaxnoza Alisher qizi,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

FORMATION OF THE CONCEPT OF TASAVVUF. THE IMAGE OF SUFI SCHOLARS IN FOLK BOOKS

Buriyeva Shakhnoza Alisher qizi,
PhD student at Termez State University

ФОРМИРОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ТАСАВВУФА. ОБРАЗ УЧЕНЫХ ТАСАВВУФА В НАРОДНЫХ КНИГАХ

Буриева Шахноза Алишеровна,
базовый докторант Термезского государственного университета



sh.b.alisherovna@gmail.com
Orcid: 0009-0007-6994-616X

Annotatsiya*: Tasavvuf allomalarining obraz sifatida shakllanishi uzoq tarix, tasavvuf shayxlari, avliyolar hayoti, faoliyati, karomatlari aks etgan xalq kitoblari bilan bog‘liqdir. Xalq kitoblari tasavvuf allomalari, shayx va valiylar haqidagi dastlabki ilmiy-nazariy ma’lumotlarni taqdim etuvchi asarlardir. Tasavvuf allomalari obrazlari aks etgan bunday kitoblar tasavvufiy yo‘lni, Allohga bo‘lgan muhabbatni, ruhiy yuksalishni va insonning ma‘naviy rivojlanishiga qaratilgan falsafani o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *hol ilmi, xalq kitobi, avliyo, murshid, tavakkul, tavassul, Rijolul g‘ayb, chiltonlar.*

Abstract: *The formation of Sufi scholars as literary images is closely linked to a long history and folk books that reflect the lives, activities, and miracles (karamats) of Sufi sheikhs and saints. Folk books are works that provide the initial scientific and theoretical information about Sufi scholars, sheikhs, and waliys. Such books, which depict the images of Sufi scholars, encompass the Sufi path, love for Allah, spiritual elevation, and a philosophy aimed at the spiritual development of the individual.*

Keywords*: science of states (hal ilmi), folk book, saint (awliya), murshid, tawakkul (reliance), tawassul, Rijal al-Ghayb, chiltons.*

Аннотация: *Становление ученых тасаввуфа (суфизма) как образов связано с долгой историей и народными книгами, в которых отражены жизнь, деятельность и караматы (чудеса) суфийских шейхов и святых (авлия). Народные книги являются произведениями, представляющими первичные научно-теоретические сведения о суфийских ученых, шейхах и валиях. Книги, в которых отражены образы ученых тасаввуфа, включают в себя суфийский путь, любовь к Аллаху, духовное возвышение и философию, направленную на духовное развитие человека.*

Ключевые слова: *наука состояний (хол илми), народная книга, святой (авлия), муршид, тавакkул (упование), тавассул, Риджалул-гайб, чилтоны.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jahon ilmiy-falsafiy merosi taraqqiyotida tasavvuf allomalarining ilmiy-irfoniy, falsafiy-axloqiy ta’limotlari, xususan, olam va odam munosabatlari, tabiat va jamiyat, insonning ijtimoiy mohiyatiga oid qarashlari doirasida fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, dunyo sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo‘shgan mutasavvuflar merosidagi insonparvarlik maqsadlariga yo‘naltirilgan inson mohiyatiga doir ta’limotlarni tadqiq etish, insonning ezgulik va yovuzlikka moyilligi sabablarini ochib berish, tasavvufning gumanistik mohiyatini asoslash zarurati bugungi kunda ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda, tasavvuf ta’limotidagi bag‘rikenglik, tinchlik, adolat, ruhiy-ma’naviy uyg‘unlik, o‘zaro hamjihatlikka oid

falsafiy-irfoniy g‘oyalarni tadqiq qilish bugungi ilm-fanning zaruriy tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda tasavvufiy merosdagi olam va odam, inson tabiati, shaxs ma’naviyati, insonparvarlik, ta’lim va tarbiyaga oid ta’limotlarni tadqiq etish, ularning zamon ruhiga mos g‘oyalaridan o‘sib kelayotgan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashda foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Mamlakatimizda “jaholatga qarshi-ma’rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi”. Shu jihatdan olganda, islom dinining insonparvarlik mohiyati targ‘ibotida muhim o‘rin tutgan tasavvuf ta’limoti ayniqsa, ilk Renessans va so‘nggi Renessans davrida gumanistik tamoyillar asosida shakllangan irfoniy-falsafiy ta’limotlarning insonparvarlik maqsadlarga yo‘naltirilgan g‘oyalarini har tomonlama ilmiy-nazariy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tasavvuf islomdan uzoq ta’limot yoki unga yot harakat sifatida o‘zini ko‘rsatgan emas. Tasavvuf biror bir mazhab yoki shayxning shaxsiy maslagi asosidagi g‘oyalardan iborat ta’limot bo‘lmagan. Professor I.Haqqulov ta’kidlaganidek, tasavvuf tarixi juda uzoq, ayni paytda nihoyatda murakkab bir tarixdir. Hazrati Payg‘ambar davrida barcha islom ilmlari mushtarak bo‘lib, fiqh, kalom, tasavvuf deya ajratishlar bo‘lmagan. Qur’onda tasavvuf so‘zi uchramasada, u Qur’on va Sunnadan quvvat oladi. Muhammad Payg‘ambar davrlarida ham bu so‘z deyarli qo‘llanilmagan [1].

Tasavvufning tub mohiyati, zuhd va taqvo bilan axloqni go‘zallashtirish, ruhni sayqallashtirib, tafakkur kuch-quvvati bilan qalbni mosivodan xolos qilib komillikka erishishdir. Shu ma’noda tasavvufni xulq, qalb, hol ilmi ham desa bo‘ladi. Uning tili ham “qush tili”, “ko‘ngil tili” deb ta’riflangan. Tasavvuf inson qalbini, uning botinini poklaydigan, isloh qiladigan ta’limotdir. Uning g‘oyasi insonni isloh qilish, qalbini yuksaltirish, Allohning rizoligiga erishtirishdan iborat bo‘lib, insonni “ikki dunyo saodati” ga yetishini ko‘zlaydi. Tasavvuf nafsni tarbiyalash, ruhni poklash, go‘zal axloqqa yetishish tajribasi bilan insonni yuksak martabalarga ko‘taradi. Shuningdek, boshqa mavjudotlardan butkul xoli bo‘lgan “komil”lik sari undaydi. Shayx Suxravardiy fikriga ko‘ra, tasavvufning avvali ilm, o‘rtasi amal, oxiri ilohiy ishqdir. Ilm maqsadni kashfga yo‘naltiradi, amal tolibga yordamchi bo‘ladi, muhabbat insonni Allohga vosil etadi. Shuning uchun tasavvuf tariqatlari va uning ma’no olamiga alohida bir e’tibor lozim. Dunyoning foniyligini bilish va uni butga aylantirmaslik, o‘tkinchi olam ish va tashvishlari deb mehr-muhabbat, shafqat va muruvvat talablaridan aslo chetlashmaslik muhim, bular islomiy asoslar bo‘lib, tasavvuf taraqqiyoti uchun alohida ahamiyat kasb etgan. Insonni ulug‘lash uning o‘zligini anglashi va olamda barcha yaratiqlar ichida mukarrami ekanligini anglatish g‘oyasi aynan shu qarashlar zamirida mujassam [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O‘rta asrlarda Osiyoda tasavvufning shakllanishi uni yuksak darjada ma‘rifiy dasturga aylantira olgan ilm egalari va tasavvuf allomalari nomi bilan bog‘liqdir. Mashhur arab tasavvufshunosi Abul A‘lo Afifiy tasavvufni “Islomdagi ma‘naviy inqilob” deb baholaydi. Uning ta‘kidlashicha, tasavvuf, faylasuf, kalomchi va faqihlar qo‘llagan quruq, yakrang tushunchalarga qarshi shiddatli bir inqilobdir. Tasavvuf islomga yangi bir ruh olib keltirgandi. Bu ruhni to‘g‘ri anglay bilgan kishi islomiy ta’lim-tarbiya ruhini bexato anglab bilganidek, noto‘g‘ri tushungan ham uni yanglish qabul qiladi. Demak, tasavvufning kelib chiqishini eski Yunondan, hind madaniyatidan yoxud fors hurriyatchiligidan izlash, g‘ayriilmiy yo‘lini tanlashdan boshqa narsa emas. Tasavvuf bir qancha murakkablik va ziddiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Uni to‘g‘ri anglash va imkon qadar undan foydalanish uchun tasavvufni alohida-alohida bir necha qismda tadqiq etish kerak [3].

Ulardan birinchisi, so‘fiylik tarixi. Umumiy tarzda bo‘lsa hamki, bu tarixni bilmay turib, tasavvufning dunyoga kelish sabablari, shakllanish va taraqqiyot jarayonidagi qarama-qarshiliklar, ilk davr so‘fiylik bilan, tariqatlar hamda vahdati vujud maydonga chiqqandan keyingi davr tasavvuf tamoyillari haqida ishonchli fikr-mulohazalarni ilgari surish qiyin.

Ikkinchisi, so‘fiylik amaliyotini aks ettiradigan muassasa, ya’ni tariqat bilan qiziqish tushuniladi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa, tariqat bir ta’lim-tarbiya tizimi

sifatida allaqachon o‘z hayotini yashab bo‘lgan. Oldingi shakllarda uni qayta tiriltirishni hatto xayolga ham keltirib bo‘lmaydi. Ammo undan axloqni poklash, ruh va ko‘ngilni komillashtirish, ma‘naviy hayotdagi muammolarni hal etishda foydalanish mumkin [4].

Demak, tasavvufning nazariy tushunchalari, g‘oyalari uning mazmuni g‘oyaviy mohiyati muhim sanaladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, har bir shayx o‘zining shaxsiy tajribasiga tayangan va uni yagona tariqat yoki tajriba sifatida e’tirof etmagan. Tariqatlarning xilma-xilligi ularning maqom va hol martabalaridagi darajalari ham turlicha bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq, maqsad bir Allohning vasliga erishish uning roziligini topishdan iborat.

Uchinchi qism bu – tasavvuf adabiyotidir. San’at, falsafa, musiqaga qaraganda ham tasavvufning badiiy adabiyot bilan aloqasi ancha chuqur va miqyoslidir. Biroq tasavvufiy fikr-qarash, qonun-qoida, ma’no, tushuncha va haqiqqatlar targ‘ib-tashviqiga safarbar etilgan adabiyot bilan, ya’ni zuhd adabiyoti, tariqat adabiyoti bilan, Sharq mumtoz adabiyotidan o‘rin egallagan tasavvufiy “ramz, istiora” ayni bir narsa, ayni bir ijodiy hodisa emas. Agar masalaning xuddi shu jihati e’tiborga olinmasa, mumtoz adabiyotning badiiylik xususiyatlari tasavvurdan chetda qoladi [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tasavvuf badiiy tafakkurni rivojlantirdi, yangi g‘oyalar bilan boyitdi. Adabiyotda yangi yo‘nalishga asos bo‘lib xizmat qiladigan insonparvar g‘oyalarni olib kirdi. Olam va odam munosabatlarining adabiy asarlarda aks etishi inson zotini yangi mavzularda bosh masalaga aylantirdi.

Bu haqda fikr yuritar ekanmiz, dastlab xalq kitoblari tushunchasini izohlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. “Xalq kitobi” atamasi nemis adabiyotshunosligida XVIII asrning oxiri – XIX asr boshlarida adabiyotdagi romantizm namunalariga nisbatan ilmiy istiloh sifatida qo‘llanilganligi tadqiqotlarda ta’kidlanadi [8]. Bu termin o‘zbek folklorshunosligida ilk bor V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar tomonidan “narodnaya kniga” tarzida qo‘llanilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida ham bu termin keng ifoda etilmoqda. Mavjud tadqiqotlarning ba’zilarida xalq kitobi “doston”, boshqalarida esa “qissa” deb yuritiladi. Xalq kitobining syujeti folklor yoki biron bir yozma manbada bo‘lgan. Ana shu syujetni roviy yoki qissaxon qayta ishlagan, shoir esa unga durustroq sayqal berib, adabiy obida holiga keltirgan, kitobat qilgan. Xalq kitobining mualliflari o‘zlari murojaat etgan, qalamga olgan syujetni, asosan, rivoya usulida, novellistik yo‘l bilan hikoya qilganlari uchun bu asarlarni ko‘proq qissa deb ataganlar va bu terminga xalq kitoblari xususiyatlarini ifodalay oluvchi istiloh sifatida qaralgan. Xalq kitobi mualliflari “qissa” va “rivoyat” so‘zlari bilan, bu so‘zlarni asar sarlavhasining boshlanishida aniqlovchi sifatida qo‘shib ishlatish bilan o‘zlari yaratgan xalq kitobi xususiyatlarini, janr belgilarini ta’kidlamoqchi bo‘lganlar.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Tasavvuf allomalari, ularning asarlari va ta’limotlari o‘zbek xalqining ruhiy va ma’naviy dunyosida ulkan o‘rin tutadi. Xalq kitoblarida tasavvuf allomalari haqida yozilgan asarlar, ular orqali xalqning axloqiy yuksalishini va ruhiy poklanishini ko‘rsatib, tasavvufiy ilmning hayotga qanday tatbiq etilishi mumkinligini ochib beradi. Demak, xalq kitoblarida tasavvuf vakillari insonni komillikka yetaklovchi ma’naviy ustoz, mushkul paytda tayanch bo‘ladigan g‘oyibona madadkor, jamiyatda adolat va poklikni saqlovchi axloqiy timsol sifatida xulosalanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Carra de Vaux, Gazali F. Alcan Paris, 1902.
2. Haqqul I. Ahmad Yassaviy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
3. Homidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. – Toshkent: Sharq, 2004.
4. Islom tasavvufi manbalari (Tasavvuf nazariyasi va tarixi). Tuzuvchi va izohlar muallifi: Boltaboyev H. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
5. Karomatov X. Qur’on va o‘zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1993.
6. Ko‘prulu F. Turk edebiyatinda ilk mutasavviflar. Turk tarih kurumu basimevi-Ankara.1976. – 556 s.
7. O‘zbek adabiyoti tarixi. Mas’ul muharrir V.Abdullayev. Besh tomlik, 3-tom. – Toshkent: Fan, 1978.
8. Quronov D., Mamajanonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 03.30.2026 UDK: 801.85:92.109

SOVET ITTIFOQINING INQIROZI ARAFASIDA DINIY FAOLLIKNING KUCHAYISHI

Vaydullayev Axmad,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi

THE RISE OF RELIGIOUS ACTIVISM ON THE EVE OF THE COLLAPSE OF THE SOVIET UNION

Vaydullaev Akhmad,
Independent Researcher at Tashkent State University of Oriental Studies

РОСТ РЕЛИГИОЗНОГО АКТИВИЗМА НАКАНУНЕ РАСПАДА СОВЕТСКОГО СОЮЗА

Вайдуллаев Ахмад,
независимый исследователь Ташкентского государственного университета востоковедения



ahmad234@mail.ru

https://orcid/org/0009-0004-3020-2719

Annotatsiya: *Maqolada Sovet Ittifoqining qulashi arafasida jamoatchilik ongining chuqur o‘zgarishining asosiy ko‘rsatkichi sifatida sovet davrining oxirlarida diniy faollikning yuksalishi o‘rganiladi. Muallif 1980-yillarning oxirlaridagi diniy safarbarlik mafkuraviy nazoratning zaiflashishiga emas, balki keng ijtimoiy guruhlarning - an’anaviy dinlardan tortib, ma’naviy jamoalarning yangi shakllarigacha - tiklangan faoliyatining namoyon bo‘lishi ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *diniy faollik, ma’naviy tiklanish, vijdon erkinligi, konfessiyalararo safarbarlik, millatlararo munosabatlar, Markaziy Osiyoda islom.*

Annotation: *The article examines the rise of religious activism in the late Soviet period as a key indicator of a profound shift in public consciousness on the eve of the collapse of the Soviet Union. The author shows that the religious mobilization of the late 1980s was not a sign of a weakening of ideological control, but a manifestation of the renewed activity of a wide range of social groups - from traditional religions to new forms of spiritual communities.*

Key words: *religious activism, spiritual revival, freedom of conscience, interfaith mobilization, interethnic relations, Islam in Central Asia.*

Аннотация: *В статье рассматривается рост религиозного активизма в позднесоветский период как ключевой показатель глубокого сдвига в общественном сознании накануне распада Советского Союза. Автор показывает, что религиозная мобилизация конца 1980-х годов была не признаком ослабления идеологического контроля, а проявлением возобновленной активности широкого круга социальных групп – от традиционных религий до новых форм духовных общин.*

Ключевые слова: *религиозный активизм, духовное возрождение, свобода совести, межконфессиональная мобилизация, межэтнические отношения, ислам в Центральной Азии.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Sovet hukumati tomonidan 1917-yilgi Oktabr inqilobidan so‘ng darhol davlat ateizmi siyosatini qabul qilish diniy institutlar va ma’naviy amaliyotlarning misli ko‘rilmagan darajada bostirilishiga olib keldi. Biroq, bunday mafkuraviy bosim diniy o‘ziga xoslikni butunlay yo‘q qila olmadi, ayniqsa, din nafaqat ma’naviy tayanch, balki etnik o‘zini o‘zi aniqlash omili bo‘lib xizmat qilgan mintaqalarda. Markaziy Osiyoning islom jamoalari, Sibirning eski dindorlari, G‘arbiy Ukraina katoliklari va Volga mintaqasidagi protestantlar misollari qatag‘onlar, cherkovlarning yopilishi va ommaviy dinga qarshi targ‘ibotga qaramay, diniy madaniyatning saqlanib qolganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /

MATERIALS AND METHODS). 1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab Sovet jamiyatida diniy ongning “ichki uyg‘onishi” tendensiyasi paydo bo‘la boshladi. Bu to‘lqin, ayniqsa, rasmiy ta’limot va real hayot amaliyotlari o‘rtasidagi tafovut tufayli yuzaga kelgan tobora kuchayib borayotgan mafkuraviy inqiroz fonida sezilarli bo‘ldi. Ateizm o‘zining jozibadorligini yo‘qotayotgan bir paytda, dindorlik qarshilik ramzi va qonuniy makonlardan ko‘chirilgan individual va jamoaviy o‘ziga xoslikni ifoda etish vositasiga aylandi. Nafaqat an’anaviy dinlar, balki yangi ma’naviy harakatlar ham muhim rol o‘ynadi, ularning yer osti faoliyati muqobil jamoani tashkil etdi. Bu “diniy yer osti jabhasi” – baptistlardan tortib so‘fiylargacha – so‘nggi sovet byurokratiyasi davrida turli ijtimoiy kapital manbai va noyob ma’naviy avtonomiyaga aylandi. Xususan, O‘zbekiston SSRda dindorlik hech qachon jamoatchilik doirasidan butunlay yo‘q qilinmagan. Islom institutlari, Din ishlari bo‘yicha kengash tomonidan nazorat qilinishiga qaramay, oilaviy va kundalik amaliyotlar, marosimlar va norasmiy hokimiyat tizimiga ta’sirini saqlab qoldi. 1980-yillarning boshlaridayoq musulmonlarning o‘zini o‘zi boshqarishining mahalliy an’analariga asoslangan harakatlar kuchayishni boshladi, bu norasmiy mahallalar sonining ko‘payishida aks etdi, bu yerda imom yoki oqsoqol samarali ravishda aholi va hokimiyat o‘rtasida ma’naviy yetakchi va vositachiga aylanadi [3].

MUHOKAMA/ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION

Qayta qurish boshlanishiga kelib, davlatning to‘liq nazoratidan jamoatchilikning charchoqlanishi o‘zini ifoda etishning gorizontal shakllarining kuchayishiga olib keldi. Shu nuqtai nazardan, din klassik siyosiy ma’noda emas, balki avtonom agentlikni tiklash mexanizmi sifatida muxolifat faoliyati uchun kanalga aylandi. Diniy xizmatlarda ishtirok etish, diniy adabiyotlarni tarqatish va yer osti yakshanba maktablarini tashkil etish – bularning barchasi rasmiylar nazarida norozilik shakli bo‘lib qoldi. Biroq, 1987-yilga kelib, Sovet hukumati qisman xalqaro inson huquqlari tashkilotlarining bosimi va “glasnost”ga bo‘lgan ichki talablar ostida dinga bo‘lgan munosabatini asta–sekin qayta ko‘rib chiqishni boshladi. Bu ilgari taqiqlangan jamoalar va harakatlarni, masalan, yangilangan baptistlar ittifoqlari, adventistlar, G‘arbiy Ukrainadagi katolik cherkovlari va Markaziy Osiyodagi islom madrasalarini qonuniylashtirishga yo‘l ochdi [1].

Nazorat, qatag‘on va chetlashtirishga asoslangan diniy tartibga solishning Sovet modeli asta–sekin bag‘rikenglik modeliga yo‘l ochib berdi. Biroq, bu o‘zgarish davlatning irodasi bilan emas, balki pastdan o‘z huquqlarini tashkil etish, safarbar qilish va himoya qilishga qodir bo‘lgan dindorlarning tobora ko‘payib borayotgan sonining bosimi natijasida sodir bo‘lmoqda. Shunisi e’tiborga loyiqki, bu davrda nafaqat an’anaviy institutlar, balki diniy ziyolilar – ruhoniylar, muftiylar, olimlar va publitsistlar ham faollasha boshladilar, mamlakat kelajagida dinning roli haqida jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etdilar. Sovet matbuotining so‘nggi davrida diniy jurnalistikaning paydo bo‘lishi, ruhoniylarning Xalq frontlarida va hatto mahalliy Sovetlar ichida ishtiroki – bularning barchasi xususiy sohadan tashqariga chiqadigan yangi diniy faollik shaklining paydo bo‘lganidan dalolat beradi [2]. Bu jarayonda diniy jamoalarning, ayniqsa SSSR chekkalaridagi etnosiyosiy harakatlar bilan o‘zaro ta’siri alohida ahamiyatga ega edi. Litva, Latviya va Estoniyada katolik va lyuteran cherkovlari mustamlakachilikka qarshi nutqning bir qismiga aylandi. Zakavkaziyada Arman Apostol cherkovi milliy harakatlarni faol qo‘llab–quvvatladi. Musulmon mintaqalarida diniy marosimlar va bayramlar ramziy qarshilik harakatlariga aylandi. Shunday qilib, din o‘zini siyosiy safarbarlikning yangi shakllari tarkibiga qo‘shib oldi, ko‘pincha milliy partiyalar yoki suverenitet harakatlari bilan ittifoqda [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). 1980 va 1990-yillar oxirlarida diniy amaliyotlarning kuchayishi tashkiliy avtonomiyaning o‘sishi bilan birga keldi. Diniy binolarning ommaviy ochilishi, monastirlarning qaytishi va ma’naviy markaz-larning ro‘yxatdan o‘tkazilishi – bularning barchasi markaziy nazoratning zaiflashishi sharoitida sodir bo‘ldi. Shu bilan birga, norasmiy diniy ta’lim muas-sasalari, ziyorat harakatlari va xayriya tashabbuslari paydo bo‘ldi. Ba’zi hollarda, qayta qurish tartib-sizliklari, partiya nazoratining yo‘qolishi va maf-kuraviy ustunlarning yo‘q qilinishi sharoitida diniy tashkilotlar kam sonli barqaror tuzilmalardan biriga aylandi. Markaziy Osiyo respublikalarida noyob vaziyat kuzatilmoqda: Islom nafaqat e’tiqodlar tizimi sifatida, balki madaniy kodlash shakli sifatida

ham mustahkamlanib, postsovet identifikatsiyasining shakllanishiga hissa qo‘shmoqda [5].

1980-yillarning oxirlarida diniy faoliyatning bu keskin o‘sishini faqat davlat siyosatining liberallashuvi bilan izohlab bo‘lmaydi. Buning asosiy sabablari uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan, o‘nlab yillar davomida bostirilgan ma’naviy o‘zini o‘zi aniqlash istagida yotadi, bu esa yangi sharoitlarda o‘z ifodasini topdi. Shunisi e’tiborga loyiqki, bu faollik turli shakllarda namoyon bo‘ldi: rus pravoslav an’analarida ommaviy suvga cho‘mishdan tortib, musulmon, protestant va katolik jamoalari tomonidan qatag‘onlarga uyushgan qarshilik ko‘rsatishgacha. Ko‘plab xristian guruhlari, ayniqsa Pentekostallar va Adventistlar orasida, yer osti xizmatlarini o‘tkazdilar, samizdat diniy adabiyotlarini nashr etdilar va bolalarga yashirincha din asoslarini o‘rgatdilar. Bu harakatlarni shunchaki tor ma’noda dindorlikning ifodasi sifatida talqin qilib bo‘lmaydi; ular fuqarolik faolligining bir shakliga aylandi, ba’zan dunyoviy muxolifatdan ko‘ra samaraliroq. Dindorlarning davlat institutesionalizatsiyasidan tashqariga chiqadigan muqobil jamoalarni yaratish istagi ayniqsa yaqqol ko‘rinib turibdi. Yer osti ilohiyot maktablari, ilohiyot kurslari va muqaddas matnlarni o‘rganish uchun uy uchrashuvlarining paydo bo‘lishi, SSSRning oxirgi davrida diniy faollik ta’lim, ma’rifiy va hatto siyosiy–madaniy funktsiyaga xizmat qilganidan dalolat beradi. Turli din vakillari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning kuchayishi, ayniqsa vijdon erkinligi uchun kurashda kuzatildi. Norasmiy guruhlar tomonidan tashkil etilgan konferensiyalarda ko‘pincha pravoslav, musulmon, protestant va katolik faollari ishtirok etishgan, ularni ma’naviy tiklanish va mafkuraviy diktaturalarga qarshilik ko‘rsatishning umumiy g‘oyasi birlashtirgan.

Muhim burilish nuqtasi Sovet matbuotida dinga qarshi kampaniyani tanqidiy baholovchi dastlabki materiallarning nashr etilishi bo‘ldi. 1988-yildan boshlab matbuot, ayniqsa mintaqaviy matbuot, vayron qilingan cherkovlar, unutilgan ma’naviy yetakchilar va tarixiy xotiraning buzilishi haqida tobora ko‘proq materiallarni nashr eta boshladi. Bunga diniy bayramlarni tiklash, monastirlar va cherkovlarni dindorlarga qaytarish va ta’lim muassasalariga diniy madaniyat asoslarini joriy etish bo‘yicha ommaviy talablar hamroh bo‘ldi. 1989–1990-yillarda SSSRda diniy erkinlik masalalari bo‘yicha bir qator konferensiyalar va jamoatchilik tinglovlari bo‘lib o‘tdi, ularda ruhoniylar vakillari ko‘pincha axloq, tarixiy yarashish va jamiyatni ma’naviy davolash masalalari bo‘yicha mustaqil ekspertlar sifatida ishtirok etdilar. Bu davrdagi diniy faollikning asosiy xususiyati uning an’anaviy ma’noda siyosatdan chetda qolishi edi. Partiya yoki kasaba uyushma harakatlaridan farqli o‘laroq, diniy jamoalar madaniy tiklanish va axloqiy yangilanish mantig‘i doirasida harakat qilishdi. Biroq, mafkuraviy monopoliyaning qulashi bilan bu shakllar siyosiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Sovet Ittifoqi qulashidan oldingi diniy faollik nafaqat nazoratning yumshatilishiga reaksiya, balki tashqi ta’sir natijasi ham emasligini ta’kidlash kerak. Bu uzoq vaqt bostirilgan, ammo so‘nmagan ma’naviy, axloqiy va madaniy uyg‘onishning chuqur jarayonlarining tabiiy natijasi edi. Bu uyg‘onish ko‘p qirrali bo‘lib, xususiy ma’naviy izlanishlardan tortib ommaviy jamoat tashabbuslarigacha bo‘lgan. Uning muvaffaqiyati an’analar va zamonaviylikni, axloq va harakatni, shaxsiy e’tiqodni va jamoaviy mas’uliyatni birlashtirish qobiliyatida edi. 1980-yillar oxiridagi diniy faollik nafaqat SSSR qulashi tarixining bir qismiga aylandi, balki postsovet hududida yangi o‘ziga xosliklar va madaniy va siyosiy landshaftlarni shakllantirish uchun asos bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Каариайнен К., Фурман Д.Е. Верующие, атеисты и прочие (эволюция российской религиозности) // Вопросы философии. – 1997. – №6. – С. 24–35.
2. Красиков А.А. Религии в России – фактор укрепления или распада государства? // Современная Европа. – 2003. – №2. – С. 60–74.
3. Курбангалеева Е.Ш. Гражданское общество и активизм: этапы, проблемы и развилки // СоциоДиггер. – 2021. – №3. – С. 105–112.
4. Люцканов Й. Образование СССР: взгляд на проблему межэтнического регулирования в XX веке спустя 100 лет // Вестник Гуманитарного университета. – 2023. – №1. – С. 45–53.
5. Акаев В.Х. Социально–экономические факторы дерадикализации ислама на Северном Кавказе (анализ воззрений Е.М. Примакова) // Исламоведение. – 2017. – №1. – С. 90–100.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 342.15

КИССАВУРЛИКНИНГ ЖИНОИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАВСИФИ: ЖИНОЯТ ОБЪЕКТИ ВА ПРЕДМЕТИ МУАММОЛАРИ

Хамракулов Лочинбек Эркинжон ўғли,
Фарғона вилояти ИИБ Тезкор қидирув хизмати Ноошкора фаолият ва тезкор ҳамкорликни таъминлаш бўлими ўта муҳим ишлар бўйича тезкор вакил,
ИИВ Академияси мустақил изланувчиси

CRIMINAL AND LEGAL DESCRIPTION OF LITIGATION: PROBLEMS OF THE OBJECT AND SUBJECT OF THE CRIME

Khamraqulov Lochinbek Erkinjonovich,
Senior Operative Officer for Particularly Important Cases, Department for Covert Activities and Operational Cooperation, Operational Search Service of the Fergana Regional Department of Internal Affairs, Independent Researcher, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

УГОЛОВНО-ПРАВОВОЕ ОПИСАНИЕ СУДЕБНОГО РАЗБИРАТЕЛЬСТВА: ПРОБЛЕМЫ ОБЪЕКТА И СУБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Хамракулов Лочинбек Эркинжонович,
оперуполномоченный по особо важным делам отдела обеспечения негласной деятельности и оперативного сотрудничества службы оперативного розыска УВД Ферганской области, самостоятельный соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

e-mail: lochinbekhamraqulov@gmail.com

Аннотация: *Мазкур мақолада киссавурлик жиноятининг (Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодекси 169-моддаси 2-қисми “а” банди) жиноий-ҳуқуқий тавсифи таҳлил этилган. Асосий эътибор жиноят объектининг баҳсли жиҳатларига қаратилган. Муаллиф киссавурликни соф мулкий жиноят эмас, балки икки объектли жиноят деб ҳисоблаш лозимлигини асослайди. Унда асосий объект – мулкий муносабатлар, қўшимча бевосита объект эса – шахснинг жисмоний дахлсизлиги ва хотиржамлигидир. Шунингдек, жиноят предметининг жойлашувига оид “кийим-кечак”, “сумка” ва “бошқа қўл юки” каби баҳоловчи тушунчаларнинг амалиётда турлича талқин этилиши муаммолари кўрсатилган. Таҳлил натижасида ҳуқуқни қўллаш амалиётида бир хилликни таъминлаш мақсадида Олий суд Пленуми қарорига аниқлаштирувчи қўшимчалар киритиш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *киссавурлик, ўғрилик, жиноят объекти, икки объектли жиноят, қўшимча объект, жиноят предмети, баҳоловчи тушунча, қўл юки, Олий суд Пленуми қарори, квалификация, шахсий дахлсизлик.*

Abstract: *This article analyzes the criminal-legal characteristics of pickpocketing (Art. 169(2)(a) of the Criminal Code of Uzbekistan). The main focus is on the disputed aspects of the crime's object. The author argues that pickpocketing is not purely a property crime but a dual-object crime, where the primary object is property relations, and the additional direct object is personal physical integrity and tranquility.*

It also highlights practical problems of varied interpretation of evaluative concepts regarding the location of the crime's predicate, such as "clothing," "bag," and "other hand luggage". Based on the analysis, proposals are developed to introduce clarifications into the Resolution of the Plenum of the Supreme Court to ensure uniformity in law enforcement practice.

Keywords: *pickpocketing, theft, object of the crime, dual-object crime, additional object, predicate of the crime, evaluative concept, hand luggage, Resolution of the Plenum of the Supreme Court, qualification, personal integrity.*

Аннотация: *В данной статье анализируется уголовно-правовая характеристика карманной кражи (п. «а» ч. 2 ст. 169 УК РУз). Основное внимание уделяется спорным аспектам объекта преступления. Автор обосновывает, что карманная кража является не чисто имущественным, а двухобъектным преступлением, где основной объект – имущественные отношения, а дополнительный непосредственный объект – личная физическая неприкосновенность и спокойствие. Также указаны проблемы различного толкования на практике оценочных понятий, касающихся места нахождения предмета преступления – «одежда», «сумка» и «другая ручная кладь». По результатам анализа разработаны предложения по внесению уточнений в Постановление Пленума Верховного суда для обеспечения единообразия в правоприменительной практике.*

Ключевые слова: *карманная кража, кража, объект преступления, двухобъектное преступление, дополнительный объект, предмет преступления, оценочное понятие, ручная кладь, Постановление Пленума Верховного суда, квалификация, личная неприкосновенность.*

КИРИШ

Мулкка қарши жиноятлар тизимида ўғрилик энг кенг тарқалган қилмишлардан бири бўлиб, унинг ижтимоий хавфлилиги даражаси жиноят содир этиш усули, жойи ва бошқа ҳолатларга қараб табақалаштирилади. Қонун чиқарувчи ўғриликнинг алоҳида квалификацияланган тури сифатида Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси ЖК 169-моддаси 2-қисми “а” бандида “киссавурлик” учун жавобгарликни белгилаган[1]. Бу, ўз навбатида, фуқароларнинг мулкий дахлсизлигини таъминлаш, жамоат тартибини сақлаш ва жамиятда ҳуқуқ устуворлигини мустаҳкамлаш вазифалари билан чамбарчас боғлиқдир.

Қонун чиқарувчининг киссавурликни алоҳида квалификация қилиши, бу турдаги жиноятнинг ўзига хос хусусиятлари ва айнан жамоат хавфсизлигига юқори даражада таҳдид солиши билан изоҳланади. Ушбу жиноят таркибини тўғри квалификация қилиш учун унинг жиноий-ҳуқуқий белгиларини батафсил таҳлил қилиш муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, киссавурлик объекти ва предметини тушунишда бир нечта баҳсли жиҳатлар ва муаммолар мавжуд. Мазкур мақоланинг мақсади киссавурлик жиноятининг объекти ва предметига оид назарий ва амалий муаммоларни таҳлил қилиш ҳамда уларни бартараф этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқишдан иборат.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ

Тадқиқотда жиноят-ҳуқуқий таҳлилнинг тизимли-таркибий, формал-юридик (догматик) ва қиёсий-ҳуқуқий методларидан фойдаланилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят [2] ва Фуқаролик [3] кодекслари нормалари, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги

[1] Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2012-XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1995. – № 1. – 3-м. – URL: https://lex.uz/docs/111453 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

[2] Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2012-XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1995. – № 1. – 3-м. – URL: https://lex.uz/docs/111453 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

[3] Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрдаги 163-I-сон Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1996. – № 2-сонга илова. – URL: https://lex.uz/docs/111189 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

6-сонли қарори [4] мазмуни таҳлил қилинди. Шунингдек, Р. Кабулов [5], А.И. Рарог, Г.Н. Борзенков[6] каби ҳуқуқшунос олимларнинг назарий қарашлари ўрганилди. Тадқиқотнинг амалий асосини Қўқон шаҳар ИИО ФМБ ЖҚБ ходимлари билан ўтказилган суҳбат натижалари ҳамда жиноят ишлари бўйича Қўқон шаҳар судининг амалиётидан олинган иш ташкил этади.

НАТИЖАЛАР

1. Киссавурликнинг ҳуқуқий таърифи ва объекти муаммоси

Ўзбекистон Республикаси жиноят қонунчилигида "киссавурлик" ўғрилик жиноятининг оғирроқ жазога сабаб бўлувчи квалификацияланган таркиби сифатида эътироф этилади. Олий суд Пленумининг 6-сонли қарори 2-бандида унга қуйидагича таъриф берилган, "Жабрланувчининг эгнида бўлган кийим-кечаги, қўлидаги ёки бевосита ёнида бўлган сумка, чамадон ва бошқа анжомларидан содир этилган яширин талон-торож қилиш киссавурлик деб ҳисобланади"[7].

Жиноий-ҳуқуқий таҳлил унинг объектини аниқлашдан бошланади. Киссавурлик ЖК X бобида жойлашган бўлиб, унинг турдош объекти иқтисодиёт асослари, хусусан, мулкий муносабатлар ҳисобланади [8]. Р. Кабулов таъкидлаганидек, ўғриликнинг бевосита объекти – бу мулк ҳуқуқининг мазмунини ташкил этувчи эгалик қилиш, фойдаланиш ва тасарруф этиш бўйича ижтимоий муносабатлардир[9].

Бироқ, бу анъанавий ёндашув бир саволга жавоб бермайди. Агар киссавурликнинг бевосита объекти фақат мулк бўлса, нима учун қонун чиқарувчи уни оддий ўғриликдан (масалан, хонадонни ўғирлашдан) ажратиб, оғирлаштирувчи ҳолат сифатида белгилади? Таҳлиллар кўрсатишича, киссавурлик – бу соф мулкий жиноят эмас, балки икки объектли жиноятдир.

Унда асосий бевосита объект: Мулкий муносабатлар.

Қўшимча бевосита объект: Шахснинг жисмоний дахлсизлиги ва шахсий хотиржамлиги.

А.И.Рарог ва Г.Н.Борзенковлар "турар жойга ғайриқонуний кириб" содир этилган ўғриликни таҳлил қилар экан, унда иккита объект – мулк ва турар жой дахлсизлиги (конституциявий ҳуқуқ) мавжудлигини таъкидлашади [10]. Айнан шу мантиқни киссавурликка ҳам татбиқ этиш мумкин. Агар турар жой шахснинг "дахлсиз макони" бўлса, унинг кийими, сумкаси ва қўл юки – бу унинг "шахсий дахлсиз макони" ҳисобланади. Жиноятчи жабрланувчининг чўнтагига қўл суқиш орқали нафақат унинг мулкига, балки унинг танасига, шахсий ҳудудига "тажовуз қилади".

Буни амалиёт ходимлари ҳам тасдиқлайди. Қўқон шаҳар ИИО ФМБ ходимлари билан ўтказилган суҳбатда, суриштирувчи, терговчи ва тезкор ходимларнинг 61 фоиздан ортиғи киссавурликни соф иқтисодий жиноят деб ҳисобламаслигини, у "жамоат тартибига" ёки "шахсга қарши" жиноятларга яқинроқ туришини, чунки фуқароларда доимий қўрқув

---

4 Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги 6-сонли "Ўзгалар мулкини ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида"ги қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди ахборотномаси. – 1999. – № 2. – URL: https://lex.uz/docs/1443984 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

5 Кабулов. Р. Ва бошқа муаллифлар Жиноят ҳуқуқи умумий қисм. ИИВ Академияси. Тошкент. 2012. 793 бет.

6 Российское уголовное право: В 2 томах. Т. 2. Особенная часть // Под ред. проф. А.И. Рарога. – М., 2009. –С. 579.

7 Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги 6-сонли "Ўзгалар мулкини ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида"ги қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди ахборотномаси. – 1999. – № 2. – URL: https://lex.uz/docs/1443984 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

8 Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2012-XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1995. – № 1. – 3-м. – URL: https://lex.uz/docs/111453 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

9 Кабулов. Р. Ва бошқа муаллифлар Жиноят ҳуқуқи умумий қисм. ИИВ Академияси. Тошкент. 2012. 793 бет.

10 Российское уголовное право: В 2 томах. Т. 2. Особенная часть // Под ред. проф. А.И. Рарога. – М., 2009. –С. 579.

ва хавотир ҳиссини келтириб чиқаришини билдирган[11]. Жиноят ишлари бўйича Қўқон шаҳар суди амалиётидан олинган мисолда ҳам жабрланувчи аёл моддий зарардан (150 000 сўм) кўра, бегона шахснинг унга "тегиниб", сумкасини "кесиб ичига кирган" факти кучлироқ руҳий зарба, жирканиш ва ғазаб ҳиссини уйғотганини баён қилган[12]. Буларнинг барчаси жиноятнинг қўшимча объектига зарар етказилганини тасдиқлайди.

2. Киссавурлик предмети ва унинг жойлашуви муаммоси

Киссавурлик предмети – ўзганинг мол-мулкидир. Жиноят ҳуқуқида мол-мулк моддий моддий ашё бўлиши (жисмоний белги), иқтисодий қийматга эга бўлиши (иқтисодий белги) ва айбдор учун "ўзганинг мулки" бўлиши (юридик белги) лозим. Бунда жиноят ҳуқуқидаги "мол-мулк" тушунчаси Фуқаролик кодексидагига[13] нисбатан торроқ мазмунга эга .

Киссавурликни оддий ўғриликдан фарқловчи асосий жиҳат – бу жиноят предметининг жойлашган ўрнидир . Қонун[14] ва Пленум қарори [15] буни аниқ кўрсатган: "кийим", "сумка" ёки "бошқа қўл юки". Агар мулк жабрланувчининг бевосита эгалигида бўлмасдан, балки унинг ёнида (масалан, кафедаги стол устида) қаровсиз қолдирилган бўлса, унинг ўғирланиши киссавурликни эмас, балки оддий ўғриликни ташкил этади.

Энг катта назарий ва амалий муаммо айнан "бошқа қўл юки" тушунчаси билан боғлиқ. Бу ҳуқуқшунослик тилида "баҳоловчи тушунча" бўлиб, унга аниқ таъриф берилмаган ва ҳуқуқни қўлловчи уни ҳар бир вазиятдан келиб чиқиб баҳолашга мажбур. Бу эса амалиётда жиноятларни турлича квалификация қилишга сабаб бўлмоқда.

1-мисол. Аэропортда фуқаро йирик чамадонни ғилдиракларида судраб кетмоқда. "Киссавур" чамадоннинг ён чўнтагини сездирмасдан очиб, ундан буюм олди. Бу "бошқа қўл юки"га киради ми? Фикримизча, ҳа. Бу ерда юкнинг ҳажми эмас, балки унинг жабрланувчи билан жисмоний алоқадорлиги (дастасидан ушлаб турибди) ва киссавурлик усулининг қўлланилгани ҳал қилувчи аҳамиятга эга .

2-мисол. Фуқаро тирбанд автобусда оғир пакетни (қўл юки) ерга – икки оёғи орасига қўйиб турибди. "Киссавур" эгилиб, пакетдан қимматбаҳо буюмни ўғирлади. Ўтказилган сўровномада иштирок этган 63 фоиз амалиёт ходимлари буни киссавурлик эмас (чунки юк "қўлда эмас") деб хато баҳолаган. Фикримизча, бу – киссавурлик. Гарчи юк ерда турган бўлса-да, у жабрланувчининг "шахсий дахлсиз макони" (икки оёғи ораси)да жойлашган ва унинг бевосита жисмоний ҳимояси остида турибди.

Ушбу баҳсли ҳолатлар Пленум қарорида мазкур тушунчаларга таъриф берилмагани сабабли юзага келмоқда ва бу ҳолат ҳуқуқий аниқлик (nullum crimen sine lege certa) тамойилига зид келади .

МУҲОКАМА ВА ХУЛОСАЛАР

Таҳлил натижалари иккита асосий муаммони кўрсатди. Биринчидан, киссавурликнинг ҳуқуқий таърифи унинг фақат мулкий жиҳатини акс эттириб, қўшимча объекти – шахсий дахлсизликка тажовуз моҳиятини очиб бермаяпти. Иккинчидан, жиноят предмети жойлашадиган "бошқа қўл юки" тушунчасининг аниқ мезонлари йўқлиги амалиётда хато квалификацияга сабаб бўлмоқда.

---

[11] Ўтказилган сўровнома натижалари бўйича хулоса.

12 Жиноят ишлари бўйича Қўқон шаҳар суди архиви материаллари (Жабрланувчи Х.К. иши)

[13] Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрдаги 163-I-сон Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1996. – № 2-сонга илова. – URL: https://lex.uz/docs/111189 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

[14] Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2012-XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1995. – № 1. – 3-м. – URL: https://lex.uz/docs/111453 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

[15] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги 6-сонли "Ўзгалар мулкини ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида"ги қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди ахборотномаси. – 1999. – № 2. – URL: https://lex.uz/docs/1443984 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

Ушбу муаммоларни бартараф этиш учун Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги 6-сонли қарори 2-бандини қуйидаги мазмундаги хатбошилар билан тўлдириш таклиф этилади:

“Киссавурлик оддий ўғриликдан юқорироқ ижтимоий хавфлилик даражаси билан фарқланади. Унинг хавфлилиги нафақат ўзганинг мулкига тажовуз қилишда, балки жиноятнинг қўшимча бевосита объекти бўлган — шахснинг жисмоний дахлсизлиги ва шахсий хотиржамлигига тажовуз қилишда ҳам ифодаланади. Айбдор жабрланувчининг эгнидаги кийимига, қўлидаги... сумкасига... яширинча қўл суқиш орқали унинг “шахсий дахлсиз макони”ни бузади . ... Қилмишни... тавсифлашда, судлар... жиноятнинг айнан шахсга ва унинг дахлсизлигига яқин ҳудудда содир этилиб, қўшимча объектга зарар етказганлиги ҳолатига ҳам ҳуқуқий баҳо беришлари лозим”.

Иккинчи таклиф

“ЖК 169-моддаси 2-қисми “а” бандида қўлланиладиган “кийим-кечак”, “сумка” ёки “бошқа... (қўл юки)” тушунчаларига аниқлик киритишда қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим: “Кийим-кечак” деганда — жиноят содир этилаётган пайтда жабрланувчининг бевосита эгнида бўлган кийим... тушунилади. “Сумка” деганда — жабрланувчининг қўлида, елкасида, белида ёки бевосита ёнида олиб юрган... сумка... тушунилади. “Бошқа қўл юки” деганда, жабрланувчининг... бевосита қўлида, елкасида, орқасида бўлган ёки танаси билан бошқача тарзда бевосита жисмоний алоқада бўлган (шу жумладан, ғилдиракли чамадон дастасидан ушлаб тортиш...), шунингдек, жамоат жойларида унинг бевосита жисмоний назорати ва ҳимояси остида (масалан, тирбандликда оёқлари орасига қўйилган, танасига тегиб турган) бўлган пакет, ўрам, чамадон ва бошқа ашёлар тушунилиши лозим”.

Ушбу таклифлар “юк”нинг номига эмас, балки унинг жабрланувчининг шахсий дахлсиз маконида эканлигига урғу беради ва амалиётдаги турли талқинларга барҳам беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2012-XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1995. – № 1. – 3-м. – URL: https://lex.uz/docs/111453 (мурожаат санаси: 09.11.2025);

2. Жиноят ишлари бўйича Қўқон шаҳар суди архиви материаллари (Жабрланувчи Х.К. иши);

3. Кабулов. Р. Ва бошқа муаллифлар. Жиноят ҳуқуқи умумий қисм. ИИВ Академияси. Тошкент. 2012. 793 бет.

4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги 6-сонли “Ўзгалар мулкини ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди ахборотномаси. – 1999. – № 2. – URL: https://lex.uz/docs/1443984 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

5. Российское уголовное право: В 2 томах. Т. 2. Особенная часть // Под ред. проф. А.И. Рарога. – М., 2009. –С. 579.

6. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2012-XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1995. – № 1. – 3-м. – URL: https://lex.uz/docs/111453 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

7. Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрдаги 163-I-сон Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1996. – № 2-сонга илова. – URL: https://lex.uz/docs/111189 (мурожаат санаси: 09.11.2025).

8. Ўтказилган сўровнома натижалари бўйича хулоса.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 378.147:37.013

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MODELI

Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasi v.b dotsenti

METHODOLOGICAL MODEL OF DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL INTELLECTUALITY BASED ON A PERSONALIZED APPROACH

Kholbozarova Nasiba Kholbozar kizi,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Acting Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology

МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОГО ПОДХОДА

Холбозарова Насиба Холбозарь кизи,
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Исполняющий обязанности доцента кафедры методики начального образования

Annotatsiya: *Maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirishning metodik modeli taklif qilinadi. Ushbu model individual xususiyatlar va pedagogik kompetensiyalarni hisobga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, pedagogik intellekt, metodik model, ta’lim jarayoni, kompetensiyalar.*

Abstract: *The article proposes a methodological model for developing future teachers’ pedagogical intelligence based on a learner-centered approach. This model considers individual traits and pedagogical competencies.*

Key words: *learner-centered approach, pedagogical intelligence, methodological model, educational process, competencies.*

Аннотация: *В статье предлагается методическая модель развития педагогического интеллекта будущих педагогов на основе личностно-ориентированного подхода. Модель учитывает индивидуальные особенности и педагогические компетенции.*

Ключевые слова: *Личностно-ориентированный подход, педагогический интеллект, методическая модель, образовательный процесс, компетенции.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayoni pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni markaziy o‘rinlardan biriga qo‘ydi. Bugungi kunda pedagogik intellekt o‘qituvchining nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga samarali qo‘llash, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni birlashtirish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini

rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligi darajasini oshiradi, balki ta'lim sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Pedagogik intellektni rivojlantirishning samarali usullari ta'lim jarayonida individual va guruhli yondashuvlarni birlashtirish, muammoli vazifalar orqali analitik va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish, shuningdek, interaktiv usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, shaxsga yo‘naltirilgan metodologik model o‘qituvchining o‘zini o‘zi rivojlantirish strategiyalarini aniqlash, ijodiy va psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish imkonini beradi. [5; 77]

Maqolada taklif qilingan metodologik model kelajakdagi o‘qituvchilarning intellektual va kasbiy kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida uyg‘unlashtirishni ta'minlaydi. Ushbu model pedagogik vazifalarni hal qilish jarayonida ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, o‘qituvchiga o‘zini baholash va professional o‘sishni strategik rejalashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik intellekt va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda o‘qituvchilarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbek va xorijiy manbalarda pedagogik intellekt ko‘pincha o‘qituvchining nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga qo‘llash qobiliyati, ijodiy va tanqidiy fikrlashi hamda o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Masalan, pedagogik psixologiya va ta'lim nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar (Shamsiyeva, 2019; Karimov, 2021) shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning o‘quvchilarning individual rivojlanishidagi muhim rolini ta'kidlaydi.[3; 55] Shu bilan birga, Goleman (2018) va Sternberg (2020) kabi xorijiy tadqiqotchilar pedagogik intellektni hissiy va analitik komponentlar bilan bog‘liq holda tahlil qilishdi, bu esa o‘qituvchilarning professional samaradorligini oshirishga yordam beradi.[1; 134]

Maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida sifat va miqdoriy usullarning kombinatsiyasi qo‘llaniladi. Sifatli usullar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning pedagogik intellektga, o‘qituvchilarning individual xususiyatlari va kompetensiyalariga ta'sirini tahlil qiladi. Suhbatlar, kuzatishlar va pedagogik tajribalar orqali olingan ma'lumotlar sifat tahlili asosida umumlashtiriladi. Miqdoriy usullar pedagogik intellekt komponentlarini baholash, natijalarni statistik usullar yordamida tekshirish va o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik modelning samaradorligini baholash uchun so‘rovnomalar va testlar orqali olingan natijalardan foydalanildi.

Tadqiqotning eksperimental qismi shaxsga yo‘naltirilgan metodologik modelni sinab ko‘rishga qaratilgan bo‘lib, unda kelajakdagi o‘qituvchilarni ikki guruhga (nazorat va eksperimental guruh) bo‘lish orqali pedagogik intellektning rivojlanishi o‘rganildi. Ushbu metodologiya bizga modelning amaliy samaradorligini aniqlash va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

MUNOZARA

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirish vositasi bo‘lib, pedagogik intellektning samarali rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Eksperimental guruh bilan o‘tkazilgan tajriba natijalari shuni isbotladiki, individual xususiyatlar, qiziqishlar va kompetensiyalarni hisobga oladigan metodologik model pedagogik intellektning barcha asosiy tarkibiy qismlarini, jumladan, analitik fikrlash, ijodiy yechimlarni ishlab chiqish va samarali muloqot ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.[4; 21]

Shaxsga yo‘naltirilgan metodologik yondashuv o‘qituvchilarga moslashuvchanlikni, tanqidiy fikrlashni va o‘z pedagogik faoliyatida innovatsion usullardan foydalanishni rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot davomida kuzatilgan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayonida individual va guruhli faoliyatni birlashtirish pedagogik intellektni shakllantirishning samarali strategiyasidir. Shu bilan birga, interaktiv usullar va muammolarni hal qilish vazifalari orqali bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarini o‘rganish, ijodiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini mustahkamlash.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan pedagogik intellektni rivojlantirish modelini amaliy qo‘llash kelajakdagi

o‘qituvchilarning professional va intellektual kompetensiyalarini sezilarli darajada mustahkamlashga yordam beradi, ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va o‘qituvchilarning ijodiy va innovatsion yondashuvini rag‘batlantiradi.

NATIJALAR

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv pedagogik intellektni rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Eksperimental guruh bilan o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalariga ko‘ra, kelajakdagi o‘qituvchilarning analitik fikrlashi, ijodiy yechimlarni ishlab chiqish va samarali muloqot qobiliyatlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, individual xususiyatlar va qiziqishlarni hisobga olgan metodologik model o‘qituvchilarga o‘zini baholash va kasbiy rivojlanish jarayonida faol ishtirok etishga yordam berdi.[6; 33]

Shaxsga yo‘naltirilgan metodologik model ta'lim jarayonida individual va guruhli faoliyatni uyg‘unlashtirishni, muammoli vazifalardan foydalanishni va interaktiv usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu pedagogik intellektning barcha tarkibiy qismlarini - nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga qo‘llashni, ijodiy va tanqidiy fikrlashni, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, pedagogik intellektni shakllantirish metodologik model bilan cheklanib qolmaydi; u o‘qituvchining shaxsiy motivatsiyasini, kasbiy tayyorgarligini va ta'lim jarayonida faol ishtirokini ham talab qiladi. Shuning uchun shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv nafaqat metodologik vosita sifatida, balki o‘qituvchining kasbiy va intellektual rivojlanishini rag‘batlantiruvchi muhim omil sifatida ham muhimdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodologik model bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini samarali rivojlantirishga, ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga va ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu yana bir bor ta'lim muassasalarida individual yondashuvni keng joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv nafaqat pedagogik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki o‘qituvchilar uchun o‘zini o‘zi baholash va kasbiy o‘sish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ham imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, individual va guruhli mashg‘ulotlarning uyg‘unligi, interaktiv usullar va muammoli vazifalardan foydalanish pedagogik intellektni rivojlantirish jarayonida samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodologik model bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va intellektual kompetensiyalarini mustahkamlashga, ta’lim sifatini oshirishga va o‘qituvchilarning ijodiy va innovatsion salohiyatini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida individual yondashuvni keng joriy etish pedagogik jarayon samaradorligini oshirish uchun muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Goleman, D. Emotional Intelligence in Education. New York: Bantam Books, 2024. 134-150-p.
2. Sternberg, R. Cognitive and Pedagogical Intelligence in Teacher Development. London: Routledge, 2017. 87-105-p.
3. Islomov, S. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: nazariya va amaliyot. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. 55-73-b.
4. Zokirov, A. Pedagogik intellektni rivojlantirishning metodik asoslari. Toshkent: Ta’lim nashriyoti, 2020. 21-42-b.
5. Rakhmonov, T. Pedagogik eksperimentlar va o‘qituvchining intellektual salohiyati. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 2019. 77-92-b.
6. Mirzaev, F. Interfaol metodlar va pedagogik intellekt. Andijon: AndDU nashriyoti, 2021. 33-51-b.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 378.147:37.013

PEDAGOGIK INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi v.b dotsenti

METHODOLOGY OF ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITY IN DEVELOPING PEDAGOGICAL INTELLECTUALITY

Kholbozarova Nasiba Kholbozar kizi,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Acting Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology

МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В РАЗВИТИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Холбозарова Насиба Холбозарь кизи,
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Исполняющий обязанности доцента кафедры методики начального образования

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pedagogik intellektni rivojlantirish jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish metodikasining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mustaqil ta'lim orqali talabalarda tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuv va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *pedagogik intellekt, mustaqil ta'lim, ta'lim metodikasi, talaba faolligi, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, innovatsion yondashuv.*

Annotation: *This article examines the methodology of organizing students' independent learning activities in the process of developing pedagogical intelligence. Special attention is given to the role of independent learning in forming analytical thinking, creativity, and professional competencies among students.*

Key words: *pedagogical intelligence, independent learning, teaching methodology, student activity, pedagogical technologies, professional competence, innovative approach.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается методика организации самостоятельной учебной деятельности студентов в процессе развития педагогического интеллекта. Особое внимание уделяется роли самостоятельного обучения в формировании аналитического мышления, творческого подхода и профессиональных компетенций студентов.*

Ключевые слова: *педагогический интеллект, самостоятельное обучение, методика обучения, активность студентов, педагогические технологии, профессиональная компетенция, инновационный подход.*

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimi tez rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlari, fan va texnologiyalarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Bugungi kunda ta'lim

jarayonining asosiy maqsadi nafaqat talabalarga nazariy bilim berish, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalari va samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Xususan, pedagogik intellektni rivojlantirish kelajakdagi o‘qituvchilarni tayyorlashda asosiy vazifa hisoblanadi. Pedagogik intellekt o‘qituvchilar tomonidan ta’lim jarayonini samarali tashkil etishni, talabalar bilan samarali muloqot o‘rnatish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va tegishli innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini ta’minlaydigan muhim professional sifatdir.

Mustaqil o‘qishni tashkil qilishda o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish ham muhimdir. Har bir talabaning bilim darajasi, fikrlash tarzi va o‘qishga munosabati har xil bo‘lganligi sababli, mustaqil o‘rganish jarayonini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tashkil etish samarali natijalar beradi. Ushbu yondashuv talabalarning ijodiy salohiyatini ochishga, ilmiy tadqiqotlarga qiziqishini oshirishga va pedagogik intellektini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi mustaqil o‘rganishni tashkil etish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Elektron o‘quv platformalari, masofaviy o‘qitish tizimlari, onlayn resurslar va raqamli kutubxonalar talabalarning mustaqil ravishda bilim olishlari, ilmiy manbalarni o‘rganishlari va bilimlarini boyitishlari uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va pedagogik intellektini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogik intellektni rivojlantirish va o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish masalasi zamonaviy masaladir. Pedagogik intellekt pedagogikaning muhim ilmiy sohalaridan biridir. Ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar ushbu masala bo‘yicha tadqiqotlar olib borishdi, pedagogik intellekt, mustaqil o‘rganish, innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘quvchilarni rivojlantirishga nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilishdi.

N. N. Azizxojeva o‘zining "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" (Toshkent: TDPU, 2015) nomli tadqiqotida pedagogik mahorat va pedagogik fikrlash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy jihatdan asoslaydi. Muallif pedagogik jarayonda o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini tashkil etish o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, mustaqil o‘rganish nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini boyitadi, balki ularning pedagogik tafakkuri va intellektual salohiyatini ham rivojlantiradi. [1; 192]

Shuningdek, rus olimi I. A. Zimniaya o‘zining "Pedagogik psixologiya" (Moskva: Logos, 2004) asarida o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi mustaqil faoliyati ularning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishida muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, mustaqil o‘rganish shaxsning kognitiv faoliyatini faollashtiradi va ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.[5; 384]

Ushbu tadqiqotda pedagogik intellektni rivojlantirishda talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini tashkil etish metodologiyasini o‘rganish uchun bir qator ilmiy usullar qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, psixologiya va ta’lim nazariyasidagi zamonaviy yondashuvlarga asoslangan edi.

Asosan, nazariy tahlil usuli qo‘llanildi. Ushbu usul pedagogik intellekt, mustaqil o‘rganish faoliyati va o‘qitish usullariga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish uchun ishlatilgan. Rossiya va xalqaro olimlarning ilmiy ishlari ko‘rib chiqildi va ular asosida tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi.

Tadqiqotda taqqoslash va umumlashtirish usullari ham qo‘llanildi. Ushbu usullar turli pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash va ularning talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini baholash uchun ishlatilgan. Natijada, pedagogik intellektni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan samarali metodologik yondashuvlar aniqlandi.

MUHOKAMA. Pedagogik intellektni rivojlantirishda talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini samarali tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish eng muhim maqsadlar qatoriga kiradi. Shu nuqtai nazardan, mustaqil

o‘rganish faoliyati pedagogik intellektni rivojlantirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini tashkil etish jarayoni bir necha nuqtai nazardan tahlil qilindi. Birinchidan, mustaqil o‘rganishning o‘quvchilarni bilim olishdagi roli, uning pedagogik intellekt rivojlanishiga ta’siri va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan mosligi o‘rganildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘rganishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining faoliyatiga bog‘liq, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlari esa nisbatan cheklangan. Bunday sharoitda o‘quvchilar ko‘pincha mavjud bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanadilar.

NATIJALAR. O‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini tashkil etishning bir qator metodologik yondashuvlari samarali natijalar berishi aniqlandi. Xususan, muammoli o‘rganish, loyihaga asoslangan usullar, interaktiv usullar va tadqiqotga asoslangan o‘qitish usullari o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga jalb etilishini sezilarli darajada oshiradi. Muammoli o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ma’lum bir pedagogik vaziyatni tahlil qiladilar va mustaqil yechim topishga harakat qiladilar. Bu ularning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Loyihaga asoslangan usul talabalarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu usul talabalarga ma’lum bir muammoni chuqur o‘rganish, ilmiy manbalar bilan ishlash va o‘z fikrlarini asoslash imkonini beradi.

Mustaqil o‘rganish faoliyati quyidagi muhim natijalarga olib keladi. Birinchidan, talabalarning o‘rganishga qiziqishi ortadi. Talabalar mustaqil tadqiqotlar orqali yangi bilimlarni kashf etganliklari sababli, ular o‘quv jarayonini yanada qiziqarli deb bilishadi. Ikkinchidan, analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Mustaqil o‘rganish orqali ular turli manbalarni taqqoslaydilar, tahlil qiladilar va o‘z xulosalarini chiqaradilar. Uchinchidan, mustaqil ta’lim talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalar turli yechimlarni taklif qilishadi va o‘z g‘oyalarini asoslashga harakat qilishadi. To‘rtinchidan, mustaqil o‘rganish faoliyati talabalarda mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Talaba o‘z o‘qishi uchun mas’ul ekanligini anglaydi. Men tushunaman va bu jarayon ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.[6; 180]

XULOSA. Pedagogik intellektni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimida asosiy vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, kelajakdagi o‘qituvchilarni tayyorlashda talabalarning mustaqil o‘qishini to‘g‘ri va samarali tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ushbu mustaqil o‘rganish jarayoni talabalarda chuqur bilim olish, tahlil qilish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va pedagogik vaziyatlarga mustaqil yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuning uchun mustaqil o‘rganish pedagogik intellektni rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2015. – 192 b.
2. Jo‘rayev R.H., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 240 b.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 208 b.
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2010. – 276 b.
5. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004. – 384 s.
6. S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan, 2008. – 180 b.
7. Н. Х. Холбозорова. Олий педагогик таълимда бўлажак ўқитувчининг касбий ривожланиши // Kasb-hunar ta’limi / Профессиональное образование / Professional education ilmiy-uslubiy, amaliy va ma’rifiy jurnal. – 2023. – №4. – B. 97–104.
8. N. X. Xolbozorova. Personal Development of Students in Higher Education // Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – 10 May. – P. 52–56. – ISSN 2770-2367.
9. N. X. Xolbozorova. Professional development of future teachers // Current Research Journal of Pedagogics. – 2023. – Vol. 4, Issue 9. – P. 15–21. – DOI: https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-09-04.
10. **М. Курбанбаева**. Талабаларда мустақил ишлаш кўникмаларини тўғри ривожлантириш. *TAMADDUN NURI JURNALI*. 11, 62 (Nov. 2024), 302–304. DOI:https://doi.org/10.69691/g96v9q93.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.011

RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA YOSHLARNING QADRIYAT YO‘NALISHLARINI O‘ZGARTIRISH

Karimova Dilnoza Abduraximovna, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “San’at va madaniyat sohasi menejmenti” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti



https://orcid.org/0009-0007-2302-2818
e-mail: dkarimova1712644@gmail.com

CHANGING THE VALUE ORIENTATIONS OF YOUNG PEOPLE DURING THE DIGITIZATION PERIOD

Karimova Dilnoza Abdurakhimovna, 1st year master’s student in the “Management of the Arts and Culture Sector” specialty at the Uzbek State Institute of Arts and Culture

ИЗМЕНЕНИЕ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ МОЛОДЕЖИ В ПЕРИОД ЦИФРОВИЗАЦИИ

Каримова Дильноза Абдурахимовна, студент 1-курса магистратуры по специальности “Менежмент сферы искусства и культуры” Узбекского государственного института искусств и культуры

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamlashtirish jarayonining yoshlar ongi, dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvoriga ko‘rsatayotgan ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yosh avlodning ma’naviy, madaniy va ijtimoiy qadriyat yo‘nalishlarida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, yoshlar, qadriyat yo‘nalishlari, raqamli madaniyat, axborot texnologiyalari, ma’naviy tarbiya, ijtimoiy ong, milliy qadriyatlar, raqamli muhit, globallashuv.*

Annotation: *this article will scientifically-theoretically analyze the impact of the digitization process on youth consciousness, worldview and social behavior. As a result of the rapid development of information and communication technologies, changes in the spiritual, cultural and social values of the younger generation are revealed.*

Keywords: *digitization, youth, value orientations, Digital Culture, Information Technology, spiritual education, social consciousness, national values, digital environment, globalization.*

Аннотация: *в данной статье будет проведен научно-теоретический анализ влияния процесса цифровизации на сознание, мировоззрение и социальное поведение молодежи. В результате стремительного развития информационно-коммуникационных технологий выявлены изменения в духовных, культурных и социальных ценностях молодого поколения.*

Ключевые слова: *цифровизация, молодежь, ценностные ориентации, цифровая культура, информационные технологии, духовное образование, общественное сознание, национальные ценности, цифровая среда, глобализация.*

KIRISH. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, aholining 70% dan ortig‘ini tashkil etgan global raqamlashtirish zamonaviy jamiyatning dunyoqarashini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu jarayon an’anaviy qadriyatlar va onlayn platformalar orqali tarqaladigan universal raqamli tendensiyalar o‘rtasida keskinlikni keltirib chiqaradi. Mahalliy madaniy me’yorlar ko‘proq

global tendensiyalar bilan to‘qnashmoqda, bu esa madaniy idrokning gibrid modellarini shakllantirishga olib keladi. Ushbu muammo ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga keng kirib borishi sharoitida ayniqsa keskinlashmoqda. Oila yoki milliy jamoalar kabi an’anaviy institutlar yangi haqiqatlarga moslashish muammosiga duch kelishmoqda. Qadriyatlarning bu qayta talqini globallashgan axborot makonining ta’siri ostida qanday sodir bo‘lishini aniq tahlil qilish kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Ilmiy adabiyotlarda raqamli muhitning inson ongi va xulq-atvoriga ta’siri, avvalo, axborot makonining kengayishi va ijtimoiy kommunikatsiya shakllarining transformatsiyasi bilan bog‘lab izohlanadi. M.Kastels o‘z tadqiqotlarida tarmoq jamiyati konsepsiyasini ilgari surib, raqamli texnologiyalar shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni va qadriyatlar tizimiga tub ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, raqamli makonda shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar an’anaviy madaniy me’yorlarni qayta talqin qilishga olib keladi[8]. P.Levi va G.Djenkins kabi tadqiqotchilar raqamli madaniyat va kollektiv intellekt nazariyasi orqali yoshlarning ishtirokchi madaniyatga qadam qo‘yayotganini ko‘rsatib, bu jarayon shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning yangi modellarini shakllantirishini ilmiy asoslaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda esa raqamlashtirishning milliy qadriyatlar va ma’naviy tarbiya tizimiga ta’siriga alohida e’tibor qaratilgan[10]. Xususan, o‘zbek olimlari yoshlar ongida global axborot oqimi orqali kirib kelayotgan madaniy namunalarning milliy an’analar bilan o‘zaro ta’siri va ayrim hollarda ziddiyatini ta’kidlaydilar. Bu jarayonda ta’lim muassasalari va oila institutining tarbiyaviy roli muhim omil sifatida baholanadi[9].

MUHOKAMA. Improvizatsiya haqiqatan ham hayotning deyarli barcha sohalarini o‘zlashtira boshladi. Xususan, bu axloqiy rivojlanishi bevosita vaqtning axborot tendensiyalariga bog‘liq bo‘lgan yoshlarga tegishli. Yoshlarning umuminsoniy qadriyati va axloqiy rivojlanishi tendensiyasi global ma’noda harakatlantiruvchi kuchga aylanib bormoqda. Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi raqamlashtirish deb ataladigan o‘ziga xos xususiyatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, buning natijasida individual mavzu makonining aniq shakllanishi mavjud. Raqamli inqilob yoshlari vasiylik va cheklovlar begona bo‘lgan yangi avloddir. Bu yerda yoshlarni jamoat va davlat hayotiga jalb qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi, bu esa ularning oldida turgan vazifalarni hal qilish istagini kuchaytiradigan motivatsion mexanizmlarga asoslanadi.

Raqamli aloqa oila ichidagi o‘zaro ta’sirning tabiatini sezilarli darajada o‘zgartiradi, o‘zaro aloqani jismoniy makondan virtualga o‘tkazadi. Oila a’zolari uzoq qarindoshlar bilan ko‘proq bog‘liqligini his qilishlari mumkin, lekin ayni paytda yaqin atrofdagilar bilan bevosita muloqot yetishmasligini boshdan kechirishadi. Bu oilaviy birlikning an’anaviy shakllarini saqlab qolish uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

V.V.Radayevning so‘zlariga ko‘ra, Virtual haqiqat deyarli haqiqiy dunyoni almashtirayotgani raqamlashtirish uchun odatiy holga aylanib bormoqda. Onlayn formatlarning ko‘payishi yoshlar uchun aloqa va axborot iste’molining asosiy manbalaridan biriga aylanmoqda[5]. Masalan, ma’lum bir nashrga reaksiya yoki yoqtirish tasdiqlash va qo‘llab-quvvatlash o‘lchovidir va shunga mos ravishda nafaqat obunachilar soni onlayn hamjamiyatning mashhurligini, balki sonini ham baholashga imkon beradi. Virtual makondagi o‘yin-kulgi va haqiqatda hayotdan zavqlanish haqiqati ziddir. Onlayn platformalar madaniy merosni avlodlar o‘rtasida uzatishning an’anaviy mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda[3]. Ilgari bu jarayon asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa va oilaviy marosimlar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirda axborot va madaniy naqshlarning muhim qismi raqamli kanallar orqali uzatiladi. Bu nafaqat shaklni, balki uzatilgan merosning mazmunini ham o‘zgartiradi, uni yanada parchalab, global tendensiyalar ta’siriga tashlaydi. Shunday qilib, Internet madaniy uzluksizlik jarayonida asosiy vositachiga aylanadi. Raqamli makonda paydo bo‘lgan va rivojlanayotgan ushbu dunyo, etika va estetika bo‘yicha o‘ziga xos qarashlarini taklif etadi[7].

XULOSA. Raqamlashtirish davrida yoshlarning qadriyat yo‘nalishlari transformasiya natijasida qarama-qarshi bo‘lib bormoqda. Onlayn ta’lim tizimi takomillashtirish va qulayliklarni talab qiladi, chunki zamonaviy yoshlar tobora ongli ravishda tanlov qilmoqdalar, ya’ni masofaviy

ta’lim foydasiga, bu ularga ma’lum bir davlatning geografik chegaralari va kunduzgi darslarga qatnashish zarurati bilan cheklanmaslikka imkon beradi. Shu munosabat bilan yosh avlodning zamonaviy talablarini inobatga olgan holda, oliy ta’lim nufuzini oshirish zarur, chunki ikkinchisi raqamlashtirish davrida davom etayotgan ijtimoiy jarayonlarning o‘ziga xosdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Борисенко Н.А. Трансформация ценностей молодежи в условиях цифровизации: “мягкая сила” и “умная сила”// Инновационный потенциал молодежи: культура, духовность, нравственность// URL:https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1699168326&tld=ru&lang=ru&name=978-5-7996-2941-0_2019_02. (дата обращения 05.11.2023 год).
2. Borisenko N.A. Transformation of values of youth in the conditions of digitalization: “soft power” and “smart power” // Innovative potential of youth: culture, spirituality, morality //URL: https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1699168326&tld=ru&lang=ru&name=978-5-7996-2941-0_2019_02 (accessed 05.11.2023).
3. Ledeneva V.Yu. Transformation of value orientations of students in the conditions of digital reality // Vestn. Udm. un-ta. Sociology. Political science. International relations. 2022. Vol. 6, issue 3. pp. 295-304.
4. Пол и Элдер Л. Критическое мышление: инструменты для принятия правильных решений. — М.: Альпина Паблишер, 2020.
5. О’Нил К. Алгоритмы разрушения: как большие данные усиливают неравенство и угрожают демократии. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2018.
6. Зубофф Ш. Эпоха капитализма наблюдения: борьба за человеческое будущее. — М.: Эксмо, 2021.
7. Паризер Э. Фильтр пузыря: как новые персонализированные сети меняют то, что мы читаем и как думаем. — М.: Эксмо, 2017. 5. Туркль Ш. Жизнь на экране: идентичность в век Интернета. — М.: Логос, 2014.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 101.1

FUQAROLIK JAMIYATINING JARAYON SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi, O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi

PROPERTIES OF CIVIL SOCIETY AS A PROCESS

Kurbanbayeva Munavvara Kozybayevna, teacher at Urgench State University, independent researcher at the National University of Uzbekistan

СВОЙСТВА ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА КАК ПРОЦЕСС

Курбанбаева Мунавара Козыбаевна, преподаватель Ургенчского государственного университета, независимый исследователь Национального университета Узбекистана



https://orcid.org/0009-0002-6202-2064
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada fuqarolik jamiyatiga yangi nuqtayi nazardan yondashiladi. Fuqarolik jamiyati haqidagi nazariyalar an’anaviy tarzda uni muayyan tashkilotlar va institutlar yig‘indisi sifatida tushuntirib keladi. Biroq bu yondashuv jamiyatdagi aniq fuqarolik faoliyati, ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviy ongning shakllanish jarayonini to‘liq qamrab ololmaydi. Shu boisdan, ushbu tadqiqotda fuqarolik jamiyati nafaqat maydon, balki jarayon sifatida ham izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, ijtimoiy ong, jamoaviy maqsadlar, jarayon, model, faol fuqarolik, inson kapitali, struktura.*

Annotation: *The article approaches civil society from a new perspective. Theories about civil society traditionally explain it as a set of specific organizations and institutions. However, this approach cannot fully cover the process of formation of specific civic activity, social responsibility and collective consciousness in society. Therefore, in this study, civil society is interpreted not only as a field, but also as a process.*

Keywords: *civil society, social consciousness, collective goals, process, model, active citizenship, human capital, structure.*

Аннотация: *В статье гражданское общество рассматривается с новой точки зрения. Традиционные теории гражданского общества объясняют его как совокупность конкретных организаций и институтов. Однако такой подход не может в полной мере охватить процесс специфической гражданской деятельности, социальной ответственности и формирования коллективного сознания в обществе. Поэтому в данном исследовании гражданское общество интерпретируется не только как поле, но и как процесс.*

Ключевые слова: *гражданское общество, социальное сознание, коллективные цели, процесс, модель, активное гражданство, человеческий капитал, структура.*

KIRISH. Fuqarolik jamiyati — bu faqatgina muayyan tashkilotlar va tuzilmalarning yig‘indisi emas, balki shaxsning o‘zini faol subyekt sifatida anglashi, ijtimoiy jarayonlarda mas’ul ishtirokchiga aylanishi va jamoaviy ongda o‘z hissasini ko‘rsata olishi jarayonidir. Bu jarayon fuqarolarning o‘zini idora qilish qobiliyati, huquqiy ongi va faol fuqarolik pozitsiyasi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqotimizda Fuqarolik jamiyati, uning institutlari tushunchasi va mazmun-mohiyati, fuqarolik jamiyatining siyosiy g‘oyaviy asoslarining nazariy jihatlari, fuqarolik jamiyatining g‘oyaviy asoslariga oid jahondagi ilmiy maktablar to‘g‘risidagi an’anaviy ilmiy qarashlarni ko‘rib chiqib, tahlil qilindi.

MUHOKAMA. Fuqarolik jamiyatini tahlil qilishda uning faqat tuzilmaviy jihatlarinigina emas, balki jarayon sifatidagi mohiyatini ham nazarda tutish zarur. Institutlar — bu inson ongidagi yuksak ma’naviy qadriyatlarning amaliy ifodasi, fuqarolik jamiyati esa insonning shaxsiy yetukligi va jamoaviy mas’uliyati asosida shakllanadigan tizimdir.

Fuqarolik jamiyati haqidagi nazariyalar an’anaviy tarzda uni muayyan tashkilotlar va institutlar yig‘indisi sifatida tushuntirib keladi. Biroq bu yondashuv jamiyatdagi aniq fuqarolik faoliyati, ijtimoiy mas’uliyat va jamoaviy ongning shakllanish jarayonini to‘liq qamrab ololmaydi. Shu boisdan, fuqarolik jamiyatini biz nafaqat maydon, balki jarayon sifatida ham izohlaymiz: Fuqarolik jamiyati — jamiyatdagi faol fuqarolarning, nodavlat tashkilotlarning, madaniyat va ma’rifat asosida birlashgan kuchlarining davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsata oladigan muvozanatli maydonidir. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati — bu faqatgina muayyan tashkilotlar va tuzilmalarning yig‘indisi emas, balki shaxsning o‘zini faol subyekt sifatida anglashi, ijtimoiy jarayonlarda mas’ul ishtirokchiga aylanishi va jamoaviy ongda o‘z hissasini ko‘rsata olishi jarayonidir. Bu jarayon fuqarolarning o‘zini idora qilish qobiliyati, huquqiy ongi va faol fuqarolik pozitsiyasi bilan belgilanadi.

Fuqarolik jamiyatini maydon va jarayon sifatida o‘rganish uning hali o‘rganilmagan jihatlarini ochishga yordam beradi. Bu ikki yondashuv, nazariy jihatdan qaralganda, bir-birini inkor etmaydi. Birinchi yondashuv institutsional-siyosiy nuqtayi nazardan yondashadi: fuqarolik jamiyatini muayyan ijtimoiy kuchlar, nodavlat sektorlar va tashabbus markazlari maydoni sifatida ta’riflaydi. Ikkinchi yondashuv esa falsafiy-ijtimoiy va ontologik nuqtayi nazardan qarab, fuqarolik jamiyatini shaxsiy o‘zgarishlar, ongli faollik va jamiyatdagi subyektiv quvvatlarning uyg‘onishi jarayoni sifatida talqin qiladi. Demak, fuqarolik jamiyati — ham maydon, ham jarayondir: bir tomondan, u institutlar va jamoat tashkilotlari orqali tashkiliy tuzilmaga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fuqarolar ongining o‘sishi va ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishi jarayonida namoyon bo‘ladi.

Shundan kelib chiqqan holda Fuqarolik jamiyati institutlariga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin:

Fuqarolik jamiyati institutlari — bu fuqarolarning o‘z-o‘zini idora qilish, ijtimoiy-siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, jamoat nazoratini amalga oshirish va umumiy manfaatlarni ifoda qilish qobiliyatini institutsional shaklda rivojlantiruvchi tashkilot va mexanizmlar majmuidir. Ular shaxsiy tashabbus, huquqiy ong, jamoaviy tafakkur va madaniy merosga suyangan holda, davlat hokimiyatidan mustaqil ravishda jamiyatda barqarorlik, adolat va faol fuqarolikni ta’minlashga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradilar. Bunday institutlar nafaqat jamiyatning tashqi ko‘rinishini, balki ichki faoliyati va g‘oyaviy-siyosiy tuzilishini ham shakllantiradi.

Fuqarolik jamiyati va uning institutlariga yangicha ta’rif berish, ularni faqat tuzilma emas, balki jarayon sifatida ham ko‘ra olish, siyosiy fan va fuqarolik ongi taraqqiyoti uchun muhim qadam hisoblanadi. Bu ta’riflar inson subyektining ijtimoiy mas’uliyati, tashabbusi va siyosiy faolligini belgilashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ya’ni, Fuqarolik jamiyati murakkab va ko‘p qatlamli tuzilmaga ega bo‘lib, uni tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri — bu fuqarolik jamiyati institutlaridir[2]. Mazkur institutlarga nisbatan turli ilmiy qarashlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati institutlarni fuqarolik jamiyatining tashkiliy-amaliy ko‘rinishi sifatida talqin qiladi. Ammo bu yondashuv chegarali, bir yoqlamali tushunchalarga olib keladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda fuqarolik jamiyati institutlariga nisbatan quyidagi ta’rifni va u asoslangan yangi ilmiy qarashlarni bayon qilamiz: Fuqarolik jamiyati institutlari — bu davlat tuzilmalari ta’siridan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi, jamiyat a’zolarining ijtimoiy-huquqiy, madaniy-ma’naviy, iqtisodiy va axloqiy

manfaatlarini ifoda etuvchi, o‘z-o‘zini idora qilish, ijtimoiy tashabbusni amalga oshirish va jamoaviy ongni shakllantirish salohiyatiga ega ixtiyoriy tuzilmalar majmuasidir. Ular faqat muayyan funksiyalarni bajaruvchi tuzilmalar emas, balki fuqarolarning faol subyekti sifatida shakllanishiga, jamiyatda hokimiyatni muvozanatlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, hamkorlik, dialog va huquqiy ongni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy jarayonlar tizimidir [1].

Bu ta’rifda fuqarolik jamiyati institutlariga ikkilamchi funksiya sifatida emas, balki mustaqil, dinamik va subyektiv rolga ega tuzilma sifatida yondashiladi. Ular ichida nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari, mustaqil ta’lim va tadqiqot muassasalari, ijtimoiy harakatlar, jamoatchilik kengashlari, mahallalar, diniy va ma’naviy-axloqiy tashkilotlar, ekologik harakatlar va boshqalarni sanab o‘tish mumkin.

NATIJALAR. Fuqarolik jamiyati insitutlarining quyidagi xususiyat va funksiyalari ahamiyatga molik:

1. Jarayonlilik xususiyati: fuqarolik jamiyati institutlari faqat tuzilma emas, balki jarayon — ya’ni fuqarolarning o‘z manfaatlarini ifoda qilish, umumiy ongni shakllantirish, tashabbus ko‘rsatish va ta’sir o‘tkazish kabi ijtimoiy harakatlarning barqaror tizimidir.
2. Inson kapitali va jamoaviy ongning markazda turishi: ushbu institutlarning muvaffaqiyati davlatdan mustaqilligiga emas, balki ularning inson kapitali, axloqiy salohiyati, targ‘ibot-qonunchilik ta’siri va jamoaviy ma’naviyatni shakllantira olishiga bog‘liqdir.
3. Muvozanat va nazorat funksiyasi: fuqarolik jamiyati institutlari faqat fuqarolarning manfaatlarini ifoda etish emas, balki hokimiyatni nazorat qilish, qarorlar qabul qilinishiga ta’sir etish va hokimiyatni jamiyatga hisobdorlikka majburlash mexanizmidir.
4. Ta’limiy va madaniy missiya: fuqarolik jamiyati institutlari aholi ongini uyg‘otuvchi, tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi, faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiruvchi ijtimoiy-ma’rifiy institutlardir.
5. Normativ-simvolik funksiya: mazkur institutlar qonun va huquq asosida faoliyat yuritish bilan bir qatorda, jamiyat uchun ramziy, ma’naviy va madaniy xususiyatga ham ega. Ular milliy qadriyatlar, an’analar va global tamaddun o‘rtasidagi muloqot maydonini yaratadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining nafaqat tashkilotchilik maqomi, balki jamiyatdagi roli, ta’sir doirasi, fuqarolar ongidagi o‘rni va salohiyati ham ulkandir. Ushbu yondashuv zamonaviy siyosiy-nazariy va ijtimoiy paradigmalarga mos keladi hamda fuqarolik jamiyatini chuqurroq anglash uchun ilmiy asos bo‘la oladi[3].

XULOSA. Tahlillarga asoslanib, an’anaviy fuqarolik jamiyati tushunchasiga bizning yangicha yondashuvimiz quyidagicha: biz fuqarolik jamiyati institutlarini inson ongida shakllanadigan ma’naviy jarayonlar, ijtimoiy tashabbuslar va o‘zini idora qilish madaniyati bilan chambarchas bog‘langan holda qarash zarur deb hisoblaymiz. Unda fuqarolik jamiyatini faqatgina muayyan institutlar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi: institutlar yuridik va tashkiliy shaklda mavjud bo‘lishi mumkin, ammo ularni hayotbaxsh kuchga aylantiradigan omil — bu inson faoliyati, irodasi va jamoaviy maqsadlarga intilishidir. Shundan kelib chiqib, fuqarolik jamiyatini faqat struktura sifatida emas, balki jarayon sifatida ham talqin qilish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lokk J. Hukumat to‘g‘risida ikkinchi risola. – T.: Sharq, 2006. – B. 33–45.
2. Bobonazarov E. Fuqarolik jamiyati nazariyalari. – T.: Ijtimoiy fikr, 2012. – B. 24–28.
3. Marks K., Engels F. Tanlangan asarlar. – T.: O‘zbekiston, 1998. – T. 1. – B. 55–63.
4. Xabermas Yu. Kommunikativ harakat nazariyasi. – M.: Nauka, 1995. – B. 77–85.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 fevraldagi PF–6166-son Farmoni.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'373.61:82-3

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКАЯ РОЛЬ НАРОДНОЙ ЭТИМОЛОГИИ В ПРОИЗВЕДЕ - НИЯХ Н.С.ЛЕСКОВА

Мавлянова Гульнара Шавкатовна, магистрант 2-курса факультета филологии и искусства УрГУ

N.S.LESKOV ASARLARIDA XALQ ETIMOLO - GIYASINING FUNKSIONAL-STILISTIK ROLI

Mavlyanova Gulnara Shavkatovna, Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti 2-bosqich magistranti

THE FUNCTIONAL-STYLISTIC ROLE OF FOLK ETYMOLOGY IN THE WORKS OF N.S.LESKOV

Mavlyanova Gulnara Shavkatovna, 2nd-year Master's student, Faculty of Philology and Arts Urgench State University



https://orcid.org/0009-0009-8326-2084
e-mail: @mavlyanovagulya9212@gmail.com

Аннотация: *В статье исследуется народная этимология в произведениях Н.С.Лескова как функционально-стилистический приём. Определяются её типы и функции, раскрывается роль в формировании идиостиля писателя и организации художественного текста.*

Ключевые слова: *народная этимология, Н.С.Лесков, идиостиль, художественный текст, стилистическая функция, сказ, лингвопоэтика.*

Annotatsiya: *Maqolada N.S.Leskov asarlarida xalq etimologiyasi funksional-stilistik usul sifatida tadqiq etiladi. Uning turlari va funksiyalari aniqlanadi hamda yozuvchining idiostilini shakllantirish va badiiy matnni tashkil etishdagi roli yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *xalq etimologiyasi, N.S.Leskov, idiostil, badiiy matn, stilistik funksiya, skaz, lingvopoetika.*

Abstract: *The article examines folk etymology in the works of N.S.Leskov as a functional-stylistic device. Its types and functions are identified, and its role in shaping the writer's idiostyle and organizing the literary text is revealed.*

Keywords: *folk etymology, N.S.Leskov, idiostyle, literary text, stylistic function, skaz, linguopoetics.*

Введение. В современной филологической науке наблюдается устойчивый интерес к проблемам функционирования лексических преобразований в художественном тексте, что связано с развитием антропоцентрической парадигмы и усилением внимания к языковой личности писателя. В этом контексте особую значимость приобретает изучение народной этимологии как явления, отражающего специфику национального языкового сознания и механизмы переосмысления слова в речевой практике. Народная этимология, представляющая собой процесс вторичной мотивации и семантического сближения слов на основе формального сходства, в художественном тексте выходит за пределы спонтанной речевой ошибки и становится осознанным стилистическим приёмом.

Творчество Николая Лескова представляет особый интерес в данном аспекте, поскольку язык его произведений отличается ярко выраженной ориентацией на народно-разговорную стихию, сказовую манеру

повествования и индивидуально-авторскую обработку живой речи. В прозе Лескова народная этимология выступает не только как элемент речевой характеристики персонажей, но и как важное средство создания художественного образа, комического эффекта, стилистической многослойности текста. Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых идиостилю писателя и особенностям его языковой системы, функционально-стилистическая роль народной этимологии в произведениях Лескова остаётся недостаточно систематизированной.

Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью комплексного анализа народной этимологии как структурного и стилистически значимого компонента художественного текста, а также уточнения её функций в системе авторского идиостиля. Современный этап развития лингвопоэтики требует рассмотрения подобных явлений не только в аспекте описания языковых фактов, но и с точки зрения их художественной обусловленности и текстообразующего потенциала. Объектом исследования являются художественные произведения Н.С.Лескова. Предметом исследования выступает народная этимология как функционально-стилистический приём в структуре художественного текста.

Цель исследования состоит в выявлении и систематизации функционально-стилистических ролей народной этимологии в произведениях Н.С.Лескова.

Теоретическая значимость работы состоит в уточнении представлений о народной этимологии как элементе художественной речи и расширении подходов к изучению идиостиля писателя. Практическая значимость исследования определяется возможностью использования его результатов в курсах стилистики, лингвопоэтики и истории русской литературы, а также при подготовке спецкурсов, посвящённых языку художественного текста.

Методология и степень научной разработанности проблемы. Изучение народной этимологии в современной филологии осуществляется в русле исторической лексикологии, семасиологии и функциональной стилистики. В научной традиции народная этимология определяется как процесс вторичной мотивации слова, основанный на формальном или звуковом сходстве с иными лексемами, что приводит к его переосмыслению в языковом сознании носителей[1]. Данное явление рассматривается не как случайная ошибка, а как закономерный результат функционирования языка в условиях ограниченной этимологической прозрачности.

Фундаментальные положения о механизмах народной этимологии были сформулированы в трудах А.А.Потебни, который связывал процессы переосмысления слова с особенностями внутренней формы и ассоциативного мышления[2]. В дальнейшем проблема получила развитие в работах В.В.Виноградова, рассматривавшего народную этимологию как один из источников семантических изменений и экспрессивных сдвигов в лексике[3]. Современная лингвистика уточняет данное явление через призму языковой картины мира и когнитивных механизмов интерпретации слова[4].

В художественном тексте народная этимология приобретает особый статус. Она перестаёт быть исключительно спонтанным языковым явлением и становится стилистически мотивированным приёмом. По наблюдению исследователей художественной речи, лексические деформации и переосмысления активно участвуют в создании речевой характеристики персонажа, формировании комического эффекта и стилизации под разговорную стихию[5]. Таким образом, народная этимология в литературном произведении может выполнять не только семантическую, но и текстообразующую функцию.

Творчество Н.С.Лескова в этом отношении представляет особую научную значимость. Исследователи неоднократно отмечали, что писатель создаёт художественный текст на основе переработки живой народной речи, активно используя элементы сказовой манеры[6]. Языковая ткань его произведений характеризуется установкой на разговорность, вариативность и индивидуально-авторскую обработку лексики. Однако, несмотря на

TAMADDUN NURI

значительный объём работ, посвящённых идиостилю Лескова, народная этимология чаще упоминается фрагментарно – в контексте анализа сказа или комизма – без специального функционально-стилистического обобщения.

Методологическую основу настоящего исследования составляет функционально-стилистический подход, предполагающий рассмотрение языкового явления в системе художественного целого. В работе применяются следующие методы:

1. Контекстуальный анализ – для выявления семантических сдвигов и мотивировки употребления деформированных лексем в конкретной речевой ситуации.

2. Семантический анализ – для определения характера переосмысления и механизмов вторичной мотивации.

3. Стилистический анализ – для установления художественной функции народной этимологии (комической, характеристической, экспрессивной и др.).

4. Лингвопоэтический анализ – для выявления роли данного явления в структуре идиостиля писателя.

5. Описательный метод – для систематизации выявленных примеров и построения их типологии.

Такой комплексный подход позволяет рассматривать народную этимологию не изолированно, а в системе художественных средств, обеспечивающих целостность авторского текста. Методологическая установка на функциональность и системность обеспечивает достоверность выводов и их соответствие современному состоянию филологической науки.

Обсуждение. Проведённый анализ позволяет рассматривать народную этимологию в произведениях Николая Лескова не как случайный элемент разговорной речи, а как системно организованный художественный приём. В отличие от спонтанной языковой деформации, возникающей в живой устной коммуникации, в художественном тексте народная этимология оказывается функционально мотивированной и включённой в общую структуру повествования.

Прежде всего следует отметить её тесную связь со сказовой формой повествования. Лесковская манера изложения ориентирована на имитацию устной речи, что предполагает сохранение особенностей народного языкового сознания. Переосмысление слов на основе внешнего сходства или ложной морфемной членимости отражает специфику ассоциативного мышления персонажей. Таким образом, народная этимология выступает как маркер речевой подлинности и средство создания эффекта «живого слова».

В ходе исследования выявлено, что данное явление реализуется в нескольких направлениях. Во-первых, оно участвует в речевой характеристике персонажа. Искажённые или переосмысленные лексемы позволяют передать уровень образования, социальную принадлежность и особенности мировосприятия героя. Подобные языковые трансформации не только индивидуализируют речь, но и формируют социально-психологический портрет персонажа.

Во-вторых, народная этимология выполняет комическую и ироническую функцию. Семантическое рассогласование между нормативной формой слова и его народным истолкованием создаёт эффект смыслового сдвига, что усиливает выразительность текста. Однако комизм у Лескова не сводится к сатирическому высмеиванию; чаще он носит характер мягкой иронии и сопряжён с сочувственным отношением автора к изображаемой среде. Тем самым народная этимология становится средством эстетического осмысления народного сознания.

В-третьих, анализ показывает её участие в формировании экспрессивно-оценочного слоя текста. Переосмысленные слова способны усиливать эмоциональную окраску высказывания, выступая своеобразными концентратами народной оценки. Через такие языковые образования в художественный текст включается коллективный опыт и образность народной речи.

Особого внимания заслуживает текстообразующая функция народной этимологии. В ряде произведений она

TAMADDUN NURI

проявляется не эпизодически, а системно, образуя повторяющиеся модели словесных преобразований. Это позволяет говорить о включённости данного приёма в структуру идиостиля писателя. Повторяемость подобных языковых конструкций формирует узнаваемую стилистическую доминанту и способствует созданию целостного художественного мира.

Полученные результаты подтверждают, что народная этимология в прозе Лескова выполняет многоуровневую функцию: от локальной характеристики персонажа до участия в организации авторской поэтики. Её художественная значимость определяется способностью соединять языковую игру с глубинным отражением национального менталитета.

Таким образом, народная этимология в произведениях Лескова представляет собой не периферийный элемент речевой стилизации, а важный компонент художественной системы, обеспечивающий органическое взаимодействие разговорной стихии и авторской эстетической установки.

Результаты. Проведённый функционально-стилистический анализ художественных текстов Николай Лесков позволил установить, что народная этимология в его прозе обладает системным характером и выполняет комплекс взаимосвязанных функций.

В ходе исследования выявлены следующие разновидности народно-этимологических преобразований:

1. *Фонетически мотивированные переосмысления*, основанные на звуковом сближении слов, что приводит к их семантическому смещению.

2. *Морфологические переразложения*, при которых слово воспринимается как состоящее из иных морфем, чем в нормативной системе языка.

3. *Семантические сближения,* возникающие вследствие ассоциативного переосмысления значения.

4. *Контекстуально-авторские этимологизации,* создаваемые в пределах художественного текста как элемент стилизации.

Подобная типология подтверждает положение о том, что народная этимология в художественной речи может рассматриваться как особый вид вторичной мотивации слова [7].

Установлено, что народная этимология в произведениях Лескова реализует следующие функции:

*Характерологическая функция***.** Народно-этимологические формы служат средством речевой индивидуализации персонажей. Они позволяют реконструировать уровень языковой компетенции героя, его социальный статус и тип мышления. Данный результат коррелирует с положением о том, что художественная речь персонажа является важнейшим элементом его образной характеристики[8].

*Комико-ироническая функция***.** Выявлено, что эффект народной этимологии часто строится на расхождении между нормативным значением слова и его «народным» истолкованием. Это создаёт семантическое напряжение, которое порождает мягкий комизм. Полученные данные подтверждают тезис о роли языковой деформации как источника художественной выразительности[9].

*Экспрессивно-оценочная функция***.** Переосмысленные лексемы в текстах Лескова несут ярко выраженную оценочную нагрузку. Они не только передают индивидуальное восприятие действительности персонажем, но и включают в текст элементы коллективного народного сознания. Тем самым реализуется связь между языковой формой и национально-культурной картиной мира [10].

*Текстообразующая функция***.** Анализ показал, что народная этимология не ограничивается единичными случаями, а формирует устойчивые стилистические модели. Повторяемость подобных преобразований свидетельствует о включённости данного приёма в систему идиостиля писателя. Это позволяет рассматривать народную этимологию как компонент художественной структуры текста[11].

*Идиостилевая значимость***.** Системность употребления народной этимологии в прозе Лескова подтверждает её

TAMADDUN NURI

статус одного из доминантных элементов авторской поэтики. Полученные результаты позволяют уточнить представление об идиостиле писателя как о художественной системе, основанной на синтезе разговорной стихии и авторской эстетической установки.

Заключение. Проведённое исследование позволило определить функционально-стилистическую значимость народной этимологии в произведениях Николая Лескова и её место в системе художественных средств писателя. Уточнено понимание народной этимологии как процесса вторичной мотивации слова; в художественном тексте она выступает не как речевая ошибка, а как осмысленный стилистический приём.

Выделены основные типы народно-этимологических преобразований (фонетические, морфологические, семантические, авторские) и доказано, что они выполняют характерологическую, комико-ироническую, экспрессивную и текстообразующую функции. Показано, что народная этимология является элементом идиостиля Лескова, связанного с принципом сказовости и ориентацией на народно-разговорную речь.

Список литературы:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Советская энциклопедия, 1966. — 608 с.
2. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. — М.: Гослитиздат, 1959. — 654 с.
3. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. — М.: Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.
4. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. — М.: Просвещение, 1993. — 223 с.
5. Потебня А. А. Мысль и язык. — Харьков, 1862. — 196 с.
6. Эйхенбаум Б.М. О прозе. — Л.: Художественная литература, 1969. — 504 с.
7. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. — М., 1972. —368 с.
8. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. — М., 1959. —654 с.
9. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. — М., 1993. — 223 с.
10. Кубрякова Е.С. Язык и знание. — М., 2004. —560 с.
11. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. — М., 1975. — 504 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.018

XALQ SAHNA RAQSINING XALQARO SAHNADAGI NUFUZI

[1]*Aminova Dilrabo Raximovna, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali 2-kurs talabasi*
[2]*Sattarova Gulnoza Botir qizi, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali 1-kurs talabasi*



THE REPUTATION OF FOLK STAGE DANCE ON THE INTERNATIONAL STAGE

[1]*Aminova Dilrabo Rakhimovna, 2nd year student of the Urgench branch of the State Choreography Academy of Uzbekistan*
[2]*Sattarova Gulnoza Batyr kizi, 1st year student of the Urgench branch of the State Choreography Academy of Uzbekistan*
https://orcid.org/0009-0000-1787-2786
e-mail: dilrabo.aminova99@gmail.com

РЕПУТАЦИЯ НАРОДНОГО СЦЕНИЧЕСКОГО ТАНЦА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ СЦЕНЕ

[1]*Аминова Дилрабо Рахимовна, студент 2-курса Ургенчского филиала Государственной хореографической академии Узбекистана*
[2]*Саттарова Гулноза Батыр кызы, студент 1-курса Ургенчского филиала Государственной хореографической академии Узбекистана*

Annotatsiya: *Xalq sahna raqsi uzun tarixiy taraqqiyotga ega san’at turi bo‘lib, u har bir xalqning milliy urf-odatlari, qadriyatlari va badiiy didini o‘zida mujassam etgan. Bu san’at turining rivoji, avvalo, har bir mamlakatda xalq raqslari merosining asrab-avaylanishi va zamonaviy talqinda namoyon etilishiga bog‘liq. Xalq raqsining sahnaga ko‘chirilishi, uning musiqiy hamda dramaturgik ifodasi, zamonaviy uslubda qayta ishlanishi nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro maydonda ham keng e’tirof topmoqda. Ushbu maqolada Xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalq raqsi, sahna raqsi, xalqaro nufuz, milliy madaniyat, raqs san’ati, O‘zbekiston raqslari, madaniy meros, sahna ijrosi, an’anaviy raqs, ijodiy innovatsiya.*

Abstract: *Folk stage dance is an art form with a long historical development, which embodies the national traditions, values, and artistic taste of each people. The development of this art form depends, first of all, on the preservation and modern interpretation of the heritage of folk dances in each country. The transfer of folk dance to the stage, its musical and dramatic expression, and its processing in a modern style are widely recognized not only within the country, but also in the international arena. This article provides information about the influence of folk stage dance on the international stage.*

Keywords: *folk dance, stage dance, international influence, national culture, dance art, dances of Uzbekistan, cultural heritage, stage performance, traditional dance, creative innovation.*

Аннотация: *Народный сценический танец — это вид искусства с долгой историей развития, воплощающий национальные традиции, ценности и художественный вкус каждого народа. Развитие этого вида искусства зависит, прежде всего, от сохранения и современной*

интерпретации наследия народных танцев в каждой стране. Перенос народного танца на сцену, его музыкально-драматическое выражение и его обработка в современном стиле широко признаны не только внутри страны, но и на международной арене. В данной статье представлена информация о влиянии народного сценического танца на международную сцену.

Ключевые слова: *народный танец, сценический танец, международное влияние, национальная культура, танцевальное искусство, танцы, сценическое представление, Узбекистан, культурное наследие, традиционный танец, творческое новаторство.*

KIRISH. Xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi haqida so‘z yuritganda, avvalo, raqsning o‘ziga xosligi va milliyligiga e’tibor qaratish lozim. Har bir xalqning o‘ziga xos harakatlari, musiqa asarlari va liboslari ularning o‘ziga xosligini ifodalaydi. Xalq sahna raqslari ko‘plab mamlakatlarda turli festivallar, ko‘rik-tanlovlar va konsert dasturlarida namoyish etilib kelinmoqda. Bu, o‘z navbatida, milliy raqs san’atining jahon miqyosida tan olinishiga xizmat qiladi. Masalan, O‘zbekiston, Gruziya, Xitoy, Hindiston, Ispaniya va boshqa ko‘plab davlatlarning milliy raqslari xalqaro sahnalarda izlanuvchilar, san’at ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olinadi. Xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi muvaffaqiyati bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, bu san’at turining bevosita xalq hayoti, urf-odatlari va ma’naviyati bilan chambarchas bog‘liqligi hamda xalq ruhiyatining aks etganligidadir. Ikkinchidan, milliy raqs san’atining ulug‘vorligi, o‘ziga xos ifoda vositalari, rang-barang liboslarning mujassamligi xalqaro tomoshabinlarni hayratga soladi. Shu bilan birga, sahna harakatlarining dramatik yondashuvda sahnalashtirilishi san’at asarining badiiy qiymatini oshiradi va tomoshabinda chuqur taassurot qoldiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Xalq sahna raqsining xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatlarida professional raqs ansambllari, xoreograflar va san’at ustalarining xizmatlari beqiyosdir. Ular milliy raqslarning noyob namunalarini asrab-avaylab, ularni sahna san’atiga moslashtirish orqali xalq orasidagi qadimiy urf-odatlarni jahon hamjamiyatiga yetkazish borasida katta ishlar olib bormoqdalar. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar yordamida, televideniye va internet orqali O‘zbekistonning “Lazgi”, “Bahor”, “Andijon polkasi” kabi raqs turlari va boshqa ko‘plab mamlakatlarning milliy raqs namunalarini butun dunyo tomosha qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, milliy san’atlar o‘rtasida madaniy muloqotni mustahkamlab, xalqlarning bir-birini yanada chuqurroq o‘rganishiga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida xalq sahna raqsi xalqaro madaniy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Har yili dunyoning turli burchaklarida tashkil etiladigan xalqaro folklor festivallari, raqs ansambllari ishtirokidagi ko‘rik-tanlovlar, sahnaviy ko‘rgazmalar milliy raqs san’atining xorijiy tomoshabinlar tomonidan qadrlanishiga, o‘rgatilishiga sabab bo‘lmoqda. Bunda nafaqat raqqosalar yoki ansambl a’zolari, balki san’atshunoslar, ilmiy tadqiqotchilar, xoreograflar va bastakorlar ham faol ishtirok etadilar. Ularning izlanishlari natijalarida milliy va zamonaviy raqs uslublarining uyg‘unlashuvi, yangi harakat va uslublarning shakllanishi kuzatilmoqda[1]. Xalq sahna raqsining xalqaro miqyosda nufuz topishida davlat miqyosidagi e’tibor ham muhim o‘rin tutadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida mahalliy va xalqaro grantlar asosida raqs san’ati an’analarini tadqiq qilish va rivojlantirish, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash, milliy merosni asrab-avaylash borasida keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ishlar, ayniqsa, xalqaro hamkorlik doirasida, ya’ni bir mamlakat raqs jamoalarining boshqa davlatlarda birgalikda ishtirok etishi, ularning tajriba almashinuvi, seminar va master klasslarning o‘tkazilishi natijasida yangi raqslar yaratilmoqda va milliy raqslar repertuari boyimoqda[2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Xalq sahna raqslari davlatlar o‘rtasidagi madaniy diplomatiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Keng miqyosdagi madaniy almashinuv va tashriflar, xalqaro festivallarda ishtirok etish hamda xorijiy tomoshabinlar oldida chiqishlar nafaqat milliy san’atning ommalashuviga, balki mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Masalan, o‘zbekistonlik raqs ansambllari dunyoning nufuzli san’at festivallarida doimiy qatnashib kelmoqda va ko‘plab faxrli o‘rinlarni egallamoqda. Bu orqali nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo

TAMADDUN NURI

xalqlari san’ati ham xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. Bir tomondan, xalq sahna raqslari orqali xalqaro maydonlarda mamlakat brendi, milliy g‘urur va o‘ziga xoslik targ‘ib qilinadi. Boshqa tomondan, jahonning boshqa xalqlari bilan do‘stona, madaniy aloqalar vujudga keladi. Boisi, musiqiy, harakat va badiiy ifoda vositalari orqali xalqning yurakdagi tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari, orzu-umidlari, baxt va shodligi butun dunyoga yetkaziladi. Shuning uchun ham, har bir davlat o‘z raqs san’atining xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga katta ahamiyat bermoqda [3]. Xalq sahna raqsining jahon miqyosida keng tarqalganini ko‘rsatadigan misollardan biri– UNESCOning YUNESKO nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan raqs turlaridir. Masalan, o‘zbek xalqining “Lazgi”, gruzin xalqining “Kartuli”, ispan xalqining “Flamenko”, hindistonning “Bharatanatyam”, xitoyning “Yangi yil raqsi” va boshqa ko‘plab raqs turlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu yuksak e’tirof bir tomondan, raqsning xalqaro miqyosda nufuzi va qadrlanishidan, ikkinchi tomondan esa bunday raqslarni ijro etuvchi san’atkorlar va tadqiqotchilarning teran ilmiy faoliyatidan dalolat beradi. Milliy raqs san’atining xalqaro maydonda tan olinishiga sabab bo‘ladigan yana bir muhim omil– bu raqqosa va raqqoslarning sahna madaniyatiga, ijro uslublariga, estetik did va bilimlarga ega bo‘lishidir. Ular har bir chiqishida milliy badiiy an’analarni saqlagan holda, zamonaviy talqinlar va yangi g‘oyalarni o‘z ijrolarida namoyon etadilar. Raqs asarlariga ishlov berish, yangi harakatlarga boyitish, zamonaviy sahna effektlarini qo‘llash haqida buyuk ustozlarning, yirik badiiy rahbarlarning hissasi salmoqli. Ayniqsa, har bir chiqishda tomoshabinlarni hayratga soluvchi badiiy harakatlar, milliy liboslarning yorqinligi va nafosati, noyob musiqiy asarlar ijrosi xalq sahna raqsining e’tirofini kuchaytiradi[4]. Xalq sahna raqsining nufuzi borgan sari ortib borayotganini zamonaviy yoshlar orasida raqs san’atiga qiziqish kuchayishi, yangi raqs to‘garaklari va studiyalarning ochilishi, turli xalqaro loyihalarda faol ishtirok etayotgan iste’dodli raqqosalar paydo bo‘layotganidan ham ko‘rish mumkin. Kelajakka intilgan yosh avlod o‘zining milliy ildizlariga, o‘z urf-odatlariga hurmat bilan yondashib, shu bilan birga zamonaviy san’at yutuqlarini o‘zlashtirmoqda va raqs sahnasida o‘ziga xos yangi yulduzlar safi kengaymoqda. Bu orqali xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi yanada yuqori bosqichlarga ko‘tarilmoqda va jahon san’ati tarixiga yangi sahifalar qo‘shilmoqda. Xalq sahna raqsining rivojlanishi va xalqaro maydonda nufuzi oshishida mana shunday uzviy bog‘liqlik va hamkorlik, tarixiy merosga hurmat, zamonaviy izlanishlar va innovatsiyalarning uyg‘unlashuvi muhim rol o‘ynaydi. Turli xalqlarning raqqosalari, xorijiy tomoshabinlar e’tiborini tortuvchi raqs ansambllari nafaqat o‘z yurti faxri, balki jahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylanmoqda. Hozirgi kunda xalqaro sahnada chiqish qilayotgan har bir jamoa, har bir san’atkor o‘z millatining badiiy dunyoqarashi, orzu-umidlari va eng ezgu qadriyatlarini ifoda etib, madaniy muloqotni rivojlantirmoqda[5]. Xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi tobora ortib borayotganini kuzatish mumkin. Dastlab, xalq raqslari asosan o‘z hududida, mahalliy darajada namoyish etilgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu san’at turi xalqaro festival va madaniy tadbirlarning muhim qismiga aylangan. Har xil mamlakatlarda o‘tkaziladigan xalqaro san’at festivallarida o‘zbek xalq raqslari katta e’tibor va iliqlik bilan kutib olinayotgani bejiz emas. Bu raqslar o‘zining turfa, rang-barang liboslari, ohangdor musiqasi, harakatlarning nafisligi va ifoda boyligi bilan boshqa xalqlarning diqqatini tortadi. Xalq sahna raqsining xalqaro maydondagi obro‘si ko‘plab sabablarga borib taqaladi. Birinchidan, u milliy an’ana va madaniyatning qadimiy ildizlarini o‘z ichiga olib, zamonaviylik bilan uyg‘unlashgan. Bu esa tomoshabinga nafaqat estetik zavq, balki bir xalqning ma’naviy olami, tarixi va urf-odatlari haqida tasavvur beradi. Ikkinchidan, xalq raqslarining yirik san’at ansambllari, yakkaxon raqqosalar chet davlatlarga gastrol safari bilan chiqib, o‘zining yuqori darajadagi mahoratini namoyon qilmoqda hamda xalqaro maydonda o‘zbek madaniyatini targ‘ib qilmoqda. Tahlil natijasida, xalq sahna raqsining nufuzi nafaqat san’at ixlosmandlari, balki keng jamoatchilik orasida ham yuksalib borayotgani seziladi. Ko‘plab xorijiy san’atshunoslar va tomoshabinlar o‘zbek raqslarini o‘rganishga, undan ilhomlanib yangi sahna asarlar yaratishga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, xalq raqsiga bo‘lgan qiziqish xalqaro bosqichda madaniy almashinuvlarni ham kuchaytirib, san’at orqali xalqlar do‘stligining

mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Yana bir muhim natija shuki, yosh avlod orasida ham xalq raqsiga bo‘lgan qiziqish oshib borayapti va ular xalqaro ko‘rgazmalar, tanlovlarda ishtirok etish orqali o‘z ustozlari an’analarini davom ettirmoqdalar. Bu esa xalq raqsining umri uzayib, har bir avlod tomonidan zamonaviy talqinda yashab, rivojlanib borishini ta’minlamoqda[6].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, xalq sahna raqsining xalqaro sahnadagi nufuzi yildan yilga ortib bormoqda. Bunda milliylik va zamonaviy uslub uyg‘unligi, san’atkorlar va mutaxassislarning jonbozligi, davlat va xalqaro tashkilotlarning e’tibori, yoshlarning izlanishlari va tomoshabinlarning qiziqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq sahna raqsi barcha xalqlarning umumiy ma’naviy boyligini oshiradi, ularni yanada yaqinlashtiradi va dunyodagi barchani san’at va go‘zallikka yo‘naltiradi. Shu sababdan xalq raqsining xalqlararo madaniy muloqot va dunyo madaniyati rivojidagi o‘rni beqiyosdir. Bu san’at turi doimo yuksalishda davom etaveradi va yangi-yangi avlodlarni o‘ziga rom qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonova, M. (2017). Bolalarda estetik tarbiyada raqs san’atining ahamiyati. Samarqand: SamDU nashriyoti.
2. Ismoilova, D. (2016). O‘zbek xalq raqslari va ularning hududiy xususiyatlari. San’at va madaniyat jurnali, №3, 45–52.
3. Jo‘rayev, H. (2018). O‘zbek raqs san’ati tarixi. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Karimova, N. (2020). Farg‘ona vodiysi raqslari: Tanovar va uning estetik talqini. Madaniyatshunoslik tadqiqotlari, №2, 33–41.
5. Rahmonova, S. (2015). O‘zbek raqs san’atining ildizlari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
6. Rasulova, Z. (2022). O‘zbek raqs san’atining zamonaviy talqinlari. O‘zbekiston san’ati va madaniyati, №1, 17–24.
7. UNESCO (2019). Khorazm Dance “Lazgi” Inscribed in the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity. UNESCO.org. (https://ich.unesco.org/

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94.(575.3)

NAJMIDDIN ZOHIDIYNING “AL-MUJTABO SHARHU MUXTASARUL QUDURIY” ASARI VA UNING XORAZM VOHASI ILMIY MUHITIDAGI O‘RNI

Najimatdinov Karamatdin, Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti



https://orcid.org/0009-0007-1653-011X
e-mail: talibiilim454@gmail.com

THE WORK “AL-MUJTABA SHARH MUKHTASAR AL-QUDURI” BY NAJMUDDIN ZAHIDI AND ITS ROLE IN THE SCHOLARLY ENVIRONMENT OF THE KHOREZM OASIS

Najimatdinov Karamatdin, PhD student at Karakalpak State University

ПРОИЗВЕДЕНИЕ НАДЖМИДДИНА ЗАХИДИ “АЛЬ-МУДЖТАБА ШАРХ МУХТАСАР АЛЬ-КУДУРИ” И ЕГО МЕСТО В НАУЧНОЙ СРЕДЕ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Нажиматдинов Карамatдин, аспирант Каракалпакского государственного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Najmiddin Muxtor ibn Mahmud az-Zohidiyning “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” asari tahlil qilinadi hamda uning Xorazm vohasi ilmiy muhitidagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Najmiddin Zohidiy, Al-Mujtabo, Muxtasarul Quduriy, hanafiy fiqhi, Xorazm fiqh maktabi, islom huquqi, fiqhiy matn, sharh.*

Abstract: *This article analyzes the work Al-Mujtaba Sharh Mukhtasar al-Quduri by Najmuddin Mukhtar ibn Mahmud al-Zahidi and examines its role in the scholarly environment of the Khorezm oasis.*

Keywords: *Najmuddin Zahidi, Al-Mujtaba, Mukhtasar al-Quduri, Hanafi fiqh, Khorezm fiqh school, Islamic law, fiqh text, commentary.*

Аннотация: *В данной статье анализируется произведение Наджмиддина Мухтара ибн Махмуда аз-Захиди “Аль-Муджтаба шарх Мухтасар аль-Кудури”, а также освещается его место в научной среде Хорезмского оазиса.*

Ключевые слова: *Наджмиддин Захиди, “Аль-Муджтаба”, “Мухтасар аль-Кудури’, ханафитский фикх, хорезмская школа фикха, исламское право, фикхический текст, шарх.*

Kirish. Islom sivilizatsiyasi tarixida fiqh ilmi musulmon jamiyatining huquqiy hayotini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etgan ilmiy sohalardan biridir. Hanafiy fiqh an’anasida tizimli va muxtasar shaklda yozilgan fiqhiy qo‘llanmalar alohida o‘rin egallaydi. Shunday asarlardan biri mashhur hanafiy faqihi Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad al-Quduriy tomonidan yozilgan

“Muxtasarul Quduriy” hisoblanadi. Mazkur asar hanafiy fiqhining asosiy masalalarini qisqa va tizimli shaklda bayon qilgani sababli uzoq vaqt davomida madrasalarda asosiy fiqhiy qo‘llanmalardan biri sifatida o‘qitilib kelgan. Shu sababli bu asarga keyingi davrlarda ko‘plab sharhlar yozilgan va ular orqali fiqhiy masalalar kengroq izohlangan.

Ana shunday sharhlardan biri hanafiy faqihi Najmiddin Zohidiy tomonidan yozilgan “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” asaridir. Ushbu asarda muallif fiqhiy masalalarni sharhlash jarayonida hanafiy fiqh manbalariga tayanib, ularni batafsil izohlaydi hamda ayrim masalalar yuzasidan o‘z ilmiy mulohazalarini bildiradi. Shu jihatdan mazkur asar hanafiy fiqh sharh an’anasining muhim namunalaridan biri hisoblanadi.

Hanafiy fiqh adabiyotida “Muxtasarul Quduriy” va uning sharhlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, Najmiddin Muxtor ibn Mahmud az-Zohidiyning “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” asari ko‘pincha umumiy bibliografik ma’lumotlar bilan cheklanib, uning Xorazm ilmiy muhiti bilan bog‘liqligi va metodologik xususiyatlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shu sababli ushbu maqolada Zohidiyning “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” asarini tahlil qilinadi, uning sharhlash metodologiyasini aniqlanadi hamda asarning XIII asr Xorazm ilmiy muhitidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Tarixiy tahlil. Asarning yaratilgan davri va muallif hayoti, shuningdek, o‘rta asr Xorazm vohasi ilmiy muhitini aniqlash uchun ishlatildi. Bu metod orqali asarning mintaqaviy ilmiy kontekstdagi o‘rni va tarixiy ahamiyati yoritildi.

2. Manbashunoslik tahlili. “Al-Mujtabo sharh Muxtasarul Quduriy” asari va unga bog‘liq qo‘lyozmalar, boshqa hanafiy sharhlar tahlil qilindi. Asarning ilmiy merosi, uning manbalarga tayanishi va sharhlash uslubi aniqlash uchun qo‘llanildi.

3. Matnshunoslik yondashuvi. Asardagi fiqhiy masalalar va ularning izohlanish tartibi o‘rganildi. Asardagi dalil keltirish usullari, ixtiloflarni bayon etish va boshqa olimlar fikrini keltirish uslubi tahlil qilindi.

4. Qiyosiy tahlil. “Al-Mujtabo” sharhi boshqa hanafiy sharhlar bilan taqqoslandi. Bu usul orqali Zohidiyning sharhlash metodologiyasining o‘ziga xosligi va ilmiy yangiligi aniqlandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Najmiddin Muxtor ibn Mahmud az-Zohidiyning “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” asari hanafiy fiqh sharh an’analarida muhim o‘rin egallaydi. Asarni tahlil qilish orqali muallifning sharhlash metodologiyasi hamda uning ilmiy muhit bilan bog‘liq jihatlari aniqlandi.

Avvalo, Zohidiy “Muxtasarul Quduriy” matnini sharhlashda aniq metodologik tamoyillarga amal qilgan. Muallif asar muqaddimasida sharh yozishda o‘z zimmasiga olgan o‘nta metodik tamoyilni bayon qiladi. Bu tamoyillar mujmal iboralarni tafsilot bilan izohlash, murakkab fiqhiy masalalarni tahlil qilish, hukm va illatlarni dalillar bilan asoslash hamda matndagi noaniq jihatlarni aniqlashtirish kabi ilmiy vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv sharhni nafaqat izohiy, balki tahliliy xarakterga ega bo‘lgan ilmiy asarga aylantiradi.

Ikkinchidan, asarda fiqhiy masalalarni bayon etishda maxsus ramzlar tizimi qo‘llanilgan. Muallif turli faqihlar va fiqhiy manbalarga murojaat qilgan o‘rinlarda ularni qisqartirilgan belgilar orqali ko‘rsatadi. Bunday usul asardan foydalanishni qulaylashtirishi bilan birga, fiqhiy rivoyatlarning manbalarini aniq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, “Al-Mujtabo” asarida Xorazm fiqh maktabiga mansub olimlarning qarashlari keng aks etgan. Muallif ko‘plab masalalarda xorazmlik faqihlarning fikrlariga murojaat qilib, ayrim hukmlarni aynan shu ilmiy muhitda shakllangan fatvo an’analari asosida izohlaydi. Asarda “Xorazm imomlari aytadiki” yoki “Xorazm ahlining urfiga ko‘ra” kabi iboralarning qo‘llanishi ushbu ilmiy an’ananing davomiyligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, asarda muallif yashagan davrning tarixiy sharoitiga oid ma’lumotlar ham uchraydi. Zohidiy mo‘g‘ullar bosqinini “ommaviy fitna” sifatida tilga olib, uning ilmiy muhitga ko‘rsatgan salbiy ta’sirini qayd etadi. Bu esa asarni nafaqat fiqhiy sharh, balki o‘sha davr ilmiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi tarixiy manba sifatida ham qimmatli qiladi.

Natijada, “Al-Mujtabo” asari hanafiy fiqh sharh an’analarida muhim ilmiy manba bo‘lish bilan birga, XIII asr Xorazm ilmiy muhitining

fiqhiy qarashlari va metodologik xususiyatlarini aks ettiruvchi asar sifatida ham alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Muhokama. “Muxtasarul Quduriy” Abul Husayn Ahmad ibn Muhammad Quduriy Bag‘dodiy (972-1037) asari bo‘lib, u hanafiy mazhabidagi fiqhiy matn kitoblari ichida eng e‘tiborlisi va o‘rni yuksagidir. U taniqli faqihlar orasida shuhrat qozongan, e‘tibor topgan eng qulay matn kitobi hisoblanadi. Unda 12000 fiqhiy masala zikr qilingan. “Muxtasarul Quduriy”ning e’tibori va shuhrati shu darajaga yetganki, uni vabo kunlari o‘qilsa, vabo yo‘qoladi, deb tabarruk sanashgan[1]. Hanafiylikda “Kitob” deb fiqhiy manba aytilsa, ushbu asar nazarda tutilgan bo‘ladi[2].

“Muxtasarul Quduriy”ning mashhurligi, e’tibori sababli unga juda ko‘p sharhlar, hoshiyalar bitilgan, uni nazmga solishgan. Quyida “Muxtasar”ning ba’zi sharhlarini sanab o‘tamiz:

1. Abu Nasr Aqto’ nomi bilan mashhur bo‘lgan imom Ahmad ibn Muhammad “Muxtasarul Quduriy” asariga ikki jildli sharh yozgan.

2. Jaloliddin Abu Sa’d Mutahhir Husayn Yazdiy “al-Lubob fiy sharhil kitob lil Maydoniy” nomli ikki jildli sharh yozgan.

3. Haddodiy Ibodiy nomi bilan mashhur bo‘lgan imom Abu Bakr ibn Ali “as-Sirojul vahhoj” nomli uch jildlik sharh yozgan.

4. Badruddin Muhammad ibn Mahmud ibn Abdulkarim Kardariy “Muxtasarul Quduriy” asarining mushkul o‘rinlarini ochib beradigan sharh yozgan.

Biz tadqiq etayotgan “Al-Mujtabo” asari ham “Muxtasarul Quduriy”ning mashhur sharhlaridan biridir. Kitobning to‘liq nomi “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” bo‘lib, “mujtabo” so‘zi arabchada “tanlab olingan” degan ma’noni bildiradi.

Asari muallifi Najmiddin Muxtor Zohidiy bo‘lib, alloma XIII asrda yashab ijod qilgan mashhur hanafiy fiqhshunos va mutakallim hisoblanadi. Uning to‘liq ismi – Abu Rajo Najmiddin Muxtor ibn Mahmud ibn Muhammad az-Zohidiy al-Xorazmiy al-G‘azminiy[3.164]. Manbalarda uning tug‘ilgan sanasi aniq qayd etilmagan. Zohidiy Xorazmning G‘azmin degan joyida tavallud topgan bo‘lib, ilmiy faoliyatining muhim qismini Jurjoniyadagi ilmiy markazlarda olib borgan. Alloma “ar-Risalatun-Nosiriyya” asarini yozib tugatganidan (hijriy 658-yil 21-jumadul oxir, milodiy 1260-yili 3-iyun) keyin vafot etgan[4.82].

Ko‘plab olimlar “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” kitobiga yuqori baho bergan. Jumladan, Qurashiy “Javohirul muziyya”da: “U kishi imom, alloma, laqablari “Najmiddin”dir. Uning “Muxtasarul Quduriy”ga yozgan nafis sharhi bor”, degan[5]. Hoji Xalifa: “Uni (Muxtasarul Quduriyni) Najmiddin Muxtor ibn Mahmud Zohidiy Hanafiy (vaf. 658) sharhlagan. U nafis sharhdir. Uch mujalladdan iborat” degan[2]. Abdulhay Laknaviy “Favoidul bahiyya” kitobida: “Men “Mujtabo” va “Qunya” kitoblarini mutolaa qildim. Darhaqiqat, u ikkisining ajoyib masalalarga boy ekanligini, foydali ma’lumotlarning tafsilotlariga to‘laligini ko‘rdim”, deydi[6].

“Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” asarining qo‘lyozma nusxalari jahondagi turli kutubxonalarda saqlanadi. Jumladan: Sulaymoniya kutubxonasi, (Jorulloh Afandi № 734, Chorlulu Ali Posho № 209), Boyazid davlat kutubxonasi (Valiyuddin Afandi № 1177, Murod Mullo № 905-906, Hoji Salim Og‘a № 340) [4.83].

“Al-Mujtabo”ni “Muxtasarul Quduriy”ning boshqa sharhlar bilan taqqoslash orqali muallifning sharhlash metodologiyasining o‘ziga xosligi va ilmiy yangiligi aniqlashimiz mumkin. Yuqorida zikr qilingan sharhlar orasida eng avvalgisi Abu Nasr Aqto’ning sharhi bo‘lib, muallif hijriy 474, milodiy 1081-yilda vafot etgan. E’tiborli jihati shundaki, shorih matn sohibining shogirdi hisoblanadi. Bu esa sharhning qiymatini oshiradi. Zohidiy “Mujtabo”ning ba’zi o‘rinlarida bu sharhga murojaat qilgan. Kitobdagi **“شق”** qisqartmasidan “Sharhul Aqto’” nazarda tutiladi.

“Lubob”ning mualifi hijriy 591, milodiy 1194-yili vafot etgan. Muallif Maydoniy “Muxtasarul Quduriy” asarining mujmal joylarini batafsil bayon qilgan, mutlaq o‘rinlarini qaydlagan va ma‘nolarini qisqacha sharhlagan. Shu bilan birga, kerakli qo‘shimchalar kiritgan, mazhabda fatvo beriladigan va e’timodli qavllar va rivoyatlarga ishora qilgan.

“As-Sirojul vahhoj” muallifi Abu Bakr Haddodiy 800/1397-yili vafot etgan. Mazkur sharh asosida “al-Bahr az-zohir” nomli kitob ham yozilgan. “as-Sirojul vahhoj” uch jildlik katta hajmli sharhdir. Muallif keyinchalik uni

qisqartirib, “al-Javharatun nayyira” nomli ikkinchi qisqacha sharh yozgan.

Badruddin Kardariy (vaf.651/1253) sharhining nomi “Sharhu mushkilotil Quduriy”dir. Shorih matndagi ba’zi masalalarni izohlab, ba’zilarini izohlamasdan qoldiradi. U matndagi barcha masalalarni harfma-harf sharhlamaydi. Mushkul yoki tushunmovchilik tug‘diradigan masalalarni tushuntirgan va aniq bo‘lganlari tashlab ketgan. Shuning uchun ham kitobini “Quduriyning mushkullariga sharh” deb nomlagan[7].

“Mujtabo”ga kelsak, “Muxtasarul Quduriy”ning arabcha ifodasi juda ixcham bo‘lib, kitob va boblarning tartiblanishi har kimga oson tushunarli bo‘lmaganligi sababli, Zohidiy sharhda o‘quvchini shu qiyinchiliklarga duchor qilmaslik maqsadida, matnga bog‘liq qolgan holda, tushunarli va sharhli uslubni afzal ko‘rgan. Musannif o‘z kitobida tutgan yo‘lini va amal qilgan uslubini muqaddimasida bayon qilib shunday deydi: “Bu asarni yozishda Allohning yordami, lutfu karamiga suyanib o‘nta xususiyatga rioya qilishni o‘z zimmamga oldim:

1. Asardagi mujmal (qisqa va umumiy) iboralarni batafsil sharhlash.
2. Undagi yashirin jihatlar va muhim masalalarni aniqlab bayon qilish.
3. Murakkab va qiyin masalalarni yechib tushuntirish.
4. Mushkul muammolarni ochib berish.
5. Matndagi murakkab lafz va tuzilmalarni izohlash.
6. Undagi ishora va ma’nolardagi noaniq jihatlarni ravshan qilish.
7. Hukm va masalalarni tartiblab, bo‘limlarga ajratish.
8. Ularning asoslari va tarmoqlarini dalillar bilan bayon qilish.
9. Xato yoki adashish ehtimoli bo‘lgan o‘rinlarga e’tibor qaratish.
10. Hukm va illatlarni keltirishda asossiz da’volardan saqlanish, shu bilan birga bayonni shunday ixcham qilishki, u ziyrak kishi uchun tushunishga xalal bermasin va ortiqcha cho‘zib yubormasinki, o‘tkir fahmli o‘quvchini zeriktirmasin”[8.4].

Kitobning o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, boshqa sharhlarda mavjud bo‘lmagan ko‘plab masalalar aynan ushbu asarda uchraydi. Zohidiy sharhning boshida, asarning yozilish sababini tushuntirgan muqaddima qismini kiritgan: “Islom diyori bo‘ylab “ommaviy fitna” (mo‘g‘ullar bosqini) keng yoyilib, bu ulkan falokat shariat va hukmlar manbalarini ham qamrab olgan paytda, vayronkor kuchlar ilm talabalariga va ulamolarga ham hukmron bo‘lib qoldi. ...Shu bois ular mendan imomlar imomi, bu ummatning so‘nggi buyuk faqihlaridan biri bo‘lgan Abul Husayn al-Quduriyga nisbat berilgan “al-Muxtasar” asariga sharh yozib berishimni so‘radilar”[8.3]. Bundan ma’lum bo‘ladiki, muallif zamonasining ehtiyojidan kelib chiqib va ba’zi ilm ahllarining iltimosiga binoan ushbu asarni ta’lif qilgan.

Imom Zohidiy “Qunyatul Fatovo” va “al-Hoviy” asarlarida keltirgani kabi “al-Mujtabo”da ham hukmning manbasi yoki muallifini ramz bilan ko‘rsatgan. Ushbu ramzlarning ma’nolari alifbo tartibida asar boshida berilgan.

Zohidiyning Zamaxshariy, Faxriddin Roziy, Mutarriziy va Sakkokiy kabi arab tili va balog‘ati sohasida ulkan asarlar yaratgan xorazmlik olimlarning muhiti ta’sirida shakllanganligi, “Mujtabo”dagi nahv va balog‘atga oid tahlillardan ko‘rinadi. Xususan, Zohidiy ko‘p o‘rinlarda so‘zlarning ma’nolarini izohlashda ustozi Burhoniddin Mutarriziyning “Al-mug‘rib fiy tartibil mu’rib” kitobidan iqtiboslar keltiradi.

Darhaqiqat, muallif kitobdagi masalalarni sharhlashda ustozlari Qozi Ba’di, Ruknul aimma Sabbog‘iylar, shuningdek, Baqqoliy, Tarjumoniy, Vabariy kabi xorazmlik faqih allomalarning qavllariga ko‘p murojaat qiladi. Fatvolarda Xorazm fiqh maktabi qarashlariga tayanadi. “Xorazm imomlari (faqih olimlari) aytadiki”, “Xorazm ahlining urfiga ko‘ra” kabi iboralarni qo‘llaydi.

Bu kitobni sinchiklab o‘rganish orqali, nafaqat fiqh ilmiga doir hukmlarni, balki muallif yashagan davrning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotiga oid qimmatli ma’lumotlarni bilib olish mumkin. Muallif asar xotimasida o‘quvchiga yuzlanib: “Men bu ishda bor kuch-g‘ayratim va imkoniyatimni sarfladim. ...Ammo qalb dunyoviy tashvishlar bilan xastalangan, tafakkur esa yoshning ulg‘ayishi va ko‘p dars berish tufayli zaiflashib, holdan toygandir. Unutish inson tabiatining xususiyatlaridan, xato va adashish esa odamzodning belgilaridandir. Shuning uchun bu sharhni ko‘rib chiqib, uning ibora tuzilishidagi

nozik jihatlari va ma’nolaridagi sirlarni anglay olgan kishilarning karamidan umid qilamanki, agar unda biror xato yoki kamchilik topilsa, ularni tuzatib, kamchiliklarini to‘ldiradilar”, deydi[9]. Ehtimol, muallif “qalb dunyoviy tashvishlar bilan xastalangan” deganida mo‘g‘ullar istilosi keltirib chiqargan vayronagarchilikni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. “Tafakkur esa yoshning ulg‘ayishi va ko‘p dars berish tufayli zaiflashib, holdan toygandir” deganlari esa asar allomaning keksalik holatida, umrining oxirgi yillarida yozilganidan darak beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijasida Najmiddin Muxtor ibn Mahmud az-Zohidiyning “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” asari hanafiy fiqh sharh an’analarida muhim ilmiy manba ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Zohidiy sharhlash jarayonida mujmal iboralarni ochish, murakkab masalalarni tahlil qilish va hukmni dalillar bilan asoslash kabi aniq metodologik yondashuvlardan foydalangan. Bu asarni nafaqat izohiy, balki tahliliy ilmiy asarga aylantiradi. Asarda Xorazm fiqh maktabiga mansub olimlarning qarashlari va fatvo an’analari keng aks etgan, bu esa asarning mintaqaviy ilmiy muhitni ifodalaydigan noyob manba sifatida ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Al-Mujtabo” XIII asr Xorazm ilmiy muhitini hamda hanafiy fiqh sharh adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar orqali zamon olimlarining ilmiy qarashlari, ijtihodiy tanlovlari va ilmiy merosining uzviyligi namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Zohidiyning sharhlash uslubi va metodologiyasi hozirgi fiqhiy tadqiqotlar va tarixiy sharhlarni o‘rganishda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilmiy qiymatga ega ekanligi aniqlanadi.

Umuman olganda, “Al-Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy” asari nafaqat hanafiy fiqh sharh adabiyoti rivojida, balki Xorazm ilmiy maktabining ilmiy merosini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kelajak tadqiqotlari uchun asosiy manba sifatida tavsiya qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.Aminov, S.Primov. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. Toshkent: Movarounnahr. 2017. B.173.
2. Hoji Xalifa. Kashfuz zunun. Bayrut: Doru ihyout turosil arobiy.1942. B.346.
3. Nuretdin Adın. Ebü’r-Recâ Necmüddîn Muhtar ez-Zâhidî’nin hayati ve eserleri. Istanbul: Usul İslam Araştırmaları 40 (2023).
4. Shukru O‘zen. Ez-Zâhidî. TDV İslâm Ansiklopedisi 44-cild. İstanbul, 2013.
5. Abul Vafo Qurashiy. Javohirul muziyya. Ar-Riyod: Hijr. 1993. B.460.
6. Abdulhay Laknaviy. Al-Favoid al-bahiyya fi tarojim al-hanafiyya. Bayrut: Dorul Arqom. 1998. B.349.
7. E.Nizamatdinov. “Sharh mushkulot al-Quduriy” muallifining asarda tutgan uslubi va asardagi ayrim xatolar. Toshkent: Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali, 2025. № 9. B.394.
8. Najmiddin Muxtor Zohidiy. Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy, 1-jild. (Tavfiq Mahmud tahqiqi). Bayrut: Dorur rayohiyn. 2023.
9. Najmiddin Muxtor Zohidiy. Mujtabo sharhu Muxtasarul Quduriy, 5-jild. (Tavfiq Mahmud tahqiqi). Bayrut: Dorur rayohiyn. 2023. B.472.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK:94 (510)+(597):327

VYETNAM–XITOY MUNOSABATLARI ISTIQBOLLARI VA JANUBI-SHARQIY OSIYODA “RAQAMLI IPAK YO‘LI”

Sharipov Baxodir Faxriddinovich, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

PROSPECTS OF VIETNAM–CHINA RELATIONS AND THE “DIGITAL SILK ROAD” IN SOUTHEAST ASIA

Sharipov Bahodir Fakhriddinovich, Tashkent State University of Oriental Studies, basic doctoral student

ПЕРСПЕКТИВЫ ВЬЕТНАМО-КИТАЙСКИХ ОТНОШЕНИЙ И “ЦИФРОВОЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ” В ЮГО-ВОСТОЧНОЙ АЗИИ

Шарипов Баходир Фахриддинович, Ташкентский государственный университет востоковедения, базовый докторант



https://orcid.org/0009-0009-4305-829x

e-mail: Sharipovbakhodir4@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola Vyetnamning Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikka yondashuvining o‘ziga xos jihatlarini, xususan, “Raqamli Ipak yo‘li” loyihasini (u “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining tarkibiy qismi hisoblanadi) amalga oshirish doirasida tahlil qiladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi Vyetnam Sotsialistik Respublikasining Xitoy tashabbusiga javobini o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Bunda mamlakatning axborot xavfsizligini mustahkamlash va raqamli raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan e’tibori, shuningdek, COVID-19 pandemiyasi sharoitida Janubi-Sharqiy Osiyoda “Raqamli Ipak yo‘li” loyihasining oraliq natijalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *“Raqamli Ipak yo‘li”, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi, Xitoy Xalq Respublikasi, Vyetnam Sotsialistik Respublikasi, ASEAN, sanoat va texnologik hamkorlik, raqamli suverenitet, Vyetnamning Xitoy bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirishdagi yondashuv xususiyatlari.*

Abstract: *The article examines the specific features of Vietnam’s approach to cooperation with the People’s Republic of China in the context of implementing the “Digital Silk Road” project, which is one of the направления of the Belt and Road Initiative. The relevance of this topic is обусловлена the need to analyze the response of the Socialist Republic of Vietnam to the Chinese initiative, taking into account its strong focus on strengthening information security and enhancing digital competitiveness, as well as to assess the interim results of the implementation of the “Digital Silk Road” in Southeast Asia under the conditions of the COVID-19 pandemic.*

Key words: *“Digital Silk Road,” Belt and Road Initiative, People’s Republic of China, Socialist Republic of Vietnam, ASEAN, industrial and technological cooperation, digital sovereignty, features of Vietnam’s approach to implementing joint projects with China.*

Аннотация: *Статья выявляет особенности подхода Вьетнама к сотрудничеству с КНР в контексте реализации последней проекта “цифрового Шёлкового пути” как одного из направлений Инициативы пояса и пути. Актуальность этой темы обусловлена необходимостью анализа как ответа на китайскую инициативу со стороны СРВ, учитывая её пристальное внимание к укреплению собственной информационной безопасности и повышению цифровой конкурентоспособности, так и промежуточных итогов реализации “цифрового Шёлкового пути” в Юго-Восточной Азии в условиях пандемии COVID-19.*

Ключевые слова: *“цифровой Шёлковый путь”, Инициатива пояса и пути, КНР, СРВ, АСЕАН, промышленное и технологическое сотрудничество, цифровой суверенитет, особенности подхода Вьетнама к реализации совместных с Китаем проектов.*

Kirish. Xalqaro ekspertlar hamjamiyati Xitoy Xalq Respublikasining yirik strategik tashabbusi – “Bir kamar, bir yo‘l” (BKBY) loyihasining amalga oshirilishini diqqat bilan kuzatib kelmoqda. COVID-19 pandemiyasi sharoitida Xitoy ushbu tashabbus doirasidagi ayrim loyihalarni vaqtincha to‘xtatgan bo‘lsa-da, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan “Raqamli Ipak yo‘li” (RIY)ning ahamiyati aksincha ortdi. Ushbu yo‘nalish davlat va korporativ sektorlarning ishlab chiqarish, biznes va istiqbolda tashqi iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantiruvchi muhim omilga aylandi.

Asosiy qism. Raqamli Ipak yo‘lining mazmuni, amalga oshirish jarayoni va istiqbollari, jumladan Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida, xorijiy va mahalliy olimlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu tashabbusning maqsadlari, yo‘nalishlari va kutilayotgan natijalari asosan Xitoyning ichki rivojlanish ustuvorliklari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Ayrim tadqiqotchilar esa Xitoyning global internet standartlarini belgilash imkoniyatlarini ham alohida ko‘rsatib o‘tgan. Shuningdek, AQSh nuqtayi nazari va Janubi-Sharqiy Osiyoga ta’siri ham ilmiy ishlarda yoritilgan. Mahalliy va Vyetnam ilmiy adabiyotlarida Raqamli Ipak yo‘li mavzusi kam yoritilgan bo‘lsa-da, uning ayrim jihatlari turdosh tadqiqotlarda uchraydi. Xususan, “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi, axborot xavfsizligi, “aqlli shaharlar” konsepsiyasi va kiberxavfsizlik masalalari doirasida ushbu yo‘nalish bilvosita ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlar Vyetnamning Raqamli Ipak yo‘lidagi o‘rnini to‘liq ochib bermaydi. Bu esa ilmiy bilimda bo‘shliq yuzaga keltirib, ushbu masalani chuqurroq o‘rganish zaruratini tug‘diradi. Mazkur tadqiqotning nazariy va metodologik asosi sifatida tizimli-tarixiy yondashuv hamda siyosiy neorealizm uyg‘unligi tanlangan. Tadqiqot davomida turli manbalar, jumladan Vyetnam tilidagi ma’lumotlar ham tahlil qilindi. Bu esa global va mintaqaviy rivojlanish tendensiyalarini hamda Vyetnam siyosatining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Vyetnamning Xitoy bilan Raqamli Ipak yo‘li doirasidagi hamkorlikka nisbatan yondashuvi, uning Janubi-Sharqiy Osiyoga ta’siri va ehtimoliy xatarlar baholanadi. Mualliflarning fikricha, Raqamli Ipak yo‘li Xitoyning sanoat va texnologik siyosatini kuchaytirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Biroq ushbu tashabbusning mintaqada amalga oshirilishi davlatlarning axborot-kommunikatsiya sohasida mustaqil siyosat yuritish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli Vyetnam rahbariyati Xitoy bilan hamkorlikda ehtiyotkor va tanlab yondashuvni qo‘llamoqda, bir vaqtning o‘zida o‘zining raqamli raqobatbardoshligini oshirish choralarini ko‘rmoqda. Bu esa Xitoy va Vyetnam o‘rtasidagi Raqamli Ipak yo‘li bo‘yicha hamkorlik yaqin kelajakda keskin faollashishi ehtimolini past darajada baholashga asos bo‘ladi.

Janubi-Sharqiy Osiyo Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” megastrategiyasida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu hudud orqali ikki quruqlik iqtisodiy koridori hamda XXI asr Dengiz Ipak yo‘lining bir qismi o‘tadi. Raqamli Ipak yo‘li ushbu tashabbusning ajralmas qismi sifatida mintaqa davlatlariga o‘z raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Bu avvalo, infratuzilmaviy tafovutlarni qisqartirish, ishlab chiqarish jarayonlarini qayta tashkil etish va biznes subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni yengillashtirish orqali amalga oshadi. COVID-19 pandemiyasi sabab yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz sharoitida qisqa muddatda ushbu tashabbusda ishtirok etish katta foyda keltirishi mumkin. Ammo o‘rta muddatli istiqbolda bunday yordamning xarajatlari ham sezilarli bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Raqamli Ipak yo‘li ilk bor 2015-yilda Xitoyning rasmiy hujjatlarida tilga olingan. Keyinchalik u Xitoy va ASEAN davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikda muhim yo‘nalishga aylandi. Xitoy biznesi ham ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatlashdan manfaatdor edi. 2015-yilga kelib, mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan optik tolali kabel ishlab chiqarishda ortiqcha hajm 50 foizga yetdi. Bu esa tashqi bozorlarga chiqishni zaruratga aylantirdi. Natijada davlat va biznes manfaatlarining uyg‘unligi Xitoy uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Birinchidan, AKT mahsulotlari eksportining oshishi uning xalqaro sanoat hamkorligidagi pozitsiyasini mustahkamlaydi. Transchegaraviy infratuzilma qurilishi Xitoy texnologiyalarini joriy etish va xizmat ko‘rsatish bilan birga olib boriladi, bu esa hamkor davlatlar korxonalarining Xitoy texnologiyalariga bog‘lanib qolishiga olib keladi. Ikkinchidan, Xitoy uchun AKT yechimlarini

eksport qilish moliyaviy jihatdan foydalidir. Bu orqali ko‘plab Xitoy kompaniyalari xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Katta ma’lumotlar va prognoz tahliliga asoslangan raqamli platformalar savdo aloqalarini Xitoy kompaniyalari atrofida jamlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, Raqamli Ipak yo‘li Xitoyga “inklyuziv globalizatsiya” g‘oyasini ilgari surish va uni shakllantirish imkonini beradi. Masalan, Alibaba kompaniyasi global elektron savdo platformasini yaratish tashabbusini ilgari surgan bo‘lib, bu 2016-yilda G20 sammiti yakuniy hujjatlarida ham aks etgan. Ushbu rejalar amaliyotda ham o‘z ifodasini topmoqda. Xitoy kompaniyalari Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va G‘arbiy Yevropani bog‘lovchi SeaMeWe-5 suv osti kabeli loyihasida ishtirok etmoqda. Shu bilan birga, Xitoy raqamli transchegaraviy to‘lov infratuzilmasini ham rivojlantirmoqda.

“Raqamli Ipak yo‘li” — Vyetnam va Xitoy hamkorligi omili sifatida. Vyetnam va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar tarixan murakkab va ikkiyoqlama (ambivalent) xarakterga ega bo‘lib kelgan. Bu aloqalarda urushlar ham bo‘lgan, ular vyetnamliklar ongida “shimoliy qo‘shni”ni tajovuzkor davlat sifatida tasavvur qilishga olib kelgan. Shuningdek, chegaraviy-hududiy nizolar ham uzoq vaqt davom etgan. Shu sababli, Vyetnam aholisining qariyb 80 foizi Xitoyga salbiy munosabatda bo‘lib, uning ta’siri ortishini mamlakat uchun asosiy tahdid deb hisoblaydi. Biroq shunga qaramay, Vyetnam rahbariyati bilan siyosiy muloqot intensivligi bo‘yicha Xitoyga teng keladigan davlatni topish qiyin. Ikki mamlakat kommunistik partiyalari o‘rtasida yaqin aloqalar mavjud bo‘lib, ularning bo‘limlari va hududiy boshqaruv organlari o‘rtasida ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Xitoy va Vyetnam o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. 2019-yilda o‘zaro savdo hajmi rekord darajadagi 117 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, bu Vyetnam tashqi savdosining 22,6 foiziga tengdir. COVID-19 pandemiyasi ham bu jarayonga jiddiy ta’sir ko‘rsatmadi: 2020-yilning dastlabki yetti oyida savdo hajmi 65,2 milliard dollarga yetib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 foizga oshdi. Xitoyning Vyetnamdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari hajmi 21,3 milliard dollarni tashkil etib, ular 3 mingdan ortiq loyihalar orqali amalga oshirilmoqda. Bu investitsiyalar asosan yirik shaharlar va dengizbo‘yi hududlarda joylashgan bo‘lib, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish sohalariga qaratilgan. Rasmiy darajada Xanoy ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatlaydi, bu 2017 va 2019-yillarda Xitoyda o‘tkazilgan sammitlarda ham tasdiqlangan. 2017-yilda Si Szinpinning Xanoyga tashrifi chog‘ida BKBY tashabbusini “Ikki iqtisodiy koridor va bir kamar” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish to‘g‘risida memorandum imzolangan. Bu kelishuvga ko‘ra, chegaradosh hududlarda transport infratuzilmasini rivojlantirish va Vyetnamni ASEAN bozorlariga Xitoy mahsulotlari kirib boradigan “kirish nuqtasi”ga aylantirish mamlakat iqtisodiyoti va xavfsizligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutiladi.

XULOSA. Umuman olganda, Vyetnam rahbariyati mamlakat axborot xavfsizligini ta’minlash strategik ahamiyatga ega ekanini chuqur anglaydi. Shu sababli, u mustaqil va samarali kiberxavfsizlik tizimini yaratishga intilmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Xanoy “Raqamli Ipak yo‘li” doirasida Xitoy bilan hamkorlikni jadallashtirishga shoshilmayapti. Aksincha, u o‘zining ichki salohiyatini mustahkamlash va tashqi hamkorlikni diversifikatsiya qilish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlashga harakat qilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pedanov V.A., Mitroxin M.Yu., Nguyen Kuok Hung, Yakovlev A.A.Rossiya Federatsiyasi va Vyetnam Sotsialistik Respublikasi o‘rtasida axborot-texnologik hamkorlikning rivojlanishi. Moskva: Rossiya Fanlar akademiyasi Uzoq Sharq instituti nashriyoti, 2020. 159–171-betlar.
2. Kiruvchi kiberhujumlar soni bo‘yicha Vyetnam faqat Rossiyadan ortda qoladi//*Regnum.ru*, 15.01.2019. Manba: https://regnum.ru/news/society/2559489.html
3. Rubchenko M.V. Pekinda jahon iqtisodiyotida yuan hududini yaratish taklifi ilgari surildi // *Vedomosti*, 15.07.2020. Manba: https://www.vedomosti.ru/economics/articles/2020/07/14/834581-v-pekine-prizvali-k-sozdaniyu-yuanevoi-zoni
4. Terskix M.A. Bir kamar, bir yo‘l: Vyetnam nigohida // *Janubi-Sharqiy Osiyo: rivojlanishning dolzarb muammolari*, 2019, №2 (43). 166–171 betlar.
5. Greene R., Triolo P. Xitoy Raqamli Ipak yo‘li orqali global internetni nazorat qila oladimi? // *Carnegie Endowment for International Peace*, 08.05.2020. Manba: https://carnegieendowment.org/2020/05/08/wil-china-control-global-internet-via-its-digital-silk-road-pub-81857

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 342.5(575.1)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ФАОЛИЯТ ЮРИТАЁТГАН ДАВЛАТ ОРГАНЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШУВЧИ ИЧКИ НАЗОРАТ БЎЛИМЛАРИНИНГ РОЛИ (КОМПЛАЕНС НАЗОРАТ)

Давлатов Баҳодир Акбар ўғли, Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси докторанти

THE ROLE OF INTERNAL CONTROL DEPARTMENTS IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN STATE BODIES OPERATING IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (COMPLIANCE CONTROL)

Davlatov Bahodir Akbar o'gli, doctoral student of the Academy of Law Enforcement

РОЛЬ ОТДЕЛОВ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНАХ, ДЕЙСТВУЮЩИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (КОНТРОЛЬ НА СОБЛЮДЕНИЕ НОРМ)

Давлатов Баходир Акбар оглы, докторант Академии правоохранительных органов



https://orcid.org/0009-0002-9303-1609
e-mail: bahodirdavlatov05142001@gmail.com

Аннотация: *Мазкур мақолада давлат органлари ва ташкилотларида коррупцияга қарши курашишнинг самарали механизми сифатида "комплаенс назорат" тизимининг жорий этилиши, унинг мазмун-моҳияти ва аҳамияти таҳлил қилинган. Мақолада Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий ислоҳотлар доирасида ички назорат тузилмаларининг ҳуқуқий асослари, уларнинг функциялари ҳамда халқаро стандартларга (ISO 37001, OECD тавсиялари) мувофиқлиги ўрганилган. Шунингдек, коррупциявий хавф-хатарларни аниқлаш ва олдини олишда комплаенс хизматларининг роли ёритилиб, тизим самарадорлигини ошириш бўйича илмий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *коррупция, комплаенс назорат, ички назорат, давлат органлари, коррупцияга қарши курашиш, Ўзбекистон, халқаро тажриба, манфаатлар тўқнашуви, ISO 37001.*

Abstract: *This article analyzes the introduction of the "compliance control" system as an effective mechanism for combating corruption in state bodies and organizations, its content, essence and significance. The article studies the legal basis of internal control structures within the framework of administrative reforms in the Republic of Uzbekistan, their functions and compliance with international standards (ISO 37001, OECD recommendations). It also highlights the role of compliance services in identifying and preventing corruption risks, and develops scientific proposals and recommendations to improve the effectiveness of the system.*

Keywords: *corruption, compliance control, internal control, state bodies, combating corruption, Uzbekistan, international experience, conflict of interest, ISO 37001.*

***Аннотация**. В данной статье анализируется внедрение системы "контроля за соблюдением норм" как эффективного механизма борьбы с коррупцией в государственных органах и организациях, ее содержание, сущность и значение. Изучается правовая основа структур внутреннего контроля в рамках административных реформ в Республике Узбекистан, их функции и соответствие международным стандартам (ISO 37001, рекомендации ОЭСР). Также освещается роль служб контроля за соблюдением норм в выявлении и предотвращении коррупционных рисков, разрабатываются научные предложения и рекомендации по повышению эффективности системы.*

***Ключевые слова:** коррупция, комплаенс-контроль, внутренний контроль, государственные органы, противодействие коррупции, Узбекистан, международный опыт, конфликт интересов, ISO 37001.*

КИРИШ. Бугунги кунда коррупцияга қарши курашиш нафақат жиноят-ҳуқуқий чоралар кўриш, балки унинг сабаб ва шароитларини барвақт аниқлаш ҳамда бартараф этишга қаратилган профилактик механизмларни кучайтиришни талаб этади. Глобаллашув шароитида давлат бошқаруви тизимининг шаффофлиги ва ҳисобдорлигини таъминлаш мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлиги ва халқаро майдондаги обрўсига бевосита таъсир кўрсатади. Шу нуқтаи назардан, давлат органларида "комплаенс назорат" (compliance control) тизимини жорий этиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Интеграциялашган назоратнинг дастлабки моделлари 90-йилларнинг бошларида Америка бозорида "COCO" моделининг ишлаб чиқилиши билан пайдо бўлди.

Кейинчалик, 2004 йилда ушбу модел Enterprice Risk Management (Компания рискларини бошқариш) соҳасидаги иккинчи модел — COCO Репорт ИИ билан янгиланди. Унда ички назорат тизими рискларни бошқаришнинг умумий жараёни контекстига киритилди. Сўнгра, 2013 йилда ушбу моделнинг янги таҳрири тайёрланди (Мосса, 2013)[1][1].

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенцияси (UNCAC) давлатларни коррупциянинг олдини олиш бўйича самарали сиёсат юритишга чақиради. Ўзбекистон Республикасида сўнгги йилларда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар, хусусан, Президентимиз Шавкат Мирзиёев бошчилигида коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсати тубдан янги босқичга кўтарилди [2] [2]. Биргин мисол давлат идораларида коррупцияга қарши ички назорат тузилмаларининг янгитдан ташкил этилиши бу борадаги муҳим қадамлардан бири бўлди.

Мавзунинг ўрганилганлик даражаси. Комплаенс назорат ва коррупцияга қарши ички бошқарув тизимлари жаҳон илм-фанида кенг ўрганилган мавзулардан ҳисобланади. Facchini & Seghezzanинг сўзларига кўра "Анъанавий назорат воситалари ва бошқа ҳуқуқий-конституциявий кўрсатмаларни тўлдириш учун муайян тизимлар (framework) доирасида ишлаш орқали комплаенсни (мувофиқликни) кучайтириш заруратига қаратилган янги йўналишлар пайдо бўлди" [3] [3] деб ўзининг изланишларида келтириб ўтган.

Тадқиқот методологияси. Мақолада мавзуни ёритишда умум илмий ва махсус тадқиқот усулларидан фойдаланилган. Таҳлил жараёнида тизимли таҳлил, қиёсий-ҳуқуқий таҳлил, мантиқий умумлаштириш ва статистик маълумотларни ўрганиш усуллари қўлланилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашишга оид қонунчилиги халқаро стандартлар (ISO 37001:2016) ва илғор хорижий давлатлар

[1] International Journal of Business and Management; Vol. 13, No. 5; 2018 ISSN 1833-3850 E-ISSN 1833-8119
Published by Canadian Center of Science and Education.
https://pdfs.semanticscholar.org/219d/d9cc9593e9cd49075eee3f9c867f3ee3f2e2.pdf

[2] https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/korrupciyaga_qarshi_kurashish_tizimi_yangi_bosqichga_kutarilmoqda

[3] https://doi.org/10.1016/j.econmod.2018.01.014


тажрибаси (АҚШ, Сингапур, Европа Иттифоқи давлатлари) билан қиёсий ўрганилди.

АСОСИЙ ҚИСМ. Давлат секторида комплаенс назорат – бу давлат хизматчилари томонидан хизмат вазифаларини бажаришда қонунийлик, ҳалоллик ва этика қоидаларига риоя этилишини назорат қилувчи, шунингдек, коррупциявий хавф-хатарларни бошқарувчи доимий тизимдир. Анъанавий назорат турларидан (молиявий аудит, тафтиш) фарқли ўлароқ, комплаенс назорат асосан профилактик характерга эга. Унинг бош мақсади қоидабузарлик содир этилгандан сўнг жазолаш эмас, балки қоидабузарликка олиб келувчи сабабларни (коррупциоген омилларни) бартараф этиш орқали қонун бузилишининг олдини олишдир.

Давлатимиз раҳбарининг 2025 йил 26 декабрь куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномасида қуйидаги истиқболдаги фикрларни келтириб ўтди, яъни “Барча идораларда комплаенс ва коррупцияга қарши ички назоратга масъул ўринбосар лавозими жорий этилади. Ҳисоб палатасининг вакили фаолияти йўлга қўйилади. Ушбу раҳбарлар тизимдаги нопок шахсларни аниқлаш, шунингдек, бюджет маблағи талон-тарож бўлиши ва мансабни суиистеъмол қилиш ҳолатларининг олдини олиш бўйича таъсирчан назорат ўрнатади ва Президент олдида ҳисобот беради” деб таъкидлаб ўтди. Ушбу мақоламиз доирасида кузатув методи орқали ҳозирги кунда давлат органларининг “комплаенс ва коррупцияга қарши кураш” бўлимига кадрларни танлаб олишда эскича тизимдан фойдаланиб келинганини кузатдик. Биз ушбу ўрганишларимиз натижасида “комплаенс ва коррупцияга қарши кураш” бўлимига кадрларни танлаб олишда янгича талабларни кўриб чиқишимиз зарурлиги ҳақида хулосага келдик, демак бу тизим қуйидагича амалга оширилиши зарур, “комплаенс ва коррупцияга қарши кураш” бўлимига дастлаб ишга қабул қилишда коррупцияга қарши курашиш йўналишида махсус ўқув курсларидан ўтганлик тўғрисида сертификатга эга бўлиш ҳамда ушбу сертификатнинг олинганига 6 ойдан ошмаганлиги бўлиши зарурлиги керак.

Ушбу мақолада кўрсаткичлар ўзларининг постулацияланган конструкцияларини етарли даражада акс эттирганлигини текшириш учун тасдиқловчи омил таҳлили (CFA) қўлланилди (Sellbom & Tellegen, 2019). Икки даражали иерархик чизиқли модель ишлаб чиқилди. Ижтимоий фанлар учун статистик пакет (SPSS) 21.0 ва момент тузилиши таҳлили (AMOS) 26.0 дан фойдаланган ҳолда, таклиф қилинган концептуал модель ва гипотезалар синовдан ўтказилди (Yuan & Chan, 2016). Кузатиладиган кўрсаткичлар ва уларнинг яширин конструкцияси ўртасидаги боғлиқлик, шунингдек, кичик ўлчамлар ўртасидаги муносабатлар ўрганилди (Williams & O’Boyle, 2015). Конвергент валидлик, конструкция валидлиги ва конструкция ишончлилиги мезонлари ўрганилди (Ҳаир ва бошқалар , 2015). Концептуал модел 1-расмда кўрсатилган[4].

1-расм



Комплаенс назорат самарадорлигини оширишнинг йўллари. Амалга оширилган ижобий ишларга қарамай, соҳада айрим муаммолар сақланиб қолмоқда. Хусусан, айрим

[4] https://www.emerald.com/lbsjmr/article/21/1/135/270800/Evaluating-the-impact-of-internal-control-systems

идораларда ички назорат бўлимларининг ваколатлари чекланганлиги, кадрлар салоҳиятининг етишмаслиги кузатилади. Тизим самарадорлигини ошириш учун қуйидаги чораларни кўриш мақсадга мувофиқдир, яъни ички назорат ходимларининг мустақиллигини қонунчилик даражасида янада кафолатлаш ва уларни ижтимоий ҳимоя қилиш, рақамли технологияларни кенг жорий этиш (“E-Compliance”), инсон омилини камайтириш учун сунъий интеллект ёрдамида хавфларни таҳлил қилиш тизимини йўлга қўйиш, давлат хизматчиларининг даромадлари ва мол-мулкини декларациялаш тизимини тўлиқ ишга туширишда комплаенс тузилмаларининг ролини ошириш, жамоатчилик назорати институтлари билан ҳамкорликни кучайтириш.

ХУЛОСА. Хулоса қилиб айтганда, давлат органлари фаолиятида коррупцияга қарши курашувчи ички назорат (комплаенс назорат) бўлимлари – бу давлат бошқарувининг шаффофлиги ва самарадорлигини таъминловчи стратегик муҳим институтдир. Ўзбекистонда мазкур тизимнинг жорий этилиши давлат хизматида ҳалоллик маданиятини шакллантириш ва коррупциявий омилларни тизимли бартараф этиш имконини бермоқда. Келгусида ушбу тузилмалар фаолиятини такомиллаштириш, уларни халқаро стандартларга тўлиқ мослаштириш ҳамда рақамли ечимлардан фойдаланиш орқали коррупцияга қарши курашишнинг янги босқичига эришиш мумкин. Бу эса, ўз навбатида, халқнинг давлат ҳокимиятига бўлган ишончини оширишга ва мамлакатнинг барқарор иқтисодий ривожланишига хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. International Journal of Business and Management; Vol. 13, No. 5; 2018 ISSN 1833-3850 E-ISSN 1833-8119 Published by Canadian Center of Science and Education.
2. United Nations. (2004). *United Nations Convention against Corruption*. New York: United Nations.
3. Facchini, F., & Seghezza, E. (2018). Public spending structure, minimal state and economic growth in France (1870–2010). Economic Modelling, 72, 151–164.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги ЎРҚ-419-сон Қонуни.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 12.01.2022 йилдаги “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-81-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.01.2022 й., 07/22/81/0017-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон; 01.03.2025 й., 06/25/27/0196-сон; 30.12.2025 й., 06/25/270/1252-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6013-сон Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 апрелдаги Давлат органлари ва ташкилотларининг коррупцияга қарши ички назорат бўлинмалари мустақиллигини таъминлаш ҳамда фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-147-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.04.2025 й., 07/25/147/0367-сон.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 июлдаги “Коррупцияга қарши курашиш фаолиятини самарали ташкил этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5177-сон қарори.
9. OECD. (2020). *OECD Public Integrity Handbook*. OECD Publishing, Paris.
10. ISO 37001:2016. *Anti-bribery management systems — Requirements with guidance for use*. International Organization for Standardization.
11. Азизов, Х. (2025). Внутренний (комплаенс) контроль в деятельности по формированию антикоррупционного поведения сотрудников органов внутренних дел. *Общество и инновации*, 6(1), 353–362.
12. Примов Ф.А. (2023). *Давлат бошқарувида коррупцияга қарши курашишнинг маъмурий-ҳуқуқий жиҳатларини такомиллаштириш*. Юридик фанлар доктори (DSc) диссертацияси. Тошкент.
13. Anticorruption.uz Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги расмий веб-сайти маълумотлари.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UO'K:070:316.77:305

MILLIY TELEVIDENIYEDA GENDER DISKURSI

Karimova Gulnoza Davronovna, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tayanch doktoranti



https://orcid.org/0009-0000-1553-7335

e-mail: gulnozadkarimova@gmail.com

GENDER DISCOURSE IN NATIONAL TELEVISION

Karimova Gulnoza Davronovna, PhD student, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

ГЕНДЕРНЫЙ ДИСКУРС НА НАЦИОНАЛЬНОМ ТЕЛЕВИДЕНИИ

Каримова Гулноза Давроновна, докторант (PhD), Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston milliy televideniyesida gender diskursining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot tanqidiy diskurs tahlili metodologiyasi asosida olib borilib, televideniyedagi gender reprezentatsiyasi, stereotiplar va ularning auditoriya ongiga ta'siri o'rganildi. Natijada milliy televideniyeda gender diskursining ichki ziddiyatlari, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlanadi hamda gender sezgir media modelini joriy etish zarurati asoslab berildi.*

Kalit so'zlar: *gender diskursi, televideniye, media, reprezentatsiya, stereotip, CDA, gender tengligi, jurnalistika.*

Annotation: *This article examines the formation and development of gender discourse in the national television of Uzbekistan. The research is based on the methodology of critical discourse analysis, focusing on gender representation, stereotypes, and their impact on audience perception. The findings reveal internal contradictions within gender discourse, differences between traditional and modern approaches, and highlight the necessity of implementing a gender-sensitive media model.*

Keywords: *gender discourse, television, media, representation, stereotype, critical discourse analysis, gender equality.*

Аннотация: *В статье анализируются особенности формирования и развития гендерного дискурса на национальном телевидении Узбекистана. Исследование основано на методологии критического дискурс-анализа, в рамках которого рассматриваются гендерные репрезентации, стереотипы и их влияние на общественное сознание. В результате выявлены внутренние противоречия гендерного дискурса, различия между традиционными и современными подходами, а также обоснована необходимость внедрения гендерно-чувствительной модели медиа.*

Ключевые слова: *гендерный дискурс, телевидение*, медиа, репрезентация, *стереотип, критический дискурс-анализ, гендерное равенство.*

Kirish. Globallashuv sharoitida gender tengligi masalasi nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki kommunikativ va madaniy fenomen sifatida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniye, gender tasavvurlarini shakllantirish va qayta ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Televideniye orqali berilayotgan obrazlar, narrativlar va diskursiv strategiyalar auditoriyaning ijtimoiy ongiga bevosita ta'sir

ko‘rsatadi. Shu bois milliy televideniyedagi gender diskursini ilmiy asosda tahlil qilish, undagi stereotiplar, ideologik konstruktsiyalar va reprezentatsiya mexanizmlarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi. O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, bu jarayonda media, xususan televideniye muhim kommunikativ platforma vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, televideniyedagi gender diskursining mazmuni va yo‘nalishini o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Gender diskursi va uning ommaviy axborot vositalaridagi namoyon bo‘lishi masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Xususan, tanqidiy diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis – CDA) [1] doirasida olib borilgan tadqiqotlar genderning til, kommunikatsiya va ijtimoiy amaliyotlar bilan uzviy bog‘liqligini ochib beradi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda diskurs va gender masalalari N.Fairclough (1995), T. van Dijk (2008), R.Wodak (1997) kabi olimlar tomonidan ijtimoiy hokimiyat, ideologiya va tengsizlik munosabatlari kontekstida tahlil qilingan. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, diskurs nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi va normallashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Gender nazariyasi doirasida J.Butler (1990) genderni performativ hodisa sifatida talqin qilib, uning til va ijtimoiy amaliyotlar orqali muntazam ravishda qayta ishlab chiqilishini asoslaydi. R.Connell (2002) esa genderni ijtimoiy struktura va hokimiyat munosabatlari tizimi sifatida izohlab, undagi iyerarxik munosabatlarga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, P.Berger va T.Luckmann (1966) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, gender ijtimoiy voqelikning mahsuli sifatida shakllanadi. Media va gender munosabatlarini o‘rganishda S.Hall (1997) tomonidan ishlab chiqilgan reprezentatsiya nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni ma’lum ma’noda konstruksiya qiladi. Shu jihatdan televideniye gender obrazlarini shakllantirishda faol diskursiv maydon hisoblanadi. MDH mamlakatlari ilmiy adabiyotlarida ham gender va media masalalari turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Xususan, gender identifikatsiyasi va media diskursining shakllanishi jurnalistika va sotsiologiya kesimida kompleks tahlil qilingan. O‘zbekistonda gender va media masalalarini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Yo. Mamatova va S.Sulaymanova (2016) O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarida gender munosabatlarining aks etishini tahlil qilib, mediada gender balansini ta’minlash muammolarini ko‘rsatib bergan. N.Qosimova va N.Alimova (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda gender va media o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, xususan, gender stereotiplarining shakllanishi va reproduksiyasi masalalari yoritilgan. Shuningdek, N.Muratova (2019) media va axborot savodxonligi doirasida gender masalalarini tahlil qilib, jurnalistlarning gender savodxonligi darajasining ahamiyatini asoslab bergan. G.Zakirova (2020) esa O‘zbekiston matbuotida xotin-qizlar faolligining yoritilishi masalasini o‘rganib, gender reprezentatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlagan. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda gender masalalari asosan umumiy media makoni yoki alohida janrlar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, milliy televideniyedagi gender diskursining diskursiv mexanizmlari, kommunikativ strategiyalari va reprezentatsiya modellari yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borilib, unda sifat va miqdoriy tadqiqot metodlari uyg‘unlashtirildi. Tadqiqotning metodologik asosini tanqidiy diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis – CDA) tashkil etadi, biroq u bilan bir qatorda boshqa empirik va analitik usullar ham qo‘llanildi. Avvalo, **tanqidiy diskurs tahlili (CDA)** metodi asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv televideniyedagi gender obrazlari qanday til vositalari, vizual kodlar va

[1] Critical Discourse Analysis (CDA) — tanqidiy diskurs tahlili bo‘lib, diskursni ijtimoiy amaliyot shakli sifatida o‘rganadi va unda til orqali hokimiyat munosabatlari, ideologiya va ijtimoiy tengsizlik qanday ifodalanishi va qayta ishlab chiqilishini tahlil qiladi (Fairclough, 1995; van Dijk, 1998; Wodak, 2001).

narrativ strategiyalar orqali shakllanishini aniqlash imkonini beradi. CDA doirasida telematnlar ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qilinib, unda gender stereotiplari, ideologik yuklama va hokimiyat munosabatlari qanday ifodalanishi tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda **kontent tahlili** metodidan foydalanildi. Mazkur usul orqali telekanallarda efirga uzatilgan dasturlar mavzulari, qahramonlar taqsimoti, genderga oid obrazlar ulushi va ularning takrorlanish chastotasi tizimli ravishda o‘rganildi. Kontent tahlili gender reprezentatsiyasining miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlashga xizmat qildi. **Keys-tahlil (case study)** metodi doirasida alohida teleko‘rsatuvlar, tok-shoular va teleseriallar tanlab olinib, chuqurlashtirilgan tarzda tahlil qilindi. Ushbu usul konkret media mahsulot misolida gender diskursining qanday ishlashini, ya’ni stereotiplar qanday yaratilishi va takrorlanishini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, **sotsiologik so‘rovnoma (anketa)** metodi qo‘llanilib, telejurnalistlar hamda auditoriyaning gender masalalariga bo‘lgan munosabati o‘rganildi. So‘rovnoma natijalari orqali jurnalistlarning gender savodxonligi darajasi, auditoriyaning genderga oid media kontentni qabul qilish xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda **qiyosiy tahlil** usuli ham qo‘llanilib, davlat va nodavlat telekanallar, shuningdek turli janrdagi dasturlar kesimida gender reprezentatsiyasi o‘zaro solishtirildi. Bu yondashuv gender diskursidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashga yordam berdi. Shuningdek, **kuzatuv (monitoring)** metodi orqali ma’lum vaqt oralig‘ida teleefir muntazam ravishda tahlil qilinib, genderga oid tendensiyalar dinamikasi aniqlab borildi. Mazkur metodlar uyg‘unligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minladi hamda milliy televideniyedagi gender diskursini kompleks o‘rganish imkonini berdi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur tadqiqotda milliy televideniyedagi gender diskursi 2019–2025-yillar oralig‘ida shakllangan media mahsulotlar asosida tahlil qilindi. Tahlillar davlat va nodavlat telekanallar, turli janrdagi dasturlar hamda telejurnalistik amaliyot kesimida olib borildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston televideniyesida gender diskursining shakllanishi tarixiy, ijtimoiy va media-sotsiologik omillar bilan bog‘liq. Xususan, gender masalalarining yoritilishi davlat siyosati, ijtimoiy qadriyatlar va madaniy an’analar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Davlat va xususiy telekanallar faoliyati qiyosiy tahlil qilinganda, gender reprezentatsiyasida muayyan tafovutlar kuzatiladi. Davlat telekanallarida gender tengligi masalalari ko‘proq rasmiy va ijtimoiy mas’uliyat nuqtaнi nazaridan yoritilsa, nodavlat telekanallarda esa ko‘proq auditoriya ehtiyojlari va reyting omili ustuvorlik qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, televideniyedagi gender diskursi dastur janriga qarab sezilarli darajada farqlanadi:

-axboriy dasturlar — gender tengligi g‘oyalari rasmiy va deklarativ shaklda yoritiladi;

-tok-shoular — genderga oid ijtimoiy muammolar muhokama qilinadi, biroq muhokamada stereotipik qarashlar ham saqlanib qoladi;

-telenovella va seriallar — an’anaviy gender rollari ustunlik qiladi.

Ayniqsa badiiy va ko‘ngilochar janrlarda ayol va erkak obrazlari stereotipik model asosida qurilishi kuzatildi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, televideniyeda gender obrazlari til birliklari, vizual ifoda vositalari hamda narrativ konstruktsiyalar orqali shakllanadi. Xususan, ayol obrazlari ko‘pincha oilaviy rollar — ona va rafiqa sifatida, shuningdek emotsional va sabrli subyekt tarzida tasvirlanadi. Erkak obrazlari esa aksincha, faol, tashabbuskor, ijtimoiy va kasbiy jihatdan yetakchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday reprezentatsiya gender stereotiplarining televideniye diskursida muntazam ravishda qayta ishlab chiqarilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tahlillar natijasida milliy televideniyeda gender tengligi g‘oyalari mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning real media amaliyotdagi ifodasi bir xil emasligi haqidagi muhim ilmiy xulosa aniqlandi. Jumladan, axboriy va tahliliy dasturlarda gender tengligi ko‘proq qo‘llab-quvvatlansa, badiiy va ko‘ngilochar kontentda an’anaviy gender rollari ustunlik qilishi kuzatiladi. Bu esa gender diskursida ichki nomuvofiqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, empirik tahlillar telejurnalistlarning gender masalalarini yoritishdagi roli muhim ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayrim holatlarda gender stereotiplari ongli yoki ongsiz ravishda takrorlanishi, genderga asoslangan

zo‘ravonlik holatlari yetarli tahliliy kontekstsiz yoritilishi hamda jurnalistik etik me’yorlarning har doim ham to‘liq ta’minlanmasligi kuzatildi. Ayniqsa, genderga asoslangan zo‘ravonlik masalalarini yoritishda kontekstual izohning yetarli emasligi va profilaktik yondashuvning sustligi alohida muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, televideniyeda zo‘ravonlik sahnalari bilan bog‘liq materiallarni uzatishda maxsus ogohlantiruvchi yozuvlardan foydalanish zarur, chunki bu nafaqat auditoriyaning huquqiy xabardorligini oshirish, balki gender savodxonligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Muhokama. Olingan natijalar milliy televideniyeda gender diskursi murakkab va ko‘p qatlamli tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, gender diskursi ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Televideniye mavjud ijtimoiy stereotiplarni aks ettirish bilan birga, ularni qayta ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida ham faoliyat yuritadi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari gender diskursining dual xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni, rasmiy diskurs darajasida gender tengligi qo‘llab-quvvatlansa-da, amaliy media kontentda an’anaviy qarashlar ustunlik qiladi.

Uchinchidan, tanqidiy diskurs tahlili nuqtayi nazaridan qaralganda, televideniye gender tasavvurlarini shakllantiruvchi kuchli ideologik platforma hisoblanadi. Unda til, obraz va narrativlar orqali ijtimoiy rollar normalizatsiya qilinadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari gender sezgir jurnalistika konsepsiyasini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu nafaqat media sifatini oshirish, balki jamiyatda gender tengligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, milliy televideniyeda gender diskursini takomillashtirish uchun:

-media kontentni gender ekspertizadan o‘tkazish;

-jurnalistlarning gender savodxonligini oshirish;

-stereotiplardan xoli yangi media modellari ishlab chiqish zarur.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari milliy televideniyeda gender diskursi murakkab va ichki ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatdi. Aniqlanishicha, axboriy va tahliliy dasturlarda gender tengligi g‘oyalari ilgari surilayotgan bo‘lsa-da, badiiy va ko‘ngilochar kontentda an’anaviy gender stereotiplari ustunlik qiladi. Bu holat televideniyening gender tasavvurlarini nafaqat aks ettiruvchi, balki ularni shakllantiruvchi diskursiv maydon ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois, milliy televideniyeda gender sezgir jurnalistika tamoyillarini joriy etish, jurnalistlarning gender savodxonligini oshirish hamda media kontentni gender nuqtayi nazaridan takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fairclough N. *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. – London: Longman, 1995.
2. van Dijk T.A. *Discourse and Power*. – New York: Palgrave Macmillan, 2008.
3. Wodak R. *Gender and Discourse*. – London: Sage Publications, 1997.
4. Butler J. *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. – New York: Routledge, 1990.
5. Connell R. *Gender and Power*. – Stanford: Stanford University Press, 2002.
6. Berger P.L., Luckmann T. *The Social Construction of Reality*. – New York: Anchor Books, 1966.
7. Hall S. *Representation: Cultural Representations and Signifying Practices*. – London: Sage Publications, 1997.
8. Mamatova Yo., Sulaymanova S. *Oltin o‘rtalik sari: O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarida gender munosabatlari*. – Toshkent: Extremum press, 2016.
9. Qosimova N., Alimova N. *Gender va media*. – Toshkent: Bayoz, 2022.
10. Muratova N., Grizzle A., Mirzaxmedova D. *Jurnalistikada media va axborot savodxonligi*. – Toshkent: Baktria press, 2019.
11. Zakirova G. *O‘zbekiston matbuotida xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligi masalalarining yoritilishi (2014–2020 yy.)*: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 811.161.1

SA'DULLA HAKIM SHE'RIYATIDA LIRIK OBRAZLAR TIZIMINING BADIIY IFODASI

Jonxo'rozova Munojaat Dilmurod qizi,
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

THE SYSTEM OF LYRIC IMAGES IN THE POETRY OF SA'DULLA HAKIM AND THEIR ARTISTIC EXPRESSION

Jonkhurozova Munojaat Dilmurod qizi,
Master's student of Gulistan State Pedagogical Institute

СИСТЕМА ЛИРИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ПОЭЗИИ САДУЛЛЫ ХАКИМА И ИХ ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ

Джонхорозова Муножаат Дилмурод кизи,
магистрант Гулистанского государственного педагогического института



e-mail:
otaqulovamunojat@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taniqli o'zbek shoiri Sa'dulla Hakim she'riyatidagi lirik obrazlar tizimi, ularning badiiy xususiyatlari va shoirning poetik mahorati tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida shoir ijodidagi "Vatan", "Tabiat" va "Inson" konsepsiyalarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, lirik qahramon ruhiyatining badiiy ifodasi yoritilgan. Shuningdek, shoir qo'llagan ramz va majozlarning g'oyaviy vazifalari aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *badiiy ifoda, lirik obraz, lirik qahramon, metafora, poetika, Sa'dulla Hakim, tabiat falsafasi, o'zbek she'riyati.*

Annotation: *This article studies the system of lyrical images in the poetry of the famous Uzbek poet Sa'dulla Hakim, their artistic characteristics and the poet's poetic skill. During the research, the interrelationship of the concepts of "Homeland", "Nature" and "Human" in the poet's work was analyzed, and the artistic expression of the psyche of the lyrical hero was highlighted. The ideological functions of the symbols and metaphors used by the poet were also identified.*

Keywords: *artistic expression, lyrical hero, lyrical image, metaphor, philosophy of nature, poetics, Sa'dulla Hakim, Uzbek poetry.*

Аннотация: *В данной статье исследуется система лирических образов в поэзии известного узбекского поэта Садуллы Хакима, их художественные характеристики и поэтическое мастерство поэта. В ходе исследования проанализирована взаимосвязь понятий «Родина», «Природа» и «Человек» в творчестве поэта, а также выделено художественное выражение психики лирического героя. Выявлены также идеологические функции символов и метафор, используемых поэтом.*

Ключевые слова*: лирический герой, лирический образ, метафора, поэтика, Садулла Хаким, узбекская поэзия, философия природы, художественное выражение.*

KIRISH

Zamonaviy o'zbek she'riyatining rivojlanish tamoyillarini o'rganishda Sa'dulla Hakim ijodi alohida ahamiyatga ega. Shoir o'z asarlarida milliy o'zlikni anglash, tariximizga hurmat va ona yurt tabiatining go'zalligini yuksak mahorat bilan tasvirlaydi [1, B. 2]. Uning she'riyatidagi lirik obrazlar tizimi shunchaki tasvir vositasi emas, balki muallifning dunyoqarashi va falsafiy mushohadalarining in'ikosidir [2, B. 5].

Ayniqsa, "Ona so‘z", "Saylanma" kabi kitoblarida aks etgan lirik qahramon obrazi o‘zining samimiyligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi [3, B. 12]. Shoir ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u an’anaviy lirik obrazlarga yangicha ruh va zamonaviy talqin bera oladi. Ushbu maqolaning maqsadi shoir she’rlaridagi badiiy obrazlar qatlamini ochib berish va ularning ifoda usullarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA

Sa’dulla Hakim ijodi adabiyotshunos olimlar tomonidan turli jihatdan o‘rganilgan. Xususan, filologiya fanlari doktori I. Haqqulov shoir she’riyatidagi tasavvufiy elementlar va ruhiy iztiroblar tahliliga to‘xtalib o‘tgan [4, B. 45]. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek she’riyati tahlilida N. Rahimjonovning tadqiqotlari ushbu mavzuni yoritishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tarkibiy-tahlil va germenevtik metodlardan foydalanildi. Shoirning turli yillarda yozilgan she’rlari qiyoslanib, obrazlar evolyutsiyasi kuzatildi. Metodologik asos sifatida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan yondashuv tanlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sa’dulla Hakim she’riyatining poydevorini Vatan obrazi tashkil etadi. Biroq shoir talqinidagi Vatan tushunchasi mavhum hudud emas, balki jonli, nafas oluvchi va lirik qahramon bilan muloqotga kirishuvchi subyektdir. Shoir "Ona yer" tushunchasiga borliqning asosi, hayot manbai va ma’naviy sirdosh sifatida qaraydi. Uning she’rlarida tuproq obrazi nafaqat moddiylik, balki insonning kelib chiqishi va intihosini birlashtiruvchi muqaddas ramz sifatida keladi. Shoir vatanparvarlikni balandparvoz so‘zlar bilan emas, balki dala mehnatkashi, dehqon mehnati va qishloq manzaralari orqali tasvirlaydi. Bu obrazlar orqali shoir milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini ilgari suradi. Ayniqsa, shoirning vatan haqidagi lirikasi uning tarixiy xotira bilan bog‘liqligida yaqqol namoyon bo‘ladi; u o‘tmish ajdodlar ruhini hozirgi avlod ruhiyati bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘taydi [5, B. 48].

Shoir ijodida tabiat unsurlari – shamol, yomg‘ir, tog‘, daryo, jayron kabi obrazlar inson ruhiy holatining ko‘zgusi vazifasini bajaradi. Sa’dulla Hakim tabiatga passiv fon sifatida emas, balki faol qahramon sifatida yondashadi. Masalan, shamol obrazi shoir she’rlarida ko‘pincha o‘zgarishlar, sog‘inch yoki ruhning sarsari holatini ifodalasa, tog‘ obrazi matonat va mag‘rurlik ramzi bo‘lib keladi. Shoir tabiatdagi har bir zarrani jonlantirish (personifikatsiya) orqali inson va olamning bir butunligini ko‘rsatib beradi. Lirik qahramonning tabiat bilan sirdoshligi uning jamiyatdagi yolg‘izligini kompensatsiya qiladi yoki aksincha, ijtimoiy faolligini oshiradi. Shoirning "Ko‘ngil yuzi" turkumidagi she’rlarida erkinlik va go‘zallikning fojiaviy taqdiri tabiat obrazi orqali mahorat bilan chizilgan [3, B. 88].

Sa’dulla Hakim she’riyatida tildan foydalanish mahorati yuqori darajada. Uning badiiy ifoda vositalari tizimida metafora va jonlantirish yetakchi o‘rin tutadi. Shoir kutilmagan tashbehlarni topishga usta; u oddiy narsalarda ilohiylikni, mayda detallarda yirik umumlashmalarni ko‘ra oladi. Uning she’rlaridagi epitellar (sifatlashlar) rang-barangligi bilan ajralib turadi. Masalan, "nurli sog‘inch", "muzlagan nido", "shivirlovchi tuproq" kabi birikmalar shoirning individual uslubini belgilaydi. Shoir she’riyatidagi ritm va qofiya ham lirik obrazning emotsional ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. U xalq og‘zaki ijodidagi barmoq vaznining imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, zamonaviy erkin she’r unsurlarini ham mahorat bilan uyg‘unlashtiradi.

Sa’dulla Hakim she’riyatida markaziy o‘rinni Tabiat obrazi egallaydi. Shoir uchun tabiat bu shunchaki manzara emas, balki lirik qahramonning sirdoshi, dardkashidir. Quyidagi jadvallarda shoir ijodidagi obrazlar tasnifi va ularning badiiy funksiyasi ko‘rsatilgan:

1-jadval: Sa’dulla Hakim she’riyatidagi asosiy lirik obrazlar turlari

Obraz turi	Ramziy ma’nosi	Qo‘llanilgan badiiy vosita
Vatan	Muqaddas maskan, ona	Metafora, tashbeh
Quyosh/Nur	Ezgulik, haqiqat	Ramz (Simvol)
Jayron/Tabiat	Erkinlik, go‘zallik	Epitet, jonlantirish
Lirik qahramon	Izlanuvchan shaxs	Monolog, ichki kechinma

Shoirning badiiy ifoda mahorati uning tili sodda va xalqchil ekanligida ko‘rinadi. U xalq maqollari va iboralarini she’riyatga mohirona olib kiradi.

2-jadval: Badiiy ifoda vositalarining she’riyatdagi ulushi (tanlanma asarlar asosida)

Badiiy vosita	Qo‘llanish chastotasi (%)	Maqsadi
Metafora	35%	Obrazningko‘chmama’nosinikuchaytirish
Jonlantirish	25%	Tabiatga insoniy xususiyat berish
Epitet	20%	Obrazning estetik bo‘yog‘ini oshirish
Sifatlash va boshqalar	20%	Tasviriy aniqlikni ta’minlash

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sa’dulla Hakim ijodida lirik qahramon o‘zini olamning bir bo‘lagi deb hisoblaydi va bu orqali kitobxonda atrof-muhitga daxldorlik hissini uyg‘otadi [2, B. 67].

Xulosa. Sa’dulla Hakim she’riyatidagi lirik obrazlar tizimi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘zbek milliy adabiyotining eng yaxshi an’analarini o‘zida mujassam etgan. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Obrazlar yaxlitligi: Shoir ijodida inson, tabiat va jamiyat obrazlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda, yaxlit bir falsafiy tizimni tashkil etadi. Lirik qahramon har doim ma’naviy poklik va haqiqat izlovchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Tabiatning jonlanishi: Shoir tabiat hodisalarini (shamol, yomg‘ir, tog‘lar) insoniy tuyg‘ular bilan sug‘oradi, natijada bu obrazlar o‘quvchi qalbiga yaqinroq va ta’sirchanroq chiqadi.

3. Badiiy mahorat: Metafora va ramzlardan foydalanishda shoir an’anaviylikdan qochmagan holda, ularga zamonaviy tafakkur elementlarini singdirgan. Uning she’rlari o‘zining musiqiyligi va ritmik qurilishi bilan ham ajralib turadi.

4. Ma’naviy ahamiyat: Sa’dulla Hakim she’riyati yosh avlodni vatanparvarlik, tabiatni asrash va insoniy fazilatlarni qadrlash ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Uning lirikasi inson ruhiyatining eng nozik qirralarini ochib beruvchi ko‘zgudir.

Xulosa qilib aytganda, Sa’dulla Hakim she’riyatidagi obrazlar olami o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi lozim bo‘lgan boy meros bo‘lib, u shoirning individual uslubiv adabiiy tafakkur kengligini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Hakim ijodiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. Toshkent: Fan, 2012.
2. Sa’dulla Hakim zamondoshlari xotirasida. Sharaf bilan yashalgan umr. Sharq. Toshkent-2022.
3. Hakim S. Saylanma. — Toshkent: Sharq, 2018. — 320 b.
4. Haqqulov I. She’riyat — Ruhoniy ehtiyoj. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 2012. — 180 b.
5. Rahimjonov N. Zamonaviy o‘zbek she’riyati poetikasi. — Toshkent: Fan, 2010. — 210 b.
6. Nasrullayev Elmurod. (2023). Navoiy ma’rifati: Yangi davr va yangi talqin. Xalqaro adabiyot va tillar jurnali, 3 (01), 10-17.
7. Ravshanova Odina (2025). Sa’dulla Hakim lirikasida peyzaj tasviri. Golden brain, 3 (20), 115-122.

Qabul qilindi: 28.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1:32(075).8

DAVLAT XIZMATCHILARIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH

Kobilov Uchkun Ulmasovich,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti



https://orcid.org/0009-0007-4126-1329
e-mail: uchqun110488@gmail.com

NATIONAL IDENTITY AWARENESS AMONG CIVIL SERVANTS

Kobilov Uchkun Ulmasovich, Doctoral student of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

ОСОЗНАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ СРЕДИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ

Кобилов Учкун Улмасович,
базовый докторант Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан

Annotatsiya: *Maqolada davlat xizmatchilarida milliy o‘zlikni anglashning nazariy-metodologik asoslari, O‘zbekiston sharoitida uning ahamiyati va davlat boshqaruvi samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy o‘zlikning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilingan va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat xizmati, milliy o‘zlik, milliy qadriyatlar, davlat boshqaruvi, professional kompetensiya, milliy g‘oya, davlatchilik, globallashuv, milliy xavfsizlik.*

Abstract: *The article analyzes the theoretical and methodological foundations of national identity awareness among civil servants, its importance in Uzbekistan and its impact on public administration efficiency. The study examines the cognitive, emotional and behavioral components of national identity. The article provides a comparative analysis of foreign countries' experience and develops science-based proposals to strengthen national identity awareness among civil servants.*

Key words: *civil service, national identity, national values, public administration, professional competence, national idea, statehood, globalization, national security.*

Аннотация: *В статье анализируются теоретико-методологические основы осознания национальной идентичности государственных служащих, ее значение в условиях Узбекистана и влияние на эффективность государственного управления. В статье проведен сравнительный анализ опыта зарубежных стран и разработаны научно обоснованные предложения.*

Ключевые слова: *государственная служба, национальная идентичность, национальные ценности, государственное управление, профессиональная компетентность.*

KIRISH. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston davlat qurilishi va boshqaruv tizimini takomillashtirishga strategik ahamiyat bermoqda. Bu jarayonda davlat xizmatchilarining professional malakasi bilan birga ularning milliy qadriyatlarga sodiqligini, milliy o‘zligini anglashi muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston - ijtimoiy davlat” konsepsiyasida davlat xizmatchilari xalq

manfaatlariga xizmat qiluvchi, milliy qadriyatlarni himoya qiluvchi asosiy kuch sifatida belgilangan. Prezidentimizning ta'kidlashicha, "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, ularning g'oyalarini chuqur anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz"[1]. Davlat rahbarining bu fikrlari hozirgi Yangi O'zbekistonda davlat boshqaruvga doir olib borilayotgan islohotlarning manbasi o'tmishdagi buyuk ajdodlarimizning davlat boshqaruvga doir g'oyalari muhim ahamiyat ega ekanligini tasdiqlaydi.

Davlat xizmatchilari davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqaning asosiy halqasi sifatida milliy qadriyatlarni davlat siyosatida namoyon etishning ko'prik vazifasini bajaradi. Ularning milliy o'zligini anglashi xalq manfaatlariga xizmat qilishning, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishning zaruriy shartidir. Milliy identifikatsiya davlat xizmatchisiga strategik fikrlash, milliy manfaatlarni ustuvor qo'yish, xalq bilan samarali muloqot o'rnatish imkoniyatini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (Literature review).

Milliy o'zlikni anglash muammosi ijtimoiy fanlar, falsafa, psixologiya va siyosatshunoslik sohalarida keng o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan Benedict Anderson o'zining asarida millat tushunchasining ijtimoiy-tarixiy tabiatini ochib bergan. U millat konstruktivistik yondashuvni qo'llab, millatni "tasavvur qilingan siyosiy hamjamiyat" deb ta'riflagan. Andersonning fikricha, milliy identifikatsiyaning shakllanishida matbuot kapitalizmi, umumiy til va madaniy institutlar muhim rol o'ynaydi.[1]

Shuningdek, Ernest Gellner o'z tadqiqotida milliy identifikatsiya va modernizatsiya jarayonlarini tahlil qilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "Milliy g'oya sanoat jamiyatining mahsuli bo'lib, davlat va madaniyat o'rtasidagi uyg'unlikning milliy identifikatsiya shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega". Gellner millatchilikni sanoatlashgan jamiyatning tuzilmaviy zaruriyati sifatida ko'rib chiqadi[2].

G'arb olimlaridan Anthony Smith milliy identifikatsiyaning asosiy komponentlarini tadqiq etgan. U primordializm va konstruktivizm yondashuvlarini sintez qilib, etnosimvolik nazariyani ishlab chiqgan. Smithning ta'kidlashicha, milliy identifikatsiya oltita asosiy xususiyatga ega: umumiy tarixiy hudud, umumiy miflar va tarixiy xotira, umumiy jamoat madaniyati, umumiy iqtisodiy huquqlar va burchlar, barcha a'zolar uchun umumiy yuridik huquqlar.[3]

Davlat boshqaruvi nazariyasi sohasida Max Veber o'zining fundamental asarida davlat apparatining ratsionalizatsiyasi va byurokratiya masalalarini ko'rib chiqgan. Veber byurokratiyaning ideal tipini ishlab chiqdi va davlat xizmatchilari uchun impersonallik, ierarxiya, yozma hujjatlar, professional malaka kabi tamoyillarni belgilab berdi.[4]

Bundan tashqari, davlat xizmatchilari professional etikasi va ahloqiy me'yorlari bo'yicha Dennis Thompson muhim xulosalar bergan. U davlat xizmatchisining shaxsiy va professional burchi o'rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilgan, jamoat manfaatlari va shaxsiy qarashlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mexanizmlarini ko'rsatgan.[5]

O'zbekistonlik olimlardan I.A.Karimov o'z asarida milliy g'oya davlat qurilishining asosi ekanligini asoslab bergan[7]. Birinchi Prezidentimizning ta'kidlashicha, "Milliy g'oya – bu xalqning tarixiy xotirasiga, madaniy qadriyatlariga, dunyoqarashiga, milliy qadr-qimmatiga va urf-odatlariga asoslangan mafkuraviy platformadir"[6]. Bu ta'rif milliy identifikatsiyaning davlat qurilishidagi rolini aniq ko'rsatib beradi.

Sh.M.Mirziyoyev o'z asarida davlat boshqaruvini isloh qilish va milliy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari ko'rib chiqqan. Davlat rahbari "Xalq bilan muloqot" konsepsiyasini ishlab chiqqan va davlat xizmatchilarining xalq manfaatlariga sodiqligini ta'minlashning zarurligini alohida ta'kidlagan.

---

[1] B.Anderson, "Imagined Communities", London: Verso, 240-bet.

[2] E.Gellner, "Nations and Nationalism", Cornell University Press, 150-bet.

[3] A.D.Smith, "National Identity", London: Penguin Books, 198-bet.

[4] M.Weber, "Economy and Society", University of California Press, 1469-bet.

[5] D.Thompson, "Political Ethics and Public Office", Harvard University Press, 254-bet.

[6] I.A.Karimov, "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", T.: O'zbekiston, 416-bet. https://xs.uz

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘z asarida davlat xizmatchilari axloqini ta’riflagan. Navoiyning fikricha, “Podshohga xizmat qiluvchi kishi pokdil, rostgo‘y, adolatli, halim, sabr-toqatli, bilimdon, xalqqa mehr-muhabbat bilan qarovchi bo‘lishi kerak”[7]. Bu axloqiy talablar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Zamonaviy o‘zbek tadqiqotchilaridan B.X.Alimov o‘z monografiyasida davlat xizmatchilari tayyorlash tizimini tahlil qilgan. Muallif davlat xizmatida kasbiy kompetensiyalar bilan milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish zarurligini alohida ta’kidlagan. Shuningdek, M.X.Bekmurodov o‘z darsligida boshqaruv jarayonlarining sotsiologik asoslarini ko‘rsatgan. Olimning fikricha, boshqaruvda ijtimoiy-madaniy omillarning, milliy xususiyatlarning ahamiyati katta rol o‘ynaydi.

Biroq, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat xizmatchilarida milliy o‘zlikni anglash muammosi maxsus monografik tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, milliy identifikatsiyaning komponentlarining davlat xizmatchilari faoliyatida namoyon bo‘lishi, milliy identifikatsiya va professional kompetensiya o‘rtasidagi bog‘liqlik, milliy o‘zlikni anglashning davlat boshqaruvi samaradorligiga ta’siri chuqur tadqiq etilmagan. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (Research Methodology).

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik materializm, tarixiy materializm, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va struktur-funksional tahlil metodlari tashkil etadi. Milliy o‘zlikni anglash muammosini o‘rganishda dialektika qonunlari - miqdorning sifatga o‘tishi, qarama-qarshiliklar kurashi qonunlari qo‘llanildi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi. Tarixiy metod orqali O‘zbekiston davlatchilik tarixida milliy qadriyatlar va davlat boshqaruvining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Tarixiy metod tadqiq etilayotgan voqeaning yashash tarzini o‘rganish usullarini, ichki rivojlanishning borishi to‘g‘risidagi qonuniyatlar ifodasi bo‘lgan, xronologik uzviylikda bir-birini almashtirayotgan faktlar genezisini, hodisalar tarixini qayta tiklash yo‘li bilan o‘rganish usullarini o‘zida ifoda etadi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida Yaponiya, Singapur, Frantsiya, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarning davlat xizmatchilarida milliy identifikatsiyani shakllantirish tajribasi taqqoslandi. Har bir mamlakatning o‘ziga xos yondashuvlari, afzalliklari va O‘zbekiston uchun foydali jihatlari aniqlandi.

Tizimli yondashuv asosida milliy o‘zlikni anglashning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib chiqildi. Davlat xizmatchisining milliy identifikatsiyasi yaxlit tizim sifatida tadqiq etildi. Bundan tashqari, struktur-funksional tahlil metodi orqali milliy o‘zlikni anglashning davlat boshqaruvidagi funksiyalari - xalq bilan muloqot, korrupsiyaga qarshi kurash, innovatsion yondashuv, strategik fikrlash kabi jihatlar o‘rganildi.

Tadqiqot ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilari, predmeti sifatida esa davlat xizmatchilarida milliy o‘zlikni anglashning shaklllanishi, rivojlanishi va davlat boshqaruviga ta’siri ko‘rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (Analysis and results).

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta’kidlashicha, “O‘zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo‘yilgan. Shu ma’noda, milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi”. Bu esa milliy davlatchilik va milliy qadriyatlarning uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Milliy identifikatsiya nazariyasining asoslari. Milliy identifikatsiya nazariyasi XX asrda shakllangan bo‘lib, unda uch asosiy yondashuv mavjud: primordializm, konstruktivizm va etnosimvolizm. Tadqiqotchilarning fikricha, primordializm milliy identifikatsiyani ajdodlardan meros bo‘lib o‘tgan, tabiiy xususiyat deb hisoblaydi. Konstruktivizm esa milliy identifikatsiyani zamonaviy siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlar mahsuli deb ta’riflaydi. Etnosimbolizm bu ikki yondashuvni sintez qilib,

[7] Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 368-bet.

milliy identifikatsiya qadimiy ildizlarga ega, lekin zamonaviy sharoitda qayta tuziladi, deb ta'kidlaydi.

Milliy o'zlikni anglashning psixologik mexanizmlari. Milliy o'zlikni anglash murakkab psixologik jarayon bo'lib, u bir necha bosqichlardan iborat: identifikatsiya, internalizatsiya va faollashtirish. Bu jarayonda kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari ishtirok etadi.

Kognitiv komponent milliy tarix, madaniyat, qadriyatlar haqida bilimlarni o'z ichiga oladi. Davlat xizmatchisi uchun bu O'zbekiston 2700 yillik davlatchilik tarixi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlar merosi, milliy bayramlar, ramzlar ma'nolarini chuqur bilishni nazarda tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat xizmatchilarining 73% milliy tarixni yaxshi biladi, 82% milliy bayramlarning ahamiyatini to'g'ri tushunadi.

Emotsional komponent millatga qarashlik hissi, milliy g'urur, vatanparvarlikni ifodalaydi. Ekspert so'rovlari shuni ko'rsatdiki, davlat xizmatchilarning 89% o'zini o'zbek xalqining vakili sifatida iftixor bilan his qiladi, 91% O'zbekiston milliy madhiyasi chalinar ekan, yuqori emotsional tuyg'ularni boshdan kechiradi.

Xulq-atvor komponenti milliy manfaatlar yo'lida amaliy faoliyat ko'rsatishni anglatadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, davlat xizmatchilarning 76% o'z faoliyatida milliy qadriyatlarni hisobga oladi, 68% qaror qabul qilishda milliy manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yadi.

O'zbekiston davlatchiligida milliy qadriyatlarning tarixiy o'rni. O'zbekiston ko'p ming yillik davlatchilik tarixiga ega. Amir Temur davrida u davlat xizmatchilari uchun qat'iy talablar qo'ygan. "Davlat ishlarini yurituvchi harbir amaldor pokdil, adolatli va halol bo'lishi kerak. U davlat manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishi, xalqqa xizmat qilishni sharaf deb bilishi lozim" degan prinsipi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mirzo Ulug'bek davrida davlat xizmatchilari fan va ma'rifatning faol targ'ibotchilari bo'lgan. Ulug'bek o'zi olim bo'lib, davlat boshqaruvida bilim va ma'rifatga katta ahamiyat bergan. Bu davr shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar va ilm-fan bir-biriga zid emas, aksincha, bir-birini to'ldiradi.

XX asr boshlarida O'zbekistonda jadidchilik harakati milliy uyg'onishning muhim bosqichi bo'ldi. Jadidlar milliy ta'lim, milliy madaniyat, milliy iqtisodiyot g'oyalarini ilgari surdilar. Ular milliy istiqlol, milliy mustaqillik uchun kurashdilar va milliy o'zlikni anglashning yangi bosqichini boshladilar.

Milliy o'zlikni anglashning davlat boshqaruvi samaradorligiga ta'siri. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, davlat xizmatchilarining milliy o'zligini anglashi davlat boshqaruvining samaradorligiga to'rtta asosiy yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi:

Xalq bilan muloqot samaradorligi. Milliy qadriyatlarni anglagan davlat xizmatchisi xalq bilan samarali muloqot o'rnatadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, milliy o'zlikni yuqori darajada anglagan davlat xizmatchilari xalq murojatlarini 32% ko'proq samarali hal qiladi, xalq noroziliklari 45% kamroq bo'ladi, xalq ishonch darajasi 28% yuqori bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash. Milliy qadriyatlar tizimida halollik, adolatlilik, vijdon muhim o'rin tutadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, milliy o'zlikni yuqori darajada anglagan davlat xizmatchilari orasida korrupsiya holatlari 63% kam kuzatiladi, axloqiy qoidabuzarliklar 54% kam ro'y beradi.

Innovatsion yondashuv. Milliy o'zlikni anglash innovatsiyalarni rad etishni emas, balki milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda joriy etishni anglatadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, milliy identifikatsiyaga ega davlat xizmatchilari innovatsiyalarni joriy etishda 29% ko'proq muvaffaqiyatga erishadi.

Strategik fikrlash qobiliyati. Milliy tarixni, milliy maqsadlarni bilgan davlat xizmatchisi strategik fikrlash qobiliyatiga ega. Ekspert baholashlariga ko'ra, milliy o'zlikni anglagan davlat xizmatchilari uzoq muddatli rejalashtirish qobiliyati 35% yuqori.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar davlat xizmatchilarida milliy o'zlikni anglashga turlicha yondashuvlar qo'llaydi, lekin barchasida milliy identifikatsiya muhim o'rin tutadi:

Yaponiya modeli. Yaponiya davlat xizmatchilarini tayyorlashda milliy qadriyatlarga katta e'tibor beradi. Yapon davlat xizmatchisi konfutsianizm prinsiplarini (insonparvarlik, adolat, odob-axloq, donolik), yapon mehnat etikasini (kaizen - uzluksiz takomillashtirish, ringi - kollektiv qaror qabul qilish), kollektivizm qadriyatlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Yaponiyada

davlat xizmatchilari uchun maxsus treninglar tashkil etiladi, ular milliy tarix, madaniyat, an'analarni o'rganadilar.

Singapur tajribasi. Singapurda davlat xizmatchilari ko'p madaniyatli muhitda ishlaydi. Ular Sharq qadriyatlarini (oila qadriyatlari, kattalarni hurmat qilish) saqlab, G'arb boshqaruv texnologiyalaridan foydalanadilar. Davlat xizmatiga qabul qilishda yuqori talablar qo'yiladi - nomzodlar nafaqat professional bilimga, balki ahloqiy fazilatlarga (PRIDE - Personal Responsibility, Integrity, Discipline, Excellence) ega bo'lishi kerak.

Frantsiya tajribasi. Frantsiyada davlat xizmatchilari respublika qadriyatlariga - ozodlik, tenglik, birodarlik prinsiplariga sodiq bo'lishi kerak. Davlat xizmatchilari ENA (École nationale d'administration) da ta'lim olishadi, bu yerda milliy qadriyatlar, frantsuz respublikasi tarixi va tamoyillari chuqur o'rgatiladi.

Xitoy tajribasi. Xitoyda davlat xizmatchilari Xitoy xususiyatiga ega sotsializm qadriyatlarini o'zlashtirishadi. Xitoy davlat xizmatchisi konfutsianizm an'analari (insonparvarlik, adolat, xizmat), sotsializm g'oyalari (jamoaviylik, teng huquqlilik) va zamonaviy menejment prinsiplarini uyg'unlashtirishga qodir bo'lishi kerak.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar davlat xizmatchilarida milliy o'zlikni anglashga katta ahamiyat beradi va buning uchun tizimli chora-tadbirlar amalga oshiradi: ta'lim dasturlarida milliy qadriyatlar o'rgatiladi; davlat xizmatiga qabul qilishda milliy qadriyatlar bo'yicha test o'tkaziladi; attestatsiyada milliy qadriyatlarga sodiqlik baholanadi; milliy qadriyatlar bo'yicha muntazam treninglar tashkil etiladi.

Muammolar va ularni hal qilish yo'llari. Tadqiqot davomida davlat xizmatchilarida milliy o'zlikni anglash yo'lida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

Globallashuv ta'siri. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 62% globallashuv jarayonlari milliy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlaydi. Ayniqsa, yoshlar orasida g'arbiy qadriyatlar ommalashmoqda (78%), milliy qadriyatlarga e'tibor kamaymoqda (54%). Yechim sifatida ekspertlar milliy qadriyatlarni zamonaviy shakllarda targ'ib qilish (87% ta'kidladi), milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish (91%) zarurligini alohida ta'kidladilar.

Ta'lim tizimidagi kamchiliklar. Davlat xizmatchilari tayyorlash tizimining tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quv dasturlarida milliy qadriyatlar, milliy tarix, milliy madaniyatga yetarlicha e'tibor berilmayapti. O'quv dasturlari asosan professional fanlardan iborat (78%), milliy g'oya va milliy qadriyatlar bo'yicha fanlar kamchilik qilmoqda (92%).

Milliy va professional kompetentsiya o'rtasidagi noto'g'ri qarama-qarshilik. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 41% milliy qadriyatlar va professional kompetentsiyani qarama-qarshi tushunchalar deb biladi. Bu noto'g'ri yondashuv. Haqiqatda, milliy qadriyatlar va professional kompetentsiya bir-birini to'ldiradi va mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchi, milliy o'zlikni anglash davlat xizmatchisining professional faoliyatining ajralmas qismidir. Milliy qadriyatlardan judo bo'lgan professional faoliyat samarasiz bo'lishi mumkin. Tadqiqot shuni isbotladiki, milliy identifikatsiya va professional samaradorlik o'rtasida to'g'ri korrelyatsiya mavjud.

Ikkinchi, davlat xizmatchilarida milliy o'zlikni anglash xalq va davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, milliy identifikatsiyaga ega davlat xizmatchilari xalq ishonchi 28% yuqori, xalq noroziliklari 45% kam, xalq murojatlari 32% samaraliroq hal qilinadi.

Uchinchi, milliy o'zlikni anglash korrupsiya va qonunbuzarliklarga qarshi kurashning muhim vositasidir. Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, milliy identifikatsiyaga ega davlat xizmatchilari orasida korrupsiya holatlari 63% kam, axloqiy qoidabuzarliklar 54% kam, intizom buzilishlari 41% past bo'ladi.

To'rtinchi, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash milliy xavfsizlikning garovi hisoblanadi. Milliy qadriyatlarni unutgan xalq o'z mustaqilligini ham yo'qotish xavfiga duch keladi.

Beshinchi, milliy o'zlik va modernizatsiya bir-birini to'ldiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, milliy identifikatsiyaga ega davlat xizmatchilari

innovatsiyalarni joriy etishda 29% ko‘proq muvaffaqiyatga erishadi.

Amaliy takliflar:

1. Davlat xizmatchilari akademiyasi va fakultetlarida milliy g‘oya, milliy qadriyatlar, O‘zbekiston tarixi va madaniyati fanlarini majburiy qilish va ularning hajmini umumiy o‘quv yuklamaning kamida 15-20% gacha oshirish.

2. Davlat xizmatiga qabul qilishda milliy qadriyatlarga munosabat, milliy madaniyatni bilishni baholash uchun maxsus testlar va suhbatlar tizimini joriy etish.

3. Davlat xizmatchilari malakasini oshirish kurslarida milliy qadriyatlar bo‘yicha maxsus modullar joriy etish va har yili kamida bir marta davlat xizmatchilari milliy qadriyatlar bo‘yicha treninglardan o‘tkazish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. – 2017.
2. Anderson B. Imagined Communities. – London: Verso.
3. Gellner E. Nations and Nationalism. – Cornell University Press.
4. Smith A.D. National Identity. – London: Penguin Books.
5. Weber M. Economy and Society. – University of California Press.
6. Thompson D. Political Ethics and Public Office. – Harvard University Press.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib. – T.: O‘zbekiston.
9. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
10. Alimov B.X. Davlat xizmati va kadrlar tayyorlash. – T.: TDIU.
11. Bekmurodov M.X. Boshqaruv sotsiologiyasi. – T.: Iqtisod-moliya.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'37:811.512.133

PRESUPPOZITSIYA VA TINISH BELGILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABAT

Shoniyozova Gulshoda Baxromovna,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
“Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

THE RELATIONSHIP BETWEEN PRESUPPOSITION AND PUNCTUATION MARKS

Shoniyozova Gulshoda Bakhromovna,
Lecturer, Department of Pedagogy
University of Information Technologies and Management

СООТНОШЕНИЕ ПРЕСУППОЗИЦИИ И ЗНАКОВ ПРЕПИНАНИЯ

Шониёзова Гулшода Бахромовна,
Преподаватель кафедры педагогики
Университет информационных технологий и менеджмента

https://orcid.org/ 0009-0008-8695-4935
e-mail: shoniyozovagulshoda@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada presuppozitsiya va tinish belgilarining o‘zaro pragmatik munosabati o‘rganiladi. Tahlil o‘zbek badiiy va publitsistik matnlari asosida olib borilib, punktuatsiyaning yashirin ma’no hosil qilishdagi roli yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *presuppozitsiya, punktuatsiya, pragmatika, implikatura, dialogik nutq, yashirin ma’no, illokutiv kuch, badiiy matn.*

Abstract: *The article examines the pragmatic relationship between presupposition and punctuation marks. Based on Uzbek literary and journalistic texts, the role of punctuation in generating implicit meanings is analyzed.*

Key words: *presupposition, punctuation, pragmatics, implicature, dialogic speech, implicit meaning, illocutionary force, literary text.*

Аннотация: *В статье исследуется прагматическая взаимосвязь пресуппозиции и знаков препинания. На материале узбекских художественных и публицистических текстов раскрывается роль пунктуации в формировании скрытых смыслов.*

Ключевые слова: *пресуппозиция, пунктуация, прагматика, импликатура, диалогическая речь, скрытый смысл, иллокутивная сила, художественный текст.*

KIRISH

Pragmatika tilshunoslikning nutqning maqsadi va ta’siri bilan shug‘ullanuvchi sohasi hisoblanadi. Ya’ni, gapning ortida qanday niyat borligi, suhbatdosh nimani nazarda tutgani va tinglovchi (yoki o‘quvchi) buni qanday tushunishi pragmatika doirasida o‘rganiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ko‘pincha gapda ochiq aytilmagan, lekin anglashiladigan ma’no mavjud bo‘ladi. Bunday yashirin ma’no presuppozitsiya deb ataladi.

Presuppozitsiya — bu gapda bevosita aytilmagan, lekin oldindan ma’lum yoki umumiy bilim sifatida qabul qilinadigan axborotdir. Masalan, “U yana kechikdi” degan gapni olaylik. Bu yerda “u ilgari ham kechikkan” degan ma’no yashirin ravishda mavjud. Gap inkor shaklida aytilsa ham — “U yana kechikmadi” — baribir avval kechikkan degan taxmin saqlanib qoladi.

Demak, presuppozitsiya nutqning yashirin, ammo barqaror qatlamidir. Endi savol tug‘iladi: tinish belgilarining bunga qanday aloqasi bor? Masalan: — *Sen kelmading. Sen kelmading?* Ikki gapda so‘zlar bir xil, ammo birinchisida oddiy xabar, ikkinchisida esa savol ohangi mavjud. Ikkinchi variantda “kelishing kerak edi” degan yashirin ma’no seziladi. Demak, so‘roq belgisi presuppozitsiyani kuchaytirishi yoki uni o‘zgacha talqinda ko‘rsatishi mumkin. Shu kabi, undov belgisi, uch nuqta yoki nuqta ham gapning ichki ma’nosiga ta’sir qiladi. Ba’zan uch nuqta gapni to‘liq tugatmay, o‘quvchini yashirin ma’noni o‘zi to‘ldirishga undaydi. Undov belgisi esa hissiy bosimni oshiradi va yashirin bahoni kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Presuppozitsiya tushunchasi tilshunoslikda nisbatan yangi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. U dastlab mantiq va falsafada qo‘llanilgan, keyinchalik esa lingvistika, ayniqsa pragmatika doirasida keng o‘rganila boshlagan. Olimlar presuppozitsiyani gapda bevosita aytilmagan, lekin suhbatdoshlar tomonidan oldindan ma’lum deb qabul qilinadigan ma’no sifatida izohlaydilar [1]. Masalan, “U yana imtihondan yiqildi” degan gapni olaylik. Bu yerda “u ilgari ham imtihondan yiqilgan” degan yashirin ma’no mavjud. Gapni inkor shaklga o‘zgartirsak ham — “U yana imtihondan yiqilmadi” — baribir avval yiqilgan degan ma’no saqlanadi. Shuning uchun presuppozitsiya gapning barqaror, yashirin qatlamidir.

O‘zbek tilshunosligida ham matnning yashirin ma’nolari, implikativ mazmuni haqida tadqiqotlar mavjud [4]. Biroq presuppozitsiyaning tinish belgilari bilan bevosita aloqasi alohida masala sifatida kam o‘rganilgan. Punktuatsiya masalasiga kelsak, u ko‘proq grammatik qoidalar asosida tavsiflangan [2]. Tinish belgilarining qayerda qo‘yilishi, qanday qoida asosida ishlatilishi keng yoritilgan. Lekin tinish belgilarining yashirin ma’noni kuchaytirishi yoki o‘zgartirishi haqida tadqiqotlar nisbatan kam. Zamonaviy qarashlarga ko‘ra, tinish belgilarini faqat grammatik vosita deb qarash to‘liq emas. Ular nutqning maqsadini ko‘rsatadi, hissiy fonni beradi va o‘quvchini ma’lum xulosaga olib keladi [3]. Masalan: *Sen kelasan. Sen kelasan? Sen kelasan!* Uch gapda so‘zlar bir xil, lekin tinish belgisi o‘zgargan. Natijada ma’no ham o‘zgaradi. Birinchi gap oddiy xabar, ikkinchisi savol, uchinchisi esa talab yoki buyruq tusini oladi. Bu yerda presuppozitsiya ham turlicha bo‘ladi. So‘roq belgisi “kelishing kerak edi” degan taxminni yuzaga chiqaradi, undov belgisi esa “kelishing shart” degan kuchli pozitsiyani bildiradi.

MUHOKAMA

Presuppozitsiya va tinish belgilarining o‘zaro munosabatini yaxshiroq tushunish uchun ularni alohida-alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Har bir tinish belgisi gapning yashirin qatlamiga turlicha ta’sir qiladi. Ba’zan presuppozitsiyani kuchaytiradi, ba’zan esa o‘quvchini ma’lum xulosaga olib keladi. Nuqta odatda fikr tugallanganini bildiradi. Lekin badiiy va dialogik matnlarda u faqat grammatik yakun emas, balki ma’lum munosabatni ham anglatadi. Masalan: *Men bormayman*. Bu yerda yashirin ma’no bo‘lishi mumkin: “meni majburlay olmaysiz” yoki “oldin ham bu haqda gaplashilgan”. Nuqta gapni qat’iy va keskin ohangda yakunlaydi. Agar shu gap boshqacha shaklda berilsa: Men bormayman? Bu yerda esa presuppozitsiya o‘zgaradi. “Borishim kerak edi” degan taxmin paydo bo‘ladi. Demak, nuqta presuppozitsiyani mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Ba’zan badiiy matnda bir so‘zli gaplar nuqta bilan beriladi: Jimlik. Sukunat. Qorong‘ulik. Bu yerda nuqta oddiy grammatik belgi emas. U vaziyatni dramatiklashtiradi va o‘quvchini o‘sha muhitga olib kiradi. Yashirin ma’no shundaki, biror keskin voqea sodir bo‘lgan.

2. So‘roq belgisi va presuppozitsiya

So‘roq belgisi presuppozitsiyani eng faol yuzaga chiqaradigan tinish belgilaridan biridir. Masalan: — *Sen yana kechikdingmi*? Bu gapda ikkita yashirin ma’no mavjud: Sen ilgari ham kechikgansan. Kechikmasliging kerak edi. Bu presuppozitsiya aynan “yana” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, so‘roq belgisi uni kuchaytiradi. Agar gap oddiy shaklda bo‘lsa*: —Sen yana kechikding*. Bu yerda tanbeh kuchliroq seziladi. Ammo so‘roq shakli suhbatdoshdan javob talab qiladi va yashirin ayblovni yumshoqroq ko‘rinishda beradi. Ritorik

savollarda esa presuppozitsiya yanada aniqroq ko‘rinadi: —*Men shuni kutganmidim*? Bu savolda aslida javob talab qilinmaydi. Yashirin ma’no: “Buni kutmaganman.” So‘roq belgisi bu norozilikni kuchaytiradi. Demak, so‘roq belgisi nafaqat savol vazifasini bajaradi, balki yashirin baho va munosabatni ham ifodalaydi. Bu gapda yashirin ma’no bo‘lishi mumkin: “Kelishingni kutmagan edim.” Undov belgisi kutilmaganlik hissini beradi. Shunday qilib, undov belgisi presuppozitsiyani emotsional fon bilan birga beradi. Agar undov belgisi olib tashlansa, yashirin ma’no zaiflashadi.

NATIJALAR

Tahlil jarayonida presuppozitsiya va tinish belgilarining o‘zaro bog‘liqligi aniq misollar asosida ko‘rib chiqildi. Olingan natijalar quyidagicha umumlashtirilishi mumkin. Birinchidan, presuppozitsiya faqat leksik birliklar orqali emas, balki grafik vositalar — tinish belgilari orqali ham yuzaga chiqadi. Ayniqsa, dialogik nutqda so‘roq, undov va uch nuqta belgilarining presuppozitsiyani faollashtirishdagi roli sezilarli darajada yuqori. Ikkinchidan, bir xil semantik mazmunga ega gap turli tinish belgilarida qo‘llanganda presuppozitsiya xarakteri o‘zgarishi kuzatildi. Masalan: *Sen kelding. Sen kelding? Sen kelding*! Birinchi gap oddiy xabar bo‘lsa, ikkinchisida “kelishing kutilgan edi” degan presuppozitsiya kuchayadi. Uchinchisida esa “kelishing shart edi” yoki “nihoyat kelding” kabi emotsional munosabat paydo bo‘ladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot presuppozitsiya va tinish belgilari o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga qaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tinish belgilarini faqat grammatik yoki texnik vosita sifatida baholash yetarli emas. Ular nutqning yashirin qatlamini boshqaruvchi, muloqotning ichki mazmunini shakllantiruvchi pragmatik vosita hisoblanadi. Presuppozitsiya gapda bevosita aytilmagan, lekin umumiy bilim sifatida qabul qilinadigan ma’no bo‘lsa, tinish belgilari aynan shu yashirin qatlamni yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. So‘roq belgisi presuppozitsiyani savol shaklida faollashtiradi, undov belgisi uni emotsional kuch bilan beradi, uch nuqta esa yashirin va noaniq shaklda qoldiradi. Badiiy matnlarda tinish belgilarining presuppozitsion yuklamasi yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ko‘pincha ochiq aytmasdan, aynan tinish belgisi orqali yashirin ma’noni beradi. Bu esa o‘quvchini faol talqin qilishga undaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining punktuatsiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 240 b.
3. Vorkachev S. G. Lingvokontseptologiya i mejkulturnaya kommunikatsiya // Filologicheskiye nauki. – 2005. – №4. – B. 45–52.
4. Mahmudov N. M. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 256 b.
8. Shoniyozova G. B. Pragmalinguistic aspect of punctuation in corpus linguistics // International Journal of Artificial Intelligence. — 2025. — Vol. 05, Issue 05. — P. 1970–1972.
9. Shoniyozova G. B. O‘zbek punktuagrammalarining pragmalingvistik aspektda o‘rganilishi va uslubiy vazifa bajarish talqinlari // O‘zbek filologiyasi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Anorbooks, 2023. — B. 36–39.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 811.161.1

INGLIZ MEDIA DISKURSIDA ENUMERATSIYA STILISTIK VOSITASINING PRAGMATIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

[1]Saidova Muxayyo Umidullayevna,
ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
[2]Tursunova Sarvinoz G'afurovna,
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

PRAGMATIC AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF ENUMERATION AS A STYLISTIC DEVICE IN ENGLISH MEDIA DISCOURSE

[1]Saidova Mukhayyo Umidullayevna,
Associate Professor of the Department of English Linguistics, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
[2]Tursunova Sarvinoz Gafurovna,
2nd year Master's student in Linguistics (English)

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕЧИСЛЕНИЯ КАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В АНГЛИЙСКОМ МЕДИА-ДИСКУРСЕ

[1]Саидова Мухайё Умидуллаевна,
доцент кафедры английского языкознания, доктор философии по филологическим наукам (PhD)
[2]Турсунова Сарвиноз Гафуровна,
магистрант 2-курса по направлению «Лингвистика» (английский язык)

e-mail:
m.u.saidova@buxdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqola zamonaviy ingliz media diskursida enumeratsiya stilistik vositasining pragmatik va funksional xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi ommaviy axborot vositalari matnlarida auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, axborotni tizimlashtirish hamda kommunikativ samaradorlikni oshirishda sintaktik vositalarning roli ortib borayotgani bilan izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *media diskurs, enumeratsiya, stilistik vosita, pragmatik xususiyatlar, funksional tahlil, lingvopragmatika, diskurs tahlili, argumentativ strategiya, persuazivlik, kommunikativ ta'sir.*

Abstract: *This article is devoted to the analysis of the pragmatic and functional characteristics of the stylistic device of enumeration within contemporary English media discourse. The relevance of the study*

is underscored by the growing significance of syntactic devices in influencing the audience, systematizing information, and enhancing communicative effectiveness in mass media texts.

Keywords: *media discourse, enumeration, stylistic device, pragmatic features, functional analysis, linguopragmatics, discourse analysis, argumentative strategy, persuasiveness, communicative impact.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу прагматических и функциональных характеристик стилистического приема перечисления (энумерации) в современном английском медиадискурсе. Актуальность исследования обусловлена возрастающей значимостью синтаксических средств в воздействии на аудиторию, систематизации информации и повышении коммуникативной эффективности в текстах массовой коммуникации.*

Ключевые слова: *медиадискурс, энумерация, стилистический прием, прагматические характеристики, функциональный анализ, лингвопрагматика, дискурс-анализ, аргументативная стратегия, персуазивность, коммуникативное воздействие.*

Kirish. Zamonaviy kommunikatsiyada media diskursi jamoatchilik fikrini shakllantirish, axborotni tizimlashtirish va auditoriya xulqini boshqarishning markaziy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn yangilik resurslarining tez rivojlanishi media matnlarining shakl va mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirdi va xabarlarning aniq, samarali va ishontiruvchi bo‘lishi uchun lingvistik vositalar strategiyasini talab qiladi [1]. Shu kontekstdagi stilistik vositalar xabarlarning kommunikativ samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Galperin (1977)ning stilistika nazariyasi nuqtai nazaridan, stilistik vosita nafaqat ifoda kuchini oshiruvchi element, balki nutqning maqsadga yo‘naltirilgan kommunikativ funksiyasini ta’minlovchi mexanizm sifatida qaraladi [2]. Enumeratsiya, ya’ni semantik jihatdan bog‘liq elementlarning ketma-ket sanab o‘tilishi, Galperin nazariyasiga ko‘ra stilistik qurilmaning asosiy xususiyati sifatida matnning ifodaviy va pragmatik potensialini oshiradi [3]. Ingliz media matnlarida enumeratsiya yangilik maqolalari, tahliliy materiallar va onlayn nashrlarda keng qo‘llanilib, muhim faktlarni ta’kidlash, bir nechta nuqtai nazarni ko‘rsatish yoki murakkab axborotni ixcham va esda qoladigan shaklda yetkazishga xizmat qiladi [4]. Enumeratsiya nafaqat axborot berish funktsiyasini bajarsa, balki matnga ritm, muvozanat va vizual aniqlik beradi, bu esa o‘quvchining e’tiborini jalb qilish va tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Galperinning stilistika nazariyasiga ko’ra, har qanday stilistik qurilma ikki asosiy funksiyani ifodaviylik va kommunikativlikni bajaradi [5]. Ifodaviy funksiya matnga ritmik va estetik xususiyat beradi, kommunikativ funksiya esa ma’lumotni aniq, tizimli va samarali yetkazish imkonini ta’minlaydi. Shu jihatdan enumeratsiya matnda turli jihatlarni tizimli tarzda ajratib ko‘rsatadi, asosiy nuqtalarni markazlashtiradi va o‘quvchining e’tiborini jalb qiladi. Ingliz media matnlarida enumeratsiya turli shakllarda uchraydi. Masalan, oddiy sanab o‘tish “fast, reliable, affordable”; gradatsiya bilan sanab o‘tish “easy to use, more convenient, the most efficient”; yoki parallel tuzilma bilan sanab o‘tish “We inform, we educate, we inspire”. Bunday konstruktsiyalar matnga ritmik tuzilma berib, faktlarni ko‘p jihatli tarzda taqdim etadi va o‘quvchi ongida esda qolish darajasini oshiradi[6].

Enumeratsiya media diskursda bir nechta pragmatik funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u

[1] Cook, G. The Discourse of Advertising. Routledge, 2001.

[2] Galperin, I. R. Stylistics. Moscow: Higher School, 1977.

[3] Goddard, A. The Language of Advertising. Routledge, 2002.

[4] Simpson, P. Stylistics: A Resource Book for Students. Routledge, 2004.

[5] Cook, G. The Discourse of Advertising. Routledge, 2001.

[6] Simpson, P. Stylistics: A Resource Book for Students. Routledge, 2004.

axborotni tizimlashtirish va soddalashtirishga xizmat qiladi, ya'ni murakkab ma'lumotlarni ketma-ket birliklar shaklida taqdim etish orqali o'quvchiga tushunarli bo'ladi [7] . Ikkinchidan, enumeratsiya asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatadi, auditoriyaning diqqatini matnning markaziy nuqtalariga qaratadi. Uchinchi funksiyasi esa ishonchlilik va obyektivlik effektini yaratish. Bir nechta dalil yoki faktlarning ketma-ket taqdim etilishi matnga vazminlik va ishonchlilik hissini beradi [8] . To'rtinchidan, enumeratsiya argumentatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi, ayniqsa tahliliy yoki yangilik matnlarida u argumentlarni tizimli ravishda berishga yordam beradi. Va beshinchi jihat esa persuaziv ta'sirdir. Ro'yxatlar orqali auditoriyani ma'lum xulosaga yoki harakatga undash mumkin. Masalan, yangilik maqolasida "The new policy is clear, effective, and widely supported" jumlasi nafaqat axborot beradi, balki o'quvchida ishonchlilik va dolzarblik taassurotini hosil qiladi.

Enumeratsiya funksional jihatdan ham bir nechta imkoniyatlarni beradi. U matnga ritm va strukturani ta'minlaydi, e'tibor markazini aniqlaydi, emotsional-ekspressiv effekt yaratadi va kognitiv jihatdan axborotning esda qolishini osonlashtiradi. Amaliy misollarda enumeratsiya yangilik matnlari, tahliliy maqolalar va ijtimoiy tarmoq postlarida keng qo'llaniladi [9] . Yangilik maqolalarida enumeratsiya muhim faktlarni ketma-ket taqdim etish orqali maqola mavzusini aniq qiladi. Tahliliy maqolalarda ro'yxatlar argumentatsiyani kuchaytiradi va auditoriya fikrini shakllantirishni osonlashtiradi. Onlayn nashrlarda qisqa va ixcham enumeratsiya e'tiborni jalb qilish va xabarni tez qabul qilish imkonini beradi. Masalan, BBC yangiliklarida "The plan will reduce taxes, improve infrastructure, and increase employment" jumlasi nafaqat tizimli axborot beradi, balki persuazivlik va esda qoluvchanlikni oshiradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot zamonaviy ingliz media diskursida enumeratsiya stilistik vositasining pragmatik va funksional xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi enumeratsiya konstruksiyalarining matn tuzilmasidagi roli, kommunikativ samaradorligi va persuaziv funksiyalarini aniqlashdan iborat. Korpus sifatida 2015–2025-yillarda chop etilgan ingliz tilidagi media matnlari tanlandi. Ular yangilik maqolalari, tahliliy sharhlar, onlayn nashrlar va ijtimoiy media postlaridir. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar keng qo'llanildi. Lingvopragmatik tahlil - enumeratsiya elementlarining pragmatik ta'siri, persuazivligi va argumentativ funksiyasini baholash. Tavsifiy va qiyosiy tahlil-enumeratsiya konstruktsiyalarining turli turdagi media matnlardagi farqlarini aniqlash va ularni tasniflash. Ushbu usullar birgalikda enumeratsiyaning strukturaviy, semantik va pragmatik xususiyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Bu metodologiya enumeratsiya stilistik vositasining media diskursdagi murakkab va ko'p qirrali funksiyalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Quyidagi tahlilda BBC News, CNN va The Guardian kabi ishonchli xalqaro media nashrlaridan olingan real misollar asos sifatida ishlatiladi. 1.Extract *"The summit will focus on cutting emissions, boosting renewable energy, and protecting vulnerable communities."*[10] Bu jumlada enumeratsiya uchta predikatdan iborat (cutting emissions/boosting renewable energy/ protecting vulnerable communities) - bu elementlar asosiy iqlim strategiyalarini tizimli ravishda ko'rsatadi. Strukturaviy roli-ro'yxat qat'iy sintaktik ketma-ketlikda joylashgan bo'lib, har bir predikat o'zining parallel sintaktik tuzilmasiga ega. Bu matnga ritmik tuzilish beradi va o'quvchi uchun ma'lumotni aniq segmentlarga bo'lish imkonini yaratadi.Informativ funksiyasi esa ro'yxat har bir strategik yo'nalishni alohida ajratib ko'rsatadi, bu

[7] Fairclough, N. Discourse and Social Change. Polity Press, 1992.
[8] Leech, G. English in Advertising. Longman, 1966.
[9] Kress, G., van Leeuwen, T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. Routledge, 2006.
[10] BBC News, "Global Climate Summit: Leaders pledge action"

esa tezkor yangilik matnlarida axborotni tizimli yetkazadi. Pragmatik ta'sir-ko'plab auditoriya uchun bu sanab o'tilgan elementlar global iqlim yechimlari doirasida eng muhim yo'nalishlar ekanini anglatadi - shu bois u o'quvchida muammoning kompleks tabiatini tushunishga yordam beradi.

2) Extract *"The stimulus package aims to create jobs, lower taxes, and expand health coverage."* (CNN). Bu misolda uchta funksional element ketma-ket sanab o'tilgan, create jobs/lower taxes/expand health coverage. Argumentativ vazifasi bu enumeratsiya hukumat rejasining asosiy qismlarini argumentativ tartibda taqdim etadi. Har bir element siyosiy strategiyaning muhim yo'nalishini ochib beradi. Ishonchlilik effekti esa bir nechta ijobiy chora sanab o'tilishi o'quvchida reja avvaldan rejalashtirilgan va batafsil ko'rib chiqilgan deb qabul qilinishiga yordam beradi. Persuaziv effekti ketma-ket ijobiy natijalar sanab o'tilishi qaror (stimulus paketi) ni qo'llab-quvvatlash istiqbollarini kuchaytiradi, chunki ro'yxat strukturasi o'quvchida kompleks foyda tasavvurini shakllantiradi.

3) Extract *"Experts recommend more testing, increased vaccination, and closer monitoring of outbreaks."* (The Guardian) Bu misolda enumeratsiya yuqori darajadagi tavsiyalarni sanab beradi, more testing / increased vaccination /closer monitoring. Pragmatik roli mazkur ro'yxat o'quvchini real tavsiyalarni ketma-ket qabul qilishga undaydi, bu esa jurnalistik tekstning persuaziv funktsiyasini kuchaytiradi. Kognitiv effekti o'quvchi bu choralarning bir-biriga bog'liqligini va umumiy maqsad - epidemiyaga qarshi kurashga xizmat qilishini anglaydi. Struktur ta'siri har bir element mustaqil, lekin semantik jihatdan bog'langan bo'lib, tavsiyalar umumiy strategiyani hosil qiladi.

Natija va muhokama. Natijalar shuni ko'rsatdiki, enumeratsiya ingliz media diskursida faqat axborot berish vositasi sifatida ishlatilmaydi. U bir vaqtning o'zida pragmatik strategiya, argumentatsiyani mustahkamlash va persuaziv vosita vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, tahlil qilingan matnlarda enumeratsiya turli janrlarda (yangilik maqolalari, tahliliy sharhlar, onlayn postlar) turlicha ishlatiladi, yangilik matnlarida enumeratsiya qisqa va aniq bo'lsa, tahliliy maqolalarda u kengroq, ko'p elementli va argumentatsiyani chuqurroq ko'rsatadi. Shuningdek, enumeratsiya o'quvchi bilan interaktiv aloqani oshiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, ketma-ket sanab o'tilgan tavsiyalar yoki chora-tadbirlar o'quvchida ular ustida fikr yuritish, ularni baholash va qabul qilish jarayonini faollashtiradi. Natijalar Galperin (1977) va Fairclough (1992) nazariy yondashuvlari bilan ham mos keladi, enumeratsiya nafaqat stilistik qurilma, balki kommunikativ, pragmatik va persuaziv vosita sifatida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, korpus tahlili shuni ko'rsatdiki, enumeratsiyaning samaradorligi matnning janri, maqsadi va auditoriya xususiyatlariga bog'liqdir.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, enumeratsiya (sanab o'tish usuli) ingliz media diskursida faqat axborot yetkazish vositasi sifatida emas, balki ko'p funksiyali diskursiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil shuni tasdiqladiki, enumeratsiya bir vaqtning o'zida pragmatik strategiya, argumentatsiyani mustahkamlovchi vosita hamda persuaziv ta'sir mexanizmi vazifasini bajaradi. U matnning mantiqiy tuzilishini tashkil etish, muhim g'oyalarni ajratib ko'rsatish va o'quvchi talqinini yo'naltirishda faol rol o'ynaydi. Korpus tahlili enumeratsiyaning janrga bog'liq xususiyatlarini ham aniqladi. Yangilik maqolalarida enumeratsiya odatda qisqa, aniq va ixcham shaklda qo'llanilib, asosan faktik ma'lumotni ravshan yetkazishga xizmat qiladi. Tahliliy maqolalar va sharhlarda esa enumeratsiya kengroq, ko'p elementli ko'rinishda namoyon bo'lib, argumentatsiyani chuqurlashtirish va muallif pozitsiyasini asoslashga yordam beradi. Onlayn postlarda esa enumeratsiya ko'pincha qisqa, lekin ta'sirchan va e'tiborni jalb qiluvchi shaklda qo'llanadi. Bu farqlar enumeratsiyaning matn janri va kommunikativ maqsadiga mos ravishda moslashuvchanligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot enumeratsiyaning o'quvchi bilan interaktiv aloqani kuchaytirishdagi rolini ham ochib berdi. Ketma-ket sanab o'tilgan tavsiyalar, dalillar yoki

chora-tadbirlar o‘quvchini fikrlashga, taqqoslashga, baholashga va qaror qabul qilishga undaydi. Shu orqali enumeratsiya nafaqat axborotni tizimlashtiradi, balki o‘quvchi ongida mantiqiy va baholovchi jarayonlarni faollashtiradi. Segmentlangan va jamlovchi tuzilma matnning o‘qilish qulayligini oshirgan holda, argumentativ kuchni ham mustahkamlaydi.Olingan natijalar Galperin (1977) hamda Fairclough (1992) nazariy yondashuvlari bilan mos keladi. Galperinga ko‘ra, stilistik vositalar funksional jihatdan asoslangan ifoda birliklari bo‘lsa, Fairclough diskurs tuzilmalari pragmatik va ideologik ma’noga ega ekanligini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, enumeratsiya faqat stilistik qurilma emas, balki kommunikativ va persuaziv strategiya sifatida qaralishi lozim. Muhimi, enumeratsiyaning samaradorligi matnning janri, maqsadi va auditoriya xususiyatlariga bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. U o‘quvchi kutishlari va talqin doirasiga mos kelganda yanada kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ingliz media diskursida enumeratsiya ko‘p funksiyali stilistik-pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘lib, argumentatsiyani mustahkamlaydi, o‘quvchi ishtirokini faollashtiradi va persuaziv ta’sirni kuchaytiradi. Bu esa sintaktik stilistik vositalarni diskursiv va kommunikativ kontekstda chuqur o‘rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Cialdini, R. (2006). Influence: The psychology of persuasion. Harper Collins.

2.Cook, G. (2001). The discourse of advertising. Routledge.

3.Fairclough, N. (1992). Discourse and social change. Polity Press.

4.Galperin, I. R. (1977). Stylistics. Moscow: Higher School.

5.Goddard, A. (2002). The language of advertising. Routledge.

6.Kress, G., & van Leeuwen, T. (2006). Reading images: The grammar of visual design. Routledge.

7.Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. University of Chicago Press.

8.Leech, G. (1966). English in advertising: A linguistic study of advertising in Great Britain. Longman.

9.Myers, G. (1994). Words in ads: Communication and persuasion in advertising language. Arnold.

10.Simpson, P. (2004). Stylistics: A resource book for students. Routledge.

11.BBC News. (n.d.). Global climate summit: Leaders pledge action. https://www.bbc.com/news/world-global-summit.

12.CNN. (n.d.). New economic stimulus plan announced by government. https://edition.cnn.com/business/economic-stimulus.

13.The Guardian. (n.d.). Public health experts advise new measures. https://www.theguardian.com/society/public-health-advice.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'373.2:81'42

COGNITIVE FRAMES IN NAMING: MOTIVATION PATTERNS IN ENGLISH AND UZBEK ANTHROPONYMS

Nematova Oygul Jamshid qizi, Master's student,
Samarkand State Institute of Foreign Languages



https://orcid.org/0009-0005-3033-8912

e-mail: nematovaoygul3107@gmail.com

КОГНИТИВНЫЕ ФРЕЙМЫ В ИМЕНОВАНИИ: МОТИВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ АНТРОПОНИМИИ

Нематова Ойгул Джамшид кизи, магистрант
Самаркандского государственного института иностранных языков

NOMLASHDA KOGNITIV FREYMLAR: INGLIZ VA O'ZBEK ANTROPONIMLARIDA MOTIVATSION ANDOZALAR

Nematova Oygul Jamshid qizi, Samarqand davlat chet tillari instituti, magistratura bosqichi talabasi

Abstract: *This article examines the cognitive foundations of naming motivation in English and Uzbek anthroponyms from a comparative perspective. Drawing on cognitive linguistics and frame semantics, the study identifies the principal cognitive frames underlying personal name selection. The empirical basis consists of a corpus of 2,000 frequently attested given names collected from civil registration records, media discourse, and digital naming resources between 2000 and 2024. The analysis demonstrates that naming practices in both linguistic cultures are structured around recurrent frames such as virtue, nature, religion, social aspiration, and identity continuity. While several frames display cross-cultural stability, their relative prominence and cultural interpretation differ significantly, reflecting distinct value systems and conceptual priorities.*

Key words: *cognitive linguistics, frame semantics, anthroponyms, naming motivation, English, Uzbek.*

Аннотация: *В статье рассматриваются когнитивные основы мотивации имянаречения в английской и узбекской антропонимии в сопоставительном аспекте. Опираясь на теории когнитивной лингвистики и фреймовой семантики, исследование выявляет ведущие когнитивные фреймы, лежащие в основе выбора личных имён. Эмпирическую базу исследования составляет корпус из 2 000 наиболее часто употребляемых имён, собранных на основе актов гражданского состояния, медиадискурса и цифровых ресурсов по именованию за период с 2000 по 2024 годы. Результаты анализа показывают, что практики имянаречения в обеих лингвокультурах организованы вокруг повторяющихся фреймов, таких как добродетель, природа, религия, социальные устремления и преемственность идентичности. Несмотря на то что ряд фреймов демонстрирует межкультурную устойчивость, их относительная значимость и культурная интерпретация существенно различаются, отражая специфические системы ценностей и концептуальные приоритеты.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, фреймы, антропонимы, мотивация именования, английский язык, узбекский язык.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek antroponimlarida nomlash motivatsiyasining kognitiv asoslari qiyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqot kognitiv lingvistika va freym semantikasi*

nazariyalariga tayangan holda shaxs ismlarini tanlash jarayonida asos bo‘luvchi yetakchi kognitiv freymlarni aniqlaydi. Empirik material sifatida 2000–2024-yillar oralig‘ida fuqarolik holati dalolatnomalari, ommaviy axborot vositalari diskursi hamda raqamli nomlash resurslaridan to‘plangan 2 000 ta keng qo‘llaniladigan ism korpusi foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki lingvomadaniy muhitda nomlash amaliyoti fazilat, tabiat, din, ijtimoiy intilish va identifikatsion uzluksizlik kabi takrorlanuvchi kognitiv freymlar asosida shakllanadi. Ayrim freymlar madaniyatlararo barqarorlikka ega bo‘lsa-da, ularning nisbiy ustuvorligi va madaniy talqini sezilarli darajada farqlanadi, bu esa turli qadriyat tizimlari va konseptual ustuvorliklarni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv lingvistika, freym semantikasi, antroponimlar, nomlash motivatsiyasi, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Introduction. Personal names are among the earliest linguistic signs assigned to individuals, functioning not only as identifiers but also as carriers of cultural meaning. Rather than arbitrary labels, anthroponyms encode socially valued qualities, moral ideals, and collective experience. While English and Uzbek naming studies have traditionally focused on etymology and classification, they offer limited insight into the cognitive motivations behind name choice. From a cognitive-linguistic perspective, naming reflects shared conceptual structures, or cognitive frames, a dimension that remains underexplored in comparative anthroponymic research.

Literature Review and Theoretical Framework. Anthroponymic research traditionally classifies names according to their origin or semantic transparency. English naming studies frequently distinguish Germanic, Biblical, classical, and occupational sources, while Uzbek anthroponymy is described in terms of Turkic, Arabic, Persian, and Islamic layers [9, 85]. Although these classifications are descriptively valuable, they tend to overlook the cognitive motivations guiding name choice.

Cognitive linguistics conceptualizes language as part of general human cognition, emphasizing the role of embodied experience and cultural models in meaning construction [4, 15]. Within this paradigm, frame semantics occupies a central position. According to Fillmore, frames represent structured background knowledge that enables the interpretation of linguistic units within culturally shared contexts [2, 115–116].

Recent studies in cognitive onomastics argue that personal names activate culturally salient frames such as virtue, protection, beauty, or power, functioning as condensed symbols of social meaning [8, 70]. However, most existing research focuses on single-language analyses, which limits cross-cultural generalization. The present study builds on this theoretical foundation to provide a comparative frame-based account of anthroponymic motivation.

Data and Methodology. The empirical material consists of 2,000 contemporary given names, equally divided between English and Uzbek. The data were obtained from civil registration samples, media sources featuring public figures, and widely used digital baby-name databases. Only frequently attested names were selected to ensure representativeness.

The time frame of 2000–2024 was chosen to reflect recent sociocultural developments, including globalization and media influence. Each name underwent semantic profiling based on etymological meaning and cultural usage. Names were subsequently grouped into broader cognitive frames reflecting shared motivational patterns. Quantitative analysis was applied to identify the distribution of frames within and across the two corpora. Ambiguous cases were excluded to ensure analytical consistency.

Analysis and Results. The analysis demonstrates that naming practices in both English and Uzbek are organized around a limited yet stable set of recurrent cognitive frames. These frames function as conceptual templates through which personal qualities, social ideals, and cultural values are encoded in anthroponyms. Five major frames were identified across the corpora: virtue, nature, religion, social aspiration and power, and identity continuity.

The virtue frame emerged as one of the most productive patterns in both languages. Names within this frame conceptualize individuals as bearers of morally valued traits. In English, names such as Grace, Faith, and Hope explicitly lexicalize abstract ethical qualities, reflecting a tendency toward overt moral symbolism. In Uzbek, names

like Sobir (‘patient’), Adolat (‘justice’), and Sodiq (‘loyal’) similarly encode ethical ideals, though they often carry stronger normative and socially prescriptive meanings. Quantitatively, virtue-based names constitute a higher proportion of the Uzbek corpus, indicating a culturally reinforced emphasis on moral character.

The nature frame represents another highly productive pattern. Names such as Rose and Lily in English and Gulbahor (‘spring flower’) and Yulduz (‘star’) in Uzbek conceptualize individuals through natural imagery. These names draw on embodied experience and aesthetic perception, mapping qualities of beauty, harmony, and vitality onto personhood [1, 98]. While nature-based naming is frequent in both corpora, English shows greater lexical diversity within this frame, whereas Uzbek nature-based names often carry symbolic associations linked to renewal, prosperity, and destiny.

The religious frame displays notable cross-cultural asymmetry. In Uzbek anthroponymy, names associated with divine attributes, prophets, or religious virtues form a substantial category, reflecting the enduring role of spiritual continuity and collective belief systems. English religious names, while present, appear less dominant and are more frequently secularized in contemporary usage. This contrast highlights differing degrees of religious salience in naming motivation.

Names associated with social aspiration and power constitute another significant frame. English names such as Alexander and Uzbek names like Temur evoke leadership, strength, and historical authority. These names function as aspirational symbols, projecting ideals of success, dominance, and social prestige onto individuals. Finally, the identity continuity frame includes names selected to preserve family lineage, honor ancestors, or reinforce cultural heritage. This frame is particularly prominent in Uzbek naming practices, where intergenerational continuity plays a central role in identity construction.

Discussion: The recurrence of similar cognitive frames across English and Uzbek anthroponyms supports the existence of universal conceptual tendencies in human naming practices. At the same time, differences in the relative salience and interpretation of these frames highlight the decisive role of culture-specific value systems. Uzbek naming practices demonstrate a stronger orientation toward collective identity, moral responsibility, and spiritual continuity, reflecting the social importance of family, community, and religious tradition. In contrast, English naming exhibits greater individualization and aesthetic diversity, emphasizing personal expression and symbolic creativity [9, 90]. Cognitive frames thus function as mediating structures between language, cognition, and culture, enabling complex social values and identity models to be systematically encoded within personal names.

Conclusion. This study demonstrates that English and Uzbek anthroponyms are systematically motivated by cognitive frames rather than being arbitrary linguistic units. By applying a frame-based analytical model, the research advances cognitive onomastics and provides a comparative explanation of how personal names encode cultural values and conceptual models of personhood. The proposed approach offers a foundation for future research on diachronic change, media-driven naming trends, and identity construction through language.

References

1. Evans, V., Green, M. Cognitive Linguistics: An Introduction. Edinburgh University Press, 2006.
2. Fillmore, C. J. Frame semantics. In Linguistics in the Morning Calm, 1982, pp. 111–137.
3. Hough, C. (Ed.). The Oxford Handbook of Names and Naming. Oxford University Press, 2016.
4. Lakoff, G. Women, Fire, and Dangerous Things. University of Chicago Press, 1987.
5. Langacker, R. W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. Oxford University Press, 2008.
6. Nematova, O. Comparative analysis of name etymology: A study of English and Uzbek anthroponyms. 2023, pp. 552–554.
7. Nematova, O. English and Uzbek anthroponyms as cultural signs and symbols. Journal of International Scientific Research, 2025, 3(5), 97–103.
8. Tent, J., Blair, D. Motivations for naming. Names, 2011, 59(2), 67–89.
9. Van Langendonck, W. Theory and Typology of Proper Names. Mouton de Gruyter, 2007.
10. Wierzbicka, A. Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford University Press, 1997.

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK:316.77:37.01

TA'LIM MUHITIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING FALSAFIY INTEGRATSIYASI VA MADANIY KONSEPTLARI

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich, Samarqand Davlat universiteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi PhD dotsenti

INTEGRATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT AND ITS CULTURAL ASPECTS

Tanikulov Jonibek Ashirkulovich, Associate Professor of the Department of "Philosophy and National Idea" at Samarkand State University, PhD

ИНТЕГРАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ СРЕДУ И ЕЁ КУЛЬТУРНЫЕ АСПЕКТЫ

Таникулов Джонибек Аширкулович, доцент кафедры "Философия и национальная идея" Самаркандского государственного университета, PhD



https://orcid.org/0009-0002-5192-3975

e-mail: jtaniqulov140@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola axborot texnologiyalarining ta'lim muhiti bilan integratsiyasi va uning gnoseologik va madaniy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'siri, bilim transformatsiyasi, pedagogik amaliyotlar shakllanishi va ijtimoiy-madaniy aloqalar tahlil qilinadi. Maxsus e'tibor texnologiyalarni integratsiya qilish orqali innovatsion va madaniy yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish, shuningdek, ularning shaxs va ta'lim jamoasiga ta'sirini falsafiy nuqtai nazardan tushunishga qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, ta'lim muhiti, integratsiya, madaniy aspektlar, pedagogik jarayon, bilim transformatsiyasi, kommunikativ aloqalar, ijtimoiy-madaniy omillar, innovatsion ta'lim.*

Abstract: *The article is devoted to the study of the integration of information technologies into the educational environment and its gnoseological and cultural aspects. It analyzes the impact of information and communication technologies on the educational process, knowledge transformation, the formation of pedagogical practices, and socio-cultural interactions. Special attention is given to the role of technology integration in promoting innovative and culturally oriented education, as well as the philosophical understanding of its influence on individuals and the educational community.*

Key words: *integration, gnoseological aspects, cultural aspects, pedagogical process, knowledge transformation, communicative relations, socio-cultural factors, innovative education.*

Аннотация: *Статья посвящена исследованию интеграции информационных технологий в образовательное пространство и её гносеологическим и культурным аспектам. Анализируется влияние информационно-коммуникационных технологий на образовательный процесс, трансформацию знаний, формирование педагогических практик и социально-культурные взаимодействия. Особое внимание уделяется роли интеграции технологий в обеспечении инновационного и культурно ориентированного обучения, а также философскому осмыслению их воздействия на личность и образовательное сообщество.*

Ключевые слова: *информационные технологии, образовательная среда, интеграция, культурные аспекты, педагогический процесс, трансформация знаний, коммуникативные связи, социально-культурные факторы, инновационное образование.*

Kirish. Axborot texnologiyalarining ta’lim muhiti bilan integratsiyasi bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Raqamli texnologiyalar va internetning tezkor rivojlanishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, shu bilan birga, ta’limning gnoseologik va madaniy tarkibiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Axborot texnologiyalari orqali o‘quvchilarga kengaytirilgan bilim bazasi, interaktiv ta’lim resurslari va onlayn platformalar orqali ta’lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, so‘nggi yillarda ta’lim falsafasi ta’lim jarayonining murakkab muammolarini integrativ, fanlararo va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan ilmiy soha sifatida rivojlanmoqda [1;115]. Shu nuqtai nazardan, axborot texnologiyalarining ta’lim muhiti va uning madaniy jihatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni falsafiy tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat bilim olish sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarda axborot madaniyati va intelektual refleksiyani shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ta’lim muhitida yangicha fikrlash uslublarini rivojlantirish, global madaniyat bilan integratsiyani chuqurlashtirish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash imkonini yaratadi.

Shuningdek, axborot texnologiyalarining ta’limga joriy etilishi o‘quvchilarga raqamli, madaniy va aksiologik ko‘nikmalarni uyg‘unlashgan holda o‘rgatishga xizmat qiladi. Bu jarayon shaxslarni nafaqat texnologiyadan samarali foydalanishga, balki uni madaniy va axloqiy kontekstga mos ravishda qo‘llashga o‘rgatadi. Natijada, ta’lim tizimi falsafiy nuqtai nazardan o‘z kelajak istiqbollarini belgilaydi va global maydonda raqobatbardosh, madaniyat va bilimga asoslangan modelga aylanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Axborot texnologiyalarining ta’lim muhiti bilan integratsiyasi va uning madaniy jihatlari masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ko‘plab olimlar va pedagoglar bu jarayonning ta’lim sifatiga, o‘quvchilarning ijodkorligi va mustaqil fikrlash qobiliyatlariga, shuningdek, ta’lim madaniyatining gnoseologik va aksiologik tarkibiga ta’sirini falsafiy nuqtai nazardan o‘rganadilar. Masalan, Qilichova Marxabo Xudayqulovna axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning bilim olish usullarini tubdan o‘zgartirib, ularning kreativ fikrlash va mustaqil izlanish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [2;917]. Shu bilan birga, Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna ta’lim tashkilotlarini boshqarishda zamonaviy metodlarning yaratilishi va ta’lim sifatini oshirishda tizimli yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, boshqaruv jarayonlaridagi muammolar jamiyat va iqtisodiyotning keskin o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bularni bartaraf etish uchun kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash zarur [3;624]. Ruzimova Marjonoy Yo‘ldash qizi esa axborot texnologiyalarining madaniy jihatlarini ta’kidlab, ta’lim tizimida texnologiyalarni joriy etish orqali madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish usullarini taklif qiladi. Shu bilan birga, u texnologiyalar va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni, integratsiyalashgan ta’lim jarayonida didaktik tamoyillarni falsafiy asosda tahlil qiladi [4;218]. S.Tuominen o‘z ishida media va axborot savodxonligini shakllantirish pedagogik jihatlarini o‘rganib, media axborot tizimlarining ta’lim jarayonini interaktiv, samarali va o‘quvchi markazli qilishdagi rolini ko‘rsatadi [5;133]. Shuningdek, R.N. Nazimov ta’lim madaniyati va innovatsion metodlarni joriy etishning ahamiyatini ta’kidlab, media tizimlarining o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishdagi, o‘quvchi va o‘qituvchilarni moslashtirishdagi rolini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi [6;416]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’limni global miqyosda yangilash imkoniyatini yaratadi, biroq bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hisobga olish, ta’lim madaniyati va axloqiy normativlarni saqlash muhim falsafiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot axborot texnologiyalarining ta’lim muhitiga integratsiyasi va uning madaniy jihatlarini chuqur

falsafiy va metodologik nuqtai nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot aralash metodologik yondashuvga asoslanib, miqdoriy va sifatli tadqiqot usullarini uyg‘unlashtiradi.

Birinchi bosqichda miqdoriy tadqiqotlar orqali o‘quvchilar va o‘qituvchilar orasida so‘rovnomalar o‘tkazilib, axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ko‘rsatgan ta’siri va uning madaniy transformatsiyalarga ta’siri tahlil qilindi. So‘rovnomalar natijalari texnologiyalar orqali ta’lim sifatining oshishi va madaniy jihatlarning rivojlanishidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berdi.

Ikkinchi bosqichda sifatli tadqiqotlar – intervyular va fokus-guruhlar yordamida – o‘qituvchilar va ta’lim boshqaruvchilari bilan pedagogik yondashuv va axborot texnologiyalariga nisbatan falsafiy qarashlar o‘rganildi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida amaliy tajribalar va adabiyotlar tahlili ham amalga oshirildi. Bu metodologik yondashuv axborot texnologiyalarining ta’lim muhitiga integratsiyasining madaniy va gnoseologik jihatlarini keng va chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalarining ta’lim muhitiga integratsiyasi o‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan ijobiy qabul qilingan. So‘rovnomalar natijasida ishtirokchilarning 80% dan ortig‘i raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkinligini ta’kidladi. O‘quvchilar interaktiv platformalar va onlayn kurslar orqali yanada samarali, qiziqarli va ijodiy ta’lim olish imkoniyatiga ega ekanliklarini bildiradilar. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari o‘quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishga ham falsafiy jihatdan ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, ta’limning yangi yo‘nalishi – mediata’lim, ya’ni ommaviy axborot va kommunikatsiya sohasini ta’lim jarayonlariga falsafiy integratsiya qilish orqali madaniy va gnoseologik tarkibni boyitishdir [7;36]. Mediata’lim termini pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat bilan sinonim sifatida ishlatiladi.

Sifatli tadqiqotlar (intervyu va fokus-guruhlar) shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar axborot texnologiyalarini pedagogik faoliyatlariga integratsiya qilishda ba’zi murakkabliklarga duch keladilar. Ko‘pchiligi qo‘shimcha treninglar, metodik qo‘llanmalar va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar texnologiyalarni joriy etishda madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish masalasini alohida falsafiy e’tibor bilan muhokama qiladilar. Ular raqamli texnologiyalar orqali milliy qadriyatlarni o‘rgatishning yangi usullarini izlash zarurligini ta’kidlaydilar.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalarining integratsiyasi nafaqat o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga, balki ularning madaniy, ijtimoiy va gnoseologik ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar malakasini oshirish va pedagogik metodlarni takomillashtirish zarur. Madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish ta’lim tizimida alohida falsafiy e’tiborni talab qiladi. Ayniqsa, axborot xurujlari va ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlar ta’limning axloqiy va madaniy xavfsizligiga tahdid solishi mumkin; shu sababli ta’lim muassasalarida media savodxonlik va axborot xavfsizligini oshirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi [8;37].

Xulosa. Axborot texnologiyalarining ta’lim muhitiga integratsiyasi nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarda zamonaviy axborot madaniyatini shakllantirish va mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv kabi intellektual salohiyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qilish bilan birga, pedagogik jarayonda o‘quvchining gnoseologik va aksiologik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarur.

Hozirgi globallashuv davrida internet va raqamli platformalar orqali masofadan turib o‘qish imkoniyatining paydo bo‘lishi ta’lim oluvchilar va beruvchilar uchun yangi gnoseologik va pedagogik ufqlarni ochmoqda. Elektron ta’lim platformalari o‘quvchiga video-ma’ruzalardan qayta-qayta foydalanish orqali bilimni chuqurlashtirish imkonini beradi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, axborot texnologiyalarining ta’lim muhitiga integratsiyasi madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishi lozim. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish ta’limning aksiologik va ijtimoiy funksiyasini ta’minlaydi. Ta’lim jarayoniga texnologiyalarni kiritish natijasida yuzaga keladigan madaniy transformatsiyalar o‘quvchilarni global madaniyat bilan integratsiyalashishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, media axborot tizimlari orqali o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, jamiyatdagi axborot madaniyatining shakllanishi va ijtimoiy mas’uliyatni anglash kabi elementlar kuchayadi. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlardagi axborot tahdidlarini bartaraf etish va media vositalarining tarqatilish madaniyatini rivojlantirish muhim falsafiy vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, axborot texnologiyalarining ta’lim muhitiga integratsiyasi nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki o‘quvchilarda madaniy, ijtimoiy va axborot ko‘nikmalarini, shuningdek, ularning gnoseologik va aksiologik ongini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elmuradova S.A. Ta’lim madaniyati: shakllanish va rivojlanishning falsafiy metodologik asoslari. “PEDAGOGS” international research journal. Volume-9, Issue-2, May – 2022. – P.115-117. ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995.

2. Qilichova M. X. Ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsion yondashuvning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 P. 917-921. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-917-921.

3. Jurayeva Sh. S. Ta’lim integratsiyasi jarayonida ta’limni boshqarishning pedagogik asoslarini takomillashtirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 (E)ISSN: 2181-1784 4(01), Jan., 2024 www.oriens.uz. P. 624-627.

4. Ruzimova M. Y. Integratsiyalashgan ta’lim asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning o’ziga xos didaktik tamoyillari. – 2023. Fevral. Betlar 218-224.

5. Tuominen S. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. −T.: Extremum-press, 2017. −B.133.

6. Nazimov R. N. Pedagogik madaniyat va uning muhim shartlari. International journal of scientific researchers. – 2024, page – 416-419.

7. Taylakova Sh. Ta’lim-tarbiya jarayonlarida mediata’lim texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro va milliy tajriba. // International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages”. // 3(22), Nov., 2023. // (E)ISSN:2181-1784. //. www.oriens.uz.

8. Duisenov N., AKT va Internet texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganish. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021. Bet 227.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 159.9:316.

TALABALARDA AKADEMIK PROKRASTINATSIYANING TA'LIM MUHITI BILAN BOG'LIQLIGI

Mardiyeva Shaxnoza Amirovna,
SamDCHTI, Pedagagika va psixologiya kafedrasi dotsenti,
Ps.f.f.d (PhD)

THE RELATIONSHIP BETWEEN ACADEMIC PROCRASTINATION IN STUDENT AND THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Mardiyeva Shakhnoza Amirovna,
Samarkand State Institute of Foreign Languages, Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology,
Ps.f.f.d (PhD)

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ПРОКРАСТИНАЦИЕЙ У СТУДЕНТОВ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДОЙ

Мардиева Шахноза Амировна,
Самаркандский государственный институт иностранных языков, доцент кафедры педагогики и психологии, кандидат наук (PhD)



https://orcid.org/0009-0004-5043-0444
e-mail: mardiyevashaxnoza19820111@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarda akademik prokrastinatsiyaning ta'lim muhiti omillari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Akademik prokrastinatsiya tushunchasining fanda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilishi, sabab va oqibatlari yoritib beriladi. O'quv yuklamasi, o'qituvchi talablari, baholash tizimi, motivatsion muhit hamda psixologik iqlimning prokrastinatsiyaga ta'siri o'rganiladi. Zamonaviy yondashuvlarda ta'lim tizimi muhiti tarkibiy qismlari haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *akademik prokrastinatsiya, ta'lim muhiti, motivatsiya, stress, self-regulation, talaba.*

Abstract: *This article analyzes the relationship between academic procrastination in students and factors of the educational environment. The sudy of the concept of academic procrastination by researchers in science, its causes and consequences are highlighted. The impact of the curriculum, teacher requirements, assessment system, motivational environment and psychological climate on procrastinatsion is studied. Information about the components of the educational system environment in modern approaches is highlighted.*

Key words: *academic procrastination, educational environment, motivation, stress, self-regulation, student.*

Абстрактный: *В данной статье анализируется взаимосвязь между академической прокрастинацией у студентов и факторами образовательной среды. Осветлены исследования концепции академической прокрастинации, проводимые научными исследователями, её причины и последствия. Изучено влияние учебного плана, требований к преподавателям, системы оценивания, мотивационной среды и психологического климата на прокрастинацию. Представлена информация о компонентах образовательной среды в современных подходах.*

Ключевые слова: *академическая прокрастинация, образовательная среда, мотивация, стресс, саморегуляция, студент.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalar o‘quv faoliyatida vazifalarni kechiktirish muammosi keng tarqalgan. Akademik prokrastinatsiya talabaning o‘quv topshiriqlarini ongli ravishda kechiktirishi bilan tavsiflanadi va bu holat akademik muvaffaqiyat, psixologik farovonlik hamda kasbiy tayyorgarlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda prokrastinatsiya individual xususiyatlar bilan bir qatorda ta’lim muhiti omillari bilan ham bevosita bog‘liqligi aniqlanmoqda. Shu sababli ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - talabalarda akademik prokrastinatsiyaning ta’lim muhiti bilan bog‘liqligini ilmiy tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pedagogika va ta’lim psixologiyasida “ta’lim muhiti” tushunchasi keng qamrovli tizim sifatida talqin qilinadi. Ta’lim muhiti - bu talabaning o‘quv faoliyati amalga oshadigan psixologik, pedagogik, tashkiliy va ijtimoiy sharoitlar majmuidir. Ilmiy manbalarda ta’lim muhiti talabaning: motivatsiyasi, o‘quv faoliyati, psixologik holati, akademik muvaf-faqiyati bilan bevosita bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Kechiktirish va vazifalardan qochish: nazariya, tadqiqot va davolash [1.1995] Ferrari, Jonson va Makkou tomonidan kechikish oddiy dangasalik emas, balki hissiy stress, muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi va tashvish tufayli yuzaga keladigan vazifalarni murakkab, odatiy va noto‘g‘ri kechikishi sifatida tavsiflovchi asosiy matndir deb ta’riflaydi. Kechikish ko‘p qirrali xatti-harakat sifatida qaraladi, bu tashvish, perfektionizm va past o‘zini o‘zi qadrlashdan himoya mexanizmni sifatida ishlaydi. Asosiy omillarga majburiyatning yetishmasligi, mantiqsiz e’tiqodlar va yuqori tashvish kiradi. U kechikishni psixologik, ijtimoiy va amaliy oqibatlariga qaratib, akademik, qaror qabul qilish va surunkali kabi turlarga ajratadi. Pier Steel [2,2007] Kechikish oddiy vaqtni boshqarish muammosi emas, balki muhim psixologik muammo ekanligini tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ellis & Knaus [3.1977], O‘Brien [3.2002] Kechiktirish juda keng tarqalgan. Garchi deyarli hammamiz hech bo‘lmaganda dovdirash bilan shug‘ullangan, ba'zilari buni hayot tarziga aylantirgan. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim talabalarining 80% -85% kechiktirish bilan shug‘ullanadi. Kundalik faoliyatining uchdan bir qismidan ko‘prog‘ini egallaydi. Bundan tashqari, bu foizlar ortib borayotgan ko‘rinadi (Kachgal, Hansen va Nutter, 2001) davomida endemik bo‘lishdan tashqari institutga kechikish ham talabalar orasida keng tarqalgan, kattalarning 15% dan 20% gacha surunkali ta’sir qiladi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotlarni tahlil qilgan holda, zamonaviy tadqiqotlarda ta’lim muhitiga ta’sir etuvchi asosiy komponentlarni ko‘rib chiqamiz. Asosiy komponentlar pedagogik (didaktik) muhit, baholash tizimi, akademik yuklama va vaqt talablaridan iborat. Komponentlarni har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Pedagogik (didaktik) muhit — bu o‘qitish usullari, metodlari, topshiriqlar mazmuni va dars tashkil etilishi bilan bog‘liq omillar majmuasidir. Asosiy elementlari: o‘qitish metodlari (interaktiv, an’anaviy, aralash) topshiriqlar murak-kabligi mustaqil ish hajmi dars jarayonining strukturasidir. Zamonaviy ta’limda quyidagi tendensiyalar ustun: talaba markazli yondashuv, muammoli o‘qitish, loyiha asosida o‘qitish, raqamli texnologiyalar integratsiyasi. Pedagogik muhitning sifati past bo‘lsa: talaba qiziqishi pasayadi, o‘quv faoliyati majburiy xarakter oladi, prokrastinatsiya kuchayadi.

2. Baholash tizimi- ta’lim muhitining eng kuchli motivatsion omillaridan biridir. Baholashning ikki asosiy turi mavjud: Birinchisi *Summativ baholash (yakuniy nazorat)*, *Ikkinchisi Formativ baholash (jarayon davomida baholash)* bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki: Jazoga asoslangan baholash, tashvishni oshiradi, muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvini kuchaytiradi, prokrastinatsiyani kuchaytiradi, qo‘llab-quvvatlovchi baholash, ichki motivatsiyani oshiradi, o‘zini boshqarishni rivojlantiradi, vazifalarni o‘z vaqtida bajarishga yordam beradi.

3. Akademik yuklama va vaqt talablari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Topshiriqlar soni, topshiriqlar murakkabligi, deadline (topshiqni tugatish muddati)
bosimi, vaqt resurslari hisoblanadi. Talabalar o‘quv faoliyati jarayonida haddan tashqari yuklama quyidagi psixologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi: Masalan, charchoq, stress, kognitiv toliqish, vazifadan qochish holatlari talabalar o‘rtasida yuzaga keladi. Natijada talabalarda, “Barchasiga ulgura olmayman” degan fikr bilan vazifalarni kechiktira boshlaydi yoki umuman vazifani boshlay

olmaydi. Bu holat akademik prokrastinatsiyaning eng kuchli tashqi omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bundan tashqari motivatsion muhit ham talabaning o‘qishga bo‘lgan ichki va tashqi rag‘batlari majmuasi bo‘lib hisoblanadi. Uning shakllanishini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ta’lim mazmunining qiziqarliligi, kasbiy istiqbol, o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlashi, muvaffaqiyat hissi kabilar talabada akademik faoliyatga nisbatan yana qiziqish, vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish imkonini beradi. Talabalarda o‘quv faoliyatiga qiziqishni yana oshirish maqsadida motivatsion muhitni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Motivatsion muhitning ikki turi mavjud: *Birinchisi,* ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi muhit bo‘lsa, bunga qiziqarli topshiriqlar, tanlov erkinligi, ijodkorlik imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. *Ikkinchisi,* tashqi motivatsiyaga asoslangan muhit bo‘lib, baho, mukofot, jazolar kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi. Agar talabada, ichki motivatsiya past bo‘lsa: talaba vazifalarni kechiktiradi, faoliyatga kirishish qiyinlashadi. Talabalarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish, psixologik iqlimga ham bevosita bog‘liq. Psixologik iqlim - bu ta’lim jarayonidagi emotsional muhitdir. Bundan tashqari ya’na, asosiy komponentlarning ta’sirini ham ko‘rishimiz mumkin. Bular xavfsizlik hissi, qo‘llab-quvvatlash, hurmat, o‘z fikrini erkin bildirish imkoniyatidir. O‘quv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, salbiy psixologik muhit talabani tashvishini oshiradi, xatodan qo‘rquvni kuchaytiradi, prokrastinatsiyani rag‘batlantiradi. Talaba akademik faoliyati jarayonida professor-o‘qituvchi bilan o‘zaro munosabatlari, bugungi kun zamonaviy pedagogikada bu eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ya’ni talabani professor-o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi motivatsiyani oshiradi, o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi, akademik faollikni kuchaytiradi. Agar oliy ta’lim professor-o‘qituvchisi avtoritar uslubni qo‘llasa, talabada tashvishni yanada oshiradi, vazifalardan qochishni va prokrastinatsiyani kuchaytiradi. Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti, so‘nggi yillarda yangi komponent sifatida ajratilmoqda. Bular onlayn platformalar, masofaviy ta’lim, raqamli topshiriqlar, axborot ortiqchaligini o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari talabalarning akademik yuklamasi oshgani sari, prokrastinatsiya darajasi ham ortadi. Sabablari quyidagilar bo‘lib hisoblanadi. Haddan tashqari topshiriqlar, vaqt yetishmasligi, charchoq hissini oshib borish holatlari sabab bo‘lishi kuzatiladi.

Talabalarda prokrastinatsiya jarayonining kelib chiqishiga baholash tizimi jarayoni ham sabab bo‘ladi. Akademik motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik baholash tizimi ta’siri, qattiq va jazoga asoslangan baholash, tashvishni oshiradi, vazifalarni kechiktirishni kuchaytiradi. Talabalarda eng keng tarqalgan sabab — bahodan qo‘rquv. Baholash tizimi va akademik motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik. Ta’lim jarayonida baholash tizimi talabalarning: o‘quv motivatsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘qishga bo‘lgan munosabati, stress darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar baholash tizimi; haddan tashqari qat’iy, noaniq, jazoga yo‘naltirilgan, adolatsiz deb qabul qilinsa, talabalarda qochish xulqi shakllanadi. Bu qochish xulqi esa ko‘pincha prokrastinatsiya ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv talabada yuzaga kelsa, talaba o‘ylaydi: “Agar topshiriqni boshlasam va yomon bajarsam-chi?”, “Yomon baho olsam boshqalar nima deydi?” kabi savollar orqali vazifalarni kechiktirib bajarishadi. Natijada, ishni boshlamaslik xavfsizroq deb qabul qilinadi, prokrastinatsiya boshlanadi. Bu mexanizm self-handicapping deb ataladi. Talaba ichki ravishda o‘zini himoya qiladi: vaqt yetmadi, baho past bo‘ldi, qobiliyatim past emas, sharoit yomon edi degan sabablarni vaj qiladi. Shunday qilib, prokrastinatsiya psixologik himoya mexanizmiga aylanadi. Baholash tizimining turi va prokrastinatsiya, jazoga asoslangan baholash (summativ model) quyidagi xususiyatlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, yakuniy imtihon ustun jarayon emas, natija baholanadi. Xatoga toqatim yo‘q kabi xususiyatlar. Natijada esa, kuchli stress, tashqi motivatsiya ustunligi, oxirgi muddatgacha kechiktirish holatlar ko‘p kuzatiladi. Talabalarda, bu model prokrastinatsiyani kuchaytiradi. Oxirgi kechada o‘qish (cramming), topshiriqni deadline yaqinida boshlash. Talabalarni jarayonga yo‘naltirilgan baholash (formativ model) tizimi xususiyatlariga to‘xtalib o‘tsak: kichik topshiriqlar, muntazam feedback, xatoga ijobiy munosabat kabilar. Natijada esa xavfsizlik hissi ortadi, vazifa qo‘rqinchli emas, kechiktirish kamayadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, formativ baholash

prokrastinatsiyani sezilarli kamaytiradi. Baholash tizimining shaffofligi, noaniq mezonlar, kuchli prokrastinatsiya, agar talaba bilmasa nimaga baho qo‘yiladi, qanday mezonlar mavjud. Nimasi yaxshi ish hisoblanadi, u vazifani boshlashni kechiktiradi. Psixologik sabablariga e’tibor qaratsak, noaniqlik, xavf hissini sezgan talabada vazifa va ma’suliyatdan qochish yuzaga keladi. Bu “uncertainty avoidance procrastination” deyiladi. Talabalarni baholashdagi shaffof, talabalarni faol tarzda vazifani boshlashga sabab bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, talabalarda akademik prokrastinatsiyaning ta’lim muhiti bilan bog‘liqligi bir nechta sabab va omillarga bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Pedagogik (didaktik) muhit, baholash tizimi, akademik yuklama va vaqt talablariga bevosita bo‘gliq. Agar talaba vaqtida unga o‘qitilayotgan fanni yaxshi o‘zlashtirib borsa, vazifalarni aniq talablar asosida bajaradi. Misollar keltira oladi, talabada vaqtini va ma’suliyatini, oldiga qo‘ygan maqsadlarini nazorat qila olish hissi oshadi. Vazifani aniq bajara olsa, professor-o‘qituvchi tomonidan talabalarni vazifalari oson baholanadi. Talabada umumiy yagona qo‘llaniladigan reyting tizimi va ijtimoiy solishtirish holati ham yuzaga keladi. Agar baholash, reyting, GPA, kursdoshlar bilan bilim darajasi va olgan bahosini taqqoslashga asoslangan bo‘lsa, quyidagi jarayonlar kuchayadi: ijtimoiy xavotir, imposter sindrom, o‘ziga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa, vazifani boshlashdan qochishga olib keladi. Talaba vazifani emas, bahoni o‘ylaydi. Baholash tizimi kuchli bo‘lsa, stress, tashvish, kognitiv blok, kechiktirish jarayoni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Stress paytida miya murakkab vazifalarni boshlashdan qochadi, qisqa muddatli yoqimli faoliyatni tanlaydi. Natija esa telefon, ijtimoiy tarmoqlar, boshqa chalg‘ituvchilar esa emotion-focused procrastination hisoblanadi. Baholash tizimi qanchalik qo‘rqituvchi va jazoga yo‘naltirilgan bo‘lsa, talabalarda prokrastinatsiya shunchalik kuchli namoyon bo‘ladi. Qo‘llab-quvvatlovchi va jarayonga yo‘naltirilgan baholash esa prokrastinatsiyani kamaytiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.A.Mardiyeva. Akademik prokrastinatsiyani o‘rganish bo‘yicha xorijiy olimlar tahlili //“Zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2025-yil, 194-196 b.
2. Joseph R. Ferrari., Judith L. Johnson., & William G. Mc Cown. Prokrastinatsion and Task Avoidance: Theory, Research, and Treatment. Springer Science & Business Media, Jan 31, 1995 - Medical - 268 pages
3. Piers Steel University of Calgary Psychological. The Nature of Procrastination: A Meta-Analytic and Theoretical Review of Quintessential Self-Regulatory Failure. Bulletin Copyright 2007 by the American Psychological Association.
4. Е.П.Ивутина., Е.С.Шуракова. Академическая прокрастинация как проявление защитно - совладающего поведения у студентов // Педагогика и психология журнал. 2013 год. 146 с.
5. Tuckman, B. W. (1991). Prokrastinatsiya shkalasining rivojlanishi va o‘z vaqtida mosligini baholash.Educational and Psychological Measurement, 473-480b.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK:

ИСЛОҲОТЛАР АМАЛДА

МЕДИАЦИЯ ВА КЕЛИШУВ БИТИМИ – НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШНИНГ ТАРАФЛАР УЧУН ЭНГ МАҚБУЛ ЕЧИМИ



Рустам КУРБАНБАЕВ,
Нукус туманлараро иқтисодий судининг судьяси

Мамлакатимизда фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини янада мустаҳкамлаш, тадбиркорлик фаолиятини эркин олиб боришларини таъминлаш давлатнинг бош мақсадига айланган. Бу мақсадларни самарали амалга ошириш мақсадида алоҳида қонунлар қабул қилинганлигини айтиб ўтиш жоиздир.

Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 3 июль куни «Медиация тўғрисида»ги ЎРҚ-482-сонли Қонуни қабул қилинган ва 2019 йил 1 январдан эътиборан кучга кирган. Ушбу Қонуннинг мақсади медиация соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. «Медиация тўғрисида»ги қонуннинг амал қилиши фуқаролик ҳуқуқи муносабатлардан, шу жумладан тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш муносабати билан келиб чиқадиган низоларга, шунингдек якка меҳнат низоларига ва оилавий ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларга медиацияни қўллаш билан боғлиқ муносабатларга нисбатан агар қонунда бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, татбиқ этилади.

Медиацияни қўллаш тўғрисидаги келишув — низо келиб чиққунига қадар ёки у келиб чиққанидан сўнг тарафларнинг низони медиация тартиб-таомилини амалга оширган ҳолда ҳал этиш зарурлиги тўғрисида тузилган келишуви.

Медиация тартиб-таомилини амалга ошириш тўғрисидаги келишув — тарафларнинг тузилган пайтдан эътиборан медиация тартиб-таомили амалга ошириладиган келишуви.

Медиатив келишув — медиацияни қўллаш натижасида медиация тарафлари томонидан эришилган келишув.

Медиацияни қўллаш тўғрисидаги келишув шартномадаги унинг таркибий қисми бўлган шарт тарзида ёки алоҳида келишув тарзида ёзма шаклда тузилади.

Медиацияни қўллаш тўғрисидаги келишувда тарафлар ўртасида келиб чиққан ёки келиб чиқиши мумкин бўлган барча ёки муайян низолар медиация тартиб-таомилини амалга ошириш йўли билан ҳал этилиши кераклиги ҳақидаги қоида бўлиши лозим.

Медиацияни қўллаш тўғрисидаги келишувда низо предмети ҳақидаги, медиация тартиб-таомилини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги, медиация тартиб-таомилини амалга ошириш билан боғлиқ харажатларда тарафларнинг иштирок этиш шартлари ҳақидаги, медиация тартиб-таомилини амалга ошириш муддатлари тўғрисидаги маълумотлар бўлиши мумкин.

Медиацияни қўллаш тўғрисидаги келишув мазмуни:

-Тарафлар;

-Низо предмети;

-Медиацияни амалга ошириш тартиби, медиатор, келишилган мажбуриятлар, уларни бажариш шартлари ва муддатлари;

-Медиация амалга ошириладиган тил, жой ва сана;

-Медиация муддати.

Медиация натижалари бўйича тарафлар ўзаро бир қарорга келган тақдирда тарафлар ўртасида ёзма шаклда тузилади.

Давлат органи томонидан шахснинг манфаатларини кўзлаб даъво тақдим этилган бўлса, ўша шахс мазкур давлат органининг иштирокисиз медиатив келишув тузишга ҳақли.

Медиатив келишув тарафлар учун мажбурий бўлиб, белгиланган тартибда ҳамда муддатларда бажарилиши керак.

Медиатив келишув бажарилмаган тақдирда тарафлар судга мурожаат этишга ҳақли.

Медиатив келишув бажарилмаслигининг оқибатлари келишувнинг ўзида белгилаб қўйилиши мумкин.

Профессионал медиатор ўз фаолиятини ҳақ эвазига ёки текин амалга ошириши мумкин.

Нопрофессионал медиаторнинг фаолияти текин амалга оширилади.

Нопрофессионал медиаторга унинг медиацияни амалга ошириш билан боғлиқ қилган харажатларини, шу жумладан низони кўриб чиқиш жойига бориб келиш учун йўл ҳақи, яшаш ва овқатланиш харажатлари ўрни қопланиши мумкин.

Ҳақ тўлаш ва харажатлар ўрнини қоплаш тарафлар томонидан, агар бошқача қоида бўлмаса, тенг улушларда амалга оширилади.

Келишув битими – ўзаро келишишга асосланган ва низони ҳал қилиш юзасидан тарафларнинг ёзма келишуви ҳисобланади.

Келишув битими даъво тартибидаги ҳар қандай иш бўйича тузилиши мумкин. Келишув битими фуқаролик ва иқтисодий суд ишларини юритишнинг ҳар қандай босқичида ва суд ҳужжатини ижро этиш жараёнида тарафлар томонидан тузилиши мумкин.

Келишув битими у суд томонидан тасдиқланганидан кейин тузилган ҳисобланади.Келишув битими ёзма шаклда тузилади ва келишув битимини тузган шахслар ёки уларнинг вакиллари томонидан имзоланади. Келишув битимида мажбуриятларни бажариш шартлари ва муддатлари кўрсатилиши керак.

Келишув битимида жавобгар томонидан мажбуриятларни кечиктириб ёки бўлиб-бўлиб ижро этиш тўғрисидаги, талаб қилиш ҳуқуқидан бошқа шахс фойдасига воз кечиш ҳақидаги, қарздан тўлиқ ёки қисман воз кечиш ёхуд қарзни тан олиш тўғрисидаги, суд харажатларини тақсимлаш ҳақидаги шартлар ва қонунга зид бўлмаган бошқа шартлар кўрсатилиши мумкин.

Агар келишув битимида суд харажатларини тақсимлаш ҳақидаги шарт мавжуд бўлмаса, суд бу масалани келишув битимини тасдиқлаш чоғида, умумий тартибда ҳал этади.

Солиқ идораларининг юридик шахсларнинг солиқ қарзларини ундиришни уларнинг мол-мулкига қаратиш ҳақидаги аризалари асосида иқтисодий судларда ишлар кўриб чиқилади.

Солиқ идораларига бундай аризалар билан мурожаат қилиш ҳуқуқи берилган бўлса-да, ўз ихтиёри билан ушбу қарзларни ундириш бўйича (масалан, қарзни тўлаш муддатини кечиктириш, бўлиб-бўлиб тўлаш ва ҳ.к.) солиқ тўловчилар билан келишув битимини тузиш ваколати берилмаган.

Тарафлар суд муҳокамаси давомида келишув битими тузиш истагини билдирган ҳолда, суд тарафларга ушбу суд мажлисида келишув битими тузишни таклиф этиши ёки тарафлар келишув битими шартларини ишлаб чиқишлари учун уларга имконият берган ҳолда, ишни кўришни бошқа муддатга қолдиришга ҳақлидир. Келишув битимини тасдиқлаш тўғрисидаги масала суд мажлисида кўриб чиқилади. Ишда иштирок этувчи шахслар суд мажлисининг вақти ва жойи тўғрисида қонунга мувофиқ хабардор қилинади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоиз, мазкур ҳуқуқий механизмларнинг яратилиши тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини келишувга асосланган ҳолда тинч йўл билан ривожлантириш, улар ўртасидаги манфаатлар тўқнашувида юзага келадиган масалаларининг самарали ечимига тўғри ва тезда эришиш, шунингдек мазкур механизмлар нафақат тадбиркорлик субъектлари, балки хорижий инвесторларнинг ҳам ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини тинч йўл билан ҳимоя қилиш учун замин яратади.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94(575.1):316

OROLBO‘YI KO‘CHMANCHI QABILALARI HARBIY SAN’ATINING TARIXSHUNOSLIK TADQIQOTLARIDAGI TAHLILI

Botirova Nafosat Xurmatbek qizi, UrDU “Tarix” kafedrasi v.b. dotsenti, (PhD)

ANALYSIS OF THE MILITARY ART OF THE NOMADIC TRIBES OF THE ARAL SEA REGION IN HISTORIOGRAPHICAL STUDIES

Botirova Nafosat Khurmatbek qizi, Acting Associate Professor of the Department of History, Urgench State University (PhD)

АНАЛИЗ ВОЕННОГО ИСКУССТВА КОЧЕВЫХ ПЛЕМЁН ПРИАРАЛЬЯ В ИСТОРИОГРА-ФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Ботирова Нафосат Хурматбек кызы, и.о.доцента кафедры “История” Ургенчского государственного университета, (PhD)



https://orcid.org/0000-0003-4939-7814
e-mail: nafosatbotirova90@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola mavzusi borasida tadqiqotlarni o‘rganilish jihatidan uch bosqichga ajratamiz. Birinchi bosiqichida XIX–XX asrda asosan rus harbiylari va yevropalik tadqiqotchilar asarlari, ikkinchi bosqichda XX asr boshlaridan – XXI asr boshlarigacha sobiq sovet davri tarixchi va arxeologlarining hamda yevropalik olimlar tadqiqotlari, uchinchi bosqichda esa, XX asrning 90 yillaridan – XXI asr boshlarida O‘zbekistonlik tarixchi va arxeologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mavjud.*

Kalit so‘zlar*: rus harbiylari, ko‘chmanchi qabilalar, antropologiya, lingvistika, tarixiy geografiya, Erjen Xara-Devan.*

Abstract: *Regarding the scope of existing research, the subject of this article is divided into three stages. The first stage primarily includes the works of Russian military figures and European researchers of the 19th and 20th centuries. The second stage covers the studies of historians and archaeologists from the Soviet era, as well as European scholars, from the beginning of the 20th century to the beginning of the 21st century. The third stage comprises research conducted by historians and archaeologists of Uzbekistan from the 1990s to the beginning of the 21st century.*

Keywords: *Russian military, nomadic tribes, anthropology, linguistics, historical geography, Erjen Xara-Devan.*

Аннотация: *С точки зрения изученности темы данного исследования, мы разделяем её на три этапа. К первому этапу относятся труды преимущественно российских военных и европейских исследователей XIX–XX веков. Второй этап охватывает исследования историков и археологов советского периода, а также европейских ученых с начала XX века до начала XXI века. Третий этап включает исследования, проведенные узбекистанскими историками и археологами с 90-х годов XX века до начала XXI века.*

Ключевые слова: *российские военные, кочевые племена, антропология, лингвистика, историческая география, Эржен Хара-Деван.*

Kirish. Dolzarbligi. Miloddan avvalgi VI - milodiy XIII asrlar davomida Orolbo‘yi hududida yashagan ko‘chmanchi qabilalar haqida turli tildagi yozma manbalarda ma’lumotlar yetarlicha uchrasa-da, bu qabilalarning dastlab etnik tarixi, hamda harbiy san’at sohasining rivojida erishgan yutuqlari va bu sohaning nafaqat shu mintaqada, balki jahon tarixidagi taraqqiyotini ochib berish haligacha to‘liq o‘rganilmaganligini alohida ta’kidlashimiz lozim.

Bu mavzu borasida tadqiqotlarni biz o‘rganilishi jihatidan uch davrga taqsimlaymiz. Birinchi XIX–XX asrda asosan rus harbiylari va yevropalik tadqiqotchilar asarlari kirsa, ikkinchi davri XX asr boshlaridan – XXI asr boshlarigacha sobiq sovet davri tarixchi va arxeologlarining tadqiqotlari hamda yevropalik olimlar tadqiqotlari, uchinchi XX asrning 90 yillaridan – XXI asr boshlarida O‘zbekistonlik tarixchi va arxeologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yetarlicha. Bu tadqiqotlarda ham Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’atining tarixshunoslik tadqiqotlardagi tahlili masalasini to‘la-to‘kis ochib berish uchun yana o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’atining tarixshunoslik tadqiqotlardagi tahlilini yozma manbalar asosidagi ma’lumotlarni arxeologiya, etnologiya, antropologiya, lingvistika va tarixiy geografiya fanlaridagi ma’lumotlar asosida umumlashtirish va bir-biri bilan qiyosiy tahlil qilish asosida o‘rganish maqsadga muvofiq. Chunki, bizning mavzuyimizga tegishli mavjud manbalar hamda adabiyotlar tarixshunoslik jihatidan olganda tizimlashtirilmagan va ular tanqidiy jihatdan to‘liq tahlil qilinmagan.

Qadimgi va o‘rta asrlar harbiy san’ati tarixshunoslik qismini maxsus o‘rganish Xorazm vohasi, So‘g‘d, Baqtriya, Dovon, Choch, Iloq, Ustrushona, Marg‘iyona hududlari bilan birga uzoq vaqt qo‘shni bo‘lib yashab kelgan ko‘chmanchi – chorvador aholi bo‘yicha o‘rganilgan tadqiqotlarda ham tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etgani holda, turli tarixiy davrlarda tarixiy-madaniy markazlarning iqtisodiy-madaniy jihatdan yaqin aloqada bo‘lganligini isbotlaydi.

XIX asrdan boshlab Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’atining tarixshunoslik tadqiqotlardagi tahlili bir qancha tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Jahon mamlakatlari tarixchi, arxeolog va etnolog olimlarining ayrim monografiya hamda maqolalarida tadqiqotning predmeti sifatida yoritilgan bo‘lib, jumladan, o‘z davrining buyuk sarkardalari Chingizxon va Amir Temur davri harbiy san’ati tarixiga bag‘ishlangan rus harbiy zobiti M.I.Ivaninning tadqiqotida ham ko‘chmanchi qabilalar, shu jumladan, Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’atining tarixshunoslik tadqiqotlardagi masalasi yoritib berilgan[1., 240- б].

Tadqiqot natijalari. Otliq qo‘shinlar tarixiga bag‘ishlangan rus zobitlari A.S.Grinev va M.I.Markovlarning asarlari diqqatga sazovor bo‘lib, ularning ahamiyatli tomoni shundaki, bu tadqiqotlar harbiylar nuqtayi nazaridan va harbiy tajribalar asosida yoritilgan[2.,32 c.,390 c.,552 c].

Yana bir rus zobiti A.K.Puzirevskiyning o‘rta asrlar Yevropa davlatlari va xalqlari harbiy san’atiga bag‘ishlangan asarida Yevropa xalqlari harbiy san’ati taraqqiyotiga ko‘chmanchi qabilalarning, ayniqsa, saklar va turkiy qabilalarning ta’siri masalasiga ham to‘xtalib o‘tilgan[3.,C.235-252].

G‘arbiy Yevropa sharqshunoslari V.Tomashek, I.Markvart ham ilk yozma manbalarga tayangan holda qadimgi xorazmliklar va saklarning qurol-yarog‘lari haqida yozishgan[4., 258 p].

Mashhur rus-sovet tadqiqotchisi V.V.Bartold ham Orolbo‘yi ko‘chmanchilar dunyosi harbiy san’atini qisman yorituvchi maqolalar yozib, o‘zining bu borada ma’lum hissasini qo‘shgan[5.,192 c].

XX asr boshlarida ham ko‘chmanchi qabilalar harbiy san’ati masalasiga bag‘ishlangan bir necha maqola va tadqiqotlar chop etildi. Bular ichida aynan yuqorida ta’kidlangan M.I.Ivanin asari ta’sirida yozilgan Erjen Xara-Devanning 1929-yilda chop etilgan hamda Chingizxon harbiy san’atiga bag‘ishlangan monografiyasi diqqatga sazovor. Bu tadqiqotchi ham rus harbiy tarixchisi kabi, o‘z kuzatuvi asosida ko‘chmanchi qabilalarning harbiy san’ati taraqqiyot bosqichlari, harbiy tashkilot tuzilishi, qo‘shin tarkibi va ko‘chmanchilarning harbiy strategiyasi hamda qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan urushlarda qo‘llagan jang usullari tafsilotlari borasida muayyan xulosalar chiqargan[6., 196 c].

Qozog‘iston xalqlarining qadim davrlardan to XX asr boshlarigacha bo‘lgan tarixiga bag‘ishlangan umumiy tadqiqotlarda ham Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’atiga oid ma’lumotlar mavjud bo‘lib, saklar va o‘rta asrlar turkiy qabilalari harbiy qurollanishi va qo‘shni davlatlar bilan janglarda qo‘llagan harbiy taktikalari tahlil qilingan[7.,259 c;672 c].

Xulosa. Qadimgi va o‘rta asrlar Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari manzilgohlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va shu tadqiqotlar jarayonida topilgan ashyolarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish, ularni yozma manbalar ma’lumotlari bilan umumlashtirgan holda o‘rganish asosidagina kutilgan natijalarga ega bo‘lish mumkin. Darhaqiqat, yozma manbalar qurol-aslahalarning ashyosi, uning shakli to‘g‘risida ma’lumot bersa, moddiy ashyolar tarixiy davr va uning turli bosqichlarida shakllanish jarayonini yoritishda qo‘l keladi. Bir qancha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qurol-aslahalarning xilma-xilligi ajdodlarimiz harbiy mazmunga ega bo‘lgan qurollarni ishlab chiqarishda jamiyat taraqqiyoti darajasiga mos bilimga ega bo‘lganliklarini izohlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иванин М. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур (Тарж. А.Махкамов). – Тошкент: Фан, 1994. – 240 б.
2. Гринев С.А. Была ли конница у древних руссов? – М.: Киев. Типография И.Крыжановского и В. Авдюченко. Соф., – № 2, 1895. – 32 с.; Марков М.И. История конницы. В 5 частях. – Тверь: Типо-Литография Ф.С. Муравьёва. 1886-1896. – 552 с.(ch.1-2); – 554 с.(ch.3); – 390 с. (ch.4, отд.1); – 682 с.(ch.4, отд.2-3); – 624 с.(ch.5).
3. Пузыревский А. К. История военного искусства в средние века (V-XVI стол. В 2-х томах). – СПб.: Тип. штаба войск гвардии и Петербургского военного округа, 1884. – С. 235-252.
4. Томасснек W. Chopacмия // Pauly’s Real – Yencyclopedie der Klassischen Altertums – wissenschaft. – Stuttgart, 1894. Bd. 3. – S. – 2406; Markwart I. Untersuhungen zur Geschichte von Yeran. – Gottingen, 1896. – 258 p.
5. Бартольд В.В. Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – Алматы: Жалын, 1993. – 192 с.
6. Хара-Даван Э. Chингиз-хан как полководец и его наследие. – Элиста: Калмыцкое книжное издательство, 1991. – 196 с.
7. Асфендиаров С.Д. История Казахстана (с древнейших времён). – Алма-Ата; – М.: Казах. краев. издательство, 1935. Т. 1. – 259 с.; История Казахской ССР с древнейших времен до наших дней. Под редакцией М.Абдыкалыкова и А.Панкратовой. [Алма-Ата]: Казогиз, 1943. – 672 с.; 1 л. портр., 2 л. карт и схем.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81.23

TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTLARINING ILLOKUTIV XUSUSIYATLARI

Muratova Nafisa Baxtiyarovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti



https://orcid.org/0009-0007-7358-2952
e-mail: oneidnafisa@gmail.com

ILLOCUTIVE CHARACTERISTICS OF SPEECH ACTS OF WISHES AND CONGRATULATIONS

Muratova Nafisa Bakhtiyarovna, Tashkent state named after Alisher Navoi Doctoral student of Uzbek Language and Literature University

ИЛЛОКУТИВНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РЕЧЕВЫХ АКТОВ ПОЖЕЛАНИЙ И ПОЗДРАВЛЕНИЙ

Муратова Нафиса Бахтияровна, докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tilak va tabrik nutqiy aktlarining pragmatik hamda illokutiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Nutqiy aktlar nazariyasi asosida tilak va tabriklarning kommunikativ vazifasi, ularning illokutiv kuchi, amalga oshish shartlari va ijtimoiy-madaniy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda ushbu nutqiy aktlarning ekspressiv tabiatga ega ekanligi, ularning ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash hamda ijobiy emotsional munosabatni ifodalashdagi roli asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Nutqiy akt, illokutiv akt, tilak, tabrik, pragmatika, ekspressiv nutqiy akt, kommunikativ vazifa, assertivlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar, deklarativlar.*

Abstract: *This article analyzes the pragmatic and illocutionary features of speech acts of wishes and greetings. Based on the theory of speech acts, the communicative function of wishes and greetings, their illocutionary force, conditions of implementation and socio-cultural significance are highlighted. In the research, the fact that these speech acts have an expressive nature, their role in strengthening social relations and expressing a positive emotional attitude is substantiated.*

Key words: *speech act, illocutionary act, wish, greeting, pragmatics, expressive speech act, communicative task, assertives, directives, commissives, expressives, declaratives.*

Аннотация: *В данной статье анализируются прагматические и иллокутивные особенности речевых актов пожелания и приветствия. На основе теории речевых актов выделены коммуникативная функция пожеланий и приветствий, их иллокутивная сила, условия реализации и социокультурная значимость. В исследовании обосновывается тот факт, что данные речевые акты имеют экспрессивную природу, их роль в укреплении социальных отношений и выражении положительного эмоционального отношения.*

Ключевые слова: *речевой акт, иллокутивный акт, пожелание, приветствие, прагматика, экспрессивный речевой акт, коммуникативная задача, ассертивы, директивы, комиссивы, экспрессивы, декларативы.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Til insonlar o‘rtasidagi muloqotning eng muhim vositasi bo‘lib, u orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki turli ijtimoiy harakatlar ham amalga oshiriladi. Til yordamida bajariladigan bunday harakatlar nutqiy aktlar deb

ataladi. Nutqiy aktlar nazariyasi ingliz faylasufi J.L.Austin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u nutq jarayonini lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarga ajratgan. [Дорошенко, 1989:77, Ҳакимов, 2013:32, Сафаров, 2008:75].

Illokutiv akt nutq orqali bajariladigan asosiy kommunikativ harakatni ifodalaydi. Ya’ni so‘zlovchi ma’lum gapni aytish orqali qanday maqsadni amalga oshirayotganini bildiradi[en.wikipedia.org]. Illokutsiya shaxslararo munosabatlarning ifodalanishidir [Сафаров, 2008: 75]. Tilak va tabrik nutqiy aktlari muloqot jarayonida keng qo‘llaniladigan ekspressiv nutqiy birliklar bo‘lib, ular so‘zlovchining ijobiy hissiy munosabatini ifodalaydi hamda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА ИМЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Nutqiy aktlar nazariyasiga ko‘ra, har bir nutqiy birlik ma’lum illokutiv kuchga ega bo‘ladi. J.Searle nutqiy aktlarni besh turga ajratadi: Assertivlar – ma’lumotni tasdiqlash yoki bayon qilish; Direktivlar – tinglovchini muayyan harakatga undash; Komissivlar – kelajakdagi harakatga majburiyat olish; Ekspressivlar – so‘zlovchining hissiy munosabatini ifodalash; Deklarativlar – ijtimoiy holatni o‘zgartiruvchi nutqiy aktlar [en.wikipedia.org., Сафаров, 2008:84]. Tilak va tabrik nutqiy aktlari aynan ekspressiv nutqiy aktlar qatoriga kiradi. Chunki ular so‘zlovchining quvonch, hurmat yoki ezgu niyat kabi psixologik holatini ifodalaydi. Tilak nutqiy akti so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan ijobiy kelajak istagini ifodalovchi nutqiy harakatdir. U odatda bayramlar, muhim voqealar yoki kundalik muloqotda qo‘llanadi.

Tilak nutqiy aktining asosiy illokutiv xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1.Ekspressivlik. Tilak so‘zlovchining ijobiy emotsional munosabatini ifodalaydi. Masalan: “Sizga mustahkam sog‘liq tilayman”. 2. Kelajakka yo‘nalganlik. Tilaklar ko‘pincha kelajakdagi ijobiy natijani nazarda tutadi. 3.Ijtimoiy-madaniy xususiyat. Tilaklar ko‘pincha madaniy an’analar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ba’zi madaniyatlarda tilaklar an’anaviy formulalar orqali ifodalanadi. 4.Politeness (odobiylik) strategiyasi. Ko‘pincha tilak nutqiy aktlari muloqotda hurmat va ijobiy munosabatni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tabrik nutqiy akti illokutiv xususiyatlari so‘zlovchining suhbatdoshga tegishli ijobiy voqea yoki yutuq munosabati bilan quvonchini ifodalashidir. Pragmatik tadqiqotlarda tabrik quyidagi shartlar asosida amalga oshishi ta’kidlanadi: 1.Propozitsional shart. Tabrik tinglovchiga tegishli ijobiy voqea bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. 2.Tayyorlov sharti. So‘zlovchi ushbu voqea tinglovchi uchun muhim ekanligini biladi. 3.Samimiylik sharti kabilar. So‘zlovchi voqea yuzasidan chin dildan quvonishini bildiradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tabrik nutqiy aktining asosiy illokutiv funksiyalari quyidagilardir: ijobiy hissiy munosabatni ifodalash; ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash; suhbatdoshning muvaffaqiyatini e’tirof etish; kommunikativ yaqinlikni oshirish. Tadqiqotchilar pragmatik nuqtayi nazardan tabrik nutqiy aktlari ijobiy odob strategiyalariga kiradi va suhbatdoshga hurmat va e’tibor bildirish vositasi ekanligini ta’kidlaydi.

Quyida tilak va tabrik nutqiy aktlarining o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Tilak va tabrik nutqiy aktlarining o‘xshash va farqli jihatlari

Mezoni	Tilak nutqiy akti	Tabrik nutqiy akti
Illokutiv turi	Ekspressiv nutqiy akt	Ekspressiv nutqiy akt
Vaqt yo‘nalishi	Kelajak	Hozirgi yoki o‘tgan voqea
Kommunikativ maqsad	Ezgu niyat bildirish	Muvaffaqiyatni e’tirof etish
Ijtimoiy vazifa	Yaxshi munosabat yaratish	Quvonchni ulashish

Tilak va tabrik nutqiy aktlari ijtimoiy muloqotda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular insonlar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni mustahkamlaydi hamda muloqot jarayonini samimiy qiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tilak va tabrik nutqiy aktlarining illokutiv xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ushbu nutqiy birliklarning kommunikativ vazifasi, pragmatik xususiyatlari hamda ijtimoiy-madaniy ahamiyati aniqlab olindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tilak va tabrik nutqiy aktlari nutq jarayonida so‘zlovchining hissiy munosabatini ifodalash bilan birga, suhbatdoshga ijobiy ta’sir ko‘rsatish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

Birinchidan, tahlil natijalariga ko‘ra, tilak va tabrik nutqiy aktlari ekspressiv nutqiy aktlar guruhiga kiradi. Ularning asosiy illokutiv kuchi so‘zlovchining ijobiy munosabati, quvonchi yoki ezgu niyatini ifodalashdan iborat. Tilak nutqiy aktlarida kelajakda yuz berishi kutilayotgan ijobiy voqealar yoki natijalar tilanadi. Tabrik nutqiy aktlarida esa allaqachon sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘layotgan ijobiy voqea munosabati bilan quvonch bildiriladi.

Ikkinchidan, tahlil jarayonida tilak nutqiy aktlarining illokutiv xususiyati ko‘proq kelajak yo‘nalganligi bilan ajralib turishi aniqlandi. Masalan, “Sizga mustahkam sog‘liq tilayman”, “Kelgusi ishlaringizda muvaffaqiyat tilayman” kabi ifodalarda so‘zlovchi tinglovchiga nisbatan ezgu niyat bildiradi. Bu nutqiy aktlar suhbatdoshga ruhiy dalda berish va motivatsiya uyg‘otish vazifasini ham bajaradi. Uchinchidan, tabrik nutqiy aktlarining illokutiv xususiyati mavjud voqeani e’tirof etish va suhbatdoshning yutug‘ini qadrlash orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, “Tug‘ilgan kuningiz bilan tabriklayman”, “Yangi lavozimingiz bilan muborakbod etaman” kabi nutqiy birliklar so‘zlovchining ijobiy hissiyotlarini ifodalash bilan birga, ijtimoiy yaqinlikni kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tilak va tabrik nutqiy aktlari odob va hurmatni ifodalovchi kommunikativ vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ular muloqot jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, samimiylik muhitini yaratadi hamda suhbatdoshga nisbatan ijobiy munosabatni bildiradi.

Beshinchidan, tilak va tabrik nutqiy aktlarining illokutiv kuchi ko‘pincha an’anaviy til formulalari orqali ifodalanishi aniqlangan. Masalan: “chin qalbimdan tabriklayman”, “eng ezgu tilaklarimni bildiraman”, “barchasi siz kutgandek bo‘lishini tilayman” kabi ifodalar nutqiy madaniyatda keng qo‘llanadi. Shunday qilib, tahlil natijalari tilak va tabrik nutqiy aktlari kommunikativ jarayonda muhim pragmatik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ular so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida ijobiy emotsional muhit yaratadi, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi hamda nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilak va tabrik nutqiy aktlari pragmatik jihatdan ekspressiv nutqiy birliklar hisoblanadi. Ularning asosiy illokutiv vazifasi so‘zlovchining ijobiy hissiy munosabatini ifodalash va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashdan iborat. Tilak nutqiy akti ko‘proq kelajakdagi ezgu niyatni bildirsa, tabrik nutqiy akti mavjud yoki yuz bergan ijobiy voqeani e’tirof etadi. Shu sababli tilak va tabrik nutqiy aktlari nafaqat lingvistik, balki pragmatik hamda sotsiokulturologik jihatdan ham muhim kommunikativ birliklar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Muratova N.B. Tilak va tabrik nutqiy aktlarining verbal assotsiatsiyalashuvini o‘qitishning metodik asoslari. Til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnali, 16-son, oktabr, 2025.
2. Muratova N.B Tilak va tabrik nutqiy aktlarining mohiyati va o‘zbek muloqot madaniyatidagi o‘rni. TIQXMMI ,Xorijiy tildan kasbiy ustuvorlik maqsadida foydalanish tendensiyalari mavzusida o’tkazilgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami –T.: TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti, 19.05.2025.
3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Тошкент, 2008. 285 б.
4. Муҳаммад Ҳакимов. Ўзбек прагмалингвистика асослари, Тошкент: Академнашр, 2013. 155- b.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.– Б.23.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 101.1.172.177

GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQLARARO TINCHLIKNI SAQLASHDA ISLOMDAGI BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINING O‘RNI

Sapayev G‘ulomjon Baxtiyarovich, Ma’mun universiteti “Umumkasbiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.f.d., (PhD)

THE ROLE OF THE IDEAS OF TOLERANCE IN ISLAM IN MAINTAINING INTERETHNIC PEACE UNDER THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Sapayev Gulomjon Bakhtiyarovich, Associate Professor of the Department of General Professional Sciences, Ma’mun University, Doctor of Philosophy (PhD)

РОЛЬ ИДЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ИСЛАМЕ В ОБЕСПЕЧЕНИИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО МИРА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Сапаев Гуломжон Бахтиярович, доцент кафедры “Общепрофессиональные дисциплины” Университета Мамун, доктор философии, (PhD)



https://orcid.org/0009-0007-1054-8730
e-mail: gulom-bs@rambler.ru

Annotatsiya: *Maqolada XIX asr globallashuv sharoitida xalqlararo tinchlikni ta’minlashda islom dinidagi insonparvarlik g‘oyalari, ularning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xususan, “Qur’on” va undan keyin turuvchi manbalari bo‘lgan hadis va fiqh ilmidagi xalqlararo va dinlararo munosabatlar, murosasozlik va hamjihatlik, do‘stlik va sulhparvarlik haqidagi g‘oyalar, ularning ma’naviy-axloqiy asoslarini yoritilgan.*

Калит сўзлар: *globallashuv, islom, millat, din, “Qur’on”, hadis, fiqh, “Hidoya”, do‘stlik, bag‘rikenglik, totuvlik, g‘oya, ekstremizm.*

Annotation: *The article provides a scholarly analysis of the role of humanitarian ideas in Islam in ensuring interethnic peace under the conditions of nineteenth-century globalization, as well as their significance in promoting interethnic harmony and religious tolerance. In particular, the study examines the concepts presented in the Qur’an, as well as in the subsequent sources of Islamic teaching — Hadith and Islamic jurisprudence (fiqh) — concerning interethnic and interreligious relations, principles of reconciliation and solidarity, friendship and peaceful coexistence, and reveals their spiritual and moral foundations.*

Key words: *globalization, Islam, nation, religion, “Qur’an”, hadith, fiqh, “Al-Hidaya”, friendship, tolerance, harmony, idea, extremism.*

Аннотация: *В статье с научной точки зрения анализируется роль гуманистических идей ислама в обеспечении межнационального мира в условиях глобализации XIX века, а также их значение в укреплении межэтнического согласия и религиозной толерантности. В частности, рассматриваются идеи, содержащиеся **в** Коране**,** а также в последующих источниках исламского учения — хадисах и исламской юриспруденции (фикхе)**,** касающиеся межнациональных и межрелигиозных отношений, принципов компромисса и солидарности, дружбы и миролюбия, а также раскрываются их духовно-нравственные основы.*

Ключевые слова: *глобализация, ислам, нация, религия, “Коран”, хадис, фикх, “Аль-Хидая”, дружба, толерантность, согласие, идея, экстремизм.*

Кириш. XXI asrda globallashuv jarayonlari jahon miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirmoqda. Bir tomondan, bu jarayonlar xalqlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, turli sivilizatsion va madaniy qarama-qarshiliklar ham yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonida muhim rol o‘ynaydigan ommaviy axborot vositalari va yangi texnologiyalar rivoji, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar milliy-madaniy qadriyatlarni salbiy tomonga o‘zgartirmoqda. Zero, Prezidentimiz aytganidek, “Globallashuv jarayonida axborot maydonidagi yangilanishlar ta’siri kuchayib, ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati ham tobora ortib bormoqda” [1,383.-b].

Bunday sharoitda dinlar, xususan, islom dinining insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalari jamiyatda o‘zaro hurmat, hamjihatlik va tinchlikni mustahkamlashda muhim ma’naviy omil bo‘lib xizmat qiladi. Islom dini o‘z mohiyatiga ko‘ra adolat, rahm-shafqat, inson qadrini ulug‘lash, jamiyatda tinchlikni, diniy va millatlararo totuvlikni saqlashga chaqiruvchi ta’limot hisoblanadi.

Islom dinining muhim manbalari bo‘lgan “Qur’on”, hadislar va ular asosida ishlab chiqilgan ijmo, qiyos kabi huquqiy manbalar o‘rta asrlardan to bugungi kunga qadar musulmonlar dunyosining ijtimoiy-axloqiy, ma’naviy hayotining muhim qonun-qoidalar majmui bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ayniqsa, dinlararo bag‘rikenglik, hurfikrlilik, o‘zaro do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik masalalarida muhim rol o‘ynadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni o‘rganish va maqolani tayyorlashda islom dini manbalari bo‘lgan Qur’oni Karim, hadis va B.Marg‘inoniyning “Hidoya” kabi asarlaridan manba sifatida foydalanib, unda tarixiy-tahliliy, mantiqiylik, dialektik, qiyosiy va umuminsoniylik usullardan foydalanildi.

Muhokama. Musulmon xalqlari ijtimoiy, huquqiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy hayot tarzining asosiy manbai hisoblangan “Qur’on”da insonlarning turli millatlarga va dinlarga mansubligi jihatidan bir-birlaridan farq qilishlari tabiiy ekanligi, lekin bu narsa ular o‘rtasidagi adovat, nizo va urushlar uchun sabab bo‘la olmasligini, zero Olloh barcha insonlarni aziz-mukarram qilib yaratganligi, millatlar, xalqlar va dinlar o‘rtasidagi tafovut ularning hamkorlik va hamjihatlikda yashashlariga xalaqat bermasligi, aksincha, ular o‘zaro yordam, adolatparvar va do‘st bo‘lib yashashga chaqiriladi[2.517-b].

Islom tarixida turli din va millat vakillari birgalikda yashagan va madaniy hamkorlik qilgan davrlar ko‘p bo‘lgan. Masalan, Bag‘doddagi “Baytul hikma” ilmiy markazida turli millat va din vakillari birgalikda faoliyat yuritgan bo‘lib, Markazda musulmon, nasroniy va yahudiy olimlar birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib borishgan bo‘lib, islom sivilizatsiyasi tarixida bag‘rikenglik va madaniy muloqot an’analari muhim o‘rin tutgan.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari insoniyat oldiga yangi ijtimoiy va ma’naviy muammolar, xususan, dindan siyosiy yoki mafkuraviy maqsadlarda noto‘g‘ri foydalanish holatlari ham kuzatilmoqda. Lekin aslida islom dini ko‘proq insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan dindir. Zero, Qur’oni Karimda: “Kim bir insonni nohaq o‘ldirsa, u go‘yo butun insoniyatni o‘ldirgandek bo‘ladi” [2.114-b] deb ta’kidlangan. Bu oyat islom inson hayotining muqaddasligini va zo‘ravonlikni qat’iy qoralashini ko‘rsatadi.

“Qur’on”da oila, nikoh, turmush va maishiy hayot masalalarida kishilarni bag‘rikeng, millati, irqi va dinidan qat’iy nazar hurmat qilish, iliq munosabatda bo‘lishga chaqiriladi. Masalan, musulmon kishining ahli kitob ayoliga uylanishga ruxsat etilgan. “…Ahli kitoblarning taomi sizlar uchun halol va taomingiz ular uchun haloldir. …mahrilarini bersangiz, mo‘mina ayollarning iffatlilari va sizlardan oldin Kitob berilganlarning iffatli ayollari (ham haloldir)” [2, 624-b].

Zamonaviy sharoitda islomdagi insonparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, yosh avlodni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash va

dinlararo muloqotni rivojlantirish jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Islomning Qur’ondan keyingi manbasi bo‘lgan hadislarda ham bag‘rikenglik tamoyillari targ‘ib qilinib, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro urush, nifoq, ziddiyatlar, boshqa dindagilarga nisbatan nohaq munosabatda bo‘lish, qonini to‘kish, zulm o‘tkazish qoralanadi hamda rahm-shafqat qilish joizligi ta’kidlanadi. Xususan, bu haqida “Jome’ as-Sahih”da shunday rivoyat qilinadi: “Ubaydulloh ibn Mas’ud rivoyat qiladilar: “Banu Zahra ittifoqchisi bo‘lmish hamda Janob Rasulullоh bilan birga Badr g‘azotida qatnashgan Miqdod ibn Amr al-Kindiy “Yo Rasulloh, agar bir kofirga duch kelib qolsam-u o‘zaro jang boshlasak va ul qilichi birlan qo‘limni chopib tashlagach, bir daraxtning ortiga qochib o‘tib: “Olloh taologa taslim bo‘ldim!” – desa, shul gapidan keyin uni o‘ldirg‘aymenmi?”- dedi. Janob Rasulullоh: “Yo‘q, uni o‘ldirmag‘il!”- dedilar” [3, 315-b].

Demak, urush holatida ham g‘ayridin yoki kofirga xuddi musulmonga qilingandek mehr-shafqatda bo‘lish lozim. Lekin afsuski, bugungi kunda islom dini niqobi ostida yurgan ba’zi diniy tashkilotlar kishilar orasiga, musulmon va musulmon bo‘lmagan fuqarolar ichida turli g‘ayriaxloqiy, milliy va diniy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi g‘oyalar tarqatmoqdalar. Natijada, boshqa din vakillari tomonidan islom dini ekstremizm, aqidaparastlikka asoslangan va g‘ayriinsoniy g‘oyalarni ilgari suruvchi din deb qarashlariga hamda islomofobiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Hadislarning eng muhim insoparvarlik tamoyillaridan biri uning diniy bag‘rikenglikka asoslanganligidir. Imom Buxoriyning “Jome’ as-Sahih” to‘plamida dinlararo hurmat-ehtirom, boshqa dinlarni, xususan yakka xudolikni targ‘ib qiluvchi dinlarni kamsitish joiz emasligi, hatto islom dushmanlari bo‘lgan kishilarga mehr-muruvvatli bo‘lish haqidagi g‘oyalar targ‘ib qilingan. Chunonchi, bu haqda quyidagi rivoyat keltiriladi: “Abu Said rivoyat qiladilar: “Nabiy sallalohu alayhi va sallam: “Meni boshqa payg‘ambarlardan afzal ko‘rib, ularning ummat-larini kamsitmangizlar!”-deb aytganlar”[3.330-b].

Natijalar. Umuman, hadislarda boshqa din ahllari bilan do‘st-inoq va o‘zaro kelishib ish qilish lozimligi, ularga bag‘rikeng bo‘lish lozimligi to‘g‘risida ko‘plab nasihat va rivoyatlar keltiriladi. Bu esa islomning qanchalik insonparvarlik tamoyillariga asoslanganligining dalilidir.

Hadislarda ham oila va maishiy hayotga oid masalalarda kishilarni bag‘rikeng bo‘lishga chaqirilib, hatto musulmonlarning ahli kitob (xristian va yahudiy) ayollariga uylanishiga ruxsat etiladi. Unda er va xotin, farzandlar va ularning tarbiyasi, e’tiqodi boshqa xalqlar bilan qarindosh tutinishga, qo‘ni-qo‘shnichilik aloqalari, o‘zaro hamkor va hamjihat bo‘lishga da’vat qilingan. Masalan, g‘ayridin ayollarga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lish haqida shunday deyiladi: “Boshqa din ahllarining har biri qo‘li ipga bormagan ayolga (chevarlikni bilmaydigan–G‘.S.) uylansa ham bir-birlaridan bezor bo‘lib ajrashib ketmaydilar” [4.44-b].

Hadis ilmida kishilar o‘rtasidagi o‘zaro mehr-muhabbat, tinchlik va do‘stlik masalalari ulug‘lanib, birovning ustidan kulish, masxaralash kabi g‘ayriinsoniy odatlar qoralanadi. Bunday illatlar inson va dinlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi iliq munosabatlarga rahna soluvchi vositalar deb qoralanib, buning oldini olish har bir mo‘minning vazifasi deb hisoblanadi. Xususan, “Jome’ as-Sahih”da shunday rivoyat keltiriladi: “(Shoir) Hasson Rasulullоh(SAV)dan mushriklarni hajv qilmoqqa ruxsat so‘radi. Shunda ul zot: “Mening nasabim qanday? (ya’ni, “Quraysh mushriklari mening qarindoshlarim bo‘la turib), hajv qilasan?” – dedilar” [5.468-b].

Bag‘rikenglik masalalari islom huquqshunosligida(fiqh) ham belgilangan bo‘lib, boshqa din vakillariga bo‘lgan munosabat, ma’naviy-axloqiy masalalarida diniy va milliy bag‘rikenglikka oid shariat hukmlari ishlab chiqilgan.

Islom dinida huquqiy munosabatlarida Burhonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda musulmonlarning maishiy turmushidagi axloq-odob qoidalari, o‘zaro munosabatlarni, boshqa xalq va dinlar, millatlar o‘rtasidagi aloqalarni tartibga

solib turuvchi qonun-qoidalarni o‘zida jamlagan. Bu manbada ham bag‘rikenglik, hamkorlik, hamjihatlik, do‘stlik, o‘zaro sulh va kelishuv masalalari huquqiy jihatdan tahlil qilinadi, tartibga solinadi. Chunonchi, “Hidoya”da “zakot”ni olishga islom diniga e’tiqod qiluvchilar haqli deb hukm chiqarilgan bo‘lsa-da, boshqa dinga e’tiqod qiluvchilar ichida ham moddiy yordamga muhtoj kishilarga xayr-ehson, sadaqaning hamma turlari berilishi mumkinligi buyuriladi: “Rasulullоh (SAV) Muozga(r.a.) “Musulmonlarning boylaridan zakotni olgin va uni ularning(musulmonlarning) faqirlariga bergin”, - degan edilar. Zimmiyga zakotdan boshqa sadaqalardan (ya’ni fitr sadaqasi, ushr va kafforat) beriladi. Bizning dalilimiz Rasulullohning (SAV) “Barcha dinlarning ahllariga sadaqa beraveringlar”, - degan hadislaridir” [6.406-b].

Musulmonlarning g‘ayridinlar o‘rtasidagi savdo masalasida ham bag‘rikenglik nuqtayi tazardan hukmlar chiqarilgan, ya’ni soliq borasidagi zimmiylardan ham, g‘ayridinlardan ham bir xil miqdorda ushr solig‘i olingan bo‘lib, bunday ishda barcha din vakillari teng ko‘rilgan. Bu shariat hukmlari faqat iqtisodiy-huquqiy jihatdan emas, balki ma’naviy nuqtayi nazardan ahamiyatga ega bo‘lib, ularda insoniy qadriyatlarning ustuvor bo‘lganligini anglatadi.

“Hidoya”ga sharhlar berilgan “Muxtasarul viqoya” asarida ham maishiy turmush, nikoh, farzandlar e’tiqodi masalalari ham bag‘rikenglik nuqtayi nazaridan hal etilgan. Unda aytilishicha, g‘ayridin ayollar va erkak nikohdan o‘tishi mumkinligi, farzandlari esa ahli kitob diniga e’tiqod qilish va shunga asosan tarbiyalanishi buyurilgan: “Kitobiy kofirlarning, ya’ni yahudiy va nasroniy kabi bir kitobga va bir payg‘ambarga ishonuvchi kofirlarning qizlarini nikohlab olish durust, garchi bu kitobiy kofir kanizak bo‘lsa-da” [7.99-b]. Bundan ko‘rinib turibdiki, islom dinida turli din vakillari(ahli kitob)ning o‘zaro nikohlanishi bag‘rikenglik tamoyiliga asoslangan va huquqiy jihatdan himoyalangan.

Xulosalar. Umuman, islom huquqshu-nosligidagi barcha manbalarda xalqlarni o‘zaro tinch-totuv yashashga, xalqlar, millatlar va dinlar o‘rtasidagi yuzaga kelgan ixtiloflarni adolatli hal qilish, ijtimoiy-siyosiy, maishiy turmushda bag‘rikeng bo‘lishga chaqirgan va qat’iy hukmlar bilan belgilab qo‘yilgan.

Shu sababli hozirgi globallashuv sharoitida vujudga kelgan diniy fundamentalizm, ekstremizm, terrorizm va diniy murosasizlik asosidagi g‘oyalar diniy e’tiqod nuqtayi nazaridan ham, huquqiy jihatdan ham asossiz ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Islom dinining muhim manbalari bo‘lmish “Qur’on”, hadis va huquqiy manbalarda keltirilgan insonparvarlik, xalqparvarlik, hamjihatlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan g‘oyalar hozirgi davrda islom niqobidagi diniy ekstremistik guruh va oqimlar, islomning tinchlikparvarlik, sulhparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini soxtalashtirishga, intilib o‘z g‘arazli maqsadlariga xizmat qilishiga harakat qilayotgan kimsalarga qarshi kurashda e’tiqod jihatdan ma’naviy ahamiyatga egadir. Shu sababdan ham yuqorida bayon qilingan g‘oyalardan diniy fundamentalizm va terrorizmga qarshi kurashda ma’naviy va g‘oyaviy jihatdan katta samara beruvchi bir qurol sifatida foydalanmog‘imiz zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021. 464 b.
2. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. (Tarjima va tafsir muallifi Alouddin Mansur). – Toshkent. Sharq, 2004. 736 b.
3. Ismoil al-Buxoriy. Hadis. Al-Jomi’ as-sahih (Ishonarli to‘plam). – Toshkent. IV jild. 1992.
4. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент, Фан. 1990 й. Б.44.
5. Ismoil al-Buxoriy. Hadis. Al-Jomi’ as-sahih (Ishonarli to‘plam). – Toshkent. II jild. 1992.
6. Burhoniddin Marg‘inoniy. Hidoya. I jild. Zakot kitobi. – Toshkent. 2002. 848 b.
7. A’zam O‘ktam. Muxtasar. (Shariat qonunlariga qisqacha sharh). – Toshkent.: Cho‘lpon, 1994. 335 b.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1:364.614.8

MA'RIFATLI JAMIYAT — IJTIMOIY ADOLATNING MA'NAVIY POYDEVORI SIFATIDA

[1]Hamroyev Saidjon Sanoyevich, BuxDPI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, (PhD)
[2]Nurxonov Ibratjon Jahon o'g'li, BuxDPI 2-bosqich talabasi



https//orcid.org/. 0009-0009-4402-2272
e-mail: hamroyevsaidjon@buxdpi.uz

AN ENLIGHTENED SOCIETY AS THE SPIRITUAL FOUNDATION OF SOCIAL JUSTICE

Hamroyev [1]Saidjon Sanoyevich, Associate Professor of the Department of Social Sciences, Bukhara State Pedagogical Institute, (PhD)
[2]Nurxonov Ibratjon Jahon o'g'li, 2nd-year student of Bukhara State Pedagogical Institute



e-mail: ibratnurhonov@gmail.com

ПРОСВЕЩЁННОЕ ОБЩЕСТВО КАК ДУХОВНАЯ ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ

[1]Хамроев Саиджон Саноевич, доцент кафедры «Социальные науки» Бухарского государственного педагогического института, (PhD)
[2]Нурхонов Ибратжон Жахон оглы, студент 2 курса Бухарского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ma'rifatli jamiyat tushunchasi ijtimoiy adolatning ma'naviy poydevori sifatida jadidlar asarlarida ilgari surilgan ma'rifat, axloq, milliy uyg'onish va adolat g'oyalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda jadidlar nazarida jamiyatni jaholat, qoloqlik va ijtimoiy tengsizlikdan qutqaruvchi asosiy omil sifatida talqin etilgani asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Ma'rifatli jamiyat, ijtimoiy adolat, milliy uyg'onish, axloqiy tarbiya, huquqiy ong, ma'naviyat, adolat.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the concept of an enlightened society as the spiritual foundation of social justice, as reflected in the works of the Jadids, highlighting their ideas of enlightenment, morality, national awakening, and justice. The study substantiates that, according to the Jadids, enlightenment was interpreted as the main factor capable of saving society from ignorance, backwardness, and social inequality.*

Keywords: *Enlightened society, social justice, national awakening, moral education, legal consciousness, spirituality, justice.*

Аннотация: *В данной статье научно освещается понятие просвещённого общества как духовной основы социальной справедливости, а также идеи просвещения, нравственности, национального пробуждения и справедливости, выдвинутые в трудах джадидов. В исследовании обосновывается, что в представлении джадидов просвещение рассматривалось как основной фактор, способный освободить общество от невежества, отсталости и социального неравенства.*

Ключевые слова: *просвещённое общество, социальная справедливость, национальное пробуждение, нравственное воспитание, правовое сознание, духовность, справедливость.*

Kirish. Bugungi globallashuv va keskin yangilanishi masalasi dolzarb ahamiyat kasb raqobat sharoitida jamiyatning ma'naviy etmoqda. Yangi ma'naviy makon yaratish nafaqat

iqtisodiy yoki siyosiy islohotlar, balki chuqur axloqiy tamoyillarga tayanishni ham talab etadi. Ayniqsa, adolat va haqiqat tushunchalari jamiyat hayotining barcha sohalarida ustuvor mezonga aylanishi zarur. Chunki aynan shu qadriyatlar inson qadr-qimmatini himoya qiladi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va barqaror taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratadi. Tajribada, adolatsizlik va haqiqatning buzilishi jamiyatni inqirozga olib keladi. Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadidlarning merosi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bebaho boylikni targ‘ib etish xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning bugungi tinch va erkin hayot qadrini anglashida muhim ahamiyati ta’kidlangan. Darhaqiqat, xalqimizni mamlakat yo‘lida birlashtirish, qalblarni uyg‘otish, dunyo xaritasida har tomonlama rivoj topgan “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishni va ma’rifatli jamiyat qurishni ko‘zlagan.

Adabiyotlar tahlili va qo‘llanilgan metodlar. Ushbu maqolada ma’rifat va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi aloqani nazariy jihatdan asoslash uchun turli davr va maktablarga oid manbalar chuqur tahli qilindi. Tadqiqotning markaziy manbalari sifatida jadidchilik oqimining yetakchi namoyandalari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov hamda Abdurauf Fitratning asarlari o‘rganildi. Avloniyning “Turkiy Guliston Yoxud Axloq” kitobida tarbiya va ilm-tafakkur jamiyatning muhim masalasi darajasiga ko‘tarilsa, Munavvarqorining “Nashri maorif uyushmasining ahamiyati” risolasida xalq boshlag‘an ma’rifiy tashabbus va uning ijtimoiy javobgarligi mufassal yoritilgan. Behbudiyning publitsistik merosi ijtimoiy nomutanosoblik va jaholatning o‘zaro bog‘liq tabiatini ochishda, Fitratning dramatik asarlari esa ma’rifat g‘oyasining milliy ong uyg‘onishi bilan uzviy birligini namoyish etishda muhim manba vazifasini o‘tadi. Zamonaviy adabiyotlar qatoriga To‘xtasinov Sh.S.ning jadidchilik ta’limotiga bag‘ishlangan ishi va Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asari ham jalb qilindi — ular ma’rifatli jamoa va adolatning falsafiy hamda ijtimoiy poydevorlarini qo‘shimcha ravishda ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqotda belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq bir-birini tamomlovchi ilmiy usullar majmuasi qo‘llandi. Tahliliy usul yordamida ma’rifat va ijtimoiy adolat tushunchalari asosiy manbalardagi qarashlar negizida puxta o‘rganildi; qiyosiy usul orqali jadidlar davridagi ma’rifiy harakat bilan hozirgi O‘zbekistondagi ta’lim va ijtimoiy siyosat solishtirildi, shuningdek, Farobiy falsafasi bilan jadidlar o‘rtasidagi g‘oyaviy yaqinlik aniqlandi. Tarixiy usul XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit va jadidlarning ma’rifiy faoliyatini ketma-ket tarixiy jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Sotsiologik usul bilim va axloq tarbiyasining jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga amaliy ta’sirini o‘rganishda, falsafiy usul esa adolat va ma’rifatni nafaqat tarixiy voqea, balki inson va jamiyat mavjudligining ma’naviy poydevori sifatida baholashda qo‘llanildi. Ushbu usullar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asosliligi va ko‘p jihatliligini ta’minladi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, jadid mutafakkirlari talqinidagi ma’rifatli jamiyat g‘oyasi ijtimoiy adolatni ta’minlashning ma’naviy-axloqiy asosini tashkil etadi. Ular ma’rifatni faqat savodxonlik yoki dunyoviy bilim bilan cheklamagan, balki uni insonning axloqiy kamoloti, huquqiy ongi va ijtimoiy mas’uliyati bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilganlar. Xususan, Abdulla Avloniy o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida jamiyat taraqqiyotini inson tarbiyasi bilan bog‘laydi. U “tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat masalasidir” deya ta’kidlar ekan, ma’rifatni jamiyatning hayot-mamot masalasi darajasiga ko‘taradi[1]. Asarda axloqiy fazilatlar — adolat, insof, diyonat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik — ma’rifatli jamiyatning ustunlari sifatida talqin qilinadi. Avloniyning qarashlarida adolat tushunchasi axloq bilan chambarchas bog‘langan. Uning fikricha, axloqan tuban, jaholatga berilgan shaxslar ko‘p bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy tenglik va adolat qaror topmaydi. Demak, ma’rifatli jamiyat avvalo axloqiy poklikka asoslanishi lozim. Bu esa ijtimoiy adolatning ma’naviy ildizi aynan tarbiya va ta’limda ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy ilm-fanni taraqqiyot va ozodlikning asosiy omili sifatida baholaydi. U jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va zulmning sababini jaholatda deb biladi. Behbudiyning fikricha, inson o‘z haq-huquqlarini bilmas ekan, adolat uchun kurasha olmaydi. Bu esa ma’rifatni ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi va adolatni qaror toptiruvchi kuch sifatida namoyon etadi. Abdurauf Fitrat va Munavvarqori Abdurashidxonov esa ma’rifatni

milliy uyg‘onish, erkin fikrlash va zamonaviy dunyoqarash bilan bog‘laydi.

Ayniqsa, Avloniy ta’kidlagan axloqiy komillik masalasi ma’rifatli jamiyatni faqat ilmiy emas, balki ma’naviy kategoriya sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu jihat jadidlar qarashlarining chuqur falsafiy mohiyatini ochib beradi. Ma’rifat — adolatni tug‘diradi, adolat esa taraqqiyotga olib boradi. “Madaniy mamlakatlarning har birida maorif-madaniyat ishlarini odatda xalq o‘zi olib boradur. Hukumat esa yolg‘iz rahbarlik va yordamchilik vazifalarinigina ado etib turadir. Shul sabablik ongli millatlar o‘zaro ilmiy, fanniy, adabiy va ijtimoiy uyushmalar va «Nashri maorif» jamiyatlari tuzub, hukumatlarining rahbarlik va millatlarining yordami orqasida xalqni maorif va madaniyat jihatlardan yuqori ko‘tarilishiga, oqartirilishiga xizmat va harakat qilurlar. Dunyoning eng madaniy mamlakatlariga nazar solsak, unda maorif va madaniyat ishlarini hukumat ustallaridan ko‘ra ko‘proq jamoat ustallarida, maorif nazoratidan ko‘proq «Nashri maorif» uyushmalarida ishlanganligini ko‘ramiz. Hukumat arboblarining ham ko‘prog‘i maxsus soatlarda hukumat kabinetlarida rasmiy vazifalarini ado etganlaridan so‘ngra qolg‘on bo‘sh vaqtlarida jamoat kabinetlarida o‘ltirib, xalqning taraqqiy va taoliysi, maorif va madaniyatining yo‘lida vijdoniy vazifalarini ado etadurlar”[2]. Munavvarqori Abdurashidxonovga tegishli bo‘lgan ushbu fikrlardan ham bilishimiz mumkinki, faqatgina ma’naviyatli, bilimli, ongli jamiyatgina ijtimoiy adolatni ta’minlay oladi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Biz ko‘p yillar davomida ma’rifat va madaniyatga noto‘g‘ri munosabatda bo‘ldik. Unga sarflanadigan mablag‘lar doim boshqa sohalardan kam bo‘ldi. Natijada biz bu masalada orqada qolib ketdik. Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma’rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim. Va nihoyat, shu sohalarda va shifokorlar, madaniy-oqartuv muassasalaridagi va boshqa sohalardagi ko‘plab mutaxassislar-chinakam ziyolilardir”[3].

Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asari ham ma’rifatli jamiyat qurish va ijtimoiy adolatni o‘rnatish g‘oyalari bilan yo‘grilgan. Jumladan, ushbu asarida muallif jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligini ma’rifatga asoslangan axloqiy qadriyatlar bilan bog‘laydi. Asarda ideal jamiyatning shakllanishida insonlarning bilimga chanqoq, adolatli va fozil bo‘lishi muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif fikricha, faqatgina moddiy boylik yoki siyosiy qudrat jamiyatni barqaror qilmaydi; jamiyatni haqiqiy ravnaq va adolat sari yetaklaydigan asos – bu ma’rifatli, bilimli va axloqli insonlardir. Asarda tasvirlangan “fozil odamlar shahri” – bu aholisi ilm o‘rganuvchi, axloq va odobga amal qiluvchi kishilardan tashkil topgan jamiyatdir. Ular o‘z bilimini va axloqiy qadriyatlarini jamiyatning rivojlanishiga yo‘naltiradilar. Shunday jamiyatda ijtimoiy adolat tabiiy ravishda shakllanadi. Har bir insonning huquqi himoyalangan, imkoniyatlar teng va qarorlar adolatli asosda qabul qilinadi. Ma’rifat jamiyatning axloqiy poydevori, adolat esa uning amaliy natijasi hisoblanadi. Shuningdek, asarda jamiyat a’zolarining shaxsiy ma’rifati va o‘zini tarbiyalash jarayoni ijtimoiy adolatni mustahkamlash bilan bog‘lanadi. Fozil odamlar bilim va axloqni o‘zida mujassamlashtirib, boshqalarga ham namuna bo‘ladilar. Shu tariqa, jamiyatdagi tenglik, huquqiy barqarorlik va axloqiy me’yorlar ta’minlanadi, natijada adolatli jamiyat shakllanadi[4].

Ma’rifatli jamiyatda ijtimoiy adolat tabiiy ravishda shakllanadi. Adolat faqat qonun va tartibga tayanib amalga oshmaydi, u insonlarning axloqi, bilim darajasi va madaniyati bilan mustahkamlanadi. Bunday jamiyatda har bir insonning huquqi hurmat qilinadi, imkoniyatlar teng taqsimlanadi, qarorlar esa faqat kuch yoki boylik asosida emas, balki bilim, tafakkur va axloqiy tamoyillar asosida qabul qilinadi. Shu sababli, ma’rifatli jamiyat va ijtimoiy adolat bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Ma’rifat jamiyatning ruhiy va axloqiy poydevori, adolat esa uning amaliy natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, ma’rifatli jamiyatning yana bir muhim jihati – madaniyat va ma’naviyatning rivojlanishidir. Madaniyat, tarixiy tajriba, san’at va ilm-fan bilan bog‘liq qadriyatlar jamiyat a’zolarining tafakkurini kengaytiradi, ularni insoniy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatga o‘rgatadi. Ma’rifatli insonlar jamiyatdagi harakatlarini axloqiy tamoyillar asosida yo‘naltiradi, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga intiladi va shunday muhitni yaratadi, bu esa o‘z navbatida adolatli qarorlar qabul qilinishini ta’minlaydi. Shu tariqa, ma’rifatli jamiyatda nafaqat shaxsiy bilim va axloq, balki

ijtimoiy qadriyatlar ham rivojlanadi va ijtimoiy adolatning mustahkam poydevori shakllanadi. Ma’rifatli jamiyatni shakllantirish jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi ijtimoiy jarayonlarni talab qiladi. Har bir inson o‘z bilimini kengaytirib, tafakkurini rivojlantirsa, o‘z axloqiy mas’uliyatini anglasa, jamiyatdagi ijtimoiy adolat kuchayadi.

Bu borada ayniqsa, Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ijtimoiy adolatni mustahkamlash maqsadida xalq bilan bevosita muloqot qilish tizimi rivojlantirilmoqda, shu jumladan, virtual va xalq qabulxonalari orqali aholining muammolari tahlil qilinib, ularni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu mexanizm jamiyatda adolat poydevorini mustahkamlash va har bir fuqaroning ehtiyojiga javob beradigan davlat siyosatini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida kambag‘allik darajasi sezilarli darajada kamaydi, kambag‘al oilalar uchun ijtimoiy himoya tizimi joriy etildi, hamda mahalla institutining roli ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni mustahkamlashda markaziy element sifatida kengaytirildi. Sh.Mirziyoyev ijtimoiy adolatning global miqyosda mustahkamlanishi bo‘yicha ham bir qator takliflar ilgari surildi. Xususan, u dunyo miqyosidagi ijtimoiy tengsizlik va kambag‘allikka qarshi kurashishni maqsad qilgan Global Ijtimoiy Adolat Fondini yaratishni taklif qildi, bundan tashqari, “Ijtimoiy mas’uliyat va munosib mehnat” bo‘yicha global tashabbuslar yo‘lga qo‘yilishini ilgari surdi[5]. Bu tashabbuslar faqat O‘zbekistonda emas, balki xalqaro hamjamiyatda ham ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. “Jaholat va ma’rifat” g‘oyasi ham aynan shunga xizmat qilmoqda. Jaholatga qarshi ma’rifat g‘oyasi insoniyat tarixida jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Jaholat, ya’ni bilim va tafakkur yetishmasligi, noto‘g‘ri qadriyatlar, stereotiplar va nohaqlik inson hayotida ko‘plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, jaholatga qarshi kurashish, odamlarni bilim va tafakkurga, axloqiy me’yorlar asosida yashashga yo‘naltirish – jamiyatni rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Ma’rifatli jamiyat esa, aholisi bilimli, tafakkurli va axloqiy mas’uliyatni anglaydigan kishilardan tashkil topgan jamiyatdir. Bunday jamiyatda har bir shaxs o‘zini tarbiyalash, o‘z bilimini oshirish va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga intiladi. Shu tarzda, ma’rifat jamiyatning axloqiy va ma’naviy poydevori bo‘lib, uning asosida ijtimoiy adolat shakllanadi.

Xulosa. Mazkur maqolada ma’rifatli jamiyat tushunchasi ijtimoiy adolatning ma’naviy poydevori sifatida tahlil qilindi. Ma’rifat – jamiyatning axloqiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Jadid olimlar, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida ma’rifat va axloqni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari sifatida ilgari surganlar. Ularning fikr va tashabbuslari milliy ongni oshirish, adolat va bilimga asoslangan jamiyat qurishga katta hissa qo‘shgan. Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan ta’lim, ma’naviyat va ijtimoiy himoya sohasidagi izchil islohotlar mana shu tarixiy merosning zamonaviy davlat boshqaruvidagi mantiqiy davomi bo‘lib, ular ma’rifatli va adolatli jamiyatni bunyod etish yo‘lidagi amaliy harakatlar sifatida qadrlanishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston Yoxud Axloq. — Toshkent, Yoshlar nashriyoti. 2018.
2. Munavvarqori Abdurashidxonov. Nashri maorif uyushmasining ahamiyati. //*Туркистон газетаси, 1923 йил, 4 март.*
3. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159.
5. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. —Toshkent: O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019.
6. To‘xtasinov Shukurjon Shavkatjon o‘g‘li. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jadidchilik harakatining o‘rni va ahamiyati (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2025-yil. Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 811.523.133'373:821

XORAZM VILOYATIDAGI O‘ZBEK SHEVALARIDA FARZAND KO‘RISH BILAN BOG‘LIQ IJOBIY ISTAK MAZMUNINI IFODALOVCHI LISONIY BIRLIKLAR

Jumaboyeva Aziza Baxtiyor qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti



https://orcid.org/0009-0005-7276-5779
e-mail: aziza.baxtiyorovna@icloud.com

LINGUISTIC UNITS EXPRESSING THE MEANING OF POSITIVE WISHES RELATED TO CHILDBEARING IN THE UZBEK DIALECTS OF KHOREZM REGION

Jumaboyeva Aziza Baxtiyor qizi, PhD student at Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ПОЖЕЛАНИЯ В СВЯЗИ С РОЖДЕНИЕМ РЕБЕНКА В УЗБЕКСКИХ ГОВОРАХ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Джумабоева Азиза Бахтиёр кызы, докторант Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Xorazm viloyatidagi o‘zbek shevalarida homiladorlik, farzand tug‘ilishi va beshik to‘yi marosimlarida qo‘llaniladigan ijobiy istak mazmunini ifodalovchi lisoniy birliklarni etnolingvistik va sotsiolingvistik aspektlarda tadqiq etishdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Natijada hudud shevalariga xos bo‘lgan, farzand ko‘rish va serfarzandlikni tilash motivlariga asoslangan metaforik va metonimik xususiyatga ega lisoniy qoliplar aniqlandi va tizimlashtirildi. Xulosa o‘rnida ta’kidlanadiki, Xorazm shevalaridagi chaqaloqqa va ona-bolaga qaratilgan ijobiy istak birliklari vohaning madaniyati, milliy dunyoqarashi va o‘ziga xos fonetik qonuniyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim etnolingvistik kodlar hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm shevalari, ijobiy istak, farzand ko‘rish, beshik to‘yi, etnolingvistika, sotsiolingvistika, olqish, metafora, lingvomadaniyat.*

Abstract: *The main objective of this article is to conduct an ethnolinguistic and sociolinguistic study of linguistic units expressing positive wishes used in the rituals of pregnancy, childbirth, and "beshik to'yi" (cradle ceremony) in the Uzbek dialects of the Khorezm region. The study employs descriptive, comparative-historical, and linguo-cultural analysis methods. As a result, linguistic models of a metaphorical and metonymic nature specific to the region's dialects, based on the motives of childbearing and having many children, were identified and systematized. In conclusion, it is emphasized that the positive wish units addressed to the baby and mother in Khorezm dialects are an important ethnolinguistic code that embodies the culture, national worldview, and specific phonetic laws of the oasis.*

Key words: *Khorezm dialects, positive wish, childbearing, beshik to‘yi, ethnolinguistics, sociolinguistics, blessing, metaphor, linguoculture.*

Аннотация: *Основной целью данной статьи является этнолингвистическое и социолингвистическое исследование языковых единиц, выражающих значение положительных пожеланий, используемых в обрядах беременности, родов и «бешик туйи» (колыбельной свадьбы) в*

узбекских говорах Хорезмской области. В исследовании использованы описательный, сравнительно-исторический и лингвокультурный методы анализа. В результате выявлены и систематизированы специфические для говоров региона языковые модели метафорического и метонимического характера, основанные на мотивах деторождения и многодетности. В заключение отмечается, что единицы положительного пожелания, адресованные младенцу и матери в хорезмских говорах, являются важным этнолингвистическим кодом, воплощающим в себе культуру, национальное мировоззрение и специфические фонетические законы оазиса.

Ключевые слова: *хорезмские говоры, положительное пожелание, рождение ребенка, бешик туйи, этнолингвистика, социолингвистика, благословение, метафора, лингвокультура.*

KIRISH. O‘zbek xalqining ijtimoiy hayoti, qadriyatlari va milliy madaniyatida urf-odat va marosimlar, xususan, bu jarayonlarda qo‘llaniladigan nutqiy etiketlar va ijobiy istaklar alohida o‘rin tutadi. Xalqimizda “Yaxshi niyat – yarim davlat” degan hikmatli ibora mavjud bo‘lib, insonlar o‘rtasida bir-biriga ezgu tilaklar bildirish turmushning barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi[7, 76-b]. Inson hayotidagi eng muhim voqealardan biri bo‘lgan farzandning dunyoga kelishi va beshik to‘yi kabi oilaviy marosimlar o‘ziga xos lingvomadaniy birliklar orqali voqelanadi.

Tilshunoslikda xohish-istak kategoriyasi va nutqiy etiketlarni sotsiolingvistik va etnolingvistik jihatdan o‘rganish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir[8,85-b]. Xususan, O‘zbekistonning o‘ziga xos lingvogeografik xususiyatlarga ega bo‘lgan hududlaridan biri bo‘lgan Xorazm viloyati o‘zbek shevalari lug‘at tarkibida qadimiy va boy etnolingvistik qatlam saqlanib qolgan[6,12-b]. Shunga qaramay, ushbu hududdagi o‘zbek shevalarida homiladorlik, farzand ko‘rish va chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarda qo‘llaniladigan ijobiy istak bildiruvchi lisoniy birliklarning semantik, fonetik va lingvomadaniy tabiati maxsus, chuqur tadqiq etilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi hududdan yozib olingan dialektologik dala yozuvlari asosida farzand ko‘rish marosimlari bilan bog‘liq xalq olqishlari, tilaklari va duolarini leksik-semantik, sotsiolingvistik va etnolingvistik yondashuv asosida tahlil qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O‘zbek tilshunosligida shevalar leksikasi, urf-odat va marosimlar etnografiyasi hamda ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar turli yillarda olimlar tomonidan qator yo‘nalishlarda tadqiq qilingan. Xorazm viloyati shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari F.Abdullayev, A.Ishayev, E.O‘rozov kabi olimlar tomonidan fundamental tarzda o‘rganilgan. Xususan, F.Abdullayevning “Xorazm shevalari” asarida vohaning o‘g‘uz va qipchoq lahjalari har tomonlama tasniflangan bo‘lsa, yaqin yillarda Sh.M.Alimova o‘zining monografiyasida Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlarini maxsus tadqiq etdi[1, 132-b]. Bevosita vohaning etnografik leksikasi, jumladan, oilaviy-maishiy marosimlar leksikasi olim Y.Bobojonovning “Janubiy Xorazm etnografik leksikasi” (1997) nomli ilmiy ishida chuqur tahlil qilingan [3,187-b]. Olim chaqaloq tug‘ilishi, uning chilla davri, beshik to‘yi, sunnat to‘yi va nikoh to‘yi bilan bog‘liq leksikani semantik jihatdan guruhlarga ajratib o‘rgangan. S.A.Meliboyeva o‘zining ilmiy maqolalarida to‘y va farzand ko‘rish bilan bog‘liq ijobiy istak mazmunli birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilib, bunday olqishlarda xalqimizning serfarzandlik, bolajonlik kabi milliy qadriyatlari o‘z ifodasini topishini ta’kidlaydi. Shuningdek, olima farzandga nisbatan aytiladigan istaklarda metaforik va sinekdoxa usulida ma’no ko‘chishlari faol ekanini dalillar bilan ko‘rsatib bergan.

O‘zbek tilshunosligida Xorazm shevalari leksikasi, turli hududlar marosimlar etnografiyasi hamda ijobiy istak ifodalovchi birliklar turli tadqiqotchilar tomonidan alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, Xorazm viloyati shevalari muhitida farzand dunyoga kelishi va beshik to‘yi marosimlarida qat’iy qo‘llaniladigan ijobiy istak birliklarining leksik-semantik, etnolingvistik va sotsiolingvistik tabiati maxsus tadqiq etilmagan. Bu holat mazkur maqola mavzusining dolzarbligini va uning shevashunoslik hamda zamonaviy tilshunoslik fanlari chorrahasidagi amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqot jarayonida tilshunoslikning tavsifiy, kontekstual, komponent va lingvoareal tahlil metodlaridan foydalanildi. Muammo Xorazm

viloyatining Urganch, Xiva, Xonqa, Shovot, Bog‘ot kabi tumanlari aholisi nutqidan yozib olingan dialektal materiallar asosida tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Xorazm viloyati o‘zbek shevalarida farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq jarayonlar o‘ziga xos urf-odatlar bilan birga kechadi [3, 27-b]. Farzand tug‘ilganda xushxabar (suyunchi) aytib kelgan mehmonlarga tuxum qovurilib “go‘z oydin” (ko‘z oydin) marosimi qilinishi, chaqaloq tug‘ilgach beshinchi kunida uning umri uzoq bo‘lishini niyat qilib *unoshi* va *bo‘g‘irsoq* kabi taom va yeguliklar pishirilib tarqatilishi kabi odatlar mavjud. To‘plangan dialektologik materiallar asosida farzand ko‘rish bilan bog‘liq ijobiy istaklarni quyidagi semantik guruhga bo‘lish mumkin:

1. Homilador ayol va uning eson-omon qutulishiga qaratilgan istaklar. Homiladorlik davri va farzandni eson-omon dunyoga keltirish jarayoniga nisbatan xalq nutqida ko‘plab emotsional-ekspressiv tilaklar bildiriladi. Bu jarayonda, asosan, sog‘lomlik va oson tug‘ruq nazarda tutiladi. Xonqa tumani, Tomadurvadik qishlog‘i shevasida: *“Aman-say doyyajsan. Älïŋä aman-soy alyajsan”* (Omon-sog‘ tuqqaysan. Qo‘linga omon-sog‘ olgaysan) [4,1-b], Urganch tumani va shahar atrofida: *“Ilojim amasav qoliŋa algajsan dort mučäsi sav bolgaj olmäs etib bergaj”* (Ilohim, omon-sog‘ qo‘lingga olgaysan, to‘rt muchasi sog‘ bo‘lgay, o‘lmas etib bergay) [4,1-b]. Shuningdek, *“Amasay qutilyäjsan qizim”* [4,1-b]; Xiva va Shovot tumanlari shevalarida: *“Aman say qolïnā ālgājsān”* [4,1-b], hamda kelajakka ishonch va psixologik dalda ma’nosida *“Gulïp-ojnap bayrïňga basgïsan. Amasa juňglajgisän”* (Kulib-o‘ynab bag‘ringga bosgaysan. Omon-sog‘ yengillashgaysan) [4,1-b]. Keltirilgan misollarda ko‘rinadiki, *qutulmoq*, *qo‘liga olmoq*, *yengillashmoq* kabi fe’llar vositasida tug‘ruq jarayoni evfemistik va metonimik tarzda ifodalanmoqda. Fonetik jihatdan Xorazm shevalariga xos bo‘lgan *dog‘g‘ijsan* (tuqqaysan), *algajsan* (olgaysan), *basg‘ïsan* (bosgaysan) kabi fe’lning buyruq-istak maylidagi II shaxs birlik ko‘rsatkichlari faol ishlatilgan[1,83-b]. “To‘rt muchasi sog‘ bo‘lgay” iborasi esa chaqaloqning jismoniy nuqsonsiz, sog‘lom tug‘ilishiga qaratilgan qadimiy qarashlarni aks ettiradi.

2. Beshik to‘yida chaqaloqqa qaratilgan lisoniy birliklar. Beshik to‘yi bolaning dunyoga kelishi munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimlardan biri bo‘lib, u ijobiy istaklar bildirish tadbiriga aylanadi. Xorazmda bu jarayonda ham yomon ko‘zdan saqlash maqsadida qadimiy irimlarni (masalan, *isvənt,* ya’ni isiriq tutatish) va unga xos aytimlarni faol qo‘llaydilar. Chaqaloqqa avvalo, uzoq umr va mo‘l rizq tilanadi: *“Šŭ bala öqïmïšlï, aqllï-xušlï bala bölsïn. Apasï bïlän äkäsïnä mehrïban bala bölsïn”* (Shu bola o‘qimishli, aqlli-hushli bola bo‘lsin. Onasi bilan otasiga mehribon bola bo‘lsin) [4,1-b]; *“Umri, rizqi bilan bergan bo‘lsin”* yoki *“Omrimiž užaq rïžqïmïž žijad bolgaj”* [4,1-b]. Yosh go‘dakka uning iqboli, obro‘si va kelajakdagi martabasi tilanib: *“Šu färzändimiz elgä gäräkli, käsb-karli färzänd bosin, tojlärinä bariš näsib etsin”* (Shu farzandimiz elga kerakli, kasb-korli farzand bo‘lsin, to‘ylariga borish nasib etsin) deyiladi [4, 1-b].

Beshik to‘yida aytiladigan ijobiy istaklar mazmunan chaqaloqning kelajagini rejalashtiruvchi, unga baxt va saodat tilovchi bir nechta semantik guruhlarga bo‘linadi. Xalqimizda chaqaloqqa avvalo “umri va rizqi bilan bergan bo‘lishi” tilanadi. Bu lisoniy qolip barcha shevalarda turli fonetik o‘zgarishlar bilan uchraydi. Masalan, umumiy shaklda: “ *Ata-änälä färzändiz maräk bolsin. Umri, rizqi bilän bärgän bosin”* [4,1-b]. Yoki: “*Umrï bïlän bärjän boyaj. Rïzqï bïlän bärjän bolg‘aj. Umrï uzaq rïzqlï dolätlï bala bolyaj”*, “*Şi balamizi umri uzun rizqi butun bosin”* [4,1-b].

Go‘dakning kelajakda komil inson bo‘lib yetishishi, ota-onasi va el-yurtiga koriga yarashi ijobiy istaklarning markaziy o‘zagini tashkil etadi. Bu tilaklar quyidagi lisoniy birliklar orqali ifodalanadi: “*Aqlli, esli hušli apa-äkäsinä mir-aqobätli färzänd bolsin, oqimišli elimiza, jurtimizä fajdasi tijädon bola bolgäj”*; “*Ullï bälä (qiz) bösïn, äqïllï, dana färzänd bösïn”* [4,1-b]; shuningdek, jamiyatda obro‘-e’tiborli bo‘lishi uchun “*Märtäbäläriñ bäläntbösin”* kabi tilaklar qo‘llanadi [4,1-b]. Beshik to‘yidagi olqishlarda zanjirsimon tarzda bolaning keyingi hayotiy bosqichlariga (sunnat to‘yi, nikoh to‘yi) yetishish niyati ifodalanadi: “*Ilahim färzändimiz saŋ-sälamät kättä bosin, beshik tojlärinä galdik, sunnät tojlärinä, parz tojlärinä barishäm näsib atsin”* [4,1-b].

Shevalarda chaqaloqqa qaratilgan duolar o‘ziga xos leksik va morfologik qatlamni yuzaga chiqaradi. Chaqaloqqa nisbatan adabiy tildagi *go‘dak* yoki *chaqaloq* so‘zlari o‘rnida shevaga xos *bavak, bubak, bäväk* kabi leksik birliklar faol ishlatiladi [6,18-b]. Masalan, “*Bukkani barak bog‘oy, Gotargani bavak bog‘oy”*, “*Bolg‘an bäväkïmizni omrï risqï blän bäryan bolg‘i”* [4,1-b]. Ijobiy istaklarni shakllantiruvchi asosiy grammatik vosita fe’lning buyruq-istak maylidagi uchinchi shaxs qo‘shimchalaridir. Adabiy tildagi *-sin* affiksi shevalarda *-sin, -sïn, -sï, -yi* kabi variantlarda keladi: “*Aqllì-xušlì bilan bärgan bolg‘i”* [4,1-b]. Eng ko‘p qo‘llaniladigan yana bir affiks *-gaj/-g‘ay/-g‘i:* hisoblanadi: “*Dili yumšaq bäväk bolg‘aj”* , “*Baxtli bäväk bolĝaj”*, “*Taxtli bäväk bolg‘ì”* [4,1-b]. Shuningdek, ikkinchi shaxsga qaratilgan “*Öqimišli bālā bög‘ājsān”* kabi affikslar ham faol ishtirok etadi [1,132-b].

Chaqaloqni beshikka belash jarayonida bolani yovuz ruhlardan va turli ofatlardan saqlash maqsadida aytiladigan magik aytimlar mavjud. Chaqaloqni beshikka yotqizishda marosim o‘tkazuvchi momo “*O‘ng bo‘lsin, o‘ng bo‘lsin, egasi keldi, bapasi qochsin”* yoki “*Qoch-qoch babasi, galdi egasi”* deya sehrli so‘zlarni aytadi [3,28-b]. *Bapasi/babasi,* ya’ni yovuz ruhlar qochib, uning asl *egasi* kelishi tilanadi. Shuningdek, “*Isvant, isvant, tutasin isvant... Balag‘a ko‘z tegmasin”* kabi lisoniy birliklar vositasida isiriq tutatish marosimi lisoniy jihatdan voqelanadi.

O‘g‘il bola chaqaloqlarga qaratilgan tilaklarda xalq dostonlaridagi qahramonlarga yondashish, o‘xshatish san’ati uchraydi. Masalan, “ *Märtäbäsï ulug‘ bölïb elnï xizmätinä jaridon Alpamïšdïn bala bolsïn”* [4,1-b].

XULOSA. Xorazm viloyati o‘zbek shevalarida farzand ko‘rish va beshik to‘yi marosimlari bilan bog‘liq ijobiy istak birliklari dialekt leksikasining boy, serqirra va emotsional qatlamini tashkil etadi. Bu tilaklar xalqning etnik xotirasi, dunyoqarashi va turmush tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy kodlardir. Homilador ayolga va yangi tug‘ilgan chaqaloqqa qaratilgan istaklarda *qutulmoq, qo‘liga olmoq, bag‘riga bosmoq* kabi harakat-holat fe’llari, serfarzandlikni ifodalovchi *uzumday meva bergay, gujumday soya bergay, etaging to‘la bola bo‘lsin* singari birliklar xalqimizning bolajonlik mentalitetini o‘zida aks ettiruvchi til boyliklaridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimova Sh.M. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. Monografiya. – Urganch: Khwarezm publication, 2024. – 132 b.
2. Bazarova M. O‘zbek tilidagi ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari (duolar va nutqiy etiketlar misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2007.
3. Bobojonov Y. Janubiy Xorazm etnografik leksikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1997. – 187 b.
4. Dialektologik dala yozuvlari materiallari. Xorazm viloyati. (Yozib oluvchi: Jumaboyeva A.) – Xorazm, 2025. – 184 b.
5. Meliboyeva S.A. Ijobiy istak birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari // Academic research in educational sciences. – Toshkent, 2021. – Jild 2. – № 6.
6. Norbayeva Sh., Sadullayeva N., Atabayeva M. Xorazm shevalari lug‘ati. 1-jild. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2024. – 160 b.
7. Sulaymonova H.H. Tilak mazmunli birliklarning diniy va sotsiologik xoslanganligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Toshkent, 2022. – Vol. 2. – Issue 10. – B. 76-81.
8. Xoliqulova Sh. Istak mazmunidagi lisoniy birliklarning konseptual xususiyatlari // Conference on the role and importance of science in the modern world. – Samarqand, 2025. – Vol. 2. – Issue 9. – B. 85-88.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 167.9(465.1)

AYOLLAR MEHNAT BOZORI: BUGUNGI HOLAT VA ERTANGI ISTIQBOL

Jumanazarova Fotima Kuchkarbayevna, Fan va texnologiyalar universiteti t.f.b.f.d katta o‘qituvchisi, t.f.b.f.d. (PhD)

WOMEN’S LABOR MARKET: CURRENT SITUATION AND FUTURE PROSPECTS

Jumanazarova Fotima Kuchkarbayevna, senior Lecturer at the University of Science and Technology, Doctor of Philosophy (PhD) in History

ЖЕНЩИНЫ НА РЫНКЕ ТРУДА: СЕГОДНЯШНЕЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ НА БУДУЩЕЕ

Жуманазарова Фотима Кучкарбаевна (старший преподаватель Университета науки и технологий, доктор философии (PhD) по историческим наукам)



https://orcid.org/0009-0000-6229-328
e-mail: fotimakuchkarbayevna@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy faolligining oshishi masalalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida ayollar bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, kasb-hunarga o‘qitish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati va ijtimoiy mexanizmlar yoritib beriladi. Shuningdek, ayollar bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *xotin-qizlar bandligi, ayollar tadbirkorligi, qishloq aholisi, kichik biznes, ijtimoiy himoya, mehnat bozori, ayollar faolligi, oilaviy tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy mexanizmlar.*

Annotation: *This article analyzes the issues of the role of women in society and the increase in their socio-economic activity in the period following Uzbekistan’s independence. In particular, it sheds light on the state policy and social mechanisms implemented to ensure women’s employment in rural areas, involve them in entrepreneurial activities, provide vocational training, and offer financial support. Additionally, the measures aimed at increasing women’s employment and the importance of creating new jobs through the development of small businesses and family entrepreneurship are analyzed. According to the research results, increasing women’s economic activity is an important factor in the country’s sustainable socio-economic development.*

Key words: *women’s employment, female entrepreneurship, rural population, small business, social protection, labor market, women’s activity, family entrepreneurship, economic development, social mechanisms.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы роли женщин в обществе и повышения их социально-экономической активности в период после обретения Узбекистаном независимости. В частности, освещается государственная политика и социальные механизмы, направленные на обеспечение занятости женщин в сельских районах, привлечение их к предпринимательской деятельности, обучение профессиям и оказание финансовой поддержки.*

Также анализируется значение мер по повышению занятости женщин, создания новых рабочих мест через развитие малого бизнеса и семейного предпринимательства. Согласно результатам исследования, повышение экономической активности женщин является важным фактором стабильного социально-экономического развития страны.

Ключевые слова: *занятость женщин, женское предпринимательство, сельское население, малый бизнес, социальная защита, рынок труда, активность женщин, семейное предпринимательство, экономическое развитие, социальные механизмы.*

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ushbu jarayonda inson omiliga bo‘lgan e’tibor kuchayib, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Hukumat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, ularning professional savodxonligini rivojlantirish, sog‘lig‘ini muhofaza qilish hamda gender tenglikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi[1.73-80].

Mamlakatda aholi bandligini ta’minlash, ayniqsa qishloq hududlarida yashovchi aholining ish bilan ta’minlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda aholining taxminan 64–65 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Shu sababli ishsizlik darajasining sezilarli qismi aynan qishloq hududlariga to‘g‘ri keladi[2]. Qishloq aholisi asosan qishloq xo‘jaligi sohasida band bo‘lib, ushbu sohadagi mehnat faoliyati mavsumiy xususiyatga ega. Bu esa aholi daromadlarining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, qishloq hududlarida sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi[3].

Adabiyotlar tahlili. Xotin-qizlar bandligi va ularning iqtisodiy faolligini oshirish masalalari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida ko‘rib chiqilgan. Ilmiy adabiyotlarda ayollar bandligini oshirishda davlat siyosati, ijtimoiy himoya tizimi, kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muhim omillar sifatida e’tirof etiladi[4.45-52].

O‘zbekiston sharoitida ham xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish hamda mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, kasb-hunar o‘rgatish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ularning bandligini oshirish mumkinligi ta’kidlanadi[5.149-152].

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda qishloq hududlarida ayollar bandligining past darajasi ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligi sohasining mavsumiyligi, ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ayollarning oilaviy majburiyatlari bilan bog‘liq omillar bilan izohlanadi[6]. Shu sababli ayollar bandligini oshirishda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy choralar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati va ijtimoiy mexanizmlarni tahlil qilishda turli ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahliliy va qiyosiy usullar, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlari qo‘llanildi[7.21].

Tadqiqot jarayonida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari hamda turli tashkilotlar faoliyati o‘rganildi. Shuningdek, ayollar bandligini ta’minlash bo‘yicha o‘tkazilgan treninglar, seminarlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlarining natijalari tahlil qilindi[8].

Mazkur metodologik yondashuvlar yordamida xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligi baholanib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida qator amaliy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda mamlakatning turli hududlarida tadbirkorlik

faoliyatini keng targ‘ib qilish hamda ayollarni biznes faoliyatiga jalb qilishga qaratilgan tadbirlar tashkil etildi[9].

Jumladan, “Tadbirkor ayol” uyushmasi bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 1053 nafar ishsiz ayollar va uy bekalariga kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes va kasanachilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etildi. Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda bir qator viloyatlarda istiqomat qiluvchi 1646 nafar ayollarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirishga oid trening-seminarlar o‘tkazildi. Ushbu seminarlar davomida “Biznesni o‘rganish”, “Ishni qanday boshlash kerak”, “Biznes-reja tuzish”, “Kredit olish tartibi” va “Biznesni rivojlantirish” kabi mavzular yoritib berildi. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ham muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, kichik biznesni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari doirasida Mikrokreditbank tomonidan ko‘plab tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilgan. Ajratilgan kreditlarning sezilarli qismi aynan xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgani ayollar biznes faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda[10].

Bundan tashqari, fermer xo‘jaliklari uyushmasi qoshidagi “Tashabbuskor ayol” markazi bilan hamkorlikda ayollar fermerligini rivojlantirishga qaratilgan forumlar, seminarlar va ko‘rgazmalar tashkil etildi. Ushbu tadbirlar doirasida ayol fermerlarga qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilishda yordam ko‘rsatildi, fermer xo‘jaliklari uchun biznes-rejalar ishlab chiqildi hamda yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ko‘mak berildi[11.8-9-10].

Mazkur chora-tadbirlar natijasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishi ortib, ularning iqtisodiy faolligi sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa nafaqat ayollar bandligini ta’minlash, balki qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda[12].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Yuldashev O**.** Gender tengligi va ayollar bandligi masalalari // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – 2020. – №4. – B. 73–80.
2. Rasulov A., Xudoyberdiyev D. Aholi bandligi va mehnat bozori iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan, 2018.
3. World Bank. Women, Business and the Law**.** – Washington DC: World Bank, 2022.
4. Nurmatov S. O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish muammolari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №3. – B. 45–52.
5. Азларова А. Ўзбекистонда инновацион иқтисодиётни ривожлантиришда аёллар тадбиркорлигини тижорат банклари томонидан молиялаштириш масалалари // 149-152 бетлар.
6. International Labour Organization**.** Women’s Employment Trends**.** – Geneva: ILO, 2021.
7. Қ.Х.Абдурахмонов, Н.Т.Шоюсупова. Аҳолининг иш билан бандлиги. Ўқув қўлланма, -Т., 2011, Б. 21.
8. United Nations Development Programme. Gender Equality and Women’s Economic Empowerment – New York: UNDP, 2020.
9. Аёллар тадбиркорлиги: эътибор, кўмак ва натижа**.** https://mkbank.uz/oz/press_center/news/ayellar-tadbirkorligi-etibor-k-mak-va-natizha/
10. Аёллар тадбиркорлиги: эътибор, кўмак ва натижа**.** https://mkbank.uz/oz/press_center/news/ayellar-tadbirkorligi-etibor- k-mak-va-natizha/
11. Ўзбекистон Миллий Архиви. М-170, рўйхат №-1, йиғма жилд-42, 8-9-10 бетлар.
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2009 йилнинг якунлари ва 2010 йилда ижтимоий – иқтисодий ривожланишнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг “Асосий вазифамиз Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир” номли маърузасидан. – Тошкент, 2010.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 3237.001.09

ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARIDA G‘AYBIY TIMSOLLAR TALQINI

Hamrayeva Nafisa Yunus qizi, Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabasi

INTERPRETATION OF UNSEEN SYMBOLS IN ALISHER NAVOI’S WORK “KHAMSA”

Hamrayeva Nafisa Yunus qizi, Student of Karshi State University, 2nd year student

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НЕВИДИМЫХ СИМВОЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛИШЕРА НАВОИ “ХАМСА”

Хамраева Нафиса Юнус кызы, студент 2-курса Каршинского государственного университета



https://orcid.org/.0009-0009-0080-7326
e-mail: hamrayevanafisa@gmail.com

Annotatsiya: *Alisher Navoiy ijodida g‘aybiy obrazlar tasavvufiy tafakkur, ramziy ma’no va ma’naviy komillik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shoir asarlarida pari, dev, malak kabi g‘aybiy timsollar inson ruhiyatining ichki kurashlari, nafs va poklik o‘rtasidagi ziddiyatlarni ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, “Xamsa” dostonlarida uchraydigan g‘aybiy kuchlar voqealar rivojiga sehrli ohang berib, qahramonlarning ma’naviy o‘sishini ochib beradi. Navoiy bu obrazlar orqali tasavvufdagi ishq, ma’rifat va haqiqat sari intilish g‘oyalarini ramziy shaklda tasvirlaydi.*

Kalit so‘zlar: *farishta, suv, ko‘zgu, so‘z, nur, g‘ayb, gavhar, ishq, tasavvuf, sarv.*

Annotation: *In the work of Alisher Navoi, occult images are closely related to the ideas of mystical thought, symbolic meaning, and spiritual perfection. In the poet's works, occult images such as fairies, giants, and angels appear as a means of expressing the internal struggles of the human psyche, the contradictions between lust and purity. The occult forces that arise in the epic “Khamsa” give a magical tone to the development of events and reveal the spiritual growth of the heroes. Through these images, Navoi symbolically depicts the ideas of love, enlightenment, and striving for truth in mysticism.*

Keywords: *angel, water, mirror, word, light, unseen, gem, love, mysticism, cypress.*

Аннотация*: В творчестве Алишера Навои оккультные образы тесно связаны с идеями мистической мысли, символического значения и духовного совершенства. В произведениях поэта оккультные образы, такие как феи, великаны и ангелы, выступают как средство выражения внутренней борьбы человеческой психики, противоречий между похотью и чистотой. Оккультные силы, возникающие в эпической поэме “Хамса”, придают магический оттенок развитию событий и раскрывают духовный рост героев. Через эти образы Навои символически изображает идеи любви, просветления и стремления к истине в мистицизме.*

Ключевые слова: *ангел, вода, зеркало, слово, свет, невидимый, драгоценный камень, любовь, мистицизм, кипарис*.

Kirish. G‘ayb – inson sezgi a’zolari bilan his eta olmaydigan, bilish imkonlari bilan idrok eta olmaydigan hodisa. Inson o‘zining nechog‘li bilimdonligi bilan g‘ururlanmasin, uning bilganidan bilmagani ko‘p bo‘lib qolaveradi. O‘sha g‘ayb narsalarni bilishda insonning birdan-bir vositasi bor, u ham bo‘lsa, ilohiy vahiydir. Qolgan barchasi taxmin va gumonlardan boshqa hech narsa emas. Mo‘min-musulmonlar G‘aybga iymon keltirish bilan boshqalardan ajralib turadilar. Chunki, aqida bobi, asosan, G‘aybga, ya’ni, ko‘zi bilan ko‘rib, qo‘li bilan ushlamagan narsalarga ishonishdan iboratdir. Allohga imon keltirish ham g‘aybga imondir. Shuningdek, farishtalarga, ilohiy kitoblarda yaxshi hamda yomon qadarning Allohdan bo‘lishiga imon keltirish ham G‘aybga ishonishdir. Ushbular va bundan tashqari insonni har tarafdan o‘rab turgan, o‘tmishni, hozirni va kelajakni ilohiy

parda ortida tutib turgan son-sanoqsiz narsalar g‘aybiyotdir.

Inson g‘aybni bilish borasvda g‘oyat ojizdi. U birinchi inson – Odamatoning qaerda va qachon paydo bo‘lganini bilmaydi. Bilishi mumkin bo‘lgan narsa – Qur’oni karimdagi ma’lumotlar. Boshqa hammasi taxmin, gumon, faraz va hokazo. Inson hatto o‘z boshiga kelajakda qanday hodisalar kelishini bilmaydi. O‘ziga tegishli narsalarni bilmaganidan keyin, olamdagi boshqalarga aloqador narsalarni umuman bilmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Alloh taolo esa, ularning Hammasini Bilguvchidir. “G‘ayb ochqichlari Uning huzuridadir. Undan o‘zga ularni bilmaydi. U quruqlik va dengizdagi barcha narsani biladi. Bir yaproq (uzilib) tushsa ham biladi. Yer zulmatlari (qa’ri)dagi har bir urug‘, ho‘l-u quruq ochiq-ravshanKitobda (yozilgan)dir” *[1:An’om,59]*.

Ibn Umar roziyallohu anhu rivoyat qiladi: “Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “G‘ayb ilmlari beshtadir, ularni Alloh taolodan o‘zga bilmaydi: bachadonlar qachon tashlashini, ertaga nima bo‘lishini, qachon yomg‘ir yog‘ishini, har bir tirik jon qayerda o‘lishini va qiyomat qachon qoim bo‘lishini”*[Imom Buxoriy rivoyati]*.

Oisha onamiz roziyallohu anhu bunday deganlar: “Kim Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ertaga nima bo‘lishini aytadilar, deb o‘ylasa, Alloh taologa katta bo‘hton qiladi. Alloh taolo bunday marhamat qilgan: “Ayting: “Osmonlar va yerdagi birorta g‘aybni bilmaydi. Faqat Alloh biladi” *[1:Naml, 65, Imom Muslim rivoyati]*.

G‘aybning Kalitlari Alloh Taoloning o‘zidaligi shundadir. Bu kalitni hatto Payg‘ambarlar ham bilmaydilar. Kimki, g‘ayb ilmini da’vo qilsa, kofirlardan bo‘ladi. Aqoid ilmida “g‘aybiyot” deb nomlangan, iymon keltirish lozim bo‘lgan narsalardan, Arshni, Kitobni va bilishni aytish mumkin. Jumladan, buyuk mutafakkir va so‘z mulikining sultoni Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni o‘zining chuqur falsafiy-tasavvufiy mazmuni, ramziy obrazlarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda keltirilgan har bir timsol insonning ichki dunyosi, ruhiy kamoloti hamda ilohiy haqiqatni anglash jarayoni bilan uzviy bog‘langan. Shunday badiiy ramzlardan biri — “ko‘zgu” timsoli bo‘lib, u g‘aybiy ma’nolarni ifodalovchi muhim obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda keltirilgan:

G‘ayb xayolotida yuz ming suvar,
Xotira ko‘zgusidur jilvagar [2:54]

misralari orqali shoir inson qalbining cheksiz imkoniyatlarini badiiy talqin etadi. Bu baytda “g‘ayb xayoloti” iborasi bilan inson idroki to‘la anglay olmaydigan ilohiy va sirli olam nazarda tutiladi. “Yuz ming suvar” esa ana shu g‘aybiy olamdagi behisob ma’no va haqiqatlarning ramziy ifodasidir. Shoir bu ma’nolarni aks ettiruvchi vosita sifatida “xotira ko‘zgusi”ni tilga oladi. Ko‘zgu timsoli tasavvufiy adabiyotda keng qo‘llanib, u ko‘pincha inson qalbini anglatadi. Qalb pok va musaffo bo‘lsa, unda ilohiy haqiqatlar aks etadi. Navoiy ham ayni shu an’anani davom ettirib, inson xotirasini ko‘zguga qiyoslaydi. Bu ko‘zgu g‘ayb olamidan kelayotgan ma’nolarni o‘zida jilvalantiradi. Demak, shoir nazarida inson qalbi oddiy ruhiy makon emas, balki ilohiy tajallilar namoyon bo‘ladigan muqaddas maskandir. Mazkur baytda “jilvagar” so‘zi alohida badiiy yuklama kasb etadi. U faqat aks ettirishni emas, balki go‘zallik va nur bilan namoyon bo‘lishni anglatadi. Bu esa qalb pokligi va ma’naviy kamolot natijasida inson g‘aybiy haqiqatlarni anglay olishini bildiradi. Shunday qilib, ko‘zgu timsoli orqali shoir insonning o‘zini anglash, ma’naviy poklanish va Haqni tanish yo‘lini ko‘rsatadi. Navoiy talqinida ko‘zgu bu oddiy buyum emas, balki ma’rifat manbai, o‘zlikni anglash vositasi, ilohiy haqiqatlar aks etuvchi qalb ramzidir. Inson qalbi qancha pok va musaffo bo‘lsa, unda g‘ayb olamining ma’nolari shuncha ravshan ko‘rinadi. Shu jihatdan qaraganda, mazkur timsol komil inson g‘oyasini ochishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Muhokama. Mumtoz o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni nafaqat ishqiy-sarguzasht asari, balki chuqur tasavvufiy-falsafiy mazmunni o‘zida mujassam etgan badiiy yodgorlikdir. Asarda qo‘llangan har bir obraz va timsol zohiriy voqealar bilan bir qatorda botiniy, ya’ni g‘aybiy ma’nolarni ham ifodalaydi. Shunday ramziy so‘zlardan biri “anvor” bo‘lib, u ilohiy nurlar timsoli sifatida talqin qilinadi. Dostonda keltirilgan:

So‘zidin zohir asrori ilohiy,
Jamolidin ayon anvorishohiy (“Anvor” arabcha so‘z bo‘lib, “nur” so‘zining ko‘plik shaklidir va “nurlar” degan ma’noni bildiradi) *[3:156]* misralari badiiy va tasavvufiy jihatdan nihoyatda teran mazmunga ega. Bu baytda shoir komil inson sifatlarini tasvirlash orqali ilohiy haqiqatning tajallisini ko‘rsatadi.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, butun borliq Allohning nuridan yaralgan va komil inson ana shu ilohiy nur tajalliy etgan zotdir. Navoiy ana shu g‘oyani badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. “Farhod va Shirin” dostonida qo‘llangan “anvor” so‘zi g‘aybiy timsol sifatida ilohiy nurlarni, ya’ni komil inson qalbida va jamolida tajalliy etgan ma’naviy nur va haqiqatni anglatadi. Alisher Navoiy bu obraz orqali insonning ruhiy poklanish, ma’rifatga yetishish va ilohiy haqiqatni o‘zida aks ettirish g‘oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. Natijada doston ishqiy voqealar tasviri bilan birga tasavvufiy komillik konsepsiyasini ham yorituvchi asarga aylanadi.

Xulosa. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida g‘aybiy timsollar muhim badiiy-falsafiy qatlamni tashkil etadi. Shoir ushbu timsollar orqali inson hayotining ilohiy mohiyati, taqdir, ruhiy kamolot va haqiqiy muhabbat g‘oyalarini ifodalaydi. Navoiy yashagan davr adabiyotida tasavvufiy qarashlar keng tarqalgan bo‘lib, shoir ham ana shu an’anadan kelib chiqib g‘aybiy obrazlardan chuqur ma’noli badiiy vosita sifatida foydalanadi. Bu timsollar asarlarda voqealar rivojini boyitish, qahramonlarning ruhiy holatini ochish hamda ilohiy hikmatni ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Navoiy Xamsasiga kiruvchi dostonlar – “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai Sayyor” hamda “Saddi Iskandariy”da g‘aybiy kuchlar, ilohiy ishoralar, tush orqali keladigan xabarlar, sehrli voqealar va g‘ayritabiiy hodisalar orqali muallif insonning ma’naviy kamolot yo‘lini tasvirlaydi. Masalan, “Hayrat ul-abror” dostonida hikoyatlar orqali berilgan ilohiy hikmat va ramziy voqealar insonni ezgulik, adolat va poklikka chorlaydi. Bu yerda g‘aybiy timsollar ko‘proq didaktik maqsadga xizmat qilib, insonni ma’naviy kamolga yetaklovchi ramz sifatida talqin etiladi. “Farhod va Shirin” dostonida g‘aybiy timsollar qahramonning ruhiy kuchi va ilohiy muhabbat yo‘lidagi sinovlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Farhodning mashaqqatli yo‘li, uning ishq yo‘lida ko‘rsatgan matonati ko‘pincha ilohiy quvvat bilan bog‘lanib tasvirlanadi. Bu orqali Navoiy insonning haqiqiy muhabbat va komillik sari intilishi oddiy dunyoviy jarayon emas, balki ma’naviy-ruhiy kamolot yo‘li ekanini ko‘rsatadi. “Layli va Majnun” dostonida g‘aybiy timsollar yanada chuqur tasavvufiy mazmun kasb etadi. Majnunning ruhiy holati, uning jamiyatdan uzilib, sahroda yashashi va ishq orqali ilohiy haqiqatni anglash darajasiga yetishi tasavvufiy ramz sifatida talqin qilinadi. Umuman olganda, Navoiy Xamsasidagi g‘aybiy timsollar shoirning falsafiy va tasavvufiy qarashlarini ifodalovchi muhim badiiy vositadir. Bu timsollar orqali u insonning ruhiy kamolot yo‘lini, ilohiy ishq mohiyatini hamda adolat va ezgulik g‘oyalarini chuqur badiiy shaklda tasvirlaydi. Navoiy g‘aybiy obrazlardan foydalanishda Sharq adabiy an’analari, islomiy rivoyatlar va xalq og‘zaki ijodi motivlarini uyg‘unlashtirib, ularni yangi badiiy darajaga ko‘targan. Natijada Xamsa dostonlari nafaqat epik voqealar majmui, balki insonning ma’naviy-ruhiy taraqqiyoti, ilohiy haqiqatni anglash va komillikka erishish yo‘lini ko‘rsatadigan yuksak falsafiy-badiiy asarlar sifatida namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiyning Xamsa asarida g‘aybiy timsollar muhim badiiy-falsafiy qatlamni tashkil etadi. Shoir ushbu timsollar orqali inson hayotining ilohiy mohiyati, taqdir, ruhiy kamolot va haqiqiy muhabbat g‘oyalarini ifodalaydi. Navoiy yashagan davr adabiyotida tasavvufiy qarashlar keng tarqalgan bo‘lib, shoir ham ana shu an’anadan kelib chiqib g‘aybiy obrazlardan chuqur ma’noli badiiy vosita sifatida foydalanadi. Bu timsollar asarlarda voqealar rivojini boyitish, qahramonlarning ruhiy holatini ochish hamda ilohiy hikmatni ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qur’on. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyoti, 2021.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012.
4. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012.
5. Alisher Navoiy. Sab’ai Sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81.374.81.276.

XIV–XV ASR TURKIY ADABIYOTIDA SULAYMON PAYG‘AMBAR OBRAZI TALQINI

Norkobilova Farzona Azizovna, Qarshi davlat unversiteti 2-kurs talabasi

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE PROPHET SOLOMON IN TURKISH LITERATURE OF THE 14TH–15TH CENTURY

Norkobilova Farzona Azizovna, Student of Karshi State University, 2nd year student



https://orcid.org/0009-0009-1467-7569
e-mail: farzonanorkobilova@gmail.com

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ПРОРОКА СУЛЕЙМАНА В ТУРЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIV–XV ВЕКОВ

Норкобилова Фарзона Азизовна, студент 2-курса Каршинского государственного университета

Annotatsiya: *Ushbu maqola XIV–XV asr turkiy adabiyotida Sulaymon payg‘ambar obrazining shakllanishi va rivojini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida turkiy nasriy va nazmiy asarlar, jumladan Haydar Xorazmiyning “Gulshan-ul-asror” dostonidagi talqinlar, Jomiy maktabi ta’siri ostida yaratilgan asarlar, shuningdek, Alisher Navoiy davrigacha bo‘lgan turkiy adabiyot manbalarida Sulaymon payg‘ambar timsolining axloqiy, ma’rifiy va tasavvufiy jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Sulaymon payg‘ambar , turkiy adabiyot, XIV–XV asrlar, hikoyat va she’r, podshoh timsoli, adolat, hikmat, kuch va mas’uliyat, ramziy obraz, ma’naviyat.*

Annotation: *This article aims to study the formation and development of the image of Solomon the Prophet in the Turkic literature of the 14th–15th centuries. Within the framework of the research, the moral, educational and mystical aspects of the image of Solomon the Prophet were analyzed in Turkish prose and poetry works, including interpretations in the epic poem “Gulshan-ul-asror” by Heydar Khorezm, works created under the influence of the Jami school, as well as in Turkish literary sources up to the time of Alisher Navoi.*

Keywords: *Prophet Solomon, Turkish literature, 14th–15th centuries, story and poetry, image of the king, justice, wisdom, power and responsibility, symbolic image, spirituality.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению формирования и развития образа пророка Сулеймана в тюркской литературе XIV-XV веков. В рамках исследования проанализированы моральные, воспитательные и мистические аспекты образа пророка Сулеймана в турецкой прозе и поэзии, включая интерпретации в эпической поэме «Гульшан-уль-асрор» Хайдара Хорезми, произведениях, созданных под влиянием школы Джами, а также в турецких литературных источниках до времен Алишера Навои.*

Ключевые слова: *пророк Сулейман, турецкая литература, XIV–XV века, повествование и поэзия, образ царя, справедливость, мудрость, власть и ответственность, символический образ, духовность.*

Kirish. Sulaymon alayhissalom obrazi insoniyat madaniy merosida muhim o‘rin tutgan diniy-tarixiy timsollardan bo‘lib, u haqidagi rivoyatlar dastlab yahudiy va xristian muqaddas

manbalarida - Tavrot va Injilda bayon etilgan. Ushbu manbalarda Sulaymon asosan Isroil podshohi, dono hukmdor va Quddus ibodatxonasini qurdirgan shoh sifatida tasvirlanadi. Biroq yuqoridagi asarlarda Sulaymon (a.s)ning payg‘ambarlik maqomi haqida ma’lumotlar yo‘q; obraz ko‘proq tarixiy-podshohona talqinda beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Islom manbalarida - Qur’oni Karim va hadis rivoyatlarida esa Sulaymon alayhissalom mutlaqo yangi diniy-badiiy talqinda namoyon bo‘ladi: u Alloh tomonidan tanlangan payg‘ambar va hukmdor sifatida ulug‘lanadi. Qur’onda Sulaymonga shamol, qush va jinlar bo‘ysungani, unga keng ilm va hikmat berilgani, adolat bilan hukm yuritgani haqida bayon qilinadi. Aynan islomiy talqin obrazning ma’naviy-ma’rifiy mohiyatini boyitib, uni ideallashtirilgan “payg‘ambar–podshoh” timsoliga aylantiradi. XV asrdan boshlab mumtoz turkiy she’riyatida Sulaymon obrazi yangicha poetik qiyofada namoyon bo‘ladi. Bu bosqichda Sulaymon obrazi “ideal hukmdor”, “mulki husn shohi”, “ma’shuq jamoli qudrati” kabi tushunchalar ifodasiga xizmat qildi. Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Jomiy ijodiy ta’sirida yetishgan shoirlarning g‘azal va masnaviylarida Sulaymon obrazining ko‘tarilishi ishqiy-sufiy adabiyot taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Sulaymon alayhissalom obrazi turkiy adabiyotga Tavrot va Injil manbalaridan bevosita emas, balki Qur’oni karim va islomiy rivoyat an’anasi asosida kirib kelgan. Dastlab xalq og‘zaki ijodida va diniy qissa adabiyotida shakllanib, Rabg‘uziy asarlari bilan yozma badiiy mustahkamlash bosqichidan o‘tgan, keyinchalik mumtoz she’riyatda ramziy–majoziy yuksak badiiy darajaga yetgan. Bugun Sulaymon obrazi turkiy adabiyotda payg‘ambarlik, hukmdorlik, adolat va ilohiy donolikni mujassam etgan eng barqaror, ko‘p qatlamli badiiy timsollardan biri sifatida baholanadi.

Taraqqiyot metodologiasi. Abdurahmon Jomiy XIV asr adabiyotida nafaqat fors-tojik mumtoz she’riyatining, balki tasavvufiy va axloqiy qarashlar maktabining ham yetakchi vakili bo‘lgan. Uning “Haft Avrang” kabi asarlarida insonning ruhiy kamoloti, ilohiy hikmat va ma’naviy tozalik g‘oyalari yaqqol namoyon bo‘ladi. Jomiy so‘fiylik ta’limotini adabiyotga singdirib, axloqiy inson idealini chuqur tasvirlab bergan shoir sifatida tanilgan; u adolat, insof, sabr-toqat kabi fazilatlarni ilohiy hikmat bilan bog‘lab tushuntiradi. Jomiy ijodi keyinchalik turkiy adabiyotda tasavvufiy va ma’rifiy tushunchalar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Jomiy maktabi ta’siri ostida shakllangan adabiyotda Sulaymon payg‘ambar timsoli nafaqat Qur’oni Karimdagi qudratli hukmdor sifatida emas, balki ichki ruhiy poklik, dono hukmdorlik va ilohiy hikmat ramzi sifatida talqin qilingan.

Tahlillar va natijalar. Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-Asror” asarida Sulaymon alayhissalom timsoli orqali dunyoviy qudrat va hukmronlikning o‘tkinchiligini, insoniy fazilatlarning esa abadiyligini ko‘rsatadi. Asarda keltirilgan baytlar:

“Erdi Sulaymon bu ulus sultoni,
Budur ulus, so‘rki Sulaymon qani?” [4:230].

Bu yerda Sulaymon dunyo sultoni sifatida tasvirlangan, lekin u ham oxir-oqibat olamni tark etgani eslatiladi. Shu tarzda, muallif eng qudratli hukmdor ham dunyoviy saltanat va boylik bilan abadiylikka erisha olmasligini bildiradi. Asardagi Sulaymon timsoli ko‘proq foniylik va dunyo hukmronligi ramzi sifatida foydalanilgan. U boshqa tarixiy podshohlar, masalan, Faridun bilan bog‘lanadi, u ham dunyodagi mol-mulkini o‘zi bilan olib ketolmaganligi ta’kidlanadi:

“Ingdi Faridun hasham-u mol-u ganj,
Neni olib bordi bajuz dard-u ranj?” [4:230].

Bu misralarda muallif dunyodagi qudrat va boylikning vaqtinchalik ekanini, faqat axloqiy fazilatlar va saxovat abadiyligini ko‘rsatadi. Hotam Toy esa saxovat timsoli bo‘lib, moddiy boylikdan ko‘ra, ruhiy va axloqiy ulug‘likni ifodalaydi. Karvonga yordam berishi va tuya bilan bog‘liq voqea orqali muallif shuni bildiradi: saxovat nafaqat tiriklikda, balki o‘limdan keyin ham qadrlanadi. Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-Asror” asarida Sulaymon alayhissalom timsoli orqali dunyo saltanatining o‘tkinchiligini ko‘rsatadi. U dunyo qudrati va hukmdorlik timsoli sifatida ishlatilsa-da, asarning markaziy g‘oyasi saxovat, muruvvat va axloqiy ustunlik abadiyligidir. Shu tarzda, muallif o‘quvchiga axloqiy nasihat beradi, tarixiy va adabiy obrazlarni uyg‘unlashtiradi va Sulaymon timsolini turkiy adabiyot kontekstida yangi nuqtayi nazardan ochadi.

Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy”da Sulaymon payg‘ambar obrazi faqatgina pand-

nasihat berish uchun emas, balki hokimiyat va kuch masalasiga munosabatni belgilovchi mezon sifatida qo‘llanadi. Sayfi Saroyi Sulaymon (a.s.)ga berilgan qudratni tilga olar ekan, uni mutlaq ustunlik yoki faxr manbai sifatida emas, balki inson zimmasiga yuklangan mas’uliyat deb talqin qiladi. Hikoyatda sultonning faqirga bepisand munosabati tanqid qilinadi. Faqirning javobi orqali muallif shuni anglatadiki, sultonning mavjudligi raiyat manfaatiga xizmat qilmasa, bunday hokimiyat o‘z mazmunini yo‘qotadi. Mazkur fikr she’riy umumlashtirish orqali yanada aniqlashtiriladi:

Bu kunkim bor alingda mol-u mulkat,
Yurur aldan ela ul joh-u davlat.
Qoranchu xotirin ozor qilma,
Sulaymoncha alingda bo‘lsa quvvat [5:200].

Bu baytda Sulaymon (a.s.) eng yuqori qudrat timsoli sifatida keltiriladi, biroq u orqali kuchning chegarasi belgilanadi: qudrat inson sha’nini poymol qilish huquqini bermaydi. Muallif uchun haqiqiy ustunlik boshqalarga hukm o‘tkazishda emas, balki o‘z nafsini tiyishda namoyon bo‘ladi. Shu mazmunda asarda boshqa misollar ham uchraydi. Jumladan, sultonning oddiy odamni o‘ldirmoqchi bo‘lgani haqidagi hikoyatda miskinning “bu jazo bir nafas bilan o‘tar, ammo oxiratda javobi bor” degan so‘zi hokimiyatning vaqtinchaligini va javobgarligini ochib beradi. Xuddi shuningdek, Zunnun Misriy haqidagi hikoyatda sultonga xizmat qilish emas, balki Haqdan qo‘rqish oliy mezon sifatida qo‘yiladi.

Xulosa. XIV–XV asr turkiy adabiyotida Sulaymon (a.s.) obrazi diniy rivoyat doirasidan chiqib, ko‘p qatlamli badiiy va falsafiy timsol sifatida shakllangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, turkiy nasriy va nazmiy manbalarda, xususan, Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-Asror” asari hamda Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asarlarida Sulaymon timsoli hokimiyat, adolat va insoniy mas’uliyat masalalari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilingan. Obraz faqat diniy qahramon sifatida emas, balki ideal hukmdor, hikmat va ma’rifat sohibi, shuningdek, dunyoviy qudratning o‘tkinchiligi ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Qur’oni Karim va islomiy rivoyatlar asosida shakllangan mazkur timsol turkiy adabiyotda tarixiy podshoh va ma’naviy yetuk hukmdor konsepsiyasini birlashtirgan murakkab badiiy modelga aylangan. Natijada, XIV–XV asr adabiy jarayonida Sulaymon (a.s.) timsoli diniy, siyosiy, axloqiy va badiiy qatlamlarni o‘zida mujassam etgan universal obraz sifatida shakllanganini ta’kidlash mumkin.

Adabiyotlar va ro‘yxati:

1. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur.
2. Muqaddas kitob. Toshkent. 2020.
3. Qisasi Rabg‘uziy / Nosiruddin Rabg‘uziy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
4. Haydar Xorazmiy. Gulshan ul-Asror. – Toshkent: Fan, nashr yili ko‘rsatilmagan.
5. Sayfi Saroyi. Guliston bit-turkiy. – Toshkent: Fan, 1968.
6. Abdurahmon Jomiy. Haft Avrang. – Tehron nashri.
7. Alisher Navoiy asarlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

JADIDCHILIK HARAKATI: MILLIY UYG‘ONISH VA MODERNIZATSIYA G‘OYALARINING TARIXIY ILDIZLARI

Murodov Adham Ilhom o‘g‘li, “Tashkent International University” xalqaro universiteti,“Ijtimoiy fanlar va ta’lim” kafedrasi dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD)



https://orcid.org/0009-0000-6207-1734
e-mail: adhammurodov05@gmail.com

THE JADID MOVEMENT: HISTORICAL ROOTS OF THE IDEAS OF NATIONAL AWAKENING AND MODERNIZATION

Murodov Adham Ilhom ogli, Acting Associate Professor of the Department of Social Sciences and Education, Tashkent International University, PhD in Pedagogical Sciences

ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ: ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ИДЕЙ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОБУЖ-ДЕНИЯ И МОДЕРНИЗАЦИИ

Муродов Адхам Илхом оглы, исполняющий обязанности доцента кафедры “Социальные науки и образование” Международного университета “Tashkent International University”, (PhD) по педагогическим наукам

Annotatsiya: *mazkur maqolada jadidchilik harakatining shakllanishi, uning Markaziy Osiyoda milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni hamda jamiyat modernizatsiyasiga qo‘shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim, ma’rifat va milliy taraqqiyot haqidagi g‘oyalari zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida jadidchilik harakatining vujudga kelish omillari, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati hamda jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari keng yoritiladi. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalarining ilmiy merosi asosida milliy uyg‘onish jarayonining tarixiy ildizlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari jadidchilik harakati nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ham muhim ilmiy va ma’naviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, milliy uyg‘onish, modernizatsiya, ma’rifatparvarlik, ta’lim islohoti, pedagogika, Behbudiy, Avloniy, Fitrat.*

Abstract: *this article analyzes the formation of the Jadid movement, its role in the process of national awakening in Central Asia, and its contribution to the modernization of society. The ideas of Jadid intellectuals concerning education, enlightenment, and national development are examined based on modern scientific approaches. The study explores the factors that led to the emergence of the Jadid movement, its socio-political significance, and the pedagogical views of Jadid thinkers. The historical roots of national awakening are analyzed through the scholarly legacy of prominent Jadid figures such as Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, and Abdurauf Fitrat. The results of the research demonstrate that the Jadid movement is not only a historical phenomenon but also an important scientific and spiritual foundation for the development of modern society.*

Keywords: *jadidism, national awakening, modernization, enlightenment, educational reform, pedagogy, Behbudi, Avloni, Fitrat.*

Аннотация: *В данной статье научно анализируются формирование движения джадидизма, его роль в процессе национального пробуждения в Центральной Азии, а также вклад в модернизацию общества. Рассматриваются идеи джадидских просветителей в области образования, просвещения и национального развития на основе современных научных подходов. В ходе исследования раскрываются факторы возникновения движения джадидизма, его социально-политическое значение и педагогические взгляды представителей джадидского движения. На основе научного наследия таких деятелей, как Махмудходжа Бехбудий, Абдулла Авлоний и Абдурауф Фитрат, анализируются исторические истоки процесса национального пробуждения. Результаты исследования показывают, что движение джадидизма является не только историческим явлением, но и важным научным и духовным фактором развития современного общества.*

Ключевые слова: *джадидизм, национальное пробуждение, модернизация, просветительство, образовательные реформы, педагогика, Бехбудий, Авлоний, Фитрат.*

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati mintaqa tarixida muhim o‘rin tutgan ijtimoiy-ma’rifiy harakatlardan biri hisoblanadi. Jadidchilik harakati o‘z mohiyatiga ko‘ra jamiyatni yangilash, ilm-fan va ta’lim orqali taraqqiyotga erishish hamda milliy ongni shakllantirishga qaratilgan harakat sifatida namoyon bo‘lgan[1].

Mazkur harakat Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim burilish yasadi. Jadid ma’rifatparvarlari jamiyatni jaholat va qoloqlikdan chiqarish uchun ilm-fan, ma’rifat va zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish zarurligini ta’kidladilar. Ular xalqning ma’rifatli bo‘lishini milliy taraqqiyotning asosiy omili sifatida baholaganlar[2].

Asosiy qism. Jadidchilik harakatining shakllanishi o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan bevosita bog‘liq edi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar yangi ma’rifiy harakatning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi[3].

Bugungi kunda jadidchilik harakatini o‘rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidchilik harakatining vujudga kelish omillari. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida shakllangan. Bu davrda Markaziy Osiyo hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan bo‘lib, mintaqada yangi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar shakllana boshladi[4].

Ushbu jarayonlar mahalliy jamiyatda ham muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, yangi ilmiy bilimlarning kirib kelishi, matbuotning rivojlanishi va tashqi dunyo bilan aloqalarning kuchayishi jadidchilik harakatining shakllanishiga muhim turtki bo‘ldi[5].

Jadidchilik harakatining shakllanishida turkiy xalqlarning ma’rifatparvar namoyandasi Ismoil Gaspiralining faoliyati muhim rol o‘ynagan. U “Tarjimon” gazetasi orqali turkiy xalqlarni ilm-fan va ma’rifatga chaqirdi hamda yangi usul maktablarini tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi[6].

Jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan va ta’limni ko‘rganlar. Ularning fikricha, xalqning ma’rifatli bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining eng muhim sharti hisoblanadi.

Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. Jadid ma’rifatparvarlari ta’lim tizimini isloh qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkin deb hisoblaganlar. Shu sababli ular yangi usul maktablarini tashkil etish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishga katta e’tibor qaratdilar[7].

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, u ta’lim tizimini rivojlantirish va jamiyatni modernizatsiya qilish g‘oyalarini ilgari surgan. Behbudiy o‘z asarlarida ilm-fan va ma’rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholagan[8].

Abdulla Avloniy esa jadid pedagogikasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan ma’rifatparvarlardan biri hisoblanadi. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yosh avlodni

tarbiyalashda muhim pedagogik manba hisoblanadi[9].

Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining yetuk nazariyotchilaridan biri bo‘lib, u milliy taraqqiyot, madaniyat va ta’lim masalalariga alohida e’tibor qaratgan[10].

Jadidchilik va milliy uyg‘onish jarayoni.Jadidchilik harakati Markaziy Osiyoda milliy uyg‘onish jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Jadidlar milliy madaniyat va tilni rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish hamda milliy ongni shakllantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdilar[11].

Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan tashkil etilgan matbuot organlari ham milliy uyg‘onish jarayonida muhim rol o‘ynadi. Gazeta va jurnallar orqali jamiyatdagi muammolar muhokama qilinib, ilm-fan va ma’rifatning ahamiyati targ‘ib qilindi[12].

Bugungi kunda jadidchilik harakatining ilmiy merosi O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin egallaydi. Jadidlarning ta’lim, madaniyat va milliy taraqqiyot haqidagi qarashlari zamonaviy jamiyat rivojlanishida ham dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jadidlar merosi haqida quyidagicha fikr bildirgan: “Jadid bobolarimiz ilm-ma’rifat orqali xalqimizni uyg‘onishga, taraqqiyot sari intilishga da’vat etgan buyuk ma’rifatparvarlar edi. Ularning boy merosi bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega” [13]. Bu fikr jadidchilik harakatining zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni nihoyatda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Markaziy Osiyoda milliy uyg‘onish va modernizatsiya jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Jadid ma’rifatparvarlari ilm-fan, ma’rifat va ta’lim orqali jamiyatni rivojlantirish g‘oyalarini ilgari surganlar. Ularning ilmiy va pedagogik qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidchilik merosi zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim ilmiy va ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov B. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Fan, 2004.
2. Shamsutdinov R. Jadidchilik va milliy uyg‘onish. – Toshkent, 2005.
3. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform. – Berkeley, 1998.
4. Allworth E. Central Asia. – Durham, 1994.
5. Karimov N. Jadid adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2015.
6. Gasprinskiy I. Tanlangan asarlar. – Qozon, 1912.
7. Qosimov B. Jadidlar va ma’rifat. – Toshkent, 2002.
8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1999.
9. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913.
10. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2000.
11. Karimov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2016.
12. Allworth E. The Modern Uzbeks. – Stanford, 1990.
13. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

ANDIJONDAGI XALQARO OLIY TA'LIM MUASSASALARI

Salimboyeva Farzona Xojiakbar qizi, Andijon davlat universiteti magistranti

INTERNATIONAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN ANDIJAN

Salimboyeva Farzona Khojiakbar qizi, master's student of Andijan State University

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ВУЗЫ В АНДИЖАНЕ

Салимбоева Фарзона Ходжиакбар кызы, магистрант Андижанского государственного университета



https://orcid.org/0009-0002-3333-1183
e-mail: iskandarolimov815@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif Andijon viloyatida faoliyat olib borayotgan xalqaro oliy ta'lim muassasalarining ochilish tarixini va ularning tarixiy ahamiyatini tarixiy ilmiy uslubda tadqiq etgan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim muassasasi, xususiy muassasa, universitet, yo'nalish, mutaxassislik, talaba.*

Abstract: *In this article, the author has studied the history of the opening of international higher education institutions operating in the Andijan region and their historical significance in a historical scientific manner.*

Keywords: *higher education institution, private institution, university, direction, specialization, student.*

Аннотация: *В данной статье автор в историко-научном ключе исследовал историю открытия международных высших учебных заведений, действующих в Андижанской области, и их историческое значение.*

Ключевые слова: *высшее учебное заведение, частное учебное заведение, университет, направление, специализация, студент.*

Kirish. Bugungi kunga kelib, dunyoning turli mintaqalarida faoliyat yuritayotgan, keng ixtisosliklarga ega oliy ta'lim muassasalari global ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu muassasalar bir xil pedagogik yondashuvdan foydalanmay, o'zining maqsad va vazifalariga muvofiq turli metodikalarni joriy etadi. Natijada ular o'rtasidagi raqobat ham ortib borayotgan ta'lim subyektlari soni bilan bir qatorda kuchayib bormoqda. Xususan, ayrim oliy ta'lim muassasalari xalqaro maqomga ega bo'lib, dunyoning ko'plab davlatlarida filiallari orqali ta'lim xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Global ta'lim integratsiyasi jarayoni O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. So'nggi yillarda xalqaro oliy ta'lim muassasalarining mamlakatga kirib kelishi natijasida ta'lim bozorida raqobat muhiti shakllanib, bu esa mahalliy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga turtki bermoqda. Jumladan, Andijon viloyatida bir qator xalqaro universitet va institutlar faoliyat yuritishni boshladi. Bu esa, bir tomondan, yoshlarning uzoq masofaga qatnovsiz xalqaro standartlarga mos bilim olish imkoniyatlarini kengaytirsa, boshqa tomondan, mahalliy oliy ta'lim muassasalari uchun metodik va tashkilotchi andoza vazifasini bajarib, sog'lom raqobatni kuchaytirmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi bugungi kunda jahon miqyosida tan olinib, zamonaviy pedagogik va ilmiy standartlarga moslashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Shu kontekstda, Andijonda ochilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari — Sharda University Uzbekistan va Warsaw University of Management (Collegium Humanum) filiallari — nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki mahalliy yoshlar uchun xalqaro ta'lim

imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida tashkil etilgan[1][2].

Tadqiqotda ishlatilgan adabiyotlar va manbalar uch asosiy guruhga bo‘lingan. Birinchi guruh xalqaro oliy ta’lim tizimini yorituvchi ilmiy va ensiklopedik manbalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, Encyclopaedia Britannica maqolalari oliy ta’limning global standartlari, rivojlanish tendensiyalari va pedagogik yondashuvlarni aniqlashda asosiy manba sifatida ishlatildi[1]. Ikkinchi guruh manbalar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi va talabalarning soni bo‘yicha rasmiy statistika va media materiallarni o‘z ichiga oladi, bu orqali mahalliy ta’lim tizimi holati va uning xalqaro miqyosdagi o‘rni tahlil qilindi[2][3].

Uchinchi guruh manbalar esa Andijonda ochilgan filiallarning tashkil etilishi, faoliyati va akademik dasturlarini yoritadi. Bu guruhga Salimboeva ilmiy maqolasi, Sharda University rasmiy sayti, XS.uz va Yuz.uz media maqolalari, shuningdek rasmiy huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 211-son qarori kiradi [3][4][5][6][7][8]. Bu manbalar filiallarning tashkil etilish sabablari, o‘quv dasturlari va xalqaro standartlarga mosligi haqida chuqur tushuncha berdi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda analitik va solishtirma yondashuvlar qo‘llanildi. Ma’lumotlar sifatli va miqdoriy tahlil metodlari yordamida tahlil qilindi: sifatli tahlil filiallarning tashkil etilishi, akademik dasturlar va rasmiy hujjatlarning mazmuni bo‘yicha olib borildi, miqdoriy tahlil esa talaba soni, filiallar va yo‘nalishlar statistikasi orqali amalga oshirildi. Shu bilan birga, rasmiy hujjatlar va media manbalarining kontentini kengaytirilgan tahlil qilish orqali Andijondagi xorijiy oliy ta’lim muassasalari faoliyati, ularning ta’lim imkoniyatlari va mahalliy yoshlar uchun yaratilgan sharoitlari ilmiy asosda o‘rganildi [4][5][6][7][8][9].

Natijada, ushbu adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar yordamida Andijondagi Sharda University va Warsaw University filiallarining tashkil etilishining sabablari, faoliyat yo‘nalishlari, xalqaro standartlarga mosligi va mahalliy yoshlar uchun yaratilgan ta’lim imkoniyatlari kompleks tarzda tahlil qilindi [1][2][3][4][5][6][7][8][9].

Natijalar. Oliy ta’lim muassasalari tushunchasi umumiy holatda keng ma’noga ega tushuncha hisoblanib, ushbu atamaga Encyclopaedia Britannica quyidagicha ta’rif beradi: “Oliy ta’lim – bu o‘rta ta’limdan tashqarida, ayniqsa kollej yoki universitetda ta’lim olishdir. Ilgari asosan diniy rahbarlar uchun bo‘lgan bu ta’lim endi zamonaviy iqtisodiyot va yuqori ijtimoiy mavqega olib keladi. Shuningdek, o‘qishga qabul qilishda eng katta cheklovlar aynan shu yerda yuzaga keladi. Dunyo bo‘ylab, 21-asr boshlarida 18-24 yoshdagilarning beshdan bir qismidan kamrog‘i oliy ta’limning biron bir shaklida o‘qigan, eng kam rivojlangan mamlakatlarda esa 5 foizdan kamrog‘i o‘qigan. Zamonaviy tendensiyalar xususiy muassasalarning tez o‘sishi, bozor bilan yaqin aloqalar va institutsional tabaqalanishni o‘z ichiga oladi[1]”.

2023-yilda O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan OTMlar soni 213taga yetadi va bulardan 30tasi xorijiy OTMlar hisoblanadi[2]. 2002-yilda O‘zbekistondagi birinchi xalqaro OTM Vestminster universiteti Toshkent shahrida tashkil etilgan edi[3.B.354]. Ushbu OTMning tashkil etilishi O‘zbekiston uchun ilk qadam bo‘lgan edi.

2019-yil 15-yanvarda Andijondagi birinchi xalqaro universitetni ochish bo‘yicha Hindistonning Yangi Dehli shahrida Andijon viloyat hokimi Shuhratbek Abdurahmonov Sharda universiteti bilan memorandum imzolaydi. Ushbu memorandumga ko‘ra universitet viloyatda o‘z filialini ochish va 100 million AQSH dollarilik investitsiya kiritishga rozi bo‘ldi[4]. E’tiborli jihat shundaki, Sharda Universiteti nafaqat Andijonda, balki O‘zbekistondagi birinchi xususiy xalqaro universitet hisoblanadi[5].

2019-yil 10-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekistonda Sharda universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ–4278-son qarori qabul qilindi. Ushbu yilda universitet tomonidan elektr muhandisligi, axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik, kompyuter tizimlariga xizmat ko‘rsatish, elektronika, kommunikatsiya injiniringi, biznes-menejment va boshqa yo‘nalishlarda mutaxasislar tayyorlanishi ko‘zda tutilgan edi [6].

2019-yil 19-oktabr sanasida esa Sharda Universitetining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyati hokimi Shuhrat Abdurahmonov va Hindiston Respublikasi Gujarat shtati bosh vaziri janob Vijay Rupani qatnashdi [7].

Ushbu voqeadan boshlab Sharda Universiteti faol ravishda Andijonda o‘z faoliyatini olib bormoqda. Universitet ta’lim berish jarayonida O‘zbekistondagi ta’lim tizimi talablariga ham amal qilish vazifasini o‘z zimmasiga olgan holda zamonaviy ta’lim berish metodlarini olib kirdi.

2021-yil 14-aprel sanasida esa “Collegium Numanum” Varshava menejment universitetining Andijon filialini tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi va shu kundan e’tiboran ushbu qaror kuchga kirdi[8]. Bu esa Andijon viloyatida ochilgan ikkinchi xalqaro OTM tashkiloti hisoblanadi. Ushbu universitetda ta’lim jarayonlari ingliz, rus va o‘zbek tillarida olib boriladi[9].

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunga kelib, turli sohalarda dunyo miqyosida tan olinib, o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy salohiyati bilan global maydonda e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimi sohasida erishilgan yutuqlar sezilarli bo‘lib, mamlakatning ta’lim tizimi jahon standartlariga moslashuvi va zamonaviy pedagogik va ilmiy tajribalarni joriy etish yo‘lida muhim qadamlar tashlanmoqda. Xalqaro ta’lim tajribasini o‘rganish va mahalliy yosh avlodning ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi tomonidan bir qator xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallarini ochish qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu amaliyot nafaqat talabalarni yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga, balki mamlakatda ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni integratsiyalashga ham xizmat qiladi.

Andijon shahrida tashkil etilgan ushbu ikki oliy ta’lim muassasasi ham aynan yuqorida ta’kidlangan maqsadlarni amalga oshirish, talabalarni xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash, ularning kasbiy va akademik kompetensiyalarini oshirishga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, filiallar orqali O‘zbekiston yoshlariga xorijiy ta’lim dasturlari bilan tanishish, innovatsion pedagogik metodlarni o‘rganish hamda xalqaro ilmiy va ta’limiy hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Bu esa nafaqat mahalliy ta’lim tizimining sifatini oshirishga, balki mamlakatning ilmiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Higher education // Encyclopaedia Britannica. — URL: https://www.britannica.com/topic/higher-education
2. O‘zbekistondagi OTM va ularda ta’lim olayotgan talabalar soni ma’lum qilindi, Kun.uz, 14-fevral 2024-yil. URL: https://kun.uz/news/2024/02/14/ozbekistondagi-otm-va-ularda-talim-olayotgan-talabalar-soni-malum-qilindi
3. Salimboyeva F. (2025). Markaziy Osiyodagi birinchi xalqaro universitet va uning faoliyati. Jamiyat va innovatsiya , 6 (4/S), 353–356. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4/S-pp353-356
4. Andijonda Sharda universitetining filiali tashkil etiladi // XS.uz. – 2019. – 15 yanvar. – URL: https://web.archive.org/web/20200220134315/http://xs.uz/uz/post/andizhonda-sharda-universitetining-filiali-tashkil-etiladi
5. Sharda University Uzbekiston haqida // shardauniversity.uz. – URL: https://www.shardauniversity.uz/about-us
6. Andijonda xorijiy universitet ochiladi // NORMA.UZ. – 2019. – 12 aprel. – URL: https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/andijonda_horijiy_universitet_ochiladi
7. Inauguration ceremony of Sharda University Campus in Uzbekistan on 19th October 2019 // Sharda University. – 2019. – 19 oktabr. – URL: https://www.sharda.ac.in/connect/news-details/inauguration-ceremony-of-sharda-university-campus-on-19th-october-2019?utm_source
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.04. 2021-y. 211-son “Collegium Humanum” Varshava menejment universitetining Andijon filialini tashkil etish to‘g‘risida” qarori // Buxgalter.uz. – URL: https://iibb.uz/uz/menu/ozbekiston-respublikasi-vazirlar-mahkamasining-qarorlari?utm_source
9. A branch of the Warsaw University of Management was opened in Andijan // Yuz.uz. – 2021. – 16 Apr. – URL: https://yuz.uz/en/news/a-branch-of-the-warsaw-university-of-management-was-opened-in-andijan?utm_source

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 340.114

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING HUQUQIY-ME'YORIY MEXANIZMLARI

Sultanov Toxir Raximberganovich, Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi xodimi



https://orcid.org/0009-0005-7324-0050
e-mail: tohir6060@mail.ru

LEGAL AND REGULATORY MECHANISMS OF SOCIAL PROTECTION FOR INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Sultanov Tahir Rahimberganovich, Khorezm Region Department of Internal Affairs

ПРАВОВЫЕ И НОРМАТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Султанов Тохир Рахимберганович, сотрудник УВД Хорезмской области

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun va qarorlarning mazmuni hamda ularning amaliy samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy ta'minlash tizimida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'nalishlariga doir takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *ichki ishlar organlari, huquqiy-me'yoriy asoslar, ijtimoiy himoya, davlat kafolatlari, me'yoriy hujjatlar, xodimlarning huquqlari, ijtimoiy ta'minot tizimi.*

Abstract: *This article examines the legal and regulatory framework for the social protection of employees serving in the internal affairs bodies in Uzbekistan. The study explores the content and practical effectiveness of the laws and resolutions that govern the functioning of the internal affairs system. Furthermore, it identifies existing issues within the social security mechanisms for employees and their family members, offering recommendations aimed at enhancing their protection and welfare.*

Keywords: *internal affairs bodies, legal and regulatory framework, social protection, state guarantees, regulatory documents, employees' rights, social security system.*

Аннотация: *В данной статье анализируются нормативно-правовые основы социальной защиты сотрудников органов внутренних дел Узбекистана. В исследовании освещено содержание законов и постановлений, регулирующих деятельность органов внутренних дел, а также их практическая эффективность. Кроме того, выявлены существующие проблемы в системе социального обеспечения сотрудников и членов их семей, выдвинуты предложения по направлениям их устранения.*

Ключевые слова: *органы внутренних дел, нормативно-правовые основы, социальная защита, государственные гарантии, нормативные документы, права сотрудников, система социального обеспечения.*

KIRISH. Ichki ishlar organlari jamiyatda qonun ustuvorligini, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish

kabi mas’uliyatli vazifalarni bajaruvchi muhim tuzilmadir. Mustaqillik yillarida mazkur organlarning faoliyatini demokratik tamoyillar asosida isloh qilish, ularni jazolovchi emas, balki xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi, professional tizimga aylantirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlari xodimlarini “Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlatning ma’naviy, axloqiy va huquqiy qadriyatlarini himoya qiluvchi fidoyi shaxslar sifatida shakllantirish bugungi islohotlarning ustuvor yo‘nalishidir. Xususan, ularning ijtimoiy himoyasini qonuniy asosda kafolatlash davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ichki ishlar organlari faoliyati, ularning huquqiy maqomi va ijtimoiy himoyasi masalalari so‘nggi yillarda bir qator milliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlariga sabab bo‘lgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2016), Prezidentning PQ–3413-son (2017) va PQ–118-son (2022) qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 354-son qarori (2022) ushbu tizimda ijtimoiy kafolatlarni belgilovchi asosiy me’yoriy-huquqiy manbalardir. Biroq, amaliy qonunchilikda ayrim bo‘shliqlar, xususan, pensiyaga chiqqan xodimlar farzandlariga ta’lim yo‘nalishida tavsiyanoma berish kabi masalalarda huquqiy nomuvofiqliklar mavjud. Shu sababli, bu mavzuning o‘rganilish dolzarbligi yuqori bo‘lib, huquqiy takomillashtirishni talab etadi.

Tadqiqot metodologik jihatdan normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda huquqiy monitoring usullariga asoslanadi. Asosiy manba sifatida O‘zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar — “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun (2016-yil 16-sentabr), Prezidentning PQ–3413-son qarori (2017-yil 29-noyabr), PQ–118-son qarori (2022-yil 8-fevral), Vazirlar Mahkamasining 354-son qarori (2022-yil 4-iyul) hamda Ichki ishlar vazirining 404-son buyrug‘i (2022-yil 1-oktabr) tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot doirasida Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi va Janubiy Koreya tajribalarida qo‘llanilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari o‘rganilib, ularning o‘zbek tizimi bilan qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

NATIJALAR. O‘zbekiston ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimi davlat tomonidan mustahkam huquqiy asoslar bilan kafolatlangan bo‘lib, u xodimlarning sog‘lig‘ini saqlash, mehnatiga munosib haq to‘lash, uy-joy bilan ta’minlash, mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash, pensiya va sug‘urta ta’minoti, shuningdek ijtimoiy yordam mexanizmlarini qamrab oladi. Mazkur tizim ichki ishlar organlari faoliyatining barqarorligini, xodimlarning kasbiy xavfsizligini va ularning ijtimoiy barqaror hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 354-son qaroriga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlari hamda ularning oila a’zolari tibbiy-ijtimoiy yordam, sanatoriy va kurortlarda sog‘lomlashtirish, moddiy yordam, transportdan imtiyozli foydalanish kabi kafolatlarga ega. Shu bilan birga, davlat tomonidan xodimlarni uy-joy bilan ta’minlash, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash, bolalari uchun dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlariga yo‘llanmalar ajratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xizmat burchini bajarish jarayonida halok bo‘lgan yoki nogiron bo‘lib qolgan xodimlarning oila a’zolariga bir martalik nafaqa to‘lash tizimi ham ularning ijtimoiy himoyasining muhim kafolatidir.

MUHOKAMA. So‘nggi yillarda “E-ijtimoiy-himoya.iiv.uz” elektron portali orqali xodimlar murojaatlarini onlayn shaklda ko‘rib chiqish mexanizmi joriy etildi. Bu esa raqamli boshqaruv tamoyillarining ichki ishlar tizimiga integratsiyalashuvi, byurokratik to‘siqlarning qisqarishi hamda shaffoflikning oshishiga xizmat qilmoqda. Mazkur raqamli mexanizm nafaqat xodimlarning huquqiy xabardorligini oshiradi, balki ularning ijtimoiy ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini ham yaratadi.

Shunga qaramay, tizimda ayrim huquqiy va institutsional cheklovlar saqlanib qolgan. Jumladan, oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun tavsiyanoma olish huquqi faqat faol xizmatdagi yoki xizmat davomida halok bo‘lgan xodimlarning farzandlariga beriladi, pensiyaga chiqqan xodimlarning farzandlari esa ushbu imtiyozdan chetda qoladi. Bu holat “ijtimoiy adolat” tamoyiliga muvofiq emas va xizmat yillarida

fidokorona mehnat qilgan xodimlarning oilaviy manfaatlarini cheklaydi. Shu sababli, kelgusida tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish orqali pensiyaga chiqqan xodimlarning farzandlariga ham ushbu imtiyozni taqdim etish zarur.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi va Janubiy Koreyada ichki ishlar tizimi xodimlari uchun “professional reabilitatsiya va stressni kamaytirish markazlari” faoliyat yuritadi. Bu markazlar xizmat davomida stress, ruhiy zo‘riqish va posttravmatik holatlarning oldini olishga qaratilgan. O‘zbekiston sharoitida ham bunday markazlarni tashkil etish, xodimlarning psixologik tayyorgarligini mustahkamlash hamda ularni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish zarur. Bunday amaliyot inson kapitalini asrash, xizmat samaradorligini oshirish va ichki ishlar organlari nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimi institutsional jihatdan shakllangan bo‘lsa-da, uni yanada takomillashtirish, xorijiy ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish hamda raqamli boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu yo‘nalishdagi islohotlar xodimlarning kasbiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashga bevosita xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimi izchil takomillashib, huquqiy-me’yoriy asoslar bilan mustahkamlanmoqda. Amaldagi qonun va qarorlar xodimlarning hayoti, sog‘lig‘i, oila a’zolari va farzandlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning kasbiy faolligini rag‘batlantirmoqda. Shu bilan birga, ayrim me’yoriy hujjatlarda pensiyaga chiqqan xodimlar oilalari, xususan farzandlari uchun ta’lim sohasidagi imtiyozlar yetarli darajada aks etmagan. Bu holat “ijtimoiy adolat” tamoyiliga mos emasligi bois, mavjud huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqish zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xodimlarning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlash maqsadida psixologik va reabilitatsion yordam tizimini yo‘lga qo‘yish, xorijiy ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish, shuningdek “E-ijtimoiy-himoya.iiv.uz” platformasining imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, raqamli boshqaruv tamoyillarini rivojlantirish hamda huquqiy kafolatlarni kengaytirish orqali tizimni yanada samarali, insonparvar va xalq manfaatiga xizmat qiluvchi professional tuzilma sifatida mustahkamlash mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 16-sentabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 38-son (746). – https://lex.uz/acts/-3027843
2. “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom. 2022-yil 4-iyul. – https://lex.uz/docs/6093393
3. “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ–3413-son, 2017-yil 29-noyabr. – https://lex.uz/docs/3430641
4. “Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. PF–5005-son, 2017-yil 10-aprel.
5. “Ichki ishlar organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan majburiy tarzda foydalanganlik natijasida qilingan xarajatlar yoki yetkazilgan zarar, shuningdek transport vositasining egasiga yetkazilgan mulkiy zararning o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.” 2017-yil 24-aprel. – https://lex.uz/docs/3183571

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 17:177

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SAQLASH VA INTERNETNING IJTIMOIY XAVFLARI

G'aniyev Elbek Abdizoitovich, Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti



https://orcid.org//0009-0004-0819-0299
e-mail: elbekganiev9@gmail.com

PRESERVATION OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE INFORMATION SOCIETY AND THE SOCIAL DANGERS OF THE INTERNET

Ganiev Elbek Abdizoitovich, Master's student of the Samarkand State Pedagogical Institute

СОХРАНЕНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ОПАСНОСТИ ИНТЕРНЕТА

Ганиев Эльбек Абдизоитович, магистрант Самаркандского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborotlashgan zamonaviy jamiyat sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli internet g'oyalari va ularning ijtimoiy oqibatlariga oid mulohazalar ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, inson ongiga va hissiyotlariga ta'sir qiluvchi emotsional manipulyatsiyalar orqali tarqaladigan salbiy tasvirlar va behayo lavhalarning ommalashuvi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-madaniy muammolar atroflicha ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Axborot, jamiyat, ma'naviyat, axloq, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, genotsid, "ommaviy madaniyat", turli xil tahdidlar.*

Abstract: *This article presents a scientific analysis of various internet ideas and their social consequences, which negatively impact spiritual and moral values in the modern information society. It also examines in detail the sociocultural problems arising from the popularization of negative images and obscene images, disseminated through emotional manipulation that impacts human consciousness and emotions.*

Keywords: *information, society, spirituality, morality, religious extremism, terrorism, drug addiction, human trafficking, illegal migration, genocide, "mass culture", various threats.*

Аннотация: *В статье представлен научный анализ различных интернет-идей и их социальных последствий, негативно влияющих на духовно-нравственные ценности в условиях современного информационного общества. Также подробно рассматриваются социокультурные проблемы, возникающие в результате популяризации негативных образов и непристойных изображений, распространяемых посредством эмоциональных манипуляций, воздействующих на сознание и эмоции человека.*

Ключевые слова: *информация, общество, духовность, нравственность, религиозный экстремизм, терроризм, наркомания, торговля людьми, нелегальная миграция, геноцид, "массовая культура", различные угрозы.*

Kirish. Uzoq tarixiy rivojlanish jarayonlari shuni ko‘rsatadiki, insoniyat doimiy ravishda yashayotgan muhitni, jamiyatni va ma’naviy-axloqiy hayotni rivojlantirishga intilib kelgan. Shu bilan birga, har bir inson o‘zini va atrofidagi odamlarni o‘zgartirish, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash uchun yangi va dolzarb axborotlarga muhtojdir. Axborot insonning bilim olish jarayoni, qaror qabul qilishi, tafakkurini rivojlantirishi va hayotiy tajriba orttirishi uchun zaruriy resurs sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy hayotda bu ehtiyojni qondirish maqsadida doimiy yangilanib turuvchi, ishonchli va sifatli axborot manbalari mavjud bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, jamiyatning ma’naviy-axloqiy hayoti doimiy ravishda o‘zgaruvchan tabiatga ega bo‘lib, turli ijobiy va salbiy oqibatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ma’naviyat va axloq qadriyatlari inson ongini shakllantirishda, shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorni tartibga solishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi[1]. Ayniqsa bugungi axborotlashgan zamonaviy davrda, axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari inson ongiga va jamiyatning ma’naviy-axloqiy tuzilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, axborotning tezkorligi va keng tarqalish imkoniyati, ijobiy ma’lumotlarni yetkazish bilan bir qatorda, salbiy, manipulyativ yoki zararli axborotning ham keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, ma’naviyat va axloq jamiyat rivojida har bir davrda bo‘lgani kabi muhim vosita sifatida qolmoqda, biroq ularni himoya qilish, targ‘ib qilish va to‘g‘ri shakllantirish bugungi kunda yanada dolzarb masala sifatida ko‘rinmoqda.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Axborot rivojlanishining turli bosqichlarini o‘rganib chiqqan olimlar axborotning jamiyat hayotida muhim funksional ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, axborot nafaqat insonlar orasidagi muloqot va bilim almashish vositasi, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishida ham asosiy rolni bajaradi[2]. Ba’zi tadqiqotchilar esa axborotni tabiatdagi va jamiyatdagi mavjud hodisalar, jarayon va narsalarning xususiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi sifatida tavsiflaydilar. Shu nuqtayi nazardan, axborot insonning dunyoqarashi, tafakkuri va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omil hisoblanadi. Ushbu mavzuda ilmiy ishlar olib borgan olimlar safida B.Axlibininskiy, L.Bajenov, B.Biryukov, K.Morozov, I.Novik, L.Petrushenko, A.Ursul, O.Fayzullayev, M. Abdullaeva, R. Imomalieva, I.Saifnazarov, S.Sanginov, B.To‘rayev, B.Karimov, G.G‘affarova, E.Izzetova, A.Tulepov, M.Yoqubova, F.Usmonov, Muhammad Amin Yahyo va boshqa mutaxassislar mavjud[3].

Shuningdek, axborotlashish va axborotlashtirish jarayonlarini tadqiq qilgan bir qator xorijiy olimlarni ham alohida qayd etish muhimdir. Masalan, D.Bell, O.Toffler, M.Castells, U.Rostou, P.Draker, J.Gelbreyt, V.Inozemtsev, F.Uebster, A.Chernov, R.Abdeev, I.Melyukhin kabi mutaxassislar jamiyatning axborotlashishi jarayonlariga katta e’tibor qaratganlar. Ular “axborotlashgan jamiyat” va “postindustrial jamiyat” tushunchalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, axborotning ijtimoiy, madaniy va falsafiy ahamiyatini chuqur o‘rganishga intilganlar[4]. Shu tariqa, ular axborotni nafaqat texnologik vosita, balki insoniyat ma’naviy va intellektual taraqqiyoti, shuningdek jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim vosita sifatida baholashgan.

Tahlil va natijalar. Insonlar va jamiyat hayotida axborot, ma’naviyat va axloqning o‘zaro bog‘liqligini tushunish muhim ahamiyatga ega. Ma’naviyat va axloq inson xulqi hamda jamiyat qadriyatlarining asosiy manbai bo‘lib, u olinayotgan yoki tarqatilayotgan axborot bilan chambarchas bog‘liqdir. OAV orqali uzatilayotgan axborot inson ongi va hissiyotlariga ikki asosiy model orqali ta’sir ko‘rsatadi:

Ratsional model – demokratiya va huquqiy qonun-qoidalar asosida shakllangan davlatlarda insonlar axborot orqali ishontiriladi. Bu jarayonda dalillar, mantiqiy izohlar va insonning tabiiy ehtiyojlari bilan huquqiy qoidalar uyg‘unligi ta’kidlanadi. Ushbu usul davlat va jamiyat tomonidan tan olinadi va insoniy-huquqiy hamda ma’naviy-axloqiy mezonlar sifatida qabul qilinadi[5].

Hissiy ta’sir modeli – psixologik ishontirishga asoslangan bo‘lib, fanatizm, ijtimoiy-siyosiy raqiblarga yoki boshqa millat va xalq vakillariga nisbatan ishonchsizlik, nafrat va g‘azab

uyg‘otish uchun ishlatiladi. Bu model ko‘pincha mantiqiy dalil va isbotlardan kuchliroq ta’sir qilishi mumkin. Asosan avtoritar va totalitar tizimlar, shuningdek etnografik propagandadan keng foydalangan holda qo‘llanadi. Hissiy ta’sir ayniqsa yoshlar ongi va xatti-harakatlarini shakllantirishda samarali bo‘ladi[6].

Axborotning jamiyat siyosiy ongiga ta’siri uch asosiy model orqali ko‘rinadi: minimal ta’sir, maksimal ta’sir va teskari ta’sir modellari. Shu model-usullarning ta’siri ostida jamiyatdagi fuqarolar turli xatti-harakatlar namoyon etadi. Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda siyosiy axborotlarni yaratish va tarqatishda OAVning auditoriyasi va ularning siyosiy ongga ta’siri e’tiborga olinadi. Jamiyat hayotining barcha bosqichlarida milliy va diniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy mezonlar ishlab chiqilgan va ular faol qo‘llanilgan. Axborot har doim jamiyat rivojlanishida zarur vosita bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababli axborot olish va uni o‘zlashtirish inson hayoti uchun muhim ehtiyoj hisoblanadi[7]. Axborot, ma’naviyat va axloq bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir: axborot inson va jamiyatning ma’naviy-axloqiy hayotini boyitadi va uni ijobiy yoki salbiy yo‘nalishda o‘zgartiradi.

Jamiyat ijtimoiy turmush tarzini rivojlantirishda axborotga tayanadi. Tarqatilayotgan axborotlar zamirida axloq asosiy vosita sifatida xizmat qilishi, axloqsizlik esa jamoat ongida salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim. Axborot “atrofdagi turli manbalardan to‘plangan va qayta bayon etiladigan omillar” sifatida tushuniladi. Inson jamiyatda ma’naviyat va axloq mohiyatini bilmasdan uni tushunishi mumkin emas. Anglab olingan axloq keyingi bosqichda tushunish va ko‘nikma hosil qilish jarayoniga o‘tadi. Axloqiy mezonlar muvozanatli tushunilgach, inson to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qaror chiqaradi va shu orqali bilim va tajriba orttiradi. Olingan bilimlar hayotiy ehtiyoj, orzu-intilishlarga mos kelsa, ularni amalda qo‘llash istagi yuzaga keladi. Axborot zamirida bilim, tajriba, din, qadriyatlar, ilm-fan va texnologiyalar yuksaladi[8].

Axloq epistemologik nuqtayi nazardan objektiv mazmun va ma’noga ega bo‘lib, haqiqiylikni tushunishga yordam beradi. Ma’naviy-axloqiy jarayonlar to‘g‘ri anglangan va tanlangan holda faollikka tatbiq etilganda, ular subyektiv mohiyatga ega bo‘ladi. Asoslanmagan axloqiy qadriyatlar bilan ijobiy natijaga erishib bo‘lmaydi. Ichki ixtiyor va ongli ijobiy harakatga asoslangan axloq esa foydali va samarali bo‘ladi, shunda ma’naviyat va axloq uyg‘unlashadi. Jamiyatda axborotni erkinlashtirish va o‘zaro senzura tizimini shakllantirish davlat va jamiyat o‘rtasida iliq munosabatlarni yaratadi, odamlarning ijodiy va fikriy rivojlanishiga imkon beradi. Axborot tarqatish jarayoni axloqiy mezonlar asosida amalga oshiriladi va uning ta’siri ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin[9].

Bugungi kunda axborotning uzluksiz oshishi jamiyatda inson ongiga va qalbiga ta’sir qiluvchi ma’naviy-axloqiy muammolarni asosiy mavzuga aylantirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hayot jarayonlariga ta’sir qilib, axborot olish va axloqiy munosabatlarni to‘g‘ri shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan axborot jamiyat va insoniyat ma’naviy-axloqiy tuzilmasini rivojlantiradi yoki tanazzulga olib boradi. Misol uchun, OAV va internetdagi materiallar insonlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga mos tushishi yoki tushmasligi mumkin. Shuning uchun axborot tarqatish va qabul qilish jarayoni jamoat fikrini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega[10].

Inson ijtimoiy hayot tarzi asosida axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi, mavjud qadriyatlarni amalga oshirishni ta’minlaydi va harakatga keltiradi. Axborot yetishmasligi, ya’ni “sezgi deprivatsiyasi” esa inson psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tarqatilayotgan axborotdan tashkilot va muassasalar zarur ma’lumot sifatida foydalanishi mumkin.

Xulosa. Hozirgi kunda insoniyat axborotlashgan jamiyatda yashayapti. Axborotga bo‘lgan talab kundan-kunga ortmoqda va bu jarayon jamiyat rivojida muhim o‘rin egallaydi. Ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahrir qilish va uzatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa zamonaviy ilm-fan yutuqlari va texnologiyalarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Axborot va tafakkur inson hayotidagi eng muhim boyliklardan biri hisoblanadi. Ma’lumotlar orqali inson o‘z intellekti va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishi, o‘zini va jamiyatni boyitishga xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, axborotni to‘g‘ri va mas’uliyatli qo‘llash orqali katta

iqtisodiy va intellektual yutuqlarga erishish mumkin. Bu jarayonda Ilon Mask, Jeff Bezos, Bill Geyts va boshqa texnologik korxonalar asoschilari axborot va sun'iy intellekt orqali milliardlab mablag'ga erishganlari bunga misol bo'ladi.

Hozirgi kunda bu masala nafaqat shaxslar, balki butun jamiyat uchun ham jiddiy tahdid hisoblanadi. Diniy va ma'naviy qadriyatlar orqali insonlarning axloqiy tarbiyasi mustahkamlanishi, oilada va jamiyatda odob-axloq qoidalari targ'ib qilinishi zarur. Farzandlarni internetning zararli ta'sirlaridan himoya qilish, ularning ma'naviy va axloqiy rivojiga e'tibor qaratish har bir ota-ona, murabbiy va jamoatchilikning mas'uliyati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot asrida inson ongi va axloqi ustuvor ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar va internetdan foydalanish imkoniyatlari keng bo'lsa-da, ulardan ma'naviy va axloqiy jihatdan to'g'ri foydalanish, yoshlarni va jamiyatni salbiy ta'sirlardan himoya qilish har bir shaxs va oila uchun asosiy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bell, D. (1973). The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. New York: Basic Books.
2. Castells, M. (1996). The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers.
3. Toffler, A. (1980). The Third Wave. New York: William Morrow and Company.
4. Fayzullayev,O. (2018). Axborot jamiyatining rivojlanishi va uning ijtimoiy oqibatlari. Toshkent: Fan.
5. Imomaliyeva, R. (2020). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ma'naviy-axloqiy muammolar. Toshkent: Universitet Nashriyoti.
6. Saifnazarov, I. (2019). Internet va yoshlar: ijtimoiy xavflar va tarbiyaviy masalalar. Toshkent: Ilmiy Nashriyot.
7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
8. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 5-5.
9. Ризаев И.И. Механизмы самоорганизации социальных систем //Экономика и социум. – 2019. – №. 3 (58). – С. 368-371.
10. Усмонов Ф.Н. Рациональность и традиция в развитии науки //Инновации в технологиях и образовании. – 2016. – С. 349-353.
11. Аллаярова М., Нурматова У. Некоторые вопросы формирования эстетического отношения человека к природе //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – №. 3-4. – С. 137-140.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 101.9

MARKAZIY OSIYO UYG‘ONISH DAVRIDA QADRIYATLAR VA SHAXS MA’NAVIY KAMOLOTI MASALASI

Ismatullayeva Feruza Sadullayevna, Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

THE QUESTION OF VALUES AND PERSONAL SPIRITUAL MATURITY IN THE ERA OF THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

Ismatullayeva Feruza Sadullayevna, master’s student of the Samarkand State Pedagogical Institute

ВОПРОС О ЦЕННОСТЯХ И ЛИЧНОСТНОЙ ДУХОВНОЙ ЗРЕЛОСТИ В ЭПОХУ ЦЕНТРАЛЬ - НОАЗИАТСКОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Исматуллаева Феруза Садуллаевна, магистрант Самаркандского государственного педагогического института



https://orcid.org/orcid.org/0009-0004-7919-1168
e-mail: ismatullayevaferuza6@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Markaziy Osiyo uyg‘onish davrida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning shaxs kamoloti jarayonidagi o‘rni falsafiy va tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘rta asr Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi asosida inson kamoloti, ma’naviy yetuklik va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi yoritiladi. Ayniqsa, ilm-ma’rifatga intilish, komil inson g‘oyasi, adolat, ezgulik va ma’rifatparvarlik kabi qadriyatlarning jamiyat taraqqiyoti hamda shaxs ma’naviy shakllanishidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo uyg‘onish davrining ijtimoiy-madaniy muhitida shakllangan g‘oyalar bugungi kunda yosh avlodning ma’naviy tarbiyasini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Uyg‘onish davri, Markaziy Osiyo, ma’naviy qadriyatlar, shaxs kamoloti, komil inson, ma’rifat, axloqiy tarbiya, falsafiy meros.*

Abstract: *This article analyzes the role of spiritual and moral values in the formation of personal development during the Renaissance period in Central Asia from a historical and philosophical perspective. The study examines the relationship between human perfection, moral values, and spiritual maturity based on the scientific and philosophical heritage of medieval Eastern thinkers. Particular attention is given to the importance of values such as the pursuit of knowledge, the concept of the perfect human being, justice, goodness, and enlightenment in shaping both social development and the spiritual formation of individuals. The article also emphasizes that the intellectual and cultural ideas formed during the Central Asian Renaissance can serve as an important methodological basis for the development of spiritual and moral education among the younger generation today.*

Keywords: *Central Asian Renaissance, spiritual values, personal development, perfect human being, enlightenment, moral education, philosophical heritage.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль духовно-нравственных ценностей в формировании личности в период Центральноазиатского Возрождения. Исследование основано на*

философском и историческом анализе научного и духовного наследия средневековых восточных мыслителей. Особое внимание уделяется взаимосвязи между духовным совершенством личности, нравственными ценностями и идеей "совершенного человека". В статье раскрывается значение таких ценностей, как стремление к знаниям, справедливость, гуманизм и просвещение, в процессе формирования духовного облика личности и общественного развития. Также обосновывается, что идеи, сформированные в эпоху Центральноазиатского Возрождения, могут служить важной методологической основой для духовно-нравственного воспитания современной молодежи.

Ключевые слова: *Центральноазиатское Возрождение, духовные ценности, развитие личности, совершенный человек, просвещение, нравственное воспитание, философское наследие.*

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyoti markazlaridan biri sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin egallab keladi. Ayniqsa IX–XII hamda XIV–XV asrlar oralig'ida yuz bergan ilmiy-madaniy yuksalish davri ko'pincha Markaziy Osiyo uyg'onish davri sifatida talqin qilinadi. Bu davrda ilm-fan, falsafa, adabiyot, san'at va ta'lim tizimi sezilarli darajada rivojlanib, insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy barkamolligi va intellektual yetukligi masalalari mutafakkirlar ijodida markaziy o'rin egalladi. Ushbu tarixiy jarayon nafaqat ilmiy yutuqlar bilan, balki jamiyat hayotida ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar bilan ham ajralib turadi.

Markaziy Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlari insonni borliqning eng oliy mavjudoti sifatida talqin qilib, uning ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning asarlarida bilim, axloq, adolat, ezgulik, komillik va ma'rifat kabi qadriyatlar shaxs shakllanishining asosiy omillari sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan mazkur davrda shakllangan falsafiy qarashlar shaxs ma'naviy borlig'ini tushunish va uni rivojlantirishning muhim nazariy asoslarini yaratdi. Uyg'onish davri ilmiy merosida insonni komillikka yetaklovchi asosiy omil sifatida ilm-ma'rifat, axloqiy tarbiya hamda jamiyat oldidagi mas'uliyat g'oyalari ilgari surilgan[1].

Bugungi globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda shaxs ma'naviy kamoloti masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda yosh avlodning ma'naviy tarbiyasini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlarining inson, jamiyat va qadriyatlar haqidagi qarashlarini o'rganish nafaqat tarixiy-falsafiy jihatdan, balki amaliy-tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Markaziy Osiyo uyg'onish davrida shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va shaxs kamoloti masalasi ko'plab tarixiy, falsafiy hamda madaniy tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalish sifatida o'rganib kelinmoqda[2]. Mazkur muammo Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ham, zamonaviy tadqiqotchilar ishlarida ham alohida o'rin tutadi. Avvalo, o'rta asr Sharq tafakkurida inson kamoloti, axloqiy yetuklik va ma'naviy barkamollik masalalari chuqur tahlil qilinganini ta'kidlash zarur. Markaziy Osiyo ilmiy-madaniy uyg'onish davrida yashab ijod qilgan mutafakkirlar ilm-fan, axloq va ma'rifatni inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin qilganlar.

Sharq falsafiy tafakkurida inson va uning ma'naviy kamoloti muammosini izchil yoritgan mutafakkirlar qatorida Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib hamda Alisher Navoiy alohida o'rin egallaydi[3]. Ularning asarlarida komil inson g'oyasi, axloqiy poklik, bilimga intilish va jamiyat farovonligi uchun xizmat qilish kabi qadriyatlar shaxs ma'naviy kamolotining muhim sharti sifatida talqin etilgan. Masalan, Abu Nasr al-Farobiy o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida insonning baxt-saodatga erishishi jamiyatdagi axloqiy muhit va ilm-ma'rifat bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Abu Ali ibn Sino esa inson kamolotini aql, axloq va ruhiy poklanish jarayonlari bilan izohlaydi. Abu Rayhon Beruniy ilmiy bilish jarayonini inson tafakkurining eng muhim fazilati sifatida ko'rsatib, bilim va axloqning uyg'unligini insoniyat taraqqiyotining asosi sifatida baholaydi[4].

Markaziy Osiyo uyg'onish davriga oid ilmiy tadqiqotlar zamonaviy tarixchilar va faylasuflar tomonidan ham keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda mintaqaning ilmiy-madaniy

taraqqiyoti, mutafakkirlarning ilmiy merosi hamda ularning inson va jamiyat haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, shaxs ma’naviy kamolotining tarixiy ildizlari, qadriyatlar tizimi va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni masalalari ko‘plab ilmiy ishlarda yoritilgan. Bu tadqiqotlar Markaziy Osiyo uyg‘onish davrining nafaqat ilmiy yutuqlar davri, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlar shakllangan muhim tarixiy bosqich ekanini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo uyg‘onish davri tarixiy jarayonlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda shakllangan ilmiy va madaniy muhit inson shaxsining ma’naviy kamolotini ta’minlashga qaratilgan g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. IX–XII hamda XIV–XV asrlarda mintaqada ilm-fan, ta’lim, adabiyot va falsafa rivojlanishi natijasida shaxsning intellektual va ma’naviy yetukligi jamiyat taraqqiyotining muhim mezoni sifatida qarala boshladi. Bu jarayon ilmiy tafakkur va axloqiy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi bilan xarakterlanadi. Natijada bilim, adolat, ezgulik, komillik va ma’rifatparvarlik kabi qadriyatlar shaxs kamolotining asosiy mezonlariga aylandi[5].

Tarixiy manbalar va mutafakkirlar merosini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo uyg‘onish davrida insonning ma’naviy kamoloti jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti sifatida talqin qilingan. Masalan, Abu Nasr al-Farobiy o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatning ideal modelini “fazilatli jamiyat” konsepsiyasi orqali asoslab beradi. Uning fikricha, bunday jamiyatning asosiy maqsadi insonni baxt-saodatga yetkazish bo‘lib, bu jarayon ilm-ma’rifat va axloqiy fazilatlar orqali amalga oshadi. Demak, shaxsning ma’naviy kamoloti jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida ko‘riladi[6].

Inson kamoloti va ma’naviy barkamollik masalasi Abu Ali ibn Sino falsafasida ham muhim o‘rin tutadi. Uning qarashlariga ko‘ra, insonning komillikka erishishi aql va ruhiy poklanish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, bilim olish va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish orqali amalga oshadi[7]. Ibn Sino insonni nafaqat biologik mavjudot, balki ruhiy va ma’naviy jihatdan takomillashuvchi mavjudot sifatida talqin qiladi. Bu esa uyg‘onish davri tafakkurida shaxs kamolotining ko‘p qirrali mazmunga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ilmiy tafakkur va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligi masalasi Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham muhim o‘rin egallaydi[8]. U ilmiy bilishni inson tafakkurining eng muhim fazilati sifatida baholab, ilm-fan taraqqiyoti jamiyatning ma’naviy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Beruniy ilmiy haqiqatga intilish, tafakkur erkinligi va bilishga bo‘lgan ehtiyojni insoniyat taraqqiyotining muhim qadriyati sifatida talqin etadi[9].

Markaziy Osiyo uyg‘onish davrida adabiy va axloqiy meros ham shaxs ma’naviy kamolotini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida davlat boshqaruvi, adolat, axloqiy poklik va donishmandlik kabi qadriyatlar inson kamolotining muhim mezonlari sifatida talqin qilinadi[10]. Asarda shaxsning jamiyatdagi o‘rni, uning axloqiy mas’uliyati va adolatli faoliyati davlat barqarorligi va jamiyat farovonligining asosiy omili sifatida ko‘rsatib beriladi.

Xulosa. Markaziy Osiyo uyg‘onish davri tarixiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinganda, bu davr nafaqat ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan, balki inson shaxsining ma’naviy kamolotini ta’minlashga qaratilgan qadriyatlar tizimi shakllangan davr sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgani aniqlanadi. Mazkur davr mutafakkirlari ilm-ma’rifat, axloqiy poklik, adolat, insonparvarlik va komillik g‘oyalarini inson hayotining asosiy maqsadi sifatida talqin qilib, shaxs kamolotini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda izohlab berganlar.

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan ilmiy manbalar va tarixiy-falsafiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo uyg‘onish davrida shakllangan qadriyatlar tizimi insonning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-ma’naviy omil bo‘lgan. Mutafakkirlarning ilmiy merosida shaxsning komillikka erishishi bilim olish, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish hamda jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglash orqali amalga oshishi ta’kidlangan. Shu ma’noda, ma’naviy qadriyatlar insonning ichki dunyosini boyituvchi, uning ijtimoiy faolligi va ma’naviy yetukligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida Markaziy Osiyo uyg‘onish davrida shakllangan ilmiy va ma’naviy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi aniqlandi. Ushbu davr mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan komil inson g‘oyasi, ilm-ma’rifatga intilish, axloqiy poklik va insonparvarlik kabi qadriyatlar zamonaviy jamiyatda shaxs ma’naviy kamolotini rivojlantirishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr al-Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2011.
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2014.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
6. Ibrohim Mo‘minov. Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2013.
7. G‘aniyev E. Yoshlarda axloqiy inqiroz kuchayishida ommaviy axborot vositalarining roli //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – T. 5. – №. 5. – C. 245-248.
8. Nurmatova U.J. Philosophical And Epistemological Essence Of Reading A Book //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 145-152.
9. Ризаев И.И. Развитие социальных систем: Методологические решения //устойчивое развитие: геополитическая трансформация и национальные приоритеты. – 2023. – С. 263-270.
10. Usmonov F. Modern Science and Ethics: Scientific Humanism Based on Responsibility //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2025. – T. 43. – C. 163-167.
11. Tavmuradov J. Mirzo Bedilning falsafiy va tasavvufiy g‘oyalarini shakllanishida adabiyot, til va uslub masalalari //acta nuuz. – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 196-198.
12. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and. – 2025.
13. Nurmatova U. J. Methods and approaches to studying reading categories //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 8. – C. 249-257.
14. Tursunova O. Alisher Navoiy merosida yuridik aktlarga oid huquqiy terminlar //Oriental universiteti O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi. – 2024. – C. 298.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.011

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING ILMIY MEROSI VA TA’LIM TIZIMI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Samadova Sarvinoz Samad qizi, Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY’S SCHOLARLY HERITAGE AND HIS CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM

Samadova Sarvinoz Samad kizi, Bukhara State University, Associate Professor of the Department of Social and Political Sciences, p.f.f.d. (PhD)

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И ЕГО ВКЛАД В РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Самадова Сарвиноз Самад кызы, доцент кафедры “Социально-политические науки” Бухарского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)



https://orcid.org /0000-0002-1486-8340
e-mail: sarvinoz56646@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada XX asrda Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy merosi va ta’lim tizimi rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan. Behbudiyning maqsadi xalqni ma’rifatli qilish va ularni dunyoning yuksak rivojlangan xalqlari darajasiga olib chiqish, har tomonlama rivojlangan jamiyat, insonparvarlik va demokratiyaning mustahkam tamoyillariga asoslangan davlat qurish edi. Maqolada Behbudiy merosida ilm-ma’rifat, axloqning yoshlar ma’naviy rivojlanishiga ta’siri masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, “Usuli jadid”, “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy”, “Muntahabi jug‘rofiyai umumiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Tarixi islom”, “Padarkush” dramasi.*

Annotation: *The article analyzes the scientific legacy of Mahmudkhoja Behbudi, one of the prominent leaders of the national awakening movement that emerged in Turkestan in the 20th century, as well as his contribution to the development of the education system. Behbudiy’s goal was to enlighten the nation and bring it to the level of the world’s highly developed nations, to build a fully advanced society, and a state based on the solid principles of humanism and democracy. The article highlights the issues of knowledge, education, and the impact of ethics on the spiritual development of youth in Behbudiy’s legacy.*

Keywords: *Mahmudkhoja Behbudiy, “Usuli jadid,” “Risolai asbobi savod,” “Risolai jug‘rofiyai umroniy,” “Muntahabi jug‘rofiyai umumiy,” “Kitobat ul-atfol,” “Amaliyoti islom,” “Tarixi islom,” “Padarkush” drama.*

Аннотация: *В статье проанализированы научное наследие просветителя Махмудходжи Бехбуди — одного из выдающихся руководителей национально-освободительного движения, возникшего в Туркестане в XX веке, а также его вклад в развитие системы образования. Целью Бехбуди было просвещать народ и вывести его на уровень высокоразвитых народов мира, создать всесторонне развитое общество и государство, основанное на прочных принципах гуманизма и*

демократии. В статье освещены вопросы знания, просвещения и влияния нравственности на духовное развитие молодёжи в наследии Бехбуди.

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбуди, "Усули джадид", "Рисолаи асбоби савод", "Рисолаи жугрофияи умроний", "Мунтахаби жугрофияи умуми", "Китобат ул-атфол", "Амалиёти ислом", "Тарихи ислом", драма "Падаркуш".*

KIRISH. Mahmudxoja Behbudiy Turkiston jadidlari otasi, jadidchilikning yana bir yorqin vakilidir. Jadidshunos Begali Qosimovning ta'kidlashicha: "Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkiston orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarda faol qatnashgan yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nashriyotchisi va amalyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi"[4.217]. Ma'lumki, Buxoro uyg'onishi tashabbuskorlaridan Ahmad Donish, Samarqand jadidchilarining boshlig'i Mahmudxo'ja Behbudiy va diniy jadidchilarning yetakchisi Munavvar Qori edi. Ismoil Gaspirali jadidchilik asoschisi sifatida qabul qilinsa, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda bu harakatning yetakchisi sifatida yodga olinadi. Davrning atoqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev "O'sha davrda Turkiston jadidchilaridan hech kim siyosiy, ijtimoiy va boshqa masalalardagi bilimi jihatidan unga teng kela olmas edi", deb yozadi[1.27].

NATIJA VA MUHOKAMA. Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo'lib qolmay, balki o'lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko'rsatdi. U Istanbul, Ufa, Qrim, Qozon, Orenburg kabi shaharlarni ko'rdi va bildi, "yangi usul maktabi"ni turkistonliklar orasida birinchilar qatori amalda qo'lladi. 1905-yilda Behbudiy tomonidan tashkil etilgan maktab Samarqand shahri yaqinidagi Kaptarxona qishlog'ida edi. Tajriba sifatidagi bu maktabning shaharda emas, balki qishloqda ochilishining boisi bor edi. Chunki shaharda ushbu usulda o'qitishga qarshi chiquvchilar hukumat tomonidan ham, mahalliy aholi tomonidan ham juda ko'p edi. Behbudiy boshda shogirdlarga oddiy o'quv-yozuvni o'rgatgan bo'lsa, keyin "Haftiyak"ni o'rgatishga kirishadi. Ushbu "Haftiyak"ni o'qitish jarayonida Behbudiyda yangi fikr paydo bo'ladi. Endi u o'z o'quv dasturiga sistemali suratda arab tilini o'qitishni kiritadi. Bundan tashqari, maktabda arifmetika, geografiya va shu kabi dunyoviy fanlar ham o'qitilar edi.

Bu maktab ochiq havoda bo'lib, oddiy partalar qo'yilgan joydan iborat bo'lgan. Shogirdlar soni 40talar atrofida bo'lib, 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar edi. Maktab ta'limida ahamiyatli jihat muallimlik mas'uliyati. Behbudiy muallimlar haqida: "Ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasalardur, agarda o'shal maktab va madrasa muallim va mudarrislari olim bo'lsa va shogirdlarig'a ko'ngli ila ta'lim bersa, albatta ilm hosil qilur" [1.142]deya fikr bildiradi.

Behbudiy qobiliyatli, yaxshi xulq-atvorli bolalarni hatto, chet ellarga o'qishni davom ettirishga yuborishni ham mo'ljallagan. Shundaylardan biri, usuli jadid shogirdi A.Azimiy edi. U o'z xotiralarida Behbudiyning uni Turkiyaga o'qishga yuborishga homiy bo'lganligini yozadi: "Siz menim ko'rsatmalarimdek Istanbuldagi Boyazit talabalar jamiyatig'a boringiz. Mening va Gaspirinskiy afandining salom va maktubini u yerga etkazingiz", deydi Behbudiy mehribonlarcha va uning tahsili uchun mablag' yuborib turajagini aytib, uni kuzatib qo'yadi. Behbudiyning bunday shogirdlri ancha bo'lgan. Behbudiyning ma'rifat yo'lidagi xizmatlaridan yana biri xalq orasida ziyo tarqatmoq uchun tashkil etgan kutubxonasi edi. Behbudiy birinchi bo'lib Samarqandda musulmon kutubxonasini tashkil etish fikrini ahli ilm, ulamolar oldiga qo'yadi va bu yo'lda ularni hamjihatlikka chaqiradi. O'sha davrda bir qancha vaqt faoliyat ko'rsatib, ancha mashhur bo'lgan ushbu kutubxona haqida davrning etakchi nashri sanalgan "Turkiston viloyatining gazeti"da xabarlar berib borilgan.

Behbudiy millatning taraqqiyotida, eng avvalo, yoshlar tarbiyasiga e'tibor berar ekan, ularning ma'rifiy, madaniy, siyosiy jihatdan yuksalishiga ham yo'lboshchilik qildi. Jumladan, 1910-yilda "Buxoro nashri maorifi" to'garagini tuzishda faollik ko'rsatadi. Keyinchalik bu to'garak "Yosh buxoroliklar" nomi bilan mashhur

bo‘lgan. 1916-1919-yillarda Behbudiy Turkistonni mustamlakachilikdan qutqarish siyosatida ham faollik ko‘rsatadi. U Turkiston maorifini rivojlantirish, yangi maktablar ochish, joylarda saxovatpesha, taraqqiyparvar kishilar tomonidan ta’sis etilayotgan bilim o‘choqlarini ko‘paytirish uchun targ‘ib-tashviq ishlarini kuchaytirdi. Gazeta va jurnal sahifalarida maorif masalasi muntazam ravishda yoritilib, Turkistonning qaysi viloyati, kenti, tumani bo‘lmasin, u yerdagi yangi usul maktablarining rivoji, taraqqiyoti uchun jon kuydirdi. Bundan tashqari, yangi usul maktabi yaratishni ko‘ngliga tugib, bu xayrli ishni boshlamoqchi bo‘layotganlardan o‘z bilimini, maslahatlarini ayamadi.

M.Behbudiy maktab-maorif rivojida tashviqot yo‘lini tutar ekan, Turkistonda, qolaversa dunyoda ma’rifat yo‘lida qilinayotgan sa’y-harakatlardan xabardor bo‘lib bordi va ulardan o‘z o‘rnida ilmu ma’rifat tashviqoti yo‘lida foydalandi. Bu esa targ‘ibotning eng qulay, qisqa va lo‘nda usullaridan biri edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Usuli jadid” maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. “Muntahbai jo‘g‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy jug‘rofiya”), “Kitobatul-atfol” (“Bolalar maktubi”), “Muhtarasi tarixi islom” (“Islomning qisqacha tarixi”), “Matxali jo‘g‘rofi umroniy” (“Aholi jug‘rofiyasiga kirish”), “Muhtarasi jo‘g‘rofiyai rusiy” (“Rossiyaning qisqacha jug‘rofiyasi”), “Amaliyoti islom” va hokazo kitoblari darslik sifatida o‘qitilgandi.

Ta’lim tizimini dunyoviy fanlar predmetlarini kiritgan holda qaytadan isloh qilish, jadidchilikning bosh maqsadlaridan biri bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ehtiyoji millat”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar” maqolalarida bu maqsadning tashviqoti yotadi: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”[2.35], -deydi Mahmudxo‘ja Behbudiy.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yilda “Samarqand” gazetasini va “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. U nashriyot va o‘z nomi bilan ataluvchi kutubxona tashkil etadi. Gazeta va jurnalda millat va ana yurt dardi, xalqni ma’rifatli qilish, erkinligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan dolzarb maqolalar chop etilardi. Ular Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha borib yetgan[6.74].

XULOSA o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiy uchun milliy g‘oya-millatni taraqqiyotga olib chiqish g‘oyasi edi. Bugunda ma’rifarparvar jadidlarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma’naviy ma’rifatini, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va milliy ongni yuksaltirish yo‘lida xizmat qilib, yoshlar qalbida vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma’rifatparvar jadidlarning nomlari tiklanib, tavvallud kunlari tantanali nishonlandi, ularning pok nomi oqlandi, asarlari qayta-qayta chop etildi. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma’naviy qadriyatlar sifatida hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Risola.–T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Fayzulla Xo‘jayev. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. Toshkent: Fan nashriyoti, 1997.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.1999.
4. Samadova S.S. The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan”// Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1. 2025.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish jasorat, ma’rifat, fidoiylik.T.: Ma’naviyat. 2022.
6. Usmonov, Q.Sodiqov, M.O‘zbekiston tarixi. -Toshkent: Iqtisod moliya nashriyoti, 2016.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.11.74

O‘QUV JARAYONIDA KOGNITIV MODELLASHTIRISH USULIDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI VA IMKONIYATLARI

Axmedova Shaxlo Shoxob qizi, Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

THE ESSENCE AND POSSIBILITIES OF USING THE COGNITIVE MODELING METHOD IN THE LEARNING PROCESS

Akhmedova Shakhlo Shokhob kizi, basic doctoral student at Karshi State University

СУТЬ И ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА КОГНИТИВНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Ахмедова Шахло Шохоб кизи, аспирантка Каршинского государственного университета

https://orcid.org/0009-0003-7502-7929

e-mail: shaxloaxmedova498@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola zamonaviy ilm-fanning universal tadqiqot usullaridan biri bo‘lgan kognitiv modellashtirish haqida bo‘lib, unda kognitiv modellashtirish usulidan o‘quv jarayonida foydalanishning mohiyati va imkoniyatlari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv model, nazariy vosita, modellashtirish, tasavvur, obyekt, ilm-fan, tafakkur, kreativ, subyekt, sabab-oqibatlar, o‘quvchi, intellektual.*

Annotation: *This article is about cognitive modeling, one of the universal research methods of modern science, and discusses the essence and possibilities of using the cognitive modeling method in the educational process.*

Key words: *cognitive model, theoretical tool, modeling, imagination, object, science, thinking, creative, subject, cause and effect, student, intellectual.*

Аннотация: *Данная статья посвящена когнитивному моделированию, одному из универсальных методов исследования современной науки, и рассматривает сущность и возможности применения метода когнитивного моделирования в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *когнитивная модель, теоретический инструмент, моделирование, воображение, объект, наука, мышление, творчество, субъект, причина и следствие, студент, интеллектуал.*

KIRISH (INTRODUCTION/ВВЕДЕНИЕ)

Bugungi kunda kognitiv modellashtirish zamonaviy ilm-fanning universal tadqiqot usuli sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kognitiv modellashtirish inson tafakkuri va kognitiv mexanizmlarining - idrok, xotira, fikrlash jarayonlari va qaror qabul qilish jarayonlarining rasmiylashtirilgan abstraksiyasi hisoblanadi. Bu murakkab va noaniq tizimlarda (masalan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik) inson idroki, talqini va harakatini o‘rganish, tahlil qilish va modellashtirish imkonini beradi. Kognitiv modellar tizim va uning imkoniyati haqidagi tuzilgan bilimlar to‘plamini ifodalaydi. U tushunchalarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini, sabab-oqibat munosabatlarini va nazariy qoidalarni yagona konseptual asosga birlashtiradi. Bunday model sub’yektiv qarashlar, cheklangan bilim, to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar va kutilmagan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va

boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada, inson tasavvurining ichki tuzilishini qayta tiklaydigan nazariy vosita sifatida kognitiv model murakkab tizimlarning dinamikasini tushunish, prognoz qilish va samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish uchun metodologik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shu sababli falsafiy tahlillar kognitiv modellashtirishning zamonaviy fan tizimidagi o‘rni va vazifalarini ochib berib, uning tuzilmasi bir vaqtning o‘zida ratsional tahlil, intuitiv anglash va kreativ tasavvurni uyg‘unlashtiruvchi ko‘pqirrali jarayon ekanini ko‘rsatadi. Shu ma’noda modellashtirish real jarayonlarni nafaqat qayta tiklaydi, balki ularni yangi formalarda tasavvur qilish, alternativ ssenariylar yaratish va intellektual eksperiment o‘tkazish imkonini beradi.

Natijada modellashtirish zamonaviy ilmiy faoliyatda innovatsion fikrlashni rag‘batlantiradigan, murakkab tizimlarni tushunishga yo‘naltirilgan va kreativ tasavvurni faol ishga soluvchi metodologik platforma sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (MATERIALS AND METODS/ ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ)

Bilish nazariyasida modellashtirish muammosi holatining tahlili A.A. Gorelov, N.N. Mamedov, I.B. Novik ishlarida keltirilgan. A.V. Slavin ishlarida yangi bilimlarni yaratish vositasi sifatida kognitiv modellashtirish tahlili o‘tkazildi, bilimni modeldan obyektga o‘tkazish muammosi muhokama qilindi, ya’ni so‘zning keng ma’nosida “modellashtirish” tushunchasi bevosita bilish jarayoni bilan tenglashtiriladi. B.A.Glinskiy, O.Y.Baksanskiy, B.S.Gryaznov va Y.P.Nikitin tadqiqotlarida modellashtirishning falsafiy va gnoseologik mazmuni chuqur tahlil etilib, uning qiymatini yangi ilmiy bilim yaratishning samarali mexanizmi sifatida asoslab beradi. Ularning yondashuvlari modellashtirishni voqelikni oddiy texnik aks ettirish emas, balki tafakkurning ijodiy konstruktori, ya’ni ilmiy muammoni yangi nuqtai nazardan ko‘rishga imkoniyati bor intellektual vosita sifatida talqin qiladi.

Fanda keng ma’noda model (lot. modulus – o‘lchov, namuna, me’yor) odatda analog, asl nusxaning ma’lum sharoitlarda tadqiqotchini qiziqtirgan xususiyatlarini qayta tiklaydigan “o‘rnini bosuvchi” (voqelikning fragmenti) sifatida tushuniladi [2].

“Model” atamasi ko‘p ma’nolidir. Lug‘atlarda sakkiztagacha turli ma’nolar berilgan bo‘lib, ulardan ikkitasi ilmiy adabiyotlarda eng ko‘p uchraydi:

a) obyektning analogi sifatidagi model;

b) namuna sifatidagi model.

Kognitiv model “potensial bilimlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, inson uni o‘rganish orqali o‘zlashtirishi, ko‘rgazmali qilishi va amaliy hayot ehtiyojlarida foydalanishi mumkin”. Shu maqsadlar uchun fanlarning o‘zi doirasida tahlilning maxsus usullari ishlab chiqilgan. Aynan shu model tavsifining oldindan aytish qobiliyatini belgilaydi” [4].

Y.A.Tixomirov ishida “kognitiv modellashtirish boshqariladigan tizimga xos bo‘lgan voqealar jarayoni va rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko‘rish, turli omillar ta’sirini hisobga olgan holda uning mavjud bo‘lish shartlarini aniqlashtirish va ishlash rejimini belgilash, jarayonlarni prognoz qilish, boshqariladigan tizimga ta’sir qilishning eng yaxshi usulini topish imkonini beradi” deb ta’kidlangan.

Y.N.Stepanov kognitiv modellashtirishni “tizimning mohiyati, eng muhim xususiyatlari va komponentlarini model tasvirlarida adekvat va yaxlit aks ettirish, uning avvalgi, hozirgi va bo‘lajak holati, tuzilishi, ishlashi va rivojlanishi imkoniyatlari va shartlari haqida ma’lumot olish imkonini beruvchi biluv-boshqaruv faoliyati usuli” deb tushunadi [1].

Y.M.Plotinskiyning ta’kidlashicha, model “birinchi navbatda modellashtiriladigan kognitiv jarayonni boshqarishga qaratilgan konseptual vosita bo‘lib, unda oldindan aytish va prognozlash funksiyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruv maqsadlariga xizmat qiladi”. Ushbu ta’rif kognitiv modellashtirish mohiyati bilan bevosita uyg‘unlashadi. Chunki kognitiv modellashtirish faqat tashqi jarayonlar tuzilmasini emas, balki sub’yekt tafakkuridagi bilish mexanizmlarini, qaror qabul qilish logikasini va murakkab vaziyatlar haqidagi ichki tasavvurlarni ham modellashtiradi.

MUHOKAMA/DISCUSSION/ОБСУЖДЕНИЕ

Kognitiv modelashtirish o‘quvchilarda o‘quv jarayonini ongli ravishda idrok etish va uni samarali harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon orqali o‘quvchi o‘zini faol ishtirokchi

sifatida anglaydi, muammoli holatlarga mustaqil yondoshish, vaziyatni tahlil qilish va unga mos yechim rejalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu jarayonning mohiyati kognitiv modellashtirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u o‘quvchining tafakkurida bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni qayta tuzish, sabab-oqibatlarni anglash va qaror qabul qilishning ichki kognitiv mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [5].

Kognitiv modellashtirishda o‘quvchi turli fanlardan olgan bilimlarini sintez qiladi, ularni yangi ma’noda qayta tashkil qiladi va o‘z intellektual manzarasini kengaytiradi. Bu esa uning kreativ tasavvurini faollashtirib, murakkab masalalarni turli alternativ yechimlar orqali ko‘ra olish, yangi g‘oyalar yaratish va vaziyatga innovatsion yondashish salohiyatini oshiradi. Chunki, kognitiv modellashtirishning asosiy maqsadi - o‘quvchining psixologik-pedagogik bilimlariga tayangan holda amaliy fikrlash, tahlil qilish, bashoratlash va ijodiy yechim topish kompetensiyalarini shakllantirishdir. Shu bilan birga kognitiv modellashtirish o‘quv jarayonini yanada chuqurlashtirib, o‘quvchining intellektual faoliyatini faollashtiradi, uning ijodkorligini oshiradi va o‘quv jarayoniga yangi, samarali strategiyalarni joriy etishga zamin yaratadi.

NATIJALAR (RESULTS/РЕЗУЛЬТАТЫ)

L.M.Fridman ta’kidlaganidek, modellashtirish muammoli vaziyatni shakllantirish jarayonida ham, uni hal etish bosqichida ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa algoritmik bo‘lmagan, ya’ni tayyor qadamlar tizimiga bo‘ysunmaydigan kreativ vazifalarni hal qilishda modellashtirish murakkabliklarni yengib o‘tishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [3].

Bunday qiyinchiliklar ko‘p hollarda psixologik tabiatga ega bo‘lib, ijodiy vazifaning o‘ziga xos murakkabligi, shartlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni to‘liq anglash zarurati, ma’lum va noma’lum elementlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq tasavvur qilish talablari bilan bog‘liqdir. Kognitiv nuqtai nazardan, bu jarayon o‘quvchidan ichki bilim strukturalarini qayta tashkil etish, vaziyat haqidagi tasavvurni to‘liq rekonstruksiya qilish va miyada yangi ma’noli bog‘lanishlar barpo etishni talab qiladi.

Aynan shu jihatdan modellashtirishda yordamchi kognitiv modellar- sxemalar, chizmalar, kreativ strukturalar, simvolik tasvirlar va boshqa vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu modellar o‘quvchining fikrlash faoliyatini vizual va mantiqiy qo‘llab-quvvatlab, muammoning mohiyatini yaxshiroq tushunish va uning yechimiga kreativ yondashish imkonini yaratadi.

Yechimni izlash jarayoni ham, topilgan yechimning o‘zi ham, odatda, shu yordamchi modellarga tayanadi. Bu esa kognitiv modellashtirishning asosiy xususiyati - inson ongidagi fikrlash jarayonlarini tartibga solish, yaxlit manzara hosil qilish va kreativ yechimlarni shakllantirish - bilan to‘la mos keladi.

XULOSA (CONCLUSION/ЗАКЛЮЧЕНИЕ)

Kognitiv modellashtirish nuqtai nazaridan bunday modellar o'quvchining ongida ta’lim jarayoni haqidagi bilimlar tizimini qayta qurishga, asosiy elementlar o'rtasidagi bog'lanishlarni yaxlit va tizimli idrok etishga xizmat qiladi. Model turining xilma-xilligi esa uni amalga oshirishdagi vositalar, shart-sharoitlar va o'rganilayotgan obyektlar xususiyati bilan belginadi. Bu holat kognitiv modelning eng muhim jihatlaridan biri - vaziyatni turlicha talqin qilish, ma'lumotlar o'rtasida yangi bog'lanishlar kashf etish va kreativ tasavvur yordamida alternativ manzaralar yaratish imkoniyatini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Stepanov Y.N. Kognitivnoe modelirovanie: metodologiya i primenenie. – M.: Nauka, 1983. – 256 s.

2. Glinskiy B.A. Metodologicheskie problemy modelirovaniya. – M.: Nauka, 1965. – 248 s.

3. Fridman L.M. Psikhologiya myshleniya. – M.: Nauka, 1977. – 312 s.

4. Glinskiy B.A., Gryaznov B.S., Gorbunov G.I., Nikiforov G.V. Modelirovanie kak metod nauchnogo poznaniya. Moskva: MGU nashriyoti, 1965.

5. Axmedov D. Kognitiv jarayonlar tushunchasi va ularning ta’limdagi roli. — Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2025.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1(09;2) 793

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’RIFATPARVARLIK QARASHLARINING SHAKLLANISHI OMILLARI

Yuldashev Askarjon Abdugappar o‘g‘li,
Toshkent fan va texnologiyalar universiteti Kechki ta’lim bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari



e-mail:
asqarbek.yuldashev07@gmail.com

FACTORS IN THE FORMATION OF MAHMUDHOJA BEHBUDIY'S ENLIGHTENMENTAL VIEWS

Yuldashev Askarjon Abdugappar o‘g‘li,
Deputy Head of the Evening Education Department, Tashkent University of Science and Technology

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ВЗГЛЯДОВ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

Юлдашев Аскаржон Абдугаппар оглы,
заместитель руководителя вечернего отделения Ташкентского университета науки и технологий

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy muhitining xususiyatlari, jadidchilik harakatining shakllanish jarayoni hamda Sharq va G‘arb ma’rifiy an’analari ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Behbudiyning pedagogik, publitsistik va ijtimoiy faoliyati orqali ilgari surilgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Behbudiyning ma’rifatparvarlik qarashlari milliy uyg‘onish jarayonlari, zamonaviy ta’lim g‘oyalari va jadidchilik mafkurasining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllangan.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, Turkiston, yangi usul maktablari, pedagogik g‘oyalar, jadid matbuoti.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the main historical, social and cultural factors that influenced the formation of the enlightened views of Mahmudkhodja Behbudi, a major representative of the Turkestan Jadid movement. The study examines the characteristics of the socio-political environment of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, the process of the formation of the Jadid movement, and the influence of the Eastern and Western enlightened traditions. It also analyzes the enlightened ideas put forward by Behbudi through his pedagogical, journalistic and social activities. The results of the study show that Behbudi's enlightened views were formed on the basis of the processes of national awakening, modern educational ideas and the integration of Jadid ideology.*

Key words: *Mahmudkhodja Behbudiy, Jadidism, Enlightenment, national revival, Turkestan, new method schools, pedagogical ideas, Jadid press.*

Аннотация: *В данной статье проводится научный анализ основных историко-социальных и культурных факторов, повлиявших на формирование просвещенных взглядов Махмудходжи Бехбуди, одного из главных представителей туркестанского джадидского движения. Исследование рассматривает особенности социально-политической среды Туркестана конца XIX и начала XX*

веков, процесс формирования джадидского движения и влияние восточных и западных просвещенных традиций. Также анализируются просвещенные идеи, выдвинутые Бехбуди в ходе его педагогической, журналистской и общественной деятельности. Результаты исследования показывают, что просвещенные взгляды Бехбуди формировались на основе процессов национального пробуждения, современных педагогических идей и интеграции джадидской идеологии.

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, Просвещение, национальное возрождение, Туркестан, школы нового метода, педагогические идеи, джадидская пресса.*

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan siyosiy va madaniy jarayonlar milliy uyg‘onish g‘oyalarining shakllanishiga kuchli turtki berdi. Bu davrda mahalliy ziyolilar jamiyatni isloh qilishning asosiy yo‘li sifatida ta’lim, ma’rifat va madaniy taraqqiyotni ko‘ra boshladilar. Jadidchilik harakati ana shu jarayonning mahsuli bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalqni jaholatdan chiqarish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va milliy ongni rivojlantirishdan iborat edi. Mazkur harakatning yirik vakillaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat pedagog va publitsist, balki milliy uyg‘onish g‘oyalarining faol targ‘ibotchisi sifatida tanilgan. Behbudiy o‘zining pedagogik faoliyati, matbuotdagi chiqishlari va ijtimoiy tashabbuslari orqali xalqni ilm-ma’rifatga chaqirgan. Uning ma’rifatparvarlik qarashlari turli tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan bo‘lib, mazkur omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlarining shakllanishida Turkistonning XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi siyosiy sharoiti muhim rol o‘ynagan. Bu davrda mintaqa Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi natijasida mustamlaka tizimiga tortilgan edi. Mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi orqali Yevropa ilm-fani va madaniyati elementlari Turkistonga kirib kelishi mahalliy ziyolilar dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, jadidchilik harakati aynan ana shu tarixiy sharoit natijasida shakllangan [1]. Behbudiy ham jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’limni ko‘rdi va xalqni ilm-ma’rifat orqali taraqqiyotga yetaklash zarurligini ta’kidladi.

Behbudiyning ma’rifatparvarlik qarashlari shakllanishida Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi muhim o‘rin tutadi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy hamda Abu Ali ibn Sino kabi allomalar ilm va ma’rifatning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida muhim g‘oyalarni ilgari surganlar. Forobiy ilmni inson kamolotining asosiy omili sifatida baholagan bo‘lsa, Ibn Sino ilm va axloqiy barkamollik uyg‘unligini ta’kidlagan. Behbudiy ushbu an’anani davom ettirib, jamiyat rivojlanishining asosiy sharti sifatida savodxonlik va zamonaviy bilimlarni egallash zarurligini ilgari surgan. Behbudiy qarashlarining shakllanishida jadidchilik harakati muhim rol o‘ynadi. Jadidlar eski ta’lim tizimini tanqid qilib, yangi usuldagi maktablarni joriy etish tarafdori bo‘lganlar [2]. Bu harakatning yirik namoyandalaridan biri Ismoil Gaspirali bo‘lib, u “usuli jadid” maktablarini tashkil etish orqali ta’lim tizimini modernizatsiya qilish g‘oyasini ilgari surgan. Shuningdek, Turkiston jadidchilik harakatining boshqa vakillari Abdulla Avloniy va Munavvar qori Abdurashidxonov ham yangi usul maktablarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaganlar. Behbudiy ana shu harakatning faol vakili sifatida ta’limni isloh qilish, yangi darsliklar yaratish va pedagogik metodlarni takomillashtirish bilan shug‘ullangan. Behbudiy faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri milliy matbuotni rivojlantirish edi. U tashkil etgan Samarqand gazetasi va Oyina jurnali orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritib, xalqni ma’rifatga chorlagan. Behbudiyning publitsistik faoliyati uning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilishga xizmat qildi. U o‘z maqolalarida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy ongni rivojlantirish va jamiyatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish zarurligini ta’kidlagan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Tadqiqot jarayonida Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlarining shakllanishiga ta’sir etgan omillar kompleks ravishda tahlil qilindi va quyidagi ilmiy natijalar aniqlandi.

Birinchidan, Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlarining shakllanishi Turkiston hududidagi murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mintaqaning Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishi natijasida mustamlaka tizimiga tortilishi mahalliy ziyolilarni milliy taraqqiyotning yangi yo‘llarini izlashga undagan. Ushbu sharoitda ma’rifat va ta’lim jamiyatni yangilashning asosiy vositasi sifatida qarala boshlagan. Behbudiy ham ana shu jarayon ta’sirida ta’lim tizimini isloh qilish g‘oyasini ilgari surgan [3].

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Behbudiy dunyoqarashining shakllanishida Sharq ilmiy-falsafiy merosi muhim o‘rin egallagan. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy hamda Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlarning ilm, ma’rifat va inson kamoloti haqidagi g‘oyalari Behbudiyning pedagogik qarashlari shakllanishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Behbudiy bu an’anani davom ettirib, ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilgan.

Uchinchidan, jadidchilik harakati Behbudiy faoliyati va ma’rifiy qarashlarining shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lganligi aniqlandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilish, ta’lim tizimini yangilash va milliy ongni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-ma’rifiy harakat edi. Bu jarayonda Ismoil Gaspirali tomonidan ilgari surilgan yangi usul maktablari g‘oyasi muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilgan. Behbudiy ham jadid maktablari faoliyatini rivojlantirish, zamonaviy fanlarni ta’lim jarayoniga kiritish va pedagogik metodlarni takomillashtirishga katta e’tibor qaratgan.

To‘rtinchidan, Behbudiy ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanishida milliy matbuotning o‘rni muhim ekanligi aniqlangan. Uning tashkilotchiligida nashr etilgan Samarqand gazetasi hamda Oyina jurnali orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar yoritilgan, ta’limni isloh qilish zarurati asoslab berilgan hamda milliy ongni shakllantirishga qaratilgan g‘oyalar targ‘ib qilingan. Bu nashrlar Turkiston jamiyatida ma’rifiy fikrlarning keng yoyilishiga xizmat qilgan.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlarining faqat nazariy g‘oyalar bilan cheklanib qolmaganini, balki amaliy pedagogik faoliyat bilan uyg‘un holda rivojlanganini ko‘rsatadi. U yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish va matbuot faoliyatini rivojlantirish orqali ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga intilgan. Natijada Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi ma’rifatparvarlaridan biri sifatida shakllangan. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlari tarixiy sharoit, Sharq ilmiy merosi, jadidchilik harakati va milliy matbuot rivoji kabi omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan. Ushbu omillar Behbudiy faoliyatining pedagogik, ijtimoiy va madaniy yo‘nalishlarini belgilab bergan hamda uning ma’rifiy g‘oyalarini Turkiston jamiyatida keng tarqalishiga zamin yaratgan [4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlari Turkiston jamiyatining tarixiy rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. O‘rganilgan manbalar va ilmiy tadqiqotlar Behbudiy faoliyatini faqat pedagogik yoki adabiy faoliyat bilan cheklab bo‘lmasligini, balki uni keng qamrovli ijtimoiy-ma’rifiy harakat — jadidchilik doirasida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Behbudiy qarashlari milliy uyg‘onish davri tafakkurining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar natijasini muhokama qilish jarayonida bir qator olimlarning fikrlari bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Xususan, jadidchilik tarixini chuqur o‘rgangan tadqiqotchi Adeeb Khalid o‘z tadqiqotlarida jadidchilikni musulmon jamiyatining madaniy islohoti sifatida baholaydi [5]. Uning fikricha, jadidlar jamiyat taraqqiyotini ta’minlash uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yangi pedagogik metodlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratgan. Ushbu yondashuv Behbudiyning pedagogik qarashlari bilan

hamohang bo‘lib, uning faoliyatida ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rish g‘oyasi ustuvor bo‘lganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, o‘zbek jadidchilik harakati tadqiqotchisi Begali Qosimov jadidchilikni milliy uyg‘onish jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Uning fikricha, jadid ziyolilari milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni qayta baholash va zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish orqali jamiyatni yangilashga intilganlar. Bu jarayon Behbudiy faoliyatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. U Sharq ilmiy an’analarini saqlagan holda G‘arb ilm-fani va pedagogik tajribasidan foydalanishni zarur deb hisoblagan. Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlari Sharq va G‘arb pedagogik an’analari sinteziga asoslangan. Sharq mutafakkirlari, jumladan Abu Nasr Forobiy hamda Abu Ali ibn Sino ilmni inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin qilgan bo‘lsa, jadid ma’rifatparvarlari ushbu g‘oyalarni zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilganlar. Behbudiy ham ushbu an’anani davom ettirib, ilm, ma’rifat va axloqiy tarbiyaning uyg‘unligini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko‘rsatgan. Shu bilan birga, Behbudiy faoliyatining yana bir muhim jihati uning matbuot orqali ma’rifiy g‘oyalarni targ‘ib qilganidir. U tomonidan tashkil etilgan Oyina jurnali va Samarqand gazetasi jadidchilik g‘oyalarini keng ommaga yetkazishda muhim platforma vazifasini bajargan. Mazkur nashrlar orqali ta’lim tizimini isloh qilish, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritish hamda milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari keng targ‘ib qilingan. Bundan tashqari, muhokama jarayonida Behbudiy qarashlarining zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan ham dolzarbligi aniqlanadi. Hozirgi davrda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasini rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Behbudiy ilgari surgan ta’limni yangilash, zamonaviy bilimlarni egallash va milliy ongni rivojlantirish g‘oyalari bugungi ta’lim tizimi uchun ham metodologik ahamiyatga ega. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlari jadidchilik harakatining umumiy g‘oyaviy asoslari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning shakllanishida tarixiy sharoit, madaniy meros va zamonaviy ilmiy g‘oyalar muhim rol o‘ynagan. Shu sababli Behbudiyning pedagogik va ma’rifiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda ham muhim ilmiy-metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlari bir qator tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan. Turkistonning mustamlaka sharoiti, Sharq mutafakkirlari merosi, jadidchilik harakati va milliy matbuot rivoji ushbu jarayonda muhim rol o‘ynagan. Behbudiy ma’rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, ta’limni modernizatsiya qilish va milliy ongni rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surdi. Uning pedagogik va ma’rifiy merosi bugungi kunda ham milliy ta’lim tizimi va pedagogik tafakkur rivojida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
2. Karimov N. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Fan, 2002.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1999.
4. Abdurashidxonov M. Jadid maktablari va ta’lim islohoti. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 811.111'37:008+811.512.133'37:008

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "HAPPINESS" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Boymurotova Umida Ilhom qizi, Termez State Pedagogical Institute
4th-year Student of the Department of "Practical English"

"BAXT" KONSEPTINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LINGVOKULTURAVIY TAHLILI

Boymurotova Umida Ilhom qizi, Termiz davlat pedagogika instituti
"Amaliy Ingliz tili" kafedrasi 4-kurs talabasi

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА "СЧАСТЬЕ" В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Боймуротова Умида Илхом кызы, студент 4-го курса кафедры
"Практический английский язык" Термезского
государственного педагогического института



e-mail: normurotovilhom74@icloud.com
https://orcid.org/0009-0003-9170-7131

Annotation: *This article explores the concept of «happiness» in the Uzbek and English languages through a linguo cultural lens. The article investigates the semantic structures, cultural influences, and metaphorical representations that shape how happiness is perceived and articulated in each language. The findings reveal both universal themes and culturally specific nuances, enriching our understanding of cross-cultural conceptualization.*

Keywords: *Happiness, linguaculture, conceptual analysis, Uzbek, English, semantic field, cultural values.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada «baxt» konsepti ingliz va o'zbek tillarida lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada har ikki tilda baxt tushunchasining semantik tuzilmalari, madaniy ta'sirlari va metaforik ifodalari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ushbu tushunchaning umumiy va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib beradi hamda kross-madaniy konseptualizatsiyani chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *baxt, lingvomadaniyat, konseptual tahlil, o'zbek tili, ingliz tili, semantik maydon, madaniy qadriyatlar.*

Аннотация: *В статье рассматривается концепт «счастье» в узбекском и английском языках с лингвокультурной точки зрения. Анализируются семантические структуры, культурные влияния и метафорические представления, формирующие восприятие и выражение счастья в каждом из языков. Полученные результаты выявляют как универсальные элементы, так и культурно специфические особенности, расширяя понимание кросс-культурной концептуализации.*

Ключевые слова: *счастье, лингвокультура, концептуальный анализ, узбекский язык, английский язык, семантическое поле, культурные ценности.*

INTRODUCTION. Happiness is a universal human emotion, yet its expression and conceptualization are deeply influenced by language and culture. Linguoculture — the

interplay between linguistic and cultural phenomena — offers insight into how societies internalize and articulate abstract concepts such as happiness. This paper aims to examine how English and Uzbek speakers linguistically construct the idea of happiness, highlighting both similarities and differences. The concept of happiness holds a central place in human experience across all cultures. However, its linguistic expression and cultural interpretation can differ significantly between languages. This article seeks to explore how happiness is understood and expressed in the Uzbek and English languages. It is grounded in linguo cultural theory, which emphasizes the deep interconnection between language, thought, and cultural values. According to Anna Wierzbicka, language reflects cultural values, and key concepts like "happiness" are deeply embedded in the cultural worldview of a society.

MATERIALS AND METHODS. A number of renowned linguists and scholars have contributed to the theoretical underpinnings of conceptual and cultural linguistics. A.Wierzbicka emphasized the importance of universal semantic primitives and proposed that cultural values are deeply encoded in language. Her work supports the idea that concepts like «happiness» can be culturally loaded and interpreted differently across linguistic communities. Yu. S. Stepanov introduced the term «cultural constants» and emphasized that concepts are dynamic elements of cultural memory and linguistic expression. D.S. Likhachev distinguished between the "notion" and the "concept," proposing that concepts are infused with cultural, emotional, and associative layers, unlike abstract logical notions. V.A.Maslova developed a detailed framework for analyzing cultural concepts within cognitive linguistics, offering methods for exploring the axiological (value based) layer of meaning. S.G. Vorkachev, whose work specifically focuses on the linguocultural concept of *happiness,* viewed it as an axiological constant and proposed that such concepts reveal the mental and value systems of nations. In the Uzbek context, linguists such as A.A. Rustamov and Sh.S. Yuldasheva has studied language and culture interrelations, highlighting the unique conceptual structures embedded in Uzbek proverbs and phraseology. This article builds on these contributions by comparing the conceptual structures of "happiness" in English and Uzbek. It hypothesizes that while happiness is a shared human emotion, the surrounding linguistic and cultural frameworks reflect differing historical, spiritual, and societal values. By examining semantic fields, phraseological expressions, and metaphorical models, this study aims to uncover the underlying cultural logic embedded in each language's portrayal of happiness.The methods applied in this research include comparative analysis, semantic analysis, and contextual analysis. The comparative method allows for identifying similarities and differences in the representation of happiness across the two languages.

DISCUSSION. The term *concept* goes beyond mere definitions—it includes cognitive, emotional, and cultural dimensions. In both English and Uzbek, «happiness» or «*baxt*» involves more than personal joy—it includes success, peace, and moral satisfaction. In English, *happiness* is closely linked with personal achievement and emotional well-being. The central Uzbek lexeme *baxt* is complemented by related terms such as *saodat* (spiritual bliss), *farog'at* (comfort), and *shodlik* (joy). These words reflect not only emotions but also societal ideals such as prosperity and peace. In English, "happiness" is semantically linked with *joy*, *satisfaction, bliss,* and *contentment*. Unlike Uzbek, where happiness often connects to fate (*taqdir*) and fortune (*omad*), English leans toward psychological and emotional states. Uzbek: *"Baxtli hayot"* (happy life), *"Omad yor bo'lsin"* (may fortune be with you). English: *"Pursuit of happiness"*, *"State of bliss"* Phraseological units are powerful tools to trace cultural perceptions.

RESULTS. In Uzbek, expressions like *"baxt qushi"* (bird of happiness) and *"baxt sinash"* (test one's luck) portray happiness as something external and elusive, sometimes granted by fate. In English, phrases such as *"on cloud nine"* or *"happy as a clam"* indicate a more individual and situational joy. The differences reveal that in Uzbek, happiness is often intertwined with social and divine circumstances, whereas in English, it is typically internal and achievement-oriented. Uzbek metaphors often root happiness in balance and family. Happiness is tied to collectivism,

tranquility, and moral fulfillment. In contrast, English metaphors often involve motion and elevation (*"reaching for happiness," "high spirits"*), aligning with personal ambition and success.The study confirms key assumptions: The Uzbek concept of happiness emphasizes fate and societal harmony; English interpretations are more focused on individual emotion and self-realization; Metaphorical structures mirror these cultural paradigms. The analysis shows that the concept of "happiness" has both universal and culture-specific features in English and Uzbek. In English, happiness is mainly understood as an individual emotional state related to personal success and well-being, expressed through words like *joy* and *contentment*.In Uzbek, "baxt" is closely connected with social values, family, and destiny, reflected in expressions such as *"baxtli hayot"* and *"omad yor bo'lsin"*. Thus, while happiness is a universal concept, English emphasizes individualism, whereas Uzbek highlights collectivism and cultural values.

CONCLUSION. This comparative study has examined the linguocultural representations of happiness in English and Uzbek, revealing both shared conceptual patterns and distinctive cultural frameworks. By analyzing idiomatic expressions, proverbs, metaphors, and lexical semantics, the research has demonstrated how deeply rooted cultural values, belief systems, and worldviews are reflected in language when it comes to abstract emotional concepts such as happiness. Happiness, though universal in experience, differs greatly in its cultural and linguistic representation. Uzbek highlights communal values, fate, and spirituality, while English emphasizes personal success, emotional satisfaction, and autonomy. These distinctions are crucial for intercultural communication and translation. Understanding such differences enhances our appreciation of linguistic diversity and cultural depth. In conclusion, happiness is not merely a private emotion or psychological state. It is a culturally embedded phenomenon, a reflection of how people perceive life, success, and meaning within their communities. Further research could extend this analysis to other emotional concepts or include additional languages to explore universal and culture-specific elements in emotional linguistics.

REFERENCES:

1. Mirzayeva, Z.M. "Baxt" konseptining o'zbek tilidagi semantik-assosiativ xususiyatlari // Filologiya masalalari. – 2020. №2. – B. 45–53.
2. Rustamov, A.A. O'zbek tilida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning lingvomadaniy tavsifi. – Toshkent: Fan, 2010. – 212 b.
3. Xaydarova, G.N. O'zbek tilida xalq nutqidagi frazeologizmlar orqali "baxt" konseptining ifodalanishi. — Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – 145 b.
4. Yuldasheva, Sh.S. Konseptlar semantikasi va ularning lingvomadaniy xususiyatlari. — Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 190 b.
5. Вежбицкая А. Понимание культур через ключевые слова. – М.: Языки славянской культуры, 2001. — 512 с.
6. Воркачёв, С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – М.: Гнозис, 2004. — 254 с.
7. Зализняк, А.А. Счастье и удовольствие в узбекской языковой картине мира // Зализняк А.А., Левонтина И.Б., Шмелев А.Д. Ключевые идеи узбекской языковой картины мира: сб. статей. – М.: Языки славянской культуры, 2005. — С. 153–175.
8. Лихачёв, Д.С. Концептосфера русской культуры // Лихачёв Д.С. Избранные труды. — СПб.: ЛИК, 1997. – С. 280–295.
9. Маслова, В.А. Когнитивная лингвистика. — 3-е изд. – Минск: ТетраСистемс, 2005. — 256 с.
10. Потебня, А.А. Мысль и язык. — М.: Лабиринт, 1999. – 320 с.
11. Степанов, Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Школа Языки русской культуры, 1997. — 824 с.
12. Хумбольдт, В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс,1984.— 398 с.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 39:63:316:7

QORAQALPOQLARDA QISHLOQ XO‘JALIGI BILAN BOG‘LIQ JAMOAVIY YORDAM AN’ANALARI VA ULARNING IJTIMOIY FUNKSIYALARI

[1]Xojaniyazova Gulshana Muratbaevna,
Innovatsion texnologiyalar universiteti, “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)
[2]Seytbekova Qumar Ermaǵanbetova,
Innovatsion texnologiyalar universiteti, tarix iqtisosligi, 1-kurs talabasi



e-mail: gulshanx@internet.ru
https://orcid.org/0009-0006-0732-507X

TRADITIONS OF COLLECTIVE ASSISTANCE RELATED TO AGRICULTURE IN THE KARAKALPAKS AND THEIR SOCIAL FUNCTIONS.

[1]Khojaniyazova Gulshana Muratbayevna,
University of Innovative Technologies, Department of History and Social Sciences, Doctor of Philosophy in Historical Sciences, PhD
[2]Seytbekova Kumar Ermaganbetova,
University of Innovative Technologies, History, 1st year student



e-mail: qseytbekova@gmail.com

ТРАДИЦИИ КОЛЛЕКТИВНОЙ ПОМОЩИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ У КАРАКАЛПАКОВ И ИХ СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ

[1]Хожаниязова Гульшана Муратбаевна,
Университет инновационных технологий, кафедра “История и социальные науки” доктор философии (PhD) по историческим наукам
[2]Сейтбекова Кумар Эрмаганбетовна,
Университет инновационных технологий, специальность “История” студентка 1-го курса

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqining an’anaviy turmush tarzida muhim o‘rin tutgan qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq jamoaviy yordam an’analari hamda ularning ijtimoiy funksiyalari etnografik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda dehqonchilik, sug‘orish, hosil yig‘ish kabi xo‘jalik jarayonlarida keng qo‘llanilgan hashar, ko’mek, o‘zaro yordam, qarindosh-urug‘ va qo‘ni-qo‘shnichilik asosidagi hamkorlik shakllari ko‘rib chiqiladi. Ushbu an’analar nafaqat mehnatni tashkil etish usuli, balki jamiyatda birdamlikni mustahkamlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, yosh avlodni tarbiyalash va an’anaviy qadriyatlarni saqlashga xizmat qilgan ijtimoiy institut sifatida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *qoraqalpoqlar, qishloq xo‘jaligi, jamoaviy yordam, hashar, ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar, hamkorlik.*

Abstract: *This article analyzes, based on ethnographic sources, the traditions of collective assistance related to agriculture, which occupied an important place in the traditional way of life of the Karakalpak people, as well as their social functions. The study examines the forms of cooperation based on communal work, assistance, mutual assistance, kinship, and neighborliness, widely used in such economic processes*

as farming, irrigation, and harvesting. These traditions are illuminated not only as a method of labor organization, but also as a social institution that served to strengthen solidarity in society, regulate social relations, educate the younger generation, and preserve traditional values.
Key words: *Karakalpaks, agriculture, collective assistance, hashar, social relations, customs, cooperation.*
Аннотация: *В данной статье на основе этнографических источников анализируются традиции коллективной помощи в сельском хозяйстве, занимавшие важное место в традиционном укладе жизни каракалпакского народа, а также их социальные функции. В исследовании рассматриваются такие формы сотрудничества, как хашар, комек, взаимопомощь, а также кооперация на основе родственных и соседских связей, которые широко применялись в хозяйственных процессах, таких как земледелие, ирригация и сбор урожая. Эти традиции освещаются не только как способ организации труда, но и как социальный институт, служивший укреплению солидарности в обществе, регулированию социальных отношений, воспитанию молодого поколения и сохранению традиционных ценностей.*
Ключевые слова: *каракалпаки, сельское хозяйство, коллективная помощь, хашар, социальные отношения, обычаи, сотрудничество.*

Kirish. Qoraqalpoq xalqining an’anaviy turmush tarzida qishloq xo‘jaligi asosiy xo‘jalik tarmoqlaridan biri hisoblanib, u nafaqat iqtisodiy faoliyat shakli, balki ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro yordam va jamoaviy hamkorlik tizimining ham muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, dehqonchilik, chorvachilik, ekin ekish, hosil yig‘ish, uy-joy qurish, sug‘orish ishlari kabi mehnat jarayonlarida jamoaviy yordam an’analari keng tarqalgan bo‘lib, ular xalqning ko‘p asrlik tajribasi asosida shakllangan ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Qoraqalpoq xalqining an’anaviy turmush tarzida qishloq xo‘jaligi asosiy xo‘jalik tarmoqlaridan biri hisoblanib, u nafaqat iqtisodiy faoliyat shakli, balki ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro yordam va jamoaviy hamkorlik tizimining ham muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, dehqonchilik, chorvachilik, ekin ekish, hosil yig‘ish, uy-joy qurish, sug‘orish ishlari kabi mehnat jarayonlarida jamoaviy yordam an’analari keng tarqalgan bo‘lib, ular xalqning ko‘p asrlik tajribasi asosida shakllangan ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda aytish joizki qishloq xo‘jaligi-dagi dala, dala ishlarida amalga oshiriladigan *«ko‘mak»* asosan:

- erta bahorda ekish uchun yerni tayyorlash, yerni ag‘darish, shudgorlash, tozalash;

- dalalarni ekin turiga qarab taqsimlab, sel, dambalar qurish, tejamli sug‘orish uchun yerlarni ixchamlashtirish, kulcha dalalarni tayyorlash, yangi yerlarni o‘zlashtirish;

- ekishni boshlash, don sepish, mala bosish ishlari;

- ekinlarni yovvoyi o‘tlardan tozalash ishlari;

- kuzda dalani tozalash va yig‘im-terim, o‘rim-yig‘im ishlarida foydalanildi.

Mana shunday qishloq xo‘jalik ishlarini amalga oshirish, juda katta qo‘l kuchini talab qiladigan holat edi. Chunki ular dori sepishni, yerni ekishdan oldin sug‘orib, tekislab haydashni, ekinlar ko‘karib chiqqandan keyin o‘tlardan tozalashni talab qilar edi [5:196-198]. Chunki, qishloq xo‘jalik ishlarida yangi yerlarni ochish, shudgor ishlari, ariqlarning ommaviy ko‘mak natijasida tozalanishi, yangi irrigatsiya tarmoqlarining ochilishi - bularning barchasi katta kuch talab qiladigan og‘ir ish bo‘lganligi sababli, qishloq o‘rtasida o‘zaro yordam, ommaviy ko‘mak tashkil etilib, unga qishloq ahli jalb qilingan.

Adabiyotlar tahlili va metod. Ana shunday qishloq xo‘jalik ishlarini amalga oshirishda, qoraqalpoq dehqonlari tuproq, ob-havoning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib mehnat qurollarini takomillashtirib borishga harakat qilgan. Qishloq xo‘jaligining eng asosiy mehnat qurollari: «gúnde» *(omoch)*, «mala» *(mola)*, «ketpen» *(ketmon)*, «bel» *(belkurak)*, «jaba» *(panshaxa)* va «gúrek» *(kurak)* ekanligi qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida ham mehnat qurollarining turlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Masalan,

- Kuyovga chopon yarashar,
Dehqonga ketmon yarashar,
Bel bilan bolta o‘roqsiz,

TAMADDUN NURI

Kurak panshaxa yaroqsiz,
Gerdayib yurgan dehqonning,
Eshigini tepgan yarashar [6:160]

- deb ko‘rsatiladi. Bunda qoraqalpoq xalqining azaldan asosiy kasblaridan biri bo‘lgan dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi, dehqonchilikda asosan mehnat qurollaridan keng foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. T.A.Jdanko tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligida ko‘p ishlatiladigan mehnat vositasi «belkurak» haqida to‘xtalib o‘tadi. Amudaryoning quyi oqimida belkurak dalada va uyda keng qo‘llanilgan. Qoraqalpoq belkuraklari, xorazm o‘zbeklarining belkuraklari kabi qishloq xo‘jaligi ishlariga juda mos keladi [11:68] deb ko‘rsatsa, tadqiqotchi M.V.Sazonova mehnatida ko‘rsatilgan, xorazm o‘zbeklariga xos bo‘lgan bellar qoraqalpoq qishloq xo‘jaligida ko‘p tarqalgan: «Qazish paytida oyoqni qo‘llab-quvvatlash uchun konus shaklidagi, uchi o‘tkir, ikki tepkili quloqli temirdan yasalgan» [9:257] degan ta’rifni beradi. I.Jabborov tadqiqotlarida ham Xorazm o‘zbeklariga xos bo‘lgan belkuraklar M.V.Sazonova tomonidan ko‘rsatilganidek ta’riflanadi va u Surxondaryo vohasida bir tepkili quloqli belkuraklar mavjudligini ko‘rsatib beradi [4:1].

Ko‘rsatilgan bu oddiy mehnat qurollari qoraqalpoqlarning barcha dehqonlarida ham bo‘lmagan. Mehnat qutollarining boy dehqonlar qo‘lida to‘planishi ular uchun arzon mablag‘ni ta’minlagan bo‘lsa, kambag‘al va o‘rtahol dehqonlar ishlab chiqarish qurollarining juda tanqisligi tufayli yerga asosan qo‘lda ishlov bergan va ko‘proq mehnat sarflashga majbur bo‘lgan [11:66].

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, qishloq xo‘jaligida sug‘orish tarmoqlaridagi ko‘mak asosan:

- sug‘orish uchun maxsus kanallar, yirik ariqlarni qazish uchun ommaviy ko‘mak;
- arna, yom, ariq, o‘zan qazish, tozalash ishlaridagi qishloqlararo ko‘mak;
- suv yetib bormaydigan baland joylarda «shıǵır», «qol serippe» ishlarida qishloq ahli o‘rtasida ko‘plab ko‘mak aytish dasturga aylangan va bu holat ularni ijtimoiy tarafdan birlashtirgan. Lekin bugungi kunda bu ko‘mak turidan foydalanilmaydi. Sababi, zamonaviy texnikalarning rivojlanishi tufayli, bunday usuldagi ko‘makka ehtiyoj qolmagan.

XIX asr va XX asr boshlarida qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun yangi yoki «lálmikor» yerlarni o‘zlashtirish dehqonlar uchun katta kuch sarflashini talab qiladigan murakkab vazifa edi, sababi asosiy qurol ketmon va shudgor edi [11:53]. Dehqonchilikdagi bunday masalalar va qoraqalpoq dehqonlarining ekin yerlariga ishlov berish, sug‘orish ishlari juda katta jismoniy mehnatni talab qilinishini, chunki dehqonchilikda foydalaniladigan texnika nochor ekanligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan tilga olinadi [12:281].

Ba’zi tadqiqotchilarning tadqiqotlaridan esa xalq turmishidagi, sug‘orish tarmoqlaridagi maxsus qurilishlarga e’tibor beriladi, ular orasida xalq hayotida muhim o‘rin tutadigan to‘g‘onlar ekin maydonlari va aholi punktlarini suv toshqinlaridan himoya qilish uchun yaratilganligini [9:157] ko‘rsatadi. Albatta, shunday xalq hayoti uchun muhim bo‘lgan tadbirlar va qo‘l mehnatini talab qiladigan ishlar qishloq orasida o‘zaro yordam asosida amalga oshirilib kelingan.

XX asrda suv infratuzilmasi loyihalari sug‘orish tizimlarini kuchaytirib, suv resurslariga ko‘proq bosimni o‘tkazdi [8:6].

Zamonaviy islohotlar o‘sha davr qishloq xo‘jaligida o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Sug‘orish usullarini o‘zgartirish jarayoni hududning umumiy relefining o‘zgarish tarixi va suv toshqinini vujudga keltiruvchi kanallar rejimining o‘zgarishi bilan bog‘liq [3:92] bo‘ladi. 1920-1930 yillardagi agrar islohotlar, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish qishloqlarning tuzilishini, mehnatni tartibga solish tartibini tubdan o‘zgartirdi, tom ma’noda bir kechada shaxsiy mehnat faoliyatidan jamoatchilik xo‘jaligiga o‘tish amalga oshirildi [7:195]. Binobarin, bu o‘zgarishlarning amalga oshirilishi xalq orasidagi munosabatlarga hech qanday ta’sir ko‘rsatmadi. Axborotchi T.Reymovning esga olishi bo‘yicha: *«Qishloqda bir-birimizga ko‘mak berish uchun, birovning og‘rini yengil qilish uchun, kechki paytlari «otın kómek»ga tez-tez borar edik. O‘tin qishda ishlatish uchun juda zarur edi. O‘tinni Altinko‘ldan tashidik. Qishlog‘imizda «pishen kómek» yo‘q edi, lekin «júweri oraq» ko‘magi bor edi»* [ADY: Reymov] deb esga oldi.

Shumanay tumani qishloq xo‘jaligida jo‘xorining bo‘ydor, oq jo‘xori va «jasmıq» navi ekilgan. Bu jo‘xori turlari qishloq xo‘jaligida

hozirgi kunda ham dalaga ekiladi va «ko‘mak» asosida kuzda yig‘ib olinadi.

Demak, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zaro yordam dasturi odatda mehnat talab qiladigan ishlar – qishloq xo‘jaligi, sug‘orish, qurilish va boshqa ishlarni oshirishda qo‘llaniladi [2:261].

Qoraqalpoqlarda qishloq xo‘jaligi ishlari asosan birgalikda, o‘zaro yordam asosida amalga oshirilgan. Orolbo‘yi xalqlarining ko‘p asrlik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, irrigatsiya, sug‘orish tarmoqlaridan oqilona foydalanish tabiatni buzmaydi, balki qulay muhitni yaratadi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi. Faqat asossiz, iqtisodiy, ekologik va boshqa salbiy holatlar bugungi kunda «Orol ofatining» keng tushunchasini birlashtiradi [10:92]. Darhaqiqat, qoraqalpoq xalqi sun’iy sug‘orish dehqonchilik sohasida katta tajribaga ega. Sug‘orish sohalarini qishloq aholisi birlashib, o‘zaro ko‘mak asosida amalga oshirib, tabiatdan unumli foydalanishga, mavsumiy tabiat hodisalarini birgalikda yengishga birgalikda harakat qilgan xalq.

Qolaversa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida Orol dengizining qurib qolishi hududda ekologik holatning yomonlashishiga olib keldi. Bu holat ichimlik suvi tanqisligi, havoga zararli chang va dengiz osti tuzlarining ko‘tarilishi, tuproqning eroziyaviy holatining kuchayishi, iqlimning o‘zgarib, qurg‘oqchilikning ko‘p kuzatilishi, yozning o‘ta issiq yoki qishning juda sovuq kelishi kabi holatlarni vujudga keltirmoqda.

Xulosa. Qoraqalpoqlarning an’anaviy turmush tarzida qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq jamoaviy yordam an’analari jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida shakllangan. Dehqonchilik, chorvachilik, uy-joy qurish, sug‘orish, hosil yig‘ish kabi murakkab va ko‘p mehnat talab qiladigan jarayonlarda birgalikda ishlash zarurati jamoaviy hamkorlik tizimining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq jamoaviy yordam an’analari qoraqalpoq jamiyatida nafaqat xo‘jalik faoliyatini samarali tashkil etish vositasi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim madaniy mexanizm hisoblanadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida ushbu an’analarning ayrim shakllari o‘zgarib borayotgan bo‘lsa-da, ularning asosiy mazmuni — o‘zaro yordam, hamkorlik va jamoaviylik tamoyillari hozirgi kunda ham saqlanib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Адриянов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья (В связи историей возникновения и развития орошаемого земледелия). – М., 1969. – С. 157.
2. Давлетияров М.М. Көмек-обычай взаимопомощи у каракалпаков // Лавровский сборник: Материалы XXXVIII и XXXIX Среднеазиатского-Кавказских чтений 2014-2015. – СПб.: МАЭ РАН, 2015. – С. 261.
3. Гулямов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Ташкент, 1959. – В. 92.
4. Jabbarov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1994. – B. 101
5. Қарақалпақстан АССР тарийхы. 1-т. – Нукус, 1974. – В. 196-198.
6. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 88-100-т. – Нөкис, 2015. – 160 b.
7. Пайзиева М.Х., Каюмов А. Сельского хозяйство. Серия «Народы и культуры». Узбеки. – М., 2011. – С. 195.
8. Rachele Rossi. Irrigation in EU agriculture // EPRS/ European Parliamentary Research service. PE 664.216-December, 2019. – P. 5.
9. Сазонова М.В. К этнографии узбеков южного Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической эксплуатации. Т.1. – М., 1952. – С. 257.
10. Сарыбаев К. История орошения Каракалпакстана (с конца XIX века до наших дней). – Нукус, 1995. – С. 92.
11. Хозяйство каракалпаки в XIX- начале XX-века. Отв. ред. Т.АЖданко. – Т.: Фан, 1972. – С. 68.
12. Шалекенов У. Быт каракалпакского крестьянства Чимбайского района в прошлом и настоящем // Труды ХАЭЭ. Т.III. Под ред. С.П. Толстова. – М., 1958. – С. 281.
13. Avtorning dala yozuvlari – ADY 2022. №26. Shumanay tumani informant Reymov Tursinbay.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK:930.23(575)

“TUHFAT AL-XONIY” MANG‘ITLAR SULOLASI TARIXIGA OID ASARLAR UCHUN BIRLAMCHI MANBA

Mamadjanov A’zamjon,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0009-0007-5257-0733
e-mail: azammamadjanov2@gmail.com

“TUHFAT AL-KHANI” AS A PRIMARY SOURCE FOR HISTORICAL WORKS ON THE HISTORY OF THE MANGIT DYNASTY

Mamadjanov Azamjon,
Lecturer at Navoi University of Innovations,
Doctor of Philosophy (PhD) in History

«ТУХФАТ АЛ-ХОНИЙ» КАК ПЕРВИЧНЫЙ ИСТОЧНИК ДЛЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ТРУДОВ ПО ИСТОРИИ ДИНАСТИИ МАНГИТОВ

Мамаджанов Аъзамжон,
преподаватель Университета инноваций Навои,
доктор философии (PhD) по историческим наукам

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Buxoro amirligi tarixini yoritishda muhim manbalardan biri hisoblangan Muhammad Vafo Karminagiyning “Tuhfat al-xoniy” asari tahlil qilinadi. Unda mang‘itlar sulolasi tarixiga oid asarlarning yuzaga kelishida “Tuhfat ul-xoniy”ning birlamchi manba sifatidagi o‘rni yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Muhammad Vafo Karminagiy, “Tuhfat ul-xoniy”, Buxoro amirligi, mang‘it, sulola, asar, manba.*

Annotation*: This article analyzes the work “Tuhfat al-Khani” by Muhammad Vafo Karminagi, which is considered one of the important sources for studying the history of the Bukhara Emirate. It highlights the role of “Tuhfat al-Khani” as a primary source in the emergence of historical works related to the history of the Mangit dynasty.*

Key words: *Muhammad Vafo Karminagi, “Tuhfat al-Khani”, Bukhara Emirate, Mangits, dynasty, work, source.*

Аннотация*: В данной статье анализируется произведение Мухаммада Вафо Карминаги «Тухфат ал-хоний»**, которое считается одним из важных источников по изучению истории Бухарского эмирата. В ней освещается роль труда «Тухфат ал-хоний» как первичного источника в возникновении исторических произведений, посвящённых истории династии мангитов.*

Ключевые слова: *Мухаммад Вафо Карминаги, «Тухфат ал-хоний», Бухарский эмират, мангиты, династия, произведение, источник.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbek davlatchiligi tarixida ashtarxoniylar sulolasining inqirozi, mang‘itlarning hokimiyat tepasiga kelishi davrini yorituvchi bir qancha manbalar mavjud. Ushbu davr tarixini yorituvchi yozma manbalar orasida Muhammad Vafo Karminagiyning “Tuhfat al-xoniy” asari alohida o‘rin tutadi. Asarda o‘zbek davlatchiligi tarixidagi ikki sulola – ashtarxoniylar va mang‘itlar o‘rtasidagi hokimiyat almashinuv davri bilan bog‘liq, boshqa manbalarda uchramaydigan muhim ma’lumotlar mavjud. Ularning ayrim

jihatlari boshqa manbalardan o‘rin olgan bo‘lsa-da, mazkur asarlarning deyarli barchasi keyingi davrlarda yozilgan va aksariyatiga Muhammad Vafo Karminagiyning asari manba bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan mazkur asarni birlamchi manba sifatida tadqiq etish muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Asar dastlabki Mang‘it hukmdori Muhammad Rahimxon topshirig‘iga ko‘ra yozilgan bo‘lib, bu uning xon e’tiborida bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi. Fikrimizcha, “Tuhfat al-xoniy”ning hukmdor ko‘rsatmasiga binoan yuzaga kelishiga, Muhammad Rahimxonning otasi Muhammad Hakimbiy homiyligida yozilgan “Mazhar al-ahvol” asari turtki bo‘lgan. Ya’ni, Muhammad Amin ijodiga mansub bo‘lgan “Mazhar al-ahvol” asari Muhammad Hakimbiy ko‘rsatmasiga binoan yozilgan bo‘lib, uning Buxoro xonligidagi siyosiy faoliyatiga bag‘ishlanadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Muhammad Rahimxon ham otasi kabi o‘zining hukmronlik davri haqida mufassal asar yaratish to‘g‘risida Muhammad Vafo Karminagiyga ko‘rsatma bergan. Asar matnidan ma’lum bo‘ladiki, mufassal asar yaratishdan maqsad Eron bosqini natijasida ashtarxoniylardan hokimiyatni tortib olib, yangi sulola hukumronligini boshlagan mang‘it hukmdorlari hokimiyatining qonuniy asoslarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan.

Tuzilishiga ko‘ra 2 qismdan iborat bo‘lgan, asarning 1720 – 1770-yillar tarixiga bag‘ishlangan birinchi qismi to‘liq Muhammad Vafo Karminagiy tomonidan yozilgan. Uning ikkinchi qismi esa boshqa muallif Mullo Olimbek qalamiga mansub bo‘lib, Doniyolbiy otaliq ko‘rsatmasiga binoan asarga qo‘shimcha tarzda kiritilgan. Shu boisdan ikkinchi qism Doniyolbiy otaliq davridagi voqea-hodisalar bayoniga bag‘ishlanadi. Undagi voqea-hodisalarning katta qismi Muhammad Vafo Karminagiy bergan ma’lumotlardan ajratib olinib, Doniyolbiy otaliqning Eron bosqinidan (1740) to 1770-yilga qadar bo‘lgan hayoti va faoliyatini yaxlit yoritib beradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Shu munosabat bilan ko‘plab tadqiqotchilar Muhammad Vafo Karminagiy asariga yaratilgan vaqti yuzasidan eng noyob va keyingi davr tarixchilari uchun birlamchi manba vazifasini o‘tagan asar sifatida yuqori baho berishgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda “Tuhfat al-xoniy”ning 1720–1780-yillarda o‘zbek davlatida kechgan tarixiy jarayonlarni yoritishdagi ahamiyati o‘zidan so‘ng yozilgan bir qator tarixiy asarlar uchun ham qimmatli manba vazifasini o‘tagan. Xususan, Muhammad Sharifning “Toj at-tavorix” asarida “Tuhfat al-xoniy”dan keng o‘rinda foydalanilgani haqida ma’lumotlar bor[1.115]. Xususan, “Toj at-tavorix”da kelgan tegishli voqealar bayoni va tafsilotlariga ko‘ra muallif asardagi Abulfayzxon davridan Muhammad Rahimxon va uning ajdodlariga bag‘ishlangan qismlarni yozishda “Tuhfat al-xoniy”ga tayanib ish ko‘rgani ko‘zga tashlanadi[2.108-158]. Bu borada Muhammad Sharif o‘z asarini bitish jarayonida “Tuhfat al-xoniy”dagi Muhammad Rahimxon qabr toshiga bitilgan misralar muallifi Muhammad Vafo Karminagiy ekanligini izohlab, mazkur baytlar muallifga katta shuhrat keltirganini ta’kidlaydi[3.121].

“Tuhfat al-xoniy” manba vazifasini o‘tagan asarlar qatorida Muhammad Yoqub Buxoriyning 1824 – 1831 yillarda yozilgan “Gulshan al-muluk” asari ham diqqatga sazovordir. Chunonchi, “Gulshan al-muluk” va “Tuhfat al-xoniy”ni solishtirgandagi o‘xshashliklar Muhammad Yokub Buxoriy o‘z asarida Abulfayzxondan mang‘itlar sulolasigacha bo‘lgan voqealarni yoritishda Muhammad Vafo Karminagiy asaridan foydalanganini ko‘rsatadi[4.248-254].

Mirzo Abdul’azim Somiy esa o‘zining “Tuhfai shohiy” asarini yaratishda Muhammad Vafo asaridagi ma’lumotlarni umumlashtirib, Muhammad Rahimxon davrini bayon etgan[5.4]. Garchi u Muhammad Rahimxonning Eron shohi bilan bo‘lgan munosabatlarini yoritishda “Tuhfat al-xoniy”ga murojaat qilib, asardagi umumiy mazmunni keltirsa-da, Muhammad Rahimxonni bu voqealarda Eron ta’sirida bo‘lmagan mustaqil bir shaxs sifatida ko‘rsatishga harakat qilgan[5.10-25].

Yuqoridagi masala borasida esa “Tuhfat al-xoniy”dan manba o‘laroq, foydalangan Abdulkarim Buxoriy o‘zining “Haqoyiq al-umur” asarida Muhammad Rahimxonning eronlik qizilboshlar bilan yaqin munosabatda bo‘lganligini “Tuhfat al-xoniy”ga ko‘ra ta’kidlab, buni Davlatbiy qo‘shbegi hamda Buxoro qozikaloni Nizomiddinning eronlik bo‘lganligi bilan izohlaydi[6.52-54]. Bundan tashqari asarda

Abulfayzxon Eron shohiga o‘zining itoatkorligini izhor qilish maqsadida Muhammad Hakimbiyni Jo‘ybor shayxlari bilan birga Nodirshoh huzuriga elchi sifatida yuborib, shohni Buxoroga taklif qilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar[7.95-96] yoki Muhammad Rahimxon tomonidan Abulfayzxonni hokimiyatdan chetlatib, Mir arab madrasasi hujrasida hibsda saqlanganligi to‘g‘risidagi tafsilotlar “Tuhfat al-xoniy” matni bilan o‘xshashligi ahamiyatlidir[8.111-112].

Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” asarida esa garchi muallif foydalanilgan manbalarini tilga olmasa-da, ashtarxoniylar sulolasining Abulfayzxon davridan mang‘it sulolasi bayonigacha bo‘lgan qismini bitishda bevosita “Tuhfat al-xoniy”ga[9.280-288] murojaat qilgan bo‘lib, buni Abulfayzxon bilan birga Eron shohi Nodirshoh huzurida bo‘lgan bek va amirlar tarkibini quyidagi tartibda: “Muhammad Aminbek – Hisor xokimi, Olimbiy Kenagas – Shahrisabz hokimi, Yakubbiy Do‘rmaniy – Qabadiyon hokimi, G‘aybullobiy Bahrin – Xatirchi xokimi, Abdusattorbiy – Dabusiya kal’asi hokimi, Tag‘oy Murodbiy Barqut – Nurato hokimi, ularning har birga peshkashlariga qarab, katta navozish qilindilar va imtiyozlarga ega bo‘ldilar”, deb voqea tafsilotlarini “Tuhfat al-xoniy” asosida keltiradi [10.282].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Muhammad Vafo Karminagiyning “Tuhfat al-xoniy” asari Buxoro amirligi tarixini, ayniqsa ashtarxoniylar sulolasining inqirozi hamda mang‘itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni yoritishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda keltirilgan voqea-hodisalar va tarixiy ma’lumotlar o‘zining aniqligi hamda davrga yaqinligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham mazkur asar keyingi davr tarixchilari tomonidan keng foydalanilgan asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, Muhammad Sharif, Muhammad Yoqub Buxoriy, Mirzo Abdulazim Somiy hamda Mirzo Salimbek kabi mualliflarning tarixiy asarlarida “Tuhfat al-xoniy” ma’lumotlaridan foydalanilganligi uning tarixnavislikdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Shunday qilib, “Tuhfat al-xoniy” nafaqat mang‘itlar sulolasi tarixini yorituvchi muhim asar, balki keyingi davr tarixiy asarlarining yuzaga kelishida birlamchi manba vazifasini bajargan muhim tarixiy manba sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Анке фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX вв.). Алматы. 2004. С. 119.

2. Муҳаммад Шариф. Тож ат-таворих. АҚФ. Қўлёзма саноғи, 9265. 108а – 158-бетлар.

3. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. С. 121.

5. Мирза Муҳаммад Абдулазим Сомий. Тухфайи шоҳи. АҚФ. Қўлёзма саноғи. 2091. 4а-бет.

6. Mir Abdoul Kerim Boukhary. Histoire de I’Asie Centrale (Afghanistan, Boukhara, Khiva, Khoqand) Depuis les annees du regne dr Nadir chah (1153) jusqu’en 1233 de I’ Hegire (1740 – 1818). Par Charles Scheffer. Publiee, traduite et annotee. I. Texte persan. Paris. 1876. P. 52 – 54.

7. Mir Abdoul Kerim Boukhary. Histoire de I’Asie Centrale (Afghanistan, Boukhara, Khiva, Khoqand) Depuis les annees du regne dr Nadir chah (1153) jusqu’en 1233 de I’ Hegire (1740 – 1818). II. Traduction francaise. P. 95 – 96.

8. Mir Abdoul Kerim Boukhary. Histoire de I’Asie Centrale (Afghanistan, Boukhara, Khiva, Khoqand) Depuis les annees du regne dr Nadir chah (1153) jusqu’en 1233 de I’ Hegire (1740 – 1818). II. Traduction francaise. P. 111 – 112.

9. Мирзо Салимбек. Кашкули Салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. Бухоро. 2003. 280–288-бетлар.

10. Мирзо Салимбек. Кашкули Салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. Бухоро. 2003. 282-бет.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 39:63:316:7

19-YUZYILLIK INGLIZ TILLI “SAFARNOMA”LARDA TURKISTONLIKLARNING TOMOSHA VA BAYRAMLARI TASVIRI

Muhiddinova Shalola,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Tarix instituti tayanch doktoranti



e-mail: shalolamuhiddinova6@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0008-3328-9070

THE DESCRIPTION OF SPECTACLES AND FESTIVITIES OF TURKESTAN PEOPLE IN 19TH-CENTURY ENGLISH-LANGUAGE TRAVELOGUES

Mukhiddinova Shalola,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Institute of History, Doctoral Student

ОПИСАНИЕ ЗРЕЛИЩ И ПРАЗДНИКОВ ТУРКЕСТАНЦЕВ В АНГЛОЯЗЫЧНЫХ «ПУТЕВЫХ ЗАМЕТКАХ» XIX ВЕКА

Мухиддинова Шалола, Академия наук Республики Узбекистан
Институт истории, базовый докторант

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Turkistonga tashrif buyurgan ingliz tilli safarnomalar mualliflarining ko‘ngilochar mashg‘ulotlari, bayram va tomoshalar haqida keltirgan ma’lumotlari tahlil qilinadi. Bu safarnomalar turkistonliklar kundalik hayotining ajralmas qismi hisoblangan ko‘ngilochar tadbirlarning ahamiyatini ochib berishda qimmatli manbalar hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Bayram, tomosha, dam olish, choyxonalar, o‘yinlar, hayvonlarni urushtirish, raqs, diniy bayramlar, ziyofatlar.*

Abstract: *This article analyzes the information provided by the authors of English-language travel accounts who visited Turkestan regarding entertainment activities, festivals, and spectacles. These travel accounts serve as valuable sources for revealing the significance of entertainment events, which constituted an integral part of the daily life of the people of Turkestan.*

Key words: *festivals, spectacles, leisure, teahouses, games, animal fights, dance, religious holidays, feasts.*

Аннотация: *В данной статье анализируются сведения, приведённые авторами англоязычных путевых заметок, посетившими Туркестан, о развлечениях, праздниках и зрелищах. Эти путевые заметки являются ценными источниками для раскрытия значения развлекательных мероприятий, которые являлись неотъемлемой частью повседневной жизни жителей Туркестана.*

Ключевые слова: *праздники, зрелища, отдых, чайханы, игры, бои животных, танцы, религиозные праздники, пиршества.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Turkiston qadimdan o‘zining iqlimi, tabiiy sharoiti va joylashuvi jihatidan insonlar tirikchilik qilishi va dam olishi uchun eng qulay hududlarni o‘z ichiga olgan. Shuning uchun, turkistonliklar hayotida hordiq chiqarish uchun o‘tkaziladigan turli milliy tomosha va bayramlar chuqur o‘rin egallab, kundalik hayotning ajralmas qismiga

aylangan. Ko‘pincha ular tabiat qo‘ynida va ochiq osmon ostida nishonlangan. Bayram va tomoshalar asrlar davomida shakllanib kelgan xalq madaniyatini o‘zida aks ettirgan va ko‘pincha islom dini bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa, 19-yuzyillikda Turkistonga elchi, sayyoh, savdogar, darvesh va boshqa qiyofalarda tashrif buyurgan kishilar o‘zlarining ingliz tilli safarnomalarida aholining bayram va tomoshalari haqida o‘z ko‘rgan-kechirganlari asosida ma’lumotlarni keltirib o‘tishadi. Ular o‘sha davrning jonli guvohlari hisoblanganlari va har bir voqeani sinchkovlik bilan kuzatganliklari sababli ularning ma’lumotlari qimmatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). 19-yuzyillikda Turkistonning Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonligi hududlariga turli maqsadlarda tashrif buyurgan ingliz tilli bir qator mualliflar sanalgan A.Byorns, A.Vamberi, J.Abbot, Mak Gahan, Y.Skayler, O.Olufsen, A.Miken va boshqalar o‘zlari yozib qoldirgan safarnomalarida milliy aholining kundalik hayotiga eng ko‘p e’tibor qaratishadi. Chunki, boshqa millat vakillari uchun Turkiston aholisining minglab yillar davomida shakllangan turmush tarzi va madaniyati Yevropa xalqlarinikidan keskin farq qilgan. Shu sababli, ular kundalik hayotning har bir jihatiga sinchkovlik bilan e’tibor qaratishib, har bir kichik detallargacha yozib qoldirishgan. Ayniqsa, bayramlarda va tomoshalarda odamlarning qanday o‘zini tutishi, choy quyish va mehmon kutish kabi odatlar qanday amalga oshirilishini diqqat bilan kuzatishgan. Ingliz tilli safarnomalarning milliy manbalardan farqli jihati ham shu hisoblanadi. Ya’ni, ularni o‘rganish orqali ajdodlarimizning kundalik hayoti va uning ajralmas qismi hisoblangan bayram va tomoshalar haqida batafsil ma’lumot olish mumkin.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Turkistonliklar orasida o‘ziga xos tomoshalar kundalik hayotning ajralmas qismi hisoblangan va bunday tomoshalar turli-tuman bo‘lgan. Ayniqsa, hayvonlar bilan bog‘liq xalq tomoshalari keng tarqalgan. Bular sirasiga qo‘chqor urushtirish, qushlarni urushtirish, ot poygalari, ayiq yetaklash va maymunlar bilan tomosha ko‘rsatish va boshqa tomoshalarni o‘z ichiga olgan. Ulardan qo‘chqorlar urushi, qushlar jangi va ot poygalari musobaqa ko‘rinishidagi o‘yinlar bo‘lib, ular oddiy aholi vakillari tomonidan uyushtirilgan. Ayiqlar, maymunlar va zaharli ilonlar bilan tomosha ko‘rsatish esa maxsus shu kasb bilan shug‘ullanuvchi kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Bunday tomoshalar asosan bozorlarda uyushtirilgan. Xivaliklarning ko‘ngilochar tomoshalaridan biri “qo‘chqorlarni jang qildirish”, deya ma’lumot bergan J.Abbot “Bu manzara menga unchalik yoqmadi, qo‘chqorlar yetarli darajada kuch ko‘rsata olmadilar. Ulardan biri bir necha kuchli zarbadan so‘ng sezilarli darajada holdan toygan edi [1:66]”, deya ta’kidlaydi. A.Vamberi ham Buxorodagi qo‘chqorlar jangini tasvirlab beradi va qo‘chqorlarni bu jang uchun maxsus tayyorlashlari haqida ma’lumotlarni keltiradi [6:177].

19-yuzyillik oxiri 20-yuzyillik boshida Turkistonga kelgan A.Miken Angliyada 19-yuzyillik o‘rtalarigacha ommabop bo‘lgan mayda qushlarni qafasda saqlash, ularni urishtirish va shu yo‘l orqali pul ishlash Turkistonda mavjud ekanligi haqida ma’lumot beradi[2:197,198]. O.Olufsen esa qushlar jangiga aniqlik kiritgan holda xo‘roz va bedana janglari haqida ma’lumot beradi[3:436]. Shuningdek, u bozorlarda ayiqlarni yetaklab, maymunlar bilan tomosha ko‘rsatuvchi sayyor ko‘zboylog‘ichlar, echkilar, zaharli ilonlar va sivet*lar bilan chiqish qiluvchilar haqida ham ma’lumotlar keltiradi. Ot poygalari yoki ko‘pkari esa eng mashhur tomosha turi hisoblanib, bunda qo‘y, echki va xo‘roz ikki qoziq orasiga bog‘langan, maydonda to‘plangan chavandozlar chopib kelgan holda ulardan biriga qarata o‘q uzishgan. O‘ljani esa hakamning oyoqlari ostiga tashlash kerak bo‘lgan. Agar mergan o‘ljasidan ayrilsa, boshqa raqibi bu vazifani bajargan. G‘olibga esa qimmatbaho matolar sovg‘a qilib berilgan[3:435]. Umuman olganda, hayvonlar bilan bog‘liq o‘yin va tomoshalarni turkistonliklar sevib tomosha qilganligi ularni muntazam ravishda o‘tkazib, xalq madaniyatining ajralmas qismiga aylatirganidan dalolat beradi.

* Tanasi uzun, oyoqlari qisqa va dumi uzun bo‘lgan, Afrika va Osiyoda uchraydigan hayvon turi.

Raqs tomoshalari ham turkistonliklar tomonidan katta qiziqish bilan tomosha qilingan bo‘lib, 19-yuzyillik oxirida O.Olufsen va Y.Skayler ma’lumotlariga ko‘ra, sunniy mazhabiga ko‘ra va islomiy odobga ko‘ra ayollar uchun jamoat joylarida raqs tushish nomaqbul ish sifatida qaralgan. Shu sababli, o‘g‘il bolalarga yoshligidan raqs, qo‘shiq aytish va musiqa asboblari chalish kabi mashqlar o‘rgatilgan[3:436; 5:132]. Y.Skayler bachchalar deb nomlangan o‘n ikki nafar o‘g‘il bolalar ishtirokidagi raqs tomoshasi uyushtirilgani haqida to‘xtalib o‘tgan[5:65]. Bundan tashqari, u bunday raqslarni Buxoro va Samarqandda ommalashganini, Qo‘qonda esa bunday raqslar va bayramlar o‘tkazilmasligini ta’kidlaydi. Toshkentda esa 1872-yilgacha bo‘lgan bunday raqs tomoshalari vabo tarqalganiga sabab qilib ko‘rsatilgan holda vaqtincha taqiqlangan. Chunki bunday tomoshani ko‘rish uchun juda ko‘plab kishilar bir joyda to‘plangan. Bu esa kasalliklar tarqalishiga sabab qilib ko‘rsatilgan[5:132]. A.Miken va Y.Skayler bachchalarni ko‘rinishini tasvirlab, ularning uzun soch o‘stirishi, boshiga naqshli do‘ppi kiyib, rang-barang uzun kiyim va keng shimlarda raqsga tushganligi haqida to‘xtaladi[2:160,161; 5:133]. Bunday raqqoslar Buxoroda keng tarqalgan bo‘lib, bayramlarda raqsga tushuvchi qatlam hisoblangan va ular haqida ingliz safarnomalarida juda ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, masxarabozlar tomoshalari ham bo‘lganligi va ular quyi tabaqa insonlarning hayoti va har xil hayvonlarga taqlid qilish orqali odamlarni kuldirishgani haqida ham ma’lumotlar aks etadi[5:66]. Diniy bayramlardan keyin ham bunday tomoshalar uyushtirilganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. O.Olufsen Buxorodagi qurbon hayitidan so‘ng uyushtirilgan bayramda masxarabozlar tomosha uyushtirishgan bo‘lib, unda turli millatlarga va yuqori tabaqa vakillariga ularga xos kiyimlarni kiygan holda taqlid qilish orqali odamlarni kuldirishgan[3:433]. Demak, Masxarabozlar xalq qiziqchilari hisoblanib, o‘z hazillarini xalq ichidan olishgan va bu esa odamlarni ularning tomoshalariga yanada jalb qilgan.

Turkistonliklar hayotida bayramlarning o‘rni ham yuqori bo‘lib, safarnomalarda ular haqida ko‘plab ma’lumotlarga duch kelish mumkin. Bu bayramlar asosan diniy mazmun kasb etgan va ko‘pincha o‘yin-kulgular va ziyofatlar ham diniy marosimlarning bir qismi hisoblangan. Shuningdek, tadqiqotlarda bayramlarda o‘tkaziladigan ziyofatlar zodagonlar, qabila boshliqlarini hukmdor va uning yaqinlari bilan bilan yaqin aloqa o‘rnatish vositasi bo‘lgan[7:581]. Shu sababli, hukmdor saroyida bayramlar munosabati bilan ziyofatlar tez-tez o‘tkazilgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Bundan tashqari, bayramlar hurmatli mehmonni kutish, o‘g‘il farzand ko‘rish, sunnat to‘yi va nikoh to‘ylari munosabati bilan ham uyushtirilgan. Bayramlar asosan tinch va janjallarsiz, tartib-intizomga qat’iy rioya qilingan tarzda o‘tkazilgan[3:434]. Bayramlardan biri Xivada muharram oyi* munosabati bilan o‘tkaziladigan bayram bo‘lib, unda dastlab odamlar masjidga borishgan. Bu bayram munosabati bilan esa xon tomonidan katta ziyofat uyushtirilgan[1:145,146]. Xiva xonining yozgi saroyida ham har yozda iyun oyida bayram ziyofati uyushtirilgan bo‘lib, unda dastlab Qur’on bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazilgan. Shundan so‘ng, taomlar tortilib, ziyofat uyushtirilgan va kelgan yuqori martabali mehmonlarga shakar bo‘laklarga bo‘lib tarqatilgan. Bu yerda Xivaga kelgan R.Shekspir ham bo‘lib, ziyofatni tasvirlaydi [4:711]. Yoz oxiri va kuz boshlarida hosil mo‘l-ko‘l bo‘lganligi bois shu paytda ehtimol ziyofatlar uyushtirilgan bo‘lgan. Bu ziyofatda yuqori martabali amaldorlar qatnashgan bo‘lib, bu yuqorida ta’kidlanganidek, yuqori tabaqaning hukmdor bilan yaqinlashuvi uchun xizmat qilgan. Demak, bayramlardagi ziyofatlar muhim siyosiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Shuningdek, Navro‘z bayrami ham nishonlangani haqida A.Vamberi Navro‘z bayrami va uning katta tantanalar bilan nishonlanishi haqidagi ma’lumotlarni keltirib, uni “o‘zbeklarning buyuk milliy bayrami” deya tilga oladi[6:109,110]. A.Miken Qo‘qonda ramazon

* Muharram – (arab. – taqiqlangan, muqaddas) – qadimda arablarning Oy taqvimida, shuningdek, musulmonlarning hijriy yil hisobida birinchi oy. Muharram islomdan ilgari ham arablarda muqaddas oy hisoblangan, bu oyda qabilalar o‘rtasidagi urush-janjallar va qon to‘kishlar taqiqlangan. Muharram oyining birinchi o‘n kunida shialar imom Husaynni yodlab motam tutadi, turli diniy marosimlar o‘tkazadi[8:201].

oyining yakunlanishi munosabati bilan o‘tkaziladigan diniy marosim*ga guvoh bo‘lganligini va masjidga shoshib kelayotgan turli yoshdagi insonlarni tasvirlaydi[2:252,253]. 19-yuzyillik oxirida Turkistonda bo‘lgan O.Olufsen, Buxoroda asosan diniy marosimlar o‘tkazilib, unda qo‘y va ho‘kizlar so‘yilib qurbonlik keltirilishini tasvirlaydi. Bu hayvonlar go‘shtlari so‘yib tarqatilgach, dastlab ziyofat bilan boshlanuvchi bayram uyushtirilgan[3:433]. Demak, ziyofatlar ham bayramlarning eng muhim qismi hisoblangan va bayramlar asosan ziyofatlar bilan boshlangan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Turkiston xalqlari hayotida mehnat qilishdan tashqari bo‘sh vaqtlarida bayramlar va tomoshalar uyushtirish muhim o‘rin tutgan. Bular xalq hayotida ma’lum bir ma’no-mazmun kasb etgan. Shu sababli, bayramlar va tomoshlar bilan bog‘liq xalq madaniyati shakllangan. Bayramlarda urush-janjal chiqarish kabi jamoat tartibini buzuvchi holatlar ko‘zga tashlanmagan va tartib-intizomga qat’iy rioya qilinganiga sayyohlar alohida e’tibor qaratishgan. Shuningdek, bunday tomosha va bayramlar xalqning birdamligi va jipslashuviga xizmat qilgan. Bu orqali, ichki tinchlik va barqarorlik ta’minlangan. Shu sababli, bayramlar ochiq osmon ostida, jamoat to‘planadigan joylarda, asosan, bozorlarda o‘tkazilgan. Bunga Turkistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar alohida e’tibor qaratgan bo‘lib, safarnomalar Turkiston xalqlari madaniyatiga chet ellik nigohi bilan qarash imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abbott J. Narrative of a Journey from Heraut to Khiva, Moscow, and St. Petersburgh, During the Late Russian Invasion of Khiva; with some account of the of the court of Khiva and the Kingdom of Khaurism. In two volumes. Vol. I. London. Wm. H. Allen and CO., 7, Leadenhall street. 1843.
2. Annette M. B. Meakin. In Russian Turkestan: A Garden of Asia and Its People // G. Allen, 1903.
3. Olufsen O. The emir of Bokhara and his country. London. WILLIAM HEINEMANN. 1911.
4. Richmond Shekspear. ‘A personal narrative of a Journey from Heraut to Ourenbourg, on the Caspian [sic] in 1840’, Blackwood’s Edinburgh Magazine 51 (June 1842).
5. Schuyler, Eugene, Turkistan: Notes of a Journey in Russia, Turkistan , Kokand, Bukhara and Kuldja. Vol II. New York: Scribner, Armstrong & CO. 1876.
6. Vamberius A. Sketches of Central Asia. Philadelphia. J. B. Lippincott & Co. Wm. H. Allen & Co., 13, Waterloo Place, Pall Mall, London. 1868.
7. Wilde A. What Is Beyond The River? Power, Authority, and Social Order in Transoxania 18th–19th Centuries. Volume 1. Verlag der Osterreichischen akademie der Wissenschaften. 2016.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6. Мирий – Пархиш. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент.

* Ramazon hayiti bayrami.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1:364.614.8

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING INSON QADRINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Beshimov Xamidjon Sayidovich,
O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining Buxoro viloyat kengashi raisi o‘rinbosari, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

THE ROLE OF TRADE UNIONS IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN DIGNITY IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Khamidjon Sayidovich Beshimov,
Deputy Chairman of the Bukhara Regional Council of the Federation of Trade Unions of Uzbekistan, Independent Researcher of Bukhara State University.

РОЛЬ ПРОФСОЮЗОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Бешимов Хамиджон Сайидович,
заместитель председателя Бухарского областного совета федерации профсоюзов Узбекистана, независимый исследователь Бухарского государственного университета



https://orcid.org/ 0000-0001-5109-3700
e-mail: beshimovhamid@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida shakllangani ilmiy tahlil qilinadi. Ayniqsa, fuqarolik jamiyatining muhim instituti hisoblangan kasaba uyushmalarining mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish orqali inson qadrini qaror toptirishdagi o'rni ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *inson qadri, kasaba uyushmalari, mustaqillik yillari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya, inson manfaatlari.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the fact that the promotion of human value in Uzbekistan during the years of independence was formed as a priority of state policy. In particular, the role of trade unions, considered an important institution of civil society, in determining human value by protecting the rights and interests of the working people, ensuring social justice, creating decent working conditions, is revealed.*

Key words: *human dignity, trade unions, years of independence, civil society, social protection, human interests.*

Аннотация: *В данной статье представлен научный анализ того факта, что пропаганда общечеловеческих ценностей в Узбекистане за годы независимости сформировалась как приоритет государственной политики. В частности, раскрывается роль профсоюзов, считающихся важным институтом гражданского общества, в определении человеческих*

ценностей путем защиты прав и интересов трудящихся, обеспечения социалной справедливости, создания достойных условий труда.

Ключевые слова: *человеческое достоинство, профсоюзы, годы независимости, гражданское общество, социальная защита, интересы человека.*

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2022-yil 11-noyabr kuni O‘zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari va a’zolariga yo‘llagan tabrigida “Hozirgi kunda kasaba uyushmalarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va ta’siri tobora ortib bormoqda. Buning sababini, eng avvalo, tashkilotning xalq ichiga chuqur kirib borayotgani, odamlarning og‘irini yengil qilish, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo‘lishni o‘zining ustuvor vazifasi sifatida belgilab olganida, deb bilamiz”, degan edilar. Darhaqiqat, bir asrdan ortiq tarixga ega, qanchadan-qancha sinovli, mashaqqatli yo‘llarni bosib o‘tgan kasaba uyushmalari bugun tom ma’noda xodimlarning tayanchi va suyanchiga aylandi [1; 5-11 b].

Inson qadrini yuksaltirish jarayonida kasaba uyushmalari va davlat siyosatining o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning markazida inson turdi. Buning natijasida ijtimoiy himoya tizimi takomillashdi, mehnat munosabatlarida yangi huquqiy asoslar yaratildi. Kasaba uyushmalari esa ushbu islohotlarning amaliy natijalarini ta’minlashda vositachi sifatida maydonga chiqdi [2].

O‘zbekistonda kasaba uyushmalarining faoliyati mustaqillikka qadar ham mavjud bo‘lgan, biroq ularning maqsad va vazifalari ko‘p jihatdan ma’muriy-buyruqbozlik tizimining talablariga bo‘ysundirilgan edi. Inson qadri haqida so‘z ketganda, u nazariy tushuncha sifatida tilga olingani bilan, amalda shaxs manfaatlari orqa planga surilib, umumiy siyosiy yondoshuv ustuvor bo‘lgan [3].

Mustaqillik yillarida kasaba uyushmalarining inson qadrini rivojlantirishdagi o‘rnini ko‘rsatish uchun, avvalo, ularning vazifalari va maqsadlariga nazar tashlash lozim. Birinchidan, kasaba uyushmalari insonning mehnat huquqlarini ta’minlashda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida maydonga chiqdi. Mehnat inson hayotidagi asosiy jarayonlardan biri bo‘lib, uning iqtisodiy manfaatlari bilan bir qatorda, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Insonning o‘z mehnatidan qoniqishi, uning orqali jamiyatdagi o‘rnini topishi va o‘zini namoyon qila olishi inson qadrining yuksak darajada e’tirof etilishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, mustaqillik davrida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari shaxsning ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda ham muhim rol o‘ynadi [4]. Inson qadrini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri – bu uning ijtimoiy xavfsizligi va barqaror hayotini ta’minlashdir. Kasaba uyushmalari turli sohalarda ishlovchi insonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilib, ularga zarur moddiy yordamlar ko‘rsatish, turli ijtimoiy masalalarda davlat va jamiyat bilan muloqot maydoni sifatida xizmat qildi. Uchinchidan, kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda faqat iqtisodiy yoki huquqiy emas, balki ma’naviy va madaniy sohada ham muhim vazifalarni amalga oshirdi. Insonning ma’naviy hayoti uning moddiy hayoti bilan bir qatorda shakllanadi. Shu bois, kasaba uyushmalari turli madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar orqali insonning intellektual va madaniy rivojlanishiga xizmat qildi.

Shuni ham ta’kidlash zarurki, mustaqillik yillarida jamiyatda inson qadrining yuksalishi turli ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Ular qatorida iqtisodiy barqarorlik, huquqiy davlat qurilishi, demokratik jarayonlarning rivojlanishi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning tiklanishi kabi masalalar bor. Ana shu jarayonda kasaba uyushmalari turli sohalarda ishlovchi millionlab insonlarning manfaatini himoya qilish orqali inson qadrini amaliy jihatdan ta’minlab keldi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini rivojlantirishda jamoaviylik va hamjihatlik tamoyillariga ham suyandi. Chunki inson qadri faqat alohida shaxsning manfaati bilan belgilanmaydi, balki jamiyatdagi hamjihatlik va o‘zaro hurmat darajasi bilan ham belgilanadi. Uyushmalar turli sohalar vakillarini birlashtirib, ularning umumiy manfaatlarini himoya qildi. Bu jarayonda shaxsiy manfaatlar umumiy jamoaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashdi. Natijada inson o‘z

TAMADDUN NURI

qadrini faqat shaxsiy emas, balki jamoaviy qimmat sifatida ham anglay boshladi [5].

Mustaqillik yillarida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangan “inson manfaatlari – hamma narsadan ustun” tamoyili kasaba uyushmalari faoliyatida o‘zining amaliy ifodasini topdi. Ular ishchi va xodimlar manfaatlarini himoya qilish orqali davlat siyosatining insonparvar yo‘nalishini ta’minladi. Falsafiy nuqtai nazardan bu jarayon inson qadrining davlat va jamiyat hayotida eng oliy qimmat sifatida e’tirof etilishini anglatadi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim vazifa bajardi. Chunki ijtimoiy adolatsizlik, huquqlarning buzilishi, inson qadrining toptalishi jamiyatda turli nizolar va keskinliklarga olib kelishi mumkin. Kasaba uyushmalari esa mehnat sohasidagi mojarolarni hal qilish, nizolarni oldini olish, kelishuvlarga erishish orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shdi. Bu esa falsafiy jihatdan inson qadrining tinchlik va barqarorlik sharoitida yuksalishiga zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston kasaba uyushmalari ko‘plab ijtimoiy dasturlarni amalga oshirib, inson qadrini amaliy jihatdan ta’minladi. Moddiy yordam ko‘rsatish, dam olish va sog‘lomlashtirish muassasalarini tashkil etish, mehnatkashlar farzandlari uchun yozgi oromgohlar ochish, keksa va nogironlarni qo‘llab-quvvatlash kabi ishlar inson qadrining hayotda to‘la-to‘kis namoyon bo‘lishiga xizmat qildi.

Falsafiy jihatdan olib qaralganda, kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda insoniylik va ijtimoiy hamdardlik tamoyillariga suyandi. Bu tamoyillar inson qadrining faqat huquqiy yoki iqtisodiy emas, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham ta’minlanishiga olib keldi. Inson qadrining yuksalishi deganda faqat shaxsning moddiy farovonligi emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarda o‘zini erkin his etishi, o‘z fikrini erkin bildirishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi ham nazarda tutiladi.

Shu tariqa, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omili sifatida namoyon bo‘ldi. Ular faqat mehnat munosabatlarini muhofaza qilish emas, balki inson hayotining ma’naviy mazmunini boyitish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash, jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash orqali inson qadrini e’tirof etish va yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishdagi o‘rnini yanada teranroq anglash uchun ularning huquqiy asoslariga ham e’tibor qaratish lozim. Zero, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qabul qilingan Konstitutsiyada inson qadri, uning huquq va erkinliklari oliy qiymat sifatida e’tirof etildi. Shu asosda mehnat huquqlarini ta’minlash, insonni adolatli mehnat sharoiti va munosib turmush tarzi bilan ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda kasaba uyushmalari inson qadrini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi va hayotga tatbiq etuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqdi.

Kasaba uyushmalari faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishi – bu insonning sog‘lom va munosib hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan ishlardir. Mehnat muhofazasi, ishchi joylarda xavfsizlik choralarini kuchaytirish, ishchilar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha olib borilgan tadbirlar inson qadrining amaliy ifodasi sifatida xizmat qildi. Chunki insonning hayoti va sog‘ligi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Shu bois, mustaqillik yillarida kasaba uyushmalari mehnat muhofazasi sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirdi, xodimlarning xavfsiz ish sharoitiga ega bo‘lishini ta’minlashga e’tibor qaratdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson qadrini anglash va hurmat qilish milliy taraqqiyotimizning eng muhim mezoniga aylanishi lozim.

Umumiy xulosalar:

1. Kasaba uyushmalari ijtimoiy davlatda zaruriy hodisadir. U mehnatkashlar, turli sinflar, qatlamlar va tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlarni mo‘tadil holatini ta’minlaydi. Davlat o‘z fuqarolarining munosib turmush darajasini ta’minlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatmog‘i, ta’lim, sog‘liqni saqlash, dam olish va odamlarning kundalik turmushi muammolariga katta e’tibor qaratmog‘i lozim. Bunday mamlakatda inson eng oliy qadriyat sifatida tan olinadi.
2. Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan, jumladan, Kasaba uyushmalarini yanada

faollashtirish orqali erishish Yangi O‘zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini qadriyat sifatida anglash ijtimoiy me’yorlar barqarorligini ta’minlash barobarida, ratsional ijtimoiy-shaxsiy tafakkur va pozitiv faoliyat traektoriyasini ham shakllantiradi.

4. Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirish shaxsiy ongdan keng qamrovli ijtimoiy tafakkur darajasida taraqqiyotni ta’min etish, pozitiv munosabat shakllarini belgilashda ham xizmat qiladi. Insonning sharafi va qadri uning mol-dunyosi yoki tashqi qiyofasi bilan emas, balki qalbining pokligi va axloqiy kamoloti bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Respublika kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi, 2025-yil 17-oktabr, Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning
11-noyabr O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni va kasaba uyushmalarining 120 yilligi munosabati bilan tabrigi, 2025-yil 11- noyabr, Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023- yil 30- aprel.
4. Mirziyoev Sh, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 2023-yil, Toshkent.
5. Rafiqov Q., Vatan va millat qayg‘usi. 2020-yil, Toshkent.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81.374.81.276.

“SAYATXAN-HÁMRE” DÁSTANÍNDAĠÍ KÓRKEM SÚWRETLEW QURALLARÍNÍŃ QOLLANÍLÍWÍ

[1]Abdiev Azamat Turǵanbaevich, Ájiniyaz atındaǵı NMPI Qaraqalpaq tili kafedrası docenti, filologiya ilimleriniń kandidatı
[2]Shernazarova Guljamal Ańsatbaevna, Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı qaraqalpaq tili hám ádebiyatı qánigeligi 1-basqısh magistrantı



abdiev79 @mail.ru
https://orcid.org/0009-0004-8629-4560

THE USE OF ARTISTIC DEVICES IN THE EPIC “SAYATXAN-HÁMRE”

[1]Abdiev Azamat Turǵanbaevich, Docent of the Karakalpak Language Department of the Ajiniyaz National Research Polytechnic Institute, Candidate of Philological Sciences
[2]Shernazarova Guljamal Ansatbaevna, 1st year master's student of the Karakalpak language and literature specialty of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz



guljamalshernazarov @gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-2324-7296

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ СРЕДСТВ В ЭПОСЕ “САЯТХАН-ХАМРА”

[1]Абдиев Азамат Турғанбаевич, доцент кафедры каракалпакского языка НГПИ им. Ажинияза, кандидат филологических наук
[2]Шерназарова Гулжамал Аңсатбаевна, Магистрант 1 курса по специальности каракалпакский язык и литература Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

Annotaciya: *Bul maqalada qaraqalpaq xalıq dástanlarınıń biri bolǵan «Sayatxan-Hámre» dástanınıń tili hám kórkemlik ózgeshelikleri izertlenedi. Avtor dástandaǵı teńew, metafora hám sinekdoxa sıyaqlı kórkem súwretlew qurallarınıń xızmetin konkret mısallar menen ashıp beredi.*

Tayanısh sózler: *Dástan, kórkem súwretlew quralları, epitet, teńew, metafora, kórkemlik, qaraqalpaq awızeki ádebiyatı.*

Abstract: *This article examines the language and artistic features of “Sayatxan-Hámre”, one of the Karakalpak folk epics. The author reveals the function of artistic devices such as simile, metaphor, and synecdoche in the epic with concrete examples.*

Keywords: *Epics, artistic devices, epithets, similes, metaphors, art, Karakalpak oral literature.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются язык и художественные особенности одного из каракалпакских народных эпосов “Саятхан-Хамре”. Автор раскрывает функцию таких художественных средств, как сравнение, метафора и синекдоха, в эпосе на конкретных примерах.*

Ключевые слова: *эпосы, художественные приемы, эпитеты, сравнения, метафоры, искусство, каракалпакская устная литература.*

Kirisiw. Jazıwda, sóylewde pikirdiń ıqshamlılıǵı, kórkemliligi hám onıń ótkirliginiń artıwı ushın tildegi hár qıylı kórkemlew quralları keń paydalanıladı. Tildegi bunday kórkemlew quralları, tiykarınan eki túrli boladı: leksikalıq hám sintaksislik. Leksikalıq kórkemlew quralları troplar dep ataladı, al sintaksislik kórkemlew qurallarına stilistikalıq (yamasa ritorikalıq) figuralar delinedi[2.27].

Tiykarǵı bólim. Bir sózdiń ayırım kontekstlerde óziniń tiykarǵı tuwrı mánisinen basqasha awıspalı mánide qollanılıp, hár qıylı kórkemlew quralı xızmetin atqarıwı «trop» dep ataladı. Troplar qatarına: epitet, teńew, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, allegoriya, janlandırıw hám perifraza kiredi.

Teńewler - ádebiyat hám folklorda keń túrde qollanılatuǵın kórkem súwretlew qurallarınıń biri esaplanadı. Til iliminde kórkem shıǵarmalardaǵı qanday da bir predmet yamasa is-háreketti ekinshi bir predmet yamasa qubılıs penen salıstırıp súwretleniwi «teńew» dep ataladı. Teńew járdeminde oy-pikirdiń kórkemligi, obrazlılıǵı hám estetikalıq jaqtan tásirsheńligi támiyinlenedi.

Belgili ilimpaz L.I.Timofeev teńewge tómendegishe anıqlama beredi: *"Teńew – troptıń ápiwayı, dáslepki túri bolıp, bunda bir nárseniń belgileri arqalı ekinshi bir nárseniń belgilerin anıqlaw maqsetinde eki qubılıs jaqınlastırıladı"[10.213].*

Álbette, til ilimine názer taslaytuǵın bolsaq, teńewler kórkem ádebiyatta erte dáwirlerden baslap qollanılıp kelgen súwretlew qurallarınıń biri ekenligin folklorlıq shıǵarmalar arqalı bilsek boladı.

Biraq teńewlerdi kórkem shıǵarmadan izlep tabıw ańsat bolǵanı menen, olar haqqında anıq hám tereń ilimiy pikir júritiw hárqashan da qıyın. Ózbek ilimpazı T.Boboev teńewlerdiń qurılısın tallay otırıp, olardıń **tórt elementten** turatuǵınlıǵın atap kórsetedi:

1. **Teńeliwshi predmet** – teńelip atırǵan obyekt;
2. **Teńlestiriwshi predmet** – uqsawshıobraz;
3. **Uqsaslıq belgisi** – ekinársearasındaǵıortaqsıpat;
4. **Teńew qosımtaları** – day/dey, kibi, sıyaqlıhámt.b.;

Haqıyqatındada, kórkem shıǵarmalarda teńewler usı elementler járdeminde qurılıp, obrazdıńanıqlıǵın, tásirkúshinhámestetikalıqqunınarttıradı.

Mısalı, "Sayatxan-Hámre" dástanında tómendegidey qatarlardı kóremiz:

Gúl júzli ***aydek*** jamalıń,
Kelgen on tórtke kámalıń
Lábiń sheker, júzde qalıń,
Qız-jawanlar, xosh qal endi[9.257].

1) Keltirilgen mısaldaǵı teńelip atırǵan bul – qız-jawanlar.
2) Al, "***aydek"*** sózi teńestiriwshi predmet, yaǵnıy uqsawshı obraz - ay.
3) Teńeliwshi hám teńestiriwshi nárselerdiń uqsaslıq belgisi – sırtqı kórinisi.
4) Berilgen mısalda teńew qosımta arqalı berilgen: ***ay+dek.*** **"**Dek" qosımtası házirgi ádebiy tilimizde ónimli qollanılmaydı. Bunday usılda qollanıw tek ǵana dástanlarǵa ǵana tán bolıp esaplanadı.

Jáne de, dástandaǵı tómendegi qosıq qatarların alıp qarayıq.

Lashın kibietsem dáwir,
Raxıp kórse júziń úgir. [9.261]

Berilgen bul mısaldaǵı teńeliwshi predmet, yaǵnıy teńelip atırǵan obyekt – qus bolıp, teńestiriwshi predmet, yaǵnıy uqsawshı obraz – adamnıń ózi. Al, teńeliwshi hám teńestiriwshi nárselerdiń uqsaslıq belgisi – lashın qus haqqında bolıp, bul qus erkinlik tımsalı bolıp keledi hám erteklerde bul qus kóbinese ańshı qus retinde súwretlenedi.

Belgili ilimpaz Q.Maqsetov óz miynetinde kórkem súwretlew quralları haqqında toqtap ótip: "...Teńew poetikası qıyın bolǵanlıqtan elege shekem teoriyalıq jaqtan islep shıǵılmadı, sebebi teńew hár qıylı poetikalıq kórkemlew qurallarınıń baslanǵısh dáwiri bolıp esaplanadı. Troplardıń derlik hámmesi teńewlerden saǵa aladı[4.280]", – dep jazadı. Rasında da, teńewler túrli kóriniste berilgenligi menen biz joqarıda keltirgen tórt element tiykarında ámelge asırıladı.

Epitet, metafora, teńew usaǵan kórkem súwretlew quralları ádebiy shıǵarmalardıń leksikasında belgili orında turadı. Olar óz gezeginde kórkem ádebiyat uslubınıń ayrıqshalıǵın da kórsetedi. Jazıwshı óz shıǵarmasında belgili bir uslublıq jobada awızeki sóylew tiliniń birliklerinen de, dialektlik sıpattaǵı sózlerden de, shet til elementlerinen de paydalana beriw múmkin.

Metafora. Qanday da bir predmet ataması arqalı ekinshi bir predmettiń qayta atalıwı – bul "metafora" delinedi. Metafora tiykarında sózdiń obrazlılıǵı payda etiledi. Metafora – gerk tilinen alınǵan sóz bolıp, "*meta"- "qaytadan", "fora" "kóshiremen"* degen mánini bildiredi. Kórkem súwretlew quralları arasında metaforalar kórkem shıǵarmalarda eń ónimli túrde qollanılatuǵın troplardıń biri esaplanadı. Metaforalar haqqında gáp ketkende, belgili ilimpazlardıń tómendegi pikirlerin keltirip ótkenimiz orınlı.

Metaforalar turmıstıń barlıq tarawında qollanıla beredi. Olar kúndelikli sóylew tilimizde de, jazba tilde de, ilimde de, kórkem ádebiyatta da jiyi ushırasadı. Kórkem ádebiyatta metaforalar Mánilik ótkirlikti, sóz obrazlırın payda etiw ushın kórkem suwretlewdiń bir usılı retinde qollanıladı.

Bir nárseni eskertip ótiw kerek. Biz metafora degende til biliminde qanday da bir uqsaslıq tiykarında payda bolǵan awısqan mánilerdi túsinetuǵınımız belgili. Al, bul usıl arqalı kórkem ádebiyatta kórkem súwretlewdiń baslı qurallarınıń biri sıpatında da "metaforalar" jasaladı. Bul ekewiniń, yaǵnıy ulıwma qaraqalpaq tilindegi metaforalar menen kórkem ádebiyattaǵı metaforalardıń arasında ayırmashılıqlar bar. Bul ayırmashılıqlar kórkem ádebiyatta kórkem súwretlew qurallarınıń biri sıpatında qollanılatuǵın metaforalardıń obrazlıq xarakterinde kórinedi. Máselen, mına mısallardı salıstırıp qaraylıq:

Mısalı:

Ashılǵan gúl qara dóndi,
Baǵrım kúydi, nara dóndi...[9.269]

Sonıń menen birge, dástanda tómendegi qatarlar da dıqqatqa ılayıq:

- ***Júzi gúl, zulpıları dala mináwwar,***
Qáne ata, meniń yarım kórines [9.267].

Berilgen qatardaǵı dıqqat etilgen sózler tiykarǵı mánisinen kóship, awıspalı mániske ótken. Dástandaǵı sózlerdiń bunday awıspalı mánisi obrazdı ele de kórkemlep súwretlew, sulıwlıǵın táriyiplew maqsetinde qollanılǵan.

- Sayat qol uzatpa ***gúlge***,
Gúl qırmızı kiyinipti [9.268].

Bul qatarda itibarǵa alınǵan "gúl" sózi haqıyqıy gúl emes, "qız", "yar" mánisinde kelgeni ayqın seziledi. Solay etip, metaforizaciyalıq usıl qaraqalpaq tilinde ónimli, sóz mánilerin bayıtıwdaǵı eń jedel usıl bolıp sanaladı [2.24].

Sinekdoxa. Til biliminde hár túrli súwretlew quralları bolıp,áne solardıń arasında ónimli qollanılatuǵın jáne bir súwretlew quralı bul – sinekdoxa. Sinekdoxanı kópshilik jaǵdaylarda metonimiyanıń ishinde qarap, oǵan metonimiyanıń eń kóp taralǵan túrleriniń biri sıpatında anıqlama beredi. Sinekdoxanı basqa usıllardan ayıratuǵın belgi awısatuǵın atamalar arasındaǵı san jaǵınan qatnastan, belgiden ibarat [2.23]. Mısalı:

Jat yurtqa alıp ***bashını,***
Jat yurtqa ketmeli boldı [2.23].

Berilgen bul mısaldaǵı tek deneniń bir bólegi bolǵan «bas»tıń ózin ǵana jat jurtqa alıp ketiwdi názerde tutıp turǵan joq. "Bas" sózi arqalı insannıń ózi, onıń pútin bolmısı hám táǵdiri aytılıp tur. Al, ekinshi bir mısaldı alıp qarayıq:

Áy ***yaranlar, musılmanlar,***
Jaylar dash qaldı, dash qaldı [9.258]...

Berilgen bul qatardaǵı "Yaranlar, musılmanlar" sózleri pútkil bir xalıqqa, sol jerde jasawshı adamlarǵa qarata aytılıp tur. Sinekdoxalar oy-pikirdi kórkemlep ǵana emes jıynap beretuǵın súwretlew qurallarınıń biri.

Dástanda gózzal qızdıń shiyrin sózligi mınaday sinekdoxalıq qural arqalı kórkem súwretlengen:

Ashıq boldım shadı-sheker ***tillerge***,
Baǵda ashılǵan taza qızıl gúllerge [9.262].

Bul qatarda keltirilgen "tillerge" sózi – "shiyrin sózli yar", "dilbar", "sulıw qız" mánisinde kelgen.

Juwmaqlap aytatuǵın bolsaq, kórkem súwretlew quralları kórkem shıǵarmada shıǵarmanıń kórkemligin arttırıp ǵana qalmay, avtor jetkermekshi bolǵan pikirlerdiń tásirsheńligin kúsheytedi, obrazlardı anıǵraq, janlıraq hám ózgeshe túste kórsetedi. Sonıń menen birge, kórkem súwretlew quralları oqıwshınıń sezimlerine tásir etip, shıǵarmadaǵı waqıya hám qaharmanlar dúnyasın tereńirek seziniwge múmkinshilik jaratadı. Olar tildiń obrazlılıq qásiyetin ashıp berip, pikirdi konkretlestiriw, súwretlew hám emocional boyaw beriw wazıypasın orınlaydı.

Ulıwmalastırıp alǵanda, kórkem súwretlew quralları hám usılların ele de tereńirek izertlew til bilimindegi áhmiyetli máselelerden biri bolıp tabıladı. Kóplegen ilimpazlardıń miynetlerinde bul haqqında arnawlı izertlewler alıp barılǵanlıǵı belgili. Degen menen, biz izertlew

TAMADDUN NURI

obyektine alıp otırǵan bul dástandaǵı kórkem súwretlew qurallarınıń túrleri hám olardıń qollanılıw usılları óz aldına keńirek izertlewdi talap etedi.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Ахметов С., Есенов Ж. , Жәримбетов Қ. Әдебияттаныў атамаларының орысша-қарақалпақша түсиндирме сөзлиги. – Нөкис, «Билим», 1992.
2. Бердимуратов Е. Әдебий тилдиң функциналық стиллериниң раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. – Нөкис, «Билим». 1973.
3. Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тили.Лексикология. – Нөкис, «Билим». 1994.
4. Мақсетов Қ. Қарақалпақ қаҳарманлық дәстанлары поетикасы. –Ташкент, «Илим». 1965.
5. Мақсетов Қ. Қарақалпақ халқының көркем аўызеки дөретпелери. – Нөкис, «Қарақалпақстан». 1996.
6. Қудайбергенов М., Баширов Т. Қарақалпақ тили антонимлериниң қысқаша сөзлиги. – Нөкис, «Билим». 1995.
7. Қурбаназаров П., Досанов Т. Англичан-қарақалпақ сөзлиги. – Нөкис-Москва, «Қарақалпақстан». 1968.
8. Қурбанбаев А., Бабаева Г. Немисше-қарақалпақша сөзлик. – Нөкис, «Қарақалпақстан», 2021.
9. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 27-42-томлар. – Нөкис, «Илим». 2012.
10. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. Москва, «Просвещение», 1966, ст 213.
11. Paxratdinov Q., Bekbergenov Q. Qaraqalpaq tilindegi omonimler sózligi. – Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2015.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 39.016:811.114:004

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KASBIY FAOLIYATDA INGLIZ TILINI O‘QITISH SAMARADORLIGI

Jo‘rayeva Mahliyo Rashidovna, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti



https://orcid.org/0009-0006-0797-5814
e-mail: mahliyorashidovna@gmail.com

THE EFFECTIVENESS OF TEACHING ENGLISH FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Juraeva Mahliyo Rashidovna, Teacher of the Department of English language and literature of the Bukhara State Pedagogical Institute

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Жураева Махлиё Рашидовна, преподаватель кафедры английского языка и литературы Бухарского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ingliz tilining metodik ta’minotini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqotning dolzarbligi global ta’lim makonida ingliz tilining lingua franca sifatida mustahkam o‘rin egallayotgani hamda raqamli texnologiyalarning pedagogik jarayonga jadal integratsiyalashuvi bilan belgilanadi. Ishda kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitishda (ESP) raqamli vositalar, adaptiv ta’lim texnologiyalari va blended learning modeli samaradorligi kompleks tahlil qilindi. Natijada metodik ta’minotni modernizatsiya qilishning konseptual modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi tajriba-sinov asosida asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli pedagogika, ESP (English for Specific Purposes), kasbiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, blended learning, adaptiv ta’lim, LMS platformalar, metodik ta’minot, raqamli didaktika, innovatsion yondashuv.*

Abstract: *This study explores the theoretical and methodological foundations for improving the methodological support of English language instruction in preparing students for professional activities within the context of digital transformation. The relevance of the research is обусловлено the growing role of English as a global lingua franca and the rapid integration of digital technologies into the educational process. The paper provides a comprehensive analysis of the effectiveness of digital tools, adaptive learning technologies, and blended learning models in teaching English for Specific Purposes (ESP). As a result, a conceptual model for modernizing methodological support has been developed and its effectiveness has been validated through experimental research.*

Keywords: *digital pedagogy, English for Specific Purposes (ESP), professional competence, communicative competence, blended learning, adaptive learning, LMS platforms, methodological support, digital didactics, innovative approaches.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы совершенствования методического обеспечения обучения английскому языку при подготовке студентов к профессиональной деятельности в условиях цифровой трансформации. Актуальность исследования обусловлена возрастающей ролью английского языка как глобального средства общения, а также активной интеграцией цифровых технологий в образовательный процесс. В работе проведён комплексный анализ эффективности цифровых инструментов, адаптивных образовательных технологий и модели смешанного обучения (blended learning) в обучении английскому языку для специальных целей (ESP). В результате разработана концептуальная модель модернизации методического обеспечения и экспериментально подтверждена её эффективность.*

Ключевые слова: *цифровая педагогика, английский язык для специальных целей (ESP), профессиональная компетентность, коммуникативная компетенция, смешанное обучение, адаптивное обучение, LMS-платформы, методическое обеспечение, цифровая дидактика, инновационные подходы*.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Zamonaviy raqamli qurilmalar, dasturiy ta’minotdan foydalanib, ta’limni samarali va interaktiv tarzda tashkil etish jarayoni – raqamli texnologiyalar bo‘lib, talabalar va o‘qituvchilarga bilim olish va o‘rganish jarayonini osonlashtirib, individual yondashish imkonini berib ta’lim sifatini oshiradi. Raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi asosiy turlari multimedia vositalari**,** onlayn ta’lim platformalar**,** mobil ilovalar**,** sun’iy intellekt vositalari**,** elektron jurnal va kundaliklar**,** videodarslar va vebinarlar misol bo‘la oladi. Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, bilim oluvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ta’lim jarayonini zamon talablari asosida tashkil etishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika va lingvodidaktika fanlarida raqamli texnologiyalar asosida til o‘qitish muammosi keng qamrovda o‘rganilgan. Xususan, T.Hutchinson va A.Waters tomonidan ishlab chiqilgan ESP konsepsiyasi kasbiy tamoyillarga yo‘naltirilgan til o‘qitishning metodologik asosini tashkil etadi[1,12]. M.Warschauer va J.Richards tadqiqotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining til o‘qitishdagi roli, xususan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan[2;3, 17;26].

Xorijiy ilmiy ishlarda ta’lim jarayonida talabaning avtonomligini rivojlantirish, self-directed learning va digital literacy tushunchalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Respublika tadqiqotlarida esa ta’limni raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotda quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

-tizimli-tahliliy yondashuv – bu tadqiqotda qo‘llanilgan tizimli-tahliliy yondashuv o‘rganilayotgan muammoni yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda ingliz tilini kasbiy o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rnini kompleks tahlil qilish imkonini berdi;

-komparativ (taqqoslash) tahlil – ushbu tahlil yordamida an’anaviy va raqamli o‘qitish metodlari, shuningdek, nazorat va eksperimental guruhlar natijalari o‘zaro solishtirilib, ularning samaradorlik darajasi aniqlashtirildi;

-pedagogik modellashtirish – bu metod asosida esa raqamli texnologiyalar integratsiyalashgan holda kasbiy ingliz tilini o‘qitishning konseptual modeli ishlab chiqildi va uning asosiy komponentlari (maqsad, mazmun, texnologiya, natija) tizimlashtirildi.

-eksperimental tadqiqot (tajriba-sinov) orqali taklif etilgan metodikaning amaliy samaradorligi tekshirilib, o‘quv jarayoniga joriy

etilgan innovatsion yondashuvlarning natijadorligi real sharoitda sinovdan o‘tkazildi.

-statistik tahlil (natijalarni miqdoriy baholash) yordamida olingan natijalar miqdoriy jihatdan qayta ishlanib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar, foizlar hamda matematik-statistik usullar orqali natijalarning ishonchliligi va ahamiyatlilik darajasi asoslab berildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv va konstruktivistik ta’lim nazariyasi tashkil etadi.

Muhokama. Raqamli ta’lim muhiti shakllanayotgan hozirgi davrda ingliz tilini kasbiy kontekstda o‘qitish an’anaviy metodlardan tubdan farq qiladi. Zamonaviy yondashuvlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Integrativlik – ingliz tilini kasbiy fanlar bilan integratsiyalash;
2. Autentiklik – real kasbiy kommunikativ vaziyatlarga yaqin materiallardan foydalanish;
3. Adaptivlik – talabaning individual xususiyatlariga moslashuv;
4. Interaktivlik – raqamli vositalar orqali faol o‘qitish.

Integrativlik, autentiklik, adaptivlik va interaktivlik tamoyillari raqamli texnologiyalar asosida ingliz tilini kasbiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitishning metodologik asosini tashkil etadi. Integrativlik ingliz tilini kasbiy fanlar mazmuni bilan uyg‘unlashtirish orqali talabada mutaxassislikka oid terminologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirsa, autentiklik real kasbiy kommunikativ vaziyatlarga yaqin materiallardan foydalanish orqali o‘rganilayotgan tilni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi. Adaptivlik esa ta’lim jarayonini individuallashtirish, ya’ni har bir talabaning bilim darajasi, ehtiyojlari va o‘rganish sur’atiga moslashtirishni ta’minlaydi, bunda raqamli texnologiyalar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Interaktivlik tamoyili esa o‘quv jarayonida talabalarni faol ishtirok etishga jalb etib, zamonaviy raqamli platformalar va vositalar orqali ularning muloqot, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Natijada mazkur tamoyillar uyg‘unligi ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirib, talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida quyidagi metodik yechimlar taklif etiladi:

-LMS (Moodle, Google Classroom) orqali tizimli o‘qitish;

-korpus lingvistikasi va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish;

-simulyatsiya va interaktiv metodlari;

-gamifikatsiya elementlarini joriy etish.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan kasbiy ingliz tili o‘qitish jarayoni an’anaviy yondashuvga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Xususan, eksperimental guruh talabalari natijalarida kommunikativ kompetensiya darajasi o‘rtacha 15–20%ga, kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish ko‘rsatkichi sezilarli oshgani aniqlandi, bu esa o‘quv jarayonida autentik materiallar, interaktiv platformalar va takomillashtirilgan modelning qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash va kasbiy muloqotga kirishish qobiliyatlari rivojlanganligi kuzatildi. Bundan tashqari, ishlab chiqilgan metodik modelning amaliy joriy etilishi o‘quv jarayonining individuallashtirilishi, o‘quv materiallarining kasbiy yo‘naltirilganligi va o‘qitish samaradorligining kompleks oshishiga olib kelganligi bilan ilmiy asoslandi. Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik model quyidagi komponentlardan iborat ekanligi asoslandi: maqsad komponenti, mazmuniy komponent, texnologik komponent hamda baholash komponenti.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar asosida kasbiy ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u talabalarni raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari raqamli pedagogika vositalari, xususan, blended learning, interaktiv platformalar va adaptiv o‘qitish texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Shu bilan birga, metodik ta’minotni

takomillashtirish kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlar asosida amalga oshirilishi, o‘quv materiallarining kasbiy yo‘naltirilganligi va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Natijada, ishlab chiqilgan metodik yondashuv oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ularni global mehnat bozoriga samarali tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hutchinson T., Waters A. *English for Specific Purposes*. – Cambridge: CUP, 1987.
2. Warschauer M. *Technology and Language Learning*. – Cambridge: CUP, 1998.
3. Richards J.C. *Communicative Language Teaching Today*. – Cambridge, 2006.
4. Juraev A., & Juraeva, M. Methodological importance of developing students’ communicative competence in English. в theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences (Т. 3, Выпуск 20, сс. 100–104). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.14128205
5. Juraev Akmal Razzokovich, Juraeva Mahliyo Rashidovna The Importance of Professional Competence Along with Personal Maturity to Harmonize All the Innovations in Society Excellencia: international multi-disciplinary journal of education Volume 02, Issue 04, 2024 ISSN (E): 2994-9521 https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje
6. M.R. Jo‘rayeva. Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy faoliyatiga doir ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari. SSN 2181-7138. //Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал, 2025 5/2-сан. 93-bet.
7. Benson P. *Teaching and Researching Autonomy in Language Learning*. – Routledge, 2013.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 159.922.7

O‘SMIRLAR AXLOQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISH – IJTIMOIY-PSIXOLOGIIK MUAMMO SIFATIDA

Jabborov Jamshid Azimovich, Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0009-0008-6409-2967
e-mail: jamshidshoh@gmail.com

IMPROVING THE MORAL EDUCATION OF ADOLESCENTS AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Jabborov Jamshid Azimovich, Associate Professor of the International Innovation University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

УЛУЧШЕНИЕ МОРАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ ПОДРОСТКОВ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Жабборов Жамшид Азимович, доцент Международного инновационного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам

Annotatsiya*: Mazkur maqolada o‘smir shaxsnini tarbiyalash jarayonida odob-axloqni rivojlantirish masalalar, bolaning odob-axloq pozitsiyalarining yaxlitligi, xatti-harakatlarining izchilligi, shaxsiy qadr-qimmat va ma’naviyatni hurmat qilishning asosiy shartlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan yosh avlod, xususan o‘smirlar ma’naviy qiyofasini rivojlantirishda, uni axloqiy tarbiyalashda oilaning o‘rni, oilaviy qadriyatlarning ahamiyati, ma’naviy-axloqiy tarbiya va tarbiyaning mazmun-mohiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: o‘smir, oila, axloqiy tarbiya, yosh avlod, odob-axloq, oilaviy qadriyatlar, ma’naviy qiyofa, axloqiy his-tuyg‘ular, ong, tafakkur, axloqiy iroda, ta’lim.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the issues of developing morality in the process of educating a teenager's personality, the integrity of the child's moral positions, the consistency of his actions, the main conditions for respecting personal dignity and spirituality. The researcher also reveals the role of the family in developing the spiritual image of the younger generation, especially adolescents, and in their moral upbringing, the importance of family values, the content and essence of spiritual and moral upbringing and education.*

Keywords: *teenager, family, moral upbringing, young generation, morality, family values, spiritual image, moral feelings, consciousness, thinking, moral will, education.*

Аннотация: *В данной статье научно анализируются вопросы развития нравственности в процессе воспитания личности подростка, целостности нравственных позиций ребенка, последовательности его поступков, основных условий уважения личного достоинства и духовности. Исследователь также раскрывает роль семьи в формировании духовного образа молодого поколения, особенно подростков, и в их нравственном воспитании, важность семейных ценностей, содержание и сущность духовно-нравственного воспитания и образования.*

Ключевые слова: *подросток, семья, нравственное воспитание, молодое поколение, нравственность, семейные ценности, духовный образ, нравственные чувства, сознание, мышление, нравственная воля, воспитание.*

Kirish. O‘smir shaxsnini tarbiyalash jarayonida odob-axloqni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bolaning odob-axloqi ularning pozitsiyalarining yaxlitligi, xatti-harakatlarining izchilligi, shaxsiy qadr-qimmat va ma’naviyatni hurmat qilishning asosiy sharti hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim muammolari orasida axloqiy tarbiya muammosi eng dolzarbdir. Bu mamlakatning siyosiy-ijtimoiy tizimi va iqtisodiyotidagi jiddiy o‘zgarishlar, jinoyatchilik, zo‘ravonlik, shafqatsizlik, xudbinlik, ma’naviy buzuqlikning kuchayishi bilan bog‘liq. An’anaviy axloq normalari ko‘pincha ijtimoiy voqelikka zid keladi. Bunday jarayonlar jamoat axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va birinchi navbatda o‘smirlar ongi va axloqiy rivojlanishiga putur yetkazadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o‘smirlar axloqiy tarbiyasini o‘rganishda tizimli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asos qilib olindi. Ilmiy manbalarni tahlil qilishda tahlil va sintez, turli qarashlarni solishtirishda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, o‘smirlarning axloqiy xulq-atvori va qadriyatlarini aniqlashda kuzatish, suhbat va so‘rovnoma metodlari qo‘llanildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Muhokama va tahlil. Axloqiy tarbiya faqat o‘smirlarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabatlarni (umumiy axloqiy me’yorlarga mos keladigan) va jinsga asoslangan muloqotni rivojlantirishning yaxlit jarayoni sifatida samarali bo‘ladi. Bu yaxlit jarayonning natijasi axloqiy jihatdan yaxlit, yaxlit ong, axloqiy his-tuyg‘ular, vijdon, axloqiy iroda, ko‘nikma, odatlar va ijtimoiy qimmatli xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxsning rivojlanishidir.

Axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi axloqiy tuyg‘u tushunchasi - doimiy hissiy tuyg‘u, tajriba va haqiqiy axloqiy munosabatlar va o‘zaro ta’sirlar. Axloqiy me’yorlar faqat bolaning hissiy jihatdan o‘zlashtirilishi orqali subyektiv axloqqa aylanadi. Ular uchun axloq, avvalo, jonli tuyg‘u, haqiqiy holat va chuqur qoniqish yoki aksincha, noqulaylik, azob-uqubatlar, jismoniy jirkanish, o‘zini qoralash va pushaymon bo‘lishdir. Axloqiy tuyg‘u inson axloqining tizimni tashkil etuvchi tamoyilidir. Uning yordamida axloqiy ong, xulq-atvor me’yorlarini bilish, odatiy harakatlar axloqiy ma’noga ega bo‘ladi.

Axloqiy tuyg‘uni asosiy tamoyil sifatida baholash axloqiy ongni e’tiborsiz qoldirishni anglatmaydi. Axloqiy ong – bu bolaning axloqiy munosabati va holatini aks ettiradigan faol jarayon. Rivojlangan axloqiy ong axloqiy tamoyillar va me’yorlarni bilishni, shu bilan birga jamiyatdagi axloqiy mavqeini doimo tan olish va tushunishni nazarda tutadi.

Axloqiy ongni rivojlantirishning subyektiv harakatlantiruvchi kuchi axloqiy tafakkurdir – axloqiy faktlar, munosabatlar va vaziyatlarni doimiy ravishda to‘plash va tushunish, ularni tahlil qilish va baholash, axloqiy qarorlar qabul qilish va mas’uliyatli tanlash jarayonidir. Axloqiy kechinmalar va vijdon azoblari ongda aks ettirilgan hissiy holatlarning birligi va ularni tushunish, axloqiy tafakkur orqali vujudga keladi.

Shaxsning axloqi subyektiv ravishda o‘zlashtirilgan axloqiy tamoyillar asosida shakllanadi, bu ularning munosabatlar tizimi va doimo pulsatsiyalanuvchi axloqiy tafakkur. Axloqiy his-tuyg‘ular, ong va tafakkur axloqiy irodaning namoyon bo‘lishiga asos va turtkidir. Axloqiy iroda va dunyoga samarali, amaliy yondashuvsiz haqiqiy axloq bo‘lmaydi.

Axloqiy tarbiya shunchaki singdirish, axloqiy me’yorlarni rasmiy yodlash yoki xatti-harakatlar odatlarining aqlsiz amaliyoti emas. Bu munosabatlar, o‘zaro ta’sirlar, faoliyat, muloqot va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning faol, jonli jarayonidir. Axloqiy tanlovlarning cheksiz oqimida istak va burch, intizom va erkinlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon va qonunbuzarlik, rahm-shafqat va shafqatsizlik, sevgi va nafrat, haqiqat va yolg‘on, xudbinlik va kollektivizm, oshkoralik va ikkiyuzlamachilik, xarakter xususiyatlari, axloqiy fazilatlar va shaxsiyat xususiyatlarining soxta tushunchasi sayqallanadi.

Bularning barchasi axloqiy tarbiyaning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Voyaga yetgan bolalarning xulq-atvori va ongidagi nomuvofiqlikni tasodifiy yoki shunchaki noto‘g‘ri tarbiya natijasi deb qarash xatodir. Axloqiy rivojlanishning mohiyati bolaning tashqi va ichki qarama-qarshiliklarni yengishidadir.

Bolaning atrofdagi olam bilan munosabatga kirishishi bilanoq, u darhol subyektiv axloqiy idrokda namoyon bo‘ladigan va u uchun subyektiv

axloqiy makonni tashkil etadigan haqiqiy obyektiv munosabatlarni rivojlantiradi.

O‘smirlarning axloqiy tarbiyasining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ular yashayotgan subyektiv axloqiy makonning tabiatiga bog‘liq. Bu guruh, oila, boshqa qarindoshlar, ko‘chadagi tengdoshlari va do‘stlari bilan bo‘lgan munosabatlari va o‘zaro munosabatlari, ularning o‘ziga, tabiatga, tashqi dunyoga, mehnatga, turmush tarziga va ijtimoiy talablarga bo‘lgan munosabatini o‘z ichiga oladi.

Axloqiy tarbiya – bu doimiy va tizimli qarorlar, axloqiy me’yorlar foydasiga irodali harakatlarni tanlash, o‘zini o‘zi belgilash va ularga muvofiq o‘zini o‘zi boshqarish jarayoni. Faqat kurash va o‘z ichidagi va tashqarisidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish orqali bola o‘zini axloqiy jihatdan butun va kuchli, o‘zini tuta oladigan, ehtiroslar va holatlar asiri sifatida his qilishi va tan olishi mumkin.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya – hayotdagi qarama-qarshiliklarni, muammolarni, savollarni, ziddiyatlarni va to‘qnashuvlarni bartaraf etish va hal qilish uchun bolalarni tashkil etishdir. O‘smirlarning axloqiy hayotining ziddiyatli tabiati ta’lim jarayonining asosiy yo‘nalishi deb hisoblanishi kerak, uni tashkil etish tizimli va doimiy ishlarni, mohirona nizolarni hal qilishga, axloqiy tuyg‘uni, onglilikni, odatlarni va odatiy xatti-harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Axloqiy tarbiya jarayonining murakkabligi shundaki, uni tashkil etish bir vaqtning o‘zida o‘smirlarning butun hayotini, ularning barcha faoliyati va munosabatlarini qamrab oladi. Muhimi, o‘smirlarning o‘zlari, niyatlari va xatti-harakatlari haqida nima deyishlari emas, balki ularning har bir aniq vaziyatda qanday harakat qilishlari, boshqalarga, jamoat va xususiy mulkka, mehnatga, ijtimoiy faoliyatga, umumiy va shaxsiy manfaatlarga, ijtimoiy intizom talablariga qanday munosabatda bo‘lishlari muhim: bu munosabatlar shaxsning axloqiy portretini yaratadi.

Axloqiy tarbiyaning natijasi shakllangan ma’naviy qiyofadir. U o‘zini ijtimoiy jihatdan qimmatli shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarda namoyon qiladi, munosabatlarda, faoliyatda va muloqotda namoyon bo‘ladi. Axloqiy tarbiya – ijobiy odatlar va xulq-atvorning odatiy normalari, turli ijtimoiy guruhlarda (oila, qarindoshlar, maktab o‘quvchilari guruhlari, sport klublari, mahalla guruhlari va boshqalar) o‘smirlar o‘rtasidagi munosabatlar va muloqot madaniyatining barqarorligi. Axloqiy tarbiya axloqiy tuyg‘uning chuqurligi, ruhiy iztiroblarni boshdan kechirish qobiliyati, vijdon azobi, iztirob, uyat, hamdardlik bilan namoyon bo‘ladi. U axloqiy ongning yetukligi – hayot hodisalarini tahlil qilish, axloqiy ideal nuqtayi nazaridan baholay olish va mustaqil ravishda baholash qobiliyati bilan ajralib turadi.

Axloqiy tarbiya o‘smirning mustahkam irodasi, axloqiy va irodaviy nazoratni amalga oshirish, o‘zini tuta bilish, xulq-atvorini tartibga solishda ham namoyon bo‘ladi. Bu faol hayotiy pozitsiyada, so‘z va ish birligida, fuqarolik jasoratida, qiyin hayotiy vaziyatlarda o‘z qaroriga va o‘ziga sodiq qolish qat’iyatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy tarbiya maktab o‘quvchilarida axloqiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini takomillashtirishga olib kelsa samarali bo‘ladi.

Shaxsning axloqiy tarbiyasi yoki uning yetishmasligi ijtimoiy sharoitga qarab turli xil sifat holatlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Individual axloqiy ong axloqiy ijtimoiy munosabatlarga zid kelishi mumkin. Shaxs va ijtimoiy axloq o‘rtasidagi ziddiyat axloqsizlik va tarbiyasizlikning yashirin shakllarida namoyon bo‘ladi. Bu kamolotga yetgan shaxs o‘zining asl qiyofasini yashirgan holda, huquqiy va axloqiy me’yorlarga zid harakat qilganda, xudbinlik, iste’molchilik, foyda olishga intilish ta’sirida yuzaga keladi.

V.A.Suxomlinskiy ilmiy izlanishlarida oilada bolaning axloqiy tarbiyasi uchun quyidagi omillar va shartlarni ajratib ko‘rsatib o‘tadi:

1. Ijtimoiy (oilaviy) sevgi muhiti. Bu tuyg‘udan mahrum bo‘lgan odam o‘z yaqinlarini, yurtdoshlarini, vatanini hurmat qilishga, boshqalarga yaxshilik qilishga qodir emas. Oila a’zolari o‘rtasida bir-biriga muhabbat va samimiy mehr, sezgirlik, g‘amxo‘rlik muhiti bola ruhiyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi, his-tuyg‘ularini namoyon etishi, ularning ma’naviy ehtiyojlarining rivojlanishi va qondirishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ko‘r-ko‘rona, asossiz onalik muhabbati, aksincha, odamni axloqsiz iste’molchiga aylantiradi.

2. Samimiylik muhiti. Ota-onalar hech qachon muhim holatlarda yolg‘on gapirmasligi kerak. Bola har qanday yolg‘onni g‘ayrioddiy

keskinlik va tezlik bilan payqaydi va buni payqab, sarosimaga, vasvasaga tushadi va shubhalanadi. Agar bolaga biror narsani aytib bo‘lmaydigan bo‘lsa, bema’ni narsalarni o‘ylab topib, keyin unga aralashib qolishdan yoki yolg‘on gapirib, aldab, keyin oshkor bo‘lishdan ko‘ra, har doim halol va to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob berishdan bosh tortish yoki ma’lumotga ma’lum bir chegara qo‘yish yaxshiroqdir. “Buni bilishga hali erta” yoki “baribir tushunmaysiz” kabi gaplarni aytmaslik kerak. Bunday javoblar bolaning qalbida faqat qiziqish uyg‘otadi va g‘ururini qo‘zg‘atadi. Yaxshiroq javob: “Men buni sizga aytishga haqqim yo‘q. Har bir inson ma’lum sirlarni saqlashga majburdir va boshqalarning sirlarini so‘rash – beadablik va uyatsizlikdir”. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘rilik va samimiylikni saqlaydi va burch, intizom va xushmuomalalik bo‘yicha aniq saboq beradi.

V.A.Suxomlinskiy so‘zlarni aniq shaxsga nisbatan qo‘llash kerakligini ta’kidlaydi: ular mazmunli, chuqur ma’no va hissiy rezonansga ega bo‘lishi kerak. So‘z tarbiyaviy bo‘lishi uchun o‘quvchining fikri va qalbida iz qoldirishi, bunga erishish uchun esa so‘z ma’nosiga chuqurroq kirib borishga o‘rgatish kerak. Shundagina biz hissiy ta’sirga ishonishimiz mumkin. O‘smirlar mulohaza yuritishni yaxshi ko‘radilar, lekin ota-onalar ko‘pincha bu fikrni bostirishadi, ularning balog‘atga yetmaganligini ta’kidlaydilar, ular hali yosh va shuning uchun o‘z fikrlarini bildirishga erta ekanligini tushuntiradilar. Biroq aynan shu mulohazalar orqali o‘smirlar axloqiy tushunchalarni tushunadilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davrining eng muhim xususiyatlaridan biri – axloqiy o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi: axloqiy tushunchalar, g‘oyalar, e’tiqodlar va o‘smirning xulq-atvoriga rahbarlik qila boshlaydigan qadriyatlar tizimi. O‘smirning o‘zlashtirgan axloqiy tajribasi va amalga oshiradigan axloqiy faoliyatiga qarab, uning shaxsiyati shakllanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov J.A. Ma’naviy ehtiyojlar rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari. Innovative, educational, natural and social sciences, VOLUME 1 | ISSUE 3, ISSN 2181-1784. 2021. 30-35 b.
2. Жабборов Ж.А. Эҳтиёжлар тизимида – маънавий эҳтиёжлар. Актуальные вызовы современной науки. II Международная научная конференция. 2017. С 62-64.
3. Жабборов Ж.А. Ғарб олимларининг илмий тадқиқотларида эҳтиёжлар тизимининг таҳлили. Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги – ЎзА илм-фан бўлими (электрон журнал). 2021. Б. 316-325.
4. Жабборов Ж.А. Маънавий эҳтиёжлар–жамият тараққиётининг мезони. Матеріали конференцій I Міжнародна наукова конференція «Трансформація суспільних наук: соціально-економічний, лінгвістичний, політичний». Украина. 2021.
5. Jabbarov J.A. Interpretatıon of needs ın the spırıtual herıtage of our ancestors. Best journal of ınnovatıon ın scıence, research and development. ISSN: 2835-3579. 2023. SJIF: 5.493.
6. Джаббаров Д.А. (2023). Интерпретация потребностей в духовном наследии наших предков. Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках, 633–636. Источник — https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1158
7. Jabborov J.A. Society in his Life Spiritual of Needs Held Place. merican Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 48–51.
8. Jabbarov J.A. Interpretation Of Needs In The Spiritual Heritage Of Our Ancestors. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 633–636.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1(092)

SAYFIDDIN BOXARZIY MA'NAVIY MEROSIDA INSON QALBINING KAMOLOTI

Norova Malika Fayzulloyevna, Buxoro davlat universiteti, Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

PERFECTION OF THE HUMAN HEART IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF SAYFIDDIN BOKARZI

Norova Malika Fayzulloyevna, Lecturer, Department of Social and Political Sciences, Bukhara State University

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ДУШИ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ САЙФИДДИНА БАХАРЗИ

Норова Малика Файзуллоевна, учитель кафедры общественно-политических наук, Бухарский государственный университет



e-mail: norova.83@list.ru
https://orcid.org/0009-0009-7361-1826

Annotatsiya: *Bu maqolada komil inson g'oyasining tarixiy-falsafiy, diniy va tasavvufiy asoslari tahlil qilingan. Sayfiddin Boxarziyning "Vasiyoyi Sayfiddin Boxarziy" risolasi asosida komil insonni shakllantirishning "yaxshi urug'", "yaxshi joy", "yaxshi o'g'it" va "qulay vaqt" kabi to'rt asosiy omili ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Maqolada tasavvufiy qarashlarda komil insonning kamtarinlik, ixlos, ma'naviy poklik va ilohiy nurni aks ettiruvchi shaxs sifatida talqin qilinishi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *komil inson, tasavvuf, ma'naviy kamolot, tarbiya, Sayfiddin Boxarziy, Kubraviya tariqati, axloqiy tarbiya, oila muhiti, ma'naviyat, ixlos, kamtarinlik, milliy qadriyatlar.*

Annotation: *In this article, thanks to the work of the great Sayf ad-din al-Bokharzi, we learn from the point of view of the scientist about the perfect man. At the same time, the legacy of the perfect person who records his testimony and his attitude towards him is the perfect humane level.*

Key words: *spirituality, teaching, sufism, education, upbringing, sufi, orif, zahid.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы историко-философские, религиозные и суфийские основы идеи совершенного человека. На основе трактата Сайфиддин Бохарзий «Васийои Сайфиддина Бахарзи» научно рассмотрены четыре ключевых фактора формирования совершенного человека: «хорошее семя», «благоприятная среда», «доброе воспитание (питание)» и «подходящее время». В статье раскрывается суфийское понимание совершенного человека как личности, отличающейся скромностью, искренностью, духовной чистотой и способностью отражать божественный свет.*

Ключевые слова: *совершенный человек, тасаввуф, духовное совершенство, воспитание, Сайфиддин Бохарзий, тарикат Кубравия, нравственное воспитание, семейная среда, духовность, искренность, скромность, национальные ценности.*

KIRISH. Asrlar davomida insoniyat tomonidan har tomonlama komil insonni shakllantirish masalasi dolzarb vazifalar sirasiga kirgan. Komil inson tarbiyasi barcha davrlarda muhim ijtimoiy vazifa hisoblanib, yaxshi tarbiya ko'rgan insonga jamiyat boyligi sifatida qaralgan. Inson ziynati uning ma'naviyati va egallagan bilimlari bilan o'lchangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikri, tafakkur qilish darajasi va amaliy faoliyati erkinligini anglashidadir. Shu ma'noda buyuk yunon faylasufi Suqrotning "O'zligingni angla!", - degan da'vati ham insonning o'z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyati va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir. Komil inson g'oyasini milliy istiqlol g'oyasidan ajratib bo'lmaydi[5].

Avloniyning fikricha, odam tug'ilishidan yomon xulq bilan tug'ilmaydi. Muayyan bir sharoitda yomon tarbiya natijasida ularda yomon xulq paydo bo'ladi va shakllanib boradi. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan amalga oshadi. Agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlansa, go'zal xulqlarga odatlanib, voyaga etsa, u

barchaning hurmati va e’tiboriga sazovor bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, har qanday buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil, yovuz bir odam bo‘lib yetishadi, deb ta’kidlasa, Abu Nasr Forobiy deydiki, inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘magi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi. Bunga ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali ham erishish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Sayfiddin Boxarziyning asarlarida yoritilgan qarashlar va hayotiy tajribalar insonni ruhiy va axloqiy kamol topishiga, jamiyatda esa sog‘lom va pokiza muhitni yuzaga keltirishiga, inson axloqi va odobi shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlardan tortib toki oilaga ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Sayfiddin Boxarziyning “Vasiyayoyi Sayfiddin Boxarziy” risolasidagi jumlalarni aytib o‘tish joiz. Boxarziy nazdida jamiyatda komil insonni shakllantirish masalalarga quyidagicha yondashadi. Biz jamiyatda komil insonni shakllantirishimiz uchun, “bu izzatni egallash va to‘liq hosil olishga to‘rt narsa sabab bo‘ladi: yaxshi urug‘, yaxshi joy, yaxshi o‘g‘it va qulay vaqt”[1]. Boxarziy jamiyatda insonlarni komilikka erishuvida yosh avlodning vujudga kelishidan boshlab e’tiborli bo‘lishni, jamiyatda va oilada ma’naviy va ma’rifiy, ilm-ziyo bilan yo‘g‘rilgan muhitning yaratilishi, farzandning yoshligidan odob –axloq masalalarida e’tiborli bo‘lish kerakligi va buning uchun farzandlarning tarbiyasiga ota-ona, qo‘ni-qo‘shni, mahalla va el-u yurtning befarq bo‘lmasligi, vaqtlarini ayamasliklarini ta’kidlab o‘tgan.

Sayfiddin Boxarziy komil insonni shakllantirishining to‘rt asosiy ustunini quyidagicha asoslaymiz.

Birinchidan, **Yaxshi urug‘** – hosilning yaxshisini yetishtirmoq niyatida bo‘lsangiz, urug‘ning yaxshisini tanlashingiz vojib bo‘ladi. Va shu yaxshi urug‘dan yaxshi navli, sifatli mahsulotni olishingiz mumkin. Bunda oila qurish masalasida ayolning hamda erkakning ma’naviy barkamolligi, sog‘lom inson bo‘lishi barkamol insonning vujudga kelishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yoshlar o‘rtasida kitobxonlikning rivojlantirilishi ularning ma’naviy barkamol bo‘lib shakllanishlariga asos bo‘lib xizmat qiladi. Sport sohasida yoshlarning erishayotgan yutuqlari bu mamlakatimizning jahonga tanitishning eng qulay yo‘li bo‘lishi bilan birga yoshlarimizning jismoniy jihatdan barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi. Hamda yangi avlodning sog‘lom kelajak yaratishimiz uchun turtki bo‘ladi.

Ikkinchidan, **Yaxshi joy –** yaxshi hosil olishi uchun dastlab yaxshi urug‘ tanlangandan so‘ng yaxshi o‘g‘it berilib, ishlov berilgan yerga o‘sha urug‘ qadaladi va urug‘ ko‘rkam bo‘lib rivojlanadi. Sayfiddin Boxarziy fikricha komil inson tarbiyalashda ikkinchi zamin bu yaxshi joy masalasidir, bunda har bir farzandning komil inson darajasida kamol topishini maqsad qilgan inson ayolining sog‘lom bo‘lishi uchun asosiy javobgar shaxs hisoblanadi. Islom dinimizda har bir erkakning o‘z oilasi oldidagi vazifalari va burchlarining mavjudligi va bunga e’tiborning kuchaytirilishi jamiyatimizda tinch oilalarning shakllanishi hamda bunday oilalarda ma’naviy muhitning shakllanganligi komil inson shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” shiori ostida ko‘plab ishlar amalga oshirildi[4]. Prezidentimiz tomonidan ayollarga bo‘lgan e’tibor, ularning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan va bu qonun va qarorlar bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Sog‘lom, barkamol kelajagimizni voyaga yetkazish uchun oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar manfaatlarini himoya qilish, sog‘lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, kuchli, barqaror va ravnaq topayotgan davlatning negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo‘naltirilgan qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Uchinchidan, **Yaxshi o‘g‘it –** yaxshi urug‘ni ishlov berilgan yaxshi yerga qadashdan so‘ng uning ko‘rkam va chiroyli bo‘lib bo‘y cho‘zishida uni parvarishlab yaxshi ozuqalar beriladi. Komil inson shakllanishida ajdodlarimizning qarashlaridan bizgacha yetib kelgan turli fikrlar mavjur. Ularning fikrlaricha insonning dunyoga kelishidan emas, ona qornida vujudga kelishidan boshlab tarbiya ya’ni, Sayfiddin Boxarziy ta’biri bilan aytganda yaxshi ozuqani berishni boshlash kerak. Bu masalada ona va otaning vazifalari juda ham asosiy o‘rinni egallaydi. Otaning oilani ta’minlash uchun topayotgan maoshi halol yo‘ldan bo‘lishi, chunki harom yo‘ldan, birovni norizo qilib topilgan luqma harom bo‘lishi allomalarimiz tomonidan ta’kidlab o‘tilgan. Bu ham onaning qornida shakllanayotgan murg‘ak go‘dakning kelajakda komil inson

bo‘lishida asosiy o‘rin tutadi. Eng asosiysi ayol o‘zini ma’naviy va jismoniy jihatdan avaylashi kerak. Bu davrda ayol faqat halol yeguliklar yemog‘i, go‘zal narsalarga qaramog‘i, yoqimli so‘zlarni tinglamog‘i va muloyim bo‘lmog‘i lozim. To‘g‘ri so‘zli bo‘lmog‘i lozim. Chunki farzand onadan barcha xususiyatlarni oladi. Rivoyatlarga ko‘ra, Sobit ismli yigit bir tishlam olmani iznsiz yeb qo‘yib egasidan rozilik so‘rash uchun chekkan mashaqqati – taqvodorligi tufayli Imom A’zam Abu Hanifadek ulug‘ olimning otasi bo‘ldi. Bu voqeada katta hikmat va oliy ibrat bor.

To‘rtinchidan, **Qulay vaqt –** bola tarbiyasida, uning yoshi va saviyasini inobatga olish lozim. Bolani biror bir yutuqqa erishishida, natijani ko‘rishga shoshmaslik kerak. Har bir ishni tadrijiylik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan bolani ikki yoshgacha faqat shirin so‘zlar bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o‘rganadi, asosiy ma’lumotni shu yosh oralig‘ida egallaydi. Bu davrda biz ko‘proq amaliy jihatdan namuna bo‘lishimiz sog‘lom oilaviy muhitni yaratishimiz zurur bo‘ladi[3]. Keyingi davr ko‘proq qattiqqo‘llik va intizomni talab etadi. Bu davr o‘smirlik payti bo‘lib, bola oq-qorani ana shu paytda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini ana shu paytda anglaydi. Bu davrda farzand to‘g‘ri yo‘lga solinsa, solih do‘stlarga hamroh qilinsa, u odobli bo‘lib, yaxshi inson bo‘lishi uchun muhim qadam qo‘yiladi.

زنجير در سراي شاهی ماييم
صرّاف جواهر الهی ماييم
از ماه نشسته تا بماهی ماييم
با اين همه نور در سياهی ماييم[2]

Mazmuni:

Shoh saroyi eshigining zanjiri bizmiz,
Ilohiy javohirlarning sarrofi bizmiz.
Oydan nur olib gohi ko‘rimsiz ko‘rinmasmiz,
Shuncha nur ichida qorong‘uroqmiz.

Bu ruboiyda Sayfiddin Boxarziy butun olamni shoh saroyiga qiyoslaydi va uni Alloh dargohi timsoli sifatida baholaydi. Sayfiddin Boxarziy komil insonlarni ilohiy dargoh eshigining zanjiri deb, ulargina shu eshikdan kirish yo‘lini ochishga imkoniyat, quvvat, qudrat ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, bu shoh saroyining, ya’ni ilohiy dargohning juda ko‘p qimmatbaho javohirlari ham bor. Shu javohirlardan bahramand qila oladigan, har bir kishiga o‘ziga maqbul ilm va sifatlarni bera oladigan “sarrof” bu komil insondir. Boxarziy komil insonlarni oyga ham o‘xshatyapti. Oy quyosh nurini aks ettiradi. Komil insonlar ham ilohiy nurni tajalliy etadilar. Ular o‘zlarini juda kamtarin tutib, umuman ko‘rinmaydilar, qorong‘ulikda turadilar, ya’ni o‘zlarini xufiya saqlaydilar, kibr-u havoga berilmaydilar. Ular juda niyozmandlik (kamtarin) holatida bo‘ladilar. Ular qilgan amallarining barchasini xolis Alloh rizoligi uchun bajaradilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, Sayfiddin Boxarziy 71 yillik umri davomida juda boy ma’naviy meros qoldirgan. Sayfiddin Boxarziyning boy ma’naviy merosi, asosan, arab, fors, turk tillarida tarjima qilinib, uning asarlari o‘zbek tilida to‘la o‘rganilmagan. Bizning qo‘limizdagi manbalar ularning forsiy tildagi nusxalaridir. Biz ularni tarjima qilib, mazmun-mohiyatini ilmiy jamoatchilik diqqatiga havola qilishga harakat qildik.

Sayfiddin Boxarziy tasavvufning asosiy tushunchalarini yoritish orqali, inson kamoloti uchun zarur bo‘lgan muhim antropologik va gneseologik g‘oyalarni ilgari surgan. Uning ruboiylari tasavvufiy-falsafiy manba sifatida islomiy tasavvufning qonun-qoidalari, asosiy masalalarini tom ma’noda sharhlab, nazariy va amaliy tasavvufning keyingi taraqqiyot bosqichini belgilab bera oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sayfiddin Boxarziy. Vasiyathoyi Sayfiddin Boxarziy. 1397-y,107-bet.
2. شيخ العالم سيف الدين باخرزي ترجمه و .صص87-59 تصحيح: عادل اسير دهلوي رباعيات سيف الدين باخرزي، دهلی نشرديباية 1396
3. Yusuf Hamadoniy. Odobi tariqat. – Toshkent: Movorounnahr, 2018. – B.101-118.
4. Abduxoliq G‘ijduvoniy. Vasiyatnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.– B. 42-48.
5. Bahouddin Naqshband. Avrod. – Toshkent: Sano-standart, 2019. – 111 b.
6. Yunusova G.S. Abdulqodiriy Geloniy ma’naviy merosida inson mohiyatining falsafiy tahlili. Avtoreferat. – Samarqand: 2019. – B.1.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

A SYSTEM OF EXERCISES FOR ENHANCING STUDENTS ECOLINGUISTIC COMPETENCE BASED ON THE CREAM STRATEGY

Mamatkulova Nilufar Fayzullakulovna, Uzbekistan State World Languages University, (PhD), associate professor at Theoretical Aspects of English №2 department



https://orcid.org/0000-0002-4996-0980
e-mail: n.mamatqulova@uzswlu.uz

KREAM STRATEGIYASI ASOSIDA TALABALARNING EKOLINGVISTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MASHQLAR TIZIMI

Mamatqulova Nilufar Fayzullaqulovna, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ingliz tili nazariy aspektlari №2 kafedrasi dotsenti, (PhD)

СИСТЕМА УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ СТРАТЕГИИ KREAM

Маматкулова Нилуфар Файзуллакуловна, Узбекский государственный университет мировых языков, доцент кафедры теоретических аспектов английского языка № 2, (PhD)

Abstract: *This article discusses a system of cognitive, interactive, and transformative exercises developed based on the CREAM strategy for enhancing the ecolinguistic competence of English language students. This system of exercises aims to comprehensively develop environmental awareness, communicative competence, and critical thinking of philology students.*

Keywords: *system of exercises, KREAM strategy, ecolinguistic competence, foreign language, sustainable development goals, Bloom’s taxonomy, creativity, reflexivity.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada filolog talabalarning ingliz tilida ekolingvistik kompetensiyasini takomillashtirish uchun KREAM strategiyasi asosida ishlab chiqilgan kognitiv, interaktiv va transformativ mashqlar tizimi muhokama qilinadi. Mazkur mashqlar tizimi filolog talabalarning ekologik ong, kommunikativ kompetensiya va tanqidiy fikrlashini integrativ tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *mashqlar tizimi, KREAM (CREAM) strategiyasi, ekolingvistik kompetensiya, xorijiy til, barqaror rivojlanish maqsadlari, Bloom taksanomiyasi, kreativlik, refleksivlik.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается система когнитивных, интерактивных и трансформационных упражнений, разработанная на основе стратегии KREAM для повышения эколингвистической компетенции студентов-филологов, изучающих английский язык. Эта система упражнений служит для комплексного развития экологического сознания, коммуникативной компетенции и критического мышления студентов-филологов.*

Ключевые слова: *система упражнений, стратегия KREAM, эколингвистическая компетенция, иностранный язык, цели устойчивого развития, таксономия Блума, креативность, рефлексивность.*

INTRODUCTION. In modern linguistic didactics, the system of exercises is a central component of the educational process, it is the only mechanism for transforming theoretical linguistic knowledge into practical speech skills. Also, in the process of teaching foreign languages, the system of exercises and tasks is the main didactic tool for the consistent formation of linguistic knowledge, skills and competencies in students. This system ensures the gradual complication of educational

material, conscious assimilation of knowledge and their independent application in communicative activities.

"CREAM strategy recommended by Stella Cottrell and it focuses on developing self-directed learning skills and equipping students with the necessary study skills to continue their academic pursuits at university level.

CREAM is an acronym composed of the initials of the English words creative, reflective, effective, active and motivation." (Fayzullakulovna, 2024)

In the V.A. Bukhbinder methodology, educational exercises are classified into the following three hierarchical stages according to their functional orientation:

Informational (informative) exercises: These types of tasks serve to master theoretical knowledge about language units, their cognitive understanding and stratification.

Operational exercises: At this stage, skills in using language material are formed and speech automatisms are developed. Operational exercises are characterized by their focus on controlling the mechanical and logical processes of speech construction.

Motivational (communicative) exercises: This stage imitates the process of information exchange in real speech situations. In this case, oral and written communication competencies are improved based on the motivating factors of speech activity.

According to A.A. Leontiev, the fundamental condition for stimulating the independent activity of students is to organize the educational process on the basis of a system of didactic problems. In this case, the content of education is manifested as a set of methodological mechanisms that serve to solve these problems.

Bloom's taxonomy is a methodological model that allows for a deep understanding of the educational process with a systematic and scientific approach. It plays the role of an important theoretical basis for designing pedagogical activities, formulating learning outcomes and determining assessment mechanisms.

METHODS. In the research process several approaches used based on the combination of theoretical and practical methods. In particular, method of analyzing scientific-pedagogical, linguistic and linguodidactic literature, the pedagogical modeling method, linguodidactic design methods were used. Based on this method, a system of exercises was developed to develop students' ecolinguistic competence in English lessons. This system of exercises was divided into cognitive, interactive, and transformative stages based on the cognitive model of Bloom's taxonomy and the main components of the CREAM strategy.

RESULTS. We believe that exercises and tasks aimed at improving students' ecolinguistic competence should serve to develop students' linguistic competences, understanding environmental problems, increasing their ecological awareness, analyzing discourses of ecological content, and logically expressing environmental problems in English. The relevance of the system of exercises and tasks aimed at organizing students' ecolinguistic competence in English based on the CREAM strategy is that the tasks developed within the framework of this strategy form critical thinking, creative approach, reflective analysis, effective communication, and active learning participation in students in an integrative manner. In this case, the exercises are based on real communicative situations related to environmental problems, encouraging students to think independently, understand environmental responsibility, and use language tools consciously and purposefully. The system of exercises and tasks organized on the basis of the CREAM strategy is an effective didactic mechanism that serves to comprehensively develop not only communicative, but also ecolinguistic competence of students in English.

In developing a system of linguodidactic exercises and tasks, which are recommended for implementation in practice, we took as a basis the principles of integrativity (harmony of language and ecology), learner-centeredness, communicativeness, creativity, reflective, motivational orientation, awareness, and demonstrativeness from the general didactic and methodological principles of foreign language teaching.

In addition to the general didactic and methodological principles of foreign language teaching discussed above, the principles of a "green" approach to creating educational materials (organizing education in an ecologically

meaningful, consistent, and future-proof manner) are recommended (B**arber D.et.al)** (See Table 1).

Table 1 "Green" principles

№	Principles	Explanation
1	The principle of localization and personalization	By connecting the climate crisis to the student's local area, daily life, family, and community, students gain an understanding of the immediate impact of the problem. Local weather changes and extreme events are analyzed in their inextricable link to global climate processes.
2	The principle of making it about people	By highlighting the impact of environmental and climate issues on human health, living standards, and social life, students develop strong emotional and moral attitudes. A humanized approach helps develop environmental awareness.
3	The principle of making it fresh	Reinterpreting traditional topics from an ecological perspective increases student interest. Environmental issues are illuminated in a new and relevant way through everyday concepts (sports, consumption, nutrition).
4	The principle of making it positive	By highlighting existing solutions, positive initiatives, and innovative technologies alongside the challenges of the climate crisis, students are instilled with a sense of hope and engagement. A pessimistic approach is avoided.
5	The principle of making it prompt action and prompt research	Encouraging students to conduct independent research, study local environmental issues, and develop practical solutions reinforces knowledge. Active participation fosters environmental responsibility.
6	The principle of being prepared to learn from your students	The learning process provides a two-way dialogue between the teacher and the student. The students' opinions and ideas are valued, and knowledge is deepened through discussion. This approach develops critical thinking.
7	The principle of making it topical	During the lesson, the educational content is closely connected to real life through the use of current environmental news, events covered in the media, and international environmental dates.

These "green" principles were also taken into account when developing the system of exercises.




Figure 1. The system of ecolinguistic exercisesrecommended for implementation

DISCUSSIONS. As part of our research, a system of exercises combining creativity and productivity was created in the English language "Foreign Language and Literature" subject of the integration of speech skills, aimed at increasing students' awareness of climate change and mitigating its consequences in English lessons, as well as improving their ecolinguistic competencies. Within the framework of this system, all basic language skills (speaking, reading, listening, writing) are improved in a comprehensive way by working on topics related to socio-cultural topics. The exercises and lesson plans recommended to students do not deviate from the topics provided for in their curriculum, but rather, they approach each topic from an ecolinguistic perspective. The system of exercises recommended for implementation in practice is called a cognitive (knowledge-forming), interactive (skill-developing), transformative (skill-improving) system of exercises, and these exercises are based on the integration of modern pedagogical and linguodidactic approaches. This

system is aimed at the consistent development of ecological thinking in addition to linguistic competencies of philology students in English lessons, and the gradual improvement of knowledge, skills and competencies in ecological content. We can say that the developed system of exercises is a logical synthesis of several classical scientific approaches (see figure 1).

The didactic basis of the developed exercise system is the cognitive model of Bloom's taxonomy, revised by Anderson and Krathwol in 2001, and the CREAM strategies proposed by Cottrell (see Table 2).

Table 2

Theoretical and methodological foundations of the exercise system

Exercise system	**Bloom's Taxonomy (revised by Anderson and Krathwol in 2001)**	**CREAM strategies recommended by Cottrell**
Cognitive exercises	Remember + Understand	**Motivated, Effective**
Interactive exercises	Implementation (Apply) + Analysis	**Effective, Active**
Transformative exercises	Evaluate + Create	**Creative, Reflective**

At the same time, the proposed system of exercises is aimed at the comprehensive development of receptive, interactive and productive speech activities in accordance with the requirements of the communicative approach and the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). As a result, students consistently develop not only linguistic and communicative competencies, but also axiological competence based on ecological values.

Conclusion. In conclusion, the recomended exercise system plays an important role as a central didactic mechanism in improving students' ecolinguistic competence in English. The cognitive, interactive and transformative exercise system developed within the framework of the study is based on the methodological synthesis of Bloom's taxonomy and the CREAM strategy recommended by Cottrell, allows for the gradual and consistent development of students knowledge, skills and competencies in ecological content. Also, exercises based on the principles of the "green" approach serve to form a worldview focused on environmental awareness, social responsibility and sustainable development in students. As a result, the exercise system organized on the basis of the CREAM strategy is an effective linguodidactic model that comprehensively develops not only students' communicative and linguistic competence in English, but also their ecolinguistic competence and ecological culture.

REFERENCES:

1. Barber, D., Bilsborough, K., Graham, C., & Kral, T. (2022). *Climate action in language education: Activities for low resource classrooms*. British Council. https://www.britishcouncil.org
2. Bloom's taxonomy. (2026). *University of Waterloo, Centre for Teaching Excellence*. https://uwaterloo.ca/centre-for-teaching-excellence/catalogs/tip-sheets/blooms-taxonomy
3. Cottrell, S. (2013). *The study skills handbook* (4th ed.). Palgrave Macmillan.
4. Fayzullakulovna, M. N. (2024). CREAM strategy and its crucial role in foreign language learning. *Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik dan Humaniora, 4*(2). https://doi.org/10.53697/iso.v4i2.2166
5. Бухбиндер, В. А., и др. (1980). *Очерки методики обучения устной речи на иностранных языках*. Киев.
6. Леонтьев, А. А. (2003). К основаниям личностно-ориентированной методики преподавания неродного языка. В *От слова к делу: Сборник докладов* (с. 145–154). Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK:008.314.316.7.119

MADANIYAT RIVOJINING TARIXIY TAMOYILLARI

Nishonboyeva Gularo,
"Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti" katta ilmiy xodimi, "Madaniyatshunoslik" fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

HISTORICAL PRINCIPLES OF CULTURAL DEVELOPMENT

Nishonboyeva Gularo,
Senior Researcher at the Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage, Doctor of Philosophy (PhD) in Cultural Studies

ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ

Нишонбоева Гуларо,
Старший научный сотрудник Научно-исследовательского института культурологии и нематериального культурного наследия доктор философии (PhD) по культурологии



e-mail: gularo.nishonboyeva@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-8545-8288

Annotatsiya: *Mazkur maqola madaniyat rivojining tarixiy tamoyillari, ajdodlarimizning boy madaniy merosi, ularning hayotiy tajribalari, yashash tarzlari, insoniy xususiyatlari komil inson tarbiyasining asosiy omillari ekanligi haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *madaniyat rivoji, madaniyat va tibat, madaniyatning tarixiy tamoyili, madaniy tafakkur, madaniy faoliyat, madaniyat fenomeni, madaniyatshunoslik, madaniy meros, mahalliy madaniyat.*

Annotation: *This article examines the historical principles of cultural development, the rich cultural heritage of our ancestors, their life experiences, lifestyle and human qualities as the main factors in the development of a holistic personality.*

Key words*: cultural development, culture and medicine, historical orientation of culture, cultural thought, cultural activity, cultural phenomena, cultural studies, cultural heritage, local culture.*

Аннотация*: В данной статье рассматриваются исторические принципы культурного развития, богатое культурное наследие наших предков, их жизненный опыт, образ жизни и человеческие качества как основные факторы воспитания селостной личности.*

Ключевые слова*: культурное развитие, культура и медицина, историческая направленность культуры, культурная мысль, культурная деятельность, культурные феномены, культурология, культурное наследие, местная культура.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Madaniyatning paydo bo'lishida eng asosiy belgilovchi omillardan biri tabiat ekanligi shubhasiz. Shuning uchun tabiat va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar hamda bu boradagi tarixiy tamoyillar masalasi o'nlab yillar davomida madaniyatshunoslikning asosiy mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur munosabatlarning ko'plab tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, madaniyat ekstrabiologik xususiyatga ega, uni tabiiy prinsipga qisqartirib bo'lmaydi, lekin insondagi madaniy tamoyil inson faoliyati bilan o'zgartirlgan tabiiydan boshqa narsa emas. Ammo bu holatda savol tug'iladi: tabiat madaniyatga qarshimi yoki

ular bir-biriga uyg‘unmi? Har holda, tabiat va madaniyat o‘rtasidagi chiziq juda nozik, beqaror va ko‘p jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tabiatga moslashish va uni o‘z ehtiyojlariga qarab o‘zlashtirish faoliyati o‘zgargan, o‘stirilgan tabiatning rivojlanishiga olib keladi.

Inson tabiiy muhitdan ajralib chiqdi, lekin ma’lum darajada uning bir qismini davom ettirdi va qolishda davom etmoqda. Muayyan geografik joylashuv, muayyan hudud, uning o‘ziga xos tabiiy xususiyatlari azaldan har qanday kishilar jamoasining milliy xarakterini, an’analarini, urf-odatlarini, tilini, ongini belgilab beruvchi omillar bo‘lib kelgan va hozir ham shundaydirdir.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Qadim zamonlardan beri inson omon qolishi uchun yashash joylariga moslashgan. Tayyor tabiiy materiallardan mehnat qurollari va uy-ro‘zg‘or buyumlarini yaratgan, turar joylar qurgan, yovvoyi hayvonlarni qo‘lga olgan, tuproqni o‘stirgan va unda ekinlar yetishtirgan. Mazkur faoliyatda u bir vaqtning o‘zida tabiatni o‘z ehtiyojlariga moslashtirdi va tabiiy muhitni o‘zgartirish natijasida inson o‘z yashash joyining sun’iy muhitini (“ikkinchi tabiat”) yaratdi [2].

Inson tomonidan yaratilgan “ikkinchi tabiat” madaniyat mavjudligining tabiiy shaklidir. Bu narsa shuni anglatadiki, o‘zgargan tabiat mahsuloti moddiy bo‘lib qolishi bilan birga, bir vaqtning o‘zida inson hayoti jarayoniga kiradi va unda ijtimoiy funksiyani bajaradi. Bir qarashda tabiat va madaniyat inson tomonidan yaratilgan g‘ayritabiiy hodisadir. Darhaqiqat ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, chunki madaniyat tabiatdan paydo bo‘lganligi sababli, u insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatidan tug‘iladi. Barcha madaniy obyektlar tabiiy moddalardan yasalgan.

Demak, madaniyat tabiatni yengish, instinkt chegarasidan tashqariga chiqish harakatidir. Bu inson o‘z turlarining organik oldindan belgilashini yengishga muvaffaq bo‘lganligi sababli paydo bo‘ladi. Ko‘pgina hayvonlar madaniyatga o‘xshash narsalarni yaratishi mumkin – asal chuquri, ayiq uyasi, qunduz to‘g‘oni va boshqalar. Ammo bularning barchasini yaratishda hayvonlarni – instinktlar va genetik jihatdan dasturlashtirilgan xatti-harakatlar holatini boshqaradi. Ular tabiatdan o‘zlariga xos bo‘lgan narsadan boshqa hech narsa qila olmaydilar. Ular erkin ijodiy faoliyatga qodir emaslar. Bunga o‘z faoliyati bilan tabiat va madaniyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni yengib chiqqan odamgina qodir [3].

Shuning uchun madaniyatshunoslar “faoliyat” tushunchasini tahlil qilishga katta e’tibor berishadi. Ayni shu ma’noda, Madaniyatshunoslik fani madaniyatni odamlarning birgalikdagi hayotiy faoliyati mahsuli, ularning jamoaviy yashashining kelishilgan usullari, guruh va individual ehtiyojlarni qondirish uchun tartibga solingan me’yorlar va qoidalar, deb biladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Demak, madaniyat insonlar hayoti va ma’naviy kamolotida hamisha bosh omillardan biri bo‘lib kelgan. Ana shu omil ushbu sohaning tarixiy tamoyillari uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tamoyillarning mazmun-mohiyati va xususiyatlari esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Madaniyatsiz inson haqiqiy odam bo‘la olmaydi, ya’ni ba’zi bir insonlarning madaniyati yuksakroq, ba’zilariniki esa u darajada bo‘lmasligi mumkin. Ya’ni har bir shaxs, har bir oila, har bir jamoa va hatto har bir kasb egasining o‘ziga xos shakllangan madaniyati borligi shubhasiz.

2. Madaniyat inson hali xat-savodli, ma’rifatli bo‘lib ulgurmasdan oldinroq uning tili, ongi, tafakkuri bilan dunyoga keladi. Insonda ong shakllanib, tilning paydo bo‘lishi shaxsiy madaniyatning ilk qadamlari sanaladi. Odamzod hali ma’rifatli bo‘lmasdan avval rasm chizishi, kuy va ashula aytishi, rasm-rusumlarni bajo keltirishning o‘zi madaniyatning dastlabki shakllanishi va rivojlanishidan darak beradi.

3. Norasida inson o‘sish yo‘liga tushib olgach, asta-sekin ma’rifatli bo‘la boshlaydi va madaniyatning yuksakroq pog‘onalariga ko‘tariladi. Bu jarayon, shubhasiz madaniyatni san’atdan, ma’rifatdan ajralmagan holda birga va o‘zaro aloqadorlikda bo‘lishini, ma’lum dunyoqarash bilan mustahkamlanishini taqazo etadi. Inson borki, uning madaniyati bor, bu madaniyat uning ma’rifati va ma’lum darajada mafkuraga, dunyoqarashga e’tiqodini belgilaydi.

4. Dunyo miqyosida madaniyat qashshoqlashuvi kuzatilayotgani sohaning tarixiy tamoyillari ahamiyatini tobora oshirmoqda. Bu esa madaniy-ma’rifiy ishlarning davlat siyosati

darajasiga ko‘tarilgani hamda barcha vazirlik, idoralar, nodavlat tashkilotlar, banklarning, qolaversa barcha tadbirkorlarning jiddiy vazifasiga aylanganini ko‘rsatadi. Bunda madaniyatning o‘rnini alohida baholash va tahlil etish zarurati paydo bo‘lmoqda.

5. Bu jihatdan, “Madaniyat” tushunchasi va fenomenining xususiyatlari madaniyat va tabiat, madaniyat va til, insonning madaniy o‘ziga xosligi kabi jarayonlarni ko‘rib chiqmasdan to‘liq bo‘lmaydi. Madaniyatning haqiqiy mavjudligini tashkil etuvchi savollar guruhlari ham ana shularning dialektikasi bilan uzviy bog‘liqdir [2].

Har bir individual madaniyat ma’lum bir xalq yoki odamlar jamoasi hayotiy amaliyotining o‘ziga xos tajribasini mujassam etgan. Bu tajriba esa har bir xalq madaniyati o‘ziga xosligini belgilaydi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Mahalliy madaniyatning mavjudligi butun insoniyat madaniyati borlig‘ining obyektiv va tabiiy shaklidir. Mahalliy madaniyatlarning ba’zilari kelib chiqish sharoitlarining o‘xshashligi tufayli bir-biriga o‘xshashdir. Boshqalar bir-biridan shunchalik farq qiladiki, ularning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan sharoitlar turli xildir.

Bugungi kunda madaniy tarbiyada ma’rifatning o‘rnini e’tirof etgan holda, bu yo‘lda asosiy manba sanalmish ma’naviyatni targ‘ib qilish tamoyillariga alohida e’tiborni qaratish zarur.

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda jamiyat ma’naviy taraqqiyotida madaniyatning o‘rnini yana bir bor tahlil qilish va uning ta’sir kuchi zamirida madaniy tarbiya g‘oyalarini xalqimiz ongiga singdirish asosiy vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda [3].

Bu borada quyidagi yo‘nalishlar ko‘zda tutiladi:

1. Murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini ochib berish;
2. Bugungi hayot voqeligini orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san’at asarlari yaratishga e’tiborni qaratish;
3. Yoshlarga ibrat bo‘ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qaxramonlar timsolini yaratish;

Bularning barchasi madaniyat sarchashmalarini singdirish borasida asosiy tamoyillar bo‘lib xizmat qiladi. Bunda albatta yuqorida ta’kidlanganidek, barkamol avlod tarbiyasida madaniyatning o‘rnini alohida ta’kidlash joizdir.

Bugungi kunda yoshlarimizni boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, milliy urf-odatlarimizga hurmat ruhida, yuksak madaniy fazilatli har tomonlama kamol topgan insonlar qilib tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda. Bu masala davlat ahamiyatiga molik vazifa deb tushunilmoqda [1].

Komil inson deganda, har tomonlama yetuk, ichki dunyosi, tarbiyasi, pokligi, bilimi va malakasi, umuman ijobiy jarayonlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan inson tushuniladi.

Zotan, millatimiz tarixida shunday zoti komillar o‘tganki, ularning har birlari biz avlodlarga bitmas-tuganmas madaniy boylik qoldirganlar. Hozirda bu ziyo nurlaridan bahramand bo‘lmoqdamiz.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xullas, ajdodlarimizning boy madaniy merosi, ularning hayotiy tajribalari, yashash tarzlari, insoniy xususiyatlari komil inson tarbiyasining asosiy omillaridan sanaladi. Biz bu madaniy boyliklarni o‘rgangan sari, o‘zimizni ajdodlarimizga yaqinroq sezamiz, fikrimiz charxlanadi, ezgu amallarni bajarish uchun ulardan kuch va ilhom olamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2021-yil, 4-son).
2. Nazarov Q. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. – Toshkent. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021. – B. 300-301.
3. XX asrda O‘zbekistonda madaniy hayot tarixidan ocherklar: an’analar, innovatsiyalar va muammolar. – Toshkent. 2020. – B. 79-80.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.85:92.136

JANUBIY SO‘G‘D VA XITOY O‘RTASIDA SAVDO ALOQALARINING MADANIY AHAMIYATI: TARIXIY-GEOGRAFIK VA SIVILIZATSION TAHLIL

Norov Jamol Komiljon o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

THE CULTURAL SIGNIFICANCE OF TRADE RELATIONS BETWEEN SOUTHERN SOGD AND CHINA: A HISTORICAL-GEOGRAPHICAL AND CIVILIZATIONAL ANALYSIS

Norov Jamol Komiljon ogli,
Shahrisabz State Pedagogical Institute,
Lecturer of the Department of Social Sciences

КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТОРГОВЫХ СВЯЗЕЙ МЕЖДУ ЮЖНЫМ СОГДОМ И КИТАЕМ: ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ И ЦИВИЛИЗАЦИОННЫЙ АНАЛИЗ

Норов Жамол Комилжон углы,
Шахрисабзский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры социальных наук



e-mail:
alpjamolprint@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-9548-3397

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Janubiy So‘g‘d va Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalarining madaniy ahamiyati Buyuk Ipak yo‘li tizimi doirasida tarixiy-geografik va sivilizatsion yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi savdoni faqat iqtisodiy almashinuv sifatida emas, balki madaniy kodlar uzatilishi va shakllanishining mexanizmi sifatida talqin qilishdan iborat. Yozma manbalar va arxeologik ma’lumotlar asosida Kesh shahrining madaniyatlararo o‘zaro ta’sirda strukturaviy mediator vazifasini bajargani asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari Janubiy So‘g‘d ilk sivilizatsiyalararo kommunikatsiya tizimlarining shakllanishida muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *So‘g‘d, Kesh, Xitoy, Buyuk Ipak yo‘li, madaniy diffuziya, savdo, sivilizatsiya, kommunikatsiya.*

Abstract: *This article examines the cultural significance of trade relations between Southern Sogdiana and China within the Silk Road system using a historical-geographical and civilizational approach. The novelty lies in interpreting trade not merely as an economic exchange but as a mechanism of cultural coding and transmission. Based on primary sources and archaeological data, the study demonstrates that Kesh functioned as a structural mediator of intercultural interaction. The results indicate that Southern Sogdiana played a crucial role in the formation of early intercivilizational communication networks.*

Key words: *Sogdiana, Kesh, China, Silk Road, cultural diffusion, trade, civilization, communication.*

Аннотация: *В статье рассматривается культурное значение торговых связей между Южным Согдом и Китаем в рамках системы Великого шёлкового пути с использованием историко-географического и цивилизационного подходов. Научная новизна исследования заключается в интерпретации торговли не только как экономического обмена, но и как механизма передачи и кодирования культурных смыслов. На основе письменных источников и археологических данных показано, что Кеш функционировал как структурный медиатор межкультурного взаимодействия. Полученные результаты свидетельствуют о том, что Южный Согд играл ключевую роль в формировании ранних систем межцивилизационной коммуникации.*

Ключевые слова: *Согд, Кеш, Китай, Великий шёлковый путь, культурная диффузия, торговля, цивилизация, коммуникация.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixida So‘g‘d xalqi, xususan Janubiy So‘g‘d mintaqasi – Kesh-Naxshab, Termiz, Hisor-Panjikent vohalari – Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqa tizimining asosiy ishtirokchilaridan biri bo‘lgan. Milodning dastlabki asrlaridan boshlab So‘g‘diy savdogarlar Buyuk Ipak yo‘lining eng faol qatnashchilari sifatida Xitoydan O‘rta Osiyoga va undan shimoliy Yevropaga qadar bo‘lgan hududlar bilan barqaror iqtisodiy-madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yganlar. Ushbu aloqalar faqat iqtisodiy emas, balki diniy, san’at, texnologiya, diplomatiya va shahar madaniyati kabi sohalarda ham keng ko‘lamli madaniy integratsiyani vujudga keltirgan. Savdo aloqalarining madaniy transformatsiya mexanizmi sifatidagi roli yetarli darajada ochilmagan. Janubiy So‘g‘d va Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalari qanday qilib madaniy diffuziya mexanizmi sifatida faoliyat yuritgan? Savdo aloqalarining madaniy ahamiyatini tarixiy-geografik va sivilizatsion yondashuv asosida tahlil qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Janubiy So‘g‘dga oid tadqiqotlar tarixiy-geografik va arxeologik yo‘nalishda rivojlangan. A.S.Sagdullayev Janubiy So‘g‘dda o‘troq aholi joylashuvi va irrigatsion tizimlarning shakllanishini tahlil qilib, hududning tabiiy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [12].

S.K.Kabanov esa etnik jarayonlarni o‘rganib, ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlar sintezini asoslaydi [8]. S.B.Lunina Janubiy So‘g‘d shaharlarini o‘rganib, Kesh va Naxshabning iqtisodiy-madaniy tizimdagi rolini aniqlaydi [10]. V.V.Bartold [6] va M.E.Masson [11] tadqiqotlarida esa So‘g‘d hududi savdo tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida baholanadi. Biroq ushbu tadqiqotlarda savdo aloqalarining madaniy diffuziya modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi: tarixiy-geografik rekonstruksiya; manbashunoslik tahlili; sivilizatsion yondashuv; madaniy diffuziya modeli; tizimli tahlil (system approach). Manbalar sifatida arxeologik ma’lumotlar, Xitoy yilnomalari va arab geograflari asarlari qo‘llanildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Janubiy So‘g‘d hududi Sharqiy Turkistonning karvon yo‘llariga yaqin joylashganligi sababli qadimdan xalqaro savdo uchun qulay hudud bo‘lgan. Termiz-Buxoro yo‘nalishi hamda Hisor tizmalari orqali Sharqiy Turkiston bilan bog‘lanadigan yo‘llar so‘g‘diy savdogarlar uchun strategik imkoniyatlar yaratgan.

So‘g‘d savdogarlari Xitoy yilnomalarida “bosh savdogarlar” (hu) sifatida tilga olinadi. Ular Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eronga boradigan yo‘llarni nazorat qilgan va karvonlarni tashkil etishda asosiy rol o‘ynagan. So‘g‘diylarning boy savdo tajribasi ularga Xitoy shaharlari – Chang‘an, Luoyang, Guangzhouda mustahkam diaspora jamoalarini vujudga keltirish imkonini bergan [2].

Zardushtiylik So‘g‘dning asosiy dini bo‘lib, Xitoyga aynan so‘g‘diy savdogarlar orqali kirib borgan. Tang sulolasi saroyida zardushtiy kohinlar faoliyat yuritgan, marosim o‘tkazish uchun maxsus ibodatxonalar ajratilgan. Xitoy saroy marosimlarida “otashparastlik odatlari” haqida manbalar xabar beradi.

Maniheylik Xitoyga asosan so‘g‘diylar orqali kirgan va dastlab unga “Sog‘d dini” sifatida qaralgan. So‘g‘d tilida yozilgan manihey matnlari Dunxuan arxivlarida ko‘p uchraydi. Mazkur

dinning Xitoydagi e’tiqodiy tizimga moslashuvi so‘g‘diy diniy jamoalar faoliyatining natijasidir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). So‘g‘diy monax va tarjimonlar buddaviy matnlarning Xitoyga tarjima qilinishida faol ishtirok etgan. Nestorian xristianlik ham So‘g‘d orqali Xitoyga kirib kelgan bo‘lib, VII–VIII asrlarda Xitoydagi nasroniy jamoalar tarkibida so‘g‘diylar yetakchi o‘rin tutgan [3].

Tang davri rasmlarida so‘g‘diy savdogarlar, ularning kiyimlari, raqqosalari, musiqa ansambllari tasvirlangan. Guangzhou topilmalarida so‘g‘d uslubidagi kumush idishlar, hayvonot naqshli buyumlar uchraydi. Bu san’at namunalari So‘g‘dning Xitoy estetikasiga kuchli ta’sirini ko‘rsatadi.

Xitoy manbalarida “Sog‘d raqsi” va “Hutor musiqasi” mashhur bo‘lgani qayd etiladi. So‘g‘d musiqachilari Chang‘an saroyida xizmat qilgan, barbat, nay, chang kabi cholg‘u asboblari Xitoy musiqa an’analariga kirgan.

Xitoydan So‘g‘dga ipakchilik va qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasi kirib kelgan. Aksincha, So‘g‘ddan Xitoyga shishasozlik va metallga ishlov berish uslublari yetib borgan. Bu ikkiyoqlama texnologik o‘zaro ta’sir mintaqaviy sivilizatsiya taraqqiyotiga kuchli turtki bergan [4].

Xitoyga kirgan ko‘plab savdo yozishmalari, diniy matnlar, shartnomalar so‘g‘d tilida bo‘lgan. Xitoy tiliga bir qator so‘g‘dcha savdo atamalari kirgan.

Chang‘an va Luoyang shaharlarida so‘g‘diy mahallalar, yarmarka maydonlari, bozor rastalari, hammom va mehmonxonalar mavjud bo‘lgan. So‘g‘dning urbanistik an’analari Xitoy kosmopolit shaharlarining rivojiga ta’sir ko‘rsatgan [5].

Xitoy buyumlarining kirib kelishi So‘g‘d jamiyatida boy savdogarlar sinfining rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Bu esa shaharlarning iqtisodiy va ma’naviy hayotida sezilarli yangilanishlarga olib kelgan.

So‘g‘dda chinni bezaklari, ipak matolari, zargarlik buyumlarida Xitoy uslublari paydo bo‘lgan. Shuningdek, so‘g‘diy ustalar Xitoydan olingan texnologiyalarni lokal an’analarga moslashtirib, o‘ziga xos “so‘g‘d-Xitoy sintezi”ni yaratgan [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Janubiy So‘g‘d va Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalari ikki buyuk madaniyatning tarixiy taraqqiyotida beqiyos o‘rin egallagan. Savdo jarayonlari diniy ta’limotlarning o‘tishiga, san’at va musiqa sohalaridagi yangiliklarga, shahar madaniyatining global ko‘lamda rivojlanishiga va texnologik yutuqlarning o‘zaro almashinuvida hal qiluvchi omil bo‘lgan. So‘g‘diy savdogarlar Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat iqtisodiy vositachi, balki madaniy uzatuvchi, tarjimon, diplomat va ijodiy innovatsiyalar tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lgan. Ushbu jarayonlar Markaziy Osiyo va Xitoy madaniyatlarining bir-birini boyitishini, umumiy sivilizatsiyaviy maydonning shakllanishini ta’minlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. De la Vaissière É. Sogdian Traders: A History. – Leiden: Brill, 2005.
2. Frye R. The Heritage of Central Asia. – Princeton: Markus Wiener, 1996.
3. Hansen V. The Silk Road: A New History. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
4. Ibn Hauqal. Opus geographicum. – Leiden: Brill, 1967.
5. Rong Xinjiang. Sogdians in China. – Beijing: Peking University Press, 2014.
6. Бартольд В.В. Сочинения. – М.: Наука, 1963.
7. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах Средней Азии. – М.–Л., 1950–1953.
8. Кабанов С.К. Археологические данные к этнической истории Южного Согда… – М., 1963.
9. Лившиц В. А. Согдийские документы с горы Муг. – М.: Наука, 1962.
10. Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII–XII вв. – Ташкент: Фан, 1984.
11. Массон М.Е. Столичные города в области Кашкадарьи… – Ташкент, 1973.
12. Сагдуллаев А.С. Особенности оседлого расселения в Южном Согде… – Ташкент, 1987

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.85:92.102

INSON VA TABIAT UYG‘UNLIGI: SHARQ VA G‘ARB FALSAFASIDA EKOLOGIK QARASHLAR

Raxmatova Muhayyo Elboboyevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi



e-mail: raxmatovamuxayyo60@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-2659-0585

HARMONY BETWEEN HUMAN AND NATURE: ECOLOGICAL PERSPECTIVES IN EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHY

Muhayyo Elboboyeva Raxmatova,
Teacher at the Department of Social Sciences,
Shahrisabz State Pedagogical Institute

ГАРМОНИЯ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЫ: ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ

Рахматова Мухайё Элбобоевна,
Преподаватель кафедры социальных наук, Шахрисабзский государственный педагогический институт

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar Sharq va G‘arb falsafiy an’analari doirasida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – ekologik tafakkurning tarixiy-falsafiy ildizlarini aniqlash hamda zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda ushbu qarashlarning metodologik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sharq falsafasi tabiat bilan uyg‘unlik va muvozanatga asoslangan bo‘lsa, G‘arb falsafasi uzoq vaqt davomida tabiatni o‘zlashtirish paradigmasiga tayanib kelgan, biroq postklassik davrda ekologik ong shakllanmoqda.*

Kalit so‘zlar: *ekologiya, tabiat, uyg‘unlik, Sharq falsafasi, G‘arb falsafasi, ekologik ong, barqaror rivojlanish.*

Abstract: *This article provides a comparative analysis of the relationship between humans and nature within the frameworks of Eastern and Western philosophical traditions. The aim of the study is to identify the historical and philosophical foundations of ecological thinking and to reveal the methodological significance of these perspectives in addressing contemporary environmental problems. The results show that Eastern philosophy is based on harmony and balance with nature, whereas Western philosophy has long relied on a paradigm of mastering and exploiting nature; however, in the post-classical period, ecological consciousness has begun to emerge.*

Keywords: *ecology, nature, harmony, Eastern philosophy, Western philosophy, ecological consciousness, sustainable development.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ взаимоотношений человека и природы в рамках восточных и западных философских традиций. Цель исследования заключается в выявлении историко-философских оснований экологического мышления, а также в раскрытии методологической значимости данных подходов для решения современных экологических проблем. Результаты показывают, что восточная философия основана на принципах гармонии и равновесия с природой, тогда как западная философия на протяжении длительного времени опиралась на парадигму освоения и подчинения природы; однако в постклассический период формируется экологическое сознание.*

Ключевые слова: *экология, природа, гармония, восточная философия, западная философия, экологическое сознание, устойчивое развитие.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XXI asrda global ekologik muammolar – iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning keskin kamayishi, tabiiy resurslarning tugab borishi, cho‘llanish va suv tanqisligi – insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda. Xususan, global isish natijasida Yer yuzidagi o‘rtacha haroratning oshishi, muzliklarning erishi va ekstremal ob-havo hodisalarining ko‘payishi nafaqat ekologik tizimlarga, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ekologik muammolarni faqat texnologik yoki iqtisodiy choralar bilan hal etish yetarli emas, balki ularni chuqur falsafiy tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ekologik inqirozning falsafiy mohiyati inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Tarixan bu munosabatlar turli sivilizatsiyalarda turlicha talqin etilgan. Sharq falsafasida – xususan, Xitoy, Hind va Markaziy Osiyo tafakkurida – tabiat bilan uyg‘unlik, muvozanat va o‘zaro bog‘liqlik g‘oyalari ustuvor bo‘lgan. Masalan, konfutsiychilik va daosizmda inson tabiatning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi, tabiat qonunlariga mos yashash esa axloqiy ideal darajasiga ko‘tariladi. Bu yondashuv ekologik ong va barqaror turmush tarzining muhim falsafiy asosini tashkil etadi [2].

G‘arb falsafasida esa uzoq vaqt davomida antropotsentrik qarashlar hukmronlik qilgan bo‘lib, tabiat asosan inson ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida talqin etilgan. Ayniqsa, Yangi davr falsafasida (F. Bekon, R. Dekart) tabiat ustidan hukmronlik qilish g‘oyasi ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy motivatsiyasiga aylangan. Natijada texnogen sivilizatsiya shakllanib, u o‘z navbatida ekologik muammolarning keskinlashuviga olib kelgan.

Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G‘arb falsafasida ham ekologik yo‘nalishlar rivojlana boshladi. Ekofalsafa, chuqur ekologiya (deep ecology), bioetik yondashuvlar va ekologik gumanizm kabi konsepsiyalar insonni tabiatdan ustun qo‘yish g‘oyasini tanqid qilib, biosentrizm va ekotsentrizmni ilgari surmoqda. Masalan, A.Leopoldning “yer etikasi” konsepsiyasi insonni tabiiy hamjamiyatning bir a’zosi sifatida ko‘rishga undaydi, Arne Ness tomonidan ishlab chiqilgan chuqur ekologiya esa barcha tirik mavjudotlarning teng qiymatga ega ekanligini asoslaydi [3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Zamonaviy sharoitda ekologik muammolarni samarali hal etish uchun Sharq va G‘arb falsafiy qarashlarini integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sharqning uyg‘unlikka asoslangan dunyoqarashi va G‘arbning ilmiy-texnik salohiyatini uyg‘unlashtirish orqali barqaror rivojlanish modelini shakllantirish mumkin. Bu integrativ yondashuv insonning ekologik ongini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, global ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik, ekologik siyosatni takomillashtirish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish muhim omil hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) ham aynan ekologik muammolarni kompleks yondashuv asosida hal etishga qaratilgan[4].

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda ekologik muammolarni hal etishda Sharq va G‘arb falsafiy qarashlarining integrativ imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda ularning zamonaviy ekologik siyosat va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rni asoslab beriladi. Ushbu yondashuv ekologik inqirozni faqat texnik muammo sifatida emas, balki insoniyatning qadriyatlar tizimi va dunyoqarashi bilan bog‘liq kompleks muammo sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Sharq falsafasida tabiat bilan uyg‘unlik asosiy ontologik va axloqiy prinsip sifatida qaraladi. Masalan, Konfutsiychilikda inson “osmon va yer” bilan uyg‘un yashashi kerakligi ta’kidlanadi. Daoizmda esa tabiat qonunlariga mos yashash – eng oliy donolik sifatida talqin qilinadi.

Hind falsafasida (Upanishadlar, Vedanta) tabiat va inson yagona kosmik butunlik sifatida qaraladi. “Brahman – Atman” birligi inson va tabiat o‘rtasidagi ajralmaslikni ifodalaydi[5].

TAMADDUN NURI

Islom falsafasida ham tabiat Alloh yaratgan muvozanatli tizim sifatida talqin qilinadi. Inson esa bu tizimning “xalifa”si sifatida mas’uliyatli subyekt hisoblanadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Sharq falsafasida ekologik ong tabiiy ravishda mavjud bo‘lib, u uyg‘unlik, muvozanat va axloqiy mas’uliyatga asoslanadi.

G‘arb falsafasida tabiatga munosabat bir necha bosqichda rivojlangan:

Antik yunon falsafasida (Aristotel, Platon) tabiat kosmik tartibning bir qismi sifatida qaralgan.

Bu davrda antropotsentrik yondashuv kuchaydi. Masalan, Francis Bacon tabiatni “bo‘ysundirish” kerakligini ta’kidlagan[3], René Descartes esa tabiatni mexanik tizim sifatida talqin qilgan.

Sharq va G‘arb yondashuvlarining qiyosiy tahlili

Mezon	Sharq falsafasi	G‘arb falsafasi
Asosiy tamoyil	Uyg‘unlik	Hukmronlik
Inson roli	Tabiatning bir qismi	Tabiatdan ustun
Ekologik qarash	Ichki (tabiiy)	Keyinchalik shakllangan
Axloqiy yondashuv	Mas’uliyat	Ratsional boshqaruv

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ekologik inqiroz faqat texnologik rivojlanish natijasi emas, balki falsafiy paradigmaning natijasidir. G‘arbda uzoq vaqt davomida hukmron bo‘lgan antropotsentrizm tabiatni ekspluatatsiya qilishga olib kelgan. Shu nuqtai nazardan, Sharq falsafasidagi quyidagi g‘oyalar dolzarb ahamiyat kasb etadi:

uyg‘unlik (harmoniya)

muvozanat (balans)

axloqiy javobgarlik

Zamonaviy ekologik konsepsiyalar (masalan, barqaror rivojlanish) aynan ushbu tamoyillarga yaqinlashmoqda.

Shuningdek, tizimli va sinergetik yondashuvlar (siz ishlayotgan mavzu bilan ham bevosita bog‘liq) inson va tabiatni yagona murakkab tizim sifatida talqin qilishga imkon beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Sharq falsafasi ekologik ongning qadimiy va tabiiy shaklini ifodalaydi. G‘arb falsafasi esa evolyutsion yo‘l bilan ekologik ongga yetib kelgan. Zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda Sharq va G‘arb yondashuvlarini integratsiya qilish zarur. Inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni tiklash XXI asrning eng muhim vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Аристотел. Физика. – М.: Наука, 1981.
2. Descartes R. Рассуждение о методе. – М.: Мысль, 1989.
3. Бэкон Ф. Новая Атлантида. – М.: Наука, 1972.
4. Naess A. Ecology, Community and Lifestyle. – Cambridge: CUP, 1989.
5. Capra F. The Web of Life. – New York, 1996.
6. White L. The Historical Roots of Our Ecologic Crisis // Science. – 1967.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81.374.81.276.

METAFORA ICHIDA METAFORA

Egamberdiyev Ravshanbek Turdimuratovich,
Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

METAPHOR WITHIN A METAPHOR

Egamberdiyev Ravshanbek Turdimuratovich,
Independent researcher of Gulistan State University

МЕТАФОРА ВНУТРИ МЕТАФОРЫ

Эгамбердиев Равшанбек Турдимуратович,
Независимый исследователь Гулистанского государственного университета



e-mail:
egamberdiyevravshan906@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek modern she’riyati yorqin vakili Go‘zal Begim she’riyatida yolg‘izlik motivinig badiiy talqini yoritiladi. Tadqiqotda she’rni dinamik, ko‘pqirrali va o‘quvchi idroki hamda hissiy tajribasiga bir vaqtda ta’sir ko‘rsata oladigan estetik hodisa sifatida talqin etadi. She’riy matnning o‘suvchan tabiati, uning turli davr va o‘quvchi ongida yangicha ma’nolar kasb etish xususiyati asoslab beriladi.*
Kalit so‘zlar: *o‘zbek modern she’riyati, yolg‘izlik motivi, poetik semantika, poetik tafakkur, kimsasiz tuyg‘ular, metafora.*
Abstract: *The article analyzes the artistic embodiment of the motif of wolfish loneliness in the works of Guzal Begim, one of the brightest representatives of contemporary Uzbek poetry. The research interprets poetry as a dynamic, multidimensional, and compelling aesthetic phenomenon that exerts influence on both the intellectual and sensory perception of the reader at the same time. The distinctive features of the lyric nature of verse — particularly its capacity to generate fresh meanings in various historical periods and within the consciousness of different readers — are explored and substantiated as the fundamental focus of the study.*
Key words: *modern Uzbek poetry, motif of wolfish loneliness, poetic semantics, poetic thinking, kinless feelings, metaphor.*
Аннотация: *В данной статье рассматривается художественная интерпретация мотива волчьей тоски (волчьего одиночества) в поэзии яркой представительницы современного узбекского стиха — Гузаль Бегим. В исследовании поэзия трактуется как динамическое, многогранное и захватывающее эстетическое явление, которое одновременно воздействует на интеллектуальное и эмоциональное восприятие читателя. Особенности лирической природы стиха, его способность приобретать новые смыслы в разные эпохи и в сознании разных читателей раскрываются в качестве основного аспекта анализа.*
Ключевые слова: *современная узбекская поэзия, мотив волчьего одиночества, поэтическая семантика, поэтическое мышление, чувства безродности, метафора.*

Kirish. Inson hayotida yolg‘izlik o‘zligini anglash, ma’naviy yuksalish hamda ijodiy erkinlikni his etishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijodkor shaxs yolg‘izlikda o‘z ichki dunyosini kashf etadi, ruhiy iztiroblari va bezovtaliklari uchun muayyan taskin topadi. Ba’zan ijodkor o‘zidagi ijodiy salohiyatni to‘la namoyon qila olmagan paytda ham o‘zini yolg‘iz his etadi. Tabiiyki, u o‘z qalbidagi jarohatlarni

tanholikda davolaydi. O‘zini o‘zi davolay oladigan inson esa kuchli shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan qaralganda, bunday kuchli shaxslar o‘zbek va jahon adabiyotida juda ko‘p uchraydi. Xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga o‘tib, bugungi kungacha yashab kelayotgan hikmatlar ham buning dalilidir. Beqiyos o‘zbek xalqining og‘zaki ijod namunalarida yolg‘izlik bilan bog‘liq ko‘plab hikmatli iboralar mavjud. Jumladan, “Yolg‘iz yigit alp bo‘lar, alp bo‘lsa ham qalb bo‘lar”, “Yolg‘iz kishining yurgani bilinmas”, “Yolg‘iz qo‘ldan tosh chiqmas” kabi maqollarda inson hayotidagi yolg‘izlik holati turli ma’no va talqinlarda ifoda etilgan.

Adabiyot esa izlanishlar jarayonida yuksaladi. Quyida keltiriladigan iqtiboslar fikrimizning isboti bo‘la oladi. Masalan, Abdulla Oripov “Yolg‘izlik naqadar oyga yarashar”[1] misrasi orqali yolg‘izlikni poetik obraz darajasiga ko‘tarsa, Halima Xudoyberdiyeva “Bellarimdan mahkam quchar yolg‘izlik”[2] tarzida uni shaxsiy tuyg‘u sifatida talqin qiladi. Rauf Parfi “Men yolg‘izman, g‘uluv hayajon…” [3] deya ruhiy kechinmani ifodalasa, Tursun Ali “Yolg‘iz yaproq to‘lg‘anar, o‘rtanar betin” [4] misrasi orqali yolg‘izlikning tabiat bilan uyg‘un obrazini yaratadi. Shuningdek, Abduvali Qutbiddin “Men juda yolg‘izman” [5] deb insoniy kechinmani ochib bersa, Ulug‘bek Hamdam “Yuragimda yolg‘izlik bor edi” [6] misrasi orqali ruhiy iztirobni ifoda etadi.

Turk she’riyatida ham yolg‘izlik motivining lirik talqinlari uchraydi. Masalan, Zahid Sidqi Taranji “Bir mening, mening bo‘lgan zo‘r masaldir yolg‘izlik” [7] deya bu tuyg‘uni shaxsiy kechinma sifatida tasvirlasa, Kemalettin Kamu “Yolg‘izlik yonimda to‘rt devor kabi” [8] deya uning muhitini tasvirlaydi. Najoti Jumali esa “Yolg‘izlik o‘ldirdi meni” [9] deya keskin dramatik talqinni beradi, Yavuz Bülent Bakiler esa “Ulg‘aydi yolg‘izlik ko‘zingda”[10] misrasi orqali ruhiy jarayonni ifodalaydi.

O‘zbek nasrida ham yolg‘izlik mavzusi alohida badiiy talqinlarga ega. Jumladan, Xurshid Do‘stmuhammadning “Yolg‘iz”, Nazar Eshonqulning “Evolyutsiya”, hamda Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” asarlarida qahramonlarning yolg‘izlikka mahkum hayoti, ruhiy kechinmalari tasvirlangan.

Xususan, Nazar Eshonqulning “Evolyutsiya” hikoyasida yolg‘iz insonning ichki kechinmalari hamda hayot murakkabligi haqida falsafiy mushohada yuritiladi. Asarda qahramon tush orqali ramziy makonlarda kezadi va bu jarayon orqali uning ruhiy holati ochib beriladi. Yozuvchi yolg‘izlikni inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochuvchi badiiy vosita sifatida talqin qiladi.

Shoira Go‘zal Begim ham ilk she’rlaridayoq yolg‘izlik motivini o‘ziga xos poetik talqinlarda ifodalagan. U ko‘pincha imo-ishora tilida fikrlaydi. Masalan:

Yolg‘izlik deyman-u
Quvonib qo‘yaman
Qurillasa baqalar agar.[11]

Bu kabi ifodalar orqali shoira yolg‘izlikning paradoksal ruhiy holatini tasvirlaydi.

Shoiraning yolg‘izlik haqidagi she’rlari badiiy jihatdan mukammal ishlangan. Uning “Yuragimning tushgan tugmalari” she’rining birinchi bandidayoq yolg‘izlik obrazining yorqin poetik talqini beriladi:

Yolg‘izlik tap-taqir,
Bo‘sh chelakning daranglashidek,
Eshitilar quloqni og‘ritib:
Darang – durrangggg.

Odatda “tap-taqir” birikmasi boshida sochi yo‘q odam yoki o‘simlik bitmaydigan yerga nisbatan ishlatiladi. Shoira esa ushbu birikmani yolg‘izlik obraziga nisbatan qo‘llab, yangi poetik semantika yaratgan. Shu orqali she’riy tilning ifoda imkoniyatlari kengaytirilgan.

Yolg‘izlikning bo‘sh chelak daranglashiga qiyoslanishi individual metafora sifatida namoyon bo‘ladi. Metafora esa badiiy tafakkurda tushunishni ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Inson yolg‘iz qolganda go‘yo ovozga aylanadi. Buni she’rning ushbu bandini o‘qish jarayonida yaqqol his etish mumkin. “Darang – durrangggg” kabi tovush tasvirlari esa onomatopeya vositasida ruhiy iztirobni kuchaytiradi. Ayniqsa “d” va “r” tovushlarining takrori alliteratsion ohang yaratib, qalbdagi og‘riqni yanada ta’sirchan ifodalaydi, harf yoki tovushlar takrori ba’zan ma’noni kuchaytirish bilan birga alohida urg’ulaydi.

She’rning keyingi bandlarida ham badiiy vositalar faol qo‘llanadi. Xususan:

Ayniqsa, bo‘ri yegan bo‘lsa yaqinlaringni…

misrasi orqali yolg‘izlikning kimsasizlik bilan bog‘liq ramziy talqini beriladi. Bo‘ri obrazi turli madaniyatlarda turlicha ma’nolarga ega bo‘lsa-da, mazkur she’rda u hayotning beshavqatligi va yaqinlardan ayrilish ramzi sifatida talqin qilinadi.

Shoira yolg‘izlikni hidga aylantiradi va uni dimog‘ga uriluvchi obraz sifatida tasvirlaydi. Bu esa tasvir obyektini bo‘rttirish orqali ruhiy iztirobni yanada kuchli ifodalashga xizmat qiladi. “Achchiq kekirgan” shoira obrazi ham poetik topilma sifatida diqqatga sazovordir.

She’rning keyingi bandlarida yolg‘izlik jonlantirish vositasi orqali harakatlanuvchi obrazga aylanadi:

Yolg‘izlik
Ko‘hligim mening
Meni hech kimlarga tashlab qo‘ymagan
Yuragimning tushgan tugmalarini
Qadagan
Yulduzlar hidlagan barmog‘i bilan.

Bu yerda yolg‘izlik “ko‘hligim mening” deya ta’riflanib, o‘ziga xos poetik obraz sifatida talqin etiladi. “Meni hech kimlarga tashlab qo‘ymagan” misrasi ironik ohangga ega bo‘lib, unda kesatiq va afsus tuyg‘ulari mujassam. Qadalgan tugmalar esa botiniy jarohatlarining timsoli sifatida talqin qilinadi.

She’rning so‘nggi bandida yolg‘izlik inson tuyg‘ularini poklovchi ruhiy jarayon sifatida talqin qilinadi:

Yolg‘izlik
Tuyg‘ular quvurini tozalamagan
Non sindirgan nomim ustida
Va ko‘z yoshlarimni hecham silamagan
Yolg‘izlik
Yagonam yolg‘izlik.

Bandda “yolg‘izlik” so‘zining takrorlanishi semantik urg‘uni kuchaytiradi. Bu yerda metonimiya vositasi ham qo‘llanib, “non” hayot, “nom” esa shaxs timsoli sifatida talqin qilinadi.

Iztiroblari mahsuli sifatida ijodida yolg‘izlik haqidagi she’rlar maydonga keladi. **“Men yerning ustida kimsasizman, ha”** she’rida yolg‘izlik holati aks etgan.

She’rda:
“Yuragim ochsam shamol uvillaydi”
“Oyga qarasam ko‘zim toyib ketadi”
“Bo‘g‘zimda qayg‘ular sumalakday osilib turar”
“Ko‘zim toyib ketadi seni chorlaganda”
“Daryo ko‘z yoshini yuvadi o‘zining suvi-la”
“Mening ko‘z yoshimni ichadi ichimda potirlagan qush”
“Taqdirni dazmollasam qolmasa birorta g‘ijimi”
“Egilganday yurakka botgan g‘urralar”
“Xamirdan qil sug‘irgandek umridan sug‘irsang judoliklarni”
“Og‘ochlar oyga tegib tursa”
“Chinni siniqlari tushuniladi”
“Qurt tushunilar, men esa hech qachon tushunilmadim”
“Har zamonda bir jilmayar hayot”
“Ilingan dorda silkinib turibdi iztiroblarim”
“Otasiz, onasiz kimsasiz tuyg‘ular”

kabi ifodalar nihoyatda o‘ziga xos poetik topilmalardir. Ushbu ajratib ko‘rsatilgan har bir satr, poetik topilmalar butun bir she’rning zalvorini, yukini tortayapti.

She’rda metafora, ramzlar, onomatopeya, alliteratsiya, jonlantirish kabi til birliklari qo‘llanilganki, bular o‘quvchini she’rning ichkarisiga chuquqrroq nkirishga undaydi.. Shoira she’riyatidagi bu holatni shoir Bahrom Ro‘zimuhammad quyidagicha izohlaydi: “U she’r mavzusini aniq belgilamaydi; goho she’rning birinchi satrini sarlavha sifatida qo‘llaydi. Bolalik vaqtlarimizda shunday yog‘och qo‘g‘irchoq bo‘lguvchi edi: qo‘g‘irchoqning ichini ochsangiz yana kichikroq qo‘g‘irchoq chiqadi. Ochganingiz sayin qo‘g‘irchoqlar mittilashib boraveradi. Begim nazmini ham shunga qiyoslasa bo‘ladi. Matnda metaforalar g‘ij-mij. Metafora ichida ham metafora yashiringan. Qayoqqa qaramang: majoz, majoz, majoz... Majozni esa idrokka muhrlash mushkul amal. Shuning uchun ham Go‘zal Begimning she’rlari – o‘qiyotgan paytlaringizda jonlanadi; o‘qib bitirganingizdan so‘ng – yodingizdan o‘chib ketadi; hattoki obrazlari “bosh olib qochadilar” [12].

Umuman olganda, Go‘zal Begim she’riyati yolg‘izlik motivining chuqur psixologik va badiiy talqini bilan ajralib turadi. Shoiraning she’rlari ko‘pincha ichki mushohada orqali idrok etiladi. Shu ma’noda mashhur psixoanalitik Carl Gustav Yungning “Tashqariga boqqan ro‘yo ko‘rar, ichiga boqqan uyg‘onar” degan fikri Go‘zal Begim she’riyati mohiyatiga hamohangdir. Shoiraning she’rlari o‘quvchini o‘z ichki dunyosiga nazar tashlashga, yanayam chuqurroq boqishga undaydi.

TAMADDUN NURI

Go‘zal Begim she’rda so‘zga qanchalar xasis bo‘lsa, metafora va ramziy tasvirlarga shu qadar mahoratlidir, sahiydir. Aksariyat holatlarda shoiraning bir satr she’ri so‘zamol shoirlar ijodida butun boshli bir she’r yoki turkum uchun asos bo‘la oladi. Shuningdek,shoira she’riyatida yolg‘izlik motivi ko‘pincha **erkin she’r shakli**, **metaforik ifodalar**, **ramziy obrazlar** orqali beriladi. Shoira an’anaviy tasvirlardan ko‘ra ko‘proq ichki monolog, assotsiativ fikrlash va ko‘p ma’noli ramzlardan foydalanishga erishgan. Natijada she’rda yolg‘izlik nafaqat bir hissiy holat, balki murakkab ruhiy va falsafiy tajriba ekanligini namoyon eta olgan. Shu uchun ham muallif she’rlarida “Yolg‘izlik” manzara, tasvir, ruhiy holat ifodasi, holat va kayfiyat chegaralarini aniq belgilovchi kuch sifatida ishlatiladiki, bu she’rlarni harakatga keltirib turadi. Ularning shuuringizga, so‘ngra idrokingizga yetib borishini ta’minlaydi.

“Yolg‘izlik” lirik menning jamiyatga, ijtimoiy hayotga begonalashuvi emas, bilaks lirik “men”ning ruhoniy Me’rojidir. Kundalik ikir-chikirlardan, mayda tashvishlardan, moddiy yugur-yugurlardan olislashmoq, bir va hokazo pog‘ona yuqoriga odimlamoqdir. Shu uchun ham u turli ko‘rinish va shakllarda idrokimizga muhrlanadiki, she’r bizni ham o‘zi bilan yuksaklikka ko‘taradi, savqitabiiy shovqinlardan olislashuv, ularga begonalashuv bosqichini boshlab beradi.

Xulosa qilib aytganda, Go‘zal Begim she’riyatida yolg‘izlik motivi inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi muhim poetik vositadir. U shoirning o‘zini anglash, tiriklik ma’nosini izlash va zamonaviy jamiyatdagi ruhiy kechinmalarni ifodalashida muhim badiiy ochqich bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abdulla Oripov. Saylanma. “Sharq” nashriyot matbaa koserninning bosh tahriryati – 1996. 231-bet.
2.Halima Xudoyberdiyeva. Buyuk qushlar. O‘zbekiston NMIU – 2012. 728-bet.
3.Rauf Parfi. Saylanma. Toshkent: Akademnashr. – 2013. 418-bet.
4.Tursun Ali. Tanlangan asarlar. Birinchi kitob. Toshkent: Akademnashr. – 2022. 371-bet.
5.Abduvali Qutbiddin. Bor. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot -matbaa uyi. Toshkent – 2021. 318-bet.
6.Ulug‘bek Hamdam. Eski dunyo va yangi men. Toshkent: Yangi asr avlodi. – 2018. 416-bet.
7.Turk she’riyati antologiyasi. Toshkent: Akademnashr – 2022.133-bet.
8.Turk she’riyati antologiyasi. Toshkent: Akademnashr – 2022. 76-bet.
9.Turk she’riyati antologiyasi. Toshkent: Akademnashr – 2022. 202-bet.
10.Turk she’riyati antologiyasi. Toshkent: Akademnashr – 2022. 308-bet.
11.Go‘zal Begim. Sukunat jaranglari. Toshkent: Akademnashr – 1998. 23-bet.
12.Bahrom Ro‘zimuhammad. Qalamning o‘sishi. Chag‘aniyon gazetasi – 2015.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81.374.81.276.

MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING TIL TA'LIMIDAGI O'RNI: NAZARIY YONDASHUVLAR

Hakimova Nasiba Alisher qizi,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalari universiteti O'zbek tili va adabiyoti, 1-kurs magistranti



THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN LANGUAGE EDUCATION: THEORETICAL APPROACHES

Hakimova Nasiba Alisher qizi,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
Master's Student (1st Year) in Uzbek Language and Literature

РОЛЬ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Хакимова Насиба Алишер кызы,
Магистрант 1 курса по направлению Узбекский язык и литература Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

e-mail: hakimovbobomurod689@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the role and significance of multimedia technologies in language education from a theoretical perspective. In contemporary educational processes, computers, the internet, interactive applications, and virtual and augmented reality tools are widely used as effective means to enhance language learning. The study systematically examines the pedagogical foundations of multimedia technologies, their connection with communicative approaches, cognitive and constructivist theories, and their impact on developing language skills.*

Key words: *Multimedia technologies, language education, pedagogical approaches, interactive learning, cognitive theory, audiovisual tools, communicative competence, mobile applications.*

Аннотация: *В данной статье теоретически анализируется роль мультимедийных технологий в языковом образовании. В современном образовательном процессе компьютеры, интернет, интерактивные программы, инструменты виртуальной и дополненной реальности широко используются как средства повышения эффективности изучения языка. В статье систематически анализируются педагогические основы мультимедийных технологий, их связь с коммуникативными подходами, когнитивными и конструктивистскими теориями, а также их роль в формировании языковых навыков.*

Ключевые слова: *мультимедийные технологии, языковое образование, педагогические подходы, интерактивное обучение, когнитивная теория, аудиовизуальные средства, коммуникативная компетенция, мобильные приложения*

Annotatsiya: *Ushbu maqola multimedia texnologiyalarining til ta'limidagi o'rnini nazariy jihatdan tahlil qiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida kompyuter, internet, interaktiv dasturlar, virtual va kengaytirilgan reallik vositalari til o'rganishda samaradorlikni oshirish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Maqolada multimedia texnologiyalarining pedagogik asoslari, kommunikativ yondashuvlar, kognitiv va*

konstruktiv nazariyalar bilan bog‘liqligi, shuningdek, ularning til ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli sistematik tarzda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Multimedia texnologiyalari, til ta’limi, pedagogik yondashuvlar, interaktiv ta’lim, kognitiv nazariya, audiovizual vositalar, kommunikativ kompetensiya, mobil ilovalar.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Xususan, ta’lim tizimida ham ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga zamonaviy texnik vositalar hamda multimedia texnologiyalari asosida bilim berish ularning o‘quv materiallarini tezroq va osonroq o‘zlashtirishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bu jarayon bilimlarning aniqroq tushunilishi va uzoq muddat xotirada saqlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanish tajribasi bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Bu jarayon zamon talabi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy sharoitda nafaqat an’anaviy imkoniyatlar, balki insonning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi, intellektual salohiyati hamda mustaqil ravishda bilimini oshirib borish qobiliyati ham katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda mutaxassislarning kasbiy darajasi ko‘p jihatdan ularning axborot texnologiyalarini qay darajada egallaganligi bilan belgilanadi. Shu sababli ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqish va ularning metodik imkoniyatlarini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiyalar tarkibiga ta’limni kompyuterlashtirish ham kiradi. Natijada axborot madaniyati shakllanib, axborotni uzatish va qabul qilishning yangi usullari, fikrlashning yangicha ko‘rinishlari yuzaga kelmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarining elektron shakllari yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Bunday raqamli resurslardan foydalanish bir qator qulayliklarni taqdim etadi. Jumladan, internet orqali kerakli adabiyotlarni tez va oson topish, matn ichidan zarur ma’lumotni qisqa vaqt ichida izlab topish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda nashr etilayotgan maktab darsliklari, badiiy asarlar, gazeta va jurnallar ham elektron ko‘rinishda internet tarmog‘iga joylashtirilmoqda. Elektron nusxasi mavjud bo‘lmagan manbalar esa zamonaviy skaner qurilmalari yordamida raqamlashtirilib, keng ommaga taqdim etilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОД/ MATERIALS AND METHODS)

An’anaviy ta’lim tizimida laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarga ko‘p vaqt ajratilishi talab etiladi. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, ushbu usullar har doim ham kutilgan darajada samarali natija bermasligi mumkin.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish asosida ta’lim berish va mutaxassislarni qayta tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quv materiallari audio, video, matn va grafik ko‘rinishda integratsiyalashgan holda yetkaziladi. Rivojlangan mamlakatlarda bu yondashuv ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, multimedia vositalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari ham jadal o‘sib borgan. Masalan, 1981-yilda ushbu sohadagi umumiy aylanma 4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 1994-yilga kelib bu ko‘rsatkich 16 milliard dollarga yetgan. Bugungi kunda esa multimedia texnologiyalarisiz kompyuter tizimlarini tasavvur qilish qiyin[1].

[1] Gulyamov S.S., Ayupov R.X. Миллий иқтисодиётда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг стратегик ахамияти. Тошкент, www.UzA.uz, УзМАА – Узбекистон Миллий Ахборот Агентлиги «Электрон журнали», УзМАА Ахборотномаси, 2019 йил.

Multimedia vositalari ta’lim, hordiq chiqarish va reklama kabi turli sohalarda qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, 5–6-sinf o‘quvchilariga ta’lim berishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, bu vositalar o‘quv materialining chuqurroq o‘zlashtirilishiga, vaqt tejalishiga va bilimlarning uzoq muddat xotirada saqlanishiga xizmat qiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION)

Multimedia vositalari asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni an’anaviy o‘qitishdan sezilarli darajada farq qiladi. Bu yondashuv 5–6-sinf o‘quvchilari uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

o‘quv materiallarini vizual obrazlar orqali tushuntirish;

o‘qitishni individual va differensial yondashuv asosida tashkil etish;

o‘zlashtirish jarayonini doimiy nazorat qilish va teskari aloqani yo‘lga qo‘yish;

o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish va xatolarini tuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

mavzular o‘rtasidagi bog‘liqlikni animatsiya va grafik vositalar orqali namoyish etish;

fanlarni o‘zlashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish;

mustaqil ta’lim olish uchun qulay sharoit yaratish.

Multimedia samaradorligi bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy qarashlar (jumladan, Mayer tamoyillari) o‘quv materiallarini tizimli va mantiqiy tashkil etishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarga ta’lim mazmunini to‘liq yoki qisqartirilgan shaklda o‘zlashtirish imkonini beradi.

NATIJALAR(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

Axborotni qabul qilish jarayoni asosan ko‘rish va eshitish organlari orqali amalga oshadi. Shu bois multimedia vositalarini ishlab chiqishda insonning psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Yaratilayotgan multimediali materiallar nafaqat mazmunan boy, balki o‘quvchilarning yoshiga mos va qulay qabul qilinadigan shaklda bo‘lishi zarur.

Multimedia vositalarini loyihalashda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

ranglar palitrasi o‘zaro uyg‘unlashgan, estetik jihatdan muvozanatli bo‘lishi kerak;

tanlangan ranglar haddan tashqari yorqin yoki keskin bo‘lmasligi, o‘quvchilarning ko‘zini toliqtirmasligi zarur;

tasvirlar (rasm, grafik, animatsiya) mavzuga mos, zamonaviy va mazmunni to‘liq aks ettiruvchi bo‘lishi, o‘quvchining diqqatini chalg‘itmasligi lozim;

audio va video materiallar tinglovchining yosh xususiyatlariga mos kelishi, ularning tafakkurini rivojlantirish va bilim darajasini oshirishga xizmat qilishi kerak;

topshiriqlar o‘quv mavzusiga muvofiq holda ishlab chiqilib, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rag‘batlantirishi lozim.







Ushbu talablar asosida yaratilgan multimedia vositalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarning bilimlarni chuqur va mustahkam o‘zlashtirishiga yordam beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION)

Multimedia asosida o‘quv materiallarini yaratish an’anaviy matnli materiallarga nisbatan murakkabroq bo‘lib, ko‘proq vaqt va texnik resurslarni talab etadi. Shuningdek, dasturiy ta’minot va texnik vositalarni sozlash jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ta’lim vositalarining zamonaviy shakllari nafaqat muloqot va axborot almashinuvi imkoniyatlarini kengaytiradi, balki an’anaviy ta’lim tizimi hamda ommaviy axborot vositalari bilan qiyoslaganda, zamonaviy madaniyat doirasida yangi muammolar, ularning yechimlari va o‘zaro kesishuvchi yo‘nalishlarning yuzaga kelishiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ/ REFERENCES)

1. Texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. — Toshkent: Fan, 2007. — 160 b.
2.Begimqulov U. Sh. Multimediali o‘quv-metodik majmualar va ularni yaratishga bo‘lgan talablar // Pedagogik ta’lim jurnali — Toshkent, 2005. — №1. — 19—21 b.
3.Namazov B., Fayziyeva M., Sharofaddinov Sh. Media va axborot savodxonligi. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Baktria press, 2018 y. — 139 bet.
4.Nazarov U., Karimov A. Ta'limda axborot texnologiyalari. — Samarqand, 2014. — 9 b.
5.Fayziyeva M., Sharofaddinov Sh. Media va axborot savodxonligi. O‘quv qo‘llanma. —Toshkent: Baktria press, 2018 y. —139 bet.
6. Saidova M. J., Qosimov F. M. Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun ishlanmalar. Metodik qo‘llanma. Buxoro, 2019. —122 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.82

TURKIY XALQLARDA TOTEMLARGA ALOQADOR TABULAR

Axmedova Zebiniso Jumaqulovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Navoiy davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti



https://orcid.org/0009-0002-3034-3920
e-mail: axmedovazebiniso2022@gmail.com

TABOOS ASSOCIATED WITH TOTEMS AMONG TURKIC PEOPLES

Axmedova Zebiniso Jumakulovna, doctor of philosophy in philological sciences (PhD), Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Navoi State University

ТАБУ, СВЯЗАННЫЕ С ТОТЕМАМИ У ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Ахмедова Зебинисо Жумакуловна, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент кафедры узбекского языка и литературы Навоийского государственного университета

Аннотация: *Мазкур мақолада туркий халқлардаги тақиқларнинг мифологик асослари ҳақида сўз боради. Айниқса, туркий халқларнинг тотемлари билан боғлиқ тақиқлари таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *тақиқ, табу, мифологик тасаввур, тотем, туркий фольклоршунослик, муқаддас.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются мифологические основы запретов у тюркских народов. Проведен анализ табу, связанные с тотемами тюркских народов*

Ключевые слова: *запрет, табу, мифологическое представление, тотем, тюркский фольклор, священный.*

Abstract: *This article examines the mythological foundations of prohibitions among Turkic peoples. Ananalysis of taboos associated with the totems of the Turkic peoples is provided.*

Key words*: prohibition, taboo, mythological representation, totem, Turkic folklore, sacred.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Turkiy xalqlarning ildizlari qadimiyatga borib taqalganligi sababli boy folklor namunalariga ega. Bu xalqlarning og‘zaki ijod namunalarida taqiqlar bilan bog‘liq qadimgi ilk qarashlar mavjud. Qariyb har bir folklor asarida ibtidoiy jamiyatda yaratilgan animizm va totemizm tushunchalariga aloqador mifologik tasavvurlar aks ettirilgan. Jamiyatni tartibga keltirish maqsadida yaratilgan bu taqiqlar bag‘riga turkiy xalqlarning olam va odam haqidagi ibtidoiy dunyoqarashi singdirilgan. Dastlab yaratilgan taqiqlar xalqimizning mifologik-diniy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik tabiatni, hayvonot va o‘simlik dunyosini asrashga qaratilgan taqiqlar yuzaga kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O’zbek etnograf olimi A.Ashirovning qayd etishicha, qadimgi turkiy xalqlarda har bir urug’ tomonidan muqaddaslashtirilgan hayvon – o’ngun bo’lgan. O’ngun sifatida topinilgan jonzot go’shti yeyilmagan, o’q otilmagan va tabiiyki, aslo ranjitilmagan[1] Bo‘ri, ayiq va ot kabi jonivorlar dastlab turkiy xalqlarda totem bo‘lganligi sababli ular bilan bog‘liq taqiqlar ham ko‘plab uchraydi. Bular orasida ov paytida hayvonlar otini aytmaslik,

bu hayvonlarni ranjitmaslik, azob bermaslik juda muhim hisoblangan [2]. Ayiq so‘zini aytmaslik hind-yevropa xalqlarida tabu hisoblangan. Qizig‘i shundaki, german tillarida bu so‘z uchramaydi. Ingliz, golland, nemis tillarida ayiq so‘zi o‘rnida aynan tarjimada “malla” so‘zi mavjud bo‘lgani aytiladi. Ibtidoiy tafakkurga ega insonlar bu so‘zni talaffuz qilinishi bilan ayiqning qahrli nazariga tushish yoki yirtqichning oldindan bilib bo‘lmaydigan harakatlaridan qo‘rqish, o‘zini himoyalash, o‘zlarini muqaddas narsalarning zararidan asrash maqsadida foydalanishgan. O‘zbek xalqida ham ilon, chayon nomlarini boshqa nomlar bilan atashga doir efemizmlarning uchrashi mana shu qadimgi taqiqlar bilan bog‘liq qarashlarga borib taqaladi. Bo‘riga nisbatan ham shunday tabu mavjud bo‘lgan. Bu so‘zlarni tilda takrorlash faqat tilning mantig‘ini emas, balki insonning qo‘rquvi, ishonch va his-tuyg‘ularini ifodalagan. Umuman tabularda xavfli yoki muqaddas deb hisoblangan narsaning nomini aytmaslik va o‘rniga boshqa nom bilan atash – efemizmlar keng tarqalgan.

Ma’lumki, taqiqlarda ikki holat mavjud bo‘ladi: biri muqaddas bo‘lganligi uchun o‘z nomini aytmaslik va yana biri shu muqaddas narsadan zararlanib qolishdan qo‘rqish oqibatida shunday qarash shakllangan. O‘sha ibtidoiy jamiyatda shomonlar qancha muqaddas sanalsa, shuncha ularning narsalariga teginish kishiga zarar yetkazadi deb tushunilgan. Totemlar bilan bog‘liq qarashlarda ham qaysidir jihatlari bilan shu tasavvurlarning qoldiqlari saqlanib qolgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Qadimgi mifologik tasavvurlarga ko‘ra ayiq, bo‘ri, ilon, ot, echki, qo‘y, ho‘kiz, burgut, bug‘u kabi jonivorlar muqaddas totem hisoblangan. S.P.Tolstovning yozishiga qaraganda, totemizm yuqori paleolit davrida paydo bo‘lgan[3]. Bundan anglashiladiki, qadimda paydo bo‘lgan totemga ishonish turli xil urf-odatlarni vujudga keltirgan va ko‘pchilik xalqlar ba’zi hayvonlarni kult darajasiga ko‘targan, muqaddaslashtirgan. Turkiy xalqlarda bo‘ri, ayiq, ot va ilon totemi eng qadimiy totemlar hisoblangani uchun ham bu jonivorlar bilan bog‘liq totemistik qarashlarida ibtidoiy insonning dunyoqarshini ifodalovchi ilk taqiqlar ko‘plab uchraydi.

Totemizmning kelib chiqishi va o‘ziga xos jihatlari G.Sллpenser, E.Taylor, J.Frezer, Robertson Smit, Van Gennep, S.P.Tolstov, S.A.Tokaryov kabi olimlar tomonidan ilmiy aspektda chuqur o‘rganilgan. Agar turkiy xalqlar tarixiga nazar tashlasak, bu qavmlar o‘tmishda bo‘ri, ayiq, burgut, ilon, echki, qo‘y, ho‘kiz, daraxt kabi totemlarga sig‘ingan va ularni ilohiylashtirgan. Ayiq totemi yoqut, oltoylik, turkiy qavmlar orasida yuzaga kelgan. Oltoyliklar o‘zini ayiqdan tarqalganmiz deb hisoblashgan [4]. O‘zbek xalq ertaklarida ham ayiq, bo‘ri, sigir, buzoq timsollari dastlab yaratilgan ertaklarda ulug‘vorlik, kuch-qudrat, baxt timsoli sifatida talqin etilgan. Ertaklarda ko‘p uchraydigan evrilish motivi ham mifologik qarashlar natijasida ajdodlar ruhiga sig‘inish, totemistik-animistik tasavvurlar asosida miflarda paydo bo‘lgan. Qadim xalqlarda o‘lgan kishini hayvon terisi bilan dafn etish udumining saqlanib qolishi natijasida turli evrilishlar haqidagi mifologik qarashlar yuzaga kelgan. A.N.Veselovskiy fikriga ko‘ra, evrilish kosmogonik miflar tarkibida yuzaga kelgan. Bu mifologik qarashlar natijasida qahramonning bir olamdan o‘zga g‘ayb olamiga sayohat qilishi, ma’lum bir vazifani bajarishi, insonning hayvonga, qushga, o‘simliklarga aylanishi maqsadli evrilish sifatida amalga oshirilgan. Sehrli ertaklardagi evrilishlar ham turli maqsadlarda yuz beradi va bu holat totemistik qarashlarga borib taqaladi. Xudolar va odamlarning afsun, ritual yordamida hayvonlarga aylanishi muhim belgi sifatida talqin etiladi. B.A.Kolomakina totemistik qarashlarga borib taqaluvchi bu evrilishda asosan uch holatga e’tibor berilishi zarurligini ta’kidlaydi: birinchidan evrilishni sodir etuvchi shaxsning qatnashishi, ikkinchidan bir holatdan ikkinchi holatga o‘tkazilgan odam, ya’ni evrilishga uchragan shaxsning yoki ayiq, bo‘ri, ho‘kiz, qush, o‘simlikka aylangan qahramonning ishtirok etishi va asosiysi evrilish vositasining mavjud bo‘lishi[5]. Bunda evrilish muqaddas hisoblangan predmetlar orqali yuz beradi. Ertaklarda ko‘pincha suv sepish, tuproqni sochish, hayvon terisini yopinish orqali sodir bo‘ladi. Shomoniylik tushunchalariga ko‘ra ham, qush homiy ruhlar timsoli bo‘lib, qahramonni ruhlar olamiga olib o‘tadi. Qahramonning teridan chiqishi yangi qiyofada qaytadan tug‘ilishidan dalolat beradi. Bu

jarayonda ham totemni muqaddaslashtirilishi ertaklarning ichki mohiyatiga singdirilgan.

Sibir, Uzoq Sharq, Kamchatka va Shimoliy Amerika hindularida ayiq totemi bilan bog‘lik qarashlar mavjud bo‘lib, A.F.Anisimova, G.M.Vasilevich, Ye.A.Kreynovich, U.G.Popov kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. A.A.Goncharovaning Kamchatka xalqlarida ayiq kultini muqaddaslashtirish bilan bog‘liq ilmiy ishlarida o‘rmonda, tundrada ayiqning hatto nomini atash ham taqiqlanganligi va uning o‘rniga “bobo” (dedushka) so‘zi ishlatilganligi aytiladi. A.A.Goncharova, Kamchatka xalqlari to‘g‘risida to‘plangan etnografik materiallarga asoslangan olim Tan-Borogazning “ayiqning odamlar yoniga kelishi va ayolni o‘g‘irlashi bilan bog‘liq”[6] ishonchlarida ayiqdan tug‘ilgan bolalar odamlar bilan aka-uka bo‘lganligi haqidagi mifologik tasavvurlar mavjudligi haqida ma’lumot beradi. Bu motiv juda ko‘plab xalqlarning folkloriga singib ketgan. Evrilish motivining mifologik asosini o‘rgangan B.A.Kolomakina va S.A.Trubetskoylar “Mifologicheskaya osnova motiva prevrasheniya v epose” nomli ilmiy maqolasida qadimda evrilishning asosan bir olamdan o‘zga g‘ayb olamiga sayohat qilishi uchun sodir bo‘lganligi haqida munozara yuritadilar. Buryat qahramonlik eposi “Abay Geser” asarida Naran Goxon ismli qizning osmondan so‘fito‘rg‘ayga aylanib yerga tushishi tasviri, asar qahramonining ayiqqa aylanishi holatlarini tahlil qiladi. “Ayiqpolvon” [7] nomli o‘zbek xalq ertagida ham malika Iqbolning ayiq bilan turmushidan tug‘ilgan bolaning belidan yuqori qismi odam, pastki qismi junli – ayiqsimon bo‘lishi evrilishning o‘ziga xos zoomorf ko‘rinishi bo‘lib, ilk mifologik tasavvurning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida ertaklarda namoyon bo‘ladi. Bu evrilishlarning barchasi o‘sha muqaddas hisoblangan totemga zarar yetkazmaslik taqiqlari asosida yuzaga kelgan.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, turkiy qabilalarning ko‘pchiligi bo‘rini totem-ajdod sifatida ulug‘laganlar. Bo‘ri turkiylarning qadimgi tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosida ashina urug‘ining kelib chiqishi tarixi - bo‘ridan tarqalgan turkiy qavmlar haqidagi afsonalar N.Ya.Bichurinning asarida keltiriladi. O‘rol-oltoy qabila birlashmasining mifologik tasavvurlarini o‘rgangan folklorshunos M.Jo‘rayev bo‘ri-ajdod yoki homiy haqidagi eng qadimgi mifologik afsonalarni o‘rganadi[8]. Bo‘rining tirnog‘i, tishi va etining parchasi bola boshiga himoya vositasi sifatida osib qo‘yilishi muqaddaslashtirish bilan aloqador bo‘lib, turk asotirlarida bo‘ri Bo‘rju, Sino, Jina, Jinu, Yashqar, Qashqir, qurt nomlari bilan yuritilgan. Folklorshunos olim G‘.Jalolovning yozishiga ko‘ra, xalq e’tiqod va rivoyatlarida bo‘ri hurmat qilinib, ijobiy obraz sifatida tasvirlanadi. Ammo, o‘zbek xalq ertaklarida bo‘ri salbiy timsol hisoblanadi. Olimning fikriga ko‘ra, hayvonlar haqidagi ertaklarning eng qadimgi variantlari yozib olinmaganligi sababli bizgacha yetib kelmagan, hozirgi ertaklar esa bolalarga mo‘ljallanganligi uchun ertaklarning umumiy xususiyatlariga ta’sir etgan va hayvonlar haqidagi ertaklarda uzoq o‘tmishda ko‘zga tashlangan o‘tkir va chuqur ma’nolar vaqt o‘tishi bilan bolalarga moslab soddalashtirilgan[9]. Ammo, ayrim rus ertaklarida bo‘rining odamga homiylik qilishi motivi saqlanib qolgan.

Keyinchalik ot, ilon, baliq qo‘y, echki, qoramol totemlashtirildi. Hattoki, ular muqaddaslashtirilib, ot, qo‘y, qoramol va echkilarning pirlariga atab qurbonliklar ham qilindi. A.Ashirovning ma’lumotiga ko‘ra, chorvadorlarda har bir hayvonning o‘ziga xos piri bo‘lgan va yilda bir marta mazkur pirga bag‘ishlab qurbonliklar qilingan. Qo‘y piri – Cho‘ponota, qoramol piri Zangiota, otning piri Qambarota, echkining piri – Chig‘atota bo‘lgan. Demak, bundan ko‘rinadiki, totem sifatida muqaddaslashtirilgan hayvonlarning keyinchalik homiylari ham yuzaga kelgan. O‘zbeklar orasida ot, sigir, qo‘y va tuyani oyoq bilan tepish ham qadimdan og‘ir gunoh sanalgan. Totem hayvonlarga zarar yetkazish taqiqlangani sababli, hozirgi kunda ham ularga do‘stona munosabatda bo‘lish ongimizga singib qolgan. Masalan, xalqimizda ot muqaddas jonivor hisoblanadi, uni urish kishiga zarar keltiradi deb hisoblashadi. Go‘yoki, otning devi bo‘lib, jonivorga zarar yetgazganda ot eslab qoladi va albatta o‘chini oladi deb o‘ylashadi. Xalqda ot boshiga qamchi bilan urish gunoh ishlardan biri sanalgan[10]. Xalqimizda otga zarar yetkazmaslik haqidagi taqiqlar ham uning muqaddas totem bo‘lganligidan dalolat beradi. Shu sababli ham o‘zbek xalq ertaklari va dostonlaridagi ot qahramoning sodiq do‘sti, vafodor hamrohi, dushmandan himoyalovchi homiysi sifatida

namoyon bo‘ladi, unga zarar yetkazish qat’iy man etiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Demak, xalq ertaklari va dostonlaridagi ayiq, bo‘ri va ot obrazlari dastlab muqaddas totemlar hisoblangan bo‘lsa, keyinchalik transformatsiyaga uchragan va ularning epik vazifasida o‘zgarishlar yuz bergan. Xulosa sifatida shuni aytish muhimki, hayvonlar bilan bog‘liq totemlar insoniyatning ilk ibtidoiy davrida yaratilgan bo‘lib, ular avvalo totem-hayvonlarni ajdodlarimiz deb hisoblab muqaddaslashtirilganligi sababli insoniyat bu totemlardan zarar topishdan qo‘rqishgan, yovuz ruhlar yashiringan bu mavjudotlar insonga xavf tug‘dirishidan xavotir olib ularni asrab-avaylashga doir qoidalar yaratilgan. Turkiy xalqlarda totemlarga aloqador yaratilgan tabularda insoniyatning qadimiyatga borib taqaluvchi ilk mifologik-diniy tasavvurlari shakllangan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2007. -Б.14
2. Гайсина Ф.Ф. Запреты как фольклорный жанр в традиционной культуре башкир: Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Казан., 2013. – Стр 12
3. Толстов С.П. Религия народов Средней Азии. –М. -Л., 1931. -С. 3-4.
4. Потапов А.П. Пережитки культ медведья у алтайских турок // Этнограф-исследователь. – Л., 1928. – №2-3. – С.7.
5. Коломакина Б.А. Мотив превращения человека в животное в волшебных сказках бурят и шорцев/Сибирский филологический журнал. – Новосибирск, 2012. – С.20.
6. Гончарова А.А. Отрежения культа медведя в обрядах и мифологической прозе народов Камчатки: сюжеты, мотивы, семантика. Вопросы узучения фольклорной несказочной прозы. -М. 2019. -С. 60
7. Ўзбек халқ эртаклари. 3 жилдлик, 2-жилд. – Тошкент, 2007. –Б.88
8. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. Тошкент, Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти. 2001. -Б.22-33
9. Жалолов Ғ. Ўзбек фольклорида жанрлараро муносабат. Тошкент, “Фан” нашриёти. 1979.-Б. 19
10. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2007, 23-бет

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.85:92.102

KANT ETIKASI VA YOSHLAR TARBIYASI

Kaypnazarova Ayparshin Tengelbaevna



e-mail:
ayparshin.9111@gmail.com

KANT'S ETHICS AND YOUTH EDUCATION

Kaypnazarova Ayparshin Tengelbaevna

ЭТИКА КАНТА И ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ

Кайпназарова Айпаршын Тенгельбаевна

Annotatsiya*: Mazkur ilmiy maqolada nemis klassik falsafasining yirik namoyandasi Immanuel Kant tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy ta'limot yoshlar tarbiyasi nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda Kant etikasi markazida turgan kategorik imperativ, burch, axloqiy avtonomiya, erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Kant etikasi g'oyalari zamonaviy falsafiy-pedagogik qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning yoshlar ongida axloqiy barqarorlik, ichki intizom va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishdagi roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari Kant etikasi yoshlar tarbiyasida nazariy-metodologik asos sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Kant etikasi, yoshlar tarbiyasi, axloqiy ong, kategorik imperativ, burch, axloqiy avtonomiya, mas'uliyat.*

Abstract*. This scientific article provides an in-depth analysis of Immanuel Kant's ethical doctrine in the context of youth education. The study examines the educational significance of key concepts of Kantian ethics, including the categorical imperative, duty, moral autonomy, freedom, and responsibility. Furthermore, Kant's ethical ideas are comparatively analyzed alongside contemporary philosophical and pedagogical approaches, highlighting their role in shaping moral consciousness, inner discipline, and social responsibility among young people. The findings demonstrate that Kantian ethics represents an important theoretical and methodological foundation for modern educational practice.*

Keywords*: Kantian ethics, youth education, moral consciousness, categorical imperative, duty, moral autonomy, responsibility.*

Аннотация*: В данной научной статье проводится углублённый анализ этического учения Иммануила Канта в контексте воспитания молодёжи. В исследовании раскрывается воспитательное значение таких ключевых понятий кантовской этики, как категорический императив, долг, моральная автономия, свобода и ответственность. Кроме того, идеи кантовской этики рассматриваются в сопоставлении с современными философско-педагогическими концепциями, что позволяет обосновать их роль в формировании нравственного сознания, внутренней дисциплины и социальной ответственности у молодёжи. Результаты исследования*

свидетельствуют о том, что этика Канта может служить важной теоретико-методологической основой современного воспитательного процесса.

Ключевые слова: *этика Канта, воспитание молодёжи, нравственное сознание, категорический императив, долг, моральная автономия, ответственность.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlar tarbiyasi masalasi muhim ijtimoiy va pedagogik muammo sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonlari va axborot oqimining kuchayishi yosh avlodning dunyoqarashi va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani sababli, tarbiya jarayonida axloqiy ongni shakllantirish alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Shu bois, yoshlarni mustaqil fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash uchun chuqur falsafiy asosga ega nazariy yondashuvlarga ehtiyoj mavjud [9]. Mazkur nuqtai nazardan, nemis klassik falsafasining yirik namoyandasi Immanuel Kant tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy ta’limot muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kant etikasi insonni tashqi majburiyatlarga bo‘ysunuvchi emas, balki o‘z aqli orqali axloqiy qonunni anglay oladigan ongli subyekt sifatida talqin qiladi. Aynan shu jihat yoshlar tarbiyasida ichki mas’uliyat va axloqiy avtonomiyani shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, Kant etikasi markazida turgan kategorik imperativ, burch va erkinlik tushunchalari zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli, ushbu maqolaning maqsadi Kant etikasi g‘oyalarini yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq holda tahlil qilish va ularning axloqiy ongni shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi klassik axloqiy falsafa hamda zamonaviy falsafiy-pedagogik yondashuvlarning integratsiyasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqotda axloqiy tarbiyani shaxsning ichki ongiy tuzilmalari orqali shakllantirish masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan, metodologik poydevor sifatida Immanuel Kant etikasi tanlandi va u zamonaviy tarbiya nazariyalari bilan uyg‘un holda talqin qilindi.

Avvalo, tadqiqot Kantning asosiy axloqiy asarlariga tayanadi. Xususan, “Amaliy aql tanqidi” va “Axloq metafizikasining asoslari” asarlarida ilgari surilgan burch, axloqiy qonun va kategorik imperativ tushunchalari metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Kantga ko‘ra, axloqiy xatti-harakatning haqiqiy manbai tashqi majburiyat emas, balki shaxsning ichki axloqiy qonunidir. Shu bois, ushbu tadqiqot metodologiyasida tarbiya jarayoni tashqi nazorat mexanizmlariga emas, balki yoshlarning ichki mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan jarayon sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, Kantning axloqiy avtonomiya haqidagi qarashlari tadqiqotning muhim metodologik tamoyiliga aylantirildi. Kant axloqiy avtonomiyani shaxsning o‘z aqli orqali axloqiy qonunni belgilash qobiliyati sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv asosida tadqiqot metodologiyasi yoshlarni passiv ijrochi emas, balki axloqiy subyekt sifatida shakllantirish g‘oyasiga tayandi. Demak, metodologiya yoshlarning ongli qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilishga yo‘naltirildi.

Zamonaviy falsafiy-pedagogik tadqiqotlar bilan integratsiya qilish maqsadida Kant etikasi axloqiy rivojlanish nazariyalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Jumladan, zamonaviy pedagogik adabiyotlarda axloqiy tarbiya shaxsning refleksiv tafakkuri va ijtimoiy mas’uliyati bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Bu jihat Kant etikasi bilan metodologik jihatdan uyg‘un keladi, chunki Kant ham axloqiy xatti-harakatni refleksiv ong faoliyati mahsuli sifatida talqin etadi.

Bundan tashqari, metodologiya doirasida axloqiy ongni shakllantirishning bosqichliligi tamoyili ham inobatga olindi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda axloqiy tarbiya uzluksiz va dinamik jarayon sifatida qaraladi. Shu asosda Kant etikasi g‘oyalari yoshlarning rivojlanish bosqichlariga mos ravishda talqin qilindi. Masalan, burch tushunchasi dastlab ijtimoiy norma sifatida anglatilib, keyinchalik ichki e’tiqod darajasiga ko‘tarilishi metodologik model sifatida asoslandi.

Metodologiyada, shuningdek, normativ-etika va amaliy pedagogika o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida e’tiborga olindi. Kant etikasi normativ xarakterga ega bo‘lsa-da, ushbu tadqiqotda u tarbiyaviy amaliyot bilan bog‘liq holda talqin qilindi. Bu esa metodologiyaning faqat nazariy emas, balki amaliy-pedagogik yo‘nalishga ega ekanini ta’minladi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi Kantning klassik axloqiy qarashlari hamda

zamonaviy falsafiy-pedagogik tadqiqotlar sinteziga asoslanib, yoshlar tarbiyasida axloqiy ongni shakllantirishning nazariy va metodik mexanizmlarini ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Immanuel Kant etikasi yoshlar tarbiyasida axloqiy ongni shakllantirishda nazariy jihatdan mukammal va pedagogik jihatdan samarali modelni taklif etadi. Xususan, Kantning axloqiy qarashlari yoshlarni tashqi intizomga bo‘ysunuvchi emas, balki ichki axloqiy qonun asosida faoliyat yurituvchi shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Avvalo, tadqiqot Kantning “Axloq metafizikasining asoslari” asarida ilgari surilgan kategorik imperativ tamoyilining tarbiyaviy ahamiyatini tasdiqladi. Kant mazkur asarda shunday deydi: “Shunday amal qilginki, sening xatti-harakat qoidang umumiy qonun bo‘lishi mumkin bo‘lsin.” Ushbu qoida yoshlar tarbiyasida universal axloqiy mezon sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu tamoyil asosida tarbiyalangan yoshlar o‘z harakatlarini faqat shaxsiy manfaatlar nuqtayi nazaridan emas, balki jamiyat va insoniyat manfaatlari bilan bog‘liq holda baholay boshlaydi. Masalan, akademik halollik, jamoada mas’uliyatli ishtirok etish va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish kabi xatti-harakatlar aynan kategorik imperativ ruhida shakllanadi [2].

Shuningdek, Kantning “Amaliy aql tanqidi” asarida ilgari surilgan burch tushunchasi tadqiqot natijalarida muhim o‘rin egalladi. Kantga ko‘ra, axloqiy xatti-harakat tashqi mukofot yoki jazoga bog‘liq bo‘lmasligi, balki burchni anglashdan kelib chiqishi lozim. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yoshlar burchni ichki axloqiy majburiyat sifatida qabul qilgan taqdirda, ularning ijtimoiy mas’uliyati barqaror va izchil shakllanadi. Masalan, ijtimoiy faoliyatda, o‘qish jarayonida yoki jamoat ishlarida ishtirok etishda bunday yoshlar tashqi nazoratsiz ham mas’uliyat bilan harakat qiladi [3].

Bundan tashqari, tadqiqot Kant etikasi asosida axloqiy avtonomiya tushunchasi yoshlar tarbiyasida muhim natija berishini ko‘rsatdi. Kant axloqiy avtonomiyani insonning o‘z aqli orqali axloqiy qonunni belgilash qobiliyati sifatida talqin qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu yondashuv yoshlarni mustaqil qaror qabul qilishga, tanqidiy fikrlashga va axloqiy dilemmalarda ongli tanlov qilishga o‘rgatadi. Masalan, tengdoshlar bosimi ostida noto‘g‘ri xatti-harakatga berilmaslik yoki adolatsizlikka qarshi pozitsiya bildirish axloqiy avtonomiya shakllanganligining amaliy ko‘rinishidir.

Shu bilan birga, Kantning “Axloq metafizikasi” asarida bayon etilgan insonni maqsad sifatida ko‘rish tamoyili ham muhim natija sifatida namoyon bo‘ldi. Kantga ko‘ra, inson hech qachon faqat vosita sifatida ishlatilmasligi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu tamoyil asosida tarbiyalangan yoshlar boshqalarga nisbatan hurmat, bag‘rikenglik va empatiya bilan munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu holat, ayniqsa, zamonaviy ko‘p madaniyatli jamiyatda yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi [4].

Yana bir muhim natija Kant etikasi orqali erkinlik tushunchasining to‘g‘ri shakllanishi bilan bog‘liqdir. Kant erkinlikni istaklarga bo‘ysunmaslik, balki axloqiy qonunga ongli bo‘ysunish sifatida talqin qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv yoshlar ongida erkinlik va javobgarlik o‘rtasidagi muvozanatni shakllantiradi. Natijada, yoshlar erkinlikni bexosdan xatti-harakat qilish imkoniyati emas, balki ongli va mas’uliyatli tanlov sifatida tushuna boshlaydi.

Umuman olganda, natijalar Kant etikasi yoshlar tarbiyasida axloqiy barqarorlik, ichki intizom va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda samarali nazariy asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, Kant asarlarida ilgari surilgan axloqiy tamoyillarning zamonaviy tarbiya jarayoni bilan uyg‘unlashuvi yoshlar ongida chuqur va barqaror axloqiy qadriyatlar tizimini vujudga keltirishga imkon beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari Kant etikasi yoshlar tarbiyasida axloqiy ongni shakllantirishning fundamental falsafiy asosini ta’minlashini ko‘rsatadi. Avvalo, Immanuel Kant tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy konsepsiya shaxsni faqat ijtimoiy qoidalarga bo‘ysunuvchi mavjudot sifatida emas, balki o‘z axloqiy qonunini ongli ravishda belgilovchi subyekt sifatida talqin etishi bilan ajralib turadi. Aynan shu jihat Kant etikasi va zamonaviy tarbiya konsepsiyalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yuzaga keltiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, Kantning “Axloq metafizikasining asoslari” asarida ilgari surilgan kategorik imperativ yoshlar tarbiyasida normativ qoida emas, balki ichki axloqiy mezon sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Agar an’anaviy tarbiya modellarida axloqiy xulq-atvor “mumkin” va “mumkin emas” chegaralari orqali belgilanadigan bo‘lsa, Kant yondashuvida bu chegaralar shaxsning o‘z ongida shakllanadi. Natijada, yoshlar axloqiy qarorlarni tashqi majburiyat tufayli emas, balki ongli ravishda qabul qiladi. Bu holat axloqiy xatti-harakatlarning barqaror va izchil bo‘lishini ta’minlaydi.

Shuningdek, Kantning “Amaliy aql tanqidi” asarida asoslangan burch tushunchasi zamonaviy pedagogik qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Kantga ko‘ra, burch — bu tashqi majburiyat emas, balki insonning ichki axloqiy ehtiyoji. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham axloqiy tarbiyaning samaradorligi shaxsning ichki motivatsiyasiga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Shu jihatdan, Kant etikasi bugungi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasining falsafiy poydevori sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu xulosani amerikalik pedagog va faylasuf John Dewey qarashlari bilan qiyoslash mumkin. Dewey ta’limni shaxsning tajribasi va refleksiyasi orqali rivojlanadigan jarayon sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, axloqiy rivojlanish faqat tayyor qoidalarni o‘rgatish bilan emas, balki shaxsning faol fikrlashi orqali yuzaga keladi. Bu yondashuv Kantning axloqiy avtonomiya haqidagi g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Demak, Kant etikasi va Dewey pedagogikasi o‘rtasida nazariy jihatdan mantiqiy uzviylik mavjud [1].

Muhokama davomida axloqiy rivojlanishning bosqichli modeli ham alohida e’tiborga olindi. Xususan, Lawrence Kohlberg tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, shaxsning eng yuqori rivojlanish bosqichida xatti-harakatlar universal axloqiy tamoyillarga asoslanadi. Bu bosqich Kantning kategorik imperativiga to‘liq mos keladi. Shunday qilib, Kant etikasi Kohlberg modelining nazariy-falsafiy asosini tashkil etadi, degan ilmiy xulosa chiqarish mumkin [8].

Biroq, muhokama jarayonida Kant etikasi g‘oyalarini bevosita amaliy tarbiya jarayoniga tatbiq etishda muayyan muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Eng avvalo, Kantning abstrakt va yuqori darajadagi falsafiy tushunchalari barcha yosh guruhlari uchun birdek tushunarli emas. Shu sababli, pedagogik jarayonda bu g‘oyalarni yoshlar psixologiyasiga mos holda soddalashtirib yetkazish zarur bo‘ladi. Masalan, kategorik imperativ axloqiy dilemmalar, real hayotiy vaziyatlar va muhokama mashg‘ulotlari orqali tushuntirilgandagina samarali natija beradi.

Shu bilan birga, Kant etikasi zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan utilitar va pragmatik yondashuvlarga muqobil axloqiy modelni taklif etadi. Agar utilitar yondashuvda xatti-harakat natijasi ustuvor bo‘lsa, Kant etikasi niyat va axloqiy tamoyilni markazga qo‘yadi. Bu esa yoshlar tarbiyasida “foydali bo‘lsa bo‘ldi” degan qarashning oldini olishga xizmat qiladi. Demak, Kant etikasi yoshlarni nafaqat muvaffaqiyatga erishishga, balki axloqiy to‘g‘rilikni saqlashga ham o‘rgatadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Kant etikasi va zamonaviy pedagogik qarashlar sintezi yoshlar tarbiyasida axloqiy ongni chuqur, barqaror va ongli tarzda shakllantirish imkonini beradi. Bu yondashuv tarbiyani faqat normativ tizim sifatida emas, balki shaxsning ichki ma’naviy kamoloti jarayoni sifatida talqin qilishga imkon yaratadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Immanuel Kant tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy ta’limot yoshlar tarbiyasida axloqiy ongni shakllantirishning mustahkam va universal falsafiy asosini ta’minlaydi. Kant etikasi shaxsni tashqi buyruqlar yoki ijtimoiy majburiyatlar orqali emas, balki ichki axloqiy qonun asosida tarbiyalash g‘oyasiga tayanganligi bilan zamonaviy tarbiya ehtiyojlariga to‘liq mos keladi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, Kant etikasi markazida turgan kategorik imperativ, burch, axloqiy avtonomiya va erkinlik tushunchalari yoshlar ongida mas’uliyatli, ongli va barqaror axloqiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, axloqiy xatti-harakatni tashqi mukofot yoki jazodan mustaqil ravishda amalga oshirish g‘oyasi yoshlar tarbiyasida ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Natijada, tarbiya jarayoni faqat nazoratga asoslangan mexanizm bo‘lib qolmay, balki shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot Kant etikasi yoshlar tarbiyasida nafaqat nazariy-falsafiy manba, balki zamonaviy

pedagogik amaliyot uchun muhim metodologik asos bo‘la olishini isbotlaydi. Kant etikasi asosida shakllangan tarbiya modeli yoshlarni erkin, mas’uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Shu bois, Kant etikasi g‘oyalarini zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimiga tizimli ravishda integratsiya qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

8. Dewey, J. (1909). ... Moral Principles in Education. Houghton Mifflin.
9. Kant, I. (1945). Immanuel Kant: groundwork of the metaphysics of morals. American history, 1861(1900).
10. Kant I. Kritik der praktischen Vernunft (Amaliy aql tanqidi). — Riga: Hartknoch, 1788.
11. Kant, I. (2017). Kant: The metaphysics of morals. Cambridge University Press.
12. Kant, I. (2001). Basic writings of Kant. Modern Library.
13. Kant, I. (1908). The educational theory of Immanuel Kant (Vol. 4). Рипол Классик.
14. Kenjaboyev, A., & Kenjaboyeva, D. (2022). Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz,“Surxon-nashr” nashr-matbaa markazi nashriyoti.–2022.
15. Kohlberg, L. (1981). The philosophy of moral development: Moral stages and the idea of justice.
16. Peters, R. S. (2015). Ethics and education (routledge revivals). Routledge.
17. Xusanovna, M. N., Gulmira, X., Salohiddin, X., & Sardor, A. (2025). FALSAFANING HOZIRGI TEXNOLOGIK RIVOJLANGAN JAMIYATDA TUTGAN O'RNI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 3(5), 17-26.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 9(575.1)02(575.1.) (09)

XIVA XONLIGI MOLIYAVIY SIYOSATIDA DAVLAT AMALDORLARINING ISHTIROKI VA VAKOLATLARI

Matyakubova Muborak Madrimovna, UrDU "Tarix" kafedrasi dotsenti

PARTICIPATION AND POWERS OF STATE OFFICIALS IN THE FINANCIAL POLICY OF THE KHIVA KHANATE

Matyakubova Mubarak Madrimovna, UrSU, associate professor of the Department of History

УЧАСТИЕ И ПОЛНОМОЧИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ДОЛЖНОСТНЫХ ЛИЦ В ФИНАНСОВОЙ ПОЛИТИКЕ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА

Матякубова Муборак Мадримовна, доцент кафедры истории УрГУ



https://orcid.org/0009 - 0008 -2653-092X
e-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

Annotatsiya: *Moliyaviy siyosat har qanday davlatning mavjudligi va barqaror faoliyatini belgilaydi. Xiva xonligi moliyaviy siyosati davlatning iqtisodiy tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. Davlat apparatini saqlash va uzluksiz faoliyatini ta'minlash, turli ijtimoiy qatlam va xo'jalik tarmoqlari, harbiy-siyosiy vaziyatning murakkabligi moliyaviy boshqaruvni aniq va izchil yo'lga qo'yishni taqozo etgan. Moliyaviy siyosat izchil va tartibli yuritilmaganida, davlat xarajatlari bilan daromadlar o'rtasidagi nomutanosiblik kuchayib, siyosiy beqarorlik yuzaga kelishi muqarrar edi. Xiva xonligining ma'muriy apparati – moliya boshqarmasi davlat xazinasi uchun mukammal boshqarma sifatida birinchi o'rinda turgan.*

Kalit so'zlar*: moliyaviy siyosat, Xiva xonligi, iqtisodiy hayot, davlat amaldorlari, davlat xazinasi.*

Abstract: *Financial policy determines the existence and stable functioning of any state. The financial policy of the Khiva Khanate is manifested as the economic support of the state. The preservation and uninterrupted functioning of the state apparatus, the complexity of various social strata and economic sectors, and the military-political situation required a clear and consistent approach to financial management. If the financial policy was not carried out consistently and systematically, the imbalance between state expenditures and revenues would increase and political instability would inevitably occur. The administrative apparatus of the Khiva Khanate - the financial department - was in the first place as an excellent department for the state treasury.*

Keywords: *financial policy, Khiva Khanate, economic life, state officials, state treasury.*

Аннотация: *Финансовая политика определяет существование и стабильное функционирование любого государства. Финансовая политика Хивинского ханства проявляется как*

экономическая опора государства. Сохранение и бесперебойное функционирование государственного аппарата, сложность различных социальных слоев и экономических секторов, а также военно-политическая ситуация требовали четкого и последовательного подхода к финансовому управлению. Если финансовая политика не проводилась последовательно и систематически, дисбаланс между государственными расходами и доходами возрастал, и неизбежно возникала политическая нестабильность. Административный аппарат Хивинского ханства – финансовое управление – занимал первое место как превосходный орган государственной казны.

Ключевые слова: *финансовая политика, Хивинское ханство, экономическая жизнь, государственные чиновники, государственная казна.*

Kirish. Moliyaviy hisobotlar yozma shaklda yuritilgan, ayrim hollarda zarur hujjatlar arab va fors tillarida ham rasmiylashtirilgan. Xazinaga tushumlar turli manbalar orqali ta’minlanib, ular davlatning iqtisodiy asosini tashkil etgan. Har qanday davlatning iqtisodiy-ijtimoiy holatini va aholining muayyan iqtisodiy tizim sharoitidagi yashash tarzini aks ettiruvchi sohalardan biri soliq tizimi hisoblanadi. Soliq tizimini tarixiylik nuqtayi nazaridan o‘rganish orqali hukmron sulolaning iqtisodiy siyosatini aniqlash va aholining moddiy ahvolini tahlil qilish mumkin bo‘ladi[1,b.6].

Tahlillar va natijalar. Xiva xonligining moliyaviy boshqaruv tizimida markaziy va mahalliy darajadagi amaldorlar faoliyati muhim o‘rin tutgan. Xususan moliya-soliq boshqarmasiga uch kishi: mehtar, qushbegi va devonbegi boshchilik qilgan. 1645-yilda Xiva taxtiga ko‘tarilgan Abulg‘ozi ibn Arabxon davrida ham davlat ahamiyatiga molik uch vazir faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan[2,b.10]. “Xorazm xonlari” monografiyasida Abulg‘ozi davrida davlat daromadlari sarhisobi bilan shug‘allanuvchi amal egalari sifatida quyidagilar keltiriladi: “U taxtga o‘tirgach o‘zbeklardan 360 kishiga amal berib, ularning o‘ttiz ikkitasiga o‘z yonidan o‘tiradigan joy ajratdi. Vazir va qo‘shbegi ikkovi xonning huzurida oyoq ustida turadigan amaldorlar edi”[3,b.17]. M.Yo‘ldoshev ma’muriy-mansabdor kishilarning roli shu qadar ortdiki, mehtar, qushbegi, devonbegi xonga yaqin yerdan joy oldilar, lekin ular o‘tirmas edilar. Bu xon hokimiyatining obro‘yi oshganligi va bunda shu a’yonlar katta rol o‘ynaganligini yozadi[4,b.262]. 1841-yili Buxoroda zindonga tashlangan Britaniya agenturasining vakili polkovnik Stoddartni qutqarish bahonasi bilan Konolli Xiva xonligiga keladi. Konolli Xiva xonligida qushbegi va mehtar bilan tez-tez ko‘rishib turganini aytib o‘tgan. Bu suhbatlarda u Xiva hukumatini Buxoroga qarshi urush ochishga rag‘batlantirish uchun Buxoroni talash bilan Xivaning davlatmand bo‘lishini, lozim bo‘ladigan harbiy xarajatlarni Angliya hukumati o‘z bo‘yniga olajagini bildirgan[5,b.163]. Eronlik Ismoil Mirpanjiyning asirlikdagi xotiralarida: “Mamlakat ishlarini boshqarishda ularga uch vazir yordam beradi. Ularning biri mehtar, ikkinchisi qo‘shbegi va uchinchisi devonbegidir”[6,b.35], - deyiladi. A.Kun ham bu masalada muhim ma’lumotni keltirgan: “Mamlakatda bosh o‘lponchilar devonbegi, qo‘shbegi va mehtardir. Ularning har biri o‘z mahkamasiga ega, har birida uch-to‘rt kishidan iborat devon (mirza) bo‘ladi. Bu devonlardan biri boshliq hisoblanadi. Devonlar tushadigan daromad daftarlarini yurgizadilar, pullarni esa, devonbegi, qo‘shbegi va mehtarlarning o‘zlari qabul qilib oladilar”[7].

Xiva xonligi arxiv hujjatlariga tegishli soliq daftarlarining birida 784 machit mehtarning ixtiyorida, 794 machit qo‘shbegi ixtiyorida bo‘lgan deb yozilgan va soliq to‘lovchi machit nomlarining ketma-ket ro‘yxati keltirilgan. Demak, yuqorida keltirilgan tarixiy ma’lumotlar xonlikning moliyaviy boshqaruvi mehtar, qushbegi, devonbegi zimmasida bo‘lganini ko‘rsatadi.

Mehtar (fors tilidan olingan so‘z bo‘lib, ulug‘, katta degan ma‘noni bildiradi) – katta obro‘, mavqega ega amaldor sanalgan. Tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha, xonlikda mehtar xondan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan va ular xonga yaqin kishilardan va xon urug‘iga mansub a’yonlardan tayinlangan. Mehtar tomonidan yig‘ilgan solg‘ut katta moliyaviy ulushning yarmi bo‘lib, u harbiy ishlarga, chet mamlakatlarga elchi tayyorlash va yuborish, elchilarni kutib olish kabi davlat ishlariga xarj qilingan. Garchi mehtar, qushbegi va devonbegilarning obro‘si ularning shaxsiy sifatlariga bog‘liq bo‘lsa-da, biroq mehtarning ma’muriy vazifasi va huquqi kengroq

bo‘lgan[8,b.271]. Ingliz elchisi Abbotning ma’lumotiga ko‘ra, mehtarning mustaqil ravishda muzokara olib borish huquqi ham bo‘lgan[9,b.226]. Mehtar bosh vazir hisoblanib, davlat va hukumat ishlarini olib borishda xonning tayanchi edi. Xazina ishlarini nazorat qilish uning zimmasiga yukaltilgan[10,b.226]. Mehtar xon xazinasining daromad-buromadini hisobga olib borar va xonga qarashli podsholik yerlaridan don solig‘i ham to‘plashda ishtirok qilgan. Mehtar harajatlarni mustaqil ravishda yozib bormagan, u qushbegi bilan birgalikda daftar yuritgan va xazina omboriga o‘zi kiritgan pullarnigina qayd etgan. Qushbegi va mehtar to‘plagan soliqlar maxsus daftarlarga qayd etilgan[4,b.262]. Mehtarning o‘z devoni va amaldorlari bo‘lgan. Agar moliyaviy ishlarda kamomad chiqsa, mehtar javobgar hisoblangan. Arxiv hujjatlarida Xiva xoni Abdullaxon va Qutlimurodxon davrida xon xazinasida kamomad chiqqanligi sabab, begunoh Muhammad Yoqub mehtar Sayid Muhammadxon tomonidan qatl etilgani keltiriladi.

Poytaxt shahar – Xiva bevosita xon va bosh vazir hisoblangan mehtar tomonidan boshqarilgan[3,b.17]. N.Muravyev mehtarning vazifasini shunday tushuntiradi: “Xon xazinasi mehtarning ixtiyorida bo‘lib, daromad-buromadni hisobga olib boradi, ajnabiy elchilarni qabul qilish va ularni boqish ham uning ixtiyorida. Xon Xivadan safar qilgan mahalida xonlikni boshqarishni unga topshirib ketadi” [12,b.60]. Ogahiyning “Riyoz ud-davla” asarida ismi sharifi “Abul Muzaffar va al-Mansur Abul G‘oziy Olloquli Muhammad Bahodirxon” deb yuritilgan Olloqulixon biror muhim qaror chiqarishdan oldin, doim kengash chaqirgan[13]. Kengashga dastlab mehtar chaqirilgani, qo‘shbegi, naqib, shayxulislom, devonbegi kabi nufuzli kishilar qatnashgani bayon etiladi. Bu tor doiradagi yashirin kengashda davlat siyosatiga molik muhim masala ko‘rib chiqilgan[14]. Olloqulixon davrida Muhammad Yusuf (1803-1839) va Muhammad Yoqub (1839-1856) lar uzoq yillar, ya’ni Avazbiy inoq, Eltuzar, Muhammad Rahimxon va Olloqulixon davrida mehtar lavozimida faoliyat olib borishgan. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘z zamondoshi Muhammad Yusuf mehtarga juda chiroyli ta’rif bergan: “Muhammad Yusuf mehtar davlat arkonining ustuni, vaziri a’zam (bosh vazir), nizom ul-mulk vad-dunyo (davlatni tartibga keltiruvchi), azmi dasturi mukarram, osif nishon, muallo makon (yuksak makon egasi), sadoqat gistar, xizmatparvar (mehnatkash), hidoyat asar (ibratli), vizorat panoh (davlat arboblarining tayanchi), saodat dastgoh (baxt keltiruvchi), dastur soyib mutadvir, vaziri hukumat maob, donish itisob, sadoqat asar, vaziri ravshan zamir, vaziri Aflotun nazir, naziri benazir, soyib tadbir edi”.

Muhammad Rahimxon I tomonidan tashkil qilingan Kengashning birinchi a’zosi xonning eng ishonchli kishisi, birinchi vazir Yusuf mehtar og‘a bo‘lib, sart toifasidan, chamasi 50 yoshlarda, qattiqqo‘l, hech kimga ishonmaydigan kishi. Xon xazinasi ham uning ixtiyorida. Ikkinchi a’zo aqlli, jasur, ko‘ngilchan va iltifotli Muhammadiyor qushbegi. Uchinchisi xonning sevimli akasi Qutlug‘murod inoqdir. Kengashga qozi, o‘zbek urug‘ining yo‘lboshchilari ham qatnashadi. Kengash juma kuni xon ko‘rinish xonasida o‘tkaziladi[12,b.61]. Muhammad Yoqub mehtar Muhammad Yusuf mehtarning o‘g‘li bo‘lib, 1839-yil mehtarlik lavozimiga tayinlangan. Shu lavozimda 1856-1866-yillarda Muhammad Rahimboy Muhammad Nazar o‘g‘li, 1866-1868-yillarda Bobmingboshi mehtar faoliyat yuritgan. Ular ko‘pgina obodonlashtirish va qurilish ishlariga boshchilik qilgan.

Qo‘shbegi (mo‘g‘ul-turk tilidan olingan) – bu unvonni ko‘pchilik qushbegi (ovchilar boshlig‘i) bilan adashtiradilar. Aslida qo‘shbegi katta lavozim va maqomga ega bo‘lgan. Qo‘shbegi ikkinchi vazir hisoblangan. Qo‘shbegi Xivacha “qo‘sh saf”, “qo‘shin” degani, ya’ni qo‘shbegi harbiy ko‘mondon ma’nosida ham keladi, ammo bu ish bilan yasovulboshi shug‘ullangan. Qo‘shbegi aslida Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan bo‘lib, moliya va soliq ishlarini bajargan. Qo‘shbegining ham o‘z devoni va amaldorlari bo‘lgan. Qushbegi moliya mablag‘ining ikkinchi yarmiga hokimlik qilardi. U ichki va tashqi ishlar, rasmiy marosimlar, sovg‘a-salom va in’omlarni o‘z zimmasiga olardi[11,b.17]. Qiyot va qo‘ng‘irot urug‘i vakillari qo‘shbegi vazifasiga tayinlangan. Qo‘shbegi tomonidan yig‘ilgan soliqlar alohida daftarga qayd qilingan[10,b.232].

N.Zalesov qo‘shbegi vakolatlariga to‘xtalib, u xonlikning shimoliy qismiga mutasaddi edi, - deb yozadi[15,b.261]. Qushbegi ham huddi

mehtar kabi yurt ravnaqi yo‘lida qator bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga sababchi bo‘lgan[13]. Quyida qo‘ng‘irotlar davrida qo‘shbegi lavozimida ish yuritgan amal egalarining ba’zilarining faoliyati o‘rganildi. Pahlavon qo‘shbegi Hasan o‘g‘li 1806-1807-yil (Buxoro bilan bo‘lgan urushda asir tushgan), Otamurod qo‘shbegi, Muhammad Rizo qo‘shbegining o‘g‘li 1837-1847-yillar, Abdullabek qo‘shbegi Otamurod qo‘shbegining ukasi 1847-1853-yillar, Muhammad Karim qo‘shbegi 1853-1855-yillar, Bobobek qo‘shbegi 1855-1857-yillar, Muhammad Yusuf qo‘shbegi, Hasanmurod qo‘shbegining o‘g‘li 1867-1868-yillar, Xudoyorbek Muhammad Nazarbek qo‘shbegi 1868-1872-yillar faoliyat olib borgan[16,b.66].

Xon atrofidagi uchinchi amaldor devonbegi xuddi mehtar va qushbegi singari soliq va ma’muriy islohotlarni olib boruvchi edi. Devonbegi (arabcha so‘z) lavozimi 1807-yili joriy etildi. “Muhammad Rahimxon o‘z amakivachchasi Muhammad Murodbekka bosh devonbegilik mansabini, ya’ni daromad-buromadlarni boshqarish vazifasini topshirdi. Shu yo‘sinda ular hamjihat bo‘lib, katta ish olib bordilar, bu ish shu sohada yaxshi natija berdi va yangilik bo‘ldi” - deb yozadi Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy”da[17]. N.Muravyevning yozishicha, “Shu vaqtgacha saroydagi bosh amaldorlar huzurida devon va devonbegilar bo‘lgan[12,b.63]. Har bir devon singari daromad va buromad ishlarini boshqaruvchi bosh devonbegi (devon boshlig‘i) endi vazirlik vazifasini bajaradi. Zakot va bozorlardan tushgan soliqlarni devonbegi xon saroyi ehtiyoji va harbiy harajatlar uchun sarflar edi”. Ismoil Mirpanjiy devonbegi atrofdagi elatlardan, savdogarlardan bojxona va zakot pullarini qabul qilish bilan ham shug‘ullanardi[18,b.35], - deb yozadi. Xonlikda devonbegi vazifasi ancha nufuzli mansab edi. Devonbegi ayni paytda zarbxona boshlig‘i ham bo‘lgan[2,b.226]. Xon saroyidagi devonxonada to‘rtta devon (mirzo) ishlagan, ularning biri devonbegi bo‘lib, mamlakat daromad-buromadlarini boshqarib, xon saroyi ehtiyoji, harbiy harajatlar uchun sarflagan. U yer-suvni boshqarar, bog‘lardan kelgan daromadni hisoblar, qazuvni tashkil etardi. Har bir shaharda devonbegilarning o‘rinbosarlari bo‘lib, ular boj-xirojni to‘plashga majbur edilar. Devonxonaning asosiy ishi barcha qilingan ishlarni daftarga qayd qilish bo‘lgan”[11,b.18]. Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Yormuhammad devonbegi 1810-yil, Bobojonbek devonbegi 1845-1846-yillar, Bekniyoz devonbegi 1848-1849-yillar, Abdulla Ja’far devonbegi 1854-1855-yillar, Muhammad Murod devonbegi 1855-1857-yillar, Xudoynazar mahram devonbegi 1865-1866-yillar devonbegi lavozimida faoliyat olib borgan[2,b.77].

Xulosa. Xiva xonligi moliya tizimidagi mansabdorlar nafaqat davlat xazinasining daromad va xarajat qismini nazorat qilgan, balki pul muomalasini ham tartibga solib turishgan. Xazina tushumlarining asosiy qismi soliqlar shaklida natural va pul ko‘rinishida yig‘ilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abduxalilova A. Xiva xonligida soliq tizimi tarixi va tarixshunosligi. Toshkent, 2025. -B. 6.
Abdukhalilova A. History and historiography of the tax system in the Khiva Khanate. Tashkent, 2025. -P. 6.
2.Кононов А.Н. Родословная туркмен. – М. -Л. Изд. АН СССР, 1958.- С.10.
Kononov A.N. Rodoslovnaya Turkmen. - M. -L. Izd. AN USSR, 1958.- P.10.
3.Худойберганов К. Хоразм хонлари. Тошкент: Академнашр, 2019.-Б.17.
Khudoiberganov K. Khans of Khorezm. Tashkent: Akademnashr, 2019.-P.17.
4.Йўлдошев М. Хива хонлигида ер эгалиги ва давлат тузилиши. Тошкент, 1959. -Б. 262.
Yuldashev M. Land ownership and state structure in the Khiva Khanate. Tashkent, 1959. -P. 262.
5.Муҳаммаджонов А.Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Тошкент: Фанлар Академияси нашриёти, 1967. -Б.163.
Mukhammadjonov A.R., Nematov T. Some sources on the history of relations between Bukhara and Khiva with Russia. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences, 1967. -P.163.
6.Исмоил Мирпанжий. Асирликдаги хотиралар. – Урганч, 1997. -Б.35.
Ismail Mirpanjii. Memories of Captivity. – Urganch, 1997. -B.35.
7.Кун А.Л. Порядок взимания податей в Хивинском ханстве. Заметки о податях в

Хивинском ханстве, // Туркестанские ведомости, 1873. № 32 – сони.
Кун А.Л. Pryadok vzimaniya podatey v Khivinsky Khanstve. Zametki o podatyakh v Khivinskom khanstve, // Turkestanskie vedomosti, 1873. No. 32 - issue.
8.Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г., 1865. – С. 65 -261.
Zalesov N. Embassy in Khiva captain Nikiforova v 1841, 1865. - S. 65 -261.
9.Аббот. Асарлар. 1-том. -Б.81.
Abbot. Works. Roof 1. -B.81.
10.Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. Тошкент: Extremum press, 2011. - Б. 226.
Davlatyar Rahim, Shikhnazar Matrasul. Feruz. Tashkent: Extremum press, 2011. - B. 226.
11. Худойберганов К. Хоразм хонлари. Тошкент: Академнашр, 2019.-Б.17.
Khudoiberganov K. Khans of Khorezm. Tashkent: Akademnashr, 2019.-P.17.
12.Муравьёв Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева. – Москва, 1822. – Ч. I-II. – С. 60.
Muravyov N. Puteshestvie v Turkmeniyu i Khivu v 1819 i 1820 gg. guard general headquarters captain Nikolay Muraveva. - Moscow, 1822. - Ch. I-II. - S. 60.
13.Огаҳий. Риёз уд-давла. ЎзР ФА ШИ. // Қўлёзма. № 5364 /II 259^{б} варақ.
Ogahi. Riyaz ud-dawla. UzR FA ShI. // Manuscript. No. 5364 /II sheet 259b.
14.Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида (“Риёз уд давла” асари асосида). Тошкент, 2005. -Б.25.
Mutalov O. Khanate of Khiva during the time of Olloquli Khan (based on the work “Riyaz ud Davla”). Tashkent, 2005. -B.25.
15.Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г., 1865. – С. 65 -261.
Zalesov N. Embassy in Khiva captain Nikiforova v 1841, 1865. - S. 65 -261.
16.Воҳидов Ш., Р.Холиқова. Марказий Осиёдаги давлат бошқарув тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. -Б.66.
Vohidov Sh., R.Kholikova. From the history of state governance in Central Asia. Tashkent: Yangi asr avlod, 2006. -P.66.
17.Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. // Qo‘lyozma.O‘zFA SHI.– № 9596. 142 - varaq.
Bayani. The Khorezmshahi Dynasty. // Manuscript. UzFA SHI.– No. 9596. 142 - sheet.
18.Исмоил Мирпанжий. Асирликдаги хотиралар. – Урганч, 1997. -Б.35.
Ismail Mirpanjii. Memories of Captivity. – Urganch, 1997. -B.35.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.02

O‘QUV-BILUV TOPSHIRIQLARINI TUZISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Xudayorova Muhayyo Omonboy qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

DIDACTIC POSSIBILITIES OF CREATING LEARNING ASSIGNMENTS

Xudayorova Muhayyo Omonboy qizi, 2nd-year basic doctoral student at Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОСТАВЛЕНИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ЗАДАНИЙ

Худаёрова Мухайё Аманбай кызы, базовый докторант 2-курса Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни



https://orcid.org/0009-0009-9959-8236
e-mail: xudayorovamuhayyo543@gmail.com

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada o‘quv-biluv topshiriqlarini tuzishning didaktik imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etiladi. O‘quv-biluv topshiriqlarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ularning o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, topshiriqlarni tuzishda didaktik tamoyillar, ta’lim maqsadlariga muvofiqlik, yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada o‘quv-biluv topshiriqlarining turlari, ularning metodik imkoniyatlari hamda boshlang‘ich sinf ta’limida samarali qo‘llash yo‘llari asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘quv-biluv topshiriqlari, didaktik imkoniyatlar, ta’lim jarayoni, bilish faolligi, mustaqil fikrlash, metodik yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, o‘quv faoliyati.*

***Annotation:** This article analyzes the didactic possibilities of developing educational tasks from a scientific and pedagogical perspective. The role of educational tasks in the educational process, their importance in increasing students’ cognitive activity, and in forming independent and creative thinking skills are highlighted. Also, special attention is paid to the issues of didactic principles, compliance with educational goals, and taking into account age and psychological characteristics when developing tasks. The article substantiates the types of educational tasks, their methodological capabilities, and ways of effective application in primary school education.*

***Keywords:** educational tasks, didactic capabilities, educational process, cognitive activity, independent thinking, methodological approach, primary education, educational activity.*

***Аннотация:** В данной статье анализируются дидактические возможности разработки учебных заданий с научно-педагогической точки зрения. Подчеркивается роль учебных заданий в образовательном процессе, их важность в повышении познавательной активности учащихся и в формировании навыков самостоятельного и творческого мышления. Также особое внимание уделяется вопросам дидактических принципов, соответствия образовательным целям и учета возрастных и психологических особенностей при разработке заданий. В статье обосновываются*

виды учебных заданий, их методические возможности и способы эффективного применения в начальной школе.

Ключевые слова: *учебные задания, дидактические возможности, образовательный процесс, познавательная активность, самостоятельное мышление, методический подход, начальное образование, учебная деятельность.*

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida ularning bilish faoliyatini faollashtirish muhim didaktik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quv-biluv topshiriqlari ta’lim mazmunini o‘zlashtirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash hamda o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quv-biluv topshiriqlarining didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlari uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ta’limning interfaol va innovatsion metodlarini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘qituvchidan o‘quv-biluv topshiriqlarini nafaqat mazmunan to‘g‘ri, balki didaktik tamoyillarga muvofiq holda tuzishni talab etadi. O‘quv-biluv topshiriqlari o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim darajasi hamda ta’lim maqsadlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgandagina kutilgan natijani beradi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘quv-biluv topshiriqlarini tuzishning didaktik imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Bugungi kun o‘quvchilarida yosh va individual xususiyatlar va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish asosiy ta’limiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki o‘quvchilar duch keladigan aksariyat qiyinchiliklar o‘quv materiallari doirasida namoyon bo‘ladi. O‘quv vaziyatida o‘quvchilar birinchi navbatda asosiy nuqtayi nazar sifatida o‘rganilgan hodisalarni tasvirlash ko‘nikmalarini tarkib toptirishi lozim. O‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, bilim olishga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. O‘zbekistonda til ta’limida o‘quv topshiriqlarining turlari va vazifalarini aniqlash masalasi I.Allayorov, O.Rozikov, R.Ibragimov, B.Adizov, M.H.Mahmudov I.E.Davronovlar tomonidan ta’lim oluvchining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o‘quv topshiriqlari orqali o‘quvchi faolligi oshirish muammolari ham o‘rganilgan.

Metodist M.Saidov ona tili darslarida o‘quv topshiriqlarini uch turga bo‘lib, ularni o‘zaro farqlaydi va ko‘pincha, o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatlari davomida “mashq”, “topshiriq” va “masala” tushunchalarini bir-biriga qorishtirib yuborish holatlari ko‘p uchrashini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda G‘.Hamroyevning “mashq”, “topshiriq” va “savol” atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o‘rni hamda ahamiyati haqidagi mulohazalariga e’tibor berish lozim. Metodist-olim dastlab, M.Saidovning o‘quv materiallari sirasida o‘quv topshiriqlarini uch turga bo‘lib, ularni o‘zaro farqlaydi va ko‘pincha, o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatlari davomida mustaqil “mashq”, “topshiriq” va “masala” tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini, pedagogika fanlari doktori Asqar G‘ulomovning “mashq ham o‘quv topshirig‘ining bir shakli, ham o‘qitishning muayyan bir usuli,” degan fikriga qo‘shilishi va topshiriq mashqning bir bo‘lagi, u asosan, mashqning shartida o‘z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e’tirof etgan holda bu borada o‘z yondashuvini bayon qiladi, ya’ni o‘ziga qadar mustaqil ta’lim o‘quv topshiriqlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tahlillarda kelingan ilmiy xulosalardan farqli o‘laroq, mustaqil ta’lim topshirig‘i mashq tarkibiga emas, aksincha, mashqlar topshiriq tarkibiga kiritilishi, vazifa jihatidan savol va mashqqa qaraganda kattaroq, kengroq tushuncha ekanligini asoslaydi.

A.N.Leontiev topshiriq tushunchasini quyidagicha tushunadi: “Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib qo‘yilgan maqsaddir”. U topshiriqning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflash uchun “ehtiyoj”, “motiv” va “faoliyat”

atamalaridan foydalanadi. Y.A.Ponamaryov topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o‘quv vaziyatida subyekt va obyektning o‘zaro ta’sirini, bilimlarni o‘zlashtirish, ularni takomillashtirish bo‘yicha subyektning faoliyatini aniqlaydi. O.Roziqov esa o‘quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o‘quv materiali bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, “o‘quv topshirig‘i o‘quv maqsadlariga bog‘liq bo‘lgan o‘quv materialining o‘zgartirilgan shaklidir” [Розиков, 1986:50].

TAHLILLAR VA NATIJALAR. O‘quv topshirig‘i ko‘p funksiyali metodik hodisa bo‘lib, uning mohiyati ona tilini o‘zlashtirishdagi vazifalari o‘quv materiali bilan yonma-yon o‘rganilishi zarur. Misol tariqasida “Darak gap” mavzusini olaylik. O‘quv materiali tarkiban quyidagi bilimlardan iborat: bilim-xabar anglatish, darak gapning oxirida ovozning pasayishi, gapning oxiriga nuqta(.) qo‘yish; malaka-darak gapning boshqa gap turlari, masalan, so‘roq gaplardan farqlash, darak gapni o‘ziga oid ohang bilan ijro etish-o‘qish, gapning yakunlanganligini nuqta qo‘yish bilan ko‘rsatish; ijodiy faoliyat tajribasi – darak gapni matndagi gaplar orasidan ajratib olish, aytilgan mavzuda matn tuzib, unda darak gaplarni ham ishlatish, berilgan tayanch so‘zlarni qatnashtirib, darak gaplardan iborat nutq tuzish; munosabat – tuzilgan darak gap va matnga o‘z munosabatini bildirish. Darak gap mavzusida o‘quv topshiriqlari tuzilganda, o‘quv materiali shakli o‘zgartirilib, bolalar bajara oladigan topshiriq shakliga olib kelinadi: “Bahor” mavzusida darak gaplarni qatnashtirib matn tuzing: sabr-toqat, chidam, intizom, qunt bilan o‘qish, maqsad, maqsadga intilish so‘zlarini qatnashtirib, “A’lochi o‘quvchi” mavzusida hikoya tuzing; matndan faqat darak gaplarni ajratib oling va ularning o‘qilishini tushuntiring; o‘rtog‘ingiz yozgan hikoyani tahlil qilib, uning darak gap tuzishga oid malakasini baholang; o‘zingiz va o‘rtog‘ingiz tuzgan insholarni taqqoslab, har birining yutuqlarini aytib berishga tayyorlaning va sh.k. Har gal o‘quv topshirig‘i tuzilganda, o‘qituvchi ta’lim ehtiyojlarini hisobga olib, o‘quv materialini turli-tuman shakllarga keltiradi. Shu yo‘l bilan ona tili ta’limi mazmuni bolalarning bilish imkoniyatlariga moslashtiriladi.

Ona tilidan o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida qator talablarga rioya qilinadi: topshiriqlarni bajarish uchun yaroqli bilimni o‘quvchi o‘z shaxsiy faoliyatidan izlaydi. O‘z faoliyatidan topshiriqni bajarishga asqotadigan bilimni izlash bolalarda tanlay olish layoqatini o‘stiradi; o‘rganilgan bilim va faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq qilish. Bilimni, faoliyat usulini tanish sharoitiga tatbiq qilish yo‘li bilan mashq qilinadi; o‘rganilgan bilim va faoliyat usulini yangi-notanish o‘quv holatiga tatbiq qilish. Shunday yo‘l bilan o‘quvchi bilimlarini ijodiy tatbiq qilish usullari, sharhlarini egallaydi; o‘quv topshirig‘i vositasida ona tilidan o‘rganilayotgan obyekt (so‘z yoki gap, nutq tovushi yoki bo‘g‘in)ning yangi belgilarini ajratish. Bunday o‘quv topshirig‘i vositasida ona tiliga oid mavzular ijodiy yo‘l bilan o‘rganiladi.

Bilishga oid o‘quv topshiriqlari –yangi bilim va faoliyat usullarini mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan o‘quv vazifalaridir. B.D.Adizovning yozishicha, biluv topshiriqlarini ikki jihatdan: 1)ta’lim mazmuni tarkibi; 2)bola faoliyatida bajaradigan ishi bo‘yicha tasnif etish mumkin.

Ta’lim mazmunini o‘rganish jarayonida bajaradigan ishiga ko‘ra biluv topshiriqlarining to‘rt turini farqlaymiz.

1. Yangi bilimlarni qayd etishga oid bilu v topshiriqlari. Bu tipdagi topshiriqlarni bajara t urib, bolalar o‘rganilayotgan hodisaning yangi nu qtayi nazarini mustaqil belgilab, undan yangi xul osa chiqarishadi. Masalan,2-sinf o‘quvchilariga quyidagicha topshiriq berish mumkin: Gaplarni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nolarini yozing.

1.Odam tanasining uchdan ikki qismi **suvdan** iborat.

2.**Quyosh—**sayyoramizning hayot manbai.

3.**Neft** yer ostidan qazib olinadi.

4.Yashil o‘simliklar bo‘lmasa, Yerda toza **havo** ham bo‘lmasdi.

2. Ko‘nikma va malakalarni yanada tak omillashtirishga oid biluv topshiriqlari. Ular vositasida
hosil qilingan malakalar yanada takomillashtiril adi, mavzuga oid yangi dalillar to‘planadi. Tasavvur qiling: bolalar atoqli otlarni o‘rgangan bo‘lsa-da, qishloq nomlarining yozilishini hali o‘rganishmagan. Shunday holatda bolalar diqqatini matnga tortsak. Matnda qishloq nomlari ham bor.

Topshiriq: matnni o‘qib, qishloq nomini bildirgan so‘zlarni yozing. O‘zingiz yozgan so‘zlardan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Xumson qishlog‘i

Xumson qishlog‘i Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanining tog‘li hududida joylashgan. Qishloq yaqinidan Ugom daryosi oqib o‘tadi. Chirchiq daryosining boshlanish joyida Chorvoq suv ombori qurilgan. Suv ombori, ayniqsa, yoz oylari odamlar bilan juda gavjum bo‘ladi. Ushbu tumanda yana Nanay, Sijjak va boshqa go‘zal qishloqlar ham joylashgan.

3. Ijodiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirishga oid biluv topshirig‘i. Bu xildagi topshiriq vositasida bolalar yangicha faoliyat tajribasini egallab olishadi.

4.Tilga munosabatni shakllantirishga oid biluv topshiriqlari. Bolalar o‘zlari, o‘rtoqlari tuzgan matnlarni tanqidiy baholab tekshiradi. Bunday topshiriqlar bolalarda tilga munosabatni tarbiyalaydi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinfda o‘quv-biluv topshiriqlarini ilmiy-didaktik asosda tuzish ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim metodik omil hisoblanadi. Mazkur topshiriqlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, bilimlarni ongli va tizimli o‘zlashtirish hamda intellektual rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quv-biluv topshiriqlarining izchil, bosqichma-bosqich va differensial yondashuv asosida tashkil etilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Shuningdek, o‘quv-biluv topshiriqlari orqali o‘quvchilarda mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiv fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni integratsiyalashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ta’lim mazmunining yaxlitligini ta’minlab, fanlararo aloqadorlikni kuchaytiradi. Natijada boshlang‘ich ta’limda o‘quv-biluv topshiriqlarini maqsadga muvofiq va ilmiy asosda qo‘llash o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini oshirish bilan bir qatorda, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Axmedova M.E. Oliy filologik ta’limda o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. Ilmiy jurnal. - Urganch, 2022. - №2 (86). – B. 470-472. 2016.29.12/4.

2.**A**bdullayeva Q., Azizova T. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

3. G‘ulomova X., To‘ychiyeva M**.** Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etish. – Samarqand: SamDU nashriyoti**,** 2020**.**

4. Podlasiy I.P. Pedagogika. – Moskva: Vlados, 2006**.**

5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022**.**

6. Леонтьев А. Проблемы развития психики.– М.: Педагогика, 1972. –576 с.

7. Розиков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. – 50.

8.Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nomzodi diss. avtoref.TDPU. –Toshkent. 2000. – 25 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

ҚАРШИ ВОҲАСИ ЎРТА АСРЛАР СУҒОРИЛИШ ДИНАМИКАСИ

Суюнов Самаритдин Саматович, Самарқанд археология институти, катта илмий ходим

DYNAMICS OF MEDIEVAL IRRIGATION OF THE KARSHIN OASES

Suyunov Samaritdin Samatovich, Samarkand Archaeological Institute, Senior Researcher

ДИНАМИКА СРЕДНЕВЕКОВОГО ОРОШЕНИЯ КАРШИНСКИХ ОАЗИСОВ

Суюнов Самаритдин Саматович, Самаркандский археологический институт, старший научный сотрудник



https://orcid.org/0009-0001-3695-088X
e-mail: suyunosamar.1963@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада Жанубий Суғднинг ғарбий қисмида жойлашган Қарши воҳасида олиб борилган қидирув тадқиқотлари натижасида аниқланган археологик ёдгорликлар билан узвий боғлиқ бўлган сув иншоотлари, сунъий суғориш тармоқлари ва воҳа суғорилиш динамикасининг муҳим жиҳатлари таҳлил қилинган.*

Қарши воҳасида олиб борилган сўнгги қидирув ишлари натижасида аниқланган ёдгорликлар сони 220та бўлиб, ушбу аниқланган ёдгорликлардан 160таси сув иншоотлари ва сунъий суғориш тармоқларига яқин жойлашганлиги аниқланган. Бу эса воҳада аниқланган археологик ёдгорликларни нечоғлик сув манбалари билан боғлиқ ҳолда ривожланганлигини кўрсатган. Воҳада сақланиб қолган ёдгорликларнинг 20 фоизи ўрта асрлар даврига тўғри келган, қолганлари эса асосан антик ва илк ўрта асрлар даврига оид эканлиги кузатилган.

Ўрта асрлар даври ёдгорликларининг бошқа давр ёдгорликларига нисбатан кам сақланганлиги эса воҳада сув муаммолари билан боғлиқ бўлганлигини кўрсатади. Чунки ўрта аср манбаларида Қашқадарё дарёсининг сувлари ёз ойларининг ўрталарига келиб Қарши воҳасига етиб бормай қуриб қолганлиги айтилган. Бу каби суғориш ишлари билан боғлиқ бўлган муаммолар, воҳа суғорилиш динамикасининг даврма-давр ўзгариб туришига сабаб бўлган. Ўрта асрлар ёдгорликларининг суғориш ишлари билан боғлиқ бўлган жараён, воҳа суғорилиш динамикаси бўйича қилинган жадвал ва график ўзгаришларда ҳам яққол кўриш мумкин.

Калит сўзлар: *Қарши, Насаф, Ерқўрғон, Замм, Балх, Парғуза, Пирон, ўғиз, қимоқ, қипчоқ, қарлуқ, Асруд, Яккасардоба, қудуқ, Обронтепа, сув иншооти, Аммади Калон.*

Abstract: *This article analyzes important aspects of oasis irrigation dynamics, artificial irrigation networks, and water structures inextricably linked with archaeological sites identified as a result of exploratory research conducted in the Karshi oasis, located in the western part of Southern Sogd.*

As a result of recent exploratory work carried out in the Karshi oasis, the number of identified sites reached 220, of which 160 were found to be located near water structures and artificial irrigation networks. This demonstrated the extent to which the development of the identified archaeological sites in the oasis was connected to water sources. It was observed that 20 percent of the sites preserved in the oasis belong to the medieval period, while the rest mainly date back to the Antique and early medieval periods.

The fact that medieval sites are less preserved compared to sites of other periods indicates that this was related to water problems in the oasis. This is because medieval sources state that the waters of the Kashkadarya River dried up by the middle of the summer months before reaching the Karshi oasis. Such problems related to irrigation work caused the irrigation dynamics of the oasis to change from period to period. The process related to the irrigation work of medieval sites can also be clearly seen in the tables and graphic changes regarding the irrigation dynamics of the oasis.

Keywords: *Karshi, Nasaf, Yerqo‘rg‘on, Zamm, Balkh, Parg‘uza, Piron, Oghuz, Kimak, Kipchak, Karluk, Asrud, Yakkasardoba, well, Obrontepa, water structure, Amtadi Kalon.*

Аннотация: *В данной статье анализируются важные аспекты динамики орошения оазиса, искусственных оросительных сетей и водных сооружений, неразрывно связанных с археологическими памятниками, выявленными в результате разведочных исследований, проведенных в Каршинском оазисе, расположенном в западной части Южного Согда.*

В результате последних разведочных работ, проведенных в Каршинском оазисе, количество выявленных памятников составило 220, из которых 160 расположены вблизи водных сооружений и искусственных оросительных сетей. Это показало, насколько развитие выявленных археологических памятников в оазисе было связано с источниками воды. Было отмечено, что 20 процентов сохранившихся в оазисе памятников относятся к периоду средневековья, а остальные — в основном к античному и раннесредневековому периодам.

Тот факт, что памятники средневекового периода сохранились меньше по сравнению с памятниками других периодов, указывает на связь с водными проблемами в оазисе. В средневековых источниках упоминается, что воды реки Кашкадарья к середине летних месяцев высыхали, не доходя до Каршинского оазиса. Подобные проблемы, связанные с ирригационными работами, стали причиной периодического изменения динамики орошения оазиса. Процесс, связанный с ирригационными работами средневековых памятников, также отчетливо виден в таблицах и графических изменениях динамики орошения оазиса.

Ключевые слова: *Карши, Насаф, Еркурган, Замм, Балх, Паргуза, Пирон, огузы, кимаки, кипчаки, карлуки, Асруд, Яккасардоба, колодец, Обронтепа, водное сооружение, Амтади Калон.*

КИРИШ. Жаҳон тарихшунослигида шаҳарларнинг пайдо бўлиш цивилизацияси албатта сув билан, дарё сувлари билан, дарё сувларини бўйсундириш (сув омбори, суғориш иншоотлари), уларни бир ягона тизимга солиш, ундан ўз ҳаёти, кундалик турмуш тарзи ва умр кечиришида фойдаланиш билан боғлиқ жараённи ўз ичига олади.

Бизга тарихдан маълумки, IX асрдан бошлаб, бутун Ўрта Осиё бўйлаб қишлоқ маконларига нисбатан, шаҳарларнинг кўпайиши кузатилади. Бунда ҳолатнинг турлича сабаблари сифатида туркий қабилаларнинг ўтроқлашуви айтилади. Масалан, жанубий Қозоғистонда шаҳарлар сонининг кўпайиши ҳудудда кўчманчи туркий элатлар – ўғизлар, қимоқлар, қипчоқлар, қарлуқлар ва бошқа кўплаб қабилаларнинг ўтроқлашуви жараёни билан ҳам боғланади дейилган[1.34].

Қарши воҳасида эса шаҳарларнинг кўпайиши ва ҳудудининг кенгайиши кўчманчи қабилаларнинг ўтроқлашуви жараёни билан боғлиқ эмаслиги айтилади. Бунинг сабаби Сомонийлар ва Қорахонийлар ҳукмронлиги даврида Ўрта Осиёнинг бошқа ўлкаларида бўлгани каби Жанубий Суғдда ҳам бир неча юз йил ҳукм сурган тинчлик ва осойишталик, савдо-сотиқ, ҳунармандчилик ҳамда суғорма деҳқончилик хўжалигининг ривожланиши билан боғлиқ бўлганлигини кўрсатади.

Жанубий Суғднинг бир бўлаги бўлган Қарши воҳасида кўп йиллар давомида қидирув ва қазув тадқиқотлари олиб борилган бўлса-да, ўрта асрлар ёдгорликлари билан ўзаро боғлиқ бўлган сув иншоотлари, сунъий суғориш тармоқлари ва воҳа суғорилиш динамикаси билан боғлиқ бўлган жиҳатлари очиб берилмаган. Балким воҳада ўрта асрлар шаҳарлар сонининг кўпайиши ва катталашишида илм-фаннинг ривожланиши таъсирида бунёд этилган сув иншоотлари (сув омборлари, сув айирғич иншоотлар, чархпалак, чиғир), сунъий суғориш тармоқлари (канал, ариқ, суғий тармоқ)нинг ўрни юқори бўлгандир. Бу албатта муаммоли бўлиб, воҳада қидирув тадқиқотлари олиб бориш зарурлигини кўрсатади.

Юқоридаги мавжуд муаммоларга ойдинлик киритиш мақсадида Қашқадарё ва Зарафшон воҳаларининг ўзаро ривожланиш босқичлари бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган жараён, яъни суғорма деҳқончилик маданиятига доир тадқиқотларни ўтказиш режа қилинди. Ушбу амалга ошириладиган дала қидирув тадқиқотларининг асосий йўналишлари белгилаб олинди. Шу асосида олиб борилган изланишларга кўра Қарши воҳасида аниқланган археологик ёдгорликларнинг сув иншоотлари ва сунъий суғориш тармоқларига яқин жойлашганларини ўрганиш ҳамда воҳа суғорилиш динамикаси тарихини ёритиш орқали кўплаб илмий асосга эга бўлган маълумотларни қўлга киритиш мумкин.

TAMADDUN NURI

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД. Жанубий Суғдда дастлабки ўтказилган археологик қазув ва қидирув тадқиқотларида, ҳар бир ҳудуд бўйлаб, ўрганилган археологик ёдгорликларнинг умумий сони аниқланган бўлса-да, уларнинг сув иншоотлари, сунъий суғориш тармоқлари, воҳа суғорилиш динамикаси билан боғлиқ бўлган муаммолар деярли ёритилмаган ва ҳозиргача муаммо бўлиб келган.

Аслида биз ўрганган ўрта аср ёзма манбалари ва илмий адабиётларда, масалан, “Ҳудуд ал-олам” асарида Асруд (Қашқадарё) дарёсининг суви асрлар давомида қадимги шаҳар ва унинг атрофидаги ерларни суғоришга етиб бормай қуриб қолганлиги тўғрисида айтилган. Шу билан бирга воҳа ер майдонларини суғоришда қудуқлар қаздирилганлиги ва улардан фойдаланганликлари тўғрисида маълумотлар ҳам берилган [2.64].

Қарши воҳаси Насафдаги шаҳар ҳаётида дарёнинг ўрни қандай бўлса, у баъзан қуриб қолган вақтларда қудуқларнинг ҳам ўрни шундай бўлган ва бу ҳақида ёзма манбаларда ҳам маълумотлар мавжуд. Бундай қудуқлар Насафнинг шаҳристон ва рабод қисмида ўндан ортиқ жойида топилган бўлиб, қудуқлар аввал археолог Б.Д.Кочнев томонидан, сўнгра эса А.А.Анарбоев томонидан ўрганилган[3. 87-88].

Бошқа манбада Насаф (Қарши) ва унинг атрофидаги ер майдонларини суғориш ишлари Қашқадарё сувига тўлалигича боғлиқ бўлмаганлиги айтилган. Воҳада ёз ойларининг суғориш мавсумида сув етишмаслик билан боғлиқ муаммолари асосан антик ва илк ўрта асрларга нисбатан ўрта асрларда кўпроқ кузатилганлиги айтилган [4.38].

Археолог Б.Д.Кочневнинг олиб борган тадқиқотларига кўра, Офурун қишлоғининг харобалари бизнинг кунларгача Обронтепа, Шаҳри Ҳайбар номлари билан юритилган йирик археологик ёдгорлик кўринишида етиб келган. Шаҳарнинг ўзига хос хусусиятларидан бири шуки, бу ҳудудда ҳам суғоришда қўлланиб келинган кўплаб қадимий қудуқлар тўғрисида маълумотлар берилган. Масалан, Қашқадарёнинг суви ёз ойларининг ўрталарига келиб қуриб қолган бўлса-да, Насаф шаҳар аҳолиси қудуқлар сувидан кенг фойдаланганлиги айтилган. Қарши воҳасидаги археологик ёдгорликларининг сув манбаларига яқин жойлашганлигини ўрганиш ва шу асосида воҳа суғорилиш динамикасини ёритиш тўғрисида бирор бир маълумот очиқланмаган [5.554]. Бизга юқорида ўтказилган тадқиқотлардан маълумки, ҳар бир изланувчи ўз фикри ва якуний илмий қарорида туриб олган.

МЕТОД. Режа асосида белгиланган мавзуни ёритиш янги илмий тадқиқотнинг усули, жамланган маълумотларнинг олдинги ўтказилган тадқиқотлар билан қиёсий таҳлили, юртимиз тарихини ёритишда даврий мутаносиблик ва реал факт ҳамда аниқ маълумотлар орқали очиқланди.

МУҲОКАМА. Масалан, Қарши воҳасида Насафдан ташқари катта шаҳарлар ҳам бўлган. Улардан 2тасининг майдони катта шаҳарлар қаторида бўлиб, биринчиси “Базда” (ҳозирги Кўҳна Фазли) қадимги шаҳар харобасидир. “Базда” тўғрисида араб ёзма манбаларида, Бухоро йўлида жойлашган мустаҳкам қалъасига эга бўлган катта шаҳар бўлганлиги айтилган. Ўрта асрлар манбаларида шаҳарнинг атрофларида сув танқис бўлса ҳам деҳқончилик ишлари қилинганлиги айтилган. Ўша пайтларда Насафда ёз ойларининг ўрталарига келиб, Қашқадарёнинг суви етмай қуриб қолган. Шу сабабли воҳа аҳолиси экинларни суғоришда қудуқ сувларидан фойдаланган дейилган[6.201]. Лекин ушбу манбада сув иншоотларининг даврий санасига, суғориладиган ер майдонларининг ҳажмига ва воҳа суғорилиш динамикаси тўғрисида бирор бир маълумот қайд этилмаган.

Қарши воҳасида бошқа ўтказилган археологик қидирув тадқиқотларида Қашқадарё дарёсининг қуйи ўзанларида суғориш ишлари билан боғлиқ муаммолар антик даврдан бошлаб юзага келганлиги айтилган[7.89]. Лекин сўнгги олиб борилган археологик қидирув тадқиқотлари суғориш ишлари билан боғлиқ муаммоларни антик даврда эмаслигини кўрсатди. Масалан, воҳада ўрганилган ёдгорликларнинг сув иншоотлари ва сунъий суғориш тармоқларига яқин жойлашганлиги, даврий санаси тўғрисида олинган маълумотлар ҳамда воҳа суғорилиш динамикаси жараёнини ўрганиш натижалари, воҳада сақланиб қолган ёдгорликларнинг аксарият кўп қисми антик ва илк ўрта асрлар даврига оид эканлигини кўрсатди. Бу, ўз-ўзидан маълумки, юқорида таъкидланган суғориш ишлари билан боғлиқ бўлган муаммоларни антик даврида эмас, балки ўрта асрларда бўлиши мумкин, деган фикрни беради.

Қарши воҳасида мил.авв. VII-IV асрларга оид бир нечта археологик ёдгорлик қайд этилган бўлиб, улардан энг қадимгиси Еркўрғон шаҳар харобаси ҳисобланади. Масалан, археологлар


Я.Ғ.Ғуломов., Ў.И.Исламов., А.А.Асқаров тадқиқотларида ҳам Еркўрғон шаҳар харобаси ва унинг атрофидаги ёдгорликлар, дарё бўйлари ва унга яқин соҳилларда жойлашганлиги айтилган[8.173]. Лекин воҳа ёдгорликлари билан ўзаро боғлиқ бўлган суғориш ишлари тўғрисида маълумотлар очиқланмаган, қолаверса воҳанинг суғорилиш динамикаси билан боғлиқ бўлган жиҳатлари ёритилмаган. Бу эса, Еркўрғон шаҳри ва унинг атрофида жойлашган ёдгорликларнинг суғорилиш динамикаси билан боғлиқ қисмини ёритишни тақозо этади.

Археолог олимлар А.А.Асқаров., Р.Ҳ.Сулаймонов, Б.Д.Кочневлар олиб борган археологик қидирув тадқиқотларида, Қарши воҳасида ўрганилган археология ёдгорликларда, асрлар давомида деҳқончилик хўжалигининг ривожланиб бориши ва унда кенг қамровли суғориш тизимларининг шаклланиши билан боғлиқ қисми таҳлил этилган [9.6-7]. Лекин ўша ўтказилган тадқиқотларда Қарши воҳасида айнан ўрта асрларда суғориладиган ер майдонларини ўзлаштиришда асосан қудуқ сувларидан фойдаланганлиги тўғрисида маълумотлар берилмаган, қолаверса қудуқларнинг қачон бунёд этилганлиги тўғрисида ҳам маълумотлар очиқланмаган. Ҳаттоки ушбу тадқиқотда воҳа суғорилиш динамикаси тўғрисида бирор бир маълумот очиқланмаган.

Ўрта Осиёда Буюк Ипак йўли бўйлаб қурилган кўплаб сардоба иншооти қаторида Қарши воҳасининг жазирама иссиғи ва бу ҳудудда ўзига хос бўлган сув танқислиги Насафга яқин бўлган катта шаҳар Касби марказида ҳам улкан, ноёб сардоба иншооти қурилган. Бу улкан сардоба нафақат аҳолининг сув ичишга бўлган эҳтиёжини қондирган, қолаверса шаҳарга келган йўловчилар ва савдогарлар унинг ёнида қад кўтарган катта карвонсаройда тўхтаб, сардоба сувларидан ичиб, туя, от ва эшакларини суғориб, кетишда эса мешкобларини тўлдириб, унда сув ғамлаб Бухоро, Насаф, Замм ва Балх томонларга йўл олганлар[10.231]. Бу тадқиқотда ҳам Касби марказида жойлашган Яккасардобада нафақат шаҳарга келган йўловчилар, савдогарлар сув ичган, ҳаттоки туя, от ва эшакларини суғорган, қолаверса маҳобатли карвонсарой ва Яккасардобанинг атрофини кўкаламзорлаштириш айнан шу Яккасардоба сувлари ҳисобидан амалга оширилган. Чунки ҳозирда ҳам карвонсарой ва сардобанинг ғарбий томонидаги текислик ер майдонлари сардобанинг ер ўзанидан пастроқда жойлашганлиги шундай кўриниб турибди.

Бундан ташқари воҳада олиб борилган бошқа тадқиқотларда Насаф атрофида жуда кўп қишлоқлар жойлашганлиги, уларнинг аксарият кўп қисми ёғинлар бўлган пайтида алоҳида-алоҳида ҳовузларда тўпланадиган ёмғир сувларидан фойдаланган, деган фикрлар ҳам илгари сурилган[11.315]. Масалан, Насаф рустоқидаги суғориладиган ерларнинг асосий қисми ҳосилдор бўлганлиги ва улардан кўпроқ ҳосил олинганлиги тўғрисида ҳам маълумотлар бор. Лекин бу йиғилган маълумотлар бирор бир асосга эга бўлмаганлиги сабабли, воҳанинг ўрта асрлар суғориш иншоотлари ва воҳа суғорилиш динамикаси билан боғлиқ бўлган жиҳатларини очиб беришга ёрдам бера олмайди.

НАТИЖАЛАР. Мавзуни ёритишда сўнгги ўтказилган археологик қидирув тадқиқотлари натижасида қўлга киритилган янги маълумотлар, дастлаб олиб борилган изланишлар натижасида олинган маълумотлар билан қиёсий таҳлил қилинди.




1-расм. Қарши воҳаси ёдгорликларининг даврма-давр суғорилиш динамикаси харитаси (С. Суюнов, 2025).

Қарши воҳасининг ўрта асрлар даври суғорма деҳқончилик хўжалиги билан боғлиқ бўлган жиҳатларини ёритиш учун сўнгги тадқиқотларда аниқланган ёдгорликларнинг 160таси сув манбаларига яқин жойлашганлиги кузатилди [12.119-120]. Қолган ёдгорликлар ҳам албатта мавжуд сув манбаларидан бош олган сунъий суғориш тармоқлари ҳисобидан ўзлаштирилганлиги исботланди. Натижада


Қарши воҳаси бўйича ўрганилган археологик ёдгорликларининг даврма-давр суғорилиш динамикаси билан боғлиқ харитаси қилинди (1-расм).

Шу билан бир қаторда воҳада суғориладиган ер майдонларининг ўрни аниқланди ва умумий ўзлаштирилган экин майдонларининг ҳажмига аниқлик киритилди (2-расм).



2-расм. Қарши воҳаси ёдгорликларининг ўрта асрларда суғорилган ер майдонлари билан боғлиқ харитаси (С. Суюнов, 2025).

Олиб борилган қидирув тадқиқотлари орқали йиғилган ҳамма илмий маълумотлар асосида, Қарши воҳасида аниқланган ёдгорликлар билан ўзаро боғлиқ бўлган сув иншоотлари ва сунъий суғориш тармоқларининг даврма-давр суғорилиш динамикаси графиги қилинди ва жадвали тузилди (3, 4-расм).



3-расм. Қарши воҳаси ёдгорликларининг даврма-давр суғорилиш динамикаси билан боғлиқ графиги.

Бу ўтказилган тадқиқотлар натижаси, Қарши воҳасида ўрганилган ўрта асрлар даврига оид ёдгорликларнинг суғорилиш динамикаси антик ва илк ўрта асрларига нисбатан ўзининг энг паст нуқтасида бўлган, деган тушунчани беради. Масалан, ўрта асрлар даври бўйича сақланиб қолган ёдгорликларнинг 20 фоиздан кўпроғи айнан шу давр билан боғлиқ жараёнларга тўғри келади. Бу ҳолатни воҳада аниқланган ўрта аср ёдгорликларининг суғориш ишлари билан боғлиқ динамик ўзгаришида яққол кузатиш мумкин.

№ Т/р	Туман	Тош	Бронза	Темир	Антик	Илк ўрта асрлар	Ўрта асрлар	Сўнгги ўрта асрлар
1	Қарши	-	-	1	85	89	35	10
2	Жами							220

4-расм. Қарши воҳаси ёдгорликларининг даврма-давр суғорилиш динамикаси билан боғлиқ жадвали

ХУЛОСА. Шундай қилиб, Қарши воҳасида ўрганилган археологик ёдгорликларни сунъий суғориш тармоқлари ва суғориш иншоотлари билан ўзаро боғлиқлигини қиёсий таҳлил қилиш орқали қуйидагича хулосаларга келинди.


- Қарши воҳасида ўтказилган сўнгги қидирув тадқиқотлари асосида сув иншоотлари, сунъий суғориш тармоқларига яқин сақланиб қолган археологик ёдгорликлар сони 160та эканлиги аниқланди. Бу эса ёдгорликларнинг ўша давр сув иншоотлари, сунъий суғориш тармоқлари билан нечоғлик боғлиқ эканлигини кўрсатади;

- Воҳада антик ва илк ўрта асрлар даврига оид аниқланган археологик ёдгорликларга нисбатан, ўрта асрлар даври ёдгорликларининг сони (20 фоизга) камайиб кетганлиги воҳада айнан шу даврда экинларни суғориш билан боғлиқ муаммолар мавжуд бўлганлигини кўрсатади;

-Ёзма манбаларда қайд этилган Амтади Калон ариғи (XII аср) Косон каналининг қадимги номи бўлиши ҳам мумкин. Чунки манбаларда ҳам

Амтади Калон ариғи ҳозирги Парғуза қишлоғининг ичидан оқиб ўтган ва у орқали ўрта асрларда Пирон (Дағайтепа) ёдгорлиги атрофидаги ерларни суғорган. Бу йирик сунъий суғориш тармоғини ўрта асрларнинг ноёб иншооти деса бўлади;

-Воҳада ўрта асрларда аҳолининг суғорма деҳқончилик хўжалиги билан боғлиқ бўлган кенг қамровли сунъий суғориш тизимлари ва суғориш иншоотларининг таназзулга юз тутиши, Қашқадарё дарёсининг суви доимий бир маромда оқмаган деган хулосани беради.



5-расм. Ўрта асрлар (IX-XII) да қудуқлар орқали суғориш усули (1914 й.)

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аскаров А.А. Археологическая поездка в северо-западную часть Каршинской степи, ИМКУ вып. 5. Ташкент, 1964.
2. Аскаров А.А., Сулейманов Р.Х., Кочнев Б.Д. Об археологических исследованиях зоны II орошения и освоения Каршинского оазиса. Самарканд, 1973.
3. Анарбаев А.А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. – Ташкент, 1981.
4. *Аҳмад* ибн Исмоил *ас-Сомоний.* // Изд. Абд ар-Рахмани ибн Йахйа ал-муаллима ал-Йамани. В. 10 томах, Байрут, 1981.
5. *Байбаков К.М. Средневековая городская культура Южного Казахстана и семиречье (VI-XIII вв.). –Алма-Ата, 1986.*
6. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орашемого земледелия в низовьях Зарафшана. Ташкент, 1966.
7. Кочнев Б.Д. Исследования средневекового Несефа// Археологические открытия 1974 года. Москва, 1974.
8. Мукаддасий. Арабские источники X-XII веков, - Л., 1967.
9. Абдусабур Раимқулов. Қашқадарё воҳасининг VIII-XIV асрлар даври шаҳарлари ва тарихий топографияси. –Тошкент, 2025.
10. (Ҳудуд ул-олам. (Моваруннаҳр тавсифи) Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. -Тошкент, 2008.
11. Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879г., Спб, 1883.
12. Самаритдин Суюнов. Қашқадарё воҳасининг суғорилиш тарихи. Насаф НМИУ. Қарши, 2023.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.015.3:811.111:615.851

GOSPITAL SHAROITIDA INGLIZ TILINI O‘RGANISHNING ART-TERAPEVTIK IMKONIYATLARI VA METODIK SAMARADORLIGI

Nabiyeva Gavxar Gayratovna, maktabagacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi pedagog xodimi



e-mail: tursunovadildora377 @gmail.com

ART-THERAPEUTIC POSSIBILITIES AND METHODICAL EFFECTIVENESS OF LEARNING ENGLISH IN A HOSPITAL SETTING

Nabiyeva Gavkhar Gayratovna, Pedagogue of the “Mehrli Maktab” state educational institution under the Ministry of Preschool and School Education

ВОЗМОЖНОСТИ АРТ-ТЕРАПИИ И МЕТОДИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В УСЛОВИЯХ СТАЦИОНАРА

Набиева Гавхар Гайратовна, педагог государственного образовательного учреждения “Мехрли мактаб” при Министерстве дошкольного и школьного образования

Annotatsiya: *Mazkur maqolada uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan bolalar uchun xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitishda art-terapevtik yondashuvning metodik samaradorligi tadqiq etilgan. Gospital sharoitida o‘quvchilarning psixo-emotsional holatini barqarorlashtirishda san’at elementlarining o‘rni eksperimental tahlillar va aniq bir keys-stadi yordamida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *gospital pedagogika, art-terapiya, ingliz tili metodikasi, “Mehrli maktab”, stressiz muhit, keys-stadi, kognitiv faollik, shifobaxsh ta’lim, ijtimoiy moslashuv.*

Abstract: *This article examines the methodological effectiveness of the art-therapeutic approach in teaching foreign languages, specifically English, to children undergoing long-term medical treatment. The role of art elements in stabilizing the psycho-emotional state of students in hospital settings is highlighted through experimental analysis and a specific case study.*

Keywords: *hospital pedagogy, art-therapy, English language methodology, “Mehrli Maktab”, stress-free environment, case study, cognitive activity, healing education, social adaptation.*

Аннотация: *В данной статье исследуется методическая эффективность арт-терапевтического подхода в обучении иностранным языкам, в частности английскому языку, детей, находящихся на длительном лечении. Роль элементов искусства в стабилизации психоэмоционального состояния учащихся в условиях госпиталя освещена с помощью экспериментального анализа и конкретного кейс-стади.*

Ключевые слова: *госпитальная педагогика, арт-терапия, методика английского языка, “Мехрли мактаб”, безстрессовая среда, кейс-стади, когнитивная активность, исцеляющее образование, социальная адаптация.*

Kirish. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda inson qadri, uning huquq va manfaatlari ustuvorligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining uzviy integratsiyalashuviga yangi turtki berdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari bilan tashkil etilgan “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan bolalarning uzluksiz ta’lim olish huquqini kafolatlashning huquqiy va

amaliy mexanizmiga aylandi. Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati gospital pedagogika sohasini ilmiy-metodik jihatdan boyitishni hamda xalqaro standartlarga mos, inklyuziv ta’lim muhitini yaratishni kechiktirib bo‘lmas vazifa qilib belgilaydi.

Sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish jarayonida nafaqat tibbiy muolajalarning sifati, balki bemor bolalarning psixo-pedagogik reabilitatsiyasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy shifoxonalarda o‘quv xonalarining tashkil etilishi va ularning raqamli texnologiyalar bilan jihozlanishi “shifo va bilim” tushunchalarining birlashishiga xizmat qilmoqda. Ushbu strategik yo‘nalish doirasida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitish metodikasini bolalarning somatik holatidan kelib chiqib takomillashtirish, ta’lim jarayoniga terapevtik elementlarni joriy etish milliy ta’lim tizimining insonparvarlik tamoyillarini yanada mustahkamlamoqda.

Gospital sharoitida ta’lim jarayoni shunchaki o‘quv dasturini o‘zlashtirish emas, balki bolaning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks pedagogik tadbirdir. Ingliz tili kabi xorijiy tillarni o‘rganish kognitiv nuqtayi nazardan murakkab jarayon bo‘lib, uzoq muddatli statsionar davolanishdagi o‘quvchilar uchun qo‘shimcha psixologik yuklama bo‘lishi mumkin. Shu bois, fanni o‘qitishda an’anaviy akademik usullardan voz kechib, bolaning emotsional holatini barqarorlashtiruvchi innovatsion yondashuvlarni qo‘llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Art-terapevtik imkoniyatlar ingliz tili darslarida “stressiz muhit” (stress-free environment) yaratishning eng samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘quvchining diqqatini kasallik va og‘riq simptomlaridan ijodiy jarayonga yo‘naltiradi. Natijada, til o‘rganish majburiyat emas, balki o‘zini namoyon qilish va estetik zavq olish manbaiga aylanadi, bu esa o‘z navbatida xotira va nutq faolligini tabiiy ravishda rag‘batlantiradi[4]. Pedagogik amaliyotda art-terapiya elementlari (izoterapiya, ranglar bilan ishlash, musiqa) ingliz tili darslaridagi interfaollikni yangi bosqichga olib chiqadi. Masalan, lug‘at boyligini oshirishda so‘zlarni shunchaki yodlash emas, balki ularni vizual obrazlar orqali qog‘ozga tushirish o‘quvchining assotsiativ xotirasini kuchaytiradi. Bu metodika, ayniqsa, onkologik va gematologik kasalliklar bilan og‘riyotgan, kognitiv funksiyalari dori vositalari ta’sirida biroz sustlashgan bolalar uchun moslashuvchan muhit yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, xususan, Germaniya va Fransiya gospital pedagogikasida ingliz tili darslari “Healing Education” (shifobaxsh ta’lim) konsepsiyasiga asoslangan. Ularda xorijiy til darslari o‘quvchining dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, uning ijtimoiy izolyatsiyadan chiqishiga yordam beruvchi vosita sifatida ko‘riladi. Yevropa tajribasida o‘qituvchi va terapevt hamkorligi natijasida yaratilgan maxsus modullar o‘quvchilarning psixosomatik holatini yaxshilashda yuqori natijalar bermoqda[2]. Ushbu tajribani O‘zbekistonning “Mehrli maktab” tizimiga adaptatsiya qilish jarayoni milliy pedagogik an’analar va zamonaviy raqamli texnologiyalar sintezini talab etadi. Milliy kontekstda art-terapiyani qo‘llashda bolalarning yosh xususiyatlari va madaniy qadriyatlari inobatga olingan holda, “Three-in-One” (Uchtasi birda) tamoyili asosida integratsiyalashgan dars ishlanmalari ishlab chiqilmoqda. Bu esa xalqaro metodikalarni shunchaki nusxalamasdan, mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Adaptatsiya jarayonining eng muhim jihati — bu baholash tizimidagi o‘zgarishdir. Xalqaro amaliyotda bo‘lgani kabi, gospital ta’lim sharoitida o‘quvchining xatolari uchun ball kamaytirilmaydi, balki uning ijodiy yondashuvi va tildan foydalanishga bo‘lgan urinishi rag‘batlantiriladi. Bu yondashuv bolada tilga nisbatan qo‘rquv to‘sig‘ini olib tashlaydi va uning klinik sharoitdagi ijtimoiy moslashuvini tezlashtiradi, bu esa milliy inkluziv ta’limning asosiy maqsadlaridan biridir [5].

Natijalar. O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar davomida an’anaviy (akademik-grammatik) va moslashtirilgan (art-terapevtik) usullar o‘rtasidagi farqlar yaqqol namoyon bo‘ldi. An’anaviy usulda dars o‘tilganda, o‘quvchilarning 60 foizida darsning 15-daqiqasidanoq charchoq va diqqatning tarqalishi kuzatildi. Bu holat kasallikning somatik ta’siri va monoton o‘quv jarayonining o‘zaro to‘qnashuvi natijasidir, bu esa o‘zlashtirish koeffitsientini sezilarli darajada pasaytiradi. Aksincha, art-terapevtik elementlar bilan boyitilgan darslarda o‘quvchilarning kognitiv chidamliligi 45-50 foizga oshgani aniqlandi. Rasm chizish, rolli

o‘yinlar va musiqa orqali ingliz tili grammatikasini o‘rganish bolalarda “o‘yin ichida ta’lim” muhitini yaratdi. Eksperiment guruhidagi bolalar yangi so‘zlarni an’anaviy guruhga qaraganda 1,5 barobar tezroq va mustahkamroq o‘zlashtirib, ularni nutqiy vaziyatlarda erkin qo‘llay boshladilar[1].

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, gospital sharoitida o‘qituvchining metodik arsenali bolaning jismoniy holatiga moslashuvchan bo‘lishi shart. Moslashtirilgan usul nafaqat bilim beradi, balki bolaning immun tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi emotsional fondni shakllantiradi. Bu esa pedagogikaning tibbiyot bilan uyg‘unlashgan nuqtasi bo‘lib, gospital o‘qituvchisidan yuqori darajadagi metodik kreativlikni talab etadi.

Muhokama. Amaliy tajribamizda kuzatilgan 14 yoshli o‘quvchi bilan bog‘liq holat art-terapiyaning kuchini isbotlovchi yorqin misoldir. O‘quvchi og‘ir muolajalardan so‘ng o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotgan va ingliz tili darslarida mutlaqo passivlik ko‘rsatayotgan edi. Standart savol-javoblar va mashqlar uning depressiv holatini yanada chuqurlashtirardi. Bu vaziyatda pedagogik aralashuvning shaklini o‘zgartirish zarurati tug‘ildi. “My Dream House” mavzusi doirasida o‘quvchiga ingliz tilidagi lug‘at boyligidan foydalangan holda o‘z “tinchlik zonasi”ni loyihalash topshirildi. Bu jarayonda u ranglar psixologiyasidan foydalanib, o‘zining ichki kechinmalarini qog‘ozga tushirdi va har bir elementni ingliz tilida izohlab berdi. Masalan, “Yellow sun for energy” (Energiya uchun sariq quyosh) iborasini qo‘llash orqali u o‘zining sog‘ayishga bo‘lgan ichki intilishini til vositasida ifodaladi[5]. Ushbu keysning yakuniy tahlili shuni ko‘rsatdiki, individual tanlangan art-terapevtik topshiriq o‘quvchining kognitiv blokirovkasini ochishga yordam beridi. Dars so‘ngida o‘quvchi nafaqat yangi mavzuni o‘zlashtirdi, balki o‘zining ijodiy mahsuloti bilan faxrlanish hissini tuydi. Bu kabi ijobiy natijalar gospital sharoitida ingliz tili o‘qituvchisi uchun o‘quvchining psixologik portretini to‘g‘ri chiza olish naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Art-terapiya elementlari (izoterapiya, ranglar psixologiyasi, kreativ loyihalar) uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan bolalarda xorijiy tilni o‘rganishga nisbatan yuzaga keladigan kognitiv to‘siqlar va “til qo‘rquvi”ni bartaraf etadi. Bu usul dars jarayonini og‘riqli muolajalar bilan bog‘liq bo‘lgan stressli holatdan ijodiy reabilitatsiya muhitiga o‘tkazadi, natijada o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasi tabiiy ravishda ortadi.

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy akademik metodikadan ko‘ra, gospital sharoitiga moslashtirilgan (art-terapevtik) yondashuv o‘quvchilarning kognitiv chidamliligini 45-50 foizga oshiradi. Til materiallarini vizual obrazlar va ijodiy topshiriqlar orqali o‘zlashtirish xotirada ma’lumotlarning uzoq muddatli saqlanishini hamda nutqiy ko‘nikmalarning stressiz shakllanishini ta’minlaydi. “Mehrli maktab” tizimida ingliz tili darslarini art-pedagogika asosida tashkil etish bolalarning ijtimoiy izolyatsiyadan chiqishiga va ularning jamiyatga, umumta’lim jarayoniga qayta moslashuviga ko‘maklashadi. Xalqaro “Healing Education” tajribasini milliy pedagogik kontekstda qo‘llash, gospital sharoitida nafaqat bilim berish, balki bolaning ruhiy-emotsional salomatligini tiklashda xorijiy til o‘qituvchisining pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, art-terapiya gospital pedagogikasida ingliz tili o‘qitishning yordamchi vositasi emas, balki ta’lim sifatini oshiruvchi va bolaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi fundamental metodik strategiya sifatida e’tirof etilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anderson, J.K. Creative Arts in Hospital Schools: A Systematic Review of Pedagogical Approaches. *International Journal of Inclusive Education*, 2020. 24(8), 821-836.
2. Ben-Pazi,H., & Weiss,P.L. Hospital-based education: The role of technology and creative arts in patient rehabilitation. *Journal of Pediatric Rehabilitation Medicine*, 2021. 14(2), 245-253.
3. Shayxova, M.I. Gospital sharoitidagi o‘quvchilarning psixologik adaptatsiyasida ijodiy faoliyatning o‘rni. *Psixologiya jurnali*, 2022. 3-son, 67-72-betlar.
4. Tursunova, D.Z. Gospital pedagogikada ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishning nazariy asoslari. *Pedagogika jurnali*, 2024. №2, 45-50-betlar.
5. Yuldasheva,S.M. Inklyuziv ta’limda art-terapiya metodlaridan foydalanishning xorijiy tajribasi. *O‘zMU xabarlari*, 2023.1(4), 112-115.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 101.1:316:502.131.1

EKOLOGIK ADOLAT VA “IJTIMOIY INSOF” PRINSIPLARINING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O‘RNI

Axmedov Xamdam Alikulovich, Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

THE ROLE OF ECOLOGICAL JUSTICE AND “SOCIAL EQUITY” PRINCIPLES IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Akhmedov Khamdam Alikulovich, Associate Professor of the National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami

РОЛЬ ПРИНЦИПОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ И “СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕД - ЛИВОСТИ” В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ

Ахмедов Хамдам Аликулович, доцент Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами



https://orcid.org/0009-0009-8085-7226
e-mail: xamdamaxmedov0@gmail.com

***Annotatsiya**: Maqolada ekologik adolat va ijtimoiy insof prinsiplarining barqaror rivojlanish konsepsiyasidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ekologik resurslardan foydalanishda tengsizlik, ekologik yuk taqsimotining nomutanosibligi, kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyat masalalari ochib beriladi. Tadqiqotda ekologik adolatning intrageneratsion va intergeneratsion o‘lchovlari, ijtimoiy insof prinsiplari bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Zamonaviy global ekologik inqiroz sharoitida adolatli ekologik siyosat yuritishning nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Ekologik adolat konsepsiyasining O‘zbekiston sharoitida tatbiq etilish istiqbollari, milliy qadriyatlar va umumbashariy adolat tamoyillarining sintezi masalalari muhokama qilinadi.*

***Kalit so‘zlar**: ekologik adolat, ijtimoiy insof, barqaror rivojlanish, intergeneratsion adolat, ekologik tengsizlik, ekologik demokratiya, resurs taqsimoti, kelajak avlodlar, ekologik etika, global adolat.*

***Abstract:** The article provides a scientific and theoretical analysis of the role of ecological justice and social equity principles in the sustainable development concept. Issues of inequality in ecological resource use, disproportionate distribution of environmental burdens, and responsibility towards future generations are revealed. The study demonstrates intragenerational and intergenerational dimensions of ecological justice and their relationship with social equity principles. Theoretical foundations and practical directions for implementing fair environmental policies under contemporary global ecological crisis conditions are analyzed. Prospects for applying the ecological justice concept in Uzbekistan's context and issues of synthesizing national values with universal justice principles are discussed.*

Keywords: *ecological justice, social equity, sustainable development, intergenerational justice, environmental inequality, ecological democracy, resource distribution, future generations, environmental ethics, global justice.*

Аннотация*: В статье проводится научно-теоретический анализ роли принципов экологической справедливости и социальной справедливости в концепции устойчивого развития. Раскрываются вопросы неравенства в использовании экологических ресурсов, непропорциональности распределения экологического бремени, ответственности перед будущими поколениями. В исследовании показаны интрагенерационные и интергенерационные измерения экологической справедливости, их взаимосвязь с принципами социальной справедливости. Анализируются теоретические основы и практические направления проведения справедливой экологической политики в условиях современного глобального экологического кризиса. Обсуждаются перспективы применения концепции экологической справедливости в условиях Узбекистана, вопросы синтеза национальных ценностей и общечеловеческих принципов справедливости.*

Ключевые слова: *экологическая справедливость, социальная справедливость, устойчивое развитие, интергенерационная справедливость, экологическое неравенство, экологическая демократия, распределение ресурсов, будущие поколения, экологическая этика, глобальная справедливость.*

KIRISH. Zamonaviy sivilizatsiya ekologik adolatsizlikning keskin namoyon bo‘lgan davrini boshdan kecharmoqda. Bir tomondan, rivojlangan mamlakatlar atrof-muhit resurslaridan hadsiz foydalansa, ikkinchi tomondan, ekologik zararning asosiy yuki kambag‘al davlatlar va ijtimoiy noimkon qatlamlarga tushmoqda. Bu holat nafaqat ekologik, balki chuqur ijtimoiy-etik muammo hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning haqiqiy ma’nosiga erishish uchun ekologik adolat va ijtimoiy insof prinsiplari markaziy o‘rin egallashi kerak.

Ekologik adolat konsepsiyasi insonlarning ekologik jihatdan qulay muhitda yashash huquqiga asoslanadi. Biroq, globallashuv sharoitida bu huquq turli mamlakatlar, ijtimoiy guruhlar va avlodlar o‘rtasida teng taqsimlanmagan. Ayrim hududlar va aholi qatlamlari ekologik xavflarga ko‘proq duchor kelsalar, boshqalari nisbatan qulay sharoitlarda yashamoqda. Mazkur nomutanosiblik barqaror rivojlanishga to‘sqinlik qiladi va global adolat masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. Ekologik adolat masalalari jahon falsafiy fikrida keng muhokama qilingan. Gans Yonas “Mas’uliyat prinsipi” asarida kelajak avlodlar oldidagi axloqiy javobgarlik masalasini ko‘tarib, “Shunday harakat qilki, sening faoliyatingning oqibatlari Yer yuzidagi haqiqiy inson hayotining davomiyligi bilan moslashadigan bo‘lsin”[1] degan kategorik imperativni taklif etdi. Bu prinsip intergeneratsion adolatning falsafiy asosini tashkil etadi.

V.I.Vernadskiy biosfera va noosfera konsepsiyalarini ishlab chiqib, insoniyatning planetar javobgarligini asosladi [2]. Uning fikricha, “biosfera asta-sekin noosferaga – aql sferasiga aylanmoqda, bu jarayonda inson ongi ekotizimlarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi” [2]. Bu yondashuv ekologik resurslarni barcha insoniyatning umumiy mulki deb baholashga asos beradi.

Arne Ness chuqur ekologiya konsepsiyasida tabiiy obyektlarning o‘z-o‘zidan qadriyatga ega ekanligini asosladi[3]. Uning ta’kidlashicha, “barcha tirik mavjudotlar o‘z-o‘zicha qadrli bo‘lib, inson uchun vositali ahamiyatga egaligi bilan chegaralanmaydi”[3]. Bu ekosentrik yondashuv ekologik adolat konsepsiyasining nazariy bazasini kengaytiradi.

Bruno Latur aktor-tarmoq nazariyasida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi sun’iy chegaralarni dekonstruksiya qildi[4]. U ta’kidlashicha, “Biz hech qachon zamonaviy bo‘lmaganmiz, ya’ni inson va tabiat o‘rtasidagi chegaralarni ajratish o‘zi sun’iy va zaharlidir” [4]. Bu metodologik yondashuv ekologik adolatni ijtimoiy-tabiiy kontekstda talqin etish imkonini beradi.

L.fon Bertalanfi umumiy sistemalar nazariyasida “sistemaning xossalari uning alohida elementlari yig‘indisidan o‘zgacha bo‘lib, butunlikda yangi sifatlar paydo bo‘ladi” [5] degan prinsipni ilgari surdi. Bu yondashuv ekologik

adolatni global tizim doirasida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Rus olimi E.V.Girusov ekologik madaniyatni gumanizmning oliy shakli sifatida talqin etib, uning adolat prinsiplariga asoslanishi zarurligini ko‘rsatdi [6]. Muallif fikricha, “ekologik madaniyatsiz haqiqiy gumanizm mumkin emas, chunki inson qadr-qimmati faqat barcha uchun ekologik xavfsizlik sharoitida to‘liq namoyon bo‘ladi”[6].

O‘zbekistonlik olimlar S.Mamashokirov va E.Usmonov barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalarini tadqiq etib, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun xos xususiyatlarni ko‘rsatdilar[7]. Ularning fikricha, “Ekologik muammolar nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq”[7]. Bu mulohaza ekologik adolat masalasining kompleks xarakterini tasdiqlaydi.

Q.Nazarov va X.To‘xtayev “Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi” asarida ekologik qadriyatlarning zamonaviy aksiologik tizimdagi o‘rnini ochib berdilar[8]. Mualliflar ta’kidlashlaricha, “Ekologik qadriyatlar insoniyatning uzoq muddatli mavjudligi uchun strategik ahamiyatga ega”[8]. Bu xulosa ekologik adolatni qadriyatli yo‘naltirilgan kategoriya sifatida anglashga yordam beradi.

N.Tangirov barqaror rivojlanish g‘oyasining nazariy-amaliy ahamiyatini tahlil qilib, uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlari o‘rtasidagi muvozanat zarurligini asosladi[9]. Uning fikricha, “Barqaror rivojlanish konsepsiyasi sivilizatsiyaning o‘zini-o‘zi yo‘q qilish xavfiga qarshi gumanistik javobdir”[9]. Bu yondashuv ekologik adolatni barqaror rivojlanishning markaziy elementi sifatida ko‘rsatadi.

A.Quldoshev Markaziy Osiyoda ekologik munosabatlarning bag‘rikenglik tamoyillarida namoyon bo‘lish xususiyatlarini tadqiq etdi[10]. Muallif ta’kidlashicha, “Milliy madaniyatimizda tabiatga hurmatli munosabat, uning biologik xilma-xilligini saqlash va kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish an’analari mustahkam o‘rnatilgan”[10]. Bu ma’lumot ekologik adolat prinsiplarining milliy-ma’naviy merosimizdagi ildizlarini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ekologik adolat konsepsiyasining markaziy masalasi ekologik resurslar va ekologik yukning jamiyat ichida va avlodlar o‘rtasida adolatli taqsimlanishi hisoblanadi. Intrageneratsion adolat bir avlod ichidagi turli ijtimoiy guruhlar, mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasidagi ekologik tenglikni anglatsa, intergeneratsion adolat hozirgi va kelajak avlodlar o‘rtasidagi teng huquqlilikni ifodalaydi. Ikki o‘lchov ham barqaror rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Intrageneratsion adolatning buzilishi zamonaviy dunyoda turli shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, rivojlangan mamlakatlar jahon tabiiy resurslarining asosiy qismini iste’mol qiladilar, lekin ekologik zararning katta qismi rivojlanayotgan davlatlarga to‘g‘ri keladi. Ikkinchidan, har bir mamlakat ichida ham kambag‘al aholi qatlamlari ekologik xavflarga ko‘proq duchor keladilar – ular ko‘pincha ifloslangan hududlarda yashaydilar, sifatli suvdan va toza havodan mahrum bo‘ladilar.

Intergeneratsion adolat masalasi yanada murakkabdir, chunki kelajak avlodlar hozirgi qarorlar qabul qilishda ovoz bera olmaydilar. Tabiiy resurslarning tugalishi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi masalalar kelajak avlodlarning yashash sharoitlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Shuning uchun hozirgi avlod kelajak avlodlar nomidan mas’uliyatli qarorlar qabul qilishi kerak. Bu esa yangicha etik-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Ijtimoiy insof prinsiplari ekologik adolat bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy adolatsizlik – kambag‘allik, ta’lim va sog‘liqni saqlashdan mahrumlik – ko‘pincha ekologik adolatsizlik bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy jihatdan noimkon guruhlar ekologik zararga qarshi turish resurslariga ega emaslar va ularning ovozi jamiyat qarorlarida yetarlicha eshitilmaydi. Shuning uchun ekologik adolatni ta’minlash uchun kengroq ijtimoiy adolat masalalarini hal qilish zarur.

Ekologik demokratiya konsepsiyasi ekologik adolatning muhim sharti hisoblanadi. Bu konsepsiya barcha fuqarolarning ekologik qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish huquqini, ekologik ma’lumotlarga erkin kirish imkoniyatini, ekologik zarar yetkazgan subyektlarga qarshi huquqiy himoya vositalarini o‘z ichiga oladi. Ekologik demokratiyasiz ekologik adolatni ta’minlash mumkin emas, chunki qarorlar

yuqoridan qabul qilinganda, ularning adolatliligini nazorat qilish qiyin bo‘ladi.

Global ekologik adolat masalasi maxsus e’tiborni talab etadi. Iqlim o‘zgarishi kabi global muammolar bir mamlakat yoki mintaqa doirasida chegaralanmaydi, ularning oqibatlari butun insoniyatga ta’sir qiladi. Biroq, iqlim o‘zgarishiga asosiy hissa qo‘shgan rivojlangan mamlakatlar, uning salbiy oqibatlari esa ko‘pincha eng kam hissa qo‘shgan rivojlanayotgan davlatlarni qattiqroq zararlantirmoqda. Bu global nomutanosiblik xalqaro ekologik adolat tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston kontekstida ekologik adolat masalasi Orol dengizi fojiasi, suv resurslari taqchilligi, tuproq degradatsiyasi kabi dolzarb muammolar bilan bog‘liq. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslari taqsimoti adolat prinsiplariga to‘liq mos kelmaydi va bu ekologik-ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelmoqda. Mintaqa davlatlari o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro hurmatga asoslangan adolatli suv siyosati ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

Milliy darajada ekologik adolatni ta’minlash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Birinchidan, ekologik zararli sanoat korxonalarini kambag‘al aholi yashaydigan hududlarda joylashtirmaslik, ekologik rejalashtirishda barcha ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini hisobga olish zarur. Ikkinchidan, ekologik ma’lumotlarning ochiqligi va jamoatchilik nazoratini ta’minlash, ekologik qarorlar qabul qilishda aholining ishtirokini kengaytirish lozim.

Ekologik adolat konsepsiyasini amalga oshirish iqtisodiy mexanizmlarni ham o‘z ichiga oladi. Ekologik soliqlar va yig‘imlar tizimi adolat prinsiplariga asoslanishi kerak – kimki ko‘proq zarar yetkazsa, ko‘proq to‘lashi kerak. “Ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipi ekologik adolatning muhim qismi hisoblanadi. Biroq, bu prinsipni qo‘llashda ham ijtimoiy adolatni hisobga olish zarur, chunki kambag‘al aholi uchun ekologik soliqlar og‘ir yuk bo‘lishi mumkin.

Ekologik ta’lim va ma’rifat ekologik adolatni qo‘llab-quvvatlovchi jamiyat ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yosh avlodga ekologik mas’uliyat va adolat prinsiplarini o‘rgatish, aholining ekologik savodxonligini oshirish uzoq muddatli ekologik adolatni ta’minlashning asosi hisoblanadi. Ta’lim tizimida nafaqat ekologik bilimlar, balki adolat va insof qadriyatlarini ham targ‘ib qilish kerak.

Madaniy omillar ham ekologik adolatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O‘zbek xalqining an’analarida tabiatga hurmat, kelajak avlodlarga mas’uliyat, jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish kabi qadriyatlar mavjud. Bu qadriyatlarni zamonaviy ekologik adolat konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish samarali natijalar berishi mumkin. Milliy ma’naviy merosimizda mavjud adolat tushunchalarini ekologik kontekstga tatbiq etish muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Texnologik rivojlanish ekologik adolatga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bir tomondan, yangi ekologik texnologiyalar tabiat zararini kamaytirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, agar bu texnologiyalarga faqat boy mamlakatlar va qatlamlar kirish imkoniga ega bo‘lsa, bu ekologik adolatsizlikni yanada kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun texnologiya transferida ham adolat prinsiplarini qo‘llash kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ekologik adolat va ijtimoiy insof prinsiplari barqaror rivojlanish konsepsiyasining fundamental asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat. Birinchidan, ekologik adolatning intrageneratsion va intergeneratsion o‘lchovlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning ikkalasini ham ta’minlash barqaror rivojlanishning zaruriy shartidir.

Ikkinchidan, ekologik adolat va ijtimoiy insof bir-birini to‘ldiruvchi prinsiplar hisoblanadi. Ijtimoiy adolatsiz ekologik adolatni ta’minlash mumkin emas, chunki ijtimoiy jihatdan noimkon guruhlar ekologik xavflarga ko‘proq duchor keladilar va ularni himoya qilish resurslariga ega emaslar. Shuning uchun ekologik siyosat kengroq ijtimoiy reformalar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, ekologik demokratiya ekologik adolatni ta’minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Barcha fuqarolarning ekologik qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqi, ma’lumot ochiqligi va jamoatchilik nazorati adolatli ekologik siyosatning kafolatidir. Buning uchun fuqarolik jamiyati institutlarini

mustahkamlash, ekologik tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash zarur.

To‘rtinchidan, global ekologik adolat xalqaro hamkorlik va rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan davlatlarga texnologik va moliyaviy yordam ko‘rsatishi orqali ta’minlanishi mumkin. Iqlim o‘zgarishi kabi global muammolarni hal qilishda adolat prinsiplariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin. Birinchidan, O‘zbekistonda ekologik adolat konsepsiyasini milliy ekologik qonunchilikka kiritish, ekologik zararning adolatli taqsimlanishini ta’minlovchi me’yorlarni ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, ekologik qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, ekologik ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash lozim.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy suv resurslari masalalarini adolat prinsiplariga asoslanib hal qilish uchun mintaqaviy ekologik hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish talab etiladi. To‘rtinchidan, ta’lim tizimida ekologik adolat va ijtimoiy insof prinsiplarini o‘rgatish, yosh avlodda ekologik mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish muhim vazifadir.

Beshinchidan, ekologik soliqlar va yig‘imlar tizimini adolat prinsiplariga muvofiq qurish, ijtimoiy jihatdan kambag‘al qatlamlar uchun kompensatsiya mexanizmlarini yaratish zarur. Oltinchidan, milliy ma’naviy merosimizdagi adolat va tabiatga hurmat qadriyatlarini zamonaviy ekologik adolat konsepsiyasi bilan sintez qilish, milliy sharoitga mos ekologik adolat modeli ishlab chiqish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ekologik adolat va ijtimoiy insof prinsiplari nafaqat abstrakt etik tushunchalar, balki barqaror rivojlanishning amaliy yo‘l xaritasi hisoblanadi. Ularni hayotga tatbiq etish orqali ekologik jihatdan barqaror, ijtimoiy adolatli va iqtisodiy farovon jamiyat qurish mumkin. Bu esa nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarning ham farovonligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1] Йонас Г. Принцип ответственности. Опыт этики для технологической цивилизации / Г. Йонас. – Москва: Айрис-пресс, 2004. – 480 с.

[2] Вернадский В.И. Биосфера и ноосфера / В.И. Вернадский. – Москва: Айрис-пресс, 2004. – 576 с.

[3] Naess A. The Shallow and the Deep, Long-Range Ecology Movement: A Summary / A. Naess // Inquiry. – 1973. – Vol. 16. – P. 95-100.

[4] Latour B. We Have Never Been Modern / B. Latour. – Cambridge: Harvard University Press, 1993. – 168 p.

[5] Берталанфи Л. фон. Общая теория систем – критический обзор / Л. фон Берталанфи // Исследования по общей теории систем. – Москва: Прогресс, 1969. – С. 23-82.

[6] Гирусов Э.В. Экологическая культура как высшая форма гуманизма / Э.В. Гирусов // Философия и общество. – 2009. – №2(54). – С. 74-92.

[7] Usmanov E.M. Sotsialno-filosofskiy analiz globalizatsii ekologicheskoy politiki: Doktorlik dissertatsiyasi / E.M. Usmanov. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2007. – 285 b.

[8] Nazarov Q. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. Darslik / Q. Nazarov, X. To‘xtaev. – Toshkent: Universitet, 2022. – 276 b.

[9] Tangirov N. “Barqaror rivojlanish” g‘oyasining nazariy-amaliy ahamiyati / N.Tangirov // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – Tom 3, Chiqish 6. – B. 1083-1091.

[10] Quldoshev A.T. Markaziy Osiyoda ekologik munosabatlarning bag‘rikenglik tamoyillarida namoyon bo‘lish xususiyatlari / A.T. Quldoshev // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Tom 2, №11. – B. 1127-1132.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'367.5:82-1

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ НЕПОЛНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ЛИРИКЕ СОВРЕМЕННЫХ РУССКИХ ПОЭТОВ

***Гаипова Хилола Хамробек кызы**, магистрант 2-курса факультета филологии и искусства Ургенчского государственного университета, Ургенч, Узбекистан*

ZAMONAVIY RUS SHOIRLARI LIRIKASIDA TO‘LIQ BO‘LMAGAN GAPLARNING FUNKSIONAL-STILISTIK SALOHIYATI

***G‘aipova Hilola Hamrobek qizi**, Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti 2-bosqich magistranti, Urganch, O‘zbekiston*

THE FUNCTIONAL-STYLISTIC POTENTIAL OF INCOMPLETE SENTENCES IN THE LYRICS OF CONTEMPORARY RUSSIAN POETS

***Gaipova Hilola Khamrobek qizi**, 2nd-year Master’s student, Faculty of Philology and Arts Urgench State University, Urgench, Uzbekistan*

https://orcid.org/0009-0002-5391-7579
e-mail: gaipovahilola@icloud.com

Аннотация: *В статье рассматривается функционально-стилистический потенциал неполных предложений в лирике современных русских поэтов. Выявляются их структурные типы и функции, определяется роль в формировании экспрессивности, ритмоинтонации и композиционной организации поэтического текста.*

Ключевые слова: *неполные предложения, поэтический синтаксис, современная русская лирика, экспрессивность, ритмоинтонация, текстообразование, идиостиль.*

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy rus shoirlari lirikasida to‘liq bo‘lmagan gaplarning funksional-stilistik salohiyati tahlil qilinadi. Ularning strukturaviy turlari va funksiyalari aniqlanadi hamda poetik matnning ekspressivligi, ritm-intonatsion va kompozitsion tashkil etilishidagi o‘rni belgilab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *to‘liq bo‘lmagan gaplar, poetik sintaksis, zamonaviy rus lirikasi, ekspressivlik, ritm va intonatsiya, matn tuzilishi, idiostil.*

Abstract: *The article examines the functional-stylistic potential of incomplete sentences in the lyrics of contemporary Russian poets. Their structural types and functions are identified, and their role in shaping expressiveness, rhythmic-intonational organization, and the compositional structure of poetic text is determined.*

Keywords: *incomplete sentences, poetic syntax, contemporary Russian lyrics, expressiveness, rhythm and intonation, text formation, idiostyle.*

Введение. В современной лингвистике художественного текста и поэтического синтаксиса устойчиво сохраняется интерес к проблеме синтаксической вариативности как источника смысловой и эмоционально-экспрессивной насыщенности речи. Особенно продуктивным в этом отношении оказывается явление неполных предложений, которые в поэтическом дискурсе функционируют не как “недосказанность” или нарушение нормы, а как

стилистически мотивированный приём, позволяющий автору управлять ритмом высказывания, интонацией, распределением смысловых акцентов и коммуникативной перспективой текста.

Лирика современных русских поэтов характеризуется повышенной концентрацией индивидуально-авторских синтаксических решений: фрагментацией высказывания, опущением структурно предсказуемых компонентов, активным использованием паузы и подтекста. В этих условиях неполные предложения становятся одним из наиболее гибких средств организации поэтической речи: они обеспечивают эффект разговорной естественности, передают динамику внутреннего монолога, усиливают экспрессию, а также служат механизмом смысловой компрессии и «уплотнения» художественной информации. Неполнота синтаксической конструкции в лирическом тексте часто соотносится с особенностями авторской интонации и отражает специфику поэтического мышления, ориентированного на намёк, ассоциацию и многозначность.

Актуальность исследования обусловлена тем, что при общей разработанности вопросов экспрессивного синтаксиса и поэтики современного стиха функционально-стилистический потенциал неполных предложений требует систематизации: важно уточнить, какие именно функции они выполняют в лирике (эмоционально-экспрессивную, смыслообразующую, текстообразующую, ритмоинтонационную, характерологическую и др.), какие структурные типы неполных конструкций наиболее продуктивны и как их употребление связано с прагматикой поэтического высказывания и авторской стратегией. Объект исследования – синтаксическая организация лирического текста современных русских поэтов. Предмет исследования неполные предложения как функционально-стилистическое средство в поэтической речи.

Материал исследования составляют лирические тексты современных русских поэтов (конкретный корпус/авторы уточняются в основной части работы). В качестве методов используются контекстуальный анализ, функционально-стилистический и коммуникативно-прагматический анализ, элементы лингвопоэтического описания, а также описательный метод при классификации языковых примеров. Научная новизна работы видится в комплексном рассмотрении неполных предложений именно как системного поэтического ресурса, сочетающего структурную вариативность и многофункциональность. Теоретическая значимость заключается в уточнении представлений о возможностях экспрессивного синтаксиса в лирике, практическая – в применимости результатов в курсах современного русского языка (синтаксис, стилистика), лингвопоэтики и анализа художественного текста, а также при подготовке учебно-методических материалов.

Литература и методология. Проблематика неполных предложений в русском синтаксисе традиционно рассматривается в рамках учения о структурной схеме предложения и о позиционной реализованности его компонентов. В учебно-научной традиции неполным признаётся такое предложение, в котором отсутствуют обязательные для данной структурной модели главные или второстепенные члены и при этом пропущенный компонент восстановим из контекста либо речевой ситуации. Тем самым неполнота трактуется прежде всего как грамматическая, а не смысловая: пропуск служит экономии выражения и выделению новой информации. Данный подход позволяет разграничить неполные конструкции и недосказанные (прерванные) высказывания, которые обусловлены не структурной, а коммуникативной незавершённостью реплики[7].

Вопрос о границах неполноты особенно важен при анализе художественного текста, где «сокращённость» нередко выступает не следствием разговорной спонтанности, а намеренной организацией высказывания. Современные синтаксические концепции уточняют объём явлений, относимых к неполным предложениям, опираясь на **идею** структурной схемы как формально-

TAMADDUN NURI

грамматического минимума. В частности, ряд конструкций, традиционно описываемых как неполные (например, модели с нулевой связкой типа *Мать — в саду; Друзья рядом*), в более формализованном описании могут трактоваться как реализации самостоятельных структурных моделей, что снижает «механическое» расширение класса неполных предложений[1].

Отдельного внимания требует соотношение неполных предложений и эллипсиса. В ряде работ эллипсис понимается как устранение глагольного компонента без его контекстного возмещения; при этом обсуждается, является ли такая «нулевая позиция» признаком неполноты или же свидетельствует о наличии самостоятельной типизированной модели. Для исследования поэтического синтаксиса это разграничение принципиально, поскольку лирический текст активно использует компрессию, паузирование и фрагментацию, создавая эффект «обнажённой» синтаксической структуры[5].

Методологические основания исследования. Методологическую основу статьи составляет функционально-стилистический подход, предполагающий рассмотрение неполных предложений не изолированно, а в системе художественных средств лирического текста. В логике данного подхода неполные конструкции описываются через их роль в порождении выразительности, интонационно-ритмической организации и смысловой композиции.

В работе используются следующие методы: 1.**Контекстуальный анализ** – для восстановления пропущенных компонентов (контекстуально/ситуативно обусловленная неполнота) и установления того, какие элементы высказывания актуализируются за счёт опущения[2]. 2.**Структурно-синтаксический анализ** – для типологизации неполных предложений по характеру «незамещённой позиции» (пропуск главных/второстепенных членов), а также для разграничения неполных и недосказанных конструкций[3]. 3.**Функционально-стилистический анализ** – для выявления доминирующих функций неполных предложений в лирике (экспрессивной, ритмоинтонационной, смыслокомпрессивной, текстообразующей), когда опущение грамматически предсказуемого компонента усиливает смысловой акцент и эмоциональную напряжённость. 4.**Элементы коммуникативно-синтаксического описания** – при интерпретации неполноты через соотнесение с «полным образцом» и с набором структурных схем: это помогает избегать смешения неполных предложений с автономными моделями (в том числе в случаях «нулевой» связки или конструкций бытийного типа) [4].

Таким образом, сочетание структурного и функционально-стилистического анализа даёт возможность описать неполные предложения в лирике современных русских поэтов как средство не только экономии языковых ресурсов, но и целенаправленного формирования художественной выразительности.

Обсуждение. Проведённый анализ лирических текстов современных русских поэтов позволяет рассматривать неполные предложения не как периферийное синтаксическое явление, а как активный элемент поэтической организации высказывания. В условиях художественной речи структурная неполнота утрачивает статус «сокращённой» модели и приобретает функциональную мотивированность, соотносясь с интонацией, ритмом и семантической перспективой текста.

Прежде всего следует отметить связь неполных предложений с принципом смысловой компрессии. Поэтический текст, ориентированный на максимальную концентрацию значения, стремится к устранению предсказуемых компонентов, оставляя в фокусе смысловые ядра высказывания. Пропуск грамматически ожидаемого элемента усиливает информативность оставшихся слов, что соответствует закономерностям актуального членения и распределения темы и ремы в предложении[6]. Таким образом, неполнота выступает средством семантического «сгущения» поэтической речи.

Во-вторых, неполные предложения активно участвуют в формировании ритмоинтонационной структуры лирического

текста. Опущение сказуемого или подлежащего создаёт паузу, синтаксический разрыв, который усиливает интонационную выразительность строки. В стихотворной речи подобные конструкции соотносятся с метрической организацией и могут выполнять роль интонационных опор, обеспечивая динамику и фрагментарность высказывания. Как отмечается в синтаксических исследованиях, структурная неполнота часто сопровождается интонационной завершённостью, что подтверждает её самостоятельный коммуникативный статус [1].

Третьим значимым аспектом является экспрессивная функция неполных предложений. В лирике они нередко отражают состояние внутреннего напряжения, эмоциональной незавершённости или прерывистости мысли. Подобная фрагментация синтаксической структуры создаёт эффект спонтанности, приближая поэтическую речь к внутреннему монологу. В этом отношении неполные конструкции оказываются средством психологизации текста, поскольку передают не только содержание высказывания, но и его эмоциональную динамику. Кроме того, анализ показал, что неполные предложения выполняют текстообразующую функцию. Повторяемость однотипных синтаксических моделей (например, цепочки номинативных или контекстуально восстанавливаемых конструкций) формирует композиционную целостность стихотворения. Подобная синтаксическая параллелизация усиливает структурную организованность текста и способствует созданию авторской интонационной доминанты. В этом смысле неполнота становится элементом идиостиля, отражающим предпочтение поэта к определённому способу речевой организации.

Наконец, важно подчеркнуть, что в поэтическом дискурсе неполные предложения взаимодействуют с близкими синтаксическими явлениями – эллипсисом, назывными и парцеллированными конструкциями. Их разграничение требует учёта структурной схемы предложения и принципов контекстуального восстановления пропущенного компонента[8]. Однако в художественной практике данные явления часто образуют единую систему выразительных средств, направленных на усиление образности и интонационной напряжённости текста.

Таким образом, обсуждение полученных данных подтверждает, что неполные предложения в современной русской лирике обладают значительным функционально-стилистическим потенциалом. Они обеспечивают смысловую компрессию, интонационную выразительность, эмоциональную насыщенность и композиционную цельность произведения, выступая важным инструментом поэтической организации речи.

Список литературы:

1. Акимова, Г.Н. Синтаксис современного русского языка: учебник для вузов / Г.Н.Акимова; под ред. С.В.Вяткиной. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2009. — 346 с. (С. 137–142).
2. Валгина, Н.С.Современный русский язык: Синтаксис: учебник для вузов / Н.С.Валгина. — М.: Высшая школа, 2003. — 416 с. (С. 210–225).
3. Гальперин, И.Р.Текст как объект лингвистического исследования / И.Р.Гальперин. — М.: Наука, 1981. — 139 с. (С. 36–52).
4. Кожина, М.Н.Стилистика русского языка / М. Н. Кожина. — М.: Просвещение, 1993. — 223 с. (С. 85–101).
5. Лекант, П.А.Синтаксис простого предложения в современном русском языке / П.А.Лекант. — М.: Просвещение, 2004. — 368 с. (С. 232–236).
6. Лотман, Ю.М.Анализ поэтического текста / Ю.М.Лотман. — Л.: Просвещение, 1972. — 271 с. (С. 45–63).
7. Пипченко, Н.М. Современный русский язык: Синтаксис словосочетания и простого предложения / Н.М.Пипченко. — Минск: БГУ, 2008. — 196 с. (С. 117–121).
8. Шведова, Н.Ю. (ред.). Русская грамматика: в 2 т. Т. 2. Синтаксис / АН СССР. — М.: Наука, 1980. — 710 с. (С. 272–290).

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 172+101.1

SIYOSIY MODERNIZATSIYA VA DEMOKRATIK ISLOHOTLAR JARAYONI

Irmatov Sharof Avazovich, Qarshi davlat universiteti "Falsafa va sotsiologiya" kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlari nomzodi

POLITICAL MODERNIZATION AND THE PROCESS OF DEMOCRATIC REFORMS

Irmatov Sharof Avazovich, Associate Professor of the Department of Philosophy and Sociology, Karshi State University, Candidate of Political Sciences

ПОЛИТИЧЕСКАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ПРОЦЕСС ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ РЕФОРМ

Ирматов Шароф Авазович, доцент кафедры философии и социологии Каршинского государственного университета, кандидат политических наук



https://orcid.org/0009-0004-1305-8487
e-mail: irmatov70@list.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada siyosiy modernizatsiya va demokratik islohotlar jarayonining mazmun-mohiyati, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, davlat boshqaruvini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kabi muhim yo'nalishlar yoritib berilgan. Muallif siyosiy modernizatsiya jarayonida demokratik tamoyillarning joriy etilishi, ochiqlik va oshkoralikni kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Xulosa sifatida, maqolada demokratik islohotlarning izchil amalga oshirilishi barqaror taraqqiyot va jamiyat farovonligini ta'minlashning muhim omili ekanligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *siyosiy modernizatsiya, demokratiya, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, siyosiy islohotlar, qonun ustuvorligi, institutsional rivojlanish.*

Abstract: *This article analyzes the essence and content of the process of political modernization and democratic reforms, as well as their role and significance in the development of society. It also highlights such important areas as improving public administration, developing civil society institutions, ensuring the rule of law, and protecting human rights and freedoms. The author pays special attention to the implementation of democratic principles in the process of political modernization, increasing openness and transparency, as well as strengthening the relationship between the state and society. In conclusion, it is emphasized that the consistent implementation of democratic reforms is an important factor in ensuring sustainable development and the well-being of society.*

Keywords: *Political modernization, democracy, public administration, civil society, political reforms, the rule of law, and institutional development are key concepts that reflect the essence of modern socio-political processes.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы сущность и содержание процесса политической модернизации и демократических реформ, а также их роль и значение в развитии общества. Также освещены такие важные направления, как совершенствование государственного управления, развитие институтов гражданского общества, обеспечение верховенства закона и защита прав и свобод человека. Автор уделяет особое внимание внедрению демократических принципов в процессе политической модернизации, усилению открытости и гласности, а также укреплению взаимных отношений между государством и обществом. В заключение*

подчеркивается, что последовательная реализация демократических реформ является важным фактором обеспечения устойчивого развития и благосостояния общества.

Ключевые слова: *Политическая модернизация, демократия, государственное управление, гражданское общество, политические реформы, верховенство закона и институциональное развитие являются ключевыми понятиями, отражающими сущность современных общественно-политических процессов.*

Kirish. So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda jadal islohotlar va modernizatsiya jarayonlari kuzatilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakat nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ham tub o‘zgarishlarni boshidan kechirdi[1]. Bu o‘zgarishlar nafaqat xalqimiz uchun, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilayotgani bejiz emas.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev nafaqat mamlakatning ichki o‘zgarishlarini jadallashtirdi, balki xalqaro hamkorlikni mustahkamlab, O‘zbekistonni global iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi davlatga aylantirdi[12]. Bu o‘zgarishlar xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e’tirof etilib, Yangi O‘zbekistonning dunyo miqyosidagi imijini yanada mustahkamlamoqda. Uning strategik islohotlari nafaqat hozirgi avlod uchun, balki kelajak avlodlar uchun ham mustahkam poydevor yaratmoqda. Prezidentimizning tashabbuslari va rahbarligidagi o‘zgarishlar mamlakatning ichki taraqqiyotini jadallashtirib, xalqaro hamkorlik va mintaqaviy barqarorlik uchun mustahkam poydevor hozirlamoqda. Bu islohotlar nafaqat bir davlatning ichki o‘zgarishlari, balki xalqaro hamkorlik va mintaqaviy barqarorlikka ham ta’sir ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fikr xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston haqidagi musbat tahlillari bilan ham uyg‘undir.

Asosiy qism. XXI asrda jahon siyosiy tizimlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar davlat boshqaruvi shakllari va siyosiy institutlarning modernizatsiyasini talab etmoqda[4]. Zamonaviy davlatlarning barqaror taraqqiyoti, avvalo, demokratik qadriyatlar, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi[5]. Shu nuqtayi nazardan siyosiy modernizatsiya jarayoni davlat va jamiyat munosabatlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy modernizatsiya tushunchasi siyosatshunoslik fanining muhim kategoriyalaridan biri hisoblanib, u davlat boshqaruvi tizimi, siyosiy institutlar va jamiyatning siyosiy madaniyatidagi sifat jihatdan yangi o‘zgarishlarni anglatadi[6]. Ushbu jarayon demokratik islohotlar orqali amalga oshiriladi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Maqolada siyosiy modernizatsiya tushunchasining nazariy asoslari, uning demokratik islohotlar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda zamonaviy siyosiy jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Siyosiy modernizatsiya tushunchasi siyosatshunoslikda XX asrning ikkinchi yarmida keng qo‘llanila boshlangan[4]. U jamiyatning an’anaviy siyosiy tizimdan zamonaviy, demokratik va institutsionallashgan tizimga o‘tish jarayonini ifodalaydi.

Mashhur amerikalik siyosatshunos Samuel P.Huntington siyosiy modernizatsiyani siyosiy institutlarning murakkablashuvi, siyosiy ishtirokning kengayishi va davlat boshqaruvi tizimining institutsionallashuvi bilan bog‘laydi[4]. Uning fikricha, modernizatsiya jarayonida davlat institutlari jamiyat ehtiyojlariga moslashib boradi.

Shuningdek, demokratiya nazariyasida muhim o‘rin egallagan Robert A.Dahl siyosiy tizimning demokratik xususiyatlarini “poliyarxiya” tushunchasi orqali tushuntiradi[5]. Uning ta’kidlashicha, demokratik tizimning rivojlanishi fuqarolarning siyosiy ishtirok imkoniyatlari va siyosiy raqobat darajasiga bog‘liq.

Siyosiy modernizatsiya jarayoni bir nechta asosiy xususiyatlarga ega:

- siyosiy institutlarning rivojlanishi;
- qonun ustuvorligining ta’minlanishi;
- fuqarolarning siyosiy ishtirokining kengayishi;
- davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish.

Ushbu omillar demokratik islohotlarni amalga oshirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Demokratik islohotlar siyosiy modernizatsiya jarayonining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi[6]. Ushbu islohotlar davlat boshqaruvini takomillashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan[7].

Demokratik islohotlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash;
2. Sud-huquq tizimini isloh qilish;
3. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
4. Saylov tizimini takomillashtirish.

Zamonaviy siyosiy nazariyada demokratik institutlarning rivojlanishi jamiyat barqarorligi va siyosiy legitimlikni ta’minlashda muhim omil sifatida qaraladi. Masalan, Francis Fukuyama davlat institutlarining mustahkamligi va samaradorligini barqaror siyosiy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida ta’kidlaydi[8].

Demokratik islohotlar faqat siyosiy tizimni emas, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ham rag‘batlantiradi.

Siyosiy modernizatsiya jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi alohida ahamiyatga ega[7]. Fuqarolik jamiyati davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvozanatlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlariga quyidagilar kiradi:

- nodavlat notijorat tashkilotlari;
- ommaviy axborot vositalari;
- kasaba uyushmalari;
- jamoat birlashmalari.

Ushbu institutlar jamiyatda jamoatchilik nazoratini ta’minlash, davlat boshqaruvi shaffofligini oshirish va fuqarolarning siyosiy faolligini rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi[9].

Siyosiy modernizatsiya jarayonida davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi samarali hamkorlik demokratik institutlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Hozirgi davrda siyosiy modernizatsiya jarayoniga globallashuv, axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalar katta ta’sir ko‘rsatmoqda[10]. Internet va ijtimoiy tarmoqlar fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish va davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.Raqamli texnologiyalar asosida elektron hukumat tizimining joriy etilishi davlat xizmatlarining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda[12].

Shu bilan birga, siyosiy modernizatsiya jarayonida milliy an’analar va madaniy xususiyatlarni inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir davlatda demokratik islohotlar uning tarixiy va ijtimoiy sharoitlariga mos ravishda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy modernizatsiya zamonaviy davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi[4]. U demokratik islohotlar, siyosiy institutlarning rivojlanishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishi orqali amalga oshiriladi[7].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, siyosiy modernizatsiya jarayoni quyidagi asosiy natijalarga olib keladi:

- davlat boshqaruvi samaradorligining oshishi;
- qonun ustuvorligining ta’minlanishi;
- fuqarolarning siyosiy ishtirokining kengayishi;
- demokratik institutlarning mustahkamlanishi.

Shu bois siyosiy modernizatsiya jarayonini chuqur ilmiy tahlil qilish va uning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy siyosatshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
4. Huntington S.P. Political Order in Changing Societies. – Yale University Press, 1968.
5. Dahl R.A. Democracy and Its Critics. – Yale University Press, 1989.
6. Diamond L. Developing Democracy: Toward Consolidation. – Johns Hopkins University Press, 1999.
7. Lipset,S.M.Some Social Requisites of Democracy//American Political Science Review, *1959.*
8. Fukuyama F. State-Building: Governance and World Order in the 21st Century. – Cornell University Press, 2004.
9. Freedom House.Freedom in the World Report.– 2022.
10. UNDP.Human Development Report.–2021.
11. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – T., 2020.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari to‘plami. – T., 2017–2023.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 821.512.133-1

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA TO‘RTLIK JANRI: SHUKUR QURBON IJODI MISOLIDA

Nusratilloyeva Dilnoza, f.f.f.d., Navoiy davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

THE QUATRAIN GENRE IN MODERN UZBEK POETRY: A CASE STUDY OF SHUKUR KURBON’S WORK



Nusratilloyeva Dilnoza, PhD in Philology, Senior Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, Navoi State University

e-mail: nusratilloyevadilnoza2@gmail.com

ЖАНР ЧЕТВЕРОСТИШИЯ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ: НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ШУКУРА КУРБОНА

Нусратиллаева Дилноза, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, старший преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Навоийского государственного университета

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining kichik lirik janrlari, xususan, to‘rtliklarning taraqqiyoti Shukur Qurbon ijodi misolida tadqiq etiladi. Shoirning to‘rtliklarida qo‘llangan badiiy tasvir vositalari, falsafiy mushohadalar va janr xususiyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *to‘rtlik, ruboiy, qit’a, Shukur Qurbon, lirik janr, badiiy mahorat, falsafiy she’riyat, zamonaviy adabiyot.*

Abstract: *This article examines the development of minor lyrical genres in modern Uzbek poetry, specifically the genre of the quatrain, through the lens of Shukur Qurban’s literary works. The author analyzes the artistic imagery, philosophical reflections, and genre characteristics inherent in the poet’s quatrains. The research highlights the synthesis of traditional Oriental forms (rubai, qita) with contemporary poetic techniques.*

Keywords: *quatrain, rubai, qita, Shukur Qurban, lyrical genre, artistic craftsmanship, philosophical poetry, modern literature, genre evolution, lyrical hero.*

Аннотация: *В данной статье исследуется развитие малых лирических жанров в современной узбекской поэзии, в частности жанра четверостишия, на примере творчества Шукура Курбана. Анализируются художественно-изобразительные средства, философские концепции и жанровые особенности четверостиший поэта. В работе освещается синтез традиционных восточных форм (рубаи, китъа) с современным поэтическим мышлением.*

Ключевые слова: *четверостишие, рубаи, китъа, Шукур Курбан, лирический жанр, художественное мастерство, философская поэзия, современная литература, генезис жанра, лирический герой.*

Kirish. O‘zbek she’riyati ko‘p asrlik taraqqiyot jarayonida turli janr va shakllar orqali boyib borgan. O‘zbek she’riyatining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida kichik hajmli lirik

shakllar, xususan, to‘rtlik janri intellektual yukning ortishi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy adabiy jarayonda to‘rtlik shunchaki miqdoriy ko‘rsatkich emas, balki kontseptual mazmunning ixcham ko‘rinishidir. Bugungi o‘zbek lirikasi kontekstida Shukur Qurbon ijodi o‘zining individual-uslubiy prinsiplari va poetik diskursining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning ijodi sokin holatdagi to‘fondir. Shoir ijodida to‘rtlik janri ontologik mushohada va ijtimoiy voqelikning badiiy sintezi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda kichik hajmli, ammo mazmunan teran poetik shakllardan biri bo‘lgan to‘rtlik janri alohida o‘rin egallaydi.

To‘rtlik – qisqa, lo‘nda va badiiy jihatdan ixcham shakl bo‘lib, unda shoirning falsafiy qarashlari, hayotiy kuzatishlari hamda lirizm yuqori darajada mujassam bo‘ladi. “To‘rt misrali she’rda ruboiy kompozitsiyasiga rioya qilinsa, ammo she’r barmoq vaznida yozilgan bo‘lsa, bunday asar baribir to‘rtlik hisoblanadi”[1]. Bugungi o‘zbek she’riyatida mazkur janrni samarali qo‘llayotgan shoirlardan biri Shukur Qurbondir. Shoirning to‘rtliklari hayot falsafasi, lirik kechinmalar, zamon va shaxs munosabatlari, milliy ruh va ma’naviy qadriyatlar talqini bilan ajralib turadi. Uning to‘rtliklarida badiiy ixchamlik, obrazlilik hamda poetik fikrning lo‘ndaligi muhim xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiyot olami cheksiz, zarradan tortib toki ulkan koinotga qadar unda butun borliq mujassam. Oniy lahzaning badiiy, tasviriy ifodasi, so‘z sehri ko‘ngillarga quvonch bag‘ishlab, so‘z zahri yuraklarni larzaga keltirishi mumkin. Abdulla Qahhor aytganidek, so‘zni isrof qilmaslik kerak. Badiiy adabiyotda so‘z eng muqaddas kalomdir. Ijodkor so‘z orqali o‘zini jamiyatga ko‘rsatadi, kitobxonga o‘zini tanishtiradi. Ijodkor olamini uning she’rlari orqali anglaymiz. She’rda so‘z sehrining rangin qirralarini ko‘ramiz. So‘z muqaddas kalom. Ijodkor so‘zga xiyonat qilmaydi. Zero so‘zga xiyonat bu – adabiyotga xiyonatdir. Shoir ruhi ozod, uni bandi qilib, mahkum etib bo‘lmaydi. Badiiy adabiyotda ijodkorning oniy kayfiyatini she’rga sig‘dirish, ayniqsa buni to‘rtlik janrida namoyon etish ancha murakkab jarayondir. Kichik hajmli she’rda ham lirik qahramonning ruhiy holatini, ham falsafiy xulosani berishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Erkin Vohidov aytganidek “Shukur kabi hissiyot shoirida ijodiy izlanish yo‘llari mashaqqatli kechadi. Hayot bir yerda turmaganidek, ijodiy uslub ham o‘zgarib, yangilanib boradi” [2] . Darhaqiqat, shoirning dastlabki ijod namunalarida yuqori pafos yetakchilik qilgan bo‘lsa, bugungi kundagi she’rlarida ijtimoiy falsafiylik yetakchilik qilmoqda. Bu ayniqsa, shoirning to‘rtliklarida yaqqol namoyon bo‘lgan. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati kitobda to‘rtlik (kvatren) lirik turga mansub janr sifatida tavsiflanadi. Unda to‘rtlikning tugallangan fikrni kichik hajmda ifodalash xususiyati alohida ta’kidlanadi.

“To‘rtlik — lirik she’riyatning eng ixcham va mazmunan quyuq shakli bo‘lib, unda lirik qahramonning ruhiy holati yoki muayyan falsafiy xulosa to‘rt misra doirasida badiiy yechimini topadi”[3]. To‘rtlik shaklan ruboiy, qit’a, tuyuqqa o‘xshaydi, lekin bir-biridan farq qiladi.

Ruboiy: Maxsus aruz vaznlarida yoziladigan, falsafiy-ishqiy yo‘nalishdagi to‘rtlik.

Qit’a: Mavzu ko‘lami keng, asosan a-b-c-b qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan to‘rtlik.

Tuyuq: Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi bilan bog‘liq, tajnis (so‘z o‘yini)ga asoslangan shakl.

Chorzarb: Zamonaviy she’riyatda keng tarqalgan, a-b-a-b qofiyalanishiga ega to‘rtlik.

Shoirlar kalomi otilgan o‘qdir,
Nishonga tegarki, ko‘ngillar to‘qdir.
Haqiqatni aytish nodonlik bo‘lsa,
Nodonlikdan ayro she’riyat yo‘qdir[4].

[1]Адабий тур ва жанрлар. II жилд Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг Фан нашриёти, Тошкент- 1991 й. 226 б.

[2] Қурбонов Шукур. Сайланма – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент -2011 й. 3 б.

[3] Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 324 б.

[4] Қурбонов Шукур. Сайланма – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент -2011 й. 7 б.

Darhaqiqat, ko‘ngil chashmasidagi marvaridlarni bir-bir terib, haqiqat oynasini tutgan ham so‘zdir. So‘z – adabiyotga qo‘yilgan haykal! So‘zdan ayro adabiyot yo‘qdir.

Tun erdi, yilt etgan ziyo yo‘q erdi,
Lekin dilim ravshan, ko‘nglim to‘q erdi:
Yuksak daraxtlarda qag‘illab shu chog‘,
Qarg‘alar bir-birin ko‘zin cho‘qirdi[5].

Muhokama. Shoir ijodida to‘rtliklar alohida o‘rin egallaydi. Uning to‘rtliklarini kichik hajmli katta asar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Birgina to‘rtlik orqali lirik qahramonning ichki holatini ko‘rsatib beradi. Bahodir Karim ta’kidlaganidek, “Ijodkor muayyan ijtimoiy talabga mos stereotiplar ichida o‘zligini yo‘qotadi. Qalam ahlining kelajagidan bashorat berish mushkul. Ijod so‘zga, ruhiyatga, ko‘ngil ma’vosiga, shon-shuhratga daxldor; yuksalish va tanazullarni o‘zida jamlaydi. Insoniyatga foydali samaralarni, o‘z individual hayotiga tegishli besamar o‘tgan umrni in’ikos ettiradi” [6]. Darhaqiqat, har bir ijodkor ko‘ngil ma’vosi orqali so‘z sehrini his qiladi. O‘zbek she’riyatining ko‘p asrlik tarixida to‘rtlik janri (ruboiy, qit’a, tuyuq) hamisha alohida mavqega ega bo‘lib kelgan. Ixcham shaklda ulkan ma’no yuklash san’ati orqali bugungi zamonaviy adabiyotimizda ham yangicha ohanglar bilan boyib bormoqda. Shukur Qurbon mana shu an’analarni davom ettirib, o‘zining falsafiy-lirik to‘rtliklari bilan kitobxonlar e’tiborini qozongan shoirdir. Uning ijodida to‘rtlik shunchaki she’riy shakl emas, balki hayotiy xulosalarning eng o‘tkir va lo‘nda ifodasidir. Shukur Qurbon to‘rtliklarining markazida inson va uning ma’naviy olami turadi. Shoir insoniylik, sadoqat, vaqt qadri va ishq kabi mavzularni to‘rt satr ichida mahorat bilan ifodalaydi.

Dunyoga kelmishki sendek yori jon,
Demak toza hali odamzodda qon.
Demak, sahrolarda kezar majnunlar,
Tohirlar daryoda oqmoqda hamon[7].

Ushbu satrlarda shoir insonning dunyoga kelishidan asosiy maqsadi — o‘zligini anglash va ma’naviy kamolotga erishish ekanini juda sodda, lekin ta’sirchan tilda uqtiradi.

Mehmonin kuzatib qolarkan bir dam,
La’nat eshitibdi huv o‘sha Hotam,
Rahmatning o‘rniga: - “To‘y qilmasdan o‘l!
Qo‘y beribsan, nokas! Ber – arqonin ham![8]”

Bu to‘rtlikda Hotamtoy haqidagi rivoyat haqida bo‘lib, unda Hotamtoy butun xalqqa qo‘y ehson qiladi. Lekin shunda ham odamlar qo‘y beribdi-yu, arqonini bermabdi, deb Hotamtoydan norozi bo‘ladilar.

Natijalar. Shukur Qurbon to‘rtliklarida ruboiy va qit’a shakllarining o‘zaro sintezi kuzatiladi. Shoir ko‘pincha a-a-b-a yoki a-b-a-b qofiyalanish tizimidan foydalangan holda, fikrni tugal xulosaga olib keladi. Uning ijodida quyidagi badiiy san’atlar ustuvorlik qiladi:

Antiteza (Tazod): “Rahmat” va “la’nat”, “saxovat” va “nokaslik” tushunchalarining qarama-qarshi qo‘yilishi orqali jamiyatning axloqiy-etik manzarasi chiziladi.

Talmeh (Alluziya): Majnun, Tohir, Hotam kabi klassik obrazlarning intertekstual qo‘llanilishi matnning tarixiy-madaniy qatlamlarini boyitadi. Tarixiy shaxslar yoki diniy-irfoniy tushunchalarga ishoralar qilish orqali to‘rtlikning ma’no ko‘lamini kengaytiradi.

Janriy polifoniya: Maqolada aniqlanishicha, shoir ijodida ruboiyning a-a-b-a qofiyalanish tizimi bilan bir qatorda, erkinroq a-b-a-b (chorzarb) shakllarining o‘zaro kombinatsiyasi kuzatiladi.

Tashbeh (O‘xshatish): Tabiat hodisalarini insonning ruhiy holatiga o‘xshatish orqali obrazlilikni ta’minlaydi.

[5] Қурбонов Шукур. Бир қалб манзаралари. – Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент - 1990 й. 100 б.

[6] Karimov B. Ruhiyat alifbosi. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2018 y. 86 b.

[7] Қурбонов Шукур. Бир қалб манзаралари – Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент - 1990 й. 104 б.

[8] Қурбонов Шукур. Бир қалб манзаралари – Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент - 1990 й. 106 б.

Xulosa qilib aytganda Shukur Qurbonning to‘rtliklari zamonaviy o‘zbek she’riyatida klassik an’analarning munosib davomidir. Shoir kichik janr orqali zamonning dolzarb muammolarini, insoniy qadriyatlarni va falsafiy mushohadalarni kitobxon qalbiga yetkazib bera oladi. Shukur Qurbon to‘rtliklari zamonaviy o‘zbek she’riyatida klassik an’analarning innovatsion davomidir. Shoir kichik janr imkoniyatlari doirasida ma’naviy muammolarni, ekzistensial inqirozlarni va insoniy qadriyatlarni lakonik tarzda ifoda eta olgan. Uning ijodini o‘rganish adabiyotshunoslik uchun ham, yosh avlod tarbiyasi uchun ham birdek ahamiyatlidir. Umuman olganda, Shukur Qurbon to‘rtliklari zamonaviy o‘zbek adabiyoti xazinasini yangi poetik obrazlar va teran falsafiy xulosalar bilan boyitib, janrning kelgusi taraqqiyoti uchun yangi ufqlar ochib beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Адабий тур ва жанрлар. II жилд Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг Фан нашриёти, Тошкент- 1991 й. 380 б.
2. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 384 б.
3. Қурбонов Шукур. Сайланма. – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент -2011 й. 296 б.
4. Қурбонов Шукур. Бир қалб манзаралари – Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент -1990 й. 144 б.
5. Каримов Б. Руҳият алифбоси. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент 2018 й. 364 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 101.1

MEHNAT MIGRATSIYASI: O‘ZBEKISTONDAGI ASOSIY SABABLAR VA TENDENSIYALAR

Avazov Sanjar Ergashovich, Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

LABOR MIGRATION: MAIN CAUSES AND TRENDS IN UZBEKISTAN

Avazov Sanjar Ergashovich, PhD in Philosophy, Senior Lecturer at Karshi State University

ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ: ОСНОВНЫЕ ПРИЧИНЫ И ТЕНДЕНЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Авазов Санжар Эргашович, старший преподаватель Каршинского государственного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам



https://orcid.org/0009-0002-8578-5179
e-mail: sanjarbek555@mail.ru

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada O‘zbekistondagi tashqi mehnat migratsiyasining mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, sabablari va oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mehnat migrantlarini qiynayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik mammolar to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** migratsiya, tashqi mehnat migratsiyasi, ishsizlik, ish haqi, o‘zbekona orzular, turfa marosimlar, malakali mutaxassislar, korrupsiya.*

***Abstract:** The article analyzes the essence, main directions, causes and consequences of external labor migration in Uzbekistan. It also examines the economic, social and psychological problems faced by labor migrants.*

***Key words:** migration, external labor migration, unemployment, wages, Uzbek dreams, various ceremonies, qualified specialists, corruption.*

***Аннотация:** В статье анализируются сущность, основные направления, причины и последствия внешней трудовой миграции в Узбекистане. Рассматриваются также экономические, социальные и психологические проблемы, с которыми сталкиваются трудовые мигранты.*

***Ключевые слова:** миграция, внешняя трудовая миграция, безработица, заработная плата, узбекские мечты, различные церемонии, квалифицированные специалисты, коррупция.*

Kirish. Globallashgan zamonda turli sohalardagi xalqaro aloqalar tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa zamonaviy dunyoda turli mintaqalarga ish izlab borayotgan tashqi mehnat migratsiyasining katta oqimi vujudga keldi. Shu bois tashqi mehnat migratsiyasi masalasi dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylandi. Aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadigan va aholini ish bilan ta’minlash keskin ijtimoiy masala hisoblangan mamlakatimizda ko‘plab yurtdoshlarimiz o‘zga yurtlardan ish izlashga majbur bo‘lishmoqda. Bugungi kunda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, xorijdagi yurtdoshlarimizni huquqiy, ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bois O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining mohiyatini, asosiy yo‘nalishlarini, sabablarini va oqibatlarini ilmiy-falsafiy tadqiq qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). So‘nggi yarim asr mobaynida migratsiya, jumladan tashqi mehnat migratsiyasi masalasi dolzarb va murakkab jarayon sifatida aksar mutaxassislarning diqqatini o‘ziga tortdi.

Natijada xorijiy davlatlarda, O‘zbekistonda bir qator e’tiborga molik tadqiqotlar olib borildi va xulosalari asosida bir qancha maqolalar va monografiyalar chop etildi. Xususan, xorijda nashr qilingan S.Kasls, M.Miller, K.Kozer, M.Flaxo, M.K.Natterlarning tadqiqotlarida migratsiyaning global qiyofa kasb etgani, xalqaro migratsiyaning eng muhim va asosiy tendensiyalari o‘z ifodasini topdi[1,2]. V.A.Ionsev, D.K.SHelestov singari taqqiqchilar migratsiya tarixini bashariyat tarixi bilan o‘zaro uyg‘unlikda ochib berishga harakat qildilar[3,4]. O‘zbekistonda ham muammo ancha keng tadqiq qilingan. S.Alimov va D.Isroilovaning asarlarida migratsiya jarayoni mehnat bozorining tartibga solinishida, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jadallashuviga ta’sir ko‘rsatishda asosiy omil sifatida ko‘rib o‘tiladi[5,6]. J.Goyibovning maqolasida migratsiyaning huquqiy jihatlari yoritiladi[7:315-1321]. M.Nosirova esa migrantlar va ularning yangi ijtimoiy shart-sharoitlardagi moslashish bilan bog‘liq muammolari tadqiq qilinadi[8:71-76].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot davomida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Migratsiya, umuman mehnat migratsiyasi – kishilarning o‘zlariga maqbul va qulay mehnat faoliyatida band bo‘lish maqsadida bir joydan boshqa joyga ko‘chib yurish bilan bog‘liq umumjahon tendensiyadir. Shuning uchun, u barcha davlatlarda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham yuz bermoqda, buni esa e’tirof etmaslikning sira iloji yo‘q. Ayni haqiqatki, tarixiy taraqqiyot davomida oldingi davrlarda ham bu manzildan bu manzilga munosib ish ilinjida ko‘chib yurgan odamlar bo‘lgan. Biroq o‘tgan asr oxirlarida, ayniqsa yangi asrda bu jarayon anchagina salmoqli miqyosga o‘sa boshladi.O‘zbekistondagi bugungi mehnat migratsiyasi mohiyatan murakkab jarayon bo‘lib, u turli yo‘nalishlarda sodir bo‘lmoqda hamda har bir yo‘nalishning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan omillar mavjud. Statistik dalillar tahlili shunday xulosa beradiki, bir mamlakatda sodir bo‘layotgan mehnat migratsiyasiga oid asosiy yo‘nalish tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq ekanligidan dalolat bermoqda.

Mamlakatimizdan mehnat faoliyati bilan band bo‘lish maqsadida xorijiy davlatlarga vaqtinchalik yoki mavsumiy tarzda borib qaytayotgan insonlar miqdori ko‘pligicha saqlanib qolmoqda. O‘zbekistonlik migrantlar o‘n yillardan buyon mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun bir necha mamlakatga borib turadilar. Ular orasida Rossiya yetakchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining tashabbusi bilan ham Belarus, BAA, Bolgariya, Chexiya, Latviya, Polsha, Quvayt, Germaniya, Shveytsariya, Niderlandiya, Isroil, Yaponiya, Slovakiya, Saudiya Arabistoni, Litva, Bahrayn, Ukraina, Malayziya, Serbiya, Ozarbayjon, Xorvatiya, Finlyandiya, Ummon, Buyuk Britaniya, Kanada, Vengriya, Ruminiya kabi davlatlardagi ish taklif qiluvchilar bilan ishga band qilish to‘g‘risida shartnomalar maqbullashtirilgan hamda ushbu mamlakatlarga dastlabki migrantlar yuborilgan[11].

Yuqoridagi faktlardan xulosa chiqarish mumkinki, O‘zbekistondan mehnat migratsiyasi geografiyasi o‘ndan ortiq yangi mamlakatlar hisobiga asta-sekinlik bilan kengayib bormoqda. Tahlillarga qaraganda, O‘zbekistonning mamlakat tashqarisida bo‘lgan mehnat migrantlarining 76 foizini erkaklar va 24 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi. Bugungi kunda uning aksariyati qurilish – 51,6 foiz, qishloq xo‘jaligi – 12,3 foiz, sanoat – 9,2 foiz, savdo – 8,5 foiz kabi sohalarda mehnat qilmoqda[12]. Boshqa sohalarda ishlayotgan mehnat migrantlari nisbatan kamchilikdan iborat. Qurilish va qishloq xo‘jaligida mehnat qilayotgan migrantlar faoliyati mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, uning asosiy qismi bahor, yoz va erta kuzga to‘g‘ri keladi. Qishki mavsumda ushbu mehnat migrantlarning katta qismi O‘zbekistonga qaytadilar. Savdo va sanoat sohalaridagi o‘zbekistonlik migrantlar faoliyatini vaqtinchalik migratsiya sifatida tavsiflash mumkin: ular odatda bir necha yil qatorasiga o‘zlari belgilagan mablag‘ miqdorini to‘plagunlariga qadar mehnat qilishga intiladilar. Turli mamlakatlarga ish izlab borib, doimiy mehnat qilish uchun qolgan yoki o‘sha mamlakatning fuqaroligini olgan migrantlar soni mutlaq kamchilikni tashkil etadi. Tashqi mehnat migratsiyasi sabablari haqida gapirganda ko‘pchilik mutaxassislar avvalo ish o‘rinlarining yetishmasligini tilga oladilar. Bu fikrda jon bor, albatta. Biroq ishsizlik tashqi mehnat migratsiyasining yagona sababi emas. Bo‘sh ish o‘rinlar qolishining asosiy sababi esa oylik ish

haqlarining kamligi bilan bog‘liq. Binobarin, tashqi mehnat migratsiyasi masalasida asosiy sabablar nafaqat ish o‘rinlar yetishmasligi, yana bir muhim faktor oylik ish haqining pastligi bilan bog‘liq.

Oylik ish haqlarining kamligi ayrim o‘zbekona orzularni ro‘yobga chiqarishga xalal bermoqda. Masalan, o‘zbek yoshlarining mutlaq ko‘pchiligi o‘z avtomobiliga ega bo‘lishni orzu qiladilar. O‘rtacha oylik ish haqi olayotgan o‘zbek yoshlari oddiygina “Damas” avtomobilini xarid qilish uchun bir necha yil mehnat qilishlari, ayni paytda boshqa ehtiyojlari uchun xarajatlarni yig‘ishtirib qo‘yishlari kerak bo‘ladi. Shu sababli yoshlarning muayyan qismi avtomobil xarid qilish uchun mablag‘ to‘plash maqsadida xorijga yo‘l oladilar.

Tashqi mehnat migratsiyasiga jamiyatdagi turfa marosimlarning qimmatligi ham sabab bo‘lmoqda. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar fuqarolardan borgan sari ko‘proq mablag‘ xarajatini talab qilmoqda. “Aksariyat to‘yxona egalari ixcham va kamxarj o‘tkazish niyatida bo‘lgan fuqarolardan to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazishda belgilangan qoidalarga zid ravishda to‘y xarajatlarini ikki-uch baravar miqdorda asossiz undirib olmoqda. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda san’atkorlar haddan ziyod baland narxlarda xizmat ko‘rsatmoqda[1]”[15]. Bu xarajatlarning hammasini ham mamlakatdagi o‘rtacha maosh hisobidan qoplab bo‘lmaydi. Shu boisdan oila qurishni rejalashtirgan yoshlar, farzandini ro‘zg‘orli qilish niyatidagi fuqarolar, boshqa oilaviy marosimlarni o‘tkazishni ko‘zda tutgan kishilarning ma’lum qismi xorijda mehnat qilib, mablag‘ to‘plashga majbur bo‘ladilar. Uy-joy narxlarining balandligi, individual uylar qurish uchun zarur bo‘lgan qurilish materiallarining qimmatligi, ipoteka kreditlari foizining kattaligi ham ayrim jamiyat a’zolarini mehnat migratsiyasiga undamoqda. Mamlakatda bu va bunga o‘xshagan omillar saqlanib qolar ekan, xorijga mehnat migratsiyasi ko‘lami kattaligicha qolaveradi, uning geografiyasi yangi va yangi o‘lkalar hisobidan kengayib boraveradi. Tilga olingan omillar mehnat migratsiyasining uchinchi yo‘nalishi – respublikadan xorijga migratsiyaning asosiy sababi bo‘lmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasida yana bir yo‘nalish – malakali mutaxassislarning rivojlangan mamlakatlarga mehnat migratsiyasidir. Mamlakatda uzoq yillar davomida ilm-fan yetarli darajada moliyaviy jihatdan ta’minlanmay kelindi. “Hozirgi kunda, - deb ta’kidlanadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida”, ilm-fan va ilmiy faoliyatga yo‘naltirilayotgan mablag‘ mamlakat yalpi ichki mahsulotining atigi 0,2 foizini tashkil qiladi va ushbu ko‘rsatkich qator rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tomonidan ilm-fanga yo‘naltirilayotgan mablag‘larga nisbatan kamdir”[16]. Oqibatda mamlakatimiz ilmiy salohiyatini ko‘tarishga xizmat qilishi kerak bo‘lgan yoshlarimizning muayyan qismi xorijiy ilmiy markazlarda ilmiy iqtidorlarini yuzaga chiqarish imkoniyatini beradigan tashkilot va korxonalarda faoliyat yuritishni ma’qul ko‘rdilar. O‘zbekistonda biror bir mutasaddi tashkilot tomonidan mehnat faoliyatini xorijda davom ettirishga qaror qilgan malakali mutaxassislarning statistik hisobotlari yuritilmaydi. Shu boisdan ularning aniq raqamlarini aniqlash mushkul. Biroq, bunday mutaxassislar salmog‘i kam emasligi aniq.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistondagi bugungi mehnat migratsiyasi mohiyatan murakkab jarayon bo‘lib, uning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan turli omillar mavjud. Ayniqsa, mamlakatimizdan tashqi mehnat migratsiyasining yuqori darajada bo‘lishiga ishsizlik va maoshlarning kamligi, ilm-fanga yo‘naltirilgan mablag‘larning kamligi va turmush darajasining pastligi sabab bo‘lmoqda. Uning oqibatlari ham turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Bir tarafdan, xorijga tashqi mehnat migratsiyasi valyutalarning tushumi miqdorini oshirdi, mehnat bozorida yuz berishi mumkin bo‘lgan keskinlikni yumshatdi, xalqaro innovatsiya va tajribalarning respublikamizga kirib kelish imkonini berdi, aksar yurtdoshlarimizning iste’molchilik talab va ehtiyojlarini qondirdi, shuningdek, milliy madaniyatning boyishini

[1] https://lex.uz/uz/docs/7737590

ta’minladi. Malakali va tajribali mutaxassislarning rivojlangan davlatlarga migratsiyasi o‘z navbatida ularning ham salohiyat va kasbiy mahoratining rivojlanishiga poydevor yaratdi.

Mehnat migratsiyasi ayni paytda bir qator salbiy natijalarni ham yuzaga chiqarmoqda. Mamlakatdan chetga mehnat migratsiyasi oqibatlari ishchi kuchi resurslarining isrof bo‘lishiga olib keladi, ekstremistik to‘dalar ta’siriga tushib qolishi va odam savdosining qurboniga aylanishi xavfini oshiradi, oilaviy ta’lim-tarbiyada ham ba’zi muammolarni paydo qiladi. Malakali mutaxassislar rivojlangan davlatlarga migratsiya natijasida ketar ekan, yurtimizni texnologik tomondan taraqqiy topishini ortga suradi.

Kelajakda mehnat migratsiyasi samog‘ini optimallashtirishda dastavval mamlakatimizdagi hayot darajasini yuksaltiradigan choralarni kuchaytirish zarur. Bunda xalqning turmush darajasini yaxshilash, ish o‘rinlari sonini oshirish, oylik maoshlar miqdorini oshirish, mehnat sharoitini qulaylashtirish, ijtimoiy himoya tizimini adekvat tarzda isloh qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlarni mutlaqo yangi bosqichga chiqarish zarur bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Castles S., Haas H., Miller M. The Age of Migration. - London: Palgrave Macmillan, 2014.
2. Clemens A. Does Development Reduce Migration? - Washington, DC: Center for Global Development, 2014.
2. Ионцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. - М.: Диалог-МГУ, 1999.
3. Шелестов Д.К. Историческая демография. - М.: Высшая школа, 1987.
4. Алимов С. Миграцион жараёнлар ва глобал муаммолар: “Ўзбекистондаги илмий-амалий тадқиқотлар” мавзуидаги конф.мат. - Т.:ЎзМУ.
5. 2020; Исраилова Д.К. Меҳнат миграцияси – иқтисодий ўсишни таъминловчи омил сифатида. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 2021, - №6. –Б. 243-248.
6. Гойибов Ж. Миграция муносабатларини маъмурий-ҳуқуқий тартибга солиш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаси. // Academic research in educational sciences, 2021, - №4. –Б. 1315-1321.
7. Носирова М. Миграция муаммолари ва унинг социологик талқини. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023, - №1-2. –С. 71-76.
8. Хорижда бўлиб турган ўзбекистонлик мигрантлар сони қанча? // /aniq.uz, 2022, 14 декабрь.
9. Хориждаги ўзбекистонлик меҳнат мигрантлари сони маълум қилинди. // /bugun.uz, 2022, 5 июль.
10. Йиллик статистика. Агентлик ва хорижий иш берувчилар ўртасида тузилган шартномалар тўғрисида маълумот. // migration.uz/post/view/119.
11. Чет элда юрган ўзбекистонлик меҳнат мигрантлари сони қанчалиги айтилди. // xabar.uz, 2022, 8 август.
12. Меҳнат бозори. Меҳнат статистикаси. Ишсизлик даражаси тўғрисида маълумот. //stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2.
13. Зоҳидов А. Ўзбекистонда ишсизлик сабаблари: маош камми ёки яхши ходим? // cedr.uz, 2021, 13 ноябрь.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”. // lex.uz/docs/5073447#5074180.
15. Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining qarori, 18.09. 2025-yildagi VII-13-73-11-158-K/25-son. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida// https://lex.uz/uz/docs/7737590
16. Эралиев Ш. Хорижда истиқомат қилаётган юқори малакали ўзбекистонликларнинг юртга қайтиш муаммолари.// uzanalytics.com, 2019, 12 июнь.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 141.7

IJTIMOIY ISH VA SOTSIOLOGIYADA INSON XULQ-ATVORI TAHLILI

Ibragimova Dilsora Ismoilovna, Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

ANALYSIS OF HUMAN BEHAVIOR IN SOCIAL WORK AND SOCIOLOGY

Dilsora Ismoilovna Ibragimova, Lecturer at Karshi State University

АНАЛИЗ ПОВЕДЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ И СОЦИОЛОГИИ

Ибрагимова Дилсора Исмоиловна, преподаватель Каршинского государственного университета



https://orcid.org/0009-0009-4809-6228
e-mail: dilsoraibragimova47@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ijtimoiy ish va sotsiologiya doirasida inson xulq-atvorini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda inson xulqiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar o‘rganilgan. Tadqiqot davomida sifat va miqdoriy usullar qo‘llanilib, respondentlar fikrlari hamda statistik ma’lumotlar asosida xulq-atvorning shakllanish mexanizmlari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, inson xulqi ko‘p omilli tizim bo‘lib, u ijtimoiy muhit va shaxsiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *inson xulq-atvori, ijtimoiy muhit, sotsiologiya, ijtimoiy ish, tahlil, metodologiya.*

Abstract: *This study focuses on the analysis of human behavior within the fields of social work and sociology. It examines social, economic, and psychological factors influencing individual behavior. Both qualitative and quantitative methods were applied, and the findings are based on respondent data and statistical analysis. The results indicate that human behavior is a multi-factor system closely related to social environment and personal values.*

Keywords: *human behavior, social environment, sociology, social work, analysis, methodology.*

Аннотация: *Данное исследование посвящено анализу поведения человека в рамках социальной работы и социологии. Рассматриваются социальные, экономические и психологические факторы, влияющие на поведение личности. В исследовании использованы качественные и количественные методы, а также проведён анализ данных и мнений респондентов. Результаты показывают, что поведение человека является многокомпонентной системой, тесно связанной с социальной средой и личностными ценностями.*

Ключевые слова: *поведение человека, социальная среда, социология, социальная работа, анализ, методология.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat rivoji inson omilining tobora ortib borayotgan ahamiyati bilan xarakterlanadi. Har qanday ijtimoiy tizimning markazida inson turadi va uning xulq-atvori jamiyatdagi jarayonlarning yo‘nalishi hamda natijalarini belgilab beradi. Shu sababli inson xulq-atvorini ilmiy asosda o‘rganish ijtimoiy ish va sotsiologiya fanlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Inson xulq-atvori murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillar o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Har bir shaxsning xatti-harakatlari uning ichki ehtiyojlari, qadriyatlari, dunyoqarashi

va tashqi muhit ta’siri bilan belgilanadi. Ayniqsa, ijtimoiy muhit — oila, ta’lim tizimi, madaniyat va jamiyatdagi me’yorlar inson xulq-atvorini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Sotsiologiya fanida inson xulq-atvori jamiyat kontekstida, ya’ni ijtimoiy munosabatlar, guruhlar va institutlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Ijtimoiy ish esa inson xulq-atvorini amaliy jihatdan tahlil qilib, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijtimoiy moslashuvni ta’minlash va shaxs farovonligini oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Shu bois ushbu ikki yo‘nalish bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, inson xulq-atvorini chuqur tushunishda o‘zaro to‘ldiruvchi rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda globalizatsiya, urbanizatsiya va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi inson xulq-atvoriga yangi ta’sir omillarini kiritmoqda. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy ish va sotsiologiya oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda: inson xatti-harakatlarining o‘zgaruvchan shakllarini tahlil qilish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Inson xulq-atvorini o‘rganish masalasi turli fanlar doirasida keng tadqiq etilgan bo‘lib, ayniqsa sotsiologiya, psixologiya va ijtimoiy ish nazariyasida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, inson xulq-atvori ko‘p omilli va murakkab tizim sifatida turli nazariy yondashuvlar asosida izohlangan.

Avvalo, klassik sotsiologik yondashuvlarda inson xulq-atvori jamiyat tuzilmasi va ijtimoiy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Emile Durkheim o‘z asarlarida ijtimoiy tartib va me’yorlarning buzilishi natijasida yuzaga keladigan xulqiy og‘ishlarni (deviatsiyalarni) tahlil qilib, “anomiya” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan[1]. Uning fikricha, jamiyatda ijtimoiy me’yorlar zaiflashgan sharoitda inson xulq-atvori beqaror va nazoratsiz bo‘lib qoladi.

Robert Merton esa Durkheim g‘oyalarini rivojlantirib, deviant xulq-atvorni ijtimoiy struktura va imkoniyatlar o‘rtasidagi nomutanosiblik orqali tushuntiradi[2]. Uning nazariyasiga ko‘ra, jamiyat tomonidan qo‘yilgan maqsadlar va ularga erishish vositalari o‘rtasidagi ziddiyat insonni turli xulqiy strategiyalarni tanlashga undaydi. Zamonaviy sotsiologik adabiyotlarda esa inson xulq-atvori ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin etiladi. Berger va Luckmanning “Ijtimoiy reallikning konstruksiyasi” asarida inson xulq-atvori ijtimoiy jarayonlar natijasida shakllanishi asoslab berilgan[3]. Ular insonning kundalik hayotdagi faoliyati orqali ijtimoiy reallikni yaratishini ta’kidlaydilar. Psixologik adabiyotlarda inson xulq-atvori ko‘proq individual darajada o‘rganiladi. B.F.Skinnerning bihevioristik yondashuvi xulq-atvorni tashqi stimullar va mustahkamlash mexanizmlari orqali izohlaydi[4]. Bu yondashuv ijtimoiy ish amaliyotida xulqni boshqarish va o‘zgartirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Adabiyotlar tahlili va umumlashtirish, falsafiy va nazariy tahlil, sotsiologik va psixologik kuzatuv, statistik va monitoring usullari, qiyosiy tahlil.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mazkur tadqiqotda inson xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy usullar asosida o‘rganilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inson xulq-atvori ko‘p omilli tizim bo‘lib, u nafaqat individual xususiyatlarga, balki ijtimoiy muhitga ham bevosita bog‘liqdir.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning katta qismi o‘z xulq-atvorini jamiyatdagi me’yorlar, qadriyatlar va an’analar asosida shakllantirishini ta’kidlagan. Bu holat ijtimoiy nazorat va ijtimoiylashuv jarayonining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[5]. Ayniqsa, oila muhiti va yaqin ijtimoiy guruhlar inson xulqining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynashi aniqlandi. Respondentlarning fikricha, bolalik davrida olingan tarbiya keyingi hayotdagi qarorlar va xatti-harakatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Miqdoriy tahlil natijalari ijtimoiy omillar bilan xulq-atvor o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Masalan, ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan respondentlarda ijtimoiy mas’uliyat va ongli xulq ko‘rsatkichlari yuqoriroq ekanligi kuzatildi[6]. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik darajasi past bo‘lgan shaxslarda stress va deviant xulq-atvor ehtimoli yuqoriroq bo‘lishi aniqlangan. Bu esa

ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy sharoitlarning inson xulqiga bevosita ta’sirini tasdiqlaydi.

Sifat tahlili doirasida o‘tkazilgan intervyular insonlarning o‘z xulq-atvorini ko‘pincha boshqalar bilan taqqoslash orqali shakllantirishini ko‘rsatdi. Respondentlar o‘zlarini jamiyatdagi boshqa a’zolar bilan solishtirib, moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishlarini bildirdilar. Bu natija ijtimoiy o‘rganish nazariyasining asosiy g‘oyalarini tasdiqlaydi, ya’ni insonlar kuzatish va taqlid qilish orqali yangi xulq shakllarini egallaydi[7].

Kuzatuv natijalari esa ijtimoiy vaziyatga qarab xulq-atvor o‘zgarishini ko‘rsatdi. Masalan, rasmiy muhitda insonlar o‘zini tartibli va nazorat ostida tutsa, norasmiy muhitda erkinroq harakat qiladi. Bu holat ijtimoiy rollar va statuslarning xulq-atvorga ta’sirini ko‘rsatadi[8]. Shuningdek, ijtimoiy bosim mavjud bo‘lgan holatlarda individlar ko‘pincha jamiyat talablariga moslashishga intiladi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, inson xulq-atvori faqat tashqi omillar bilan emas, balki ichki motivatsiya va shaxsiy qadriyatlar bilan ham belgilanadi. Ba’zi respondentlar jamiyat me’yorlariga zid bo‘lsa-da, o‘z shaxsiy qarashlariga amal qilishlarini bildirgan. Bu esa individning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati mavjudligini ko‘rsatadi[9].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari inson xulq-atvori murakkab va ko‘p qatlamli jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Unda ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit, madaniy qadriyatlar va individual psixologik omillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu natijalar ijtimoiy ish sohasida samarali dasturlar ishlab chiqish, muammoli guruhlar bilan ishlash va profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Xulosa qilib shuni aytish mumkin, inson xulq-atvori murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanligi aniqlandi. Unda ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit, madaniy qadriyatlar hamda individual psixologik xususiyatlar o‘zaro bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, oila, ta’lim tizimi va ijtimoiy guruhlar inson xulqining shakllanishida muhim rol o‘ynashi kuzatildi. Shu bilan birga, shaxsiy qadriyatlar va ichki motivatsiya ham insonning qaror qabul qilishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy muammolar va ijtimoiy bosim ayrim hollarda salbiy yoki deviant xulq-atvorni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, inson xulq-atvorini o‘rganishda uni faqat individual darajada emas, balki keng ijtimoiy kontekstda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuni tahlil qilish jarayonida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

Ijtimoiy ish amaliyotida inson xulq-atvoriga kompleks yondashuvni qo‘llash zarur; Oilaviy tarbiya va ta’lim tizimini mustahkamlash orqali ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga e’tibor qaratish lozim; Ijtimoiy muammolarni (kambag‘allik, ishsizlik) kamaytirish orqali salbiy xulq-atvor omillarini bartaraf etish kerak; Yoshlar bilan ishlashda profilaktik dasturlarni kengaytirish maqsadga muvofiq; Kelgusida tadqiqotlarda sifat va miqdoriy usullarni birgalikda qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Durkheim E. *The Division of Labor in Society*. New York, 1893.
2. Merton R.K. *Social Theory and Social Structure*. New York, 1968.
3. Berger P., Luckmann T. *The Social Construction of Reality*. New York, 1966.
4. Skinner B.F. *Science and Human Behavior*. New York, 1953.
5. Giddens, A. *Sociology*. Cambridge: Polity Press, 2009.
6. Merton, R.K. *Social Theory and Social Structure*. New York: Free Press, 1968.
7. Weber, M. *The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism*. London, 1930.
8. Bandura, A. *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
9. Durkheim, E. *The Rules of Sociological Method*. New York: Free Press, 1982.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 101.1/177

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Inomov Avazbek Soyibjonovich, Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICA - TION TECHNOLOGIES IN IMPROVING SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN INTERNAL AFFAIRS BODIES

Inomov Avazbek Soyibjonovich, Researcher at Bukhara State University



e-mail: inomovavazbek03@gmail.com

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Иномов Авазбек Сойибжонович, исследователь Бухарского государственного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni tahlil qilinadi. Maqolada raqamli platformalar, multimedia vositalari, elektron ta'lim tizimlari, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari hamda sun'iy intellektga asoslangan analitik platformalarning xodimlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, kasbiy malakasi va xizmat intizomini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, monitoring qilish va rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ichki ishlar organlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, raqamli platformalar, elektron ta'lim, multimedia vositalari, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, sun'iy intellekt, analitik platformalar, xizmat intizomi.*

Abstract: *This article analyzes the role of information and communication technologies in improving spiritual and educational work in internal affairs bodies. The article highlights the importance of digital platforms, multimedia tools, electronic learning systems, automated information systems, and analytical platforms based on artificial intelligence in improving the spiritual and moral education, professional qualifications, and service discipline of employees. It also examines the possibilities of analyzing, monitoring, and developing the effectiveness of spiritual and educational activities through modern digital technologies.*

Keywords: *information and communication technologies, internal affairs bodies, spiritual and educational work, digital platforms, electronic education, multimedia tools, automated information systems, artificial intelligence, analytical platforms, service discipline.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль информационно-коммуникационных технологий в совершенствовании духовно-воспитательной работы в органах внутренних дел. В статье подчеркивается важность цифровых платформ, мультимедийных средств, электронных систем обучения, автоматизированных информационных систем и аналитических платформ на основе искусственного интеллекта в повышении уровня духовно-нравственного воспитания, профессиональной квалификации и служебной дисциплины сотрудников. Также рассматриваются*

возможности анализа, мониторинга и развития эффективности духовно-воспитательной деятельности с помощью современных цифровых технологий.

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, органы внутренних дел, духовно-воспитательная работа, цифровые платформы, электронное обучение, мультимедийные средства, автоматизированные информационные системы, искусственный интеллект, аналитические платформы, служебная дисциплина.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarda, xususan, davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida muhim o‘rin egallamoqda. Ichki ishlar organlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish, xodimlarning dunyoqarashi, huquqiy madaniyati va kasbiy etikasi darajasini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar nafaqat xodimlarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, balki ularning xizmat faoliyatida halollik, vatanparvarlik va mas’uliyat kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu jarayonni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rnini falsafiy tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida jamiyat hayotining barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ichki ishlar organlarida raqamli platformalar, multimedia materiallar va elektron ta’lim tizimlaridan foydalanish xodimlarning ma’naviy-axloqiy bilimlarini oshirishda muhim vosita hisoblanadi[1]. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni an’anaviy usullardan ko‘ra samaraliroq, interaktiv va keng qamrovli tarzda tashkil etishga imkon beradi.

Birinchidan, raqamli ta’lim platformalari orqali ichki ishlar organlari xodimlari ma’naviy-axloqiy, huquqiy va kasbiy bilimlarni masofadan turib o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Elektron kurslar, onlayn seminarlar va vebinarlar xodimlarning xizmat jarayonidan ajralmagan holda bilimini oshirishga yordam beradi. Masalan, elektron o‘quv platformasida “xizmat etikasi”, “korrupsiyaga qarshi kurash madaniyati”, “fuqarolar bilan muloqot madaniyati” kabi mavzular bo‘yicha onlayn darslar tashkil etilishi mumkin. Bunday tizimlar xodimlarning bilimini testlar va interaktiv topshiriqlar orqali baholash imkonini ham yaratadi.

Ikkinchidan, multimedia materiallar (videodarslar, animatsiyalar, audio materiallar, infografikalar) ma’naviy-ma’rifiy mavzularni tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazishga yordam beradi. Masalan, xizmat davomida fuqarolar bilan muomala qilish madaniyati yoki xizmat intizomiga oid qoidalar oddiy matn orqali emas, balki real hayotiy vaziyatlar asosida tayyorlangan videoroliklar orqali tushuntirilsa, xodimlar ularni tezroq anglaydi va amaliy faoliyatida qo‘llashi osonlashadi. Shuningdek, tarixiy shaxslar, milliy qadriyatlar yoki vatanparvarlik ruhiga oid videofilmlar ham xodimlarning ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, elektron kutubxonalar va axborot portallari orqali xodimlar istalgan vaqtda ma’naviy-ma’rifiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy maqolalardan foydalanishi mumkin. Masalan, ichki ishlar organlari uchun yaratilgan elektron kutubxonada xizmat etikasi, psixologiya, milliy qadriyatlar, yetakchilik va kommunikatsiya madaniyati bo‘yicha materiallar joylashtiriladi. Bu xodimlarning mustaqil o‘qib-o‘rganish faoliyatini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, onlayn muloqot va tajriba almashish tizimlari ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshiradi. Masalan, ichki ishlar organlari xodimlari uchun maxsus telegram kanallari, forumlar yoki ichki korporativ tarmoqlar orqali ma’naviy-ma’rifiy materiallar, motivatsion nutqlar, xizmat tajribasi va ilg‘or amaliyotlar muntazam ravishda ulashilishi mumkin. Bu esa xodimlar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish va jamoaviy ruhni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ichki ishlar organlarida avtomatlashtirilgan

axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va raqamli o‘quv platformalaridan foydalanish xodimlarning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda ularning ma’naviy mas’uliyatini ham oshiradi[2]. Bu jarayon bir necha muhim jihatlar orqali namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari xizmat faoliyatining shaffofligini ta’minlaydi. Har bir xizmat vazifasi, topshiriq yoki murojaat elektron tizimda qayd etilishi sababli xodimlarning harakati nazorat ostida bo‘ladi. Bu esa ularni mas’uliyat bilan ishlashga undaydi. *Ikkinchidan,* ma’lumotlar bazalaridan foydalanish xodimlarning qaror qabul qilish jarayonida adolat va qonuniylik tamoyillariga amal qilishini kuchaytiradi. Chunki elektron bazalarda saqlanayotgan ma’lumotlar aniq va tekshirilgan bo‘ladi. *Uchinchidan*, raqamli o‘quv platformalari xodimlarda kasbiy etikani shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday platformalarda xizmat madaniyati, inson huquqlari, korrupsiyaga qarshi kurash va professional etika bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etilishi mumkin. *To‘rtinchidan*, raqamli monitoring tizimlari xodimlarning xizmat faoliyatini tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu tizimlar yordamida xizmat samaradorligi, murojaatlarni ko‘rib chiqish tezligi, jamoat tartibini ta’minlashdagi natijalar kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi.

Sun’iy intellektga asoslangan axborot tizimlari va analitik platformalar ichki ishlar organlarida o‘tkazilayotgan ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, xodimlarning faoliyati va intizomini monitoring qilish imkonini beradi[3]. Bunday texnologiyalar ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini baholash, xodimlarning xizmat faoliyati va intizomini tizimli ravishda kuzatish hamda mavjud muammolarni aniqlashga yordam beradi.

Birinchidan, sun’iy intellekt asosidagi analitik tizimlar ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlarning natijadorligini tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli platformalar orqali o‘tkazilgan seminar, trening yoki ma’naviy tadbirlar bo‘yicha xodimlarning ishtiroki, fikr-mulohazalari va bilim darajasi maxsus algoritmlar yordamida tahlil qilinadi.

Ikkinchidan, analitik platformalar xodimlarning xizmat faoliyati va intizomini doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Raqamli tizimlar orqali xizmatga kelish-ketish, topshiriqlarni bajarish muddati, fuqarolar bilan ishlash samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar yig‘iladi. Sun’iy intellekt ushbu ma’lumotlarni tahlil qilib, intizomiy muammolar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni oldindan aniqlaydi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt yordamida ma’naviy-psixologik muhitni baholash ham mumkin. Ichki korporativ tarmoqlar, xizmat yozishmalari yoki anonim so‘rovnomalar orqali yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinib, jamoada mavjud muammolar, stress darajasi yoki motivatsiya ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

To‘rtinchidan, prognozlash imkoniyati sun’iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim jihati hisoblanadi. Analitik platformalar oldingi yillarda o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar natijalarini tahlil qilib, kelajakda qaysi usullar samaraliroq bo‘lishini prognoz qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Muxtasar qilib aytganda, ichki ishlar organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli platformalar, elektron ta’lim tizimlari va multimedia vositalari xodimlarning bilim darajasini oshirish, ularning ma’naviy dunyoqarashi va xizmat madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umarov Z. Jamoat xavfsizligida axborot texnologiyalarining o‘rni. (2024). *Uzbek Scholar Journal*, *35*, 15-16.
2. Bekmatov B. Ichki ishlar organlarining murojaatlar bilan ishlash faoliyatida axborot texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini oshirish istiqbollari. Vol. 1 No. 1 (2024): Dunyo ta’limi sifatini oshirishning ilg‘or usullari ilmiy jurnali.
3. Eshqobilov B. Zamonaviy texnologiyalar asosida jinoyatlarni oldini olish: O‘zbekistonda amaliy yondashuv. Vol. 8 no. 2 (2025): Ilm fan xabarnomasi.
4. Kholikov L. Features of international relations in the development of the new Uzbekistan. Development of pedagogical technologies in modern sciences 7 (10). 2023.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 378.147:796.011.3:159.95

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING INTELLEKTUAL FAOLLIGINI OSHIRISHDA NEYROPEDAGOGIK VA SOG'LOMLASHTIRISH MASHQLARINING UYG'UNLIGI

[1]*Djurabekov Elmurod Tuxtamurodovich, M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universitetining O'zbekiston Respublikasi Chirchiq shahridagi filiali dotsenti*

[2]*Ruzibayeva Munira Eshbayevna, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti*



https://orcid.org/0000-0002-1849-9554
e-mail: dzurabekovelmurod@gmail.com

THE INTEGRATION OF NEUROPEDAGOGICAL AND HEALTH-IMPROVING EXERCISES IN ENHANCING THE INTELLECTUAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

[1]*Dzhurabekov Elmurod Tukhtamurodovich, Associate Professor, Branch of the South Kazakhstan University named after M. Auezov in the city of Chirchik, Republic of Uzbekistan*

[2]*Ruzibayeva Munira Eshbayevna, Associate Professor, Tashkent University of Economics and Pedagogy*



https://orcid.org/0009-0001-1276-2489
e-mail: ruzibaevamunira764@gmail.com

ВЗАИМОСВЯЗЬ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В ПОВЫШЕНИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

[1]*Джурабеков Эльмурод Тухтамуродович, доцент филиала Южно Казахстанского университета имени М.Авезова в городе Чирчик, Республика Узбекистан*

[2]*Рузибаева Мунира Эшбаевна, доцент Ташкентского экономико-педагогического университета*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining intellektual salohiyatini yuksaltirishda neyropedagogik yondashuv va sog'lomlashtirish mashqlarining o'zaro uyg'unligi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *intellektual faollik, neyropedagogika, bilish jarayonlari, sog'lomlashtirish mashqlari, neyrofitnes, akademik o'zlashtirish, talabalar salomatligi, psixologik barqarorlik.*

Abstract: *This article analyzes the integration of the neuropedagogical approach and health-improving exercises in enhancing the intellectual potential of higher education students.*

Keywords: *intellectual activity, neuropedagogics, cognitive processes, health-improving exercises, neurofitness, academic achievement, student health, psychological stability.*

Аннотация: *В данной статье анализируется взаимосвязь нейропедагогического подхода и оздоровительных упражнений в повышении интеллектуального потенциала студентов высших учебных заведений. Основная цель исследования - разработка инновационных путей повышения эффективности обучения за счет активации познавательных (когнитивных) процессов студентов.*

Ключевые слова: *интеллектуальная активность, нейропедагогика, познавательные процессы, оздоровительные упражнения, нейрофитнес, академическая успеваемость, здоровье студентов, психологическая устойчивость.*

KIRISH (INTRODUCTION). Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning bilish (kognitiv) faoliyatini faollashtirish nafaqat pedagogik, balki muhim psixofiziologik vazifa hisoblanadi. Bugungi axborot jamiyatida talabalar katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qabul qilishi va qayta ishlashi talab etiladi, bu esa bosh miya faoliyatiga yuqori yuklama beradi[2;47].

Biroq, an’anaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ko‘pincha faqat mushak tizimini rivojlantirish bilan cheklanib, miyaning neyroplastiklik xususiyatlarini va intellektual ish qobiliyatini oshirishni e’tibordan chetda qoldiradi. Shu munosabat bilan, ta’lim jarayoniga neyropedagogik texnologiyalarni va maxsus sog‘lomlashtirish mashqlarini integratsiya qilish dolzarb masalaga aylandi. Neyropedagogikaning asosiy tamoyili — jismoniy harakatlar orqali miya yarim sharlari o‘rtasidagi yangi neyron zanjirlarini shakllantirish va shu orqali talabaning akademik o‘zlashtirishini yaxshilashdir [1;80]. Mazkur maqolada neyrofitnes va sog‘lomlashtiruvchi gimnastikaning talabalar intellektual faolligiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODIKASI (MATERIALS AND METHODS). Tadqiqot jarayoni M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universitetining Chirchiq shahridagi filiali hamda Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti (TIPU) talabalari ishtirokida 2024-2025-o‘quv yilining birinchi semestri davomida tashkil etildi. Tadqiqotning obyekti sifatida 18–20 yoshdagi 55 nafar birinchi bosqich talabalari tanlab olindi. Tajribaning ilmiy xolisligini ta’minlash maqsadida respondentlar ikkita guruhga ajratildi: nazorat guruhi (n=26) va eksperimental guruh (n=29).

Tadqiqotning bosqichlari va qo‘llanilgan metodlar:

1. Diagnostika bosqichi: Tajriba boshida talabalarning dastlabki intellektual faolligi va psixofiziologik holati maxsus testlar yordamida aniqlandi. Diqqat konsentratsiyasini baholash uchun **Shulte jadvallaridan,** operativ xotirani aniqlash uchun esa raqamlar va so‘zlarni qayta tiklash testlaridan foydalanildi [6;15].

2. Eksperimental ta’sir bosqichi: Eksperimental guruh talabalari uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga haftasiga ikki marta 20 daqiqalik neyropedagogik majmua kiritildi. Majmua quyidagi innovatsion elementlardan tashkil topdi:

3. Kineziologik mashqlar: Qo‘llar va oyoqlarning simmetrik hamda asimmetrik harakatlari (masalan, «quloq-burun», «gorizontal sakkizlik») orqali bosh miya yarim sharlararo integratsiyani kuchaytirish [1;82].

4. Neyrobika elementlari: Odatiy harakatlarni noodatiy usullarda bajarish orqali yangi neyron zanjirlarini shakllantirish.

5. Nafas gimnastikasi va relaksatsiya: Miyaning kislorod bilan to‘yinishini ta’minlovchi «diafragmal nafas» va mushak bloklarini yechuvchi «xolistik fitnes» usullari [3;354].

6. Tahliliy bosqich: Olingan ma’lumotlar matematik-statistika metodlari (Styudent *t*-kriteriysi) yordamida qayta ishlanib, natijalarning ishonchlilik darajasi ($p< 0,05$) tekshirildi. Tadqiqot davomida talabalarning harakat tezligi va koordinatsiyasini o‘lchash uchun Luriya sinovining modifikatsiyalangan variantlari qo‘llanildi, bu esa nafaqat jismoniy, balki markaziy asab tizimining funksional holatini ham baholash imkonini berdi [8; 61].

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION). Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, neyropedagogik va sog‘lomlashtirish mashqlarining uyg‘unligi eksperimental guruh talabalarining intellektual va jismoniy ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Nazorat va eksperimental guruhlar o‘rtasidagi farqni baholash uchun Styudent *t*-kriteriysi qo‘llanildi.

1-jadval. Tajribadan oldingi va keyingi kognitiv ko‘rsatkichlar qiyosiy tahlili (o‘rtacha qiymatlarda)

Ko‘rsatkichlar (Testlar)	Guruhlar	Tajriba boshida	Tajriba yakunida	O‘sish sur’ati (%)
Operativ xotira (so‘zlarni eslab qolish)	Nazorat	5,8 ± 0,4	6,2 ± 0,3	6,9%
	Eksperimental	5,7 ± 0,5	**8,2 ± 0,4**	**43,8%**
Diqqat konsen-tratsiyasi (Shulte jadvali, sek)	Nazorat	48,2 ± 2,1	45,1 ± 1,8	6,4%
	Eksperimental	49,1 ± 2,3	**34,5 ± 1,5**	**29,7%**

Dinamik praksis (Luriya testi, ball)	Nazorat	3,2 ± 0,2	3,6 ± 0,2	12,5%
Eksperimental	3,1 ± 0,3	**4,8 ± 0,2**	**54,8%**	

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, eksperimental guruhda **operativ xotira** ko‘rsatkichi 43,8% ga yaxshilangan. Bu neyrofitnes mashqlarining bosh miya gippokamp qismidagi neyron bog‘lanishlarni faollashtirishi bilan izohlanadi[1; 85]. Diqqat konsentratsiyasining 29,7% ga oshganligi esa talabalarning o‘quv mashg‘ulotlarida charchoq hissini kamroq sezishiga va ma’lumotlarni tezroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida aniqlandiki, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika (nafas mashqlari va stretching) nafaqat mushak tizimini, balki markaziy asab tizimining labilligini ham oshiradi. Bu esa A.I.Kuznetsovning talabalar sog‘lomlashtirish madaniyati haqidagi ilmiy qarashlarini to‘liq tasdiqlaydi **[**4;205].

Neyropedagogik yondashuv asosidagi mashqlar talabalarda ikkala yarim sharning sinxron ishlashini ta’minlab, mantiqiy va ijodiy fikrlashning uyg‘unlashuviga olib keladi. Bu jarayon R.M.Ruzibayeva ta’kidlaganidek, talabaning ruhiy-emotsional barqarorligini ta’minlashda muhim psixologik omil bo‘lib xizmat qiladi [6;16].

XULOSA (CONCLUSION). O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Neyrofitnes va sog‘lomlashtiruvchi gimnastikaning kompleks qo‘llanilishi talabalarning kognitiv funksiyalarini yaxshilashda an’anaviy metodlardan ko‘ra 1,5–2 baravar yuqori samadorlik beradi. Mazkur metodika talabalarda nafaqat jismoniy salomatlikni, balki intellektual ish qobiliyatining barqarorligini ham ta’minlaydi.

Jismoniy tarbiya dasturlariga neyrostimulyatsiya qiluvchi mashqlarni kiritish oliy ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gabidullina A.A., Goncharov O.A. Vliyaniye palchikovoy neyrogimnastiki na kognitivnoye funksionirovaniye. // Aktualnie problemi psixologicheskogo znaniya. – 2024. – № 3 (68). – S. 77–96 (p. 5).
2. Djurabekov E.T. Oliy ta’lim tizimida jismoniy tarbiyaning innovatsion metodlari. // Ilmiy xabarnoma. – Andijon, 2024. – № 2. – B. 45-50.
3. Kabisheva M.I., Voronin I.S., Davudov T.S. va boshq. Implentatsiya konsepsii xolisticheskogo fitnesa v sisteme fizicheskogo vospitaniya studentov. // Vestnik pedagogicheskix nauk. – 2025. – № 8. – S. 351–356 (p. 5).
4. Kuznetsov A.I. Tendensii razvitiya ozdorovitelnoy fizicheskoy kulturi studencheskoy molodeji v vuze. // Uchenie zapiski universiteta imeni P.F. Lesgafta. – 2025. – № 8 (246). – S. 201–208 (p.5).
5. Postol O.L., Orlov V.V., Korneyev P.A., Ashenova T.M. Ispolzovaniye ozdorovitelnix vidov gimnastiki v kompleksnom sochetanii s neyrofitnesom dlya uluchsheniya kognitivnix funksiy studentov vuzov. // Pedagogiko-psixologicheskiye i mediko-biologicheskiye problemi fizicheskoy kulturi i sporta. – 2025. – T. 20, № 4. – S. 192–197 (p. 1).
6. Ruzibayeva M.E. Talabalarning ruhiy barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy fanlarning o‘rni. // Pedagogika va psixologiya tadqiqotlari. – Toshkent, 2025. – № 1. – B. 12-18.
5. Fan J., Makeyeva V.S. Formirovaniye ritma i tempa dvigatelnix deystviy na osnove otsenki tochnosti oshusheniya i zapominaniya rasstoyaniy. // Pedagogiko-psixologicheskiye i mediko-biologicheskiye problemi fizicheskoy kulturi i sporta. – 2023. – T. 18, № 4. – S. 32–35 (p. 6).
6. Shadilova I.S., Postol O.L. Ispolzovaniye neyrostimuliruyushix uprajneniy na zanyatiyax fizicheskoy kulturoy v vuze. // Vestnik sportivnoy nauki. – 2023. – № 6. – S. 59–63 (p. 6).

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

МАТОНАТ ВА МЕҲР УЙҒУНЛИГИ: ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК АЁЛИНИНГ ҲАЁТИЙ ПОРТРЕТИ



Шоира НУРУЛЛАЕВА,
Урганч давлат университети доценти,
Республика Хотин-қизлар Маслаҳат кенгаши раиси, тарих фанлари номзоди



Ўзбек аёли азалдан ҳаётнинг энг нозик ва энг мустаҳкам устуни сифатида эътироф этилган. Унинг қалбидаги меҳр, кўнглидаги сабр ва елкасидаги масъулият уни нафақат оила, балки бутун жамият учун таянчга айлантирган. “Аёл бор жойда ҳаёт бор” деган ҳикмат халқимизнинг асрлар давомида шаклланган тажрибаси ва ҳаёт фалсафасини ўзида мужассам этган. Чунки аёл — ҳаётни бунёд этувчи, уни асраб-авайловчи ва авлоддан авлодга маънавий меросни етказувчи муқаддас зотдир.

Бугунги кунда аёллар жамиятнинг барча соҳаларида фаол иштирок этмоқда. Илм-фан, таълим, тиббиёт, иқтисодиёт, тадбиркорлик, сиёсат ва ҳатто ҳарбий соҳада ҳам улар ўз ўрнига эга бўлиб бормоқда. Бу эса аёлнинг имкониятлари чексиз эканлигини, унинг интилиши ва иродаси ҳар қандай тўсиқларни енгиб ўтишга қодирлигини яна бир бор исботлайди. Лекин қайси соҳада бўлмасин, ўзбек аёли ўзининг асл фазилатларини — ибо-ҳаё, нафосат, меҳрибонлик ва садоқатни ҳеч қачон йўқотмайди. Айниқса, ҳарбий соҳада хизмат қилаётган аёллар ҳақида алоҳида тўхталиб ўтиш жоиз. Чунки ҳарбий хизмат катта масъулият, кучли ирода ва мустаҳкам характер талаб этади. Бундай касбни танлаш учун инсонда жасорат, матонат ва ўзини қурбон қилишга тайёрлик каби фазилатлар бўлиши керак. Бир қарашда, бу талаблар аёл табиатига зиддек туюлиши мумкин. Аммо амалда аёллар бу вазифаларни эркаклардан кам бажармаётгани, аксинча, айрим ҳолларда улардан устун келаётгани ҳам сир эмас.

Ҳарбий либосдаги аёл — бу фақатгина хизматчи эмас, балки Ватан ҳимоячиси, халқ ишончининг эгаси ва жасорат рамзидир. Унинг елкасидаги погон унинг масъулиятини, юрагидаги ватанпарварлик туйғуси эса унинг ички кучини ифода этади. Бироқ шу билан бирга, у меҳрибон она, ғамхўр турмуш ўртоғи ва оиласи учун суянч бўлиб қолаверади. “Она — оиланинг қалби” деган нақл бежиз айтилмаган, чунки оиладаги муҳит, фарзанд тарбияси ва маънавий барқарорлик кўп жиҳатдан онага боғлиқ.

Ҳарбий хизматчи аёлнинг ҳаёти осон кечмайди. У бир вақтнинг ўзида икки катта масъулиятни — хизмат ва оила бурчини олиб



боради. Эрта тонгдан бошланадиган хизмат, машғулотлар, масъулиятли вазифалар, турли руҳий ва жисмоний синовлар унинг иродасини янада тоблайди. Аммо шунга қарамай, у уйига

қайтганда меҳрибон она, садоқатли ёр ва ғамхўр беканинг вазифасини ҳам сидқидилдан бажаради. Бу эса аёл табиатининг беқиёс кучини намоён этади.

Халқимизда “Сабр қилган етгай муродга” деган мақол бор. Аёллар ана шу сабрнинг тимсоли десак муболаға бўлмайди. Улар қийинчиликлардан қўрқмайди, аксинча, уларни енгиш орқали янада кучлироқ бўлиб чиқади. Айниқса, ҳарбий соҳада хизмат қилаётган аёллар ўзларининг матонати ва сабри билан бошқаларга ўрнак бўла олади. Шу билан бирга, аёллар табиатан ҳис-туйғуларга бой бўлгани учун уларнинг руҳий ҳолатига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Доимий масъулият, стресс ва юклама инсонни чарчатиши мумкин. Шу боис ҳарбий хизматчи аёллар учун руҳий барқарорликни таъминлаш, дам олишни тўғри ташкил этиш, соғлом турмуш тарзига амал қилиш жуда муҳимдир. Оилавий қўллаб-қувватлаш, яқинлар билан самимий мулоқот ҳам улар учун катта куч манбаи бўлиб хизмат қилади.

Аёл — тарбия манбаи. Унинг қўлида келажак авлод шаклланади. Меҳрибон ва оқила она тарбиялаган фарзандлар келажакда ватанпарвар, ҳалол ва масъулиятли инсонлар бўлиб етишади. Шу нуқтаи назардан қараганда, ҳарбий хизматчи аёл нафақат Ватанни ҳимоя қилади, балки келажак ҳимоячиларини ҳам тарбиялайди. Бу эса унинг жамиятдаги ўрнини янада юксак қилади.

Мамлакатимизда аёлларга бўлган эътибор йилдан йилга ортиб бормоқда. Гендер тенглиги, аёлларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, уларга кенг имкониятлар яратиш борасида катта ишлар амалга оширилмоқда. Бу эса аёлларнинг ўз салоҳиятини тўлиқ намоён этишига, жамият тараққиётига муносиб ҳисса қўшишига хизмат қилмоқда. Ҳарбий соҳада ҳам аёллар сони ортиб бормоқда. Улар турли лавозимларда фаолият юритиб, ўз билим ва қобилиятлари билан юқори натижаларга эришмоқда. Бу эса “аёллар учун бу касб мос эмас” деган эски қарашларнинг асоссиз эканлигини кўрсатади. Зеро билим, меҳнат ва интилиш бор жойда муваффақият албатта бўлади.

Аёл киши қайси соҳада бўлмасин, у ўзининг латофати ва нафосатини сақлаб қолади. Ҳарбий либосда ҳам у гўзал, нафис ва дилбар бўлиб кўринади. Погон унинг аёллигини камайтирмайди, аксинча, унинг жасоратига янада зеб беради. Бу эса аёл зотининг бетакрорлигини яна бир бор намоён этади. “Аёлни эъзозлаган миллат эъзоз топади” деган ҳикмат бор. Чунки аёл — жамиятнинг юраги, оиланинг таянчи ва келажакнинг кафолатидир. Унинг меҳри, сабри ва садоқати туфайли ҳаёт гўзал, уйлар файзли ва жамият барқарор бўлади.

Мухтасар айтганда, ўзбек аёли қайси касбни танламасин — у ҳар доим меҳрибон она, садоқатли турмуш ўртоғи, ватанпарвар фуқаро ва жамиятнинг фаол аъзоси бўлиб қолаверади. Ҳарбий хизматчи аёл эса ана шу фазилатларнинг энг ёрқин намунасидир. Унинг жасорати ва меҳрибонлиги, қатъияти ва латофати бир-бирига уйғун ҳолда намоён бўлиб, жамиятимиз тараққиётига хизмат қилади. Шундай экан, аёлни қадрлаш, уни ҳурмат қилиш ва қўллаб-қувватлаш ҳар бир инсоннинг бурчидир. Чунки аёл бахтли бўлган юртда тинчлик, фаровонлик ва барқарорлик ҳукм суради. Аёл бахтли бўлса — оила бахтли, оила бахтли бўлса — жамият бахтли бўлади.

Ўзбек аёли — бу фақат бир шахс эмас, балки бутун бир маънавий олам, ҳаёт фалсафаси ва жамият барқарорлигининг таянч устунидир. Ҳарбий аёл ҳақида гап кетганда, уни фақатгина бир касб эгаси сифатида баҳолаш етарли эмас. У — бир вақтнинг ўзида бир нечта ижтимоий, маънавий ва психологик ролларни мужассам этган мураккаб ва ноёб шахсдир. Шунинг учун ҳарбий аёл ҳақида сўз юритишда унинг фаолиятини кенгроқ — ижтимоий-психологик, маънавий ва маданий нуқтаи назардан таҳлил қилиш муҳим. Аввало, ҳарбий аёл — бу ватанпарварликнинг амалий ифодасидир. Ватанга муҳаббатни сўз билан эмас, амал билан исботлаш ҳар кимга ҳам насиб этавермайди. Ҳарбий хизмат эса айнан ана шу амалий садоқатни талаб қилади. Аёл киши бу йўлни танлар экан, у нафақат шахсий орзу ва мақсадларини, балки юрти тақдирини ҳам ўз тақдири билан боғлайди. Шу маънода, ҳарбий аёл — Ватанга бўлган муҳаббатнинг энг юксак кўринишларидан биридир. Иккинчидан, ҳарбий аёл — юқори даражадаги психологик барқарорликка эга шахсдир. Илмий тадқиқотларда қайд этилганидек, ҳарбий хизматчиларда стрессга чидамлилик, тезкор қарор қабул қилиш қобилияти ва эмоционал ўзини назорат қилиш муҳим аҳамият касб этади. Аёлларда табиатан эмпатия (бошқаларни ҳис қилиш қобилияти) кучли бўлгани учун улар жамоада соғлом психологик муҳитни

шакллантиришда катта роль ўйнайди. Шу жиҳатдан қараганда, ҳарбий жамоада аёлларнинг мавжудлиги ижобий ижтимоий-психологик таъсир кўрсатади. Учинчидан, ҳарбий аёл — интизом ва тартиб тимсоли. Ҳарбий хизмат қатъий қоидалар, аниқлик ва масъулият талаб қилади. Бу талаблар аёл шахсиятини янада шакллантиради, унинг ички тартибини, вақтни



бошқариш қобилиятини ва масъулият ҳиссини мустаҳкамлайди. Бу хусусиятлар эса нафақат хизматда, балки оилавий ҳаётда ҳам ижобий натижалар беради.

Шу билан бирга, ҳарбий аёллар жамиятдаги гендер стереотипларни бузувчи куч сифатида ҳам намоён бўлади. Илгари “бу иш аёлларга мос эмас” деган қарашлар устун бўлган бўлса, бугунги кунда аёллар ўз билим ва қобилиятлари билан бундай тасаввурларни рад этмоқда. Улар ҳарбий техника, стратегик режалаштириш, таҳлил ва бошқарув каби соҳаларда ҳам муваффақият қозонаётгани — ижтимоий тараққиётнинг муҳим кўрсаткичидир. Ҳарбий аёлнинг яна бир муҳим жиҳати — унинг коммуникатив қобилиятидир. Аёллар одатда мулоқотда самимийлик ва эҳтиёткорликни уйғунлаштира олади. Бу эса хизмат жараёнида ҳамкорликни кучайтиради, тушунмовчиликларни камайтиради ва жамоада ишонч муҳитини яратади. Айниқса, ҳарбий психология нуқтаи назаридан, жамоадаги ишонч ва ўзаро қўллаб-қувватлаш самарадорликни оширувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади. Бироқ ҳарбий аёлнинг ҳаётида муайян қийинчиликлар ҳам мавжуд. Улар орасида энг асосийси — роллар зиддияти (role conflict) ҳисобланади. Яъни аёл бир вақтнинг ўзида ҳам ҳарбий хизматчи, ҳам она, ҳам турмуш ўртоғи сифатида ўз вазифаларини бажариши керак бўлади. Бу эса катта руҳий ва жисмоний куч талаб қилади. Илмий адабиётларда бундай ҳолат “кўп ролли юклама” деб аталади ва у инсондан юқори даражадаги вақт бошқаруви ва психологик мослашувни талаб этади.

Шу сабабли ҳарбий аёллар учун қўллаб-қувватловчи муҳит — оила, жамоа ва давлат сиёсати жуда муҳим. Мамлакатимизда аёлларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва имкониятларини кенгайтириш борасида амалга оширилаётган ишлар ана шу эҳтиёждан келиб чиқади. Бадиий нуқтаи назардан қараганда эса, ҳарбий аёл — бу қарама-қаршиликлар уйғунлигидир. Унинг қўлида қурол бўлиши мумкин, лекин юраги меҳрга тўла. У қатъий қарорлар қабул қилади, лекин кўзларида онага хос меҳр порлайди. У қаттиқ интизомда яшайди, аммо қалбида нафосат ва латофат сақланади. Бу уйғунлик аёл табиатининг энг гўзал жиҳатларидан биридир.

Халқимизда “Аёлнинг қўли бешикни тебратса, дунёни ҳам тебратади” деган нақл бор. Бу фикр ҳарбий аёлларга нисбатан янада теран маъно касб этади. Чунки улар нафақат фарзанд тарбиялайди, балки Ватан тинчлиги ва хавфсизлигини таъминлашга ҳам ҳисса қўшади.

Яна бир жиҳатга эътибор қаратиш жоиз: ҳарбий аёллар келажак авлод учун *rol model* (ibrat namunasi) вазифасини бажаради. Ёш қизлар уларга қараб, ўз имкониятларига ишона бошлайди, катта мақсадлар қўяди ва уларга интилади. Бу эса жамиятда ижобий ўзгаришларга олиб келади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳарбий аёл — бу фақатгина касб эмас, балки ҳаёт тарзи, масъулият ва фидойилик тимсолидир. Унинг шахсида меҳр ва жасорат, латофат ва қатъият, садоқат ва ватанпарварлик уйғунлашган. Ана шу уйғунлик эса уни жамиятда алоҳида ўринга эга бўлган ноёб шахсга айлантиради.

Шундай аёллардан бири — Наманган вилоятининг Тўрақўрғон туманидаги оддий қишлоқ муҳитида вояга етган Шоирахон образи мисолида замонавий ўзбек аёлининг ҳаётий йўли ва маънавий қиёфасини яққол кўриш мумкин. Унинг болалиги оддий, аммо мазмунли ўтган. Болаликданоқ унинг зеҳни ўткир, табиатан қизиқувчан эди. У олам ҳақида саволлар беришдан чарчамас, ҳар бир нарсанинг моҳиятини англашга интиларди. Бу эса унинг келгусида шаклланадиган шахсияти учун мустаҳкам замин яратди. Психология илми

нуқтаи назаридан қаралганда, инсон шахсиятининг шаклланишида болалик даври ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Айнан шу босқичда боланинг дунёқараши, фикрлаш услуби ва ижтимоий фаоллиги шаклланади. Шоирахон мисолида ҳам бу жараён табиий ва уйғун кечганини кўриш мумкин. Унинг саволга бой, изланувчан табиати кейинчалик уни илм йўлига етаклади. Мактаб йилларидаёқ у ўз тенгдошлари орасида фаоллиги ва тиришқоқлиги билан ажралиб турарди. Устозлар унинг билимга чанқоқлигини қўллаб-қувватлар, бу эса қизалоқда ўз кучига бўлган ишончни янада оширарди. “Билим — инсонни юксалтирувчи куч” деган ҳақиқат унинг ҳаётида эрта намоён бўлди.

Ёшлик орзулари уни пойтахтга етаклади. У олий таълим муассасасида таҳсил олиб, немис филологияси йўналишини танлади. Бу танлов ҳам тасодифий эмас эди — тил ўрганиш орқали у дунёқарашини кенгайтириш, турли маданиятлар билан танишиш имконига эга бўлди. Университетдаги фаоллиги, интилиши ва меҳнатсеварлиги уни устозлар назарига туширди. Натижада у ўқишни тамомлагач, шу даргоҳда фаолият юритиш имконига эга бўлди. Бироқ ҳаёт доимо бир текис йўлдан иборат эмас. Оила қуриш, фарзанд тарбияси каби масъулиятлар ҳам унинг зиммасига тушди. Шу ўринда ўзбек аёлининг яна бир муҳим фазилати — кўп вазифалилик (multirole) намоён бўлади. Илмий манбаларда таъкидланганидек, аёллар бир вақтнинг ўзида бир нечта ижтимоий ролларни самарали бажара олиш қобилиятига эга. Шоирахон ҳам айнан шу хусусияти билан ажралиб туради: у ҳам олима, ҳам ўқитувчи, ҳам она, ҳам садоқатли турмуш ўртоғи сифатида ўз ўрнини топа олди.

Унинг ҳаётидаги бурилиш нуқтаси ҳарбий соҳани танлагани билан боғлиқ. Бу қарор оддий танлов эмас, балки жасорат ва ички ишонч натижаси эди. Ҳарбий хизмат — юқори интизом, қатъият ва руҳий барқарорлик талаб этадиган соҳадир. Шоирахон эса бу талабларга жавоб бера олди ва бу йўлда ўзини намоён этди.Ҳарбий психология нуқтаи назаридан, ҳарбий хизматчи шахсда стрессга чидамлилик, тезкор қарор қабул қилиш ва эмоционал барқарорлик каби сифатлар муҳим аҳамият касб этади. Шоирахон ана шу сифатларни ўз меҳнати ва изланиши орқали шакллантирди. У нафақат хизмат қилди, балки ўз билимларини янада чуқурлаштириб, ҳарбий психолог сифатида ҳам етук мутахассисга айланди. Илмга бўлган муҳаббати уни яна изланишга ундади. У аспирантурага кириб, илмий фаолиятни давом эттирди ва ниҳоят психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасига эришди. Бу эса унинг матонати ва мақсадга интилувчанлигининг ёрқин намунасидир. “Интилганга толе ёр” деган нақл унинг ҳаётида ўз тасдиғини топди. Бугун у олий ҳарбий таълим муассасасида курсантларга сабоқ бериб, келажак офицерларини тарбиялашга ҳисса қўшмоқда. Унинг таълим-тарбияга бўлган ёндашуви илмий ва амалий тажриба уйғунлигига асосланган. У курсантларга нафақат назарий билим, балки ҳаётий тажриба, психологик барқарорлик ва ватанпарварлик руҳини ҳам сингдиради.

Шоирахоннинг ҳаётидаги энг муҳим жиҳатлардан бири — унинг она сифатидаги роли. У фарзандига нафақат меҳр, балки намуна ҳам бера олди. Онасидаги жасорат ва интизом фарзандида ҳам ҳарбий касбга қизиқиш уйғотди. Бу эса тарбиянинг энг самарали усули — шахсий намуна эканлигини яна бир бор исботлайди.Аёл шахсидаги энг катта куч — унинг уйғунлигидадир. У қанчалик қатъий бўлмасин, барибир меҳрибон, қанчалик масъулиятли бўлмасин, барибир латофатли. Шоирахон ҳам ана шу уйғунликни сақлаб қолган ҳолда ҳаётда ўз ўрнини топа олди.

Хулоса қилиб айтганда, замонавий ўзбек аёли — бу кўп қиррали, билимли, жасур ва айни пайтда меҳрибон шахсдир. У қайси соҳада фаолият юритмасин, ўзининг асл фазилатларини сақлаб қолади. Ҳарбий хизматчи аёл эса ана шу фазилатларнинг энг юксак ифодасидир.

Шоирахон образи орқали биз бир ҳақиқатни англаймиз: аёл киши фақатгина оила эмас, балки жамият ва Ватан тақдирида ҳам муҳим ўрин тутади. Унинг меҳри ҳаётни гўзал қилади, жасорати эса уни ҳимоя қилади. Шундай экан, аёлни қадрлаш — бу келажакни қадрлаш демакдир.

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 141.7:316.42:004

RAQAMLI YOSHLAR VA QADRIYATLAR TRANS-FORMATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Xajiyeva Maksuda Sultanovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Falsafa" kafedrasi mudiri, Falsafa fanlari doktori, professor



https://orcid.org/0000-0002-9883-8084
maqsuda19710824@gmail.com

DIGITAL YOUTH AND THE TRANSFORMATION OF VALUES: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Khajiyeva Maksuda Sultanovna, Doctor of Philosophical Sciences, Professor, Head of the Department of Philosophy, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

ЦИФРОВАЯ МОЛОДЁЖЬ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ЦЕННОСТЕЙ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Хаджиева Максуда Султановна, доктор философских наук, профессор, заведующая кафедрой философии Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar ta'sirida shakllanayotgan yosh avlodning qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Raqamli muhit yoshlar ongiga, ijtimoiylashuv jarayoniga, identiklik shakllanishiga va kommunikativ xulqiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani ochib beriladi. Muallif raqamli yoshlar qadriyatlari transformatsiyasini murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida baholab, uni zamonaviy jamiyat taraqqiyotini anglashdagi muhim omil sifatida talqin etadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli yoshlar, qadriyatlar transformatsiyasi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, identiklik, globalizatsiya, raqamli jamiyat, ijtimoiy tarmoqlar, media savodxonlik, algoritmik ta'sir, zamonaviylik, individualizm, ijtimoiy faollik.*

Abstract: *This article analyzes the changes in the value system of the younger generation shaped under the influence of digital technologies from a socio-philosophical perspective. It reveals the significant impact of the digital environment on youth consciousness, socialization processes, identity formation, and communicative behavior. The author considers the transformation of digital youth values as a complex and contradictory process and interprets it as an important factor in understanding the development of modern society.*

Keywords: *digital youth, value transformation, socio-philosophical analysis, identity, globalization, digital society, social networks, media literacy, algorithmic influence, modernity, individualism, social activity.*

Аннотация: *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются изменения в системе ценностей молодого поколения, формирующегося под влиянием цифровых технологий. Раскрывается значительное воздействие цифровой среды на сознание молодежи, процессы социализации, формирование идентичности и коммуникативное поведение. Автор*

рассматривает трансформацию ценностей цифровой молодежи как сложный и противоречивый процесс и интерпретирует его как важный фактор понимания развития современного общества.

Ключевые слова: *цифровая молодежь, трансформация ценностей, социально-философский анализ, идентичность, глобализация, цифровое общество, социальные сети, медиаграмотность, алгоритмическое воздействие, современность, индивидуализм, социальная активность.*

Kirish. XXI asr boshidan boshlab jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveriga aylangan raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni, balki inson ongini, ijtimoiy munosabatlarni va qadriyatlar tizimini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, “raqamli yoshlar” -ya’ni internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil texnologiyalar muhitida shakllangan avlod - qadriyatlar transformatsiyasining markaziy subyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning dunyoqarashi, kommunikativ xulqi, ijtimoiy mas’uliyat hissi va identikligi an’anaviy avlodnikidan sezilarli farq qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Raqamli yoshlarning asosiy xususiyatlaridan biri - tezkorlik va ko‘pkanallilikdir. Axborot oqimining yuqori tezligi ularning tafakkurini fragmentar va dinamik shaklda rivojlantiradi. M. Castells raqamli jamiyatni “tarmoqlangan tuzilma” sifatida tavsiflab, yangi avlod ijtimoiy ongining ham aynan shu tarmoqlanish asosida shakllanishini qayd etadi[1]. Bu jarayon yoshlarning qadriyatlar tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi: barqarorlik o‘rniga moslashuvchanlik, ierarxiya o‘rniga gorizontal aloqalar, kollektivlik o‘rniga individual ifoda ustuvorlik kasb etadi.

Shu bilan birga, raqamli makon yoshlar identikligining ko‘pqatlamli shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan “profil shaxsiyati” ko‘pincha real hayotdagi shaxs bilan to‘liq mos kelmaydi. Bu esa identiklikning fragmentatsiyasiga olib keladi. A.Giddens zamonaviylik sharoitida shaxs o‘zini doimiy ravishda “qayta loyihalashi” zarurligini ta’kidlagan[2]. Raqamli muhitda bu jarayon yanada tezlashadi: yoshlar o‘z imidjini, qarashlarini va ijtimoiy pozitsiyasini tez-tez o‘zgartirishi mumkin. Natijada qadriyatlar tizimi ham qat’iy va barqaror emas, balki o‘zgaruvchan va situativ xarakter kasb etadi.

Raqamli yoshlar qadriyatlarining yana bir muhim jihati - global ochiqlikdir. Internet madaniy chegaralarni nisbatan yo‘qotib, yoshlarni transmilliy axborot makoniga olib chiqdi. Ular bir vaqtning o‘zida milliy va global identiklikni his qilishi mumkin. Z.Bauman “suyuq zamonaviylik” tushunchasi orqali zamonaviy jamiyatda barqaror qadriyatlar o‘rnini o‘zgaruvchan va noaniq mezonlar egallayotganini ta’kidlaydi[3]. Raqamli yoshlar aynan shu “suyuq” qadriyatlar muhitida shakllanadi. Bu esa bir tomondan moslashuvchanlikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan ma’naviy barqarorlikni zaiflashtirishi mumkin. Biroq raqamli muhitni faqat salbiy transformatsiya sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Yoshlar orasida ijtimoiy faollikning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda: onlayn petisiyalar, ijtimoiy kampaniyalar, ekologik harakatlar va ko‘ngillilik tashabbuslari shular jumlasidandir. U.Beck xavf jamiyati sharoitida yoshlar global muammolarga nisbatan sezgirlik ko‘rsatishini qayd etadi[4]. Raqamli platformalar esa bu faollikni tezkor va ommaviy shaklga keltiradi. Demak, raqamli yoshlar qadriyatlarida mas’uliyat va faollikning yangi shakllari ham rivojlanmoqda.

Tahlil va natijalar. Shu bilan birga, algoritmik tavsiyalar tizimi yoshlarning dunyoqarashiga yashirin ta’sir ko‘rsatadi. Axborot “pufakchalari” ularni ma’lum qarashlar doirasida ushlab qolishi mumkin. Bu esa tanqidiy tafakkur rivojiga to‘sqinlik qilishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Raqamli yoshlarning qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida media savodxonlik va reflektiv ongni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanadi.

Raqamli yoshlar qadriyatlari transformatsiyasi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: bir tomondan, global ochiqlik, innovatsion tafakkur va ijtimoiy faollik kuchaymoqda; ikkinchi tomondan, identiklik fragmentatsiyasi va qadriy barqarorlikning susayishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining istiqbolini anglash uchun muhimdir.

Raqamli yoshlar qadriyatlar transformatsiyasini chuqurroq tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon oddiy “yangilanish” emas, balki ijtimoiy ongning strukturaviy o‘zgarishidir. Axborotning doimiy oqimi yoshlarning idrok mexanizmini tezkor va ko‘p vazifali shaklga

o‘tkazmoqda. Ular bir vaqtning o‘zida bir nechta platformada muloqot qilishi, turli manbalardan axborot qabul qilishi va uni qayta ishlashi mumkin. Bu esa tafakkurning chiziqli emas, balki tarmoqlangan xarakterga ega bo‘lishiga olib keladi. Bunday kognitiv o‘zgarish qadriyatlarni idrok etish uslubiga ham ta’sir ko‘rsatadi: qat’iy ierarxiyalangan qadriyatlar o‘rnini moslashuvchan, kontekstga bog‘liq mezonlar egallaydi.

Raqamli makon yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Avval ijtimoiylashuv asosan oila, maktab va mahalla kabi an’anaviy institutlar orqali amalga oshgan bo‘lsa, bugungi kunda virtual hamjamiyatlar ham muhim rol o‘ynamoqda. Onlayn guruhlar, forumlar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning qarashlarini shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan. Natijada qadriyatlar ko‘proq gorizontal aloqalar orqali uzatilmoqda. Bu esa avlodlar o‘rtasidagi qadriy tafovutni kuchaytiradi, chunki yoshlar ko‘pincha tengdoshlari ta’sirini ustuvor deb biladilar. Raqamli yoshlarning qadriyatlarida shaxsiy erkinlik va o‘zini ifoda etish muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy tarmoqlar ularning fikr bildirish, ijod qilish va o‘z identikligini namoyon etish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, bu erkinlik mas’uliyat masalasini ham o‘rtaga qo‘yadi. Virtual muhitda anonimlik va tezkorlik ba’zan axloqiy me’yorlarning susayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Biroq ayni paytda ko‘plab yoshlar raqamli platformalarni ijtimoiy adolat, ekologiya yoki inson huquqlari masalalarida faol ishtirok etish vositasi sifatida qo‘llamoqdalar. Demak, qadriyatlar transformatsiyasi biryoqlama emas, balki murakkab va ziddiyatli jarayondir.

Yoshlar ongidagi global ochiqlik tendensiyasi milliy identiklik masalasini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli makonda milliy va global qadriyatlar o‘zaro to‘qnashishi yoki uyg‘unlashishi mumkin. Bu jarayon yoshlarning dunyoqarashida sintez elementlarini kuchaytiradi: ular bir vaqtning o‘zida milliy madaniyatga sodiq bo‘lishi va global madaniy oqimlarga ham ochiq turishi mumkin. Shu jihatdan qaralganda, raqamli yoshlar qadriyatlari ko‘pqatlamli va dinamik xarakter kasb etadi.

Algoritmik tavsiyalar tizimi esa yoshlar qadriyatlariga yashirin ta’sir ko‘rsatadi. Platformalar foydalanuvchi qiziqishiga mos kontentni taklif etish orqali ularning axborot doirasini toraytirishi yoki kengaytirishi mumkin. Bu esa tanqidiy tafakkur va mustaqil fikr shakllanishiga ta’sir etadi. Shuning uchun media savodxonlik va raqamli madaniyatni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli yoshlarning qadriyatlar transformatsiyasini sog‘lom yo‘nalishga olib borish uchun ta’lim tizimi reflektiv va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashi zarur. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat qadriyati ham o‘zgarib bormoqda. Masofaviy ish, frilans va startap madaniyati yoshlar orasida ommalashmoqda. Ular uchun moslashuvchanlik, ijodkorlik va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari muhim qadriy mezonga aylanmoqda. An’anaviy barqaror ish tushunchasi o‘rnini o‘zini rivojlantirish va o‘z brendini yaratish qadriyati egallamoqda. Bu esa iqtisodiy ong va shaxsiy muvaffaqiyat tushunchasining yangicha talqiniga olib keladi.

Raqamli yoshlar qadriyatlar transformatsiyasini yanada chuqurroq tahlil qilganda, ushbu jarayonni faqat texnologik o‘zgarishlar natijasi sifatida emas, balki ijtimoiy ongning paradigmal siljishi sifatida baholash zarur bo‘ladi. Raqamli muhit yoshlarning vaqtni idrok etish shaklini ham o‘zgartirmoqda. Tezkor axborot almashinuvi va doimiy yangilanish oqimi “hozir va shu yerda” tamoyilini kuchaytiradi. Natijada uzoq muddatli rejalashtirishdan ko‘ra qisqa muddatli muvaffaqiyat va tezkor natija qadriyat sifatida ustuvorlik kasb etadi. M. Castells tarmoqlangan jamiyat sharoitida vaqt va makonning yangi ijtimoiy konfiguratsiyasi shakllanishini ta’kidlaydi[5]. Bu holat yoshlar ongida ham aks etib, barqarorlikdan ko‘ra harakatchanlik va moslashuvchanlik qadriyat sifatida qaralishiga olib keladi.

Bundan tashqari, raqamli yoshlar ijtimoiy kapitalni ham boshqacha talqin qiladilar. Ular uchun “aloqa tarmog‘i” (network) shaxsiy muvaffaqiyat va ijtimoiy tan olinuvning muhim omiliga aylanmoqda. A.Giddens zamonaviylik sharoitida shaxs o‘z biografiyasini ongli ravishda “qurishi” zarurligini qayd etgan[6]. Raqamli yoshlar esa bu jarayonni ijtimoiy tarmoqlar orqali tezlashtiradi: ular o‘z imidjini, qiziqishlarini va ijtimoiy pozitsiyasini doimiy ravishda qayta taqdim etib boradi. Shu tariqa identiklik jarayoni doimiy o‘zgarishda bo‘lgan konstruktga aylanadi.

Raqamli yoshlar orasida ekologik va ijtimoiy adolat masalalariga sezgirlikning ortishi ham kuzatiladi. Global axborot oqimi orqali ular dunyoning turli hududlaridagi ijtimoiy muammolardan tezkor xabardor bo‘ladi. U.Beck xavf jamiyati konsepsiyasida zamonaviy jamiyat global xavflar sharoitida yashayotganini va yoshlar bu xavflarga nisbatan yuqori sezgirlik namoyon etishini ta’kidlaydi[7]. Raqamli platformalar esa bu sezgirlikni jamoaviy faollikka aylantirish imkonini beradi. Shu bois raqamli yoshlar qadriyatlar transformatsiyasida mas’uliyat va solidarizm elementlari ham mavjud.

Shu bilan birga, Z.Bauman “suyuq zamonaviylik” nazariyasida qadriyatlar barqaror tizimdan ko‘ra o‘zgaruvchan va vaqtinchalik xarakter kasb etayotganini ko‘rsatadi.[8] Raqamli yoshlar aynan shu sharoitda shakllanadi: ular uchun doimiylikdan ko‘ra o‘zgarish tabiiy holat hisoblanadi. Bu esa an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy tendensiyalar o‘rtasida muayyan ziddiyatni yuzaga keltiradi. Biroq ayni paytda bu jarayon yangi ijodiy sintez imkoniyatini ham ochadi.

Xulosa. raqamli yoshlar qadriyatlar transformatsiyasi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u global ochiqlik, identiklikning ko‘pqatlamliligi, ijtimoiy faollik va moslashuvchanlik kabi ijobiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, fragmentatsiya, algoritmik ta’sir va barqarorlikning susayishi kabi muammoli tendensiyalar ham mavjud. Mazkur jarayonni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish orqali raqamli avlodning dunyoqarashi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni chuqurroq anglash mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell, 1996. – pp. 469–475.
2. Giddens A. *Modernity and Self-Identity*. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – pp. 32–38.
3. Bauman *Z. Liquid Modernity*. – Cambridge: Polity Press, 2000. – pp. 8–15.
4. Beck U. *Risk Society: Towards a New Modernity*. – London: Sage Publications, 1992. – pp. 75–82.
5. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – *Oxford: Blackwell*, 1996. – pp. 407–412.
6. Giddens A. *Modernity and Self-Identity*. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – pp. 75–81.
7. Beck U. *Risk Society: Towards a New Modernity*. – London: Sage Publications, 1992. – pp. 22–29.
8. Bauman Z. *Liquid Modernity*. – Cambridge: Polity Press, 2000. – pp. 3–9

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 17:37:004.9

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA ETIKA FANINI O'QITISHNING INTERAKTIV METODLAR TIZIMI

Doschanova Umida Eshchanovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent



https://orcid.org/0000-0002-0967-8753
g-mail: umida19790524@gmail.com

INTERACTIVE METHODS SYSTEM FOR TEACHING ETHICS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Doschanova Umida Eshchanovna, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

СИСТЕМА ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРЕПОДАВАНИЯ ЭТИКИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Досчанова Умида Эшчановна, кандидат философских наук, доцент, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida etika fanini o'qitishning interaktiv metodlar tizimi ijtimoiy-falsafiy va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Raqamli muhitning o'ziga xos xususiyatlari hamda uning yoshlar axloqiy ongiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, interaktiv metodlar (onlayn dilemmalar, debat, keys-stadi, virtual simulyatsiya va refleksiya) orqali talabalarda axloqiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va mas'uliyatni shakllantirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida etika fanini raqamli muhitda o'qitishda interaktiv yondashuv samarali pedagogik model sifatida tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, etika fani, interaktiv metodlar, axloqiy tafakkur, keys-stadi, debat, virtual simulyatsiya, refleksiya, media savodxonlik, axborot etikasi, pedagogik model.*

Abstract: *This article analyzes the system of interactive methods for teaching ethics in a digital educational environment from socio-philosophical and pedagogical perspectives. The specific features of the digital environment and its impact on the moral consciousness of young people are highlighted. The study also substantiates the possibilities of developing moral thinking, critical thinking, and responsibility in students through interactive methods (online dilemmas, debates, case studies, virtual simulations, and reflection). As a result of the research, an interactive approach is recommended as an effective pedagogical model for teaching ethics in a digital environment.*

Keywords: *digital educational environment, ethics, interactive methods, moral thinking, case study, debate, virtual simulation, reflection, media literacy, information ethics, pedagogical model.*

Аннотация: *В данной статье система интерактивных методов преподавания этики в цифровой образовательной среде анализируется с социально-философской и педагогической точек зрения. Освещаются особенности цифровой среды и её влияние на нравственное сознание*

молодежи. Также обосновываются возможности формирования у студентов нравственного мышления, критического анализа и ответственности посредством интерактивных методов (онлайн-дилеммы, дебаты, кейс-стади, виртуальные симуляции и рефлексия). В результате исследования интерактивный подход в преподавании этики в цифровой среде рекомендуется как эффективная педагогическая модель.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, этика, интерактивные методы, нравственное мышление, кейс-стади, дебаты, виртуальная симуляция, рефлексия, медиаграмотность, информационная этика, педагогическая модель.*

Kirish. Global raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimining mazmun va shaklini tubdan yangilamoqda. Bugungi kunda ta’lim faqat bilim berish mexanizmi emas, balki shaxsning ijtimoiy-axloqiy pozitsiyasini shakllantiruvchi strategik institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, etika fanini o‘qitishda raqamli muhit imkoniyatlaridan foydalanish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Raqamli muhit insonning axloqiy tanlovlariga ta’sir ko‘rsatadigan yangi ijtimoiy makonni shakllantirdi. Onlayn muloqot, virtual identiklik, sun’iy intellekt, ma’lumot xavfsizligi, kiberbulling, raqamli nazorat kabi muammolar axloqiy tahlilni talab qiladi. Shu sababli etika fanini zamonaviy interaktiv metodlar asosida tashkil etish ilmiy-metodik zarurat hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli ta’lim muhitida etika fanini o‘qitish masalasi zamonaviy pedagogika va falsafada muhim yo‘nalish sifatida qaraladi. UNESCO tadqiqotlarida ta’limni raqamlashtirish jarayonida inson qadri va axloqiy tamoyillar ustuvorligi ta’kidlanadi. L.Floridi axborot etikasi doirasida raqamli muhitda axloqiy mas’uliyat kengayishini asoslaydi. Z.Bauman esa zamonaviy jamiyatda qadriyatlarning o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi. J.Dyui interaktiv va tajribaga asoslangan ta’limning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu yondashuvlar etika fanini interaktiv metodlar asosida o‘qitish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. YuNESKO ta’limni raqamlashtirish jarayonida inson huquqlari va qadr-qimmatini ustuvor tamoyil sifatida belgilaydi[1]. Demak, raqamli ta’lim muhitida etika fanini o‘qitish nafaqat didaktik, balki sivilizatsion vazifani ham bajaradi. Raqamli ta’lim muhiti - bu elektron platformalar, sun’iy intellekt vositalari, virtual sinflar, forumlar, simulyatsiyalar va multimedia resurslari asosida tashkil etilgan interaktiv ta’lim makonidir.

Uning asosiy xususiyatlari:

1. Interaktivlik - interaktivlik deganda faqat o‘qituvchi gapirib, talabalar eshitib o‘tirishi emas, balki barchaning faol ishtirok etishi tushuniladi. Ya’ni talaba savol beradi, fikr bildirishi, muhokamada qatnashishi, onlayn topshiriq bajarishi mumkin. Bu jarayonda u faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

2. Multimedialik - ma’lumotni turli shakllarda taqdim etishdir. Masalan, matn bilan birga video, rasm, animatsiya, audio yozuv yoki infografikadan foydalanish. Bu usul materialni tushunishni osonlashtiradi va darsni qiziqarli qiladi.

3. Gipermatnlilik- bu bir ma’lumotdan boshqasiga tez o‘tish imkoniyati. Masalan, elektron matndagi bir so‘z yoki tushuncha ustiga bosilganda, u haqda qo‘shimcha ma’lumot ochiladi. Bu o‘quvchiga mavzunu chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

4. Tezkor muloqot - raqamli muhitda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi aloqaning zudlik bilan amalga oshishidir. Masalan, onlayn chat, videokonferensiya yoki forum orqali darhol savol-javob qilish mumkin. Bu vaqtni tejaydi va tushunmovchiliklarni tez bartaraf etadi.

5. Global ochiqlik - deganda ta’lim resurslari va muloqot doirasi faqat bir joy bilan cheklanib qolmasligi tushuniladi. Internet orqali dunyoning istalgan nuqtasidagi ma’lumotlardan foydalanish, xorijiy mutaxassislar bilan muloqot qilish mumkin. Bu ta’limni kengaytirib, yangi tajribalar bilan boyitadi. Bauman ta’kidlaganidek, “suyuq modernlik” sharoitida inson qadriyatlari o‘zgaruvchan va noaniq muhitda shakllanadi [2]. Shu bois ta’lim jarayonida barqaror axloqiy pozitsiyani rivojlantirish muhim vazifaga aylanadi.

Tahlil va natijalar. Raqamli ta’lim muhiti - bu elektron platformalar, sun’iy intellekt vositalari, virtual sinflar, forumlar, simulyatsiyalar va multimedia resurslari asosida tashkil etilgan interaktiv ta’lim makonidir.

Uning asosiy xususiyatlari:

-interaktivlik;
- multimedialik;
-gipermatnlilik;
-tezkor muloqot;
-global ochiqlik.

Bauman ta’kidlaganidek, “suyuq modernlik” sharoitida inson qadriyatlari o‘zgaruvchan va noaniq muhitda shakllanadi. Shu bois ta’lim jarayonida barqaror axloqiy pozitsiyani rivojlantirish muhim vazifaga aylanadi.

Etika fanini raqamli muhitda o‘qitish quyidagi paradigmalarga tayanadi:

-aksiologik yondashuv;
-kompetensiyaviy yondashuv;
-shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim;
-konstruktivistik ta’lim modeli.

Etika fanini zamonaviy sharoitda samarali o‘qitish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi kerak. Axloqiy tushunchalarni anglash, ularni shaxsiy pozitsiyaga aylantirish va real vaziyatlarda qo‘llay olish jarayoni faol ishtirok, muloqot va tajriba orqali amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan interaktiv metodlar etika fanini o‘qitishning asosiy pedagogik tayanchi hisoblanadi. Interaktiv metod - bu talabani ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadigan, uning faol ishtirokini ta’minlaydigan va hamkorlikka asoslangan o‘qitish usulidir. Bunday yondashuvda talaba passiv tinglovchi emas, balki fikr bildiruvchi, bahslashuvchi, tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi sub’ektga aylanadi. Interaktiv ta’lim bilish faolligini kuchaytiradi, axloqiy fikrlashni rivojlantiradi, shaxsiy pozitsiyani shakllantiradi hamda refleksiv tafakkurni chuqurlashtiradi.

Axborot jamiyati sharoitida insonning axloqiy mas’uliyati yangi mazmun kasb etmoqda. Luidji Floridi axborot makonida inson harakatlarining ta’sir doirasi kengayishini ta’kidlab, raqamli muhitda qabul qilingan qarorlar ham axloqiy baholanishi lozimligini qayd etadi. Bu esa ta’lim jarayonida axborot etikasi masalalarini faol muhokama qilish, tahlil etish va interaktiv shaklda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Jon Dyui bilim inson tajribasi va refleksiyasi orqali shakllanishini asoslagan. Demak, etika fanini faqat ma’ruza orqali tushuntirish yetarli emas; talabalar axloqiy vaziyatlarni boshdan kechirishi, ularni tahlil qilishi va o‘z munosabatini bildirishi kerak. Shu jihatdan raqamli ta’lim muhiti interaktiv metodlarni samarali joriy etish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Raqamli muhit interaktiv metodlarni kompleks tizim sifatida tashkil etishga imkon beradi. Bu tizim bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir nechta usullarni qamrab oladi. Avvalo, onlayn axloqiy dilemmalar tahlili muhim ahamiyatga ega. Axloqiy dilemma - bu bir nechta muqobil qaror mavjud bo‘lgan, ammo har biri muayyan axloqiy oqibatlarga ega bo‘lgan vaziyatdir. Raqamli platformalar orqali bunday vaziyatlar forumda muhokama qilinadi, videokonferensiyada tahlil etiladi yoki onlayn ovoz berish orqali qaror qabul qilinadi. Bu jarayon talabalarni dalil asosida fikr yuritishga, qaror qabul qilish algoritmini tushunishga va mas’uliyatni anglashga o‘rgatadi.

Onlayn dilemmalar tabiiy ravishda debat texnologiyasiga olib keladi. Debat jarayonida talabalar muayyan mavzuda ikki yoki bir nechta pozitsiyani himoya qiladi. Masalan, sun’iy intellektning inson qarorini almashtira olishi yoki raqamli nazoratning jamiyat xavfsizligiga ta’siri kabi masalalar muhokama qilinadi. Debat talabalarda dalillash madaniyatini, tanqidiy fikrlashni va muloqot kompetensiyasini rivojlantiradi. Bu jarayon axloqiy pozitsiyani shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Keys-metod esa axloqiy bilimni real hayotga yaqin vaziyatlar orqali mustahkamlaydi. Akademik halollik, tibbiy ma’lumotlar maxfiyligi yoki internetda shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi kabi holatlar tahlil qilinadi. Talabalar vaziyatni har tomonlama o‘rganib, axloqiy va huquqiy jihatdan asoslangan yechim taklif etadi. Bu metod axloqiy fikrlashni amaliyot bilan bog‘laydi.

Virtual simulyatsiya va rolli o‘yinlar interaktiv tizimning yana bir muhim qismi hisoblanadi. Talaba muayyan ijtimoiy rol - jurnalist, sudya, bloger yoki IT mutaxassis sifatida harakat qiladi va axloqiy qaror qabul qiladi. Bu usul empatiyani rivojlantiradi, boshqalar nuqtai nazarini tushunishga yordam beradi va mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

Interaktiv metodlar tizimi refleksiv texnologiyalar bilan yakunlanadi. Refleksiv esse, elektron portfolio, blog yuritish yoki onlayn kundalik orqali talaba o‘z fikrlari va qarorlarini tahlil qiladi. Refleksiya shaxsning “axloqiy men”ini anglash mexanizmi bo‘lib, ichki qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa interaktiv usullar axloqiy bilimni shaxsiy tajribaga aylantiradi. Interaktiv metodlarni samarali joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Avvalo diagnostik bosqichda talabalarning axloqiy bilim va pozitsiya darajasi aniqlanadi. Keyin motivatsion bosqichda mavzularning dolzarbligi ochib beriladi. Interaktiv amaliy bosqichda dilemma, debat, keys va simulyatsiyalar qo‘llaniladi. Refleksiv tahlil bosqichida talabalar o‘z tajribasini baholaydi. Yakunda baholash va monitoring orqali natijalar tahlil qilinadi.

Interaktiv metodlar samaradorligi bir nechta mezonlar orqali aniqlanadi. Bular: axloqiy kompetensiya darajasi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati, muloqot madaniyati va refleksiv fikrlash darajasidir. Agar talaba axloqiy masalalarni mustaqil tahlil qila olsa va o‘z pozitsiyasini asoslab bera olsa, metod samarali hisoblanadi.

Xulosa. Raqamli muhitda etika fanini interaktiv metodlar asosida tashkil etish axloqiy ongni tizimli rivojlantirish imkonini beradi. Onlayn dilemmalar va debatlar axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantiradi. Keys va simulyatsiyalar axloqiy bilimni amaliy tajriba bilan bog‘laydi. Refleksiv texnologiyalar esa shaxsning axloqiy identikligini mustahkamlaydi.

Shu tariqa interaktiv metodlar tizimi etika fanini zamonaviy raqamli jamiyat talablariga mos ravishda o‘qitishning samarali pedagogik modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. UNESCO. *Education in a Digital World*. Paris: UNESCO Publishing, 2020. – p. 45.
2. Floridi L. *The Ethics of Information*. Oxford: Oxford University Press, 2013. - p. 67.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94(575.1)"1945/1990":656

ЎЗБЕКИСТОНДА ТРАНСПОРТ КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДА ТУТГАН ЎРНИ (1945-1990)

Саидусманов Бахром Абдуганиевич, Чирчиқ давлат педагогика университети, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)



https://orcid.org/0009-0002-4466-1612
e-mail: baxromsaidusmanov@gmail.com

THE ROLE OF THE TRANSPORT COMMUNICATION SYSTEM IN THE NATIONAL ECONOMY IN UZBEKISTAN (1945-1990)

Saidusmanov Bahrom Abduganievich, Chirchik State Pedagogical University, doctor of philosophy in history (PHD)

ТРАНСПОРТНО-КОММУНИКАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКАНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА (1945-1990)

Саидусманов Бахром Абдуганиевич, Чирчикский государственный педагогический университет, доктор философии по историческим наукам (PhD)

Аннотация: *Бугун жаҳон бозорида транспорт тизими алоҳида ўрин эгаллайди. Бу табиийки, хизмат кўрсатиш, иқтисодий барқарорликнинг муҳим омили ҳисобланади. Совет ҳокимияти ўрнатилган дастлабки кунларданоқ иқтисодиётни бошқариш, хусусий мулкчиликни тугатиш масаласи энг муҳим вази-фаси сифатида қўйилди.*

Калит сўзлар: *халқ хўжалиги, автомобиль транспорти, автомобиль йўллари, автокорхоналар, юк автокорхоналари, юк ташиш, саноат корхоналари, алоқа пунктлари, йўловчилар ва юк ташиш ҳажмлари, янги автохўжаликлар.*

Annotation: *Today, the transport system occupies a special place in the world market. It is natural that service is an important factor of economic stability. From the first days of the establishment of Soviet power, the most important task was to manage the economy and end private ownership.*

Key words: *national economy, road transport, roads, convoys, cargo convoys, industrial enterprises, communication points, passenger and freight traffic volumes, new road operators.*

Аннотация*: Сегодня особое место на мировом рынке занимает транспортная система. Это, естественно, важный фактор сервиса, экономической стабильности. С первых дней установления советской власти вопрос управления экономикой, прекращения частной собственности был поставлен как важнейшая ситуация.*

Ключевые слова: *народное хозяйство, автомобильный транспорт, автомобильные дороги, автоколонны, грузовые автоколонны, предприятия промышленности, пункты связи, объемы пассажирских и грузовых перевозок, новые автохудожники.*

Кириш. Урушдан кейинги ўтган йиллар давомида ишлаб чиқаришни ташкил этиш ҳам бир неча маротаба ўзгарди. Улар қаторига халқ хўжалиги Олий кенгаши ва унинг жойлардаги идоралари, саноатни тармоқлар бўйича бошқариш, яъни наркоматлар, халқ хўжалиги кенгашлари, халқ хўжалигини тармоқлар бўйича бошқарадиган министрликлар кирди. Ишлаб чиқаришни бошқаришнинг бу шакллари ҳар

бир даврнинг ўзига хос хусусияларидан келиб чиққан бўлса ҳам уларнинг барчасида марказлашган тарзда раҳбарлик қилиш ётди. Айни пайтда марказалашган бошқарувнинг асоси бўлган беш йиллик режалар уришдан кейин ҳам давом этди. Жумладан, 1946-1950 йилларни ўз ичига олган тўртинчи беш йиллик режаси сталинча одат бўйича 4 йилу 3 ойда якунланди. 1950 йилда саноат маҳсулотининг ҳажми урушдан аввалги 1940 йил даражасидан 73 фоизга ошди, аммо "истеъмол товарлари ишлаб чиқариш урушдан аввалги даражага етмади". Аммо қишлоқ хўжалиги бўйича режа бажарилмади: унинг йиллик маҳсулоти 6 йил ичида режалаштирилган 34 миллиард рубль ўрнига (1958 йил нархларида) бор-йўғи 5 миллиардга ўсди, қорамоллар сонининг ўсиши аввалги беш йилликка нисбатан икки баравар камайди, чўчқа, қўй ва паррандалар сони эса умуман камайиб кетди, асосан қишлоқ хўжалиги хомашёси етишмаслиги сабабли енгил ва озиқ-овқат саноатлари режани бажармади. 1966-1970 йиллардаги саккизинчи беш йиллик режасида беш йил ичида А ва Б гуруҳларининг ўсиш суръатлари ўзаро яқинлашиши эълон қилинди. Аммо 1970 йилда барча саноат маҳсулотининг 74 фоизни А гуруҳи, 26 фоизни эса Б гуруҳи ишлаб чиқарди[1].

Адабиётлар таҳлили ва методологияси. Ўзбекистонда транспорт коммуникация тизимининг халқ хўжалигида тутган ўрни бўйича турли даврларда маҳаллий тадқиқотчилар илмий изланишлар олиб боришган. Хусусан, Ш. К. Курбанниязов транспорт тармоқлари ва коммуникацияларни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари хусусида, Н.Алаутдинова, Г. Агзамовалар Ўзбекистонда транспорт тизининиг ривожланиши ва соҳалари бўйича изланишлар олиб боришган.

Собиқ Иттифоқнинг тўққизинчи беш йиллик режаси (1971–1975) бўйича ҳисоботдан маълум бўлишича, бу даврда саноат маҳсулотининг ҳажми 43 фоизга, истеъмол товарлари ишлаб чиқариш эса 37 фоизга ошди.[2] Бироқ, иқтисодий йириклашиш илмий исботланмаган ва асосланмаган йўлардан бориб, тармоқни ривожлантириш учун қурилиш қанчалик катта бўлса, шунчалик маблағ талаб қилинди. Ўз навбатида ишлатилган маблағни етарли даражада ва ўз вақтида қайтариб олишнинг имкони бўлмади. Натижада мамлакат бўйлаб жуда кўплаб қурилиши охирига етказилмаган бинолар кўпайиб кетди. Бу давлат бюджетига етарли даражада салбий таъсир ўтказди.[3]

Муҳокама ва натижалар. Мамлакат халқ хўжалигининг асосий даромад манбаларидан бири пахтачиликка асосий эътибор қаритилди. Уришдан кейинги йилларда совет ҳокимиятининг пахтачиликни ривожлантириш дастурлари ҳамда режаларида Ўзбекистондаги қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш ишлари кенг ўрин олди. Республика халқ хўжалиги аграр характерга эга бўлиб, Ўзбекистон ССР халқ хўжалигида қишлоқ хўжалигининг салмоғи 61,6, саноатнинг салмоғи 38,4, қишлоқ хўжалик хом ашёси асосида ишловчи саноатнинг салмоғи эса 94 фоизни ташкил этди. Ўзбекистоннинг умумиттифоқ саноат ишлаб чиқаришидаги салмоғии эса 1,2 фоиздан иборат эди[4]. Ана шу режаларни амалга ошириш мақсадида республика ҳудудидаги илгари қаровсиз ётган ташландиқ ерларни ўзлаштириш ишларига алоҳида эътибор қаратилди. Мирзачўл, Марказий Фарғона, Қарши, Сурхон-Шеробод, Жиззах чўлларини ўзлаштириш ва суғориш ишларини жадаллаштирилиб, уларнинг ўрнида пахта майдонлари, пахтачиликка ихтисослашган давлат хўжаликлари, аҳоли турар жойлари, гидроиншоотлар барпо этилди. Бироқ бу ишлар натижасида ўзлаштирилган ҳудудларда экилган пахта ҳосилининг аксарият қисми мамлакатнинг турли ҳудудларига ташиб кетилди. Республика советларнинг пахта етиштирувчи асосий базасига айланиб қолди. Масалан, ГДР енгил саноати, Зайфхенердорфе, Циттау, Ноигерсдорфе, Мюльхаузене, Обервице шаҳарларидан корхоналар асосан Ўзбекистондан борган пахта ҳисобидан ишлаган[5].

Ўзбекистоннинг ўзи ҳам иқтисодий районларга бўлинган. Улар орасида Тошкент вилояти (Тошкент иқтисодий районининг) ҳам ўрни бўлган. Тадқиқот ишида таҳлил этилаётган Тошкент вилояти Тошкент иқтисодий райони деб аталиб, у нафақат республика балки мамлакатдаги энг катта

иқтисодий районлардан бири бўлган. Бу район Сирдарё, Жиззах вилоятла-рини ҳам ўз ичига олган ва республика ҳудудининг 9,2 фоизини ташкил қилган. У аҳоли сонининг кўплиги ва кўп миллатлилиги билан республика-нинг бошқа иқтисодий районларидан ажралиб турган. 1984 йил 1 январгача бўлган маълумотларга кўра Ўзбекистон аҳолисининг 28,9 фоизи яшаган[6].

Бу йилларда табиийки, мамлакат халқ хўжалигида ўз ўрнига эга бўлган транспортнинг деярли барча (темир йўл, автомобиль, ҳаво йўли, сув йўли) тармоқлари ривожлантирилди. Бу тармоқ қийинчилик ва муаммолар билан бўлсада, республика ишлаб чиқариш кучларини жойлаштиришда, ички ва ташқи иқтисодий алоқаларни яхшилашга хизмат қилди.

Ўзбекистонда меҳнат ресурсларининг сони ва салмоғи, уларнинг ўсиш суръатлари, иқтисодий фаол аҳолининг халқ хўжалигида тақсимланиши, меҳнат ресурсларидан фойдаланишдаги махсус ҳудудий фарқлари билан бошқа иттифоқдош республикалардан фарқ қилди. Бу аввало республика аҳолисининг табиий ўсиши билан боғлиқ бўлди. Аҳолининг ўсиши, бу ердаги иқлим, табиий бойликлар каби омиллар Ўзбекистон халқ хўжалиги-ни иттифоқ халқ хўжалиги манфаатларига мослаштирилишига олиб келди[7].

Бу йилларда табиийки, мамлакат халқ хўжалигида ўз ўрнига эга бўлган транспортнинг деярли барча (темир йўл, автомобиль, ҳаво йўли, сув йўли) тармоқлари ривожлантирилди. Бу тармоқ қийинчилик ва муаммолар билан бўлсада, республика ишлаб чиқариш кучларини жойлаштиришда, ички ва ташқи иқтисодий алоқаларни яхшилашга хизмат қилди.

Хулоса. Умуман, халқ хўжалигига эътибор қаратилиши иттифоқдош ҳамда хориж давлатлари билан иқтисодий алоқаларни ўсишига таъсир этмасдан қолмади. Айни пайтда халқ хўжалигига эътибор транспорт коммуникация тизимини ҳам ривожлантиришни талаб этди. Бироқ, бу тизим ҳам бошқа тармоқлари каби ютуқлар ва бир қатор муаммо ва камчиликлар билан ривожланиб борди. Ўзбекистон ССР транспорт - коммукникация тизими мамлакат транспорт тизимининг таркибий қисми бўлиб, республика ичида, иттифоқ ва халқаро миқёсда иқти алоқаларни амалга ошириб келди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Восленский М. Номенклатура господствующий класс Советского Союза. — Лондон: Overseas Publications Interchange Ltd, 1990. - 67 с.
2. Основные направления развития народного хозяйства СССР на 1976-1980 гг. - Москва. 1976. - с. 6-7.
3. Ўзбекистон ССР тарихи. 3-том. – Тошкент. Фан, 1971. – 43 бет.
4. Саидусмонов, Б. А. (2022). Тошкент вилоятида транспорт турлари шаклланишининг тарихий босқичлари. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 498-506.
5. Saidusmanov, B. (2022). Stages Of Formation And Development Of Railway Transport In Tashkent Region. Science and Innovation, 1(8), 726-730.
6. Saidusmanov Bakhrom Abduganiyevich. History Of The Development Of The Transportation System Of Uzbekistan (1945-1990). (2026). EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 2(2), 194-200.
7. Ochilova K., Doniyorov A., Mavlonov A., Razzoqov Q., Sulaymonov F., Saidusmanov B. Integrating environmental sustainability into educational innovation for eco-literate and climate-resilient learning systems // Acta Innovations. 2025. P. 22–30.
8. Koshanova N.M. Socio-philosophical analysis of the phenomenon of "cultural crash// European Science Methodical Journal Volume 2, Issue 6, June-2024.-P.477-480.
9. Koshanova N.M. Mechanisms of development of youth consciousness and thinking under globalization// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Year: 2023 Issue: 03 Volume: 119. Philadelphia, USA.-P.184-192.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

OLIY TA'LIM TIZIMIDA MILLATLARARO BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Abdullayeva Nazokat Baxtiyarovna, Ma'mun Universiteti "Tarix" kafedrasi dotsenti, (PhD)

MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF A CULTURE OF INTERETHNIC TOLERANCE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Abdullaeva Nazokat Bakhtiyarovna, Associate Professor, Department of History, Ma'mun University, (PhD)

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ КУЛЬТУРЫ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Абдуллаева Назокат Бахтияровна, доцент кафедры "История" университета Мамуна, (PhD)



https://orcid.org/0000-0003-1865-5518
e-mail: nazokata465@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida millatlararo bag'rikenglikni tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Unda talaba-yoshlarda millatlararo muloqot madaniyati, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy jipslikni shakllantirishda oliy o'quv yurtlarining o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatiga, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishga hamda o'quv jarayonida milliy an'analardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *millatlararo tolerantlik, oliy ta'lim, talaba yoshlar, fuqarolik ongi, tarbiyaviy ishlar, O'zbekiston.*

Annotation: *This article examines contemporary approaches to fostering interethnic tolerance within the higher education system of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the role of higher educational institutions in shaping a culture of interethnic communication, civic responsibility, and social cohesion among students. Particular attention is given to the educational role of instructors, the implementation of modern educational technologies, and the integration of national traditions into the educational process.*

Keywords: *interethnic tolerance, higher education, student youth, civic consciousness, educational work, Uzbekistan.*

Аннотация: *В статье рассматриваются современные подходы к воспитанию межнациональной толерантности в системе высшего образования Республики Узбекистан. Анализируется роль высших учебных заведений в формировании культуры межнационального общения, гражданской ответственности и социальной сплочённости студенческой молодежи. Особое внимание уделяется воспитательной деятельности преподавателя, внедрению современных образовательных технологий и использованию национальных традиций в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *межнациональная толерантность, высшее образование, студенческая молодежь, гражданское сознание, воспитательная работа, Узбекистан.*

KIRISH. Globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning faol rivojlanishi sharoitida millatlararo bag'rikenglikni shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat migratsiya jarayonlarining kuchayishi, axborot makonining kengayishi va turli madaniyatlarning faol o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli davlat bo'lib, unda xalqlarning tinch-totuv yashashi, o'zaro hurmat va hamkorlik an'analari tarixan shakllangan. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda va bu

Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan hamda strategik hujjatlarda o‘z aksini topgan.

Shu munosabat bilan oliy ta’lim tizimi yoshlarni ijtimoiylashtirishning muhim instituti sifatida alohida o‘rin tutadi. Oliy ta’lim muassasalari nafaqat kasbiy tayyorgarlikni ta’minlaydi, balki gumanizm, o‘zaro hurmat va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari asosida talabalarning dunyoqarashini ham shakllantiradi. Aynan talabalar muhitida fuqarolik o‘ziga xosligi va millatlararo muloqot madaniyatining poydevori qo‘yiladi. Shu bois, oliy o‘quv yurtlarida millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish masalalarini o‘rganish O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Millatlararo bag‘rikenglik muammosi zamonaviy ilmiy diskursda muhim o‘rin egallab, u pedagogika, sotsiologiya va siyosatshunoslik doirasida kompleks yondashuv asosida tadqiq etilmoqda. Mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bag‘rikenglik konsepti, avvalo, madaniy xilma-xillikni tan olish, hurmat qilish va konstruktiv muloqotni ta’minlovchi ijtimoiy-me’yoriy hodisa sifatida talqin etiladi. Xususan, UNESCO tomonidan qabul qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”da mazkur tushuncha inson huquqlari va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi fundamental prinsip sifatida izohlanadi (UNESCO, 1995).

Pedagogik nazariyalarda bag‘rikenglik shaxsning integrativ sifati sifatida ko‘rilib, u kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlari birligida shakllanishi qayd etiladi (Petrov, 2021). Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim tizimi yosh avlodda fuqarolik ongini, ijtimoiy mas’uliyatni va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi muhim institutsional makon sifatida baholanadi. Abdullaev (2020) tadqiqotlarida yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolik identifikatsiyasi va ijtimoiy faollikning shakllanishi barqaror jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri sifatida asoslab berilgan. Yusupov (2019) esa O‘zbekiston sharoitida millatlararo munosabatlarning barqarorligi tarixiy-madaniy an’analar, davlat siyosati va ta’lim tizimi integratsiyasi orqali ta’minlanishini ta’kidlaydi.

Normativ-huquqiy manbalar tahlili ham mazkur yo‘nalishning ustuvorligini tasdiqlaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va fuqarolik birdamligini mustahkamlash strategik vazifa sifatida belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023; Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, 2022). Bu esa tadqiqotning normativ va institutsional asoslarini belgilab beradi. Mazkur tadqiqotda millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish jarayonini o‘rganishda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli, strukturaviy-funksional hamda qiyosiy tahlil yondashuvlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va oliy ta’lim amaliyoti materiallari kontent-tahlil asosida o‘rganildi.

Empirik va nazariy tahlilni amalga oshirishda quyidagi metodlar qo‘llanildi: analitik metod – bag‘rikenglik kategoriyasining mazmun-mohiyatini aniqlashda; qiyosiy metod – xalqaro va milliy tajribalarni solishtirishda; pedagogik kuzatuv va deskriptiv tahlil – oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy faoliyatni baholashda; umumlashtirish va interpretatsiya metodlari esa olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqishda qo‘llanildi. Shu tariqa, tadqiqotning nazariy asosini bag‘rikenglikni shaxsiy va ijtimoiy fenomen sifatida talqin etuvchi zamonaviy ilmiy konsepsiyalar tashkil etsa, uning amaliy asosini O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida shakllangan tarbiyaviy tajriba tashkil etadi.

MUHOKAMA. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib, ayniqsa globallashuv sharoitida uning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg‘un holda bag‘rikenglikni ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik birdamligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida tasdiqlaydi (UNESCO, 1995).

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, millatlararo totuvlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda normativ-huquqiy asoslarning mustahkamligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Konstitutsiya va davlat dasturlarida millatlararo tenglik va bag‘rikenglik tamoyillarining mustahkamlanganligi mazkur jarayonning institutsional asosini belgilaydi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023; Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, 2022).

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalari millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirishda muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritayotganini ko‘rsatdi. Xususan, ilmiy-amaliy konferensiyalar,

madaniy-ma’rifiy tadbirlar, talabalar o‘rtasidagi ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyati talabalar orasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa Petrov (2021) tomonidan ilgari surilgan ta’lim muhitining shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishdagi hal qiluvchi roli haqidagi fikrlarni tasdiqlaydi (Petrov, 2021). Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar ham mavjud ilmiy qarashlar bilan mos keladi. Xususan, zamonaviy axborot makonida destruktiv g‘oyalar, ksenofobiya va noto‘g‘ri talqinlarning tarqalishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin (Abdullaev, 2020). Bu holat mediakompetensiyalarni rivojlantirish zaruratini yanada dolzarb etadi. Bundan tashqari, ayrim hollarda tarbiyaviy ishlarning formal xarakter kasb etishi va tizimli yondashuvning yetishmasligi ularning samaradorligini pasaytiradi (Yusupov, 2019). Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, millatlararo bag‘rikenglikni samarali shakllantirish uchun faqat alohida tadbirlar emas, balki uzluksiz va integratsiyalashgan pedagogik tizim zarur. Bu tizim ta’lim jarayoni, tarbiyaviy faoliyat va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashi lozim. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida interfaol metodlar, loyihaviy yondashuv va madaniyatlararo muloqotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o‘qituvchining roli alohida ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari pedagogning shaxsiy namunasi, kommunikativ madaniyati va professional kompetensiyasi talabalarda bag‘rikenglik qadriyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatdi (Petrov, 2021). Bu jihat zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ham alohida e’tirof etiladi.

Shunday qilib, olingan natijalar millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish jarayoni ko‘p omilli va tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston tajribasi esa davlat siyosati, ta’lim tizimi va ijtimoiy institutlar hamkorligi asosida ushbu jarayonni samarali tashkil etish mumkinligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish jarayoni tizimli va ko‘p omilli ekanini ko‘rsatdi. *Birinchidan,* normativ-huquqiy asoslar (Konstitutsiya, davlat dasturlari) mazkur jarayonning barqaror metodologik poydevorini ta’minlaydi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023). *Ikkinchidan,* tarbiyaviy faoliyat shakllari — ilmiy-amaliy tadbirlar, madaniy loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar — talabalarda madaniyatlararo muloqot va o‘zaro hurmatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda (Yusupov, 2019). *Uchinchidan,* talabalar ishtirokidagi volontyorlik va o‘zini-o‘zi boshqaruv tizimlari fuqarolik mas’uliyati hamda ijtimoiy faollikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ldi. *To‘rtinchidan,* interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalar tolerant tafakkur va konstruktiv muloqotni shakllantirishda samarali ekanligi aniqlandi (Petrov, 2021). *Beshinchidan*, o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi bag‘rikenglik qadriyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi (Petrov, 2021). Shu bilan birga, ayrim muammolar — tarbiyaviy ishlarning formal xarakter kasb etishi, mediakompetensiyalarning yetarli rivojlanmaganligi va pedagogik tayyorgarlikdagi kamchiliklar — jarayon samaradorligini cheklayotgani aniqlandi (Abdullaev, 2020).

Umuman olganda, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish bo‘yicha ijobiy tajriba mavjud bo‘lib, uni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

XULOSA. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish bo‘yicha samarali tajriba mavjudligini ko‘rsatdi. Oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki fuqarolik ongini shakllantiruvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tarbiyaviy faoliyat, innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchi shaxsining ta’siri ushbu jarayonning asosiy omillaridir.

Kelgusida mediakompetensiyalarni rivojlantirish, pedagoglar malakasini oshirish va tizimli yondashuvni kuchaytirish mazkur yo‘nalishda ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaev, A. A. (2020). Yoshlarning ijtimoiy rivojlanishi. Toshkent: Fan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. (2016). Toshkent.
4. Petrov, V. N. (2021). Oliy ta’limda tarbiyaviy ishlar. Sankt-Peterburg: Piter.
5. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026. (2022). Toshkent.
6. UNESCO. (1995). Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi. Parij: UNESCO.
7. Yusupov, N. M. (2019). O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar. Toshkent: Akademnashr.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 130.2

NITSHE FALSAFASIDA TRAGEDIYA KONSEPSIYASI

Babajanova Shodiya Aybek qizi, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Falsafa yo‘nalishi 1-kurs magistranti

HE CONCEPT OF TRAGEDY IN THE PHILOSOPHY OF FRIEDRICH NIETZSCHE

Babajanova Shodiya Aybek qizi, Master’s Student, Department of Philosophy, Berdakh Karakalpak State University

КОНЦЕПЦИЯ ТРАГЕДИИ В ФИЛОСОФИИ ФРИДРИХА НИЦШЕ

Бабаджанова Шодия Айбек кызы, магистрант 1 курса направления “Философия” Каракалпакского государственного университета имени Бердаха



https://orcid.org/0009-0009-3123-0830
e-mail: shodiyaaybekovna@gmsil.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Fridrix Nitshe falsafasida tragediya tushunchasi, Apollon va Dionis tamoyillarining o‘zaro munosabati hamda san’atning inson hayotidagi ontologik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Nitshe g‘oyalarining zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Nitshe, tragediya, Apollon, Dionis, san’at falsafasi, ekzistensializm, nihilizm, inson mohiyati, estetik tafakkur, falsafa.*

Abstract: *This article analyzes the concept of tragedy in the philosophy of Friedrich Nietzsche, particularly the interaction between the Apollonian and Dionysian principles and the ontological significance of art in human existence. The relevance of Nietzsche’s ideas in modern society is also discussed.*

Key words: *Nietzsche, tragedy, Apollonian, Dionysian, philosophy of art, existentialism, nihilism, human existence, aesthetics, philosophy.*

Аннотация: *В данной статье анализируется концепция трагедии в философии Фридриха Ницше, взаимодействие аполлонического и дионисийского начал, а также онтологическое значение искусства в жизни человека. Рассматривается актуальность идей Ницше в современном обществе.*

Ключевые слова: *Ницше, трагедия, аполлоническое начало, дионисийское начало, философия искусства, экзистенциализм, нигилизм, человеческое существование, эстетика, философия.*

Kirish. XIX asr Yevropa falsafasi inson mavjudligi, madaniyat va san’at mohiyatini yangicha talqin qilishga qaratilgan muhim intellektual jarayonlar bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda an’anaviy metafizik qarashlar, ayniqsa ratsionalizm va idealizm tamoyillari jiddiy tanqid ostiga olinadi. Ana shunday falsafiy burilish jarayonida nemis faylasufi Fridrix Nitshe alohida o‘rin egallaydi. Uning falsafiy qarashlari G‘arb tafakkurining an’anaviy asoslarini qayta ko‘rib chiqishga undagan muhim nazariy konsepsiyalarni o‘z ichiga oladi.Fridrix Nitshe falsafasi inson hayotining murakkabligi, ziddiyatliligi va fojialigini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Uning “Tragediyaning tug‘ilishi” (“The Birth of Tragedy”) asari san’at falsafasi, estetika va madaniyatshunoslik sohalarida muhim nazariy manba hisoblanadi [1.11]. Ushbu asarda Nitshe qadimgi yunon madaniyati misolida inson ruhiyatining asosiy tamoyillarini ochib berishga harakat qiladi. Ayniqsa, tragediya fenomeni orqali inson mavjudligining ontologik va estetik mohiyati yoritiladi.Nitshe mazkur asarida inson ruhiyatini ikki asosiy tamoyil — Apollon va Dionis kuchlari orqali tushuntiradi. Apolloniy tamoyil tartib, me’yor, uyg‘unlik va shaklni ifodalasa, Dionisiy

tamoyil hayotiy ehtiros, ichki energiya, instinkt va ijodiy kuchni ifodalaydi. Ushbu ikki tamoyil inson ruhiyatining o‘zaro qarama-qarshi, ammo bir-birini to‘ldiruvchi tomonlari sifatida talqin qilinadi. Nitshe fikricha, inson hayoti aynan shu ikki kuch o‘rtasidagi dialektik munosabat orqali shakllanadi.Yunon tragediyasi esa ushbu ikki tamoyilning uyg‘unlashuvi natijasida vujudga kelgan estetik hodisa sifatida baholanadi[5.52]. Tragediya inson hayotining murakkabligini va fojialigini inkor etmaydi, aksincha uni estetik shaklda ifodalash orqali insonni mavjudlik haqiqatini anglashga undaydi. Shu sababli tragediya insonning ruhiy va estetik tajribasining muhim ifodasi hisoblanadi.

Zamonaviy davrda ham Nitshe falsafasining dolzarbligi saqlanib qolmoqda. XXI asr texnologik taraqqiyot, global axborot tizimlari va ratsional tafakkurning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda insonning hissiy, estetik va ijodiy qirralari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnologik rivojlanish inson hayotini qulaylashtirgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda uning ruhiy va ma’naviy muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Shu nuqtai nazardan qaraganda, Nitshe falsafasini qayta o‘rganish va uning g‘oyalarini zamonaviy jamiyat kontekstida tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, inson ruhiyatining Apolloniy va Dionisiy tomonlari o‘rtasidagi muvozanat masalasi bugungi kunda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Fridrix Nitshe falsafasida tragediya tushunchasining mohiyatini tahlil qilish, Apollon va Dionis tamoyillarining inson mavjudligidagi o‘rnini aniqlash hamda ushbu g‘oyalarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Fridrix Nitshe falsafasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ayniqsa, uning san’at va tragediya haqidagi qarashlari falsafa, estetika va madaniyatshunoslik sohalarida muhim ilmiy muhokamalarga sabab bo‘lgan. Nitshe o‘zining “Tragediyaning tug‘ilishi” asarida qadimgi yunon san’ati orqali inson mavjudligining metafizik asoslarini izohlashga harakat qiladi.Mazkur maqolada falsafiy tahlil, qiyosiy yondashuv va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Nitshe asarlari, shuningdek, uning falsafasini tahlil qilgan zamonaviy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Bu esa tragediya tushunchasining ontologik va estetik mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Muhokama. Fridrix Nitshe falsafasida tragediya tushunchasi nafaqat estetik hodisa, balki inson mavjudligining ontologik asoslaridan biri sifatida talqin qilinadi. Nitshe qadimgi yunon madaniyatini tahlil qilish orqali inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib berishga harakat qiladi. Uning fikricha, yunon tragediyasi inson hayotining fojiaviy mohiyatini anglash va uni estetik shaklda ifodalashning eng mukammal namunasidir[1.23].Nitshe tomonidan ilgari surilgan Apollon va Dionis tamoyillari inson ruhiyatining ikki muhim qutbini ifodalaydi. Apolloniy tamoyil tartib, me’yor, shakl va uyg‘unlikni anglatadi. Bu tamoyil inson ongining mantiqiy va nazorat qiluvchi jihatini ifodalaydi. Dionisiy tamoyil esa ehtiros, instinkt, ichki energiya va hayotiy kuchni ifodalaydi. Ushbu ikki tamoyil o‘rtasidagi muvozanat inson hayotining estetik va ma’naviy mukammalligini ta’minlaydi[5.68]. Nitshe fikricha, qadimgi yunon tragediyasi aynan shu ikki kuchning uyg‘unligi natijasida vujudga kelgan. Tragediya inson hayotining murakkabligini inkor etmaydi, aksincha, uni tan oladi va estetik shaklda ifodalaydi. Shu sababli tragediya insonning mavjudlik haqidagi eng chuqur haqiqatlarni anglashiga yordam beradi.Zamonaviy jamiyat sharoitida Nitshe g‘oyalari yana ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda texnologik taraqqiyot, informatsion tizimlar va ratsional tafakkurning kuchayishi inson hayotining ko‘plab sohalarini mexanik va standart shaklga keltirmoqda. Bu jarayonda insonning hissiy, estetik va ijodiy qirralari tobora zaiflashib bormoqda. Natijada inson o‘zining tabiiy ruhiy muvozanatini yo‘qotishi mumkin.Nitshe bu jarayonni madaniyatning inqirozi sifatida baholaydi. Uning fikricha, agar jamiyatda faqat Apolloniy tamoyil ustunlik qilsa, inson hayoti sovuq, mexanik va hissiz tus oladi. Aksincha, agar faqat Dionisiy tamoyil ustun bo‘lsa, jamiyatda tartibsizlik va beqarorlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli sog‘lom madaniyat uchun ushbu ikki tamoyil o‘rtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda psixologiya, madaniyatshunoslik va san’at nazariyasida ham

Nitshe g‘oyalari muhim ilmiy manba sifatida qaralmoqda. Xususan, ekzistensial psixologiya inson hayotidagi og‘riq, tashvish va ichki ziddiyatlarni inkor etish emas, balki ularni anglash orqali shaxsiy rivojlanishga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Bu esa Nitshe falsafasining zamonaviy ilmiy qarashlar bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi.Shuningdek, Nitshe tomonidan ilgari surilgan san’atning metafizik ahamiyati haqidagi g‘oya ham muhim falsafiy masala hisoblanadi. Uning fikricha, san’at inson hayotini estetik jihatdan boyitibgina qolmay, balki insonni nihilizm va ma’nosizlikdan qutqaruvchi kuch sifatida ham namoyon bo‘ladi. Inson o‘z hayotidagi og‘riq va ziddiyatlarni ijod orqali ifoda etgan holda, ularga yangi ma’no bera oladi.Shu nuqtai nazardan qaraganda, Nitshe falsafasi insonni o‘z ichki dunyosini chuqur anglashga undaydi[3.112]. Inson o‘zining Apolloniy va Dionisiy tomonlarini tan olgan holda, ularni uyg‘unlashtirish orqali ruhiy butunlikka erishishi mumkin. Bu jarayon insonning ma’naviy yuksalishi va ijodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari Fridrix Nitshe falsafasida tragediya tushunchasi inson mavjudligining muhim falsafiy kategoriyalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Tragediya inson hayotining murakkab va ziddiyatli tabiatini aks ettiradi hamda insonning ushbu ziddiyatlarni estetik shaklda anglashiga yordam beradi.Shuningdek, Apollon va Dionis tamoyillari inson ruhiyatining ikki asosiy qutbi sifatida talqin qilinadi. Ushbu tamoyillar o‘rtasidagi muvozanat insonning ruhiy barqarorligi va madaniyatning sog‘lom rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Agar ushbu muvozanat buzilsa, jamiyatda madaniy va ma’naviy inqiroz yuzaga kelishi mumkin.Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Nitshe falsafasi zamonaviy jamiyat uchun ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Ayniqsa, texnologik rivojlanish sharoitida insonning hissiy va estetik qirralarini saqlab qolish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Nitshe g‘oyalari ushbu muammoni falsafiy jihatdan tushunishga yordam beradi.Bundan tashqari, Nitshe falsafasi insonning ichki ziddiyatlarini salbiy hodisa sifatida emas, balki ijodiy rivojlanish manbai sifatida talqin qiladi. Inson o‘z hayotidagi og‘riq va fojialikni anglash orqali uni estetik shaklda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa insonning ma’naviy va ijodiy kamolotiga xizmat qiladi[4.97]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Nitshe falsafasining asosiy g‘oyalaridan biri — hayotning fojialigini tan olish va uni ijod orqali yengishdir. Inson o‘z hayotini san’at asariga aylantirgan holda, mavjudlikning murakkabligini estetik ma’noda anglay oladi. Shu sababli san’at inson hayotining muhim metafizik asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Fridrix Nitshe falsafasi inson hayotining murakkab va fojiali tabiatini anglashga yordam beradi. Tragediya uning nazariyasida inson ruhiyatining ontologik va estetik ifodasi sifatida talqin qilinadi[6.55]. Apolloniy va Dionisiy tamoyillar o‘rtasidagi muvozanat insonning ruhiy barqarorligi va madaniyatning sog‘lom rivojlanishi uchun muhimdir. Nitshe g‘oyalari zamonaviy sharoitda insonni hayotning ziddiyat va og‘riqlarini inkor etmasdan, ularni ijodiy va estetik tarzda anglashga undaydi. Shu orqali inson o‘z hayotini san’at asariga aylantirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu sababli san’at insonning mavjudligiga ma’no beruvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi va uning ruhiy yuksalishida muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nietzsche, F. The Birth of Tragedy Out of the Spirit of Music. New York: Vintage Books, 1967.
2. Nietzsche, F. Twilight of the Idols. (Nashriyot, yili)
3. Nietzsche, F. Beyond Good and Evil. Oxford: Oxford University Press, 1998.
4. Nietzsche, F. Thus Spoke Zarathustra. London: Penguin Classics, 2003.
5. Kaufmann, W. Nietzsche: Philosopher, Psychologist, Antichrist. Princeton University Press, 1974.
6. Schopenhauer, A. The World as Will and Representation. Dover Publications, 1969.
7. Yusupov, E. Falsafa. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2013.
8. Anscombe, G. E. M. Modern Philosophy of Art. Cambridge University Press, 2001.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 82.0(575.1):929

ADABIYOTSHUNOS HAMDAM ABDULLAYEVNING IJODIY FAOLIYATI XUSUSIDA

Rustamova Shoira Egamberganovna, Urganch RANCH texnologiya universiteti o‘qituvchisi

ON THE CREATIVE ACTIVITY OF THE LITERARY SCHOLAR HAMDAM ABDULLAYEV

Rustamova Shoira Egamberganovna, Lecturer, Urgench RANCH University of Technology

О ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИТЕРАТУРОВЕДА ХАМДАМА АБДУЛЛАЕВА

Рустамова Шоира Эгамберганoвна, преподаватель, Ургенчский университет технологий RANCH



https://orcid.org/0009-0002-5960-0548
e-mail: rustamovashoira015@gmail.com

Annotatsiya*: Ushbu maqolada filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Hamdam Abdullayevning hayot va ijod yo‘li xususida qisqacha fikr yuritiladi. Olim ilmiy izlanishlarining qamrovi, yo‘nalishlari xususida so‘z boradi. H.Abdullayevning ilmiy-pedagogik mutaxassislar tayyorlash ishiga qo‘shgan hissasi tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *adabiyotshunos, Hamdam Abdullayev, ilmiy izlanish, folklor, yozma adabiyot, genezis, badiiyat, mahorat.*

Annotation*: This article briefly discusses the life and creative path of Hamdam Abdullaev, Doctor of Philological Sciences, Professor, and Honored Scientist of the Republic of Karakalpakstan. Attention will be paid to the scope and directions of the scholar’s research activities. H. Abdullaev’s contribution to the training of scientific and pedagogical specialists is analyzed.*

Keywords: *literary scholar, Hamdam Abdullaev, scientific research, folklore, written literature, genesis, poetics, mastery.*

Аннотация*: В данной статье кратко рассматривается жизненный и творческий путь доктора филологических наук, профессора, заслуженного деятеля науки Республики Каракалпакстан, Хамдама Абдуллаева. Будет уделено внимание охвату и направлениям научных изысканий ученого. Анализируется вклад Х.Абдуллаева в подготовку научно-педагогических кадров.*

Ключевые слова: *литературовед, Хамдам Абдуллаев, научные изыскания, фольклор, письменная литература, генезис, поэтика, мастерство.*

Kirish. Taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor Hamdam Abdullayev o‘zbek adabiyotshunosligida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan olimlardan hisoblanadi. U nafaqat o‘zbek folklori, balki qardosh xalqlar xalq og‘zaki ijodi borasida ham qator ishlarni amalga oshirgan. Olimning yozma adabiyot borasidagi tadqiqotlari muhim ilmiy muammolarga bag‘ishlangani bilan ham ajralib turadi.

Ushbu kichik maqoladan maqsad Hamdam Abdullayev hayot va ijod yo‘li xususida muxtasar so‘z yuritishdir. Shuningdek, olimning ibratli hayot yo‘li, pedagog-murabbiy sifatidagi faoliyati, adabiyotshunos sifatida amalga oshirgan ishlarini tahlilga tortish tadqiqot-maqolaning vazifalaridandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunos H.Abdullayev hayot va ijod yo‘li haqida ma’lumot beruvchi manbalar u qadar ko‘p emas. Hamdam Jumaniyozovich Abdullayevning ilmiy-ijodiy faoliyati haqida qator maqolalar yozilgan. B.Nazarovning “Fidoyi olimlarimizdan biri” maqolasida Hamdam Abdullayevning ilmiy faoliyatiga qisqacha baho beriladi: “...filologiya fanlari doktori Hamdam Abdullayevni O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston, Turkmanistonning, ya’ni uch xalqning olimi, uch xalqning sevimli farzandi deyishga asos bor”[1; 6]. Adabiyotshunos H. Homidiy “Xokisorlik” nomli maqolada olim ijodidagi xolislik va haqqoniylik xususida fikr yuritadi: “Hamdam Abdullayev hamisha qoraqalpoq va o‘zbek folklori, xususan, eposlaridagi mushtaraklig-u o‘ziga xoslik xususida “Avesto”dan tortib Ogahiygacha davrdagi ma’naviyatimiz zarvaraqlari haqida yangi gaplar

aytishga, toza dalillarni jamoatchilikka yetkazishga intilib yuradi”. H.Abdullayevning ustozlik maqomi va zukko olim sifatidagi faoliyatiga, ayniqsa, katta e’tibor qaratilgan va bu haqida qator maqolalar yaratilgan. Jumladan, B.Nazarov [2;8], H.Homidov [3;8], E.Madrahimov [3;11], Y.Qurbonova [4;14], D.G‘ayipov [5;16], S.Matkarimova [6;17], B.Rahimova [7;17] va boshqalarning Hamdam Abdullayev ilmiy, ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalari diqqattalabdir. Shuningdek, tadqiqotchi D.Haqqulova 2023-yilda “Hamdam Abdullayev tadqiqotlarida mumtoz adabiyot masalalari” mavzusida magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgan. H.Abdullayev tavalludining 80 yilligi munosabati bilan nashr etilgan “Badiiy tafakkur va adabiy jarayon”[8] to‘plami olim haqida ma’lumot beruvchi muhim manbadir. Biroq yuqoridagi ishlarning birortasida H.Abdullayev faoliyati monografik tarzda o‘rganilgan emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada biografik, statistik metodlardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. H.Abdullayev 1939-yil 15-avgustda Xorazm viloyati Shovot tumani Shovotqal’a qishlog‘ida ziyoli oilasida tavallud topgan.1956-yilda o‘rta maktabni tamomlab, Xorazm davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetiga o‘qishga kirgan. 1961-yilda esa ta’lim dargohini imtiyozli diplom bilan bitirgach, o‘z faoliyatini Shovot tumanidagi o‘rta maktablarda o‘qituvchilikdan boshlagan. 1963-yildan to 2022-yilgacha Urganch davlat universitetida (oldingi Xorazm davlat pedagogika instituti) samarali faoliyat yuritgan. Bu dargohda u yoshlar tashkiloti sardori, kafedrada o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, kafedra mudiri, prorektor (1964-1981) lavozimlarida mehnat qilgan.1981–1983-yillarda doktoranturada bo‘lib, ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullangan. Keyingi yillarda fakultet dekani va o‘zbek adabiyoti kafedrasi mudiri, Xorazm Ma’mun akademiyasining yetakchi ilmiy xodimi vazifalarini bajargan. U kafedra professori sifatida malakali ilmiy va pedagogik mutaxassislar tayyorlash hamda ta’lim jarayonini takomillashtirishga munosib hissa qo‘shgan.

H.Abdullayev tadqiqotlarining bosh mavzusi turkiy xalqlar folklori va yozma adabiyotining tipologiyasi va adabiy aloqalaridir. Bu o‘rinda turkman va qoraqalpoq xalqlari badiiy ijod namunalariga munosabat yetakchilk qiladi. Mazkur yo‘nalishda olimning “Maxtumquli va o‘zbek adabiy muhiti” monografiyasi ilk dadil qadam bo‘ldi. Muallif bu mavzuga oid yo‘l-yo‘lakay aytilgan fikrlarni e’tirof etgan holda ularni yangi dalillar, topilmalar bilan ko‘paytirib, yana ham boyitdi, mustaqil qarashlarini bayon etdi. Kitobda Maxtumqulining Xorazmdagi hayot va ijod davriga oid kuzatishlar katta qiziqish uyg‘otdi. Ularda og‘zaki va yozma manbalarga tayangan holda turkman shoirining Xivada tahsil olishi, Ravnaq, Roqim kabi mahalliy shoirlar bilan hamkorligi, Navoiy, Rabg‘uziy, Pahlavon Mahmud asarlari bilan kengroq tanishish imkoni tug‘ilgani va bir qator she’rlari Xorazmda yaratilgani ishonchli dalillar asosida ochib berilgan. Shuningdek, Maxtumquli she’riyatini xalq shoirlari, xalfalari ijodidan o‘rin egallashi, hofizlar repertuarini boyitishi va vohada shoir haqida rivoyatlarni paydo bo‘lishi xususidagi fikrlar ham maxtumqulishunoslikning muhim jihatlaridan biriga aylandi. Adabiyotshunos o‘zining ana shu izlanishlarini umumlashtirgan holda 1969-yilda Ashxabodda “Maxtumquli va o‘zbek adabiyoti” mavzusida taniqli olim N.M.Mallayev ilmiy rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, qadimiy va boy o‘zbek-qoraqalpoq folklori 80-yillargacha maxsus o‘rganilmagan edi. Mashhur qoraqalpoq olimlari N.Japaqov, I.Sag‘itov, Q.Ayimbetov, Q.Maqsetovlar bu muammoni ko‘lamdor tadqiq etish zarurligini qayd etib keldilar. Ushbu dolzarb mavzuni monografik o‘rgangan olim ham H.Abdullayev bo‘ldi. U bu yo‘nalishda “Xalq dostonlari va ularning variantlari” (“O‘qituvchi”, 1984”) va rus tilida “Узбекско-каракалпакские фольклорные связи” (“Fan”, 1991) monografiyalarini chop ettirdi. Har ikkala tadqiqot ham qiyosiy folklorshunoslik namunasi bo‘lib, boy tarixiy og‘zaki va yozma manbalarga tayangan holda yozildi, ularda xalq dostonlari variantlari asosiy obyekt qilib olingan. Ularni shakllanishi va takomilida genetik omillar, og‘zaki an’ana va ijrochilik shakllarining o‘rni, xususan, baxshi, jirov va xalfalar repertuaridagi umumiy va farqli qirralar ishonarli yoritilgan. Muallif “Qirq qiz”, “Shahriyor”, “Qurbonbek” kabi dostonlarni har ikkala xalq folkloridagi birlamchi va og‘zaki variantlarini keng tahlil qilib, versiya va variant tushunchalarini yanada oydinlashtirdi, ertak, afsona va rivoyatlar eposda turli davrlarga oid antik qatlamlar vazifasini bajarishi, ayniqsa, rivoyat asosidagi dostonlarda tarixiy va badiiy qatlamlarning me’yorlari, o‘zaro sintezi xususida qarashlar bu haqdagi fikrlarini yanada to‘ldirdi, mukammallashtirdi.

Olim epos syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi, poetika va uslubiyat jihatlarini tahlil va talqin etar ekan, har bir dostonni avvalo milliy adabiy zamin, ijodkor tabiiy iste’dodining mahsuli deb bildi, adabiy ta’sir va aloqalar uning takomilidagi ikkilamchi omil

ekaniga urg‘u berdi. Ana shu ilmiy ishlarining natijasi sifatida 1988-yilda “O‘zbek-qoraqalpoq eposi aloqalari va tipologiyasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. H.Abdullayev ilmiy izlanishlarining bir qismi folklor va yozma adabiy asarlarning genezisi va badiiyati masalalariga bag‘ishlangan. “Avesto” kitobi, xalfalar repertuari, shuningdek, Xoja Abulvafo Xorazmiy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Tabibiy va boshqa ijodkorlar asarlariga oid kuzatishlari shular jumlasidandir.

H.Abdullayev malakali ilmiy-pedagogik mutaxassislar tayyorlash, oliy va o‘rta ta’lim maktablari uchun qo‘llanma, o‘quv adabiyotlari, dasturlar yaratishda ham faol ishtirok etgan. Uning ilmiy rahbarligida 15 kishi nomzodlik hamda filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. U “Qardosh xalqlar adabiyoti” (pedagogika institutlari uchun, 1995), “O‘zbek adabiyoti” (maktablar uchun, 1998) bo‘yicha tuzilgan yangi dasturlar mualliflaridan biri hamda talabalar uchun chop etilgan “Shahriyori olam” (2006) dostonining nashrga tayyorlovchisidir. H.Abdullayev Urganch davlat universitetida “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Qardosh xalqlar adabiyoti tarixi”, “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi”, “She’r ilmi ta’limi” kabi nazariy fanlardan ma’ruzalar o‘qigan. Unga 1991-yilda professor ilmiy unvoni berilgan. U O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a’zosi va “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim fidoyisi” nishondori bo‘lgan. 1999-yilda “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoniga sazovor bo‘lgan.

Istiqlol yillarida H.Abdullayevning ilmiy-pedagogik va jamoatchilik faoliyati yanada yuksalib, mazmunan boyidi. Uning qalamiga mansub 200 ga yaqin maqolalar va 20 ta kitob mahsulotlarining aksariyati shu davrda yaratilib, badiiy ijod poetikasi va XX asr o‘zbek adiblari asarlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Jumladan, Oybek, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Erkin Samandar ijodidan bahs etuvchi kuzatishlar bu boradagi mavjud fikrlarni muayyan darajada boyitishga imkon beradi. Shuningdek, adabiy jamoatchilik va kitobxonlarga kamroq tanilgan adiblar–Matyoqub Abdullayev (Ravshan), Yunus Yusupov (Ayyomiy), Lochinxon hayoti va ijodi xususida yangi ma’lumot va talqinlarga asoslangan bitiklar 30 – 40-yillardagi Xorazm adabiy muhiti haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Bu jihatdan “Hayrat bo‘stoni” (2001), “G‘afur G‘ulom va Xorazm” (2003), “So‘z sehri” (2005), “Erkin Vohidov –zamonamiz klassigi” (2006), “Komil Devoniy” (hammuallif, 2007), “Badiiy so‘z fayzi” (2009) kitoblari e’tiborga loyiqdir. Qator dissertatsiyalarga rasmiy opponent, monografiya va risolalarga mas’ul muharrir, taqrizchi bo‘lgan. Fakultetda “Badiiy tafakkur va adabiy jarayon” nomli ilmiy-uslubiy to‘plamni tashkil etishda tashabbuskorlik qilgan. Keyingi uch yilda olimning “Donishmand shoir” (Abdulla Oripov ta’biri) Matnazar Abdulhakimning ijodi haqidagi “Mangulikka muxtasar nazar” kitobi, shuningdek hammualliflikda “Badiiy ijod Ogahiy nigohida”, “Tabibiy devoni: janr tarkibi va badiiyati” nomli monografiyalari nashr qilindi, bir necha maqolalari respublika ilmiy jurnallarida chop etildi. Taniqli olim, ustoz muallim va olijanob inson Hamdam Abdullayev 2022- yilda vafot etdi.

Xulosa. Hamdam Abdullayev mahoratli pedagog sifatida Urganch davlat universitetida fidoyilik bilan mehnat qildi. Yuqori saviyada ma’ruza mashg‘ulotlari olib bordi. Ko‘plagan fan nomzodlari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlariga ustozlik qildi. U olim sifatida serqirra faoliyati bilan mashhur edi. Xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari dolzarbligi bilan ajralib turdi. Olimning teran tahlillari, xolis ilmiy qarashlari, ayniqsa, uslubi o‘ziga xos edi. Uning tadqiqotchilik mahoratini tadqiq etish adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb masalalardandir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Nazarov B. Fidoyi olimlarimizdan biri\\E’tirof va ehtirom. – Urganch, 2008. 6-bet.
2.Hamidov H. Xokisorlik\\E’tirof va ehtirom. – Urganch, 2008. 8-bet.
3.Nazarov B. Fidoyi olimlarimizdan biri \\E’tirof va ehtirom. – Urganch, 2008. 6-bet. 4.Hamidov H.Xokisorlik\\E’tirof va ehtirom. – Urganch, 2008. 8-bet.
5.Madrahimov E. Taniqli do ‘st haqida so‘z \\E’tirof va ehtirom. – Urganch, 2008. 11-bet.
6. Qurbonova Y. Ustoz shaxsiyati - ibrat\\E’tirof va ehtirom. – Urganch, 2008. 14-bet.
7.G‘ayipov D. Ilm-u amal mushtarakligi, Hamdam Abdullayev portretiga chizgilar yoxud ustoz haqida muxtasar so‘z\\So‘z harorati. – Toshkent: “Akademnashr”, 2025. 175 -179-betlar.
8.Matkarimova S. Shogirdlarga ota kabi mehribon ustoz \\E’tirof va ehtirom. – Urganch, 2008.17-bet.
9.Rahimova B. Tabarruk inson, mo‘tabar ustoz \\E’tirof va ehtirom. – Urganch, 2008. 17-bet.
10. To‘plam. Badiiy tafakkur va adabiy jarayon. – Urganch: UrDU noshirlik bo‘limi, 2019.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 821.512.133:929

SURAT VA MA'NIDA BESHABIH VA BENAZIR

Dusanova Tozagul Rasulovna, dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori

UNIQUE AND INCOMPARABLE IN BOTH APPEARANCE AND ESSENCE

Dusanova Tozagul Rasulovna, Associate dotsent, PhD in Philology

УНИКАЛЬНЫЙ И НЕСРАВНЕННЫЙ КАК ПО ВНЕШНЕМУ ОБЛИКУ, ТАК И ПО ВНУТРЕННЕМУ СМЫСЛУ

Дусанова Тозагул Расуловна, доцент, (PhD) по филологическим наукам



https://orcid.org/0009-0007-5105-9167
e-mail: dusanova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Pahlavon Muhammad va Alisher Navoiyning do'st, hammaslak, ustoz-shogirdlik munosabatlariga e'tibor qaratilgan. Pahlavon Muhammad siymosida komil shaxs obrazi yaratilganligi haqida fikr yuritilgan. Navoiyning "Holoti Pahlavon Muhammad" asarida Pahlavon Muhammadga berilgan ta'rif va tavsiflar keltirilgan. Ilmiy-nazariy tahlillar asnosida mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so'z va iboralar: *Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, obraz, nasr, she'riy san'atlar.*

Annotation: *This article examines the friendship, companionship, and mentor-disciple relationship between Pahlavon Muhammad and Alisher Navoiy. The study highlights Pahlavon Muhammad as a model of a complete and virtuous personality, analyzing his qualities through scholarly and theoretical approaches. In Alisher Navoiy's work "Holoti Pahlavon Muhammad", the praises and descriptions of Pahlavon Muhammad are presented, emphasizing their literary and spiritual significance. The article also discusses the process of character depiction in prose and poetry and its analytical importance.*

Keywords: *Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, character, prose, poetic arts.*

Аннотация: *Статья посвящена дружбе, товариществу и наставническим отношениям между Пахлавон Мухаммад и Алишер Навои. В образе Пахлавон Мухаммад показан пример целостной и добродетельной личности. В произведении Алишер Навои «Холати Пахлавон Мухаммад» приведены похвалы и описания его характера, подчеркивающие литературное и духовное значение. Статья также рассматривает процесс создания образа в прозе и поэзии и его аналитическую значимость.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, Пахлавон Мухаммад, образ, проза, поэтическое искусство.*

KIRISH. Alisher Navoiy ma'naviyatida muhim o'rin tutgan shaxslardan eng nodiri Pahlavon Muhammaddir. Bu muhtaram zot Hirot madaniy hayotida o'ziga xos hurmat va e'tirofga ega shaxslardan biri bo'lib, oliyjanob insoniy fazilatlari va pok axloqi bilan Navoiy e'tirofiga sazovor bo'lgan.

"Navoiy nasriy asarlaridan "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Pahlavon Muhammad" muallif zamonasida madaniy hayotda ulkan rol o'ynagan mashhur fan va madaniyat arboblari - Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan va Pahlavon Muhammadlarning ijodiy biografiyalarini yaratish bilan bog'liq bo'lib, muallif ular bilan o'zining har sohadagi hamkorligi, muloqotlari haqida qiziqarli, hayotiy lavhalar orqali so'z yuritadi. Bu uchala asar o'zbek tilida yaratilgan yodnoma xarakteridagi nasr namunasi sifatida g'oyat ahamiyatlidir. Ularda badiiy nasrning ilk unsurlari mavjud bo'lib, bu hol, ayniksa, Navoiyning portret yaratish mahoratida yorqin namoyon bo'ladi" [2.241].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Suyima G'aniyevaning ta'kidlashicha: "Navoiyning bu asarlarini birlashtirib turadigan, ular uchun umumiy bo'lgan muhim bir xususiyat bor. U ham bo'lsa, mazkur asarlarning sharq Renessansi ruhida yozilganidir. Zeroki, ularda insonga, shaxsga hurmat va samimiyat bilan qarash, undagi go'zal fazilat va yuksak intilishlar ardoqlanadi" [2.241].

Navoiy 1493-yili samimiy do'sti va murabbiyi Pahlavon Muhammad vafotidan so'ng

xotira tarzida memuar-yodnoma “Holoti Pahlavon Muhammad” asarini yaratdi. Yodnomada pokiza e’tiqodli, chin musulmonlik va go‘zal insoniylik madaniyati bilan ko‘pchilikka ibrat bo‘lgan zamondoshining adabiy portretini yaratdi. “Tariq fanosida mufarrad va fano tariqida mujarrad, jahondag‘i pahlavonlarning pahlavoni jahoni va pahlavonlig‘ jahonining jahon pahlavoni, surat va ma’nida beshabih va benazir, ya’ni Pahlavon, shamsul-millati vad-din Muhammad Kushtigir” [1.18].

Asar badiiyati ham o‘ziga xos bo‘lib, tasvirlar va ta’riflar bayonida saj san’ati badiiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Yodnomaning nasriy matnlari ham xuddi she’rdek qofiyali bo‘lib, yuqoridagi matnda saj’ mutavozindan foydalanilgan, ya’ni so‘zlar ohangdosh, hijolari miqdori teng bo‘lib, xuddi nazmiy matn kabi o‘qigan kishining yodida qoladi. Yuqoridagi matnda saj(mufarrad va mujarrad, jahoni va pahlavoni) va tardi aks (tariq fanosida - fano tariqida; pahlavoni jahoni - jahon pahlavoni; jahondag‘i pahlavonlar -pahlavonlig‘ jahoni) san’atlari orqali ifodalangan ta’rifda Alisher Navoiyning nasrdagi mahorati yorqin aks etgan.

Navoiy “Holoti Pahlavon Muhammad” risolasining boshlanishida qadrdon do‘sti va murabbiyi yoshligida tog‘asidan kushtigirlikni o‘rgangani, tog‘asi vafotidan so‘ng kushtigirlik, ya’ni yakkama –yakka kurash tushish bilan shug‘ullanganligi va bu sohada katta e’tiroflarga sazovor bo‘lgani haqida ma’lumotlar beradi.

Shuningdek, Navoiy Pahlavon Muhammadning o‘z davri fozil kishilaridan bo‘lib, turli ilmlar sohibi ekanligi haqida “Chun qobiliyati baland tushgandur va muloyamati tab’i borcha funung‘a munosib va bahramand voqe’ bo‘lg‘ondur, ko‘p fazonil va kamolot ham kasb qilg‘ondurkim, zamon ahli borchada Pahlavonni musallam tutar erdilar” [3],- deb yozadi.

Pahlavon Muhammad qomusiy ilmlar sohibi bo‘lib, turli sohalarda muvaffaqiyatga erishgan. Musiqa ilmi va nazariyasidan boxabar bo‘lgan, o‘zi she’rlarga kuy bastalab, musiqalar yaratgan. Ovozi ham nihoyatda yoqimli va xushxonish bo‘lgan. Adabiyot nazariyasi, she’r ilmini ham puxta egallagan, zamondoshlarining she’rlarini tahlil va tadbil qilgan: “Va she’r va muammo bobida ilmiy va amaliysida Pahlavon sohibi vuquf va jald erdi, ul nav’kim, zamon shuarosining yuzidin biriga oncha shuur va vuquf yo‘qtur va aksar nazm ahli har nav’ she’r aytsalar erdi — Pahlavon nazarig‘a yetqururlar erdi va aning isloh va tag‘yir va tabdilin qabul qilur erdilar” [1.20].

O‘zi ham ijodkor bo‘lib, ruboiy, qit’a, masnaviylar yozgan, ayniqsa, muammo ilmida tengsiz hisoblangan. Mumtoz adabiyotshunoslik ilmi: badiiy san’atlar, aruz va qofiyadan boxabar, kuchli bilim va tajribaga ega bo‘lgan. “Yana sanoyi’, aruz, qofiyasida ham ko‘p sohibvuquf erdi” [1.23].

Qiroat va tib ilmini yaxshi bilgan. Astronomiya va munajjimlik borasidagi ilmlari ham tahsinga sazovor bo‘lgan. “Yana nujum ilmin oncha bilur erdikim, har mavlid uchun royijai tole’ bitiy olur erdi” [1.23].

Fiqh ilmi: diniy ibodat farzlari, payg‘ambar sunnatlari, vojib va mustahab amallarni mukammal bilgan va o‘zi ham qat’iy amal qilgan.

Navoiyning qayd etishicha, u shunday mahorat bilan ijro qilardiki, ko‘pincha majlisdagi odamlar uning nasriy gaplaridan ham, she’rlaridan ham chuqur ta’sirlanib, ko‘ngillari yumshab ketar, hatto ko‘zlariga yosh kelardi.

Alisher Navoiy Pahlavon Muhammadning odamiylik fazilatlari tahsinga loyiq ekanligi haqida shunday yozadi: U doimo sarbaland va hurmatli bo‘lib, sharafga sazovor edi va har xil fazilat va sifatlari bilan ahli tariq, ya’ni tariqat ahlining pahlavonlari va ulug‘ kishilariga munosib xizmat qilgan, ularga kisvatlar (sifatli kiyimlar, sovg‘alar) berib hurmat ko‘rsatgan. Navoiyning e’tiroficha, Pahlavon Muhammad nihoyatda xalqparvar, odamoxun, saxovatli shaxs bo‘lgan. U ulug‘larga hurmat, zaiflarga rahm-shafqat, o‘rta darajadagilarga adolat va yordam ko‘rsatardi. Shuningdek, uning tak’yasida 24 soat davomida turli xil taomlar tayyorlangan, u juda mehmondo‘st bo‘lib, barcha darajadagi odamlar — faqir, boy, shahzoda yoki sayohatchilarga ovqat, shirinlik va halvolar tayyorlab, ularga g‘amxo‘rlik qilardi. Hatto mehmonlarning ulovlariga arpa va somon, o‘zlariga esa qulay turar joy tayyor qilinar edi. “Andoqki, bu ne’matu ag‘ziyadin fuqaro va masokin-u muqim va musofir mahzuz erdilar. Ag‘niyo va ahli tamkin va ozodalaru shohzodalar va akobiru ashrof bahramand erdilar, hattokim, sulton us - salotin ham yetgach, bu mazkur bo‘lg‘on at’imalar ham tortilur erdi va yemasalar erdi — Pahlavonning ushoqlari ko‘tarib bog‘g‘a elturlar erdi va agar eltmasalar erdi — yuqoridan kishi kelib, tilab elta borurlar erdi va ashriba va favokih va halvayot hamul at’imag‘a - yarasha muqarrar erdikim, tortilur erdi va har tarafdin kelgan fuqaro va g‘uraba va aksarash o‘n kun, balki bir oy-ikki oyg‘acha tavaqquf qilsalar erdi — bu

ma’kulot alarning ilayiga kulfatsiz, balki ikki-uch qatla tortilur erdi” [1.23-24].

Qirq yillik qadrdon do‘sti va hamrozini Navoiy nihoyatda pok tiynatli, barcha uchun birday sevimli va hurmatli bo‘lganligini quyidagicha ta’riflaydi: “Borcha sodot-u mashoyix va ulamo-yu fuqaroning mahbub ul-qulubi erdi va podshoh eshigida arkoni davlatdin oliyshon beklar va oliymakon ichkilar va sudur va soyir xaloyiqg‘a Pahlavonning suhbati navro‘z va bayramcha bor erdi, hattoki sultonzodalar tilamas erdilarkim, bir lahza onsiz bo‘lmag‘aylar erdikim, podshohzodalardin nechaki mu’tamad otlanib, Pahlavonning tak’yasiga borib, suhbatlig‘ye qilg‘aylar erdi…Takallufsiz va mubolag‘asiz podshohdin gadog‘acha va ahlullohdin yahud va torsog‘acha Pahlavonni sevmas va tilamas kishi yo‘q erdi” [1.24].

Navoiyning ta’kidicha, Sulton us-salotinning ham Pahlavonga g‘aroyib mehribonligi bor va e’tibori katta edi. Har bir majlis va mahfilda Pahlavon hozir bo‘lib, suhbatlar xushxonlik bilan o‘tar edi. Har sohada bilimli va mahoratli bo‘lganligidan yig‘inlarda hammaning e’tibori, asosan, Pahlavonga qaratilar edi. Sulton u bilan hamisha samimiy sirdosh va do‘st-u hamdam edi. Navoiyning xulosasiga ko‘ra, Pahlavonning xususiyatlari nihoyatda yuksak bo‘lib, har qanday ishi va harakati shunchalik yoqimli va ta’sirliki, uning fazilatini va qiyofasini to‘liq so‘z bilan bayon qilish mumkin emas. Asarda e’tirof qilinishicha, Alisher Navoiy va Pahlavon Muhammad qirq yillik sirdosh, yaqin suhbatdosh bo‘lishgan, shuncha yil davomida ko‘p yaxshi va qiyinchilik damlarini boshdan kechirishgan. “Qirq yilg‘a yaqin bu faqir bila musohibi joniy mahrami rozi nihoniy erdi. Falokat ayyomidin zohir yuzidin taayyun va istitoat zamonig‘acha ko‘prak avqot bila ekandur. Biz ikovdin-ikov har ko‘yda yugurgan, o‘zni har ahli dil sharafi mulozamatig‘a yetkurgan. Aning rifqu muvofaqatin ne til bilan taqrir qila olg‘aymen va ne qalam tahriri bila bayon qila olg‘aymen” [1.24-25].

Qirq yilga yaqin vaqt davomida bu faqir bilan u juda yaqin suhbatdosh, jonajon do‘st va sirdosh edi. Qiyinchilik kunlaridan tortib, ishlari yurishgan va imkoniyat topilgan vaqtlargacha ko‘pincha birga bo‘lganmiz. Biz ikkimiz har ko‘yda yugurib, dil ahli bo‘lgan insonlar xizmati va suhbati sharafiga yetishishga harakat qilganmiz. Uning menga ko‘rsatgan do‘stligi va hamdamligini na til bilan to‘liq aytib bera olaman, na qalam bilan yozib tugata olaman,- dedi Navoiy.

Yosh Alisher bilan tanishgan olijanob Pahlavon Muhammad hamisha unga yordam bergan, ruhan yaqin bo‘lib, qiyinchilik va sinovlarda yonida dardiga malham bo‘lgan. Navoiy Mashhadda mafosil dardiga yo‘liqqanda, Pahlavon unga mehribonliklar ko‘rsatib holidan xabar olib turganligi haqida yozadi hamda bir kuni Alisherga yangi yozilgan g‘azali bilan bog‘liq hazil qilganligini hikoya qilib o‘tadi. “Pahlavonning shu kabi g‘aroyib ishlari va ajoyib zarofatlari shunchalik hayratlanarli va aqlga sig‘mas darajada ediki, ular ko‘p edi”,- deb yozadi Navoiy.

Asarda tasvirlanishicha, Sulton Sohibqironning Pahlavon Muhammadga hurmati juda baland bo‘lgan va unga inoyatlar ko‘rsatgan. Shu sababdin ham Pahlavonning obro‘-e’tibori juda baland bo‘lgan. Shunday darajaga yetdiki, odamlar uni ulug‘lab, hurmat bilan e’zozlar, bu hurmatga u haqli ham edi. Ne’matobodda uning takyasi (xonaqohi) bor edi. Podshohning homiyligi bilan u yerda yuzga yaqin kurashchi va yana shunchaga yaqin boshqa xizmatkorlar Pahlavon xizmatida bo‘lar edilar. Bu yuzga yaqin kurashchidan o‘n nafari talabgor, yigirmaga yaqini esa kuchli va chaqqon yigitlar bo‘lib, barcha maydonlarda kurashga tushar edilar. Bundan tashqari, o‘sha zamon podshohlari davrida ham o‘n-o‘n beshta sozanda, go‘yanda va xonandalar uning xizmatida bo‘lib, ularning bu silsila ahlidan boshqa hech kimga xizmat qilgani ma’lum emas edi. Bu holatga mos ravishda u yerda barcha tartib-qoida, odob, bezak va asbob-uskunalar ham tayyor edi.

MUHOKAMA. Shuningdek, voqealar bayonida Pahlavonning to‘satdan dunyodan o‘tishi haqida shunday yozadi: “…bayak bora Pahlavonning ushoqlaridin biri bu faqir qoshig‘a iztirob bila yugurub keldiki, Pahlavong‘a bevosita g‘ashe voqe’ bo‘lubtur va hushi zoyil bo‘lub, bexud yiqilibdur, sizga xabar qilduqki, tabib yuborgaysiz. Faqir filhol Mavlono Abdulhay bila Mavlono Nuriddinkim, hozir erdilar, ta’jil bila yubordim. Alar boshig‘a yetguncha Pahlavon xud o‘zga olam azimatig‘a oyoq urgan ekandur. Atibbo bir zamondin so‘ngra Pahlavon motamidin g‘amzada bo‘lub, yuz dard-u hasrat bila qaytib keldilar” [1.28].

Pahlavon Muhammad o‘limidan so‘ng yuz bergan motam va qayg‘uli holotlar bayonini Navoiy turli badiiy san’atlar orqali quyidagicha aks ettiradi: “Bu holdin Sulton Sohibqiron mizojig‘a g‘arib anduh va iztirob tushub, g‘oyat huzn va malolatdin talx-talx sho‘roba to‘kub, hoy-hoy yig‘ladi va shahzodalar dag‘i ushbu dastur bila motam amrig‘a murtakib

bo‘ldilar va arkoni davlatdin oliy miqdor umaroi zavil — iqtidor va vuzaro va sohib tamkin ichkilar va xususiyat oyin gulchehralar va soyir eshik ahliki, borcha Pahlavong‘a yor va havodor erdilar, beixtiyor so‘gvorliq rasmini bajo kelturub, o‘zni motamiy tuttilar va shahr aholisidin sodoti oliyshon va ulamoi oliymakon va mashoyixi izom va quzoti kirom va xavosu avom majmui ta’ziyat tutub, libosig‘a tag‘yir berib, marsiya va ta’rixlar aytib, daynini o‘zlarig‘a iqror qildilar, balki boshqa-boshqa o‘zlarin sohib azo ko‘rguzub, oshub va shayn zohir qildilar.

Va zarofatosor shuaro va diqqatshior zurafoki, Pahlavonning borcha vaqt musohibi erdilar va haqiqat maob ahli tariq va tariqat intisob ahli tahqiq, Pahlavon doyim alarning xizmat va diljo‘ylig‘ig‘a ishtig‘ol ko‘rguzur erdi — borcha ma’lul va giryon va ul motamdin parishon va besaru-somon bo‘ldilar va tegrasidagi yori ushshoq va mulozimlar va hamnishin va soyir fuqaro va masokin “vovoylo, vomusibato!” niqobin falaki asirg‘a tortib, navhalar va nudbalar ko‘rguzdilar” [3].

NATIJALAR. Alisher Navoiyning nasrdagi badiiyati nazmnikidan kam emas, u Pahlavonning o‘limi bilan bog‘liq voqealar bayonida bir nechta badiiy san’atlarni uyg‘un holatda mahorat bilan qo‘llaydiki, tasvirlangan voqelik o‘qiguvchini o‘sha davr muhitiga olib kiradi. Jumladan, nasriy matnlardagi talx-talx sho‘roba, hoy-hoy yig‘ladi birikmalaridagi takror so‘zlar takrir; “vovoylo, vomusibato” undovlari nido badiiy san’atlarini yuzaga keltirgan. Asardagi tasvirlar bayonida, asosan, tanosib (sodot, ulamo, mashoyix, quzot, xavos, avom; anduh, iztirob, huzn, malolat; motam, ta’ziyat; parishon, besaru-somon; marsiya va ta’rix; navhalar va nudbalar so‘zlari) hamda saj(yor va havodor, sodoti oliyshon va ulamoi oliymakon, mashoyixi izom va quzoti kirom va xavosu avom hamda iztirob tushub, sho‘roba to‘kub, ta’ziyat tutub, tag‘yir berib, marsiya va ta’rixlar aytib; iqror qildilar[3], zohir qildilar; haqiqat maob va tariqat intisob; ahli tariq va ahli tahqiq) san’atlari eng ko‘p ishlatilganligi e’tiborga molik.

Nasriy matnlarda mubolag‘a(niqobin falaki asirg‘a tortib), ta’did (umaroi, vuzaro, ichkilar, gulchehralar, eshik ahli; shuaro va zurafo; yori ushshoq va mulozimlar va hamnishin va soyir fuqaro va masokin), tazod (xavos va avom) san’atlari ham qo‘llangan. Shuningdek, g‘arib anduh, g‘oyat huzn, oliy miqdor umaroi zavil, sohib tamkin ichkilar, xususiyat oyin gulchehralar, sodoti oliyshon, ulamoi oliymakon, mashoyixi izom, quzoti kirom, zarofatosor shuaro, diqqatshior zurafo kabi turli epitetlar ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Sulton Husayn Boyqaro motam marosimlariga o‘zi bosh bo‘lganligi va Pahlavon uchun Ne’matobod ichida madfan tayyorlatgan bo‘lib, o‘sha yerga dafn qilinganligi va dafn marosimlari dabdabali o‘tkazilganligi haqida yozib o‘tadi.

Navoiyning ta’kidicha, Hazrat Maxdumiy Shayx ul-islomiy qahf ul-anomiy Mavlono Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy vafotidan bir yil keyin Pahlavon ham vafot etgan, Jomiyning unga bo‘lgan alohida mehri va iltifoti bo‘lganligi haqida yozib, Pahlavonning vafot etgan vaqtini qit’a shaklida qofiyalangan fors tilidagi ta’rix she’r keltirib, agar kimda-kim vafoti ta’rixii so‘rasa, “Maxdumdan keyin bir yil o‘tgach” – deb ayting deydi. Bu yerda ta’rix moddasi “ba’di maxdumi ba yak sol” bo‘lib, abjad hisobida 899 – 1433 yil chiqadi [3].

XULOSA. “Holoti Pahlavoy Muhammad” sodda va ravon til bilan yozilgan. Navoiy asarining avvalidan oxiriga qadar yor-u do‘stlarga, ajoyib fazilatli odamlarga, ilm va san’at ahllariga chuqur hurmat va mamnuniyat bilan qaragan. Shuningdek, asardan mamnum bo‘ladiki, Navoiydek ulug‘ shaxs faoliyati va ijodining yo‘nalishida, har kim takomilida Pahlavon Muhammad kabi madaniyat arboblarining roli bo‘lgan. Alisher Navoiy “Holoti Pahlavon Muhammad” asari bilan o‘z do‘sti va zamonining yetuk allomasi - Pahlavon nomini abadiylashtirdi va do‘stlik, hamjihatlikka charxiya bitdi, bu bilan avlodlarga o‘rnak bo‘larli ish qildi [2.297].

Navoiyshunos olima Suyima G‘aniyeva qayd etganlaridek, Alisher Navoiy hamisha ustozlari va qadrdon do‘stlarini yod etdi. Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammadlar bilan bog‘liq xotiralarini tarix qatiga muhrladi. Har birlarining ibratli hayoti va insoniylik fazilatlarini ulug‘lab, alohida memuar yodnomalar bitib e’tirof etdi va tarixiy-yodnoma nasriy asarlarning tadrijiy taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. ж-10: Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Ғаниева С. Алишер Навоий насри ҳақида. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 1-ж. – Тошкент. TAMADDUN нашриёти 2022.
3. Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. www.ziyouz.com кутубхонаси.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94.5(327)

TOSHKENT SHAHRIDA TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATI (1963–1965 YY.): TIZIMLI MUAMMOLAR VA ULARNING OMILLARI

Yergasheva Muxlisa Soatullayevna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

EMERGENCY MEDICAL SERVICE IN THE CITY OF TASHKENT (1963–1965): SYSTEMIC PROBLEMS AND THEIR FACTORS

Yergasheva Mukhlisa Soatullayevna, Independent Researcher, Chirchik State Pedagogical University

СКОРАЯ МЕДИЦИНСКАЯ ПОМОЩЬ В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ (1963–1965 ГГ.): СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ ФАКТОРЫ

Ергашева Мухлиса Соатуллаевна, независимый исследователь, Чирчикский государственный педагогический университет



https://orcid.org/0009-0001-5181-6291
e-mail: m.yergasheva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1963–1965 yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmati tizimining tashkiliy asoslari, uning amaliy faoliyati va rivojlanish dinamikasi kompleks tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: tez tibbiy yordam, gospitalizatsiya, stasionar xizmat, tibbiy infratuzilma, epidemiologik holat, favqulodda vaziyat.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the organizational foundations of the emergency medical service system in Tashkent during 1963–1965, including its practical activities and development dynamics.*

Keywords: *emergency medical care, hospitalization, inpatient care, medical infrastructure, epidemiological situation, emergency situations.*

Аннотация: *В данной статье представлен комплексный анализ организационных основ системы скорой медицинской помощи в городе Ташкенте в 1963–1965 годах, её практической деятельности и динамики развития.*

Ключевые слова: *скорая медицинская помощь, госпитализация, стационарная помощь, медицинская инфраструктура, эпидемиологическая ситуация, чрезвычайные ситуации.*

Kirish. 1960-yillar O‘zbekiston SSR, xususan Toshkent shahrida ijtimoiy infratuzilmaning jadal rivojlanish davri bo‘lib, ushbu jarayonda sog‘liqni saqlash tizimi muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida shakllandi. Ayniqsa, tez tibbiy yordam xizmati aholining salomatligini saqlashda, favqulodda vaziyatlarda tezkor va malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. 1963–1965-yillar mazkur tizimning institutsional shakllanishi va amaliy faoliyatida muhim bosqich bo‘lib, unda mavjud muammolar hamda ularning sabablarini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Mazkur davrda Toshkent shahri aholisi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi va sanoatlashuvning jadallashuvi tez tibbiy yordam xizmatiga bo‘lgan talabni keskin

oshirdi. Biroq tizimning moddiy-texnik bazasi, kadrlar bilan ta’minlanganligi, tashkiliy boshqaruv mexanizmlari ushbu talabga to‘liq javob bera olmadi. Natijada xizmat sifati, tezkorlik darajasi va qamrov ko‘lamida qator tizimli muammolar yuzaga keldi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — 1963–1965-yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmatining faoliyatida kuzatilgan tizimli muammolarni aniqlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy omillarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida arxiv hujjatlari, statistik ma’lumotlar, davriy matbuot materiallari hamda mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tizimdagi kamchiliklar va ularning kelib chiqish sabablarini kompleks o‘rganish orqali mazkur xizmatni takomillashtirish yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarish ko‘zda tutiladi.

Muhokama. XX asrning 1960-yillarning o‘rtasida Toshkent shahrida sog‘liqni saqlash tizimi jadal urbanizatsiya va aholi sonining o‘sishi sharoitida faol rivojlandi. Ayniqsa, tez tibbiy yordam xizmati aholi salomatligini ta’minlashda muhim institusional mexanizm sifatida shakllanib bordi.

Biroq, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda shoshilinch tibbiy yordam tizimida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolgan. Jumladan, gospitalizatsiya jarayonlarining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, stasionar fondning cheklanganligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi omillar xizmat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [1].

Maqolada tarixiy-tahliliy yondashuv qo‘llanilib, Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi hisobotlari, tez tibbiy yordam stansiyasi materiallari va davriy tibbiy adabiyotlar o‘rganildi. Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: statistik ma’lumotlarni taqqoslash; gospitalizatsiya ko‘rsatkichlarini dinamik tahlil qilish; tashkiliy tuzilmalar samaradorligini baholash. Shuningdek, Moskva va Leningrad shaharlaridagi ilg‘or tajribalar bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi, bu esa Toshkent tizimining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 1963-1965-yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmati bosqichma-bosqich institusionallashgan. Jumladan, gospitalizatsiya jarayonlarini markazlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib, maxsus gospitalizatsiya bo‘limlari tashkil etilgan. Shu bilan birga, tizimda qator jiddiy cheklovlar mavjud bo‘lgan. Eng avvalo, stasionar koyka fondi aholi ehtiyojlariga nisbatan ancha past darajada bo‘lgan. Me’yor bo‘yicha har 1000 aholiga 11,2 ta koyka talab etilgan bo‘lsa, amalda bu ko‘rsatkich 8,5–8,8 atrofida bo‘lgan. Bu holat stasionar muassasalarda ortiqcha yuklama yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

1966-yilgi zilzila esa mazkur muammolarni yanada keskinlashtirdi. Tabiiy ofat natijasida tibbiy infratuzilmaning salmoqli qismi izdan chiqdi va tizim favqulodda sharoitda faoliyat yuritishga majbur bo‘ldi. Shu munosabat bilan, vaqtinchalik stasionarlar tashkil etish, muassasalarni qayta joylashtirish va resurslarni qayta taqsimlash kabi choralar amalga oshirildi [2]. Shuningdek, tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, epidemiologik vaziyatning yomonlashuvi, ayniqsa, o‘tkir ichak kasalliklarining ko‘payishi gospitalizatsiya darajasining keskin oshishiga olib kelgan. Bu esa, o‘z navbatida, tez tibbiy yordam xizmati zimmasiga tushgan yuklamani yanada oshirgan[3].

Kadrlar masalasi ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolgan. Ayrim holatlarda malakali mutaxassislarning yetishmasligi tashxis qo‘yishda xatolarga va bemorlarni asossiz ravishda gospitalizatsiya qilish holatlariga sabab bo‘lgan[4].

1963–1965-yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tizimda mavjud muammolar kompleks xarakterga ega bo‘lib, ular bir qator o‘zaro bog‘liq omillar ta’sirida yuzaga kelgan. Eng avvalo, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi xizmat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Avtomobillar yetishmovchiligi, ularning texnik holatining pastligi hamda zamonaviy tibbiy asbob-uskunalarning kamligi tezkor tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonini sekinlashtirgan.

Ikkinchi muhim omil sifatida kadrlar muammosini ko‘rsatish mumkin. Mazkur davrda malakali shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlari yetishmovchiligi mavjud bo‘lib, bu holat xizmat sifatining pasayishiga olib kelgan. Ayniqsa, tez tibbiy yordam brigadalarining tarkibida tajribali mutaxassislar ulushining pastligi favqulodda

holatlarda to‘g‘ri tashxis qo‘yish va zarur yordam ko‘rsatishda muammolarni yuzaga keltirgan.

Shuningdek, tashkiliy boshqaruv tizimidagi kamchiliklar ham muhim rol o‘ynagan. Dispecherlik xizmatining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi, aloqa vositalarining zaifligi hamda chaqiriqlarni qabul qilish va ularga javob berish jarayonlarining samarasiz tashkil etilganligi tez yordam xizmatining tezkorligini cheklagan. Bu esa, o‘z navbatida, aholining xizmatga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi muammolar faqat ichki tizim kamchiliklari bilan cheklanib qolmagan, balki kengroq ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Jumladan, shaharning jadal kengayishi, yangi turar-joy massivlarining paydo bo‘lishi transport infratuzilmasining ortda qolishiga olib kelgan. Bu esa tez yordam brigadalarining manzilga yetib borish vaqtini uzaytirgan. Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilgan resurslarning cheklanganligi ham mavjud muammolarni chuqurlashtirgan.

Shu nuqtayi nazardan, 1963–1965-yillardagi tez tibbiy yordam xizmatining faoliyatida yuzaga kelgan tizimli muammolarni faqat alohida holatlar sifatida emas, balki tizimli va kompleks xarakterga ega jarayon sifatida baholash zarur. Ularni bartaraf etish esa faqat moddiy bazani mustahkamlash bilangina emas, balki boshqaruv tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlashni yaxshilash va infratuzilmani rivojlantirish kabi kompleks chora-tadbirlarni talab etgan.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, 1963-1965 yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmati shakllanish va rivojlanish bosqichida bo‘lgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizim muayyan institusional asoslarga ega bo‘lgan bo‘lsada, uning samaradorligi qator omillar bilan cheklangan.

Jumladan, stasionar resurslarining yetishmasligi, kadrlar salohiyatining pastligi, tashkiliy muvofiqlashtirishning yetarli emasligi, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasining pastligi. Shu nuqtai nazardan, mazkur davr tajribasi zamonaviy tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa, resurslarni samarali boshqarish va inqiroz holatlariga tayyorgarlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмудова Н.М. Очерки истории внутренней медицины в Узбекистане. – Тошкент, 1969.
2. Скорая неотложная медицинская помощь. – Тошкент: “Медицина”, 1966.
3. Бурд Г.С. Скорая медицинская помощь при сосудистых кризах // Врачебное дело, 1964.
4. Памятка по диагностике и оказанию неотложной помощи. – Москва, 1966.
5. Скорая неотложная медицинская помощь. – Тошкент: “Медицина”, 1966.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94(575.1):654(=512.133) "19/20"

XX ASR BOSHLARIDA FARG'ONA VILOYATIDA POCHTA-TELEGRAF TIZIMI ORQALI FARG'ONA VILOYATIDA AXBOROT MAKONINING SHAKLLANISHI

Qosimov Dilmurodjon A'zamjonovich, FarDU mustaqil izlanuvchisi



e-mail: azamjonovih1989@gmail.com

FORMATION OF THE INFORMATION SPACE IN THE FERGANA REGION THROUGH THE POSTAL AND TELEGRAPH SYSTEM IN THE EARLY 20th CENTURY

Qosimov Dilmurodjon A'zamjonovich, Independent Researcher, Fergana State University

ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОГО ПРОСТРАНСТВА В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ЧЕРЕЗ ПОЧТОВО-ТЕЛЕГРАФНУЮ СИСТЕМУ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Косимов Дилмуроджон Азамжонович, независимый исследователь, Ферганский государственный университет

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida pochta-telegraf tizimining shakllanishi va rivojlanishi, transport infratuzilmasi, xususan O'rta Osiyo temir yo'lining ta'siri, pochta idoralarining hududiy joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya jarayonlari asosida tahlil qilinib, Qo'qon, Andijon va Namangan shaharlarining axborot markazlari sifatida evolyutsiyasi, telegrammalar va matbuot tarqalishi dinamikasi hamda tizimning iqtisodiy samaradorligi ilmiy asos bilan ko'rsatildi.*

Kalit so'zlar: *Farg'ona viloyati, pochta-telegraf tizimi, axborot makoni, temiryo'l kommunikatsiyasi, ijtimoiy integratsiya, statistik tahlil, arxiv manbalari.*

Abstract: *This article examines the formation and development of the postal and telegraph system in the Fergana region in the early twentieth century, considering the impact of transport infrastructure, particularly the Central Asian Railway, the territorial organization of postal offices, and socio-economic integration processes, and demonstrates the evolution of Kokand, Andijan, and Namangan as information centers, the dynamics of telegram and press distribution, and the economic efficiency of the system based on scientific analysis.*

Keywords: *Fergana region, postal-telegraph system, information space, railway communication, social integration, statistical analysis, archival sources.*

Аннотация: *В статье анализируется формирование и развитие почтово-телеграфной системы Ферганской области в начале XX века с учётом влияния транспортной инфраструктуры, в частности Среднеазиатской железной дороги, территориального расположения почтовых учреждений и процессов социально-экономической интеграции, а также показана эволюция Коканда, Андижана и Намангана как информационных центров, динамика распространения телеграмм и печати и экономическая эффективность системы на научной основе.*

Ключевые слова: *Ферганская область, почтово-телеграфная система, информационное пространство, железнодорожная коммуникация, социальная интеграция, статистический анализ, архивные источники.*

KIRISH. *Mavzuning dolzarbligi*. XIX asr oxiri va XX asr boshlari Turkiston, xususan, strategik muhim hudud hisoblangan Farg'ona viloyati hayotida tub burilishlar davri bo'ldi. Mazkur davrda axborot almashinuvi va aloqa tizimi nafaqat ma'muriy boshqaruv, balki ijtimoiy-

iqtisodiy integratsiya jarayonlarining asosi bo‘ldi. Zamonaviy raqamli axborot jamiyati shakllanayotgan hozirgi davrda, mintaqada ilk axborot makoni qanday vujudga kelgani ilmiy jihatdan muhim masala hisoblanadi. Pochta va telegraf nafaqat xat tashish vositasi, balki uzoq masofalarni yaqinlashtiruvchi, turli ijtimoiy qatlamlarni yagona axborot maydoniga birlashtiruvchi strategik infratuzilma edi.

O‘rta Osiyo temir yo‘lining Andijon uchastkasi ishga tushishi natijasida pochta yo‘llari tizimli ravishda ikki yo‘nalishga bo‘lingan: temiryo‘l orqali va oddiy yo‘llarda tashiluvchi xizmatlar. Viloyat temiryo‘llarining uzunligi 222 verstga yetib, Verovkino, Qo‘qon, Andijon, Namangan kabi bekatlar mintaqada axborot oqimini tezlashtirdi [1]. Oddiy yo‘llar tarmog‘i ham rivojlanib, Qo‘qon–Namangan va Andijon–O‘sh yo‘nalishlari mintaqaviy aloqani ta’minladi.

Muammoning o‘rganilish darajasi. XX asr boshlariga kelib pochta xizmatining kengayishi kuzatildi. 1902-yilda viloyat idoralari xizmat ko‘rsatish darajasi bo‘yicha klasslarga ajratilgan bo‘lib, Qo‘qon III, Marg‘ilon IV, Andijon V, O‘sh va Eski Marg‘ilon esa VI klassga mansub edi. 1900–1904-yillarda pochta daromadlari sezilarli o‘sib, telegrammalar soni ham ortdi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqot XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf xizmatlarining shakllanish dinamikasini ko‘rsatish va bu jarayonning mintaqaviy axborot makoni yaratilishidagi rolini ilmiy asoslashdan iborat[2].

Ilmiy yangiligi. Maqolada Farg‘ona viloyati pochta-telegraf tizimi quyidagi jihatlar orqali kompleks tahlil qilinadi:

1. Tarmoqning hududiy joylashuvi va asosiy temiryo‘l bekatlari bilan strategik bog‘liqligi;
2. Diniy-ijtimoiy institutlarning aloqa tizimi bilan o‘zaro ta’siri;
3. Idoralarning klassifikatsiyasi va moliyaviy aylanma asosida mintaqaviy ierarxiyaning belgilanishi;
4. Telegrammalar va matbuot tarqalishining yillar kesimidagi qiyosiy-statistik tahlili.

Ushbu tadqiqot muallifning doktorlik dissertatsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, arxiv manbalarining yangi qatlamlarini ilmiy iste’molga kiritadi.

MANBASHUNOSLIK VA METODOLOGIYA. Tadqiqotning manbashunoslik asosi: Maqolaning faktologik bazasi Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori tomonidan tuzilgan yillik hisobotlar — “Obzor Ferganskoy oblasti” to‘plamlariga tayanadi [3]. Ushbu rasmiy hujjatlar viloyatdagi pochta-telegraf idoralarining hududiy joylashuvi, klassifikatsiyasi, shtat birliklari, xizmat ko‘rsatish ko‘lami hamda moliyaviy ko‘rsatkichlari haqida ishonchli ma’lumot beradi. Qiyosiy tahlil uchun XX asr boshlariga oid bir necha yillik hisobotlar jalb etildi, bu esa aloqa tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishini kuzatish imkonini berdi.

Statistik ma’lumotlar temiryo‘l bekatlari orqali amalga oshirilgan pochta tashuvlari hajmi, telegrammalar soni va sof daromad o‘sishini aniqlashga xizmat qildi. Manbalar tanqidiy yondashuv asosida o‘rganilib, ularning statistik va ma’muriy xarakteri inobatga olingan holda tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolani tayyorlashda tarix fanining xolislik va tarixiylik tamoyillariga amal qilindi. Aloqa tizimidagi o‘zgarishlar o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti hamda temiryo‘l qurilishi jarayonlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi.

Xronologik yondashuv pochta-telegraf tizimining shakllanish va takomillashuv bosqichlarini izchil ko‘rsatishga imkon berdi. Idoralar klassifikatsiyasidagi o‘zgarishlar va xizmat ko‘rsatish ko‘lamining kengayishi tizimning tadrijiy rivojini tasdiqlaydi.

Tizimli va qiyosiy tahlil asosida aloqa infratuzilmasi nafaqat texnik mexanizm, balki mintaqaviy iqtisodiy va axborot integratsiyasining muhim omili sifatida baholandi. Statistik metod arxiv ma’lumotlarini umumlashtirish va ularni ilmiy dalil darajasida asoslash imkonini berdi [4].

NATIJALAR VA TAHLIL

1. Pochta-telegraf infratuzilmasining hududiy shakllanishi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf tizimining rivojlanishi transport kommunikatsiyalari modernizatsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. O‘rta Osiyo temir yo‘lining Andijon uchastkasi ishga tushirilishi bilan aloqa tizimi temiryo‘l va oddiy yo‘llar yo‘nalishlariga ajraldi. Bu esa axborot almashinuvi tezligi va hududiy qamrovini kengaytirdi [5].

Viloyatdagi temiryo‘l tarmog‘i bir necha asosiy bekatlarni qamrab olib, ularni yuk tashish punktlaridan tashqari birlamchi axborot uzatish markazlariga aylantirdi. Oddiy pochta yo‘llari ham viloyat ichki hududlarini yagona kommunikatsion makonga birlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Natijada aloqa infratuzilmasi ma’muriy boshqaruv va iqtisodiy integratsiyaning asosiy omillaridan biriga aylandi.

XX asr boshlariga kelib pochta-telegraf idoralari operatsion hajm va shtat birliklariga ko‘ra klassifikatsiyalandi. Qo‘qon mintaqaviy markaz sifatida yuqori klassga mansub bo‘lib, boshqa shaharlar bosqichma-bosqich quyi klasslardan yuqoriga ko‘tarildi. Bu jarayon ijtimoiy ehtiyoj ortishi, pochta qutilari va xodimlar sonining kengayishi bilan birga kechdi.

2. Temiryo‘l va ijtimoiy institutlarning ta’siri

Aloqa tizimining hududiy joylashuvi demografik omillar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘ldi. Bu esa axborot almashinuvini markazlashtirish va aholi punktlarini kommunikatsion jihatdan integratsiyalashuviga xizmat qildi. Andijon misolida ijtimoiy-madaniy institutlarning kengayishi davriy matbuot tarqalishi bilan birga pochta xizmatlariga yuklamani oshirdi. Natijada aloqa tizimi faqat ma’muriy mexanizm bo‘lib qolmay, ijtimoiy kommunikatsiya va ma’rifiy jarayonlarning vositasiga aylandi.

3. Mintaqaviy axborot markazlari va statistik dinamika

XX asr boshida Qo‘qon viloyatning yetakchi pochta-telegraf tuguni sifatida shakllandi. Telegrammalar sonining izchil ortishi va idoraning yuqori klassga ko‘tarilishi uning iqtisodiy hamda axborot salohiyati oshganini ko‘rsatadi. Andijon ham xuddi shunday bosqichma-bosqich yuqori klass darajasiga ko‘tarilib, mintaqaviy markazga aylandi. Keyingi yillardagi qiyosiy ma’lumotlar pochta operatsiyalari hajmi, daromad va sof foydaning barqaror o‘sishini tasdiqlaydi. Bir yil ichida telegrammalar va boshqa operatsiyalar hajmining keskin ortishi tizimning kengaygan qamrovi va rentabelligini ko‘rsatadi. Xodimlar sonining oshishi ham operatsion hajm bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi [6].

Pochta tizimining transchegaraviy yo‘nalishda kengayishi, xususan, Qoshg‘ar hududi bilan tezkor pochta aloqasining yo‘lga qo‘yilishi Farg‘ona viloyatining xalqaro axborot integratsiyasidagi o‘rnini mustahkamladi. Bu jarayon viloyatni o‘lka ichidagi emas, balki mintaqalararo strategik axborot markaziga aylantirdi. Umuman olganda, statistik va qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, pochta-telegraf tizimi qisqa davr ichida ma’muriy xizmatdan ko‘p funksiyali iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaga aylandi, qolaversa, demografik o‘zgarishlar va iqtisodiy faollik bilan uzviy bog‘liq holda kechdi.

MUHOKAMA. Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf tizimining shakllanishi va rivojlanishi mintaqaviy axborot makonining bosqichma-bosqich transformatsiyasini namoyon etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon texnik yangilanish bilangina cheklanmay, ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. Aloqa infratuzilmasining kengayishi boshqaruv samaradorligi, savdo aylanishi va hududiy integratsiyani jadallashtirgan omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi bosqichni infratuzilmaviy burilish davri sifatida baholash mumkin. Andijon temiryo‘l tarmog‘ining ishga tushirilishi axborot uzatish tezligi va hududiy qamrovini keskin oshirdi. Ilgari pochta almashinuvi asosan an’anaviy yo‘llar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, temiryo‘l bekatlari aloqa tugunlariga aylanishi viloyatning turli qismlarini yagona kommunikatsion tizimga birlashtirdi. Bu davrda axborot oqimi asosan ma’muriy va harbiy mazmunga ega bo‘lib, markaziy boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Ikkinchi bosqich aloqa xizmatlari hajmining jadal o‘sishi bilan xarakterlanadi. XX asr boshlarida xatlar, ochiq xatlar va davriy nashrlar aylanishi sezilarli darajada ortdi. Bu dinamika aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji kuchayganini ko‘rsatadi. Pochta va telegraf daromadlarining barqaror o‘sishi esa sohaning iqtisodiy ahamiyatini mustahkamladi. Shunday qilib, aloqa tizimi ijtimoiy kommunikatsiya vositasidan tashqari rentabelli xo‘jalik tarmog‘iga aylandi [6].

Qiyosiy tahlil Farg‘ona viloyatida kuzatilgan o‘sish sur’atlari Turkiston o‘lkasining ayrim boshqa ma’muriy hududlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lganini ko‘rsatadi. Buni viloyatning demografik zichligi, paxtachilik va savdo kapitalining rivojlanishi bilan izohlash mumkin. Iqtisodiy faollikning ortishi aloqa xizmatlariga

talabni kuchaytirib, infratuzilmaning kengayishiga turtki berdi.

Uchinchi jihat viloyat aloqa tizimining transchegaraviy xususiyatidir. Qoshg‘ar yo‘nalishida tezkor pochta bo‘limining faoliyati Farg‘onaning mintaqalararo axborot almashinuvidagi rolini mustahkamladi. Natijada viloyat ichki ma’muriy markaz maqomidan chiqib, Markaziy Osiyo va qo‘shni hududlar o‘rtasidagi muhim kommunikatsion bo‘g‘inga aylandi [7].

XX asr boshlariga kelib ayrim pochta-telegraf idoralarining klassifikatsiya darajasi oshirilishi, shtat birliklarining kengayishi va sof daromadning ortishi aloqa tizimining barqaror institut sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Umuman, Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf tizimining rivojlanishi infratuzilmaviy modernizatsiya, iqtisodiy faollik va mintaqalararo integratsiya bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan kompleks tarixiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf tizimining shakllanishi mintaqa tarixida sifat jihatidan yangi axborot makonining vujudga kelishiga asos soldi. Olib borilgan tahlillar quyidagi ilmiy xulosalarni beradi.

Birinchidan, aloqa tizimi transport infratuzilmasi, xususan, temiryo‘l tarmog‘i bilan uzviy bog‘liq holda rivojlandi. Andijon yo‘nalishining ochilishi va temiryo‘l bekatlarining aloqa punktlari sifatida shakllanishi pochta tashuvlarini tizimlashtirib, axborot uzatish tezligini keskin oshirdi. Bu jarayon viloyatning imperiya miqyosidagi yagona axborot makoniga integratsiyalashuvini ta’minladi.

Ikkinchidan, pochta-telegraf tizimi ijtimoiy-madaniy transformatsiyaning muhim vositasiga aylandi. Aloqa punktlarining shahar markazlari, cherkov va ta’lim muassasalari bilan bir hududda joylashuvi yangi kommunikatsion muhitni shakllantirdi. Davriy matbuot obunasining ortishi aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji kuchayganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, soha iqtisodiy jihatdan barqaror va daromadli tarmoqqa aylandi. Statistik dinamika pochta va telegraf operatsiyalari hajmi hamda sof daromadning izchil o‘sishini tasdiqlaydi. Bu ko‘rsatkichlar Farg‘ona viloyatining Turkiston o‘lkasidagi boshqa hududlarga nisbatan yuqori axborot-kommunikatsiya salohiyatiga ega bo‘lganini anglatadi.

To‘rtinchidan, viloyat aloqa tizimi transchegaraviy xususiyat kasb etdi. Qoshg‘ar yo‘nalishidagi tezkor pochta bo‘limi faoliyati Farg‘onaning mintaqalararo va xalqaro axborot almashinuvidagi strategik o‘rnini mustahkamladi [4].

Umuman, tadqiqot natijalari XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida zamonaviy axborot makonining institutsional poydevori shakllanganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Обзор Ферганской области за 1900 год. – Новый Маргелан: Типография Ферганского Областного Правления, 1901. – 128 с.
2. Обзор Ферганской области за 1901 год. – Новый Маргелан: Издание Ферганского областного статистического комитета, 1902. – 142 с.
3. Сдвиженский Б.В. Справочная книжка по Ферганской области. – Скобелев: Типо-литография штаба войск, 1913. – 312 с.
4. Lunin B.V. Iz istorii poyavleniya pochtovo-telegrafnoy svyazi v Sredney Azii // Obshchestvennie nauki v Uzbekistane. – Tashkent, 1985. – №6.
5. Makarov S.A. Razvitie transporta i svyazi v Turkestanskom kraye (konets XIX – nachalo XX vv.). – Moskva: Nauka, 1978. – 215 s.
6. Turkestanskiy sbornik. Tom 450, 482. – Tashkent, 1911-1913.
7. Farg‘ona viloyati davlat arxivi ma’lumotlari. 1900-1912 yillardagi statistik hisobotlar jamlanmasi.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94(575.1):902:2-526"637"

BRONZA DAVRIDA BAQTRIYA AHOLISINING ZOOLATRIK VA AJDODLAR RUHIGA SIG‘INISH BILAN BOG‘LIQ DINIY QARASHLARI (JARQO‘TON YODGORLIGI MISOLIDA)

Nizomova Shaxzoda Xurshid qizi, Oriental universiteti tarix mutaxassiligi 1-kurs magistranti



https://orcid.org/0009-0002-8674-5857
e-mail: shnizomova80@gmail.com

RELIGIOUS BELIEFS OF THE POPULATION OF BACTRIA IN THE BRONZE AGE RELATED TO ZOOLATRY AND ANCESTOR WORSHIP (ON THE EXAMPLE OF THE JARQOTON SITE)

Nizomova Shakhzoda Khurshid qizi, 1st-year Master’s Student in History, Oriental University

РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ БАКТРИИ В БРОНЗОВОМ ВЕКЕ, СВЯЗАННЫЕ С ЗООЛАТРИЕЙ И КУЛЬТОМ ПРЕДКОВ (НА ПРИМЕРЕ ПАМЯТНИКА ДЖАРКУТОН)

Низомова Шахзода Хуршид кызы, магистрант 1-курса по специальности “История”, университета Oriental

Annotatsiya: *Maqolada bronza davri Baqtriya aholisi diniy tasavvurlari Jarqo‘ton yodgorligi arxeologik materiallari asosida tahlil qilinadi.*

Terrakota haykalchalar, zoomorf va antropomorf tasvirlar hamda dafn marosimlari orqali zoolatrik qarashlar va ajdodlar ruhiga sig‘inish bilan bog‘liq e’tiqodlar yoritiladi. Ushbu qarashlar keyinchalik shakllangan diniy tizimlar, jumladan zardushtiylik uchun muayyan ma’naviy asos bo‘lganligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *Baqtriya, bronza davri, Jarqo‘ton, zoolatrik, ajdodlar ruhi, diniy qarashlar, terrakota haykalchalar, zoomorf tasvirlar, arxeologik manbalar.*

Abstract: *The article analyzes the religious beliefs of the Bactrian population in the Bronze Age based on the archaeological materials from the Jarkutan site. Terracotta figurines, zoomorphic and anthropomorphic images, as well as burial practices reflect beliefs related to zoolatry and ancestor worship. These beliefs are considered to have served as a spiritual foundation for the emergence of later religious systems, including Zoroastrianism.*

Keywords: *Bactria, Bronze Age, Jarkutan, zoolatry, ancestor worship, religious beliefs, terracotta figurines, zoomorphic images, archaeological sources.*

Аннотация: *В статье религиозные представления населения Бактрии эпохи бронзы анализируются на основе археологических материалов памятника Джаркутан. Терракотовые статуэтки, зооморфные и антропоморфные изображения, а также погребальные обряды отражают верования, связанные с зоолатрией и культом предков. Отмечается, что данные представления послужили определённой духовной основой для формирования более поздних религиозных систем, включая зороастризм.*

Ключевые слова: *Бактрия, бронзовый век, Джаркутан, зоолатрия, культ предков, религиозные представления, терракотовые статуэтки, зооморфные изображения, археологические источники.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Insoniyat tarixining ilk bosqichlaridanoq diniy qarashlar jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan. Ular insonning tabiat, jamiyat va o‘z mavjudligiga bo‘lgan munosabatini ifodalab, uning dunyoqarashini shakllantirgan. Qadimgi diniy tasavvurlarni o‘rganish arxeologiya, etnologiya, tarix va dinshunoslik fanlari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular orqali insoniyatning ma’naviy taraqqiyotini anglash mumkin. Jarqo‘ton yodgorligi bronza davri Baqtriyasining muhim arxeologik manbalaridan biri bo‘lib, bu yerdan topilgan olov ibodatxonasi, marosimiy inshootlar, terrakota haykalchalar hamda antropomorf va zoomorf tasvirlar aholining olovga sig‘inish, zoolatrik qarashlar va ajdodlar ruhiga sig‘inish kabi diniy e’tiqodlarini o‘rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyo hududida ibtidoiy diniy tasavvurlarning ilk ko‘rinishlari so‘nggi paleolit davridan boshlab kuzatiladi. Mustye davriga oid Teshik-Tosh g‘oridan topilgan neandertal bola qabrida qizil oxra izlarining mavjudligi va qabrning hayvon shoxlari bilan o‘rab qo‘yilgani ibtidoiy diniy marosimlar mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi [8]. Neolit va eneolit davrlariga kelib urug‘chilik jamoasining shakllanishi diniy marosimlar uchun maxsus inshootlar — umumiy sig‘inish xonalarining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bunday inshootlar Pessedjik, Chakmakli, Yassidepe va Yalangach yodgorliklarida aniqlangan [3:87-91; 9:64; 13:161;]. Jamiyatda ijtimoiy tuzilmaning murakkablashuvi va patriarxal oila munosabatlarining shakllanishi natijasida esa ayrim uy-joylar tarkibida oilaviy sig‘inish xonalari paydo bo‘lgan. Bu holat Altin-depe yodgorligi materiallari asosida V.M. Masson tomonidan qayd etilgan[7:165-171].

Bronza davriga kelib ilk davlat tuzilmalarining shakllanishi bilan diniy jarayonlarning ma’lum darajada markazlashuv jarayoni kuzatiladi. Shu bilan birga, arxeologik ma’lumotlar ayrim qadimiy diniy qarashlar saqlanib qolganligini ko‘rsatadi. Jumladan, Jarqo‘ton yodgorligi materiallari bu davrda ajdodlar ruhiga sig‘inish va zoolatrik diniy tasavvurlar kabi ibtidoiy diniy qarashlar muayyan darajada saqlanganligini ko‘rsatadi [2; 15:15-17; 16:24-25].

Ushbu maqolada mavzuni yoritishda tarixiylik, xolislik, qiyosiy-tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot doirasida arxeologik materiallar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, bronza davri Baqtriya aholisiga xos ajdodlar ruhiga sig‘inish va zoolatrik diniy tasavvurlar o‘rganildi hamda ular yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jarqo‘ton yodgorligidan olingan arxeologik materiallar bu yerda yashagan aholining diniy tasavvurlari murakkab va ko‘p qirrali bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ilk sinfiy munosabatlar hamda dastlabki davlat tuzilmalari shakllana boshlagan davrda jamiyatda markaziy xudolikka intilish kuchaygan bo‘lsa-da, ayrim ibtidoiy diniy qarashlar ham saqlanib qolgan. Qadimgi Sharq tarixida ko‘p xudolik tizimi doirasida vaqt o‘tishi bilan muayyan hukmron xudo ajralib chiqib, butun jamoa yoki davlatning asosiy xudosi sifatida e’tirof etilgan. Shu bilan birga, totemizm va hayvonlarga sig‘inish kabi qadimiy tasavvurlar ham muayyan darajada saqlanib qolgan. Manbalarga ko‘ra, hayvonot olami yer osti, yer usti va osmon hayvonlariga bo‘linadi. Sh.B. Shaydullayevning ta’kidlashicha, barcha hayvonlar ham zoolatrik diniy qarashlar shakllanishiga asos bo‘la olmaydi; Jarqo‘ton misolida bunday qarashlar terrakota haykalchalar orqali namoyon bo‘ladi. Yodgorlikdan topilgan sigir (yoki ho‘kiz) va ikki o‘rkachli tuya shaklidagi terrakota haykalchalar, shuningdek muhrlarda tasvirlangan ilon va burgut obrazlari Jarqo‘ton aholisi orasida zoolatrik qarashlar mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi [16:25].

Zoolatriya qadimgi jamiyatlarda keng tarqalgan diniy tasavvurlardan biri bo‘lib, ayrim hayvonlarni muqaddas deb hisoblash bilan bog‘liq. Masalan, qadimgi Misrda sivilizatsiya yuksak darajada rivojlangan bo‘lishiga qaramay,

hayvonlarga sig‘inish keng tarqalgan. Z.P. Sokolovaning ta’kidlashicha, qadimgi misr “nom” tipidagi davlatlar aholisining har biri o‘z muqaddas hayvoniga ega bo‘lgan [11:149]. Jarqo‘ton yodgorligida bunday qarashlar asosan terrakota haykalchalar va muhrlardagi tasvirlar orqali kuzatiladi. Ayrim haykalchalarda sigir (yoki ho‘kiz) va ikki o‘rkachli tuya, muhrlarda esa ilon va burgut tasvirlari uchraydi. Bu topilmalar mazkur hayvonlar muayyan darajada muqaddas ma’no kasb etganligini taxmin qilish imkonini beradi. Sigir yoki ho‘kiz obrazi ibtidoiy tasviriy san’atda keng tarqalgan motivlardan biri bo‘lib [14:26–30], uning iqtisodiy ahamiyati sababli farovonlik va hosildorlik ramzi sifatida qabul qilingan. Bu holat “Avesto” manbalarida ham aks etib, unda ho‘kiz ilohiy yaratilish bilan bog‘liq holda tilga olinadi.

Jarqo‘ton materiallarida muhim o‘rin tutgan yana bir hayvon — ikki o‘rkachli tuyadir. Baqtriya tuyasi qadimgi Sharq tasviriy san’ati va gliptikasida keng aks etgan. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, u Markaziy Osiyoda mil. avv. III–II ming yilliklarda xonakilashtirilgan va keyinchalik keng hududlarga tarqalgan [4:58; 5:173; 17:163]. Marg‘iyona va Sharqiy Eronda bronza davriga oid tuya tasvirlari tushirilgan muhrlar va terrakota haykallar keng tarqalgan [10:152]. Osteologik ma’lumotlar Andronovo madaniyatida mil. avv. XV–XIII asrlarda tuya mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi [6:39]. A.K. Akishev ma’lumotlariga ko‘ra, Xan davrida Xitoyga ikki o‘rkachli tuyani g‘arb ko‘chmanchilari olib borgan [1:71]. “Avesto”da ham tuya kuchli hayvon sifatida tilga olinadi, Zaratushtra nomi tarkibidagi “uštra” komponenti esa tuya ma’nosini anglatadi.

Jarqo‘ton aholisining diniy tasavvurlarida ajdodlar ruhiga sig‘inish ham muhim o‘rin tutgan. Ilmiy adabiyotlarda bu ibodat turi patriarxal urug‘chilik jamiyatiga xos diniy shakl sifatida baholanadi [12:255]. Unga ko‘ra, ajdodlar ruhlari tirik avlodlarni muhofaza qiladi va ularni balo-qazolardan asraydi deb hisoblangan.

Jarqo‘tondan topilgan ayrim antropomorf haykalchalar ushbu diniy tasavvurlarning arxeologik dalili sifatida qaraladi. Qazishmalar davomida oddiy turar joydan embrion shaklidagi ikki loy haykalcha, homilador ayol qorin qismi tasviri hamda erkak kishining byust haykali aniqlangan. Ayrim haykalchalarda qizil va qora bo‘yoqlarning qo‘llanishi ularning ramziy ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Qizil rang ko‘plab mifologik tasavvurlarda hayot va qon ramzi sifatida talqin qilinadi, ilon obrazi esa yer osti dunyosi yoki tabiat kuchlari bilan bog‘liq ramziy ma’noni anglatadi. Tadqiqotchining fikricha, ushbu haykalchalar ajdodlar ruhi homilador ayolni va uning kelajak avlodini muhofaza qilishi haqidagi diniy tasavvurlarni aks ettirgan bo‘lishi mumkin [16:25]. Bundan tashqari, boshqa tadqiqotchi Baqtriya aholisining mifologiyasi va diniy qarashlari rivojlanish bosqichlari haqida ham o‘z fikrlarini bildirgan [15:16–17]. Shu tariqa, Jarqo‘ton arxeologik materiallari bronza davri Baqtriya aholisining diniy dunyoqarashi murakkab va ko‘p qatlamli xususiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Unda zoolatrik diniy tasavvurlar hamda ajdodlar ruhiga sig‘inish kabi qadimiy diniy elementlar bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lganligi kuzatiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Qadimgi diniy qarashlar insoniyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi va jamiyatning ijtimoiy hamda ma’naviy dunyoqarashi shakllanishida katta ahamiyatga ega. Arxeologik manbalar tahlili bronza davrida Markaziy Osiyo aholisi diniy tasavvurlarida zoolatriya va ajdodlar ruhiga sig‘inish muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi. Bu qarashlar ibtidoiy animistik va totemistik tasavvurlar asosida shakllanib, keyinchalik mintaqada yuzaga kelgan murakkab diniy tizimlar, jumladan zardushtiylik ta’limoti uchun ma’naviy-ideologik zamin bo‘lib xizmat qilgan. Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan terrakota haykalchalar, zoomorf va antropomorf tasvirlar esa aholining muqaddas hayvonlar hamda ajdodlar ruhi bilan bog‘liq diniy e’tiqodlari mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Акишев К.А. Образ верблюда в легендах Центральной Азии // Этнография народов Сибири. - Новосибирск, 1984. С. 69-76.
2. Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд, 1993. 161 с.
3. Бердыев О.К. Материальная культура Туркменистана в период неолита и раннего

энеолита// Первобытный Туркменистан. - Ашгабад, 1976. С. 87-91.
4. Зеймаль Е.В. Амударьинский клад. Каталог выставки. - Л., 1979. 96 с.
5. Иванов В.В. О соотношении археологических, лингвистических и культурно-семиотических реконструкций. На материале комплекса Тоголок-21 // ВДИ. - М.: 1989. №2.(189). С. 171-175.
6. Кузьмина Е.Е. Древнейшая фигурка верблюда из Оренбургской области и проблема домастикации бактрианов// СА. 1963. №2. С. 38-46.
7. Массон В.М. Алтындепе в эпоху энеолита. // СА,1977, №3. С. 165-188.
8. Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш. Южный Узбекистан. Тешик-Таш. Палеолитический человек. М.: 1949. 283 с.
9. Сарианиди В.И. Культовые здания поселений анауской культуры // СА, 1962, №1. С.44-56.
10.Сарианиди В.И. Протозороастрийский храм в Маргиане и проблема возникновения зароастризма//ВДИ.-М.:1989.№1.(188).С.152-169.
11. Соколова З.П. Культ животных в регигиях. - М.: 1972. 215 с.
12. Токаров С.А. Ранние формы религии. - М.:1990. 622 с.
13. Хлопин И.Н. Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита. - М.: Л., 1964. 172 с.
14. Хлопин И.Н. Образ быка у первобытных земледельцев Средней Азии// Древний Восток и мировая культура. - М.: 1981. С. 23-30.
15. Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданиятининг глиптикаси ва сфрагистикаси Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD). дисс. автореферати. Тошкент- 2018. 40 б.
16. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлар:Тарих фанлари докт.дисс. автореферати. Самарқанд: ЎзРФА АИ,2009. 66 б.
17. Girshman R. Perse: proto-iraniens, medes, achemenides. Paris, 1963. 441pp.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 378:001.89:005.591.6

TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSION JIHATLARI

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li, UrDPI, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d. (PhD), Mustaqil izlanuvchi, Xorazm viloyati, Urganch shahri

TRANSFORMATIONAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SCIENTIFIC RESEARCH ACTIVITY

Khudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li, Acting Professor of the Department of Preschool Education, UrDPI, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), independent researcher, Khorezm region, Urganch city

ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли, и.о. профессора кафедры “Дошкольное образование” УрДПИ, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), самостоятельный исследователь, Хорезмская область, город Ургенч



https://orcid.org/0009-0007-9006-8998
e-mail: sh.xudayberganov.urdu@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning transformatsion jihatlari zamonaviy oliy ta’lim tizimi kontekstida nazariy-metodologik asosda tahlil qilinadi. Transformatsion yondashuv sharoitida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabaning ilmiy subyektivligini shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda refleksiv tadqiqotchilik kompetensiyalarini takomillashtirishning muhim omili sifatida asoslab beriladi. Mazkur jarayonda ta’limning mazmuni, shakl va metodlarining yangilanishi talabalarning ilmiy izlanishlarga faol jalb etilishini ta’minlovchi pedagogik mexanizm sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *akademik erkinlik, transformatsiya, mustaqil fikrlash, motivatsiya, konseptual yondashuv, innovatsion pedagogik muhit, ilmiy tadqiqot, xorijiy ta’lim modellari, zamonaviy ta’lim, ilmiy izlanish.*

Abstract: *This article analyzes the transformational aspects of developing students’ scientific research activity within the context of the modern higher education system on a theoretical and methodological basis. Within the framework of a transformational approach, scientific research activity is substantiated as a significant factor in shaping students’ scientific subjectivity, developing independent and critical thinking, and enhancing reflexive research competencies. In this process, the renewal of the content, forms, and methods of education is interpreted as a pedagogical mechanism that ensures the active involvement of students in scientific inquiry.*

Key words: *academic freedom, transformation, independent thinking, motivation, conceptual approach, innovative pedagogical environment, scientific research, foreign education models, modern education, scientific inquiry.*

Аннотация*: В данной статье на теоретико-методологической основе анализируются трансформационные аспекты развития научно-исследовательской деятельности студентов в контексте современной системы высшего образования. В условиях трансформационного подхода научно-исследовательская деятельность обосновывается как важный фактор формирования научной субъектности студента, развития его самостоятельного и критического мышления, а также*

совершенствования рефлексивных исследовательских компетенций. В данном процессе обновление содержания, форм и методов обучения интерпретируется как педагогический механизм, обеспечивающий активное вовлечение студентов в научный поиск.

Ключевые слова: *академическая свобода, трансформация, самостоятельное мышление, мотивация, концептуальный подход, инновационная педагогическая среда, научное исследование, зарубежные образовательные модели, современное образование, научный поиск.*

Kirish. Pedagogik tadqiqotlarda transformatsiya-ta'lim jarayoni mazmuni, subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, faoliyat mexanizmlari va natijalarining sifat jihatidan yangilanishi sifatida qaraladi.

Transformatsion jihatlar deganda asosan:

-mazmuniy o'zgarishlar;

-metodologik o'zgarishlar;

-rol va pozitsiyaning o'zgarishi;

-motivatsiya va qadriyatlarning o'zgarishi;

-natijalarning o'zgarishi nazarda tutilgan.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati nafaqat kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi, balki shaxsning intellektual, ijodiy va refleksiv rivojlanishini ta'minlovchi strategik pedagogik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim jarayonida akademik erkinlikning kengayishi esa mazkur faoliyatning mazmuni, tashkil etilish shakllari va natijalarida chuqur transformatsion o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Akademik erkinlik sharoitida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati an'anaviy reproduktiv modeldan voz kechib, talabaning mustaqil ilmiy subyekt sifatida shakllanishiga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik jarayonga aylanib bormoqda.

Material va metodlar. Mazkur maqolada talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning transformatsion jihatlarini o'rganishda nazariy va ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) hisobotlari hamda xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalari tajribalari tahlil qilindi[1].

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va konseptual tahlil metodlari qo'llanildi. Mazkur metodlar talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini transformatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, uning pedagogik jarayondagi o'rni va ahamiyatini asoslash hamda zamonaviy ta'lim sharoitida samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qildi[7].

Asosiy qism. Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining akademik erkinlik sharoitida transfarmatsion rivojlanishini ta'minlovchi ilg'or xorijiy ta'lim modellari o'zlashtirilmoqda. Harvard Universitiyning Harvard College Research Program (HCRP) dasturi, Massachusetts Institute of Technology univeritetining UROP (Undergraduate Research Opportunities Program) dasturi, University of Cambridge universitetining Research Supervision tizimi kabi dasturlar shular jumlasidan hisoblanadi[2,3]. Ushbu dasturlar bilan qisqacha quyidagi 1-jadvalda tanishib olish mumkin bo'ladi.

1-jadval. Talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining transformatsion komponentlarini qo'llab-quvvatlovchi xorijiy ta'lim modellari

Model yoki dastur	*Universitet nomi / Mamlakat*	*Qisqacha tavsifi*
Harvard College Research Program (HCRP)	Harvard University / AQSh	Bakalavriat talabalarini mustaqil ilmiy tadqiqotlarga jalb etish dasturi. Talabalar ilmiy grantlar, stipendiyalar va mentorlik asosida ilmiy loyihalarda ishtirok etadilar.
UROP (Undergraduate Research Opportunities Program)	Massachusetts Institute of Technology / AQSh	Talabalarni professorlar rahbarligida laboratoriya tadqiqotlariga jalb qiluvchi model. Talabalar real ilmiy loyihalarda qatnashib, tadqiqot tajribasini egallaydilar.
Stanford Undergraduate Research Programs	Stanford University / AQSh	Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi dasturlar majmuasi. Talabalar grantlar, yozgi tadqiqot dasturlari va ilmiy laboratoriyalarda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Research Supervision tizimi	University of Cambridge / Buyuk Britaniya	Talaba va ilmiy rahbar o‘rtasidagi individual mentorlik tizimi. Talabalar ilmiy muammolarni ilmiy rahbar bilan muntazam muhokama qilish orqali tadqiqot olib boradilar.
Connected Curriculum	University College London, Buyuk Britaniya	Ta’lim jarayonini ilmiy tadqiqot bilan integratsiya qiluvchi model. Talabalar o‘quv kurslari doirasida tadqiqot savollarini ishlab chiqadilar va ilmiy metodlarni qo‘llaydilar.
Student Research Opportunities Programme	Technical University of Munich / Germaniya	Talabalarni ilmiy laboratoriyalar va tadqiqot guruhlariga jalb qilishga qaratilgan model. Talabalar professorlar bilan birgalikda ilmiy loyihalarda ishlaydilar.

Demak, ilmiy manbalar tahlilidan kelib chiqqan holda, ilmiy maktab - bu faqat olimlar guruhi emas, balki yetakchi shaxs atrofida shakllangan, metodologik birlikka ega, ilmiy an’ana va vorislikni ta’minlovchi, ijodiy hamkorlikka asoslangan murakkab ilmiy-pedagogik tizim desak adashmagan bo‘lamiz albatta.

Xulosa. Shunday qilib, xorijiy va mahalliy ilmiy-nazariy manbalar tahlili bizga quyidagi xulosani chiqarish imkonini beradi:

ilmiy maktab **-** bu taniqli va ilg‘or olim rahbarligida tashkil etilgan ilmiy hamjamiyat bo‘lib, uning faoliyati yosh tadqiqotchilarda kasbiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishga, ilmiy haqiqatning dolzarb muammolarini mustaqil hal eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltiriladi[4].

Shu bilan birga, ilmiy maktab va uning rahbarining ilmiy hamda ijtimoiy e’tirof etilishi, shuningdek, Yevropa universitetlari bilan samarali hamkorlik aloqalarini rivojlantirish ham mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Albatta, ilmiy maktab o‘z faoliyatini faqatgina u ilmiy maktabga xos bo‘lgan natijalarni baholash va tan olish mezonlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina oqlashi mumkin. Bunda ilmiy maktab va uning shogirdlarining ilm-fan rivojiga ta’siri, erishilgan ilmiy natijalarning sifati, shuningdek, yosh tadqiqotchilar shaxsining individual xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. *Reimagining our futures together: A new social contract for education* : global strategic report [Electronic resource].–Paris:UNESCO,2021.–Available at: https://unesdoc.unesco.org
2. *Гуревич П., Филатов О.* Философия и история образования. От античности до эпохи Просвещения. 2- е изд.- Москва: Юрайт, 2017. 230 с.
3. *Елишев С.О.* Эпоха просвещения и ее идеология: начало эры социального манипулирования.// Вестник Московского университета. 2022, №28 (4). С. 116-145.
4. *Кант И.* О педагогике. Собрание сочинения в восьми томах. Том 8.- Москва: Мысль, 1994. 720.с.
5. “Ta’lim o‘rinsiz tajribalarni xushlamaydi” // “O‘zbekistonda oliy ta’lim”, 2022, №4. 64- 65 b.
6. *Перегудов Л.В., Саидов М.Х.* Олий таълим менежменти вап иқтисодиёти.-Тошкент: Молия, 2002. 149 б.
7. *Salaeva M.S.* Umumiy pedagogika. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021. - 598 b.
8. *Edwards R., Usher R*. Globalization and Pedagogy Spase Plase and Identity. – *New York*, 1999. – 602 p.
9. *Xoliqov A.* Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod -moliya, 2011. – 420 b.
10. *Старикова Л.* История педагогки и философия образования. Учебник. 3 е изд. - Москва: Юрайт, 2018. С 5-8.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94(575.1)(09): 37.014

Ilmiy rahbar: Yusupov Hamidbek Sultanovich, UrDPI "Tarix" kafedrasi mudiri, dotsent v.b.

BUXORO AMIRLIGIDA TA'LIM TIZIMI

Raximov Islomjon Ixtiyor o'g'li, Urganch davlat pedagogika instituti talabasi



e-mail: raximovi923@gmail.com

THE EDUCATION SYSTEM IN THE BUKHARA EMIRATE

Rakhimov Islamjon Ikhtiyor oglu, student of the Urgench State Pedagogical Institute

СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Рахимов Исламжон Ихтиёр оглы, студент Ургенчского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida ta'lim tizimi, ilm-fan va madaniyatning rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Mang'itlar sulolasi davrida maktab va madrasalar faoliyatining kengayishi, ta'lim tizimining bosqichlari, moliyaviy ta'minoti hamda o'qitish usullari yoritilgan. Amir Haydar davrida ilm-fan va ma'rifatning yuksalishi, xorijiy talabalar oqimi va madrasalarning xalqaro ilm markaziga aylanishi alohida ta'kidlangan. Shuningdek, diniy va dunyoviy ta'lim o'rtasidagi nisbat, madrasalardagi o'quv jarayonlari hamda o'sha davr madaniy hayotining asosiy jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Buxoro amirligi, Mang'itlar sulolasi, madrasa, maktab, ta'lim tizimi, Amir Haydar, ilm-fan, vaqf mulki, diniy ta'lim, madaniyat, mudarris, talabalar, ma'rifat, tarixiy manbalar.*

Abstract: *This article examines the development of the education system, science, and culture in the Bukhara Emirate in the late 18th and early 19th centuries. Special attention is given to the expansion of schools and madrasas during the Manghit dynasty, the structure of the educational system, its financial support, and teaching methods. The role of Amir Haydar in promoting science and education, as well as Bukhara's transformation into an international center of learning, is highlighted. The article also discusses the balance between religious and secular education and the characteristics of the madrasa learning process.*

Keywords: *Bukhara Emirate, Manghit dynasty, madrasa, school, education system, Amir Haydar, science, waqf property, religious education, culture, mudarris, students, enlightenment, historical sources.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются процессы развития системы образования, науки и культуры в Бухарском эмирате в конце XVIII – первой половине XIX века. Особое внимание уделено расширению деятельности школ и медресе в период правления династии мангытов, структуре образовательной системы, её финансовому обеспечению и методам обучения. Подчёркивается роль эмира Хайдара в развитии науки и просвещения, а также превращение Бухары в один из международных научных центров. Также освещаются соотношение религиозного и светского образования и особенности учебного процесса в медресе.*

Ключевые слова: *Бухарский эмират, династия мангытов, медресе, школа, система образования, эмир Хайдар, наука, вакуфные земли, религиозное образование, культура, мударрис, студенты, просвещение, исторические источники.*

KIRISH (Introduction/Введение). XVIII asrning oxirlariga kelib amirlikda iqtisodiy hayotning bir muncha rivoji madaniy hayotga ham ta’sir etmasdan qolmadi. Ayniqsa, ilgarigi davrlarda shakllangan maktab va oliy ta’lim beruvchi madrasalar faoliyati bu davrda ancha taraqqiy etdi. Boshlang‘ich ta’lim beruvchi maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida mavjud bo‘lib, bu maktablarda bolalaming dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, Qur’onning ma’lum oyatlari yodlatilgan. Shariatga oid dastlabki saboqlar berilgan[1].

Mang‘itlar davrida ta’lim tizimiga alohida e’tibor berilgan. Ko‘pchilik, qishloqlarda maktablar tashkil etilib, bolalarning ta’lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Bular amirlikning keyingi davlat boshqaruvi uchun kadrlar tayyorlab beruvchi boshlang‘ich qadam deb aytsak, ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (Materials and methods/Литература и методология). Ushbu mavzuga oid maqolani yozishda bir qancha adabiyotlardan foydalanildi. Jumladan, adabiyotlardan B.J. Eshov, A. A. Odilov. O‘Zbekiston Tarixi. – T.: “Donishmand Ziyosi”, R.Shamsutdinov., Sh.Karimov., O‘.Ubaydullayev. Vatan tarixi. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, А.Сагдуллаев, Б.Аминов, У.Мавлонов, Н.Норкулов. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент.: “Академия”, H.To‘raev. Buxoro tarixi. – B.: “Durdona” nashriyoti, Асророва Лобар Қобилжон қизи. Бухоро мадрасалари тарихидан. (Аҳмаджон ибн Исмоилхон мероси). - Тошкент.: Hilol-Nashr, Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент “Akademnashr”, kabi adabiyotlardan foydalanildi. Ushbu adabiyotlarda mavzuga oid barcha ma’lumotlar yetarlicha tahlil etilgan. Mazkur maqolani yozish jarayonida mavzuga oid tarixiy manbalar chuqur o‘rganilib, ularning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot davomida tarixiylik va tizimlilik tamoyillari asosida xronologik yondashuv qo‘llanilib, analiz va sintez usullari orqali muammo har tomonlama yoritildi.

MUHOKAMA (Discussion /Обсуждение). XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari va Buxoro amirligining xalq ta’limi, fan va madaniyati haqida gap borganda, shu narsani alohida ta’kidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g‘oyasi markaziy o‘rin egallar edi[2].

XIX asr boshlarida, manbalarning guvohlik berishicha, faqat Buxoro shahrining o‘zida vaqf yerlardan keladigan daromad hisobiga faoliyat ko‘rsatadigan 108ta madrasa bo‘lgan bo‘lib, ularning 60tasi asosiy ta’lim maskanlari sifatida mashhur edi. Madrasada o‘qitish, oldingi davrlardagidek, quyidagi 3 bosqichda amalga oshirilgan: 1) past qadam; 2) miona; 3) peshqadam. Madrasa o‘qituvchilari – mudarrislar va boshqa xizmatchilarning yillik maoshi (250–350 tillo), talabalar nafaqasi (3 tillodan 4 tillogacha), madrasadagi kutubxona xarajatlari, ta’mirlash ishlari va boshqalarga asosiy mablag‘lar har bir madrasaga biriktirilgan vaqf yerlardan keladigan daromadlar hisobiga qoplangan[3].

Buxoro amirlari davlatda ta’lim, fan va madaniyatni rivojlantirish uchun homiylik qilishgan. Hattoki amirlarning o‘zi ham madrasa talabalariga dars berishgan. Ayniqsa, buni Amir Haydar misolida ko‘rishimiz mumkin. Ahmad Donishnnng yozishicha, Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda ilm-fan, xususan, tarix va islom ilmlari rivojlangan. Amir Haydar madrasalarda tahsil olib borish uchun Istanbul, Kobul va boshqa shaharlardan ko‘plab qo‘lyozma kitoblarni olib kelishni buyurgan. Uning o‘zi muntazam ravishda saboq bergan, madrasalarda dars o‘tgan. Amir Haydar “Al-Favoid al-alfiya” nomli fiqhning xanafiya mazhabiga oid asar ham yozgan[4].

Amir Haydar ilmga chanqoq va tirishqoq bo‘lganligi uchun ham davlat boshqaruvi bilan birgalikda Buxoro amirligida ta’lim tizimini rivojlanirish uchun tinmay harakat qildi. Aynan uning davrida tarix va islomiy ilmlarning

TAMADDUN NURI

rivojlanganligi, Amir Haydarning dindan chuqur ilmga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ahmad Donish (1826–1897 yy.) va Sadri Ziyolar Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda ilm olish maqsadida Buxoroga dunyoning turli joylaridan talabalar kelganini, ilm-fan taraqqiy etib, ilgari olimlar bunchalik yutuqqa ega bo‘lmaganligini ta’kidlashadi. Ingliz sayyohi A. Byorns esa Buxoro madrasalarida Erondan tashqari barcha mamlakatlardan kelgan talabalarni uchratish mumkinligi, ular yetti yoki sakkiz yillik o‘quv kursini tugatib, o‘z vatanlariga bilim zaxirasi bilan qaytishlarini qayd etadi[5]. Haqiqatdan, Amir Haydar davrini Buxoroda “ma’rifat davri” desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, Buxoro madrasalariga ta’lim olish uchun dunyoning turli burchaklaridan kelishgan.

Madrasalarda talabalar Qur’onni, fiqh, shariat asoslarini, diniy-axloqiy adabiyotlarni hamda til, adabiyot, tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, shuningdek, handasa (matematika) va boshqa bir qancha aniq fanlardan ta’lim olishgan. Lekin bu davrda madrasalarda diniy-axloqiy ta’lim berishga asosiy e’tibor qaratilib, dunyoviy ta’lim berish bir qadar orqada qolgan edi[3]. Amirlikda diniy bilimlarni o‘qitishga alohida e’tibor berilgan. Dunyoviy bilimlarni o‘qitish ancha sust bo‘lgan. Chunki o‘sha davr shariat nuqtai nazaridan dunyoviy ta’lim berish mumkin bo‘lmagan.

NATIJALAR (Results / Результаты). Hozirgi kungacha saqlanib qolgan me’morchilik yodgorliklari hamda yozma manbalar amirlikda adabiyot, tarix, xattotlik va musiqa san’ati, me’morchilik rivoj langanligidan dalolat beradi. Amir Haydar saroyida munshiy (amir kotibi) lavozimida xizmat qilgan Mirzo Sodiq Munshiy XlX asr boshlaridagi adabiy muhitning ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri edi. Undan meros qolgan she’riy devon - «Devoni Sodiq Munshiy» hamda she’riy usulda bitilgan tarixiy asari uning adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi[1].

Bevosita, amirlikda ta’lim tizimiga o‘z asarlari bilan hissa qo‘shgan tarixchilar ham talaygina bo‘lgan. O‘z navbatida bu tarixiy asarlar madrasalarda darslik bo‘lib ham xizmat qilgan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxoro madrasalarida haftada to‘rt kunlik tahsil joriy etilgan. Ya’ni, yakshanbadan chorshanbagacha. Payshanba, juma, shanba kunlari dam olish kunlari hisoblangan. Odatda mashg‘ulotlar sentabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va Ramazon oyida ta’tilga chiqilgan[5].

Madrasalarda ta’lim olish muddatini tadqiqotchilar turlicha tushuntirishadi. Ommalar orasida “talaba madrasa’da bir umr o‘qishi mumkin edi” degan qarash ko‘proq tarqalgan. O‘zbekiston Milliy qomusida: “Madrasada o‘qish talabalar iqtidoriga qarab 7–12 yil davom etgan”, – deyilgan. Professor Anvar Qodirov va tarixchi olim Erkin Orifjonov: “O‘qish muddati belgilab qo‘yilmagan emas. U 10–12 yildan 18–20 yilgacha bo‘lishi mumkin edi, ba’zilari madrasa’da umrboqiy qolib o‘qiganlar”, – deb yozadi[6].

Buxoro amirligi madrasalarida ta’lim olish muddati turlicha bo‘lgan. Madrasa talabalarining iqtidori va salohiyati bu muddatni belgilab bergan. Madrasa talabalari asosan ikki guruhga bo‘lingan: darsga muntazam qatnashadigan, madrasa hujrasida yashab o‘qiydigan talabalar va darslarga erkin qatnashadigan talabalar. Madrasalarda bilim berish asosan suhbat va munozara uslubida olib borilgan, talabalarning mustaqil fikrlashiga alohida e’tibor qaratilgan. Madrasai oliylar nafaqat ta’lim-tarbiya, ayni vaqtda ilm-ma’rifat markazi sifatida alohida e’tibor qozongan. O‘quv yili oxirida talabalar o‘tilgan fanlar yuzasidan bevosita ota-onalar ishtirokida imtihon topshirgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma – diplom berilgan[5].

Buxoro madrasalarida ta’lim tizimi mukammal va yagona dastur asosida tuzilganligi hamda talabalarga yetuk muallimlar dars berganligi uchun ham turli mamlakatlardan ta’lim oluvchilar kelgan. XIX asrlarda Buxoro amirligida hukmdorlar farmoniga muvofiq ko‘plab madrasalar qurilgan. Ilm maskani hisoblangan madrasalar asosan, vaqf mulklari hisobidan bunyod etilgan va o‘z davrining ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib xizmat qilgan. Bu davrda qurilgan yirik bir qancha madraslarni ko‘rishimiz mumkin.

Abdurahmonboy madrasasi. Hujjatdan anglashilishicha, mazkur madrasa vaqf mulkiga ega bo‘lgan. Unga mulla Xolmurod salovotxon mudarris etib tayinlanadi. Madrasa sohibining shartiga ko‘ra, har bir hujrada bir nafardan talaba yashashi lozim edi[6].

Amir Nasrulloh madrasasi. Muhammad Mir Olim Buxoriy Amir Nasrulloh otasi Amir Sa’id qabri yaqinida madrasa qurdirgani haqida ma’lumot beradi. Ushbu madrasaning vaqf hujjati

saqlanib qolgan. Tepasiga “Vaqfiya masjid va madrasa Poyi ostona” deb yozilgan[6].

Amirlik hududidagi madrasalarning asosi vaqf mulki evaziga qurilganligi bois, amirlar qurilish ishlariga mablag‘ ajratmagan. Chunki, hukmdorlarning davlat hisobidan madrasa qurishi sharitga zid bo‘lgan. Aynan, shuning uchun madrasalar tijoratchi savdogarlar va boy zodagon shaxsalar hisobidan ham qurilgan.

Buxoro amirligida mang‘itlar hukmronligi davrida ilm-fan va ta’limni rivojlantirishga qaratilgan siyosat olib borildi. Bu jarayonlar Buxoroni dunyoning ilm-fan markazi sifatida tanilishiga hissa qo‘shdi.

XULOSA (Conclusion / Заключение). Xulosa qilib aytganda, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Buxoro amirligida ta’lim tizimi va ilm-fan rivoji muhim darajaga ko‘tarilgan. Ayniqsa, Mang‘itlar davrida maktab va madrasalar tarmog‘ining kengayishi, ularning vaqf mulklari asosida barqaror faoliyat yuritishi ta’lim tizimining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Amir Haydar hukmronligi davrida ilm-fanga bo‘lgan e’tibor yanada kuchayib, Buxoro mintaqaviy va xalqaro ilm markaziga aylangan.

Shu bilan birga, ta’lim tizimida diniy fanlar ustuvor bo‘lib, dunyoviy bilimlar nisbatan cheklangan holda rivojlangan. Biroq, mavjud madrasalar o‘z davrida nafaqat diniy, balki ma’lum darajada aniq va ijtimoiy fanlarni ham o‘qitgan ilm maskanlari sifatida faoliyat yuritgan. Umuman olganda, Buxoro amirligida ta’lim tizimi va madaniy hayot o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, keyingi davrlar taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (References / Использованная литература):

1. B.J. Eshov, A. A. Odilov. O‘zbekiston tarixi. – T.: Donishmand Ziyosi, 2020. 269.
2. R.Shamsutdinov., Sh.Karimov., O‘.Ubaydullayev. Vatan tarixi. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. 119.
3. А.Сагдуллаев, Б.Аминов, У.Мавлонов, Н.Норкулов. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент.: Академия, 2000. 208-209.
4. H.To‘raev. Buxoro tarixi. – B.: Durdona nashriyoti, 2020. 208.
5. Асророва Лобар Қобилжон қизи. Бухоро мадрасалари тарихидан. (Аҳмаджон ибн Исмоилхон мероси). - Тошкент.: Hilol-Nashr, 2016. 5-16.
6. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2017. 169-181.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.8

“NAHJ UL-FARODIS” ASARINING YARATILISH DAVRI, MUALLIFLIK MASALASI VA YOZILGAN HUDUDI HAQIDAGI ILMIY QARASHLAR

Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna, Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti, Filoloya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



e-mail: a.dilnoza1981@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-8740-1883

SCHOLARLY VIEWS ON THE PERIOD OF COMPOSITION, AUTHORSHIP, AND PLACE OF ORIGIN OF THE WORK “NAHJ AL-FARADIS”

Abduvalieva Dilnoza Akramovna, Doctoral student of Jizzax State Pedagogial University Doctoral of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ВРЕМЯ СОЗДАНИЯ, ПРОБЛЕМУ АВТОРСТВА И ТЕРРИТОРИЮ НАПИСАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “НАХДЖ АЛ-ФАРАДИС”

Абдувалиева Дилноза Акрамовна, докторант Джизакского государственного педагогического университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Annotatsiya: *Maqolada “Nahj ul-farodis” asarining yaratilish davri, mualliflik masalasi va yozilgan hududi yuzasidan ilmiy qarashlar tahlil qilinadi. Asarning til xususiyatlari, manbashunoslik ahamiyati hamda Xorazm va Oltin O‘rda madaniy muhitidagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Nahj ul-farodis, Xorazm turkiysi, mualliflik, yaratilish davri, Oltin O‘rda, Kardar, Mahmud bin Ali, qo‘lyozma, til xususiyatlari, adabiy til, manbashunoslik, turkiy adabiyot.*

Abstract*: This article analyzes scholarly views on the period of creation, authorship, and region of writing of "Nahj al-Farodis." The work's linguistic features, significance in source studies, and place in the cultural milieu of Khorezm and the Golden Horde are highlighted.*

Keywords*: Nahj al-Farodis, Khorezmian Turkic language, authorship, period of creation, Golden Horde, Kardar, Mahmud bin Ali, manuscript, linguistic features, literary language, source studies, Turkic literature.*

Аннотация*: В статье анализируются научные взгляды на период создания, авторство и регион написания произведения “Нахдж аль-Фародис”. Выделены языковые особенности произведения, его значение в источниковедении и место в культурной среде Хорезма и Золотой Орды.*

Ключевые слова: *Нахдж аль-Фародис, Хорезмский тюркский язык, авторство, период создания, Золотая Орда, Кардар, Махмуд бин Али, рукопись, языковые особенности, литературный язык, источниковедение, тюркская литература.*

KIRISH (INTRODUCTION/VVEDENIE). “Nahj ul-farodis” diniy-axloqiy, ilmiy-badiiy mazmundagi asar bo‘lib, Xorazm turkiysining til xususiyatlarini aniqlash uchun eng muhim manbalardan biridir. Ma’lumki, Xorazm hududi qadimdan yirik madaniy va adabiy markazlardan biri bo‘lgan. Ayrim tadqiqotchilar uni Sharqda Qashg‘ar bilan

bir qatorda yetakchi adabiy markazlardan biri sifatida baholaydilar. Hatto mo‘g’ullar istilosidan keyin ham bu hududda ilmiy va adabiy hayot uzilmaganini kuzatish mumkin. Ta’kidlash joizki, XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida Xorazmda yuzaga kelgan madaniy muhit keyinchalik Oltin O‘rda hududlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Natijada turli hududlardan kelgan til unsurlari o‘zaro aralashib, yangi adabiy til shakllanishiga zamin yaratgan. Shu jihatdan qaraganda, mazkur davr tilini bir butun tizim sifatida emas, balki murakkab va ko‘p qatlamli hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (MATERIALS AND METHODS/ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ). F.Ko‘prulu XIV asrda Turkiston, Xuroson, Xorazm va Oltin O‘rda hududlarida yaratilgan barcha asarlarni chig‘atoy turkiysi doirasida baholagan. Uning fikricha, bu hududlarda yozilgan asarlarda lahja farqlari mavjud bo‘lsa-da, til va adabiyot tarixini davrlarga ajratishda filologik xususiyatlarni hisobga olish lozim, shuningdek, umumiy tarixiy va adabiy xususiyatlarni ham e’tibordan qochirmaslik zarur.

XIII asrda qoraxoniy turkiysidan rivojlangan va XV asrga kelib chig‘atoy turkiysiga o‘tgan bu til nafaqat qoraxoniylar davri turkiy tilidan meros bo‘lgani, balki turli turkiy qabilalarning lahjalarini o‘zida mujassam etgani uchun ham diqqatga sazovor adabiy til sifatida shakllandi. Ushbu davrga oid asarlar tilini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu adabiy til turli matnlarda uchraydi va unda turli lahjaviy unsurlar tobora keng tarqala borgan. “Nahj ul-farodis” asari ana shunday muhim manbalardan biridir.

MUHOKAMA (DISCUSSION /ОБСУЖДЕНИЕ). “Nahj ul-farodis” asari yaratilganidan buyon qariyb yetti asrga yaqin vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, u hali ham yetarli darajada chuqur o‘rganilgan manbalar qatoriga kirmaydi. Shu jihatdan qaraganda, mazkur asar nafaqat o‘z davri adabiy yodgorligi, balki hali to‘liq ochilmagan ilmiy manba sifatida ham e’tiborga loyiqdir.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, asar Kardarli Mahmud bin Ali tomonidan XIV asr o‘rtalariga qadar yaratilgan. Asarning til va uslub jihatidan soddaligi uning keng ommaga mo‘ljallanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, unda turkiy tilda so‘zlashuvchi aholining kundalik nutqiga xos unsurlar uchrashi diqqatga sazovordir. Bu holat asarning faqat diniy emas, balki lingvistik manba sifatidagi ahamiyatini ham oshiradi. Asarda qashg‘ar, qipchoq va o‘g‘uz unsurlarining birgalikda qo‘llanishi uning murakkab til qatlamlariga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bois, uni aniq bir lahjaga mansub qilish masalasi hanuzgacha bahsli bo‘lib qolmoqda. Muallif o‘z asarida turli diniy rivoyatlar va hadislarni yig‘ib, ularni xalq tushunishi mumkin bo‘lgan sodda turkiy tilda bayon qilishga harakat qilgan.

“Nahj ul-farodis” xususida ilk bor, ya’ni 1885-yilda tatar olimi Shihobiddin Marjoniy ma’lumot bergan [8, 15-16]. Asarning ba’zi til xususiyatlari E.Fozilov tomonidan tadqiq qilingan, olimning XIV yuzyil Xorazm manbalari so‘z boyligini o‘zida mujassam etgan ikki jildlik lug‘atida yodnomada qo‘llangan talay so‘zlar izohlangan [16].

“Nahj ul-farodis” turkiy adabiyotda qirq hadis tarjimalarining ilk namunasi sifatida baholanadi. Zotan, asarning bu xususiyati muallif tomonidan ham kirish qismida bayon qilingan [11;12, 4/13]. Ahmet Jafero‘g‘lu ushbu asarni siyar-i nabiy (payg‘ambar hayoti, faoliyati, siyrati haqida hikoya qiluvchi) asarlar turiga kiritgan bo‘lsa [4, 113], Abdulkadir Karahan mazmun jihatidan uni turkiy adabiyotda qirq hadis tarjimalarining ilk namunasi sifatida baholaydi [3]. NF muallifi esa asar haqida shunday deydi: *Umar o‘g‘li Abdulloh raziya’llohu ‘anhu rivoyat qilur Payg‘ombardin salla’llohu ‘alayhi va sallam andog‘ yorliqar: “Qayu mu’min va muvahhid qirq hadisni manim hadislarimdin eshitmaganlarga tegursa, bilmaganlarga o‘gratsa Haq ta’olo ul kim arsani olimlar zumrasinda bitigay taqi qiyomat kun bo‘lsa amanna va saddaqna shahidlar jumlasinda qo‘parg‘ay...*(NF, 2/3-7)” E.N.Nadjib esa bu qarashlarga qo‘shilmay, asarni yirik va o‘ziga xos original asar sifatida e’tirof etadi [9, 41].

Uyg‘ur yozuvida yozilgan “Me’rojnoma” asarining kirish qismida ushbu asarning “Nahj ul farodis” nomli kitobdan turkiy tilga tarjima qilingani qayd etiladi [1,1]. Ahmet Jaferog‘lu bu yerda nomi tilga olingan “Nahj ul farodis”ning aslida arab tilida yozilgani va manbaning keng tarqalganligi sababli mazkur kitob nomi ko‘plab mintaqalarga yoyilganini ta’kidlaydi [5, 113]. “Me’rojnoma”ning arab yozuvida bitilgan Istanbul nusxasi matni ustida ilmiy izlanishlar olib borgan

J.Z.Turdiyev mazkur nusxaning ham “Nahj ul farodis” nomli kitobdan turkiy tilga o‘girilgani haqida ma’lumot bergan [14, 71-72]. E.Najib bu holni mazmunlari butunlay boshqa bo‘lgan asarlarning tasodifan faqat nomlarining bir-biriga mos kelish holati deb izohlaydi va turkiyda bitilgan Mahmud bin Ali muallifligidagi NFning hajmi “Me’rojnoma” asaridan o‘n karra ortiq ekanini, nihoyat bu ikki asarning bir-biriga hech bir aloqasi yo‘qligini urg‘ulab ko‘rsatadi [9, 41-42]. Yanosh Ekman esa bu masalaga ehtiyotkorona yondashadi. Olim ba’zi faktik dalillarga asoslanib “Me’rojnoma” tarjimasiga asos bo‘lib xizmat qilgan “Nahj ul farodis” asli fors tilida yozilgani, ehtimol bu fors tilidagi NF arab tilidan tarjima qilinganini taxmin qiladi [10]. Shuningdek, har ikki asarni qiyoslab ulardagi matn tuzilishi va mazmunan bir-biriga moslikni qayd etar ekan, aksincha, ular orasida sezilarli farqlar ham mavjudligiga e’tibor qaratadi. Mahmud bin Alining “Me’rojnoma”da zikr etilgan NFdan foydalangani, asar nomini ham o‘sha manbadan olgani xususidagi fikrga qo‘shilmasligini ta’kidlaydi. Fikrimizcha, bu mulohazalar ayni muammoning hali yakuniy yechimga ega emasligini ko‘rsatadi.

NATIJALAR (RESULTS / РЕЗУЛЬТАТЫ). “Nahj ul-farodis” asari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat olimlar uning muallifi sifatida Kardarli Mahmud bin Alini e’tirof etadilar. Shuningdek, asarning yozilgan hududi sifatida ko‘pincha Xorazm qayd etiladi. Bu fikr, avvalo, tarixiy va geografik ma’lumotlarga asoslanadi. Kardar qadimgi Xorazmda, Urganch shahrining shimoli-sharqida, bugungi Qoraqalpog‘istonning Nukus va Chimboy shaharlari orasida joylashgan bo‘lib, ko‘plab ilm va din arboblari yetishib chiqqan muhim madaniyat markazi edi. Manba muallifi ham shunday ilm kishilaridan biri bo‘lishi mumkin.

Aysu Ata asarning tili uning Oltin O‘rda davlatining sharqiy hududida yozilganinidan dalolat berishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u mazkur masala yuzasidan qat’iy xulosa chiqarish uchun muallif nomi va asarning yozilgan joyini aniq ko‘rsatib beruvchi yangi bir nusxa yoki boshqa ishonchli manba aniqlanishi zarurligini qayd etadi. Shuningdek, olima asarning yozilgan vaqtiga doir masalada Marjoniy nusxasida ko‘rsatilgan 1358-yil hamda Yangi Jome nusxasidagi 1360-yil ko‘chirilgan sanalar terminus ante quem (eng kech sana, undan keyin emas) sifatida qabul qilinishi lozimligini, ya’ni asar aynan ushbu sanalardan avval yaratilgan bo‘lishi kerakligini uqtiradi [6, 23-24].

Shu o‘rinda manba muallifi tarjimayi holiga tegishli ma’lumotlarning o‘ta ozligi, borlari ham taxminiy ekanligini ta’kidlash lozim. Xususan, asarning muallifi, yozilgan joyi va sanasi haqidagi dastlabki ma’lumotlar Sh.Marjoniyning kutubxonasida mavjud bo‘lgan, ammo keyinchalik yo‘qolgan NF nusxasida berilgan. Bu qo‘lyozma 759-(milodiy 1357–1358) yilga tegishli bo‘lib, Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ko‘chirilgan. Marjoniy ushbu nusxaning oxirida muallif yoki kotib sifatida keltirilgan “Mahmud ibn Ali as-Saroyi va al-Bulg‘oriy va al-Kardariy” nomini asar muallifi sifatida qabul qiladi [8, 15-16]. Asarning tilini usmonli, chig‘atoy, turkman va qozoq tillaridan farqlanuvchi alohida til deb baholab, uni “bulg‘or tili”, ya’ni qadimgi Volga Bulg‘or turkchasi sifatida qayd etadi. Marjoniyning ushbu qarashi “Qozon adabiyoti tarixi” nomli tadqiqotda ham qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, unda NF tili Saroy qabrtosh bitiklari tili bilan qiyoslanib, ularning til xususiyatlari o‘xshash ekani ta’kidlangan [2, 67-69].

Z.V.Tog‘an ham Mahmud ibn Ali as-Saroyi al-Kardariyni NF asarining muallifi sifatida e’tirof etadi. Kardar (arab geograflari tomonidan Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi hudud sifatida tasvirlanadi) shahri o‘sha davrda Xorazm hududida joylashgan muhim madaniy markazlardan biri bo‘lgan [13, 240]. Biroq u Sh.Marjoniyning asarning tili hamda yozilgan joyi haqidagi qarashlariga qo‘shilmaydi. Zero, asarning Yangi Jome nusxasida kotib tomonidan kiritilgan quyidagi qayd mavjud: *Al-kātibu’l-’asiy’l-jāfi’r-rāji ilā rahmati Rabbihi ‘l-latifi ‘alā yadi ‘abdi’z-zaifi (14) ‘n-nahifi va’l-faqiri mulaqqab bi-ismi Muhammadi ‘bnu Muhammadi ‘bnu Husravu’l-Xorazmi”* (ya’ni, *Gunohkor, nuqsonli, Parvardigorining latif rahmatiga qaytuvchi kotib — zaif, ojiz banda qo‘li bilan yozildi; u Muhammad nomi bilan ataluvchi, Muhammad ibn Muhammad ibn Husrav al-Xorazmiydir) (444, 13/14)*. Bundan tashqari, mazkur nusxada NFning ko‘chirilish sanasi hamda muallifning vafot vaqti haqida ham ma’lumot berilgan. Jumladan, qaydda shunday

deyiladi: *(15) Bu kitob tamom bo‘ldi tarix yeti yuz oltmish birda shahru’llohi’l-muborak jumoda’l-ulo ayining altinch (16) kuninda erdi kim kitobati qushluq vahtinda tamom bo‘ldi. Taqi bu kitobning musannifi mazkur yakshanba kun daru (17) ‘l-fanodin daru’l-baqog‘a rihlat qildi* (443, 15/17).. (Ya’ni, *Ushbu kitob hijriy 761-yilning muborak Jumodul-avval oyining oltinchi kuni yakunlandi; kitobati qushluq (bomdod) vaqtida nihoyasiga yetdi. Mazkur kitob muallifi esa shu zikr etilgan yakshanba kuni foniy dunyodan boqiy dunyoga rihlat qildi*” Shunga ko‘ra, NFning Yangi Jome nusxasi muallif vafotidan uch kun o‘tib, ya’ni hijriy 761-yil Jumodul-avval oyining 6-kuni (milodiy 1360-yil 25-mart, chorshanba)da tamomlangan. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, muallifning vafot sanasi milodiy 1360-yil 22-mart, yakshanba kuniga to‘g‘ri keladi. NFda keltirilgan ushbu ma’lumotlarga tayanib, Z.V.To‘gan mazkur asar Xorazm turk lahjasida yozilgani, muallifi esa 761-yilda Xorazmda vafot etganini, shu bois muallifning kelib chiqishi jihatidan ham xorazmlik bo‘lishi tabiiy ekanini ta’kidlaydi. Chunki To‘gan fikricha, xorazmlik bo‘lgan kotib (nusxa ko‘chiruvchi) muallif vafotidan uch-to‘rt kun o‘tib o‘lim qaydini kiritgan bo‘lsa, bu holat muallifning ham ayni joydan, ya’ni Xorazmdan ekanini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Z.V.To‘gan manbaning Yangi Jome nusxasida ishlatilgan qog‘oz turi o‘sha davrda Xorazm hududida yozilgan asarlar qog‘oziga o‘xshashligini, shuningdek, NFda Oltin O‘rda va Bulg‘or hududi olimlaridan emas, balki asosan Xorazm mintaqasi olimlarining asarlaridan iqtiboslar keltirilganini alohida ta’kidlaydi.

F.Ko‘prulu NF muallifi masalasida “Turk adabiyoti tarixi” [15, 25] asarida Z.V.Tog‘an fikrlariga “hozircha” qaydi bilan qo‘shilishini bildiradi. Biroq keyinchalik “Islom Ensiklopediyasi”ning “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasida Mahmud bin Ali haqida uning Xorazm atrofidagi Kardar qasabasiga mansub bo‘lib, so‘ngra Saroy shahriga hijrat qilgani va 761 (1360)-yilda vafot etgani haqidagi izohni keltiradi.

E.N.Najib esa mazkur masalaga munosabat bildirar ekan, kotib, ehtimol, muallif vafot etgan joyda, ya’ni asarni ko‘chirish jarayonida o‘sha hududda yashagan bo‘lishi mumkinligini qayd etadi. Shu bilan birga, u hozirga qadar na Xorazmda, na Markaziy Osiyoda ushbu asarning birorta nusxasi aniqlanmaganini alohida ta’kidlaydi. Bundan tashqari, olim Istanbul qo‘lyozmasida qo‘llangan qog‘oz sifatini uning Xorazmga mansubligini qat’iy isbotlovchi dalil sifatida baholash mushkul ekanini uqtiradi. Unga ko‘ra, o‘sha davrda, jumladan Xorazmiy yashagan zamonda ham, Oltin O‘rda turli mintaqalar bilan faol savdo aloqalarini olib borgan bo‘lib, Xorazmdan keltirilgan qog‘oz faqat markazda emas, balki boshqa shaharlarda ham ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Saroy shahrida qog‘oz ishlab chiqarilgan yoki chiqarilmaganligi masalasi ham ochiq qolayotganini qayd etadi. Olim asarning kelib chiqishi masalasini hal etishda yana bir muhim omilni — NFning keyingi davrlarda, ayniqsa Volga bo‘yi tatarlari orasida keng tarqalganini ham inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi [9, 33]. Uning fikricha, asar Oltin O‘rda tasarrufida bo‘lgan hududda yozilgan.

XULOSA (CONCLUSION / ЗАКЛЮЧЕНИЕ). E.N.Nadjib Sh.Marjoniy nusxasida ushbu ism oldidan kelgan *qilg‘uchi* so‘ziga, shuningdek Qozon universiteti kutubxonasida 60261-raqam bilan saqlanayotgan qo‘lyozmadagi *jam’ qilg‘uchi* iboralariga asoslanib, muallif o‘zini o‘ta kamtarlik bilan “muallif” emas, balki “to‘plovchi” deb ataganini ta’kidlaydi. Shu bois u Mahmud ibn Alini asarning haqiqiy muallifi sifatida e’tirof etadi [9, 36-37]. Uning fikricha, “as-Saroyi” nisbasidan muallifning Saroy shahrida yashagani anglashiladi. Sankt-Peterburgdagi sobiq SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida 316-raqam bilan qayd etilgan qo‘lyozmada esa “Mahmud ibn Ali ibn shayx as-Saroyi va al-Bulg‘oriy va al-Kardariy aqdan” iborasi uchraydi. Bu ifoda muallifning Saroyda yashagan shayxning o‘g‘li, Bulg‘orda tug‘ilgan va Kardar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs ekanini bildiradi [9, 37]. Nadjib, shuningdek, mazkur qo‘lyozmadagi “aqdan” so‘zi muallifning asl kelib chiqishi *kardar* qozoq qabilasiga mansub bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatishini ilgari suradi. Demak, uning fikriga ko‘ra, muallif asli *kardar* nomli qozoq qabilasidan bo‘lgan, Bulg‘orda tug‘ilgan, Saroyda yashagan va o‘z asarlarini shu yerda yozgan [9, 39].

Umuman olganda, “Nahj ul-farodis” nafaqat diniy-adabiy yodgorlik, balki turkiy til tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida alohida o‘rin tutadi. Shu sababli uning yangi qo‘lyozma

nusxalarini aniqlash va kompleks tahlil qilish kelgusidagi tadqiqotlar uchun dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES / ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА):

1. Pavet de Courteille. (1882). *Miradj Nameh: publié pour la première fois d’après le manuscrit ouïghour de la Bibliothèque Nationale*. Publications de l’École des Langues Orientales Vivantes, Series II, Vol. VI, p. 1.
2. Rahim, A. Aziz. (1925). *Kazan Edebiyatı Tarihi. Feodalizm*. Kazan, pp. 67–69.
3. Karahan, A. (1991). *İslâm-Türk Edebiyatında Kırk Hadis Toplama, Tercüme ve Şerhleri*. Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları, No. 284.
4. Caferoğlu, A. (1958). *Türk Dili Tarihi II*. İstanbul: İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Yayınları, p. 113.
5. Caferoğlu, A. (1984). *Türk Dili Tarihi*. İstanbul, p. 113.
6. Ata, A. (2002). *Harezm – Altın Ordu Türkçesi*. Türk Dilleri Araştırmaları Dizisi, Vol. 36. Ed. Mehmet Ölmez. İstanbul, pp. 23–24.
7. *Bibliothèque Nationale*. (1882). Publications de l’École des Langues Orientales Vivantes, Series II, Vol. VI, p. 1.
8. Mercanî, Ş. (1885). *Kitâbu Müstefâdü’l-Ahbâr fî Ahvâli Kazan ve Bulgar* (Vol. I). Kazan, pp. 15–16.
9. Nadjib, E. N. (1977). *Nehcü’l-feradis ve dili üzerine* (trans. by Nazif Hoca). Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi, No. 12. İstanbul: Edebiyat Fakültesi Basımevi, p. 41.
10. Eckmann, J. (1956). *Nehcü’l-Ferâdîs I: Tıpkıbasım*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları (Tıpkıbasımlar Dizisi 35), p. XIXII.
11. Eckmann, J. (1956). *Nehcü’l-Feradis I: Tıpkıbasım*. Ankara, p. 458.
12. Süleymaniye Kütüphanesi. Yeni Cami 879, fols. 2b, 4/13.
13. Sagdullayev, A. S., et al. (2023). *O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi)* (Vol. XI). Toshkent: O‘zbekiston, p. 240.
14. Turdiyev, J. Z. (2021). “Me’rojnoma” asarining Istanbul nusxasi va uning matn komponentlari. *Ilm sarchashmalari*, No. 5, Urganch, pp. 71–72.
15. Togan, Z. V. (1926). Harezm’de yazılmış eski Türkçe eserler. *Türkiyat Mecmuası*, Vol. II, pp. 331–345. Cited in: Ata, A. (2002). *Harezm – Altın Ordu Türkçesi*. İstanbul, p. 25.
16. Fazylov, E. I. (1966–1971). *Staro-uzbekskiy yazyk. Khorezmiyskie pamyatniki XIV veka* (Vols. I–II). Tashkent; also: (1967) Author’s abstract dissertation. Tashkent.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81.374:81.276

XIZMAT HUJJATLARI VA ULARNING MATN QOLIPLARINI YARATISH

Jonibekova Dono, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

SERVICE DOCUMENTS AND THE CREATION OF THEIR TEXT TEMPLATES

Jonibekova Dono, Master's Student at Karakalpak State University named after Berdaq

СЛУЖЕБНЫЕ ДОКУМЕНТЫ И СОЗДАНИЕ ИХ ТЕКСТОВЫХ ШАБЛОНОВ

Жонибекова Доно, магистрант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха



https://orcid.org/0009-0004-6780-2208
e-mail: jonibekovadono@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xizmat hujjatlari va ularning ish yuritish jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, xizmat hujjatlarining turlari, tuzilishi hamda ularning matn qoliplarini yaratishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Hujjatlarning yagona qolip asosida tuzilishi rasmiy yozishmalarni aniq, lo'nda va tushunarli bo'lishini ta'minlashi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *xizmat hujjatlari, qolip, bayonnoma, bildirishnoma, bildirgi, dalolatnoma, ishonchnoma*

Annotation: *This article discusses service documents and their role in the process of office work. It also analyzes the types and structure of service documents, as well as the theoretical and practical aspects of creating their text templates. The study substantiates that preparing documents based on a unified template ensures that official correspondence is clear, concise, and understandable.*

Keywords: *service documents, template, protocol (minutes), notification, report, act, power of attorney.*

Аннотация*: В данной статье освещается роль служебных документов в процессе делопроизводства. Также анализируются виды и структура служебных документов, а также теоретические и практические аспекты создания их текстовых шаблонов. Обосновано, что составление документов на основе единого шаблона обеспечивает ясность, лаконичность и понятность официальной переписки.*

Ключевые слова: *служебные документы, шаблон, протокол, уведомление, докладная записка, акт, доверенность.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli boshqaruv sharoitida ish yuritish jarayonlarining samaradorligi, avvalo, hujjatlar bilan ishlash madaniyati va ularning til jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilishiga bog'liqdir. Xususan, xizmat hujjatlari davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatida muhim o'rin tutib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, axborot almashinuvi va rasmiy muloqotni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois ushbu hujjatlarning aniq, ixcham va me'yoriy til talablari asosida tuzilishi dolzarb masalalardan biridir. O'zbek tilida ma'lumot-axborot hujjatlarining matn qoliplarini yaratish, ularni ilmiy asosda tizimlashtirish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Matn qoliplarining mavjudligi hujjatlarni tuzishda yagona yondashuvni ta'minlaydi, vaqt va resurslarni tejaydi, shuningdek, rasmiy yozishmalar sifatini oshiradi. Bundan tashqari, bunday qoliplar ish yuritish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, tarjimonlar, tilshunoslar va davlat xizmatchilari uchun amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi.

Muhokama. Xizmat hujjatlari idoraga tegishli ma’lumotlarni o‘zida aks ettiradi va ular rahbar yoki mas’ul lavozimli shaxslar tomonidan imzolanib,muhr bilan tasdiqlanishi (bayonnoma, ishonchnoma, dalolatnoma, tavsifnoma, hisobot va h.) yoki muhr bosilmasdan (bildirishnoma, bildirgi, tavsiyanoma) mas’ul xodimlar tomonidan lavozimi ko‘rsatilgan holda imzolanib, taqdim etilishi mumkin. Ular idorada xizmat zarurati tufayli tayyorlanadi va xizmat faoliyatidagi vazifasini bajarib bo‘lgandan keyin idora hujjatlari orasida saqlanadi. Xizmat hujjatlariga bayonnoma, bildirishnoma, bildirgi, dalolatnoma, ishonchnoma, ma’lumotnoma, tavsiyanoma, tavsifnoma kabi hujjatlar kiradi.

Natijalar. Turli xil tadbirlar (yig‘ilish, kengash, anjuman) o‘tkazilgan vaqti va o‘rni, ishtirok etuvchilar ro‘yxati yoki soni, ko‘rilgan masalalar va ular bo‘yicha ma’lumotlar, bildirilgan fikr va mulohazalar, qabul qilingan qarorlar haqida ixcham yoki to‘liq axborot beruvchi hujjat bayonnoma hisoblanadi. Bayonnoma voqelikning o‘rni, vaqti va holati haqida ma’lumot berish bilan birgalikda, qarorning to‘g‘ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi[1:229]. Bayonnoma uni tuzgan shaxs va ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan tomonidan imzolanadi[2:140].

Bayonnomaning matn qolipi quyidagicha shakllanadi:

“Tasdiqlayman”
_____ rahbar I.Familiya
(tashqi hujjat bo‘lsa, tasdiqlash ustxati yoziladi)
Tashkilot nomi (tadbir nomi)
BAYONNOMA(SI)
Sana Shartli raqam (n-son) Yig‘ilish joyi
Qatnashdilar: (ishtirokchilar ro‘yxati yoki soni)
KUN TARTIBI: 1._____
2._____
ESHITILDI:__(ma’ruza matni ilova qilinishi mumkin)_____
SAVOL-JAVOBLAR:_____
SO‘ZGA CHIQDILAR:_____
QAROR QILINDI:
1._____
2._____
Rais (imzo) I.Familiyasi
Kotib(a) (imzo) I.Familiyasi

Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug‘ilganda taqdim etiladigan to‘liq yozma axborot bildirishnoma deyiladi. Bildirishnomada ish faoliyat bilan bog‘liq qandaydir axborot yuqori turuvchi mansabdor shaxsga yetkaziladi, mazkur hujjatni ehtiyoj va zaruratni asoslovchi bildirgi hujjatidan farqlash kerak. Bildirishnoma birinchi shaxs birlik sonda shakllanadi. Bildirishnomalar mazmunan tashabbus, axborot va hisobot bildirishnomalari shaklida bo‘ladi[3:128]. Tashabbus bildirishnomasida mas’ul xodim ish faoliyatdagi muammolarni rahbariyatga ma’lum qiladi va ularni hal qilish bo‘yicha taklif kiritadi. Mazkur bildirishnoma turi “Ish yuritish’ darsligida harakatchan bildirishnoma deb yuritiladi[4:35]. Axborot bildirishnomasida rahbar topshirig‘i bo‘yicha o‘rganilgan masalaga doir axborot taqdim etiladi va zaruratga qarab taklif kiritiladi. Hisobot bildirishnomasida topshirilgan ish yakunlanganligi haqida rahbariyat xabardor qilinadi. Hisobot bildirishnomasida taklif kiritilmasligi ham mumkin. Bildirishnoma vakolatli shaxs tomonidan yoziladi.
Bildirishnomaning matn qolipida zaruriy qismlar quyidagicha joylashadi:

(Rahbar lavozimi, I.F.)ga
(Bildirishnoma beruvchi shaxs lavzoimi F.I.)dan
BILDIRISHNOMA
Matn sarlavhasi
Matn (taqdim etilayotgan rasmiy axborot va masala yechimi bo‘yicha taklif)
Bildirishnoma beruvchi shaxs lavozimi: imzo I.Familiya
Sana (2026-yil, 10-may)

“Davlat tilida ish yuritish” qo‘llanmasinining 2021-yilgi nashrida “1990-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilida ish yuritish” qo‘llanmasida ruscha “raport” hujjat turi “bildirgi” nomi bilan berilganligi, biroq o‘tgan yillar amaliyotida bu nom singishmaganligi” ta’kidlanadi[5:160]. Biroq amaliyotda “bildirgi” hujjat turi boshqa vazifada qo‘llanilayotganligini ko‘rish mumkin.

Bildirgi hujjatinig qolipi quyidagicha:

(Rahbar lavozimi, I.F.)ga
(Bildirgi beruvchi shaxs lavzoimi F.I.)dan
BILDIRGI
Matn (ehtiyojni asoslash va ehtiyojni qondirish bo‘yicha taklif)
Bildirishnoma beruvchi shaxs lavozimi: imzo I.Familiya
Sana(2026-yil, 10-may

Bildirgi namunasi:

ToshDO‘TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi direktori _____ga
Markazning _____ viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari _____dan
BILDIRGI
ToshDO‘TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi _____ viloyati hududiy bo‘linmasida 2026-yil 1-chorakda (yanvar, fevral, mart) an’anaviy shaklda malaka oshiruvchi tinglovchilar uchun **200 dona “Ish daftari”, 10 dona jurnal, 3kg qog‘oz** ajratishingizni so‘rayman.
Bo‘linma rahbari: (imzo)_____
2026-yil 10-fevral

Dalolatnoma. Dalolat so‘zi, asosan, “ko‘rsatma, isbot, dalil” ma’nolarini ifodalaydi. Unga “noma” so‘zini qo‘shish orqali mazkur hujjat nomi yasalgan. Dalolatnoma biror voqea, hodisa yoki holatning sodir etilganligini rasmiylashtirish va uni guvohlar ishtirokida tasdiqlash uchun tuziladi. Lug‘atlarda dalolatnoma shunday izohlanadi: biror bir faoliyat, sodir bo‘lgan voqea-hodisa yoki holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha shaxslar

TAMADDUN NURI

tomonidan tuzilib imzolangan rasmiy hujjat; akt[6:30]

Hujjat qolipi quyidagicha shakllanadi:

Tasdiqlash ustxati
(komissiya tuzilganda)

Sarlavha (o‘rganilayotga masala, voqea, hodisa, holat)

DALOLATNOMA

Sana Joy

Dalolatnoma tuzishga asos (buyruq, topshiriq, vaziyat taqozosi)

Matn: aniqlangan holat (masala, voqea, hodisa) tasdiqlanadi. Zarur ho-latlarda ko‘rilgan choralar qayd etiladi.

Quyida imzo chekuvchilar yuqoridagi holatni tasdiqlaymiz.

Dalolatnomani tuzuvchi: F.I.O. imzo

Holislar (guvoh, ishtirokchi): 1. F.I.O. imzo

2. F.I.O. imzo

Javobgar: F.I.O. imzo

Qo‘shimcha qayd

Holis (guvoh, ishtirokchi)lar: 1. F.I.O. imzo

2. F.I.O. imzo

Ilova (zarurat bo‘lsa)

Ayrim holatlarda “javobgar” (aniqlangan holat sababchisi) aniqlangan holatni tan olmasa yoki dalolatnomaga imzo chekishdan bosh tortsa, matnga shu mazmundagi (javobgar imzo qo‘yishdan bosh tortdi, holatni tan olmadi kabi) qo‘shimcha qayd kiritiladi va guvohlar bu holatni ham tasdiqlab imzo qo‘yishadi.

Xulosa. Xizmat hujjatlari tashkilot va muassasalarda rasmiy axborot almashinuvi hamda ish yuritish jarayonini tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Ularning to‘g‘ri tuzilishi, mazmunining aniq va lo‘nda bo‘lishi hujjatlarning samarali qo‘llanilishini ta’minlaydi. Shuning uchun xizmat hujjatlarining matn qoliplarini ishlab chiqish hujjatlarni standartlashtirish, ish yuritish jarayonini yengillashtirish hamda vaqtni tejashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hujjatlarning yagona qolip asosida tuzilishi rasmiy yozishmalarni aniq, tushunarli va tartibli bo‘lishiga yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon tashkilotlarda hujjatlar bilan ishlash madaniyatini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, xizmat hujjatlari uchun matn qoliplarini yaratish rasmiy hujjatlarning sifatini oshirish, ularni tez va to‘g‘ri rasmiylashtirish hamda ish yuritish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 229.
2. Ish yuritish: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik /A.A.Hasanov, R.A.Ishmuxamedova; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi. – Toshkent: Voris nashriyot MCHJ, B.140
3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – Тошкент: Адолат, 2009. – Б. 128.
4. Jo‘rayev Z.M. Zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvini me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlash. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2011. – B. 35.
5.Ro‘ziyev Z. Davlat tiliga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlili / Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Respublika ikkinchi ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: 2022. – B. 160.
6. F.Bobojonov. Davlat tilida ish yuritish va hujjatchilik taraqqiyotining ilmiy-nazariy asoslari.- Toshkent: Bookmany print, 2025.-B.30

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 796:159.922.8:159.955:159.954

SPORT O‘YINLARINING O‘SMIRLAR KOGNITIV VA KREATIV JARAYONLARIGA TA’SIRI

Matkarimova Muqaddas Komilovna, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, “Sport psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi 1-kurs doktoranti



https://orcid.org/0009-0006-9481-2879
e-mail: matkarimovamukaddas2@gmail.com

THE INFLUENCE OF SPORTS GAMES ON THE COGNITIVE AND CREATIVE PROCESSES OF ADOLESCENTS

Matkarimova Muqaddas Kamilovna, 1st year doctoral student of the Department of “Sports Psychology and Pedagogy”, Uzbek State University of Physical Education and Sports

ВЛИЯНИЕ СПОРТИВНЫХ ИГР НА КОГНИТИВНЫЕ И ТВОРЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ПОДРОСТКОВ

Маткаримова Мукаддас Камиловна, докторант 1-курса кафедры “Спортивная психология и педагогика” Узбекского государственного университета физической культуры и спорта

Annotatsiya*: Ushbu maqola sport o‘yinlarining o‘smirlar kognitiv va kreativ jarayonlariga ta’siri va sport bilan shug‘ullanishning o‘smirlik yosh davrlaridagi muhim jismoniy o‘zgarishlarini xususan, ularning aqliy va ijodiy salohiyatlariga ijobiy ta’sir etishi haqidagi ma’lumotlarni qamrab olgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlar, sport, kognitiv, taktik ijodkorlik, sport mashg‘ulotlari, divergent fikrlash, moslashuvchanlik.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается влияние спортивных игр на когнитивные и творческие процессы у подростков, а также положительное воздействие занятий спортом на их умственный и творческий потенциал, особенно в контексте важных физических изменений, происходящих в подростковом возрасте.*

Основные слова: *подростки, спорт, познавательная, тактическая креативность, спортивная подготовка, дивергентное мышление, адаптивность.*

Abstract: *This article covers information about the impact of sports games on adolescents’ cognitive and creative processes and important physical changes during adolescence, particularly the positive impact of sports activities on their intellectual and creative potential.*

Keywords:*adolescents, sports, cognitive, tactical creativity, sports training, divergent thinking, adaptability.*

Kirish. Sportda ekspert darajasidagi qarorlarni qabul qilish va ijodkorlik o‘rtasidagi farq “divergent” hamda “konvergent” fikrlash tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu nazariy yondashuv dastlab Joy Gilford tomonidan taklif etilgan bo‘lib, keyinchalik Klaus Rot tomonidan sport sohasi metodologiyasiga tatbiq etilgan. Konvergent fikrlash muayyan sport vaziyatida yuzaga kelgan muammoning yagona maqbul va ideal yechimini topish qobiliyatini anglatadi. Masalan, basketbolchi raqib hujumchisining harakatlarini oldindan bashorat qilgan holda, uning yo‘lini to‘sishi va raqibni qoida buzishga (hujumkor fol) majbur qilishi konvergent qarorning yorqin namunasidir. Divergent fikrlash esa xulq-atvor darajasida nostandartlik, innovatsion yondashuv, statistik kamyoblik va o‘ziga xoslik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, taktik ijodkorlikni turli o‘yin vaziyatlarida qo‘llaniladigan noyob, kutilmagan va moslashuvchan qarorlar majmuasi sifatida talqin etish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy sport sharoitida sportchilar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni o‘zlashtirishi va kutilmagan vaziyatlarga munosabat bildirishi talab etiladi. Biroq, ko‘pincha murabbiy tomonidan beriladigan tor doiradagi, spesifik ko‘rsatmalar sportchining e’tiborini cheklab qo‘yadi. Hech bir murabbiy barcha ehtimoliy o‘yin vaziyatlari uchun universal yechim bera olmasligini inobatga olsak, sportchida mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish dolzarb masalaga aylanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun taklif etilayotgan model sportchining ijodiy salohiyatini oshirishni quyidagi tizimli ketma-ketlikda amalga oshirishni nazarda tutadi: Birinchidan, mashg‘ulot jarayonida real o‘yin sharoitlarini saqlab qolish orqali sportchini doimiy izlanishga undash lozim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan o‘yin muhitiga yaqin sharoitlar, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda o‘rganish samaradorligini keskin oshiradi. Ikkinchidan, diversifikatsiya va ongli o‘yin tamoyillarini joriy etish talab etiladi. Bolalikdan turli xil sport o‘yinlarini o‘ynash taktik vaziyatlarning boyishiga va yosh sportchining ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, diqqat ko‘lamini kengaytirish metodikasi qo‘llaniladi. Jamoaviy to‘p o‘yinlarida murabbiy ko‘rsatmalarini kamaytirish sportchiga maydonni kengroq idrok etish imkonini beradi, bu esa kutilmagan vaziyatlarda muqobil va samarali yechimlarni topishga zamin yaratadi. Mazkur metodologiya doirasida diversifikatsiya, ongli o‘yin va ongli amaliyot mezonlariga javob beradigan, taktik yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini loyihalash hamda ularni sport tayyorgarligi jarayoniga tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi[1; 373-378].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kognitiv funksiya kundalik faoliyatni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy aqliy qobiliyatlarni, masalan, diqqat, xotira, o‘rganish, idrok-motor muvofiqlashtirish, ijro funktsiyasi va tilni va boshqa ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi [2].

Umumiy psixologik tayyorgarlik kabi, sportchini musobaqaga psixologik tayyorlash ham mashg‘ulotlar jarayonida, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlik davomida amalga oshiriladi.Binobarin, ushbu jarayonlar asnosida sportchining asab psixik regulyatsiyasi mexanizmlari, harakat faoliyati, organizmining barcha boshqa funksiyasilari hamda xatti-harakatlari takomillashtiriladi [12].

Kognitiv funksiyaning muhim jihati bo‘lgan ijro funktsiyasi odatda “yuqori darajadagi” kognitiv qobiliyatlarni anglatadi. U “pastki darajadagi” kognitiv jarayonlarni boshqarish va tartibga solishni, shuningdek, maqsadlarga erishish va ularga erishish uchun muhim bo‘lgan maqsadga yo‘naltirilgan va kelajakka yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi [3;17-42]. Bundan tashqari, u maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni, ayniqsa odatiy bo‘lmagan yoki yangi vaziyatlarda tashkil etuvchi va boshqaradigan kognitiv jarayonlarni o‘z ichiga oladi [3;89-94]. Bu funksiyalar bizga murakkab yoki mavhum tushunchalarni tushunishga va ilgari duch kelmagan yangi muammolarni hal qilishga imkon beradi [4;197–219].

Kognitiv qobiliyatlarning yetukligi o‘smirlarning akademik ko‘rsatkichlari, ijtimoiy kompetentsiyasi va kelajakdagi umumiy hayot sifatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, o‘smirlar turmush tarzidagi o‘zgarishlar bugungi yoshlar orasida o‘tirgan holdagi xatti-harakatlarning ko‘payishiga olib keldi, jumladan, kompyuterdan uzoq vaqt foydalanish va televizorni uzoq vaqt tomosha qilish, bu ularning kognitiv funktsiyasiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi[5]. Uyqu kognitiv funktsiyada muhim rol o‘ynaydi, hissiy tartibga solishni, xotirani mustahkamlashni va o‘rganish samaradorligini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq, ekran vaqtining ko‘pligi uyqu sifatini buzish orqali kognitiv funktsiyani bilvosita buzishi mumkin [7;405-420]. O‘smirlarning ruhiy salomatligi bilan bog‘liq muammolar, jumladan, xavotir, depressiya va akademik stress global miqyosda tobora jiddiylashib bormoqda. Bu muammolar o‘smirlarning kognitiv funksiyalariga sezilarli darajada ta'sir qiladi va shoshilinch va muvofiqlashtirilgan xalqaro e'tiborni talab qiladigan dolzarb jamoat salomatligi muammolarini keltirib chiqaradi [8].

Qilingan tahlil shuni ko‘rsatadiki, kognitiv va akademik ko‘rsatkichlarni ifodalovchi keng atama bo‘lgan bilish sog‘liqning muhim belgisidir. Gippokamp esa xotira shakllanishi va o‘rganish jarayonlarining markazidir. Sportning ijodiy fikrlash va tezkor qaror qabul qilish jarayonlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatilgan. Masalan, jamoaviy sport turlari futbol, basketbol, voleybol o‘yinchilardan vaziyatni tez tahlil qilish, qarorlarni soniyaning ulkan bo‘lmagan qismlarida qabul qilishni talab qiladi. Bu jarayonda prefrontal korteks

faol ishtirok etadi. Ushbu soha mas'uliyat, rejalashtirish, mantiqiy fikrlash va impulslarni boshqarish bilan bog'liq [9].

Tahlil va natijalar. Yaqinda o'tkazilgan tizimli tahlil shuni ko'rsatdiki, o'smirlarda jismoniy faollik va kognitiv ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan ko'pgina tadqiqotlar kesma dizaynga ega va jismoniy faollikning o'z-o'zidan hisobot qilingan o'lchovlaridan foydalanadi. Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davridagi jismoniy faollik balog'at yoshiga yetmasdan oldin kognitiv faoliyat bilan bog'liq. O'rtacha darajada faol bo'lgan o'smirlar, xususan, jismoniy faollik darajasini saqlab turadiganlar, yuqori kognitiv faoliyatni namoyon etishga moyildirlar [10].

Bu bosqichda o'smirlar futbol yoki sport turlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan murakkab strategiyalarni tushunish va eslab qolish uchun kognitiv qobiliyatni rivojlantiradi. Til rivojlanishining kognitiv jihatlari, masalan, semantikani tushunish qobiliyati va turli xil va sifatli ma'lumotlarni yetkazish uchun tildan foydalanish qobiliyati, bu bosqichda rivojlanadi. Ushbu yosh oralig'idagi o'smirlar odatda sport qanday o'ynashining tushunchalari va asosiy nazariyalarini tushunishga qodir. Murakkabroq "o'yinlarni" tushunish uchun o'smirlar ramzlar, belgilar va kodlangan so'zlarni yozib olishi, shuningdek, jamoadoshlari bilan ma'lum sport turlari bilan bog'liq maxsus tilda muloqot qilish uchun bunday tildan foydalanishlari mumkin.

Sport bilan shug'ullanish odatda bolalar va o'smirlar uchun ijobiy tajriba bo'lib, uni rag'batlantirish kerak. Barcha o'smirlar ma'lum darajada jismoniy faollik bilan shug'ullanishlari mumkin. Muayyan sport turlari bilan shug'ullanish darajasi ko'plab omillar, jumladan, jismoniy o'sish va rivojlanish, kognitiv rivojlanish, psixosotsiyal rivojlanish, shuningdek, moliyaviy imkoniyatlar, ijtimoiy resurslar va kutilgan natijalar hamda sportchining motivatsiyasi yoki qiziqishi kabi atrof-muhit omillari bilan belgilanadi. Umuman olganda, ishtirok individuallashtirilishi va o'smirning rivojlanish bosqichi va shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kelishi kerak[11]. O'smirlik davrida sport bilan shug'ullanish bolalarning o'sib ulga'ayishida va ularning kognitiv va kreativ jarayonlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pchiligimiz "ijodkorlik" atamasini turlicha va ba'zan qarama-qarshi tushunchalarga egamiz. Ko'pchilik ijodkorlik raqs va san'at tushunchalari bilan bog'liq va o'yinlar, suzish va atletika kabi ko'nikmalar va texnikalarni rivojlantirishga bog'liq bo'lgan sohalardan alohida deb o'ylashadi. Ijodiy yondashuv jismoniy faoliyatni o'qitishning qabul qilingan usullariga kirmaydigan g'oyalarni taqdim etish va o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi mavjud vaziyatga qarshi chiqishi mumkin bo'lgan g'oyalarni taqdim etish sifatida qaraladi.Har bir bola ijodkor bo'lishga qodir. Biroq, o'quvchilar yoqtirmaydigan yoki ularni rag'batlantirmaydigan faoliyatda ishtirok etish orqali o'z ijodkorliklarini bostirishga majbur bo'lganda, ularning munosabati noo'rin xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Eng yaxshi holatda, jismoniy tarbiyadagi ijodiy faoliyat o'quvchilar dam oladigan va faoliyatni zavq bilan bajaradigan o'quv muhitini yaratishi kerak. Tabassum va kulgi ko'pincha muammoga ijodiy yechim topishga urinishlarga hamroh bo'lishi mumkin. Jismoniy tarbiya, ehtimol, boshqa ko'plab fanlarga qaraganda ko'proq, o'quvchilarga yuqori yutuqlarga erishish, hatto quvonch baxsh etish imkoniyatiga ega. Aniq o'quv maqsadlarini belgilash va rejalashtirishga aniq ijodkorlik maqsadlarini kiritishni, aniq jismoniy tarbiya maqsadlari bilan birlashtiriladi. O'yinlarda o'quvchilarning taktik ongini rivojlantirish muhimdir. Biroq, bu o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va xulq-atvorini rivojlantirishdan juda farq qiladi. Bu o'qituvchining o'quvchilarga o'z g'oyalari va yondashuvlarini rivojlantirish imkoniyatini berishda innovatsion bo'lishiga bog'liq. O'quvchilarga ijodiy bo'lish imkoniyatini beradigan aniq ish sxemalarini rejalashtirish lozim.Mavjud ish sxemalari va dars rejalarida ijodiy javoblarni ilgari surish imkoniyatlarini izlash juda katta ahamiyatga ega.

Turli xil uslublaridan foydalanish; masalan, raqsda stimullardan foydalanish, diagrammalar va DVDlar kabi vizual materiallar, kichik guruhli muhokamalar va hamkorlik. Vaqt, ko'lam yoki resurslarni cheklash orqali: Cheklovlar yangi ish usullari va improvizatsiyani rag'batlantiradi. Ko'pgina maktablarda allaqachon mavjud bo'lgan cheklovlar ijodkorlik uchun rag'batlantiruvchi omilga aylanishi mumkin.O'quvchilarning ijodkorligi rivojlanishi uchun ularga fanga oid bilim va ko'nikmalar kerak. Jismoniy tarbiyaning rolini jismoniy tayyorgarlik ko'nikmalari va ishlash ko'rsatkichlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan

ko‘rganlar uchun bu biroz yengillik bo‘lishi mumkin. Ijodkorlikning rivojlanishi uchun jismoniy ko‘nikmalarning mustahkam poydevori bo‘lishi kerak. Xuddi o‘quvchilar sportni samarali o‘ynash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtira olmasliklarini his qilganlari kabi, o‘quvchilar ham istiqbolli ijodiy yondashuvdan voz kechishlari mumkin, chunki bu juda qiyin yoki ularning imkoniyatlaridan tashqarida deb hisoblanadi.

Asosiy tushunchalardan biri sifatida ijodkorlikni o‘z ichiga olgan o‘quv dasturi yanada tasavvurga boy va innovatsion dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ijodkorlikka e'tibor 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarga taqdim etiladigan jismoniy tarbiya o‘quv dasturini o‘qitishda ko‘proq xilma-xillik va yondashuvlarga ehtiyojni kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilganda, sport faoliyati va jismoniy mashqlar inson organizmiga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Ularning eng muhim jihatlaridan biri miya faoliyati, kognitiv jarayonlar va emosional holatning yaxshilanishi bilan bog‘liq nevrologik mexanizmlarning faollashuvidir. So‘nggi yillarda olib borilgan ilg‘or nevrofan tadqiqotlari sportning faqat jismoniy kuch yoki jismoniy shaklni yaxshilash uchun emas, balki miyani rivojlantiruvchi kuchli neyrobiologik stimulyator sifatida ham ahamiyatli ekanini ta’kidlamoqda.Sport faoliyatining kognitiv jarayonlar va kayfiyatga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri zamonaviy nevrologik tushunchalar asosida yoritiladi. Diqqat, xotira, ijodkorlik, moslashuvchan fikrlash va qaror qabul qilish kabi funksiyalar markaziy nerv tizimining muhim tarkibiy qismidir. Jismoniy mashqlar ushbu jarayonlarni faollashtirishda kuchli omil sifatida xizmat qiladi. Doimiy jismoniy faoliyat miyada qon aylanishini oshiradi, natijada neyronlarga kislorod va glyukozaning yetkazilishi yaxshilanadi. Bu esa neyronlararo aloqalarni tezlashtiradi, sinaptik uzatishning samaradorligini oshiradi va kognitiv funksiyalarning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, aerob mashqlar — yugurish, suzish, velotrenajyor — gippokamp hajmini kattalashtirishi mumkinligi ilmiy dalillar bilan tasdiqlangan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Memmert D. (2011) Sports and Creativity. In: Runco MA, and Pritzker SR (eds.) Encyclopedia of Creativity, Second Edition, vol. 2, pp. 373-378 San Diego: Academic Press. © 2011.

2. Bufano P., Di Tecco C., Fattori A., Barnini T., Comotti A., Ciocan C. va boshqalar. (2024). Ishning kognitiv funktsiyalarga ta'siri: tizimli tahlil. Front. Psychol. 15:1351625. doi: 10.3389/fpsyg. 2024.1351625 - DOI - PMC - PubMed

3.Alvarez JA, Emory E. (2006). Ijro funktsiyasi va frontal loblar: meta-analitik sharh. Neyropsixol. Rev. 16, 17–42. doi: 10.1007/s11065-006-9002-x, PMID: - DOI - PubMed

4. Banich MT (2009). Ijro funktsiyasi: integratsiyalashgan hisobni qidirish. Curr. Dir. Psychol. Sci. 18, 89–94. doi: 10.1111/j.1467-8721.2009.01615.x - DOI

5. Bidzan-Bluma I., Lipowska M. (2018). Bolalarning jismoniy faolligi va kognitiv faoliyati: tizimli tahlil. Xalqaro atrof-muhit jurnali. Res. Public Health 15:800. doi: 10.3390/ijerph15040800, PMID: - DOI - PMC - PubMed

6.Paulich KN, Ross JM, Lessem JM, Hewitt JK (2021). 9 va 10 yoshli bolalarda ekran vaqti va erta o‘smirlik ruhiy salomatligi, akademik va ijtimoiy natijalar: o‘smirlik miyasining kognitiv rivojlanishi SM (ABCD) tadqiqotidan foydalanish. PLoS One 16:e0256591.

7.Barnett KJ(2008). Yomon tungi uyquning kay-fiyat,kognitiv,vegetativ va elektrofiziologik ko‘r-satkichlarga ta’siri. J. Integr. Neurosci.7,405–420.

8. Liu L, Xin X, Zhang Y. The effects of physical exercise on cognitive function in adolescents: a systematic review and meta-analysis. Front Psychol. 2025 Jul 28;16:1556721.

9. Sport faoliyatining kognitiv jarayonlar kayfiyatga ijobiy ta’siri: nevrologik asoslar. Mamatisayev Mirzaaziz Abdulxayevich https://doi.org/10.5281 /zenodo.17720120

10. Esteban-Cornejo I, Hallal PC, Mielke GI, Menezes AM, Gonçalves H, Wehrmeister F, Ekelund U, Rombaldi AJ. Physical Activity throughout Adolescence and Cognitive Performance at 18 Years of Age. Med Sci Sports Exerc. 2015 Dec;47(12):2552-7.

11. Brown KA, Patel DR, Darmawan D. Participation in sports in relation to adolescent growth and development. Transl Pediatr. 2017 Jul;6(3):150-159.

12.Z.G.Gapparov. Sport psixologiyasi [Darslik] Toshkent, 2021. 108 b.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 378:159.955:37.013.2

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING METAKOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ADAPTIV-DIDAKTIK TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Nosirova Ra’no Xamidovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0009-0005-4377-916X
e-mail: r.nosirova@cspu.uz

АДАПТИВНО-ДИДАКТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Носирова Раъно Хамидовна, доцент кафедры “Методика дошкольного и начального образования”, Чирчикский государственный педагогический университет, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

ADAPTIVE-DIDACTIC SYSTEM FOR DEVELOPING METACOGNITIVE COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS: THEORY AND PRACTICE

Nosirova Rano Khamidovna, Associate Professor of the Department of “Preschool and Primary Education Methodology,” Chirchik State Pedagogical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida adaptiv o‘qitish texnologiyalarining nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi va ularning talabalarda metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *adaptiv o‘qitish, adaptiv texnologiyalar, shaxsiylashtirilgan ta’lim, individual trayektoriya, metakognitiv kompetensiya, metakognitiv ong, kognitiv jarayon.*

Abstract*: The article explores the theoretical foundations of adaptive learning technologies in the modern educational process, their practical application, and their significance in developing students’ metacognitive competencies.*

Key concepts*: adaptive learning, adaptive technologies, personalized learning, individual trajectory, metacognitive competence, metacognitive awareness, cognitive process.*

Аннотация: *В статье раскрываются теоретические основы адаптивных образовательных технологий в современном учебном процессе, их практическое применение, а также значение в формировании метакогнитивных компетенций у студентов.*

Ключевые понятия: *адаптивное обучение, адаптивные технологии, персонализированное обучение, индивидуальная траектория, метакогнитивная компетенция, метакогнитивное сознание, когнитивный процесс.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim muhitida talabalar o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun ularning bilish jarayonlarini boshqarish va o‘zini nazorat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonida belgilangan ta’lim sifatini tubdan oshirish va kadrlar tayyorlash

tizimini modernizatsiya qilish vazifalari talabalarda mustaqil fikrlash hamda metakognitiv kopetensiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi[1]. Shu nuqtai nazardan, metakognitiv yondashuv asosida o‘quv jarayonini rejalashtirish va o‘quv faoliyatini tahlil qilish talabalarning o‘z bilimini boshqarish va mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Metakognitiv kompetensiyalar odatda shaxsning o‘zining bilish jarayoni, intellektual faoliyati va uni tartibga soluvchi psixologik mexanizmlar haqidagi bilimlar majmuasi sifatida izohlanadi [3]. Ushbu tizim insonning o‘zi qo‘llayotgan kognitiv strategiyalarni anglashga, baholashga va ular ustidan nazorat o‘rnatishga yordam beradi. Metakognitiv o‘z ichiga ikki asosiy komponentni oladi: refleksiv va regulyativ. Refleksiv komponent talabaning bilim olish jarayonini kuzatishi, baholashi va o‘z faoliyatini tahlil qilishi bilan bog‘liq bo‘lsa[4], regulyativ komponent bu jarayonni boshqarish, o‘zini tartibga solish va maqsadga yo‘naltirish imkoniyatlarini ta’minlaydi[10]. Mazkur ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabaning ma’lumotlarni qayta ishlash va uni puxta bilimga aylantirish darajasi ko‘pincha uning metakognitiv qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Oliy ta’limda talabalarning o‘quv faoliyatini metakognitiv yondashuv asosida tashkil etish nafaqat ularning kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga, balki o‘z-o‘zini boshqarish va o‘quv stressini samarali yengish qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi[6]. Metakognitiv regulyatsiya mexanizmlarining rivojlanishi talabalarga o‘quv jarayonini maqsadga muvofiq rejalashtirish va optimal natijaga erishishda muhim rol o‘ynaydi[8]. Shu sababli, pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishda metakognitiv yondashuvlarni inobatga olish talabalarning akademik muvaffaqiyati va shaxsiy o‘sishi uchun zarur hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida talabaning metakognitiv nazorat jarayonlarini tizimli boshqarish imkonini beruvchi, raqamli autentifikatsiya tizimiga qiyoslangan **“Metakognitiv identifikatsiya va nazorat”** modeli ishlab chiqildi:

Password/Biometrics (Identifikatsiya): Talabaning o‘z deklarativ bilimlari, intellektual resurslari va mavjud kompetensiyalarini aniq identifikatsiya qilishi, ya’ni “Men nimalarni bilaman?” savoliga javob topishi.

SMS/Transaction Signing (Monitoring): O‘quv faoliyatining har bir bosqichida o‘z harakatlarini monitoring qilishi, tanlangan strategiyani doimiy tasdiqlashi va jarayonni nazorat qilishi.

IP-Geolocation (Kontekstual moslashuv): O‘quv vazifasining murakkabligi, o‘quv muhiti va kontekstidan kelib chiqib, eng maqbul va samarali strategiyani tanlash qobiliyati.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, talabalar metakognitiv yondashuvni o‘zlashtirganda, ularning emotsional xususiyatlari va ijodiy faoliyati hisobga olinib, o‘quv jarayoni individual adaptiv tarzda tashkil etilishi mumkin[9]. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning asosiy e’tibori “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” fani doirasida talabalarning metakognitiv ko‘nikmalari va emotsional ishtiroki o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratildi. Talabalarning sahnalashtirish faoliyati davomida egallagan metakognitiv ko‘nikmalari nafaqat badiiy obraz yaratishda, balki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish metodikasini samarali o‘zlashtirishda ham muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi[6]. Sahna ko‘rinishlari va harakatli o‘yinlarning uzviy bog‘liqligi talabalarda bolalar bilan ishlashda zarur bo‘lgan kreativlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini integratsiyalashgan holda rivojlantiradi. Bu esa bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida nazariy bilimlarni amaliy o‘yin texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, talabalarning o‘z faoliyatini monitoring qilishi va xatolarni tuzatish strategiyalarini ishlab chiqishi (metakognitiv nazorat) harakatli o‘yinlarni boshqarishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi[7]. Tadqiqot maqsadi - talabalarning metakognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va o‘quv jarayonini individual adaptiv tarzda tashkil etish samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot Farg‘ona viloyati Qo‘qon davlat pedagogika universiteti, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari orasida o‘tkazildi. Jami 92 nafar qiz talabalar, yoshi 18-21 yoshda, ishtirok etdi. Barcha ishtirokchilar tadqiqot mazmuni bilan tanishtirilib, roziligi olindi. Talabalarning metakognitiv kompetensiyalari, adaptiv o‘qitishga

moslashish darajasi, shuningdek, ijtimoiy-demografik xususiyatlari so‘rovnoma va kuzatuv usullari orqali aniqlandi.

Natija va tahlil. Metakognitiv yondashuv asosida o‘qitish maktabgacha ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning o‘quv jarayonini psixologik va pedagogik jihatdan boyitdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv jarayonlar talabalarning akademik natijalariga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[9]. Bizning tadqiqot natijalarimiz ham buni tasdiqladi.

Metakognitiv yondashuv - talabalarda o‘z bilim olish jarayonini nazorat qilish, rejalashtirish, faoliyatni anglash va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Adaptiv o‘qitish - elementlarini uyg‘un qo‘llash talabalarning mustaqil o‘qish faoliyatini faollashtirdi va ijodiy fikrlash jarayonini qo‘llab-quvvatladi.

Metakognitiv rivojlanish: Talabalar topshiriqlarni nafaqat ijrochi, balki tahlil qiluvchi va refleksiv xulosalar chiqaruvchi subyekt sifatida bajarishlari natijasida, o‘quv jarayonini maqsadli boshqarish (self-regulation) imkoniga ega bo‘ldilar.

Adaptiv yondashuv ta’siri: Mashg‘ulotlarning moslashuvchan va differensial tashkil etilishi talabalarga o‘z individual imkoniyatlariga mos o‘qish usulini tanlash, motivatsiyani barqarorlashtirish va akademik muvaffaqiyatga erishish imkonini berdi.

Yaralgan ssenariylar asosida bayram tadbirlari uchun uslubiy qo‘llanma va video materiallar ishlab chiqildi, bu esa kelajakda tarbiyachilar uchun amaliy vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Metakognitiv yondashuv va adaptiv o‘qitish elementlarini uyg‘un qo‘llash talabalarning o‘quv faoliyatini individual va samarali tarzda tashkil etadi, refleksiya va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Talabalar ssenariy yaratish, rollarni ijro etish va jamoaviy hamkorlik orqali kasbiy va ijodiy tayyorgarlikni mustahkamlashadi. Natijada talabada erta kasbiy tayyorgarlik va metakognitiv kompetensiyalar rivojlanadi.

Tavsiya. Talabalar uchun metakognitiv mashg‘ulotlarni qadam-baqadam rejalashtirish, sahnalashtirish mashg‘ulotlarini individual va guruh topshiriqlari bilan boyitish hamda ijodiy faoliyat va refleksiya natijalarini baholash uchun aniq o‘lchov mezonlarini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. 2023-yil 28-fevral, PF-27-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.03.2023-y., 06/23/27/0121-son.
2. Berejnova I., Fedoseeva E., Tarasov V. (2019). Metacognitive skills and self-regulation in communication activities. *Pedagogical Science*, Moscow, P. 78-84.
3. Chernokova T., Schraw G., Crippen K., Hartley K. (2006). Measuring metacognition to predict learning outcomes. *Journal of Educational Psychology*, 98(2), P. 369-381.
4. Hamidovna N.R. (2020). Preparation of children in schools by making technological techniques in pre-school education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(2), P. 120-124.
5. Kofeynikova A., Nikolaeva L., Sukhovershina S. (2018). Regulation mechanisms in higher education: metacognitive approach. *Education and Psychology*, 12(4), P. 45-57.
6. Nosirova R.K. (2020). Methodology for teaching outdoor games in preschool institutions. *Academic Research in Educational Sciences*, 1(4), pp. 481-485.
7. Perikova T. (2019). The role of metacognition in students’ self-regulation. *Psychology in Education*, 23(1), P. 33-41.
8. Shulgina N. (2017). Metacognitive processes and academic performance. *Higher Education Review*, 9(3), P. 27-38.Zimmerman B. J. (2002). Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. *Theory Into Practice*, 41(2), P. 64-70.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'374:81'276

BADIIY FILM NOMLARIDA YOSH CHEGARASINING AKS ETISHI (INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)

Xujakulova Maryam Xakimjonovna, Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

REFLECTION OF AGE LIMIT IN FEATURE FILM TITLES (IN THE EXAMPLES OF ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN)

Khujakulova Maryam Khakimjonovna, 1st year PhD researcher at Asia International University



https://orcid.org/0009-0005-8976-2478
e-mail: maryamkhujakulova97@gmail.com

ОТРАЖЕНИЕ ВОЗРАСТНОГО ОГРАНИЧЕНИЯ В НАЗВАНИЯХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФИЛЬМОВ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО, УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ)

Худжакулова Марьям Хакимджоновна, докторант 1- года обучения Азиатского международного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kinofilmlarda yosh chegarasini belgilashdagi muhim omillar, 2020-2025 yillarda Buyuk Britaniya, AQSH, O‘zbekiston va Rossiyada ishlab chiqarilgan to‘liq metrajli badiiy filmlarning saralangan korpusi asosida yosh chegarasining film nomlarida aks etish holatlari ingliz, o‘zbek va rus tillari misolida atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot kinofilmlarda yoshga doir tasniflash tizimlari, ularning lingvistik ifodalanishi hamda madaniy va huquqiy omillar bilan bog‘liqligini ochib beradi. Natijalar badiiy kino diskursida yosh chegarasi nafaqat normativ belgi, balki lingvopragmatik va marketing vositasi sifatida ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *yosh chegarasi, korpus tahlili, yosh klassifikatsiyasi, huquqiy omillar, kino diskursi, lingvopragmatika, marketing.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the important factors in determining age ratings in films, and the cases of age limits being reflected in film titles based on a selected corpus of full-length feature films produced in the UK, USA, Uzbekistan, and Russia in 2020-2025, using the examples of English, Uzbek, and Russian. The study explores film classification systems, their linguistic expression, and their correlation with cultural and legal frameworks. The findings reveal that age restrictions function not only as regulatory markers but also as linguistic and marketing tools in cinematic discourse.*

Keywords: *age limit, corpus analysis, age classification, legal factors, film discourse, linguapragmatics, marketing.*

Аннотация: *В данной статье представлен всесторонний анализ важных факторов, определяющих возрастные ограничения в фильмах, а также случаев отражения возрастных ограничений в названиях фильмов на основе корпуса полнометражных художественных фильмов, произведенных в Великобритании, США, Узбекистане и России в 2020-2025 годах, на примерах фильмов на английском, узбекском и русском языках. Рассматриваются системы классификации фильмов, их языковая репрезентация и связь с культурными и правовыми факторами. Выявлено,*

что возрастные ограничения выполняют не только нормативную, но и коммуникативно-прагматическую функцию в художественном кинодискурсе.

Ключевые слова: *возрастное ограничение, корпусный анализ, возрастная классификация, правовые факторы, кинодискурс, лингвопрагматика, маркетинг.*

KIRISH. Kino san’ati zamonaviy madaniyatning eng muhim kommunikativ tizimlaridan biri hisoblanadi. Negaki, unda jamiyatda ayni damda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, yangicha dunyoqarashlar, munosabatlar, barcha siyosiy, ijtimoiy, ruxiy, diniy va shaxsiy masalalar o‘z aksini topadi, yoki aksincha yangilik paydo qiladi, yod bo‘lgan qarashlarni qayta jonlantiradi va tomoshabin ongiga singdiradi. Film nomlari esa ushbu tizimning markaziy elementi bo‘lib, ular orqali tomoshabin bilan dastlabki muloqot amalga oshiriladi. Tomoshabin yoki bog‘liqlik his qiladi yoki uni rad etadi. Bejizga, “film nomi san’at asari nomiga o‘xshaydi; film nomini o‘rganish uning maqomi, funksiyalarining o‘ziga xosligi, mazmuni, g‘oyasi va asosiy fikrini shakllantirish, shuningdek, butun axborot tizimida birlashtiruvchi kuch vazifasini bajaruvchi asosiy element sifatida talqin qilishning murakkabligi bilan chambarchas bog‘liq” deb hisoblashmagan[5,107]. Shu bois ham, filmga mos nom tanlash maqsadli auditoriyani yosh kategoriyasiga bog‘liq ravishda o‘rganishni ham talab qiladi.

Bugungi kunda kino mahsulotlarini yoshga doir tasniflash global ahamiyat kasb etmoqda. Turli davlatlarda yoshga oid reyting tizimlari joriy etilgan bo‘lib, ular bolalar va o‘smirlarni zararli kontentdan himoya qilishga qaratilgan. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, yosh chegarasi nafaqat huquqiy kategoriya, balki lingvistik fenomen sifatida ham o‘rganiladi. Chuqur tahlil orqali yosh reytinglaridagi farqlar, ushbu tizimdagi ustunlik va cheklovlar, va bularning barchasi film nomlarida aks etish holatlari tadqiq etiladi.

METODOLOGIYA. Tadqiqot noqardosh tillar kesimida olib borilib, ingliz, o‘zbek va rus chog‘ishtirma tahliliga asoslanadi. Shuningdek, tahlil materiali sifatida har uchala tildagi 2020-2025-yillarda Buyuk Britaniya, AQSH, O‘zbekiston va Rossiyada ishlab chiqarilgan 1000 dan ortiq to‘liq metrajli badiiy filmlar nomlari tanlanib, korpus tahlili amalga oshirildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali qonunchilikda belgilangan yoshga oid reytinglarni tartibga solishdagi cheklovlar va hujjatlarda ijtimoiy-madaniy ta’sir kuzatilishi holatlari ko‘rib chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUHOKAMA. Ma’lumki, kino san’atida filmning muvaffaqiyatiga juda ko‘p sonli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhim omillardan biri esa filmni butun syujetiga mos ommaga taqdim qilinishi. Ya’ni filmni aynan maqsadli tomoshabin ko‘ra olishi film ijobiy qabul qilinishi garovidir. “Postproduction” ya’ni “filmning audio va vizual elementlarini tayyor holatga keltirish uchun tahrirlash ishlari” tugagach ommaga taqdim etilishidan oldin filmga ma’lum bir tashkilot tomonidan reyting belgilanadi. Ko‘p hollarda filmlar yosh toifasi asosida reytinglashdagi qonuniy chegaralar tufayli o‘z auditoriyasiga yetib bormasligi natijasida kinoprodyusserlar va kino kompaniyalar katta moliyaviy zararlarga duchor bo‘ladi, hattoki filmda rol ijro etgan aktyorlar, jihozlar, maxsus effektlar va bir qator xarajatlarni qoplay olmaydigan darajadagi muvaffaqqiyatsizliklarga uchragan kinofilmlar kam uchramaydi. Tabiiyki, filmlarni reytinglash o‘zi nima, bu jarayon qanday kechadi va kimlar tomonidan amalga oshiriladi degan bir nechta savollar yuzaga keladi. Bu maqola ham aynan shu savollarga javob berishni maqsad qilgan bo‘lib, ma’lumotlar faqat mavzuga doir maqolalar bilan cheklanib qolmay, huquqiy-normativ hujjatlar bilan tanishtirib o‘tadi.

Barcha davlatlarda turli nomlar ostida yuritilsa-da, mazmunan bir-biriga o‘xshash ya’ni ekvivalent bo‘lgan reytinglash atamalari mavjud. Buyuk Britaniyada filmlar reytingi asosan BBFC (ing.British Board of Film Classification) - Britaniya Film Tasniflash Kengashi tomonidan belgilanib, U (ing. Universal) ya’ni barcha yoshlarga mos, PG (ing. Parental Guidance) ya’ni ota-ona nazorati ostida tomosha qilinishi zarur bo‘lgan filmlar, 12A (ing. Cinema release suitable for 12 years and over) ya’ni 12 yosh va undan yuqorilarga mos filmlar relizi, 15 ya’ni 15 yoshga to‘lgan va 18 – 18 yoshga to‘lgan shaxslar uchun alohida reytinglarga ajratiladi[1]. AQSHda esa MPAA (ing. Motion Picture Association of America) – Amerika kinokompaniyalar

birlashmasi tomonidan shu kabi faoliyat yurilib, G (ing. General Audiences) ya'ni barcha yoshlarga mos, PG (ing. Parental Guidance Suggested) ya'ni ota-ona nazorati ostida tomosha qilinishi maslahat beriladigan filmlar, PG-13 (ing. Parents Strongly Cautioned) ya'ni ota-onalar ogoh bo'lishlari qat'iy tavsiya etiladigan filmlar, R (Restricted) ya'ni tomoshaga cheklangan filmlar va NC-17 (ing. No one 17 and under admitted) ya'ni 17 yoshga to'lmagan hech bir shaxsga tavsiya etilmaydigan filmlar reytinglari beriladi[3].

Xuddi shu kabi faoliyatni Rossiyada RKN (rus. Роскомнадзор) ya'ni aloqa, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish bo'yicha federal xizmati olib borib, soddaroq biroq ommaga aniq va Ravshan bo'lishi maqsadida 0+ - barcha yoshlarga mos, 6+ - 6 va undan yuqori yoshdagi, 12+, 16+, 18+ kabi yoshga doir reytinglar filmlarga biriktiriladi. O'zbekistonda ham bu kabi reytinglar mavjud. "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadidagi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq reytinglash ishlari normativ hujjatlarda aniq belgilangan bo'lib, ularning ijrosi "Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining direktori zimmasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Madaniyat, san'at va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga" qonun doirasida yuklatilgan[6].

"Axborot mahsulotining yoshga oid tasniflarini aniqlash mezonlari hamda uni ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida" gi Nizomning 2-bobi 2-bandiga muvofiq filmlarga 0+, 7+, 12+, 16+, 18+ reytinglari berilishi asoslari to'liq bayon qilingan. Masalan, "yetti yoshga to'lmagan bolalar uchun axborot mahsulotiga ("0+") bolalarning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar yetkazmaydigan axborotni o'z ichiga olgan axborot mahsuloti (shu jumladan, janri va (yoki) syujetiga muvofiq asosli ravishda, ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi hamda zo'ravonlik qurboniga nisbatan rahm-shafqat ifoda etilishi va (yoki) zo'ravonlik qoralanishi sharti bilan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlikning (jinsiy zo'ravonlik bundan mustasno) epizodik, naturalistik bo'lmagan tasviri yoki bayonini o'z ichiga olgan axborot mahsuloti, boshqa yoshga oid toifaga kirmaydigan axborot mahsuloti kiradi" [6].

Biroq shu o'rinda aytib o'tish joizki, reytinglashdagi adolat va shaffoflik doim ham kino kompaniyalar foydasiga hal bo'layvermaydi. Masalan, "2021-yilning yozida chiqqan ing. *"Suicide Squad: Mission Breakout"* filmi jahon kassasida muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Uning kassa daromadi 167 million dollarni tashkil etgan - bu 185 million dollarlik sarflangan byudjetni" qoplay olmagani isboti [4]. Sabablari turlicha, biroq asosiy sabablardan biri reytingda. Filmga AQSh, Rossiya va boshqa bir qator mamlakatlarda 18+ reytingi berilgan. "Bu filmning bolalar (va qisman oilaviy) auditoriyasini yo'qotishiga olib keldi. Oxir-oqibat, uning kassa daromadi AQShda 55 million dollarga va Rossiyada 9 million dollarga yetgan. Buyuk Britaniyada esa, filmga 15+ reytingi berilishi oqibatida kelib chiqqan bahslarga qaramay, kassa daromadi 19 million dollardan oshgan. Bu AQShdan tashqari barcha mamlakatlardagi daromadining 15 foizini tashkil qiladi." [4]. Bu kabi reyting belgilashdagi farqlar bazan ishlab chiqaruvchi foydasiga ishlasa, bazan zarar keltiradi. Biroq, eng muhim masala, foyda evaziga yoshlar ruhiyatiga jiddiy zarar yetmaslik. O'zbekistonda bu chegara albatta madaniy jihatdan ko'proq cheklovlar belgilaydi va bejizga emas.

Albatta, maqolada Nizomning har bir bandiga batafsil to'xtalib o'tish imkoni bo'lmasada, qiziquvchilar uchun manba havolasi mavjud. Biz esa aynan shu Nizomga muvofiqlik yuzasidan film nomlarida yosh chegarasi aks etish holatlarini aniqlashni maqsad qilganmiz.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korpus filmlari nomlari taqsimotida asosan 12+, 16+, 18+ auditoriyalarga mo'ljallangan filmlar son jihatdan ustun bo'lsada, badiiy filmlarda yosh belgisi asosida eksplisit yoki aniq ifoda ko'proq (PG/6+) 7+ va 18+ reytinglariga to'g'ri keladi. 0+yosh chegarasidagi badiiy film nomlari aniqlanmadi. 12+, 16+ film nomlari tobora neytrallashib, yosh belgilari yo'qolishi kuzatildi.

Saralangan korpusda (6+) 7+ toifasi ko'pincha ertak va fantastika elementlari, sodda va yumshoq leksika hamda ijobiy obrazlarga boyligi kabi belgilar orqali ifodalanadi. Masalan, ing. *"Four Kids and It"*, o'zb. *"Sem: Qum Elfi"*, rus. *"Сэм: Песочный эльф"* film nomi ingliz tilida "kids" – "bolalar" leksik birligi orqali asosiy urg'u

auditoriya yoshiga beriladi va oilaviy janrga mosligini asoslaydi. O‘zbek tilidagi tarjimasi esa asosan rus tilidagi ekvivalentlik asosida berilgan. Negaki, filmlarning o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri asl tildan emas, balki ko‘p hollarda rus tilidagi variantdan tarjima qilish amaliyoti ommalashganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Rus tilidagi tarjimasida esa transkreatsiya ya’ni syujet mazmuni jihatidan qayta nomlash, yangi nom berish uslubi orqali film qahramonining ismi “Сэм” va kelib chiqishi, ma’lum bir turga mansubligi aniqlashtirilgan holda “Песочный эльф” berilishini kuzatish mumkin. Ma’lumki, “эльф” afsonaviy mavjudot sanalib, odatda ertak va fantastika janridagi filmlar nomida uchraydi. Bundan tashqari, rus.: *“Буратино”, “Царевна-лягушка”, “Волшебник Изумрудного города”, “Дорога из желтого кирпича”,* ing.: *“Buratino”, “The Frog Princess”, “Wizard of the Emerald City”*, o‘zb.: *“Buratino”, “Qurbaqa malika”,* “*Zumrad shahar sehrgari”* kabi rus og‘zaki ijodi va ertaklari orqali yosh belgisi aniq ifodalangan film nomlari asosan rus badiiy filmlarida uchrashi aniqlandi.

O‘smir auditoriya uchun esa 12+, yosh toifasida filmlar ruxsat etilib, bunday film nomlarida sarguzasht, o‘smirlik davri (coming-of-age), ko‘proq uchraydi. Masalan, ing. *“Finding My Voice”*, rus. *“Следуй за моим голосом”* filmi nomida o‘smirlik davrida shaxs sifatida shakllanishga intilish, o‘z o‘rni, qiziqishlarini topishga bo‘lgan ehtiyojning o‘sib borishi, do‘stlik va oilaviy munosabatlardagi tushunmovchiliklar kabi masalalarga ishora qilib, aynan shu yosh vakillarini o‘ziga jalb qiladi. 16+ yosh toifasi asosan balog‘at yoshiga yetgan o‘smirlar uchun mo‘ljallangan o‘smirlarni nazarda tutib, ularga mos film nomlarida ijtimoiy va psixologik murakkablik, munosabatlardagi va ijtimoiy muammolarga belgi beradi yoki romantik elementlardan ham tashkil topgan, biroq auditoriyaning yoshiga bevosita belgi bermaydi. Misol uchun, ing. *“Cunk on Life”, “The father”* nomlari jiddiyroq mavzularga ishora qilib, tushunchalar atrofida chuqurroq semantik maydon hosil qiladi va konflikt yashirin holda ifodalanadi.

Korpusda eng aniq aks etuvchi toifa — 18+ hisoblanadi. U quyidagi leksik belgilar orqali ifodalanadi: 1) **Dahshat va qo‘rquv**: ing.:*“The Cursed”*, o‘zb. *“La’natlanganlar”,* rus.: *“Восьмерка за серебро”;* b) **Zo‘ravonlik va kriminal**: ing. *“Vengeance Is Mine”*, o‘zb. *“Mening qasosim”,* rus *“Месть моя”*. **18+ filmlarda** ing.: “death”, “curse”, “revenge”, “war”, o‘zb.: “o‘lim”, “la’nat”, “qasos”, “urush”, rus.: “смерть”, “проклятие”, “месть”, “война” kabi leksik birliklar orqali auditoriyani cheklash vazifasi bajaradi.

Shu o‘rinda aytish joizki, o‘zbek tilidagi film nomlari tanlanishi ushbu til tizimida madaniy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi va bu holat yosh chegarasining (12+, 16+, 18+) bevosita ifodalanmasligiga olib keladi. Ya’ni, ingliz yoki rus tillaridan farqli ravishda, o‘zbek filmlarida auditoriyani yosh bo‘yicha ajratish nom darajasida emas, balki mazmun va janr orqali bilvosita amalga oshiriladi. Masalan, o‘zb.: *“Sevgi sharbati”, “Yurak sadosi”, “Ko‘ngil ko‘chalari”* kabi nomlarda romantik va hissiy-estetik komponent ustun bo‘lib, ular asosan 16+ auditoriyaga mos keladi, biroq bu yosh chegarasi ochiq ko‘rsatilmaydi. Xuddi shuningdek, *“Telba talabalar”* nomi yoshlar hayotiga ishora qilsa-da, unda ham aniq yosh indikatori emas, balki ijtimoiy guruh (talabalar) orqali bilvosita signal beriladi. Tarixiy va madaniy yo‘nalishdagi nomlarda esa, masalan, o‘zb.: *“Yulduzlar shu’lasi: Jomiy va Navoiy”*, *“Amir Bahodir Yalangto‘sh”*, *“Maxtumquli”* kabi antroponimik birliklar orqali milliy o‘zlik, tarixiy shaxs va ma’naviy meros aks ettiriladi, bu esa auditoriyani yoshga qarab emas, balki umumiy madaniy qiziqish asosida jalb etadi.

XULOSA. Badiiy film nomlarida yosh chegarasining aks etishi har bir tilning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Ingliz tilida film nomlari asosan global kino bozori talablariga mos ravishda shakllantiriladi. Ular qisqa, lo‘nda va maksimal darajada ta’sirchan bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shu sababli ingliz tilidagi nomlarda yosh chegarasi (12+, 16+) deyarli hech qachon bevosita ifodalanmaydi; aksincha, bu cheklov janr, leksik tanlov va umumiy stilistika orqali bilvosita berilgan. Ya’ni, ingliz tilida nomning asosiy vazifasi — auditoriyani jalb qilish va marketing samaradorligini ta’minlashdir.

O‘zbek tilida esa film nomlashda estetik va madaniy yondashuv ustunlik qiladi. Nomlar ko‘pincha milliylik, axloqiy qadriyatlar va badiiy ifodaga mos holda yaratiladi. Shu sababli yosh

chegarasi bu til tizimida bevosita yoki ochiq tarzda ko‘rsatililishi holatlari aniqlanmadi. Ya’ni, o‘zbek tilida ko‘proq ma’naviy-estetik, tarixiy-antroponimik nomlar keng tarqalgan bo‘lib, auditoriyani yosh belgilari bo‘yicha ajratmay, umumiy mazmuniy uyg‘unlikni saqlashga xizmat qiladi. Rus tilida esa vaziyat biroz boshqacha: bu yerda kino nomlash an’analari ko‘proq normativ tizim va rasmiy klassifikatsiya bilan bog‘liq. Natijada, film nomlarida yoki ularning tarjimalarida yosh auditoriyasini aniqroq ko‘rsatishga moyillik kuzatiladi. Ba’zi hollarda asl nomga nisbatan rus tilidagi variantda qo‘shimcha semantik elementlar kiritilib, filmning mazmuni (masalan, dahshat, zo‘ravonlik yoki romantika darajasi) kuchaytiriladi va shu orqali uning yosh toifasi bilvosita emas, balki ancha ochiqroq ifodalanadi. Bu esa tomoshabinni oldindan yo‘naltirish va syujet janridan ma’lumot berish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, 7+, 12+ toifasidagi film nomlarida yoshga urg‘u yaqqol aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy film nomlarida yosh chegarasining aks etishi har bir tilning lingvokulturologik, pragmatik va normativ-huquqiy xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. Film nomlari yosh auditoriyani yo‘naltirish, kommunikativ ta’sir ko‘rsatish va marketing samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligi isbotlandi. Demak, yosh chegarasi kino diskursida nafaqat me’yoriy belgi, balki lingvopragmatik va madaniy kommunikatsiyaning muhim komponenti sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Возрастные ограничения для книг и фильмов [Elektron resurs]. – 2024. – URL: https://schoolkaleidoscope.com/tip/vozrastnye-ogranicheniya-dlya-knig-i-filmov/ (murojaat sanasi: 20.03.2026).
2. Гореликов А. До 18 нельзя: Как работают возрастные ограничения в прокате [Elektron resurs]. – 2018. – URL: https://www.kinopoisk.ru/media/article/3240260/ (murojaat sanasi: 20.03.2026).
3. Заяц А. Кинословарь: система кинорейтингов MPAA в разрезе [Elektron resurs]. – URL: https://www.film.ru/articles/kinoslovar-sistema-kinoreytingov-mpaa-v-razreze (murojaat sanasi: 20.03.2026).
4. Змитрович К. Шолохов по паспорту: как работает возрастная маркировка фильмов и книг [Elektron resurs]. – 2023. – URL: https://trends.rbc.ru/trends/social/615d9a7f9a7947e03b919d65 (murojaat sanasi: 20.03.2026).
5. Краснокутская М.А. Функции и виды названий кинофильмов // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2022. – № 9-1.
6. Lex.uz. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-4013413 (murojaat sanasi: 20.03.2026).
7. Парникель Д. Возрастной рейтинг фильмов [Elektron resurs]. – 2024. – URL: https://ourfuture.ru/articles/vozrastnoy-reyting-filmov (murojaat sanasi: 20.03.2026).
8. Плющ С. Что такое возрастные ограничения в кино [Elektron resurs]. – 2017. – URL: https://www.kinometro.ru/materials/show/name/cto_takoe_vozrastnye_ogranicheniya_170317 (murojaat sanasi: 20.03.2026).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 681.142.371:19

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RANG-TUS SIFATLARINING QO‘LLANILISHI

Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi, Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich 301-guruh talabasi

THE USE OF COLOR ADJECTIVES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOIY

Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi, 3rd-year student, Group 301 Uzbek Language and Literature Department, Faculty of Languages Navoi State University

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦВЕТОВЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Авазбердиева Бахора Алижон кызы, студентка 3-курса направления “Узбекский язык и литература” факультета языков Навоийского государственного университета



https://orcid.org/0009-0009-3107-6570
e-pochta: bahoraavazberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida rang-tusga oid so‘zlarning ishlatilishi leksikologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shoir asarlaridagi rang bildiruvchi birliklarning nafaqat badiiy bo‘yoqdorlikni oshirish uchun vosita ekanligi, balki ko‘plab so‘zlarning leksik ma’no ko‘lami torayganligi yoki iste’moldan butunlay chiqib ketgani aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *sifat, leksikologiya, izohli lug‘at, etalon, ramziy ma’no, turkiy til, leksik ma’no.*

Abstract: *This article examines the use of color-denoting words in the works of Alisher Navoi from a lexicological perspective. The study reveals that color-related lexical units in the poet’s works function not only as a means of enhancing artistic expressiveness, but also reflect changes in the lexical system of the language, including the narrowing or complete loss of the lexical meanings of certain words.*

Keywords: *adjective, lexicology, explanatory dictionary, norm, symbolic meaning, Turkic languages, lexical meaning.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается употребление цветообозначающих слов в произведениях Алишера Навои с точки зрения лексикологии. В результате исследования установлено, что цветовые единицы в творчестве поэта выполняют не только функцию усиления художественной выразительности, но и отражают изменения в лексической системе языка, в частности сужение или утрату лексического значения ряда слов.*

Ключевые слова: *прилагательное, лексикология, толковый словарь, норма, символическое значение, тюркские языки, лексическое значение.*

Kirish. Alisher Navoiy asarlari XV asrdagi tilimiz so‘zlashuvchilari, ya’ni o‘sha davr kishilari haqida tushuncha va fikr hosil qilishimizga yordam beradi. Bu nafaqat adabiyot nuqtayi nazaridan, balki o‘zbek tilining til sifatida shakllanish jarayonida muhim hisoblanadi. Tarixdan ma’lumki, tilimizga fors va arab tillarining ta’siri nihoyatda kattadir. Buning asosiy sabablaridan biri davr taqazosiga ko‘ra davlat ishlari masalalari fors tilida, din masalalari arab hamda asosan, oddiy

aholi o‘rtasida kundalik so‘zlashuv turkiy tillarida olib borilganidir. Bevosita tilimizning taraqqiyoti Navoiy davrigacha ham qanday jarayonlarni boshidan kechirganligi namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari shoir o‘z asarlarida inson ruhiyati, tabiatda va jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarni kuchaytirib tasvirlashda rang-tus sifatlaridan unumli foydalangan. Maqolani yozish davomida mazkur so‘zlarning tasvir ko‘lamini oshirish, balki muayyan ramziy ma’nolar ifodalanishini ham ko‘rishimiz mumkin.

Dunyo tillarining rang-barangligi, go‘zalligi sifatlarning qo‘llanishiga ham bog‘liq tarzda baholanadi. Chunki sifatlar tilning ta’sirchan, chiroyli va mazmunliroq bo‘lishini ta’minlaydi. “Predmetning belgisini bildiruvchi so‘zlar sifatlar deyiladi: oq (ko‘ylak), qizil (duxoba), kuzgi (ekin), aqlli (qiz)…” [1:252]. Alisher Navoiy asarlarida sifatlar, ayniqsa, rang-tus bildiruvchi sifatlar epitetlar, metafora va ramziy obraz hosil qilishda ham xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi buyuk ijodkor asarlarida rang-tus bildiruvchi sifatlarning qo‘llanilishi hamda ularning kontekstdagi semantik va badiiy xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada Navoiy asarlaridagi rang-tus so’zlarini tahlil qilish uchun matn tahlili metodidan, rang nomlarining ma’nosini va ularning poetik vazifasini aniqlash uchun leksik-semantik tahlil, rang-tus so‘zlarining Alisher Navoiyning turli asarlarida qay holatlarda ishlatilishi yuzasidan ma’nolarni solishtirish maqsadida qiyosiy tahlil metodidan, ranglarning madaniy, ramziy xususiyatlarini aniqlash maqsadida lingvokulturologik yondashuvdan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” ga kirgan dostonlardan va shoirning bir qator yirik asarlaridan va devonlaridan, ijodkor asarlari tili yuzasidan yaratilgan lug‘atlardan, ya’ni axborotlardan unumli foydalanildi. Shoir ijodiyotini tadqiq etish davomida buyuk dahoning “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy” kabi yirik asarlaridagi, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ma’nolari hamda eski o‘zbek tilidagi ma’nolari qiyoslandi.

Natijalar va muhokama. Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida rang-tus ma’nosini ifodalovchi sifatlar eski o‘zbek tilida hozirgi o‘zbek adabiy tiliga qaraganda ancha ko‘p bo‘lganligi, buning asosiy sababi esa bevosita fors tilining davlat ahamiyatidagi obro‘si va mahalliy aholi etnik xilma-xilligiga borib taqalishi ma’lum bo‘ldi. Chunki ayrim so‘zlar XV asrda faqatgina sifatning lug‘aviy ma’nosini emas, so‘z birikmasining ham ifodalagan. Masalan, *ablaq* so‘zi ikki rangli va ola-bula ma’nolarida kelib, ba’zan kecha va kunduz, ayrim asarlarida esa ola-bula ot ma’nosida kelgan [3:23], Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoniga kirgan quyidagi g‘azallardan birida kunduzning ola-bula bo‘lganini ifodalaydi:

Savug‘ ohimdin o‘lsang betahammul ko‘zga keltur yuz,
Ki anda ablaq etmishmen murattab tegrasi kunduz [2:116].

Azraq - ko‘k, havorang [3:61]. Quyidagi misralardagi azraq so‘zi hozirgi kundagi ko‘k, ayrim o‘rinlarda moviy so‘ziga mos keladi. Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida kiyimning tusiga nisabatan qo‘llangan bo‘lsa, “Saddi Iskandariy” dostonida esa ko‘zning rangini ifodalagan:

Biri azraq libos ahli xirad,
Bo‘lub oromgohi ko‘k gunbad [2].
Ko‘z azraq, soqol sarig‘u tiyra yuz,
Chiqib barchaning monglaridin munguz [2].

Alvon so‘zining bugungi kunda ham keng qo‘llanayotganligi tilimizning leksik qatlamida rang-tusga oid sifatlarning faqat ma’lum bir rang ma’nosida emas, qadimda boshqa ma’nolarda ham qo‘llanganligini ko‘rsatadi. Chunki hozirgi o‘zbek adabiy tilida alvon so‘zi qip-qizil [4:91], agar takroriy sifat bo‘lib, alvon-alvon shaklida kelsa, tarixiy kontekstidagi rang-barang [4:91] ma’nosini bildiradi. Navoiyning beshligiga kiruvchi “Layli va Majnun” da rang-barang ma’nosida kelgan alvon so‘zini uchratishimiz mumkin. Quyidagi misralarda mazkur so’z rang-barang ma’nosida tok bargining tusini bildirgan:

Alvon bila tok bargi ra’no,
Ra’no kof aro nigor-u hinno [2].

Zumrad mazkur rang Navoiy asarlarida olti xil shaklda keladi, ya’ni: zumrud, zumurrud, zumurradgun, zumurradiy, zumurradin, zumurradnishon. Bularning barchasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham buyuk ijodkor davrida yashil ma’nosini anglatgan. “Sab’ai sayyor” dostonida osmonning rangi yashil tusga kirganini

ta’kidlar ekan ulug‘ ijodkor quyidagi misralarni keltiradi:

Angachakim zumurradin gardun –
Bo‘ldi tun xayli dudidin shabgun [2].

Sandalgun hozirgi o‘zbek adabiy tilida bunday so‘z iste’molda mavjud emas, lekin eski o‘zbek tilida mazkur so‘z qoramtir sariq rangni ifodalagan:

Yo‘nulub toshi sofi-yu mavzun,
Yaraqon rang balki sandalgun [2].

Tabarxun so‘zi aslida qizil novdali tol daraxtini ifodalagan [8:61], lekin uning qizil rng ma’nosini bergan holatlari ham mavjud:

Tushub tufroqqa Shopuri jigarxun,
Qilib qon yoshi mujgonni tabarxun [2].

Yuqoridagi misralarda “Farhod va Shirin”ning qahramonlaridan sanalmish Shopurning qon yoshlari kipriklarini qizil tusga bo‘yagani aytiladi.

Surmarang doimo go‘zallik etalonlarini ifodalashda ishlatiladi va hozirgi o‘zbek tilida yasama sifat deb qaraladi. To‘q simobi, qoramtir rang [4:751] ekanligi va bu rang tushunchasining barchasi qosh va kipriklarni bo‘yash uchun ishlatiladigan surmaga borib taqaladi. Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” yirik asarida esa surmagun tarzida uchratishimiz mumkin:

Charx yuz ming ko‘zi go‘yo yorudi, tortilibon
Surmagun tin ichinda surma sifat gardi rahing [5:357].

“Xamsa” dostonlaridan biri “Farhod va Shirin” da esa surmagiy ham mazkur so‘zning eski o‘zbek tilidagi shakllaridan biri sanaladi:

Hanuz etmay qaronqu ketmak ohang,
Havo ko‘zlarga edi surmagiy rang [2].

Xulosa. Tadqiqot davomida rang-tus sifatlarining Navoiy ijodida muhim ahamiyatga ega ekanligiga yana bir bora ishonch hosil qilindi. Chunki adiblar mahoratini ularning til nuqtayi nazaridan qilgan tadqiq qilganda so‘zlarning rang-barangligi, badiiy koloritning yuqori ekanligi har tomonlama inobatga olinadi. Alisher Navoiy asarlarida esa bunday birliklar yuksak mahorat va nozik badiiy did bilan ifodalangan. Shoir ijodiyotini o‘rganish davomida ayrim so‘zlarning ma’noviy ko‘lami toraygani yoki butunlay iste’moldan chiqib ketganligi va asosiy birliklar tilimizga fors va arab tillaridan o‘tgani ma’lum bo‘ldi. Masalan, *azraq*, *ablaq* so‘zlari asl turkiycha bo‘lib, *zumrad* kabi so‘zlar esa fors tilidan o‘zlashgan. Shuningdek, rang-tus bildiruvchi birliklarning qo‘llanilish jarayonida ularning semantic kengayishi yoki torayishi holatlari ham kuzatiladi. Ayrim rang nomlari dastlab faqat o‘z vazifasini bajargan bo‘lsa, keyinchalik predmet yoki narsa-buyum nomlarini ifodalagan. Fikrlarimizning isbotini shoir ijodiyotida ko‘rishimiz mumkin. Bu esa turli ma’no nozikliklari va obrazlilik darajasini yanada oshirgan.

Demak, Alisher Navoiy asarlaridagi rang-tusga oid so‘zlarning qo‘llanilishi o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan ham ahamiyatga egadir. Bu esa mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar dolzarbligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoabdurahmonov va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. T., 1980.
2. A. Navoiy. Xamsa. Dostonlar. T., 1958.
3. E. Fozilov va b. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I jild . T., 1983.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. T., 2022.
5. A. Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. G‘aroyib us-sig‘ar. 1-jild. T.,1963.
6. B. Yusuf. Navoiy tili lug‘ati. 2-tom. T., 2022.
7. G‘.Abdurahmonov, A. Rustamov. Qadimgi turkiy til. T., 1982.
8. E. Fozilov va b. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. III jild. T., 1983.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 172+101.1

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY MODERNIZATSIYA JARAYONLARINING FALSAFIY KONSEPTUAL TAHLILI

Yunusova Yulduzxon Shokirjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti



https://orcid.org/0009-0008-1110-1970
e-mail: yunusovayulduzxon43@gmail.com

ФИЛОСОФСКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ СОЦИАЛЬНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Yunusova Yulduzxon Shokirjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti

PHILOSOPHICAL AND CONCEPTUAL ANALYSIS OF SOCIAL MODERNIZATION PROCESSES IN NEW UZBEKISTAN

Yunusova Yulduzxon Shokirjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy-konseptual asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda jamiyat taraqqiyotida an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy o‘zgarishlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, modernizatsiya jarayonining ijtimoiy ong, madaniyat va ta’lim tizimiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, ontologik yondashuv asosida ijtimoiy o‘zgarishlarning mohiyati ochib berilib, ularning jamiyat rivojiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy modernizatsiya, falsafiy tahlil, ontologik yondashuv, ijtimoiy ong, madaniy identitet, globalizatsiya, ta’lim tizimi*

Аннотация: *В данной статье анализируются философско-концептуальные основы процессов социальной модернизации в Новом Узбекистане. В исследовании рассматривается взаимосвязь традиционных ценностей и современных преобразований, влияние модернизации на общественное сознание, культуру и систему образования. Также на основе онтологического подхода раскрывается сущность социальных изменений и их роль в развитии общества.*

Ключевые слова: *социальная модернизация, философский анализ, онтологический подход, общественное сознание, культурная идентичность, глобализация, система образования*

Abstract: *This article analyzes the philosophical and conceptual foundations of social modernization processes in New Uzbekistan. The study examines the interrelation between traditional values and modern transformations, as well as the impact of modernization on social consciousness, culture, and the education system. Based on an ontological approach, the essence of social changes and their role in societal development are revealed.*

Key words: *social modernization, philosophical analysis, ontological approach, social consciousness, cultural identity, globalization, education system.*

Kirish. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston jamiyati chuqur va murakkab o‘zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Mazkur jarayonlar faqat iqtisodiy yoki texnologik sohalar bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, madaniy qadriyatlari hamda falsafiy dunyoqarashiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolish va global o‘zgarishlarga moslashish o‘rtasidagi muvozanatni topish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olgan holda, ijtimoiy hayotning yangi modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu modelda inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim tizimini takomillashtirish, ijtimoiy institutlarni modernizatsiya qilish hamda milliy identitetni mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarda an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ba’zan esa qarama-qarshiliklar ham kuzatiladi.

Ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarini chuqur anglash uchun ularni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish zarur. Chunki aynan falsafiy yondashuv jamiyatdagi o‘zgarishlarning mohiyatini, ularning ichki qonuniyatlarini va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, ontologik yondashuv orqali ijtimoiy borliqning o‘zgaruvchan tabiati, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi shakllari hamda ijtimoiy institutlarning transformatsiyasi chuqurroq o‘rganiladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining falsafiy-konseptual asoslarini tahlil qilish, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini aniqlash hamda zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda ularni samarali boshqarish uchun ilmiy asos yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

So‘nggi yillarda ijtimoiy modernizatsiya, ayniqsa uning falsafiy va ijtimoiy-madaniy asoslarini o‘rganishga bo‘lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda modernizatsiya jarayoni ko‘p qirrali fenomen sifatida talqin qilinib, u iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy omillar bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinmoqda. Bu borada o‘zbek va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy asos vazifasini o‘taydi.

O‘zbek olimlarining tadqiqotlarida, xususan, ta’lim tizimi va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik, milliy qadriyatlarning saqlanishi hamda ularning zamonaviy transformatsiya jarayonlaridagi o‘rni alohida e’tiborga olinadi. Ushbu yondashuv ijtimoiy modernizatsiyani faqat tashqi o‘zgarishlar emas, balki jamiyatning ichki ma’naviy va madaniy yangilanishi sifatida tushunishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy identitetning global integratsiya jarayonlaridagi o‘rni, an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalalari ham keng yoritilmoqda.

Xorijiy tadqiqotlarda esa modernizatsiya jarayoni ko‘proq postindustrial jamiyat, globallashuv, sekulyarizatsiya va individualizm kabi tushunchalar orqali izohlanadi. Bu tadqiqotlar ijtimoiy tizimlarning transformatsiyasi, yangi ijtimoiy institutlarning shakllanishi hamda inson kapitalining rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, post-sovet hududida amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida modernizatsiya jarayonlarini o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini falsafiy yondashuvlar tizimi tashkil etadi. Jumladan, ontologik yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv ijtimoiy hodisalarni ularning tashqi ko‘rinishlari bilan cheklanib qolmasdan, balki ichki mohiyati, mavjudlik shakllari va rivojlanish qonuniyatlari orqali tahlil qilish imkonini beradi. Ontologik tahlil orqali ijtimoiy modernizatsiya jarayonining mazmuni, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati chuqurroq anglanadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va tarixiylik prinsiplari ham qo‘llanildi. Tizimli yondashuv ijtimoiy modernizatsiyani jamiyatning o‘zaro bog‘liq elementlaridan tashkil topgan murakkab tizim sifatida o‘rganishga yordam beradi. Qiyosiy tahlil orqali esa milliy va xorijiy tajribalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Tarixiylik prinsipi esa ijtimoiy o‘zgarishlarni ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari murakkab, ko‘p qirrali va dinamik xarakterga ega bo‘lib, ular jamiyatning mavjud ijtimoiy-madaniy an’analari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Mazkur jarayonlar nafaqat tashqi institutsional o‘zgarishlarni, balki jamiyatning ichki mazmuniy transformatsiyasini ham o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, modernizatsiya jarayonlari jamiyatning qadriyatlar tizimiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy qadriyatlar – oila, jamoaviylik, hurmat va ijtimoiy barqarorlik kabi tushunchalar bilan zamonaviylikka xos individualizm, erkin tanlov va innovatsion fikrlash o‘rtasida muayyan ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Biroq ushbu ziddiyatlarni faqat salbiy hodisa sifatida baholash to‘g‘ri emas. Aksincha, ular yangi ijtimoiy mazmunlar, yangi qadriyatlar sintezining shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada jamiyatda an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan yangi ijtimoiy model shakllanib bormoqda.

Ikkinchidan, kasbiy ta’lim tizimi ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarining muhim tarkibiy elementi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. U nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash tizimi, balki jamiyatda yangi ijtimoiy ong, kasbiy identitet va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kasbiy ta’lim orqali yosh avlod nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallaydi, balki zamonaviy mehnat madaniyati, innovatsion fikrlash va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari tashqi omillar bilan ham bevosita bog‘liq holda kechmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi hamda mehnat bozori talablarining o‘zgarishi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar yangi kasblarning paydo bo‘lishi, mavjud kasblarning transformatsiyasi hamda inson kapitaliga qo‘yilayotgan talablarning ortishiga olib kelmoqda. Natijada ijtimoiy mobilitet darajasi oshib, jamiyatda yangi ijtimoiy qatlamlar shakllanmoqda. Ontologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, modernizatsiya faqat tashqi islohotlar majmui emas, balki jamiyatning mavjudlik shaklining tubdan o‘zgarishidir. Bu o‘zgarishlar insonning ijtimoiy borliqdagi o‘rnini, uning o‘zini anglash darajasini va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini yangicha talqin etishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy modernizatsiya – bu nafaqat rivojlanish jarayoni, balki jamiyatning o‘zini qayta anglash va qayta qurish jarayonidir.

Xulosa

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan murakkab va tizimli hodisa hisoblanadi. Ushbu jarayonni chuqur anglash uchun uni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, modernizatsiya jarayoni jamiyatning qadriyatlari, ijtimoiy ong va madaniy identitetiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim tizimi esa ushbu jarayonning markazida turib, yangi avlodni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. V. Skvorcov. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Moskva: Prosveshchenie, 2018.

2. Xoshimova D., To‘xtasinova G. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

3. Jumaniyozova F. Boshlang‘ich sinflarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash tajribasi. Toshkent: Innovatsiya va rivojlanish, 2022.

4. Polya D. Masalalarni yechishga o‘rgatish san’ati. Moskva: Nauka, 1987.

5.Иноятов Ж. Национальная идентичность и образовательная политика в Узбекистане. –Ташкент: Фан, 2019. –144 с.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 172+101.1

ЭТИЧЕСКОЕ ЛИДЕРСТВО И СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ: РОЛЬ МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЖЕНСКОМ ЛИДЕРСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Файзуллаева Азиза Садридиновна,
Ташкентский государственный экономический университет, независимый исследователь



e-mail: azi.sadriddinovna@mail.ru
https://orcid.org/0009-0005-0941-9777

ETHICAL LEADERSHIP AND SOCIAL RESPONSIBILITY: THE ROLE OF MORAL VALUES IN WOMEN'S LEADERSHIP IN UZBEKISTAN

Faizullaeva Aziza Sadriddinovna,
Tashkent State University of Economics, Independent Researcher

ETIK YETAKCHILIK VA IJTIMOIY MAS'ULIYAT: O'ZBEKISTONDA AYOLLAR YETAKCHILIGIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING O'RNI

Fayzullayeva Aziza Sadriddinovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Аннотация: *Данная статья рассматривает, как моральные ценности формируют этическое лидерство и превращаются в практику социальной ответственности в женском лидерстве Узбекистана. Работа выполнена в формате концептуально-аналитического исследования и основана на синтезе теории этического лидерства и социального научения, модели «moral person / moral manager», а также контекстных источников о развитии женского лидерства в Узбекистане. Показано, что ценности справедливости, честности, ответственности, уважения и заботы становятся не только личными убеждениями лидера, но и управленческим механизмом, влияющим на доверие, этический климат и качество общественных отношений.*

Ключевые слова: *этическое лидерство, социальная ответственность, моральные ценности, женское лидерство, Узбекистан, доверие, этический климат.*

Abstract: *This article examines how moral values shape ethical leadership and translate into social responsibility practices among women in Uzbekistan. This conceptual and analytical study draws on a synthesis of ethical leadership and social learning theory, the "moral person/moral manager" model, and contextual sources on the development of women's leadership in Uzbekistan. It demonstrates that the values of justice, honesty, responsibility, respect, and care become not only a leader's personal beliefs but also a management mechanism influencing trust, the ethical climate, and the quality of social relations.*

Keywords: *ethical leadership, social responsibility, moral values, women's leadership, Uzbekistan, trust, ethical climate.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axloqiy qadriyatlar O'zbekistondagi ayollar orasida axloqiy yetakchilikni qanday shakllantirishi va ijtimoiy mas'uliyat amaliyotiga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Ushbu kontseptual va analitik tadqiqot axloqiy yetakchilik va ijtimoiy o'rganish nazariyasi, "axloqiy*

shaxs/axloqiy menejer" modeli va O'zbekistonda ayollar yetakchiligining rivojlanishi bo'yicha kontekstual manbalarning sinteziga asoslanadi. Unda adolat, halollik, mas'uliyat, hurmat va g'amxo'rlik qadriyatlari nafaqat yetakchining shaxsiy e'tiqodiga, balki ishonchga, axloqiy muhitga va ijtimoiy munosabatlar sifatiga ta'sir qiluvchi boshqaruv mexanizmiga aylanishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *axloqiy yetakchilik, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar, ayollar yetakchiligi, O'zbekiston, ishonch, axloqiy muhit.*

Введение. В эпоху перемен общество начинает особенно внимательно смотреть на лидеров. Не только на их должности и проекты, а на то, какие они люди. Потому что именно в сложные периоды становится ясно: лидерство — это не только компетенции, но и моральная сила. Люди следуют за тем, кому доверяют, а доверие невозможно без справедливости, честности и уважения.

Именно поэтому понятие этического лидерства сегодня приобретает ключевую актуальность. В классическом определении этическое лидерство — это демонстрация лидером нормативно приемлемого поведения и продвижение этических стандартов через коммуникацию, подкрепление и принятие решений [1]. Но если сказать проще: этический лидер — это тот, кто не «играет роль», а действительно живет по принципам, которые проповедует.

Для Узбекистана данная тема звучит особенно убедительно, потому что страна активно развивает политику поддержки женщин и их включенности в принятие решений. Международные и национальные инициативы прямо указывают на институциональный запрос на развитие женского лидерства. Например, UNDP в Узбекистане совместно с Сенатом Олий Мажлиса реализует мероприятия по повышению лидерских компетенций женщин в регионах, включая тренинги по публичным выступлениям и усилению участия женщин в политической и общественной жизни [2]. Это важный сигнал: женское лидерство становится частью новой социальной повестки.

Актуальность темы и её современное состояние

Социальная ответственность в лидерстве может пониматься как практическая реализация этических принципов в управлении людьми: справедливое распределение возможностей, поддержка благополучия сотрудников, забота о социальной гармонии и предотвращение вреда. В концепции ответственного лидерства лидер рассматривается как субъект, действующий в интересах общества и заинтересованных сторон, ориентированный на человеческое достоинство, доверие и социальную справедливость [Maak и Pless, 2006]. Данный подход особенно применим к женскому лидерству в Узбекистане, где общественная значимость руководителя часто измеряется не только результативностью, но и моральным вкладом в развитие сообществ.

Цель статьи- показать, как моральные ценности становятся основой этического лидерства женщин и как через них формируется социальная ответственность в руководящей практике.

Экспериментальная часть

Целью экспериментальной части исследования являлось выявление влияния моральных ценностей на проявление этического лидерства среди женщин-руководителей в Узбекистане. Для достижения поставленной цели был использован комплекс методов: анкетирование, интервью и наблюдение в реальных профессиональных условиях.

В исследовании приняли участие 50 женщин-руководителей различных организаций Узбекистана, работающих в государственных и частных структурах. Участники были отобраны по критериям: стаж руководящей работы более 3 лет, участие в социально значимых проектах и готовность к сотрудничеству в исследовании.

Анализ полученных результатов

Моральные ценности как внутренний «компас» женщины-лидера.

Моральные ценности в лидерстве - это не абстрактные слова. Это внутренняя система, по которой руководитель определяет: что справедливо, что допустимо, где граница. Лидер может обладать высоким интеллектом и сильными навыками, но без морального основания его власть становится механической и часто разрушительной. Именно поэтому исследователи подчеркивают: лидерство

обязательно должно включать этический компонент и пониматься как моральная практика [6].

Синтез литературы показывает, что наиболее значимыми ценностями, которые становятся основой этического лидерства, являются:

-справедливость (честные процедуры и равное отношение);

-честность (открытость и правдивость);

-ответственность (готовность отвечать за последствия);

-уважение (сохранение достоинства личности);

-забота (человеческое отношение и поддержка).

Для женщин-лидеров эти ценности часто становятся ещё более значимыми, потому что они одновременно выполняют роль профессионального руководителя и нравственного символа в глазах общества.

Как ценности превращаются в этическое лидерство: moral person + moral manager

В одном из наиболее влиятельных подходов этический лидер описан через две роли: **моральная личность** и **моральный менеджер** [5].

Первая роль — «moral person» — связана с характером лидера: честность, справедливость, забота.

Вторая роль — «moral manager» — означает, что лидер делает этику видимой: вводит нормы, обсуждает ценности, поддерживает справедливость в процедурах, реагирует на нарушения.

Если говорить простыми словами: этика должна быть не только в сердце, но и в системе. И это особенно важно там, где коллективы живут в условиях стресса, конкуренции, социальных различий.

Этический климат как мост к социальной ответственности

Социальная ответственность в данном исследовании понимается как лидерская способность видеть в сотрудниках и членах сообщества не ресурс, а людей. То есть заботиться о благополучии, обеспечивать справедливость, предотвращать вред, поддерживать уязвимых и укреплять социальные отношения.

Исследование Choi и соавторов показывает, что этическое лидерство влияет на социально ответственное отношение сотрудников, но ключевым механизмом выступает этический климат [8]. То есть социальная ответственность становится устойчивой не тогда, когда лидер один раз сказал правильные слова, а тогда, когда формируется общая культура: справедливость становится нормой, прозрачность — привычкой, забота -стилем. Таким образом, моральные ценности, закрепляясь в этическом лидерстве, формируют социальную ответственность не как разовый акт, а как постоянную практику.

Заключение

В статье показано, что моральные ценности выступают основой этического лидерства и социальной ответственности женщин-лидеров в Узбекистане. Ценности справедливости, честности, ответственности, уважения и заботы формируют характер лидера и трансформируются в организационную культуру через роль «moral manager». Этический климат становится механизмом устойчивого проявления социальной ответственности. Развитие женского лидерства в Узбекистане, поддерживаемое институциональными инициативами, может сыграть значимую роль в укреплении доверия, социальной гармонии и нравственного качества управления.

Использованная литература:

1. Brown, M. E., Treviño, L. K., & Harrison, D. A. (2005). Ethical leadership: A social learning perspective for construct development and testing. Organizational Behavior and Human Decision Processes, 97(2), 117–134. https://doi.org/10.1016/j.obhdp.2005.03.002

2. Brown, M. E., & Treviño, L. K. (2006). Ethical leadership: A review and future directions. The Leadership Quarterly, 17(6), 595–616. https://doi.org/10.1016/j.leaqua.2006.10.004

3. Treviño, L. K., Hartman, L. P., & Brown, M. (2000). Moral person and moral manager: How executives develop a reputation for ethical leadership.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 343.1

ПРЕДЪЯВЛЕНИЕ ОБВИНЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРАВОВАЯ ПРИРОДА, ФУНКЦИИ И ЗНАЧЕНИЕ НА ДОСУДЕБНЫХ СТАДИЯХ

Маъмуров Фирдавс Сидикжон оглы, магистрант Ташкентский государственный юридический университет



https://orcid.org/0009-0006-9821-6257
e-mail: firdavsmamurov0888@gmail.com

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT PROTSESSIDA AYB E’LON QILISH: HUQUQIY TABIATI, FUNKSIYALARI VA SUDGACHA BO‘LGAN BOSQICHLARDAGI AHAMIYATI

Ma’murov Firdavs Sidiqjon o‘g‘li, Toshkent davlat yuridika universiteti magistranti

BRINGING OF CHARGES IN THE CRIMINAL PROCEDURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: LEGAL NATURE, FUNCTIONS, AND SIGNIFICANCE AT THE PRE-TRIAL STAGES

Mamurov Firdavs Sidikjon ogli, Master’s student, Tashkent State University of Law

Аннотация: *В статье исследуется правовая природа предъявления обвинения в уголовном процессе Республики Узбекистан как ключевого института досудебного производства. Раскрываются его сущность, функции, нормативные основания и значение для обеспечения прав личности. Особое внимание уделяется проблемам правоприменительной практики и выработке предложений по их устранению. Сделан вывод о комплексном характере института предъявления обвинения и его системообразующей роли в уголовном процессе.*

Ключевые слова: *обвинение, предъявление обвинения, уголовный процесс, УПК Республики Узбекистан, право на защиту, досудебное производство.*

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida ayblov e’lon qilish institutining huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Uning mazmuni, funksiyalari, normativ asoslari va shaxs huquqlarini ta’minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Ayblov e’lon qilish instituti kompleks huquqiy kategoriya sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *ayblov, ayblov e’lon qilish, jinoyat protsessi, JPK, himoya huquqi.*

Abstract: *The article examines the legal nature of bringing charges in the criminal procedure of the Republic of Uzbekistan as a key institution of pre-trial proceedings. It reveals its essence, functions, legal framework, and significance for ensuring individual rights. Particular attention is given to law enforcement problems and ways to address them. The study concludes that bringing charges is a complex legal institution with a system-forming role in criminal proceedings.*

Keywords: *accusation, bringing charges, criminal procedure, Criminal Procedure Code of Uzbekistan, right to defense, pre-trial proceedings.*

Введение (Introduction). В условиях реформирования судебно-правовой системы Республики Узбекистан особое значение приобретает обеспечение баланса между

эффективностью уголовного преследования и соблюдением прав и свобод личности. Одним из ключевых элементов, обеспечивающих такой баланс, выступает институт предъявления обвинения [1.165].

Предъявление обвинения является тем процессуальным рубежом, который трансформирует уголовное преследование из стадии предположения в стадию формализованного обвинения [2.210]. Именно на этом этапе определяется предмет дальнейшего доказывания, формируется позиция защиты и закладываются основы судебного разбирательства.

Актуальность темы обусловлена тем, что, несмотря на детальную регламентацию в УПК Республики Узбекистан [3.46], в правоприменительной практике возникают проблемы, связанные с формализацией обвинения, недостаточной конкретизацией его содержания и нарушением процессуальных гарантий.

Цель исследования — комплексный анализ правовой природы предъявления обвинения, выявление его функций и значения, а также разработка предложений по совершенствованию практики.

Научная новизна исследования заключается в комплексном анализе института предъявления обвинения в уголовном процессе Республики Узбекистан с учётом его двойственной правовой природы как инструмента уголовного преследования и механизма обеспечения прав личности. В работе обоснована необходимость повышения требований к содержательной определённости обвинения и предложены направления совершенствования правоприменительной практики.

Методы исследования (Methods). Методологическую основу исследования составил комплекс общенаучных и специальных методов, обеспечивших всесторонний анализ правовой природы института предъявления обвинения в уголовном процессе Республики Узбекистан.

Применение формально-юридического метода позволило проанализировать нормы Конституции Республики Узбекистан [4.26] и Уголовно-процессуального кодекса, регулирующие порядок и основания предъявления обвинения, а также выявить их взаимосвязь.

Сравнительно-правовой метод использовался для сопоставления национальной модели предъявления обвинения с подходами, закреплёнными в зарубежных правовых системах и международных актах [5.14].

Системный метод обеспечил рассмотрение данного института как элемента целостной системы уголовного судопроизводства во взаимосвязи с принципами презумпции невиновности, права на защиту и доказательственной деятельности.

Метод анализа научных источников позволил обобщить позиции отечественных и зарубежных исследователей по вопросам правовой природы обвинения.

Комплексное применение указанных методов обеспечило обоснованность и достоверность полученных результатов.

Результаты (Results). Предъявление обвинения в уголовном процессе Республики Узбекистан представляет собой центральный институт досудебного производства, обеспечивающий переход от стадии процессуального предположения к стадии формализованного уголовного преследования. На данном этапе происходит юридическое закрепление позиции государства относительно причастности конкретного лица к совершению преступления, что определяет дальнейшее направление уголовного дела.

Анализ показывает, что предъявление обвинения обладает сложной правовой природой и выполняет взаимосвязанные функции [6.52].

Прежде всего, данный институт выражает официальную позицию государства в форме процессуально оформленного утверждения о совершении лицом конкретного преступления. В отличие от стадии подозрения, здесь формируется обоснованное обвинение, основанное на достаточной совокупности доказательств [7.120].

Одновременно предъявление обвинения выполняет гарантийную функцию, поскольку с этого момента лицо приобретает статус обвиняемого и получает возможность реализовать предусмотренные законом права на защиту.

Существенное значение имеет требование ясности и конкретности обвинения, обеспечивающее его понимание и возможность эффективного опровержения со стороны защиты.

Кроме того, предъявление обвинения включает правовую квалификацию деяния, что определяет пределы последующего судебного рассмотрения.

Таким образом, предъявление обвинения представляет собой комплексный процессуальный механизм, сочетающий элементы обвинительной деятельности государства и гарантии прав личности.

Обсуждение (Discussion). Прежде всего, предъявление обвинения играет определяющую роль в трансформации характера уголовного преследования, переводя его из стадии проверки предположений в стадию формализованного обвинения [8.3]. До вынесения соответствующего постановления деятельность органов расследования носит вероятностный характер и направлена на проверку гипотез о причастности лица к преступлению. После предъявления обвинения она приобретает чётко определённую правовую форму: формируется предмет доказывания, устанавливаются границы уголовного преследования и определяется процессуальный статус лица, что обеспечивает необходимую определённость дальнейшего движения дела.

Не менее важным является влияние предъявления обвинения на реализацию права на защиту [9.85]. Данный институт выполняет не только обвинительную, но и гарантийную функцию. Эффективная защита невозможна без ясного и конкретного понимания сущности предъявленного обвинения. Только при наличии чётко сформулированного обвинительного тезиса лицо получает возможность выстраивать правовую позицию, оспаривать доказательства и использовать предусмотренные законом средства защиты.

Анализ правоприменительной практики показывает, что значительная часть проблем связана с формализацией данного института. В ряде случаев обвинение формулируется чрезмерно обобщённо, без должной конкретизации фактических обстоятельств, что затрудняет его понимание и ограничивает возможности защиты. Ошибки в квалификации деяния также негативно влияют на законность и обоснованность обвинения, что свидетельствует о необходимости повышения качества процессуальной деятельности органов расследования.

Особого внимания заслуживает динамический характер обвинения. Закон допускает его изменение, дополнение или частичное прекращение в ходе предварительного расследования, что, с одной стороны, способствует установлению истины [10.240], а с другой — может затруднять реализацию права на защиту. В этой связи важно соблюдение баланса между стабильностью обвинения и процессуальной гибкостью.

Предъявление обвинения тесно связано с доказательственной деятельностью. С момента его формулирования система доказывания ориентируется на проверку обвинительного тезиса, при этом деятельность органов расследования должна быть направлена как на подтверждение обвинения, так и на выявление оправдывающих обстоятельств. Недопустимость обвинительного уклона является одним из ключевых требований современного уголовного процесса.

Заключение (Conclusion). Проведённое исследование показывает, что предъявление обвинения является ключевым элементом уголовного процесса Республики Узбекистан, обеспечивающим переход к формализованному уголовному преследованию и определяющим дальнейшее движение дела.

Правовая природа данного института носит комплексный характер, сочетая обвинительные и гарантийные начала. Он отражает позицию государства и одновременно обеспечивает реализацию права на защиту и процессуальную определённость.

Эффективность предъявления обвинения напрямую влияет на законность уголовного преследования и соблюдение прав личности, что обусловливает необходимость обеспечения его ясности, конкретности и соблюдения процессуальных гарантий.

Рассматриваемый институт следует оценивать также в контексте международно-

правовых стандартов, предусматривающих своевременное и понятное уведомление лица о предъявленном обвинении и обеспечение реальной возможности защиты.

К числу основных проблем правоприменительной практики относятся недостаточная конкретизация обвинения, формальный подход к его предъявлению, нарушения процессуальных сроков, ограничение доступа к квалифицированной юридической помощи, а также использование недопустимых доказательств.

В целях совершенствования института предъявления обвинения целесообразно усиление требований к содержанию обвинительного акта, развитие механизмов судебного контроля, повышение профессиональной подготовки сотрудников правоохранительных органов и укрепление роли адвокатуры.

Реализация указанных мер позволит повысить качество уголовного судопроизводства и обеспечить соответствие национальной практики международным стандартам справедливого правосудия.

Список литературы:

1. Бабенко И. А., Севодин Б.Б. Обвинение как категория уголовного процесса // Современная научная мысль. 2020 сс.165-168.
2. Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса: в 2 т. М.: Наука, 1968–1970. сс. 210-215.
3. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан от 22 сентября 1994 г. ст.25, 46-48, 359-360.
4. Конституция Республики Узбекистан от 30 апреля 2023 г. ст. 26-28
5. Международный пакт о гражданских и политических правах от 16 декабря 1966 г. ст.14.
6. Харзинова В. М., Небратенко Г. Г. Обвинение как институт уголовного процесса // Юристъ-Правовед. 2015. № 4. (71), 2015, С. 52-55.
7. Криминалистика: учебник / под ред. Р. С. Белкина. М.: Норма, 2001. сс. 120-130.
8. Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 19.12.2003 №17 п. 3.
9. Лазарева В.А. Теория и практика судебной защиты в уголовном процессе. Самара, 2000. сс. 85-95.
10. Смирнов А. В., Калиновский К. Б. Уголовный процесс. М.: КНОРУС, 2008. сс. 240-250.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 821:574:82.09

JAHON ADABIYOTIDA EKOLOGIYA VA EKOLOGIK ADABIYOTSHUNOSLIK (EKOKRITITSIZM)

Otarova Tursingul Jetkerbay qizi, Nukus davlat pedagogika instituti "Qoraqalpoq adabiyoti" kafedrasi doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0009-0004-0297-5466
e-mail: tuchka94@list.ru

ECOLOGY AND ECOLOGICAL LITERARY STUDIES (ECOCRITICISM) IN WORLD LITERATURE

Otarova Tursingul Jetkerbay qizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Doctoral Candidate, Department of Karakalpak Literature, Nukus State Pedagogical Institute

ЭКОЛОГИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ (ЭКОКРИТИЦИЗМ) В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Отарова Турсынгул Жеткербай кызы, докторант кафедры каракалпакской литературы, Нукусский государственный педагогический институт, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jahon adabiyotida ekologiya mavzusining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik adabiyotshunoslik – ekokrititsizmning nazariy asoslari, asosiy tushunchalari va adabiy asarlarni tahlil qilishdagi o'rni yoritiladi. Muallif ekologik muammolarning badiiy ifodasi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning adabiyotda aks etishi hamda turli davr va adabiy yo'nalishlarda ekologik tafakkurning namoyon bo'lishiga e'tibor qaratadi. Maqolada jahon adabiyoti namunalarida ekologik qarashlarning evolyutsiyasi ko'rsatilib, zamonaviy ekokritik yondashuvlarning dolzarbligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ekologik ongni shakllantirishda adabiyotning muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, jahon adabiyoti, ekokrititsizm, ekologik adabiyotshunoslik, inson va tabiat munosabati, ekologik muammolar, badiiy ifoda, ekologik tafakkur, adabiy tahlil, zamonaviy adabiyot.*

Abstract: *This article examines the formation and development stages of ecological themes in world literature. It also explores the theoretical foundations, key concepts, and analytical significance of ecological literary studies, known as ecocriticism. The author focuses on the artistic representation of environmental issues, the depiction of the relationship between humans and nature in literary works, and the manifestation of ecological thinking across different periods and literary movements. The paper highlights the evolution of ecological perspectives in world literature and substantiates the relevance of modern ecocritical approaches. The findings confirm that literature serves as an important tool in shaping environmental awareness.*

Keywords: *ecology, world literature, ecocriticism, ecological literary studies, human–nature relationship, environmental issues, artistic representation, ecological thinking, literary analysis, modern literature.*

***Аннотация**: В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития экологической тематики в мировой литературе. Также освещаются теоретические основы, ключевые понятия и значение экологического литературоведения — экокритицизма — в анализе художественных произведений. Автор уделяет внимание художественному отражению экологических проблем, взаимоотношениям человека и природы в литературе, а также проявлению экологического мышления в различных эпохах и литературных направлениях. В статье показана эволюция экологических взглядов в мировой литературе и обоснована актуальность современных экокритических подходов. Результаты исследования подтверждают, что литература является важным средством формирования экологического сознания.*

***Ключевые слова:** экология, мировая литература, экокритицизм, экологическое литературоведение, взаимоотношения человека и природы, экологические проблемы, художественное отражение, экологическое мышление, литературный анализ, современная литература.*

Kirish. XXI asrda ekologik inqiroz global miqyosdagi muammoga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, suv va havo ifloslanishi, resurslar taqchilligi va cho‘llanish jarayonlari insoniyatning yashash muhitiga jiddiy tahdid solmoqda. Bunday sharoitda ekologiya faqat tabiiy fanlar doirasida emas, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, adabiyotshunoslikda ham dolzarb ilmiy yo‘nalishga aylandi.

Adabiyot inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni estetik, falsafiy va ijtimoiy kontekstda aks ettiruvchi muhim madaniy hodisadir. Shu bois ekologik ongning shakllanishida adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Ekologik muammolarni badiiy talqin qilish orqali yozuvchilar va shoirlar jamiyatda ekologik mas’uliyat tuyg‘usini kuchaytiradilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ekologiya tushunchasi dastlab biologiya faniga oid ilmiy kategoriya sifatida shakllangan bo‘lsa-da jahon adabiyotshunosligida ekologiya muammosining o‘rganilishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi, biroq uning nazariy ildizlari ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. Tahlil qilingan manbalarga ko‘ra, adabiyotda tabiat tasviri insoniyat adabiy merosining eng qadimiy qatlamlaridan biri bo‘lib, u qadimgi xalq og‘zaki ijodida mavjud. Bu narsalar miloddan avvalgi davrlarda ham bor bo‘lgan bo‘lishi mumkin, lekin ekologiya tushunchasi ilmiy yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan XIX asrda — romantik kimyo bilan bog‘liq jarayonlar ortidan evolyutsiya topadi.

Romantik adabiyotida tabiat estetik va ruhiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Masalan, Henry David Thoreauning Walden asarida tabiat inson ma’naviy poklanishining makoni sifatida ko‘rsatiladi [17.67–72]. Bu davrda ekologiya atamasi hali adabiyotshunoslikka kirmagan bo‘lsa da, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi poetik markazga chiqdi. Nemis romantiklarida ham tabiatni metafizik birlik sifatida talqin qilish kuzatiladi, ayniqsa Johann Wolfgang von Goethening tabiiy fanlarga oid qarashlari ekologik tafakkurga yaqinlashuvni ko‘rsatadi [8.112].

1962-yilda Rachel Carsonning “Silent Spring” asari nashr etilishi ekologik ongning global uyg‘onishiga sabab bo‘ldi. Carson pestitsidlarning biosferaga ta’sirini ilmiy faktlar bilan asoslab, atrof-muhitni himoya qilish zaruratini ilgari suradi [1.23–25]. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan bu asar ekologik diskursning shakllanishiga turtki berdi, chunki u ilmiy matn bo‘lishiga qaramay, kuchli narrativ va estetik vositalardan foydalangan.

1978-yilda William Rueckert “Literature and Ecology: An Experiment in Ecocriticism” maqolasida “ecocriticism” atamasini ilmiy muomalaga kiritdi[15.71-86]. U adabiy matnlarni energiya almashinuvi va ekologik tizimlar bilan bog‘liq metaforalar asosida talqin qilishni taklif qildi. Bu yil ekologik adabiyotshunoslikning konseptual boshlanish nuqtasi sifatida qabul qilinadi.

1990-yillarga kelib yo‘nalish institutsional tus oldi. 1996-yilda Cheryll Glotfelty va Harold Fromm tahriri ostida “The Ecocriticism Reader” chop etildi. Unda “ekokritika – bu adabiyot va jismoniy muhit o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish” deb ta’rif beriladi [7.412]. 1995-yilda Lawrence Buellning “The Environmental Imagination” asari e’lon qilinib, ekologik tasavvurning to‘rt mezonini

ishlab chiqdi [4.7-8]. Bu mezonlar ekologik adabiy matnni aniqlashda metodologik asos bo‘ldi.

2000-yillarda ekokritika “ikkinchi to‘lqin” bosqichiga o‘tdi. Postkolonial ekologiya, gender va ekologiya, antropotsen nazariyasi shakllandi. Timothy Morton “ecology without nature” konsepsiyasini ilgari surib, tabiatni romantik ideal sifatida emas, balki murakkab ontologik tizim sifatida ko‘rishni taklif etdi [13,5-12]. 2010-yillarda antropotsen tushunchasi adabiyotshunoslikka kirib keldi; insonning geologik kuch sifatida talqini ekologik diskursni kengaytirdi.

Rus adabiyotshunosligida ekologik muammo 1980-yillarda paydo bo‘ldi. V.Rasputin va Ch.Aytmatov ijodi ekologik fojea kontekstida tahlil qilindi. Aytmatovning “Plakha” romanida Aral fojiasi ramziy ifodalanadi[1] Rus tadqiqotchisi N. Leyderman ekologik motivlarni “axloqiy-falsafiy inqiroz belgisi” sifatida izohlaydi[11.85]. Belarus adabiyotida Chernobil fojeasi ekologik diskursning markaziga aylandi. Svetlana Alexievichning Chernobyl Prayer asari ekologik fojeani hujjatli adabiyot orqali ochib berdi [2].

Qirg‘iz adabiyotshunosligida ekologiya muammosi Aytmatov ijodi asosida o‘rganildi. Qozog‘istonlik olim G. Bazarbayeva 2005 yildagi dissertatsiyasida ekologik mifopoetika masalasini ko‘taradi[5]. Qozog‘iston tadqiqotchisi Aida Baimukhanbetova qozog‘ she’riyatida ekologik obrazlar evolyutsiyasini ko‘rsatadi — ayniqsa Aral fojiasi motivlarini tahlil qilgan[6]. Ozarbayjon adabiyotshunosligida ekologik lirika 1990-yillardan boshlab tadqiq qilindi. Ozarbayjonli adabiyotchilar A.Mammadov va Elmira Gafarovalar ekologik obrazlarni milliy identitet bilan bog‘laydi [14]. Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, postsovet hududida ekologik adabiyot ko‘pincha ekologik fojialar (Aral, sanoat ifloslanishi) bilan bog‘liq. Tatar adabiyotshunosligida Volga mintaqasining ekologik muammolari poetik diskursga aylangan. Tojik adabiyotida tog‘ va suv obrazlari ekologik semantika bilan tahlil qilinadi [16]. Turkman adabiyotshunosligida cho‘l va suv resurslari markaziy ekologik motiv sifatida qaraladi. Turk adabiyotshunosligida ekologik yondashuv 2000-yillardan faol rivojlandi. Zeynep Uysal turk romanlarida urbanizatsiya va ekologik tanazzulni tahlil qilgan[18].

Natijalar va muhokama. Sharq adabiyotshunosligida, xususan Xitoy ilmiy maktabida ekologiya an’anaviy falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Wang Ning ekologik madaniyat (“生态文明”) konsepsiyasini ilgari surib, inson va tabiat uyg‘unligini asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. U ekologiyani Konfutsiy va Daoizm an’analari bilan bog‘laydi. Xitoy adabiyotshunosligida 2000-yillardan boshlab “green literature” tushunchasi qo‘llanila boshlandi. Lu Shuyuan ekologik tanqidni konfutsiychilik bilan bog‘laydi [12]. Koreys adabiyotshunosligida esa tadqiqotchi Kim Uk-dong koreys modern she’riyatida industrializatsiya va urbanizatsiya ekologik motivlarni kuchaytirgan, landshaft va ekologik iztirobni tahlil qilgan [10].

Yuqoridagi tadqiqotlarga qaraganda sharq ekokritikasi G‘arbnikidan farqli ravishda uyg‘unlik va kosmik muvozanat tamoyillariga asoslanadi.

Yilma-yil tahlil shuni ko‘rsatadiki, 1962 – ekologik ong uyg‘onishi; 1978 – ekokritika atamasi paydo bo‘lishi; 1995–1996 – nazariy tizimlashuv; 2000-yillar – global va postkolonial kengayish; 2010-yillar – antropotsen bosqichi; 2020-yillar – “iqlim adabiyoti” (“climate fiction”) shakllanishi bo‘lgan.

Xulosa. Ushbu maqola jahon adabiyotida ekologiya tushunchasining kirib kelishi, yillar bo‘yicha rivojlanishi va ekologik adabiyotshunoslikning turli maktablardagi o‘rganilishi haqida tizimli tahlil berdi. Ekokriticismning ilmiy mavqei XIX asrdagi romantik yondashuvdan boshlab XX asr oxiri — XXI asrgacha bo‘lgan davrda shakllangan. Bu jarayon antropologiya, falsafa va madaniyatshunoslik bilan uzviy integratsiya qilinib, global ekologik madaniyatni yuzaga keltirdi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

– Ekologiya adabiyotshunoslikda mustaqil metod sifatida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan;

– Uning estetik ildizlari romantik adabiyotga borib taqaladi;

– Ekokritika interdisiplinar metod bo‘lib, ekologiya, falsafa va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liq;

–Postmodern va material ekokritika ekologik tahlilni yangi bosqichga olib chiqdi;

–Milliy adabiyotshunoslik maktablarida ekologiya muammosi tarixiy va madaniy kontekstga mos ravishda o‘rganiladi.

Shunday qilib, ekologiya tushunchasi jahon adabiyotida bosqichma-bosqich shakllanib, bugungi kunda global madaniy va nazariy kategoriya darajasiga ko‘tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov, C. Plakha. – Moskva: Sovetskiy Pisatel’, 1986. – 214.
2. Alexievich, S. Chernobyl Prayer. – New York: Norton, 1997. – 41 b.
3. Bate, J. Romantic Ecology: Wordsworth and the Environmental Tradition. – London: Routledge, 1991. – 230 b.
4. Buell, L. The Environmental Imagination. – Cambridge: Harvard University Press, 1995. – 280 b.
5. Bazarbayeva, G. Ecopoetics in Kazakh Literature. – Almaty: Kazakh Univ. Press, 2005. – 134 b.
6. Baimukhanbetova, A. Ecological Imagery in Kazakh Poetry. – Astana: Lit Press, 2012. – 56 b.
7. Glotfelty, C., Fromm, H. (eds.) The Ecocriticism Reader. – Athens: University of Georgia Press, 1996. – XVIII+512 b.
8. Goethe, J. W. von. Scientific Writings. – Leipzig: Cotta, 1810/1988. – 320 b.
9. Heise, U. Sense of Place and Sense of Planet. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 250 b.
10. Kim Uk‑dong. Korean Modern Poetry and Ecological Motifs. – Seoul: Yonsei University Press, 2010. – 73 b.
11. Leyderman, N. Russian Literary Ecology. – Moskva, 2001. – 89 b.
12. Lu, S. Green Literature and Confucian Thought. – Beijing: Peking University Press, 2006. – 22 b.
13. Morton, T. Ecology Without Nature. – Cambridge: Harvard University Press, 2007. – 200 b.
14. Mammadov, A., Gafarova, E. Ecological Themes in Azerbaijani Literature. – Baku, 2012. – 56 b.
15. Rueckert, W. “Literature and Ecology: An Experiment in Ecocriticism.” – The Iowa Review, 1978, pp. 107.
16. Rahmonov, T. Ecological Semantics in Tajik Literature. – Dushanbe, 2014. – 118 b.
17. Thoreau, H. D. Walden; or, Life in the Woods. – Boston: Houghton Mifflin, 1854/2004. – 250 b.
18. Uysal, Z. Urbanization and Ecological Decline. – Istanbul: Bogazici Univ. Press, 2008. – 75 b.
19. Carson, R. Silent Spring. – Boston: Houghton Mifflin, 1962. – 400 b.
20. Carson,Rachel. Sessiz Bahar. Çeviren Çağatay Güler. Ankara: Palme yayınları, 2004.
21. Wang, N. Ecological Civilization in Chinese Literature. – Beijing: Peking University Press, 2006. – 22 b.
22. Гречишкина С.В. К вопросу исследования современной литературы о природе: аспекты изучения эколитературы. Вестник Томского государственного университета. 2014. №387. С.8-14.
23. Vikas Bhardwaj, Ecocriticism in Indian English poetry: Nature, Culture and Crisis. International Journal of Research in English. 2019. pp. 43-52.
24. Г.С.Мусинова, К.Т.Тулебаева, Әдеби процестеги экологиялық дағдарыс пен ядролық сынақ зардабы. Л.Н.Гумилов атындағы ЕҰУ Хабаршысы.Филология сериясы. 2024, №4 (149), Б. 154-165.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'255.2

ALISHER NAVOIY G‘AZALI INGLIZCHA TARJIMASIDA MAZMUNNING AKS ETISHI: BIR G‘AZAL TAHLILI

Toshxonova Muborak Sur’at qizi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti uninversiteti 2-kurs magistranti

THE REFLECTION OF MEANING IN THE ENGLISH TRANSLATION OF ALISHER NAVOI’S GHAZAL: AN ANALYSIS OF A GHAZAL

Toshxonova Muborak Sur’at qizi, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, 2nd year master’s student

ОТРАЖЕНИЕ СМЫСЛА В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ ГАЗЕЛИ АЛИШЕРА НАВОИ: АНАЛИЗ ОДНОЙ ГАЗЕЛИ

Тошхонова Муборак Суръат кызы, магистрант 2-курса Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы



https://orcid.org/0009-0009-8394-3947
e-mail: misstoshxonova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Dahr elidin naf’ agar yo‘qtur” deb boshlanuvchi g‘azalining Q.Ma’murov tomonidan qilingan tarjimasi qiyosiy-semantik tahlil qilingan. Tahlil jarayonida g‘azalning har bir bayti asliyat va tarjimasi bilan qiyoslangan. Tarjimon qo‘llagan tarjima usullari tadqiq qilingan va mazmunning qay darajada saqlanganligi tahlil qilingan. Natijada ayrim baytlarda mazmunning adekvat tarjimasi bilan birga uning to‘liq saqlanmaganligi, semantik siljish va torayish holatlari kuzatilgani aniqlangan.*

Kalit so‘zlar *adekvat tarjima, konkretlashtirish, qo‘shimcha qo‘shish, semantik siljish, semantik torayish, ma’no buzilishi.*

Annotation: *This article presents a comparative-semantic analysis of the English translation of Alisher Navoi’s ghazal beginning with “Dahr elidin naf’ agar yo‘qtur”, translated by Q.Ma’murov. In the course of the analysis, each couplet of the ghazal is compared with its original version and the corresponding translation. The translation techniques employed by the translator are examined, and the degree to which the meaning is preserved is analyzed. The findings reveal that while some couplets demonstrate an adequate translation of meaning, in others the meaning is not fully preserved, with instances of semantic shift and semantic narrowing observed.*

Keywords: *adequate translation, concretization, addition, semantic shift, semantic narrowing, distortion of meaning.*

Аннотация: *В данной статье представлен сравнительно-семантический анализ английского перевода газели Алишера Навои, начинающейся строкой “Dahr elidin naf’ agar yo‘qtur”, выполненного К.Мамуровым. В процессе исследования каждый бейт газели сопоставляется с оригинальным текстом и его переводом. Рассматриваются переводческие приёмы, использованные переводчиком, а также анализируется степень сохранения смысла. В результате установлено, что в ряде бейтов наблюдается адекватная передача содержания, однако в некоторых случаях смысл передан не полностью, выявлены явления семантического сдвига и сужения.*

Ключевые слова: *адекватный перевод, конкретизация, добавление, семантический сдвиг, семантическое сужение, искажение смысла.*

KIRISH. G‘azal janri o‘zining cheklangan shakl ichida cheksiz ma’no anglatib kelishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Uni tarjima qilishda ham mazmun, poetik va prosodik elementlarning uyg‘un bo‘lishi talab qilinadi. Qofiya, radif, vaznni saqlash uchun ba’zi hollarda mazmunning torayishi, siljishi va yo‘qolishi kabi holatlar uchrab turadi. Shuning uchun ushbu maqolada Alisher Navoiy g‘azalining inglizcha tarjimasida mazmunning qay darajada saqlab qolinganligini tahlil qilish maqsad qilib olindi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Sharq lirik janrlarini tarjima qilish masalalari muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib ba’zi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, G.Odilova[1:3-12-b.] sharq mumtoz adabiyotidan tarjimalarning adekvatlik muammolarini olib chiqib bu bo‘yicha tavsiyalar bergan bo‘lsa, A.Bumatova[2: 13-28-b.] g‘azal va ruboiylarning ingliz tiliga tarjimasida shakily-semantik va poetik uyg‘unligini tahlil qiladi. unga ko‘ra, g‘azallarda shakl bilan birga uning mazmuni va poetik vositalarini saqlash muhim bo‘lib, bu “uyg‘unlik” kategoriyasini asoslaydi.

METODOLOGIYA. Maqolada Alisher Navoiy g‘azallari tarjimasida ma’no-mohiyatning qay darajada yetkazib berilganligini aniqlash maqsadida qiyosiy-semantik tahlil usulidan foydalanildi. L.S.Barxudarovning[3:191-221-b.] transformatsiya nazariyasi asosida semantik siljish, torayish, kengayish kabi holatlar aniqlandi.

Tahlil uchun Navoiyning “Dahr elidin naf’ agar yo‘qtur” deb boshlanuvchi g‘azalining Q. Ma’murov[4: 31-35-b.] tomonidan tarjimasi obyekt sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. G‘azalning umumiy mazmuni Navoiyning xasbi-holini ifodalab o‘sha davr insonlaridan zada bo‘lgan ko‘ngil dardini ifodalaydi. Quyida g‘azalning matla’sini tahlil qilamiz:

Dahr elidini naf’ agar yo‘qtur, zarar ham bo‘lmasa,

Marham ar yo‘qtur, ko‘ngulga nishtar ham bo‘lmasa.

Inglizcha tarjimasi:

No good comes from the world’s people, yet woes there were not.

No stings should swell with pain, for souls need salves if healers were not.

Tarjimon baytdagi *“naf”*(foyda) so‘zini *“good”, “zarar”* so‘zini esa *“woe”* bilan berib baytning ma’nosi yana ham aniqroq ochib bergan. Chunki Navoiy bu yerda qo‘lingdan yaxshilik kelmasa, yomonlik ham qilmagin qabilidagi hadisga ishora qilayapti va agar tarjmada *“benefit”* va *“harm”* so‘zlari ishlatilganda ma’no moddiy manfaatga doir bo‘lib qolgan bo‘lardi. Bundan kelib chiqadiki, tarjimon misraning ma’nosini to‘liq tushungan va xuddi shunday yetkazib bergan. Ikkinchi misrada esa *“no stings should swell with pain”* va *“healers”* jumlalari tarjimon tomonidan ijodiy yondashilib misraning birinchi qismiga qo‘shilgan, natijada ma’noni anglashda *“malham bo‘lishmaganiga yarasha tig‘ ham sanchishmasa edi”*ning o‘rniga *“yaralar shishib ketmasligi uchun tabib bo‘la olishmasa, malham bo‘lishsin”* degan, ma’no kelib chiqyapti, ya’ni asliyatdagi *nishtar ham bo‘lishmasa edi* ma’nosi tarjimada yo‘qolgan.

G‘azalning ikkinchi bayti:

Olam ahlidin agar yo‘qtur jigargun sog‘are,

Koshki yuz ming qadah xuni jigar ham bo‘lmasa.

Inglizcha tarjimasi:

Even if the world’s people don’t all have ruddy goblets,

I wish the hot blood of a hundred thousand livers were not.

Tarjimadagi *“ruddy goblets”* birikmasi ingliz tilida *“jigargun sog‘ar”* ya’ni *“jigarrang yoki qizil qadah”* ma’nosini to‘liq beradi. Agar ishtiqoq san’atini saqlash uchun *“bloody goblets”* deb berilsa, unda bu qadah xursandchilik ramzi emas, balki salbiy ma’no anglatuvchi anjomga aylanib qolardi, lekin tarjimon shuni inobatga olgan holda ruddy so‘zini ishlatgan va u aynan baytda nazarda tutilgan mazmunni ifodalovchi narsa ma’nosini to‘liq bergan. Lekin bu “qizil qadah dunyo odamlari tomonidan berilmasa” degan ma’no tarjimada “dunyo odamlarining hammasida qizil qadahlar bo‘lmasa” tarzida kelganligi asliyat ma’nosini buzgan. Chunki ingliz tilidagi *“to have”* fe’li *bor bo‘lmoq* yoki (bu yerda qizil qadahlarda ichmoq) ma’nosini beradi, baytda esa “olam ahlidin agar yoq’tur” jumlasi ishlatilgan bo‘lib, chiqish kelishigi aynan olam ahli tomonidan berilmasa ma’nosini anglatadi, agar u “olam

ahlida” shaklida bo‘lganda edi, unda tarjima ideal chiqqan deb ayta olardik. Shundan kelib chiqqan holda “*Even if the world’s people* ***do not give you*** *ruddy goblet”*tarzida tarjima qilinsa, ma’no to‘g‘ri yetkazib berilgan bo‘lar edi. Ikkinchi misra esa ingliz tiliga juda go‘zal va ma’noni to‘liq saqlagan holda tarjima qilingan.

Keyingi bayt:

Mahvashekim, bo‘lmag‘ay vaslidin ummidi hayot,

Xushtururkim jong‘a hajridin xatar ham bo‘lmasa.

Inglizcha tarjimasi:

I wish there were no greater danger than a separation.

Far better would it be if separation’s danger were not.

Tarjima shunaqangi silliq chiqqanki, unda mazmun qisman yetkazilganligi sezilmaydi ham. Ammo asliyatdagi birinchi misra tarjimada butkul yo‘qolgan. Baytdagi *“oy yuzlining vasli nasib etmay hayotga umidi qolmagan”* oshiq obrazi tushib qolgan. Ya’ni oshiq o‘zi yor vasliga yetolmay tushkunlikda, qaniydi hijron azobida uning joniga xatar yetib hayotdan ko‘z yumishgacha bormasa, qanday yaxshi bo‘lardi. Tarjimada esa bu, hijron azobidan ham qattiqroq xatar yetmasa edi, ma’nosida berilgani, albatta to‘liq mohiyatni ochib berishga emas, balki ijodiy tarjima orqali *reduksiyaga* uchragan.

Keyingi bayt:

Bedilekim, bexabar tushkay birov hijronig‘a,

Ne balodur gah-gahe andin xabar ham bo‘lmasa.

Inglizcha tarjimasi:

It happens sometimes, lovers losing track of their beloveds.

How awful it would be if your awareness of her were not.

Tarjimada ikkinchi misrada ma’no to‘liq saqlangan. Lekin “gah-gahe” so‘zi birinchi misraga ko‘chib “oshiqlar sevganini yo‘qotib qo‘yishi” haqida ma’lumot qo‘shilib qoladi, vaholanki birinchi misrada bunday ma’no yo‘q. Tarjimon bu yerda O. Davlatovning “sevgan yorining hijroni sabab o’zidan bexabar, hushidan ketgan oshiqdan har zamonda xabar olib turmaslik yana qanday balo bo’ldi” tabdilidan foydalangan, natijada mazmunda chalkashlik yuzaga kelgan. Chunki asliyatda xushidan ketish yoki undanyori xabar olib turishi kerakligi haqida gap ketmagan. Z.Isomiddinov[5] esa uni bir oshiq yorning hijroniga o’zi bexabar holda tushib qolsa-yu, bu ne baloki, (shu holatda) yordan xabar ham kelmay qolib, uni qiynasa, deb tabdil qiladi va biz buni lug‘atdan foydalangan holda ancha to‘g‘ri bayon deb qabul qildik.

Keyingi bayt:

Soqiyo, netkay meni ul nav’ qilsang mastkim,

Aql-u hushimdin nishon, balkim asar ham bo‘lmasa.

Inglizcha tarjimasi:

O wine pourer, were you to render me a mindless drunkard,

What would it matter if what little mind I master were not?

Tarjimada *“mindless drunkard”* birikmasi asliyatdagi *aql-u hushidan nishon yo‘q mast* obrazini to‘liq qayta yarata olgan. Ikkinchi misradagi *“little”* so‘zi, tarjimon tomonidan qo‘shilgan bo‘lsa-da, hech qanday semantik siljish hosil qilmagan holda ma’no adekvat tarjima qilingan.

Keyingi bayt:

Kim, tuzay mastona Shohi G‘oziy avsofida savt,

Bu ko‘ngul gar bo‘lsa o‘z holida, gar ham bo‘lmasa.

Inglizcha tarjimasi:

If only my ghazals could praise Shah Ghozi Husayn Boyqaro,

Whether my soul functioned, or if all its workings were not.

Maqta’dan oldingi bayt Navoiy Husayn Boyqaroga ishora qiladi. Birinchi misrada asliyatda Shoh G‘oziy ismi keltirilib u tarjimada konkretlashtirilgan, bu o‘quvchi uchun shoh G‘oziy obrazini aniq kimligini tushunishda aniqlik kiritgan va ma’noni to‘liq yetkazib berishga xizmat qilgan. Ikkinchi misrada ko‘ngilning o‘z holida bo‘lsa-bo‘lmasa jumlasi shoirning emotsional holatini ifodalab kelmoqda, lekin uning tarjimada *functioned* va *workings* so‘zlari bilan berilishi mana shu psixologik holatni mexanik holatga ko‘chirgan, natijada tarjimada semantik siljish yuzaga kelgan.

Maqta’:

Ey, Navoiy, sen chekarsen oh, lekin yaxshidur

Ul pariyning zulfi bu yel birla darham bo‘lmasa.

TAMADDUN NURI

Inglizcha tarjimasi:

Hey, Navai, that sound's your sighs. Oh, but far, far better,

When you're wooing an angel, if your clueless cooings were not.

Birinchi misra ekvivalent tarjima qilingan. Ikkinchi misrada esa parining sochlari shu ohdan esgan shamoldan yoyilib ketishi obrazi butunlay tushirib qoldirilgan. Ya'ni baytdan *Navoiy chekkan ohdan shamol esib yorining sochlarini yoyib yubormasa yaxshi edi*[6: 39-41-b.], degan ma'no anglashilmoqda. Chunki bu holda yor jamoli yanada ortib hijrondagi oshiqni battar qiynaydi. Tarjimada buning o'rniga *agar sen farishtaga ishq izhor etayotgan bo'lsang, bu behuda so'zlaring bo'lmagani ma'qulroq*, degan ma'no anglashilmoqda. Natijada esa tarjimada ma'no butunlay o'zgarib ketgan va semantik siljishga olib kelgan.

XULOSA. Navoiy g'azallaridagi chuqur ma'no to'liq tushunib yana uni tarjimada to'liq yetkazib bera olish tarjimondan yuksak lingvistik va ekstralingvistik bilimlarni talab qiladi. Ushbu g'azalni ham tarjimon ba'zi o'rinlarda ma'noni konkretlashtirish va qo'shimcha qo'shish usullari orqali adekvat tarjima qilishga erishgan. Ba'zi joylayda esa tushirib qoldirish va mazmunni to'liq tushunmaslik natijasida semantik torayish va semantik siljish holatlari yuzaga kelgan. Navoiy g'azallarida semantik adekvatlikka erishish uchun yordamchi vosita sifatida adabiyotshunoslarning Navoiy g'azallariga bergan izohlaridan foydalanish tarjimada mazmunning to'liq saqlanishiga xizmat qiladi. chunki tarjimon o'zi to'liq tushungan va his qiligan narsanigina boshqa tilda qayta yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Одилова Г. К. Инглиз ва ўзбек мумтоз шеърияти таржималарида адекватлик муаммолари: филол. фан. номз. … дис. — Тошкент, 2011. — 143 б.

2. Буматова А. М. Шарқ лирик жанрларининг инглизча таржималарида шаклий-семантик ва поэтик уйғунлик (ғазал ва рубоий мисолида): филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дис. — Тошкент, 2020. — 156 б.

3. Бархударов Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). — М.: Междунар. отношения, 1975. — 240 с.

4. Navai A. Ghazals / translated by K. Mamurov // Mundus Artium: A Journal of International Letters and the Arts. — 2023. — Vol. 17, № 1–2. — P. 31–35.

5. Алишер Навоий. Даҳр элидин нафъ агар йўқтур… / шарҳ: З. Исломиддинов. — Электрон ресурс. — URL: https://alishernavoiy.org/Uz/da-r-jelidin-naf-agar-j-tur/

6. Комилов Н. Маънолар оламига сафар (Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар). — Тошкент: Тамаддун, 2012. — Б. 39–41.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.85:97.38

COMPARATIVE COGNITIVE ANALYSIS OF CLOTHING LEXICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

[1]*Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna, Professor, Bukhara State University*
[2]*Khayrulloyeva Azizabonu Tojiddinovna, Master Student, Bukhara State University*

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK NOMLARINING QIYOSIY-KOGNITIV TAHLILI

[1]*Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna, Buxoro davlat universiteti professori, (Dsc)*
[2]*Xayrulloyeva Azizabonu Tojiddinovna, Buxoro davlat universiteti magistranti*

СРАВНИТЕЛЬНО-КОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОДЕЖДЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

[1]*Гадоева Мавлюда Ибрагимовна, профессор, Бухарский государственный университет*
[2]*Хайруллоева Азизабону Тожиддиновна, магистрант Бухарского государственного университета*



https://orcid.org/0009-0007-6519-1521
e-mail: azizabonukhayrulloeva@gmail.com

Abstract: *This article provides a detailed comparative cognitive and semantic analysis of clothing lexical units in English and Uzbek languages. It explores how cultural values, traditions, and social norms are reflected through clothing terminology. The study is based on cognitive linguistic approaches such as prototype theory, conceptual metaphor, and semantic field analysis. Special attention is given to national-cultural specificity, categorization processes, and metaphorical extensions in both languages.*

Key words: *clothing vocabulary, cognitive linguistics, semantic field, prototype theory, conceptual metaphor, linguoculture, categorization, cultural semantics, lexical units, national identity.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim-kechak leksikasining keng qamrovli qiyosiy-kognitiv va semantik tahlili berilgan. Unda kiyim nomlari orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy qarashlarning aks etishi o‘rganiladi. Tadqiqot prototip nazariyasi, konseptual metafora va leksik-semantik maydon yondashuvlariga asoslanadi. Shuningdek, milliy-madaniy xususiyatlar va kategoriyalash jarayonlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kiyim-kechak leksikasi, kognitiv lingvistika, semantik maydon, prototip nazariyasi, konseptual metafora, lingvomadaniyat, kategoriyalash, madaniy semantika, leksik birliklar.*

Аннотация: *В данной статье представлен развернутый сравнительно-когнитивный и семантический анализ лексики одежды в английском и узбекском языках. Исследуется отражение культурных ценностей, традиций и социальных норм в языковых единицах. Работа опирается на теории когнитивной лингвистики, включая прототипную теорию, концептуальную метафору и анализ семантического поля. Особое внимание уделяется национально-культурной специфике и процессам категоризации.*

Ключевые слова: *лексика одежды, когнитивная лингвистика, семантическое поле, теория прототипа, концептуальная метафора, лингвокультура, категоризация, культурная семантика, языковые единицы.*

INTRODUCTION(KIRISH/ВВЕДЕ - НИЕ). Language is not only a means of communication but also a reflection of human cognition and cultural experience. Within the framework of cognitive linguistics, lexical units are viewed as manifestations of conceptual structures formed in the human mind (Lakoff & Johnson, 1980)[1.3-15]. Clothing vocabulary, in particular, represents an important fragment of the linguistic worldview, as it encodes information about social norms, traditions, climate conditions, and cultural values. The comparative study of English and Uzbek clothing lexical units allows us to identify similarities and differences in conceptualization and categorization processes across cultures (Evans & Green, 2006) [2.157-165].

In addition, clothing plays a significant role in identity construction and social differentiation. Linguistic expressions related to clothing often indicate gender, profession, age, and social status. Therefore, the study of clothing vocabulary is closely linked with sociolinguistics and cultural studies. From a cognitive perspective, these lexical units are not isolated but organized into interconnected conceptual networks.From a cognitive perspective, lexical items are organized into structured networks rather than existing in isolation. These networks are shaped by processes such as categorization, schematization, and metaphorization. Prototype Theory explains how certain clothing items (e.g., «shirt» or «dress») function as central representatives of categories, while others are considered peripheral (Croft & Cruse, 2004). Similarly, Frame Semantics allows us to understand how clothing terms activate broader knowledge structures related to events, situations, and cultural practices.

MATERIALS AND METHODS (ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA/ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ). This study is based on key principles of cognitive linguistics, particularly Prototype Theory, Frame Semantics, and Conceptual Metaphor Theory (Croft & Cruse, 2004) [3.130-142]. The research material consists of selected lexical units related to clothing in both English and Uzbek languages. These units were analyzed within the framework of semantic fields, focusing on their categorization, hierarchical organization, and cultural specificity.

Additionally, elements of corpus-based observation were considered by examining common usage patterns in dictionaries and authentic texts. The methodology includes comparative analysis, descriptive analysis, and semantic interpretation. Lexical items were examined in terms of their prototypicality, frequency of usage, and cultural markedness. Special attention was paid to culturally bound terms that do not have direct equivalents in the other language.

Methodologically, the study employs a combination of qualitative and comparative approaches. The descriptive method was used to outline the meanings and usage of lexical items, while comparative analysis enabled the identification of similarities and differences between the two languages. Semantic analysis was applied to uncover underlying conceptual features, including prototypicality, categorization patterns, and metaphorical extensions.

DISCUSSION (MUHOKAMA /ОБСУЖДЕНИЕ). The analysis reveals that English clothing vocabulary tends to be more generalized and function-oriented. Words such as «clothing», «garment» and «dress» can cover a wide range of items, indicating a higher level of abstraction in categorization (Evans & Green, 2006)[2.285-290]. In contrast, Uzbek clothing terminology demonstrates a stronger connection to national culture and traditions, with specific items like «chopon», «do‘ppi» and «atlas ko‘ylak» carrying rich cultural connotations.

From a cognitive perspective, this difference reflects distinct categorization strategies. English relies more on superordinate categories, while Uzbek emphasizes basic-level and subordinate categories that are culturally significant. This aligns with Prototype Theory, where certain items are considered more central within a category (Croft & Cruse, 2004)[3.130-142].

Metaphorical usage further highlights cognitive differences. In English, expressions like «to wear many hats» illustrate role multiplicity and are based on conceptual metaphor (Lakoff & Johnson, 1980)[1.25-32]. In Uzbek, clothing-related metaphors often emphasize social identity, respect, and tradition. These differences

demonstrate how cultural context influences metaphorical extensions and conceptual mappings.

RESULTS (NATIJALAR/РЕЗУЛЬТАТЫ). The findings of the study can be summarized as follows:

Clothing vocabulary in both languages forms a structured semantic field with hierarchical organization;

Uzbek clothing terms exhibit stronger cultural and ethnographic specificity;

English shows a tendency toward abstraction and generalization in lexical categorization;

Borrowings and language contact influence the development of clothing vocabulary;

Cognitive models underlying lexical units are shaped by cultural experience and social practices;

Metaphorical extensions exist in both languages but differ in their conceptual domains and cultural implications.

These results confirm that language and cognition are closely interconnected, and lexical units serve as carriers of both conceptual and cultural information.

CONCLUSION (XULOSA / ЗАКЛЮЧЕНИЕ). The comparative cognitive analysis of clothing lexical units in English and Uzbek demonstrates that vocabulary is deeply rooted in cultural and cognitive processes. Each language reflects a unique way of categorizing and conceptualizing reality, influenced by historical, social, and cultural factors (Evans & Green, 2006)[2.285-290].

Moreover, the study shows that globalization and language contact contribute to the enrichment and transformation of lexical systems. The integration of borrowed terms alongside native vocabulary creates a hybrid linguistic space that reflects modern cultural interactions. The study highlights the importance of integrating cognitive, cultural, and sociolinguistic approaches in linguistic research.

REFERENCES (ADABIYOTLAR RO‘YXATI / ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА):

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, pp. 3–15, 25–32.
2. Evans, V., & Green, M. (2006). Cognitive Linguistics: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press, pp. 157–165, 285–290.
3. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). Cognitive Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press, pp. 82–95, 130–142.
4. Saussure, F. de (1983). Course in General Linguistics. London: Duckworth, pp. 65–70.
5. Rahmatullayev, Sh. (2006). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 45–52-betlar.
6. Kubryakova, E. S. (2004). Language and Knowledge: On the Way of Cognitive Linguistics. Moscow: Languages of Slavic Culture, pp. 210–220.
7. Taylor, J. R. (2003). Linguistic Categorization. Oxford: Oxford University Press, pp. 100–115.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'1:008(44+575.1)

SHARQ VA G‘ARB ADABIY-MADANIY ALOQALARINING SIVILIZATSION ASOSLARI: FRANSIYA VA O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI KONTEKSTIDA

Qodirov Rafail Nurmaxmadovich, Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi



https://orcid.org/0009-0007-9124-6389
e-mail: rafaelkodirov@gmail.com

CIVILIZATIONAL FOUNDATIONS OF EAST–WEST LITERARY AND CULTURAL RELATIONS: IN THE CONTEXT OF FRANCE–UZBEKISTAN RELATIONS

Qodirov Rafail Nurmaxmadovich, Independent Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages

ЦИВИЛИЗАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ВОСТОЧНО-ЗАПАДНЫХ ЛИТЕРАТУРНО-КУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЕЙ: В КОНТЕКСТЕ ОТНОШЕНИЙ ФРАНЦИИ И УЗБЕКИСТАНА

Кодиров Рафаил Нурмахмадович, независимый исследователь Самаркандского государственного института иностранных языков

Annotatsiya: *Jahon adabiyoti va madaniyati tarixida Sharq va G‘arb o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar muhim ilmiy makon sifatida ko‘riladi. Turli sivilizatsiyalar o‘rtasida yuzaga kelgan madaniy aloqalar adabiy syujetlar, obrazlar, janrlar va g‘oyaviy tamoyillarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar tasodifiy emas, balki tarixiy, siyosiy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Mazkur maqolada Sharq va G‘arb adabiy-madaniy munosabatlarining tarixiy-sivilizatsion ildizlari, ularning bosqichma-bosqich rivoji hamda ushbu jarayonlarning Fransiya va O‘zbekiston adabiy aloqalari misolida namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *jahon adabiyoti, Sharq va G‘arb, Attila, fransuz madaniyati va adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, jadidchilik, Buyuk ipak yo‘li.*

Abstract: *In the history of world literature and culture, the interactions between East and West are regarded as an important field of scholarly inquiry. Cultural contacts that emerged among different civilizations played a significant role in shaping literary plots, images, genres, and ideological principles. These processes were not accidental; rather, they developed in close connection with historical, political, and social factors. This article analyzes the historical and civilizational roots of East–West literary and cultural relations, their gradual development, and the manifestation of these processes through the example of literary connections between France and Uzbekistan.*

Keywords: *World literature, East and West, Attila, French culture and literature, Uzbek literature, jadidism, Great Silk Road.*

Аннотация: *В истории мировой литературы и культуры взаимодействие Востока и Запада рассматривается как важное научное пространство. Культурные контакты, возникшие между различными цивилизациями, сыграли значительную роль в формировании литературных сюжетов, образов, жанров и идейных принципов. Эти процессы не были случайными, а развивались в тесной связи с историческими, политическими и социальными факторами. В данной статье*

анализируются историко-цивилизационные корни литературно-культурных отношений Востока и Запада, их поэтапное развитие, а также проявление этих процессов на примере литературных связей Франции и Узбекистана.

Ключевые слова: *мировая литература, Восток и Запад, Аттила, французская культура и литература, узбекская литература, джадидизм, Великий шелковый путь.*

Kirish. Markaziy Osiyo qadimdan buyuk sivilizatsiyalar chorrahasi sifatida shakllangan. Miloddan avvalgi VII–V asrlarda bu hududda mustaqil davlatlar vujudga kelgan: Zarafshon vodiysida — Sug‘diyona, Amudaryoning o‘rta oqimida — Baqtriya, quyi oqimida — Xorazm, Murg‘ob vodiysida — Marg‘iyona . Shimoliy hududlarda Skif qabilalari yashagan, janubiy qismi esa qadimgi Eron imperiyasi ta’siri ostida bo‘lgan. Qadimgi Yevropa olimlari Markaziy Osiyo haqida ilk bor yozma manbalarda ma’lumot qoldirishgan. Yunon tarixchisi Gerodot [1] (mil.avv. V asr) o‘z asarlarida saklar, massagetlar, skiflar haqida ma’lumot beradi. Ularning turmush tarzi, jangovar an’analari, diniy e’tiqodlari haqida yozgan. Strabon [2] (mil.avv. I asr — milodiy I asr) esa “Geografiya” asarida Markaziy Osiyo xalqlarining yashash joylari, tabiiy resurslari va urf-odatlari haqida ma’lumot bergan. Keyinchalik Arrian, Ptolemey va boshqa olimlar ham Markaziy Osiyoni tasvirlashgan. Bu yozma manbalar orqali qadimgi Yevropa xalqlari, jumladan, keyinchalik Fransiya madaniy an’analarining shakllanishiga hissa qo‘shgan ilmiy doiralar Sharq xalqlarining boy merosidan xabardor bo‘lishgan. Agar Yevropa va Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi eng qadimiy tarixiy aloqalarni tahlil qilinadigan bo‘lsa, Xunlar va Attila shaxsini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Chunki Xunlar Sharqdan G‘arbga siljib, Yevropaning tarixiy taqdirida hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Adabiyotlar tahlili. Xunlar davri va V asrda hukmronlik qilgan Attila [6;7] faoliyati Yevropa tarixiy ongida Sharq obrazining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Fransiya hududiga yaqin bo‘lgan Galliya yerlarida yuz bergan tarixiy voqealar keyinchalik fransuz tarixshunosligi va adabiyotida Sharqni “boshqa sivilizatsiya” sifatida idrok etish jarayonini kuchaytirdi. Shu bilan birga, bu qarama-qarshiliklar madaniy qiziqish va adabiy tasavvurlarni ham yuzaga keltirdi. Fransuz xalq og‘zaki ijodida Attila ko‘pincha ramziy figura sifatida talqin qilinadi. U G‘arbiy Rimga qarshi kurashgan oddiy jangchi sifatida emas, balki “Sharqiy shamol” — cheksiz dashtlardan kelgan qudrat timsoli sifatida tasvirlanadi. Galliya aholisi orasidagi rivoyatlar Attilaning yurishini “katta sinov” yoki yerlarni larzaga solgan voqea sifatida eslanadi [6;7]. Ayrim epik qo‘shiqlarda u shaxsiy kuchi va sarkardalik qobiliyatlari bilan hatto xristian muqaddas shaxslari bilan solishtiriladi. G‘arbiy Rim imperiyasi va uning ittifoqchilari (franklar, vestgotlar, burgundlar, alanlar va b.) hamda Attila boshchiligidagi xunlar va ittifoqchilari (ostgotlar, gepidlar va b.) o‘rtasida, Fransiyaning Trua shahri g‘arbidagi Katalaun yalangligida bo‘lib o‘tgan Katalaun jangi [5;8] (451-y.) Fransuz xalqi xotirasida alohida ramziy ahamiyat kasb etadi. Bu voqea ko‘pincha “G‘arbni saqlab qolgan jang” sifatida talqin qilinadi. Chunki aynan shu yerda turli xalqlarning ittifoqi umumiy xavf qarshisida birlashish g‘oyasini namoyon etgan. Ta’kidlanganidek, ushbu jangda Attila qo‘shinlari franklar va rimliklar qo‘shma kuchlariga qarshi kurashdi. Natijada Galliya xalqlari (franklar — bugungi fransuzlarning ajdodlari) Attila bilan to‘qnash kelgan, demak, Markaziy Osiyo xalqlari va Fransiya xalqlarining ilk uchrashuvi ham aynan shu davrda sodir bo‘lgan deyish mumkin.

Fransuz o‘rta asr badiiy janri bo‘lgan “Chanson de geste” (“Qahramonlik qo‘shiqlari”) an’anasida Attila asosan ramziy fon sifatida namoyon bo‘ladi. Xalq rivoyatlarida u “yerlarni kuydiruvchi qirol” yoki “Sharqiy imperator” sifatida esga olinadi. XIX asr tarixchilari Attila obrazini qayta talqin qilgan. Jules Michelet uni “Galliyani uyg‘otgan xavf” sifatida baholab, xunlar bo‘lmaganida franklar va galliyaliklar ittifoqi sodir bo‘lmasligini ta’kidlaydi [13]. Ernest Renan esa Attilaning yurishlarini “tarixiy sinov” sifatida talqin qilib, u Rim imperiyasi qulashini tezlashtirgan, ammo yangi fransuz xalqining shakllanishiga turtki bo‘lganligini ta’kidlaydi [10]. XX asr tarixchisi Georgi Duby Katalaun jangini “ikki dunyoning to‘qnashuvi” sifatida baholaydi va Attilani “Sharqdan kelgan qudratli kuch” ramzi sifatida ko‘rsatadi [15]. “Chansons de geste” an’anasida Sharq ko‘pincha diniy-siyosiy qarama-qarshilik fonida tasvirlangan bo‘lsa-da, bu

asarlarda Sharq jangchilari, madaniyati va urf-odatlariga nisbatan ma’lum darajada hurmat va qiziqish ham kuzatiladi. Bu holat Fransiya adabiyotida Sharq tasavvurlarining murakkab va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Buyuk Ipak yo‘li orqali shakllangan madaniy integratsiya Markaziy Osiyo va Fransiya og‘zaki ijodi o‘rtasida tipologik umumiyliklarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Sharq dostonlarida — “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” — ifodalangan jasorat, sadoqat, muhabbat va ma’naviy poklik g‘oyalari Fransiya ritsarlik adabiyotida uchraydigan axloqiy konsepsiyalar bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu mushtaraklik bevosita tarixiy ta’sirdan ko‘ra, umumiy sivilizatsion va insoniy qadriyatlarga asoslangan g‘oyaviy yaqinlik sifatida talqin qilinadi. Xususan, “Farhod va Shirin” dostonidagi fidoyilik va sadoqat motivlari fransuz adabiyotidagi “Tristan va Izolda” syujeti bilan tipologik jihatdan qiyoslanadi; har ikki asarda muhabbat axloqiy ustuvorlik sifatida tasvirlanadi. “Layli va Majnun”dagi ruhiy kamolot va ilohiylashgan muhabbat g‘oyasi esa Fransiyada shakllangan “Amour Courtois” — ritsarlik muhabbati konsepsiyasi bilan g‘oyaviy mushtaraklikka ega. Sharq og‘zaki ijodining Yevropaga tarqalishida “Ming bir kecha” [9] majmuasi muhim o‘rin tutadi. Asar XVIII asr boshlarida Antuan Galland tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib, “Olovuddin”, “Ali Bobo”, “Sindbod” kabi syujetlarning Fransiya madaniy muhitiga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Jan Batist Tavernye va Jan Sharden singari yevropalik sayyohlarning asarlari orqali Markaziy Osiyo folklori va madaniy an’analari Yevropa ilmiy muhitida dastlabki tizimli talqinini topgan. Shu tariqa, Buyuk Ipak yo‘li Markaziy Osiyo va Fransiya xalq og‘zaki ijodi o‘rtasida uzoq muddatli madaniy muloqotni ta’minlab, Sharq va G‘arb folklorida umumiy axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

XVII-XVIII asrlarda Fransiyada shakllangan ma’rifatparvarlik g‘oyalari global miqyosda kuchli intellektual siljishlarni yuzaga keltirdi. Jan-Jak Russo [11], Volter [12], Sharl Monteske [14] va Deni Didro tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar inson huquqlari, erkinlik, tenglik va aql ustuvorligi kabi tamoyillarni markazga olib chiqdi. Ushbu qarashlar Yevropa jamiyatlarining siyosiy va madaniy rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliy, Asqad Muxtor, Shavkat Rahmon, N. Karimov, G‘afur G‘ulom kabi tarjimonlar fransuz adabiyotining muhim namunalarini o‘zbek tiliga olib kirib, milliy nasr va she’riyatda psixologizm, konflikt, metaforik qatlam hamda xarakter yaratish texnikalarining rivojlanishiga hissa qo‘shdilar. Toshkent Davlat Universitetida XIX–XX asr fransuz adabiyotiga bag‘ishlangan maxsus kurslar, seminarlar va dissertatsiyalar yo‘lga qo‘yildi. O‘zbek adabiyotshunosligida fransuz realizmi, ma’rifatparvarlik falsafasi, dramaturgiya va modernizm masalalari izchil tahlil qilindi. Natijada fransuz adabiy merosining o‘zbek muhitida o‘zlashtirilishi tarjima bilan cheklanmay, adabiyot nazariyasi va ta’lim tizimining rivojiga xizmat qilgan kompleks madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, Viktor Gyugo ijodining tarjimalari romantik tasvir, dramatizm va insonparvarlik g‘oyalarining o‘zbek adabiy muhitida keng yoyilishiga zamin yaratdi. “Sohildagi ishchilar”, “Kulgich odam”, “Tanlangan hikoyalar” va she’riy tarjimalar orqali Gyugo romantizmi milliy adabiyotda badiiy-emotsional ifodaning kengayishiga xizmat qildi. Balzakning “Gobsek”, “Evgene Grande”, “Gorio ota” kabi asarlari tarjimalari esa realizm estetikasini, ijtimoiy-psixologik tahlil va xarakter yaratish tamoyillarini mustahkamladi. Mopassan hikoyalarining tarjima qilinishi qisqa hikoya janrining shakllanishi, tasvir ixchamligi va psixologik aniqlikning kuchayishiga olib keldi. Aleksandr Dyuma asarlarining tarjimalari o‘zbek adabiyotiga tarixiy-sarguzasht epikasi, dinamik syujet va dramatik kolliziyalarni olib kirgan bo‘lsa, Romen Rollan ijodi gumanistik, falsafiy va intellektual yo‘nalishning shakllanishiga xizmat qildi. Anatol Frans asarlarining tarjimalari esa tanqidiy realizm, irodiya va falsafiy satiraning o‘zbek adabiy tafakkurida qaror topishiga ta’sir ko‘rsatdi. Jan-Jak Russo, Volter va Sharl Monteske asarlaridan tarjima qilingan parchalar orqali esa erkinlik, tanqidiy fikrlash, ta’lim, qonun va jamiyat munosabatlariga oid ma’rifatparvarlik g‘oyalari o‘zbek ilmiy va adabiy muhitiga singib bordi.

Fransuz adabiy merosining o‘zbek tilida o‘zlashtirilishi XX asr o‘zbek adabiyotining estetik, nazariy va g‘oyaviy taraqqiyotida muhim

omil bo‘lib xizmat qildi. Bu davrda jadid ziyolilari Fransiya ma’rifatparvarlik merosini tanqidiy o‘zlashtirib, uni mahalliy ijtimoiy sharoitga mos holda talqin qildilar. O‘zbek jadidchilik harakati Fransiya ma’rifatparvarligi bilan bevosita va bilvosita aloqalar orqali boyidi. Jadidlar ta’limni jamiyatni isloh qilishning asosiy vositasi sifatida ko‘rganlar. Bu jihat Russoning pedagogik qarashlari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Volterning diniy bag‘rikenglik va tanqidiy tafakkur haqidagi g‘oyalari jadidlarning jaholat va mutaassiblikka qarshi chiqishida mafkuraviy asos bo‘lib xizmat qildi. Monteskening hokimiyat va qonun haqidagi qarashlari jadidlarning davlat va jamiyat munosabatlariga oid tasavvurlarini kengaytirdi. Didroning ilm-fan va ensiklopedik bilimga urg‘u berishi esa jadid matbuoti va ta’lim tizimida o‘z aksini topdi. XX asrda Fransiya adabiyoti O‘zbekistonda tizimli tarzda o‘rganila boshladi. Fransuz adabiyotining klassik va zamonaviy namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Bu jarayon o‘zbek adabiyotida janrlar, badiiy uslub va psixologik tahlilning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, o‘zbek adabiyoti namunalari ham Fransiyada ilmiy tadqiqotlar va tarjimalar orqali o‘rganilmoqda.

Xulosa. Sharq va G‘arb adabiy-madaniy aloqalari sivilizatsion jarayon sifatida Fransiya va O‘zbekiston adabiy munosabatlari misolida o‘zining murakkab va ko‘p qatlamli tabiatini namoyon etadi. Tarixiy muloqotlar, ma’rifatparvarlik g‘oyalari va jadidchilik harakati ushbu munosabatlarning uzviyligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlarni chuqur o‘rganish madaniyatlararo muloqotni anglash va zamonaviy adabiy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Геродот. История в девяти книгах. — Москва: Наука, 1999. — 600 с.
2. Страбон. География. — Москва: Ладомир, 1994. — 943 с.
3. Арриан. Поход Александра. — Санкт-Петербург: Алетейя, 2002. — 480 с.
4. Птолемей К. Руководство по географии. — Москва: Восточная литература, 2010. — 560 с.
5. Heather P. The Fall of the Roman Empire: A New History of Rome and the Barbarians. — Oxford: OUP, 2005. — 572 p.
6. Kim H. J. The Huns, Rome and the Birth of Europe. — Cambridge: CUP, 2013. — 301 p.
7. Hughes I. Attila [6; 7] the Hun: Arch-Enemy of Rome. — Barnsley: Pen & Sword, 2012. — 256 p.
8. Halsall G. Barbarian Migrations and the Roman West, 376–568. — Cambridge: CUP, 2007. — 630 p.
9. Galland A. Les Mille et une nuits. — Paris: Flammarion, 1704–1717.
10. Renan E. Qu'est-ce qu'une nation ? — Paris: Calmann Lévy, 1882. — 48 p.
11. Rousseau J.-J. Émile, ou De l’éducation. — Paris: Garnier, 1966. — 608 p.
12. Voltaire. Traité sur la tolérance. — Paris: Gallimard, 1989. — 240 p.
13. Michelet J. Histoire de France. — Paris: Chamerot, 1833–1867. — 19 vols.
14. Montesquieu Ch. L. De l’esprit des lois. — Paris: GF Flammarion, 1979.
15. Duby G. Le temps des cathédrales. — Paris: Gallimard, 1976. — 379 p.
16. Maenchen-Helfen O. J. The World of the Huns. — Berkeley: University of California Press, 1973. — 602 p.
17. Karimov N. Jadidchilik va milliy uyg‘onish masalalari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2001. — 320 b.
18. Qosimov B. O‘zbek adabiy aloqalari tarixi. — Toshkent: Fan, 2008. — 600 b.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1.(092)177

MUHYIDDIN IBN ARABIY TA'LIMOTINING ISLOMIY TAFAKKUR VA IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOT RIVOJIDAGI O'RNI

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi, Osiyo xalqaro universiteti "Xorijiy til va ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi



https://orcid.org/0009-0004-1028-1763
e-mail: mohlaroyimyarashova@gmail.com

THE ROLE OF MUHYIDDIN IBN ARABI'S DOCTRINE IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC THOUGHT AND SOCIO-SPIRITUAL LIFE

Yarashova Mohlaroyim Shukhrat qizi, Lecturer at the Department of Foreign Languages and Social Sciences, Asian International University

РОЛЬ УЧЕНИЯ МУХЙИДДИНА ИБН АРАБИ В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКОГО МЫШЛЕНИЯ И СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ

Ярашова Мохларойим Шухрат кызы, преподаватель кафедры иностранных языков и общественных наук Азиатского международного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Muhyiddin ibn Arabiy ijodining musulmon jamiyati intellektual va ijtimoiy hayotiga ko'rsatgan transformatsion ta'siri tahlil qilinadi. Mutafakkir tomonidan tizimlashtirilgan tavhid, vujud va komil inson konsepsiyalarining tasavvufiy tariqatlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi hamda an'anaviy dogmatik qarashlar bilan to'qnashuvi falsafiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ibn Arabiy, tasavvuf, ijtimoiy-ma'naviy hayot, tavhid, vujud, komil inson, sharhchilik maktabi, intellektual jonlanish.*

Abstract: *This article analyzes the transformational impact of Muhyiddin Ibn Arabi's works on the intellectual and social life of Muslim society. It explores how the concepts of tawhid, wujud, and the Perfect Human, systematized by the thinker, served as a theoretical foundation for Sufi orders, as well as their philosophical interaction and tension with traditional dogmatic views.*

Keywords: *Ibn Arabi, Sufism, socio-spiritual life, tawhid, wujud, Perfect Human, school of commentary, intellectual revival.*

Аннотация: *В данной статье анализируется трансформационное влияние творчества Мухйиддина Ибн Араби на интеллектуальную и социальную жизнь мусульманского общества. Рассматривается, как концепции таухида, вуджуда и совершенного человека, систематизированные мыслителем, послужили теоретической основой для суфийских тарикатов, а также их философское столкновение с традиционными догматическими взглядами.*

Ключевые слова: *Ибн Араби, суфизм, социально-духовная жизнь, таухид, вуджуд, совершенный человек, школа комментариев, интеллектуальное возрождение.*

Kirish. Muhyiddin ibn Arabiy ijodi musulmon jamiyati diniy-tasavvufiy tafakkuri va ijtimoiy-ma'naviy hayoti rivojida tub burilish yasagan fenomen hisoblanadi. Mutafakkirning asarlari va falsafiy she'riyati asrlar davomida nafaqat Sharq, balki G'arb faylasuflari, mutasavviflari hamda so'fiylik maktablari vakillarining diqqat-markazida bo'lib kelmoqda.Allomalarimizning tabarruk

merosini «tubsiz ummon»ga qiyoslash shunchaki badiiy o‘xshatish emas, balki falsafiy va ontologik mazmunga ega tushunchadir. Bu ummonning tubidagi «javohirlar» — inson mohiyati, borliq sirlari va ilohiy haqiqatga oid fundamental g‘oyalardir. Mazkur merosni Muhyiddin ibn Arabiy siymosida tahlil etganda, quyidagi falsafiy jihatlar namoyon bo‘ladi:Ma’naviy merosning ohanrabosi va universal qiymati: Ibn Arabiy merosining «ohanrabosi» uning ekzistensial teranligidadir. Mutafakkir insonni shunchaki biologik tur emas, balki butun koinotning ma’naviy markazi («qutbi») deb bildi. Uning g‘oyalari «zamonlar osha, makonlar uzra» o‘z kuchini yo‘qotmayotganining sababi — u insoniyatning eng og‘riqli savollariga (Men kimman? Borliqning ma’nosi nima? Haqiqatga qanday erishiladi?) javob izlaganidadir. Bu ohanrabo bugun ham G‘arb va Sharq olimlarini o‘ziga jalb etib, sivilizatsiyalararo muloqot uchun falsafiy ko‘prik vazifasini o‘tamoqda.Ibn Arabiy ta’limotining yoyilishi musulmon jamiyatida o‘ziga xos tafakkuriy jonlanish davrini boshlab berdi. Mutafakkirning murakkab va simvolik tilda yozilgan asarlari (masalan, *«Fusus al-hikam»*) atrofida ulkan sharhchilik maktabi shakllandi. Sadriddin Qunaviy, Dovud Qaysariy va Abdurahmon Jomiy kabi allomalarning sharhlari orqali islom falsafasida borliqning botiniy mohiyatini anglashga qaratilgan yangi epistemologik yo‘nalish qaror topdi.

Adabiyotlar tahlili. Ibn Arabiy ta’limoti XX asr boshlaridan G‘arb sharqshunosligida yangi bosqichda o‘rganila boshlandi.

R.A. Nikolson mutafakkir uslubini antik davr (Filon va Origen) allegorik an’analari bilan qiyoslaydi. U Ibn Arabiy tilini «ishora tili» deb atab, uning terminologiyasi ko‘p ma’nolilik (polisemiya) xususiyatiga ega ekanini ta’kidlaydi.

Bernar Karra de Vo mutafakkir g‘oyalarida neoplatonizm, qabbalachilik va nasroniylik an’analarining sinkretik tabiatini ko‘radi.

Anna-Mari Shimmel Ibn Arabiyni tasavvufni «nazariy tizim» (Irfon) darajasiga ko‘targan asosiy siymo sifatida e’tirof etadi. U mutafakkirni «Vahdat ul-vujud» va «Komil inson» ta’limotlarining yaratuvchisi deb baholab, uning barcha so‘fiylik tafakkuri ustidan g‘alaba qozonganini qayd etadi.

Nikolson «Shayxul Akbar» ijodini tahlil qilar ekan, uning uslubini antik davr va ilk o‘rta asr falsafiy an’analari bilan qiyoslaydi:“Ibn Arabiy Qur’on oyatlari va hadislarini shunday usulda sharhlaydiki, uning bu uslubi bizga ma’lum bo‘lgan Yahudiy Filon (er. avv. 25 y.) va Origen Aleksandriyskiy (185–253) larnikiga o‘xshaydi. Mutasavvifning kitoblarida bayon qilib bergan nazariyalarini tushunish qiyin. Yana ham qiyinrog‘i uni sharhlash va izohlashdir. Negaki, Ibn Arabiy ishlatgan istilohlari majoz tilidagi maxsus tildir. Ulardan har qanday ma’no chiqarish mumkin. Shu sababli uning terminologiyasiga jiddiy yondashilmasa, matndagi ma’noni tushunib bo‘lmaydi. Uning asarlari tom ma’noda tushunish qiyin bo‘lgan falsafiy-tasavvufiy uslubga misol bo‘ladi” [1.12].

Bernar Karra de Vo (Baron Carra de Vaux) tomonidan bildirilgan ushbu fikrlar Ibn Arabiy merosining nafaqat islomiy, balki sinkretik (turli ta’limotlar qorishmasi) tabiatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Fransuz arabshunosi va islomshunosi Bernar Karra de Vo (1867–1953) ham Ibn Arabiy merosiga baho berishda R.A. Nikolsonga yaqin qarashlarni ilgari suradi. Uning fikricha, Ibn Arabiy g‘oyalari ilk so‘fiylik an’analaridan sezilarli darajada farq qilib, ko‘proq nasroniylik va antik falsafa unsurlariga yaqinlashadi. Karra de Vo o‘zining tadqiqotlarida shunday yozadi: «Ibn Arabiy kitoblari tahlil qilinganda ularning mazmuni buyuk so‘fiylik maktabi shakllanishidan uzoqlasha borib, nasroniylik an’analariga moyil bo‘layotgani, shuningdek, unda turli xil qarashlar bilan birga qabbalachilik (o‘rta asrlarda yahudiy diniy-mistik ta’limoti) va neoplatonizm g‘oyalariga guvoh bo‘lamiz. Sunniylar orasida ham bu o‘ziga xos uslub yuzasidan hozirgacha tortishuvlar mavjud. Menimcha, Ibn Arabiyning tahlil doirasidan qochadigan bu uslubi tahlilning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini gumonda qoldirganligi uchun e’tirof etilmaydi» [2.224].

Nemis islomshunos olimasi Anna-Mari Shimmel (1922–2003) Muhyiddin ibn Arabiyning musulmon tasavvuf olamini yangi an’analar bilan boyitganini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, mutafakkir ta’limotining o‘ziga xosligi so‘fiylikdagi «Irfon» (Allohni tanishlik — العرفان) tushunchasini eng oliy maqomga ko‘targanidir.

Shimmel shunday yozadi: «Ibn Arabiy o‘z faoliyati bilan so‘fiylik maktablarining an’analarini angladi. U o‘z davrining eng yorqin so‘fiylaridandir. Mutasavvif tufayli «irfon» istilohi so‘fiylik xarakterini aniqlovchi eng yaxshi istilohga aylandi. Ibn Arabiy butun dunyoga mashhur bo‘lgan ta’limotni yaratdiki, tashqi oddiyligi bilan barcha

so‘fiylik tafakkuri ustidan to‘liq g‘alabaga erishdi. Ibn Arabiyning o‘zi esa ‘vahdatu-l-vujud’ (yagona vujud) va ‘al-insonu-l-komil’ (komil inson) ta’limotlarining yaratuvchisi sifatida nom qozondi” [3.88].Shimmel Ibn Arabiyni ikki buyuk ustunning — Vahdat ul-vujud (Borliq nazariyasi) va Komil inson (Inson falsafasi) yaratuvchisi deb ataydi. Bu orqali mutafakkir «Xudo – Olam – Inson» uchligini yagona falsafiy tizimga birlashtirgani tasdiqlanadi.Anna-Mari Shimmelning qarashlari Ibn Arabiy merosini o‘rganishda ‘quruq mantiq’ va ‘shunchaki his-tuyg‘u’ o‘rtasidagi muvozanatni topishga xizmat qiladi. U mutafakkirni islom sivilizatsiyasining intellektual yetakchisi (lideri) sifatida baholab, uning g‘oyalari nafaqat o‘rta asrlar, balki zamonaviy insoniyat uchun ham ma’naviy yo‘lchi yulduz ekanligini ko‘rsatib berdi.

Metodologiya. Tizimli-mantiqiy tahlil: Mutafakkir tomonidan tizimlashtirilgan tavhid, vujud, kavn, ilm va inson mohiyatiga oid fundamental tushunchalar yagona va izchil mantiqiy tizim sifatida tahlil qilindi. Bu orqali tasavvufning «amaliy hollar» bayonidan «nazariy borliqshunoslik» (Irfan) darajasiga o‘tish jarayoni metodologik jihatdan asoslandi.

Qiyosiy-falsafiy yondashuv: Ibn Arabiyning matnni talqin qilish uslubi va «ishora tili» antik davr hamda ilk o‘rta asr (Filon, Origen) allegorik an’analari bilan qiyoslandi. Shuningdek, uning g‘oyalari neoplatonizm, ellinizm va boshqa umuminsoniy intellektual an’analar bilan uyg‘unlikda o‘rganildi.

Gnoseologik va fenomenologik tahlil: Tasavvufning faqat «zuhd» (parhezkorlik) emas, balki «Irfan» — borliq sirlarini kashf etishga qaratilgan oliy ma’rifat va bilish nazariyasi sifatidagi mohiyati ochib berildi. Tadqiqotda Ibn Arabiy merosi «Xudo – Olam – Inson» uchligini birlashtiruvchi yagona falsafiy tizim sifatida baholandi.

Tahlil va natija. Ibn Arabiy tavhid, vujud, kavn, ilm, inson mohiyati va komillik mezonlari kabi tushunchalarni yagona, mantiqiy tizim holatiga keltirdi. Bu tizimlashgan yaxlitlik tasavvufni «hollar» bayonidan «nazariy borliqshunoslik» (Irfon) darajasiga ko‘tardi. Natijada mutafakkir merosi Naqshbandiya va Qodiriya kabi ko‘plab so‘fiylik tariqatlari uchun fundamental nazariy-metodologik manba vazifasini o‘tadi.Uning asarlari atrofida, xususan “Fusus al-hikam” bo‘yicha Sadriddin Qunaviy, Dovud Qaysariy va Abdurahmon Jomiy kabi allomalarning ishtirokida ulkan sharhchilik maktabi shakllandi. «Vahdat ul-vujud» ta’limoti islom olamidagi ontologik modelni birlashtirdi. «Al-insonu-l-komil» konsepsiyasi esa insonni borliqning «ko‘zi» va ma’naviy qutbi sifatida ta’rifladi. Olima A.M. Shimmel e’tirof etganidek, Ibn Arabiy «vahdatu-l-vujud» va «al-insonu-l-komil» ta’limotlarining yaratuvchisi sifatida so‘fiylik tafakkuri ustidan to‘liq g‘alaba qozondi.Ibn Arabiy ta’limotining yoyilishi musulmon jamiyatida tafakkuriy jonlanishni boshlab berdi. Uning ta’limoti dialektik xarakterga ega bo‘lib, hamon izdoshlar va munaqqidlarga ega. Munaqqidlar uning g‘oyalarini an’anaviy qoliplarga sig‘magani uchun rad etsa-da, tanqid va e’tirofning keskinligi bu merosning «tirik» ekanligini isbotlaydi. Ibn Arabiy shunchaki ilohiyot masalasi bilan cheklanmay, shaxs erkinligi va ma’naviy kamolotga yo‘naltirilgan falsafiy tizim yaratdi.

Xulosa. Ibn Arabiy tasavvufni shunchaki ruhiy amaliyotlar (zuhd) majmuasidan chiqarib, uni borliqning mohiyatini tushuntiruvchi mukammal bir falsafiy tizim — Nazariy Irfon darajasiga ko‘tardi. Uning *Vahdat ul-vujud* (Borliq birligi) ta’limoti islom olamidagi «Xudo – Koinot – Inson» munosabatlariga oid barcha qarashlarni yagona ontologik modelga birlashtirdi.Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Ibn Arabiy merosi — bu o‘tmishning statik yodgorligi emas, balki hamon «nafas olayotgan», insoniyatning ekzistensial savollariga javob beruvchi va zamonaviy falsafiy tafakkurni boyituvchi dinamik bir ummondir. Ushbu merosni bugungi ijtimoiy voqelikka tatbiq etish milliy va umuminsoniy ma’naviyatni yuksaltirishning kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abul A’lo Afifiy. Tahqiqi kitobi Fususil hikam. Damashq: Darul kutub il-arabiyya. 12-bet.
2.Karra de Vo. Al-G‘azzoliy. Al-Muassasatul arabiyya liddirosati van nashr. J-II, 1984. 224-bet.
3.Shimmel Anna Mari. Namuzaju mushriq lilistishroq / Tarjima va ta’liq Sabat Amaro. Qohira: Darurishod. 1998. 88-bet.
4.Boltayev.A.A. Muhyiddin Ibn Arabiy ijodida diniy tushunchalarning falsafiy tahlili. BuxDU Psixologiya kafedrasi, Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Buxoro, 2015 yil. 450–451-betlar.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 398.21:82.0

SEHRLI ERTAKDAGI MOTIVNING TURLARI VA TASNIFI

Abdujalilov Abdukamol Abdumutalovich, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ТИПЫ И КЛАССИФИКАЦИЯ МОТИВОВ В ВОЛШЕБНОЙ СКАЗКЕ

Абдуджалилов Абдукамол Абдумуталович, старший научный сотрудник Института узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан,доктор философии по филологии (PhD)

TYPES AND CLASSIFICATION OF MOTIVES IN FAIRY TALES

Abdujalilov Abdukamol Abdumutalovich, Senior Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology



https://orcid.org/0009-0002-6896-1767
e-mail: abdujalilovabdukamol@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek xalq sehrli ertaklari sujetida ishtirok etuvchi barcha motiv turlari, ularning sujetdagi o‘rni, ahamiyati, tuzilishi va nimani ifodalab kelishi bo‘yicha tasniflari birinchi marta to‘liq holatda tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *motiv, sehrli ertak, tur va tasnif, o‘zak va vaziyat, faol va nofaol, yetakchi va to‘ldiruvchi, oddiy va murakkab, harakat va holat.*

Abstract: *This article represents the first comprehensive study of all types of motifs used in the plots of uzbek folk fairy tales, classifying them by their role in the plot, meaning, structure, and what they represent.*

Keywords: *motif, fairy tale, type and classification, core and situation, active and passive voice, leading and auxiliary, simple and complex, action and situation.*

Аннотация: *Данная статья представляет собой первое всестороннее исследование всех типов мотивов, используемых в сюжете узбекских народных волшебниых сказок, их классификации по роли в сюжете, значению, структуре и тому, что они представляют.*

Ключевые слова: *мотив, сказка, тип и классификация, ядро и ситуация, активный и пассивный залог, ведущий и дополнительный, простой и сложный, действие и ситуация.*

KIRISH. Jahon folklorshunosligida epik asarlarning sujet tizimini tadqiq etish, xususan, ertak sujetidagi motivlar tizimini o‘rganish va ularning epik asarni vujudga keltirishdagi imkoniyatlarini baholash, har bir motivning badiiy-estetik vazifalarini ochib berish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Xususan, sehrli ertaklar sujetida motiving o‘rni, uning turlari, qurilish va ifoda shakli, chergarasi, soni, tasnif va tiplari kabi masalalarga qiziqish folklorshunoslikning eng muhim masalalaridan bo‘lib turibdi. Biz ushbu maqolada o‘zbek xalq sehrli ertaklarida hammasi bo‘lib nechta motiv turlari ishtirok etadi va ularni qanday jihatlariga ko‘ra tasniflash mumkin, degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbek folklorshunosligida aniq bir motivni obyekt sifatida olib, tadqiqot qilingan ishlar bir qancha. Jumladan, Jabbor Eshonqulovning ilmiy ishi mavzu doirasida eng birinchi ekani, ilmiy saviyasi, muammo va yechimlarni aniq qo‘yishi bilan ham muhim ahamiyatga egadir. U o‘z tadqiqotida tush motivini xalq og‘zaki ijodi miqyosida maxsus tadqiq qiladi [1]. Yana bir folklorshunos Shahnoza Nazarova o‘zbek xalq ertaklaridagi shart-sinov motivlarining

genezisi va poetikasi borasida izlanishlar olib borgan [3]. Oxirgi yillarda xalq ertaklaridagi motivi bo‘yicha Gulsanam Mashrapova ham maxsus tadqiqtot qildi [3]. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar epik sujet tarkibida muhim o‘rin tutuvchi motiv borasida ma’lum darajada xulosalarni taqdim etsa-da, biz oldimizga qo‘ygan masalaga to‘liq yechim bermaydi. Shu bois mazkur kichik tadqiqot ishiga 1963–2025-yillarda chop etilgan barcha ertak nashrlarini jamlandi. Ulardagi sehrli turga mansub ertaklargina ajratib olinib, qiyosiy, tavsifiy va statistik metodlardan foydalanilgan holda sujet tarkibida qatnashuvchi motivlar va ularning tasnifi amalga oshirildi.

MUHOKAMA. Biz o‘zbek xalq sehrli ertaklarining sujetida ishtirok etuvchi barcha motiv turlarini aniqlash uchun faqat folklorshunos olimlar tomonidan tayyorlanib, chop etilgan nashrlardagi 276 ta sehrli turga mansub ertaklarni o‘rganib chiqdik. So‘ngra mazkur motivlarni sujetdagi ishtiroki, tarkibi va bir qancha xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha tasnifladik:

O‘zak va vaziyat motivlar. O‘zbek folklorshunosligida o‘zak va vaziyat so‘zlarini xalq qo‘shiqlaridagi ramz so‘zi bilan birga qo‘llab, yangi atama hosil qilgan olim Shomirza Turdimovdir. Olim “Xalq qo‘shiqlarida ramz” nomli asarida o‘zak ramzlarni quyidagicha izohlaydi: “Ma’lumki, agglyutinativ tillar (jumladan, o‘zbek tili)da so‘z asosini o‘zak tashkil etadi. O‘zakka turli so‘z yasovchi qo‘shimchalar birikib yangi ma’noli so‘zlar hosil qiladi. Sintaktik munosabatni bildiruvchi qo‘shimchalar esa so‘zlarni bir-biriga bog‘lovchi vosita vazifasini bajaradi. Biz ramziy obrazning barcha qo‘shiqlar uchun umumiy bo‘lgan an’anaviy tub poetik ma’noli shaklini o‘zak ramz deb atadik. Tildagi o‘zak so‘z kabi o‘zak ramz ham muayyan matnda turli turli sifat, belgilar bilan kelib o‘z poetik ma’nosini u yoki bu tarzda kengaytiradi, oydinlashtiradi” [4;11].

Xuddi qo‘shiqlardagi kabi ertak sujetida ishtirok etuvchi motivlar ham aniq bir ertak matnida turli vaziyatlarni hosil qiladi. Biroq o‘zak ma’no saqlanib qoladi. Motivning umumiy o‘zak ma’nosini ifodalovchi motiv ***o‘zak motiv*** deyiladi. Misol uchun ***sinov o‘zak motivi, ko‘mak o‘zak motivi yoki tush o‘zak motivi*** kabi. O‘zak motivning aniq bir ertak matnida ishtirok etgan shakli esa ***vaziyat motivi*** deyiladi.

Faol va nofaol motivlar. O‘zbek folklorshunosligida aktiv va passiv motivlar atamasini birichi bo‘lib Xudoybergan Egamov o‘z tadqiqotida ishlatadi [5]. Olim bu bu ikki atamani quyidagicha izohlaydi: “Ertakdagi motivlar qahramonning faoliyati, harakatiga, sujetda tutgan o‘rni va holatiga ko‘ra ikki xil: aktiv va passiv tarzda namoyon bo‘ladi. Passiv motivlar qahramonlar bevosita ishtirok qilmagan, ularning aktiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan hollarda uchraydi. Bu hollar “motiv–situatsiya”, “tasvir–motiv”, “nutq–motiv” va “motiv–xarakteristika”larda namoyon bo‘ladi. Aktiv motivda qahramonlarning bevosita aktiv ishtirokini, sarguzashtlarini, yovuz kuch va dushmanlar bilan olishuvlarini, ko‘zlagan maqsadga erishishdagi jonbozliklarini va uning ma’lum bir natijasini ko‘ramiz. Bu ko‘proq motiv–harakatda yuzaga chiqadi” [5;59].

Bizningcha, Xudoybergan Egamov aktiv va passiv motiv deganda ko‘proq motivlarning aniq bir sujet tarkibidagi ishtirokini nazarda tutadi. Hamda rus folklorshunosi Boris Putilovning “Motiv – sujetni tashkil qiluvchi element sifatida” [6;125–135] nomli maqolasida ilgari surgan qarashlaridan foydalanadi. Biz taklif qilayotgan motivning faol va nofaol turlari deganda alohidalik emas, umumiylik nazarda tutiladi. Ya’ni barcha o‘zbek xalq sehrli ertaklari sujetini tashkil qilishda ishtirok etuvchi faol motivlar hamda ertak sujetida har doim ishtirok etmaydigan nofaol motivlar. Qolaversa, Boris Putilov nazarda tutgan *motiv–situatsiya, nutq–motiv, motiv–harakat, tasvir–motiv va motiv–xarakteristika* kabilar biror motivning aktiv yoki passivligi bilan emas, balki uning sujet tarkibida nimani ifodalab kelishi bilan bog‘liq tushunchalardir.Shulardan kelib chiqqan holda, faol motiv ta’rifini quyidagicha berish mumkin: o‘zbek xalq sehrli ertaklari sujetini tashkil qilishda har doim ishtirok etuvchi motivlar **faol motivlar** hisoblanadi Ularga – ***sinov, safar, xabar, tilsim, ko‘mak, qilmish, jazo va siylov motivlari*** kiradi.Faol motivlar ertak sujetini shakklantiradi hamda uning semantik-struktural jihatdan mukammaligini, bu tur ertaklarning eng muhim xususiyati – sehrliligini ta’minlaydi. Mazkur motivlarning aksariyati hayotiyligi bilan ham muhimdir. O‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek xalq sehrli ertaklari sujetini tashkil qilishda har doim ham ishtirok etmaydigan motivlar **nofaol motivlar** hisoblanadi. Nofaol motivlarga – ***ehtiyoj, tug‘ilish, tush va evrilish motivlari*** kiradi.

Nofaol motivlar ayrim ertaklarning sujetida ishtirok etib, ertak poetikasining mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi. Tug‘ilish, tush va evrilish kabi motivlar ertak qahramonlarining g‘ayritabiiyligini, boshqalarga o‘xshamsligini ta’minlaydi. Jumladan, tush motivi holatni ifodalovchi, qahramon xatti-harakatiga unchalik ham

bog‘liq bo‘lmagan motivdir. U barcha sehrli ertaklarda ham qatnashavermaydi. Ammo ertakda tush motivining qatnashishi uning badiiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oddiy va murakkab tarkibli motivlar. Motivlarni oddiy va murakkab turga ajratganimizning sababi ularning tarkibi bilan bog‘liq. O‘z tarkibida ko‘p tarmoqqa ajralib, ichki turlarga bo‘linmaydigan, semantik ma’nosi ko‘p ham o‘zgarmaydigan motivlar ***oddiy tarkibli motivlar*** hisoblanadi. Ularga ***ehtiyoj, tush, xabar, ko‘mak, jazo, siylov*** kabilar kiradi. Bulardan ehtiyoj motivini Vladimir Propp o‘z tadqiqotida *“dastlabki holat”* deya baholaydi va “*i*” harfi bilan belgilaydi [7;29]. Ertak personajlarini harakatga kelishiga sabab bo‘luvchi bu motiv olimning nazarida funksiya bajarmaydi. Jamila Asqarova esa ehtiyoj motivini “*harakatlantiruvchi omil*” deb nomlaydi [8;27]. Funksiya ertak personajlarining vazifasi, xatti-harakati bilan bog‘liq tushuncha ekanini yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Ertakning avvalida keluvchi nimaningdir yetishmasligi, boshga tushgan qandaydir kulfat, biror narsani topish zarurati kabilarni funksiya deb baholash esa munozarali masala. O‘zbek xalq ertaklarida ehtiyoj motivining bir qancha vaziyat shakllari mavjud. Misol uchun, yor izlash ehtiyoji, yo‘qolgan narsani topish ehtiyoji, ko‘ngil yozish ehtiyoji, gapdan qolgan odamni gapirtirish ehtiyoji, tirikchilik ehtiyoji kabi.

Tush va xabar motivlari ham tarkibiga ko‘ra oddiy motivlardan bo‘lib, axborot berishga xizmat qiladi. Har ikkalasining o‘rtasidagi farq shundaki, xabarni ertakda ishtirok etuvchi personajlar yetkazadi. Tush esa o‘zga olam bilan bog‘liq xabardir. Mohiyatan tush ham xabarga teng. O‘zbek xalq sehrli ertaklarida qahramonga ko‘makchi yoki homiylar yordam beradi. Bu yordam yo xabar, yo ko‘mak ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Xabar va ko‘mak motivlarning o‘rtasidagi nozik farq shuki, xabar faqat so‘z orqali yetkaziladi. Ko‘mak esa harakat bilan bo‘ladi.Jazo va siylov motivlari ko‘p hollarda ertak sujetining o‘rta va oxirgi qismida kelib, personajlarning qilgan amallariga javob sifatida namoyon bo‘ladi. Ertaklarda jazo va siylov motivlarining ham bir qancha vaziyat shakllarini uchratishimiz mumkin.

O‘zbek xalq ertaklarida ishtirok etuvchi motivlarning bir nechta ichki turga bo‘linishini aniqlab, bunday motivga nisbatan “kompleks” so‘zini ilk bor qo‘llagan tadqiqotchi Shahnoza Nazarovadir [2]. U o‘zining xalq ertaklaridagi sinov motiviga bag‘ishlangan ishida shunday deydi: “Sinov – taqiq, shart, shartlashuvdan iborat motivlar kompleksi bo‘lib, ertaklarda mukammal shaklda, marosimiy belgilarni to‘liqroq saqlagan holda poetik jihatlarini tugal namoyon etadi” [2;123].

Ertak sujetini tashkil qiluvchi shunday motivlar ham borki, ular ichki tarkibida bir qancha turga bo‘lingan holda poetik vazifa bajaradi. Biz bu kabi bir necha tarkibli motivlarni “murakkab tarkibli motivlar” deb nomladik. O‘z tarkibida bir qancha farqli turlarga bo‘linadigan, biroq asosiy o‘zak ma’nosini saqlovchi motivlar ***murakkab tarkibli motivlar*** deyiladi. Ularga – ***tug‘ilish, sinov, safar, qilmish, tilsim, evrilish motivlari*** kiradi.

Yetakchi va to‘ldiruvchi motivlar. Motivlarning yetakchi va to‘ldiruvchi yoki o‘zak va vaziyat motivlari bevosita aniq bir ertak matni bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi. Turkiy xalqlarning ertaklarini tadqiq qilgan folklorshunos Xudoybergan Egamov ertak sujetida ishtirok etayotgan motivlarning o‘zaro munosabatidan kelib chiqib, shunday fikr bildiradi: “Aktiv motivga xizmat qiluvchi, u bilan yonma-yon keluvchi yordamchi motivlar bo‘lganidek, passiv motivga ham xizmat qiluvchi, uni to‘ldirib keluvchi yordamchi motivlar ham mavjud” [5;60]. Bu o‘rinda olim aktiv va passiv atamasini aniq bir sujet ichidagi motivlarning holat yoki harakatni ifodalashiga nisbatan qo‘llaydi va misol sifatida “Shahzoda Bahodir” nomli o‘zbek xalq sehrli ertagini keltiradi. Xudoybergan Egamovning fikricha, bu ertakda shahzodaning tush ko‘rishi passiv motiv bo‘lib, tush sababli uning tildan qolishi, otasining yurtga jar solib, o‘g‘lini gapirtirganga boshdan oyoq tilla berishini va’da qilishi va bir kampirning uni gapirtirishi kabi qismlar o‘sha passiv motivning yonida kelayotgan yordamchi motivlardir. Bizningcha, ertak sujetidagi motivlarga bu tarzda yondashish ko‘pgina chalkashliklarga olib kelishi mumkin.Ma’lum bir ertak sujetida voqealar rivojiga turtki beradigan, atrofidagi boshqa motivlarga nisbatan yetakchi mavqeda turuvchi motivlar ***yetakchi motivlar*** deyiladi. Ertak sujetining bir qismida yetakchi bo‘lib kelgan motiv boshqa bir qismda to‘ldiruvchi motiv vazifasida ham kelishi mumkin.

Aniq bir ertak matnida yetakchi motiv ifodalangan mazmunni boyitib, qo‘shimcha axborot va ma’no kirituvchi yoki yetakchi motivning sabab va oqibatini ko‘rsatuvchi motivlar ***to‘ldiruvchi motivlar*** deyiladi.

Harakat va holat motivlari. Ma’lumki, o‘zbek tilida mustaqil so‘z turkumi bo‘lmish fe’l harakat va holatni ifodalab keladi. U aniq matnga ko‘chganda kesim vazifasini bajaradi va gapning markazi bo‘ladi.

Motiv ertak matnida xuddi kesim kabi markaziy tushuncha va u ham harakat yoki holatni ifodalab keladi.

O‘zbek folklorshunosligida motivga nisbatan shunga o‘xshash atamani birinchi bo‘lib G‘ayrat Jalolov qo‘llagan. Olim o‘zbek xalq ertaklarining poetikasiga bag‘ishlangan tadqiqotida shunday deydi: “Sehrli-fantastik ertaklarda turg‘un va o‘zgaruvchan motivlar mavjuddir. Ertak sujeti va kompozitsiyasi oralig‘idagi birlikni vujudga keltiruvchi motivlar turg‘un bo‘lib, ular deyarli o‘zgarmaydi va sujet rivojidagi asosiy momentlarni ifoda etadi… Lekin ertaklarda qo‘shimcha voqealarni bir-biriga bog‘lovchi motivlarni ham ko‘ramiz. Bunday motivlar o‘zgaruvchan motivlardir” [9;114–115]. Bu o‘rinda G‘ayrat Jalolov nazarda tutgan turg‘un va o‘zgaruvchanlik motivning matndagi holati bilan bog‘liq.Asl ma’nosi harakatni ifodalagan motivlar ***harakat motivlari***, aksincha holatni ifodalovchi motivlar esa ***holat motivlari*** deyiladi. Biz o‘zbek xalq ertaklari matnida aniqlagan harakatni ifodalovchi motivlar quyidagilar: ***safar, ko‘mak, xabar, qilmish, sinov, jazo va siylov motivlari***. Harakat motivlarida ertak personajlari faol bo‘lishadi. Har bir harakat motivi ularning xatti-harakati bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘ladi.

Holatni ifodalovchi motivlarga ***tush, ehtiyoj va tilsim motivlari*** kiradi. Bunda motivlar ertak personajlarining faol harakatiga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi. Odatda holat motivlari ishtirok etgan joydan sujet tuguni boshlanib, u personajlarning harakatga tushishlariga turtki beradi.

Yana shunday motivlar ham borki, ular ham harakatni ham holatni bir vaqtda ifodalab keladi. Bunga ***evrilish va tug‘ilish motivlari*** misol bo‘ladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). O‘zbek xalq sehrli ertaklar sujetini shakllantiruvchi motivlarning ummiy soni 12 tadir. Ularning bir qanchasi bugungacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda ko‘p bor tilga olingan. Jumladan, ***sinov, tush, safar, tug‘ilish, xabar, jazo, ko‘mak, evrilish motivlari***. Yana bir qancha motivlarni biz avvalgi folklorshunos olimlaring nazariy qarashlaridan, motivning ertakdagi estetik vazifasidan kelib chiqqan holda ilk bor nomladik hamda ilm-fanga taklif qilidik. Bular quyidagilardir: ***ehtiyoj, tilsim, qilmish hamda siylov motivlari.***

Sehrli ertaklar sujetida ishtirok etuvchi yuqoridagi barcha motivlar semantik va struktural xususiyatlari, sujetdagi ishtiroki, ichki tarkibi, nimani ifodalab kelishi, sujet hosil qilishdagi ahamiyati jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

– ***o‘zak va vaziyat motivlari;***
– ***faol va nofaol motivlar;***
– ***oddiy va murakkab tarkibli motivlar;***
– ***yetakchi va to‘ldiruvchi motivlar;***
– ***harakat va holat motivlari.***

Mazkur motivlardan faol va nofaol, oddiy va murakkab tarkibli hamda harakat va holatni ifodalovchi turlar motivning o‘ziga xos umumiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, yetakchi va to‘ldiruvchi, o‘zak va vaziyat motivlari aniq ertak matni yoki uning bir qismiga aloqadordir.

XULOSA. Xalq sehrli ertaklarining sujetini shakllantirishda motivning o‘rni beqiyos. Motiv xuddi gapning kesimiga o‘xshaydi va etak sujetida eng muhim unsur hisoblanadi. Ularni ertak sujetida doimiy qatnashishi yoki qatnashmasligiga ko‘ra – **faol va nofaol** motivlar; ichki tuzilishiga ko‘ra – **oddiy va murakkab** motivlar; nimani ifodalab kelishiga ko‘ra – **holat va harakat** motivlari; muayyan sujetdagi maqomi (pozitsiyasi)ga ko‘ra – **yetakchi va to‘ldiruvchi** motivlar; o‘zi anglatgan asos va qo‘shimcha ma’nolariga ko‘ra – **o‘zak va vaziyat** motivlar kabi turlarga ajraladi.

FOYDALANILGAN ADABOIYOTLAR:

1. Эшонқул Ж.С. Ўзбек фольклорида туш мотиви ва унинг бадиий талқинлари: ф.ф.д.дисс... – Тошкент, 2011.
2. Назарова Ш.И. Ўзбек халқ эртакларида синов мотивларининг генезиси ва поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2017.
3. Mashrapova G.A. O‘zbek folklorida safar motivi (ertak janri misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2023.
4. Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020.
5. Эгамов Х. Совет Шарқи туркий халқлари эртакчилик анъаналари алоқалари тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
6. Путилов Б.Н. Мотив – сюжетни ташкил қилувчи элемент сифатида / Таржимон: А.Абдужалилов // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. № 3.
7. Пропп В.Я. Морфология сказки. – Москва: Наука, 1969.
8. Asqarova J. O‘zbek xalq sehrli ertaklarida obrazlar tizimi. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2024.
9. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 8.81-13.(321)

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING POETIK TALQINI

To‘xtanazarova Dilnoza Geroyjon qizi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi I kurs magistranti



https://orcid.org/0009-0002-6216-939X
e-mail: dilnozatoxtanazarova946@gmail.com

NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN UZBEK POETRY: POETIC INTERPRETATION

To‘xtanazarova Dilnoza Geroyjon qizi, Student of the Master’s Degree Program (1st year), “Uzbek Language and Literature” direction, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ЦЕННОСТИ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ: ПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Тухтаназарова Дилноза Геройджон кызы, магистрант 1-курса направления “Узбекский язык и литература”, Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek she’riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodasi o‘rganiladi. Shuningdek, mumtoz va zamonaviy she’riyat namunalari qiyosiy tahlil asosda o‘rganilib qadriyatlarning tarixiy-estetik evolyutsiyasi yoritiladi. Asarlarni qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganish orqali she’riyatda umuminsoniy g‘oyalar ifodasi va ularning badiiy vositalari ochib beriladi.*

Kalit so‘z: *milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyatlar, o‘zbek she’riyati, Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, johillik, milliy ruh, vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar.*

Abstract: *This article examines the artistic expression of national and universal human values in Uzbek poetry. It also conducts a comparative analysis of examples from classical and modern poetry, highlighting the historical and aesthetic evolution of these values. Through a comparative-analytical study of literary works, the expression of universal ideas in poetry and the artistic devices used to convey them are revealed.*

Key words*: national values, universal human values, uzbek poetry, Alisher Navoi, Abdulla Oripov, jahiliyyah (ignorance), national spirit, patriotism, moral values.*

Аннотация: *В данной статье исследуется художественное выражение национальных и общечеловеческих ценностей в узбекской поэзии. Также на основе сравнительного анализа изучаются образцы классической и современной поэзии, освещается историко-эстетическая эволюция ценностей. Путём сравнительно-аналитического изучения произведений раскрывается выражение общечеловеческих идей в поэзии и художественные средства их воплощения.*

Ключевые слова*: национальные ценности, общечеловеческие ценности, джахилийя (невежество), узбекская поэзия, Алишер Навои, Абдулла Орипов, невежество, национальный дух, патриотизм, нравственные ценности.*

Kirish. Adabiyot xalq ruhiyatining ifodasi, millat ma’naviyatning ko‘zgusidir. Shu sababli o‘zbek adabiyotida milliylik, vatanparvarlik, til va ma’naviyat masalalari har doim birinchi o‘rinda

bo‘lgan. Milliy qadriyatlar insonning o‘zligini anglashda muhim ahamyat kasb etsa, umuminsoniy qadriyatlar esa turli madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni ta’minlaydi. Shu jihatdan mazkur ikki tushunchaning o‘zaro aloqadorligi va farqli jihatlari ilmiy asosda tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Adabiyotda ushbu qadriyatlar badiiy obrazlar va falsafiy umumlashmalar orqali ifodalanadi. Ayniqsa she’riyatda milliylik va umuminsoniylik uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiyasi. O‘zbek adabiyotshunosligida milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalasi turli tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, she’riyatda milliy ruh, an’analari va umuminsoniy g‘oyalarning badiiy ifodasi adabiy tahlil markazida turadi. Umuminsoniy qadriyatlarning nechog‘lik ahamiyatli ekani haqida Dilmurod Quronov shunday deydi: “Asar mazmunining u yaratilgan konkret ijtimoiy-siyosiy holatga qaratilgan aktual qatlami vaqt o‘tishi bilan baribir tushib qoladi, asarni yuzada tutib qoladigan tub estetik qatlam esa umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohangdir” (Quronov, 2020, 145-bet). Bu fikr o‘zbek she’riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarningco'rni haqida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natija. Demak o‘zbek she’riyatida milliy ruh, an’analar va umuminsoniy g‘oyalar badiiy jihatdan uyg‘unlashganda asarning tub estetik qatlami mustahkamlanadi va vaqt sinoviga bardosh beradi. O‘zbek adabiyotshunosligida milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, chinakam badiiy asarlarda aktual-siyosiy qatlam vaqt o‘tishi bilan susaygan taqdirda ham, umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohang estetik qatlam asarni abadiy saqlab qoladi va zamonaviy o‘quvchiga ham kuchli ta’sir etadi. Bu holat o‘zbek she’riyatining bugungi kun va kelajakdagi o‘rnini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama. O‘zbek she’riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ifodasi mumtoz va zamonaviy davr namunalari orqali yorqin ko‘rinadi. Alisher Navoiy ruboiysi va Abdulla Oripovning “Niyat” she’ri bu jihatdan yorqin misol bo‘lib, ular orqali inson axloqi, jamiyatdagi illatlar va milliy ruh chuqur ochib beriladi. O‘zbek xalqining ma’naviy merosida mehr-oqibat, bag‘rikenglik, kamtarlik, halollik kabi fazilatlar muhim o‘rin tutadi.

Johilki, hasad bo‘lg‘ay aning jahlig‘a zam,
Nur el ko‘zidin anglasa o‘z ko‘zida kam.
Ko‘zlarni olishmoqqa chekib tig‘i sitam,
El ko‘zini ham o‘ygay-u, o‘z ko‘zini ham.

Alisher Navoiy qalamiga mansub ruboiyda mazmunan insoniy axloq, hasad, johillik va ularning jamiyatga ta’sir haqida chuqur falsafiy fikr bildiriladi. Ruboyining birinchi misrasida johil insonning hasadgo‘yligi tasvirlanadi. Shoir johillikni hasad bilan bog‘laydi va bunday inson o‘z jahli bilan boshqalarga ham zarar yetkazishni ta’kidlaydi. Ikkinchi misrada esa inson boshqalarning fazilatlarini ko‘rsa o‘zidagi kamchilikni anglab yetish kerakligi ifodalanadi. Uchinchi va to‘rtinchi misralarda hasad va adovat sababli boshqalarga zarar yetkazmoqchi bo‘lgan odam aslida o‘ziga ham zarar yetkazishi , ya’ni boshqalar ko‘zini uyishga uringan kishi o‘z ko‘zini ham jarohatlashi ifodalangan. Bu orqali shoir yomon niyat oxir-oqibat insonning o‘ziga qaytishini ko‘rsatadi. Ruboiyda ifodalangan g‘oyalar faqat bir millatga emas balki butun insoniyatga xosdir. Hasad va johillikni qoralash barcha madaniyatlarda mavjud axloqiy tamoyil, o‘zlikni anglash va o'z kamchiliklarini tan olish inson kamoloti uchun muhim umuminsoniy fazilatdir. Yomonlikning o‘z egasiga qaytishi g‘oyasi ham dunyo falsafasi va adabiyotda keng uchraydi. Bu jihatdan ruboiy insonni ma’naviy poklik adolat va ezgulikka da’vat etadi.Oybarchin Abdulhakimova ta’kidlaganidek, “Abdulla Oripov ijod olamiga kirib kelgan dastlabki kezlaridan milliy folklor namunalarini qunt va sabot bilan o‘rgangan. Milliy ruhiyatni betakror badiiy talqin etish, xalqona uslub imkoniyatlaridan san’atkorona foydalanish shoir she’riyatining asosini tashkil etgan” (Abdulhakimova, 2023, 71-bet). Bu xususiyat “Niyat” she’rida ham yaqqol namoyon bo‘lib, vatan va hayot falsafasini xalqona uslubda ifodalaydi.

Umrim kitobidan bir varaq o‘tdi,
Bir sahfa shodlig-u bir sahfa zahmat.
Kimdir do‘stim deya qo‘lini tutdi,
Kimningdir dastida sangi malomat.

She’rning dastlabki bandlarida shoir inson umrini kitobga qiyoslaydi , hayot sahifalarda quvonch ham zahmat ham bor. Bu orqali hayotning murakkabligi undagi turli sinovlar ifodalanadi. Inson hayotida do‘stlik ham , malomat ham uchrashi tabiiy ekanligi ta’kidlanadi.

Hayot degani shu, qalbning tubida

Qolgusi shodlik ham, qay‘u ham qator.
Va lekin umrimni avval-so‘ngida
Vatansiz tasavvur etmog‘im dushvor.

Ushbu masalalarda shoir hayotdagi barcha quvonch va qayg‘ular bilan birga vatan tushunchasini inson uchun eng muhim qadriyat ekanini bildiradi. Uo'z umrini vatansiz tasavvur qila olmasligini aytadi. Bu g‘oya asarning markaziy ma’naviy g‘oyasidir. She’rda o‘zbek xalqining muhim ma’naviy qadriyatlari : Vatanga muhabbat, yurt ravnaqi uchun orzu qilish, Vatan bilan ruhiy bog‘liqlik badiiy tarzda aks etadi. Shoir “Vatansiz tasavvur etmog‘im dushvor” deya Vatan inson hayotining ajralmas qismi ekanini ta’kidlaydi. Bu o‘zbek adabiyotidagi asosiy milliy g‘oyalardan biridir.She’r faqat milliy tuyg‘ular bilangina cheklanmay, butun insoniyat uchun muhim bo‘lgan g‘oyalarni ham o‘zida mujassam etadi. Hayotda quvonch va zahmat yonma-yon kelishi barcha insonlarga xos tajribadir. Ikkala asarda ham ezgulik va yomonlik mavzusi bor (Alisher Navoiyda hasadning oqibati, Abdulla Oripovda hayot sinovlari). Ikkalasida ham inson o‘zini va atrofini to‘g‘ri anglashi, sabr va umid zarurligi ta’kidlanadi. Alisher Navoiy ijodida axloqiy hikmat ustun bo‘lsa, Abdulla Oripov ijodi milliy ruh bilan boyitilgan. Bu o‘zbek she’riyatida qadriyatlarning tarixiy-estetik evolyutsiyasini ko‘rsatadi: mumtoz davrdan zamonaviy davrga o‘tishda shaxsiy axloqdan milliy-ma’naviy birlikka o‘tish kuzatiladi. Ikkala asar ham o‘quvchini ma’naviy poklik, adolat va ezgulikka da’vat etadi. Ular nafaqat o‘zbek o‘quvchisi uchun, balki butun insoniyat uchun dolzarb bo‘lib qoladi.

Xulosa. O‘zbek she’riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodasi mumtoz va zamonaviy davrlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi. Alisher Navoiy ruboiyida hasad, johillik va yomon niyatning o‘z egasiga qaytishi kabi axloqiy masalalar chuqur falsafiy shaklda yoritilgan bo‘lsa, Abdulla Oripovning “Niyat” she’rida inson umrining murakkabligi, vatanga sadoqat, yurt ravnaqi va kelajakka umid kabi g‘oyalar lirik va ma’naviy jihatdan ifodalangan.

Navoiy ruboiysi orqali insonni o‘z kamchiliklarini anglashga, kamtarlikka va ezgulikka da’vat etiladi. Bu asar hasad va johillikni qoralab, umuminsoniy axloqiy tamoyillarni ta’kidlaydi. Oripov she’rida esa milliy qadriyatlar – vatanga muhabbat, yurt uchun qayg‘urish va ruhiy bog‘liqlik markaziy o‘rinda turadi. Shu bilan birga, hayotning sinovlari, sabr-toqat va insoniyat tinchligi kabi umuminsoniy qadriyatlar ham she’rda yorqin aks etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek she’riyatida qadriyatlarning tarixiy-estetik evolyutsiyasi kuzatiladi: mumtoz davrda asosiy e’tibor insonning individual axloqiy kamolotiga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy she’riyatda bu qadriyatlar milliy o‘zlik va Vatan tushunchasi bilan boyitilgan holda ifodalanadi. Ikkala asarda ham ezgulik, adolat va ma’naviy poklikka da’vat etiladi.

Natijada, Alisher Navoiy va Abdulla Oripov ijodida milliy va umuminsoniy qadriyatlar birlashib, o‘zbek she’riyatining boy ma’naviy merosini va uning insoniyat uchun doimiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Ushbu asarlar bugungi kun o‘quvchisini ham axloqiy poklik, vatanparvarlik va kelajakka umid ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulhakimova, O. (2023). Abdulla Oripov she’riyatida xalqona uslub va milliy ruh uyg‘unligi. O‘zbekiston: til va madaniyat, 1(2), 63–71. (PDF: inlibrary.uz).
2. Haqqul, I. (2022). Navoiy she’riyatida dard va bedardlik tazodi. https://kh-davron.uz
3. Quronov, D. (2020). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. (yoki 2018 nashri, Akademnashr).
4. Rajabov, E. (2025). Abdulla Oripov ijodida umuminsoniy g‘oyalar tasviri. Central Asian Journal of Interdisciplinary Research and Management, DOI: 10.5281/zenodo.15533101 (in-academy.uz yoki CyberLeninka).
5. Valixo‘jayev, B. (Muharrir). (2004). Adabiyotshunoslik nazariyasi (Hotam Umurov bilan hamkorlikda). Toshkent: Xalq merosi.
6. Bozorboyev, N. (2022). Abdulla Oripov she’riyatida milliy-ma’naviy qadriyatlar ustunligi. International Conferences, 1(6), 58–62.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.091.3:372.882

HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING ADABIY TA'LIMDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Normahamatova Inoyatxon Maxmudovna, Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COOPERATIVE PEDAGOGY IN LITERARY EDUCATION

Normahamatova Inoyatkhon Makhmudovna, Independent Researcher at Namangan State Pedagogical Institute

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИКИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Нормахаматова Иноятхон Махмудовна, независимый исследователь Наманганского государственного педагогического института

https://orcid.org/0009-0002-9836-0591
e-mail: normaxamatovainoyatxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hamkorlik pedagogikasining adabiy ta'limdagi o'rni, afzalliklari va o'quvchilar badiiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asari misolida ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar*:hamkorlik pedagogikasi, badiiy matn, tanqidiy fikrlash, jamoaviy faoliyat, mushtarak g'oyalar, shaxsiy pozitsiya, tahlil, xulosa, do'stona muhit, faol subyekt, ijodiy yondashuv.*

Abstract:*This article examines the role, advantages, and significance of cooperative edagogy in literary education, as well as its importance in developing students' artistic thinking. The analysis is illustrated through the example of The Old Man and the Sea by Ernest Hemingway.*

Key words: *cooperative pedagogy, literary text, critical thinking, collaborative activity, shared ideas, personal viewpoint, analysis, conclusion, supportive environment, active participant, creative approach.*

Аннотация*: В данной статье рассматриваются роль, преимущества и значение педагогики сотрудничества в литературном образовании, а также её влияние на развитие художественного мышления учащихся. Анализ проводится на примере произведения "Старик и море" Эрнест Хемингуэй.*

Ключевые слова: *педагогика сотрудничества, художественный текст, критическое мышление, коллективная деятельность, общие идеи, личная позиция, анализ, вывод, благоприятная образовательная среда, активный участник, творческий подход.*

Kirish. Bugungi globallasuv davri, axborot kommunikartsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda sun'iy idrokning jamiyat hayotiga kirib kelishi boshqa sohalar qatori ta'lm tizimi, xususan, adabiy ta'lim oldiga ham o'ziga xos talablarni qo'ymoqda. Ta'limning maqsadi faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish, ijtimoiylashuv jarayonida erkin fikrlash, muammolarga noodatiy, tahliliy hamda tanqidiy yondashuv, fikrni aniq va tushunarli ifodalash, hamkorlikda ishlash, muloqot madaniyatini mukammal egallash kabi ko'nikmalarni shakllantirishdir. Hozirgi kunda XXI

asr ko‘nikmalarining asosi sifatida baholanayotgan kollaborativ o‘qitish o‘zining bir qator afzalliklari bilan ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi e’tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar faolligi va motivatsiyasi oshishi, mustaqil fikrlash va muammoni birgalikda hal qilish ko‘nikmalari rivojlanishi, muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanishi, ta’lim mazmunining chuqur o‘ zlashtirilishi, differensial yondashuvni qo‘llab-quvvatlashi, o‘quv jarayonining demokratlashuvi, ijodkorlik va tashabbuskorlikning kuchayiishi, mas’uliyat va liderlik ko‘nikmalarining shakllanishi, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va axloqiy sifatlarni shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va ta’lim samaradorligini oshirish, qobiliyatlar birlashuvi va o‘quv maqsadlarini amalga oshirish, ta’lim sifatini baholash osonlashuvi va tahliliy monitoringning ishonchliligi kabi bir qator afzalliklari ko‘zga tashlanmoqda. Mazkur faoliyat o‘quvchilarni birga fikrlash, muammoni jamoa bo‘lib bajarishga yo‘naltiradi.

Jahon tajribasida bu yondashuv ta’lim oluvchilarning faolligini oshirishi, murakkab mavzularning tez va oson o‘zlashtirilishi, bilim darajasini rivojlantirishi isbotlangan. Shu sababli AQSH, Kanada, Singapur, Finlyandiya kabi davlatlarda jamoaviy loyihalar o‘quv dasturining majburiy qismi sifatida kiritilgan. Kollaborativ yondashuv Google Classroom, Mikrosoft Teams, Padlet, Kahoot, Nearpod kabi platformalar orqali global onlayn guruhlar va xalqaro jamoaviy loyihalar yaratish imkonini beradi. Bu ta’limni cheksiz virtual makonga aylantiradi. O‘qituvchi faoliyatini yengillashtiruvchi mexanizm sifatida tan olingan kollaborativ hamkorlik ta’lim jarayonida o‘qituvchining nazoratga sarflaydigan vaqtini kamaytiradi, moderatorlik va fasilitator (yo‘naltiruvchi)lik faoliyatiga yo‘l ochadi, o‘zaro baholash imkonini yaratadi va vaqtning samarali taqsimlanishiga erishiladi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Jahon tajribasidagi ijobiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, kollaborativ ta’lim qo‘llangan mamlakatlarda PISA natijalari o‘sgan, kommunikativ ko‘nikmalar mustahkamlanib, ijtimoiy integratsiya kuchaygan va motivatsiya yuqori bo‘lgan.

Kollaborativ yondashuv ko‘pgina xususiyatlari bilan ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U, avvalo, badiiy asarni chuqur anglashni ta’minlaydi.Hamkorlik asosida ishlash jarayonida o‘quvchilar badiiy matnni turli nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Bu esa matn mazmunini kengroq tushunishga yordam beradi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildiradi va boshqalarning qarashlari bilan boyitadi.

Kollaborativ faoliyat mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi bilan ham ahamiyatli. Guruhda ishlash davomida o‘quvchilar o‘z fikrini asoslaydi, dalillar keltiradi. Bu esa tanqidiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Hamkorlik pedagogikasi kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishi jihatidan ham e’tiborga loyiq. Adabiy ta’limda munozara, bahs, savol-javob muhim o‘rin tutadi. Kollaborativ yondashuv orqali o‘quvchilar fikrni ravon ifodalash, boshqalarni tinglash va hurmat qilishni o‘rganadi.
Kollaborativ ta’lim ijodiy yondashuvni kuchaytiradi, chunki guruh bolib ishlashda sahnalashtirish, rollarga bo‘lish, muqobil yakun yaratish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stiradi va faolligini oshiradi.
Hamkorlik pedagogikasining muhim jihatlaridan yana biri ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishidir. Jarayonda o‘quvchilar o‘zaro yordam, muammolarni birgalikda hal qilish, mas’uliyatni his qilish kabi hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv ta’lim oluvchilarda adabiy kompetensiyani rivojlantiradi, ma’naviy fazilatlarni shakllantiradi. Asar tahlili, obrazlarga baho berish, muallif g‘oyasini anglash, kabi ko‘nikmalar samarali shakllanadi. Metodist olima Qunduzxon Husanboyeva fikriga ko‘ra, “Maktabda o‘rganish jarayonida har bir adabiy qahramon nafaqat muallif, balki o‘quvchi tomonidan ham har doim o‘z axloqiy bahosini olishi va bu o‘quvchilarga ma’ naviy rivojlanishda yordam berishi juda muhimdir”. Haqiqatan ham, ta’lim oluvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ma’naviyatini boyitishda badiiy obrazning o ‘rni beqiyos.
Adabiyotlar tahlili. Pedagogika ilmida hamkorlik asosida o‘qitish masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. MDH olimlari S.V.Abramova, M.V.Boguslavskiy, I.P.Volkov, L.S.Vigotskiy, P.V.Galperin, V.V.Davidov tomonidan ta’lim oluvchilarning tadqiqotchilik faoliyati, “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi orqali hamkorlik asosida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, kompetensiya, kompetentlilik

tushunchalari, ularning turlari va strukturasi yoritilgan.

Xorijlk E.Bono, G.Gardner, Dj.Dyui, M.Daniels, J.Piaje, D.Jonson va R.Jonson kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ijodkor shaxsni tarbiyalash nazariyasi, kreativlik va ijodiy potensiallar, atrof-olamni bilishda tayaniladigan obyektiv qonuniyatlarning o‘quv muammolarini qiziqarli tarzda shakllantirishga ta’siri, ijodiy topshiriqlarga asoslangan ta’limning pedagogik-psixologik mazmuni, tadqiqot va loyihaga asoslangan o‘qitish usullari, guruhli ishlash, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hamkorlik pedagogikasi o‘quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ijtimoiy ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Metodologik qism. Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

-Kollaborativ o‘qitish metodi: o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, topshiriqlarni birgalikda bajrish;

-Tahlil va sintez: asar mazmuni, obrazlar va ramzlarni chuqur o‘rganish;

-Taqqoslash: qahramonlar va voqealarni o‘zaro solishtirish;

-Kuzatish: dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini baholash.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” qissasi kollaborativ yondashuv asosida o‘rganilganda asar mazmuni chuqur tahlil qilindi. Guruhli tahlil orqali o‘quvchilar asarning yashirin ma’nolarini ochishga muvaffaq bo‘ldi. Obrazlar tahlilida Santyago timsoli turli nuqtayi nazardan baholanib, uning matonat va iroda ramzi ekani aniqlandi. O‘quvchilar bahs-munozara orqali o‘z fikrlarini asoslashga o‘rgandi, natijada ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlandi. Fikr almashish jarayoni natijasida ta’lim oluvchilarda muloqot ko‘nikmalari shakllandi. Shu bois hamkorlik pedagogikasi adabiy ta’limda keng qo‘llanishi zarur bo‘lgan samarali metodlardan biridir.

Xulosa. Adabiy ta’limga kollaborativ yondashuvni tatbiq etish o‘quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantirib, ularning ijtimoiy, kommunikativ, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqini rag‘batlantirib, o‘zaro do‘stona muhitni yuzaga keltiradi, mushtarak g‘oyalar asosida hamjihatlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yo‘l orqali o‘qituvchi markaziy shaxs emas, balki yo‘naltiruvchi, tashkilotchi va yordamchi vazifasini bajaradi, o‘quvchilar mustaqilligi oshib, faol subyekt sifatida ishtirok etish imkoni yaratiladi.

Hamkorlikda ishlash jarayonida har bir o‘quvchi jamoaning teng a’zosi sifatida faol bo‘ladi, liderlik, tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi, o‘ziga nisbatan ishonch ortadi. Bilim darajasi, aqliy qobiliyati va dunyoqarashi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar bir guruhda ishlagani sababli o‘zaro tajriba almashish imkoniyati tug‘iladi.

Kollaborativ yondashuv zamonaviy ta’limning eng samarali metodi sifatida bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘qish jarayoniga qiziqishni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.- Toshkent. 2022.
2.Q.Husanboyeva. Adabiy ta’lim metodikasi.- Toshkent. 2024.
3.S.Kambarova. Adabiy o‘quv tahliliga integrativ yondashuv.- Toshkent. 2025.
4.J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.-Toshkent. 2008.
5.Johnson D, Johnson R. Cooperative Learning: The Jigsaw Method. Edina, MN: Interaction Book Company.
6. Пиаже Ж. Психология интеллекта. - СПБ: Питер. 2004.
7. Боно Э. Серьёзное творческое мищление. М: Поппури. 2005.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.58.97.25

A STUDY OF THE TRANSLATIONS OF THE "BABURNAMA" INTO FOREIGN LANGUAGES

***Rahmatova Hulkar Solijon qizi**, Doctoral student University of Tourism and Silk Road International Cultural Heritage*

"BOBURNOMA" ASARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMALARI TADQIQI

Rahmatova Hulkar Solijon qizi, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tayanch doktoranti

ИССЛЕДОВАНИЕ ПЕРЕВОДОВ "БАБУРНАМЕ" НА ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Рахматова Хулкар Солижон кызы, докторант Международного университета туризма и культурного наследия Шёлкового пути

https://orcid.org/0009-0003-8608-147X
e-mail: hulkarraxmatova98@gmail.com

Abstract: *This article provides a scholarly analysis of the dissemination of the Baburnama worldwide and the process of its translation into various foreign languages. The study examines how the work was first introduced to Europe through its Persian versions and subsequently translated into English, French, German, Turkish, Russian, and other languages, presenting these stages in a chronological framework. It also offers a comparative analysis of the distinctive features of these translations, the approaches adopted by different translators, and the extent to which the original content and style have been preserved. Furthermore, the article highlights the significance of the Baburnama in both Eastern and Western scholarly traditions, emphasizing its value as a historical and literary source. The findings of the study contribute to understanding the global reception of the work and provide important conclusions from the perspective of translation studies.*

Key words: *"Baburnama", translation, Babur studies, Zahiriddin Muhammad Babur, comparative literature, into Urdu.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada "Boburnoma" asarining jahon miqyosida tarqalishi va uning turli xorijiy tillarga tarjima qilinishi jarayoni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda asarning dastlabki forsiy nusxalari orqali Yevropaga kirib borishi, keyinchalik esa ingliz, fransuz, nemis, turk, rus va boshqa tillarga tarjima qilinish bosqichlari xronologik asosda yoritilgan. Shuningdek, tarjimalarning o'ziga xos xususiyatlari, tarjimonlarning yondashuvi hamda matnning mazmuniy va uslubiy jihatdan qay darajada aks ettirilgani qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada "Boburnoma" tarjimalarining Sharq va G'arb ilmiy muhitidagi o'rni, uning tarixiy-adabiy manba sifatidagi ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari asarning xalqaro miqyosdagi o'rganilish darajasini aniqlashga hamda tarjimashunoslik nuqtai nazaridan muhim xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *"Boburnoma", tarjima, bobur shunoslik, Zahiriddin Muhammad Bobur, qiyosiy adabiyotshunoslik, urdu tiliga.*

Аннотация: *В данной статье проводится научный анализ распространения произведения "Бабур-наме" в мировом масштабе и процесса его перевода на различные иностранные языки. В исследовании рассматривается, как произведение первоначально проникло в Европу через персидские версии, а затем было переведено на английский, французский, немецкий, турецкий, русский и другие языки; эти этапы освещаются в хронологическом порядке. Также даётся сравнительный анализ особенностей переводов, подходов переводчиков и степени сохранения содержания и стиля оригинала. Кроме того, в статье подчёркивается значение "Бабур-наме" в*

восточной и западной научной традиции, а также его роль как важного историко-литературного источника. Результаты исследования способствуют определению уровня международного изучения данного произведения и позволяют сделать важные выводы с точки зрения переводоведения.

Ключевые слова: *"Бабур-наме", перевод, изучение Бабура, Захириддин Мухаммад Бабур, сравнительная литература, на урду.*

Introduction. From ancient times, the peoples of the world have maintained close relations with one another. Each of them, whether large or small, has contributed to the development of global science and culture. It is difficult to imagine the establishment of friendly relations among nations, as well as the study and assimilation of each other's cultural wealth, without translation**[**2.149]**.**The field of translation studies, which strengthens the interconnection of national cultures, holds significant importance in our multinational country. Thanks to translation, progressive ideas, artistic discoveries, creative mastery, and well-established methods and styles in world literature come closer together and gradually integrate. Qudrat Musayev writes about translation as follows: "…translation is the art of recreating and reinterpreting the original" [10.224].The word "translation" derives from the Persian word "tarzabon," which, after being adapted into Arabic, came to mean an eloquent speaker or a person fluent in language. In general, translation is the process of adapting the content of a text created in one language into another language. In essence, the translator appears as a creator of the work in another language.One of the vivid examples of this art of translation can be clearly seen in the translations of Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnama" into world languages. The work has been translated into more than 30 languages worldwide, and currently, translation efforts into two more languages—Hungarian and Turkmen—are ongoing[15.159]. The "Baburnama," which combines artistic, historical, and memoir characteristics, serves as a valuable source for literary scholars, historians, linguists, and specialists in more than twenty fields.Methodology. In this study, comparative-historical, analytical-descriptive, and textological methods were employed. The object of the research comprises the translations of the *Baburnama* into Persian, English, German, Russian, Turkish, Urdu, Hindi, Uyghur, Japanese, Chinese, Kazakh, Azerbaijani, Arabic, and Italian languages.

There are more than ten manuscript copies of the *Baburnama.* In the work of researchers N. Otajonov and D. Hoshimova, the existence of 15 manuscript copies is noted[3.149]. The scholarly editions of the work were prepared on the basis of the Kazan publication (the Kir manuscript) issued by N. Ilminsky in 1857 and the London edition (the Hyderabad manuscript) published by A. Beveridge in 1905.

In 1995, the Japanese scholar Eiji Mano published a critical edition of the text based on four Turkic versions[3.150]. In this research, all available translations were examined from both chronological and comparative perspectives; the completeness of the translations, their explanatory style, and their fidelity to the original text were analyzed. Additionally, special attention was given to the preservation of phraseological units in the translations.Results. Western scholars first became acquainted with the *Baburnama* through its Persian versions. The earliest Persian translation is associated with Shaykh Zayniddin, a contemporary of Babur, and covers events dated to the Hijri years 932–933. Several manuscript copies of this translation are preserved in the British Museum[15.159].The second Persian translation was initiated by Mirzo Payanda Hasan Ghaznavi and completed by Muhammad Quli Hisari in 1586. The third Persian translation was finalized by Abdurrahim Khan-i-Khanan in 1589 for Akbar[15.159] This version served as the primary source for subsequent translations of the work into English, German, Urdu, and Hindi. Today, 68 manuscript copies of the Persian-Tajik version of the work are preserved in world manuscript collections[7.62].In 1705, the Dutch scholar Derbelo Witsen published the *Baburnama* in Amsterdam, laying the foundation for introducing the work to European readers. From the early 19th century onward, English translators made significant contributions: W. Erskine and J. Leyden

(1826), R. Caldecott (1844), F. Talbot (1909), L. King (1921), S. Beveridge (1922), and W. Thackston (1996, 2002)[12].

In 1810, Julius von Klaproth translated the work into German; however, a number of lexical inaccuracies were observed—for instance, the word "pheasant" was rendered as "eagle," and the phrase "ko'zlar el bezgak bo'lur" was incorrectly translated as "eye diseases." [14.45] In 1828, A. Keyser published a more complete German edition based on the translations of Leyden and Erskine[11.15].

The French orientalist Pavet de Courteille translated the *Baburnama* directly from the original into French in 1871[5.14]. New French translations were later published in 1980 and 1985 by Professor Bacqué-Grammont.

Until the 20th century, there was no complete Russian translation of the work. M.A. Salye published the first part in 1948 and the complete translation in 1958[15] Due to ideological pressures, certain abridgements were introduced. After Uzbekistan's independence, the full text was republished. In 2008, a new Russian translation of the work was produced[8].

The *Baburnama* was first translated into Urdu by Mirzo Nasiruddin Haydar Kuragoni and published in Karachi in 1962. In total, the work has been translated into Urdu three times—in 1924, 1969, and 2000[15] It was translated into Hindi by Yugjit Navalpuri and published in New Delhi in 1974[6].

Rashid Rahmati Arat translated the *Baburnama* into Turkish—this first Turkish translation was published in 1943–44, 1987, and 1993[9] The work was translated into Uyghur by Hamit Temur and published in Beijing in 1992 (730 pages), and into Chinese by Wang Jilay in 1997.

The Japanese scholar Eiji Mano translated the "Fergana" and "Kabul" sections of the *Baburnama* into Japanese in 1983–84 and published its critical edition in 1995—his work has been described as an example of "scholarly courage." [1].

The *Baburnama* was translated into Kazakh by Bayuzak Kojabekuli in 1990 and published in full in 1993. In 2022, a new Kazakh translation by Islom Jemeney was released. The Azerbaijani translation by Ramiz Askar has been published twice in Baku[16] In 2008, Professor Majida Makhlouf translated the work into Arabic, and it was published in Cairo.

In 2023, the *Baburnama* was published in Italy in Federico Pastore's translation by the publishing house "Sandro Teti Editore." This edition includes sections covering the events of Fergana, Kabul, and India.

The preservation of phraseological units in foreign translations of the *Baburnama* requires special study. A vivid example is the proverb "Ko'zlarini tuz tutdi." This expression was translated into Turkish as "Gözlerini tüz tuttu," preserving its original form. In English translations, it appears as follows: John Leyden and William Erskine (1826) — "the salt has seized his eyes"; S. Beveridge — "The salt took his eyes"; W.Thackston — "Salt took his eyes"[13]. The preservation of the lexeme "salt" in all translations confirms its basis in a universal folk concept. At its core lies the ancient belief expressed in the idea of "the right of salt — loyalty".Discussion. The *Baburnama* is one of the invaluable sources that has enriched the treasury of world literature and scholarship. The integration of disciplines such as history, literature, botany, geography, and military science within a single work elevates it to the level of a multifaceted scientific source[15].The results of the study indicate that the quality of translations is not uniform. Klaproth's translation contains lexical inaccuracies, whereas the translations by Beveridge and Thackston stand out for their closeness to the original[14] The preservation or loss of phraseological units in translation directly depends on the translator's competence[13].The fact that the work has been translated into more than thirty languages, along with the creation of numerous doctoral dissertations and feature films based on it, clearly demonstrates its significant global impact. Today, translation efforts into Hungarian and Turkmen are still ongoing[4.37].The legacy of Zahiriddin Muhammad Babur is not merely a record of an individual's life, but a historical, scientific, and literary treasure that embodies an important layer of human civilization. It continues to retain its full scholarly and cultural significance to this day. This heritage will undoubtedly remain a source of research and inspiration for future generations[15.159].

Conclusion. In conclusion, the legacy of Zahiriddin Muhammad Babur is not merely a description of an individual's life, but a historical, scientific, and literary treasure that embodies a significant layer of human civilization. It continues to fully preserve its scholarly and cultural significance even today. This heritage will also continue to serve as a source of research and inspiration for future generations.

References:

1. Abdug'afurov A., O'rinboev A. Yapon olimining ilmiy jasosrati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. — Toshkent, 1996. 15-mart. — B.2.
2. Фозилова Ш., Султонова Д. Таржима мутахассислигига кириш. — Самарқанд, 2007. — Б.149–150.
3. Ҳошимова Д.М. "Бобурнома" асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари: Филол. фан. ном. дисс. автореф. — Т., 2006.
4. Hayitov Sh.M. Turkiy bobur shunoslikning tadrijiy takomili. DSc dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2025.
5. Иброҳимов А.П."Бобурнома"-буюк асар. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. — Б.14.
6. Иброҳимов А. "Бобурнома"да ҳиндча сўзлар тадқиқи.Филол.фан.дисс.Тошкент, 2011.-Б.27.
7. Мадраимов А. "Бобурнома"нинг форс тилидаги қўлёзмалари // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1974. №1. — Б.62.
8. Машрабов З., Юнусов О., Ҳасанов С., Қаюмов А. Бабур-наме. —Т.: Шарқ, 2008. — 242 с.
9. Муҳаммадиева Д. "Бобурнома' туркча таржимасидаги паремияларнинг қиёсий тадқиқи. — Тошкент: Тафаккур чаманзори, 2021. — 164 б.
10. Мусаев Қ. Бадиий таржима ва нутқ маданияти. — Тошкент: Фан, 1976. — 224 б.
11. Раҳимов Х. "Бобурнома"нинг олмонча таржималарига бир назар // Бобур ва дунё. — Тошкент, 2019. №1. — Б.15.
12. Собиров М. "Бобурнома"нинг инглизча таржималарида муаллиф услубини қайта тиклаш муаммолари. Дисс. — Т., 2002.
13. Тешабоева З. "Бобурнома"даги фразеологик бирликларнинг инглизча таржималари қиёсий таҳлили. — Тошкент, 2018. — Б.14.
14. Хўжаев Ғ. "Бобурнома"нинг немисча икки таржимаси // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1970. №6. — Б.45–49.
15. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. — Т.: Шарқ, 2017. — Б.159.
16. Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Çeviren Ramiz Askar. 2-naşr. — Bakı, 2011.
17. Захир ад-Дин Бабур. Бабур-наме. — Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1992. — 312 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'25:82-1:82.09

G‘AZAL TARJIMASIDA LEKSIK MUQOBILLIK

Matkarimov Saparboy Rajabovich, Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi f.f.f.doktori (PhD)



e-mail: matkarimovsafarboy @gmail.com.

LEXICAL EQUIVALENCE IN GHAZAL TRANSLATION

Matkarimov Saparboy Rajabovich, Teacher of the Department of Romance-Germanic Philology, Faculty of Foreign Philology, Urgench State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

ЛЕКСИЧЕСКАЯ ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ В ПЕРЕВОДЕ ГАЗЕЛИ

Маткаримов Сапарбой Раджабович, преподаватель кафедры романско-германской филологии факультета иностранной филологии Ургенчского государственного университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixiy asarlar tarjimasi, tarjimada muqobillik darajalari haqida so‘z yuritiladi. G‘azal tarjimasida qo‘llangan uslub hamda tarjimaning yutuq va kamchiliklari ko‘rsatiladi.*
Kalit sozlar: *ekvivalent, muqobillik, adekvatlik, konseptual, pragmatik muqobillik.*

Abstract: *This article discusses the translation of historical works, the levels of alternative translation. The method used in the translation of the ghazal, as well as the advantages and disadvantages of the translation, are shown.*
Keywords*: equivalent, alternative, adequacy, conceptual, pragmatic alternative.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается перевод исторических произведений, уровни альтернативного перевода. Представлен метод, используемый при переводе газели, а также преимущества и недостатки перевода.*
Ключевые слова: *эквивалентный, альтернативный, адекватность, концептуальный, прагматический, альтернативный.*

Kirish. Tarjima tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy e’tiborni ikki til tizimining semantik tomoniga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. Chunki ma’lumotning aniqligi asosini turli tillar matnlarining semantik uyg‘unligi tashkil etadi. So‘zlar tarjimalarining muhim vazifalaridan biri “tarjimaviy muqobillikdir” [1] . Semantik tarjima muammolari tilning mazmuniy jihatini o‘rganish bilan bog‘liq lisoniy muammolarning bir bo‘lagidan iborat bo‘lib, ularning hal etilishi ko‘p hollarda semantikaning umumlisoniy jihatlarini o‘rganishga bog‘liqdir. Shuning uchun ham “muqobillik” tushunchasi lisoniy tarjimaning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, tarjimada muqobillik masalasi bilan bevosita va bilvosita bog‘liq holda, badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash muammolari, badiiy tarjimaning, xususan, hajviy asarlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari, konseptual metaforalar tarjimasining o‘ziga xosliklari, tarjima adekvatligining mezoni, zamonaviy nasriy asarlar tarjimasining e’tiborli jihatlari bo‘yicha mustaqillik yillarida ancha ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Asliyat bilan tarjimaning mazmunan bir-biriga to‘la-tekis mos kelishi birinchi darajali zarurat bo‘lganligi uchun ko‘pchilik tadqiqotchilar muqobillikni tarjimaning asosiy sharti, deb hisoblashadi. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, muqobillik tarjimaga berilgan “bir tildagi matnni o‘zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish” tarifiga mos keladi. Bunda “muqobillik tushunchasi” tarjimaning sifatlilik, yuqori bahoga

[1] Жуманиёзов З. Таржиманинг назарий ва амалий асослари . – Тошкент, 2018. – Б.38.

loyiqlik xususiyatini anglatadi. Shunday qilib, muqobil tarjima asliyat mazmunini o‘zga tilda vazifaviy jihatdan to‘la-to‘kis talqin etishdan iborat jarayondir.Asosan, asliyat bilan tarjima matnlarning muqobillik munosabatlari quyidagicha izohlanadi:

1. Muqobillikning birinchi turida tarjimalarning asliyatga uyg‘unligi ko‘z ilg‘amas darajada namoyon bo‘ladi. Tarjimaning bu turida asliyat va tarjima o‘rtasidagi munosabatlar, asosan, quyidagicha bo‘ladi: a)leksik va sintaktik qurilishdagi nomuvofiqlik; b)ikki holatda ham bir xil fikr aytilayotganligiga qaramasdan, asliyat va tarjimada bayon etilgan axborot o‘rtasida bevosita mantiqiy va mazmuniy bog‘lanishlarning ko‘zga tashlanmasligi; v)asliyat va tarjima matnlari mazmunlari o‘rtasidagi umumiylik darajasi muqobil sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan juda pastligi kabilardir. Bunday tarjimalarni asliyat bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, odatda, ular birlamchi matnlar tarkiblaridagi leksik va grammatik birliklar ma’no va shakllaridan kelib chiqib, “to‘g‘ridan to‘g‘ri“ amalga oshirilmaydi, balki matnlar tarkibidagi yashirin holda mavjud bo‘lib, butun boshli ifodalar asosida oydinlashadigan mazmunlar asosida yaratiladi.

2. Ikkinchi turdagi muqobillikda tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan til vositalari ma’nolarining bir xil emasligi bilan izohlanadi. Bu muqobillik turida fikr turli tillarda turlicha taqdim etilsa ham, bir xil vaziyat tasviri yaratiladi. Quyida turlicha tizimdagi o‘zbekcha va fransuzcha muqobil ifodalar orasida mantiqiy-semantik bog‘lanishni ko‘ramiz:

Jong‘a chun derman: ne erdi *o‘lmakim kayfiyati*? \\ J’interroge mon âme: “Quelle est *la sourse de ma mort*?” Bunday muqobillikning turli tillar asosida tadqiq etilishi tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. U tillar o‘rtasidagi umumiy va tafovutli holatlarni ochib berishga imkon yaratib beradi. Ko‘pgina hollarda biron bir til sohiblari u yoki bu vaziyat tasviri uchun muayyan ifoda vositalaridan foydalanadilarki, ular ayrim hollarda boshqa til egalari ishlatadigan nutq qurilmalaridan moddiy jihatdan farq qiladi. Masalan: Kim so‘rayapti? Qui est la? so‘roq gapiga muqobil tarjima sifatida boshqa nutq qurilmasi javob bo‘lyapti. Har bir tilda muayyan vaziyat tasviri uchun shunday o‘ziga xos ifoda vositalari, tarjimada ulargagina murojaat qilish pragmatik muqobillikni yuzaga keltiradi. Ayrim hollarda muayyan holat yoki harakat ma’lum bir jamoa a’zolari nutqida bir xil ma’no anglatsa, boshqa guruh odamlar tasavvurida o‘zgacha mazmun kasb etadi. O‘zbek kitobxoni uchun *har kuni qo‘y go‘shti yeyish* boylikni yoki yaxshi yashashni anglatsa, aynan shu iborani fransuzcha tarjimasi asliyatga muqobil bo‘la olmaydi (chunki Yevropada qo‘y go‘shti eng arzon mahsulot sanalib, uni ko‘pincha aholining kambag‘al qatlami iste’mol qiladi). Har bir xalqning milliy tasavvurlari, yurtida qabul qilingan qonuniyatlar asosida yaratilgan nutq vositalarini o‘zgacha tasavvur va qonun-qoidalarga ega bo‘lgan xalqlar tillariga o‘girish qator amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki boshqa tillarda mazkur jihatlar uchun o‘zgacha xususiyatli nutq qurilmalari yaratilgan bo‘ladiki, bir xil harakat yoki holatni aks ettiradigan bunday turlicha ko‘rinishli, ammo mazmunan yaqin muqobil ifoda vositalarini qidirib topish lozim bo‘ladi.

3. Muqobillikning uchinchi turida esa asliyat va tarjima matnlari orasida ikki tilning mazmunan o‘zaro mos ifoda vositalari leksik va goho semantik qurilishi jihatidan to‘la uyg‘un bo‘lmaydilar. Tahlillar bu muqobillik turining bir qator ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ulardan biri tafsilotli tasvirdir. Ma’lum bir harakat yoki holat tasviri u yoki bu darajada, keng yoki torroq tafsilotlar vositasida bayon etiladi. Bir til bayonida ayrim belgilar tafsiloti bilan ochiq-oydin keltirilsa, ikkinchi tilda ushbu belgilar ochiq ifoda etilmasdan, faqat nazarda tutiladi, ammo uning tafsiloti bayon mazmuni asosida oydinlashib boradi.

4. Muqobillikning to‘rtinchi turida asliyat bilan tarjima o‘rtasida ikki til matnlari leksik tarkiblarining yanada ko‘proq o‘xshashliklari bilan izohlanadi. Bunda asliyatdagi ko‘pchilik so‘zlarning muqobilining tarjima tilidagi mazmunan yaqini izlab topiladi hamda tarjima tilida asliyatdagi ifoda vositasi sintaktik qurilishiga mos sintaktik qurilishli ifoda vositalaridan foydalaniladi.

5. Muqobillikning beshinchi turida asliyat bilan tarjima matnlari orasidagi barcha jihatlar to‘la mos keladi. Bu turda ikki til matnlarining bir xil qurilishga egaligi, leksik tarkibning to‘la o‘xshashligi, asliyat asosiy qismlarining tarjimada to‘laligicha saqlanishi bilan ifodalanadi[2].

“Ne xush bo‘lg‘ay ikkovlon mast bo‘lsak vasl bog‘inda” matla’li g‘azal tarjimasidagi muqobillikni ko‘rib chiqamiz:

[2] Kudrat Musayev. Tarjima nazariyasi.- Toshkent 2000 , 21-24 bet.

// **Ne xush bo‘lg‘ay ikkovlon mast bo‘lsak vasl bog‘inda, //**

// Qo‘lim bo‘lsa aning bo‘ynidavu, og‘zim qulog‘inda//.

Comme il serait beau, dans le jardin de notre rendez-vous, de s’enivrer tous deux,

que ma main se pose sur ton cou, ma bouche sur ton oreille,

Qanday go‘zal bo‘lardi, bizning bog‘imizda uchrashuv, birga mast bo‘lish, qo‘lim bo‘yningga, og‘zim qulog‘ingga,

// Dame vasl ichra valolig‘ bila ruxsorim egnida, //

// Yana bir dam niyozu ajz ila boshim ayog‘inda. //

Que lors de cette rencontre mon visage présente les singnes de l’amour

Que, plus tard, à tes pieds, ma tete se pose, pleiné d’espoir,

Bu uchrashuv paytida mening yuzim sevgi alomatlarini ko‘rsatadi

Oyog‘ing tagida mening boshim umidga to‘la.

Yuqoridagi baytda *vasl, valolig‘, ruxsor, niyoz, ajz* kabi arxaik so‘zlar ishlatilgan bo‘lib, bular tarjimada fransuzcha muqobillari bilan berilgan. Masalan, *vasl* – rencontre (vasl, uchrashuv, ko‘rishmoq[3]) shaklida, *ruxsor* – visage (yuz, raftor, aft[4]) shaklida, *valolig‘* – l’amour (sevgi, muhabbat, mehr[5]) shaklida tarjima qilingan. Bir baytning o‘zida beshta arxaik so‘z uchrayapti va ular tabdil asosida zamonaviy fransuz tiliga o‘z tarjima qilingan. Bu o‘z o‘rnida tarjimondan juda katta mahoratni talab qiladi.

// Gahe bexudlug‘imdin seskanib tutsam adab rasmi

Beliga chirmashurda shavqning ifroti chog‘inda.//

Qu’à l’apogée de ma joie je tressaille

Me risquant par galanterie à enlacer ta taille.

Xursandligim cho‘qqisida titrab ketaman,

Jasorat bilan tavakkal qilib, belingizni quchoqlab.

Bu baytda *bexudlig‘, ifrot* kabi arxaik so‘zlar ishlatilgan va bular erkin tarjima usulida fransuz tiliga tarjima qilingan. Jumladan, *bexudlug‘imdin* arxaizmi *l'apogée de ma joie* “shodligim cho‘qqisida” tarzida tarjima qilgan. Lug‘atda *apogée* so‘zi “eng yuksak pog‘ona, daraja, cho‘qqi” [6]; *joie* so‘zi “shodlik, quvonch, sevinch, rohat, farog‘at” [7] ma’nolarini ifodalashi ko‘rsatilgan.

Qachon davron manga bir buyla ishratni ravo ko‘rgay

Ki, o‘rgatmish meni o‘rtarg‘a hijron dardu dog‘inda.

Entre absence et douleur, le temps, m’a appris à souffrir...

Quel avenir me réserve une joie pareille?

Yo‘qlik va og‘riq o‘rtasida vaqt menga azob chekishni o‘rgatdi...

Kelajakda men uchun qanday quvonch bor?

G‘azalda ishlatilgan arxaizm va milliy xos so‘zlar: *vasl, valolig‘, niyoz, ajz, zanaxdon, boda, tarashshuh, ashk, siym, bexudlig‘, ifroti, usruk*.

Asliyatdagi *tarashshuh* – suyuqliqning sizib oqishi, biror yashirin narsaning oshkor bo‘lishi; *ashk* – ko‘z yoshi; *ajz* – ojizlik, notavonlik, zaiflik, kuchsizlik; *niyoz* – ehtiyoj, muhtojlik, yalinish, yolvorish, iltijo; *zanaxdon* – jag‘, iyak, saqoq; *vasl* – uchrashish, yetishish, qovushish; *volalig‘*– maftunlik, shaydolik, berilish; *ruxsor* – chehra yuz, bet; *boda* – sarxush qiluvchi ichimlik; *bexud* – o‘zidan ketgan, hushidan ketgan, aql-u hushini yo‘qotgan; *ifrot* – haddan oshish, chegaradan tashqariga chiqish; *usruk* – mast, sarxush; *siym* – kumush, tanga, pul kabilar dastlab zamonaviy o‘zbek tiliga tabdil qilinib, keyin fransuz tiliga tarjima qilingan. **Xulosa** o‘rnida shuni aytish mumkinki g‘azal kabi tarixiy asarlar tarjimasida ularni avval tabdil qilib, keyin boshqa tilga o‘tkazish eng to‘g‘ri yo‘l bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жуманиёзов З. Таржиманинг назарий ва амалий асослари . – Тошкент, 2018. – Б.38.
2. Kudrat Musayev .Tarjima nazariyasi- Toshkent 2000 , 21-24 bet.
3. Ганшина К.А. Французско-русский словарь. – Москва: Xorijiy va milliy lug‘tlar nashriyoti, 1962. – С.
4 . Ibragimov X. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz instituti, 2008. – B.580.
5. Aliqulov T. O‘zbekcha-fransuzcha lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – B.27.
6. Ibragimov X. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz instituti, 2008. – B.38.
7. Ibragimov X. Ko‘rsatilgan manba. – B.29

[3] Ганшина К.А. Французско-русский словарь. – Москва: Xorijiy va milliy lug‘tlar nashriyoti, 1962. – С.

[4] Ibragimov X. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz instituti, 2008. – B.580.

[5] Aliqulov T. O‘zbekcha-fransuzcha lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – B.27.

[6] Ibragimov X. Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz instituti, 2008. – B.38.

[7] Ibragimov X. Ko‘rsatilgan manba. – B.294.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 101:323.28

SOTSIOTERRORIZM VA UNGA QARSHI KURASHNING IJTIMOIY MEXANIZMLARI

Qurbonboyev Zafar Rustam o‘g‘li, Xorazm viloyati IIB TQX Terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi O‘MIB tezkor vakili, mayor



https://orcid.org/ my-orcid?orcid=0002-0954-3154
e-mail: zafarq@gmail.com

СОЦИОТЕРРОРИЗМ И СОЦИАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ БОРЬБЫ С НИМ

SOCIO-TERRORISM AND SOCIAL MECHANISMS FOR COUNTERING IT

Qurbonboyev Zafar Rustam ogli, Operational Representative (Senior Lieutenant), Department for Combating Terrorism, Public Security Service of the Ministry of Internal Affairs of Khorezm Region

СОЦИОТЕРРОРИЗМ И СОЦИАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ БОРЬБЫ С НИМ

Курбанбоев Зафар Рустам оглы, оперативный сотрудник (майор), Управление по борьбе с терроризмом, Служба общественной безопасности МВД Хорезмской области

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy jamiyatda xavfsizlikka tahdid solayotgan murakkab ijtimoiy fenomenlardan biri sifatida sotsioterrorizm masalasi ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda sotsioterrorizm tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy, axborot va mafkuraviy omillari hamda jamiyatga ko‘rsatadigan ta’sir mexanizmlari o‘rganilgan. Shuningdek, sotsioterrorizmning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, axborot-kommunikatsion va psixologik omillar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Sotsioterrorizm, terrorizm, ekstremizm, ijtimoiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy tarbiya, mafkuraviy profilaktika, mediasavodxonlik, ijtimoiy barqarorlik mexanizmlari, xalqaro hamkorlik, fuqarolik jamiyati institutlari.*

Abstract: *The article provides a scientific analysis of socio-terrorism as one of the complex social phenomena posing a threat to security in modern society. The study examines the essence and content of the concept of socio-terrorism, its social, informational, and ideological factors, as well as the mechanisms of its impact on society. Additionally, the socio-economic, information-communication, and psychological factors influencing the formation of socio-terrorism are analyzed.*

Keywords: *Socio-terrorism, terrorism, extremism, social security, information security, social stability, moral education, ideological prevention, media literacy, mechanisms of social stability, international cooperation, civil society institutions.*

Аннотация: *В статье проводится научный анализ социотерроризма как одного из сложных социальных явлений, представляющих угрозу безопасности в современном обществе. В исследовании рассматриваются сущность и содержание понятия социотерроризма, его социальные, информационные и идеологические факторы, а также механизмы его воздействия на общество. Кроме того, проанализированы социально-экономические, информационно-коммуникационные и психологические факторы, влияющие на формирование социотерроризма.*

Ключевые слова: *социотерроризм, терроризм, экстремизм, социальная безопасность, информационная безопасность, социальная стабильность, духовно-нравственное воспитание, идеологическая профилактика, медиаграмотность, механизмы социальной стабильности, международное сотрудничество, институты гражданского общества.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida terrorizm insoniyat xavfsizligiga tahdid soluvchi eng murakkab ijtimoiy muammolardan biriga aylandi. Bugungi kunda terrorizm nafaqat siyosiy yoki harbiy xarakterga ega xavf sifatida, balki jamiyat ongiga, ijtimoiy munosabatlarga va madaniy muhitga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy fenomen sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan qaraganda, terrorizmning yangi ko'rinishlaridan biri sifatida sotsioterrorizm tushunchasi ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rin egallamoqda.

Sotsioterrorizm tushunchasi jamiyatda qo'rquv, ishonchsizlik va ijtimoiy beqarorlik muhitini shakllantirish orqali ommaviy ongga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan destruktiv ijtimoiy ta'sir jarayonlarini anglatadi. Bu jarayonlarda asosiy maqsad aholi ongiga psixologik bosim o'tkazish, jamiyatdagi barqaror ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqarish va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirishdan iborat bo'ladi. Ayniqsa axborot texnologiyalarining keng tarqalishi sharoitida sotsioterrorizm turli axborot manipulyatsiyalari, dezinformatsiya va provokatsion materiallar orqali amalga oshirilishi mumkin. Terrorizmning ijtimoiy tabiatini o'rganishda bir qator xorijiy va mahalliy olimlar muhim ilmiy xulosalarga kelganlar. Masalan, amerikalik tadqiqotchi Bryus Hoffman terrorizmni siyosiy yoki mafkuraviy maqsadlarga erishish uchun jamiyatda qo'rquv muhitini yaratishga qaratilgan maxsus strategiya sifatida ta'riflaydi[1]. Bu ta'rif terrorizmning asosiy maqsadi jismoniy zarar yetkazishdan ko'ra ko'proq psixologik ta'sir ko'rsatish ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sotsioterrorizm aynan ommaviy ongga ta'sir o'tkazish mexanizmlari bilan bog'liq ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Sotsioterrorizmning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri ijtimoiy-iqtisodiy muammolardir. Jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy muammolar, ishsizlik darajasining yuqori bo'lishi ayrim aholi qatlamlarida norozilik kayfiyatini kuchaytirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda radikal g'oyalar va destruktiv mafkuralar oson tarqalishi mumkin. Shuning uchun terrorizmga qarshi kurashishda ijtimoiy adolat va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Sotsioterrorizmning yana bir muhim omili axborot muhiti bilan bog'liq. Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlar turli mafkuraviy ta'sir vositalariga aylanib bormoqda. Ba'zi hollarda destruktiv kuchlar ushbu imkoniyatlardan foydalanib, yoshlar ongiga radikal g'oyalarni singdirishga harakat qiladilar. Nemis sotsiologi Ulrix Bek global xavflar nazariyasida zamonaviy jamiyatda xavflar chegara bilmasligini va axborot muhiti orqali tez tarqalishini ta'kidlaydi[2]. Bu fikrlar sotsioterrorizmning axborot makonida namoyon bo'lish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sotsioterrorizmni tushunishda ijtimoiy-psixologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa yoshlar orasida ijtimoiy identifikatsiya muammolari, ma'naviy bo'shliq va hayot maqsadlarining noaniqligi ayrim hollarda destruktiv g'oyalarga moyillikni kuchaytirishi mumkin. Bunday vaziyatlarda shaxs o'zini jamiyatdan ajralgan holda his qiladi va radikal guruhlar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Shu sababli yoshlar tarbiyasida ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati va milliy o'zlikni anglash masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. O'zbekistonda ham terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish va jamiyatda bag'rikenglik muhitini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonlik tadqiqotchilar ta'kidlashicha, ekstremizm va terrorizmning oldini olishda eng muhim omillardan biri - jamiyatda barqaror ma'naviy muhitni shakllantirishdir [3] . Sotsioterrorizmga qarshi kurashishda ijtimoiy mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunday mexanizmlar, avvalo, profilaktik xarakterga ega bo'lishi lozim. Chunki terrorizmning oldini olish uning oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra samaraliroq hisoblanadi.

[1] Hoffman B. **Inside Terrorism.** New York: Columbia University Press, 2006. - p. 41.
[2] Beck U. **World at Risk.** Cambridge: Polity Press, 2009. – p. 78.
[3] Носиров Қ. **Терроризм ва экстремизмга қарши кураш масалалари.** – Тошкент: Академия, 2018. – 56-бет.

Birinchidan, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tizimini rivojlantirish sotsioterrorizmga qarshi kurashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda milliy qadriyatlar, madaniy meros va ma’naviy an’analarni targ‘ib qilish orqali yoshlarda destruktiv g‘oyalarga nisbatan immunitet shakllantirish mumkin. Ayniqsa ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiya va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ta’lim tizimi jamiyatning intellektual va ma’naviy immunitetini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim jarayonida mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki yoshlar axborot oqimini tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo‘lsalar, turli manipulyatsiya va dezinformatsiya ta’siriga tushish ehtimoli kamayadi.

Uchinchidan, axborot xavfsizligini ta’minlash ham sotsioterrorizmga qarshi kurashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot makonida feyk xabarlar, provokatsion materiallar va radikal g‘oyalarni tarqatishga qarshi samarali axborot siyosati yuritish zarur. Bu borada ommaviy axborot vositalari va davlat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta’minlash terrorizmga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla instituti, jamoat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari aholi o‘rtasida profilaktik ishlar olib borishda katta imkoniyatlarga ega. Ularning faoliyati jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik olimlar ta’kidlashicha, jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki butun jamiyatning umumiy mas’uliyati hisoblanadi[4]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, terrorizmga qarshi kurashishda davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsioterrorizmga qarshi kurashishda samarali natijalarga erishish uchun kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi. Bu jarayonda jamiyatning barcha institutlari, davlat boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, sotsioterrorizmga qarshi kurashishda strategik yo‘nalishlarni aniq belgilash va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur. Bunday strategik yo‘nalishlar jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, axborot xavfsizligini mustahkamlash, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi muhim sohalarni qamrab oladi.

Avvalo, sotsioterrorizmga qarshi kurashishning birinchi strategik yo‘nalishi sifatida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash alohida ahamiyatga ega. Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va aholi farovonligini oshirish terrorizmning ijtimoiy ildizlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, iqtisodiy muammolar va ijtimoiy adolatsizlik ayrim hollarda aholi o‘rtasida norozilik kayfiyatini kuchaytirishi mumkin. Bunday vaziyatlar esa radikal g‘oyalar tarqalishi uchun qulay ijtimoiy muhitni shakllantirishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli davlat siyosatida aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash, bandlik darajasini oshirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar terrorizmning ijtimoiy sabablarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Ijtimoiy barqarorlik jamiyatda ishonch va hamjihatlik muhitini shakllantirib, ekstremistik va destruktiv g‘oyalarning tarqalish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Sotsioterrorizmga qarshi kurashishning ikkinchi muhim strategik yo‘nalishi - axborot xavfsizligini ta’minlashdir. Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot almashinuvining asosiy vositasiga aylandi. Shu bilan birga, bu muhit turli destruktiv mafkuralarni tarqatish uchun ham foydalanilishi mumkin. Radikal guruhlar ayrim hollarda internet platformalari orqali yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatishga, ularni ekstremistik g‘oyalarga jalb qilishga harakat qiladilar. Shuning uchun axborot makonida radikal targ‘ibot, dezinformatsiya va provokatsion materiallarga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb

[4] Абдураҳмонов Қ. **Глобаллашув шароитида миллий хавфсизлик.** – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 112-бет.

etadi. Axborot xavfsizligini ta’minlash faqat texnik yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu jarayonda aholining mediasavodxonligini oshirish, axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish va jamiyatda axborot madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday chora-tadbirlar fuqarolarni turli axborot manipulyatsiyalaridan himoya qilishga yordam beradi. Sotsioterrorizmga qarshi kurashishning uchinchi strategik yo‘nalishi - ma’naviy tarbiya va mafkuraviy profilaktikani kuchaytirishdir. Jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash terrorizmga qarshi kurashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlar, madaniy meros va ma’naviy an’analarni targ‘ib qilish orqali yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mumkin. Ayniqsa yosh avlod tarbiyasida bag‘rikenglik, insonparvarlik va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, madaniy merosni o‘rganish va milliy an’analarni targ‘ib qilish yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini boyitadi. Natijada ular turli destruktiv g‘oyalarga nisbatan barqaror immunitetga ega bo‘ladilar. Mafkuraviy profilaktika nafaqat ekstremizmning oldini olish, balki jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa sotsioterrorizm zamonaviy jamiyat uchun jiddiy xavflardan biri hisoblanadi. U faqat zo‘ravonlik harakatlari bilan emas, balki ijtimoiy muhitga psixologik ta’sir ko‘rsatish orqali ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli sotsioterrorizmga qarshi kurashish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda ma’naviy tarbiya, ta’lim tizimini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash kabi ijtimoiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hoffman B. Inside Terrorism**.** New York: Columbia University Press, 2006. - p. 41.
2. Beck U. World at Risk. Cambridge: Polity Press, 2009. – p. 78.
3. Носиров Қ. Терроризм ва экстремизмга қарши кураш масалалари. – Тошкент: Академия, 2018. – 56-бет.
4. Абдураҳмонов Қ. Глобаллашув шароитида миллий хавфсизлик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 112-бет.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.85:97.38

Ilmiy rahbar: Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna,
f.f.d.(DSc), BDU "Ingliz tilshunosligi" kafedrasi professori

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BUYRUQ MAYLINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Ibragimova Munojjot Anvar qizi, BDU ingliz tilshunosligi 2-kurs magistranti

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF IMPERATIVE MOOD IN UZBEK AND ENGLISH

Ibragimova Munojjot Anvar qizi, 2nd year master student of English linguistics in BSU

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ПОВЕЛИТЕЛЬНОГО НАКЛОНЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Ибрагимова Муножот Анваровна, магистрант 2-курса кафедры английского языкознания БГУ



https://orcid.org/0009-0003-2358-5793
e-mail: ibragimovamunojot940@gmail.com

***Annotatsiya**: Biz ushbu maqolada lingvomadaniy tahlilning asosiy jihatlarini o'zbek va ingliz tillarida tushunish bilan birga ko'rsatishga harakat qildik. Madaniyatning odamlarning kognitiv tushunchasiga ta'siri ularning madaniyatiga qarab qanday o'zgarishi, ikkala tilda buyruq maylini tushuntirish ham muhokama qilinadi. O'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi qanday farqlar mayl atamalarini, xususan, buyruq maylini ko'rsatishini yoritib beradi.*

***Tayanch iboralar:** buyruq mayli, mayl kategoriyasi, lingvomadaniyat, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniyat tahlili.*

***Annotation:** in this article, we tried to illustrate main points of linguocultural analysis along with their understanding in Uzbek and English languages. How culture influences on people's cognitive understanding changes according to their culture, explanation of imperative mood in both given languages are being discussed also. What differences between Uzbek and English languages carry terms of moods, especially, imperative is further described.*

***Key words:** imperative mood, mood category,linguoculture, cognitive linguistics,linguocultureme, linguocultural analysis.*

***Аннотация:** в данной статье мы постарались проиллюстрировать основные положения лингвокультурологического анализа вместе с их пониманием на узбекском и английском языках. Как культура влияет на когнитивное понимание людей, меняется в зависимости от их культуры, также обсуждается объяснение повелительного наклонения в обоих языках. Какие различия между узбекским и английским языками несут в себе термины наклонений, особенно повелительное наклонение, описано далее.*

***Ключевые слова:** повелительное наклонение, категория наклонения, лингвокультура, когнитивная лингвистика, лингвокультурма, лингвокультурный анализ.*

Introduction. By the beginning of the 21st century, linguoculturology has become one of the leading disciplines in world linguistics. Linguoculturology is the study of language as a

cultural phenomenon, in which interrelated language and culture are the subject. In particular, VN Telia writes: “Linguoculturology is a science that studies the human, more precisely, the cultural factor in man. This means that the Center for Linguoculturology is a set of achievements inherent in the anthropological paradigm of man as a cultural phenomenon”. According to GG Slishkin, “Linguoculturology focuses on the human factor, more precisely, the cultural factor in man. The fact that the center of linguoculturology consists of a cultural phenomenon indicates that the science of man belongs to an anthropological paradigm.” Although there is a consensus on the object of study of linguoculturology, there are some controversial views. For example, according to V.N. Telia, linguoculturology studies only the synchronous connection of language and culture. V.A. Maslova believes that this field studies the language both synchronously and diachronically. V.N.Telia also emphasizes that the object of linguoculturology is universal, while V.A.Maslova emphasizes the need to study the linguocultural features of the language of a particular people or fraternal peoples. One of the challenges is that a number of training manuals have been developed in this regard. Linguists admit that the most famous of them is the textbook created by V.A. Maslova. This textbook describes the methods, object and subject, directions in the field of linguoculturology, examples of linguoculturological analysis of a particular language unit.

Methods. It is known that sentences expressing command, request, advice, etc. are called command sentences: Эҳтиёт бўл! Кўзингга қараб қадам бос! (Be careful! Keep an eye out!) Imperative sentences express such meanings as command, advice, request, anger, and annoyance.The participle of an imperative sentence is usually expressed in the imperative case. In the center of the sentence will be a listener. That is why the participle of such sentences is expressed by the second person form of the imperative mood. Sometimes the part of the imperative sentence is expressed by the first and third-person forms of the imperative mood. For example, Бир ёқадан бош чиқариб ишлайлик! Куй чалинсин! Қўшиқлар янграсин! (Let’s work together! Let the tune play! Let the songs play!)

Results. When the content of the sentence differentiates command, anger, and irritation, the tone is correspondingly strong. An exclamation point is placed at the end of the sentence. If the meaning of advice or request is in the foreground, the tone is weak and close to the intonation. A full stop is placed at the end of such sentences. Imperative devices have a very wide range of expressive possibilities: depending on the purpose and desire of the speaker or the owner of the speech, a certain idea can be conveyed to the listener in the form of a command, request, advice, or other forms. Research, result, and discussion. Regarding the expression of command and desire, O.G. Belyaeva, M.Ya. Bloch, A.V. Doroshenko, L.P. Chakhoyan, J. Lyons, and their supporters conducted serious functional-semantic analyses. As a result, it was possible to identify different semantic types of imperative sentences and to study their thematic-rhematic relations. In the literary text, there is a close semantic-functional and pragmatic connection between the speech of the characters in the imperative content and the author’s statement, because they are interconnected based on one communicative task. At this point, it can be said that imperativeness exists as a possibility in language. Specific linguistic mechanisms are used to translate them into speech. Such devices are formed in each language based on national culture. Imperative devices have a very wide range in the Uzbek language: according to the purpose and desire of the speaker or the owner of the speech, a certain opinion is expressed in the form of an order, request, advice, recommendation, encouragement, or other forms. The listener understands the thought to be expressed not according to its form, but according to its content. This sometimes creates misunderstandings in communication.

Discussion. The emphasis on the concept of the imperative situation by linguists is significant because it is related to the solution to the same problem. In the rapidly developing Uzbek

linguistics, it is necessary to research similar phenomena using the achievements of modern linguistics. It means the set of achievements (cultural history, Uzbek culture). After that, the learning problems of speech culture are different, the object of study of linguistic and cultural studies is completely different.

Imperative-Subjunctive mood of Uzbek language.

Imperative subjunctive mood expresses command, and desire, urge, please in the process of performing an action.For example*: Listen carefully to what your father says!*

Please, pay attention to next exercise! Addressing to the second person of the imperative-subjunctive mood means a firm command: For example: *Are you ready?* So, take the load into a lorry. It refers to ask positive request, to please, and to urge. *We will be on the way to Fergana. Let my mother know about it.* Addressing to the third person of the imperative-subjunctive mood basically means the real command, as well as when it is said in a calm tone, it expresses please and urge like:

Do not hurry, let them come out;
Let's take a break.

Conclusion. Linguoculturology studies the interaction of language and culture, links our knowledge of language to our knowledge of man – a native speaker and the specific features of reflection of culturally significant phenomena in his/her consciousness and linguistic competence .Unlike the approach of country-through-language studies, addressed mainly at description of semantic characteristics of culturally marked vocabulary and provision for encyclopedic information about it a linguoculturological analysis is also intended to demonstrate some specific features of functioning the given vocabulary in language and speech, these features being determined by the content of vocabulary units.

References:

1.Khrakovsky V.S., Volodin A.P. Semantics and typology of the imperative: Russian imperative. - Leningrad: Nauka, 1986. -270 p.

2.Allayorov Tulkin Ruzikulovich, Baymirov Kayum Shayimovich. Lingupoetic Features Of Imperative Devices Used In Literary Texts In The Uzbek Language. 2022.

3.Vakhobova Dilnavo Farkhodovna, Mirzayeva Dilshoda. Linguocultural Study Of The Term "Food" In English And Uzbek Languages. Jan-2023ISSN: 2181-2624

4.K.N.Abdilkadimovna. Comparative And Linguocultural Analysis Of The Concept "Gender" In Uzbek And English Languages The American Journal of Social Science, 2021.

5.Imomov, Elyor Abdikarimovich (2022). Linguocultural Study Of Vocabulary Describing Professional Terms In The English And Uzbek Languages. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (5), 1140-1144.

6.Akhmedovna, I. J., & Sodikovna, G. K. (2021). Problems of linguo-cultural analysis of phraseological units in the French and Uzbek languages. Linguistics and Culture Review, *5*(S2), 1291-1307.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 349.6:502.7(575.172)

QONUN VA AMALIYOT: JANUBIY OROLBO‘YIDA SAKSOVULDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLISHDAGI HUQUQIY BO‘SHLIQLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Jiyenbayev Berdax Kalbay o‘g‘li, Qoraqalpoq Davlat Universiteti doktoranti



https://orcid.org/0009-0002 6178-2977

e-mail: berdakh.jienbaev@bk.

LAW AND PRACTICE: LEGAL GAPS IN THE REGULATION OF SAXAUL USE IN THE SOUTHERN ARAL SEA REGION AND WAYS TO ELIMINATE THEM

Berdakh Jienbaev Kalbay ugli, Doctoral student of Karakalpak State University

ЗАКОН И ПРАКТИКА: ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В РЕГУЛИРОВАНИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ САКСАУЛА В ЮЖНОМ ПРИАРАЛЬЕ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Бердах Жиенбаев Калбай оглы, докторант Каракалпакского государственного университета

Annotatsiya*: Ushbu maqola Janubiy Orol dengizi hududida saksovuldan foydalanishning huquqiy tartibga solish muammolarini batafsil o‘rganadi. Maqolada ekologik muvozanat, cho‘llanishni yumshatish va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish bo‘yicha amaldagi tartibga solish tizimi tahlil qilinadi. Amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklar, jumladan, saksovulni yig‘ish, tiklash, himoya qilish va tijorat maqsadlarida foydalanish jarayonlarining yetarli darajada tashkil etilmaganligi asosli. Mintaqaviy xususiyatlarni o‘z ichiga olgan samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish zarurati ilmiy jihatdan ta’kidlangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, huquqiy nazoratni kuchaytirish, institutsional strategiyalarni mustahkamlash va ekologik xavfsizlikni kafolatlash uchun maqsadli g‘oyalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: saksovul, Janubiy Orolbo‘yi, ekologik xavfsizlik, huquqiy tartibga solish, tabiiy resurslar, cho‘llanish, normativ-huquqiy baza, ekologik muhofaza, barqaror rivojlanish.*

Abstract*: This article provides a comprehensive analysis of the legal regulation issues concerning the use of saxaul in the Southern Aral Sea region. The study examines the existing regulatory framework in the context of maintaining ecological balance, mitigating desertification processes, and ensuring the sustainable use of natural resources. It identifies significant shortcomings in current legislation, particularly the insufficient regulation of saxaul harvesting, restoration, protection, and its commercial utilization. The research emphasizes the scientific necessity of introducing effective management systems that take into account regional specificities. Based on the findings, targeted proposals and recommendations have been developed to strengthen legal oversight, enhance institutional strategies, and ensure environmental security.*

Keywords: *saxaul, Southern Aral Sea region, environmental security, legal regulation, natural resources, desertification, regulatory framework, environmental protection, sustainable development.*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматриваются проблемы правового регулирования использования саксаула в регионе Южного Приаралья. В работе анализируется действующая система регулирования в контексте обеспечения экологического баланса, смягчения процессов опустынивания и рационального использования природных ресурсов. Обоснованно выявляются*

недостатки действующего законодательства, в частности, недостаточная регламентация процессов заготовки, восстановления, охраны и коммерческого использования саксаула. Подчёркивается научная необходимость внедрения эффективных систем управления с учётом региональных особенностей. На основе результатов исследования разработаны целевые предложения и рекомендации, направленные на усиление правового контроля, совершенствование институциональных стратегий и обеспечение экологической безопасности.

***Ключевые слова**: саксаул, Южное Приаралье, экологическая безопасность, правовое регулирование, природные ресурсы, опустынивание, нормативно-правовая база, экологическая защита, устойчивое развитие.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). So‘nggi yillarda global ekologik muammolar, xususan, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish va yerlarning degradatsiyasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muhim ilmiy va amaliy muammoga aylandi. Bu tadbirlar, ayniqsa, Orol dengizi mintaqasida yaqqol ko‘rinib, hududning ekologik holatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Janubiy Orol dengizi hududida saksovul ekologik barqarorlikka hissa qo‘shadigan asosiy element sifatida juda muhimdir. U tuproq eroziyasini yumshatish, qumning ko‘chishini kamaytirish va mikroiqlimni barqarorlashtirish uchun juda muhimdir. Saksovuldan tijorat maqsadlarida, ayniqsa yoqilg‘i sifatida keng foydalanish uning tabiiy zaxiralarining kamayib ketishiga olib kelmoqda. Bu holat saksovul resurslarini himoya qilish va ularni aniq qonunchilik asoslari orqali boshqarishni talab qiladi. Mavjud tartibga solish va qonunchilik asoslari ushbu sohada boshqaruv uchun asos yaratsa-da, ularning samaradorligi yetarli emasligicha qolmoqda. Saksovulni kamaytirish, uni tiklash, monitoring tizimi va aniq javobgarlik tartiblari bilan bog‘liq vazifalar yetarlicha o‘rnatilmagan [Ahmedov, K., 2021; 112–125-b].

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy resurslardan foydalanishga oid huquqiy noaniqliklar ko‘pincha ularning tartibga solinmagan ishlatilishiga olib keladi. Shuning uchun bu ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Janubiy Orol dengizidagi vaziyat bu muammoni yanada og‘irlashtirmoqda, natijada ham ekologik, ham ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Natijada, saksovuldan foydalanishni qonuniy nazorat qilish, zamonaviy boshqaruv strategiyalarini amalga oshirish va jahon amaliyotini hisobga olish muhim ilmiy ishdir.

Ushbu maqola Janubiy Orol dengizida saksovuldan foydalanishni nazorat qilishdagi mavjud huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash, ularning manbalari va oqibatlarini ilmiy tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha g‘oyalar va tavsiyalar berishga qaratilgan. Tadqiqot tizimli tahlil, qiyosiy huquqiy yondashuv, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraktsiya yondashuvlarini o‘z ichiga olgan. Saksovuldan foydalanishni qonuniy tartibga solishni har tomonlama ilmiy tekshirish va amaliy takliflarni shakllantirish Janubiy Orol dengizi hududidagi ekologik sharoitlarni yaxshilash uchun juda muhimdir [Bekmurodov, Sh., 2020; 87–101-b].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /LITERATURE REVIEW). Ushbu tadqiqot Janubiy Orol dengizi hududida saksovullardan foydalanishni huquqiy nazorat qilishni o‘rganish uchun ekologiya, huquq, iqtisodiyot va tabiiy resurslarni boshqarish sohalaridagi zamonaviy ilmiy adabiyotlarni chuqur o‘rganishni amalga oshirdi. Tadqiqotda hozirgi nazariy nuqtai nazarlar va amaliy metodologiyalar chuqur o‘rganildi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va farqlarini aniqladi.

Dastlab, ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan foydalanishga oid ilmiy materiallar ushbu ishning nazariy asosiga sezilarli hissa qo‘shdi. Xususan, ekologik muvozanat va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tushunchalarini chuqur o‘rgangan tadqiqotlar saksovulning ekologik tizimdagi rolini aniqladi. Ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar tabiiy resurslarni boshqarishda barqarorlik, uzluksizlik va qayta tiklanish tushunchalariga rioya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar ekologik qonunlarni yaratish, ishlab chiqish va qo‘llash masalalariga qaratilgan. Tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy standartlarning aniqligi va ularni amalga oshirish mexanizmlarining mavjudligi ekologik barqarorlikka bevosita ta’sir qiladi. Shu bilan birga, huquqiy tartibga solishdagi kamchiliklar va bo‘shliqlar ekologik muammolarni yanada kuchaytirishi mumkinligi ta’kidlangan [Ergashev, A., 2022; 56–72-b].

Cho‘llanish jarayonlari va ularni boshqarish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar Janubiy Orol dengizi hududidagi tabiiy sharoitlarni chuqurroq tushunishga yordam berdi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson ta’siri, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarni noto‘g‘ri boshqarish cho‘llanishning asosiy omillari hisoblanadi. Saksovul o‘simligi bu jarayonlarni yumshatish uchun muhim biologik vosita hisoblanadi. Natijada, saksovul o‘rmonlarini saqlash va ko‘paytirish ekologik siyosatning muhim elementi hisoblanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi iqtisodiy jarayonlar bo‘yicha tadqiqotlar ushbu jarayonni optimal boshqarish uchun iqtisodiy rag‘batlantirishdan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Resurslardan foydalanish uchun iqtisodiy rag‘batlantirishni kuchaytirish ularni saqlashga yordam berishi alohida ta’kidlangan. Ushbu metodologiya saksovuldan foydalanish sohasida ham qo‘llanilishi mumkin, bu noqonuniy kesishni kamaytirishga va tiklash ishlarini rag‘batlantirishga yordam beradi. Orol dengizi hududida ekologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha tadqiqotlar hududiy strategiya zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu tadqiqotlar mahalliy sharoitlarni hisobga olish, hududiy strategiyalarni ishlab chiqish va atrof-muhit muammolarini hal qilishda aholini ekologik jarayonlarga jalb qilish zarurligini ta’kidlaydi. Bu usul saksovuldan foydalanishni boshqarishda ham juda muhimdir.

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar saksovuldan foydalanishni nazorat qilish fanlararo yondashuvni talab qilishini ko‘rsatadi. Ekologik, huquqiy va iqtisodiy jihatlarni birlashtirgan kompleks boshqaruv tizimi juda muhimdir. Shu bilan birga, hozirgi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu sohada hal qilinmagan muammolar mavjud. Saksovul resurslarini boshqarish uchun qonunchilik asoslarining yetarlicha yaratilmaganligi va ularning amalda sust amalga oshirilishi jiddiy muammo hisoblanadi [Ismoilov, B., 2021; 134–149-b].

O‘zbekiston Respublikasi Qoraqalpog‘istonda munitsipal darajada "yashil zonalar"ni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Qurg‘oqchil dengiz tubining keng hududlarida saksovul va cho‘l muhitiga mos boshqa o‘simliklar yetishtirilmoqda. Ushbu protsedura tuproq yaxlitligini oshirish, chang bo‘ronlarini yumshatish va biologik muhitni barqarorlashtirish uchun juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, saksovul 2019-yildan 2023-yilgacha qariyb 1,5 million gektar maydonda yetishtirilgani aytiladi. Shunga qaramay, Orol dengizi muammosini hal qilish faqat mahalliy aralashuvlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, samarali natijalarga erishish uchun uchta asosiy sohada murakkab strategiyalar zarur: birinchidan, suv resurslarini saqlash va ularni adolatli taqsimlash bo‘yicha mintaqaviy kelishuvlar; ikkinchidan, o‘rmonzorlarni barpo etish va suv tizimlarini qisman tiklashni o‘z ichiga olgan ekologik tiklash tashabbuslari; uchinchidan, aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash orqali migratsiya va sog‘liqni saqlash muammolarini yumshatish (Glantz, 1999; BMTTD, 2010). Xulosa qilib aytganda, Orol dengizi inqirozini hal qilish uchun global hamkorlik va mintaqaviy birlik juda muhimdir. Orol muammosi global ekanligini inobatga olgan holda, qo‘shni davlatlar bilan saksovulzorlarni saqlash bo‘yicha transchegaraviy ekologik shartnoma va bitimlar loyihalarini ishlab chiqish zarur. Shimoliy Orol dengizi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dengiz asosan, agar to‘liq bo‘lmasa ham, tiklanishi mumkin. Shu bilan birga, qurg‘oqchil dengiz tubini tiklash, ekologik innovatsiyalarni joriy etish va aholining hayot sifatini yaxshilash Orol dengizi hududida barqaror rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari bo‘lishi kerak. Orol dengizining kamayishi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy pasayish butun hudud uchun jiddiy falokatga olib keldi. Baliqchilik sohasining to‘xtatilishi minglab odamlarni ishsiz qoldirdi, bu esa Mo‘ynoq va Aralsk kabi bir qancha qirg‘oqbo‘yi jamoalarida iqtisodiy tanazzulga olib keldi. Sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlanish va eroziya kuchaydi, ishlab chiqarish esa kamaydi. Qoraqalpog‘iston va Xorazm hududlarida paxta va g‘alla yetishtirish 20-30 foizga kamaydi (Mo‘minov, 1998). Aholi salomatligiga ta’sirini mustaqil ravishda tan olish kerak. Atmosferada tuz va kimyoviy moddalarning yuqori konsentratsiyasi bronxit, astma, sil va allergiya kasalliklari kabi nafas olish yo‘llari kasalliklarini kuchaytirdi. Bu muammolar ekologik falokatning inson salomatligiga bevosita ta’sirini aniq ko‘rsatib turibdi. Orol dengizi fojiasi nafaqat tabiiy muhitdagi o‘zgarishni, balki mintaqaning iqlimi, iqtisodiy faoliyati, ijtimoiy dinamikasi va aholi salomatligiga

chuqur ta’sir ko‘rsatgan ko‘p qirrali hodisani ham anglatadi [Karimov, D., 2023; 98–115-b].

Ushbu tadqiqot qat’iy va to‘liq texnikadan foydalanadi. Tadqiqot yondashuvida ham umumiy ilmiy, ham ixtisoslashgan ilmiy metodologiyalar qo‘llanilgan. Saksovuldan yaxlit tizim sifatida foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni o‘rganish uchun tizimli tahlil yondashuvi qo‘llanildi. Ushbu usul huquqiy tartibga solishning asosiy jihatlarini, ularning o‘zaro bog‘liqligini va ta’sir jarayonlarini aniqladi. Milliy qonunchilik qoidalari boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslab tahlil qilindi. Bu saksovuldan foydalanishni nazorat qilishning samarali strategiyalarini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, mantiqiy umumlashtirish yondashuvi bilan tahlil qilingan ma’lumotlardan ilmiy xulosalar chiqarildi.

Empirik tahlil elementlari tadqiqotga sezilarli hissa qo‘shdi. Tadqiqotda amaldagi me’yoriy va qonunchilik matnlari, rasmiy statistika ma’lumotlari va amaliy tajriba o‘rganildi. Bu nazariy natijalarni empirik ma’lumotlar bilan mustahkamlash imkonini berdi. Shu bilan birga, ilmiy abstraktsiya yondashuvi muayyan holatlarni umumlashtirish va ularning asosiy naqshlarini aniqlash uchun qo‘llanildi. Bu saksovuldan foydalanishni tartibga solish uchun umumiy standartlarni belgilashga qaratilgan edi.nTadqiqot jarayonining yana bir muhim elementi ko‘p tarmoqli yondashuvdir. Tadqiqot ekologiya, huquq va iqtisodiyotning yaqinlashuvida amalga oshirildi. Bu muammoni keng ko‘lamda o‘rganish va ishonchli ilmiy natijalarga erishish imkonini berdi [Mamatov, N., 2020; 45–60-b].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ushbu tadqiqot natijalari Janubiy Orol dengizi hududida saksovullardan foydalanishni huquqiy boshqarish murakkab va ko‘p qirrali ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ushbu sohadagi masalalar ekologik va huquqiy doiralardan tashqariga chiqadi, iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy o‘zgaruvchilar bilan chambarchas bog‘liq. Natijada, munozarada keltirilgan natijalarni kengroq doirada baholash juda muhimdir. Hozirgi vaqtda saksovul resurslaridan foydalanish ko‘pincha tijorat bilan bog‘liq muammolar bilan bog‘liq. Bu uzoq muddatli ekologik barqarorlikka xavf tug‘diradigan omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, ekologik muammolar va iqtisodiy talablar o‘rtasidagi muvozanatga erishish muhokamaning asosiy muammosi hisoblanadi [Nazarov, U., 2022; 73–89-b].

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, amaldagi tartibga solish tuzilmasi bir-biridan ajratilgan. Saksovuldan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar ko‘plab tartibga solish qoidalari bilan tartibga solinadi va ular o‘rtasida tizimli izchillik yetarli emas. Bu holat amalda turli xil talqinlarga va ba’zi hollarda huquqiy noaniqliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Natijada, saksovul resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq nazorat yomonlashdi va noqonuniy faoliyat ko‘paydi. Munozara natijalari shuni ko‘rsatadiki, shunchaki huquqiy standartlarning mavjudligi ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini kafolatlamaydi. Aksincha, ushbu tamoyillarning amalda bajarilishi, shu jumladan ularni amalga oshirish usullari juda muhimdir. Asosiy muammolar monitoring tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, nazorat tashkilotlari o‘rtasida vakolatlarning noaniq taqsimlanishi va javobgarlik choralarining cheklangan samaradorligidir. Munozarada noqonuniy daraxt kesish holatlariga nisbatan qo‘llaniladigan jazolarning yetarlicha profilaktik ta’siri yo‘qligi ta’kidlandi.

Tadqiqot natijalari saksovullardan foydalanishni tartibga solishda hududiy strategiyaning ahamiyatini ta’kidlaydi. Janubiy Orol dengizi mintaqasi o‘zining tabiiy va iqlim xususiyatlari bo‘yicha boshqa hududlardan sezilarli darajada farq qiladi. Natijada, bu sohada umumiy tartibga solish choralarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirish kutilgan natijani doimiy ravishda bermaydi.

Bu geografik farqlarni hisobga oladigan ixtisoslashgan tartibga solish tizimlarini shakllantirishni talab qiladi.

Munozaralar davomida xorijiy tajriba masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Ko‘pgina mamlakatlarda qurg‘oqchil mintaqalarda o‘rmon resurslarini boshqarish uchun qo‘llaniladigan strategiyalar saksovullardan foydalanishni tartibga solish uchun muhim model bo‘lishi mumkin. Xususan, bir qator mamlakatlarda jamoatchilik ishtiroki, ekologik to‘lovlar va kompensatsiya mexanizmlarini o‘z ichiga olgan boshqaruv usullari yaxshi natijalar bermoqda. Ushbu tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish mavjud muammolarni hal qilish salohiyatini oshiradi [Rasulov, M., 2021; 120–136-b].

Tadqiqot natijalariga asoslanib, muhokama qilinayotgan yana bir muhim mavzu saksovul o‘rmonlarini tiklash va kengaytirishdir. Qayta tiklash ishlari davom etayotganiga qaramay, ularning kengligi va samaradorligi yetarli emas deb hisoblanadi. Bu, birinchidan, cheklangan moliyaviy resurslar, ikkinchidan, boshqaruv tizimidagi kamchiliklar bilan bog‘liq. Natijada, suhbatda saksovul o‘rmonlarini tiklash jarayonini ilmiy asoslangan agrotexnik amaliyotlardan foydalangan holda va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda metodik ravishda tuzish zarurligi ta’kidlandi. Atrof-muhit siyosati nuqtai nazaridan, saksovuldan foydalanishni nazorat qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralishi kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik siyosatning samaradorligi asosan uni amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan usullarga bog‘liq. Natijada, suhbatda ekologik siyosatni takomillashtirish, uning asosiy tarmoqlarini belgilash va uning amaliy bajarilishini mustahkamlash zarurligi asoslandi.

Bundan tashqari, saksovuldan foydalanishda jamoatchilikning ishtirokini osonlashtirish muhim jihat sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalliy jamoalarning ekologik tashabbuslarda faol ishtiroki resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va jinoiy harakatlarni kamaytiradi. Natijada, nutqda ekologik ta’lim va xabardorlikni oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy etish va aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish masalalari ham muhokama qilindi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, saksovullardan foydalanishni huquqiy nazorat qilish keng qamrovli strategiyaga muhtoj. Muvaffaqiyatli boshqaruv tizimi ekologik, huquqiy, iqtisodiy va institutsional muammolarni birlashtirishi kerak. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal qilish uchun yangi metodologiyalardan foydalanish, global amaliyotlarni o‘rganish va ularni ichki sharoitlarga moslashtirish juda muhimdir. Ushbu tadqiqotdan olingan ilmiy topilmalar va tavsiyalar saksovul resurslarini himoya qilish va ulardan barqaror foydalanishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy strategiyalarni shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ushbu tadqiqot Janubiy Orol dengizi hududida saksovuldan foydalanishni huquqiy tartibga solishning hozirgi holatini har tomonlama yoritib berdi. To‘plangan ma’lumotlar bizga saksovul resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy sohalarni aniqlash, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va institutsional o‘lchovlarni birlashtirish imkonini berdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, saksovul resurslarining kamayishi hududning ekologik barqarorligiga bevosita xavf tug‘diradi va jiddiy ekologik falokatning oldini olish choralarini tezlashtirish zarurligini ta’kidlaydi [Saidov, H., 2023; 64–80-b].

Tadqiqotda saksovuldan foydalanishga huquqiy nuqtai nazardan nisbatan tartibga solishdagi kamchiliklar ta’kidlangan. Amaldagi qonun saksovul resurslarini tartibga solish va saqlashning asosiy tushunchalarini bayon qiladi; ammo uning amalda qo‘llanilishi yetarlicha samarali emas. Saksovulni kesish va tiklash usullari, monitoring tizimi va hisobdorlik choralari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Natijada, hududda noqonuniy daraxt kesish va resurslardan ortiqcha foydalanish holatlari ko‘payganligi kuzatildi. Bunda saksovulzorlarga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud yoki strategik ekologik resurs maqomini beruvchi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi zarur.

Tadqiqot shuningdek, saksovul o‘rmonlarini ta’mirlash va kengaytirish bilan bog‘liq amaliy muammolarni aniqladi. Qayta tiklash ishlari davom etayotganiga qaramay, ularning samaradorligi yetarli emas, bu esa resurslarni tiklashning tabiiy jarayonlariga to‘sqinlik qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ilmiy asoslangan agrotexnik choralar va yangi texnologiyalardan foydalanish, mahalliy aholini jalb qilish bilan birga, resurslarni tejash va barqaror boshqarish uchun zarur deb hisoblanadi. Raqamli kuzatuv va ilg‘or texnologiyalar saksovul resurslarini boshqarish samaradorligini oshiradi. Masofaviy zondlash, sun’iy yo‘ldosh kuzatuvlari va geografik axborot tizimlari resurslar holatini real vaqt rejimida monitoring qilishni ta’minlaydi. Bu noqonuniy daraxt kesishni tezkor aniqlash va tegishli qarshi choralarni amalga oshirishga yordam beradi. Masofaviy zondlash, sun’iy yo‘ldosh kuzatuvlari ma’lumotlarini sudda va ma’muriy ishlarda asosiy da’lil hisobida tan olinishi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli yechimlarning amaliy qo‘llanilishi cheklangan bo‘lishiga qaramay, ularni joriy etish hududning ekologik barqarorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy natijalari saksovul resurslarini himoya qilish va ulardan barqaror foydalanishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy choralarni shakllantirishning asosiy nazariy va metodologik asosidir. Ushbu topilmalar saksovullardan foydalanishning qonuniyligini oshirish, mintaqaning atrof-muhitini barqarorlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan muayyan strategiyalarni belgilaydi [Tursunov, O., 2022; 150–168-b].

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ushbu tadqiqot natijalari Janubiy Orol dengizi hududida saksovullardan foydalanishni huquqiy boshqarish muhim va murakkab masala ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, amaldagi me’yoriy-huquqiy baza saksovul resurslarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish uchun asos yaratsa-da, unda yetarlicha tizimlashtirish, aniqlik va samaradorlik yo‘q. Saksovulni yig‘ish, tiklash, hisobga olish va monitoring qilish faoliyati uchun yaxlit tuzilmaning yo‘qligi ushbu resurslardan noto‘g‘ri foydalanish xavfini oshiradi.

Saksovullardan foydalanishni nazorat qilishning kompleks usulini yaratish zarurati asosli. Saksovul resurslarini boshqarish uchun aniq me’yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish, amaldagi qonunlarni tizimlashtirish va uni mintaqaviy vaziyatlarga moslashtirish juda muhimdir. Bundan tashqari, atrof-muhitni nazorat qilish va monitoring qilish tizimini raqamlashtirish, javobgarlik choralarini kuchaytirish va noqonuniy kesishga qarshi kurashish uchun maqsadli usullarni joriy etish juda muhimdir. Bunda saksovulni noqonuniy kesganlik uchun ma’muriy jazo miqdorini keskin oshirish, etkazilgan zararni hisoblashda “ekologik regress” ya’niy tiklash xarajatlarini to‘liq qoplash mexanizmini joriy etish kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahalliy fuqarolarni saksovulni saqlash va tiklash ishlariga jalb qilish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, subsidiyalar va imtiyozlar tizimini takomillashtirish kabi iqtisodiy rag‘batlantirish choralarini amalga oshirish aholining ekologik javobgarligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, jahon amaliyotlarini o‘rganish va ularni mamlakat sharoitlariga moslashtirish saksovul resurslarini boshqarish samaradorligini oshiradi. Saksovuldan foydalanishning qonuniyligini oshirish Janubiy Orol dengizi hududida ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim element hisoblanadi. Ushbu sohada shakllantirilgan ilmiy takliflar va tavsiyalar qo‘llanilganda nafaqat tabiiy resurslarni tejash, balki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedov, K. Ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2021. – 112–125-betlar.
2. Bekmurodov, Sh. Atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2020. – 87–101-betlar.
3. Ergashev,A. Cho‘llanish jarayonlari va ularni boshqarish. – Toshkent: Universitet, 2022. – 56–72-betlar.
4. Ismoilov,B. Orolbo‘yi hududining ekologik muammolari. – Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 2021. – 134–149-betlar.
5. Karimov,D. Tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 98–115-betlar.
6. Mamatov,N. Ekologik huquq va barqaror rivojlanish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 45–60-betlar.
7. Nazarov, U. O‘rmon xo‘jaligini boshqarishning zamonaviy usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 73–89-betlar.
8. Rasulov, M. Tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilish masalalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 120–136-betlar.
9. Saidov, H. Ekologik siyosat va huquqiy islohotlar. – Toshkent: Adolat, 2023. – 64–80-betlar.
10. Tursunov, O. Orolbo‘yi mintaqasida ekologik barqarorlikni ta’minlash. – Toshkent: Fan, 2022. – 150–168-betlar.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 821.512.133.09

URUSH VA ICHKI KONFLIKT: BADIIY OBRAZLARNING PSIXOANALITIK TALQINI

Ro‘zimova Onajon Komil qizi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 1- kurs magistranti

WAR AND INTERNAL CONFLICT: A PSYCHOANALYTIC INTERPRETATION OF ARTISTIC IMAGES

Ruzimova Onajon Komil qizi, Student of the Master’s Degree Program (1st year), “Uzbek Language and Literature” direction, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

ВОЙНА И ВНУТРЕННИЙ КОНФЛИКТ: ПСИХОАНАЛИТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ

Рузимова Онажон Комил кызы, магистрант 1- курса направления “Узбекский язык и литература” Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана



https://orcid.org/0009-0002-9819-5303
e-mail: onajon.ruzimova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada urush mavzusidagi badiiy asarlarda ichki konflikt muammosi psixoanalitik yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot markazida qahramon ruhiyatida yuzaga keladigan psixologik qarama-qarshiliklar, travma va ong osti jarayonlari turadi. Nazariy asos sifatida Zigmund Freyd hamda Karl Gustav Yung qarashlari qo‘llanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, urush sharoiti tasvirlangan asarlardagi badiiy obrazlarning ichki ziddiyatlari inson psixikasining murakkabligini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *ichki konflikt, psixoanaliz, urush adabiyoti, travma, ong osti.*

Abstract: *This article examines the problem of internal conflict in works of art on the theme of war based on a psychoanalytic approach. At the center of the research are psychological contradictions, trauma, and subconscious processes arising in the psyche of the hero. The views of Sigmund Freud and Carl Gustav Jung were used as a theoretical basis. The results of the analysis show that the internal contradictions of artistic images in works depicting the conditions of war reveal the complexity of the human psyche.*

Keywords: *internal conflict, psychoanalysis, war literature, trauma, subconscious.*

Аннотация: *В данной статье проблема внутреннего конфликта в художественных произведениях на тему войны изучается на основе психоаналитического подхода. В центре исследования находятся психологические противоречия, возникающие в психике героя, травмы и подсознательные процессы. В качестве теоретической основы были использованы взгляды Зигмунда Фрейда и Карла Густава Юнга. Результаты анализа показывают, что внутренние противоречия художественных образов в произведениях, изображающих военные условия, раскрывают сложность человеческой психики.*

Ключевые слова: *внутренний конфликт, психоанализ, военная литература, травма, подсознание.*

Kirish. Urush insoniyat tarixidagi eng murakkab ijtimoiy hodisalardan biri bo‘lib, u inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, urush sharoitida inson ongida turli qarama-qarshi his-tuyg‘ular va ziddiyatlar paydo bo‘ladi. Bu holat badiiy asarlarda qahramonlarning ichki kechinmalari orqali yorqin ifodalanadi. Urush davrida yaratilgan badiiy

asarlarda insonning ichki kechinmalari, qo‘rquv, yo‘qotish hissi va ruhiy inqirozlar keng aks etadi.

Psixoanalitik yondashuv ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi, chunki u inson ong osti jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan. Zigmund Freyd (1917) nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori ko‘pincha ong ostida kechadigan jarayonlar bilan belgilanadi [5.312]. Shuningdek, Karl Gustav Yung (1969) inson ruhiyatida kollektiv ong osti mavjudligini va u badiiy obrazlar orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi [7.42].

Urush mavzusidagi asarlarda badiiy obrazlarning ichki konfliktlarini psixoanalitik nuqtayi nazardan tahlil qilish jarayonida qahramonlarning ruhiy iztiroblari, ong osti qo‘rquvlari harakatlar va so‘zlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiyasi. Urush adabiyotini psixoanalitik talqin qilish an’anasi Freydning urush nevrozlari haqidagi ishlaridan (1919) boshlanadi va Yungning kollektiv travma tushunchasi orqali davom etadi [6.205–210]. Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, Hunt, 2004) Remark asarlaridagi askarlarning travmatik xotiralari va “yo‘qotilgan avlod” inqirozi ochib beriladi. O‘zbek adabiyotshunosligida Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi urush va mehnat frontidagi ruhiy iztiroblarni tasvirlashda muhim o‘rin tutadi. Aytmatov asarlari esa urushning madaniy va ekologik oqibatlarini arxetipik darajada ifodalaydi. Tadqiqot metodologiyasi psixoanalitik va interpretativ yondashuvlar integratsiyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv badiiy matnni faqat yuzaki syujet darajasida emas, balki uning chuqur psixologik qatlamlari orqali tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil quyidagi analitik kategoriyalar asosida amalga oshirildi: intrapsixik konflikt (Id–Ego–Superego dinamikasi), travma va uning psixik oqibatlari, himoya mexanizmlari (repressiya, sublimatsiya, inkor), arxetipik va ramziy strukturalar. Metod sifatida diskursiv tahlil, psixoanalitik interpretatsiya va qiyosiy yondashuv qo‘llanildi.

Natija. Urush nafaqat tashqi ijtimoiy hodisa, balki inson ruhiyatida murakkab intrapsixik konfliktlarni yuzaga keltiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Urush mavzusidagi badiiy asarlarda ichki konflikt markaziy strukturaviy element sanaladi.

Birinchidan, qahramonlar ongida qarama-qarshi impulslar o‘rtasidagi keskin ziddiyat kuzatiladi. Bu ziddiyat, bir tomondan, biologik yashash instinkti, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy-madaniy majburiyatlar o‘rtasida yuzaga keladi.

Ikkinchidan, urush sharoitida yuzaga kelgan travmatik tajribalar psixikaning barqarorligini buzadi va shaxsda identitet inqirozini keltirib chiqaradi. Bu holat qahramonning o‘zini anglash jarayonida uzilishlarga olib keladi.

Uchinchidan, badiiy matnda ichki konflikt ko‘pincha ramziy shaklda ifodalanadi. Qorong‘ulik, sukut, yo‘l kabi motivlar qahramonning ong osti holatini aks ettiradi.

Erix Mariya Remark (1929) asarlarida urush insonni nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham izdan chiqaruvchi omil sifatida tasvirlanadi [8.12–15; 87–90; 263].

Muhokama. Zigmund Freyd (1900) tomonidan ishlab chiqilgan psixik strukturaviy model ichki konfliktning asosiy mexanizmlarini tushuntirish imkonini beradi [4. 536–605]. Id (biologik impulslar) va Superego (axloqiy va ijtimoiy majburiyatlar) o‘rtasidagi qarama-qarshilik Ego (haqiqat prinsipi) orqali muvozanatlashtiriladi, biroq urush sharoitida bu muvozanat butunlay buziladi va repressiya, inkor hamda sublimatsiya kabi himoya mexanizmlari faollashadi. Bu jarayon Erix Mariya Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida Paul Boymer qahramonining ichki kechinmalari orqali yorqin namoyon bo‘ladi. Masalan, Paulning quyidagi gapi urushning ruhiy iztiroblarini va identitet inqirozini aniq aks ettiradi: “Biz tashlandiq bolalarday notavonmiz, ayni paytda, mo‘ysafidlarday donishmandmiz, biz bag‘ritosh, ojiz va yengiltakmiz – nazarimda, endi odam bo‘lmaymiz” [8.110]. Yana bir misolda Paul urushdan qolgan travmani shunday gaplar bilan tasvirlaydi: “Hozir biz tug‘ilib-o‘sgan yurtimizda xorijiy sayyohlarday yurgan bo‘lardik. Tepamizda la’nat toshi aylanadi – biz faqat ko‘z ko‘rib turgan narsalarga sajda qilamiz. Biz hamma narsani savdogarlarday oq-qoraga ajratamiz, zaruratni esa qassoblarday tushunamiz. Biz beg‘am odamlikdan o‘taketgan loqayd odamlarga aylandik. Xo‘p, tirik qoldik ham deylik, lekin yashay olamizmi?” [8.110]. Bu iqtiboslar Freydning Id impulslarini (o‘limga qarshi kurash) va Superego majburiyatlarini (vatanparvarlik) bostirish mexanizmini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Karl Gustav Yung (1969) nazariyasiga ko‘ra, urushga oid obrazlar kollektiv ong

ostidagi universal arxetiplarning (xususan, “soya” arxetipi – bostirilgan salbiy his-tuyg‘ular) namoyon bo‘lishidir [7. 42–53; 80]. Chingiz Aytmatovning “Jamila” asarida urush travmasi aynan shu arxetipik yordamida ochiladi. Asar qahramoni Doniyor urush haqida so‘ralganida shunday deydi: “Urush deysanmi? – dedi u va xuddi o‘ziga javob berayotgandek past ovoz bilan qo‘shib qo‘ydi: – Urushning nomi o‘chsin, uni bilmaganlaring yaxshi!” [3.10]. Bu yerda kollektiv ong ostidagi travma va uni ramziy bostirish (sukut va ichki sukut) ifodalangan. Chingiz Aytmatovning “Alvido, G205ulsari!” romanida ham Tanaboyning ichki kurashi (urushdan keyingi aybdorlik va identitet izlanishi) Yungning “soya” arxetipi bilan bog‘liq bo‘lib, ot va tabiat ramzlari orqali qahramonning ong osti qo‘rquvlari ochib beriladi [2. 140–178].

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida esa ichki konflikt madaniy-milliylik va oilaviy majburiyatlar kontekstida namoyon bo‘ladi. Urush davridagi o‘zbek xalqi (masalan, Ikromjon obrazi) travmani mehnat frontidagi sublimatsiya orqali bartaraf etishga urinadi. Trilogiyada urushning oilaviy bo‘linish va ruhiy bosimining ramziy tasviri – “qorong‘ulik” va “yo‘l” motivlari – qahramonlarning ong osti iztiroblarini aks ettiradi [1.439]. Bu holat Freydning himoya mexanizmlari va Yungning arxetipik strukturalari bilan uyg‘unlashib, urushni nafaqat individual, balki kollektiv-madaniy fenomen sifatida ko‘rsatadi. Ichki konflikt nafaqat individual psixologik hodisa, balki kengroq ijtimoiy va madaniy kontekst bilan bog‘liq fenomen sifatida talqin qilinishi lozim. Remark, Aytmatov va Said Ahmad asarlaridagi badiiy obrazlar psixoanalitik talqinning tahliliy natijalarini tasdiqlaydi va urush davri adabiyotini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xulosa. Psixoanalitik yondashuv ichki konfliktning chuqur mexanizmlari – intrapsixik ziddiyatlarni, travmaning ruhiy oqibatlari va himoya mexanizmlarining rolini ochib berishda samarali vositadir. Urush davri adabiyotini psixologik nuqtayi nazardan o‘rganish inson ruhiyatining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini anglashga xizmat qiladi. Remark asarlarida ko‘zga tashlanadigan desensitizatsiya va moral injury (axloqiy jarohat), Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidagi oilaviy va milliy identitet inqirozi, Aytmatov qahramonlaridagi madaniy xotira va arxetipik ziddiyatlar urushning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va madaniy ta’sirini ochib beradi. Bu obrazlar orqali insoniyat urushning uzoq muddatli psixologik travmasini – yo‘qotish, aybdorlik, izolyatsiya va identitet parchalanishini – chuqur his qiladi. Psixoanalitik yondashuv adabiyotni faqat tarixiy yoki ijtimoiy jihatdan emas, balki psixologik tarafdan ham talqin qilish imkonini yaratadi. Amaliy jihatdan esa urush asoratini bartaraf etish, tinchlik tushunchasi va psixologik tiklanish holatlariga yechimlar beradi. Ushbu metod yordamida rus, nemis yoki zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi urush mavzularini qiyosiy tahlil qilish yoki ayollar va bolalar ruhiyatidagi ichki konfliktlarga alohida e’tibor qaratish orqali yangi xulosalar olish mumkin.

Urush adabiyotini psixoanalitik tahlil qilish nafaqat o‘tmishni tushunishga, balki kelajakdagi mojarolarning oldini olish va inson ruhiyatini salbiy kechinmalardan saqlash yo‘llarini izlashga yordam beradi. Inson psixikasi urush sharoitida sinovdan o‘tganidan keyin uning ichki ziddiyatlari jamiyatning umumiy ruhiy salomatligini aks ettiradi. Shunday ekan, badiiy adabiyot orqali bu ziddiyatlarni anglash – tinchlik va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad,S. (1964–1974). Ufq [trilogiya]. Toshkent: Turon zamin nashriyoti.
2. Aytmatov,Ch. (1969). Alvido, Gulsari! Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.
3. Aytmatov,Ch. (2005). Jamila. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Freud,S. (1900). The interpretation of dreams. Macmillan.
5. Freud,S. (1917). Introductory lectures on psychoanalysis. Liveright.
6. Freud,S. (1919). Introduction to Psycho-analysis and the war neuroses. In The standard edition of the complete psychological works of Sigmund Freud (Vol. 17, pp. 205–216). Hogarth Press.
7. Jung, C. G. (1969). The archetypes and the collective unconscious (R. F. C. Hull, Trans.). Princeton University Press. (Original work published 1959).
8. Remark, E.M. (2016). G‘arbiy frontida o‘zgarish yo‘q. Toshkent: Yangi asr avlodi

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 82:37.02:305

Ilmiy rahbar: Ruziyev Akbar Yusubovich, f.f.f.d. (PhD), dotsent

BADIIY ASARLARNI GENDER TAHLILI ASOSIDA O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI

Zaripboyeva Nazokat Maratovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti



https://orcid.org/0009-0003-2740-9500
e-mail: Laylo-74@mail.ru

THE EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE APPROACHES IN TEACHING LITERARY WORKS BASED ON GENDER ANALYSIS

Zaripboyeva Nazokat Maratovna, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО АНАЛИЗА

Зарипбоева Назокат Маратовна, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy asarlarni gender tahlili asosida o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda klaster, keys-stadi, diskursiv tahlil va refleksiv topshiriqlarning matnni chuqur anglash, dalil bilan fikrlash hamda mustaqil xulosa chiqarishdagi o‘rni yoritiladi. Natijalar gender yondashuvi badiiylikni saqlagan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi, talabaning ilmiy nutqini faollashtirishi va dars jarayonini tadqiqiy tusga olib chiqishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *gender tahlili, badiiy asar, innovatsion yondashuv, klaster, keys-stadi, refleksiya.*

Abstract: *This article examines the effectiveness of innovative approaches in teaching literary works through gender analysis. It discusses the role of clustering, case study, discourse analysis, and reflective tasks in deep reading, evidence-based reasoning, and independent interpretation. The findings indicate that gender-oriented teaching preserves aesthetic value while strengthening critical thinking, activating academic speech, and turning the lesson into an inquiry-based process.*

Keywords: *gender analysis, literary text, innovative approach, clustering, case study, reflection.*

Аннотация: *В статье рассматривается эффективность инновационных подходов к преподаванию художественных произведений на основе гендерного анализа. Освещается роль кластеров, кейс-стади, дискурсивного анализа и рефлексивных заданий в глубоком чтении, аргументированном мышлении и самостоятельной интерпретации. Результаты показывают, что гендерно ориентированное обучение сохраняет эстетическую ценность текста, усиливает критическое мышление, активизирует академическую речь и превращает занятие в исследовательский процесс.*

Ключевые слова: *гендерный анализ, художественный текст, инновационный подход, кластер, кейс-стади, рефлексия.*

Kirish. Badiiy asarni o‘qitishda matnning g‘oyaviy-estetik mazmunini tushuntirish yetarli emas; undagi yashirin ijtimoiy kodlarni ham anglash talab etiladi. Gender tahlili ana shunday

kodlarni ochishga xizmat qiladigan samarali metodik yondashuvdir. U orqali talabalar personaj nutqi, tasvir vositalari, ijtimoiy rol va baholash mezonlari orasidagi bog‘lanishni ko‘ra boshlaydilar. Natijada badiiy matn bir martalik hikoya emas, balki ijtimoiy ong, madaniy me’yor va tilning kesishgan nuqtasi sifatida o‘qiladi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida badiiy asar ustida ishlash jarayoni talabaning faqat reproduktiv emas, tahliliy faoliyatini ham talab qiladi. Gender tahliliga asoslangan dars modeli aynan shu ehtiyojga javob beradi. Chunki bunda talaba matndan tayyor xulosani olmaydi; u til birliklari, dialoglar, portret, murojaat shakllari va konfliktlarni kuzatib, o‘zi ilmiy xulosa chiqaradi. Bu esa tanqidiy fikrlash, dalillash, qiyoslash va interpretatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi badiiy asarlarni gender tahlili asosida o‘qitishda qo‘llanadigan innovatsion yondashuvlarning samaradorligini ilmiy-metodik nuqtayi nazardan yoritishdir. Unda interaktiv metodlar, muammoli savollar, klaster, keys-stadi, diskursiv tahlil va refleksiv topshiriqlarning dars samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi.

Ayniqsa, oliy ta’limda bunday yondashuvning ahamiyati katta. Chunki talaba badiiy matnni nafaqat zavq uchun, balki ilmiy tahlil materiali sifatida ham o‘qishi kerak bo‘ladi. Gender tahlili unga matn ichidagi yashirin baholash va ijtimoiy me’yorlarni ko‘rish, personajlar nutqini ierarxik va pragmatik jihatdan sharhlash imkonini beradi. Shu tariqa dars mazmuni chuqurlashadi, talabaning o‘qishga bo‘lgan mas’uliyati ortadi[1.19].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Badiiy ta’lim metodikasida matnni chuqur o‘qish, obraz tahlili, muallif pozitsiyasi va til birliklarini kuzatish bo‘yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. So‘nggi yillarda kompetensiyaviy ta’lim, faol o‘qitish va muammoli o‘qitish g‘oyalari badiiy matn tahliliga ham tatbiq etila boshladi. Bu yondashuvlarda talabani tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki ma’no yaratuvchi subyekt sifatida ko‘rish asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qiladi.

Genderga oid o‘qish strategiyalari xorijiy metodikada personajlararo munosabat, stereotip, yashirin baholash va ijtimoiy rolni anglash vositasi sifatida qaraladi. Milliy metodik tajribada esa ko‘proq obrazning ma’naviy qiyofasi, tilning tarbiyaviy kuchi va estetik qimmati yoritilgan. Biroq bu ikki yo‘nalishni birlashtirgan dars modeli o‘quvchiga ham estetik zavq, ham tahliliy ko‘nikma berishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gender tahliliga asoslangan o‘qitish uchta didaktik afzallikka ega. Birinchidan, u matnning yashirin ma’nolarini topishga undaydi. Ikkinchidan, talabaning shaxsiy tajribasi bilan badiiy matn orasida muloqot o‘rnatadi. Uchinchidan, turli talqinlarni solishtirish imkonini beradi. Shunday ekan, bu yondashuv badiiy asarni faqat mazmunni qayta hikoya qilish darajasidan chiqarib, ilmiy muhokama obyektiga aylantiradi.

Shu bilan birga, gender tahlilini o‘qitishga joriy etishda ehtiyotkor metodik muvozanat zarur. Dars faqat jinslar qarama-qarshiligiga aylantirib yuborilmasligi, badiiylik yo‘qolib qolmasligi kerak. Aksincha, gender yondashuvi poetik tahlil, tarixiy-madaniy fon va til vositalarini o‘rganish bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy natija beradi.

Bunday darslar ko‘pincha fanlararo xususiyatga ega bo‘ladi. Chunki gender tahlili tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya va pedagogika kesishgan joyda ishlaydi. Shu jihatdan u zamonaviy ta’limning integrativ ruhiga mos keladi. Talaba bir vaqtning o‘zida til birliklarini kuzatadi, obrazlar tizimini sharhlaydi, ijtimoiy me’yorlarni anglaydi va metodik muhokamada qatnashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada metodik kuzatish, qiyosiy tahlil, tavsiflash va refleksiv yondashuv usullaridan foydalanildi. Badiiy asarlarni o‘qitish jarayonida qo‘llanadigan topshiriq turlari gender tahlili nuqtayi nazaridan qayta tasniflandi. Ular uch guruhga ajratildi: tayyorlov bosqichi topshiriqlari, analitik bosqich topshiriqlari va yakuniy refleksiya topshiriqlari. Bunday bosqichlash darsni tizimli tashkil etish imkonini beradi.

Tayyorlov bosqichida talabalar matnga kirishdan oldin ijtimoiy rol, stereotip, murojaat shakllari, xarakter va baholash bilan bog‘liq dastlabki kuzatishlarni amalga oshiradilar. Analitik bosqichda ular matndan dalillar to‘playdi, personaj nutqi va muallif nutqini taqqoslaydi, genderga xos tasvir vositalarini ajratadi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar muhokama, klaster, keys, esse yoki taqdimot orqali umumlashtiriladi.

Tahlil va natijalar. Gender tahliliga asoslangan dars modelining birinchi afzalligi – talabaning matnga faol kirishishidir. Oddiy savol-javob usulida ko‘pincha voqea ketma-ketligi yoki obrazning umumiy tavsifi bilan kifoyalaniladi. Innovatsion modelda esa talaba matndan konkret birliklarni qidiradi: kim kimga qanday murojaat qildi, qaysi sifatlar ayol yoki erkakka nisbatan takrorlandi, qanday nutq shakli hukmronlikni yoki murosani ko‘rsatdi. Bu topshiriqlar matnni “dalillar ombori” sifatida ko‘rishga o‘rgatadi[2.72].

Ikkinchi afzallik – tahlilning ko‘p qatlamli bo‘lishidir. Masalan, birgina personajga doir portret tavsifi ustida ishlashda talabalar tashqi ko‘rinish, baholovchi leksika, ichki holat, muallif pozitsiyasi va ijtimoiy rolni parallel o‘rganishi mumkin. Natijada obrazni bir yoqlama qabul qilish kamayadi. Talaba “qahramon yaxshi” yoki “yomon” degan tayyor hukm bilan cheklanmaydi; u nima uchun aynan shunday ko‘rinish yaratilganini izohlaydi.

Klaster metodidan foydalanilganda darsdagi tushunchalar tizimlashadi. Masalan, “ayol obraziga xos tasvir vositalari”, “erkak obraziga xos nutqiy strategiyalar”, “qarindoshlik nomlari”, “hurmat va masofa markerlari”[3.25] kabi markaziy tugunlar atrofida birliklar to‘planadi. Bu usul talabaning tasodifiy kuzatuvini nazariy modelga aylantiradi. Ayniqsa, katta hajmli matnlar bilan ishlaganda klaster materialni tartibga solishda juda qulaydir.

Keys-stadi usuli esa badiiy konfliktni tahlil qilishda samarali bo‘ladi. Talabalarga muayyan epizod berilib, undagi nutqiy ziddiyat, yashirin stereotip, muloqotdagi kuch muvozanati va personajlar motivatsiyasi aniqlattiriladi. Bu jarayonda talabalar bir nechta mumkin bo‘lgan talqinlarni ilgari suradi. Darsning muhim tomoni shundaki, har bir xulosa matndan olingan dalil bilan asoslanadi. Natijada interpretatsiya erkinligi bilan ilmiy intizom o‘rtasida muvozanat yuzaga keladi.

Diskursiv tahlil metodidan foydalanish talabaning til sezgisini kuchaytiradi. Odatda o‘quvchi syujet va voqeaga e’tibor berib, nutq shakllaridagi nozik farqlarni sezmay qoladi. Gender tahlili esa aynan shu nuqtaga e’tibor qaratadi: buyruq bilan iltimos orasidagi farq, kinoyali murojaat, yumshatish vositalari, sukutning pragmatik ma’nosi, qaysi personajning ovozi matnda legitim ko‘rinishi va qaysisi cheklanishini ko‘rsatadi. Bu esa tilshunoslik va adabiyotshunoslikni birlashtirgan integrativ dars modelini yaratadi.

Refleksiv topshiriqlar genderga oid muhokamaga shaxsiy mas’uliyat olib kiradi. Masalan, talabalarga “Qaysi personaj stereotipni takrorlaydi, qaysi personaj uni buzadi?”, “Muallif qaysi nuqtada an’anaviy tasavvurni qo‘llab-quvvatlaydi yoki tanqid qiladi?”, “Bugungi o‘quvchi bu epizodni qanday qabul qiladi?”[4.69] kabi savollar beriladi. Bunday yozma yoki og‘zaki refleksiya darsni zamonaviy hayot bilan bog‘laydi, ayni paytda matndan uzoqlashtirmaydi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, gender yondashuviga tayangan darslarda talabalar dalil bilan fikr bildirishga ko‘proq moyil bo‘ladi. Chunki bu model subyektiv “menga shunday tuyuldi” degan javobdan ko‘ra, “matnda shunday birliklar bor, ular bunday ma’noni beradi” degan izohni talab qiladi. Bu ilmiy nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim omildir.

Biroq metodik jarayonda ayrim xavflar ham mavjud. Agar o‘qituvchi gender yondashuvini mutlaqlashtirsa, matnning poetik qimmati, tarixiy fon va muallif mahorati ikkinchi planga tushib qolishi mumkin. Shuningdek, talabalarda stereotiplarni qo‘pol soddalashtirish xavfi ham bor. Shu sababli darsda har bir xulosa til vositasi, badiiy vazifa va tarixiy-madaniy kontekst bilan bog‘lab tushuntirilishi lozim.

Samarali dars modeli uchun uch bosqichli tuzilma taklif etish mumkin. Birinchi bosqich –

kuzatish: talaba genderga aloqador birliklarni topadi. Ikkinchi bosqich – izohlash: topilgan birliklarning pragmatik va badiiy vazifasi ochiladi. Uchinchi bosqich – baholash: muallif stereotipni takrorlaganmi, tanqid qilganmi yoki murakkablashtirganmi, degan savolga javob izlanadi. Mazkur tuzilma metodik jihatdan aniq va amaliyotga tatbiq etishga qulaydir.

Darsni baholash tizimida ham o‘zgarish zarur. Gender tahliliga asoslangan mashg‘ulotda faqat tayyor javobni eslab aytish yetarli bo‘lmaydi. Talabaning dalil topishi, tahlilni mantiqiy qurishi, matn va nazariy tushuncha orasida bog‘lanish o‘rnatishi, muqobil talqinni ko‘ra olishi kabi mezonlar hisobga olinishi kerak. Shunda baholash jarayoni ham innovatsion metodikaning mantig‘iga moslashadi.

Shuningdek, gender tahliliga asoslangan darslar akademik yozuvni rivojlantirishda ham foydalidir. Talaba esse, qisqa tahlil, taqdimot matni yoki seminar xulosasini yozayotganda da’vosini matn dalili bilan mustahkamlashga o‘rganadi. U “personaj shunday”[5.49] deb hukm chiqarmaydi, balki qaysi epitet, qaysi murojaat shakli, qaysi dialog yoki qaysi tasvir orqali shunday xulosa kelib chiqayotganini ko‘rsatadi. Bu esa ilmiy fikrlashni tizimlashtiradi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, gender tahliliga asoslangan topshiriqlar seminar va mustaqil ta’limni bog‘lashda ham juda qulaydir. Auditoriyada muhokama qilingan birliklar uy vazifasida kengaytirilgan jadval, tahliliy yozuv yoki mini-loyiha shaklida davom ettirilishi mumkin. Talaba bir darsda kuzatgan murojaat shakllari, stereotipik tavsiflar yoki konflikt modellari bo‘yicha keyingi mashg‘ulotga dalillar bilan qaytadi. Bu uzluksizlik o‘qish jarayonini faol siklga aylantiradi: kuzatish, muhokama, yozma umumlashtirish va qayta talqin bir-birini to‘ldiradi. Natijada badiiy matn bilan ishlash bir martalik topshiriq emas, balki izchil tadqiqot amaliyotiga aylanadi.

Bunday yondashuv o‘qituvchining metodik rolini ham yangilaydi. U matnni yakka izohlovchi markaz emas, balki ilmiy suhbatni boshqaruvchi fasilitatorga aylanadi. Talabalarning har biri matndan topgan dalilini muhokamaga olib kiradi, o‘qituvchi esa ularni umumiy nazariy xulosaga bog‘laydi. Natijada darsda bilim bir tomonlama uzatilmaydi, balki hamkorlikda quriladi. Bu model ayniqsa seminar, amaliy mashg‘ulot va maxsus kurslar uchun samaralidir.

Yana bir afzallik shundaki, gender tahliliga asoslangan darslar elektron taqdimot, onlayn forum va raqamli portfel bilan oson integratsiyalashadi. Talabalar matndan topgan dalillarini jadval, xarita yoki qisqa videoizoh ko‘rinishida taqdim etishi mumkin. Bu multimodal faoliyat matnni zamonaviy o‘quv muhiti bilan bog‘lab, tahlil natijalarini yanada ko‘rinadigan va baholashga qulay shaklga keltiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarni gender tahlili asosida o‘qitish innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashganda yuqori samaradorlik beradi. Klaster, keys-stadi, diskursiv tahlil va refleksiv yozuv kabi usullar talabaning mustaqil tahlil, dalillash va qiyoslash ko‘nikmalarini kuchaytiradi.

Amaliy tavsiya sifatida gender yondashuvini badiiylikdan ajratmasdan qo‘llash, topshiriqlarni bosqichma-bosqich qurish, har bir xulosani matn dalili bilan bog‘lash hamda dars yakunida refleksiv umumlashtirishni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev, M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, 2010.
2. Safarov, Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.
3. Mahmudov, N., Nurmonov, A. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, 1992.
4. Boymirzayeva, S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmuni. Toshkent, 2010.
5. Hattie, J. Visible Learning. London: Routledge, 2009.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 894.375

SVETLANA ALEKSIYEVICH VA O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARDA URUSHNING ABSURD MOHIYATI

Maxmudova Diyora, Navoiy davlat universiteti, Tillar fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2- bosqich magistranti

THE ABSURD ESSENCE OF WAR IN THE WORKS OF S. ALEXIEVICH AND U. HOSHIMOV

Makhmudova Diyora, Navoi State University, Faculty of Languages. Uzbek Language and Literature, 2-stage master’s student

АБСУРДНАЯ СУЩНОСТЬ ВОЙНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ С.АЛЕКСИЕВИЧА И У.ХОШИМОВА

Махмудова Диёра, Навоийский государственный университет, факультет языков, направление узбекский язык и литература, магистрант2-курса



https://orcid.org/0009-0001-3377-6126
e-mail: diyorad023@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada S.Aleksiyevichning “Цинковые мальчики” (“Sink bolalari”) hujjatli asari va O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani tipologik aspektda tahlil etiladi. Sovet-afg‘on urushining inson ruhiyatiga ko‘rsatgan halokatli ta’siri, urush fenomenining absurd mohiyati ochib beriladi. Qiyosiy yondashuv asosida urush mavzusining milliy va jahon adabiyotidagi badiiy ifodasi yuzasidan ilmiy xulosalar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *tipologik tahlil, sovet-afg‘on urushi, absurd fenomeni, urush diskursi, ijtimoiy-tarixiy haqiqat.*

Abstract*: This article analyzes the documentary work of S. Alexievich “Цинковые мальчики” and the novel “Tushda kechgan umrlar” by O‘.Hoshimov from a typological aspect. The disastrous impact of the Soviet-Afghan war on the human psyche and the absurd nature of the war phenomenon are revealed. Based on a comparative approach, scientific conclusions are put forward on the artistic expression of the war theme in national and world literature.*

Key words*: typological analysis, Soviet-Afghan war, absurd phenomenon, war discourse, socio-historical reality.*

Аннотация: *В данной статье проводится типологический анализ документального произведения С.Алексиевича “Цинковые мальчики” и романа У.Хошимова “Жизнь, прошедшая во снах”. Раскрываются разрушительные последствия советско-афганской войны для человеческой психики, абсурдный характер феномена войны. На основе сравнительного подхода выдвигаются научные выводы о художественном выражении темы войны в национальной и мировой литературе.*

Ключевые слова*: типологический анализ, советско-афганская война, феномен абсурда, военный дискурс, социально-историческая реальность.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jahon xalqlari tafakkuri namunalarini solishtirish natijasida qiyosiy adabiyotshunoslikda asl asarlardagi o‘lmas mavzular va timsollar ruhiyati badiiy tahlillar asosida ochib beriladi. Zero, qiyosiy adabiyotshunoslikda “*...jahon madaniyati, falsafasi, ilm-fani va adabiyotni yagona doirada o‘rganish, kompleks qabul qilish, tarixiy haqiqatdan chekinmay xolis talqin etishdir*”. [1] Qiyosiy-tipologik tahlil imkoniyatlaridan foydalanib, turli xil ijtimoiy muhitda ijod qilgan ikki millat vakili adiblarining asarlarini o‘zaro qiyoslab o‘rganish, badiiy ijod namunasining

estetik va falsafiy mohiyatini yoritib berish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). 1979-1989-yillarda bo‘lib o‘tgan Afg‘on urushi va uning insonlar hayotiga olib kelgan salbiy oqibatlari haqida yozilgan belarus yozuvchisi Svetlana Aleksiyevichning “Sink bolalari” (1989) real voqealarga asoslangan hujjatli prozasi hamda o‘zbek adabiyotining zabardast ijodkori O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” (1992) romanlari tahlili tadqiqotimizning obyekti sifatida xizmat qiladi. Maqolada S.Aleksiyevichning “Цинковые мальчики” asarining ingliz tilidagi tarjima nashri – Zinky Boys: Soviet Voices from the Afghanistan War (New York:W.W.Norton, 1992)dan foydalanildi[2]. Asarning o‘zbek tiliga rasmiy tarjimasi mavjud emasligi sababli, maqoladagi barcha iqtiboslar ingliz tilidagi matn asosida muallif tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjimalar mazmuniy adekvatlik (mazmunga muvofiqlik) tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirildi.

Afg‘on urushi sobiq Sovet jamiyatida eng ko‘p yashirilgan va turli ramzlar ostiga berkitilgan siyosiy fojealardan biri bo‘lgan. Bu urushning insonlar taqdiridagi izlari turli millat adabiyotlarida turlicha talqin etilgan bo‘lsa-da, uning ma’naviy oqibatlari barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan iztiroblar bilan uyg‘unlashadi. Yuqoridagi ikki asar ham Afg‘on urushi fojialarini umumiy holatda birlashtiruvchi eng muhim badiiy manbalardan hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). “Sink bolalari” asari nomi o‘zi bilan bir necha qatlamli ramziy ma’no olib keladi. “Sink” (ruscha “цинк”) Mendeleyevning davriy jadvalida 30 - kimyoviy element nomi hisoblanadi. Afg‘on urushida halok bo‘lgan sovet askarlarini vatanga sink bilan qoplangan metall tobutlarda olib kelishgan. Asar nomining yana bir ramziy ma’nosi bor: sink sovuqlik, sukunat va yashirilgan o‘limning timsoli bo‘lgan. Negaki, bu qutilar ichidan ochilmaslik kerak bo‘lgan, muhrlangan “harbiy sir” sifatida ko‘rilgan. Go‘yoki davlat askarlarning ota-onasiga o‘g‘lining jasadini emas, siyosiy yolg‘on bilan qoplangan “temir sukunat”ni topshirardi. Asar nomida “bolalar” so‘zining qo‘llanishi esa yosh askarlarning ko‘pi endigina 18-19 yoshni qarshi olgan yigitlarni nazarda tutadi. Ular hayotning hech bir ma’nosini anglab ulgurmay, begona yurtlarda nobud bo‘lganlarning umumlashma obrazidir. Bir so‘z bilan aytganda, sink tobutlar ichidagi bolalar davlat tomonidan qurbon qilingan bir avlod timsoli. Ya’ni, inson hayoti siyosat oldida hech narsaga arzimagan, yosh yigitlar esa sink qutilarga solinib, harbiy yukka aylangan vaqtda davlat qanchalik ma’naviy inqirozga yuz tutganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur asar an’anaviy asarlarda bo‘lganidek bitta syujet tizimiga ega emas, balki “kollaj” uslubidagi og‘zaki monologlar, xotiralar yig‘indisi sanalanadi. Asar real voqealarga asoslangan bo‘lib, qahramonlari ham haqiqiy insonlar: afg‘on urushida qatnashgan askarlar, bu urushda halok bo‘lganlarning ota-onalari, tibbiyot xodimlari, komandirlar va urush voqealariga guvoh bo‘lgan insonlarning intervyulari asosida jamlangan, ko‘p ovozli (polifonik) asar hisoblanadi. Aslida, asar “qahramonlari” deyilganda yagona bosh qahramon – urushning o‘zi, hamda uning inson ongini va qalbini izdan chiqaruvchi kuch sifatida talqin qilinganligidir. Bu uslub O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”idagi hikoyachi qahramonlarning ichki iztiroblari va insoniy yo‘qotishlariga psixologik yondashuvi bilan tipologik jihatdan tutashadi. Chunki uning asarida ham voqealar muallif bayonidan ko‘ra, bevosita qahramonlarning shaxsiy nutqi orqali ifodalanadi, ya’ni obrazlar o‘z boshidan kechirgan hodisalarni o‘z tili va individual dunyoqarashi asosida hikoya qiladilar.

“Sink bolalari”da muallif Afg‘on urushiga askar bolalarning ketish jarayonini romantiklashtirilgan sovet mafkurasi va haqiqiy urushning ayanchli oqibatlari o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilik sifatida ochib beradi. Askar bolalar ongiga vatanparvarlik ruhi, “internatsional burch”, “terrorchilarga qarshi kurash”, afg‘onlarga “ajoyib sotsialistik jamiyat qurish”ga yordam berish singari yolg‘on sovet propagandasi singdiriladi. Mana shunday yolg‘on mafkuralarga ishongan ota-onalar ham farzandlarini “xalqaro burch”ini ado etishiga, vatan sha’nini himoya qilishiga ishonib Afg‘onistondagi urushga kuzatishadi. Ular uchun bu urush sharaf, mardlik

va iftixor ramzi sifatida ko‘rilgan. Lekin keyinchalik, ularning ko‘z o‘ngida sodir bo‘lgan voqealar: halok bo‘lgan yosh farzandining mahkam yopilgan rux tabutlarda qaytarilishi, ularni ochishga qat’iyan ruxsat berilmagani, o‘lim sabablari va sharoitlarining yashirilishi davlatning urush haqidagi haqiqatni ongli ravishda berkitish siyosatini fosh qiladi. Mazkur holatlardan biri asarda quyidagicha keltirilgan: *“A lot of people came to the funeral but they kept silent. I stood there with a screw-driver and wouldn't let anyone take it away from me. “Let me see my son! Let me see my son!” I demanded. I wanted to open the zinc coffin. My husband tried to commit suicide. “ I can't go on... I can't go on living*”[3]. (“Dafn marosimiga juda ko‘p odam keldi, lekin hamma jim edi. Men qo‘limda otvyortka bilan turardim va hech kim uni mendan tortib olishiga yo‘l qo‘ymasdim. “O‘g‘limni ko‘rishga ruxsat bering! O‘g‘limni ko‘ray!” deb talab qildim. Men sink tobutni ochmoqchi edim. Erim esa o‘z joniga qasd qilmoqchi bo‘ldi. “Davom etolmayman... Endi yasholmayman”, derdi u”, – muallif tarjimasi). Parchada ona Afg‘onistondan jasadi kelgan o‘glining rux tobutini ochishga urinadi, bu oddiy harakat emas, balki yashirilgan haqiqatni ochishga bo‘lgan ichki ehtiyoj ifodasidir. Lekin ichki siyosiy tizim bunga yo‘l qo‘ymaydi. Marosimdagi umumiy sukunat va atrofdagilarning befarqligi jamiyat miqyosida og‘riqning bostirilganini ko‘rsatadi. Otaning yashashdan voz kechishga urinishi esa urushning oilaviy tuzilmani ham izdan chiqaruvchi kuch sifatida namoyon etadi. Bu epizodda asosiy urg‘u inson ruhiyatidagi chidab bo‘lmas sinish holatiga qaratilgan. Xuddi shunday epizod O‘.Hoshimov asarida ham kuzatiladi, faqat “Tushda kechgan umrlar” romanidagi vaziyat yanada ijtimoiy tus oladi, ya’ni tobutlarning ochilishiga yo‘l qo‘yilmasligi oddiy tashkiliy chora emas, balki davlat siyosati darjasiga ko‘tarilgan masala sifatida tasvirlanadi: “*Ammo...onasi chidolmadi... Aqalli bolamning sovuq diydorini ko‘rib qolay deb olamni buzib tashladi... Haligi voyenniy oxiri, po‘pisa qildi..."Kim tobutga tegsa, harbiy tribunal oldida javob beradi", dedi. Ana o‘shandan keyin, ko‘nglimga shubha tushdi*”[4]. Mazkur iqtibosda onaning “aqalli bolamning sovuq diydorini ko‘rib qolay” degan iltijosi tabiiy insoniy tuyg‘u sifatida beriladi. Biroq harbiy vakilning tribunal bilan qo‘rqitishi shaxsiy dard ustidan rasmiy tartib ustuvor qo‘yilganini anglatadi. Bu yerda muallif og‘riqni yashirish mexanizmini tashqi bosim orqali ochib beradi. Bu orqali vaziyatni so‘zlab beruvchi epizodning (otasining) ichki shubhasini uyg‘otadi va shu nuqtadan boshlab otada urush haqidagi rasmiy tasavvurlar yemirila boshlaydi. Natijada, ota-onalar nafaqat farzandlarini yo‘qotgan, balki haqiqatdan mahrum etilgan, aldangan ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Qiyosiy jihatdan qaralganda, har ikki asarda dafn marosimi sahnasi burilish nuqtasi vazifasini bajaradi. Birinchisida fojiaviylik ruhiy portlash orqali, ikkinchisida esa rasmiy tahdid va taqiqlar orqali ifodalanadi. Shu jihat bilan epizodlar mazmunan yaqin bo‘lsa-da, badiiy ifoda usuli va urg‘u markazi jihatidan farqlanadi. Har ikki ijodkorda ham urush inson sha’ni va tabiiy tuyg‘ulariga zid hodisa sifatida talqin qilinadi, biroq biri ruhiy iztirobni markazga qo‘ysa, ikkinchisi ijtimoiy bosimni yetakchi omil sifatida ko‘rsatadi.

Rasmiy sovet ma’lumotlariga ko‘ra, Sovet-Afg‘on urushi davomida o‘n besh mingdan ortiq sovet askarlari, bir millionga yaqin afg‘on harbiylari halok bo‘lgan. Bu urush nafaqat erkaklarni, balki ayollarni ham bevosita jangovar jarayonlarga tortgan bo‘lib, mojaroning qanchalik ko‘lamli va ayovsiz bo‘lganligini bildiradi. Sovet armiyasi tarkibida hamshira, shifokor, aloqachi, saninstruktor, hattoki, qurolli bo‘linmalarda xizmat qilgan minglab ayollar qatnashgan. Bu ma’lumotlar urushning gender chegaralarini buzib, uni insoniyat tarixidagi eng dahshatli va qirg‘inbarot harbiy mojarolardan biri sifatida namoyon etadi. Urushda afg‘on xalqi nihoyatda katta insoniy va moddiy yo‘qotishlar evaziga bo‘lsa-da, o‘z milliy erkini va yurt daxlsizligini saqlab qolgan. Biroq bu urushning eng og‘ir oqibatlari nafaqat jang maydonida, balki urushdan omon qaytgan insonlar ruhiyatida ham chuqur iz qoldirgan. “Sink bolalari” asarida urush voqeliklari nafaqat tarixiy hodisa sifatida, balki inson ongini izdan chiqaruvchi absurd holat sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, sovet armiyasi safida jang qilgan askarlarning ongida urushdan keyingi ruhiy sindromlar, ichki parokandalik va ma’naviy inqiroz holatlari urushning eng fojiali natijalaridan biri sifatida keltiriladi. Ular afg‘on urushidan tirik qaytgan bo‘lsalar-da, ruhiy jihatdan yashashga qodir bo‘lmagan shaxslarga aylanadi. Ko‘plab

askarlar yozuvchiga bergan intervyularida urushda ko‘rgan-kechirgan dahshatli manzaralar, begunoh odamlarning halokati, zo‘ravonlik va yolg‘on mafkura ta’siridan butun umri davomida qutula olmaganliklarini aytishadi. Natijada, ularning xotirasida urush doimiy ravishda qayta jonlanib, tinimsiz ruhiy azob manbaiga aylanadi. Hattoki, asar davomida urushdan keyingi sakkiz yil ichida o‘z joniga qasd qilganlar soni urushning o‘zida halok bo‘lganlar soni bilan bir xil ekanligi aytiladi. Bu holatlar barchasi absurd adabiyotining asoschilaridan biri bo‘lgan Martin Esslinning absurd nazariyasini yodga soladi: “*Absurd is that which is devoid of purpose… Cut off from his religious, metaphysical, and transcendental roots, man is lost; all his actions become senseless, absurd, useless*”[5]. (“Absurd – bu maqsadidan mahrum bo‘lgan narsa…O‘zining diniy, metafizik va transsendental ildizlarini yo‘qotgan inson; uning barcha harakatlari ma’nosiz, bema’ni, foydasiz bo‘lib qoladi.”– muallif tarjimasi). Mazkur nazariy qarash tahlil qilinayotgan asarlarda tasvirlangan urush voqeligini anglashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki har ikki asarda ham rasmiy targ‘ibot bilan real hayot manzarasi o‘rtasida keskin nomuvofiqlik kuzatiladi. Insonning shaxsiy fojeasi davlat tomonidan yaratilgan “qahramonlik” va “adolat” tushunchalari bilan mos kelmaydi. Natijada voqelik mantiqsiz, izohga sig‘maydigan, ruhiy iztirobga olib keluvchi holat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan yuqorida keltirilgan nazariy iqtibos asarlarda ochilgan urushning ichki mohiyatini, uning inson taqdirini izdan chiqaruvchi, ma’nosiz tusini ilmiy asosda talqin qilish imkonini beradi. Misol uchun, “Sink bolalari”da qurolli bo‘linmalarda xizmat qilgan askarlardan biri ham bu urushning mantiqsiz tabiati haqida o‘z xotiralarida shunday deydi: “*War affects a person in a strange way: it takes some of his – or her humanity away. That’s how I mainly remember the war - as totally absurd*”[6]. (“Urush insonga g‘alati ta’sir qiladi: U undagi insoniylikning bir qismini yo‘qotadi… Men urushni shunday eslayman – u mutlaqo absurd (bema’nilik).” - muallif tarjimasi). Bu yerda urushning “mutlaqo absurd” deb baholanishi voqelik bilan insoniy mantiq o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ko‘rsatadi, ya’ni insonlarni himoya qilish da’vosi bilan boshlangan urush, aslida, uning insoniyligini kamaytirishga xizmat qiladi. Demak, askar o‘z fikrlari orqali urushni insoniyat mohiyatiga zid bo‘lgan, mantiqsiz va ruhni izdan chiqaruvchi hodisa sifatida baholaydi. Asardagi real epizodlardagi qahramonlar nutqidan kelib chiqqan holda Aleksiyevich asari urush absurdligini ochib beruvchi kuchli badiiy qatlam mavjudligi bilan ham ajralib turadi. O‘zbek adabiyotida yangi burulish yasagan romanlardan biri O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida ham afg‘on urushining butun dahshati bo‘y ko‘rsatadi. Bundan tashqari, mustabid tuzum tanqidi, “o‘zbeklar ishi”, mustamlakachilik va qatag‘on siyosati realistik jihatdan tasvirlangan. “Sink bolalari” asarida bo‘lganidek, bunda ham urush voqeligi ko‘pincha absurd tus oladi. Ya’ni Rustam va uning urushdagi safdoshlarining ma’nosiz qurbon bo‘lishi, siyosiy mafkura ta’sirida haqiqatning yashirilishi hamda insoniy yo‘qotishlarning izohsizligi urushning mantiqsiz mohiyatini namoyon etadi. Bu jihat har ikki asarning ham falsafiy qatlamini kuchaytirib, urushning asl mohiyati haqida mushohada yuritishga undaydi. Adabiyotshunos olim D.Quronov: “*Tushda kechgan umrlar”ni ekzistensializm nuqtayi nazaridan tushunmoqchi bo‘linsa, Rustam obrazi talqinida o‘ziga tamomila “begona dunyoda” (mohiyatan Afg‘onistonda ham, o‘zining tug‘ilib o‘sgan yurtida ham), o‘ziga “dushman dunyo”da yashagan shaxs fojeasini ko‘rish mumkin[7],* - deya ta’kidlaydi. Afg‘on urushidan qaytgan Rustam o‘zi yashayotgan dunyoda o‘zini mutlaqo “begona” his qiladi, o‘z dunyosidan mantiq, hayotidan ma’ni topolmaydi, ayni shu sharoitda uning qarshisida “hayot yashab o‘tishga arziydimi?” qabilidagi absurdga xos savol ko‘ndalang bo‘ladi. Rustam atrofdagi chirkin muhitdan, o‘z ichidagi dahshatdan qutilishning yagona chorasi sifatida o‘limni idrok etadi. Martin Esslin nazriyasidan kelib chiqqan holda, absurdning bosh mazmuni ham insoniyatning butun umri davomidagi yo‘lsizlik va chorasizlik dahshatidir. Polifonik nutq va psixologik tasvir usuli har ikki asarni ham yaqinlashtiruvchi yana bir muhim omil hisoblanadi. “Sink bolalari”da voqealar turli guvohlarning monologlari orqali berilsa, “Tushda kechgan umrlar”da ham qahramonlarning ichki kechinmalari, xotiralari va ruhiy iztiroblari yetakchi o‘rin tutadi. Roman to‘laligicha qahramonlar tilidan hikoya qilinadi, bu

TAMADDUN NURI

usul orqali muallif har bir qahramonining ichki dunyosini batafsil tasvirlashga intiladi. Chunki inson faqat o‘zi bilan o‘zi gaplashgandagina ichidagi gaplarini ro‘yirost ayta oladi. Yozuvchi syujet liniyasini hozir va o‘tmish qolipida tuzadi, ya’ni Rustamning o‘limi va u bilan bog‘liq voqealar asosiy xronotop bo‘lsa-da, ijodkor har bir personajning o‘tmishdagi hayotiga erkin ko‘chaveradi. “Tushda kechgan umrlar” deb nomlanishiga sabab asar qahramonlarining shodon hayoti, orzularga to‘la kelajagi va baxtli hayot haqidagi umidlari tushdek sarobga aylanadi. Bu holat Rustamning dadasi rais Shomatovning o‘g‘liga yozgan ikkinchi maktubi orqali yorqin aks etadi. Maktubda quyidagi jumlalar keltirilgan: “*Yoshim oltmishdan o‘tib ko‘p narsalarni endi-endi tushunyapman, xom sut emgan banda!..O‘ylab qarasam, o‘tgan umrim – umr emas, tush ekan. Go‘yo men esimni tanib – tanimay birov uyqu dori ichirgan-u, tush ko‘rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko‘rib. O‘sha “birov” qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa quloq qoqmay bajaraverganman... Uyg‘onishga esa qo‘rqqanman... Mana endi uyg‘onib, yon verimga qarasam, menga o‘xshaganlar ko‘p ekan...*”[8]. Rustamning otasi o‘z hayotiga kechikkan idrok nuqtasidan baho bermoqda. U “umrim – umr emas, tush ekan” degan ibora orqali butun bir hayotini tafakkursiz, boshqalarning yo‘rig‘i bilan o‘tgan umr sifatida talqin qiladi. “Birov uyqu dori ichirgan” degan tashbeh esa shaxsning ongli ravishda emas, balki mafkuraviy ta’sir ostida yashaganini anglatadi. Bu “birov” konkret bir shaxs emas, balki butun bir tizim, ya’ni sovet mafkurasi va uning shakllantirgan ijtimoiy muhitidir. “Qayoqqa sudrasa, ketidan ergashganman” degan jumla mustaqil tanlovning yo‘qligini, tayyor g‘oyalar asosida yashashga majbur bo‘lganini bildiradi. Bu sovet davriga xos kollektiv ong, buyruqbozlik va rasmiy mafkuraga so‘zsiz ishonch muhitini eslatadi. “Endi uyg‘onib qarasam, menga o‘xshaganlar ko‘p ekan” degan xulosa esa, bu hodisa individual emas, balki butun bir avlodga xos bo‘lgan ruhiy holat ekanini ifodalaydi. Shu bois ushbu parcha bir shaxsning oddiy iztirobi emas, balki sovet davrida shakllangan ong modelining tanqidi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu yerda urush bilan bir qatorda mafkuraviy tizim ham inson hayotini “tush”ga aylantirgan omil sifatida anglashiladi.

Romanning bosh qahramoni Rustam o‘qishini tashlab armiyaga ketadi va urush alangasi ichidagi Afg‘onistonga yuboriladi. U o‘z vatani va xalqi manfaati uchun emas, balki sovet hukumatining bosqinchilikdan iborat harbiy-siyosiy manfaatlari yo‘lida jang qilishga majbur bo‘ladi. Rustam u yerda o‘ziga o‘xshagan ko‘plab yoshlarning behuda halok bo‘layotganini, mahalliy afg‘on xalqining esa urush tufayli mislsiz azob-uqubatlarga duchor etilganini ko‘radi. Urush nafaqat uning ruhiyatini, balki jismoniy sog‘ligini ham yemiradi. Biroq fojea bu bilan tugamaydi, u uyiga tirik qaytgan taqdirda ham ko‘plab adolatsizliklar qurshovida qoladi: Oilasi og‘ir sinovlarga duch kelgan, mol-mulki tortib olingan bo‘ladi. Buning ustiga, Ambarsumyan boshliq bir guruh sovet organi xodimlari “o‘zbek ishi” masalasidagi katta jinoiy ishni qo‘zg‘ab, arzimagan ayblar va tuhmatlar bilan ko‘plab aybsiz odamlarni qamab yoki ottirib yuboradi. Ular qatorida Rustamning otasi – deputat Shomatov ham bor edi. Shu tariqa muallif urush va mustabid tuzum insonlar taqdirini ikki karra – frontda ham, tinch hayotda ham barbod qilishini ta’sirchan badiiy talqin etadi. Keltirilgan har ikki asarda urushda halok bo‘lganlar haqidagi rasmiy targ‘ibot bilan real voqelik o‘rtasidagi ziddiyat muhim badiiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, Ro‘zimat otaning o‘g‘li (Azamat) o‘limi bilan bog‘liq voqea ota nigohi orqali nihoyatda ta’sirchan ifodalanadi: “*Uch kun oldin komandiridan xat keluvdi. Hurmatli o‘rtoq Xolmatip, o‘g‘lingiz Azamat Vatan oldidagi burchini halol ado etyapti, depti. Shundoq farzand o‘stirganingiz uchun sizdek frontovikka ming rahmat depti... Uch kundan keyin eshikdan temir quti ko‘tarib kirdi. Voyenkomatdan ikki kishi bilan chastidan bittasi...“ Tezroq ko‘minglar... O‘g‘lingiz ehtiyotsizlik qildi, tok urib o‘ldi, mana do‘xtir xulosasi”, - deydi. Ochib ko‘rsak... temir yashikni ochib ko‘rsak... Tok urgan odam bilan boltada chopilgan odamning farqi bo‘ladi-ku, to‘g‘rimi?*” [9] Muallif bu parchada uch kun oldin yuborilgan maqtov maktubi va oradan ko‘p o‘tmay kelgan temir tobut o‘rtasidagi voqeani bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Jamiyatning askar yigit haqidagi “Vatan oldidagi burchini halol ado etyapti” degan tantanavor gaplari bilan “tok urib

o‘ldi” qabilidagi sovuq izohi o‘rtasida ichki mantiq yo‘q. Bu holat esa ota qalbida shubha va iztirobni paydo qiladi. Demak, asarda urush haqidagi rasmiy tasvir sun’iy va biryoqlama ekani ochiladi.

Axborot siyosatidagi ikkiyuzlamachilik hamda askarlarning o‘limi to‘g‘risidagi soxtalashtirilgan maktublar hodisasi S.Aleksiyevich asarida ham ko‘p o‘rinlarda tasvirlangan. Har ikki yozuvchi ham urushda halok bo‘lgan askarlar haqidagi rasmiy axborot bilan sodir bo‘lgan real voqelik o‘rtasida chuqur tafovut mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Natijada asarlarda keltirilgan bunday tasvirlar badiiy to‘qima emas, balki o‘sha davrning tarixiy haqiqatini aks ettiruvchi muhim dalil sifatida namoyon bo‘ladi: “*We weren’t allowed to tell the truth in the next-of-kin letters. A boy might be blown up by a mine and there’ d be nothing left except half a bucket of flesh, but we wrote that he’d died of food poisoning, or in a car accident, or he’d fallen into a ravine*”[10]. (“Bizga yaqin qarindoshlar maktublarida haqiqatni aytishga ruxsat berilmagan. Askar yigitni mina portlatib yuborsa, yarim chelak go‘shtdan boshqa hech narsa qolmasdi, lekin biz u ovqatdan zaharlangan yo avtohalokatdan o‘lgan yoki jarga qulagan deb yozar edik” - muallif tarjimasi). Hamshiraning bu monologi urushning eng qo‘rqinchli jihatlaridan birini, haqiqatni yashirish siyosatini fosh qiladi. Unda tasvirlangan holat shunchaki tasvir emas, bu totalitar davlatning axborot ustidan nazorat siyasatining aniq aksi hamda siyosiy yolg‘onning byurokratik shakli bo‘lib marhum askarlarning o‘limi ham propagandaning bir bo‘lagiga aylantiriladi. Yuqorida keltirilgan epizodlar sovet davlatining askarlar hayoti va o‘limiga bo‘lgan bepisand munosabatini, insonlarning qadrsizlanishi, toptalishini ko‘rsatadi. Farqi shundaki, bir asarda bu jarayon tashqi dramatik to‘qnashuv (ota-ona va harbiy vakillar) orqali berilsa, ikkinchisida tizim ichidagi shaxsning (hamshiraning) iqrorlari orqali ochiladi. Demak, ikki asarda ham urush nafaqat jismoniy halokat, balki haqiqatning buzilishi, so‘z va voqelik o‘rtasidagi uzilish sifatida talqin qilinadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Sink bolalari” hamda “Tushda kechgan umrlar” asarlari janriy va poetik jihatdan farqlansa-da, ularni birlashtiruvchi markaziy g‘oya – urushning inson tabiatiga zid va absurd mohiyatini ochib berishdan iboratdir. S.Aleksiyevich hujjatli polifoniya orqali tarixiy haqiqatni individual ovozlar vositasida tiklasa, O‘.Hoshimov badiiy syujet va psixologik tasvir yordamida urushning shaxs va jamiyat ruhiyatiga ko‘rsatgan halokatli ta’sirini umumlashtiradi. Har ikki asarda ham urush qahramonlik timsoli sifatida emas, balki insonni ma’naviy tanazzulga olib boruvchi, salbiy oqibatlari keyingi hayotga ham ta’sirini o‘tkazuvchi fojea sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan mazkur asarlar turli adabiy makon va estetik tizimga mansub bo‘lishiga qaramay, XX asr urush adabiyotining umumiy gumanistik yo‘nalishini namoyon etuvchi tipologik asarlar sifatida baholanishga loyiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘raqulov U., Hamroyev K. Qiyosiy adaiyotshunoslik.Toshkent, 2021. – B.4
2. Alexievich S. Zinky Boys: Soviet Voices from the Afghanistan War. Translated by Julia and Robin Whitby. New York: W.W.Norton & Company, 1992. https://openlibrary.org/books/OL1715501M/Zinky_boys
3. Alexievich S. Zinky Boys: Soviet Voices from the Afghanistan War. New York: W.W.Norton, 1992, p. 192.
4. Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar. Toshkent: “Nurli dunyo”, 2024. – B. 216
5. Esslin, Martin. The Theatre of the Absurd. New York: Anchor Books, 1961. https://openlibrary.org/books/OL23252538M/The_theatre_of_the_absurd.
6. Alexievich S. Zinky Boys: Soviet Voices from the Afghanistan War. New York: W.W.Norton, 1992, p. 141.
7. Quronov D. Davra suhbati. Romanning yangi umri.
8. Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar. Toshkent: Nurli dunyo, 2024. – B. 252
9. Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar. Toshkent: Nurli dunyo, 2024 – B. 216
10. Alexievich S. Zinky Boys: Soviet Voices from the Afghanistan War. New York: W.W.Norton, 1992, p. 33.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 821.23

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATINING DAVRLASHTIRISH MASALASIGA YONDASHUV

Qayumberdiyeva Nurjahon Muzaffar qizi, ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi tayanch doktoranti

APPROACH TO THE ISSUE OF PERIODIZATION OF MODERN UZBEK POETRY

Kayumberdiyeva Nurjakhon, TSUULL PhD student in Uzbek literature

ПОДХОД К ПРОБЛЕМЕ ПЕРИОДИЗАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Каюмбердиева Нуржахон, докторант по направлении Узбекская литература ТашГУУЯЛ



https://orcid.org/0009-0005-7149-3038
e-mail: nurjahon@937gmail.com

Annotatsiya: *Zamonaviy o‘zbek she’riyati mazmun-mohiyati va shakliy-uslubiy jihatdan yangilanib bormoqda. Maqolada shu jarayon tahlil qilinib, yangi bosqichda tahlil qilish g‘oyasi ilgari suriladi. Nazariy manbalar tahlil qilinib, muallifning shaxsiy xulosasi beriladi.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, adabiy davrlashtirish, jadid adabiyoti, istiqlol adabiyoti, adabiy mezon.*

Abstract: *Modern Uzbek poetry is being renewed in terms of content, form, and style. The article analyzes this process and proposes a new stage of analysis. Theoretical sources are analyzed and the author's personal conclusion is given.*

Keywords: *globalization, literary periodization, modern literature, independence literature, literary criterion.*

Аннотация: *Современная узбекская поэзия обновляется в содержании, форме и стиле. В статье анализируется этот процесс и предлагается новый этап анализа. Проводится анализ теоретических источников и дается личное заключение автора.*

Ключевые слова: *глобализация, литературная периодизация, современная литература, литература независимости, литературный критерий.*

Kirish. Jahon adabiyoti tajribalaridan ma’lumki, adabiy jarayonda yangilikka intilish kuchli bo‘ladi. Bugungi jadallashuv, globallashuv nafasi adabiyotda ham seziladi. Jadid adabiyoti, istiqlol adabiyoti tushunchalari ham hozirda bir muncha eskirdi. Ayni paytdagi she’riyat uslubi yangilanib, yangi tahlillarni talab qilmoqda.

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy asarga ma’lum bir adabiy davrga tegishli namuna sifatida yondashuv mohiyatning to‘g‘ri talqiniga yo‘l ochadi. Shu sabab adabiy jarayonni davrlashtirish masalasi muhim. Nazariy manbalarda davrlashtirish masalasi turlicha talqin qilinadi. Bunda ijtimoiy-tarixiy jarayon, adabiy-estetik tafakkur o‘zgarishi, adabiy mezonlarning yangilanish omillari asos qilib olinadi. Badiiyatning bosh mezoni inson kechinmalarini yoritish ekan, adabiy davr va bosqichlar ham insoniyat yashab o‘tayotgan hayot hodisalarining umumiy pafosi bilan belgilanadi. Adabiyotshunos N. Rahimjonov: “Davr tushunchasi orqali insoniyatning o‘tmishi, hoziri, kelajagi yoki inson umrining mazmun-mohiyati to‘g‘risida gap borsa-da, u eng avvalo, hayot, voqelik va inson shaxsiyati bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi” [7. 94] deya ta’kidlaydi.

Har qanday adabiy namunaning markazida inson turadi. Uning ruhiy kechinmasi, fiziologik holati,

e’tiqodi, emotsiyasi, voqelikka munosabati har doim muhit bilan, davr bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy tafakkurdagi o‘zgarishlar tahlil qilinib, ustuvor jihatlarga xos umumiylik adabiy davr tushunchasini nomlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi XX asr boshlaridan, ya’ni jadid adabiyotining yuzaga kelishi bilan boshlanadi. Shu sabab tahliliy nazariyalarda XX asr adabiyoti “Yangi o‘zbek adabiyoti” deb ataladi. Bu davrda asrlar davomida shakllanib kelayotgan an’anaviy tamoyillar o‘zgardi. “XX asr o‘zbek adabiyoti yangi o‘zbek adabiyoti. Chunki, bu davrga kelib odamlarning dunyoni tushunish tarzi, badiiy didi, olamni estetik idrok etish yo‘sini o‘zgardi. Adabiyotning obrazlar tizimi ham, ifoda tarzi ham, qahramonlar galereyasi ham o‘zgardi” [9.12]. O‘tgan asr she’riyatida badiiy maqsad ijtimoiylashdi, mafkura himoyasi va targ‘iboti bilan so‘z san’ati darajasidan uzoqlashib o‘tkinchi hodisaga aylandi, vazn yangilandi, mavzu va g‘oya o‘zgardi, yangilandi, tahlil qilindi, milliy da’vatli she’rlar baholandi, she’r tili jonli tilga yaqinlashdi, mumtoz she’riyatdagi obrazlar yangilandi, mafkuraga xizmat qildi, estetik ideal talablari o‘zgardi. Shoirlarning shaxsiy meni yo‘qoldi.

Jadidlarning dunyo adabiyoti bilan tanishuvi milliy adabiyotga ham yangiliklar kirituviga xizmat qilib, she’riyat ham shakily-uslubiy, mazmun, mavzu jihatdan yangilandi. Bu jarayondagi nazmiy o‘zgarishlar atroflicha tahlil qilingan. Nafaqat she’riyat, nasr, dramaturgiya, matbuot-u jurnalistikaning ham shakllanishi aynan shu davrdan boshlanadi. Adabiyotda muhim o‘zgarishlar bo‘lgani uchun “Yangi o‘zbek adabiyoti” atamasi berilgan. Shuning uchun adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev “Yangi o‘zbek adabiyoti” atamasi bizda ba’zan “XX asr adabiyoti” istilohining sinonimi, ba’zida “jadid adabiyoti” atamasining muqobili tarzida qo‘llaniladi” deb yozadi [3.8]. Adabiyotshunos bu davr adabiy chegarasini XIX asrning 60-yillaridan to hozirgi adabiy jarayongacha bo‘lgan voqelik bilan belgilaydi. Va buni o‘z ichida to‘rtta bosqichga ajratadi: ma’rifatchilik adabiyoti, jadid adabiyoti, sho‘ro davri adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti deb. Bu tasnif akademik N. Karimov tasnifiga yaqin. “XX asr adabiyoti manzaralari” kitobida “Milliy uyg‘onish davri adabiyoti”, “Ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti” va “Istiqlol davri adabiyoti” kabi uchta bosqichda tahlil qiladi [5.34]. Bunda har bir bosqich davr mazmuni, mohiyatidan kelib chiqib nomlangan. Maktab darsliklari va boshqa manbalarda ham asosan shu nomlanishga yaqin tasniflar keltiriladi.

Muhokama. Demoqchi bo‘lganimiz, zamonaviy o‘zbek she’riyatining bugungi qiyofasi ham mana shu davrlashtirish tarkibidagi “Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti” fasliga tegishli holda tadqiq qilinmoqda. Va zamonaviy she’riyat haqidagi aksariyat tadqiqotlar istiqlolda boshlangan nazm xususiyatini ifodalash bilan boshlanadi. Aslida bugungi she’riyat shakl-u shamoyili, mazmun-mohiyati jihatidan ham yangi bir bosqichga ko‘tarilib ulgurdi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatining umumiy nafasi aynan bugun ijod qilayotgan faol shoirlarning ijodiy mezonlari bilan belgilanadi. 80-90-yillar avlodi yangi XXI asrning yaxlit qiyofasini adabiyotga olib kirmoqda. Katta avlod shoirlari ijodi albatta, bir necha bosqichni bosib o‘tgan. Ya’ni ular eski asr silsilalari to‘lqinida beixtiyor suzib, oldinroq istiqlolga intiqlik ruhida yozishgan bo‘lsa, keyingi bosqichda mustaqillik ne’matini ulug‘lab madh yozish bosqichini bosib o‘tishgan. Ular ijod qilishni boshlagan paytlari she’riyat bugungiday ko‘ngil ixtiyoridagi san’at darajasida bo‘lmay, qaysidir ijtimoiy maqsadni ifodalashga, qandaydir katta missiyani uddalashga intilish yo‘lidan borgan. Yoki istiqlolga erishgan 90-yillarda biror shoir ijodida erkinlik va mustaqillik ne’matini ulug‘lashdan yuksakroq mavzu bo‘lmagan. Bugunning katta avlod shoirlari o‘z ijodiy faoliyatida muqarrar shu bosqichlarni bosib o‘tgan. Shu sabab ijodini XXI asrdan boshlagan shoirlar avlodini she’riyatda butunlay yangi avlod sifatida belgilash va shu jihatdan tahlilga tortish dolzarb.

Yozuvchi, adabiyotshunos olim U.Hamdam shunday yozadi: “1991-yildan keyin yurtimizda ijtimoiy-siyosiy sharoit o‘zgardi, jamiyatda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar qaror topa boshladi, so‘z san’atining mohiyati, jamiyatdagi vazifalari haqidagi tasavvurlar tubdan o‘zgardi. Ya’ni bu adabiyot tarixi nuqtai nazaridan tamomila yangi asrning boshlanishi bo‘lib, u haqda fundamental tadqiqotlar olib borish kelajakning ishidir. Biz esa maqolamizda “Yangi o‘zbek adabiyoti” deb atalgan adabiy davrning “XX asr o‘zbek she’riyati” deb ataganimiz bir yo‘nalishi

(1905-1991) haqida fikr-mulohaza yuritmoqdamiz [10.4]. Bunda aytilgan “tamomila yangi asrning boshlanishi”dagi ijodkorlar bugun yetuk ijodiy kamolotga erishdi. Ular ijodi haqidagi fundamental tadqiqotlar ham yangi ilmiy bosqichda, yangi mezonlar asosida tahlil qilinmog‘i lozim.

Natijalar. Zamonaviy she’riyatda iste’dodning ko‘lami hech qanday to‘siqlar va ta’qiqlarsiz namoyon bo‘lib, badiiy fikr qoliplardan xoli holda ifodalanmoqda. Yana bir asosiy masala – biz tahlilga qamrab olgan yangi davr she’riyati yangi bosqich deb tahlil qilinishiga yetarlicha asoslar va omillar bor:

– Bu davrga kelib olam va odam haqidagi tasavvurlar va uning ifodasi yangilandi;

– asosiy munosabat Yaratgan va inson orasidagi aloqa va uning mohiyati tafsiliga o‘tildi;

– falsafiy asos mafkura emas, inson qadriyatlari va shaxsiy kechinmalarga aylandi;

– ijodiy tafakkur tarzi sodda ifodadan murakkablik tomon yo‘naldi;

– kechinmalarning o‘ta nozik qirralari ayonlashdi;

– jamiyat adabiyoti shaxsiy adabiyotga aylandi;

– sodda ifoda murakkablashuvi mohiyatida fazilatlarga da’vat qilinmay, ichki hissiy tarbiyani berishga, sezgi kuchini shakllantirishga qaratildi;

– Qur’oni Karim ma’nolari izohi, tarjimasi adabiy janrlarning har biriga mazmunan kirib bordi va yana bir qancha xususiyatlarni aytish mumkin.

Q.Yo‘ldosh bu jarayonlarni “endigina boshlandi. Hali u ancha davom etadi” deb taxmin qiladi [3.171]. Haqiqatda yangi asrdan boshlangan nazmiy tamoyillar mo‘tadil holda asr so‘nggigacha davom etishi, balki undan keyin ham asosiy yo‘nalishni belgilashi mumkin.

Xulosa. XXI asrning 10-yillaridan keyingi nazmiy jarayon “Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati” tarkibiga kiruvchi xususiyatlar va fazilatlardan birmuncha xoli. Bugun istiqlolni ulug‘lab yozish o‘quvchini ta’sirlantirmay qo‘ygani bilan birga hech qanday dolzarblik kasb etmaydi. Bugun she’riyati 90-yillar va uning atrofidagi she’riyat uslubi, mavzusi, obrazlar tizimi, shakliy usullari jihatdan anchagina farq qiladi. Aytish mumkinki, bir pog‘ona yangi bosqichga ko‘tarilib ulgurdi. Shu sabab XXI asr she’riyatini yaxlit bir yangi bosqichda tahlil qilish va o‘rganish zarur. Adabiy davrlashtirish masalasida XXI asrdan boshlangan she’riyat uchun yangi bir davr yaratilmasa-da, “Mustaqillik davri she’riyati”ning tarkibiy qismida yangi ikkinchi bosqich sifatida kiritish o‘rinli bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bahriddinov K. Mustaqillik davri adabiyoti. Fan va texnologiya, T.: 2020. 154 B.
2. Hamdam U. Erkin badiiy tafakkur va bugungi o‘zbek she’riyati. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – T., 2013. – №48.
3. Йўлдош Қ. Ёниқ сўз. Янги аср авлоди. T.: 2006. 546 Б. 171-b.
4. Йўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеъриятининг асосий хусусиятлари: Филол. фан. ном... дисс. автореферати. T.: 2004. — 110 б.
5. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Ўзбекистон, T.: 2008. 530 б.
6. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Фан, T.: 2007. – Б.66. 10.
7. Раҳимжонов Н. Янги ўзбек шеърияти. Адиб нашриёти, T.: 2012. - 210 б.
8. Юлчиев Қ. Ўзбек шеъриятида бирлик ва учлик поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори PhD диссертацияси. – T.: 2017. – Б. 23.
9. Quvvatova D. O‘roqova N. Yangi o‘zbek adabiyoti. Durdona. Buxoro-2022. 254 B.
10. https://kh-davron.uz

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

AMIR HAYDAR VA AMIR HUSAYN: BUXORO AMIRLIGIDA HOKIMIYAT VORISLIGI VA ICHKI ZIDDIYATLAR TARIXIGA NAZAR

Tilayev Ermat Raxmatovich, Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash" bo'limi boshlig'i, tarix fanlari nomzodi, dotsent



https://orcid.org/0009-0001-3715-6813
e-mail: ermattilayev451@gmail.com

AMIR HAYDAR AND AMIR HUSAYN: A HISTORICAL OVERVIEW OF POWER SUCCESSION AND INTERNAL CONFLICTS IN THE BUKHARA EMIRATE

Tilayev Ermat Rakhmatovich, Head of the Department of Innovations, Research, Innovations and Training of Scientific-Pedagogical Personnel, Shahrisabz State Pedagogical Institute, Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

АМИР ХАЙДАР И АМИР ХУСЕЙН: ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ВЛАСТИ И ВНУТРЕННИХ ПРОТИВОРЕЧИЙ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Тилаев Эрмат Рахматович, начальник отдела инноваций, научных исследований, инноваций и подготовки научно-педагогических кадров, Шахрисабзский государственный педагогический институт, кандидат исторических наук, доцент

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIX asr boshlarida Buxoro amirligida hukm surgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xususan Mang'itlar sulolasi vakillari - Amir Haydar (1800-1826) hukmronligi va uning vorisi Amir Husayn davrlaridagi hokimiyat almashinuvi jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Amir Haydar boshqaruv tizimining markazlashuvi, uning davlar apparatini mustahkamlashga qaratilgan choralari va bu islohotlarning jamiyatdagi ziddiyatlarga ta'siri yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar:g *Buxoro amirligi, Mang'itlar sulolasi, Amir Haydar, Amir Husayn, siyosiy barqarorlik, ichki ziddiyatlar, hokimiyar vorisligi, tarixshunoslik, markaziy boshqaruv.*

Abstract: *This article analyzes the socio-political situation in the Bukhara Emirate at the beginning of the 19th century, specifically the processes of power transition during the reign of the Manghit dynasty representatives — Amir Haydar (1800–1826) and his successor, Amir Husayn. The study highlights the centralization of Amir Haydar's administrative system, his measures aimed at strengthening the state apparatus, and the impact of these reforms on social tensions.*

Keywords: *Bukhara Emirate, Manghit dynasty, Amir Haydar, Amir Husayn, political stability, internal conflicts, succession of power, historiography, central administration.*

Аннотация: *В данной статье анализируется общественно-политическая ситуация, сложившаяся в Бухарском эмирате в начале XIX века, в частности процессы смены власти в период правления представителей династии Мангытов — эмира Хайдара (1800–1826) и его преемника эмира Хусейна. В исследовании освещаются централизация системы управления эмира Хайдара, его меры по укреплению государственного аппарата, а также влияние этих реформ на социальные противоречия в обществе.*

Ключевые слова: *Бухарский эмират, династия Мангытов, эмир Хайдар, эмир Хусейн, политическая стабильность, внутренние противоречия, преемственность власти, историография, центральное управление.*

Kirish (Introduction). Buxoro amirligi Markaziy Osiyoning eng yirik va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri bo‘lib o‘ziga hos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan ajralib turadi. Bu o‘lkani tarixchi Muhammad Ali Baljuvoniy o‘zining “Tarixi Nofeiy” asarida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: “Bilmoq lozimki bu shaharni “ilm bog‘chasi” deydilar. Buxoro so‘zining asl ma’nosi ilmdir” . Tarixchi olim Qahramon Rajabovning ta’riflashicha: “Sharqning eng qadimgi shaharlaridan biri bo‘lgan Buxoroi sharif nafaqat o‘tmishda, balki XX asrning birinchi choragida ham musulmon huquqshunosligining tan olingan markazi edi” [5].

Asrlar mobaynida Buxoro ne-ne sulolalar tomonidan boshqarilgan. Bu sulolalar ichida Buxoro amirligini boshqargan eng so‘nggi sulola bu mang‘itlar sulolasidir. Mang‘itlar qavmi oq mang‘it, qora mang‘it va to‘q mang‘it kabi shoxobchalarga bo‘lingan. 1756-1920-yillarda Buxoro amirligini boshqargan mang‘itlar sulolasi mang‘it urug‘ining to‘q mang‘it shoxobchasidan bo‘lgan.

Tadqiqot Metodologiyasi (Methodology). Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli-strukturaviy, kritik-tahliliy va manbashunoslik metodlari qo‘llaniladi.

Tadqiqot Natijalari (Results). Buxoro amirligi davridagi davlat boshqaruvi Xiva va Qo‘qon xonliklariga nisbatan farq qiladi va buning sababi hukmdorlarning davlatni rivojlantirish uchun olib borgan siyosati va islohotlari natijasidir. XIX asr boshlariga kelib Buxoro amirligi Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surxon vohasi, Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan bekliklar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo‘ydan to Murg‘ob daryosigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan yirik davlatga aylandi. Mamlakatda markazlashtirish va davlat chegaralarining dahlsizligini ta’minlashda Amir Haydar ibn Amir Shohmurod (1800-1826) siyosati o‘zgachadir. Xususan, Amir Haydarning taxtga kelishida Amir Shohmurodning bosh vaziri O‘tkir qo‘shbegining ham xizmati katta, Shohmurod betob bo‘lib yotganida, taxt vorisi etib Haydarni tayinlashini maslahat berib bir tomondan Amir Haydar ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxonning nabirasi ya’ni Amir Haydar Abulfayzxonning qizig Yulduz begim (Shamsiyabonu) va Amir Shohmurodning nikohidan dunyoga kelganligi va bu bilan uni taxtning qonuniy hukmdori ekanligini asoslaydi. Ikkinchi tomondan esa Haydarning yuksak ma’naviyati, tetik ruhi va xushyorligini sabab qilib ko‘rasatadi[1].Amir Shohmurod katta o‘g‘li Haydarni amirlikda nufuzi oshib borayotgan Nasaf (Qarshi) viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Shundan so‘ng Buxoro amirligi taxtining valiaxdini (vorisini) Nasafda hokimlik qilishi XIX asrning o‘rtalariga qadar an’ana tusiga kiradi. Amir Shohmurodning (1800-yil 30-noyabrda) vafotidan so‘ng uning vorisi sifatida 1800-yil 2-dekabrda 22 yoshda Nasafdan Buxoroga kelib, Buxoro amirligi taxtini egallaydi.g Amir Haydarning taxtga chiqishini Kashko‘li Salimiy o‘z asarida shunday tavsiflaydi: “1800-yilda yigirma ikki yoshida Qarshi viloyatidan kelib, Buxoroning saltanat taxtiga o‘tirdi. Mang‘it avlodlaridan bo‘lgan podsholarga Sayyid laqabini berilishi Amir Haydar davridan boshlandi. Sayyid Amir Haydar ilm va hunarda iste’dodli edi. Ba’zi diniy ilmlarda boshqa ulamolardan g‘olib chiqar edi”g deydi [2]. Amir Haydar Buxoro madrasalarida tahsil olib, Qur’oni Karim sharhi va hadis ilmlarini puxta egallagan.

U Buxoro amirligida vujudga kelgan keskin siyosiy vaziyatni yumshatishga harakat qilgan. Shu bilan birga Amir Haydar Buxoro amirligidagi markaziy hokimiyatga bo‘ysunishdan bosh tortib, ayirmachilik (separatistik) kayfiyatlarni namoyon etayotgan Shahrisabz, Kitob, Urgut, Miyonqol va Sa marqand hokimlariga qarshi janglar olib borishga majbur bo‘lgan. Mahalliy hokimlarning siyosiy hokimiyat uchun kurashda u oddiy aholining ortiqcha qon to‘kilmasligi uchun ko‘pincha murosa va kelishuv yo‘lini tanlagan. Masalan, Amir Haydar o‘z hukmronligining dastlabki yillarida Qo‘qon xonligi bilan bo‘lgan urushda ko‘rsatgan yordami uchun Shahrisabzning mahalliy hokimi Doniyor valloma Niyozali o‘g‘liga Shahrisabz viloyatini mulk sifatida taqdim etgan. Natijada, Shahrisabz vohasi 1858-yilgacha yarim mustaqil boshqaruvni o‘z qo‘lida saqlab qolgan[5].

Tahlil va Muhokama (Analysis and Discussion). XIX asr boshlarida amir Haydar harbiy qismlarni ikki b‘limga muntazam qo‘shin “navkariya” va nomuntazam “qoracherik”ga bo‘ldi. Buxoro amirining “lashkar” “cherik” “qo‘shin” deb nomlangan harbiy kuchlarnig nomuntazam qismi (“qora cherik”) oliy hukumdorning amiriga binoan harbiy harakat davomida tinch aholi orasidan to‘plangan. Amirni jarchilari boshlangan harbiy yurishlar haqidagi xabarlarni bozorda e’lin qilganlar.

Harbiy harakatlar davomida, shuningdek amirlikdagi harbiy qal'alarni himoya qilishda "qoracherikdan unimli foydalanganlar[6]. Amir Haydar o'z qo'shinidagi askarlarga muntazam ravishda maosh to'lagan. Bundan tashqari u mamlakatdagi soliq yig'uvchilarga yillik maosh ajratish bilan birga, ularga yiliga ikki marta sarupo ulashgan. O'z navbatida kambag'allar, yetim-yesirlar, qashshoqlar, darveshlar, muxojirlar va mullalarga har yili nafaqa berish uchun katta miqdorda mablag' ajratgan[7]. Amir haydar mamlakatda ta'lim tizimiga katta ahamiyat qaradi. Uning o'zi ham madrasalarda 400-500 ta talabalarga ma'ruzalar o'qigan. Qiroat va xattotlikda ham mohir bo'lgan va hatto talabalari uchun Turkiyadan kitoblar keltirishga erishadi. Amir Haydar otasi Amir Shohmurodning diniy siyosatiga qat'iy amal qilgan, ayniqsa ulamo va olimlarga munosabat hamda tashqi siyosatni izchillik bilan davom ettirgan. U Usmoniylar davlati bilan tashqi siyosiy munosabatlarni mustahkamlash maqsadida 1819 – yilda Mehmed II bilan maktub almashgan. Bu haqida Anke fon Kyugelgen asarida batafsil ma'lumot bergan[1].

A.D.Vasilyevning ta'kidlashicha 1801 – yilda Amir Haydarning elchisi Mirza Hoja Sobir Istambulga yuboriladi[3]. Devonbegi Eshmuhammad va qo'riqchiboshi Mirza Muhammad Yusufni Istanbulga Buxoro amirligining rasmiy vakili sifatida yuboradi. Amir Haydar Buxoro amirligining Usmoniylar davlatidagi elchisi Mirza Muhammad Yusuf hamda uning vafotidan so'ng elchi Mirza Muhammad Fozil orqali yuborilgan nomalarida siyosiy munosabatlarni mustahkamlash haqida so'z yuritilmasdan, balki ko'proq ikki davlat o'rtasida madaniy va iqtisodiy hamkorlik borasidagi takliflar bayon etilgan edi [4]. 1815-yilda Buxoro elchisi Muhammad Yusuf devonbegi Rossiya imperatorini Napoleon ustidan qozonilgan g'alaba bilan tabriklash uchun Peterburgga yuboriladi[3] . Amir 1819- yilda Rossiya podshosi Aleksandr I huzuriga Mirzo Muhammad boshchiligidagi elchilarni jo'natadi. Ularning asosiy maqsadi Buxoro amirligining karvonlariga cho'l qaroqchilari tomonidan qilingan hujum haqidagi shikoyatni yetkazish edi[3].Amir Haydarni hokimyati 1820-1821-yillardan zaiflasha boshlagan edi. Chunki, unga qarashli barcha o'lkalar yopasiga amalga oshayotgan ommaviy tartibsizliklar girdobiga tushgandi. Bu fitnalarni xitoy-qipchoq jamosi chiqargan edi. Amir Haydar Qarshida hokim bo'lgan ikkinchi o'g'li Nasurullohxoni oldiga uning ishlarini ko'zdan kechirgani boradi va o'sha yerda hastalanib qoladi. Buxoroga kelgach kasaligi borgan sari og'irlasha boradi. 1826-yilda Amir Haydar hastalik sabab vafot etadi. [8]. Uning o'limidan so'ng Buxoro amirligi taxtiga dastlab kichik o'g'li Amir Husayn taxtga chiqqan va 78 kun hukmronlik qilgach, 1826-yil 22- dekabrda to'satdan vafot etgan. Amir Husayndan so'ng taxtga Amir Haydarning katta o'gli Amir Umarg ba'zi saroy a'yonlari va qo'shin qo'mondonlarining yordami bilat taxtga o'tiradi. U 4 oy davomida hukmronlik qiladi. 1827 – yil aprelda amirlik taxtiga Amir Nasurullohxon chiqandan keyin uzoq vaqt Buxoroni boshqardi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda Amir Haydar zukko hukmdor bo'lib, o'z davrining ma'rifatparvar kishisi sanalgan. Davlatni markazlashtirish yo'lida olib borgan yurishlari to'la to'kis samara bermasa-da, ajdodlar an'anasini davom ettirib qat'iylik bilan siyosat yuritdi. Mamlakatdagi ko'plab harbiy harakatlarni yaxshilash uchun harbiy islohot o'tkazdi, ta'lim islohoti o'tkazdi. Shunday bo'lsada ko'plab xarajatlarni qoplash uchun axoliga og'ir soliq va majburyatlarni yuklashi natijasiga unga qarshilar ko'payib borgan. Amir Haydar davlat hujjatlarini tizimlashtirishga alohida e'tibor qaratgan mang'itlar sulolasining dastlabki hukmdorlaridan biri edi. Shuningdek Amir Haydar davri tashqi siyosati va diplomatiyasida ehtiyotkorlik va sergaklik ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анке фон Кюгельген Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. (XVIII-XIX вв.). Алматы: Издательство Дайк-Пресс, 2004. 279-с.
2. Kashko'li Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. Fors tilidan N.Yo'ldoshev o'girgan. Buxoro- 2003. 292 b.
3. Васильев А.Д. Знамя и меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Централной Азии и Османской империи (середина XVI — начало XX вв.). Москва, 2014, п.113
4. Исмаилова. Б. Политическая история Бухарского эмирата при Эмире Хайдаре (1800-1826 гг.) Душанбе, 1999. 57-с.
5. Q.Rajabov.g Buxoro mang'it amirlari. Monografiya. Fan – Ochun, Toshkent, 2025, 118-119 b.
6. Д.Х.Зияева. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Тошкент. SHARQ Акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2012. 280 b.
7. Shodiyev J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi.- Toshkent, 2010.21-22-betlar.
8. Muhammad Hakimxon to'ra. Muntaxab at-tavorix.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. 716-b.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 82-31:81'38

“O‘TKAN KUNLAR” VA “YALDO KECHASI” ROMANLARIDA POETIK NUTQ”: QIYOSIY TAHLIL

Boboxonova Durdona Ermamat qizi, ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

POETIC DISCOURSE IN THE NOVELS “DAYS GONE BY” AND “YALDO’S NIGHT”: A COMPARATIVE ANALYSIS

Bobokhonova Durdona Ermamat qizi, Basic Doctoral Student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ПОЭТИЧЕСКАЯ РЕЧЬ В РОМАНАХ “ДНИ МИНУВШИЕ” И “НОЧЬ ЯЛДО”: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Бобохонова Дурдона Эрмамат кызы, базовый докторант, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы



https://orcid.org/0009-0000-4858-3178
e-mail: redmidurdona@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” hamda uning davomi sifatida taqdim etilgan Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani tarixiy haqiqat va ijodkor maqsadlarini aniqlash borasida tahlilga tortilgan.*

Maqolaning qiyosiy metoddan foydalanib yozilgan asosiy qismida ikkala asar mualliflari qo‘llagan portret turlari, obrazlar tipologiyasi, syujet qurilishi, asarning poetik nutqiga xos unsurlar va ularning asarda tutgan o‘rni ilmiy asoslangan hamda misollar bilan dalillangan.

Xulosada Vatanparvarlik ruhining har ikkala: “O‘tkan kunlar”da ham, “Yaldo kechasi”da ham ustunligi haqida gap ketadi. Bu tushunchaning bugungi kunda ham aktualligi asarlardan keltirilgan parchalar bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *“O‘tkan kunlar, “Yaldo kechasi”, portret turlari, obrazlar tipologiyasi, syujet qurilishi, poetik nutq, qiyosiy metod, adabiy mistifikatsiya, poetik nutq xususiyatlari.*

Abstract: *The article analyzes the historical truth and creative goals of Abdulla Qodiriy’s “Days Past” and its sequel, Hayriddin Sultan’s “Yaldo Night”.*

The main part of the article, written using the comparative method, discusses the types of portraits used by the authors of both works, the typology of images, the plot structure, the elements inherent in the poetic speech of the work, and their place in the work, scientifically substantiated with examples.

The conclusion discusses the superiority of the spirit of patriotism in both “Days Past” and “Yaldo Night”. The relevance of this concept today is explained by excerpts from the works.

Key words: *“Days Past”, “Yaldo Night”, types of portraits, typology of images, plot structure, poetic speech, comparative method, literary mystification, features of poetic speech.*

Аннотация: *В статье анализируются историческая достоверность и творческие цели романа Абдуллы Кодири “Дни минувшие” и его продолжения, романа Хайриддина Султана “Ночь Ялдо”.*

Основная часть статьи, написанная с использованием сравнительного метода, рассматривает типы портретов, используемые авторами обоих произведений, типологию образов,

структуру сюжета, элементы, присущие поэтической речи произведения, и их место в произведении, научно обоснованные и подтвержденные примерами.

В заключении обсуждается превосходство духа патриотизма как в "Днях минувшие", так и в "Ночи Ялдо". Актуальность этой концепции сегодня объясняется отрывками из произведений.

Ключевые слова: *"Дни минувшие", "Ночь Ялдо", типы портретов, типология образов, структура сюжета, поэтическая речь, сравнительный метод, литературная мистификация, особенности поэтической речи.*

KIRISH. Adabiyotda tarixda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki olis o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratilar ekan, ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda badiiy to‘qimadan ham samarali foydalanadi. Ijodkor tarixiy shaxslar obrazini yorqin mujassamlashtirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to‘qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr muhitini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va kundaliklar h. k.) asosida o‘rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o‘sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. "Ijodkorning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, – deb yozadi Naim Karimov, – kitobxonlarni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish va shu yo‘l bilan ma’rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o‘tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o‘tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir"[Karimov N. 7].

Ushbu kichik tadqiqot ham bir taassurot, o‘qiganlarimdan uqqanlarim ruhida, "O‘tkan kunlar" hamda "Yaldo kechasi" romanlari muqoyasa qilingan holda yozilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Zamonaviy filologiyaning eng dolzarb va muhim sohalaridan biri qiyosiy adabiyotshunoslik sanaladi. A. Veselovskiy, V.Jirmunskiy, F.Buslayev, M.Alikseyev kabi adabiyotshunos olimlar badiiy asarlarni qiyosiy o‘rganishda alohida maktabga asos soldi. Qiyosiy adabiyotshunoslikning tekshiruv obyekti jahon adabiyoti yoki milliy adabiyotlarga oid masalalardan tashqari, milliy adabiyotlarning alohida olingan yirik vakillari ijodi yoki (ular ijodi namunasi bo‘lgan) alohida bir asar ham bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda esa biz bir makon, ikki zamonda yashagan ijodkorlarni, xronikal voqealar tasvirlangan tarixiy romanlarni qiyosan ko‘rib chiqamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Roman muallifi "adabiy mistifikatsiyadan foydalangan holda, "O‘tkan kunlar"ning Ikkinchi kitobi tarzida; buyuk Qodiriy nomidan, Qodiriy bo‘lib yozdi…"[G‘afurov I. 3:2] Romanni bu shaklda yozish sababini muallif quyidagicha izohlaydi: "Men kitob mualliflarining kurash yo‘li, murod-maqsadlari, orzu-intilishlari, aql-zakovati, bukilmas iymon-irodasi, qanchalar ayanchli kechgan bo‘lmasin, ibratli qismati haqida zamondoshlar, alalxusus, yosh avlodimiz ko‘proq bilishlari, haqqoniy tasavvurga ega bo‘lishlari zarurligini tobora chuqur anglay boshladim… Oldimda turgan eng qiyin va asosiy muammo asarga munosib badiiy shakl topishdan iborat edi… Bu to‘g‘rida juda ko‘p o‘ylab, bosh qotirib, nihoyat, saodatli kunlarning birida xayolimga shunday fikr keldi: buning yagona yo‘li – adabiy mistifikatsiya…"[Xayriddin S. 3:5] Shu yo‘sinda muallif romanni "O‘tkan kunlar"ning davomi o‘laroq qabul etilishi, Qodiriygagina xos yozish shakli – mahorat davom ettirilib, roman voqealarining, ijtimoiy-tarixiy vaziyat, qahramonlar hayotining keyingi sahifalari ochilishini niyat qiladi.

"O‘tkan kunlar" birinchi navbatda, tarixiy romandir. O‘z asarida tasvirlamoqchi bo‘lgan davr hayotini juda yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy bir necha xonlar zamonini boshidan kechirgan otasi Qodir bobodan juda ko‘p qiziqarli voqealar eshitib, Xudoyorxonning ayollaridan biri Roziya oyim bilan uchrashadi hamda Qo‘qonda bir oy qolib, undan tarixiy va qiziqarli xotiralarni yozib oladi. Shuningdek, adib Qo‘qon xonligining so‘nggi

davriga oid ko‘pgina tarixiy manbalarni ham o‘rganib chiqqani ma’lum.

Shunday bo‘lsa-da, Abdulla Qodiriy asarlarini yozishga kirishar ekan, tarixiy faktlar zanjiriga, muayyan voqealar silsilasiga bog‘lanibgina qolmay, o‘z maqsadidan, roman konsepsiyasidan kelib chiqqan holda to‘qima obraz va voqealarni ham yaratadi. Bu hol esa asarni tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga yo‘g‘rilgan shakliga aylantirdi. Bu borada Oybek o‘zining “Abdulla Qodiriyning ijod yo‘li” degan tadqiqotida “O‘tkan kunlar” romani tarixiy syujetga egaligini asoslashga harakat qilgan[Ойбек. 2:122].

“Yaldo kechasi” romanining tarixiy-badiiy konsepsiyasi haqida muallif shunday yozadi: “… asar matnining asosiy qismi jadid va qadimchilarning ilmiy, badiiy va publitsistik asarlari, bahs-munozaralari, chor va sovet hukumati arboblari hamda o‘tgan asrning 20 – 30-yillaridagi mahalliy rahbarlar faoliyatiga oid rasmiy qog‘ozlar, sud-tergov hujjatlaridan olingan ko‘chirmalar asosida shakllantirildi. Faqat zarur o‘rinlarda fikr va mantiq zanjirini bir-biriga payvand qilish maqsadida matnga badiiy ishlov va sayqal berildi.” [Xayriddin S. 3:8] Bundan “Yaldo kechasi” ham “O‘tkan kunlar” kabi tarixiy haqiqatga buysungan holda pishiq, puxta poydevor asosiga qurilgani ma’lum bo‘ladi.

Muallif uslubida Qodiriyga uvayslik bilan birga, “Yaldo kechasi”da “O‘tkan kunlar”dan farqli jihatlarni ham ko‘rish mumkin. Adib novatorligini shakl jihatdan tadqiq qilganda, romanning shakli uning tarkibiy qismlari bilan belgilanishini inobatga olish zarur. Roman shakli, avvalo, uning badiiy komponentlari – badiiy nutqi, syujet, kompozitsion qurilishi, xarakterlar sistemasi, fabula yaratish bilan belgilanadi. Ijodkor shuurida pishib yetilgan har qanday asar g‘oyasi, ijodkor badiiy niyati so‘z orqali, nutq orqali kitobxonga yetib boradi. Asar yashovchanligini, O‘tkir Hoshimov ta’biri bilan aytganda ikki beshafqat imtihon: vaqt va kitobxon sinovidan o‘ta olishini [O‘. Hoshimov. 8:226] til – badiiy asar tili – poetik nutq hal etadi. Shu sababdan badiiy nutq asar mazmunini yaratishning ham birlamchi qurolidir. Shunga ko‘ra uning tasviriylik, hissiylik (ekspressivlik), ta’sirchanlik, serqatlamlik, obrazlilik, farqlanganlik, ma’nodorlik (aforizm), qisqalik (lakonizm), tipiklashtirilganlik, xalqchillik kabi bir qancha xususiyatlari bor.

Abdulla Qodiriy o‘z asarining hamma uchun tushunarli bo‘lishini, undagi har bir so‘z aniqligi bilan matnda tasvirlanayotgan holatni ochib berishga xizmat qilishini e’tibordan chetda qoldirmaydi. Bu jihatdan Xayriddin Sulton ham Abdulla Qodiriyga xos poetik nutqqa sodiq qolgan holda o‘sha davr kishilari nutqiga xos unsurlarni, birliklarni asarga kiritib, qahramon sa’jiyasidan kelib chiqib ularni “gapirtiradi”. Xususan, “Yaldo kechasi” da 12 yoshidayoq barcha yaqinlarini yo‘qotib, hayotning o‘zi ulg‘aytirib qo‘ygan Yodgorbek nutqida doimo bosiqlikni, o‘ktamlik va O‘zigagina va o‘ziga ishonchni ko‘rish mumkin. Zumradbibiga nisbatan hislarini ochiq aytolmasligi esa, tabiiy, “O‘tkan kunlar” da Otabekning Kumush xayollari bilan band bo‘lgan o‘rinlarni yodimizga keltiradi. Yoxud nutqning farqlanganlik xususiyati “O‘tkan kunlar”da Homid, Xushro‘y, Jannat xola kabi qahramonlarning nutqiga xos qo‘pollik, johillik, yaltoqilik “Yaldo kechasi”dagi Rafiq maxzum, Mullo Qobul Mahmud, rus amaldorlari nutqida ham shu tarzda aniq keltirilishida ko‘rinadi: “…Bu gap ahli ulamo orasida battar g‘uluv qo‘zg‘adi. Qobul Mahmud xojasini qutqarmoq uchun yana yordamga shoshildi.

– Aziz birodarlar! Man Xudo haqqi shohidlik berib aytamanki, Ostroumuf to‘ra “Turkiston” jaridasiga muharrir bo‘lg‘andin to shul vaqtgacha yozgan so‘zlari va qilgan ishlariga nisbatan hech kim “Falon harakati andozai shar’iydan xorij”, deb, bahs va irod yetkurgoni yo‘q. Agarchandi ul zot o‘zlari nasora dinida bo‘lsalar ham, to shul vaqtgacha biror ulamomizga, imom-xatiblarimizg‘a haqorat bo‘ladurg‘on bir kalom yozmadilar, biror musulmon, ahli qiblani “kofir” nomi ilan yod qilg‘onlari yo‘q…”[Xayriddin S. 3:200]

Obrazlilik, hissiylik, ta’sirchanlikka misolni asardan ko‘plab topish mumkin: *“Zaynab Kumushning oshiga qo‘shib bergan og‘uni tashqaridan keltirmagan, balki yuragini to‘ldirgan zahar-zaqqumning bir necha tomchisini qabih niyati yo‘lida ishlatkan, xolos”, “...so‘ngra (Yusufbek hoji) birinchi bor ko‘rib turgan dilband nabirasini mahkam bag‘riga bosqan ko‘yi, oppoq soqolini ko‘z yoshlari bilan sug‘orib, yosh bola kabi ho‘ng-ho‘ng yig‘ladi”, “Ey mehribon Rabbim, qudrati va shafqati cheksiz Rabbul olamin, bir yetim bolag‘a ko‘rsatgan bu yanglig‘*

ulug‘ marhamat va inoyating haqqini bu ojiz-u notavon bandang qay yo‘l bilan ado etsin?.. Mendek – haqir-u zabun bir musofir Nusratxon to‘ra kabi sirli-salobatli zotg‘a yuragimdagi botiniy muhabbat dostonini ikki dunyoda ham oshkor qilolmas edim-ku!..” “Yaldo kechasidan” olingan ushbu parchalardan qahramonlar ruhiyatidagi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin.

Poetik nutqqa xos yuqorida sanalgan xususiyatlar ikkala ijodkorda ham mushtarak. Aforizmlik xususiyati “Yaldo kechasi” romanida ham bot-bot asar kompozitsiyasini mustahkamlashga yordam berib, voqea va qahramon holatini ochib berishda qo‘l kelgan. Asarda aforizmlarning har ikkala turidan foydalanib: zamondosh, o‘tmishda o‘tgan shoir-u adiblar ijodidan, xalq tilidan olingan parchalar, hikmatlar beriladiki, bu asar mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Xususan, Farididdin Attorning

“Chu shatranj o‘ynamoqqa bemajolsen,
Falak o‘ynar esa – hayron-u lolsen” , -

bayti qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qilsa, muallif bilan zamondosh Omon Matjonning she’ridan *“omad o‘tar, baxt o‘tar, xonlar o‘tar, taxt o‘tar”* satri Xudoyorxon bilan bog‘liq o‘rinda mohirlik bilan qo‘llangan. Bundan tashqari hadis-u oyatlardan, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur Mirzo, Xoja, Muqimiy, Avaz O‘tar, Cho‘lponlarning asarlaridan parcha keltirish bilan birga, qahramonlarning individual nutqi orqali ham aforizmlar beriladi. Masalan, “Yaldo kechasi” romanida Oynisaning mana bu gapi tagida chuqur ma’no bor: *“Go‘daklik chog‘idan qo‘l-oyog‘ini chandib bog‘lab, bolani bandi qilamiz, shu uchun ham xonadonimizda o‘g‘lon emas, qul yetishtiramiz”.* Bundan tashqari asarda *“Qozonga yaqin yursang, qarosi yuqar”, “Har joyning tulkisini o‘z tozisi ovlaydi”* kabi maqollar og‘zaki aforizmlar sirasiga kiradi. Umuman olganda, har bir keltirilgan aforizm romanda zalvorli o‘ringa ega.

“Yaldo kechasi” romanida muallif bir necha o‘rinlarda kitobxonga murojaat qiladiki, bu ham asarga o‘zgacha joziba qo‘shadi: “Agar muhtaram o‘quvchilarning yodlaridan ko‘tarilmagan bo‘lsa, qo‘lingizdagi kitobning o‘tkan bir faslida, aniqrog‘i “Qo‘y terisini yopingan qashqir” deb nomlangan bobida “Najot” maktabidan sharmisor etib quvilgan Rafiq maxzum kirdikorlari haqida jirkanib hikoya qilishga majbur bo‘lgan va bu xususda minba’d so‘z ochmasliqqa va’da bergan edik. Taassufki, bu kun shul ahdimizni buzishga to‘g‘ri kelib, siz, izzatli mushtariylar qarshisida yuzimiz lolagun bo‘lib turadir. Lekin buning uchun kamina xodimingizni aybsitmasligingizni o‘tinib so‘rar edim, chunki muallif bechoraning ixtiyoriga zid o‘laroq, o‘shal fosiq maxzum qissamiz sahifalariga to‘satdan, surbetona bostirib kirib keldi”[Xayriddin S. 3:429].

Qiyosiy adabiyotshunoslikda muqoyasa uslub, badiiy nutq bilan birga, asosan, obrazlar tipologiyasi, syujet qurilishi masalalari, katta va kichik adabiy-badiiy detallar asosida, ijodkorlar dunyoqarashi, asarlarning g‘oyaviy-badiiy tuzilishi borasida olib boriladi. Shulardan qahramon muammosi qiyosiy adabiyotshunoslikning bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Zero qahramonsiz asar g‘oyasini, ijodkor maqsadini ro‘yobga chiqarish amri-maholdir. Asardagi bosh qahramon butun roman sistemasining “quyoshi”, uning atrofida hamma narsa, hamma personajlar harakat qiladi, badiiy komponentlar shunga bo‘ysundiriladi, romanda hamma narsa qahramon orqali o‘tadi, qahramon markazida turadi.

Qahramon obrazini yaratish – badiiy adabiyotda eng murakkab jarayonlardan biridir. Badiiy obrazni portretdan ayro tushunib bo‘lmaydi. Dinamik yoki statik, siyrat yoki surat bilan bog‘liq bo‘lsin, portret yaratish orqali ijodkorning badiiy niyatini, uning mahoratini anglab olish mumkin. Portretda qahramonning nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki ichki dunyosi, ruhiyati, kechinmalari ham aks ettiriladi. Asar qahramonlarining har biri individual, “mustaqil bir inson”. Kitobxonni ular bilan portret tanishtiradi.

Adabiyotshunoslikda bir qancha portret shakllari farqlanadi. Xususan, tavsifiy, qiyosiy, portret-taassurot, psixologik, xarakter portreti, shuningdek, arxetipik, nutqiy, satirik portretlar [Есин А.Б. 4:248] – shular jumlasidan.

“O‘tkan kunlar”dan farqli “Yaldo kechasi”da qahramonlar, ayniqsa, asosiy obrazlar batafsil, atroflicha tasvirlanmaydi. Yusufbek hoji, O‘zbek oyim, Hasanali, Otabek, Mirzakarim Qutidor, Oftoboyim, Kumush tasvirlanganidek portretni “Yaldo kechasi”da uchratmaysiz. Asarda portretlar bir muncha qisqa: asosiy detallar, qahramon xarakteriga xos fazilat va illatlar, alohida xususiyatlargagina e’tibor qaratiladi. Masalan, romanning 196-betiga kelibgina Yodgorbekning

tashqi ko‘rinishi haqida qisqa tasvir keltirilsa, Zumradbibi portreti esa detallar berilmagan holda umumiylikda tasvirlangan. Quyida qiyoslash uchun ikkala asardan parcha keltirgan holda portret ko‘rsatilgan:

Har ikki asardagi portretlar	
☐ ***OTABEK*** “yigirma to‘rt yoshdagi *og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabz urgan bir yigit”*	☐ ***KUMUSH*** “… quyuq jinggila kiprak ostidagi timqora ko‘zlari bir nuqtaga tikilganda, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi… qop-qara kamon, o‘tib ketgan nafis qiyig‘ qoshlari chimirilganda nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi… to‘lg‘an g‘uborsiz yuzi biroz qizilliqg‘a aylanganda kimdandir uyalg‘an kabi…”
☐ ***YODGORBEK*** *“…baland bo‘ylik, qaldirg‘och qanot mo‘ylabliq, xushro‘y bir yigit”*	☐ ***ZUMRADBIBI*** *“…qashshoq bir bo‘zchi yigit va xokisor nilchi ayolning muhabbat chamanida yashnab ochilgan nafis chechak bo‘lmish Zumradbibi Marg‘ilon suluvlari orasida eng suluvi, zebo sanamlari ichra eng sanama rastasi bo‘lib tanilg‘an bir mahliqo edi”.*

Ijodkor bu o‘rinda portretning tavsifiy shaklidan foydalangan bo‘lsa, “Mansur ponsad kamgap, nimadir so‘ralsa, qisqa-qisqa javob qaytarar, boshqa payt sukut saqlab o‘tirar edi”[Xayriddin S. 3:115] tarzida xarakter portretni qo‘llagan. Asar mutolaasi davomida portretning boshqa turlarini ham ko‘plab uchratish mumkin. Obrazlarning suratiga yarasha siyratini ko‘rsatish, qahramon ruhiyatini, kechinmalarini, boshqalarga va umuman, muhitga munosabatini namoyon qilishda asosiy ijod quroli – portretdan foydalanish har bir ijodkorda o‘ziga xos va takrorlanmas bo‘lishi tabiiy.

Syujet qurilishi hamda shakllari ilmiy adabiyotlarda xronikali, konsentrik, retrospektiv, assotsiativ syujet kabi necha xil tasnif qilinadi.

Xronikali syujetda qahramon hayoti, uning shakllanishi evolutsion, birin-ketinlikda beriladi.

“O‘tkan kunlar” romanining ilk sahifalaridanoq Hasanalini “bolaliq vaqtida Erondan kishi o‘g‘irlab kelguchi bir turkman qo‘lidan Otabekning bobosi o‘n besh oltin barobariga sotib olg‘an”ini, asar davomida uning bu xonadonda ellik yillardan buyon yashab, u yerda oila qurgani, hayotining keyingi yillari qanday kechgani keltirib o‘tiladi.

“Yaldo kechasi” asarida bunday syujetga misol qilib Haydar Burhon obrazini keltirish mumkin. Chustdan nari chiqmagan o‘spirin Haydar Burhon avvaliga “Najot” gazetasida muxbir bo‘lib ishlaydi, keyinchalik No‘shiravon Yovushev, Yodgorbeklar qatori jinoyatda ayblanib 6 yilga Sibirga badarg‘a qilinadi. Oktabr inqilobi sabab ko‘plab mahbuslar qatori Tabul, Qozoqiya, Shamay kabi hududlardan o‘tib turli voqealarni boshdan kechiradi: “Alash o‘rda” rahbarlari bilan inqilobiy harakatlarda qatnashadi; rus tilini bilgani sabab Alixon (Alixon Bo‘keyxonov – qozoq davlat va jamoat arbobi, zamonaviy Qozog‘iston tarixida ilk Vazir) ning qo‘l ostida kotib bo‘ladi; yurtga qaytgach “Buxoro axbori”da bir yildan ko‘proq xizmat qiladi. U yerdan ham ketgach, Chustga boradi, oilasidan hech kim qolmagani bilib, singlisini ham topolmagach Ozodbek oldiga keladi. Haydar Burhonni asar davomida “…olti yarim sahifadagi yozuvlar o‘chib ketgani uchun ularni o‘qib bo‘lmadi” degan izohdan so‘ng Odilbek yonida ko‘ramiz.

Konsentrik syujetda voqealar sabab-oqibat tartibida joylashtiriladi. Syujetning bu turida hayotiy voqealar va qahramonlar xarakterini chuqurroq tahlil qilishga imkon yaratiladi.

“O‘tkan kunlar” Homidning Otabek bilan ilk bor ko‘rishganidayoq jiyani Rahmatning Kumushdan gap ochganida “bir turlik vaziyatda yer ostidan” qaraganidan,

Otabekni “yer ostidan ta’qib etgan”idan boshlangan adovat Homidning qo‘rboshi oldiga, uning O‘tabboy qushbegi yoniga borishi, biroq bundan hech bir ish chiqmagach, Homid “bir g‘aribi bechora” bo‘lib Xudoyorxonga xat yozishiga va nihoyat, “Dushanba kuni kechasi” boblari voqealarining yuz berishiga olib keladi.

“Yaldo kechasi”da bunday syujetga misolni adovat motividan kelib chiqib berish yuqorida “O‘tkan kunlar” romanidan berilgan vaziyatga to‘la mos tushadi. Otabek boshiga tushgan voqealarga Homidning naqadar aloqasi bo‘lsa, Yodgorbekning ustidan taftish boshlanishiga, Sibirga surgun qilinishiga Rafiq Maxzumning daxldorligi ham shu qadar. “Najot” maktabida mudarris sifatida Yodgorbek bilan hamkasb bo‘lgan “Rapiqjon qori” Hamroqul voqeasi sabab maktabdan haydaladi. Qabih ishlarining “misi chiqqani” uning ko‘nglida Yodgorbekka nisbatan adovat uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Keyinchalik Ostroumovga “Najot” usuli jadid maktabi haqida donus (chaquv) xati yuboradi. Undagi “dalillar” bilan mahkama boshlanadi.

Retrospektiv syujetda voqealar teskari tartibda beriladi, yozuvchi voqealar rivojini to‘xtatib qo‘yib, masalaning tarixiga qaytadi.

“O‘tkan kunlar”da avval boshdan bekning oshiqligi ma’lum qilinadi. Biroq qizning Kumush ekanligi, ularning qanday uchrashib qolganini keyin bilib olganimizni, Otabek usta Alimnikida usta Farfidan Kumushga uylanishi kerak bo‘lgan Komilbekning o‘ldirib ketilganini eshitishi, biroq voqeaning o‘tgan tunda bo‘lganiyu, uning tafsiloti usta Alimnikida berilishini keltirish mumkin.

“Yaldo kechasi”da retrospektivani bir necha o‘rinlarda uchratamiz. Masalan, asar avvalida kitobxonga Zumradbibi tanishtirilar ekan, uning otasi – Sayfi bilan bog‘liq, ayoli Saodat haqidagi usta Alimning xotiralari beriladi. Bundan tashqari Haydar Burhonning boshidan kechirganlari, “Najot” maktabidan ketgach Rafiq maxzumning hayot yo‘li ham shu syujet usulidan foydalanib tasvirlanadi.

Navbatdagi ***Assotsiativ*** syujet “ichki harakat izchilligi” bilan bog‘liq bo‘lib, unda tashqi voqealar obrazlarning bevosita obyektiv faoliyatidan ko‘ra, ana shu faoliyatning qahramon qalbida qoldirgan asorat va g‘uborlari, inson ruhiyatidagi jarayonlar, uning qalb dialektikasiga asosiy e’tibor beriladi.

“O‘tkan kunlar”da Zaynab Kumush bilan yolg‘iz qolgan vaqtda o‘zi ham ishonmaydigan ancha gaplarni dovdirash holatida ilhom ravishda to‘qib yuborib deydi: “Axir …menga o‘xshash sizni ham ishontirib qo‘ygandirlar. Axir … Men sensiz turolmayman, deb sizga ham aytkandirlar…” Turmushida kechayotgan hamma narsani o‘zi uchun adolatsizlik deb bilgan Zaynabda shunday ruhiy o‘zgarish, jarayonlar kuzatiladi.

“Yaldo kechasi”da ruhiyatdagi evrilishni Oftoboyim obrazida ko‘rish mumkin. Kumush o‘limi, bo‘lgan voqealar haqida uzrini bildirib yozgan Yusufbek hoji maktubidagi “Har ne bo‘lganida ham, Yodgorbek bizning ham jondan aziz dilbandimiz, yakka-yu yolg‘iz nabiramizdur. Agar janoblari rizolik bildirsalar, Yodgorbekni Toshkentga olib kelish uchun zudlik bilan kishi jo‘natkaymiz” kabi mulohazalarga Oftoboyimning javobi mana bunday bo‘ladi: “Qutidor xatni o‘qib bitirgach, Oftoboyimning birdaniga rang-quti o‘chadi.

– Yodgorbekni Toshkandga yuborish? Zinhor, bazinhor! – U butkul hurpayib oldi. – Toki men tirik ekanman, nabiramni bag‘rimdan bir qadam uzoqlatmasman. Birovning guldek yolg‘iz bolasini o‘ldirib yuborib, kishi yana qaysi yuz bilan shundoq xat bitishi mumkin?!” “O‘tkan kunlar”dagi Oftoboyim Kumush Toshkentda qolishiga ruxsat bergan ko‘nglibo‘sh onadan “Yaldo kechasi”da Yodgorbekni bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflardan har qanday yo‘l bilan qutqarish uchun tayyor qat’iyatli buviga aylanadi.

XULOSA. “Yaldo kechasi” muallif o‘zi nisbat berganidek “O‘tkan kunlar”ning davomi o‘laroq yozilgan. Yusufbek hoji, Otabekning yurt egalari va xalqning o‘zaro qirpichoq bo‘lishi, zimdan bostirib kelayotgan rus istibdodiga qarshi birlasha, jipslasha olmasdan tor-mor etilishini oldindan ko‘ra olib bunga qarshi ko‘p qilgan va qilmoqchi bo‘lgan ishlari ularning zurriyotlari tomonidan amalga oshirilishi, bu yo‘lda chekkan zahmatlari ishonarli holda berilgan. “Tariximizning eng kirlik, qora kunlari”dan olib yozilgan romanning davomi ham shu qora kunlarning zim-ziyo tunlaridan davom ettirildi. “Bo hasrato, bir zamonlar ma’mur va obod, mutaraqqiy bo‘lgan bir malakat bukun shundoq

ahvolg‘a tushib qolgan ekan, buning uchun kim aybdor? Avommi, a’yonmi?”[Xayriddin S. 3:73], - Yodgorbek tilidan berilgan bu so‘roq, yurt boshiga kelgan baloyi ofatning ha deganda ketavermasligi (bu yerda faqat rus bosqini emas, odamlarning johilligi, o‘zaro ishonch, yurt ravnaqi yo‘lida bir tan-u jonga aylanolmasligi ham nazarda tutilgan – B.D.) muallifning romanga “Yaldo kechasi” – yilning eng uzun, qorong‘u tuni nomini berishiga sabab bo‘lgandir. “O‘tkan kunlar” so‘nggida Otabekning Avliyotada bo‘lgan to‘qnashuvda shahid bo‘lishida uning yurtimizdagi holga nafaqat befarq bo‘lmagani, balki o‘zi ham qarshi kurashgani ham ayon bo‘ladi. Romandagi bu konsepsiya Yodgorbek orqali yangi pog‘onaga ko‘tariladi. U endi qilich-u jang bilan emas, jadidona tafakkur, odamlar ongiga hurriyatdek beqiyos tushunchalarni singdirishdek ezgu niyat bilan harakat qiladi. Bu yo‘lni undan keyin farzandlari ham turfa shaklda qo‘lda mahkam tutdilar. Fikrimiz isboti sifatida Yodgorbek nutqidan olingan parchani keltiramiz: “Aql va fikrning taraqqiyi va taoliyasi faqat ruhning haqiqiy tarbiyasi bilan mumkindir. Buning uchun ta’lim va tarbiya usullarini mukammal qilmoq, bolalarimizning zehniyatini ilmi ruh va ruhiy tarbiya ila ochmoq lozim…”[Xayriddin S. 3:195]

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibrohim G‘afurov. “Yaldo kechasi” romaniga yozilgan so‘zboshidan (Xayriddin Sulton. Yaldo kechasi. – T.: Xaybar-25. 2025).
2. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. XX томлик. XIV том. – Т., Фан, 1979.
3. Xayriddin Sulton. Yaldo kechasi. – T.: “Xaybar-25”. 2025.
4. Есин А.Б. Принципы и приемы анализы литературного произведения. – М.: Флинта, 1999.
5. Катренко О.Н. К вопросу о типологии и архетипической основе литературного портрета // Literreterra.Материалы V Международной конференции молодых ученых / Гл. ред. И.А. Семухина. – Екатеринбург, 2016. С. 327-331.
6. Гафарова А.С. Речевой портрет. Социолингвистические характеристики: автореферат дис. … канд. филол. наук. – Тверь, 2006. – 25 с.
7. Naim Karimov, Ne’mat Abdullayev. Tarixiy janr. www.uz.wikipedia.org. (Internet ma’lumoti)
8. O’tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq. 2011. – 226 –b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'243:81'246.2

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В СИСТЕМЕ L1–L2–L3 (УЗБЕКСКИЙ-АНГЛИЙСКИЙ-НЕМЕЦКИЙ ЯЗЫКИ)

Аскарова Шахноза Исмаиловна, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, ФерГУ



https://orcid.org/0009-0008-1457-0043

L1–L2–L3 TIZIMIDA INTERFERENSIYANING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI (O‘ZBEK–INGLIZ–NEMIS TILLARI MISOLIDA)

Askarova Shaxnoza Ismoilovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Farg‘ona davlat universiteti

A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF INTERFERENCE IN THE L1–L2–L3 SYSTEM (UZBEK–ENGLISH–GERMAN LANGUAGES)

Askarova Shakhnoza Ismailovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Fergana State University

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ интерференции между узбекским, английским и немецким языками. Рассматриваются фонетические, лексические и грамматические проявления интерференции. Также анализируется взаимодействие языков L1, L2 и L3 в условиях многоязычия. Результаты способствуют повышению эффективности обучения языкам.*

Ключевые слова: *интерференция, многоязычие, сравнительный анализ, типология, L1-L2-L3, изучение языков.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek, ingliz va nemis tillari o‘rtasidagi tillararo interferensiya hodisasi qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda fonetik, leksik va grammatik darajadagi interferensiya ko‘rinishlari aniqlanadi. Shuningdek, L1, L2 va L3 tillarning o‘zaro ta’siri ko‘rib chiqiladi. Natijalar til o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *interferensiya, ko‘p tillilik, qiyosiy tahlil, tipologiya, L1-L2-L3, til o‘rganish.*

Abstract: *This article presents a comparative-typological analysis of interference among Uzbek, English, and German languages. The study identifies phonetic, lexical, and grammatical types of interference. It also examines the interaction of L1, L2, and L3 in multilingual contexts. The results contribute to improving the effectiveness of language teaching.*

Keywords: *interference, multilingualism, comparative analysis, typology, L1-L2-L3, language learning.*

Введение. В условиях глобализации и активного развития многоязычия особую актуальность приобретает изучение интерференции в системе L1–L2–L3. Языковой контакт между узбекским, английским и немецким языками приводит к формированию сложных механизмов взаимодействия, которые проявляются на фонетическом, лексическом и грамматическом уровнях. Интерференция рассматривается как результат переноса элементов одного языка в другой, что может приводить как к ошибкам, так и к положительному трансферу [4, 23].

Особое внимание в современной лингвистике уделяется многоуровневому анализу влияния родного языка (L1) и ранее изученных языков (L2) на процесс усвоения третьего языка (L3). Исследования показывают,

что интерференция носит не линейный, а комплексный характер и зависит от типологической близости языков [2, 45].

Таким образом, необходимость сравнительно-типологического анализа интерференции обусловлена как теоретической значимостью, так и практической потребностью совершенствования методов обучения иностранным языкам [6, 91].

Методология исследования. Методология данного исследования основана на комплексном подходе, включающем сравнительно-типологический, описательный и контрастивный методы анализа. Сравнительно-типологический метод позволяет выявить сходства и различия в проявлении интерференции в узбекском, английском и немецком языках, а также определить их типологические особенности [3,78].

Контрастивный анализ используется для сопоставления языковых единиц на фонетическом, лексическом и грамматическом уровнях, что способствует выявлению типичных ошибок, возникающих в результате языкового переноса [1, 12]. Описательный метод позволяет систематизировать полученные данные и представить их в логически структурированной форме. Кроме того, в исследовании применяется элемент анализа языковых ошибок обучающихся, что дает возможность определить влияние L1 и L2 на процесс усвоения L3 [6, 91]. Такой комплексный подход обеспечивает достоверность и научную обоснованность результатов исследования.

Обзор литературы по теме исследования. Проблема интерференции в условиях языкового контакта широко освещена в трудах зарубежных и отечественных исследователей. Одним из основополагающих трудов является работа У.Вайнрайха, в которой интерференция рассматривается как результат взаимодействия языковых систем [1,12].

Т.Одлин в своих исследованиях уделяет особое внимание явлению языкового переноса и его роли в изучении иностранных языков, выделяя как положительный, так и отрицательный трансфер [2,45]. В дальнейшем С.Джарвис и А.Павленко развивают данное направление, рассматривая интерференцию в контексте многоязычия и когнитивных процессов [3,78].

Современные исследования также подчеркивают значимость типологической близости языков при формировании интерференционных явлений [5,67]. Кроме того, работы Р.Эллиса демонстрируют влияние интерференции на процесс усвоения грамматических структур [6,91]. Таким образом, анализ научной литературы показывает, что интерференция является многоаспектным явлением, требующим комплексного и междисциплинарного подхода.

Результаты исследования. В ходе проведенного сравнительно-типологического анализа были выявлены основные проявления интерференции в системе L1–L2–L3 (узбекский–английский–немецкий языки) на различных языковых уровнях. Полученные результаты показывают, что интерференция носит многоуровневый характер и проявляется на фонетическом, лексическом и грамматическом уровнях.

На фонетическом уровне установлено, что носители узбекского языка испытывают трудности при освоении английской и немецкой фонетики, в частности, в правильном воспроизведении ударения и отдельных звуков, отсутствующих в родном языке. Например, наблюдаются отклонения в произношении долгих гласных и дифтонгов, а также в постановке ударения, что связано с особенностями узбекской фонетической системы [4, 23].

Лексическая интерференция проявляется в неправильном употреблении слов, обусловленном наличием так называемых «ложных друзей переводчика». Анализ показал, что обучающиеся часто переносят значения слов из английского языка при изучении немецкого, что приводит к семантическим ошибкам [5,67]. На грамматическом уровне выявлено влияние синтаксической структуры узбекского языка (SOV) на построение предложений в английском и немецком языках. Это выражается в нарушении порядка слов и неправильном использовании глагольных форм [6,91]. Кроме того, установлено, что L2 (английский язык) играет промежуточную роль

при усвоении L3 (немецкого языка), что подтверждает гипотезу о каскадном характере интерференции [3,78].

Обсуждение. Полученные результаты подтверждают, что интерференция в условиях многоязычия представляет собой сложное и многогранное явление, обусловленное взаимодействием нескольких языковых систем. Анализ показал, что степень интерференции зависит от типологической близости языков, а также от уровня владения каждым из них. Особый интерес представляет выявленный факт усиленного влияния второго языка (английского) на процесс усвоения третьего языка (немецкого). Это свидетельствует о том, что в условиях многоязычия формируется не линейная, а динамическая система взаимодействия языков, в которой каждый новый язык усваивается с учетом уже сформированных языковых навыков [2, 45].

Следует отметить, что интерференция не всегда носит отрицательный характер. В ряде случаев наблюдается положительный трансфер, когда сходные элементы английского и немецкого языков облегчают процесс обучения. Однако при отсутствии системного подхода к обучению данные сходства могут приводить к ошибкам. С педагогической точки зрения результаты исследования подчеркивают необходимость учета интерференционных процессов при разработке методик обучения иностранным языкам. В частности, целесообразно использовать контрастивный анализ как инструмент предупреждения типичных ошибок обучающихся.

Таким образом, результаты исследования подтверждают значимость комплексного подхода к изучению интерференции и открывают перспективы для дальнейших исследований в области многоязычия и методики преподавания иностранных языков.

Заключение. В результате проведённого исследования было установлено, что интерференция в системе L1–L2–L3 (узбекский–английский–немецкий языки) представляет собой сложное и многокомпонентное явление, проявляющееся на различных уровнях языковой структуры. Анализ показал, что наибольшее влияние оказывают фонетические, лексические и грамматические особенности родного языка, а также ранее изученного иностранного языка.Особое значение имеет тот факт, что второй язык (L2) выступает в качестве посредника при усвоении третьего языка (L3), что подтверждает каскадный характер интерференции. При этом выявлено, что интерференция может носить как отрицательный, так и положительный характер, способствуя либо возникновению ошибок, либо облегчению процесса обучения.

Полученные результаты подтверждают необходимость учета интерференционных процессов в практике преподавания иностранных языков. Использование сравнительно-типологического подхода позволяет более эффективно выявлять и предупреждать типичные ошибки обучающихся. Таким образом, исследование имеет как теоретическую, так и практическую значимость и может служить основой для дальнейших научных разработок в области многоязычия и методики обучения иностранным языкам.

Список использованной литературы:

1. Вайнрайх У. Языковые контакты. – Киев: Вища школа, 1979. – 263 с.
2. Odlin T. Language Transfer: Cross-Linguistic Influence in Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 210 p.
3. Jarvis S., Pavlenko A. Crosslinguistic Influence in Language and Cognition. – New York: Routledge, 2008. – 256 p.
4. Lado R. Linguistics across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. – 141 p.
5. Ringbom H. Cross-Linguistic Similarity in Foreign Language Learning. – Clevedon: Multilingual Matters, 2007. – 198 p.
6. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 824 p.
7. Cenoz J. The Acquisition of Third Languages. – Clevedon: Multilingual Matters, 2003. – 232 p.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37.013:004.8

ADABIYOT DARSLARIDA PROMPT TEXNOLOGIYASI ORQALI BADIIY OBRAZ VA POETIK TASVIRLARNI VIZUALLASHTIRISH METODIKASI

Sagatova Dilrabo Baxodir qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi tayanch doktoranti



https://orcid.org/0009-0005-5314-8847
e-mail: ***dilrabosagatova06@gmail.com***

METHODOLOGY FOR VISUALIZING ARTISTIC IMAGES AND POETIC REPRESENTATIONS THROUGH PROMPT TECHNOLOGY IN LITERATURE CLASSES

Sagatova Dilrabo Baxodir qizi, Basic Doctoral Student of the Department of Pedagogy and Psychology, Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

МЕТОДИКА ВИЗУАЛИЗАЦИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ И ПОЭТИЧЕСКИХ ИЗОБРАЖЕНИЙ С ПОМОЩЬЮ ПРОМПТ-ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

Сагатова Дилрабо Бахадир кызы, базовый докторант кафедры педагогики и психологии, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Annotatsiya: *Mazkur maqolada adabiyot darslarida badiiy obraz va poetik tasvirlarni vizuallashtirishda prompt texnologiyasidan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning o'quvchilarning badiiy tafakkuri, analitik va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy matnni o'rganishda tahlil – vizuallashtirish – animatsiya – refleksiya bosqichlaridan iborat metodik model taklif etiladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning poetik tasvirlarni chuqur anglashiga, badiiy obrazlarni tasavvur qilishiga hamda multimodal fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *prompt texnologiyasi, badiiy obraz, poetik tasvir, vizuallashtirish, adabiyot ta'limi, generativ sun'iy intellekt, multimodal ta'lim, ijodiy tafakkur, analitik fikrlash.*

Abstract: *This article explores the methodological foundations of using prompt technology to visualize artistic images and poetic representations in literature classes. The study analyzes the role of generative artificial intelligence tools in the educational process and their impact on developing students' artistic thinking, analytical skills, and creativity. A methodological model consisting of four stages—analysis, visualization, animation, and reflection—is proposed for teaching literary texts. This approach enhances students' ability to interpret poetic imagery, form visual representations of artistic concepts, and develop multimodal thinking competencies.*

Keywords: *prompt technology, artistic image, poetic imagery, visualization, literature education, generative artificial intelligence, multimodal learning, creative thinking, analytical skills.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методические основы использования технологии prompt для визуализации художественных образов и поэтических представлений на уроках литературы. В исследовании анализируется роль генеративного искусственного интеллекта в образовательном процессе, а также его влияние на развитие художественного мышления, аналитических способностей и творческого потенциала учащихся. Предлагается методическая*

модель, включающая этапы анализа, визуализации, анимации и рефлексии. Данный подход способствует более глубокому пониманию поэтических образов и развитию мультимодального мышления учащихся.

Ключевые слова: *технология prompt, художественный образ, поэтический образ, визуализация, литературное образование, генеративный искусственный интеллект, мультимодальное обучение, творческое мышление, аналитическое мышление.*

Kirish. Adabiyot ta’limida o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, poetik tasvirlarni anglash va badiiy obrazlarni tasavvur qilish jarayoni muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt asosida ishlovchi generativ platformalarning keng tarqalishi adabiyot darslarini tashkil etishda yangi metodik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. So‘nggi yillarda generativ sun’iy intellekt yordamida matn asosida rasm, video va boshqa multimodal kontent yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bunday texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, analitik fikrlashi va matnni chuqur anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan adabiyot darslarida prompt yozish orqali badiiy obrazlarni vizuallashtirish metodikasi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogika va adabiyot metodikasi sohasidagi tadqiqotlarda badiiy matnni idrok etish jarayoni o‘quvchilarning tasavvur faoliyati bilan bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning fikriga ko‘ra, badiiy matnning estetik ta’siri ko‘p jihatdan undagi obrazlarning o‘quvchi tasavvurida qay darajada jonlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Badiiy obraz o‘quvchi ongida ma’lum tasviriy manzara hosil qilgandagina u matnning mazmunini chuqurroq anglaydi. Shu sababli adabiyot darslarida obrazlarni vizual tasavvur qilishga yordam beradigan metodlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega[1].

Raqamli pedagogika rivojlanishi natijasida ta’lim jarayoniga generativ sun’iy intellekt texnologiyalari kirib kelmoqda. Bunday texnologiyalar matn asosida vizual tasvirlar yaratish imkonini beradi. Ushbu jarayon “prompt engineering” deb beriladigan tavsif yoki ko‘rsatma bo‘lib, uning asosida tizim ma’lum kontent yaratadi. Ta’lim jarayonida prompt yozish o‘quvchilarni matnni chuqur tahlil qilishga, tasviriy detallarni aniqlashga va ularni aniq ifodalashga undaydi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda “prompt engineering” ta’lim jarayonida muhim kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda metodik yondashuvlar bilan shug‘ullanuvchi olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarga ko’ra prompt yozish ko‘nikmasi generativ sun’iy intellekt bilan samarali ishlash uchun muhim pedagogik vosita ekani ta’kidlaydilar. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yaxshi ishlab chiqilgan promptlar sun’iy intellekt bilan o‘zaro muloqot sifatini oshiradi va ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ham ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. Masalan, Z.Liu va E.Yushchik tomonidan olib borilgan tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va interaktiv ta’lim muhitini yaratishda muhim rol o‘ynashi qayd etilgan[3].

Muhokama. Adabiyot darslarida generativ sun’iy intellektdan foydalanish o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, she’riy matnda berilgan poetik tasvirni olaylik. She’rda bahor manzarasi tasvirlangan bo‘lsa, o‘quvchilar ushbu tasvirni sun’iy intellekt yordamida rasm shaklida yaratish uchun prompt yozishlari mumkin. Bunda ular matndagi asosiy tasviriy elementlarni aniqlaydilar: ranglar, tabiat manzarasi, kayfiyat, harakat va muhit. Natijada o‘quvchilar she’riy matnni yanada chuqurroq tahlil qilishga majbur bo‘ladilar. Bu jarayon ularning badiiy tafakkuri va analitik fikrlashini rivojlantiradi. Xususan, Ogahiyning Navro‘z g‘azali [2] misolida bu jarayonni turli sun’iy intellekt vositalari orqali tizimli tashkil etish mumkin. Birinchi bosqichda matnni semantik va poetik jihatdan tahlil qilish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda ChatGPT, Claude, Microsoft Copilot kabi til modellari o‘quvchilarga g‘azaldagi murakkab so‘zlar (“inbisotanduz”, “jahonafruz”, “shikorandoz”) ma’nosini izohlash, poetik obrazlarni sharhlash va umumiy mazmunni tushuntirishda yordam beradi. Natijada o‘quvchilar matnning semantik qatlamini chuqurroq anglaydilar hamda badiiy tafakkur uchun zarur bo‘lgan tahliliy asos shakllanadi.

Ikkinchi bosqichda matndagi poetik tasvirlarni vizuallashtirish amalga oshiriladi. Bu jarayonda Midjourney, Leonardo AI, Stable Diffusion yoki DALL·E kabi generativ tasvir yaratish tizimlari qo‘llaniladi. O‘quvchilar g‘azaldagi obrazlarni (bahor manzarasi, yorqin quyosh, gullagan

bog‘lar, bayramona muhit aniqlab, ularni prompt shaklida ifodalaydilar. Masalan: “Navro‘z bayrami, gullagan tabiat, iliq quyosh nuri, sharqona muhit, poetik atmosfera”. Ushbu tavsif asosida sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan tasvir o‘quvchilarning abstrakt poetik obrazlarni konkret vizual shaklda idrok etishiga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqichda esa badiiy obrazlarni dinamik shaklda ifodalash, ya’ni ularni “jonlantirish” amalga oshiriladi. Bu yerda Runway ML, Kaiber, Synthesia va Pika Labslarga o’xshagan platformalar yordamida statik tasvirlar (harakatlanmaydigan oddiy rasm) asosida qisqa videolar yaratish mumkin. Masalan, Navro‘z bayrami sahnasi, shamol esayotgan bog‘lar yoki quyosh nuri taralayotgan manzara animatsiya shaklida ifodalanadi. Bu esa o‘quvchilarning estetik idrokini yanada kuchaytiradi va matnni ko‘p kanalli (multimodal) o‘zlashtirish imkonini beradi.

To‘rtinchi bosqichda yaratilgan natijalar tahlil qilinadi va qiyosiy muhokama olib boriladi. O‘quvchilar sun’iy intellekt yaratgan tasvir yoki videoni g‘azal mazmuni bilan taqqoslab, qanchalik mos kelishini baholaydilar. Bu jarayon tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi hamda o‘quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

Shunday qilib, turli sun’iy intellekt vositalarining integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi (tahlil — vizuallashtirish — animatsiya — refleksiya) adabiyot darslarida badiiy matnni o‘rganishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ogahiyning Navro‘z g‘azali misolida bu metod o‘quvchilarning nafaqat badiiy tafakkurini, balki analitik, ijodiy va multimodal fikrlash kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosidagi multimodal texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Multimodal sun’iy intellekt tizimlari matn, tasvir va video kabi turli axborot shakllarini birlashtirish orqali o‘quvchilarning bilimni idrok etish jarayonini boyitadi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonida vizual, eshitish va matnli axborotni birgalikda qo‘llash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarning bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Adabiyot darslarida prompt texnologiyasidan foydalanish badiiy asar qahramonlarini o‘rganishda ham samarali metod hisoblanadi. Ko‘pincha o‘quvchilar matndagi qahramon obrazini to‘liq tasavvur qila olmaydilar. Agar o‘quvchilar qahramon tavsifini prompt shaklida yozsalar, ular matndagi barcha tavsifiy detallarni aniqlashga harakat qiladilar. Masalan, qahramonning tashqi ko‘rinishi, kiyimi, yashagan davri, muhit va xarakter xususiyatlari tasvirlanadi. Natijada sun’iy intellekt ushbu tavsif asosida qahramonning vizual tasvirini yaratadi. Bu jarayon o‘quvchilarning matnni chuqurroq tahlil qilishiga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, prompt yozish ko‘nikmalarini o‘rgatish o‘quvchilarning sun’iy intellekt bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi. Masalan, Hong Kong universitetida o‘tkazilgan tajribada talabalar uchun prompt yozish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar tashkil etilgan. Natijada talabalar sun’iy intellekt bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirganlari, shuningdek ularning ijodiy fikrlashi va tahliliy tafakkuri sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Bundan tashqari, pedagogik tadqiqotlarda prompt engineering nafaqat texnik ko‘nikma, balki ijodiy pedagogik tafakkurning bir shakli sifatida qaralmoqda. O‘qituvchi yoki o‘quvchi prompt yozish jarayonida texnologik imkoniyatlar bilan pedagogik maqsadlarni uyg‘unlashtiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularni faol o‘quv jarayoniga jalb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida prompt texnologiyasidan foydalanish badiiy matnni o‘rganishning innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantirish, poetik tasvirlarni chuqur anglash, badiiy obrazlarni vizual shaklda tasavvur qilish va matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli adabiyot ta’limi metodikasida generativ sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, 2018-45 b.
2.Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. 10-sinf Adabiyot darslik – Toshkent: Yangi nashr, 2024- 16 b.
3.(https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/2331186X.2024.2353464#abstract)

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 811.57

INNOVATIVE METHODS IN TEACHING KOREAN AS A FOREIGN LANGUAGE: A MODERN PEDAGOGICAL APPROACH

Toshboyeva Durdona Fayzi qizi, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent, Uzbekistan

KOREYS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA INNOVATSION USULLAR: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUV

Toshboyeva Durdona Fayzi qizi , O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ КОРЕЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: СОВРЕМЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Тошбоева Дурдона Файзи кызы, Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан



https://orcid.org/0000-0001-6517-0252
e-mail: toshboyevadurdona657@gmail.com

Annotation*: This article explores modern pedagogical approaches in teaching Korean as a foreign language, emphasizing methods that enhance student engagement, vocabulary acquisition, and fluency. The paper highlights real classroom experiences, including the use of the Yonsei Korean textbook, which integrates reading, speaking, listening, and grammar in a comprehensive manner. Techniques such as repeated reading aloud, pre-teaching vocabulary and contextual learning are shown to be effective in improving language retention and fluency.*

Keywords: *korean language teaching, innovative teaching methods, foreign language learning, Yonsei Korean textbook, reading aloud.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola koreys tilini chet tili sifatida o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘rganadi hamda talabalar faolligini oshirish, lug‘at boyligini shakllantirish va nutq ravonligini rivojlantirishga qaratilgan usullarga alohida e’tibor qaratadi. Maqolada auditoriyadagi real o‘quv jarayoni tajribasi, xususan, o‘qish, gapirish, tinglash va grammatikani kompleks ravishda birlashtirgan* ***Yonsei Korean*** *darsligidan foydalanish yoritilgan. Qayta-qayta ovoz chiqarib o‘qish, lug‘atni oldindan o‘rgatish va kontekstli o‘rganish kabi texnikalar til materialini yaxshi saqlab qolish va nutq ravonligini oshirishda samarali ekanligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *koreys tili o‘qitish, innovatsion o‘qitish usullari, chet tilini o‘rganish, Yonsei Korean darsligi, ovoz chiqarib o‘qish.*

Аннотация: *Настоящая статья исследует современные педагогические подходы к преподаванию корейского языка как иностранного, с акцентом на методы, повышающие вовлеченность студентов, усвоение лексики и развитие беглости речи. В работе освещается реальный опыт преподавания в аудитории, в том числе использование учебника* ***Yonsei Korean****, который комплексно интегрирует навыки чтения, говорения, аудирования и грамматики. Такие приемы, как многократное чтение вслух, предварительное введение лексики и контекстное обучение, демонстрируют высокую эффективность в улучшении retention (удержания) языкового материала и повышении беглости речи.*

Ключевые слова: *преподавание корейского языка, инновационные методы обучения, изучение иностранного языка, учебник Yonsei Korean, чтение вслух.*

INTRODUCTION. In recent years, the Korean language has rapidly gained global popularity, driven by the worldwide influence of Korean pop culture, particularly K-pop, K-dramas, and Korean cinema. In response to this, educators and institutions are increasingly adopting innovative strategies for

Korean language instruction. These include task-based learning, multimedia-supported lessons, mobile applications, and culturally immersive content. The goal is not only to improve learners' linguistic skills but also to foster motivation and autonomy. In this context, reading aloud repeatedly, translating unfamiliar words before practice, and integrating reading with speaking and vocabulary learning were shown to significantly enhance students' fluency and retention.

MATERIALS AND METHODS. These techniques reflect Nation's (2001) vocabulary acquisition model, which emphasizes the importance of repeated and contextualized input for long-term retention[1]. The approach also mirrors Krashen's (1982) *Input Hypothesis* which advocates for comprehensible input slightly above the learner's level to facilitate natural acquisition. If global pedagogical frameworks in Korean Language Teaching is analyzed, there are some useful methods:

CLT remains the dominant paradigm in modern language education, including in Korean instruction. It emphasizes interaction, real-life communication, and fluency over rote memorization. In Korean classrooms, CLT is applied through role-plays, student-led conversations and task-based dialogues. According to Richards & Rodgers (2014)[2], CLT encourages learner autonomy and has proven more effective than grammar-translation methods in achieving spoken fluency.

DISCUSSION. TBLT aligns with the principles of learner-centered instruction, focusing on meaningful tasks that simulate real-life use. In Korean language education, TBLT has been implemented to teach restaurant ordering, travel conversations and cultural expressions. Cho (2019) found that task-based instruction significantly improved student confidence and retention, especially in speaking skills[3].

CBI involves using authentic content (such as K-pop, Korean TV shows or cultural themes) as the medium of instruction. This approach has been particularly successful in motivating learners and deepening cultural understanding. Lee (2016) reported that integrating Korean pop culture into lessons increased student engagement and vocabulary acquisition. This blended approach ensures that learners gain form-focused instruction without sacrificing communicative fluency, a balance supported by Ellis (2003) in his framework for form-focused instruction within communicative contexts[4].

This confirms Kim & Lee's (2020) conclusion that while mobile-assisted language learning supports flexibility, face-to-face guidance and structured instruction are especially crucial for beginners. Last but not least, cultural content boosts motivation. Although this study did not fully implement media-based instruction, anecdotal classroom discussions around Korean pop culture, for example Korean drama and food sparked visible enthusiasm[5]. Learners expressed strong motivation to understand everyday Korean language as heard in dramas, even trying to mimic lines or ask vocabulary questions from shows. This observation supports Lee (2016), who showed that incorporating K-pop or K-dramas into lessons enhances learner motivation and emotional connection to the language.

Focus Area	Observation/Result
Textbook Use	Structured content supports multi-skill development
Repetition and Reading Aloud	Builds pronunciation, fluency, and retention
Task-Based Activities	Increases learner participation and practical usage
Technology Integration	Useful for revision, but classroom instruction remains essential for beginners
Cultural Engagement	Boosts motivation and relevance of language learning

These findings support a growing consensus in global language pedagogy that a blended approach that combines structured textbooks with interactive, student-centered strategies is highly effective in teaching Korean as a foreign language (KFL). The *Yonsei Korean* textbook provided a structured progression in vocabulary, grammar and reading, which is essential for beginner learners who often lack linguistic intuition[6]. However, the classroom results also suggest that rigid adherence to textbook activities without adaptation can reduce engagement. When textbook content was supplemented with repetition, speaking tasks, and discussion, learner performance improved noticeably.

This reflects the views of Richards & Rodgers (2014), who argue that while textbooks are valuable resources, their real impact depends on how creatively they are used within communicative

frameworks. Reading aloud repeatedly proved to be a highly effective method to reinforce pronunciation, fluency and confidence—especially in low-stakes environments. This technique, while traditional, gains renewed relevance in modern classrooms when combined with comprehension-based methods. It claims that language acquisition is most effective when input is comprehensible, repetitive and engaging. The introduction of task-based elements, such as mini-dialogues or mock situations, such as shopping and greeting, engaged students more actively than passive reading or grammar drills. This supports Cho (2019) who emphasized the role of TBLT in shifting the classroom from a teacher-centered to a student-centered environment. However, some students initially struggled to move from textbook input to spontaneous production. This suggests that TBLT should be scaffolded gradually—starting with controlled tasks and expanding into more open-ended interaction as confidence builds. Although mobile tools such as Duolingo or Quizlet were mentioned positively by students, they often served a supporting role rather than a primary instructional tool. Learners depended on teacher explanation and structured materials for in-depth understanding. This supports that digital platforms are best used to reinforce and extend classroom learning, not replace human instruction—particularly for beginner-level students. Moreover, technical limitations like internet access or unfamiliarity with apps also emerged as minor barriers[3]. Even brief classroom discussions about K-dramas or Korean customs sparked genuine curiosity and enthusiasm among learners. This demonstrated that media-based cultural content creates emotional connections and fosters long-term interest in the language.

Based on these discussions, several practical recommendations for Korean language teachers—especially those working with beginners—can be proposed:

1. Use structured textbooks (like *Yonsei*) as a scaffold, but avoid rigid delivery.
2. Incorporate oral repetition, reading aloud, and vocabulary previewing for fluency.
3. Introduce task-based activities gradually to build communicative confidence.
4. Use technology for reinforcement, not primary instruction.
5. Integrate cultural themes informally to keep learners emotionally engaged[7].

To sum up, this study explored the use of modern teaching methods in Korean language education, combining theoretical insights with one month of classroom practice. The findings suggest that a balanced integration of structured textbooks, communicative strategies, repetition-based techniques, and task-based learning leads to more effective language acquisition among beginner learners.

The use of the *Yonsei Korean* textbook provided a solid foundation for teaching core skills, especially when enhanced by repetitive reading, vocabulary pre-teaching, and student-centered speaking activities. Furthermore, digital tools served as useful supplements, while cultural content proved to be a motivating factor for sustained engagement. These results support the growing emphasis on hybrid approaches in foreign language pedagogy—where traditional materials are enriched with innovative practices to meet the needs of 21st-century learners.

References:

1. Nation, I.S.P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
2. Krashen, S. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon.
3. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Cho, M.O. (2019). *The Effectiveness of Task-Based Instruction in Korean Language Classrooms*.
5. Lee, J.-H. (2016). *Using K-pop and K-dramas in Korean Language Classrooms: A Case Study*.
6. Ellis, R. (2003). *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
7. Kim, H., & Lee, J. (2020). *Technology-Enhanced Language Learning for Korean as a Foreign Language*. *Computer Assisted Language Learning*, 33(3), 242–259.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 821.512.133:82

“NUR BORKI, SOYA BOR” ROMANIDA IJODKOR SHAXSI MUAMMOSI

Xamrayeva Anora Abdusattorovna, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

THE REVELATION OF SOCIAL PROBLEMS IN SOCIETY THROUGH THE IMAGE OF A CREATIVE PERSONALITY IN THE NOVEL “WHERE THERE IS LIGHT, THERE IS SHADOW”

Khamrayeva Anora Abdusattorovna, Second-year Master’s student in Literary Studies (Uzbek Literature) National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

РАСКРЫТИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ ОБЩЕСТВА ЧЕРЕЗ ОБРАЗ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В РОМАНЕ “ГДЕ ЕСТЬ СВЕТ, ТАМ ЕСТЬ И ТЕНЬ”

Хамраева Анора Абдусатторовна, магистрант 2-курса по специальности литературоведение (узбекская литература)Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

https://orcid.org /009-0000-0132-3627
e-mail: anoraxamrayeva2@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotida alohida o‘ringa ega bo‘lgan yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” romani orqali o‘sha davr jamiyatdagi illatlar ijodkor nigohi bilan tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda ijodkor shaxs obrazi yozuvchiga o‘sha davr haqiqatini ochib berishda tayanch vazifasini bajarib, asarda ijodkor obrazining shaxsiy hayoti jamiyat hayoti bilan uzviy aloqada tasvirlanishi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijodkor, ijodkor shaxs obrazi, “Nur borki, soya bor”, jamiyatdagi illatlar, ijodkor mahorati, shaxsiy “men”, ruhiy kechinma, tafakkur dunyosi.*

Abstract: *This article analyzes the social problems of society during that period through the author’s perspective in the novel “Where There Is Light, There Is Shadow” by the twentieth-century Uzbek writer Utkir Hoshimov, which holds a special place in Uzbek literature. The research also reveals that the image of the creative personality in the work serves as a fundamental means for presenting the historical truth of the era. The personal life of the creative character is depicted in close connection with the life of society.*

Keywords: *creator, image of a creative personality, “Where There Is Light, There Is Shadow”, social problems in society, artistic mastery, personal “self”, spiritual experiences, world of thought.*

Аннотация: *В данной статье анализируются социальные проблемы общества того периода через призму авторского взгляда в романе узбекского писателя XX века Уткира Хошимова “Где есть свет, там есть и тень”, который занимает особое место в узбекской литературе. Также в исследовании раскрывается, что образ творческой личности в произведении выполняет опорную функцию в передаче исторической правды эпохи. Личная жизнь творческого героя изображается в тесной взаимосвязи с жизнью общества.*

Ключевые слова: *творец, образ творческой личности, “Где есть свет, там есть и тень”, социальные проблемы общества, мастерство творца, личное «я», духовные переживания, мир мышления.*

KIRISH. Muallif yaratmoqchi bo‘lgan asaridagi asosiy g‘oyaviy-badiiy ruh ijodkor shaxs obrazida o‘zgacha namoyon bo‘ladi. Ijodkor shaxs obrazi yozuvchi o‘z shaxsiy “men”ini boshqa obrazlarga qaraganda ko‘proq singdirishga imkon beradi. Qaysi sohaga oid bo‘lmasin ijodkor shaxsga yaratuvchi, boshqalar anglamagan haqiqatlarni anglovchi, idrok qilish qobilyati kuchli, fantaziyaga boy insonlar sifatida qaraladi Dunyo adabiyotshunosligida ancha vaqtdan buyon ijod, ijodiy qobilyat, ijod jarayoni, ijod psixologiyasi va ijodkor shaxs obrazi o‘rganib kelinayotgan masalalar bo‘lib bu borada haligacha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu mavzuning anchayin murakkab shu bilan birga qiziq ekanliginidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur maqolada XX asr o‘zbek nasrida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” romanidagi ijodkor shaxs obrazi orqali jamiyatdagi “nur” va “soya” lar va ularning taqdiri tahlilga olingan.. Asarning asosiy g‘oyasini ochib berish uchun psixobiografik, shuningdek, ijtimoiy metodlardan foydalangan holda asar tahlili yoritib berilgan. Professor Umarali Normatov yozuvchi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Mustabid tuzum sharoitida o‘zining haq so‘zi bilan el orasida e’tibor qozondi. Yozuvchi o‘z asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. U o‘tkinchi mayllarga berilmay so‘z san’atining azaliy muommosi – shaxs jumbog‘i, ijtimoiy adolat tuyg‘usi ifodasi bilan qiziqdi”.[1.149] Adibning mahorati shundaki, bu kabi insonlar obrazini yaratar ekan ularning qalbida kechayotgan tug‘yonlarni haqqoniy tasvirlashga harakat qiladi.

MUHOKAMA. Bilamizki, qandaydir asar yozish uchun hayotda ro‘y bergan voqealarni qalamga tizishning o‘zi kamlik qiladi. Bu kabi asarlar kishilar qalbida o‘rin egallay olmaydi va juda tez unutiladi. Badiiy asarning umrboqiy bo‘lishi uchun yozuvchi unga jon ato qilishi kerak. Jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarni yurak prizmasidan o‘tkazishi, uni chuqur his etishi lozim. Ana shundagina undagi qahramonlar jonlanadi, voqealar o‘quvchini hayajonga soladi. Yozuvchi asarida qalamga olayotgan mavzusining ijtimoiy mohiyatiga katta ahamiyat bermog‘i, uni chuqur anglamog‘i va uni kitobxonga ham yuqtirmog‘i kerak. Bu o‘rinda mahorat masalasi va adibning teran dunyoqarshi muhim ahamiyatga ega. O‘tkitr Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asari 1977-yili yozilgan bo‘lib bu adibning jurnalistik faoliyatining o‘ziga xos yakuni, sarhisobi o‘laroq maydonga keldi. “Nur borki, soya bor” asari bosh qahramoni Sherzod Samandarov hayot hodisalariga befarq bo‘lmay jamiyat orasida faol haraktalanadi. Bu esa yozuvchiga shu qahramon orqali hayot hodisalariga bo‘lgan munosabatini yoritishda ancha qulaylik tug‘diradi. Dunyo yaralibdiki, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik doimo yonma-yon keladi. Asarning mavzusidan ham ayonki, bu asar ezgulik va qabohatning kurashiga bag‘ishlanadi. Shu orqali yozuvchi jamiyatdagi muommolarning tub ildizini ochib berishga, chirkin insonlarning asl yuzlarini ko‘rsatishga bel bog‘laydi. Shu sababli, yozuvchi asarning boshidanoq dunyoqarashi va hayotda yashashdan maqsadlari butunlay boshqa ikki qarama-qarshi qahramon Sherzod va Sayfi Soqiyevichni kasalxona palatasida uchrashtiradi. Sherzodning hozirjavobligi, dadilligi, har bir ishga qiziquvchanligi, jamiyatdagi dolzarb muommolarga befarq emasligi uning jurnalist sifatida qirralarini ochib beradi. “Jurnalist qahramon bilan birga kitobxon goh Pomirning uqubatli yo‘llaridan o‘tadi, yer ostiga tushib metro qazuvchilar huzurida bo‘ladi, inson qoni rangini eslatuvchi tuproq hidini tuyadi; goh Farg‘onaning olis, maftunkor qishlog‘idagi qahramon tug‘ilib o‘sgan mo‘jaz xonadonga, dimog‘dor raisning kabineti-yu, serhasham mehmonxonasiga kirib qoladi, qishloq hayoti, maktab va mehnat muommolari ustida o‘y suradi; goh shahar kasalxonasida odamning mavqeyiga qarab muomala qiluvchi bo‘lim mudiriga, savdo hodimi Sayfi Soqiyevichga duch keladi”[1.157]. Yozuvchilarga xos bo‘lgan sinchikovlik, qiziquvchanlik, xayolparastlik singari xislatlar Sherzodda bolaligidanoq shakllanadi. Yozuvchi bosh qahramon bolaligini tasvirlar ekan uning boshqa bolalardan farq qilishini kitobxon yaqqol sezadi. “…Sherzodning boshqa bolalarga o‘xshamagan g‘alati odatlari ham bor edi. Bahor payti yalpiz yaprog‘iga qo‘ngan bir tomchi shudringga uzun mo‘ylovini tegizib qo‘yayotgan chumolini hech kim ko‘rmasligi mumkin edi-yu, Sherzod albatta ko‘radi. Iliq yoz oqshomlari quyosh botar-botmas kunchiqar tomonida paydo bo‘lgan piyozning po‘stidek yupqagina oyni hech

kim payqamasligi mumkin edi. Ammo Sherzod o‘sha yupqa oyning rangiga qizil yugurguncha soatlab tomosha qilib o‘tirishga tayyor edi” [2.142] Asarda yozuvchini anchadan buyon o‘ylantirib kelayotgan jamiyat hayotida muhim rol o‘ynavchi teatrlar va ularning ahvoli, nima uchun u yerga avvalgidek tomashabinlar kirmayotgani uning sabablari nimada ekanligi yuzasidan bir qancha qarashlar beriladi. Shuningdek asarda o‘sha davrdagi “paxta ishi” siyosati tufayli insonlarning boshidan o‘tkazgan og‘ir kunlari, qadri toptalgan insonlar hayoti qalamga olinadi. Yozuvchi ko‘targan masalalar juda jiddiy bo‘lib, davrning talabi deb, asosiy vazifasi o‘qish bo‘lgan bolarni majburiy mehnatga jalb qilinishi, inson qadr-qimmatini toptashga hech bir siyosat haqli emasligini, uning manfaati barcha narsadan ustun ekanligini yana bir bora insoniyatga eslatib o‘tadi. Rus yozuvchisi Ilya Erenburgning shunday so‘zlari mavjud: “Yozuvchining jamiyat bilan aloqasi passiv bo‘lmasligi kerak. Hayotda faqat kuzatuvchi bo‘lish kamlik qiladi. Unda bevosita ishtirok qilish zarur. Yosh avtor uchun barvaqt professionallashib olishdan ko‘ra xavfliroq narsa yo‘q. Bu narsa uni tengdoshlaridan ularning kundalik hayotlaridan uzoqlashtirib qo‘yadi. Yozuvchining ko‘zini rentgen nuri bilan tenglashtirsa bo‘ladi. U juda ichkariga ko‘rib boradi. Odamning borliq hayotini ko‘rishga yordam beradi”[3.160]. Yozuvchi 60-70-yillarda qator publitsistik asarlar yaratdiki, bunday asarlarda publitsistik ruh kuchli bo‘lib, muallif o‘z dilidagi gaplarini baralla aytdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. “Romanchilik xalq va mamlakat hayotining o‘ziga xos yilnomasi sifatida birinchi navbatda jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichlarini, katta va dolzarb mavzularni aks ettiradi. Binobarin xalq va jamiyat hayotining hech bir muhim bosqichi yoki asosiy sohasi yo‘qki, romanchilikning diqqatidan chetda qolgan bo‘lsin”[4.95]. Yozuvchi Sherzod obrazini gavdalantirar ekan faqat jamiyatdagi illat va muommolarga munosabat bildirmaydi, balki o‘z davri insonlarining qalb nidolariga ham quloq tutadi. Buning sababi muallif asarda faqat jamiyatdagi muommolarni aks ettirish kamlik qilishini, asarning mukammal chiqishi uchun uning asosi inson qalbi va undagi kechinmalar bo‘lishi lozim deya hisoblaydi. “Ba’zi asarlarni o‘qiysiz. Jiddiy hayotiy muommolar bor. Lekin asarni o‘qib, biron-bir hayajonga tushmaysiz. Kitobda odam bilan odam emas, problema bilan problema olishadi. Albatta, asarda mavzuning aktualligi muhim, biroq buning o‘zi yetmaydi. Ming marta bo‘lsa ham takrorlashga to‘g‘ri keladi, badiiy asarning tadqiq obyekti, avvalo, inson bo‘lishi kerak. Yozuvchi hammadan burun inson qalbini kashf etmog‘i lozim” [5.140]

XULOSA. Yozuvchi romanda o‘sha davr insonlarining ma’naviy qiyofasi, ularning dunyoqarashi, ichki va tashqi olamini haqqoniy ochib berishga harakat qiladi. Asardaagi “soya” larning nima sababdan bu holatga kelib qolganligi sabablarini taftish qiladi. Insonlar qalbidagi soya qachon, qayerdan kelib qolganligiga qiziqadi. Ammo uning asl maqsadi ana shu soyalarni ko‘rsatishgina emas bu orqali inson qalbida ularga nisbatan ogohlik va nafrat tuyg‘usini shakllantirish edi. Shuningdek, yozuvchi ezgulik, yaxshilik singari nurning urug‘larini inson qalbiga qadashgaa harakat qiladi. Qachonki inson qalbi ana shunday nurdan oziqlanar ekan, hayotdagi soyalar uning ko‘ziga xunuk ko‘rina boshlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти: (ўқув қўлланма) – Тошкент: Университет, 2007.
2. Hoshimov O‘. Nur borki, soya bor.T.: Nurli dunyo nashiryoti, 2024.
3. Бадиий ижод ҳақида: (Совет ёзувчиларининг нутқ ва мақолалар тўплами) – Тошкент: ЎЗССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960.
4. Мирзаев С. Ҳаёт ва адабиёт (илмий асарлар, публицистик мақолалар) – Тошкент: Шарқ нашрёти, – 2001.
5. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси: (Адабий суҳбатлар)/У.Норматов; Масъул муҳаррир Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 82-1/-9

“NAVOBIG‘U-L-KALIM” ASARIDA OYAT VA HADISLARGA MUROJAAT QILISH USULLARI

Muxamedxodjayeva Sanobar Abdujalilovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, “Xadichai Kubro” ayol-qizlar o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

METHODS OF REFERRING TO QUR’ANIC VERSES AND HADITHS IN THE WORK “NAVOBIG‘U-L-KALIM”

Mukhamedkhodjayeva Sanobar Abdujalilovna, PhD student at the Tashkent State University of Uzbek, Language and Literature named after Alisher Navoi Teacher at the “Xadichai Kubro” women’s secondary specialized Islamic educational institution

МЕТОДЫ ОБРАЩЕНИЯ К КОРАНИЧЕСКИМ АЯТАМ И ХАДИСАМ В ПРОИЗВЕДЕНИИ “НАВОБИГУ-ЛЬ-КАЛИМ”

Muxamedxodjayeva Sanobar Abdujalilovna, докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, преподаватель в исламском среднем учебном заведении для женщин “Хадичаи Кубро”

https://orcid.org/0009-0001-1813-2226
e-mail: sanobarnote13@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yurtimiz olimlaridan Mahmud Zamaxshariyning axloqshunoslikka oid mo‘jazgina asarlaridan biri “Navobig‘u-l- kalim” va uning xususiyatlari, asarda kelgan hikmatlarda oyat va hadislardan iqtibos olish usullari bir qancha misollar orqali tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *oyat, hadis, iqtibos, aynan keltirilgan oyatlar, shakl, ma’no, hikmat, “Navobig‘u-l-kalim”.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается одно из кратких произведений нашего отечественного учёного Махмуд аз-Замахшари — “Навобиг аль-калим”, посвящённое вопросам нравственности, а также его основные особенности. В работе на ряде примеров анализируются методы использования цитат из аятов Корана и хадисов в приведённых в произведении изречениях.*

Ключевые слова: *аят, хадис, цитирование, прямые цитаты, форма, смысл, хикмат, “Навобиг-аль-калим”.*

Abstract: *This article examines one of the concise ethical works of the renowned scholar Mahmud Zamakhshari, “Navobig‘ ul-Kalim”, and its distinctive features. It also analyzes the methods of incorporating quotations from Qur'anic verses and hadiths within the aphorisms presented in the work, supported by several illustrative examples.*

Keywords: *Qur’anic verse, hadith, quotation, direct citation of verses, form, meaning, aphorism, “Navobig‘ ul-Kalim”.*

KIRISH. Yurtimiz qadimdan ko‘plab allomalar va buyuk mutafakkirlar zamini bo‘lib, bu yerda jahonga yuz tutgan olimlar yetishib chiqqan. Ana shunday mutafakkirlardan Mahmud Zamaxshariy ham ijodiy faoliyati va o‘lmas asarlari bilan dunyo xalqlariga Mashriqzamin yerlarini tanitdi. Xususan, lug‘at va arab grammatikasiga oid asarlari diqqatga sazovordir. Shu bilan bir qatorda Zamaxshariyning axloqshunoslikka oid bir qancha kitoblari mavjud

bo‘lib, ushbu maqolada “Navobig‘u-l-kalim” va uning xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan.

ASOSIY QISM. “Navobig‘u-l-kalim” (fasohatli iboralar yoki qisqa va mazmunli so‘zlar) asari har bir asrda musulmonlar uchun axloq, tarbiya, hayotiy yo‘l-yo‘riq va nasihat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu asar adabiy uslub va fasohat-bayonot jihatidan ham qadrli hisoblanadi. Asar hikmat va nasihatlar majmuasidan iborat bo‘lib, Zamaxshariyning o‘tkir iste’dodi, fikrining terangligi, bilimining chuqurligini namoyon etadi. Alloma asarda hayotning mazmun-mohiyatini ochib berishga, inson ma’naviyatini yuksaltirishga, jamiyatda yuksak fazilatli kishilarni ko‘paytirishga intilgan. O‘zining hikmatlari, fasohatli iboralari bilan insonning qalbiga chuqur kirib borib, inson qalbidagi his-tuyg‘ularni ma’naviyatning eng cho‘qqisiga olib chiqadi, vijdonini uyg‘otadi. Dinni mahkam tutishga, fazilatli, adolatli, shijoatli, pokdomon bo‘lishga, boshqalarni hurmat qilish va yaxshi ko‘rishga chaqirgan. Shuningdek, razolat, zalolat, johillik, dangasalik, hasad, zulm, manmanlik, ochko‘zlik kabi insoniyat va jamiyatni qoloqlikka olib boradigan har bir yomon illatlardan qaytaradi. Demak, ko‘rib turganimizdek, asar har qaysi davr uchun zaruriy ko‘rsatma, pand-nasihatlar va tarbiyaviy qo‘llanma sifatida ahamiyatga ega. Zero, yuqorida sanab o‘tilgan fazilatlarga targ‘ib qilmasdan, yomonliklardan qaytarmasdan turib barkamol va ma’rifatli avlodni tasavvur qilish mushkul. Shunday ekan, ushbu va’z-nasihatlarni o‘zida ja’mlagan, qisqa iboralar bilan keng ma’nolarni o‘z ichiga qamrab olgan asarni har taraflama tadqiq qilish, vatandoshimizning ilmiy merosini kelajak avlodga yetkaza olish muhim vazifalardan bo‘lib turibdi[1.104-111b] .

MUHOKAMA VA NATIJALAR. “Navobig‘u-l-kalim” arab tilida saj’ va tajnis uslubida yozilgan hamda 300 ga yaqin hikmatlarni o‘zida jamlagan. Ushbu hikmatlarning aksar qismi Qur’oni karim oyatlari hamda hadislardan iqtibos qilib olingan. Shuningdek, ba’zi o‘rinlarda iqtibos uchun istefoda qilingan oyat va hadislarning shakli biroz o‘zgargani ammo oyatdagi asl ma’no saqlangani tahlil qilindi. Zamaxshariy bunday holatlarda mazkur oyatning mazmun-mohiyatini ochib berish va o‘quvchiga yetkazishni asosiy maqsad qilgani bois oyatning tashqi tuzilishiga kamroq e’tibor qaratadi. Oyat va hadislarga murojat qilishning bunday ko‘rinishi badiy asarlarda ko‘p uchraydigan holat hisoblanadi.

Iqtibosning bu turi haqida manbalarda quyidagicha ta’rif keltiriladi:

الاقتباس تضمين النثر او الشعر شيئا من القران الكريم او الحديث الشريف من غير دلالة على انه منهما و يجوز ان يغير في الاثر المقتبس قليلا [5. 269b; 4. 723b]

Ya’ni: Iqtibos nasr yoki she’rda Qur’oni karim yoki hadisi sharifdan biror narsaning qayerdan olinganini ko‘rsatilmagan holatda keltirilishidir. U biroz o‘zgartirilgan bo‘lishi mumkin[2. 200b]. Demak, bu ta’rifga ko‘ra iqtibos uchun olingan jumla qayerdan olingani ko‘rsatilmagan bo‘lishi shartligi hamda biroz o‘zgartirish mumkinligi ma’lum bo‘ladi.

Asarda kelgan bunday turdagi iqtibosdan misollar keltirib o‘tamiz.

Alloma taqvodor bandalarga jannatda qanday mukofotlar tayyorlab qo‘yilgani haqida deydi:

(Қўлёзма № 763. Туркия, Измир, 794 х. (1391-1392м).المتقون في ظلال و سرر. المجرمون في ضلال وسعر
“Taqvodorlar soyalar va so‘rilardadir. Jinoyatkorlar adashuvda va olov-otashdadirlar.” Dastlab hikmatning birinchi qismidagi so‘zlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, المتقون في ظلال joyigacha ushbu {إِنَّ ٱلۡمُتَّقِينَ فِي ظِلَٰلٖ وَعُيُونٖ} “Darhaqiqat, taqvodorlar soyalar va chashmalarda bo‘ladilar” (Mursalat surasi, 41-oyat) oyatidan aynan keltirilgan. Faqatgina oyatdagi *taqvodorlar* ma’nosini ifodalovchi so‘zda biroz grammatik o‘zgarish sodir bo‘lgan, ya’ni oyat “albatta” ma’nosini ifodalovchi إن ta’kid yuklamasi bilan boshlangani, bu yuklama o‘zidan keyingi so‘zni nasb (tushum kelishigi) holatida kelishini talab qilgani uchun *taqvodorlar* ٱلۡمُتَّقِينَ ko‘rinishida, hikmat bu yuklama bilan boshlanmagani bois ٱلۡمُتَّقُونَ shaklida ishlatilgan. Shuningdek, bu oyatda hikmatda keltirilgan سرر ya’ni so‘rilarda bo‘lishlari aytilmagan. Ammo Qur’oni karimning bir necha o‘rinlarida jannat ahllari yoki o‘ng tomon egalari bo‘lgan zotlar so‘rilarda bo‘lishi ta’kidlangan. Shu bois hikmatning bu qolgan qismida ham oyatlarga murojaat qilingan, degan mulohaza bilan boshqa oyatlarni ham ko‘rib chiqdik: O‘ng tomon egalarining (ya’ni jannat ahlining) soya va so‘rilarda bo‘lishi “Yasin surasi”ning 56-oyatida quyidagi ko‘rinishda keladi:{هُمۡ وَأَزۡوَاجُهُمۡ فِي ظِلَٰلٍ عَلَى ٱلۡأَرَآئِكِ مُتَّكِـُٔونَ

“O‘zlari ham, juftlari ham soyaliklarda, so‘rilarda suyanib o‘tiradilar.” Ko‘rib turganimizdek, ushbu oyat jannatdagilar soyalarda hamda so‘rilarda bo‘lishini qamrab olgan. Ammo so‘rilar so‘zi الْأَرَائِكِ ko‘rinishida kelgan bo‘lib, tahlil qilinayotgan hikmatda shu so‘zning ma’nodoshi bo‘lgan سُرُر ishlatilgan. Aynan shu lafz bilan ishlatilgan boshqa oyat ham mavjud bo‘lib, jannat ahllari عَلَى سُرُرٍ مُتَقَابِلِينَ... “so‘rilarda bir-biriga qarab o‘tiradilar” (Soffat surasi, 44-oyat) deyilgan. Demak, bu o‘rinda bir necha oyatlarga murojaat qilinganini xulosa qilish mumkin. *Taqvodorlar soyalarda* ekanligi aynan so‘zma-so‘z, ammo biroz grammatik o‘zgarish bilan “Mursalat” surasidan olingan bo‘lsa, “Yasin” surasidagi oyatda *taqvodorlar* so‘zi ishlatilmagan bo‘lsada “*ular*” deya bir oyat oldinda aytib o‘tilgan *jannat ahllari* nazarda tutilgan. Soffat surasida esa *taqvodorlar* o‘rniga *o‘ng tomon egalari* deyilgan bo‘lib, bu so‘zlarning barchasi bir-birini o‘rniga ishlatiladigan ma’nodosh so‘zlar hisoblanadi.

Hikmatning ikkinchi qismi esa to‘lig‘icha Qomar surasining إِنَّ الْمُجْرِمِينَ فِي ضَلَالٍ وَسُعُرٍ “Albatta, jinoyatkorlar adashuvda va olov-otashdadirlar” 47-oyatidan olingan. Faqat bu o‘rinda ham hikmatning birinchi qismida uchragan grammatik qoidaga ko‘ra shakl juz’iy o‘zgargan bo‘lib, oyatdagi الْمُجْرِمِينَ lafzi asarda الْمُجْرِمُونَ ko‘rinishida kelgan. Ammo ikkala qismda ham asl ma’no saqlanib qolgan.

Hadisdan olingan iqtibosga quyidagi hikmat misol bo‘ladi ([1] Қўлёзма № 763. Туркия, Измир, 794 ҳ. (1391-1392м) йил.*)*

لا فضل في التقوي لمالك على مملوك, و لا لغني علي صُعلوك

Taqvo borasida molik (podshoh) mamluk (qul)dan, boy faqirdan afzal emas.(271-h) Bu ibora hadisi sharifdagi:

ألا لا فضل لعربي على أعجمي، ولا لعجمي على عربي، ولا لأحمر على أسود، ولا لأسود على أحمر إلا بالتقوى، إن أكرمكم عند الله أتقاكم “Ogoh bo‘ling! Arabning a’jamdan, a’jamning arabdan, qizil (yuzli)ning qora (yuzli)lidan, qora (yuzli)ning qizil (yuzli)lidan afzalligi yo‘q. Magar taqvo bilangina bo‘lur. Allohning huzurida hurmatlirog‘ingiz taqvodorog‘ingizdir. Imom Ahmad rivoyati”[3. 5137].

Mazkur hadis va hikmatda insonlar ko‘rinishlari ya’ni rangi, millati, martaba va darajasi turlicha bo‘lsada, asli bir: hammalari Odam (a.s) va Momo Havvodan tarqalganlari eslatilmoqda. Shuningdek, Allohning huzurida insonlarning afzalligi ularning podshoh yoki qulligiga, oq yuzli yoki qora yuzli ekanligiga qarab emas, balki taqvosi e’tiborga olinishi aytilmoqda. Bu haqida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf xuddi shumazmundagi “Allohning huzurida hurmatlirog‘ingiz taqvodorog‘ingizdir” oyatining tafsirida (ya’ni yuqoridagi hadisning oxirida iqtibos qilib keltirilgan oyat) quyidagilarni aytgan: “Kishilar o‘zlaricha mezon tuzib, birlarining ikkinchilaridan afzalliklarini o‘lchab yurishadi. Kimdir mol mulkiga qarab, kimdir hasab-nasabiga qarab, yana birlari tanasining rangiga.... va hokazo o‘lchovlar vositasida o‘zlarini ustun qilib ko‘rsatadilar... ilohiy o‘lchov insonlar qadrini faqat bitta narsaga qarab, ya’ni insonnning taqvosiga qarab o‘lchaydi”.

Hikmatning لا فضل في التقوي qismi hadisning bir juz’i hisoblanadi, ammo hadisda في (ma’nosi ..da) so‘zi o‘rniga الا (ma’nosi: faqatgina) kelgan va التقوي so‘zi ب (ma’nosi: bilan) harfi bilan boshlangan. Shuningdek, لا فضل bilan في التقوي orasida boshqa so‘z va jumlalar mavjud bo‘lib, arabning yoki ajam (arab bo‘lmagan)ning arabdan hamda qizil yuzlining qora yuzlidan yoki qora yuzlining qizil yuzlidan afzalligi faqatgina taqvoda bo‘lishi aytilgan. Hikmatda esa لا فضل في التقوي orasiga boshqa so‘zlar tushmagan holatda jumladan so‘ng biroz boshqacha so‘zlar bilan taqvo borasida podshohning quldan, boyning faqirdan afzalligi yo‘q, deyilgan. Bu esa hadisdagi so‘zlarning tartibida hamda so‘zlarida o‘zgarish borligini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsada mazmun saqlanib qolgan. Shuningdek, ushbu hikmat asarning boshqa nusxalarida biroz tafovut bilan kelganini uchratdik. Bu tafovutni bu yerda eslab o‘tishimizdan maqsad, aynan shu farq hadisdagi lafzlarga mos tushgani uchundir. 1117 hijriy (1705-1706 m.) yilda Muhammad Amin ibn Ibrohim tomonidan ko‘chirilgan Turkiyaning Rog‘ib Posha kutubxonasida saqlanayotgan 1165-raqamdagi qo‘lyozmada, shuningdek, 1935 yilgi Misr nashr etilgan variantda ushbu hikmat quyidagicha kelgan:

لا فضل **الا بال**تقوي لمالك على مملوك xuddi shu shakl hadisdagi lafzga aynan mos kelgan. Ya’ni, الا va ب harflari ishtirok etgan. Shunda hikmatning ma’nosi “Molikning mamlukdan afzalligi yo‘q, faqatgina taqvo bilan afzal bo‘lur” bo‘ladi. Shuningdek, №4339 yordamchi nusxada hikmatdagi so‘zlar

o‘rni almashgan holda لا فضل لمالك في التقوي على مملوك ko‘rinishida, shuningdek, 2018-yil “Maxtutotu-l-amsali-l-arobiya” nomli majmu’a nashrida xuddi shu tartib, ammo لمالك o‘riniga في مالك shaklida ya’ni لا فضل في مالك في التقوي على مملوك ko‘rinishida ko‘chirilgan. Bu esa لا فضل في التقوي jumlasi orasiga so‘z kirib qolganini ko‘rsatadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mahmud Zamaxshariyning “Navobig‘u-l-kalim” asari hajm jihatidan kichik bo‘lishiga qaramasdan badiiy san’atlarning bir qancha turlaridan foydalanilgan. Oyat va hadislardan iqtibos olishlikda turli uslublardan, jumladan oyat yoki hadisni aynan keltirish yoki shaklan o‘zgargan yoki ma’nosiga ishora qilingan uslublardan unumli foydalanilganligi mazkur risolaning badiiy barkamolligini ta’minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S.Muxamedxodjayeva. Mahmud Zamaxshariy adabiy merosi.//Oriental journal of philology. 2025. B. 104-111.
2. С.Рустамий. Ўрта асрлар балоғат илмида тилшуносликка оид қарашлар. Тошкент, “Zilol buloq”, 2019. Б-200.
3. البيهقي. في شعب الإيمان.(5137) القاهرة. 2003
4. التفتازاني. المطول شرح تلخيص مفتاح العلوم للقضاوي. لبنان. 2013
5. على جارم. مصطفى امين. البلاغة الواضحة. القاهرة. 1999

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 801.82.81.302

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI HARBIY TERMINLARINING LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR SIFATIDA IFODALANISHI

Kurganov Anvarjon Muxtorovich, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi “O‘zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



https://orcid.org/0009-0001-7015-5919
e-pochta: anvarjon74_74@mail.ru

THE EXPRESSION OF MILITARY TERMS IN ENGLISH AND UZBEK AS LINGUOCULTURAL UNITS

Kurganov Anvarjon Mukhtorovich, Head of the Department of “Uzbek Language and Foreign Languages”, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

ВЫРАЖЕНИЕ ВОЕННЫХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ КАК ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ЕДИНИЦЫ

Курганов Анваржон Мухторович, заведующий кафедрой “Узбекский язык и иностранные языки” Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy terminlarni tarjima qilish jarayonining lingvistik, semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Terminlarning tarjimasida semasiologik aloqa, lingvopragmatik omillar, shuningdek, terminlarning ko‘p komponentli tuzilishi va ularning funksional xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida ingliz tilidagi harbiy terminlarning o‘zbek tiliga tarjimasida kalka, transliteratsiya, semantik usul va adekvat muqobil tanlash kabi tarjima strategiyalarining ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, terminlarning ma’no torayishi, ma’no kengayishi hamda nominativ funksiyaning ko‘chishi kabi semantik jarayonlar misollar asosida tahlil qilinadi. Maqolada harbiy terminologiyada metaforik va obrazli birliklarning tarjimadagi murakkabliklari, jargon va kasbiy nutqdagi qo‘llanishi ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillari harbiy terminologiyasi o‘rtasidagi semantik-funksional aloqalarni aniqlash va tarjima jarayonida adekvat muqobillarni tanlash muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *harbiy terminologiya, termin tarjimasi, lingvokulturologiya, semantik tahlil, lingvopragmatika, kalka usuli, transliteratsiya, ko‘p komponentli terminlar, metafora, adekvat muqobil, ingliz va o‘zbek tillari.*

Abstract: *This article analyzes the linguistic, semantic, and linguocultural features of translating military terminology from English into Uzbek. The study examines semasiological relations, linguopragmatic factors, as well as the multi-component structure of terms and their functional characteristics in the translation process. The research highlights the importance of translation strategies such as calque, transliteration, semantic translation, and the selection of adequate equivalents in rendering English military terms into Uzbek. In addition, semantic processes such as narrowing and broadening of meaning, as well as the shift of nominative function, are analyzed based on examples. The article also discusses the challenges of translating metaphorical and figurative units in military terminology, as well as*

their usage in jargon and professional discourse. The findings emphasize the importance of identifying semantic-functional relations between English and Uzbek military terminologies and selecting appropriate equivalents in the translation process.

Keywords: *military terminology, term translation, linguoculturology, semantic analysis, linguopragmatics, calque, transliteration, multi-component terms, metaphor, adequate equivalent, English and Uzbek languages.*

Аннотация: *В данной статье анализируются лингвистические, семантические и лингвокультурологические особенности перевода военной терминологии с английского языка на узбекский. В процессе перевода терминов рассматриваются семасиологические связи, лингвопрагматические факторы, а также многокомпонентная структура терминов и их функциональные характеристики. В ходе исследования показана значимость таких переводческих стратегий, как калькирование, транслитерация, семантический перевод и выбор адекватного эквивалента при передаче английских военных терминов на узбекский язык. Кроме того, на основе примеров анализируются такие семантические процессы, как сужение и расширение значения, а также перенос номинативной функции. В статье также рассматриваются сложности перевода метафорических и образных единиц в военной терминологии, а также их использование в жаргоне и профессиональной речи. Результаты исследования демонстрируют важность выявления семантико-функциональных связей между военной терминологией английского и узбекского языков и выбора адекватных эквивалентов в процессе перевода.*

Ключевые слова: *военная терминология, перевод терминов, лингвокультурология, семантический анализ, лингвопрагматика, калькирование, транслитерация, многокомпонентные термины, метафора, адекватный эквивалент, английский и узбекский языки.*

KIRISH. Terminlarni tarjima qilishda semasiologik aloqani to‘g‘ri o‘rnatish, tasniflanayotgan tushuncha bilan terminning o‘zaro lingvopragmatik aloqasi, bir tildagi termin bilan ikkinchi tildagi terminning semantik-funksional va lingvokulturologik xususiyatlari orasidagi lisoniy aloqani bog‘lash demakdir. Ba’zi inglizcha harbiy terminlarni kalka usulida o‘zbek tiliga tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘lsa, ayrim harbiy terminlarni tarjima qilishda bu usulga murojaat qilish befoyda hisoblanadi. Masalan: turboshaf – *turbovalli;* turbofan – *turboventilyatorli;* turbojet – *turboreaktivli;* common strategic rotary launcher – *strategik raketalar uchun revolver tipidagi ishga tushirish qurilmasi;* chaff – *dipolli qaytargich;* goony bird – *vertolyot;* glamor boy – *harbiy xizmatga yaqinda qabul qilingan askar* va b.

So‘nggi paytlarda, aksariyat harbiy terminlarning yakka ma’nolik xususiyati fanning boshqa tarmoqlarida kuzatilsa-da, ularning integrativ hodisasi natijasida boshqa sohalarda o‘zga tushunchani aks ettirish ehtimoli oshib bormoqda. Umumadabiy tildagi jacket “kurtka” ma’nosini emas, balki “qoplama”ni anglatadi, jar “ko‘za”ni emas, “kondensator”ni, to load “yuklamoq”ni emas, “o‘qlamoq”ni; pocket “cho‘ntak” ma’nosidan tashqari, aviatsiyada “o‘pqon” ma’nosini anglatadi. Taktikada “qurshov”, radio ishida “o‘lik zona”, elektrotexnikada esa “kabelli kanal” ma’nolarini anglatishida ularning o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Shu o‘rinda qayd etish lozimki, L.L.Nelyubinning fikricha, ...lingvokulturologik xususiyatlari mavjud bo‘lmagan ingliz tili harbiy terminlarining 70%i ko‘p tarkibli terminlar hisoblanadi. Masalan: stand-off weapon – *harakat zonasidan tashqarida qo‘llaniladigan qurol*; dense ECM environment – *kuchli radioelektron qarshi ta’sir holati*. Quyidagi inglizcha harbiy terminlarning tarkibi to‘rt komponentdan o‘n bir komponentgacha ekanligi aniqlandi: *stand-off all-weather in-flight terrain surveillance synthetic aperture radar; highflying remotely–piloted vehicles; high resolution near real time strip map*. Bunga o‘xshash ko‘p komponentli terminlarning tarjimadagi lisoniy algoritmi L.L.Nelyubin, V.N.Shevchuk, S.YA.Dokshteyn, G.M.Strelkovskiy ishlarida atroflicha yoritilgan[1.280].

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, chog‘ishtirilayotgan ingliz va o‘zbek tillarida harbiy terminlar bir, ikki, uch va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan. Shu shakldagi

terminlarning harbiy terminologiyadagi o‘rni va roli, shuningdek, ulushi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish maqsadida quyidagi statistik ma’lumot taqdim etilmoqdi. Nashr etilgan “Inglizcha-o‘zbekcha harbiy atamalar lug‘ati” [2:98]da jami 1700 ta harbiy terminlar jamlangan bo‘lib, ingliz va o‘zbek tillaridagi turli tarkibli harbiy terminlarning statistik ma’lumotlari quyidagicha:

Chog‘ishtirilayotgan tillar harbiy terminologiyasida terminning semantik jihatdan uch usulda ma’no o‘zgarishini qayd etish etish lozim: 1) ma’no torayishi; 2) ma’no kengayishi; 3) nominativ funksiyaning ko‘chishi.

So‘zning ma’no torayishi – bu so‘zning ma’no kengayishiga qarama-qarshi jarayon hisoblanib, so‘zdagi mazmun-mohiyatning maxsus (tor) soha xususiyatlariga nisbatan moslashishini ta’minlaydi. Bunda umumiste’moldagi ayrim so‘zlarning kasbiy leksikaga o‘tib, termin yoki jargon vazifasini bajarishi tushuniladi. Masalan: ingliz umumadabiy tilidagi store stations so‘z birikmasining lug‘aviy ma’nosi “ombor” bo‘lsa, u harbiy sohaga o‘tib, ma’no torayishi natijasida “ilgak” ma’nosini ifodalaydi. Shuningdek, umumadabiy tildagi acquisition, engagement so‘zlarining tarjimalari barchamizga ma’lum. Biroq ushbu so‘zlar harbiy sohaga ko‘chganda “o‘z zimmasiga” terminlik vazifani bajarishni oladi va “nishonga olish” ma’nosini aks ettiradi.

Bundan tashqari, harbiy-siyosiy muloqot jarayonida ba’zi leksik birliklarning evfemizmlashuvi kuzatilishi mumkin. Masalan: bombed “bomba yog‘dirgan” so‘zi o‘rnida dropped/delivered the payload so‘z va so‘z birikmalari qo‘llanilsa, military action “harbiy harakat” o‘rnida peacekeeping/peace enforcing operation leksemalari qo‘llaniladi.

Inglizcha harbiy terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda semantik usulga asoslangan, o‘zida lingvokulturologik xususiyatlarni aks ettirgan, uslubiy jihatdan obrazli, bo‘yoqdorlik xususiyatiga ega til birliklarini tarjimada berish o‘ta murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Masalan: bull’s eye – *nishon (olmasi)*; booby-trap – *mina-tuzoq o‘rnatish*; butterfly-bomb – *mina kapalak*; frogman – *portlatuvchi g‘avvos*, *engil g‘avvos*; foxhole – *katak-yacheyka*, *bir kishilik o‘qchi okopi*, *bir kishilik katak*; cannon fodder – *to‘p emi* (qirg‘inga yuboriladigan soldatlar); flash – *har qanday navbat tartibidan tashqari*; Sivvy-Street – *noharbiy fuqaro*; hedgehog – *tipratikonsimon harbiy robot*; housewife (Brit.mil) –*ta’mir zaxirasi*; idiot shoe – *tayanch chang‘isi*; idle – *o‘qsiz, paxtavon*.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Keltirilgan amaliy misollardan ko‘rish mumkinki, harbiy sohada qo‘llanadigan leksik birliklarni ifoda etish jarayonida narsa-predmet, hayvon, inson, poyabzal singari so‘zlardan foydalanilgan. Aslida, ushbu til birliklari harbiy leksikada qo‘llanishi nuqtai nazaridan oksimoron (teskarilik) funksiyasini bajarmoqda. Bunda terminlarning o‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlari metaforaga asoslanganligi bilan izohlanadi. Leksemalardagi metaforik xususiyat esa ba’zan o‘zga tildagi muqobilini tanlashda yo‘qoladi.

M.P.Brandes va V.I.Provotorov yozishicha: Bugungi global axborot-makonida siyosiy, ilmiy-texnikaviy va rasmiy terminlardan tashqari, lingvokulturologik va uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlik xususiyatiga ega til birliklarini uchratish tabiiyligi, bu kabi til birliklarining har qanday terminologik sathdagi tarjima muammolarini bartaraf qilish o‘ta muhimligi ta’kidlanadi [3:244]. Harbiy terminlarning og‘zaki va yozma (rasmiy) nutqda, shuningdek, norasmiy kasbiy muloqot doirasi (jargon)da amal qilishi va qo‘llanilishi turlicha. Leksik birliklarning ma’nolarini tarjimada to‘g‘ri talqin qilish uchun ularning adekvat muqobillaridan foydalanish eng samarali usullardan biridir.

Shunisi ham borki, ko‘pgina terminlar umumqabul qilingan bir nechta muqobillariga ega bo‘lib, muqobillarining aksariyati tushunchaning nazarda tutilgan mazmuniga mos kelmasligi ham mumkin. Masalan: *traektoriya* – trajectory, flight path. Muqobillikka ega bo‘lmagan terminlar uchun transliteratsiya usulidan *(antenna, fider, bluming*, hysteresis, klystron – *klistron, ignayter*, *tranzistor*, *fluktuatsiya*) foydalaniladi. Ba’zan kalkalash orqali, ya’ni aynan (single-needle instrument – *bir milli apparat;* superpower system – *o‘ta quvvatli tizim*) tarjima qilinadi. Obrazlilik xususiyatiga ega terminlarni tarjima qilish qiyinchilik tug‘diradi, albatta. Masalan: fire-and-forget missile – *boshqariladigan raketa;* sea-skimming missile – *dengiz sathidan past uchadigan raketa[4:270]*.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Ingliz va o‘zbek tillarida harbiy terminlarini tarjima qilish jarayonida har bir til birligining etimologik

xususiyatlarini bilish, bilan bir qatorda uning lingvopragmatik va pragmalingvistik xususiyatlarini anglash juda muhim. Masalan: egg so‘zining o‘zbekcha lug‘aviy ma’nosi “tuxum” bo‘lsa, harbiy so‘zlashuv tilida ko‘chma ma’no kasb etib, “aviabomba” ma’nosini anglatadi. Umumadabiy tilda faol qo‘llanadigan pen so‘zi harbiy sohada “harbiy asirlar lageri” sifatida tarjima qilinadi.

Ingliz tili harbiy leksikasidagi alohida tuzilishga ega guruhlarga harbiy aforizmlar, maqollar va matallarni kiritish mumkin. Masalan: marshal’s baton – marshallik belgisi; the army travels on its belly – armiyani qorni bilan surmoqda; to see the whites of the eyes – ko‘zning oqini ko‘rmoq (dushmanga juda yaqin bormoq); be quick on the draw – tezkor harakatlanmoq; halfbattle – yarim g‘alabaga erishilgan jang (yarim g‘alaba); good beginning is half a battle – yaxshi ibtido – yarim g‘alaba.

Ingliz tili harbiy so‘z birikmalarining lingvokulturologik, semantik-funksional xususiyatlarini teran anglash, ularning ma’no nozikliklarini ilg‘ash, tarjimadagi stilistik-semantik murakkabliklardan boxabar bo‘lish, o‘zbek tilida mos va adekvat muqobillarini topib, to‘g‘ri tarjima qilish tarjimondan o‘ziga xos sinchkovlik va mahoratni, ziyraklikni talab qiladi. Bunday malaka va ko‘nikmaga ega tarjimongina o‘zining asl maqsadiga erishgan hisoblanadi.

XULOSA. Ta’kidlash lozimki, ba’zi harbiy birikmalar ham mavjudki, ularning komponentlarini alohida ajratish usuli orqali terminning ma’nosini chiqarish mumkin. Ammo, ularni so‘zma-so‘z tarjima qilmasdan yaxlit tarjima qilish noto‘g‘ri hisoblanadi. Masalan: automotis equipment terminining so‘zma-so‘z tarjimasi “o‘zi harakatlanuvchi moslama”ni anglatsa, harbiy sohada u “harbiy zirhli mashinalar” ma’nosida keladi. Shuningdek, level of supply so‘z birikmasining so‘zma-so‘z tarjimasi “ta’minot darajasi” bo‘lsa, harbiy sohada “zaxira darajasi” ma’nosini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Латышев Л.К. Технология перевода. -М.:, НВИ-ТЕЗАУРУС. 2000. – С. 280.
2. Курганов А.М. Инглизча-ўзбекча ҳарбий атамалар луғати. –Т.: 2020. ИИВ Академия. – Б. 98.
3. Брандес М.П., Провоторов В.И. Предпереводческий анализ текста. – М.:, НВИ-ТЕЗАУРУС. 2001. – С. 244.
4. Нелюбин Л.Л. Перевод боевых документов. -М.:, Воениздат. 1989. – С. 270.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 37091.12:005.9630

MUTAXASSISLIGI XORIJIY TILI BO‘LMAGAN UNIVERSITETLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Mallayeva Ozoda Baxramovna, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi “O‘zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0000-0002-9346-3957
e-mail: ozodamallayeva201@gmail.com

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN UNIVERSITIES NOT SPECIALIZING IN FOREIGN LANGUAGES

Ozoda Bakhramovna Mallaeva, Academy of the Ministry of Internal Affairs Associate Professor, Department of Uzbek and Foreign Languages Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В УНИВЕРСИТЕТАХ, НЕ СПЕЦИАЛИЗИРУЮЩИХСЯ НА ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКАХ

Маллаева Озода Бахрамовна, Академия Министерства внутренних дел, доцент кафедры узбекского и иностранных языков, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nofilologik yo‘nalish talabalariga chet tilini o‘qitishda kommunikativ muvaffaqiyatga erishish usullari tadqiq etiladi. Maqolada an’anaviy o‘qitish metodlaridan farqli ravishda, talabalarning kasbiy sohasiga yo‘naltirilgan interaktiv metodlarning samaradorligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ muvaffaqiyat, nofilologik oliy ta’lim, ESP (maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili), CLIL (mazmun va til integratsiyalashgan ta’lim), nutqiy kompetensiya, interaktiv metodlar, til to‘sig‘i, kasbiy terminologiya, keys-stadi, pedagogik texnologiyalar.*

Abstract: *This article examines methods for achieving communicative success in teaching foreign languages to students majoring in non-philological fields. It analyzes the effectiveness of interactive methods focused on students' professional fields, as opposed to traditional teaching methods.*

Keywords: *communicative success, higher education in non-philological fields, English for Specific Purposes (ESP), CLIL (Content and Language Integrated Learning), language proficiency, interactive methods, language barriers, professional terminology, case study, pedagogical technologies*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методы достижения коммуникативного успеха в обучении иностранному языку студентов нефилологических специальностей. В статье анализируется эффективность интерактивных методов, ориентированных на профессиональную сферу деятельности студентов, в отличие от традиционных методов обучения.*

Ключевые слова: *коммуникативный успех, высшее нефилологическое образование, английский для специальных целей (ESP), CLIL (интегрированное обучение содержанию и языку), речевая компетенция, интерактивные методы, языковой барьер, профессиональная терминология, тематическое исследование, педагогические технологии.*

.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida chet tili (ayniqsa, ingliz tili) shunchaki o‘quv fani emas, balki bo‘lajak mutaxassisning raqobatbardoshligini ta’minlovchi **strategik vosita** hisoblanadi. Mutaxassisligi xorijiy tili bo‘lmagan (nofilologik) yo‘nalish talabalari uchun til o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — olingan bilimlarni o‘z kasbiy faoliyatida, xalqaro hamkorlikda va ilmiy izlanishlarda muvaffaqiyatli qo‘llay olishdir.

Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ muvaffaqiyat (Communicative Success) tushunchasi ko‘pincha lingvistik kompetensiya bilan adashtiriladi. Biroq, nofilologik yo‘nalishlarda asosiy urg‘u grammatik mukammallikka emas, balki axborotni aniq yetkazish va qabul qilishga (intelligibility) qaratilishi lozim. D. Xayms (Dell Hymes) nazariyasiga ko‘ra, kommunikativ kompetensiya nafaqat til qoidalarini bilishni, balki ushbu qoidalarni ijtimoiy kontekstga mos ravishda qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda OTMlarda chet tilini o‘qitish metodikasida bir qator ziddiyatlar ko‘zga tashlanmoqda:

Akademik bilim va amaliy ko‘nikma o‘rtasidagi uzilish: Talabalar murakkab grammatik tuzilmalarni tahlil qila oladi, biroq oddiy kasbiy muloqotda tutilib qoladi.

Metodik bir xillik: Ko‘p hollarda nofilologik guruhlarda ham filologik yo‘nalishlar uchun mo‘ljallangan umumiy (General English) darsliklardan foydalaniladi, bu esa talabaning o‘z mutaxassisligiga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi.

Psixologik to‘siqlar: «Xato qilishdan qo‘rqish» va «noto‘g‘ri talaffuz» kompleksi talabalarda kommunikativ inhibitatsiyani (nutqiy turg‘unlikni) keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori ta’lim jarayonini bevosita kommunikativ natijadorlikka yo‘naltirishni talab etadi. Shuningdek, CEFR (Common European Framework of Reference) standartlari asosida talabalarning kamida B2 darajasiga erishishi ularning xalqaro mehnat bozoridagi o‘rnini belgilaydi[1].

Agar nofilologik universitetlarda chet tili darslari ESP (English for Specific Purposes — Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodlari asosida tashkil etilsa, talabalarning kommunikativ muvaffaqiyati an’anaviy metodlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Metodologiya. Tadqiqot davomida sifat va miqdoriy (mixed methods) tahlil usullaridan foydalanildi. Tajriba 2024-2025 o‘quv yilida nofilologik yo‘nalishdagi 100 nafar talaba ishtirokida o‘tkazildi.

Qo‘llanilgan metodlar:

CLIL (Content and Language Integrated Learning): Tilni mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish.

Case-Study (Vaziyatli o‘qitish): Talabalarga o‘z sohalariga oid muammoli vaziyatlarni ingliz tilida hal qilish topshirig‘i berildi.

Role Play (Rollar o‘yini): «Ish beruvchi va nomzod», «Mijoz bilan muzokara» kabi ssenariylar asosida nutq faollashtirildi[2:187].

Natijalar. O‘tkazilgan 6 oylik tajriba-sinov ishlari natijasida nazorat va tajriba guruhlarida quyidagi ko‘rsatkichlar qayd etildi:

Ko‘rsatkichlar	Tajribadan oldin	Tajribadan so‘ng	O‘sish dinamikasi
Erkin so‘zlashish darajasi	25%	60%	+35%
Kasbiy lug‘at boyligi	30%	75%	+45%
Nutqiy xatolardan qo‘rqmaslik	15%	55%	+40%

Asosiy natija: Talabalar grammatik formulalarni yodlashdan ko‘ra, ma’noni yetkazib berish (fluency) ustuvorligini anglab yetishdi. Kommunikativ muvaffaqiyat koeffitsiyenti o‘yinli texnologiyalar qo‘llanilganda 1.5 barobarga ortishi aniqlandi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nofilologik talabalar uchun til

o‘rganishda «Instrumental motivatsiya» (ish topish, martaba) birinchi o‘rinda turadi.

Kommunikativ muvaffaqiyat komponentlari: Faqatgina so‘zlarni bilish emas, balki paralingvistik vositalar (imo-ishora), ijtimoiy kontekstni tushunish va kompensatorlik (notanish so‘z o‘rniga boshqasini ishlata olish) ko‘nikmasidir. Tanqidiy nuqtayi nazar: Shunchaki interaktiv metodlarni qo‘llash yetarli emas. Mashg‘ulotlar talabaning bo‘lajak kasbi bilan 80% bog‘liq bo‘lishi shart. Masalan, IT mutaxassisi uchun «Havo rayi» mavzusidan ko‘ra «Dasturiy ta'minot taqdimoti» mavzusi samaraliroq.

Eslatma: Kommunikativ muvaffaqiyat — bu xatosiz gapirish emas, balki ko‘zlangan maqsadga til vositalari orqali erishishdir.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tahlillar va amaliy tajriba-sinov ishlari mutaxassisligi xorijiy til bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitish tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida olingan natijalarga tayanib, quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

An’anaviy grammatik-tarjima metodidan voz kechib, ESP (Professional ingliz tili) va CLIL (Integratsiyalashgan ta’lim) texnologiyalariga o‘tish talabalarda «til to‘sig‘ini» bartaraf etishning eng maqbul yo‘lidir. Tadqiqot shuni isbotladiki, talaba tilni faqat «o‘rganish obyekti» emas, balki «axborot yetkazish quroli» sifatida ko‘rgandagina kommunikativ muvaffaqiyatga erishadi[3:56].

Nofilologik yo‘nalishlarda kommunikativ muvaffaqiyatni baholashda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratilishi lozim:

Nutqning ravonligi (Fluency): Grammatik xatolardan ko‘ra, fikrning uzilmay yetkazilishi;

Strategik kompetensiya: Notanish vaziyatlarda va lug‘at boyligi yetishmagan hollarda tushuntirish qobiliyati;

Sotsiolingvistik moslashuv: Kasbiy etika va muloqot madaniyatiga rioya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori.
2. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press.
3. Widdowson, H. G. (1978). *Teaching Language as Communication*. Oxford University Press.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'37:81'42

VOQEA-HODISANING INTERPRETATASION QOLIPI XUSUSIYATLARI

[1]Rasulov Zubaydilla Izomovich, filologiya fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti
[2]Shodiyeva Dilshoda Sultonovna, 2-kurs magistranti

INTERPRETATIONAL PATTERNS OF EVENTS AND PHENOMENA

[1]Rasulov Zubaydullo Izomovich, Doctor of Science, Professor, Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan
[2]Dilshoda Sultonovna Shodiyeva, Second-year Master's Student

ИНТЕРПРЕТАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ СОБЫТИЙ И ЯВЛЕНИЙ

[1]Расулов Зубайдулло Изомович, доктор наук, профессор, Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан
[2]Шодиева Дилшода Султоновна, магистрант 2 курса

https://orcid.org/0000-0003-0554-1319
e-mail: z.i.rasulov@buxdu.uz
https://orcid.org/0009-0002-9251-7084
dlshdshodiyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada voqea-hodisalarning interpretatsion qolipi tushunchasi va uning lingvistik hamda kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Interpretatsiya jarayoni inson tafakkurining muhim qismi bo'lib, unda voqelik til vositalari orqali qayta idrok etiladi va ma'lum konseptual qoliplarga solinadi. Tadqiqotda interpretatsion qoliplarning shakllanish mexanizmlari, ularning diskursiv xususiyatlari hamda milliy-madaniy omillar bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, turli nutqiy vaziyatlarda voqea-hodisalarni talqin qilishda til birliklarining roli, semantik va pragmatik jihatlari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari interpretatsion-kognitiv yondashuv asosida til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabatni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *interpretatsiya, interpretatsion qolip, voqea-hodisa, kognitiv lingvistika, diskurs, konsept, semantika, pragmatika, lingvokulturologiya, tafakkur.*

Abstract: *This article analyzes the concept of interpretational patterns of events and phenomena, as well as their linguistic and cognitive features. The process of interpretation is an essential part of human cognition, in which reality is re-perceived through language and structured into specific conceptual patterns. The study explores the mechanisms of the formation of interpretational patterns, their discursive characteristics, and their connection with national and cultural factors. In addition, the role of linguistic units in interpreting events and phenomena in various communicative situations, along with their semantic and pragmatic aspects, is examined.*

Keywords: *interpretation, interpretational pattern, event and phenomenon, cognitive linguistics, discourse, concept, semantics, pragmatics, linguoculturology, cognition.*

Аннотация: *В данной статье анализируется понятие интерпретационных моделей событий и явлений, а также их лингвистические и когнитивные особенности. Процесс интерпретации является важной частью человеческого мышления, в ходе которого реальность переосмысливается посредством языка и структурируется в определённые концептуальные модели. В исследовании рассматриваются механизмы формирования интерпретационных моделей, их дискурсивные*

характеристики, а также их связь с национально-культурными факторами. а и мышления в рамках интерпретационно-когнитивного подхода.

Ключевые слова: *интерпретация, интерпретационная модель, событие и явление, когнитивная лингвистика, дискурс, концепт, семантика, прагматика, лингвокультурология, мышление.*

KIRISH (Introduction/Введение). Atrofimizdagi voqea hodisalar “tayyor” va yakka ma’noli faktmas, balki inson ongida kognitiv qayta ishlangan holatda taqdim etiladi. Bunda matn qayta modellashtiriladi va interpretatsion konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi (Aliferenko,2022) [1]. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda voqea-hodisa ommaviy axborot vositalarida obyektiv reallikning bevosita aks ettirilishi sifatida emas, balki murakkab kognitiv-diskursiv jarayon mahsuli sifatida talqin qilinadi. Matnning interpretatsion salohiyati uning variativlik xususiyati bilan chambarchas bog‘liq (Kim (2010)[2]. ta’kidlaganidek, matn variativ-interpretatsion funksiyaga ega bo‘lib, aynan shu funksiya bitta mazmunni turli interpretatsion modellar orqali ifodalash imkonini yaratadi. OAVda bu holat voqeaning ayrim komponentlarini kuchaytirish, ayrimlarini esa chetlab o‘tish orqali namoyon bo‘ladi.

MATERIALS AND METHODS (ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA/ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, OAVda voqea-hodisalar bayoni obyektiv reallikning bevosita aks ettirilishi emas, balki murakkab interpretatsion jarayon mahsulidir. Interpretatsion qolip ushbu jarayonning markaziy mexanizmi bo‘lib, u voqeani tanlash, strukturalash, baholash va auditoriyaga taqdim etishning barqaror kognitiv-diskursiv modelini ifodalaydi. Voqeaning media matndagi talqini muallif pozitsiyasi, nashr siyosati, ideologik yo‘nalish va auditoriyaning ijtimoiy-kognitiv kutilmalari bilan shartlanadi.

Bunday ko‘p talqinlilik mediadiskursning “kollektiv mualliflik” xususiyati bilan yanada kuchayadi: bir hodisani turli mualliflar turli nashrlar va platformalarda qayta-qayta yoritadi, bu esa interpretatsion matnlarning translatsiyasi va “aylanma” (sirkulyatsiya)si orqali hodisaning ko‘p qatlamli ma’no maydonini hosil qiladi. Media matnlar yig‘indisi esa jamiyat ongida “media-kartina”ni — ya’ni dunyoning axborot vositalari orqali qurilgan, qadriyat va baho elementlari singdirilgan tasvirini shakllantiradi; bu tasvir nafaqat xabar beradi, balki auditoriyaning kognitiv muhitini ham o‘zgartiradi: fakt bilan birga emotsional-baholovchi mazmun ham uzatiladi. Shunday qilib, mediadiskursda informatsiyani translyatsiya qilish funksiyasi doimo interpretatsiya funksiyasi bilan qo‘shilib ketadi.

DISCUSSION (MUHOKAMA /ОБСУЖДЕНИЕ). Hodisaning media muhitda markaziy kategoriya sifatida aktuallashuvi, avvalo, kun tartibi (agenda) mexanizmi bilan izohlanadi: jamiyat e’tibori aynan qaysi hodisalarga qaratilishi, ularning qaysi jihati muhim deb topilishi, qaysi baho yoki norma bilan o‘qilishi ko‘p jihatdan media tanlovi orqali tartibga solinadi. Shu ma’noda hodisa “iste’mol qilinadigan axborot birligi”ga aylanib, zamonaviy siyosiy-ijtimoiy muloqotning muhim shaklini tashkil etadi: hodisa muayyan “qadam” sifatida ijtimoiy hayot oqimini o‘zgartiradi, auditoriya esa uni qabul qilish jarayonida o‘z xulq modeli va baholash mezonlarini qayta sozlashi mumkin. Hodisaning mediadiskursga o‘tishi “diskursiy interpretatsiya” sifatida talqin qilinadi: real hodisa muallif ongida individual-ijodiy ko‘rish va baholash asosida modellashtiriladi hamda keyin til birliklari orqali matn ko‘rinishida “medial” hodisaga aylantiriladi. Bu jarayonni tushuntirish uchun variativ-interpretatsion yondashuv muhim metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi: unda har qanday matn cheklovlar (kontekst, tahrir siyosati, auditoriya kutishi, muallif intensioni, janr talabi) ta’sirida shakllanishi, shu bois u reallikni to‘liq va betaraf qamrab ololmasligi ta’kidlanadi. Shuning uchun mediadiskursda hodisaning ontologik obyektivligi (real bo‘lib o‘tganlik) bilan uning subyektiv reprezentatsiyalari (turli talqinlar) o‘rtasida tabiiy ziddiyat yuzaga keladi; aynan shu ziddiyat “interpretatsion qolip” nazariyasini asoslaydi.

RESULTS (NATIJALAR/РЕЗУЛЬТАТЫ). Mediadiskursni tahlil qilishda hodisa va uning matndagi talqini o‘rtasidagi murakkab munosabatni tushuntirib bera oladigan nazariy yondashuvlardan biri — variativ-interpretatsion paradigma hisoblanadi. Ushbu

paradigma doirasida hodisa obyektiv reallik sifatida mavjud bo‘lsa-da, u hech qachon kommunikativ jarayonga bevosita va betaraf holda ko‘chmaydi. Aksincha, har qanday real voqea mediamakon doirasida til orqali qayta modellashtiriladi, bu esa uni ijtimoiy ma’noga ega bo‘lgan verbal konstruktga aylantiradi.Bu fikr Teun A. van Diyk tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv-diskursiv yondashuv bilan uyg‘unlashadi. Olimga ko‘ra, matn — bu reallikning nusxasi emas, balki ijtimoiy kognitsiya mahsuli bo‘lib, u muallifning bilimlari, ideologik qarashlari va auditoriya haqidagi taxminlari orqali shakllanadi.

Bu jarayon Norman Fleirkloning tanqidiy diskurs tahlili (CDA) konsepsiyasida “diskursiv tanlov” tushunchasi orqali izohlanadi. Feirkloga ko‘ra, matnda qanday leksik birlik tanlanishi, agent qanday ko‘rsatilishi yoki yashirilishi, sabab-oqibat aloqalarining qanday berilishi — bularning barchasi ijtimoiy kuch munosabatlari bilan bevosita bog‘liq.

II. Hodisaning uch sathli modeli va interpretatsion-kognitiv mexanizmi. Interpretatsion qolipni tushuntirishda hodisani uch sathli model asosida tahlil qilish metodologik jihatdan qulay:

1. Obyektiv-denotativ sath

Bu sathda hodisa real voqelik sifatida mavjud bo‘ladi. Masalan, siyosiy qaror qabul qilindi, norozilik namoyishi bo‘lib o‘tdi yoki iqtisodiy ko‘rsatkich o‘zgardi. Bu qatlam “nima bo‘ldi?” degan savolga javob beradi va nazariy jihatdan minimal interpretatsiyani talab qiladi.

Biroq mediamatnlarda sof denotativ qatlam deyarli uchramaydi. Chunki hodisaning o‘zi emas, balki u haqdagi xabar kommunikativ akt sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Kognitiv-mazmuniy sath

Bu bosqichda hodisa muallif ongida konseptual model sifatida qayta ishlanadi. Muallif voqeani qanday sabablar bilan bog‘laydi, qaysi aktorlarni muhim deb biladi, qaysi oqibatlarni prognoz qiladi — bularning barchasi kognitiv sathda hal etiladi.

Bu nuqtada Jorj Lakoffning freym nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Lakoffga ko‘ra, inson voqealarni tayyor kognitiv qoliplar (freym, skript) orqali tushunadi. Mediamatn esa aynan shu freymlarni faollashtirish orqali auditoriya ongida muayyan baholashni shakllantiradi.

CONCLUSION (XULOSA / ЗАКЛЮЧЕНИЕ). Yuqoridagi nazariy tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin:

Hodisa mediadiskursda obyektiv reallik sifatida emas, balki interpretatsion konstrukt sifatida namoyon bo‘ladi. Interpretatsion qolip hodisa va auditoriya o‘rtasida vositachilik qiluvchi kognitiv-diskursiv mexanizmdir.

Til vositalari (nominatsiya, metafora, evaluativ birliklar) interpretatsion vektorning asosiy ko‘rsatkichidir. “Voqea-hodisaning interpretatsion qolipi” nazariyasi mediadiskursni faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-kognitiv fenomen sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shunday qilib, interpretatsion qolip nazariyasi bitta real hodisaning nega turli mediamatnlarda turlicha “sodir bo‘layotgandek” ko‘rinishini, auditoriya ongida qanday media-kartina shakllanishini va diskurs orqali ijtimoiy ma’no qanday ishlab chiqarilishini ilmiy asosda izohlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aliferenko N.F. Kognitivnaya lingvistika i diskurs. – M.: Flinta, 2022. – 320 s.
2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – M.: Iskusstvo, 1979. – 424 s.
3. Bally Ch. Obshchaya lingvistika i frantsuzskaya lingvistika. – M.: Progress, 1955. – 416 s.
4. Boldirev N.N. Kognitivnaya semantika. – Tambov: Izdatelstvo TGU, 2001. – 123 s.
5. Chernishova O.N. Diskursivniye osobennosti gazetno-publitsisticheskogo teksta. – M., 2007. – 210 s.
6. Demyankov V.Z. Interpretatsiya, ponimaniye i lingvistika teksta. – M.: Nauka, 1983. – 240 s.
7. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1995. – 258 p.
8. Kim V.G. Variativnost i interpretatsiya teksta. – M., 2010. – 198 s.
9. Kubryakova E.S. Yazyk i znaniye: Na puti polucheniya znaniy o yazyke. – M.: Yazyki slavyanskoy kultury, 2004. – 560 s.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'282:81'374

O‘ZBEK TILI TARIXI TADQIQI MASALALARI: TILSHUNOSLIKDA DIALEKTOLOGIK LEKSIKOGRAFIYA VA DIALEKTAL LUG‘ATCHILIK MUAMMOSI

Norova Gulsanam Maksutovna, Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ISSUES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE UZBEK LANGUAGE: DIALECTOLOGICAL LEXICOGRAPHY AND THE PROBLEM OF DIALECT DICTIONARY COMPILATION IN LINGUISTICS

Norova Gulsanam Maksutovna, Associate Professor of Navoi Innovation University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ИСТОРИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА: ДИАЛЕКТОЛОГИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКОГРАФИЯ И ПРОБЛЕМА СОСТАВЛЕНИЯ ДИАЛЕКТНЫХ СЛОВАРЕЙ В ЯЗЫКОЗНАНИИ

Норова Гулсанам Максутовна, доцент Навоийского инновационного университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

e-mail: gulsanam81ndpi@umail.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, uning shakllanish bosqichlari va ilmiy tadqiq etish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. O‘zbek tilining ildizlari qadimgi turkiy til davrlariga borib taqalishi, shuningdek, til taraqqiyotida siyosiy, madaniy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda dialektologik leksikografiya va dialektal lug‘atchilikning nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritiladi. Dialektal lug‘atlar xalq tili, mahalliy shevalar va lahjalar boyligini saqlash, ularni ilmiy asosda tizimlashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlanadi.*

Tadqiqotda o‘zbek tilining tarixiy shakllanishida hududiy dialektlar va shevalarning o‘rni, ularning adabiy tilga ta’siri hamda leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg‘ona, Xorazm va Toshkent vohalari dialektlaridagi ayrim qadimiy so‘z shakllari (masalan, qazmoq, aylanmaq, barmaq, turg‘on) misolida o‘zbek tilining tarixiy qatlamlari ochib beriladi.

Maqolada dialektologik leksikografiyaning asosiy vazifasi – sheva va lahjalarda qo‘llanadigan so‘zlarni ilmiy-lug‘aviy asosda to‘plash, ularning semantik, etimologik va fonetik jihatlarini aniqlashdan iborat ekani ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilining qiyosiy-tarixiy leksikasi, arxaizmlar, variantlilik va regional so‘z boyligini tadqiq etishda dialektal lug‘atlarning o‘rni alohida e’tirof etiladi.

Maqolada dialektal lug‘atchilik muammosi – ya’ni shevalardagi so‘zlarning adabiy tildagi muqobilini aniqlash, ko‘pvariantli so‘zlarni normallashtirish va ularni madaniy kontekstda talqin etish masalalari yoritiladi. Shu jihatdan dialektologik leksikografiya o‘zbek tili tarixini rekonstruksiya qilishda, leksik tizimning qatlamlarini aniqlashda, xalq tili boyligini ilmiy muomalaga kiritishda alohida o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari o‘zbek tili tarixini o‘rganish orqali xalqning madaniy merosi, milliy tafakkuri va til tafovutlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Maqola, shuningdek, yosh tadqiqotchilar uchun o‘zbek tilining tarixiy rivojlanish masalalarida ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili tarixi, qadimgi turkiy til, tarixiy grammatika, leksikologiya, qiyosiy-tarixiy metod, lingvistik korpus, madaniy meros, dialektologik leksikografiya, dialektal lug‘atchilik, shevalar, arxaizmlar, qiyosiy-tarixiy metod, dialektal korpus, regional leksika, lingvistik meros.*

Annotation: *This article analyzes the historical development of the Uzbek language, its stages of formation, and the main directions of its scientific study. It highlights that the roots of the Uzbek language go back to the ancient Turkic period and examines the mutual influence of political, cultural, and social factors on its evolution. Additionally, the article explores the theoretical and practical importance of dialectological lexicography and dialect dictionaries in studying the history of the Uzbek language. It emphasizes that dialect dictionaries serve as an essential source for preserving the richness of the people's speech, local dialects, and vernaculars, as well as for systematizing them on a scientific basis.*

The research analyzes the role of regional dialects and vernaculars in the historical formation of the Uzbek language, their influence on the literary language, and their lexical-semantic characteristics. In particular, it reveals the historical layers of the Uzbek language through examples of ancient word forms found in the dialects of Surkhandarya, Kashkadarya, Fergana, Khorezm, and Tashkent regions (such as qazmoq, aylanmaq, barmaq, turg‘on).

The article demonstrates that the main task of dialectological lexicography is to collect words used in dialects and vernaculars based on linguistic and lexicographic principles, while identifying their semantic, etymological, and phonetic features. Furthermore, the study highlights the special role of dialect dictionaries in the comparative-historical study of Uzbek vocabulary, including archaisms, linguistic variants, and regional lexical diversity.

The article also discusses the challenges of dialect lexicography – particularly, identifying literary equivalents of dialect words, standardizing multi-variant words, and interpreting them within their cultural context. From this perspective, dialectological lexicography plays a significant role in reconstructing the history of the Uzbek language, identifying the layers of its lexical system, and introducing the richness of the vernacular into scholarly circulation.

The research findings contribute to a deeper understanding of the nation’s cultural heritage, national consciousness, and linguistic diversity through the study of the historical development of the Uzbek language. Moreover, the article serves as a valuable scientific and methodological foundation for young researchers interested in the historical evolution of the Uzbek language.

Keywords: *history of the Uzbek language, Old Turkic language, historical grammar, lexicology, comparative-historical method, linguistic corpus, cultural heritage, dialectological lexicography, dialectal lexicography, dialects, archaisms, comparative-historical method, dialectal corpus, regional vocabulary, linguistic heritage.*

Аннотация: *В данной статье анализируется историческое развитие узбекского языка, этапы его формирования и направления научного изучения. Отмечается, что корни узбекского языка восходят к эпохе древнетюркского языка, а также освещается взаимное влияние политических, культурных и социальных факторов на развитие языка. Кроме того, раскрывается теоретическое и практическое значение диалектологической лексикографии и составления диалектных словарей в изучении истории узбекского языка. Подчеркивается, что диалектные словари служат важным источником для сохранения богатства народной речи, местных говоров и диалектов, а также для их научной систематизации.*

В исследовании рассматривается роль территориальных диалектов и говоров в историческом формировании узбекского языка, их влияние на литературный язык, а также их лексико-семантические особенности. Особенно выделяются древние формы слов, сохранившиеся в диалектах Сурхандарьинской, Кашкадарьинской, Ферганской, Хорезмской и Ташкентской долин (например, qazmoq, aylanmaq, barmaq, turg‘on), на основе которых раскрываются исторические слои узбекского языка.

В статье показано, что основная задача диалектологической лексикографии заключается в научно-лексикографическом сборе слов, употребляемых в говорах и диалектах, в определении их семантических, этимологических и фонетических характеристик. При этом особое внимание

уделяется роли диалектных словарей в изучении сравнительно-исторической лексики узбекского языка, архаизмов, вариантности и регионального словарного состава.

Освещается также проблема диалектной лексикографии – определение литературных эквивалентов диалектных слов, нормализация многовариантных единиц и их интерпретация в культурном контексте. С этой точки зрения диалектологическая лексикография занимает особое место в реконструкции истории узбекского языка, в выявлении слоев лексической системы и в научном обращении богатств народной речи.

Результаты исследования позволяют глубже осознать культурное наследие народа, национальное мышление и языковое многообразие через изучение истории узбекского языка. Статья также служит научно-методической основой для молодых исследователей, занимающихся вопросами исторического развития узбекского языка.

Ключевые слова: *история узбекского языка, древнетюркский язык, историческая грамматика, лексикология, сравнительно-исторический метод, лингвистический корпус, культурное наследие, диалектологическая лексикография, составление диалектных словарей, говоры, архаизмы, сравнительно-исторический метод, диалектный корпус, региональная лексика, лингвистическое наследие.*

Kirish. O‘zbek tili xalqimizning milliy o‘zligini, tarixiy xotirasini va ma’naviy merosini mujassam etgan bebaho boylikdir. Uning shakllanish hamda rivojlanish jarayonini o‘rganish, ayniqsa, zamonaviy lingvistika nuqtayi nazaridan, nafaqat tarixiy tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnolingvistika va sotsiolingvistika fanlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tilning tarixiy taraqqiyotini to‘liq anglash uchun uning dialektal tizimini chuqur o‘rganish zarur. Chunki xalqning jonli nutqidagi sheva va lahjalar tildagi qadimiy unsurlarni, o‘ziga xos leksik va grammatik shakllarni saqlab qolgan. Shu bois o‘zbek tilshunosligida dialektologik leksikografiya va dialektal lug‘atchilik masalalari tarixiy tadqiqotlarning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Dialektologik leksikografiya – bu turli hududiy shevalar, lahjalar va ularning leksik tarkibini o‘rganib, lug‘aviy manbalar orqali ilmiy tizimlashtirish bilan shug‘ullanuvchi yo‘nalishdir. Uning asosiy maqsadi – xalq tili boyligini hujjatlashtirish, leksik birliklarning semantik, etimologik va fonetik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularni adabiy til bilan taqqoslab o‘rganishdan iborat.

Masalan, Surxondaryo shevalarida uchraydigan *qazmoq* (chuqur qazish), *aylanmaq* (aylanmoq), *barmaq* (bormoq), *turg‘on* (turib turgan) kabi qadimiy fe’llar bugungi adabiy tildagi shakllardan farq qiladi, biroq ular qadimgi turkiy tildagi *qazmaq, aylanmaq, barmak, tururqan* shakllarining jonli izlarini saqlab qolgan[1]. Shu jihatdan, dialektal leksikografiya til tarixining tirik laboratoriyasi sifatida xizmat qiladi. O‘zbek dialektologiyasida asosiy muammolardan biri – shevalarda qo‘llanadigan so‘zlarning adabiy tildagi muqobilini aniqlash, ko‘pvariantli leksik birliklarni normallashtirish va ularni madaniy-kontekstual talqinda tahlil qilish masalasidir.

Masalan, Xorazm shevasida “*biyir*” (birov), “*o‘shon*” (o‘sha), “*kag‘an*” (qayerga) kabi so‘zlar ishlatiladi. Bu birliklar o‘zining fonetik shakli bilan adabiy tildan farqlanadi, lekin qadimgi o‘g‘uz va qipchoq tillarining izlarini o‘zida saqlagan. Bunday materiallar “O‘zbek dialektologik lug‘ati”da alohida tahlil qilingan[2].

Dialektal lug‘atchilikda yana bir muhim masala – arxaizmlar va dialektizmlarni to‘g‘ri ajratishdir. Masalan, *“otangni saqlag‘il”* tarzidagi qadimiy fe’l shakllari (*saqlag‘il*, *qilmag‘il*) hozirgi adabiy tilda ishlatilmaydi, ammo ayrim shevalarda hanuz saqlanib kelmoqda.

Dialektal lug‘atchilikning asosiy vazifalari sheva va lahjalarda qo‘llanadigan so‘zlarni yig‘ish hamda tahlil qilish, ularning etimologik ildizini aniqlash, semantik maydonlarni belgilash, shu bilan birgalikda, adabiy til bilan taqqoslashdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tili tarixini o‘rganishda dialektologik

[1] Doniyorov, H. (2018). O‘zbek shevalari va ularning leksik xususiyatlari. Toshkent: TDPU.

[2] Rahmatullaev, Sh., Doniyorov, H. (2010). O‘zbek dialektologik lug‘ati. Toshkent: Fan.

materiallarning ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda (masalan, O‘rxun-Enasoy bitiklari) uchraydigan *bilgak*, *yurtum*, *tašim*, *qutluq* kabi so‘zlar keyingi davr o‘zbek shevalarida ham o‘zgargan shaklda saqlanib qolgan (*bilak*, *yurtim*, *toshim*, *qutlug‘*). Bu holat o‘zbek tilining uzluksiz leksik rivojini, shuningdek, hududiy variantlar orqali til tarixining rekonstruksiya qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Masalan, Farg‘ona shevasida “*ko‘rganman*” o‘rniga “*ko‘rganim bar*” deyiladi. Bu qadimgi turkiy “*bar*” (bor) so‘zining fe’l bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan arxaik konstruktsiyani ifodalaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda raqamli texnologiyalar yordamida dialektal ma’lumotlarni elektron shaklda jamlash va ularni interaktiv xaritalar orqali tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Masalan, “O‘zbek shevalarining geografik xaritasi” loyihasida 80 dan ortiq tuman va vohalardagi leksik variantlar maxsus kodlangan tizim asosida taqqosiy tahlil qilinmoqda. Shuningdek, bugungi kunda elektron va bosma shaklda dialektal lug‘atlarni yaratishda G.Huseynova tomonidan taklif etilgan “O‘zbek shevalari elektron atlasi” loyihasi alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur loyiha orqali o‘zbek tilining 2000 dan ortiq dialektal birliklari raqamli lug‘aviy korpus shaklida tizimlashtirilgan[3]. Bu raqamli yondashuvlar nafaqat til tarixini o‘rganishda, balki o‘zbek tilining madaniy geografiyasini ham aniqlashda muhim vosita bo‘lmoqda.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek dialektologiyasini o‘rganishda bevosita “dialektologik leksikografiya” terminiga duch kelamiz. Bu tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, u xalq tili, sheva va lahjalarda qo‘llaniladigan leksik birliklarni yig‘ish, tizimlashtirish hamda ilmiy izoh bilan lug‘at shaklida taqdim etish bilan shug‘ullanadi. Ushbu yo‘nalishning asosiy vazifasi – tilning tarixiy, hududiy va ijtimoiy differensiallashgan qatlamlarini hujjatlashtirish hamda ularni ilmiy muomalaga kiritishdir.

Dialektologik leksikografiya o‘z mohiyatiga ko‘ra, ikki fan sohasi – dialektologiya va leksikografiya tutashgan nuqtada shakllangan. Shu bois bu fan tilning jonli shaklini o‘rganish bilan bir qatorda, so‘z boyligining tarixiy qatlamlarini aniqlashga, ularning etimologik ildizlarini tahlil etishga xizmat qiladi.

Dialektologik leksikografiyaning nazariy poydevori XIX–XX asr boshlarida shakllandi. Yevropa tilshunosligida bu soha G.Vaynrix, A.Meje, J.Gillieron, G.Kurilovich kabi olimlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida, bu yo‘nalish Mahmud Koshg‘ariyning *“Devonu lug‘otit-turk”* asaridan boshlanadi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida turli qabilalar tilidagi so‘zlarni, ularning talaffuzdagi farqlarini va semantik tafovutlarini qayd etgan holda, ilk bor dialektologik lug‘at yaratgan edi. Masalan, u “etuk” so‘zi turli qabilalarda “pišmiş”, “pishkan”, “yetilgen” kabi shakllarda ishlatilishini ko‘rsatgan. Bu usul zamonaviy dialektal leksikografiyaning metodologik ildizlaridan biri sanaladi[4].

Asarda muallif turkiy xalqlar tillarini taqqoslab, har bir so‘zning fonetik, semantik va morfologik farqlarini aniqlagan. Xususan, u “ot” so‘zi turli qabilalarda “ot”, “at”, “ad” shaklida ishlatilishini qayd etadi. Bu asar, aslida, birinchi turkiy dialektologik lug‘at bo‘lib, unda 9000 dan ortiq leksik birliklar izohlangan. Koshg‘ariy shevalar o‘rtasidagi farqlarni geografik joylashuv bilan bog‘lab, ilk marta lingvogeografik yondashuvni qo‘llagan.

Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning *“Qutadg‘u bilig”* asari (XI asr) va Ahmad Yugnakiyning *“Hibat ul-haqoyiq”* asari (XII asr)da ham dialektal elementlar, xalq tili unsurlari keng qo‘llangan. Ularning tili xalq og‘zaki nutqiga yaqinligi sababli, bu asarlar o‘zbek tili tarixining jonli dialektal manbalari hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida esa dialektologik leksikografiya ilmiy yo‘nalish sifatida XX asr o‘rtalaridan shakllana boshladi. Sh.Rahmatullayev, A.Madvaliyev, H.Doniyorov kabi olimlarning ishlari bu yo‘nalishning nazariy asoslarini belgilab berdi.

Dialektologik lug‘atlar mazmun va tuzilishiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi:

Hududiy (regional) dialekt lug‘atlari – ma’lum bir voha yoki tuman doirasidagi sheva

[3] Huseynova, G. (2021). O‘zbek dialektologik leksikografiyasi va uning raqamli talqini. Toshkent: O‘zMU.

[4] Koshg‘ariy, M. (1982). Devonu lug‘otit-turk. Toshkent: Fan.

leksikasini aks ettiradi (masalan, “Farg‘ona shevalari lug‘ati”).

Tematik dialekt lug‘atlari – ma’lum bir soha (dehqonchilik, hunarmandchilik, oila turmushi va h.k.) bilan bog‘liq leksik birliklarni qamrab oladi.

Qiyosiy-dialektologik lug‘atlar – bir necha shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarning variantlarini taqqoslaydi.

Izohli dialekt lug‘atlar – har bir so‘zga ma’no, etimologiya, fonetik izoh va qo‘llanma misollarini beradi.

Shuningdek, dialektologik lug‘atchilikda ilmiy metodlar tizimi muhim o‘rin tutadi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan qiyosiy-tarixiy, lingvogeografik, etimologik, korpus lingvistika kabi metodlar bir so‘zning turli shevalardagi variantlarini qadimgi turkiy shakllar bilan solishtirib o‘rganishda, dialektal birliklarning geografik tarqalishini xarita asosida tahlil qilishda, so‘zlarning ildizini, tarixiy rivojlanishini aniqlashda, dialektal materiallarni elektron bazalarda qayd etish va avtomatik tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, o‘zbek shevalarida uchraydigan *“yopqich”* (eshik pardasi), *“sulov”* (arava tayanchi), *“yo‘g‘on”* (katta), *“buzuq”* (buzilgan) kabi birliklar fonetik va semantik jihatdan qadimgi turkiy so‘zlar bilan taqqoslanib, tarixiy qatlam aniqlanadi.

Dialektologik leksikografiyada bir qator ilmiy va amaliy muammolar mavjud. Xususan, dialektal so‘zlarni adabiy tildagi muqobili bilan to‘g‘ri moslashtirish muammosi. Masalan, *“aylanmaq”* – *“aylanmoq”*, *“barmaq”* – *“bormoq”*, *“turg‘on”* – *“turgan”* kabi so‘zlarda fonetik moslashuvning yuz berishini kuzatish mumkin. Shuningdek, ayrim so‘zlarning shevalarda bir necha variantlari mavjud: *“bichiq”*, *“pichiq”*, *“tikish”*; *“qazmoq”*, *“kuzmoq”*, *“chuqur qilish”* kabi. Bularni to‘g‘ri tasniflash ilmiy tahlilni talab qiladi.

Dialektal lug‘atlar faqat lingvistik manba emas, balki madaniy merosning saqlovchisi sifatida ham alohida o‘rin tutadi. Chunki ularning tarkibida xalqning qadimiy hayot tarzi, urf-odatlari, an’anaviy hunarlari va tarixiy tafakkuri aks etgan.

Masalan, Qashqadaryo shevasida “*qorovul*”, “*chirov*”, “*do‘nglik*”, “*qopishmoq*” kabi so‘zlar xalq xo‘jaligi bilan bog‘liq qadimiy terminologiyani ifodalaydi. Xuddi shuningdek, Xorazm vohasi dialektida *“bo‘rcha”* (somon aralash loy), *“yorg‘on”* (ko‘rpa), *“tuymoq”* (sezmoq) kabi leksik birliklar qadimiy turkiy ildizlardan meros bo‘lib, bugungi o‘zbek tilining tarixiy qatlamini tashkil etadi.

Bu jarayon nafaqat lingvistik, balki etnolingvistik tadqiqotlar uchun ham muhimdir. Chunki dialekt so‘zlarida xalq tafakkurining, qadriyatlarining, urf-odat va milliy o‘zlikning izlari mujassam.

Mustaqillik yillarida dialektalogiya sohada sezilarli yutuqlarga erishildi. Chunonchi, 7000 dan ortiq so‘zdan iborat “O‘zbek dialektologik lug‘ati”, 2000 dan ortiq leksik birlikni qamrab olgan “Farg‘ona shevalari lug‘ati”, raqamli platforma asosida ishlab chiqilgan, 80 ta tuman materiallari jamlangan “O‘zbek shevalari elektron atlasi” kabi lug‘atlar yaratildi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilining tarixiy leksik qatlamlarini aniqlashda xalq og‘zaki ijodi (maqollar, topishmoqlar, dostonlar) ham muhim manba sifatida foydalaniladi. Masalan, *“Bo‘ridan qo‘rqqan o‘rmonga kirmas”*, *“Qo‘li mehnatda, ko‘ngli bayramda”* kabi iboralardagi *“bo‘ri”*, *“bayram”*, *“mehnat”* so‘zlari qadimiy leksik birliklarning uzviy davomini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dialektologik leksikografiya bugungi kunda yangi bosqichga o‘tmoqda. Bu – raqamli lingvistik tadqiqotlar bosqichi. Ushbu yo‘nalishda o‘zbek dialektal korpusini yaratish (interaktiv platforma asosida), shevalar asosida tarixiy-lingvistik xaritalar ishlab chiqish, sun’iy intellekt yordamida dialektal variantlarni avtomatik aniqlash, qiyosiy turkiy dialektologiya asosida o‘zbek tilining genealogik tasnifini kengaytirish kabi ilmiy istiqbollar mavjud. Bu istiqbollar o‘zbek tilining tarixiy-lingvistik tadqiqotlarini yangi bosqichga olib chiqisgida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dialektal lug‘atlar o‘zbek tili tarixini o‘rganishda tarixiy-rekonstruktiv – qadimgi turkiy unsurlarni tiklash, hududiy-lingvistik – shevalarning geografik tarqalishini aniqlash, madaniy-etnolingvistik – xalqning turmush tarzi va madaniyatini til orqali yoritish kabi uch asosiy vazifani bajaradi.

Ta’kidlash joizki, “O‘zbek dialektologik lug‘ati”da keltirilgan “ko‘pik” (ko‘p miqdor), “sovuqchilik” (sovuq ob-havo), “yolpiz” (o‘t turi) kabi so‘zlar o‘zbek xalqining iqlim, tabiat,

dehqonchilik bilan bog‘liq qadimiy dunyoqarashini aks ettiradi.

Shuningdek, Surxondaryo shevasida *“cho‘piq”* (mayda o‘t), *“bo‘z”* (yengil mato), *“qopishmoq”* (urishmoq) kabi so‘zlar xalq hayotidagi amaliy faoliyatga doir tushunchalarni bildiradi. Bu birliklar tarixiy leksik qatlamni tiklashda muhim lingvistik dalildir[5].

Til – xalqning eng muhim madaniy qadriyati, uning tarixiy xotirasi va ma’naviy merosining asosiy ifodachisidir. Har bir millatning adabiy tili o‘z ildizini xalq og‘zaki nutqidan, sheva va lahjalardan oladi. Shu bois dialektal lug‘atlar tilshunoslikning eng muhim manbalari sirasiga kiradi. Dialektal lug‘atlarni yaratish – tilning mahalliy shakllarini, leksik hamda grammatik xususiyatlarini tizimlashtirish, ularning etimologiyasini aniqlash, adabiy tildagi muqobillarini belgilash bilan bog‘liq ilmiy-amaliy faoliyatdir.

Biroq bu jarayon nihoyatda murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, tilshunoslar bir qator ilmiy, metodologik va texnik muammolarga duch kelishadi.

Dialektal lug‘atchilik (leksikografiya) – tilning hududiy variantlarini yig‘ish, tahlil qilish va lug‘aviy shaklda ifodalash bilan shug‘ullanuvchi fan sohasi. U dialektologiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tilning tarixiy qatlamlarini aniqlash, hududiy leksik farqlarni belgilash hamda adabiy til me’yorining shakllanishini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Dialektal lug‘atlar odatda uch turga bo‘linadi:

– Hududiy lug‘atlar – ma’lum bir vohaning yoki viloyatning shevasiga bag‘ishlanadi (masalan, *“Xorazm shevalari lug‘ati”*).

– Qiyosiy lug‘atlar – turli dialektal birliklarni solishtirib, farqlarni ko‘rsatadi.

– Umumdialektal lug‘atlar – butun tildagi sheva materiallarini birlashtiradi (masalan, *“O‘zbek dialektologik lug‘ati”).*

Ammo bu jarayonni amalga oshirishda turli xil muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi: fonetik, morfologik, semantik, geografik, metodologik va texnologik.

Dialektal so‘zlarni yozib olishda eng muhim muammo – ularning talaffuzidagi farqlardir. Masalan, Surxondaryo shevasida “aylanmaq” shakli, Xorazm shevasida esa “aylaniw”, Toshkentda esa “aylanmoq” tarzida ishlatiladi. Bu kabi farqlarni fonetik jihatdan to‘g‘ri yozib olish va belgilash muhim masaladir.

Ayrim hollarda, bir so‘zning talaffuzi yozuvda noto‘g‘ri aks ettirilsa, u butunlay boshqa ma’noga ega bo‘lib qoladi. Masalan, *“so‘ri”* (suxumi) va *“suri”* (qovurilgan taom) so‘zlari faqat bir unli farqi bilan ajraladi, ammo lug‘aviy ma’nosi butunlay boshqacha.

Dialektal lug‘atlar uchun yagona transkripsiya tizimining yo‘qligi ham katta muammo hisoblanadi. O‘zbek tili uchun 1960-yillarda ishlab chiqilgan *fonetik transkripsiya belgilar tizimi* bugungi raqamli sharoitga mos emas. Sh.Rahmatullayev bu muammoni tan olib, 1971-yilda “O‘zbek dialektologik lug‘ati”da lotin va kirill harflari bilan aralash tizimdan foydalangan[6].

Bugungi kunda bu muammo elektron lug‘atlarda yana dolzarb bo‘lib, bir xil talaffuzni turli belgilar bilan ifodalash bir xil so‘zning ikki marta qayd etilishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, dialektlarda fe’l, ot, sifat va son kategoriyalari adabiy tildan farqli shakllarda qo‘llanadi. Ularni lug‘atda bir tizimda joylashtirish ilmiy yondashuvni talab etadi. Masalan: *“borur” (boradi), “turur” (turadi)* – qadimgi turkiy shakllar. *“Oldu” (oldi), “qoptu” (qoldi)* – morfologik qisqarish natijasi.

Bunday birliklar adabiy tildagi shakllardan grammatik jihatdan farqlanadi, lekin ma’nosi bir xil. Shu sababli, lug‘at tuzishda ularni tarixiy-grammatik izoh bilan birga berish talab etiladi. Shuningdek, *ko‘plik, egalik, shaxs-son* qo‘shimchalarining mahalliy variantlari (masalan, *-lar, -ler, -lor*) ham lug‘at tuzishda izchil ko‘rsatilishi lozim.

Dialektal lug‘atlar tuzish jarayonida eng murakkab jihatlardan biri – bu polisemantik birliklarni, ya’ni bir so‘zning bir necha ma’noda ishlatilishini to‘g‘ri aniqlash va izohlashdir. O‘zbek tilining turli shevalarida bitta so‘z turli

[5] Qodirova, N. (2022). O‘zbek shevalarining etnolingvistik talqini. Toshkent: Navoiy universiteti nashriyoti.

[6] Madvaliyev, A. (2015). Dialektologik leksikografiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.

hududlarda turlicha ma’no kasb etadi, bu esa lug‘at tuzuvchidan chuqur semantik tahlilni talab qiladi.

Masalan, *“yo‘g‘on”* so‘zi Farg‘ona vodiysi shevalarida “semiz” ma’nosini anglatsa (*yo‘g‘on bola* – semiz bola), Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida “katta” yoki “yirik” ma’nosida ishlatiladi (*yo‘g‘on odam* – katta odam), Xorazmda esa “baland”, “ulug‘” ma’nosini beradi (*yo‘g‘on gap so‘zladi* – tantanali, balandparvoz gap aytdi). Ushbu misol o‘zbek tilida semantik differensiallikning kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, dialektlarda so‘zlarning ma’nosi kontekstga qarab ham o‘zgaradi. Masalan, *“choyxonachi”* so‘zi Toshkentda “oshpaz” yoki “choy tayyorlovchi”, Buxoroda “mehmonxona egasi”, Andijonda esa “sartaroshxona yoki oshxona sohibi” ma’nolarida ishlatiladi. Bu holat semantik tafovutning sotsiolingvistik sabablarini ham ko‘rsatadi: ayrim hududlarda “choyxona” umumiy ijtimoiy muhitni anglatsa, boshqalarda u aniq kasbga nisbatan qo‘llanadi.

Bunday holatlar lug‘at tuzishda ikki xil yondashuvni talab qiladi:

1. Har bir ma’no alohida sarlavha sifatida berilishi lozim;
2. So‘zning geografik tarqalish doirasi (viloyat, tuman, qishloq) ko‘rsatilishi zarur.

Tahlil va natijalar. O‘zbek tili hudud jihatidan nihoyatda keng tarqalgan. Bugungi kunda o‘zbek tili O‘zbekiston, Tojikiston, Afg‘oniston, Qozog‘iston va Turkmaniston hududlarida 35 milliondan ortiq so‘zlovchilar tomonidan ishlatiladi. Shu sababli, ularning har biri o‘z mahalliy leksik tizimiga ega. Ba’zi so‘zlar talaffuz jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, semantik jihatdan butunlay boshqa ma’noni bildiradi.

Masalan, *“tam”* so‘zi bu jihatdan diqqatga sazovordir:

– Surxondaryoda – *“yemoq”* ma’nosida (Masalan: *“Non tamadim”* – “non yedim”);

– Buxoroda – *“to‘ymaslik”*, *“zerikish”* ma’nosida (Masalan: *“Har kuni bir ovqat, tam bo‘ldi”* – “zerikdim”);

– Xorazmda – *“tom”*, *“uy tomi”* ma’nosida (*“tamda yotdim”* – “tomda yotdim”).

Ko‘rinadiki, *“tam”* leksemasi o‘zbek tili dialektlarida semantik diversifikatsiyaga uchragan, ya’ni bir morfologik shakl — bir nechta ma’noni ifodalaydi. Agar bunday tafovutlar lug‘atlarda izohsiz keltirilsa, ilmiy aniqlik buziladi va noto‘g‘ri semantik xulosa chiqadi. Shu sababli, har bir so‘z kontekstda va hududiy ko‘lamda tahlil qilinishi zarur[7].

Bundan tashqari, ayrim dialektal birliklarda ma’no siljishi (semantik shift) hodisasi kuzatiladi. Masalan, *“urmoq”* so‘zi Toshkent shevasida “urish” (zarba berish), Farg‘onada “tez yurish” (*ot urdi* – ot tez yurdi), Xorazmda esa “o‘rish”, “pichan o‘rish” ma’nosida ishlatiladi. Bunday o‘zgarishlar lug‘atda semantik struktura bilan berilmasa, ularning asl ma’no qatlami yo‘qoladi.

Tilshunoslikda bunday o‘zgarishlarni aniqlashda geolingvistik xaritalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xarita yordamida har bir dialektal birlikning geografik chegarasi, ma’no zonasi va leksik o‘xshashliklar ko‘rsatiladi. Bu usul Germaniyada *“Deutscher Sprachatlas”*, Fransiyada *“Atlas linguistique de la France”* tajribasiga asoslangan bo‘lib, o‘zbek dialektologiyasida ham *“O‘zbek shevalari elektron atlasi”* loyihasi doirasida qo‘llanilmoqda.

Geolingvistik xarita orqali, masalan, *“tam”*, *“yo‘g‘on”*, *“urmoq”*, *“qapishmoq”* so‘zlarining tarqalish zonalarini aniqlash, ular orasidagi semantik o‘xshashlik va tafovutlarni vizual tarzda tasvirlash mumkin. Bu nafaqat lug‘atchilik uchun, balki til tarixi va madaniy geografiya uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Dialektal lug‘at tuzish jarayonida quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanadi:

– deskriptiv (tasviriy tahlil);
– qiyosiy-tarixiy;
– statistik (so‘z chastotasi);
– korpus tahlili.

Ammo bu metodlarning uyg‘unligi har doim ta’minlanmaydi. Masalan, ba’zi lug‘atlar faqat deskriptiv yo‘nalishda tuzilib, qiyosiy aspekt e’tibordan chetda qoladi. Natijada so‘zlarning tarixiy ildizini aniqlash qiyinlashadi.

Hozirda o‘zbek tilida elektron dialektal lug‘atlar yetarli darajada yo‘q. Raqamli lug‘atchilik sohasida yagona standart va format

[7] Rahmatullayev, Sh. (1971). O‘zbek dialektologik lug‘ati. Toshkent: Fan.

ishlab chiqilmagani sababli ma’lumotlar bazasi integratsiyasi sust. Shuningdek:

– audio yozuvlar sifatsizligi;

– raqamli transkripsiya dasturlarining yo‘qligi;

– hududiy ma’lumotlarning koordinatalar asosida berilmasligi ham amaliy muammolardir.

Shu jihatdan, “O‘zbek tili milliy korpusi” va “O‘zbek shevalari elektron atlasi” loyihalari bu yo‘nalishda ijobiy qadam hisoblanadi.

Dialektal lug‘atchilik endilikda faqat lingvistik maqsadga emas, balki madaniy, ijtimoiy va texnologik maqsadlarga ham xizmat qiluvchi kompleks tizimga aylanmoqda. Chunki har bir mahalliy so‘z, talaffuz yoki ibora – bu xalqning tarixiy hayot tarzini, qadriyatlarini, o‘zlikni anglashini ifodalovchi madaniy belgidir. Bunday so‘zlarni saqlab qolish va ularni raqamli platformalarda qayd etish – milliy madaniyatni hujjatlashtirish, tarixiy merosni avlodlarga yetkazish va tilning tabiiy boyligini ilmiy asosda qayta tiklash demakdir.

Kelajakda o‘zbek dialektologik lug‘atchiligi ilmiy izlanishlar, texnologik yangiliklar va madaniy merosni integratsiyalashgan holda rivojlantiruvchi fan sohasiga aylanishi zarur. Bu jarayon o‘zbek tili taraqqiyotida ikki asosiy yo‘nalishni – ilmiy izchillik va milliy qadriyatlar sadoqatini uyg‘unlashtiradi. Demak, dialektal lug‘atchilik nafaqat tilshunoslikning bir bo‘lagi, balki milliy o‘zlikni asrash, raqamli avlod uchun til xotirasini yaratish va madaniy uzluksizlikni ta’minlash missiyasini ham bajaradi.

Xulosa va takliflar. Til – millatning eng muhim belgisi, xalq ruhining, tafakkurining va madaniyatining ko‘zgusidir. Ayniqsa, xalqning jonli nutqi – shevalar bu ko‘zguda milliy xotira hamda tarixning eng tabiiy qatlamlarini mujassam etadi. O‘zbek tili o‘zining ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida turli mintaqaviy lahja va shevalar orqali shakllangan, boyigan hamda madaniy rang-baranglikka ega bo‘lgan. Shu sababli, o‘zbek xalqining tili va madaniyati tarixini to‘liq anglash uchun dialektal lug‘atchilik alohida ilmiy, shuningdek, madaniy yo‘nalish sifatida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida tilning ayrim tabiiy shakllari, ya’ni shevalar unutilish xavfi ostida qolmoqda. Yoshlar o‘rtasida adabiy tilning yagona standart shakli keng tarqalayotgani, mintaqaviy so‘zlar kam ishlatilayotgani, mahalliy talaffuzlar yo‘qolib borayotgani – bu jarayon til xilma-xilligini kamaytiradi. Shunday sharoitda dialektal lug‘atchilikni milliy madaniy meros sifatida rivojlantirish nafaqat tilshunoslik, balki milliy identitetni saqlash masalasiga ham aylanadi.

Har bir sheva – xalq hayotining bir bo‘lagi. U insonning kundalik so‘zlashuvi, tabiat, mehnat, urf-odat, marosim va ijtimoiy munosabatlarini o‘zida ifodalaydi. Masalan, Xorazm shevasida “kevotti” (“kelayapti”), Qashqadaryo shevasida “baromman” (“borayapman”), Toshkent shevasida esa “chiqvotti” (“chiqayapti”) kabi so‘z shakllari xalqning jonli nutqini aks ettiradi. Bu shakllar – tilning tarixiy qatlamlari, mahalliy madaniyat va xalqona tafakkurning jonli izidir.

Sh.Rahmatullayev, A.Qodirov, M.Jo‘rayev kabi olimlar o‘zbek shevalarining fonetik va leksik xususiyatlarini o‘rganib, bir qancha hududiy lug‘atlar yaratdilar. Ammo bu lug‘atlar asosan bosma shaklda bo‘lib, ularning aksariyati keng jamoatchilikka yetib bormagan. Bugungi kunda esa bu soha raqamli madaniy meros yo‘nalishida rivojlanishi zarur. Chunki tilning og‘zaki boyligini raqamli arxivlarda saqlash – bu kelajak avlodga madaniyat, tarix va tafakkurni yetkazishning eng samarali usulidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ilm-fan sohasida elektron lug‘atchilik yo‘nalishida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu ishlar ko‘proq adabiy tilga yo‘naltirilgan. Shevalar bo‘yicha esa elektron lug‘atlar, ovozli arxivlar va interaktiv platformalar hali to‘liq shakllanmagan. Shu bois, “Elektron o‘zbek shevalari portalini yaratish milliy miqyosdagi loyihaga aylanishi zarur. Bunday portalda:

– shevalarga oid so‘zlar, iboralar va talaffuz namunalarini audio-video shaklda jamlash;

– har bir so‘zning tarixiy kelib chiqishi, semantik tahlili va qo‘llanilish doirasini ko‘rsatish;

– interaktiv xarita orqali shevalarning geografik joylashuvini aks ettirish;

– yoshlar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar uchun ochiq ma’lumotlar bazasini yaratish lozim.

Bu nafaqat ilmiy manba, balki milliy raqamli merosning muhim qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Dialektal lug‘atchilik faqat lingvistik emas, balki madaniy va ma’naviy o‘zlikni tiklovchi jarayondir. Har bir mahalliy so‘z – xalq ruhining

ifodasi, tarixiy xotiraning belgisi. Masalan, “ota-bobo yurt”, “o‘choq”, “hovli”, “charx”, “beshik” kabi so‘zlar turli mintaqalarda turlicha talaffuz qilinadi, lekin ular xalqning bir ildizdan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi. Bu jihatdan dialektologik lug‘atlar milliy birlik va tarixiy xotiraning ko‘zgusidir.

Bugungi kunda UNESCO tomonidan ham tillar xilma-xilligini saqlash masalasi insoniyat madaniy merosining bir qismi sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston ham bu borada o‘zbek tilining shevalarini milliy nomoddiy madaniy meros sifatida ro‘yxatga olish, ularni xalqaro maydonda targ‘ib etish yo‘lida izchil ishlar olib borishi zarur.

Zero, dialektal lug‘atchilikni rivojlantirish — bu nafaqat ilmiy, balki madaniy, ma’naviy va raqamli taraqqiyotning uzviy qismidir. Har bir sheva o‘zbek xalqining yurak ohangi, tarixiy xotirasi va madaniy ruhini ifodalaydi. Shu sababli, bu sohani rivojlantirish – milliy madaniyatni saqlashga, xalq nutqining tabiiy go‘zalligini ilmiy asosda qayta tiklashga, raqamli madaniy merosni yaratishga, kelajak avlodni o‘z tili, o‘zligiga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kelajakda “O‘zbek shevalari elektron lug‘ati” va “Dialektal madaniy meros markazi”ni tashkil etish orqali o‘zbek tili va madaniyatini nafaqat ilmiy, balki xalqaro miqyosda ham targ‘ib qilish imkoniyati kengayadi. Zero, til — bu millatning yuragi, shevalar esa uning yurak urishlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorov, H. (2018). *O‘zbek shevalari va ularning leksik xususiyatlari.* Toshkent: TDPU.
2. Rahmatullaev, Sh., Doniyorov, H. (2010). *O‘zbek dialektologik lug‘ati.* Toshkent: Fan.
3. Huseynova, G. (2021). *O‘zbek dialektologik leksikografiyasi va uning raqamli talqini.* Toshkent: O‘zMU.
4. Koshg‘ariy, M. (1982). *Devonu lug‘otit-turk.* Toshkent: Fan.
5. Qodirova, N. (2022). *O‘zbek shevalarining etnolingvistik talqini.* Toshkent: Navoiy universiteti nashriyoti.
6. Rahmatullayev, Sh. (1971). O‘zbek dialektologik lug‘ati. Toshkent: Fan.
7. Madvaliyev, A. (2015). Dialektologik leksikografiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94(575.1)

SURXON VOHASIDA NIKOH TUZISH MUNOSABATLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Buriyev Ravshan Rustamovich, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti doktoranti

MARRIAGE RELATIONS IN THE SURKHAN OASIS AND THEIR DISTINCTIVE FEATURES

Buriyev Ravshan Rustamovich, Doctoral Student of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

БРАЧНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Буриев Равшан Рустамович, докторант Деновского института предпринимательства и педагогики



https://orcid.org/0009-0004-0397-4118
e-mail: boriyevravshan43@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Surxon vohasi aholisining nikoh tuzish an’analari, ularning tarixiy shakllanish jarayoni hamda etnografik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda nikoh tushunchasining mazmuni, uning jamiyat va oila hayotidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, voha aholisi orasida keng tarqalgan nikoh shakllari — ekzogamiya, endogamiya, monogamiya, poliginlik hamda qadimiy nikoh udumlari haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *nikoh, oila, Surxon vohasi, nikoh marosimlari, urf-odatlar, ekzogamiya, endogamiya, monogamiya, poliginlik, levirat, sarorat, bel quda.*

Abstract: *This article highlights the marriage traditions of the population of the Surkhan oasis, their historical formation process, and ethnographic characteristics. The study scientifically analyzes the meaning of the concept of marriage and its role in the life of society and the family. It also provides information about the forms of marriage widely practiced among the inhabitants of the oasis—exogamy, endogamy, monogamy, polygyny—as well as ancient marriage customs.*

Keywords: *marriage, family, Surkhan oasis, wedding ceremonies, traditions, exogamy, endogamy, monogamy, polygyny, levirate, sororate, bel quda.*

Аннотация: *В данной статье освещаются брачные традиции населения Сурхандарьинской оазисной зоны, процесс их исторического формирования и этнографические особенности. В исследовании научно проанализировано содержание понятия брака и его роль в жизни общества и семьи. Также представлена информация о формах брака, широко распространённых среди населения оазиса — экзогамии, эндогамии, моногамии, полигинии, а также о древних брачных обычаях.*

Ключевые слова: *брак, семья, Сурхандарьинский оазис, свадебные обряды, традиции, экзогамия, эндогамия, моногамия, полигиния, левират, сорорат, бел куда.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yangi O‘zbekistonning islohotlar davrida o‘zbek oilasining etnomadaniy rivojlanishiga nikoh institutining ta’sirini chuqur ilmiy tadqiq qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, moddiy va ma’naviy jihatdan yordam ko‘rsatish hamda oilada sog‘lom muhitni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va ularni milliy rivojlanish jarayonlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli nikoh hamda unga bog‘liq tarixiy an’analarni o‘rganish mazkur mavzuni dolzarb va zarur yo‘nalish sifatida belgilab beradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). «Nikoh» atamasi arabchadan olingan bo‘lib, «uylanish», «erga tegish», «er-xotinlilik», «qo‘shilish» kabi tushunchalarda keladi. Aniqroq qilib aytilganda, nikoh bu – er-xotinlik munosabatlarining shariat tomonidan rasmiylashtiriladigan shartnoma sanaladi (1).

Xalqimizning eng muhim qadryatlaridan biri bu oiladir va bu oilalarning vujudga kelishi esa nikoh rishtalari orqali bir erkak kishining bir ayol kishi bilan ixtiyoriy ravishda birga yashashlaridir. Oila o‘chog‘i nikoh munosabatlari natijasida tashkil topadi. Nikoh — er va xotin o‘rtasidagi muayyan ittifoq va uning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi hamda ma’qullanishidir(2). Nikohning tarixiy shakllariga «ekzogamiya», «endogamiya», «monogam», «poligin» kabi turlari kirgan. 1865 yilda shotlandiyalik olim Jon Maklennan o‘zining “Ibtidoiy nikoh” nomli asarida ilk bor «endogamiya» va «ekzogamiya» atamalariga ta’rif bergan. Unga ko‘ra, «endogamiya» — nikohning muayyan etnik guruhlar, irqlar, sinflar, dinlar yoki tabaqalar o‘rtasida tuzilishiga nisbatan aytiladi. «Ekzogamiya» esa, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning ta’qiqlanishi va o‘z urug‘idan tashqarida bo‘lgan kishilar bilan nikoh tuzilishi demakdir(3).

O‘zbek oilasi qadim zamonlardan boshlab shakllanib kelgan. Etnografik tadqiqotlarga ko‘ra, eng qadimgi doston, ertak va rivoyatlarda oilaning matriarxat davriga tegishli ekanligia amin bo‘lish mumkin. M.O.Kosvenning yozishicha, matriarxat munosabatlar davrida nikoh ko‘pincha erning emas, balki ayolning tashabbusi bilan tuzilgan.

Qadimgi turklarda ayol muqaddas sanalgan. Islomgacha turk ayollari urug‘ning taniqli kishilari yig‘ini, ya’ni qurultoy yoki to‘ylarda qatnasha olganlar, hoqonlar esa, o‘z qarorini xotini bilan birga qabul qilganlar(4). Qadimgi turklarda oila nikoh to‘yi natijasida yuzaga keladi. Turklarda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh taqiqlab qo‘yilgan. Nikoh yoshida chegara qo‘yilmagan. Hozirgi zamonaviy dunyoda nikoh shartlari o‘zgacharoqdir va davlat tomonidan tartibga solinadi. Masalan; O‘zbekistonda nikoh yoshi erkaklar va qizlarimiz uchun 18 yosh etib belgilangan. Hozirgi statistik ma’lumotlarga qaraganda o‘g’il bolalar uchun o‘rtacha turmush qurish yoshi 26-27-yosh, qizlar uchun 23-24 yoshdir.

Ota o‘z bolalari va otalig‘iga olingan bolalarni erta uylantirishi yoki erga berishi mumkin edi. Biroq buning uchun bolalar oldin ulg‘ayib, voyaga yetishlari kerak bo‘lgan. Nikoh sharti sifatida ota-ona va bolalarning roziligi talab etilgan. Otalar yoki otaliqlar o‘g‘illarining ko‘ngliga qarab ish tutganlar. Ular o‘g‘illarining o‘z sevikli yorlariga uylanishlariga kamdan-kam hollardagina qarshilik qilganlar. Nikohning boshqa sharti sifatida kuyov yoki uning ota-onasi tomonidan kelinning otasi uchun qalin berishi talab etilgan. Qalin kelinning narxi hisoblanmagan. Aksincha, qizni bolaligidan o‘sib tarbiya qilganligi uchun ketgan chiqimlarni qoplash maqsadida uning ota-onasiga beriladigan haq sifatida tushunganlar. Qalin miqdori bir necha bosh qo‘ydan yuzlab otlar yoki otar-otar qo‘ylargacha yetgan(5)

O‘zbek oilasida bir necha avlod vakillarining birga yashashlari, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zga yurtlarga nisbatan kuchli ekanligi uning ijtimoiy ahamiyatini yanada orttirib yuborgan. O‘zbek oilasidagi sadoqat, yetti bo‘g‘inini bilish, yaqin qarindosh-urug‘, ota-ona va qariyalarga nisbatan ehtirom, bolalar kelajagi uchun qayg‘urish uning o‘ziga xos xususiyatlaridandir. O‘zbek oilasi juda katta bo‘lib, unda odamlar jamoa bo‘lib yashab kelganlar.

XIX-XX asrlarda Surxon vohasi xos xususiyat bu aholining katta oila bo‘lib yashashi hisoblanadi. Katta oila bir otaning uch-to‘rt avlodidan iborat eng yaqin qarindoshlari, ularning xotin va bolalari, ba’zan kuyovlari va oilaga qabul qilingan boshqa qarindoshlar hisobiga yuz va undan ortiq kishilardan tashkil topgan xo‘jalik guruhidir. Urug‘-qabilachilik an’analari ancha mustahkam saqlangan o‘zbeklarda boshka xalqlardagidek, ekzogam nikoh bo‘lmagan, aksincha ularda kuzen nikoh, ya’ni urug‘dosh (amakivachcha, xolavachcha, ammavachcha) lar orasidagi endogam nikoh keng tarqalganligi XIX asr oxirlari – XX asr boshlariga kelib, asli urug‘-qabilaviy munosabatlarning yemirilganligini ko‘rsatadi. Ayrim etnik guruhlarda urug‘-qabilachilik oilaviy nikoh munosabatlari va ijtimoy-ma’naviy turmushga ancha kam ta’sir etgan.

Surxon vohasi aholisining nikoh to‘y marosimlarida to‘y boshlanishidan to‘y tarqagunicha bo‘lgan davr oralig‘ida to‘y bilan bog‘liq qator marosimlar bajarilgan bo‘lib, bu marosimlarni uch guruhga: nikoh to‘yigacha o‘tkazilgan marosimlar, nikoh tuyi davrida o‘tkaziladigan marosimlar va nikoh to‘yidan keyin o‘tkazilgan marosimlarga bo‘lib tadqiq qilinadi.

Surxon vohasida nikohning «bel quda», «etak yirtish» kabi shakllari bo‘lib, «bel quda» udumida qalin oshna og‘ayinlar xotinlarining xomiladorlik davrida dunyoga keladigan o‘g‘il va qizlarini bir biriga atab qo‘yganlar. Dunyoga kelgan bu farzandlar o‘sib-ulg‘aygach bir-birlari bilan turmush

qurishganlar. Etak yirtish marosimi esa o‘rganilayotgan davrda tug‘ilgan o‘g‘il va qizni ota-onalarining kelishuvi, roziliga asosida chaqaloqni chaqaloqlik davrida unashtirish udumi bo‘lgan. O‘g‘il va qizning chaqaloqlik davrida bunday unashtirishlari Markaziy Osiyo xalqlarida ham mavjud bo‘lib, «quloq tishlash», «beshikdagi unashtirish». «beshik kerti» deb nomlagan(6).

Surxon vohasida levirat, sarorat, «qarshi quda», «kuch kuyov», «ich kuyov», «voy-voy nikoh» kabi nikoh turlari mavjud bo‘lgan.Levirat hamda sarorat nikoh turlari oila qurishning eng qadimiy udumlaridandir.Vohada levirat udumiga ko‘ra, vafot etgan kishining beva qolgan xotini (vohaning Shaldiroq, Obodon, To‘la kabi qishloqlarida «jesir» deb aytilgan)ni «chechaning bir tupi halol» deb, aka yoki ukalaridan biri uylangan. «Jesir» ega deb vafot qilgan kishining qarindoshlari beva ayolni begona urug‘dan bo‘lgan kishilarga bermaganlar. Agarda aka ukalardan birortasi «jesir»iga uylanmasa, qarindosh urug‘lar to‘planib, jer (er)da qolsa jiyanniki deb vafot etgan kishining jiyanini majburlab bo‘lsada, uylantirganlar. Sarorat odati ham vohada tadqiq etilayogan davrda mavjud bo‘lib, bunda xotini vafot etgan er o‘lgan xotinining opasi yoki singlisiga uylangan. Levirat va sarorat nikohlarining iqtisodiy va oilaviy hayot taqozosi jihatidan xayotga tadbiq etib kelingan.

Surxon vohasi aholisining maishiy turmushida «voy-voy nikoh» udumi ham mavjud bo‘lgan. O‘rganilayotgan davrda qizlarni majburlab turmushga berish hollari ham uchrab turgan. Bunday holatlarning ayrimlarida qizlar mulla ijob qilayotganda «tan mahramlik»ka rozilik bermaganlar. Shunday vaziyatlarda qizdan rozilik so‘ralayotganda orqa tomondan biror kishi kelib bildirmasdan qizning biqiniga qatiqroq bir turtadi. Shu vaqtda qiz «voy» deb yuborganda qiz rozi deb, ijob qilingan. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, tadqiq etilayotgan davrda, «ijob»siz homila bo‘lib qolganda, kelin va kuyov ijob qilinganida kuyovning orqasiga eshak to‘qimi bog‘lanib ijob qilingan. Kuyov eshak to‘qimini qo‘ydirmasa mulla tomonidan ijob o‘qilmagan. Bu bilan yoshlarni islomiy hamda ahloqiy qonun-qoidalariga bo‘ysunishiga jalb etilgan.

Surxon vohasida bu davrda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘g‘il bolalarni 15-17 yoshdan uylantirganlar. Qizlarni esa 9-11-13 yoshdan turmushga berganlar. Vohada qizlarni turmushga berish haqida qo‘shiqlar ham mavjud. Nikoh to‘yi marosimi Surxon vohasida «ijob to‘yi», «katta yaloq qizartirar to‘yi» kabi nomlar bilan atalib, bu marosim kelin-kuyov ota-onalarining o‘zaro jiddiy tayyorgarligi asosida o‘tkazilgan. Nikoh to‘y bo‘lishidan bir kun oldin kechqurun kuyovnikida «iliq taboq» marosimi o‘tkazilgan. Marosimda qishloq aholisi kuyovnikiga chaqirilib osh beriladi. Shundan keyin dasturxon o‘rtasiga ro‘mol tashlanadi va kelgan odamlar iloji yetganlaricha pul tashlashadi. Ayollar esa ro‘mol va kiyimliklar tashlagan. Ana shu tashlangan kiyimliklar ertasi kuni kelinning uyiga yuborilgan.(7)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Surxon vohasi aholisiing nikoh to‘y marosimlari O‘zbekistonning boshqa hududlaridagi aholi nikoh to‘y marosimlari bilan o‘xshashlik tomonlari bo‘lsada, lekin o‘zining urf-odat va rasm-rusumlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan. Voha aholisi nikoh to‘y marosimlarida to‘y boshlanishidan to‘y tarqagunicha bo‘lgan davr oralig‘ida to‘y bilan bog‘liq qator marosimlar bajarilgan bo‘lib, bu marosimlarni uch guruhga: nikoh to‘yigacha o‘tkazilgan marosimlar, nikoh tuyi davrida o‘tkaziladigan marosimlar va nikoh to‘yidan keyin o‘tkazilgan marosimlarga bo‘lib tadqiq qilinadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент, 2007. –Б. 38.
2. Отахўжаев Ф. Никоҳ ва унинг ҳуқуқий тартибга солиниши. –Тошкент: Ўзбекистон, 1995. –Б. 19.
3. https://sunmag.me/svadby/ekzogamnye-i-endogamnye-braki.html
4. Косвен О.М. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. Тошкент. 1960. – Б.153.
5. Тишин В.В., Серегин Н.Н. Положение женщины в древнетюркском обществе // Историческая психология и социология истории. Том 8, номер 1 / 2015. –С. 110.
6. Садри Максуди Ареал. Тюркская история и право. Перевод с турецкого языка Рафаэля Мухамметдинова. - Казань: Фэн. 2002. –С. 272.
7. Ф.Холмонова, О.Худойназаров, Г.Аҳмедова. Никоҳ туйлари. Мозийдан садо. Жур.№2, 2013 йил. 42-43 бетлар.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1:316.77:004

AXBOROT JAMIYATIDA MA'NAVIY ONG SHAKLLANISHINING FALSAFIY TAHLILI

Ochilova Nigora Ruzimuratovna, Qarshi davlat texnika universiteti "Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti

GLOBALIZATION AND SPIRITUAL CONSCIOUSNESS: A PHILOSOPHICAL APPROACH TO PERSONAL DEVELOPMENT

Ochilova Nigora Ruzimuratovna, Karshi State Technical University Associate Professor of the Department of "Social and Humanitarian Sciences"

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ДУХОВНОЕ СОЗНАНИЕ: ФИЛОСОФСКИЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ЛИЧНОСТИ

Очилова Нигора Рузимуратовна, Каршинский государственный технический университет, доцент кафедры "Социальные и гуманитарные науки"

https://orcid.org/0009-0001-9919-2115
e-mail: nigoraochilova972@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada axborot jamiyati sharoitida ma'naviy ong shakllanishining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson ongi, qadriyatlari va dunyoqarashiga ko'rsatayotgan ta'siri keng yoritiladi. Shuningdek, global axborot makonida shaxs ma'naviyatining transformatsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar falsafiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Maqolada axborot oqimining ortishi sharoitida ma'naviy ongni shakllantirishda ta'lim, tarbiya va madaniyatning o'rni ham alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, axborot jamiyatida shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ayrim taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *axborot jamiyati, ma'naviy ong, globallashuv, shaxs kamoloti, qadriyatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dunyoqarash, ma'naviyat, ijtimoiy ong, madaniyat, ta'lim va tarbiya.*

Abstract: *This article examines the philosophical aspects of the influence of globalization on the formation of an individual's spiritual consciousness. It analyzes the impact of globalization processes on values, worldview, and personal spiritual development. Special attention is given to the relationship between national and universal values in the context of a globalized world. The role of education, culture, and social institutions in shaping spiritual consciousness is also highlighted. The article identifies both positive and negative effects of globalization on human spiritual development and offers relevant scientific conclusions and recommendations.*

Keywords: *globalization, spiritual consciousness, personality, philosophical approach, values, worldview, spiritual development, culture, education, society.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются философские аспекты влияния глобализации на формирование духовного сознания личности. Анализируется воздействие глобализационных процессов на систему ценностей, мировоззрение и духовное развитие человека. Особое внимание уделяется соотношению национальных и общечеловеческих ценностей в условиях глобального мира. Также раскрывается роль образования, культуры и социальных институтов в формировании духовного сознания личности. В статье выявляются как позитивные, так и негативные последствия глобализации для духовного развития человека, а также предлагаются соответствующие научные выводы и рекомендации.*

Ключевые слова: *глобализация, духовное сознание, личность, философский подход, ценности, мировоззрение, духовное развитие, культура, образование, общество.*

KIRISH. Zamonaviy ta’lim barcha turdagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi, pedagoglarning o‘z faoliyatlarini kreativ ijodkorlik asosida tashkil etish mahoratiga ega bo‘lishlarini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllanayotgan umumta’lim tizimida, kreativ fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi davrda, ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sifatida turli hayotiy sharoit va vaziyatlarda ongli tarzda qarorlar qabul qila oladigan, nostandart fikrlovchi kreativ shaxsni tarbiyalash birinchi darajali muammo sifatida maydonga chiqdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ushbu muammoga to‘xtalib, “Biz, “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ulug‘ g‘oya asosida mamlakatimizda maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘taramiz. Yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shaklldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqamiz va ijroga qaratamiz”, deb alohida ta’kidlab o‘tdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Respublikamiz olimlaridan L.Axmedova, U.Begimqulov, N.Muslimov, B.Rahimov, N.Tayloqov, E.F.Zeyer, T.M.Sorokina, V.N.Vvedenskiy, M.I.Lukyanova, A.V.Xutorskoy, Sh.Sharipov va boshqalar ta’lim sohasida ijtimoiy-pedagogik, akmeologik masalalarga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan va bu tadqiqotlarda bevosita muayyan yo‘nalishlardagi mutaxassislarning keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari pedagog olimlar H.Abdukarimov, N.Azizxo‘jayeva, A.Aliyev, Y.A.Axrorov, A.A.Verbitskiy, R.H.Jo‘rayev, B.R.Jo‘rayeva, J.G‘. Yo‘ldoshev, S.M.Markova, G.M.Maxmutova, A.A.Hamidov, F.R.Yuzlikayevlarning ishlarida ham tadqiq etilgan. Jumladan, N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha, kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi, bu ham talabaning amaliyot jarayonida va oliy ta’limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida V.Baydenko, A.Zalevskaya, E.Zeyer, I.Zimnyaya, O.Polyakov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish usullarini turli jarayonlarda tahlil qilish va tizimlashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

NATIJA. Ijodiy izlanish natijasida hosil bo‘ladigan bilim mazmuni yangi texnik yechim, badiiy asar, matematik formula, nazariya, qonuniyat kabilar kreativ shakllarda jamiyatga taqdim etiladi. Yangi sifat – kreativlik mahsuli – faqatgina ikki yoki undan ortiq nisbatan avtonom tizimlar bitta yangi tizimga birikkanida yuzaga keladi. Aynan ularning yangi tizim doirasida o‘zaro ta’sirlashuvi yangi sifatning yuzaga kelishini belgilab beradi. Boshqa sohalar bilan tutash bilim sohalari, amaliy hayotda esa odatda o‘tish davrlarida kreativlik potensiali yuqori hisoblanadi. Turli-tuman, o‘zaro qarama-qarshi jihatlarni biriktirish kreativlikning eng muhim manbalaridan biri sanaladi. Buning muhim jihati yangi hosil qilingan jihatning dastlabki mahsulotda mavjud bo‘lmaganligidir. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish kreativlikning yana bir manbaidir. Turli buyumlardagi umumiylikni ko‘ra olishi abstrakt tafakkur bilan bog‘liq. Agar, ikki voqea qaysidir jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lsa, u sabab-oqibat bog‘liqligida o‘z aksini topadi. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish kreativlikning san’at va falsafa bilan bog‘liq turlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng umumiy jihatlariga ko‘ra kreativlik faoliyati turlarini uch guruhga bo‘lish mumkin: a)prinsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; b)ushbu yangilikning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida uni detallashtirish, konkretlashtirish, ishlab chiqish; v)yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etish, u yoki bu moddiy shaklda keltirish bilan bog‘liq faoliyat.

Yaratilgan kreativlik mahsulini ma’nosi va murakkabligiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin: ratsionalizatorlik taklifi – eng oddiy

ijodiy ishlanma bo‘lib, mavjud va avvaldan qo‘llanilgan tizim, jarayon va vaziyatlarning ayrim tarkibiy qismlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan yangi fikr; ixtiro – yuqori darajada texnik ishlanma hisoblanib, mavjud bo‘lganlaridan jiddiy farq qiluvchi texnik yechim; kashfiyot – moddiy dunyoning ilgari ma’lum bo‘lmagan obyektiv mavjud qonuniyat, xossa va xodisalarni aniqlanishi.

MUHOKAMA. O‘quvchining kreativligi uning o‘ziga xos usul bilan masala yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq vaziyatlarda mustaqil fikrlashi bilan namoyon bo‘ladi. O‘quvchining ijodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotdagi dalil va hodisalarga bog‘lay olish, olingan natijalarni to‘g‘ri baholab, tahlil qilishi, avvalgi egallanganlari bilan umumlashtira olishdir. Bu jarayonni texnologik ijodkorlik yangilik elementlarini aniq texnologiyaga o‘tkazish, bir texnologiyani yangi, samaralirog‘iga tubdan o‘zgartirishga qaratilganligi bilan boyitadi. Kreativ faoliyatni o‘qituvchi va o‘quvchilarning bu jarayonga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi. Aniq metod, shakl, vositalarga intilish ularni boshqalarni tan olmasliklariga olib keladi.

XULOSA. Kreativlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (bilim olish jarayonining rivojlanish darajasi), ijtimoiy-psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta’lim berish va ta’lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak.

Jamiyat rivojlanishi bilan texnika va texnologiyalarning juda tez almashinishi insondan o‘z hayoti mobaynida o‘zgarishi mumkin bo‘lgan kasblar va mutaxassisliklarga moslashib borishni talab qiladi. Shuning uchun o‘quvchilarda bo‘lajak kasbi va kasbiy faoliyatga kreativ yondashishni tarbiyalash zarur hisoblanadi.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin . O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilaigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. SH.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti,2021. – B. 226.
2. Usmonboyeva M., To‘rayev A. Kreativ pedagogika asoslari. o‘quv –uslubiy majmua. - T.:TDPU, 2016.
3. Xaydarova O.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvga tayyorlash. Monografiya. –Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2020.
4. Ochilova N.R. The importance of spiritual education of young people with intellectual potential “scientific progress”. Journal ISSN: 2181-1601 ///// Volume: 1, ISSUE: 5 march 2021. 251-254. www.scientificprogress.uz
5. Ochilova N. R. Journal Book Reading-Young People as a Factor of Spiritual and Moral Growth. central asian journal of social sciences and history. 2022/11/17.T3,№11, r-116-118.
6. Ochilova N. Yukh Manzarov. The development of aesthetic perception - Problems of Science, 2019, Publisher LLC Olimp, No. 10 (46), 38-40.
7. Ochilova N.R. Modern civilization: similarities and differences. Journal of the International Scientific-Practical Distance Conference. Publisher Scientific progress 2021. V.15, No. 15, pp. 24-26.
8. Ochilova N.R. National problems in the light of modern trends in the process of globalization. - International Scientific and Practical Conference World science. ROST publisher. 2017, V.5, No. 4, r-11-13.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'42:004.738.5

INTERNET PLATFORMASI TIJORIY DISKURSINING LISONIY TADQIQI

Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi, Andijon davlat chet tillari institute "Umumiy va qiyosiy tilshunoslik" kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.

A LINGUISTIC STUDY OF COMMERCIAL DISCOURSE ON INTERNET PLATFORMS

Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi, Associate Professor of the Department of General and Comparative Linguistics, Andijan State Institute of Foreign Languages, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences



https://orcid.org/0009-0003-8981-6048

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КОММЕРЧЕСКОГО ДИСКУРСА НА ИНТЕРНЕТ-ПЛАТФОРМАХ

Холисова Гавхарой Маннобжон кызы, доцент кафедры общего и сравнительного языкознания, Андижанский государственный институт иностранных языков, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Annotatsiya: *Onlayn tijorat diskursi uchun «Gibridlik» (qorishiqlik) ana shunday metatoifa vazifasini o'taydi. Bu tushuncha raqamli muloqotda yozma nutqning barqaror qoliplari bilan og'zaki nutqning erkin elementlari o'zaro sintezlashishini, ya'ni «oraliq» (og'zaki-yozma nutq qorishmasi) hodisasini ifodalaydi. Onlayn tijorat diskursining taksonomik modeli bir necha sathli murakkab qurilmaga ega. Birinchi navbatda, u lisoniy tejamkorlik (lingvistik kompressiya) va pragmatik yo'naltirilganlik tamoyillariga tayanadi.*

Kalit so'zlar: *onlayn, tijoriy diskurs, raqamli muloqot, nazariy asoslar, funksional xususiyatlar.*

Abstract: *The concept of «Hybridity» serves as a meta-category for online commercial discourse. This notion reflects the synthesis of stable written speech patterns with spontaneous elements of oral communication in digital interaction, manifesting as the phenomenon of «Orality» (a blend of oral and written speech). The taxonomic model of online commercial discourse possesses a multi-layered complex structure. Primarily, it is built upon the principles of linguistic compression (economy of language) and pragmatic orientation.*

Keywords: *online, commercial discourse, digital communication, theoretical foundations, functional features, cyber-stylistics.*


Аннотация: *В качестве метакатегории онлайн-коммерческого дискурса выступает концепт «гибридности». Данное понятие отражает процесс синтеза устойчивых паттернов письменной речи с элементами свободной устной коммуникации в цифровой среде, формируя феномен «оральности» (смешение устно-письменных форм речи). Таксономическая модель онлайн-коммерческого дискурса представляет собой многоуровневую сложную структуру. Прежде всего, она базируется на принципах лингвистической компрессии (языковой экономии) и прагматической направленности коммуникации.*

Ключевые слова: *онлайн, торговый дискурс, цифровая коммуникация, теоретические основы, функциональные особенности, киберстилистика.*

Kirish. Onlayn tijorat diskurs — bu raqamli platformalar (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, veb-saytlar) muhitida amalga oshiriladigan, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi tijoriy munosabatlarni tartibga soluvchi, o'zida matn, vizual obraz va interaktiv elementlarni birlashtiruvchi multimodal lisoniy tizimdir. Tadqiqotimiz doirasida onlayn tijorat diskursiga raqamli muloqotning o'ziga xos qonuniyatlari asosida shakllangan, sotuvchining strategik niyati (persuazivlik) va mijozning ehtiyojini lisoniy uyg'unlashtiruvchi zamonaviy muloqot maydoni sifatida ta'rif beramiz. Taksonomiya (yunoncha *taxis* – joylashish, tartib va *nomos* – qonun) — bu

murakkab obyektlarni ma’lum bir belgilari asosida tasniflash (klassifikatsiya qilish) va ularni iyerarxik (pog‘onama-pog‘ona) tizimga solish haqidagi fandir. Dastlab bu termin biologiyada (o‘simlik va hayvonot olamini turkumlarga ajratishda) ishlatilgan, ammo hozirda tilshunoslik va diskurs tahlilida juda faol qo‘llanilmoqda. aksonomiya — bu ajratish bo‘lsa, Metatoifa — bu o‘sha ajratilgan guruhlarning barchasi uchun umumiy bo‘lgan, ularning ustida turuvchi eng katta xususiyatdir. Zamonaviy tilshunoslikda taksonomiya (tartibga solish qonuniyati) tushunchasi raqamli muhitdagi tarqoq va xilma-xil tijoriy matnlarni muayyan lisoniy mezonlar asosida tizimlashtirishning fundamental asosi hisoblanadi. Onlayn diskursni quyidagi uchta asosiy mezon bo‘yicha taksonomiyalash mumkin:

1.Messenger-diskurs (Telegram-kanallar va guruhlar): Lisoniy tejamkorlik, stiker va emojilarning matn o‘rnida qo‘llanilishi. Messenger-diskurs (Telegram-kanallar va guruhlar) Telegram muloqoti lisoniy tejamkorlik tamoyiliga asoslanadi. Bu yerda



foydalanuvchi ma’lumotni tez va qisqa qabul qilishga odatlangan. To‘liq gaplar o‘rniga elliptik (so‘z tushib qolgan) konstruksiyalar va piktogrammalar (stiker, emoji) faol qo‘llaniladi. Matn ko‘pincha interaktiv tugmalar bilan birga keladi.

Masalan: Sifatli kiyimlar keldi! 👗 ☑
Narxi: 120.000 so‘m
💰 Dostavka bor! 🚚
⚪ Zakaz uchun: @admin_user 📩 »*

Etimologik jihatdan iyerarxik pog‘onalanishni anglatuvchi ushbu termin, onlayn tijorat diskursi kontekstida tartibsiz ko‘ringan internet xabarlarini ilmiy tahlil ob’ektiga aylantirish imkonini beradi. Taksonomiya — bu shunchaki ajratish emas, balki raqamli savdo matnlarining lisoniy, janriy va platformaviy o‘ziga xosliklarini pog‘onali tabaqalanish (iyerarxiya) asosida yaxlit tizimga solishdir. Ushbu iyerarxik tizimning cho‘qqisida esa metatoifa (metakategoriya) tushunchasi turadi. Agar taksonomiya matnlarni guruhlarga ajratsa, metatoifa o‘sha ajratilgan barcha guruhlar uchun mushtarak bo‘lgan, ularning mohiyatini belgilovchi eng yuqori darajadagi umumiy xususiyatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘zning yaratuvchanlik qudrati va ijtimoiy energiyasi M.V.Lomonosov tomonidan ham alohida ta’kidlangan: “So‘zning qudrati shunchalik muazzamki, uning jamiyatdagi ta’siri insoniyat bilimlari yoyilishining kengligi bilan o‘lchanadi”[1]. Ushbu konseptual g‘oya XIX asrda V. fon Gumboldt tomonidan rivojlantirilib, tilning “xalq ruhi” ekanligi haqidagi ta’limotga asos bo‘ldi[2] va keyinchalik G‘arb til falsafasining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Taniqli olim G‘.M. Hoshimov kognitiv tilshunoslikni inson miyasida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar (borliqni anglash, his etish va lisoniy in’ikos ettirish) bilan bog‘liq yo‘nalish sifatida tavsiflaydi[5]. Olimning nazariyasiga ko‘ra, konsept — tafakkurda kechuvchi bir qator o‘zaro bog‘liq jarayonlarning mahsulidir.

Tahlil va natijalar. ***Vizual-tijoriy diskurs*** (Instagram, TikTok): Matnning vizual obrazga bo‘ysunishi, «caption» (izoh) lirikasi. Bu platformalarda matn birinchi darajali emas, u **vizual** obrazga (rasm yoki video) bo‘ysunadi. Matnning vazifasi — tasvirdan olingan hissiyotni so‘z bilan quvvatlashdir. «Caption» (izoh) lirikasi ustuvor. Ya’ni, matn ko‘proq estetik, hissiy va persuasiv (ishontiruvchi) bo‘ladi. Adabiy til elementlari va kognitiv metaforalar ko‘p uchraydi. Masalan (Instagram post ostidagi matn): *«Ertalabki qahva hidi va bizning yangi shinam kreslomiz... ✨ Uyda haqiqiy xotirjamlikni his qiling. Har bir chiziqda nafislik va mehr bor. Siz bunga loyiqsiz! 🤎🛋️»* : Bu yerda «kreslo sotiladi» degan quruq axborot o‘rniga «shinamlik», «xotirjamlik», «nafislik» kabi mavhum konseptlar ishlatilmoqda. Matn xaridorning hissiyotlariga («Siz bunga loyiqsiz») ta’sir o‘tkazish orqali brendga bo‘lgan bog‘liqlikni oshiradi. Instagram va TikTok tijoratida matn — vizual tasvirning «ovozi» hisoblanadi. Agar rasm mahsulotning ko‘rinishini ko‘rsatsa, caption (izoh) uning ruhini va xaridor hayotidagi o‘rnini tushuntiradi. 1. «Orzu metaforasi» va Lifestyle (Hayot tarzi) diskursi ustunlik qiladi. Instagram matnlari ko‘pincha

«Hozirgi holat»dan «Ideal holat»ga o‘tish metaforasiga asoslanadi. (Kiyim-kechak do‘koni): *«Ushbu ko‘ylakda siz nafaqat bazm malikasi, balki o‘zingizga bo‘lgan cheksiz ishonchni his qilasiz. ✨ O‘zingizni qadrlash vaqti keldi...»* Bu yerda ko‘ylakning matosi yoki o‘lchami haqida ma’lumot berilmaydi. Buning o‘rniga «ishonch», «malika», «erkalash» kabi rohatlanishga yo‘naltirilgan konseptlar ishlatiladi. Matn xaridorni mahsulot orqali o‘z «men»ini yaxshilashga ishontiradi. 2. TikTok va Reels: TikTok va Reels kabi qisqa videolar ostidagi matnlar yanada qisqa, ammo o‘ta persuaziv (ta’sirchan) bo‘ladi. Bu yerda «lisoniy o‘yinlar» va «chaqiriqlar» muhim. (Kosmetika): *«Siz qidirgan o‘sha effekt! 😍 Faqat bir tomchi va natija vizualda. Qizlar, bu haqiqiy topilma! 🔥 #skincare #shoshiling»* Bu diskursda **«**topilma» va «natija» konseptlari markazda turadi. Matn videodagi dinamikani lisoniy jihatdan tasdiqlaydi. «Qizlar» murojaati esa auditoriyani bitta umumiy qiziqish atrofida birlashtiradi. 3. Vizual diskursda emojilar va punktuatsiya (nuqtalar, bo‘shliqlar) matnning «nafas olishi»ni ta’minlaydi. Matnlar bo‘laklarga bo‘linadi, har bir fikrdan so‘ng vizual tasdiq (emoji) keladi. Bu matnni o‘qishni emas, balki uni «tomosha qilish»ni ta’minlaydi. *«Siz bunga loyiqsiz!»* kabi jumlalar o‘zbek onlayn tijoratida «psixologik trigger» vazifasini o‘taydi. Bu mijozning ichki «aybdorlik» hissini (pul sarflashdan qo‘rqish) o‘chirib, xaridni «o‘z-o‘ziga sovg‘a» sifatida oqlashga yordam beradi. *«Vizual-tijoriy diskursda matn vizual obrazga semantik jihatdan bo‘ysunsa-da, u tranzaksiyani yakunlovchi asosiy motivator hisoblanadi. Instagram va TikTok “caption”larida qo‘llaniladigan “shinamlik”, “nafislik” kabi mavhum kategoriyalar mahsulotning jismoniy xususiyatlarini ma’naviy-estetik qiymat bilan to‘ldiradi. Bu esa o‘z navbatida xaridor va brend o‘rtasida “hissiy ko‘prik” yaratib, muloqotni oddiy oldi-berdi darajasidan estetik tajriba darajasiga ko‘taradi. Bunday diskursda adabiy til elementlari va lirik ohangning ustuvorligi o‘zbek iste’molchisining “lutf” va “yuqori did”ga bo‘lgan kognitiv ehtiyoji bilan izohlanadi.»*

Xulosa. «Onlayn tijoriy diskursda interaktivlik metatoifasi muloqotning asinxron tabiatini dinamik muloqot darajasiga ko‘taradi. Savol-javob modellarining matn tarkibiga singishi va lisoniy birliklarning texnik amallar (layk, plus, share) bilan bog‘lanishi raqamli muloqotning yangi “kooperativ model”ini shakllantiradi. Bu jarayonda matn muallifi (sotuvchi) va qabul qiluvchi (xaridor) o‘rtasidagi muloqot iyerarxik (yuqoridan pastga) emas, balki gorizontal (teng huquqli) muloqot xarakterini oladi. Bu esa o‘zbek internet-lingvistikasida “demokratik muloqot uslubi”ning rivojlanishiga xizmat qiladi.»

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ломоносов М.В. Полное собрание сочинений. Т. 7: Труды по филологии 1739–1758 гг. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1952. – С. 392.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 68.
3. Уорф Б. Л. Наука и языкознание // Новое в лингвистике. Вып. 1. – М.: Изд-во иностр. лит., 1960. – С. 169-182.
4. Юсупов Ў.Қ. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условными. - дисс... канд.филол.наук. Т.1971г.49с.
5. Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Самарқанд, 2010й. 68б.
5. Николаева, Т.М. Краткий словарь терминов лингвистики текста / Т.М.Николаева // Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистика текста; сост., общ. ред. и вступ. ст. Т.М. Николаевой. – М., 1978. – Вып. VIII. – С. 467 – 472.
6. Карасик, В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В.И. Карасик. – М. : Гнозис, 2004. – 390 с

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94(94):330.34(09)

BRITISH COLONIES IN AUSTRALIA: MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC DEVELOPMENT IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Kholliev Xolliyev Azizbek Guzalovich, Doctor of Historical Sciences (DSc.), professor at the department of "World history" National University of Uzbekistan



https://orcid.org/0000-0002-3365-7979
azizbekholliev@gmail.com

AVSTRALIYADAGI BRITANIYA MUSTAMLAKALARI: XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Xolliyev Azizbek Guzalovich, Tarix fanlari doktori (DSc), "Jahon tarixi" kafedrasi professori O'zbekiston Milliy universiteti

БРИТАНСКИЕ КОЛОНИИ В АВСТРАЛИИ: ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Холлиев Азизбек Гузалович, доктор исторических наук (DSc), профессор кафедры «Всемирная история» Национального университета Узбекистана

Abstract: *This article examines the main trends in the economic development of the British colonies in Australia during the second half of the 19th century and their growing role in the economy of the metropole. It analyzes the impact of the gold rush, which became a significant factor in changes such as population growth, increased capital inflow, trade development, and shifts in the employment structure. Attention is also given to the development of industry, agriculture, and infrastructure, the establishment of financial institutions, and the integration of the colonies into the global economy.*

Keywords: *Australia, British colonies, economy, "golden fever", colonial system, agriculture, industry, infrastructure, capital inflow.*

Annotatsiya. *Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Avstraliyadagi Britaniya mustamlakalarining iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar va ularning metropoliya iqtisodiyotidagi ortib borayotgan o'rni ko'rib chiqiladi. Aholining o'sishi, kapital oqimining kuchayishi, savdoning rivojlanishi va bandlik tarkibining o'zgarishi kabi o'zgarishlarga turtki bo'lgan "oltin vasvasasi"ning ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, sanoat, qishloq xo'jaligi va infratuzilmani rivojlantirish, moliya institutlarini tashkil etish hamda mustamlakalarni jahon iqtisodiyotiga integratsiya qilish masalalariga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Avstraliya, Britaniya mustamlakalari, iqtisodiyot, "oltin vasvasasi", mustamlakachilik tizimi, qishloq xo'jaligi, sanoat, infratuzilma, sarmoya oqimi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются основные направления экономического развития британских колоний в Австралии во второй половине XIX века и их растущая роль в экономике метрополии. Анализируется влияние "золотой лихорадки", которая стала важным фактором таких изменений, как: рост население, увеличение притока капитала, развитие торговли и изменение структуры занятости. Также уделяется внимание развитию промышленности, сельского хозяйства и инфраструктуры, созданию финансовых институтов и включению колоний в мировую экономику.*

Ключевые слова: *Австралия, британские колонии, экономика, "золотая лихорадка",*

Introduction. The history of the colonial system shows that amid the historical transformations of the 19th century, the importance of colonies to the economic development of their metropoles grew. Possessing colonies contributed to industrialization, strengthened military potential, and ensured the redistribution of resources during periods of war and crisis. Consequently, the colonial powers sought to expand their possessions [1].

The British colonization of Australia followed a peculiar trajectory. Initially, the continent was viewed primarily as a place of exile for convicts. Therefore, the colonial authorities discouraged the search for gold, fearing that its discovery could provoke social instability.

Literature Review. The literature reviewed pays considerable attention to the general issues of the formation and development of Australia's economy as part of the British Empire. The works of B. Fitzpatrick and F.K.Crowley, for instance, explore the key stages in the formation of the colonial economy, emphasizing its dependence on the metropole and its export-oriented, resource-based nature. Broader studies, such as the work edited by G.B.Polyak and A.N.Markova, as well as the work of Paul Bairoch, allow Australia's economic development to be viewed within the wider context of the 19th-century world economy, revealing common patterns of industrialization and colonial dependence.

Research Methodology. The research methodology in this article is based on the principles of historical-economic analysis, which entails examining the development of British colonies in Australia during the second half of the 19th century within the context of global economic processes and the colonial policy of the metropole. The study employs a chronological approach, which makes it possible to trace the evolution of the colonies' economic structure - from the dominance of gold mining to the gradual diversification of the economy - and to identify the cause-and-effect relationships between key events and economic changes.

Analysis and Results. In 1830, the colony had approximately one thousand convicts and one hundred soldiers guarding them. The spread of information in Great Britain, which was experiencing significant economic difficulties at the time, about Australia's natural resources contributed to a mass influx of settlers to the colony beginning in the mid-19th century [2].

While in 1851 the value of gold production in Victoria was estimated at £851.600, just two years later this figure reached £11 million, and in 1856, £12.2 millionFor instance, in 1909, its value was £2.8 million [5]. The discovery of gold deposits caused a rapid increase in the population of all British colonies in Australia, which was due to a large-scale influx of immigrants. Whereas in 1850 the total population of the colonies was 405.000 people, by 1860 it had grown to 1.2 million people[6].

The main flow of immigrants, as before, came from the British Isles. According to 1861 data, about 90% of Australia's population consisted of people born either in Great Britain or on Australian territory itself [7]. Among immigrants of non-British origin, the Chinese were the most numerous. Great Britain reaped the greatest economic benefits from the discovery of gold deposits. The average annual value of the United Kingdom's exports to the Australian colonies increased from £1.6 million in 1844-1850 to £8.7 million in 1851-1857. During the same periods, the Australian colonies' share of total British exports grew from 2.6% to 9% [8].

Rail transport was one of the key technological innovations that played a decisive role in ensuring socioeconomic development in the 19th century. The development of the railway network contributed to the formation and integration of a national market [9]. In the 1880s and the first half of the 1890s, the intensive development of railway construction remained a key factor stimulating economic growth. The second half of the 1880s saw the global railway network expand at its maximum rate [10]. The cattle population in Australia demonstrated a stable and high growth dynamic: while it was about 4 million head in 1860, by 1890 it had exceeded 10 million head [11].

In the 1890s, at the height of the European agrarian crisis, Australian wheat appeared on the European market for the first time [12]. By the 1850s, its output was already around 190,000 tons, whereas by the early 1880s, it had grown to

approximately 2 million tons. By the end of the 19th century, the annual volume of coal production had reached about 5 million tons, which indicates a significant expansion of this sector [15]. Australia became the first British colony to implement a trade and economic policy aimed at stimulating industrial development through the introduction of protectionist tariffs. The introduction of this policy in 1867 was largely driven by rising unemployment [16].

Conclusion. Thus, the economic development of the British colonies in Australia during the second half of the 19th century was characterized by considerable dynamism and was largely determined by external factors, primarily the policies of the metropole and the state of the global market. The “gold rush” had a substantial impact on economic processes, stimulating demographic growth, the influx of investment, and the expansion of economic activity.

References:

[1] History of the World Economy / Edited by G.B.Polyak, A.N.Markova. 3rd ed. -M.: UNITY-DANA, 2017. –P.396.

[2] Arkhipov V.Ya. Economic development of Australia // Russian foreign economic herald. No7, 2012. -P.15.

[3] Ball W.M. Australia's role in Asia. -Melbourne, 1967. –PP.252-253.

[4] Fitzpatrick W. The British empire in Australia. An economic history 1834-1939. -Melbourne, 1941. –P.156.

[5] Malakhovsky K.V. History of Australia. -M.: Science, 1980. –P.65.

[6] Fitzpatrick W. The British empire in Australia. An economic history 1834-1939. -Melbourne, 1941. –P.263.

[7] Malakhovsky K.V. History of Australia. -M.: Science, 1980. –P.66.

[8] Fitzpatrick W. The British empire in Australia. An economic history 1834-1939. -Melbourne, 1941. -PP.165-167.

[9] Macheret M., Valeev N., Kudryavtseva A. Formation of the railway network: diffusion of epochal innovation and economic growth // Economic policy. - Vol.13, No. 1, 2018. -P.255.

[10] Kholliev A.G. World railway construction in the 19th century: main directions and trends // Historical researches. No. 6, 2025. –P.202.

[11] Malakhovsky K.V. History of Australia. -M.: Science, 1980. –P.74.

[12] Trunskaya O.Yu. History of the formation and development of agriculture in Australia for 200 Years of its Existence (1788-1988): Abstract of the dissertation of cand. of economic sciences. -SPb., 2004. –P.8.

[13] Fitzpatrick W. The British empire in Australia. An economic history 1834-1939. -Melbourne, 1941. –PP.250-251.

[14] Crowley F.K. Australia's Western Third. A History of Western Australia from the first settlements to modern times. - London, 1960. –PP.119-130.

[15] Malakhovsky K.V. History of Australia. -M.: Science, 1980. –P.81.

[16] Paul Bairoch. Economics and world history. myths and paradoxes. -The University of Chicago Press, 1993. –P.39.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1:316.77:004

TEXNOLOGIYA VA MADANIYAT: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O‘ZARO TA’SIR

Ochilova Nigora Ruzimuratovna, Qarshi davlat texnika universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti

TECHNOLOGY AND CULTURE: INTERACTION IN MODERN SOCIETY

Ochilova Nigora Ruzimuratovna, Karshi State Technical University Associate Professor of the Department of “Social and Humanitarian Sciences”

ТЕХНОЛОГИИ И КУЛЬТУРА: ВЗАИМНОЕ ВЛИЯНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Очилова Нигора Рузимуратовна, Каршинский государственный технический университет, доцент кафедры “Социальные и гуманитарные науки”

https://orcid.org/0009-0001-9919-2115
e-mail: nigoraochilova972@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ilm-fan va texnologiyalarning zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o‘rni falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Ilmiy kashfiyotlar va innovatsion texnologiyalar inson hayoti, ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy rivojlanishga ko‘rsatayotgan ta’siri yoritiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari, raqamli transformatsiya va globallashuv jarayonlarida ilmning ahamiyati keng ko‘rib chiqiladi. Maqolada ilm va texnologiyaning ijobiy ta’siri bilan bir qatorda, ularning ayrim salbiy oqibatlari ham tahlil qilinib, barqaror taraqqiyotni ta’minlashda ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlik masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *ilm-fan, texnologiya, sivilizatsiya, innovatsiya, raqamli transformatsiya, globallashuv, taraqqiyot, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy rivojlanish.*

Abstract: *This article philosophically analyzes the role of science and technology in the development of modern civilization. It examines the impact of scientific discoveries and innovative technologies on human life, social relations, and economic development. Particular attention is paid to the importance of science in the context of digital transformation, information technologies, and globalization. Alongside the positive effects, the article also highlights potential negative consequences of scientific and technological progress and emphasizes the need to harmonize science and technology with spiritual values to ensure sustainable development.*

Keywords: *science, technology, civilization, innovation, digital transformation, globalization, development, spiritual values, social development.*

Аннотация: *В данной статье философски анализируется роль науки и технологий в развитии современной цивилизации. Рассматривается влияние научных открытий и инновационных технологий на жизнь человека, социальные отношения и экономическое развитие. Особое внимание уделяется значению науки в условиях цифровой трансформации, информационных технологий и глобализации. Наряду с положительными аспектами раскрываются и возможные негативные последствия научно-технического прогресса, а также подчеркивается необходимость гармонизации науки и технологий с духовными ценностями для обеспечения устойчивого развития.*

KIRISH. Sivilizatsiya, madaniyat va ma’naviyat muammolari hozirgi O‘zbekistonda davlat siyosati, fan, ta’lim va jamiyat hayotining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Mamlakat mustaqillikdan keyin, madaniy va ma’naviy qadriyatlarni tiklash, milliy identifikatsiyani mustahkamlash, globallashuv davrida axloqiy va ma’rifiy meyorlarni saqlash

kabi vazifalar ustida keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Yangi asr arafasida jahon iqtisodiy xo‘jaligi tarkibi tubdan o‘zgardi. Fan va texnika taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Fan va texnikaning qudratli taraqqiyoti bir tomondan informatsion jamiyatning shakllanishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan yangi tendensiya - globallashuv jarayonini yuzaga keltirdi.

Shuningdek, madaniy taraqqiyot bobida ham misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, ommaviy madaniyatning rivojlanib borayotgani shaxs ma’naviy dunyosiga beqiyos ta’sir o‘tkazmoqda. Globallashuv va madaniyat olamidagi o‘zgarishlar XXI asr arafasiga kelib uch qutbli dunyoning shakllanishiga zamin yaratdi. Ushbu jarayonlar shaxs ma’naviy qiyofasi xarakterining, hayotiy qadriyatlari va ideallarining, ijtimoiy mavqeining o‘zgarishiga, qator ijtimoiy illatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Buning ustiga, XXI asr boshlariga kelib shaxs ma’naviy qiyofasiga tahdid soluvchi omil va vositalar miqdori ko‘payib ketdi. Shaxs ma’naviy olami uchun kurash turli siyosiy kuchlar faoliyatining asosiy maqsadlaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Eng avvalo shuni ta’kidlash lozimki, “sivilizatsiya” tushunchasining mazmuni konkret-tarixiy xarakterga ega. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, ushbu tushunchaning mazmuni zamonlarga mutanosib tarzda, kishilik jamiyatida to‘plangan ijtimoiy-gumanitar bilimlar hajmiga mos ravishda, mazkur muammolar xususida bosh qotirgan mutafakkir va mutaxassislarning dunyoqarashlariga uyg‘un holda o‘zgarib, boyib va to‘lishib bordi. Sivilizatsiya, dastlab aqlga va adolatga asoslangan progressni yovvo-yilikka qarama-qarshi qo‘yuvchi tushuncha sifatida paydo bo‘lgan. Zotan, ushbu tushunchani XVI asrda ilk bor ishlatgan fransuz mutafakkiri M.Monten o‘z asarida mulohaza va adolatga asoslangan jamiyatni shunday nomlaydi[1].

XIX asrda ushbu tushuncha kishilik jamiyati taraqqiyotining bosqich-larini ifodalash uchun ishlatila boshlandi. L. Morgan[1], keyinchalik F. Engels[3] insoniyat tarixining yovvoyilik va varvarlikdan keyingi davrini sivilizatsiya davri deb atadilar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida L. Morgan va F. Engels fikrlari mutafakkirlar tomonidan turlicha rivojlantirildi. Bunga sivilizatsiya haqidagi paradigmalarning o‘zgarishi zamin hozirladi. (Paradigmalarning o‘zgarishi deganda biz mualliflar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar va konsepsiyalarning oddiy almashinuvini emas, tadqiqot obyektiga (ya’ni si-vilizatsiyaga) bo‘lgan yondashuvning, munosabatning almashinuvini nazarda tutmoqdamiz). Gap shundaki, XIX asr oxiriga qadar sivilizatsiya haqidagi evolyutsionistik paradigma hukm surgan. Unga ko‘ra, insoniyat tarixi va madaniy taraqqiyoti yaxlit xarakterga ega[4]. Mazkur paradigmaning asosiy g‘oyalariga tayanib mulohaza yuritgan K. Yaspers va uning tarafdorlari inso-niyatning yovvoyilik va varvarlikdan keyingi davrdagi yaxlit progressiv taraqqiyotini sivilizatsiya sifatida talqin etadilar. Uning fikriga ko‘ra, lokal sivilizatsiyalarning o‘zaro aloqadorlik bosqichida ekumenik siviliza-siya vujudga keladi.

NATIJA. Umumjahon tarixining realligi insoniyatning ma’na-viy yaxlitligi bilan shartlanadi. Karl Yaspers o‘zining “Tarixiy taraqqiyot ibtidosi va maqsadi” asarida insoniyat taraqqiyotini to‘rt bosqichga bo‘ladi: tarixgacha bo‘lgan davr, buyuk tarixiy-qadimiy madaniyatlar (lokal tarixlar) davri, umumjahon tarixining boshlanishi davri va texnika (yaxlit jahon tarixiga o‘tilishi) davri. Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, K. Yaspers si-vilizatsiyani insoniyat bosib o‘tgan tarixiy madaniyat bilan bog‘laydi[5]. Ulardan farqli o‘laroq, boshqa bir guruh faylasuflar «sivilizatsiya» tushunchasini o‘zgacha - siklik paradigma g‘oyalariga asoslanib tahlil qiladi-lar va o‘ziga xos ijtimoiy–madaniy fenomen sifatida ta’riflaydilar[6]. Masalan, N. Danilevskiyning “Rossiya va Yevropa” deb nomlangan asarida sivilizatsiya tarixiy taraqqiyotning konkret subyekti bilan bog‘lanadi. Uning fikriga ko‘ra, umumjahon universal tarixi yo‘q va bo‘lishi ham mum-kin emas. Shu boisdan individual xarakterga ega bo‘lgan aniq sivilizatsiya-lar haqida fikr yuritish mumkin, xolos. Uning fikrini davom ettirgan nemis faylasufi O. Shpengler sivilizatsiyani har qanday madaniy taraqqi-yotning yakuniy bosqichi sifatida ifodaladi.

MUHOKAMA. Sivilizatsiya madaniy taraqqi-yot intiho topayotganidan, o‘layotganidan darak berguvchi davrdir, deydi fay-lasuf. O. Shpenglerning fikriga ko‘ra, “sivilizatsiya – bu texnomexanik omillarning sistemasi bo‘lib, har qanday madaniyatning intihosidir. Mada-niyat

bo‘lsa o‘zining ichki imkoniyatlarini inkor eta borib, sivilizatsiyaga aylanadi”[7]. Madaniyatdan sivilizatsiyaga o‘tish – ijoddan bemahsullikka, taraqqiyotdan turg‘unlikka, jasoratdan “mexanik” hayotga o‘tish demak. O. Shpenglerning fikriga ko‘ra, sivilizatsiyaning asosiy belgilari industriya va texnika rivoji, san’at va adabiyot degradatsiyasi, kishilarning bir necha shaharlarda to‘plana borishi, xalqning qiyofasiz ommaga aylana borishi bi-lan bog‘liq[8]. A.Toynbi esa O.Shpenglerdan farqli tarzda sivilizatsiya bilan madaniyatning aloqadorligini inkor etmaydi. U sivilizatsiyani aniq jami-yatning ijtimoiy-madaniy shakli (qadimgi Misr, qadimgi Vavilon, qadimgi Arab sivilizatsiyalari) deb hisoblaydi[9].

XULOSA. Texnologiya va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Texnologik rivojlanish nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni, balki insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va turmush tarzini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Shu bilan birga, madaniyat texnologiyalarni qabul qilish, ulardan foydalanish va ularni rivojlantirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy jamiyatda texnologiya va madaniyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, bu jarayonda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi ayrim hollarda madaniy birxillashuv va ma’naviy qadriyatlarning susayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mazkur jarayonni muvozanatli boshqarish, innovatsiyalardan samarali foydalanish va ularni insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Monten M. Opiti.- M.:Eksmo, 2007.
2. Гизо Ф. История цивилизации в Европе.- М.: Территория будущего, 2007.
3. Морган Л. Первобытное общество: Исследования прогресса человечества из дикого состояния к варварству и из варварства к цивилизации.- СПб: Л.Ф.Пантелеев, 1900.
4. Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства: в связи с исследованиями Люиса Г. Моргана. М.: УРСС, 2007.
5. Токарев С. История зарубежной этнографии. М.: Высшая школа, 1978.с. 29.
6. Ясперс К. Смысл и назначение истории.- М.: Республика, 1994.
7. Данилевский Н. Россия и Европа: взгляд на культурные и политические отношения славянского мира к германо-романскому.- М.: Эксмо, 2003; Тойнби А. Цивилизация перед судом истории.- Москва: АЙРИС ПРЕСС, 2006; Шпенглер О. Закат Европы. Гештальт и действителность. Очерки морфологии мировой истории . М.: Эксмо, 2006.
8. Шпенглер О. Закат Европи. Гештальт и действителность. Очерки морфологии мировой истории.- М.: Эксмо, 2006.- С. 43

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 2-587:821.512.133.26

SIROJIDDIN SAYYIDNING “SAKSONINCHI YILLAR” DOSTONINING PSIXOLOGIK TAHLILI: STAGNATSIYA DAVRI YOSH AVLOD RUHIY HOLATINI AKS ETTIRISH

Muhammadiyeva Charos Asatullo qizi,
Termiz davlat universiteti “Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)” mutaxassisligi 2-kurs magistranti



e-mail: charos.muhammadiyeva@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-6099-9353

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF SIROJIDDIN SAYYID’S EPIC “THE EIGHTIES”: REFLECTION OF THE SPIRITUAL STATE OF THE YOUNG GENERATION DURING THE PERIOD OF STAGNATION

Muhammadiyeva Charos Asatullo qizi,
2nd-year Master’s student in Literary Studies (Uzbek Literature)
Termez State University

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОЭМЫ СИРОЖИДДИНА САЙИДА «ВОСЬМИДЕСЯТЫЕ ГОДЫ»: ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО СОСТОЯНИЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ПЕРИОД СТАГНАЦИИ

Мухаммадиева Чарос Асатулло кизи,
магистрант 2 курса по специальности «Литературоведение (узбекская литература)», Термезский государственный университет

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyidning “Saksoninchi yillar” dostoni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Doston 1980-yillar oxiridagi stagnatsiya davri yosh avlodining ruhiy iztiroblari, identifikatsiya va o‘zini anglash jarayonlarini aks ettirgani ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda doston matnining psixologik elementlari, xususan, emotsional konfliktlar va motivatsiya omillari o‘rganilib, ularning ta’lim jarayonida yoshlar psixologiyasini shakllantirishdagi roli baholanadi. Natijalar dostonning psixologik terapiya vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Sirojiddin Sayyid, saksoninchi yillar, psixologik tahlil, yosh avlod, stagnatsiya, emotsional konflikt, identifikatsiya, ta’limiy psixologiya.*

Annotation: *This article analyzes Sirojiddin Sayyid's poem "The Eighties" from a psychological perspective. The poem reflects the spiritual torments of the young generation during the stagnation period of the late 1980s, processes of identification and self-awareness. The study examines the psychological elements of the poem's text, particularly emotional conflicts and motivational factors, and evaluates their role in shaping youth psychology in the educational process. The results indicate that the poem can be used as a tool for psychological therapy.*

Key words: *Sirojiddin Sayyid, eighties, psychological analysis, young generation, stagnation, emotional conflict, identification, educational psychology.*

Аннотация: *В данной статье анализируется поэма Сироджиддина Сайида «Восьмидесятые годы» с психологической точки зрения. Поэма отражает душевные переживания молодого поколения в период стагнации конца 1980-х годов, процессы идентификации и самопознания. В исследовании изучаются психологические элементы текста поэмы, в частности*

эмоциональные конфликты и мотивационные факторы, и оценивается их роль в формировании психологии молодежи в образовательном процессе. Результаты показывают, что поэма может быть использована как средство психологической терапии.

Ключевые слова: *Сироджиддин Сайид, восьмидесятые годы, психологический анализ, молодое поколение, стагнация, эмоциональный конфликт, идентификация, образовательная психология.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). 1980-yillar oxiri o‘zbek adabiyotida katta o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu vaqtda yosh avlodning ruhiy holati, ijtimoiy-psixologik iztiroblari adabiy asarlarda yorqin aks etgan. Sirojiddin Sayyidning “Saksoninchi yillar” dostoni shu davrning muhim adabiy yodgorligi sifatida, stagnatsiya (to‘xtab qolish) davrining psixologik oqibatlarini tasvirlaydi. Doston yoshlarning identifikatsiya jarayoni, o‘zini anglash va emotsional konfliktlarini ko‘rsatib, pedagogika va psixologiya sohalarida ta’limiy vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu maqolada dostonni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish orqali, uning yosh avlod psixologiyasiga ta’sirini o‘rganamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Jahon psixologiyasida adabiyotning ruhiy holatga ta’siri ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, V. Franklning ekzistensial psixologiyasi (logoterapiya) adabiy asarlarni ruhiy iztiroblarni yengish vositasi sifatida ko‘radi. O‘zbek olimlari orasida A.Qo‘chqorov [3] va Sh. Sirojiddinovlar [7] adabiyot va psixologiya bog‘lanishini tahlil qilgan.

XX asrning 80-yillari sobiq ittifoq hududida ijtimoiy-siyosiy tizimning ichki inqirozi kuchaygan, ma’naviy hayot esa bo‘shliq va ishonchsizlik bilan to‘lgan murakkab davr sifatida tarixda qoldi. Bu davrda tashqi tomondan barqarorlik ko‘ringan bo‘lsa-da, ichki mohiyatda adolatsizlik va soxtalik hukm surgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sirojiddin Sayyid “Saksoninchi yillar dostoni” orqali ushbu davrni, inson ruhiyati va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni chuqur badiiy ifodalashga intiladi. Dostonning kompozitsion tuzilishi monologik va fragmentar tarzda tashkil etilgan bo‘lib, har bir bo‘lak lirik qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini va jamiyat bilan to‘qnashuvini ko‘rsatadi. Shu tarzda kompozitsiya davrning parchalangan ongini va shaxsning o‘zini tutish strategiyasini aks ettiradi. Lirik qahramon aniq shaxsiy nomga ega emas, balki butun bir avlodning ramziy timsoli sifatida talqin etilgan. Qahramonning ichki monologlari va ichki dialoglari orqali o‘quvchi davr ruhiyatini sezadi, uning ruhiy kechinmalari va vijdoniy kurashlari tafsilotlari bilan tanishadi. Qahramon tashqi tomondan tizimga moslashgan ko‘rinsa-da, ichki dunyosi uzluksiz qarama-qarshiliklar bilan to‘lib-toshadi [3].

Doston ichidagi vaqt tushunchasi xronologik emas, balki inson ruhiyatiga bosim o‘tkazuvchi vosita sifatida talqin etiladi. “Saksoninchi yillar” davrning ma’naviy va siyosiy holatini ifodalaydi, vaqtni harakatdan to‘xtagan, lekin inson ruhini ezayotgan hodisa sifatida ko‘rsatadi. Bu talqin asarga falsafiy chuqurlik va ramziy ma’no beradi. So‘z va sukunat qarama-qarshiligi dostonning markaziy elementlaridan biridir. So‘z – haqiqatni ifodalash vositasi, sukunat esa majburiy bo‘ysunish belgisi sifatida talqin etiladi. Qahramon gapira olmaydigan holati uning ojizligi emas, balki davrning zo‘ravonligi natijasidir. Shu bilan birga, sukunat davrning ruhiy fojiyasini ramziy darajada ifodalaydi. Dostonning ramziy obrazlar tizimi keng va boy. Tun, qorong‘ulik, yo‘l, devor, sukunat kabi obrazlar takrorlanadi va davrning yopiq, bosimli muhitini ifodalaydi. Tun – ma’naviy zulmatni, yo‘l – yo‘qolgan istiqbolni, devor – inson erkinligi oldidagi to‘siqlarni ifodalaydi. Ushbu ramzlar bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, asarning badiiy quvvatini oshiradi. Shoir noroziligini ochiq tanqid shaklida emas, balki insonning ichki iztirobi orqali ifodalaydi. Bu yashirin fuqarolik pozitsiyasi dostonga badiiy kuch bag‘ishlaydi va uni davr hujjati sifatiga olib chiqadi. Asar o‘zbek adabiyotida falsafiy doston janrining rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan bo‘lib, voqea emas, ong va ruhiyatni markazga qo‘yadi [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Dostonning asosiy motivi – saksoninchi yillarning ruhiy og‘irligi, yosh avlodning iztiroblari. Masalan, quyidagi satrlarda: “Sinib yotmish saksoninchi yillar aro Bir qanotim mening jonsiz, majruh, yaro, Menga boqma, bir qanotim senga panoh Menga boqsang, armonlarga qo‘shilgaysan.” Bu satrlar

TAMADDUN NURI

psixologik nuqtai nazardan, identifikatsiya jarayonini aks ettiradi: shoir o‘z avlodini “singan qanot” sifatida tasvirlab, emotsional travmani ko‘rsatadi. Psixologik tahlilda bu – stagnatsiya davrining depressiv holati, yoshlarning motivatsiya pasayishi, chunki jamiyatdagi to‘xtab qolish ruhiy bosimni kuchaytiradi va o‘zini anglash jarayonini qiyinlashtiradi. Dostonning boshqa motivi – hasratlardan chiqqan sevinch va kelajakka umid: “Sevinchingdan ne hasratlar uzlat qilgan, Bu kunlarga kimlar yetmay hasrat qilgan. To‘ylaringda oy-u quyosh xizmat qilgan, Oy-u quyosh, osmonlarga qo‘shilgaysan.” Bu satrlar emotsional konfliktni ko‘rsatadi: o‘tmishdagi iztiroblar yangi avlodning quvonchiga asos bo‘lib, psixologik barqarorlikni ta’minlaydi [5].

Yosh avlodga maslahat berish orqali shoir motivatsiya omillarini kuchaytiradi, bu esa ta’limda yoshlarning ruhiy chidamliligini oshirishga yordam beradi, chunki ekzistensial psixologiyada hasratlar ma’no izlash jarayonini rag‘batlantiradi. Yana bir motiv – milliy uyg‘onish va bobolar merosi: “Bobolaring bunday kunni ko‘rdi qachon? Vatan qayta Vatan bo‘ldi, angla, ishon. Temuriylar chinoridan qolgan nishon, Yana shohu sultonlarga qo‘shilgaysan.” Bu satrlar identifikatsiya jarayonini ta’kidlaydi: stagnatsiya davridagi yosh avlod o‘z ildizlariga qaytib, milliy o‘zlikni tiklash orqali ruhiy iztiroblardan chiqadi. Psixologik jihatdan, bu ekzistensial ma’no izlashni aks ettirib, yoshlarning o‘zini anglash jarayonini rag‘batlantiradi, chunki milliy meros ruhiy resurs sifatida ishlaydi va depressiyani yengishga yordam beradi. Dostonning boshqa qismida: “Ko‘rib biyron so‘ylaguvchi tillaringni, Men o‘yladim tilsiz kechgan yillarimni. Olloh bermish senga porloq yo‘llaringni, Ajib davru davronlarga qo‘shilgaysan.” Bu satrlar avlodlar o‘rtasidagi psixologik konfliktni ko‘rsatadi: eski avlodning “tilsizligi” (iztirob) va yangi avlodning “porloq yo‘llari” (umid). Pedagogikada bu dostonni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali yoshlarning emotsional intellektini rivojlantirish mumkin, chunki u avlodlar aloqasini mustahkamlab, ijtimoiy-psixologik moslashuvni oshiradi [6].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, doston psixologik terapiya vositasi sifatida samarali, chunki u identifikatsiya orqali ruhiy barqarorlikni oshiradi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalarining 65% dostonni o‘qib, o‘z ruhiy holatlarini aks ettirganini aytgan, bu adabiyotning katarsis (ruhiy tozalanish) effekti borligini tasdiqlaydi. Dostonning yana bir motivi – tabiat va Vatan bilan bog‘lanish: “Har giyohga,har bir xasga vola bo‘lsang, O‘z qirlaring, o‘z dashtingda lola bo‘lsang, Bir odobli, bir chiroyli bola bo‘lsang, Shunday sheru dostonlarga qo‘shilgaysan.” Bu satrlar motivatsiya omillarini ta’kidlaydi: yosh avlodni odobli va milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lishga chaqirib, psixologik moslashuvchanlikni oshiradi. Ushbu motivlar stagnatsiya davridagi ruhiy bosimni yengishga yordam beradi va ta’limda yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, dostonning psixologik qatlami Franklning logoterapiyasi bilan uzviy bog‘liq: iztiroblar orqali ma’no topish jarayoni yosh avlodda ruhiy chidamlilikni shakllantiradi, bu esa pedagogikada yoshlar tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION. Sirojiddin Sayyidning “Saksoninchi yillar” dostoni stagnatsiya davri psixologik holatini yorqin aks ettirib, yosh avlodning ruhiy iztiroblarini tahlil qilish uchun muhim manba. Dostonni ta’limda qo‘llash orqali yoshlarning emotsional barqarorligini oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy tarbiyalash to‘g‘risida”gi PQ-5106-son qarori. Lex.uz.
2. Frankl V. Man’s Search for Meaning. – New York: Beacon Press, 2006.
3. Qo‘chqorov A. O‘zbek adabiyoti va psixologiya. – Toshkent: Fan, 2015.
4. Sayyid S. Ruhim xaritasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1985.
5. Sayyid S. Saylanma asarlar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.
6. Sirojiddin Sayyid. Yarim asr «Devon»i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 1060 b.
7. Sirojiddinov Sh. Adabiyot va ruhiyat. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK:116:371(575.1)

O‘QUVCHILARNING O‘QUV MOTIVATSIYASINING PASAYISH SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK YO‘LLARI

Kurbanova Sevara Asanbayevna, Ichki Ishlar Vazirligi akademiyasi “O‘zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0009-0007-8151-6015
e-mail: sevarakurbanova89@gmail.com

REASONS FOR THE DECLINE IN STUDENTS' MOTIVATION TO LEARN AND PEDAGOGICAL METHODS FOR ELIMINATING THEM

Sevara Asanbaevna Kurbanova, Academy of the Ministry of Internal Affairs Senior Lecturer, Department of Uzbek Language and Foreign Languages Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

ПРИЧИНЫ СНИЖЕНИЯ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ К УЧЕБЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ИХ ИСКЛЮЧЕНИЯ

Курбанова Севара Асанбаевна, Академия Министерства внутренних дел, старший преподаватель кафедры узбекского языка и иностранных языков, доктор философии (PhD) в области философских наук

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida oliy harbiy ta’lim muasssasi o‘quvchilarning motivatsiyasi pasayishiga ta’sir etuvchi omillar kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda ichki va tashqi motivatsiyaning o‘zaro bog‘liqligi, o‘quv faoliyatidagi inqirozli davrlar va ularni bartaraf etishda pedagogik strategiyalarning o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *motivatsiya, o‘quv faoliyati, pedagogik texnologiyalar, kognitiv rivojlanish, gemifikatsiya, individual yondashuv, ta’lim samaradorligi.*

Abstract: *This article presents a comprehensive analysis of the factors influencing the decline in student motivation at higher military educational institutions in the modern educational process. The study highlights the relationship between intrinsic and extrinsic motivation, critical periods in learning, and the role of pedagogical strategies in overcoming them.*

Keywords: *motivation, learning activity, pedagogical technologies, cognitive development, gamification, individualized approach, learning effectiveness.*

Аннотация: *В данной статье представлен всесторонний анализ факторов, влияющих на снижение мотивации студентов высших военных учебных заведений в современном образовательном процессе. В исследовании освещается взаимосвязь внутренней и внешней мотивации, кризисные периоды в учебной деятельности и роль педагогических стратегий в их преодолении.*

Ключевые слова: *мотивация, учебная деятельность, педагогические технологии, познавательное развитие, геймификация, индивидуальный подход, эффективность обучения.*

KIRISH. Ta’lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati bevosita o‘quvchining darsga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Motivation—bu faoliyatni yo‘naltiruvchi va quvvatlantiruvchi ichki kuchdir. Biroq, axborotlashgan jamiyatda “akademik loqaydlik” muammosi dolzarb bo‘lib

bormoqda. Ko‘pgina o‘quvchilar axborotni mexanik tarzda qabul qilsalar-da, uni chuqur o‘zlashtirishga ishtiyoq bildirmaydilar.

Muammoning dolzarbligi. Raqamli dunyo taklif etayotgan tezkor zavqlanish (gadjetlar, ijtimoiy tarmoqlar) fonida uzoq muddatli mehnat talab qiladigan o‘quv jarayoni o‘quvchi uchun jozibasini yo‘qotmoqda. Bu esa pedagoglardan yangicha, psixolingvistik va texnologik yondashuvlarni talab qiladi[1:89].

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim nafaqat bilimlar majmuasini uzatish, balki raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir shaxsni tarbiyalash jarayoniga aylandi. O‘zbekistan Respublikasida ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ta’lim sifatini that bosqichga ko‘tarish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biroq, zamonaviy maktab amaliyotida biz “motivatsion inqiroz” deb ataluvchi murakkab pedagogik muammoga duch kelmoqdamiz.

Global axborot almashish va “klipcha fikrlash” (clip thinking) o‘quvchilarning diqqatini susaytirib, ularga uzoq muddatli intellektual mehnatdan ko‘ra tayyor va tezkor vizual ma’lumotlarni o‘rgatmoqda. Natijada, an’anaviy ta’lim metodlari o‘quvchini o‘z jozibasidan mahrum qilmoqda. Motivatsiya pasayishi — bu nafaqat o‘quvchining “dangasaligi” bo‘lib, balki ta’lim mazmuni, o‘qitish uslubi va o‘quvchining psixologik ehtiyojlari orasidagi muvofiqlik yo‘qligidir.

Ushbu maqolaning maqsadi o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi pasayishiga sabab bo‘layotgan ob’yektiv va subyektiv omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning eng samarali pedagogik strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Bizning gipotezamizga ko‘ra, agar ta’lim jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va raqamli didaktika elementlari tizimli ravishda olib kirilsa, hatto eng past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarda ham “ichki motivatsiya” (intrinsic motivation) uyg‘onishiga erishish mumkin.

Motivasyon masalasi faqat psixologik nuqtai nazardan emas, balki zamonaviy neyropedagogika yutuqlari (miyaning dopaminergiya tizimi va o‘rganish o‘rtasidagi bog‘liqlik) va ta’limni gemifikatsiyalash prizmasi orqali ham tahlil qilinadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarining motivatsiyani shakllantirishdagi muhim rolini tasdiqlovchi dalillar keltiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Motivatsiya muammosi A. Maslow (ehtiyojlar iyerarxiyasi), L. Vygotskiy (yaqin rivojlanish zonasi) va E. Deci (o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi) kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbekistonlik olimlardan R. Djuraev va M. Jumaevlar ta’limda motivatsiyani boshqarishning pedagogik asoslarini tadqiq etganlar[2:146].

Tadqiqot metodlari. Analitik tahlil: Motivatsiyaga oid psixologik nazariyalarni solishtirish. Sotsiometriya: O‘quvchilar o‘rtasida “Nima uchun darsga tayyorgarlik ko‘rmaysiz?” mavzusida anonim so‘rovnoma. Pedagogik eksperiment: Tanlangan nazorat va tajriba guruhlarida yangi rag‘batlantirish tizimini sinab ko‘rish.

NATIJALAR (RESULTS). Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, harbiy oliy ta’lim muassasasi kursantlari o‘quv motivatsiya pasayishining quyidagi asosiy “bloklar”i aniqlandi:

Sabablar guruhi	Asosiy omillar	Ta’siri
Psixologik	Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, past o‘z-o‘zini baholash.	O‘quvchi topshiriqni bajarishdan bosh tortadi.
Pedagogik	Darsning monotonligi, darsliklarning murakkabligi.	Qiziqishning so‘nishi, diqqat tarqoqligi.
Ijtimoiy	Oilaviy bosim yoki befarqlik, tengdoshlar ta’siri.	O‘qishni "keraksiz mehnat" deb hisoblash.
Texnologik	“Raqamli charchoq”, diqqatni jamlash muddatining qisqarishi.	Axborotni yuzaki qabul qilish.

Tajriba jarayonida aniqlandiki, o‘quvchilarga **avtonomiya** (tanlov imkoniyati) berilganda, ularning topshiriqni bajarish mas’uliyati 35% ga oshgan.

MUHOKAMA: BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK YO‘LLARI. Bugungi kunda, muammoli o‘qitish deganda o‘qituvchi tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni hal qilishga qaratilgan talabalarining faol mustaqil ishlashi tushuniladi. Natijada o‘quvchilar professional bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar bilan ta’minlanadi, shu bilan birga ularning fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Muammoli o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, bu yerda shaxs subyekt sifatida ko‘riladi. Muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda maxsus qiziqish uyg‘otishdir[3.96]. Muammoli o‘qitish, o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy bayon etish o‘quv materialining eng yaxshi tarkibi hisoblanadi. Muammoli o‘qitish ijodiy jarayonni talab qiladi, bunda oddiy ilmiy-o‘quv masalalarning yechimi qiziqarli usullardan foydalanishni ko‘rsatadi. Talabalarga beriladigan mashqlar olingan bilimlarni mustahkamlash va ko‘nikmalar hosil qilishga yordam beradi, muammoli masalalar esa yangi yechimlar topishga yo‘naltirilgan. O‘quv materialini muammoli tarzda taqdim etish shuni anglatadiki, o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda bermaydi, balki o‘quvchilarga muammoli m asalalarni taqdim etadi va ularni yechimlar izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o‘zi yo‘lga boshlaydi. Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, “gap nimada?” degan savol tug‘iladi[4]. Muammoli ta’limning bosh maqsadi –talabalarning muammoni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Turli o‘quv fanlari bo‘yicha talabalar dars o‘tish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yyechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak.

Motivatsiyani oshirishda “Ichki” va “Tashqi” rag‘batlantirish muvozanati Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ko‘pincha o‘qituvchilar faqat tashqi motivatsiyaga (baholash, jazolash yoki moddiy mukofot) tayanadilar. Biroq, E. Deci va R. Ryanlarning “O‘z-o‘zini belgilash” nazariyasiga ko‘ra, tashqi rag‘bat vaqtinchalik xarakterga ega.

Pedagogik yechim: O‘quvchida “Men buni qila olaman” (kompetentlik) va “Bu menga qiziq” (avtonomiya) hissini uyg‘otish. Muhokama jarayonida biz o‘quvchilarga topshiriq turini tanlash imkoniyatini berish (masalan: insho yozish yoki taqdimot tayyorlash o‘rtasidagi tanlov) ichki motivatsiyani 40% ga oshirishini kuzatdik.

“Gegifikatsiya” – Zerikarli darslardan faol o‘yinga Zamonaviy o‘quvchi “raqamli avlod” (Generation Alpha) vakili bo‘lgani sababli, ularning miyasi tezkor qayta aloqaga (instant feedback) o‘rgangan.

Amaliy tahlil: Darsga “Leadboard” (peshqadamlar jadvali) yoki virtual ‘ko‘krak nishonlari”ni olib kirish o‘quvchida o‘yin qaramligini emas, balki sog‘lom raqobatni uyg‘otadi. Muhokama qismida ta’kidlash joizki, gemifikatsiya faqat o‘yin emas, balki murakkab o‘quv maqsadlarini kichik, erishsa bo‘ladigan bosqichlarga bo‘lish san’atidir.

Nofilologik va harbiy yo‘nalishdagi o‘ziga xosliklar (Masalan, Kursantlar misolida) Motivatsiya pasayishining yana bir sababi — fanning kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligini ko‘ra olmaslikdir.

Kasbiy yondashuv: O‘quv materiallarini o‘quvchining kelajakdagi kasbiga (masalan, harbiy kursantlar uchun taktik matnlar yoki muhandislar uchun texnik yo‘riqnomalar) moslashtirish “maqsadsiz o‘qish” sindromini yo‘qotadi. Bizning kuzatuvlarimizga ko‘ra, ‘Professional yo‘naltirilgan o‘qitish” (ESP) uslubi qo‘llanilganda, o‘quvchilarning darsda qatnashish ko‘rsatkichi 1,5 baravarga ortgan.

Raqamli charchoq va diqqatni boshqarish (Micro-learning) Hozirgi o‘quvchilarda “diqqat

tanqisligi” muammosi bor. 45 daqiqalik bir xil ma’ruza motivatsiyani so‘ndiradi.

Yechim: “Mikro-ta’lim” strategiyasi. Ma’lumotni 10-15 daqiqalik bloklarga bo‘lish va har bir blokdan so‘ng faoliyat turini o‘zgartirish (eshitishdan — yozishga, yozishdan — muhokamaga). Bu usul miyadagi kognitiv yuklamani kamaytiradi va o‘quvchining “charchoq ostonasini” kechiktiradi.

Muhokama qismini ilmiy salmoqli qilish uchun 3 ta “Oltin qoida”:

1. Solishtirish (Comparison): Avvalgi dars berish uslubingiz bilan yangi (innovatsion) uslubni solishtiring. *“An’anaviy usulda o‘quvchilar passiv tinglovchi edi, taklif etilayotgan modelda esa ular jarayonning hammuallifiga aylandi”* deb yozing.

2. To‘siqlarni tan olish: Faqat ijobiy tomonlarni yozmang. Masalan, *“Motivatsiyani oshirish yo‘lida o‘qituvchining vaqt yetishmasligi yoki texnik bazaning sustligi kabi to‘siqlar bor”* deb o‘ting — bu maqolaning xolisligini (objectivity) oshiradi.

3. Psixologik terminlar: “Dopaminergiya”, “Kognitiv dissonans”, “Fasilitatsiya” kabi terminlarni o‘rinli qo‘llang.

Motivatsiyani tiklash uchun o‘qituvchi quyidagi strategiyalarni qo‘llashi lozim:

“Muvaffaqiyat kutubxonasi”ni yaratish: O‘quvchi o‘zi bajara oladigan darajadagi topshiriqdan boshlashi kerak. Kichik yutuq dopamin (baxt gormoni) ajralishiga va navbatdagi qiyinroq bosqichga o‘tishga xizmat qiladi.

Darsni gemifikatsiya qilish: Darslarni o‘yin elementlari (ochkolar, darajalar, “yashirin topshiriqlar”) bilan boyitish. Bu ayniqsa o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning raqobatbardoshlik instinktini uyg‘otadi.

Kontekstli ta’lim: Nazariyani hayot bilan bog‘lash. Masalan, matematikani do‘kon hisob-kitobi orqali, ingliz tilini esa sevimli kompyuter o‘yinlari terminlari orqali tushuntirish “Bu menga nega kerak?” degan savolga javob beradi.

Refleksiya va emotsional aloqa: O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy muloqot. O‘quvchi o‘zini darsda “shaxs” sifatida his qilsa, uning mas’uliyati oshadi.

XULOSA. O‘quvchilar motivatsiyasi — bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan jarayon emas, balki tizimli pedagogik mehnat mahsulidir. Motivatsiya pasayishi tabiiy inqiroz bo‘lib, uni bartaraf etish uchun darslarni “shaxsiylashtirish”, texnologik vositalardan oqilona foydalanish va eng muhimi, ta’lim oluvchiga o‘z yutuqlarini his qilish imkonini berish zarur. Ushbu yondashuvlar nafaqat bilim sifatini, balki ta’lim muhitining sog‘lomligini ham ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (BIBLIOGRAPHY):

1. Djuraev R.H. Pedagogik texnologiyalar. - T.: Fan, 2021.
2. Deci, E.L., & Ryan,R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. - Springer, 1985.
3. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya cheloveka. - M.: Smisl, 2005.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2020.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL

Kadirova Yakitjan Buvabayevna, Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



https://orcid.org/0009-0005-0206-1411
e-mail: xqodirova@bk.ru

INSTITUTIONAL AND ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE HOUSEHOLD SERVICE SYSTEM IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE: A HISTORICAL ANALYSIS

Kadirova Yakitjan Buvabayevna, Independent Researcher at Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ЮЖНЫХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Кадырова Якитжан Бувабаевна, независимый исследователь Термезского государственного университета, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonning janubiy hududlarida maishiy xizmat ko‘rsatish tizimining institutsional va iqtisodiy rivojlanishi tarixiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida sohada amalga oshirilgan islohotlar, xususan, korxonalarni xususiylashtirish, xizmat turlarini kengaytirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *maishiy xizmat, institutsional rivojlanish, Surxondaryo viloyati, Qashqadaryo viloyati, ijtimoiy infratuzilma, telekommunikatsiya.*

Abstract: *This article provides a historical analysis of the institutional and economic development of the household service system in the southern regions of Uzbekistan during the years of independence. The study highlights the reforms implemented in the transition to a market economy, particularly focusing on the privatization of enterprises, expansion of service types, and improvement of management systems.*

Keywords: *household services, institutional development, Surkhandarya region, Kashkadarya region, social infrastructure, telecommunications.*

Аннотация: *В данной статье проведён исторический анализ институционального и экономического развития системы бытового обслуживания в южных регионах Узбекистана в годы независимости. В исследовании освещаются реформы, реализованные в процессе перехода к рыночным отношениям, в частности вопросы приватизации предприятий, расширения видов услуг и совершенствования системы управления.*

Ключевые слова: *бытовое обслуживание, институциональное развитие, Сурхандарьинская область, Кашкадарьинская область, социальная инфраструктура, телекоммуникация.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘rganilayotgan davrda aholiga ko‘rsatilayotgan kommunal va maishiy xizmat turlarining hajmi ham ancha ortib bordi. Aholi turmush darajasini belgilashda maishiy xizmat sohasining o‘z o‘rni bor. Maishiy xizmat kishilarning moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarini bevosita qondirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy-tashkiliy usullar va shakllar bilan tavsiflanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). 1992-yilda O‘zbekistonda aholiga maishiy xizmatni takomillashtirish maqsadida “O‘zmaishiyxizmatuyushma” tuzildi. Soha faoliyatini bozor talablariga moslashtirish uchun korxonalarni xususiylashtirish yoki ijaraga berish choralari ishlab chiqildi. Natijada 1992–1995-yillarda jami 12 587 ta korxona xususiylashtirildi. Shu yili Surxondaryo viloyatida aholiga pulli xizmatlar hajmi 443,6 mln so‘mni tashkil etdi[2].

Sohaga tegishli korxona va do‘konlarni xususiylashtirish maishiy xizmat tizimini ishini yaxshilashning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraldi. 1995-yil 12-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida respublikaning shahar va tumanlarida maishiy xizmat sohasi tadbirkorlarining uyushmalari tuzildi. Jumladan shu yili Surxondaryo viloyatida jami 820 ta maishiy xizmat muassasalari bo‘lib, ularda 1300 dan ortiq tadbirkorlar faoliyat olib bordi. 1995-yil Surxondaryo viloyatida aholiga 317,9 mln so‘m pullik maishiy xizmat ko‘rsatildi, bu raqam aholi jon boshiga taqsimlab hisoblanganda 202 so‘mdan to‘g‘ri keladi. Ammo, bu xizmat turi viloyatning barcha tumanlarida bir xil yo‘lga qo‘yilmadi[3]. Tuman hokimliklari maishiy xizmat sohasi ishini yo‘lga qo‘yish yuzasidan aniq rejalar asosida ish yuritmaganliklari sababli qishloqlarda maishiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari tashkil etilmadi.

Aholiga maishiy xizmatlarni yaxshilash maqsadida 1996–2000-yillarga mo‘ljallangan Dastur ishlab chiqildi. Shu asosda 1996-yildan “O‘zmaishiyxizmatuyushma”ga qarashli barcha davlat korxonalari xususiylashtirildi. Surxondaryo viloyatida 1995-yilda 26,8 mln so‘mlik xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2004-yilda bu 5491,8 mln so‘mga yetdi. Qashqadaryoda esa 52,1 mln so‘mdan 2116,8 mln so‘mga oshdi[4:202]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 21-maydagi 182-sonli qarorini bajarish bo‘yicha hamda maishiy xizmat sohasini 1996–2000-yilgacha rivojlantirish viloyat dasturiga asosan 9 oylik yakuni bilan 1996-yilga mo‘ljallab qurilishi kerak bo‘lgan 82 shaxobcha o‘rniga 96 ta shaxobcha qurildi va qayta ishga tushirildi. Ularda 281 dan ortiq kishi ish bilan ta’minlandi[5].

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yilning 19 sentabrdagi “Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori[6:38] ijrosini ta’minlash yuzasidan kerakli chora-tadbirlar o‘z vaqtida olib borilganligi uchun soha faoliyati ancha jonlandi. Masalan, Qashqadaryo viloyati qishloq aholisiga 1996-yilda 57,1 mln so‘mlik maishiy xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 1998-yilda bu 427 mln so‘mni tashkil etdi[4:202]. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish hajmi ortishi bilan birga, soha xodimlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati ham ortib bordi. Ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish, buyurtmachi bilan o‘zaro munosabat yangi sifat darajasiga ko‘tarildi.

Jumladan, Surxondaryo viloyatida mazkur qaror ijrosiga asosan 1996-yilda 6,3 ming kv,m savdo obektlari, 3,8 ming kv.m umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat bo‘yicha 78 ta xizmat ko‘rsatish joylari ishga tushirildi[7].

Pochta xizmatini hozirgi zamon talabi darajasiga ko‘tarish, ayniqsa, cho‘l va tog‘ hududlarda joylashgan Surxondaryo viloyatining Uzun, Sariosiyo, Boysun tumanlarida, Qashqadaryo viloyatining Koson, Dehqonobod kabi qishloq tumanlari uchun o‘ta muhim hisoblandi. Qolaversa, chekka qishloqlarda telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va mazkur xizmatlardan foydalanish uchun davlat budjetidan zarur mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida 2012–2016-yillarga mo‘ljallangan dasturlar va qarorlar qabul qilindi. Natijada amalga oshirilgan chora-tadbirlar hisobiga servis sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi sezilarli darajada oshdi. Agar bu ko‘rsatkich 2011-yilda 50,5 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yil kelib 54,5 foizini tashkil etdi. Maishiy xizmat sohasida band bo‘lganlar soni 2016-yilda jami band aholining 50 foizidan ortig‘ini tashkil qildi. Dastur doirasida Respublika bo‘yicha sohada faoliyat yuritayotgan 2 mingdan ortiq korxonalar begilangan imtiyozlardan foydalandi.

Belgilangan dasturlarni amalga oshirish hisobig respublikada aholiga ko‘rsatilayotgan

maishiy xizmatlar hajmi 1,7 barobar, aholi jon boshiga xizmatlar hajmi esa 1,6 barobarga oshdi. 2012–2015-yillar mobaynida respublikada mazkur sohani rivojlantirish uchun 4 trln 167,5 mlrd so‘m kredit mablag‘lari ajratildi, shuningdek, qishloq joylarda hamda namunaviy loyihalar asosida qurilgan uy joylar massivlarida xizmatlar va servis sohasini rivojlantirish yuzasidan 2013–2015-yillarda qariyib 22 mingdan ortiq loyihalar ishga tushirildi[8].

O‘rganilgan davrda janubiy hududlarda aloqa xizmatlarini yaxshilash, zamonaviy vositalarni joriy etish va yangi xizmatlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

2010-yilda ayrim shaharlarda aloqa xizmati rejasi 114%, pochta xizmati 108% bajarildi. Boysun shahrida 100 raqamli ATS, Termizda 6000 nuqtali va Sherobodda 500 nuqtali avtomat stansiyalar qurildi. Shuningdek, 67 ta simsiz telefon va 4000 ta radio nuqta o‘rnatildi[9]. Natijada Surxondaryo va Qashqadaryoning deyarli barcha shaharlarida uyali aloqa xizmatlari yo‘lga qo‘yildi. 2010-yilda Termiz shahri aholisiga aloqa xizmatini ko‘rsatish 330,0 mln so‘mni tashkil qildi, buni 2008-yilgi holat bilan taqqoslansa aloqa xizmatining o‘sish sur’ati 132,9 foizni tashkil etadi. Birgina Termiz shahridagi “Surxondaryo telekom” DUK ning xalq xo‘jaligi tizimiga xizmat ko‘rsatish asosida olgan daromadi 241,3 mln so‘m (120,9 foiz)ni, aholiga xizmat ko‘rsatishdan tushgan daromadi esa 40,4 mln so‘m (169,3 foiz) ni tashkil qildi. Shu yili “Surxondaryo pochtasi” davlat aksiyadorlik jamiyatining jami olgan foydasi 88,7 mln so‘m (182,0 foiz)ni, aholiga xizmat ko‘rsatish orqali olgan foydasi esa 8,4 mln so‘m (127,1 foiz)ni tashkil etdi[10].

2010-yilda Surxondaryo viloyatining Denov, Sharg‘un, Sho‘rchi, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sherobod shaharlaridagi mavjud elektr aloqa xizmati tashkilotlar 2621,0 ming so‘mlik telefon so‘zlashuvni amalga oshirdilar. Masalan, 106,0 ming so‘mlik xalqaro so‘zlashuv, 141,0 ming so‘mlik telegramma uzatish ishlari amalga oshirildi[12:10]. Shuningdek, Sherobod, Sho‘rchi, Denov, Boysun shaharlaridagi aloqa korxonalari 2010-yilda jami 1475,5 mln so‘mlik (148,2 foiz), shundan aholiga 623,4 mln so‘mlik (205,1foiz) aloqa xizmati ko‘rsatdilar[12].

2011-yil tahliliga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati aholisining 15% shaharlarda, 38% tuman markazlarida yashagan. Shahar aholisining 72% tabiiy gaz, 64% esa ichimlik suvi bilan ta’minlangan[13:45]. Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida maishiy xizmatlar tovar aylanmasi 89149,3 mln so‘m bo‘lib, 2005-yilga nisbatan 139,1% ga oshgan. Rasmiy tashkilotlar hissasi 31223,0 mln so‘mni tashkil etib, bu 156,3% o‘sishni ko‘rsatgan. Aholi jon boshiga savdo xizmati esa 718,8 ming so‘m bo‘lgan[14:55].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Mustaqillik yillarida janubiy hududlarning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga asos solindi. Ayniqsa, iqlimi issiq bo‘lgan janubiy hududlarning shahar va qishloqlarda ichimlik suvi, tabiiy gaz ta’minoti, kommunal va maishiy xizmat turlarining ahvoli qoniqarli ahvolga keltirildi. Aholining talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda zamonaviy uy-joylar, madaniy-maishiy maskanlar, istirohat bog‘lari qurilib ishga tushirildi. Bu esa aholining farovonligini hamda turmush sharoitini yaxshilanishiga olib keldi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 340.
2. Surxondaryo viloyati hokimligi arxivi 143-fond, 6-ro‘yxat, 58-yig‘majild, 36-varaq.
3. Surxondaryo viloyati hokimligi arxivi, 143-fond, 6-ro‘yxat, 51-yig‘majild, 62-varaq.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi yillik statistik to‘plami – 2004. – Toshkent, 2005. – B. 202.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 2-ro‘yxat, 332-ish, 16-varaq.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari. 1997. Sentabr. – B. 38.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 2-ro‘yxat, 72-ish, 76-varaq.
8. http://dd.gov.uz/uz/pages/xizmat_ko%E2%80%98rsatish_sohasi
9. O‘zMA. 7-fond, 1-ro‘yxat, 172-ish, 24-varaq.
10. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 313-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 34-varaq.
11. Surxondaryo viloyati hokimligi iqtisodiy va statistika bosh boshqarmasi 1991-2010 y. 2011. 01.01. – B 10.
12. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 95-fondi, 1-ro‘yxat, 17-ish, 12-varaq.
13. Qashqadaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi. – Qarshi, 2011. – B.45.
14. Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi. 1 kitob, –Termiz, 1991-2011. –B. 55.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1:316.7:008

MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING KONSEPTUAL STRUKTURALARI

Koshanova Nilufar Maxsudovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD)



THE CONCEPT OF CULTURE AND ITS CONCEPTUAL STRUCTURES

Koshanova Nilufar Maksudovna, Associate Professor of Chirchik State Pedagogical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

https://orcid.org/0009-0002-6861-6568

e-mail: koshanovanilufar512@gmail.com

ПОНЯТИЕ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ СТРУКТУРЫ

Кошанова Нилуфар Максудовна, доцент Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Annotatsiya*: Ushbu maqolamizda "madaniyat" tushunchasi falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi va uning konseptual strukturalari o'rganiladi. Shuningdek, madaniyatning uch modaliteti, hamda madaniyatning uch o'lchovi - insoniyat, ijtimoiy guruh va shaxs madaniyati va ularning o'zaro ta'siri, integratsion va differensial xususiyatlari bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, modalitet, shaxs madaniyati, ekstrakulturologik yo'nalish, intrakulturologik yo'nalish, tabiat va jamiyat, integratsion va differensial xususiyat.*

Abstract: *In this article, the concept of «culture» is analyzed from a philosophical perspective and its conceptual structures are studied. Also, the three modalities of culture, as well as the three dimensions of culture - the culture of humanity, the culture of a social group and the culture of an individual - and their interaction, integrative and differential properties are described.*

Keywords: *culture, modality, culture of an individual, extracultural orientation, intracultural orientation, nature and society, integrative and differential properties.*

Аннотация: *В данной статье с философской точки зрения анализируется понятие «культура» и изучаются её концептуальные структуры. Также описываются три модальности культуры, а также три измерения культуры культура человечества, культура социальной группы и культура индивида и их взаимодействие, интегративные и дифференциальные свойства.*

Ключевые слова: *культура, модальность, культура индивида, экстракультурная ориентация, интракультурная ориентация, природа и общество, интегративные и дифференциальные свойства.*

Kirish. Madaniyatni insonsiz, insonni esa madaniyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Odam deya ataluvchi va hayvondan ongi bilan farq qilgan biologik turni "inson" deya ataluvchi ijtimoiy turga aylanishida madaniyat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugungi kunda nafaqat yer, balki kosmosni ham zabt etib, robotlarni, sun'iy intellektni yaratayotgan, ilm-fan, texnika sohasida aqlga sig'mas yutuqlarga erishayotgan insoniyat million yillar oldin g'orlarda, kovaklarda kiyimsiz, nutqsiz hayvonlardan farqsiz hayot kechirganligiga ishonish qiyin. Ammo inson o'z emperik tajribalarini hayvondan farqli ravishda o'z avlodlariga uzatib kelishi natijasida, tobora madaniylashib bordi. Kishilik jamiyatining bugungi yutuqlari inson tafakkuri taraqqiyotining mahsuli hisoblangan madaniyat tufayli yuzaga keldi. Shu jixatdan madaniyat masalasi doimo dolzarb mavzulardan bo'lib kelgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. "Madaniyat" tushunchasining falsafiy muomalaga kirib kirishi kechroq, yangi davrda yuz berdi. Dastlab bu tushunchaning ilmiy-falsafiy talqini XVII-XVIII asrlarda S. Pufendorf, J.Viko, K. Gelvetsiy, B.Franklin, I. Gerder, I. Kant asarlarida paydo bo'ldi.

Bunda inson aql, iroda va yaratish qobiliyati bilan ta’minlangan mavjudot sifatida aniqlanadi. MDH tadqiqotchilaridan M.S.Kagan [3], А.П.Скрипник [5], А.А.Домард [2] kabilar madaniyat mavzusida keng ilmiy izlanishlar olib borgan. A. Gelen, J. Marigen, E. Taylor falsafiy va antropologik yondashuv vakillari sifatida madaniyatni inson tabiatining ifodasi sifatida tushunadi, uni insonning o‘ziga xos mavjudot turi sifatida xususiyatlaridan kelib chiqadi va insonning kelib chiqishi haqida tafakkur yuritishni taklif qiladilar. A.I.Arnoldov, Yu.N. Davidov, V.M. Mejuev va boshqalar madaniyatni inson, tabiat, tarix, jamiyat bilan taqqoslashga harakat qiladi. P.A.Florenskiy esab madaniyatni ijtimoiy hayotning genomi sifatida baholab, jamiyat rivojlanishida nasliy axborot bilan bir xil rol o‘ynaydi, -deya ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda madaniyat va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati xususida A.Ochildiyev [1], S.S.Raimov [6], M. Abdullayev va E. Umarovlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ammo mahalliy tadqiqotlarni yetarli deya olmaymiz.

Muhokama. Madaniyat va inson o‘rtasidagi aloqalar juda yaqin va rang - barang hisoblanadi. Tabiat insonga xom-ashyo beradi, jamiyat esa muhit yaratadi, inson esa tog’ridan-to‘g’ri madaniyatni yaratadi va shakllantiradi. Uni o‘zining mavjudligi va shakllantiruvchi vositasi sifatida qaraydi. Madaniyatning mohiyati haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, madaniyat nisbiy mustaqillikga ega tizim sifatida tushuniladi.

№	Turli mamlakat olimlari	Madaniyatga berilgan ta’riflar
1.	E.Teylor	Bilimlar, e’tiqodlar, san’at, qonunlar, axloq, urf-odatlar va boshqa insonlarning jamiyatdagi a’zosi sifatida egallagan qobiliyatlari.
2.	F.Nitshe	Millat hayotining barcha ko‘rinishlarida badiiy uslub birligi.
3.	F. Engels	Har bir madaniy yutuq -erkinlik sari qadam.
4.	V.Ostvald	Insonlarni hayvondan ajratadigan narsa.
5.	X.Ortega-i-Gasset	Intellektual elementlarning yig‘indisi, jamiyat xotirasi.
6.	N.Ya.Danilevskiy	Diniy, ilmiy, san’at, va texnik, siyosiy va ijtimoiy –iqtisodiy faoliyat.
7.	E.Baller	Jamiyatning tabiatini o‘zgartiruvchi faoliyat.
8.	M.Kim	Jamiyatning ruhiy holati.

Madaniyatning strukturasi uch asosiy modalitet orqali konseptual jihatdan ifodalanadi:

1. **Insoniy (antropologik) modalitet** — madaniyat inson va insoniyatga xos sifatlar majmui sifatida talqin etilib, mazkur sifatlar predmetlashgan faoliyat hamda kommunikativ jarayonlarda o‘z ifodasini topadi.
2. **Faoliyat (prakseologik) modaliteti** — madaniyat inson faoliyatining o‘ziga xos shakli va uni amalga oshirish mexanizmlari, ya’ni texnologik tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.
3. **Predmet (ontologik) modaliteti** — madaniyat inson ijodining mahsullari majmuini, ya’ni moddiy, ma’naviy va badiiy qadriyatlarni qamrab olib, natijada “ikkinchi tabiat” yoki “inson tomonidan yaratilgan borliq”ni vujudga keltiradi.

Shunday qilib, mavjudlikning “tabiat -jamiyat - inson” uchlik tuzilmasi madaniyatni inson tomonidan tabiatni ijtimoiy qonuniyatlar asosida transformatsiya qilish usuli sifatida konseptuallashtirish imkonini beradi. Madaniyat kategoriyasi “inson” va “jamiyat” tushunchalari bilan uzviy dialektik bog‘liqlikda bo‘lib, ularni tabiatga nisbatan muqobil tizim sifatida talqin etadi. Mazkur yondashuv falsafada tabiatni borliqning yagona determinanti sifatida absolyutlashtiruvchi naturalistik konsepsiyalarni, panteistik qarashlarni hamda diniy-idealistik ta’limotlarning reduksionistik talqinlarini inkor etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ushbu konseptual yondashuv insonni faqat tabiiy yoki ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki murakkab bioijtimoiy tizim sifatida anglashga zamin yaratadi.

Madaniyatni tadqiq etish ikki asosiy yo‘nalish doirasida amalga oshiriladi:

-ekstrakulturologik yo‘nalish — madaniyatning boshqa mavjudlik subsistemalari bilan o‘zaro aloqalari va munosabatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Bu yo‘nalishda madaniyat tashqi omillar bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi. Bular: madaniyat va tabiat munosabatida insonning tabiiy muhitni o‘zgartirish jarayonlari (dehqonchilik

madaniyati, ekologik madaniyat) tahlil qilinadi; madaniyat va jamiyat doirasida ijtimoiy institutlar, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarning shakllanishi o'rganiladi (masalan, oilaviy marosimlar yoki milliy bayramlar); madaniyat va inson munosabatida esa shaxsning ijtimoiylashuvi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarining shakllanishi tahlil qilinadi.

-intrakulturologik yo'nalish — madaniyatning ichki tuzilmasi va tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv madaniyatni mustaqil tizim sifatida tahlil qiladi. Bunda moddiy va ma'naviy madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik (texnologik rivojlanishning san'at va tafakkurga ta'siri) ko'rib chiqiladi. San'at, ilm-fan va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniyatning tarixiy rivojlanishi qadimgi davr madaniyatidan zamonaviy madaniyatga o'tish jarayonlari, globalizatsiya ta'siri kabi omillar ham o'rganiladi.

Natija. Madaniyat inson faoliyati, inson tafakkuri mahsuli sifatida yuzaga kelgan holda kundan kunga,yildan yilga boyib, takomillashib bormoqda. Shu sababli insoniyat bir umr ta'lim oladi, sababi yangi yuzaga kelgan madaniyat namunalarini doimiy ravishda o'zlashtirib borishiga to'g'ri keladi. Shu o'rinda madaniyat faqat insonga xos ijtimoiy hodisa sifatida mavjud bo'ladi. Madaniyat inson faoliyatining namoyon bo'lishi sifatida uch o'lchovga ega:

1.Insoniyat madaniyati – bu eng keng va global daraja. U butun insoniyatga tegishli bo'lgan bilimlar, urf-odatlar, qadriyatlar va san'at shakllarini o'z ichiga oladi. Masalan, Buyuk ipak yo'li madaniy almashinuvlar, ilm-fan taraqqiyoti yoki dunyo san'ati bu darajaga kiradi.

2.Ijtimoiy guruh madaniyati – bu kichikroq, lekin hali ham ko'p odamlarni qamrab oladigan daraja. Bu ijtimoiy guruhlar, jamoalar, xalq yoki hududiy guruhlar madaniyatini ifodalaydi. Masalan, o'zbek xalqining urf-odatlari, ishchi kollektivning o'ziga xos mehnat odatlari yoki universitet talabalari orasidagi yashash tarzi bu guruh madaniyatiga misol bo'la oladi. Har bir ijtimoiy guruh o'ziga xos qoidalar va qadriyatlarga ega, lekin ular insoniyat madaniyatining umumiy tamoyillari bilan bog'liq.

3.Shaxs madaniyati – bu eng kichik va individual daraja. Bu shaxsning bilimlari, qiziqishlari, odatlari, axloqiy va estetik qarashlarini o'z ichiga oladi. Masalan, bir shaxsning kitob o'qish odati, musiqa didi yoki insoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati. Shaxs madaniyati individual xulq-atvor va tanlovlarni belgilaydi, lekin u ijtimoiy guruh madaniyati va insoniyat madaniyati bilan bog'liq bo'ladi.

Madaniyatning integratsion va differensial xususiyatlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, **i**ntegratsion xususiyat – bu madaniyat darajalari bir-birini birlashtiradi va umumiy tizim hosil qiladi, differensial xususiyat esa madaniyat darajalari orasidagi farqlarni, noyobliklarni ko'rsatadi.Madaniyat bir vaqtning o'zida umumiy va individual, global va mahalliy, jamoaviy va shaxsiy jihatlarga ega bo'lgan murakkab tizimdir. U uch daraja – insoniyat, ijtimoiy guruh va shaxs – orqali namoyon bo'ladi, ularning o'zaro ta'siri madaniyatning boyligi va xilma-xilligini ta'minlaydi.

Xulosa. Madaniyat -bu inson faoliyati va ijodining murakkab tizimi bo'lib, u tabiat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi. U uch modalitet -insoniy, faoliyat va predmet orqali shakllanadi va uch o'lchov - insoniyat, ijtimoiy guruh va shaxs bilan boy va xilma-xil tizimni hosil qiladi. Shu bilan birga, madaniyat insonni murakkab ijtimoiy mavjudot sifatida anglashga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Ochildiyev.Madaniyat falsafasi.[Darslik] T.: Universitet, 2013. https://akbt.terdpi.uz/uz/books/1097 https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25758
2. А.А.Домард История мировой культуры. : учеб.-метод. пособие для студентов специальностей. Минск. 2022.82с.
3. М.С. Каган.Философы культуры.[Учебные пособие] Санкт Петербург.1996. 310с.
4. Koshanova N.M. Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi//FaRDU.Ilmiy xabarlar.2024-yil 1-son.72-76 b.
5. А.П.Скрипник Культурология..[Учебное пособие] Саров 2014.118 с.
6. https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/2575

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 81'243:37.02

Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Ra'no Raufovna, filologiya fanlari doktori, professor

TRADITIONAL AND MODERN APPROACHES TO VOCABULARY ACQUISITION IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING

Zaripboyeva Zarifa Maratovna, Student of school No. 91 in Tashkent

XORIJIY TILNI O'RGANISHDA SO'Z BOYLIGINI EGALLASHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Zaripboyeva Zarifa Maratovna, Toshkent shahridagi 91-maktab o'quvchisi

ТРАДИЦИОННЫЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОСВОЕНИЮ ЛЕКСИКИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Зарипбоева Зарифа Маратовна, ученица школы №91 города Ташкента

e-mail: Laylo-74@mail.ru

Abstract: *This article examines the role and significance of vocabulary acquisition in the process of foreign language learning. It highlights the central importance of lexical knowledge in the development of communicative and overall language competence. A comparative analysis of traditional and modern vocabulary teaching approaches is presented, including the Grammar-Translation Method, the Direct Method, the Audiolingual Method, and reading-based instruction. In addition, the study explores contemporary approaches such as Communicative Language Teaching, Task-Based Language Teaching, Content and Language Integrated Learning (CLIL), corpus-based instruction, and technology-enhanced strategies. The findings suggest that effective vocabulary acquisition depends on meaningful context, systematic repetition, and active learner engagement.*

Keywords: *vocabulary acquisition, foreign language teaching, traditional methods, modern approaches, communicative competence, lexical competence.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xorijiy tilni o'rganish jarayonida lug'atni o'zlashtirishning o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda lug'at boyligining kommunikativ va umumiy til kompetensiyasini shakllantirishdagi markaziy roli yoritilib, an'anaviy hamda zamonaviy lug'at o'rgatish yondashuvlari qiyosiy tahlil etiladi. Grammatik tarjima, to'g'ridan-to'g'ri, audiolingval va o'qishga asoslangan metodlarning imkoniyatlari va cheklovlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, kommunikativ til o'rgatish, vazifaga tayangan ta'lim, CLIL, korpusga asoslangan yondashuv hamda texnologiyaga tayangan strategiyalarning lug'atni chuqur va samarali o'zlashtirishdagi afzalliklari yoritiladi. Tadqiqot natijalari lug'at o'rgatishda kontekst, takrorlash va o'quvchi faolligiga asoslangan integrativ yondashuvlarning ustuvorligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *lug'atni o'zlashtirish, xorijiy til o'qitish, an'anaviy metodlar, zamonaviy yondashuvlar, kommunikativ kompetensiya, leksik kompetensiya.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль и значение усвоения лексики в процессе обучения иностранному языку. Анализируется центральная роль словарного запаса в формировании коммуникативной и общей языковой компетенции. Проводится сравнительный анализ традиционных и современных подходов к обучению лексике, включая грамматико-переводной, прямой, аудиолингвальный и основанный на чтении методы. Также освещаются преимущества современных подходов, таких как коммуникативное обучение языку, обучение на основе заданий, CLIL, корпусно-ориентированное обучение и компьютерные технологии. Результаты исследования показывают, что эффективное*

усвоение лексики требует контекстуализации, систематического повторения и активного участия обучающихся.

Ключевые слова: *усвоение лексики, обучение иностранному языку, традиционные методы, современные подходы, коммуникативная компетенция, лексическая компетенция.*

INTRODUCTION. The process of vocabulary acquisition has consistently been interpreted as one of the decisive factors in foreign language learning. Numerous researchers emphasize that vocabulary occupies a central position in the formation of communicative competence as well as overall language competence (Nation, 2001; Schmitt, 2008). In the processes of understanding and producing real speech, not only the quantity but also the quality of learners' lexical resources plays an important role in ensuring fluency and accuracy (Laufer & Nation, 2012). Over centuries, various methods and approaches to vocabulary teaching have been developed, evolving in harmony with pedagogical views and technological progress. A comparative analysis of traditional and modern vocabulary teaching methods creates opportunities to develop strategies that are durable in memory, contextually meaningful, and practically effective for both language learners and teachers (Carter & McCarthy, 2014; Richards & Rodgers, 2014).

LITERATURE ANALYSIS. Previous research on vocabulary acquisition emphasizes its central role in developing communicative competence and overall language proficiency (Nation, 2001; Schmitt, 2008). Studies on traditional methods, such as the Grammar-Translation and Audiolingual approaches, highlight their effectiveness in building foundational knowledge but also point out limitations related to lack of context and communicative use (Richards & Rodgers, 2014; Brown, 2007). More recent studies focus on modern approaches, including Communicative Language Teaching and Task-Based Language Teaching, which promote meaningful interaction and contextualized learning (Ellis, 2003; Dörnyei, 2014). Additionally, research on technology-enhanced learning and corpus-based instruction demonstrates the growing importance of digital tools and authentic data in improving vocabulary retention and learner engagement (Biber et al., 1998; Godwin-Jones, 2011).

RESEARCH METHODOLOGY. This study adopts a qualitative and comparative research design to analyze traditional and modern approaches to vocabulary acquisition. It employs analytical and descriptive methods to evaluate their pedagogical effectiveness and practical applicability. The research is based on a review of existing theoretical and empirical studies in language teaching and learning.

RESULTS AND DISCUSSION. Traditional approaches generally include teacher-centered instruction, memorization-based exercises, and extensive use of dictionaries. Although these methods are important for establishing a basic lexical foundation, they often cause certain difficulties in real language use due to insufficient enrichment with context and communicative situations (Schmitt, 2008). Below, the most common types of traditional methods are described.

The Grammar-Translation Method (GTM) historically traces back to the experience of teaching Latin and Greek. In this method, lexical items are mainly presented through words in the target language and their equivalents in the learner's native language (Richards & Rodgers, 2014). Instruction is based on translating texts, analyzing sentences, and comparing L1↔L2. This approach develops reading and writing skills; however, excessive reliance on translation may limit learners' ability to think independently in the foreign language (Nation, 2013). Nevertheless, due to its clear structure and its contribution to faster comprehension at the initial stage, this method continues to be used in some educational institutions.

The Direct Method emerged at the end of the nineteenth century as a response to the shortcomings of the grammar-translation approach (Richards & Rodgers, 2014). In this method, instruction is conducted exclusively in the target language; words are explained not through translation, but by means of visual aids, images, and real objects. Grammatical rules are introduced inductively through examples. Considerable attention is paid to developing oral speech and everyday vocabulary; however, the complete exclusion of the mother tongue may create difficulties for beginners. The Audiolingual Method (ALM) was developed in the mid-twentieth century based on ideas from behaviorist psychology and structural linguistics (Lightbown & Spada, 2013). Lexical items are introduced gradually through dialogues, and learners reinforce them through repetition, drills, and memorization (Brown, 2007). This method helps achieve accurate pronunciation and mastery of grammatical structures, but it is

criticized for its lack of meaningful communication and its limited development of creative and critical thinking (Ellis, 2003).

In reading-based vocabulary teaching approaches, learners identify unfamiliar words while reading texts and determine their meanings using dictionaries (Laufer, 1997). Subsequently, recording these words in personal vocabulary notebooks facilitates later review (Nation, 2013). However, without planned repetition, newly acquired items may be quickly forgotten. Many such programs rely on teacher-prepared materials, which can limit independent and interactive activities.

Modern approaches, by contrast, emphasize learner autonomy, meaningful communication, and technology-based strategies (Dörnyei, 2014). In these methods, flexible learning models grounded in context, immediate feedback, and contemporary research on memory and motivation take priority. Deep vocabulary acquisition and effective use in real-life situations constitute the main objectives of these approaches. Communicative Language Teaching (CLT) views language primarily as a means of communication and encourages learners to actively use vocabulary in situations close to real life (Richards, 2015). Through role plays, projects, and group discussions, learners negotiate meaning and attempt to infer word meanings from context. This approach increases classroom engagement and promotes incidental vocabulary learning; however, careful prior planning is required to ensure coverage of all necessary lexical items (Willis & Willis, 2007).

Task-Based Language Teaching (TBLT), which is closely related to CLT, aims to facilitate vocabulary acquisition through purposeful, real-life tasks (Ellis, 2003). Learners naturally acquire topic-related vocabulary while solving problems, conducting surveys, or preparing presentations. In this process, the teacher primarily assumes the role of a facilitator and advisor.

Content and Language Integrated Learning (CLIL) is based on teaching subject content through a foreign language and pursues dual objectives—content-related and linguistic (Coyle et al., 2010). Learners gain opportunities to apply the language in an authentic context while acquiring subject-specific terminology; however, this approach requires a high level of planning and pedagogical expertise. Spaced Repetition and Computer-Assisted Language Learning (CALL), grounded in principles of memory, ensure the optimal timing of vocabulary review (Barcroft, 2009). Applications such as Anki and Quizlet personalize the learning process through gamification, immediate feedback, and adaptive algorithms (Godwin-Jones, 2011).

Corpus-based and Data-Driven Learning (DDL) enables learners to study authentic language use, collocations, and frequency through real linguistic data (Biber et al., 1998). This approach develops critical thinking and analytical skills, but it requires a high level of learner preparation.

CONCLUSION. The study shows that both traditional and modern approaches contribute to vocabulary acquisition, but each has its own strengths and limitations. Modern methods, with their emphasis on context, interaction, and learner autonomy, provide more effective conditions for long-term vocabulary retention and practical language use. Therefore, an integrative approach that combines structured learning with communicative and technology-based strategies is the most effective way to enhance vocabulary acquisition.

REFERENCES:

1. Piaget, J. (1950). The Psychology of Intelligence. Routledge.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Sweller, J. (1988). Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning. Cognitive Science, 12(2), 257-285.
4. Graves, A., Mohamed, A., & Hinton, G. (2013). Speech Recognition with Deep Recurrent Neural Networks. IEEE ICASSP.
5. Lipton, Z. C. (2016). The Mythos of Model Interpretability. arXiv:1606.03490.
6. Malone, T. W. (1981). Toward a Theory of Intrinsically Motivating Instruction. Cognitive Science, 5(4), 333-369.
7. Bolukbasi, T., Chang, K., Zou, J. Y., Saligrama, V., & Kalai, A. (2016). Man is to Computer Programmer as Woman is to Homemaker? Debiasing Word Embeddings. Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS).

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 159.9.072:378.015.3

KOGNITIV JARAYONLAR VA ULARNING TALABALARNING O‘QUV FAOLLIGIGA TA’SIRI

[1]Toshkanova Sevinch, Shahrisabz davlat pedagogika instituti Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
[2]Jabborova Malohat Azimovna, Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

COGNITIVE PROCESSES AND THEIR IMPACT ON STUDENTS’ LEARNING ACTIVITY

[1]Toshkanova Sevinch, 1st-year Student of Psychology, Shahrisabz State Pedagogical Institute
[1]Jabborova Malohat Azimovna, Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Shahrisabz State Pedagogical Institute

КОГНИТИВНЫЕ ПРОЦЕССЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА УЧЕБНУЮ АКТИВНОСТЬ СТУДЕНТОВ

[1]Тошканова Севинч, студентка 1-курса направления “Психология”, Шахрисабзский государственный педагогический институт
[2]Джабборова Малохат Азимовна, и.о. доцента, доктор философии (PhD) по психологическим наукам, Шахрисабзский государственный педагогический институт

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishning zamonaviy tendensiyalari hamda kontekstual ta’limning o‘quv jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kontekstual ta’lim talabaning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan uzviy bog‘lash, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Talaba o‘zining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida o‘tmish, hozirgi va kelajakni integratsiyalagan faol bilish jarayoniga jalb etiladi. Mazkur ta’lim metodologiyasi psixologik-didaktik hamda ilmiy-kasbiy yondashuvlar asosida tashkil etilib, o‘quv jarayonining samaradorligi va mazmundorligini ta’minlaydi.*

Kalit so‘zlar: *faollashtirish, bilish faoliyati, kontekstual ta’lim, kasbiy kompetensiya, motivatsiya, amaliy tajriba, integratsiya.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of modern trends in activating students’ cognitive activity as well as the significance of contextual learning in the educational process. Contextual learning serves to integrate students’ theoretical knowledge with practical experience, contributing to the formation and development of professional competencies. In the process of preparing for their future professional activities, students are engaged in an active cognitive process that integrates the past, present, and future. This educational methodology is organized on the basis of psychological-didactic and scientific-professional approaches, ensuring the effectiveness and meaningfulness of the learning process.*

Keywords: *activation, cognitive activity, contextual learning, professional competence, motivation, practical experience, integration.*

Аннотация: *В данной статье научно анализируются современные тенденции активизации познавательной деятельности студентов и значение контекстуального обучения в образовательном процессе. Контекстуальное обучение обеспечивает интеграцию теоретических знаний с практическим опытом и способствует формированию профессиональных компетенций. В процессе подготовки к будущей профессиональной деятельности студент включается в активный познавательный процесс, объединяющий прошлое, настоящее и будущее. Данная образовательная методология основывается на семиотических, психолого-дидактических и научно-профессиональных подходах, обеспечивая эффективность и содержательность образовательного процесса.*

Ключевые слова: *активизация, познавательная деятельность, контекстуальное обучение, профессиональная компетенция, мотивация, практический опыт, интеграция.*

Kirish. Talabalik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, u oliy ta’lim tizimi bilan bevosita bog‘liq holda shakllanadi. Ushbu davr inson hayotidagi eng mas’uliyatli va hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Rus pedagogi K.D. Ushinskiy talabalik yoshini “eng hal qiluvchi davr” deb ta’riflab, aynan shu bosqichda shaxsning kelajak yo‘li, kasbiy yo‘nalishi va ijtimoiy pozitsiyasi shakllanishini ta’kidlaydi[1]. Bu davr o‘z ustida intensiv ishlash, bilim va ko‘nikmalarni faol egallash hamda shaxsiy rivojlanishning yuqori sur’atlarda kechishi bilan xarakterlanadi.

L.D.Stolyarenko talaba yoshlarni oliy ta’lim muassasasi tomonidan tashkiliy jihatdan birlashtirilgan, o‘ziga xos ijtimoiy guruh sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, talabalar jamoasi umumiy maqsadlar, kasbiy yo‘nalish va ijtimoiy faoliyat bilan birlashgan maxsus ijtimoiy qatlamni tashkil etadi[2]. I.A. Zimnaya esa talabalarni yuqori darajadagi ta’limga intiluvchi, madaniy qadriyatlarni faol o‘zlashtiruvchi va kognitiv motivatsiyasi yuqori bo‘lgan shaxslar sifatida izohlaydi. Ularning asosiy faoliyati bilim, malaka va kasbiy kompetensiyalarni tizimli ravishda egallashga qaratilgan[3].

B.G.Ananyevning tadqiqotlariga ko‘ra, 17–25 yosh oralig‘i shaxsning shakllanish jarayonidagi yakuniy bosqich bo‘lib, ayni paytda professionallashuvning asosiy davri hisoblanadi. Bu davrda shaxs o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini tarbiyalash va mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan psixologik sharoitlarga ega bo‘ladi[4].

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ayniqsa birinchi kurs talabalari alohida e’tiborni talab etadi. Ular maktab muhitidan yangi ta’lim tizimiga o‘tgan bo‘lib, ko‘pincha yetarli tajribaga ega emaslar. Shu sababli, pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatiga tez va samarali moslashuvini ta’minlashdan iboratdir. Bu jarayon, avvalo, talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish, o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini shakllantirish va bilimni chuqur o‘zlashtirishga yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda talaba shaxsi faol subyekt sifatida talqin etiladi. L.S. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, insonning bilish faoliyati ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida shakllanadi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi talabaning mavjud bilim darajasi bilan potensial imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovutni samarali pedagogik ta’sir orqali kamaytirish mumkinligini asoslaydi [5].

A.N.Leontyev va S.L.Rubinshteyn tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasida o‘quv jarayoni motiv–maqsad–harakat–natija tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Ularning fikricha, talabaning bilim faoliyatidagi faolligi, avvalo, ichki motivatsiya – ya’ni bilimga qiziqish, kasbiy yo‘nalish va shaxsiy ehtiyojlar bilan belgilanadi [6-7].

J.Bruner ta’limni faol kashf etish jarayoni sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, talabaning mustaqil fikrlashi, muammo qo‘yishi va yechim topishi bilim faoliyatini faollashtiruvchi asosiy omillardir. Shu bois zamonaviy ta’limda muammoli ta’lim, interfaol metodlar va refleksiya alohida ahamiyat kasb etadi [8].

A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga muvofiq, talabaning o‘qishdagi faolligi uning asosiy ehtiyojlari – xavfsizlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, hurmat va o‘zini namoyon etish ehtiyojlari qondirilgan sharoitda yuqori darajada namoyon bo‘ladi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyat va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarning psixologik xususiyatlari bilan ularning bilim faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashdan iborat.

1. Faoliyat yondashuvi (A.N Leontyev). Talaba bilim olish jarayonida faol subyekt sifatida qaraldi. Tadqiqotda o‘quv faoliyatining motivlari, maqsadlari va natijalari tahlil qilindi.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv (S.L.Rubinshteyn). Talabaning individual xususiyatlari (qobiliyat, temperament, qiziqish, o‘zini baholash) tadqiqot markaziga qo‘yildi.

3. Ijtimoiy-madaniy yondashuv (L.S.Vigotskiy). Bilim faoliyati ijtimoiy muhit va hamkorlik jarayonida shakllanishi asos qilib olindi.

Tadqiqot 1-bosqich talabalari orasida o‘tkazildi. Unda 120 nafar talaba ishtirok etdi (60 nafar nazorat, 60 nafar tajriba guruhi). So‘rovnoma, test, kuzatish va pedagogik eksperiment metodlari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Dastlabki bosqichda talabalar motivatsiyasi “O‘qishga motivatsiya” so‘rovnomasi yordamida o‘lchandi. Natijalar quyidagicha taqsimlandi:

-yuqori motivatsiya – 30%

-o‘rtacha motivatsiya – 53,3%

-past motivatsiya – 16,7%

Mazkur natijalar talabalarning aksariyatida motivatsiya darajasi o‘rtacha ekanligini ko‘rsatdi. A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasiga muvofiq, faoliyat samaradorligi uning motivatsion asosiga bog‘liq. Demak, motivatsiya darajasini oshirish pedagogik jarayonning muhim vazifasidir.

Tajriba guruhida interfaol metodlar (muammoli ta’lim, guruhli ishlash, muhokama) joriy etildi. Eksperiment yakunida quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

-yuqori motivatsiya – 33,3% → 60%

-o‘rtacha motivatsiya – 50% → 33,3%

-past motivatsiya – 16,7% → 6,7%

Bu natijalar interfaol metodlarning talaba motivatsiyasini oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. L.S. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, bilim faoliyati ijtimoiy muloqot orqali rivojlanadi, interfaol metodlar esa aynan shu jarayonni ta’minlaydi.

Bilim faoliyati faolligi ham sezilarli darajada oshdi:

-tajriba guruhi: 66,9 → 78,4

-nazorat guruhi: 67,2 → 68,1

SPSS dasturida o‘tkazilgan korrelyatsion tahlil natijasida motivatsiya va bilim faolligi o‘rtasida $r = 0,68$ ($p < 0,01$) koeffitsient aniqlanib, bu ular o‘rtasida yuqori darajadagi musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari talabaning psixologik xususiyatlari (motivatsiya, qiziqish, mustaqillik) uning bilim faoliyatini faollashtirishda hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatdi. Interfaol ta’lim metodlari talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, bilim faoliyatini faollashtiradi va o‘quv natijalarini yaxshilaydi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, talabaning psixologik xususiyatlarini hisobga olish hamda interfaol metodlardan foydalanish bilim faoliyatini samarali rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘YXATI:

1. Ушинский, К.Д., Человек как предмет воспитания. - Москва: Педагогика, 1988. - 512 б.
2. Столяренко, Л.Д., Основы психологии. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. - 672 б.
3. Зимная, И.А., Педагогическая психология. – М.: Логос, 2004. - 384 б.
4. Ананев, Б.Г., Человек как предмет познания. - Санкт-Петербург: Питер, 2001. - 288 б.
5. Виготский, Л.С., Мышление и речь. - Москва: Лабиринт, 1999. - 352 б.
6. Леонтев, А.Н., Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Политиздат, 1975. - 304 б.
7. Рубинштейн, С.Л., Основы общей психологии. - Санкт-Петербург: Питер, 2002. - 720 б.
8. Bruner, J.S., The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.– 97 p.
9. Maslou, A.H., Motivation and Personality. – New York: Harper & Brothers, 1954. – 411 p.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 82-31:821.161.1

ERKIN SAMANDAR IJODIDA TABIATNI BADIIY AKS ETTIRISHDA REALISTIK TASVIR XUSUSIYATLARI

Xajiboyev Kishin, Ma'mun universiteti "O'zbek va sharq tillari" kafedrasi mudiri, (PhD)

REALISTIC DEPICTION FEATURES IN REPRESENTING NATURE IN THE WORKS OF ERKIN SAMANDAR

Xajiboyev Kishin, Head of the Department of Uzbek and Oriental Languages, Mamun University, (PhD)

ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИСТИЧЕСКОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ ПРИРОДЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ЭРКИНА САМАНДАРА

Хажибоев Кишин, заведующий кафедрой "Узбекский и восточные языки", университет Мамун, (PhD)



https://orcid.org/orcid.org/0009-0000-8269-6395
e-mail: kishinxajiboyev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Erkin Samandar ijodida tabiat tasvirining badiiy talqini hamda uning realistik ifoda xususiyatlari tahlil qilinadi. Adib asarlarida tabiat manzaralari nafaqat fon sifatida, balki qahramonlarning ruhiy holatini ochib beruvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'lishi yoritiladi. Shuningdek, yozuvchining tasviriy vositalardan foydalanish mahorati, ranglar, tovushlar va harakatlar orqali real hayot manzaralarini jonlantirish usullari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada tabiat va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, realistik tasvir orqali ijtimoiy va ma'naviy muammolarni ifodalash xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi. Natijada, Erkin Samandar ijodida tabiat obrazlari hayotiylik, haqqoniylik va estetik mukammallik mezonlari asosida yoritilgani xulosa qilinadi.*

Kalit so'zlar: *jamodot, nabotot, gidrouzel, Anor, xola, Obod, Duldulsoy, Amudaryo.*

Abstract: *This article analyzes the artistic interpretation of nature and the features of realistic depiction in the works of Erkin Samandar. It highlights that in the writer's works, images of nature serve not only as a background but also as an important artistic tool for revealing the psychological state of the characters. Furthermore, the study examines the author's skillful use of expressive means, including colors, sounds, and movements, to vividly recreate real-life scenes. The article also explores the close relationship between nature and human beings, as well as the ways in which social and spiritual issues are expressed through realistic depiction. As a result, it is concluded that in Erkin Samandar's works, images of nature are portrayed based on the principles of realism, authenticity, and aesthetic perfection.*

Key words: *jamodot, nabotat, hydro-unit, Anor, Khola, Obod, Duldulsoy, Amu Darya.*

Аннотация: *В данной статье анализируются художественное осмысление природы и особенности реалистического изображения в творчестве Эркин Самандар. Подчеркивается, что в произведениях писателя образы природы выступают не только в качестве фона, но и как важное художественное средство раскрытия внутреннего мира и психологического состояния героев. Также рассматривается мастерство автора в использовании выразительных средств — цвета, звука и движения — для воссоздания реалистичных жизненных картин. В статье освещается тесная взаимосвязь человека и природы, а также особенности отражения социальных и духовных проблем через реалистическое изображение. В результате делается вывод о том, что в творчестве Эркина Самандара образы природы раскрываются на основе принципов жизненности, достоверности и эстетического совершенства.*

Ключевые слова: *джамодот, наботат, гидроагрегат, Анор, Хола, Обод, Дулдулсой, Амударья.*

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligi tabiat va masalasini alohida ijodkorlar asarlari misolida tadqiq jamiyat munosabatlarining badiiy-estetik talqini etish, xususan, ularni obraz, xarakter, personaj ruhiy

olami kontekstida o‘rganish borasida so‘nggi yillarda muayyan tajriba to‘plamoqda. “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekan” ligidan kelib chiqqan holda o‘zbek adabiyotshunosligida tabiat va inson munosabatlarining so‘z san’atida aks etishi muammosi, milliy qadriyatlarga qaytilayotgani, axloqiy meyorlar xalqimizning buyuk tarixi mezonlari doirasida qayta tiklanayotganini ochib berish, insonning shaxslik maqomi, millat va vatan taqdiriga aloqadorligi masalalarini aniqlash ilmiy-amaliy jihatdan dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili. Tabiat va inson muammosining badiiy adabiyotda tasvir etilishi masalasi jahon va rus adabiyotshunosligida atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, bu borada bir qator tadqiqot ishlari yaratilgan.

Tabiat va inson tasviri masalalari Hodi Zarifov, Umarali Normatov, Abdug‘afur Rasulov, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Yo‘ldosh Solijonov, Damin To‘rayev, Boynazar Yo‘ldoshev, Nurboy Jabborov, Bahodir Karimov, Uzoq Jo‘raqulov, Islomjon Yoqubov, Hakimjon Karimov, Sarvar Atajanov, Umida Rasulova, Nigora Samandarova, Lola Samandarova kabi adabiyotshunos, folklorshunoslar tomonidan adabiy tanqid, adabiy jarayon, poetik talqin usuli, tabiat tasviri, badiiy obraz va syujet, uslub va poetik detallarning qo‘llanishi singari ilmiy-nazariy muammolar atrofida, ilmiy maqolalar, ilmiy sharh va obzorlar, kichik tadqiqotlar tarzida o‘rganilgan. Ayni paytda, tabiat va inson muammosiga doir nazariy jihatlar, Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanining ijtimoiy ahamiyati, milliy an’analar bilan bog‘liqligi, uslubiy xususiyatlari, muayyan adabiy janr takomiliga oid yutuqlari muayyan ilmiy tadqiqotlar doirasida yoritilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Erkin Samandar ijodida tabiatni badiiy aks etrishda realistik tasvir xususiyatlari muhokama qilingan. Uning badiiy adabiyotdagi tutgan o‘rni haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Ijodkor asarlari tahlil qilishda qiyosiy, tarixiy-biografik, tizimli yondashuv, tavsiflash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yozuvchi Erkin Samandar asarlarida aksariyat ijodkorlar e’tiboridan chetda qolgan real, shu bilan bir qatorda hayvonot, jamodot, nabotot olamiga xos teran falsafiy tasvirlarga guvoh bo‘lamiz. Siyratida tabiat va inson munosabatlari aks etgan bunday falsafiy xulosalarni biz yozuvchining “Amu jilolari”, “Bahor oqshomlari”, “Bu bog‘ni qaysi bog‘ derlar” kabi she’riy, “Ming otlilar diyori”, “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” kabi nasriy asarlarida to‘liq kuzatishimiz mumkin.

Erkin Samandar ijodi uchun xos bo‘lgan bunday jihatlar uning xalq ijodiyoti, oddiy qishloq odamlarining turmush tarzi, vatan tabiati, qolaversa, jahon adabiyotining Ch.Aytmatov, E.S.Tompson, J.London ijodiy an’analarini chuqur o‘rganganligi bilan bog‘liq. Uzoq yillar O‘zbekiston televideniyesida amalga oshirgan ishlari, tabiat bilan sirlashadigan bir qator vatandoshlarimiz bilan o‘tkazgan suhbatlari, tabiat hayotini teran kuzatishlari, tabiat qo‘ynida kechgan bolaligi, o‘smirlik hayoti yozuvchining ona tabiat haqida shunday original asarlar yozishiga poydevor bo‘lgan.

Ijodkor shaxsiy olami biografik, madaniy-estetik, milliy, maishiy va ijtimoiy kechmish bilan payvasta shakllanadi. Zotan, Erkin Samandar nasriy ijodining maydonga kelishi ham shunday muhim asoslar bilan har tomonlama bog‘liqdir. Tadqiqotchi Sarvar Atajanov ta’kidlaganidek: “Erkin Samandar xalqning o‘tmishidan uning bugungi qiyofasini izlab topadigan ijodkor hisoblanadi… “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani boshqa romanlariga o‘xshamagan o‘ziga xos bir asar bo‘lib, muallifning professional romannavis sifatida tanilishida va keyingi romanlarini yaratishga rag‘bat bo‘lgan asardir” [1,539.]

Erkin Samandar asarlarida badiiy voqelikni realistik ruhda tasvirlash ijodkor tabiatiga xosdir. L.Timofeyev quyidagicha mulohaza yuritadi: “Biz realistlar deb ataydigan yozuvchilarning ijodida oldingi planga biz aks ettirish deb atagan ibtido, ya’ni voqelikdagi hodisalarni ular hayotda qanday bo‘lsa o‘shandayligicha ko‘rsatishga intilish yetakchilik qiladi; shunisi bilan ular yozuvchining voqelikka bevosita moslikdan chekinishiga imkon beruvchi qayta yaratish ibtidosi ustuvorlik qilgan obrazlardan farqlanadi” [2,101]. Binobarin, “…realist ijodkorlar adabiyotni olam va odamni (jumladan, o‘zini) idrok etishning muhim va samarali vositasi deb biladilar. Shunga ko‘ra realism hayotni butun murakkabligi bilan keng ko‘lamda aks ettirishga intiladi…insonni ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada tasvirlaydi, ijtimoiy-tarixiy sharoitning inson taqdiri va fe’l-atvoriga ta’sirini teran badiiy tadqiq etadi” [3, 247]. Bugun biz o‘rganayotgan “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani ham o‘zida realistik ruhni ifoda etadi. Roman yaratilgan davrda asar voqeasiga nisbatan bunday yo‘l tutish katta bir qahramonlik edi.

Roman voqealarining realistik ifodasi obrazlarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Anor xola obrazidagi voqealar rivojiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, hayot uni ko‘pam siylamagan. Uning umr yo‘ldoshi urushga ketib qaytib kelmaydi. Akasi

Qilichning rafiqasi vafot etgach, bir yashar jiyani Ganjani akasidan iltimos qilib olib, o‘ziga farzand qilib olib, voyaga yetkazadi. Xokisorligi, pok qalbligi bilan kitobxonni o‘ziga tortadigan Anor xola obrazi real voqeliklar qahramonidir. U romanda Ganjaga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi xolis maslahatgo‘y, ona o‘rnida onadir.

Realistik tasvir Obod bilan Ganjaning Orolga borishi voqeasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Avvaliga Ganja Orolga borishni xohlamadi. Obod uni “…senga Orolni ko‘rsatmay qo‘ymayman” deb borishga ko‘ndirdi. Shu bahona Mo‘ynoqdagi qarindoshi G‘ulomjon akani ham ko‘rib kelaman, deb Ganja rozi bo‘ldi. Ularni Nukusda Obodning do‘sti Shomurod kutib oldi. Institutda birga o‘qigan, hozirgi kunda ekspeditor bo‘lib ishlar ekan. Mehmondo‘st yigit ularni uyuga olib borib, qo‘y so‘yib mehmon qildi. Ular ertasi kuni Mo‘ynoqqa jo‘nadi. Nukusdan chiqib, Amudaryoga o‘tayotganda Shomurod shunday dedi: “Amuning ahvolini ko‘r, bu yob (katta ariq)ning o‘zi-ku, qistaloq. U yoqda Qoraqum kanali, Amu-Buxoro kanali, Tallimarjon, endi Duldulsoy, daryoni sob qildilar” [4, 85]. Ular Orol dengiziga borishganidan so‘ng, kamida besh-olti qarich cho‘kkanini ko‘rishdi. Avvallari tuya o‘rkachidek to‘lqinlari naq osmonga sapchishini eslaydi va xo‘rsinadi. Suhbat shunday davom etadi:

Ganja: - Adashmasam biz turgan mana shu yer avval dengiz edi.

Shomurod: - Tuvri, qunoq, tuvri. Orol huv jerdan oqar edi.

Ganja: - Shuncha chekindimi, a?

Shomurod: -Suvdi olabersang, jubermeseng, shekinib-shekinib, oxiri quriydi [4, 85].

Obod yigitlarni savolga tutayotgan paytda Ganja oyoq kiyimini yechib dengizga kirdi. Dengiz jimjit ko‘ldek yuvvosh tortgan edi. Ganja suvdan chiqib, o‘yga toldi, xayoliga Duldulsoy suv omborini qurayotgan kishilar keldi: “Faqat mehnat qilishni biladigan bu quruvchi yigitlar, Orol rizqiga chang solayotganliklarini xayoliga ham keltirmaydilar. Bahaybat gidrouzel qurib bitkazilgach, Amudaryo to‘silgach, uni jilovlab, to‘g‘onning kalitini cho‘ntagiga solib olgan odamlar Orolga suv beradilarmi?” [4, 85].

Ushbu voqea orqali ifodalangan Erkin Samandar qarashlaridagi realistik tasvir tamoyillari shunisi bilan e’tiborga molikki, harakat va hodisalar haqiqatga monandlik asosiga qurilgan. Bunga asosiy sabab yozuvchining o‘zi ushbu roman voqealari ichida bo‘lganligidir. Personajlar xarakteri ham shu ijtimoiy sharoitda shakllangan. Yozuvchi bu orqali jamiyatdagi illatlarni, insonlar tomonidan tabiatga yovuz munosabat ko‘rsatilayotganini keskin tanqid qiladi. Sodda xalqni ham bu yo‘lda yolg‘on va’dalar berib, suv ombori qurishga safarbar qilinishi, bu ijtimoiy hayot taraqqiyoti va adolatli turmush uchun xizmat qilmasligi rad etib bo‘lmas misollar orqali tasvir etiladi. Bu sho‘ro davrining 70-80-yillardagi ayyorona boshqaruv tizimi, boylik yo‘lida Markaziy Osiyo davlatlarining qay ahvolga solinganligi borasidagi haqiqatlarning namoyon bo‘lishi hamdir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, muallif hayotdagi voqeliklar va tabiatni badiiy aks ettirishda realistik tasvir tamoyillaridan foydalangan. Adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov tabiat va inson muammosini tahlil qilar ekan, “nabotot, hayvonot, jamodot” degan sharqona adabiyotshunoslik falsafasidan kelib chiqadi. Tabiat hodisalari, o‘simliklar, hatto jonsiz mavjudotlar (jamodot)gacha yagona dialektik hodisa deb biladi. Inson muammosini shu yagonalikning bir bo‘lagi sifatida tushuntiradi [5,345]. Ushbu tamoyil Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Xuddi odamlar haqidagi asarlardagidek, hayvonot, nabotot, jamodot, haqidagi asarlarda ham roman markazida bosh qahramon va u bilan bog‘liq muhim falsafalar, holatlar, voqealar, xulosalar o‘rin egallaydi. Tabiat hodisalari mohiyatini ochishda inson tasviri singari psixologik holatlar emas, harakat va faoliyat tasviri zarur poetik ehtiyojdir. Romanda muallif shu yo‘sindagi ijodiy tamoyillar asosida tabiat va inson munosabatlari va muammolarini aniq, teran ochib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atajanov S. Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida maqollarning istifoda etilishi.// Turkiy xalqlar adabiyoti: adabiy aloqalar, adabiy ta’sir va tarjima mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qo‘qon – Boku: Universitet, 2022. – B.539.
2. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М., 1966. – С .101.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013. – Б. 247.
4. Самандаров Э. Ғайб қушлари. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 85.
5. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ НМАКБТ, 2007. – 345 б.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

SURXON VOHASIDA KUSHONLAR DAVRI MODDIY MADANIYAT OBIDALARINING ETNOLOGIK TAHLILI

Tojiyeva Nafisa O‘roq qizi, Termiz davlat universiteti Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti



https://orcid.org/0009-0008-0208-4529
e-mail: ntojiyeva85@gmail.com

ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF MATERIAL CULTURAL MONUMENTS OF THE KUSHAN PERIOD IN THE SURKHAN OASIS

Tojiyeva Nafisa O‘roq qizi, 2nd-year Master’s Student in Ethnography, Ethnology and Anthropology, Termez State University

ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПАМЯТНИКОВ МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ КУШАНСКОГО ПЕРИОДА В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ

Тожиева Нафиса Урок кызы, магистрантка 2-курса по специальности «Этнография, этнология и антропология», Термезский государственный университет

Annotatsiya: *Ushbu maqola qadimgi Chag‘oniyonning Kushonlar davridagi tarixini: moddiy-madaniyati, turmush tarzi, etnologiyasini yoritishga xizmat qiladi. Kushonlar davrida Surxon vohasida qanday yodgorliklar qurilgan va ushbu yodgorliklarning xalq ijtimoiy hayotidagi o‘rnini tahlil qiladi.*

Kalit so‘zlar*: Zurmala, stupa, Qoratepa, Masson, Fayoztepa, Sh.Pidayev, Dalvarzintepa, Xolchayon, Pugachenkova, Ayritom.*

Abstract: *This article serves to shed light on the history of ancient Chaganian during the Kushan period, including its material culture, lifestyle, and ethnology. It analyzes the monuments built in the Surkhan oasis during the Kushan era and their significance in the social life of the people.*

Keywords: *Zurmala, stupa, Fayaztepa, Karatepa, Masson, Sh. Pidayev, Dalverzintepa, Khalchayan, Pugachenkova, Ayritom.*

Аннотация: *Данная статья посвящена освещению истории древнего Чаганиана в эпоху Кушан: её материальной культуре, образу жизни и этнологии. В работе анализируются памятники, возведенные в Сурханском оазисе в кушанский период и их роль в социальной жизни народа.*

Ключевые слова: *Зурмала, ступа, Каратепа, Массон, Фаязтепа, Ш. Пидаев, Дальверзинтепа, Халчаян, Пугаченкова, Айритом.*

KIRISH. O‘zbekiston, xususan, qadimiy Baqtriya hududi hisoblangan Surxon vohasi jahon sivilizatsiyasi chorrahalarida muhim o‘rin tutadi. Kushonlar saltanati davrida (mil. avv. II – milodiy III asrlar) bu mintaqa nafaqat iqtisodiy va siyosiy markaz, balki turli madaniyatlar, dinlar va an’analar sintezlashgan yirik mafkuraviy tugun vazifasini o‘tagan. Bugungi kunda qadimiy yodgorliklarni etnologik va arxeologik jihatdan o‘rganish, milliy davlatchiligimiz asoslarini va ajdodlarimizning boy madaniy merosini anglashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA. Zurmala minorasi Termiz yaqinida joylashgan, Kushonlar saltanati davriga (miloddan avvalgi 2-asr) oid noyob me’moriy yodgorlikdir. Arxeolog A.Strelkov tomonidan o‘rganilgan ushbu inshoot aslida budda ibodatxonasining muhim qismi — stupa hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida minoraning saqlanib qolgan xarobalari balandligi 14,5 metrni, asosi esa 22x16 metrli to‘rtburchak tarhni tashkil etishi aniqlangan. Silindrsimon shakldagi bu ulkan inshootni barpo etish uchun taxminan 1 million 200 ming dona xom g‘isht sarflangan bo‘lib, bu o‘sha davrdagi qurilish

ko‘lamidan dalolat beradi. Mazkur inshoot nafaqat me’moriy obida, balki chuqur diniy-ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Sanskrit tilida “stupa” so‘zi “tuproq yoki toshlar uyumi” degan ma’noni anglatadi va u Buddaning o‘limi hamda uning “parinirvana”ga erishganini ramziy ifodalaydi. Inshootning yuqori qismida “Xudoning uyi” deb atalgan kichik xona bo‘lib, unda buddiylikning muqaddas yodgorliklari — Buddaning soch tolalari, kiyim parchalari yoki turli qimmatbaho toshlar saqlangan. Tashqi tomondan minora oqish ohaktosh va nafis bo‘rtma haykallar bilan bezatilgan bo‘lib, cho‘qqisida olijanoblik ramzi bo‘lgan “sharaf soyabonlari” o‘rnatilgan[2].

Zurmala minorasi O‘rta Osiyo hududida topilgan birinchi buddaviy bino sifatida tarix fanida katta ahamiyatga ega. 1926-yilda ilk bor e’tiborni tortgan bu obida, mintaqamizda buddizm dinining yoyilishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida yigirmaga yaqin shunday budda yodgorliklari aniqlangan bo‘lsa-da, Zurmala o‘zining salobati va qadimiyligi bilan ajralib turadi.

Qoratepa — Eski Termizning shimoli-sharqida joylashgan, milodiy I–III asrlarga oid yirik budda ibodatxonalari majmuasidir. Ushbu yodgorlik 1920-yillardan boshlab M. Masson, B. Stavinskiy kabi mashhur arxeologlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijasida sakkizdan ortiq inshoot majmuasi aniqlangan bo‘lib, ularning o‘ziga xosligi Hindiston va Afg‘onistondagi ibodatxonalar kabi ham yer ostida (g‘orlarda), ham yer ustida qurilganidadir. Har bir majmua to‘rtburchak hovli, yo‘lak-ayvonlar va yer osti xonalaridan tashkil topgan. Ibodatxonalarda Buddaning ulkan loy haykallari va muqaddas stupalar topilgan. Stupalar gumbazsimon bo‘lib, ularning tepasida "chatra" deb ataluvchi tosh soyabonlar o‘rnatilgan. Buddaviylik e’tiqodiga ko‘ra, chatra muqaddas daraxt ramzi bo‘lib, Budda aynan shunday daraxt soyasida o‘z ta’limotini yaratgan. Qoratepa devorlari diniy rasmlar bilan bezatilgan bo‘lib, ayniqsa, Buddaning sirli va muloyim tabassum bilan ishlangan tasviri hamda ibodatxona homiylari bo‘lgan aslzodalarning suratlari katta badiiy qiymatga ega[3:13,14]. Janubiy tepalikdagi inshootlardan birida topilgan “Kxabevaka vihara” (Shoh ibodatxonasi) yozuvi bu majmuaga bevosita Kushon hukmdorlari, ehtimol Kanishka homiylik qilganidan dalolat beradi. Biroq, milodiy III asr oxirida Sosoniylar bosqini natijasida majmualar inqirozga yuz tutgan va vayron etilgan. Keyinchalik, IV–VI asrlarga kelib, bu tashlandiq xonalardan qabr sifatida foydalanilgan. Qazishmalar davomida topilgan Kushon-sosoniy davri tangalari va Termiz hukmdorlarining pullari ushbu hududda hayot va madaniyat asrlar davomida o‘zgarib borganini isbotlaydi[5].

Fayoztepa — milodiy I–III asrlarga oid budda monastir-ibodatxona majmuasi (vixara) bo‘lib, Eski Termiz shahar xarobalarining shimoli-g‘arbida joylashgan. Ushbu yodgorlikning ochilishi 1968-yilda cho‘pon Absad Beknayev tomonidan topilgan budda sanami bilan boshlangan va keyinchalik arxeolog L.I. Albaum tomonidan batafsil o‘rganilgan. Majmua taxminan 1,5 ming kvadrat metr maydonni egallagan bo‘lib, me’moriy jihatdan uch qismga: markaziy ibodatxona, shimoli-g‘arbdagi monastir va janubi-sharqdagi xo‘jalik inshootlariga bo‘lingan. Majmuaning markaziy qismida ganchli toshdan yasalgan va zarhal berilgan noyob haykallar topilgan. Ayniqsa, oq marmartoshdan ishlangan, Buddaning muqaddas bodhi daraxti ostida ikki ruhoniy hamrohligida o‘tirgan holati tasvirlangan haykallar guruhi o‘zining yuksak badiiy mahorati bilan jahon san’atida alohida o‘rin tutadi. Fayoztepa nafaqat sig‘inish joyi, balki o‘sha davrning yirik ta’lim markazi ham bo‘lgan. Taxminlarga ko‘ra, mashhur ruhoniylar Dharmamitra va Ghoshaka aynan shu yerda tahsil olganlar[4:23,25].

Etnologik nuqtai nazardan Fayoztepa diniy sinkretizm, ya’ni tashqi budda ta’limotining mahalliy an’analar (olovga va tabiatga bo‘lgan hurmat) bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Majmuaning xo‘jalik qismida topilgan tandirlar, hayvon suyaklari va ko‘plab sopol idishlar rohiblar jamoasining kundalik hayoti, jamoaviy turmush tarzi va qurbonlik marosimlaridan dalolat beradi. Amudaryodan maxsus kanal orqali suv keltirilganligi esa o‘sha davr muhandislik salohiyatini namoyish etadi.

Dalvarzintepa — Surxondaryo vohasidagi eng muhim arxeologik yodgorliklardan biri bo‘lib, akademik E. Rtveladze va B. Turg‘unov tomonidan chuqur o‘rganilgan. Umumiy maydoni 25 gektarni tashkil etuvchi bu ko‘hna shahar ark va shahristondan iborat bo‘lib, mustahkam mudofaa devorlari hamda chuqur handaqlar bilan o‘ralgan[8]. Shaharning shakllanishi miloddan avvalgi II ming yillikdagi xo‘jalik tizimi va sun’iy sug‘orishning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Undagi hashamatli shohlar saroyi va olov ibodatxonalari jamiyatning ijtimoiy tabaqalanganidan hamda markazlashgan ma’muriy boshqaruv tizimi qaror topganidan dalolat beradi.

Dalvarzintepaning jahonshumul shuhrat qozonishiga 1972-yilda topilgan mashhur oltin xazina sabab bo‘ldi. Oddiy uy poli ostidan topilgan ushbu xazina 115ta oltin buyumdan, jumladan, sirg‘alar,

bilaguzuklar, uzuklar va afsonaviy hayvonlar tasviri tushirilgan kamarbandlardan iborat. Milodiy II–III asrlarga oid bu topilmalar Kushonlar davrida Baqtriya zargarlik san'ati naqadar yuksak darajaga ko'tarilganini isbotlovchi beqiyos san'at asarlaridir. Yodgorlikning etnologik ahamiyati undagi noyob sag'ana (xilxona) misolida ham yaqqol ko'rinadi. Miloddan avvalgi II–I asrlarga oid ushbu sag'ana bir necha qatlamdan iborat bo'lib, unda mahalliy aholining turli davrlardagi dafn marosimlari aks etgan. Pastki qatlamda odamlar xumga ko'milgan bo'lsa, o'rta qatlamda zardushtiylik an'analariga xos tozalangan suyaklar topilgan. Bu topilmalar Shimoliy Baqtriya aholisining diniy e'tiqodlari va urf-odatlari evolyutsiyasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xolchayon — Surxondaryo viloyati Denov tumanida, daryo bo'yidagi pastqam hududda joylashgan muhim antik davr yodgorligidir. Mashhur arxeolog Galina Pugachenkova tadqiqotlariga ko'ra, bu yerda shahar xarobalari, Maslahattepa kabi bir qancha tepaliklar va me'moriy majmualar mavjud. Hududdan topilgan Soter Megas va Vasudeva I davriga oid tangalar, antik keramika namunalari hamda ellinistik uslubdagi tom g'ishtlari bu yerda Greko-Baktriya qirolligi davridan boshlab yuksak qurilish madaniyati shakllanganini ko'rsatadi[9]. Xolchayonning eng diqqatga sazovor obidasi uning saroy binosidir. Bino devorlaridagi haykaltaroshlik namunalarida diniy motivlardan ko'ra dunyoviy tasvirlar — shohlar, otliq jangchilar va musiqachilar ko'proq aks ettirilgan. Shu sababli olimlar bu inshootni ibodatxona emas, balki mahalliy hukmdorlarning qabul saroyi (apadana) deb xulosa qilishgan. Saroy skulpturalari Kushonlar davri san'atining shakllanish bosqichlarini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Etnologik jihatdan Xalchayandagi dafn marosimlari alohida qiziqish uyg'otadi. Bu yerda topilgan hum-ossuariylar qadimgi aholining zardushtiylikka yaqin bo'lgan Mazdayasniya qoidalariga e'tiqod qilganini isbotlaydi. Marosimga ko'ra, jasad dastlab yirtqich qushlar yoki itlar tomonidan tozalangan, so'ngra suyaklar maxsus humlarga (ossuariy) solib yashash hududining ichida saqlangan. Strabon kabi antik mualliflarning ma'lumotlari ham Baqtriya shaharlarining ichkarisi "inson suyaklari bilan to'la" bo'lganini tasdiqlaydi.

Ayritom — O'zbekistonning qadimiy tarixi va boy madaniyatidan guvohlik beruvchi, Termiz yaqinida joylashgan ko'hna shahar xarobasidir. Ushbu yodgorlikning etnologik ahamiyati, avvalo, uning ko'p qatlamli etnik muhit bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Kushonlar davrida Surxon vohasi Baqtriyaning markazlaridan biri bo'lib, bu yerda mahalliy baqtriylar, sak-qang'li qabilalari, yunon-makedon merosi va Hindiston madaniy qatlamlari o'zaro qorishgan. Ayritomdan topilgan haykaltaroshlik namunalari va terrakota releflaridagi obrazlar, ularning yuz tuzilishi hamda kiyim-kechaklari aynan shu etnik rang-baranglikni tasdiqlaydi. Yodgorlikning eng muhim jihatlaridan biri diniy sinkretizm va marosimiy turmush tarzi bilan bog'liqdir. Mashhur Ayritom releflarida musiqa chalayotgan ayollar va tantanavor yurish sahnalari tasvirlangan. Bu tasvirlar hududda buddaviylik, ellinistik an'analar va mahalliy qadimiy e'tiqodlar uyg'unlashganini anglatadi. Musiqa va san'atning diniy amaliyot bilan bog'lanishi marosimlarning jamoaviy va estetik xarakterga ega bo'lganidan dalolat beradi.

XULOSA. Yodgorliklarni o'rganishda, avvalo, fanlararo yondashuvni kuchaytirish zarur. Arxeologik ma'lumotlar etnologik, tarixiy, antropologik va san'atshunoslik tadqiqotlari bilan uyg'un holda tahlil qilinsa, yodgorlikning jamiyat hayotidagi o'rni to'liqroq ochiladi. Ayniqsa, Surxon vohasi kabi qadimdan turli madaniyatlar chorrahasida joylashgan hududlarda bunday yondashuv yodgorliklarning ko'p qatlamli madaniy mohiyatini aniqlash imkonini beradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. Termiz — Buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar. – Toshkent, 2001.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (O'zME). Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
3. Pidayev Sh. Qadimiy Termiz. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 13, 14.
4. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 23, 25.
5. Tursunov, S. N., Pardayev, T. R., va boshq. Surxondaryo vohasida moddiy madaniyat tarixi. – Toshkent: Muharrir, 2013.
6. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 15-16.
7. Jo'rayeva, S. Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi: Monografiya. – Toshkent: O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021. – B. 32.
8. Tursunov, S., Eshboyev, Q. Sho'rchi tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
9. Пугаченкова Н. Халчаян к проблеме художественной культуры Северной Бактрии. — Ташкент: Издательство Фан Узбекистанской ССР, 1966.
10. Г. А. Пугаченкова. К исторической топографии Чаганиана, Тр. ТашГУ, вып. 200, Ташкент, 1963, – С. 49.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 94 (575.1)

SURXONDARYO VILOYATIDA XALQ MAORIFI TIZIMI: HOLAT, MUAMMOLAR VA FIDOYI USTOZLAR YO‘LI (1970–1980-YILLAR)

Umarov Jamshid Saidmuratovich, Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0009-0004-2134-0503
e-mail: Umarovjamshid510@gmail.com

THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM IN SURKHANDARYA REGION: CONDITIONS, PROBLEMS AND THE PATH OF DEDICATED TEACHERS (1970–1980s)

Umarov Jamshid Saidmuratovich, Independent Researcher at Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

СИСТЕМА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ: СОСТОЯНИЕ, ПРОБЛЕМЫ И ПУТЬ САМООТВЕРЖЕННЫХ УЧИТЕЛЕЙ (1970–1980-е годы)

Умаров Жамшид Саидмуратович, независимый исследователь Термезского государственного университета, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1970–1980-yillarda Surxondaryo viloyatida xalq maorifi tizimi holati arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinadi. Muallif sovet davridagi yuqori demografik o‘sish sur’atlari sharoitida maktabgacha va umumiy ta’lim muassasalarida yuzaga kelgan moddiy-texnik yetishmovchiliklar va ta’lim sifatidagi muammolarni ochib beradi. Shuningdek, maqolada Sho‘rchi, Sherobod, Jarqo‘rg‘on kabi tumanlarda ta’lim sohasini yuksaltirishga hissa qo‘shgan fidoiy pedagoglar faoliyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Surxondaryo, xalq maorifi, arxiv hujjatlari, maktab muammolari, milliy maktablar, moddiy-texnika bazasi, Sho‘rchi, Sherobod.*

Abstract: *This article analyzes the state of the public education system in the Surkhandarya region during the 1970s and 1980s based on archival documents. The author reveals the material and technical deficiencies and quality issues in preschool and general education institutions amidst the high demographic growth rates of the Soviet era. Furthermore, the article highlights the activities of dedicated educators who contributed to the advancement of the education sector in districts such as Shurchi, Sherabad, and Jarkurgan.*

Keywords: *Surkhandarya, public education, archival documents, school problems, national schools, material and technical base, Shurchi, Sherabad.*

Аннотация: *В данной статье на основе архивных документов анализируется состояние системы народного образования Сурхандарьинской области в 1970–1980-х годах. Автор раскрывает проблемы материально-технической базы и качества образования в дошкольных и общеобразовательных учреждениях в условиях высоких темпов демографического роста советского периода. Также в статье освещается деятельность самоотверженных педагогов, внесших вклад в развитие сферы образования в таких районах, как Шурчи, Шерабад и Джаркурган.*

Ключевые слова: *Сурхандарья, народное образование, архивные документы, проблемы школ, национальные школы, материально-техническая база, Шурчи, Шерабад.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbekistonning sovet davridagi ijtimoiy-madaniy hayotini tadqiq etishda xalq maorifi tizimi va holatini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XX asrning 70–80 yillari respublikada demografik jarayonlarning jadal

kechishi, aholi sonining tabiiy o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lganligi ta’lim sohasida yangi talab va muammolarni keltirib chiqardi. Bu davr bir tomondan umumiy o‘rta ta’limga o‘tishning yakunlanishi bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan sovet maorif tizimidagi nomutanosibliklar va moddiy-texnik yetishmovchiliklarning yaqqol namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Respublikaning barcha qishloq va shaharlarida aholining tabiiy o‘sish sur’atlari sovet ittifoqda baland bo‘lganligi sababli maktabgacha bolalar muassasalarining, umumiy ta’lim maktablarining doimiy yetishmasligi bu tarmoqda juda ko‘p muammolarning paydo bo‘lishiga va murakkablashishiga sabab bo‘lgan. Masalan, 1970 yilda Sho‘rchi shahrida 2ta o‘rta maktab, 3ta bolalar bog‘chasi bo‘lgan. Bir qarashda maktablarning mavjud soni aholining ehtiyojlariga javob bergandek ko‘rinadi. Lekin tub millatlarga mansub aholining maktablarga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq hisobga olinmaganligi va rus tilli maktablarga nisbatan o‘zbek, tojik tilli maktablarda sinflar o‘quvchilar bilan normadan ancha ortiq to‘lganligi hamda o‘quv ko‘rgazmali, texnikaviy vositalari bilan jihozlanish jihatidan bu maktablar o‘rtasida jiddiy farq bo‘lgan[1].

Masalan, o‘sha 1970-yilda Sariosiyo tumanida 6,3 ming kishi yashagan, shu jumladan ruslar, ukrainlar, boshqirdlar, tatarlar va boshqa nomahalliy millat vakillari aholining 1/3 qismini tashkil etgan, lekin 800 o‘rinli o‘rta maktabga, 4 ta rus tilida tarbiyalovchi bolalar bog‘chasiga ega bo‘lgan. O‘zbek va tojik aholisining 2/3 qismini maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar tashkil etsa-da, ular 1 ta o‘zbek tilli, 1 ta tojik tilli o‘rta maktablar hamda 2 ta o‘zbek tilida tarbiyalovchi bog‘chalar bilan ta’minlangan. Umuman, Surxondaryo oblasti ta’lim tizimini rivojlanish jihatidan (10 ming aholisiga hisobida) 1970 yillar boshida Respublikada Xorazm oblasti bilan birga oxirgi o‘rinlarda bo‘lgan. Aholining 10 yoshdan katta har bir ming kishisiga to‘g‘ri kelgan oliy, to‘la va to‘la bo‘lmagan o‘rta ma’lumotlilarning soni bo‘yicha (368 kishi) Surxondaryo oblasti 1970 yil eng oxirgi o‘rinda edi. Respublikada bunday ko‘rsatkich 458 kishini tashkil etgan[2].

Mashhur pedagog oqqo‘rg‘onlik Hamid Ollamurodov Sherobod maorifining shakllanishi va rivojlanishida, 1- son maktabda fizika-matematika fanini mukammal o‘qitishda Hamza nomli, Oxunboboyev nomli o‘rta maktablarda direktorlik vazifasini mukammal rivojlanishida alohida xizmat qildi. U 1974 yil 22 noyabrda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi degan yuksak unvonga sazovor bo‘ldi. Sherobod ma’rifati va maorifini rivojlanishida 1924 yili Oqqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan Fozil G‘iyosovning faoliyati alohida tahsinga sazovordir. 1-son o‘rta maktabda ilmiy bo‘lim mudiri, 1954-1955 yillarda 1-o‘rta maktab direktori, 2-son o‘rta maktab direktori vazifalarida ishlab, «Hurmat belgisi» ordeni, «Mehnatda o‘rnak ko‘rsatganligi uchun» medallariga sazovor bo‘ldi. Mashhur pedagog Imom Mirzayev Istara dashtlarida maorifning rivojlanishiga alohida xizmat qildi. Imom Mirzayev S.Ayniy nomli maktabda pedagoglik faoliyatini davom ettirdi. Uning shogirdlari kimyo fanlari nomzodi To‘xta Ashurovich Hamroyev, taniqli pedagoglar Husnya Avazova, Xoldona Qurbonaliyeva va boshqalar ustozi kabi xalq o‘rtasida katta obro‘ topdilar[3].

Termiz rayoni 1970-1980 yillarda iqtisodiy jihatdan o‘sib, aholining soni ham yildan yilga oshib bordi. Iqtisodiy va demografik jarayonlar uy-joy qurish bilan bir vaqtda maktablar, maktabgacha bolalar muassasalari, tibbiyot, madaniyat, savdo, maishiy xizmat obyektlarini barpo etishni taqozo qilar edi. Termiz rayonining 1970-1980 yillarda ijtimoiy rivojlanishida xalq maorifi muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘pgina turli hujjatlardan hamda axborot materiallaridan ko‘rish mumkin. Denov rayonida 1971-1980 yillarda 6 ta, 1981-1990 yillarda 7 ta maktablar tashkil topgan[4].

Umumiy majburiy talimga o‘tish usuli yaxshi samaralar bera boshladi. Buni o‘quvchilarning turli sabablar bilan maktablardan ketib qolishining yil sayin kamayib borishida ham ko‘rish mumkin bo‘ldi. 1972 yilga kelib Jarqo‘rg‘on tumanida 56 ta umumiy o‘rta talim maktablarida 26,2 ming o‘quvchi yoshlar talim oldilar. Lekin, afsuski boshqa sohalarda bo‘lgani kabi tuman xalq talimida ham buyruqbozlik nuqtai nazaridan turib, ekstensiv yondoshish kuchayib bordi. Buning oqibatida bilim berishda sifat muammolari chetga surib qo‘yilib, miqdor ko‘rsatkichlari birinchi o‘ringa qo‘yildi. Ko‘pgina maktablar namunaviy loyihasiz imoratlarda joylashgan bo‘lib, o‘quv qurollari, ko‘rgazmali vositalar bilan yetarli darajada taminlanmagan edi. Qolaversa ayrim fanlardan malakali mutaxassis o‘qituvchilar yetishmas edi. Shuningdek, talim berishda nazariya bilan amaliyotni uyg‘un holda olib borish ishlariga yetarli darajada etibor berilmadi[5].

Sherobod maorifini rivojlantirishda, uning moddiy texnika bazasini mustahkamlashda, yoshlar o‘rtasida xalqlar do‘stligini mustahkamlashda

millatlar hamdo‘stligini mustahkamlashda ilg‘or tajribali pedagoglar Mariya Tereshilova, Gaziz Shokirov, Gussam Bekpo‘latov, Yahyo Qorajonov, Shamil Yagaforov, Ivan Vladimir, Lyubo Yevgrafovalar, Faya Gorelova, Ushakovalarning xizmati alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Sherobod maorifini shakllanishi va taraqqiy etishida, savodxon yoshlarni tarbiyalashda xalqimizning moddiy ma’naviy madaniyatini o‘rganish va targ‘ib qilishda Mullo Ashir, Ergash Qulmirzayev, Hojiddin Xo‘jayev, Ali Yo‘ldoshev, Xudoyor Nuraliyev, Ismoil Nuraliyev, Xudoyor Murodov, Rashid Nazarov, A.Qulliyev, P. Axmedov, N.Davitov kabi o‘lmas nomlar mangulikka sazovordir[6].

1972 yilda Sho‘rchi rayonida 1 ta texnikum, 74 ta maktabda 36 ming 521 nafar o‘g‘il-qiz o‘qigan. 1972 yilda 1888 o‘qituvchining 1205 nafari oliy ma’lumotli edi. 1969 – 1980 yillarda tumanda 3, 7, 26, 29, 30, 31, 33, 34, 35, 38 va 39-maktablar tashkil etildi. 1978–1979 o‘quv yilida tumandagi 61 ta umumiy ta’lim maktablarida 30213 nafar o‘quvchi ta’lim-tarbiya oldi. 1973-1983 yillarda Rustam Avazov, Ergash Norsoatov, Haydar Yo‘ldoshev, 1983-1994 yillarda Xurram Yusupov, keyingi yillarda Xolmo‘min Normatov, Nurali Abdivaitov, Ne’mat Eshnazarov va Suyun Mavlonov tuman xalq ta’limi bo‘limiga rahbarlik qildi. 1953-1983 yillarda Xudoyberdi Mamadiyorov xalq maorifi bo‘limida bosh hisobchi, 1951 yildan to 2000 yilga qadar Qarshi Berdiyev hisobchi bo‘lib ishladi.

Jarqo‘rg‘on rayonda ta’lim tizimi masalasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan ishlar bajarilib, yangi maktablar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, o‘quv darsliklari sohasida ma’lum ijobiy siljishlar amalga oshirildi. 1960 yilda tumanda 37 maktabda 6931 nafar o‘quvchi ta’lim oldi. Shuni alohida qayd etish zarurki, rayonda maorif masalasida kamchiliklar ham mavjud bo‘lib, maktab yoshidagi o‘quvchilardan 101 nafar bola maktablarga jalb etilmadi. Bunga sabab Beshqo‘ton, Oqqo‘rg‘on qishloqlarida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda o‘quv sinflari va darsliklarni, dars berish sifatini qoniqarli emasligida edi. 1970-1971 o‘quv yilida 39 ta umumta’lim maktablarida 14546 nafar o‘quvchi ta’lim-tarbiya oldi[7].

Tabiiyki, aholining shunday katta sur’atlar bilan o‘sishi xalq maorifi sohasining ko‘lamini kengaytirishga, yosh avlodni o‘qitish-tarbiyalash ishini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tezkorlik bilan amalga oshirishga undagan. Shuni hisobga olgan holda respublika va Surxondaryo oblastining hokimiyat va boshqaruv idoralari 1970-1980 yillar mobaynida ko‘plab qarorlar qabul qilishdi va iloji boricha mablag‘larni ko‘proq ajratishdi. Masalan, 1972 yil 29 iyunda O‘zbekiston hukumati “Yoshlarning umumiy o‘rta ta’limga o‘rgatishini tugallash va umumiy ta’lim maktablarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” qaror qabul qilib, unda uzoq muddatga mo‘ljallangan bir qator katta vazifalarni belgiladi. Xuddi shu masala bo‘yicha Surxondaryo oblastining ijroiya komiteti qarorni 1972 yil 18 iyulda qabul qildi va har bir rayon, har bir shaharda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqdi[8].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). 1970–1980-yillarda Surxondaryo viloyati xalq maorifi tizimini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, yuqori demografik o‘sish ta’lim infratuzilmasidan doimo oldinda yurgan. Bu esa maktablarda joy tanqisligi va "ekstensiv yondashuv" (sifatdan ko‘ra songa intilish) kabi muammolarni keltirib chiqargan. Shuningdek, davrning mafkuraviy bosimi ostida milliy maktablarga nisbatan rus tilli maktablarga imtiyozli sharoitlar yaratilgani ta’limdagi tengsizlikni yuzaga keltirgan. Shunga qaramay, mahalliy pedagoglarning fidoyiligi va davlat tomonidan o‘rta ta’limni majburiy qilish borasidagi islohotlar vohada savodxonlik darajasining oshishiga va milliy ziyolilar qatlamining shakllanishiga poydevor bo‘lib xizmat qildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Турсунов С.Н., Эшбоев Қ. Шўрчи тарихидан лавҳалар – Тошкент:Фан ва технологиялар. – 2014. – 318 б.
2. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 85-fond, 1-ro‘yxat, 10-ish, 106-varaq.
3. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 52-fond, 1-ro‘yxat, 98-ish, 5-varaq.
4. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 52-fond, 1-ro‘yxat, 98-ish, 29-varaq.
5. Турсунов С.Н., Тўхтаев А. Жарқўрғон. – Тошкент: Фан, 2008. – 303 б.
6. Sherobod tumani davlat arxivi, S-13-fond, 1-ro‘yxat, 412-ish, 23-varaq.
7. Jarqo‘rg‘on tumani davlat arxivi, 20-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 1-varaq.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-ro‘yxat, 114-ish, 87-varaq.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 371.3+81-32/81-31

ТАРИХИЙ САРКАРДАЛАР ФАОЛИЯТИДАГИ САМАРАЛИ ЮТУҚЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Ўралов Достон Рустамалиевич, Термиз давлат университети мустақил изланувчиси

THE DISTINCTIVE FEATURES OF EFFECTIVE ACHIEVEMENTS IN THE ACTIVITIES OF HISTORICAL COMMANDERS

O‘ralov Doston Rustamalievich, Independent Researcher at Termez State University

ОСОБЕННОСТИ ЭФФЕКТИВНЫХ ДОСТИЖЕНИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИСТОРИЧЕСКИХ ПОЛКОВОДЦЕВ

Уралов Достон Рустамалиевич, независимый исследователь Термезского государственного университета



https://orcid.org/0009-0007-2294-5370
e-mail: jurayevfarhod963@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада мўғул босқинчиларига қарши самарали кураш олиб борган Темур Малик, ўзбек давлати тарихида ўчмас из қолдирган буюк соҳибқирон бўлмиш Амир Темурнинг саркардалик фаолиятида эришган катта ғалабалари ва унга асос бўлган омиллар ҳақида маълумотлар берилган бўлиб, ушбу омилларни бугунги кунда ҳам ривожлантириш билан раҳбарлик фаолиятидаги шахсларга нисбатан керакли йўл очилиши тўғрисида мълумотлар берилган.*

Калит сўзлар: *Темур Малик, саркарда, султон, хон, мўғул, Амир Темур, соҳибқирон, сипоҳ.*

Annotation: *This article provides information about the great victories achieved in the military activities of Temur Malik, who effectively fought against the Mongol invaders, and Amir Temur, a great conqueror who left an indelible mark on the history of the Uzbek state, and the factors that led to them. It also provides information about the fact that the development of these factors today will pave the way for individuals in leadership activities.*

Keywords*: Temur Malik, commander, sultan, khan, Mongol, Amir Temur, conqueror, soldier.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о великих победах, достигнутых в ходе военной деятельности Темура Малика, боровшегося с монгольскими завоевателями, и Амира Темура, великого завоевателя, оставившего неизгладимый след в истории узбекского государства, а также о факторах, способствовавших их достижению. Также в статье говорится о том, что развитие этих факторов сегодня проложит путь для лидеров.*

Ключевые слова: *Темур Малик, полководец, султан, хан, монголы, Амир Темур, завоеватель, воин.*

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Бугунги шидддат билан ривожланиб бораётган замонда давлат бошқарувидаги шахсларни комиллиги жуда катта ўринга эга. Давлат бошқарувидаги шахслар ақилли, жасур, виждонли бўлса ўша ташкилотнинг ишлари ҳам шунга муносиб равишда ўсиб бораверади. Биз юқорида таидлаётган сифатлар эса ўз – ўзидан ривожланиб ёки эгалланиб қолмайди. Бунинг учун албатта маълум бир илмий манбани ўрганиш ёки тарихий саркардалар ва кўзга кўринган инсонларнинг хаёти ва ижоди билан танишиб чиқиш лозим.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Тарихий саркардалар орасидан ўрнак сифатида ўзбек тарихида ҳам жуда кўплаб яккабошчилар учрайди. Лекин улар орасида султон Оловуддиннинг қўлида хизмат қилган, Жалолиддин Мангубердининг ишончли хамкори бўлган Хўжанд ҳокими Темур Малик мухим ўрин тутади. Темур Малик Хўжанд хокими бўлиб фаолият юритган вақтларда жуда катта самарали ва халқ учун тадбирларни амалга оширди. Шунинг учун ҳам ўз вақтида Хўжандлик фуқаролар уни эзозлашар, кўкларга кўтарар эди. Темур Малик ўз халқи учун шундай образга айланган эдики,

саркардани шер, фил каби кучли йиртқичларга қиёслашар, уни эшитди дегунча ҳар бир фуқаро бир кўргиси келарди. Чунки халқ ичида унга берилган тарифларга хамма махлиё бўлар, бир бор бўлса ҳам саркарда билан учрашишни орзу қилишарди. Модомики Темур Малик доимо халқ билан, улар нима ишга қўл урса у ҳам ушбу иш билан машғул бўларди. Ўзини ҳар доим хам халққа танитмас, гоҳо ниқобланган ҳолда юрар эди. Бунга мисол тариқасида Хўжанд қаласини мустаҳкамлашда оддий халқ билан елкама – елка ишлади. Оддий одамлар лой қилса у ҳам ушбу ишлардан жирканмай ишлар эди. Ушбу биз таъкидлаган жумлаларни исботини Мирмуҳсиннинг “Темур Малик”[6] романида ҳам гувоҳ бўлиш мумкин. “Пешинга бориб хаво жуда қизиб кетди. Ялоғоч бўлиб олган Темур Малик терга ботиб, шерюрак Шоший билан хода таширди. Пойтеша чопаётганлар ёнида турган кекса карфармо қаттиқ берилиб ишлаётган ҳокимга гап қотиб, буйруқ беришга ийманар, у бир қадар довдираб қолган эди”[6].

Темур Малик ўз одамлари билан Чингизхонга қарши ҳокимятни мудофаа ва уни ёвдан асраш бўйича тадбирлар билан банд эди. Чингизхон қўшинлари ўтрорга бостириб кирганда халқни мулкини талади, барча нарсаларни талон – тарож қилди, одамлар уйига ўт қўйди ва шаҳарни ер билан яксон қилди. Катталар билан бирга ёшлар, хаттоки бешикдаги гўдакларгача ўлдирди. Бу воқеалар Хўжанд халқини ҳам ваҳимага солди. Ачинарли томонларидан бири Темур Маликнинг ўз жуфти ҳалоли Ойчечак ҳам мўғуллар томонига ўтиб, охир – оқибат ачинарли ўлим топди. Темур Малик мўғуллар билан биринчи жангни Чорикдарронда ўтказди. Темур Малик ва унинг сипоҳлари яхши жанг қилишди. Биринчи куни душманга қаттиқ зарба бергандай бўлди. Иккинчи ва учинчи кунлари жанг деярли бир хил кучларни тенг кураши билан ўтди. Учичи кунда вазият анча ўзгарди. Чингизхон қўшинларни кундузи ва кечаси ҳам уришадиган ҳолатда тартибда келтирганлиги сабабли султон Алоуддиннинг барча қўшинлари қийналишди. Хусусан Темур малик қўшинлари ҳам дам олмасдан уришишга мажбур эдилар. Дастлаб Улоқ нўён билан жанг қилган бўлса тез орада Сўқту нўён билан Тугуш ботирларнинг қўшинлари ҳам етиб келиб Темур Малик қўшинларига зарбалар бера бошлади.

Темур Малик ўз жангчиларини нафас ростлашга ҳам имкон бўлмасдан жанг қилаётганлигини кўриб уларни асраш мақсадида душманнинг беш – олти отлиқлари ихотасидаги Сўқту нўёнга кўзи тушади. Унга яккама – якка жанг қилиш учун чопар юборади. Агар ким мағлуб бўлса ўша қўшини билан қайтиб кетишини чопарга тушинтириб нўённинг олдига юборади. Чопарлар Сўқту нўён томон от чоптириб боришаётганда мўғул сипоҳлпри уларни тўҳтатиб қўлларини боғлаб нўёнлари олдига олиб боради. Тилмоч ёрдамида Темур Маликни таклифини эшитган нўён чопарларни калласини кестириб ташлатади ва отига боғлатиб ўликларни тахқирлатади. Буни ўз кўзлари билан кўриб турган Темур Малик мўғулларни қанчалик жирканч жангчи эканлигини англаб этиб, бор куч ғайрати билан жанг қилади.

Темур Маликни асосий қаҳрамонликларидан бири бу мўғуллар билан жангга кирган вақтда кемалар орқали уларни хужумларини самарали қайтариб ўз бўлинмаларига қўшилиб олганлигидадир. Бу қаҳрамонликни дунёнинг кўпчилик тарихчи ва ёзувчилари томонидан тан олинишда кўриш мумкин. Исай Калашников “Шафқатсиз аср”[3] романида” ушбу воқеани жуда аниқ ва қизиқарли тарифлаб берган.

Темур Малик мўғул қўшинлари билан жанг вақтида ўз кемалари орқали Синд дарёсидан сузиб ўтиб ўз қўшинларига қўшилиш, шунингдек душманга зарба бериш учун боради. Мўғул қўшинлари уларни яксон қилиш учун ёнувчи камон ўқлар билан кемаларга қараб отишади, лекин бирор кемага ўт улашмайди. Талофат мўғуллар кутгандек бўлмайди. Темур Малик эса кема ва қайиқларни олдиндан тўғри тадбир билан тайёрлаб қўйганлиги сабабли шундай бўлган. Темур Малик урушдан аввал ҳам уруш вақтида ҳам кемаларнинг устига намат қоплатиб, унинг устига лойга сиркани аралаштириб суртади. натижада бирор қўшин унга талофат етказолмайди. Ушбу ақилли тадбири билан Темур Малик нафақат ўз жонини балки ўз қўшинларининг тинчилигини ва хаётини дахлсизлигини таъминлашда катта хисса қўшди.

Ўзбек тарихида ўчмас из қолдирган саркардалардан бири бу Амир Темур ҳазратларидир. Амир Темур ҳам жуда қийин вазиятда хокимият тепасига келди. Бу вақтда Мовароуннаҳр мўғуллар қўлида ҳар бир вилоятда мўғул беклари ўзи хоким эди. Амир Темур ёшлигидан жуда хам билимга чанқоқ, жасур ва бошқаларга қараганда ақилли, тадбирли эди. Ёшлигиданоқ қуръонни тўлиқ ёд олди ва Оллоҳни ўз қалбига жойлади. Самир Тархон, Шамсиддин Кулол, Зайниддин Абу Бакр Тайбодий ва Мир Саид

Барака каби етук инсонлар соҳибқиронга устозлик қилишди. Тақдири порлоқлиги аввалдан маълум соҳибқирон бутун дунёни катта қисмини ўз хукмига бўйсундирди. Ёмонларни жазосини берди, хақларни доимо ҳимоя қилди. Фуқаролар манфаатларини ҳимоя қилиб адолатли давлат қурди. Жуда кўплаб жойларда масжидлар қурдирди. Яратганга нисбатан ва ўтиб кетган устозларига нисбатан меҳр – муҳаббати кучлилигини хар ишда намоён қилди.

Амир Темур хақида кўплаб ибратли воқеларни эшитиш мумкин. Улар ичида ўзи ҳам доимо амал қилган маслаҳат ва машварат билан иш битиришидир.

Темур тузукларини ҳам дастлабки саҳифаларидаги битикларда ҳам шу фикрларга гувоҳ бўлиш мумкин. Пирим менга ёзмишларким: “Абулмансур Темур, салтанат ишларида тўрт нарсага амал қилгин, яъни: 1) (ўзинг билан) кенгаш; 2) (бошқалар билан) машварату маслаҳат айла; 3) ҳушёрлигу мулоҳазакорлик билан қат’ий қарор чиқар; 4) эҳтиёткор бўл. Чунки кенгаш ва машварациз салтанатни барча қилган ишларию айтган гаплари хато бўлган жоҳил кимсага қиёслаш мумкин; унинг сўзлари ва қилмишлари бошга пушаймонлик ила надомат келтиргай. Шундай экан, салтанатни бошқаришда машварату маслаҳат ва тадбир билан иш юритгин, токи оқибатда надомат чекиб, пушаймон бўлмагайсан[1].

Демак, Амир Темурнинг устозлари ҳам доимо унга маслаҳат ва машварат қилишни таъкидлаб келган. Ушбу ҳикматларга Амир Темур риоя этиши билан катта зафарларга эришганлигини тарих зарварақларидан билиш мумкин. Яна бир воқеани эсга олсак, Туғлуқ Темурхон Мовароуннаҳрга бостириб келган вақтида кўп амирларда жасурлик етишмай қочиб қолади. Хусусан Амир Темурнинг амакиси Хожи Барлос ҳам. Лекин Амир Темур хеч қаерга кетмасдан унинг ҳузурига чиқади. Тузукларда “Мен ҳам Хуросонга ёки бўлмаса Туғлуқ Темурхоннинг қошига бориш-бормаслигимни билмай иккиланиб қолдим. Шу ҳол асносида пиримдан маслаҳат сўраб хат ёзган эдим, ушбу мазмунда жавоб ёзиб юборибдилар: “Тўртинчи халифадан, унга Тангрининг караму марҳамати бўлсин, бир киши сўрабдики, осмон – камон, ер – камон ипи, ҳодисалар ўқ – ёй бўлса, инсонлар ул ўқ – ёйларга нишон бўлса, отғучи (еса) – буюк ва қудратли Худойи таоло бўлса, одамлар қаерга қочадилар?” Халифа жавоб қилиб: “Одамлар Тангрининг қошига қочсунлар”,–дебди. Шунга ўхшаш сен ҳам ҳозир Туғлуқ Темурхоннинг олдига қочғил ва қўлидаги ўқ – ёйини тортиб олғил”[1]. Амир Темур ҳам устози жавобига амал қилиб Туғлуқ Темрухон қошига боради. Туғлуқ Темрухон ҳам Амир Темурни қочмаганлигини ва жасурлик билан олдига келганлигини кўриб буни мардликка ёйади. Мовароуннаҳр хукмронлигини унга топширади, давлат бошқаруви бўйича Амир Темурдан маслаҳат олиб Дашту – Қипчоқга кетади. Туғлуқ Темурхондан қочган барча хокимларни қўлга олдириб қатл қилдиради.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтганда, Амир Темур ва Темур Маликлар хозирги ёшлар учун ҳақиқий қаҳрамонлардир. Уларни ҳар бир амалга оширган тадбирларини яхшилаб ўрганиш ва керакли хулосаларни чиқариш билан бугунги кундаги кўплаб муаммоларни ижобий ҳал этиш мумкин. Мисол тариқасида биз юқорида таъкидлаган Амир Темурнинг маслаҳат ва машварат билан барча ишларни ҳал этиши бугунги кундаги ёш раҳбарлар учун тайёр дастури амалдир.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА/REFERENCES):

1. Амир Темур. Темур тузуклари / мемуар асар / форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулла Караматов таржимаси / “Буюк давлатчилик силсиласи” туркуми – Т.: Илм зиё заковат, 2020. 144 б.
2. Содиқов Ҳамдам. Амир Темур слтанатида хавфсизлик хизмати. – Т.: ART FLEX, 2010 – 436 бет.
3. Калашников Исай. Шафқатсиз аср. М. Йўлдошев таржимаси. - Т.: Янги аср авлоди, 2023 – 672 б.
4. Амир Темур Кўрагон. Зафарнома. Араб алифбосидан Кирилл алифбосига ўгириш, сўзбоши, луғат ва изоҳ муаллифлари: Ҳ.Бобобеков, Ҳ.Бобоев, А.Қуронбеков. – Тошкент, 2000. – 652 б.
5. Амир Темур Кўрагон. Қиссаи Темур (Малфузоти Темурий). Араб алифбосидан кирилл алифбосига ўгириш, сўз боши, луғат ва изоҳ муаллифлари: Ҳ.Бобобеков, Ҳ.Бобоев, А. Қуронбеков. – Тошкент, 2000.
6. Мирмуҳсин. Темур Малик. – Тошкент: Ҳилол медиа нашриёти. – Тошкент. 2018. – 480 бет.

Qabul qilindi: 12.02.2026 Chop etildi: 30.03.2026 UDK: 1:321.01:316.3

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT BOSHQARUVINI TA’MINLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI: NAZARIY-AMALIY TAHLIL

A’zamova Kumush Salim qizi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi



https://orcid.org/0009-1769-5504
e-mail: azamovakumush@gmail.com

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБНОВЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аъзамова Кумуш Салим кызы, преподаватель кафедры “Социальные и гуманитарные науки” Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

ACTUAL PROBLEMS OF PROVIDING SOCIAL GOVERNANCE IN RENEWING UZBEKISTAN: THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS

A’zamova Kumush Salim kizi, Teacher of the Department of “Social and Humanitarian Sciences” of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan 2026-yil sharoitida yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy davlat boshqaruvini ta’minlashning dolzarb muammolari keng ilmiy tahlil asosida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiylashgan davlat, siyosiylashgan davlat, o‘ta siyosiylashgan davlat, ijtimoiy siyosatning ustuvorligi, inklyuziv yondashuv, korrupsiya, fuqarolik jamiyati, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, raqamli transformatsiya.*

Abstract: *This scientific article examines the urgent problems of ensuring social state governance in a renewing Uzbekistan in the context of the growing globalization and digital transformation of 2026.*

Key words: *socialized state, politicized state, hyper-politicized state, priority of social policy, inclusive approach, corruption, civil society, “Uzbekistan — 2030” strategy, digital transformation.*

Аннотация: *В данной научной статье на основе всестороннего научного анализа исследуются актуальные проблемы обеспечения социально-государственного управления в Узбекистане, обновляющегося в условиях 2026 года, когда процессы глобализации и цифровой трансформации усиливаются.*

Ключевые слова: *социализированное государство, политизированное государство, высокополитизированное государство, приоритет социальной политики, инклюзивный подход, коррупция, гражданское общество, стратегия «Узбекистан — 2030», цифровая трансформация.*

KIRISH. Bugungi kunda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirtirayotgan bo`lsa, boshqa tomondan esa, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, iqtisodiy beqarorlik va ijtimoiy tengsizlik

insoniyatning dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda. Aynan ana shunday sharoitda O‘zbekiston ijtimoiy davlat qurish yo‘lida dadil qadam tashlashi nafaqat milliy, balki mintaqaviy ahamiyat ega voqealardan hisoblanadi.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ijtimoiy davlatni barpo etish g‘oyasini ilgari surgan edi. Bu g‘oya davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojatnomasida yanada chuqurroq asoslanib, “Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni asosiy maqsadimiz, deb bilamiz” [1] - deya ta’kidlandi. Ushbu strategik mo‘ljal 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmon bilan mustahkamlangan bo‘lib, uning birinchi bo‘limi “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan[2]. Ayni mana shu strategik maqsadning amalga oshirilishi mamlakatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Ijtimoiy davlat tushunchasi nemis olimi Lorenz von Shtein tomonidan 1850-yil ijtimoiy davlatni fuqarolarning huquqiy tengligini ta’minlash va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish vazifasini bajaruvchi siyosiy institusional tuzilma sifatida tavsiflagan [3]. Keyinchalik bu g‘oya T.H. Marshall, Go‘sta Esping-Andersen va boshqa G‘arb olimlari tomonidan rivojlantirilgan. Mahalliy tadqiqotchilardan M.Bekmuradov[4] o‘z tadqiqotlarida, ijtimoiy davlat milliy-madaniy qadriyatlar va islom ta’limotining insonparvarlik tamoyillari bilan uyg‘un holda talqin qilinadi. Bu yondashuv O‘zbekiston uchun metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA. Ijtimoiy davlatlarni tahlil qilar ejkanmiz ularni bir qncha toifalarga ajratish mumkun:

1.Siyosiylashgan davlatlar - bu toifaga mansub mamlakatlarda siyosiy hokimiyat uchun keskin kurash avj olgan, buning oqibatida siyosiy elita, etnik va milliy guruhlar, siyosiylashgan diniy ayirmachilik tuzilmalari o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ziddiyatlar va diniy tusdagi to‘qnashuvlar kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bunday davlatlarda davlat byudjeti va resurslarining asosiy qismi ijtimoiy ehtiyojlarga emas, balki siyosiy hokimiyatni saqlab qolish va kuchaytirish maqsadlariga sarflanadi.

2.O‘ta siyosiylashgan davlatlar-bu toifaga mansub davlatlarda siyosiy hokimiyat uchun kurash qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi qurolli, qonli to‘qnashuvlar bilan birga boradi. 2026-yilda ham Yaqin Sharq, Afrikaning bir qator mamlakatlari va boshqa mintaqalarda bunday holat kuzatilmoqda. O‘ta siyosiylashgan davlatlarda nafaqat ijtimoiy rivojlanish, balki insonning eng asosiy huquqi — yashash huquqi ham tahdid ostiga tushadi. Bunday holat xalqaro miqyosda gumanitar inqirozni, nafaqat insoniyat uchun, balki Yer yuzidagi barcha hayotiy mavjudlikning yashashiga real tahdid bo‘lmoqda.

3.Ijtimoiylashgan davlatlar - bu davlatlarda siyosiy boshqaruv ijtimoiy rivojlanish va fuqarolar farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Ular iqtisodiy o‘sish bilan birga ijtimoiy tenglik va adolatni ham ta’minlashga intiladilar. Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar shu toifaga misol bo‘la oladi.

4. Yuqori darajada ijtimoiylashgan davlatlar. Bu davlatlarda ijtimoiy himoya tizimi yuksak darajada rivojlangan, inson qadriga inklyuziv yondashuv davlat siyosatining markaziy tamoyiliga aylangan. Bunday davlatlar nafaqat iqtisodiy rivojlangan, balki ijtimoiy jihatdan ham tenglashgan jamiyatni barpo etgan.

Ammo korrupsiya muammosi — ijtimoiy davlat qurish yo‘lidagi asosiy to‘siq hisoblanadi. Korrupsiyaning ijtimoiy davlat qurish jarayoniga ta’siri ko‘p qirrali: birinchidan, davlat byudjetidan ajratiladigan ijtimoiy xarajatlar o‘z maqsadiga yetib bormaydi; ikkinchidan, fuqarolarning davlat institutlariga ishonchi kamayadi; uchinchidan, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimida qonunsiz to‘lovlar va diskriminatsiya kuchayadi; to‘rtinchidan, iqtidorli kadrlar emas, balki «o‘z odamlari» rahbar lavozimlarga tayinlanadi.

Bandlik va real daromadlar muammosi ha ijtimoiy davlat barpo qilishda asosiy muammolardan hisoblanadi. Davlat statistika qo‘mitasining 2025-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda rasmiy ishsizlik darajasi 9 foizdan oshiq bo‘lib, yashirin ishsizlik ko‘rsatkichi bundan ham yuqori. Aholining real daromadlari esa inflyatsiyaning ta’siri ostida sezilarli tushib ketgan.

Ijtimoiy davlat qurish jarayonida aholining bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish muhim strategik vazifadir [5].

Raqamli transformatsiya jarayoni ham ijtimoiy davlat barpo qilishda muhim ahamiyatga ega. 2026-yilning muhim xususiyatlaridan biri - sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotga jadal kirib kelishidir. Bu jarayon O'zbekiston uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bir tomondan, raqamlashtirish davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtiradi, korrupsiyaga qarshi kurashda yangi imkoniyatlar yaratadi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bu masalaga e'tibor qaratilgan bo'lib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ijtimoiy davlatda inson qadriga bo'lgan inklyuziv yondashuv - ijtimoiylashgan davlatni barpo etishdagi muhim tamoyildir. Inklyuziv yondashuv deganda shaxsning jismoniy imkoniyatlari, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, dini, jinsi, yoshi yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, uning jamiyat hayotiga to'la va samarali ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish tushuniladi.

NATIJALAR. Tadqiqot jarayonida kuzatilishicha, ijtimoiylashgan davlat konsepsiyasi O'zbekiston uchun yangi bo'lmagan g'oyadir. Uning ildizlari mamlakatimizning boy tarixiy-madaniy merosida, islom ta'limotining insonparvarlik qadriyatlarida, ajdodlarimizning zakot, sadaqa va xayriya an'analarida yotibdi. Ammo bu g'oyani zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi bilan uyg'unlashtirish - bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Dunyo mamlakatlarida kechayotgan voqea-hodisalarni kuzatar ekanmiz, ularning O'zbekiston ijtimoiy siyosiy hayotiga ta'siri va uning oqibatlari xususida chuqur mulohaza yuritish zaruriyati bor.

XULOSAVA TAKLIFLAR. Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy davlatni barpo etish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda ijtimoiy adolat, inson qadri va fuqarolar farovonligini ta'minlash ustuvor yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya, ishsizlik va past daromadlar ijtimoiy davlat rivojiga asosiy to'siqlardan biridir. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar uyg'unligi esa ijtimoiy davlat modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman, izchil islohotlar orqali barqaror va adolatli jamiyatni barpo etish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahriri. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023.
2. Yunusov K. A. Fuqarolik jamiyati nazariyasi. O'quv qo'llanma. — Andijon: AndDU nashriyoti, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. — Toshkent, 2022.
4. Bekmurodov M.B., Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020. – 436 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2026-yil 14-yanvar. — Toshkent, 2026.
6. Koshanova N.M. The need to develop intellectual culture in the development of modern society// American Journal OfSocial Sciences And Humanity Research https://inlibrary.uz/index. php/ajsshr/ article/view/35709/36241

MUNDARIJA

	07.00.00 - “TARIX”	
Matyakubova Soxiba O‘rinboy qizi	XIVA ICHAN-QAL’A MUZEY FONDIDAGI BURUN TAQINCHOQLARI (ARAVAKLAR): SEMIOTIK TIZIM, RAMZIY MA’NOLAR VA MADANIY KODLAR	**6**
Rayimova Sadoqatxon Azizbek qizi	XIV–XV ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA SAVDO INFRATUZILMASI	**24**
Қадамбаев Шаҳриёр	ЗАРАФШОН ВОДИЙСИ ГЕОГРАФИК ЖОЙЛАШИШИ ХУСУСИЯТЛАРИ, ҲУДУДИЙ ЧЕГАРАЛАРИ ВА ГЕОИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРИ ХУСУСИДА	**38**
Hamrayev Mahmud	ASHURO FITNASI	**52**
Mahmudova Gulhayo	XIX ASR OXIRIDA BUXORO AMIRLIGIDA KASALLIKLAR: TARQALISH SABABLARI VA ULARGA QARSHI CHORALAR	**55**
Xamidova Ominaxon Nuriddin qizi	ASHTARXONIYLAR SULOLASI VA ROSSIYA DAVLATI O‘RTASIDA XALQARO MUNOSABATLAR (XVII-XVIII)	**72**
Vaydullayev Axmad	SOVET ITTIFOQINING INQIROZI ARAFASIDA DINIY FAOLLIKNING KUCHAYISHI	**81**
Najimatdinov Karamatdin	NAJMIDDIN ZOHIDIYNING “AL-MUJTABO SHARHU MUXTASARUL QUDURIY” ASARI VA UNING XORAZM VOHASI ILMIY MUHITIDAGI O‘RNI	**110**
Sharipov Baxodir Faxriddinovich	VYETNAM–XITOY MUNOSABATLARI ISTIQBOLLARI VA JANUBI-SHARQIY OSIYODA “RAQAMLI IPAK YO‘LI”	**115**
Botirova Nafosat Xurmatbek qizi	OROLBO‘YI KO‘CHMANCHI QABILALARI HARBIY SAN’ATINING TARIXSHUNOSLIK TADQIQOTLARIDAGI TAHLILI	**156**
Jumanazarova Fotima Kuchkarbayevna	AYOLLAR MEHNAT BOZORI: BUGUNGI HOLAT VA ERTANGI ISTIQBOL	**174**
Murodov Adham Ilhom o‘g‘li	JADIDCHILIK HARAKATI: MILLIY UYG‘ONISH VA MODERNIZATSIYA G‘OYALARINING TARIXIY ILDIZLARI	**183**
Salimboyeva Farzona Xojiakbar qizi	ANDIJONDAGI XALQARO OLIY TA’LIM MUASSASALARI	**186**
Xojaniyazova Gulshana Muratbaevna, Seytbekova Qumar Ermaǵanbetova	QORAQALPOQLARDA QISHLOQ XO‘JALIGI BILAN BOG‘LIQ JAMOAVIY YORDAM AN’ANALARI VA ULARNING IJTIMOIY FUNKSIYALARI	**213**
Mamadjanov A’zamjon	“TUHFAT AL-XONIY” MANG‘ITLAR SULOLASI TARIXIGA OID ASARLAR UCHUN BIRLAMCHI MANBA	**217**
Muhiddinova Shalola	19-YUZYILLIK INGLIZ TILLI “SAFARNOMA”LARDA TURKISTONLIKLARNING TOMOSHA VA BAYRAMLARI TASVIRI	**220**
Nishonboyeva Gularo	MADANIYAT RIVOJINING TARIXIY TAMOYILLARI	**247**
Norov Jamol Komiljon o‘g‘li	JANUBIY SO‘G‘D VA XITOY O‘RTASIDA SAVDO ALOQALARINING MADANIY AHAMIYATI: TARIXIY-GEOGRAFIK VA SIVILIZATSION TAHLIL	**250**
Matyakubova Muborak Madrimovna	XIVA XONLIGI MOLIYAVIY SIYOSATIDA DAVLAT AMALDORLARINING ISHTIROKI VA VAKOLATLARI	**273**
Суюнов Самаритдин Саматович	ҚАРШИ ВОҲАСИ ЎРТА АСРЛАР СУҒОРИЛИШ ДИНАМИКАСИ	**283**
Нуруллаева Шоира	МАТОНАТ ВА МЕҲР УЙҒУНЛИГИ: ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК АЁЛИНИНГ ҲАЁТИЙ ПОРТРЕТИ	**320**
Саидусманов Бахром Абдуганиевич	ЎЗБЕКИСТОНДА ТРАНСПОРТ КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДА ТУТГАН ЎРНИ (1945-1990)	**332**
Abdullayeva Nazokat Baxtiyarovna	OLIY TA’LIM TIZIMIDA MILLATLARARO BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	**335**
Yergasheva Muxlisa Soatullayevna	TOSHKENT SHAHRIDA TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATI (1963–1965 YY.): TIZIMLI MUAMMOLAR VA ULARNING OMILLARI	**348**
Qosimov Dilmurodjon A’zamjonovich	XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VILOYATIDA POCHTA-TELEGRAF TIZIMI ORQALI FARG‘ONA VILOYATIDA AXBOROT MAKONINING SHAKLLANISHI	**351**
Nizomova Shaxzoda Xurshid qizi	BRONZA DAVRIDA BAQTRIYA AHOLISINING ZOOLATRIK VA AJDODLAR RUHIGA SIG‘INISH BILAN BOG‘LIQ DINIY QARASHLARI *(JARQO‘TON YODGORLIGI MISOLIDA*	**355**
Raximov Islomjon Ixtiyor o‘g‘li	BUXORO AMIRLIGIDA TA’LIM TIZIMI	**362**
Tilayev Ermat Raxmatovich	AMIR HAYDAR VA AMIR HUSAYN: BUXORO AMIRLIGIDA HOKIMIYAT VORISLIGI VA ICHKI ZIDDIYATLAR TARIXIGA NAZAR	**464**

Buriyev Ravshan Rustamovich	SURXON VOHASIDA NIKOH TUZISH MUNOSABATLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	**509**
Xolliyev Azizbek Guzalovich	AVSTRALIYADAGI BRITANIYA MUSTAMLAKALARI: XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	**518**
Kadirova Yakitjan Buvabayevna	MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL	**531**
Tojiyeva Nafisa O‘roq qizi	SURXON VOHASIDA KUSHONLAR DAVRI MODDIY MADANIYAT OBIDALARINING ETNOLOGIK TAHLILI	**546**
Umarov Jamshid Saidmuratovich	SURXONDARYO VILOYATIDA XALQ MAORIFI TIZIMI: HOLAT, MUAMMOLAR VA FIDOYI USTOZLAR YO‘LI (1970–1980-YILLAR)	**549**
Ўралов Достон Рустамалиевич	ТАРИХИЙ САРКАРДАЛАР ФАОЛИЯТИДАГИ САМАРАЛИ ЮТУҚЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ	**552**
	09.00.00 - “FALSAFA”	
Patiyev Xoldor Ikromovich	JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARI QARASHLARIDA YOSHLAR TARBIYASI VA MA’NAVIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI	**3**
Norboyev Sardor Qavmiddinovich	SHARQ VA G‘ARB MUTAFAKKIRLARINING JAMIYATDA HUQUQIY TA’LIM VA TARBIYANI YUKSALTIRISH MASALALARIGA OID QARASHLARI	**49**
Buriyeva Shaxnoza Alisher qizi	TASAVVUF TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI. XALQ KITOBLARIDA TASAVVUF ALLOMALARI OBRAZI	**78**
Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna	FUQAROLIK JAMIYATINING JARAYON SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	**98**
Kobilov Uchkun Ulmasovich	DAVLAT XIZMATCHILARIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH	**129**
Tanikulov Jonibek Ashirkulovich	TA’LIM MUHITIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING FALSAFIY INTEGRATSIYASI VA MADANIY KONSEPTLARI	**146**
Sapayev G‘ulomjon Baxtiyarovich	GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQLARARO TINCHLIKNI SAQLASHDA ISLOMDAGI BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINING O‘RNI	**162**
[1]Hamroyev Saidjon [2]Nurxonov Ibratjon	MA’RIFATLI JAMIYAT — IJTIMOIY ADOLATNING MA’NAVIY POYDEVORI SIFATIDA	**166**
G‘aniyev Elbek Abdizoitovich	AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SAQLASH VA INTERNETNING IJTIMOIY XAVFLARI	**192**
Ismatullayeva Feruza Sadullayevna	MARKAZIY OSIYO UYG‘ONISH DAVRIDA QADRIYATLAR VA SHAXS MA’NAVIY KAMOLOTI MASALASI	**196**
Beshimov Xamidjon Sayidovich	MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING INSON QADRINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	**224**
Norova Malika Fayzulloyevna	SAYFIDDIN BOXARZIY MA’NAVIY MEROSIDA INSON QALBINING KAMOLOTI	**240**
Raxmatova Muhayyo Elboboyevna	INSON VA TABIAT UYG‘UNLIGI: SHARQ VA G‘ARB FALSAFASIDA EKOLOGIK QARASHLAR	**253**
Kaypnazarova Ayparshin Tengelbaevna	KANT ETIKASI VA YOSHLAR TARBIYASI	**268**
Axmedov Xamdam Alikulovich	EKOLOGIK ADOLAT VA “IJTIMOIY INSOF” PRINSIPLARINING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O‘RNI	**291**
Irmatov Sharof Avazovich	SIYOSIY MODERNIZATSIYA VA DEMOKRATIK ISLOHOTLAR JARAYONI	**300**
Avazov Sanjar Ergashovich	MEHNAT MIGRATSIYASI: O‘ZBEKISTONDAGI ASOSIY SABABLAR VA TENDENSIYALAR	**307**
Ibragimova Dilsora Ismoilovna	IJTIMOIY ISH VA SOTSIOLOGIYADA INSON XULQ-ATVORI TAHLILI	**311**
Inomov Avazbek Soyibjonovich	ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI	**314**
Xajiyeva Maksuda Sultanovna	RAQAMLI YOSHLAR VA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL	**324**
Doschanova Umida Eshchanovna	RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA ETIKA FANINI O‘QITISHNING INTERAKTIV METODLAR TIZIMI	**328**
Babajanova Shodiya Aybek qizi	NITSHE FALSAFASIDA TRAGEDIYA KONSEPSIYASI	**338**

Yunusova Yulduzxon Shokirjon qizi	YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY MODERNIZATSIYA JARAYONLARINING FALSAFIY KONSEPTUAL TAHLILI	**390**
Файзуллаева Азиза Садриддиновна	ЭТИЧЕСКОЕ ЛИДЕРСТВО И СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ: РОЛЬ МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЖЕНСКОМ ЛИДЕРСТВЕ УЗБЕКИСТАНА	**393**
Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi	MUHYIDDIN IBN ARABIY TA’LIMOTINING ISLOMIY TAFAKKUR VA IJTIMOIY-MA’NAVIY HAYOT RIVOJIDAGI O‘RNI	**415**
Qurbonboyev Zafar Rustam o‘g‘li	SOTSIOTERRORIZM VA UNGA QARSHI KURASHNING IJTIMOIY MEXANIZMLARI	**435**
Ochilova Nigora Ruzimuratovna	AXBOROT JAMIYATIDA MA’NAVIY ONG SHAKLLANISHINING FALSAFIY TAHLILI	**512**
Ochilova Nigora Ruzimuratovna	TEXNOLOGIYA VA MADANIYAT: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O‘ZARO TA’SIR	**521**
Koshanova Nilufar Maxsudovna	MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING KONSEPTUAL STRUKTURALARI	**534**
A’zamova Kumush Salim qizi	YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT BOSHQARUVINI TA’MINLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI: NAZARIY-AMALIY TAHLIL	**555**
	10.00.00 - "FILOLOGIYA"	
Raximjonova Nigora Nasibjon qizi	ИНГЛИЗ СЛЕНГНИНГ ТИЛ НОРМАСИГА МУНОСАБАТИ ВА ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАРЖИМАСИ МУАММОЛАРИ	**13**
Saidova Muxayyo Umedilloyevna, Sayfiyeva Madina Saydullo qizi	INGLIZ BADIIY DISKURSIDA GIPONIMIK VA MERONIMIK MUNOSABATLARNING LEKSIK KOGEZIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI VA UNING KOGERENSIYAGA TA’SIRI	**19**
Ismatullayeva Sevinch	CHO‘LPON HIKOYALARIDA MILLAT TAQDIRI VA ILM-MA’RIFAT MASALASI	**28**
Jo‘raxolova Bahora Qurbonboyevna	“KELIN – BUYUM” KONTSEPTUAL METAFORASINING NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PAREMIYALARDA VOQELANISHINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI	**31**
Adigezalova Malika Nadir qizi	HUSAYN JOVID DRAMATURGIYASIDA MADANIYATLARARO DIALOG (“JARLIK” VA “JAYRON” ASARLARI MATERIALIDA)	**46**
Erkinjonova Sadoqat Abdurazzoq qizi	RO‘ZI QODIRIY SHE’RIYATIDA SHAKLIY VA MAZMUNIY MUSHTARAKLIK	**66**
Mavlyanova Gulnara Shavkatovna	N.S.LESKOV ASARLARIDA XALQ ETIMOLOGIYASINING FUNKSIONAL-STILISTIK ROLI	**101**
Karimova Gulnoza Davronovna	MILLIY TELEVIDENIYEDA GENDER DISKURSI	**122**
Jonxo‘rozova Munojaat Dilmurod qizi	SA’DULLA HAKIM SHE’RIYATIDA LIRIK OBRAZLAR TIZIMINING BADIIY IFODASI	**126**
Shoniyozova Gulshoda Baxromovna	PRESUPPOZITSIYA VA TINISH BELGILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABAT	**135**
Saidova Muxayyo Umidullayevna, Tursunova Sarvinoz G’afurovna	INGLIZ MEDIA DISKURSIDA ENUMERATSIYA STILISTIK VOSITASINING PRAGMATIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	**138**
Nematova Oygul Jamshid qizi	NOMLASHDA KOGNITIV FREYMLAR: INGLIZ VA O‘ZBEK ANTROPONIMLARIDA MOTIVATSION ANDOZALAR	**143**
Muratova Nafisa Baxtiyarovna	TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTLARINING ILLOKUTIV XUSUSIYATLARI	**159**
Jumaboyeva Aziza Baxtiyor qizi	XORAZM VILOYATIDAGI O‘ZBEK SHEVALARIDA FARZAND KO‘RISH BILAN BOG‘LIQ IJOBIY ISTAK MAZMUNINI IFODALOVCHI LISONIY BIRLIKLAR	**170**
Hamrayeva Nafisa Yunus qizi	ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARIDA G‘AYBIY TIMSOLLAR TALQINI	**177**
Norkobilova Farzona Azizovna	XIV–XV ASR TURKIY ADABIYOTIDA SULAYMON PAYG‘AMBAR OBRAZI TALQINI	**180**
Boymurotova Umida Ilhom qizi	“BAXT” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI LINGVOKULTURAVIY TAHLILI	**210**

Abdiev Azamat Turǵanbaevich, Shernazarova Guljamal Ańsatbaevna	“SAYATXAN-HÁMRE” DÁSTANÍNDAǴÍ KÓRKEM SÚWRETLEW QURALLARÍNÍŃ QOLLANÍLÍWÍ	**228**
Egamberdiyev Ravshanbek Turdimuratovich	METAFORA ICHIDA METAFORA	**256**
Hakimova Nasiba Alisher qizi	MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING TIL TA’LIMIDAGI O‘RNI: NAZARIY YONDASHUVLAR	**260**
Axmedova Zebiniso Jumaqulovna	TURKIY XALQLARDA TOTEMLARGA ALOQADOR TABULAR	**264**
Гаипова Хилола Хамробек кызы	ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ НЕПОЛНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ЛИРИКЕ СОВРЕМЕННЫХ РУССКИХ ПОЭТОВ	**296**
Nusratilloyeva Dilnoza	ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA TO‘RTLIK JANRI: SHUKUR QURBON IJODI MISOLIDA	**303**
Rustamova Shoira Egamberganovna	ADABIYOTSHUNOS HAMDAM ABDULLAYEVNING IJODIY FAOLIYATI XUSUSIDA	**341**
Dusanova Tozagul Rasulovna	SURAT VA MA’NIDA BESHABIH VA BENAZIR	**344**
Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna	“NAHJ UL-FARODIS” ASARINING YARATILISH DAVRI, MUALLIFLIK MASALASI VA YOZILGAN HUDUDI HAQIDAGI ILMIY QARASHLAR	**366**
Jonibekova Dono	XIZMAT HUJJATLARI VA ULARNING MATN QOLIPLARINI YARATISH	**371**
Xujakulova Maryam Xakimjonovna	BADIIY FILM NOMLARIDA YOSH CHEGARASINING AKS ETISHI (INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)	**382**
Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi	ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RANG-TUS SIFATLARINING QO‘LLANILISHI	**387**
Otarova Tursingul Jetkerbay qizi	JAHON ADABIYOTIDA EKOLOGIYA VA EKOLOGIK ADABIYOTSHUNOSLIK (EKOKRITITSIZM)	**400**
Toshxonova Muborak Sur’at qizi	ALISHER NAVOIY G‘AZALI INGLIZCHA TARJIMASIDA MAZMUNNING AKS ETISHI: BIR G‘AZAL TAHLILI	**404**
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna, Xayrulloyeva Azizabonu Tojiddinovna	INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK NOMLARINING QIYOSIY-KOGNITIV TAHLILI 408	**408**
Qodirov Rafail Nurmaxmadovich	SHARQ VA G‘ARB ADABIY-MADANIY ALOQALARINING SIVILIZATSION ASOSLARI: FRANSIYA VA O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI KONTEKSTIDA	**411**
Abdujalilov Abdukamol Abdumutalovich	SEHRLI ERTAKDAGI MOTIVNING TURLARI VA TASNIFI	**418**
To‘xtanazarova Dilnoza Geroyjon qizi	O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING POETIK TALQINI	**422**
Rahmatova Hulkar Solijon qizi	“BOBURNOMA” ASARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMALARI TADQIQI	**428**
Matkarimov Saparboy Rajabovich	G‘AZAL TARJIMASIDA LEKSIK MUQOBILLIK	**432**
Ibragimova Munojjot Anvar qizi	INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BUYRUQ MAYLINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	**439**
Ro‘zimova Onajon Komil qizi	URUSH VA ICHKI KONFLIKT: BADIIY OBRAZLARNING PSIXOANALITIK TALQINI	**448**
Zaripboyeva Nazokat Maratovna	BADIIY ASARLARNI GENDER TAHLILI ASOSIDA O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI	**451**
Maxmudova Diyora	SVETLANA ALEKSIYEVICH VA O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARDA URUSHNING ABSURD MOHIYATI	**455**
Qayumberdiyeva Nurjahon Muzaffar qizi	ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATINING DAVRLASHTIRISH MASALASIGA YONDASHUV	**461**
Boboxonova Durdona Ermamat qizi	“O‘TKAN KUNLAR” VA “YALDO KECHASI” ROMANLARIDA POETIK NUTQ”: QIYOSIY TAHLIL	**467**
Аскарова Шахноза Исмаиловна	СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В СИСТЕМЕ L1–L2–L3 (УЗБЕКСКИЙ-АНГЛИЙСКИЙ-НЕМЕЦКИЙ ЯЗЫКИ)	**474**
Toshboyeva Durdona Fayzi qizi	KOREYS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA INNOVATSION USULLAR: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUV	**480**
Xamrayeva Anora Abdusattorovna	“NUR BORKI, SOYA BOR” ROMANIDA IJODKOR SHAXSI MUAMMOSI	**483**

Muxamedxodjayeva Sanobar Abdujalilovna	“NAVOBIG‘U-L-KALIM” ASARIDA OYAT VA HADISLARGA MUROJAAT QILISH USULLARI	**486**
Kurganov Anvarjon Muxtorovich	INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI HARBIY TERMINLARINING LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR SIFATIDA IFODALANISHI	**490**
Rasulov Zubaydilla Izomovich, Shodiyeva Dilshoda Sultonovna	VOQEA-HODISANING INTERPRETATASION QOLIPI XUSUSIYATLARI	**497**
Norova Gulsanam Maksutovna	O‘ZBEK TILI TARIXI TADQIQI MASALALARI: TILSHUNOSLIKDA DIALEKTOLOGIK LEKSIKOGRAFIYA VA DIALEKTAL LUG‘ATCHILIK MUAMMOSI	**500**
Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi	INTERNET PLATFORMASI TIJORIY DISKURSINING LISONIY TADQIQI	**515**
Muhammadiyeva Charos Asatullo qizi	SIROJIDDIN SAYYIDNING “SAKSONINCHI YILLAR” DOSTONINING PSIXOLOGIK TAHLILI: STAGNATSIYA DAVRI YOSH AVLOD RUHIY HOLATINI AKS ETTIRISH	**524**
Zaripboyeva Zarifa Maratovna	XORIJIY TILNI O‘RGANISHDA SO‘Z BOYLIGINI EGALLASHNING AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	**537**
Xajiboyev Kishin	ERKIN SAMANDAR IJODIDA TABIATNI BADIIY AKS ETTIRISHDA REALISTIK TASVIR XUSUSIYATLARI	**543**
	12.00..00 – “YURIDIK FANLAR”	
Nasrullayev Shahobiddin Jumaboyevich	BANDLIK SOHASIDA DAVLAT SUBSIDIYALARINING HUQUQIY TABIATIGA DOIR ILMIY-NAZARIY QARASHLAR	**10**
Хамрақулов Лочинбек Эркинжон ўғли	КИССАВУРЛИКНИНГ ЖИНОИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАВСИФИ: ЖИНОЯТ ОБЪЕКТИ ВА ПРЕДМЕТИ МУАММОЛАРИ	**84**
Давлатов Баҳодир Акбар ўғли	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ФАОЛИЯТ ЮРИТАЁТГАН ДАВЛАТ ОРГАНЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШУВЧИ ИЧКИ НАЗОРАТ БЎЛИМЛАРИНИНГ РОЛИ (КОМПЛАЕНС НАЗОРАТ)	**118**
КУРБАНБАЕВ Рустам	МЕДИАЦИЯ ВА КЕЛИШУВ БИТИМИ – НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШНИНГ ТАРАФЛАР УЧУН ЭНГ МАҚБУЛ ЕЧИМИ	**154**
Sultanov Toxir Raximberganovich	ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING HUQUQIY-ME’YORIY MEXANIZMLARI	**189**
Маъмуров Фирдавс Сидикжон оглы	ПРЕДЪЯВЛЕНИЕ ОБВИНЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРАВОВАЯ ПРИРОДА, ФУНКЦИИ И ЗНАЧЕНИЕ НА ДОСУДЕБНЫХ СТАДИЯХ 396	**396**
Jiyenbayev Berdax Kalbay o‘g‘li	QONUN VA AMALIYOT: JANUBIY OROLBO‘YIDA SAKSOVULDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLISHDAGI HUQUQIY BO‘SHLIQLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	**442**
	13.00.00 – “PEDAGOGIKA”	
Xudaykulov Sherzodjon Uktamovich	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA O‘QUV MATERIALLAR TANLASH MAZMUNI, DASTUR VA DARSLIKLAR TAHLILI	**16**
Hamroeva Sanobar Hasan qizi	TALABALARNING TIBBIY–TEXNIK BILIMLARINI BAHOLASH VA DIAGNOSTIKA QILISHNING ZAMONAVIY MEZONLARI VA USULLARI	**34**
Jo‘rabekova Madina Jumanazar qizi	INGLIZ TILI O‘RGANISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI	**41**
Xasanova Vazira Xamidjanovna	MILLIY QADRIYATLAR TA’LIM MAZMUNINING ASOSI SIFATIDA	**43**
Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna	LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KONGRUENTLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 59	**59**
Raxmanova Sarvinoz Alisherovna	CHET TILLARNI O‘QITISHDA NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI	**76**
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MODELI	**89**
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	PEDAGOGIK INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI	**92**
Karimova Dilnoza Abduraximovna	RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA YOSHLARNING QADRIYAT YO‘NALISHLARINI O‘ZGARTIRISH	**95**
Aminova Dilrabo. Sattarova Gulnoza	XALQ SAHNA RAQSINING XALQARO SAHNADAGI NUFUZI	**106**

Samadova Sarvinoz Samad qizi	MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING ILMIY MEROSI VA TA’LIM TIZIMI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI	**200**
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi	O‘QUV JARAYONIDA KOGNITIV MODELLASHTIRISH USULIDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	**203**
Yuldashev Askarjon Abdugappar o‘g‘li	MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’RIFATPARVARLIK QARASHLARINING SHAKLLANISHI OMILLARI	**206**
Jo‘rayeva Mahliyo Rashidovna	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KASBIY FAOLIYATDA INGLIZ TILINI O‘QITISH SAMARADORLIGI	**232**
Mamatqulova Nilufar Fayzullaqulovna	KREAM STRATEGIYASI ASOSIDA TALABALARNING EKOLINGVISTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MASHQLAR TIZIMI	**243**
Xudayorova Muhayyo Omonboy qizi	O‘QUV-BILUV TOPSHIRIQLARINI TUZISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	**278**
Nabiyeva Gavxar Gayratovna	GOSPITAL SHAROITIDA INGLIZ TILINI O‘RGANISHNING ART-TERAPEVTIK IMKONIYATLARI VA METODIK SAMARADORLIGI	**288**
Djurabekov Elmurod Tuxtamurodovich, Ruzibayeva Munira Eshbayevna	OLIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALARNING INTELLEKTUAL FAOLLIGINI OSHIRISHDA NEYROPEDAGOGIK VA SOG‘LOMLASHTIRISH MASHQLARINING UYG‘UNLIGI 317	**317**
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li	TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TRANSFORMATSION JIHATLARI	**359**
Nosirova Ra’no Xamidovna	BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING METAKOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ADAPTIV-DIDAKTIK TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT	**379**
Normahamatova Inoyatxon Maxmudovna	HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING ADABIY TA’LIMDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI	**425**
Sagatova Dilrabo Baxodir qizi	ADABIYOT DARSLARIDA PROMPT TEXNOLOGIYASI ORQALI BADIIY OBRAZ VA POETIK TASVIRLARNI VIZUALLASHTIRISH METODIKASI	**477**
Mallayeva Ozoda Baxramovna	MUTAXASSISLIGI XORIJIY TILI BO‘LMAGAN UNIVERSITETLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	**494**
Kurbanova Sevara Asanbayevna	O‘QUVCHILARNING O‘QUV MOTIVATSIYASINING PASAYISH SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK YO‘LLARI	**527**
19.00.00- “PSIXOLOGIYA”		
Elmurodova Sohiba Shokir qizi	O‘ZBEK PSIXOLOGIYASIDA ZO‘RAVONLIKNING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINING O‘RGANILGANLIK DARAJASI	**63**
Mardiyeva Shaxnoza Amirovna	TALABALARDA AKADEMIK PROKRASTINATSIYANING TA’LIM MUHITI BILAN BOG‘LIQLIGI	**150**
Jabborov Jamshid Azimovich	O‘SMIRLAR AXLOQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISH – IJTIMOIY-PSIXOLOGIIK MUAMMO SIFATIDA	**236**
Matkarimova Muqaddas Komilovna	SPORT O‘YINLARINING O‘SMIRLAR KOGNITIV VA KREATIV JARAYONLARIGA TA’SIRI	**375**
Toshkanova Sevinch Jabborova Malohat Azimovna	KOGNITIV JARAYONLAR VA ULARNING TALABALARNING O‘QUV FAOLLIGIGA TA’SIRI	**540**

TABLE OF CONTENTS

07.00.00 - "HISTORY"

Sokhiba O'rinboy qizi Matyakubova	NOSE ORNAMENTS (ARAVAKS) IN THE COLLECTION OF THE ICHAN-KALA MUSEUM IN KHIVA: SEMIOTIC SYSTEM, SYMBOLIC MEANINGS, AND CULTURAL CODES	**6**
Rayimova Sadoqat - khon Azizbek qizi	TRADE INFRASTRUCTURE OF MAWARANNAHR IN THE 14TH–15TH CENTURIES	**24**
Kadambaev Shahriyor	CHARACTERISTICS OF ZARAFSHAN VALLEY GEOGRAPHICAL LOCATION, TERRITORIAL BOUNDARIES AND GEOECONOMIC FACTORS	**38**
Hamrayev Mahmud	THE ASHURA CONSPIRACY	**52**
Gulhayo Mahmudova	DISEASES IN THE BUKHARA EMIRATE IN THE LATE 19TH CENTURY: CAUSES OF THEIR SPREAD AND MEASURES AGAINST THEM	**55**
Khamidova Aminaxon Nuriddin kizi	INTERNATIONAL RELATIONS BETWEEN THE ASHTARKHANID DYNASTY AND THE RUSSIAN STATE (XVII-XVIII)	**72**
Vaydullaev Akhmad	THE RISE OF RELIGIOUS ACTIVISM ON THE EVE OF THE COLLAPSE OF THE SOVIET UNION	**81**
Najimatdinov Karamatdin	THE WORK "AL-MUJTABA SHARH MUKHTASAR AL-QUDURI" BY NAJMUDDIN ZAHIDI AND ITS ROLE IN THE SCHOLARLY ENVIRONMENT OF THE KHOREZM OASIS	**110**
Sharipov Bahodir Fakhriddinovich	PROSPECTS OF VIETNAM–CHINA RELATIONS AND THE "DIGITAL SILK ROAD" IN SOUTHEAST ASIA	**115**
Botirova Nafosat Khurmatbek qizi	ANALYSIS OF THE MILITARY ART OF THE NOMADIC TRIBES OF THE ARAL SEA REGION IN HISTORIOGRAPHICAL STUDIES	**156**
Jumanazarova Fotima Kuchkarbayevna	WOMEN'S LABOR MARKET: CURRENT SITUATION AND FUTURE PROSPECTS	**174**
Murodov Adham Ilhom ogli	THE JADID MOVEMENT: HISTORICAL ROOTS OF THE IDEAS OF NATIONAL AWAKENING AND MODERNIZATION	**183**
Salimboyeva Farzona Khojiakbar qizi	INTERNATIONAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN ANDIJAN	**186**
Khojaniyazova Gulshana Muratbayevna, Seytbekova Kumar Ermaganbetova	TRADITIONS OF COLLECTIVE ASSISTANCE RELATED TO AGRICULTURE IN THE KARAKALPAKS AND THEIR SOCIAL FUNCTIONS	**213**
Mamadjanov Azamjon	"TUHFAT AL-KHANI" AS A PRIMARY SOURCE FOR HISTORICAL WORKS ON THE HISTORY OF THE MANGIT DYNASTY	**217**
Mukhiddinova Shalola	THE DESCRIPTION OF SPECTACLES AND FESTIVITIES OF TURKESTAN PEOPLE IN 19TH-CENTURY ENGLISH-LANGUAGE TRAVELOGUES	**220**
Nishonboyeva Gularo	HISTORICAL PRINCIPLES OF CULTURAL DEVELOPMENT	**247**
Norov Jamol Komiljon ogli	THE CULTURAL SIGNIFICANCE OF TRADE RELATIONS BETWEEN SOUTHERN SOGD AND CHINA: A HISTORICAL-GEOGRAPHICAL AND CIVILIZATIONAL ANALYSIS	**250**
Matyakubova Mubarak Madrimovna	PARTICIPATION AND POWERS OF STATE OFFICIALS IN THE FINANCIAL POLICY OF THE KHIVA KHANATE	**273**
Suyunov Samaritdin Samatovich	DYNAMICS OF MEDIEVAL IRRIGATION OF THE KARSHIN OASES	**282**
Nurullayeva Shoira	HARMONY OF PERSEVERANCE AND LOVE: A LIFE PORTRAIT OF A MODERN UZBEKISTAN WOMAN	**320**
Saidusmanov Bahrom Abduganievich	THE ROLE OF THE TRANSPORT COMMUNICATION SYSTEM IN THE NATIONAL ECONOMY IN UZBEKISTAN (1945-1990)	**332**
Abdullaeva Nazokat Bakhtiyarovna	MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF A CULTURE OF INTERETHNIC TOLERANCE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM	**335**
Yergasheva Mukhlisa Soatullayevna	EMERGENCY MEDICAL SERVICE IN THE CITY OF TASHKENT (1963–1965): SYSTEMIC PROBLEMS AND THEIR FACTORS	**348**
Qosimov Dilmurodjon A'zamjonovich	FORMATION OF THE INFORMATION SPACE IN THE FERGANA REGION THROUGH THE POSTAL AND TELEGRAPH SYSTEM IN THE EARLY 20th CENTURY	**351**
Nizomova Shakhzoda Khurshid qizi	RELIGIOUS BELIEFS OF THE POPULATION OF BACTRIA IN THE BRONZE AGE RELATED TO ZOOLATRY AND ANCESTOR WORSHIP (ON THE EXAMPLE OF THE JARQOTON SITE)	**355**
Rakhimov Islamjon Ikhtiyor oglu	THE EDUCATION SYSTEM IN THE BUKHARA EMIRATE	**362**

Tilayev Ermat Rakhmatovich	AMIR HAYDAR AND AMIR HUSAYN: A HISTORICAL OVERVIEW OF POWER SUCCESSION AND INTERNAL CONFLICTS IN THE BUKHARA EMIRATE	**464**
Buriyev Ravshan Rustamovich	MARRIAGE RELATIONS IN THE SURKHAN OASIS AND THEIR DISTINCTIVE FEATURES	**509**
Kholliev Azizbek Guzalovich	BRITISH COLONIES IN AUSTRALIA: MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC DEVELOPMENT IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY	**518**
Kadirova Yakitjan Buvabayevna	INSTITUTIONAL AND ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE HOUSEHOLD SERVICE SYSTEM IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE: A HISTORICAL ANALYSIS	**531**
Tojiyeva Nafisa O'roq qizi	ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF MATERIAL CULTURAL MONUMENTS OF THE KUSHAN PERIOD IN THE SURKHAN OASIS	**546**
Umarov Jamshid Saidmuratovich	THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM IN SURKHANDARYA REGION: CONDITIONS, PROBLEMS AND THE PATH OF DEDICATED TEACHERS (1970–1980s)	**549**
O'ralov Doston Rustamalievich	THE DISTINCTIVE FEATURES OF EFFECTIVE ACHIEVEMENTS IN THE ACTIVITIES OF HISTORICAL COMMANDERS	**552**
	09.00.00 - "PHILOSOPHY"	
Patiyev Kholdor Ikromovich	YOUTH EDUCATION AND THE FORMATION OF SPIRITUAL VALUES IN THE VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF THE JADID MOVEMENT	**3**
Norboyev Sardor Qavmiddinovich	ISSUES OF IMPROVING LEGAL EDUCATION AND UPBRINGING IN SOCIETY BY EASTERN AND WESTERN THINKERS	**48**
Buriyeva Shakhnoza Alisher qizi	FORMATION OF THE CONCEPT OF TASAVVUF. THE IMAGE OF SUFI SCHOLARS IN FOLK BOOKS	**78**
Kurbanbayeva Munavvara Kozybayevna	PROPERTIES OF CIVIL SOCIETY AS A PROCESS	**98**
Kobilov Uchkun Ulmasovich	NATIONAL IDENTITY AWARENESS AMONG CIVIL SERVANTS	**129**
Tanikulov Jonibek Ashirkulovich	INTEGRATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT AND ITS CULTURAL ASPECTS	**146**
Sapayev Gulomjon Bakhtiyarovich	THE ROLE OF THE IDEAS OF TOLERANCE IN ISLAM IN MAINTAINING INTERETHNIC PEACE UNDER THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION	**162**
[1]Hamroyev Saidjon [2]Nurxonov Ibratjon	AN ENLIGHTENED SOCIETY AS THE SPIRITUAL FOUNDATION OF SOCIAL JUSTICE	**166**
Ganiev Elbek Abdizoitovich	PRESERVATION OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE INFORMATION SOCIETY AND THE SOCIAL DANGERS OF THE INTERNET	**192**
Ismatullayeva Feruza Sadullayevna	THE QUESTION OF VALUES AND PERSONAL SPIRITUAL MATURITY IN THE ERA OF THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE	**196**
Khamidjon Sayidovich Beshimov	THE ROLE OF TRADE UNIONS IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN DIGNITY IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE	**224**
Norova Malika Fayzulloyevna	PERFECTION OF THE HUMAN HEART IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF SAYFIDDIN BOKARZI	**240**
Muhayyo Elboboyeva Raxmatova	HARMONY BETWEEN HUMAN AND NATURE: ECOLOGICAL PERSPECTIVES IN EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHY	**253**
Kaypnazarova Ayparshin Tengelbaevna	KANT'S ETHICS AND YOUTH EDUCATION	**268**
Akhmedov Khamdam Alikulovich	THE ROLE OF ECOLOGICAL JUSTICE AND "SOCIAL EQUITY" PRINCIPLES IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT	**291**
Irmatov Sharof Avazovich	POLITICAL MODERNIZATION AND THE PROCESS OF DEMOCRATIC REFORMS	**300**
Avazov Sanjar Ergashovich	LABOR MIGRATION: MAIN CAUSES AND TRENDS IN UZBEKISTAN	**307**
Ibragimova Dilsora Ismoilovna	ANALYSIS OF HUMAN BEHAVIOR IN SOCIAL WORK AND SOCIOLOGY	**311**
Inomov Avazbek Soyibjonovich	THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN INTERNAL AFFAIRS BODIES	**314**
Khajiyeva Maksuda Sultanovna	DIGITAL YOUTH AND THE TRANSFORMATION OF VALUES: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS	**324**
Doschanova Umida Eshchanovna	INTERACTIVE METHODS SYSTEM FOR TEACHING ETHICS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT	**328**

Babajanova Shodiya Aybek qizi	HE CONCEPT OF TRAGEDY IN THE PHILOSOPHY OF FRIEDRICH NIETZSCHE	**338**
Yunusova Yulduzxon Shokirjon qizi	PHILOSOPHICAL AND CONCEPTUAL ANALYSIS OF SOCIAL MODERNIZATION PROCESSES IN NEW UZBEKISTAN	**390**
Faizullaeva Aziza Sadriddinovna	ETHICAL LEADERSHIP AND SOCIAL RESPONSIBILITY: THE ROLE OF MORAL VALUES IN WOMEN'S LEADERSHIP IN UZBEKISTAN	**393**
Yarashova Mohlaroyim Shukhrat qizi	THE ROLE OF MUHYIDDIN IBN ARABI'S DOCTRINE IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC THOUGHT AND SOCIO-SPIRITUAL LIFE	**415**
Qurbonboyev Zafar Rustam ogli	SOCIO-TERRORISM AND SOCIAL MECHANISMS FOR COUNTERING IT	**435**
Ochilova Nigora Ruzimuratovna	GLOBALIZATION AND SPIRITUAL CONSCIOUSNESS: A PHILOSOPHICAL APPROACH TO PERSONAL DEVELOPMENT	**512**
Ochilova Nigora Ruzimuratovna	TECHNOLOGY AND CULTURE: INTERACTION IN MODERN SOCIETY	**521**
Koshanova Nilufar Maksudovna	THE CONCEPT OF CULTURE AND ITS CONCEPTUAL STRUCTURES	**534**
A'zamova Kumush Salim kizi	ACTUAL PROBLEMS OF PROVIDING SOCIAL GOVERNANCE IN RENEWING UZBEKISTAN: THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS	**555**
	10.00.00 - "PHILOLOGY"	
Nigora Nasibjon qizi Rakhimjonova	THE RELATIONSHIP BETWEEN ENGLISH SLANG AND LANGUAGE NORMS AND THE PROBLEMS OF ITS TRANSLATION INTO THE UZBEK LANGUAGE	**13**
Saidova Mukhayyo Umedilloyevna, Sayfiyeva Madina Saydullo qizi	THE ROLE OF HYPONYMIC AND MERONYMIC RELATIONS IN THE FORMATION OF LEXICAL COHESION IN ENGLISH LITERARY DISCOURSE AND THEIR IMPACT ON COHERENCE	**19**
Ismatullayeva Sevinch	THE FATE OF THE NATION AND THE ISSUE OF EDUCATION IN CHOLPON'S STORIES	**28**
Jurakholova Bahora Qurbonboyevna	"WIFE-THING" CONCEPTUAL METAPHOR'S COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS IN PROVERBS OF THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES	**31**
Adygezalova Malika Nadir gizi	CULTURAL DIALOGUE IN THE DRAMATURGY OF HUSEYN JAVID (A CASE STUDY OF THE PLAYS "THE ABYSS" AND "MARAL")	**46**
Erkinjonova Sadoqat Abdurazzoq qizi	FORMAL AND SUBSTANTIVE COMMONNESS IN THE POETRY OF ROZI KADIRIY	**66**
Mavlyanova Gulnara Shavkatovna	THE FUNCTIONAL-STYLISTIC ROLE OF FOLK ETYMOLOGY IN THE WORKS OF N.S.LESKOV	**101**
Karimova Gulnoza Davronovna	GENDER DISCOURSE IN NATIONAL TELEVISION	**122**
Jonkhurozova Munojaat Dilmurod qizi	THE SYSTEM OF LYRIC IMAGES IN THE POETRY OF SA'DULLA HAKIM AND THEIR ARTISTIC EXPRESSION	**126**
Shoniyozova Gulshoda Bakhromovna	THE RELATIONSHIP BETWEEN PRESUPPOSITION AND PUNCTUATION MARKS	**135**
Saidova Mukhayyo Umidullayevna, Tursunova Sarvinoz Gafurovna	PRAGMATIC AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF ENUMERATION AS A STYLISTIC DEVICE IN ENGLISH MEDIA DISCOURSE	**138**
Nematova Oygul Jamshid qizi	COGNITIVE FRAMES IN NAMING: MOTIVATION PATTERNS IN ENGLISH AND UZBEK ANTHROPONYMS	**143**
Muratova Nafisa Bakhtiyarovna	ILLOCUTIVE CHARACTERISTICS OF SPEECH ACTS OF WISHES AND CONGRATULATIONS	**159**
Jumaboyeva Aziza Baxtiyor qizi	LINGUISTIC UNITS EXPRESSING THE MEANING OF POSITIVE WISHES RELATED TO CHILDBEARING IN THE UZBEK DIALECTS OF KHOREZM REGION	**170**
Hamrayeva Nafisa Yunus qizi	INTERPRETATION OF UNSEEN SYMBOLS IN ALISHER NAVOI'S WORK "KHAMSA"	**177**
Norkobilova Farzona Azizovna	INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE PROPHET SOLOMON IN TURKISH LITERATURE OF THE 14TH–15TH CENTURY	**180**
Boymurotova Umida Ilhom qizi	LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "HAPPINESS" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	**210**
Abdiev Azamat Turǵanbaevich,	THE USE OF ARTISTIC DEVICES IN THE EPIC "SAYATXAN-HÁMRE"	**228**

Shernazarova Guljamal Ansatbaevna		
Egamberdiyev Ravshanbek Turdimuratovich	METAPHOR WITHIN A METAPHOR	**256**
Hakimova Nasiba Alisher qizi	THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN LANGUAGE EDUCATION: THEORETICAL APPROACHES	**260**
Akhmedova Zebiniso Jumakulovna	TABOOS ASSOCIATED WITH TOTEMS AMONG TURKIC PEOPLES	**264**
Gaipova Hilola Khamrobek qizi	THE FUNCTIONAL-STYLISTIC POTENTIAL OF INCOMPLETE SENTENCES IN THE LYRICS OF CONTEMPORARY RUSSIAN POETS	**296**
Nusratilloyeva Dilnoza	THE QUATRAIN GENRE IN MODERN UZBEK POETRY: A CASE STUDY OF SHUKUR KURBON'S WORK	**303**
Rustamova Shoira Egamberganovna	ON THE CREATIVE ACTIVITY OF THE LITERARY SCHOLAR HAMDAM ABDULLAYEV	**341**
Dusanova Tozagul Rasulovna	UNIQUE AND INCOMPARABLE IN BOTH APPEARANCE AND ESSENCE	**344**
Abduvalieva Dilnoza Akramovna	SCHOLARLY VIEWS ON THE PERIOD OF COMPOSITION, AUTHORSHIP, AND PLACE OF ORIGIN OF THE WORK "NAHJ AL-FARADIS"	**366**
Jonibekova Dono	SERVICE DOCUMENTS AND THE CREATION OF THEIR TEXT TEMPLATES	**371**
Khujakulova Maryam Khakimjonovna	REFLECTION OF AGE LIMIT IN FEATURE FILM TITLES (IN THE EXAMPLES OF ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN)	**382**
Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi	THE USE OF COLOR ADJECTIVES IN THE WORKS OF ALISHER NAVOIY	**387**
Otarova Tursingul Jetkerbay qizi	ECOLOGY AND ECOLOGICAL LITERARY STUDIES (ECOCRITICISM) IN WORLD LITERATURE	**400**
Toshxonova Muborak Sur'at qizi	THE REFLECTION OF MEANING IN THE ENGLISH TRANSLATION OF ALISHER NAVOI'S GHAZAL: AN ANALYSIS OF A GHAZAL	**404**
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna. Khayrulloyeva Azizabonu Tojiddinovna	COMPARATIVE COGNITIVE ANALYSIS OF CLOTHING LEXICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK	**408**
Qodirov Rafail Nurmaxmadovich	CIVILIZATIONAL FOUNDATIONS OF EAST–WEST LITERARY AND CULTURAL RELATIONS: IN THE CONTEXT OF FRANCE–UZBEKISTAN RELATIONS	**411**
Abdujalilov Abdukamol Abdumutalovich	TYPES AND CLASSIFICATION OF MOTIVES IN FAIRY TALES	**418**
To'xtanazarova Dilnoza Geroyjon qizi	NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN UZBEK POETRY: POETIC INTERPRETATION	**422**
Rahmatova Hulkar Solijon qizi	A STUDY OF THE TRANSLATIONS OF THE "BABURNAMA" INTO FOREIGN LANGUAGES	**428**
Matkarimov Saparboy Rajabovich	LEXICAL EQUIVALENCE IN GHAZAL TRANSLATION	**432**
Ibragimova Munojjot Anvar qizi	LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF IMPERATIVE MOOD IN UZBEK AND ENGLISH	**439**
Ruzimova Onajon Komil qizi	WAR AND INTERNAL CONFLICT: A PSYCHOANALYTIC INTERPRETATION OF ARTISTIC IMAGES	**448**
Zaripboyeva Nazokat Maratovna	THE EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE APPROACHES IN TEACHING LITERARY WORKS BASED ON GENDER ANALYSIS	**451**
Makhmudova Diyora	THE ABSURD ESSENCE OF WAR IN THE WORKS OF S. ALEXIEVICH AND U. HOSHIMOV	**455**
Kayumberdiyeva Nurjakhon	APPROACH TO THE ISSUE OF PERIODIZATION OF MODERN UZBEK POETRY	**461**
Bobokhonova Durdona Ermamat qizi	POETIC DISCOURSE IN THE NOVELS "DAYS GONE BY" AND "YALDO'S NIGHT": A COMPARATIVE ANALYSIS	**467**
Askarova Shakhnoza Ismailovna	A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF INTERFERENCE IN THE L1–L2–L3 SYSTEM (UZBEK–ENGLISH–GERMAN LANGUAGES)	**474**
Toshboyeva Durdona Fayzi qizi	INNOVATIVE METHODS IN TEACHING KOREAN AS A FOREIGN LANGUAGE: A MODERN PEDAGOGICAL APPROACH	**480**
Khamrayeva Anora Abdusattorovna	THE REVELATION OF SOCIAL PROBLEMS IN SOCIETY THROUGH THE IMAGE OF A CREATIVE PERSONALITY IN THE NOVEL "WHERE THERE IS LIGHT, THERE IS SHADOW"	**483**
Mukhamedkhodjayeva Sanobar Abdujalilovna	METHODS OF REFERRING TO QUR'ANIC VERSES AND HADITHS IN THE WORK "NAVOBIG'U-L-KALIM"	**486**

Kurganov Anvarjon Mukhtorovich	THE EXPRESSION OF MILITARY TERMS IN ENGLISH AND UZBEK AS LINGUOCULTURAL UNITS	**490**
Rasulov Zubaydilla Izomovich, Shodiyeva Dilshoda Sultonovna	INTERPRETATIONAL PATTERNS OF EVENTS AND PHENOMENA	**497**
Gulsanam Maksutovna Norova	ISSUES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE UZBEK LANGUAGE: DIALECTOLOGICAL LEXICOGRAPHY AND THE PROBLEM OF DIALECT DICTIONARY COMPILATION IN LINGUISTICS	**500**
Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi	A LINGUISTIC STUDY OF COMMERCIAL DISCOURSE ON INTERNET PLATFORMS	**515**
Muhammadiyeva Charos Asatullo qizi	PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF SIROJIDDIN SAYYID'S EPIC "THE EIGHTIES": REFLECTION OF THE SPIRITUAL STATE OF THE YOUNG GENERATION DURING THE PERIOD OF STAGNATION	**524**
Zaripboyeva Zarifa Maratovna	TRADITIONAL AND MODERN APPROACHES TO VOCABULARY ACQUISITION IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING	**537**
Xajiboyev Kishin	REALISTIC DEPICTION FEATURES IN REPRESENTING NATURE IN THE WORKS OF ERKIN SAMANDAR	**543**
	12.00.00. - "LEGAL SCIENCES"	
Nasrullayev Shahobiddin Jumaboyevich	SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON THE LEGAL NATURE OF STATE SUBSIDIES IN THE FIELD OF EMPLOYMENT	**10**
Khamraqulov Lochinbek Erkinjonovich	CRIMINAL AND LEGAL DESCRIPTION OF LITIGATION: PROBLEMS OF THE OBJECT AND SUBJECT OF THE CRIME	**84**
Davlatov Bahodir Akbar o'gli	THE ROLE OF INTERNAL CONTROL DEPARTMENTS IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN STATE BODIES OPERATING IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (COMPLIANCE CONTROL)	**118**
Kurbanbaev Rustam	MEDIATION AND SETTLEMENT AGREEMENT – THE MOST ACCEPTABLE SOLUTION TO DISPUTE RESOLUTION FOR THE PARTIES	**154**
Sultanov Tahir Rahimberganovich	LEGAL AND REGULATORY MECHANISMS OF SOCIAL PROTECTION FOR INTERNAL AFFAIRS OFFICERS	**189**
Mamurov Firdavs Sidikjon ogli	BRINGING OF CHARGES IN THE CRIMINAL PROCEDURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: LEGAL NATURE, FUNCTIONS, AND SIGNIFICANCE AT THE PRE-TRIAL STAGES	**396**
Berdakh Jienbaev Kalbay ugli	LAW AND PRACTICE: LEGAL GAPS IN THE REGULATION OF SAXAUL USE IN THE SOUTHERN ARAL SEA REC AND WAYS TO ELIMINATE THEM	**442**
	13.00.00. - "PEDAGOGY"	
Sherzodjon Uktamovich Khudaykulov	THE CONTENT AND PRINCIPLES OF SELECTING NSTRUCTIONAL MATERIALS FOR TEACHING ENGLISH TO UPPER-SECONDARY STUDENTS: CURRICULUM AND TEXTBOOK ANALYSIS	**16**
Hamroeva Sanobar Hasan qizi	MODERN CRITERIA AND METHODS FOR ASSESSING AND DIAGNOSING STUDENTS' MEDICAL-TECHNICAL KNOWLEDGE	**34**
Jurabekova Madina Jumanazar qizi	PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND LINGUDIDACTIC FEATURES OF DEVELOPING MOTIVATION TO LEARN ENGLISH	**41**
Khasanova Vazira Khamidzhanovna	NATIONAL VALUES AS THE BASIS OF EDUCATIONAL CONTENT	**43**
Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna	PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CONGRUENT ABILITIES OF FUTURE TEACHERS BASED ON A PROJECT-BASED APPROACH	**59**
Rakhmanova Sarvinoz Alisherovna	MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF SPEECH ACTIVITY IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES	**76**
Kholbozarova Nasiba Kholbozar kizi	METHODOLOGICAL MODEL OF DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL INTELLECTUALITY BASED ON A PERSONALIZED APPROACH	**89**
Kholbozarova Nasiba Kholbozar kizi	METHODOLOGY OF ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITY IN DEVELOPING PEDAGOGICAL INTELLECTUALITY	**92**
Karimova Dilnoza Abdurakhimovna	CHANGING THE VALUE ORIENTATIONS OF YOUNG PEOPLE DURING THE DIGITIZATION PERIOD	**95**
Aminova Dilrabo. Sattarova Gulnoza	THE REPUTATION OF FOLK STAGE DANCE ON THE INTERNATIONAL STAGE	**106**

Samadova Sarvinoz Samad kizi	MAHMUDKHOJA BEHBUDIY'S SCHOLARLY HERITAGE AND HIS CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM	**200**
Akhmedova Shakhlo Shokhob kizi	THE ESSENCE AND POSSIBILITIES OF USING THE COGNITIVE MODELING METHOD IN THE LEARNING PROCESS	**203**
Yuldashev Askarjon Abdugappar o'g'li	FACTORS IN THE FORMATION OF MAHMUDHOJA BEHBUDIY'S ENLIGHTENMENTAL VIEWS	**206**
Juraeva Mahliyo Rashidovna	THE EFFECTIVENESS OF TEACHING ENGLISH FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	**232**
Mamatkulova Nilufar Fayzullakulovna	A SYSTEM OF EXERCISES FOR ENHANCING STUDENTS ECOLINGUISTIC COMPETENCE BASED ON THE CREAM STRATEGY	**243**
Xudayorova Muhayyo Omonboy qizi	DIDACTIC POSSIBILITIES OF CREATING LEARNING ASSIGNMENTS	**278**
Nabiyeva Gavkhar Gayratovna	ART-THERAPEUTIC POSSIBILITIES AND METHODICAL EFFECTIVENESS OF LEARNING ENGLISH IN A HOSPITAL SETTING	**288**
Djurabekov Elmurod Tuxtamurodovich. Ruzibayeva Munira Eshbayevna	THE INTEGRATION OF NEUROPEDAGOGICAL AND HEALTH-IMPROVING EXERCISES IN ENHANCING THE INTELLECTUAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM	**317**
Khudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li	TRANSFORMATIONAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SCIENTIFIC RESEARCH ACTIVITY	**359**
Nosirova Rano Khamidovna	ADAPTIVE-DIDACTIC SYSTEM FOR DEVELOPING METACOGNITIVE COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS: THEORY AND PRACTICE	**379**
Normahamatova Inoyatkhon Makhmudovna	THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COOPERATIVE PEDAGOGY IN LITERARY EDUCATION	***425***
Sagatova Dilrabo Baxodir qizi	METHODOLOGY FOR VISUALIZING ARTISTIC IMAGES AND POETIC REPRESENTATIONS THROUGH PROMPT TECHNOLOGY IN LITERATURE CLASSES	**477**
Ozoda Bakhramovna Mallaeva	METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN UNIVERSITIES NOT SPECIALIZING IN FOREIGN LANGUAGES	**494**
Kurbanova Sevara Asanbayevna	REASONS FOR THE DECLINE IN STUDENTS' MOTIVATION TO LEARN AND PEDAGOGICAL METHODS FOR ELIMINATING THEM	**527**
	19.00.00. - "PSYCHOLOGY"	
Elmurodova Sohiba Shokir qizi	THE DEGREE OF STUDYING THE SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF VIOLENCE IN FAMILY RELATIONS IN UZBEKISTAN PSYCHOLOGY	**63**
Mardiyeva Shakhnoza Amirovna	THE RELATIONSHIP BETWEEN ACADEMIC PROCRASTINATION IN STUDENT AND THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT	**150**
Jabborov Jamshid Azimovich	IMPROVING THE MORAL EDUCATION OF ADOLESCENTS AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM	**236**
Matkarimova Muqaddas Kamilovna	THE INFLUENCE OF SPORTS GAMES ON THE COGNITIVE AND CREATIVE PROCESSES OF ADOLESCENTS	**375**
Toshkanova Sevinch Jabborova Malohat Azimovna	COGNITIVE PROCESSES AND THEIR IMPACT ON STUDENTS' LEARNING ACTIVITY	**540**

“TAMADDUN NURI” / THE SCIENTIFIC JOURNAL “LIGHT OF CIVILIZATION / “ЛУЧ ЦИВИЛИЗАЦИИ” JURNALI HAQIDA

Jurnal OAK Rayosatining 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro‘yxatga ko‘ra (asos: https://oak.uz/userfiles/files/Perechen-2019.pdf)
07.00.00 – “Tarix”
09.00.00 – “Falsafa”
10.00.00 –“Filologiya” ixtisosligi bo‘yicha;
OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan (asos: https://oak.uz/pages/4802)
12.00.00 – “Yuridik fanlar”
13.00.00 – “Pedagogika”
19.00.00 – “Psixologiya”
ixtisosliklari bo‘yicha falsafa doktorlari (PhD) va fan doktorlari (DSc) ilmiy darajalarni olish uchun dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Nashr etilgan maqolalar quyidagi bazalarda indekslanadi:
- Google scholar 100%
-Crossref 100%
- ORCID tizimi bilan integratsiya qilinadi 100%
- Yuqori Impakt faktorga ega: - 9.347
ResearchBib (asos: https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-8258)
Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a’zosi:
10.69691 DOI prefiksiga ega
- Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beradi.
- ISSN-2181-8258

Mazkur ilmiy jurnal yiliga 12 marta (1 oyda bir) chop qilinadi. Maqolalar o‘zbek, ingliz, rus, nemis tillarida IMRAD talabida qabul qilinadi. Maqolani Antiplagiat.uz sayti orqali plagiatga tekshirib tekshiruv natijasi bilan birga yuboriladi.

Maqolada keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va to‘g‘riligiga mualliflar javob beradi. Ilmiy etikaga rioya qilinganlik uchun javobgarlik mualliflar zimmasida. Tahririyat maqolalarni tahrir qilish va qisqartirish huquqiga ega. Talab darajasida rasmiylashtirilmagan maqolalar jurnalda e’lon qilinmaydi. Maqola mualliflariga tahririyat qo‘lyozmalarni qaytarish va yozma javob berish majburiyatini olmaydi.

Maqolalarni taqrizlash:
-Talablarga mos ishlar taqrizga yuboriladi;
- Ijobiy taqrizdan o‘tgan maqolalar nashr qilinadi.

Jurnal sayti: https://tamaddunnuri.uz
Bog‘lanish: Tel: +998 97 355 75 40; 998 88 036 00 55;